

**UO'K: 821.512.133**

**KBK: 84 (4Fr)**

**D-95**

**Dyuma Aleksandr.** Graf Monte-Kristo (If qal'asining mahbusi). Roman. Ruschadan T.Rustamov tarj. Ikkinchi kitob. –T.: "Yangi asr avlodi", 2013. – 696 b.

ISBN 978-9943-08-965-5

"Graf Monte-Kristo" keng kitobxonlar e'tiborini qozongan asardir. Unda insoniylik, shaxs erkinligi va tuyg'ular go'zalligi ulug'lanadi. Qing'ir ishning qiyig'i qirq yildan keyin bo'lsa-da chiqishi o'z ifodasini topadi. Qahramonlar o'rtasidagi mehr-oqibat va ziddiyatlar muallifning nihoyatda kuzatuvchan va mohirligini namoyon etadi.

Asar bosh qahramoni Edmon Dantes – Monte Kristo razolat botqog'iga botgan insonlarni zo'r matonat, aql-idrok bilan fosh etadi. Jazo ham, mukofot ham Allohning irodasi bilan inson tirikligidayoq uni benasib qoldirmasligi roman nihoyasida aksini topadi. Faqat buning uchun... Graf ta'kidlaganidek, "kutmoq va umid qilmoq kerak".

**UO'K: 821.512.133**

**KBK 84 (4Fr)**

Rus tilidan  
**To'lqin Rustamov**  
tarjimasi

ISBN 978-9943-08-965-5

© Aleksandr Dyuma, Graf Monte-Kristo (If qal'asining mahbusi). Ikkinchi nashr. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974 y. «Yangi asr avlodi», 2013 y.

# Шүртинчи Қисм



## I. JANOB NUARTE DE VILFOR

Danglar xonim bilan qizi jo'nab ketgandan so'ng, Maksimilian bilan Valentina o'rtasida bo'lib o'tgan suhbat paytida qirollik prokurori uyida mana bunday voqea bo'lgan edi.

Vilfor rafiqasi bilan otasining xonasiga kirdi. Valentinaga kelganda, uning qayerdaligi bizga ayon.

Ular chorak asrdan ko'proq Nuartening xizmatini qilib kelayotgan kekxa qiroq Barruani tashqariga chiqarib yuborib, chol bilan salomlashgach, o'tirishdi.

Nuarte g'ildirakli katta o'rindiqda o'tirardi. Uni bu o'rindiqqa har kuni ertalab o'tqazib, kechqurun ko'tarib olishardi. Uning to'g'risiga toshoyna qo'yilgan edi, oynadan xona ichi yaqqol ko'rinib turardi, hatto qimirlamay, zero, bunga imkoni ham yo'q edi, oldiga kim kirib, kim chiqayotganini, atrofida nimalar bo'layotganini ko'rib turardi. Murdaday qimir etmay o'tirgan Nuarte, mulozamat bilan salomlashishlari bironta rasmiy va nogahoniy voqeadan darak berayotgan farzandlariga tetik va aqli ko'zlarini tikdi.

To'rtidan uch qismi qabr yoqasida turgan bu vujudda ikki cho'g'dek miltillab turgan mavjud hislar – ko'rish va eshitish edi, xolos. Bu ikki hisdan ham yolg'iz birigina hali harorat bor jasadda ichki hayot mavjudligiga guvoh bo'la olardi. Bu ichki hayotni ifoda etuvchi nigoh sahroda adashib qolgan sayyohga tunda yo'l ko'rsatuvchi olisdagi chiroqdek bu zulmat va sukunat qa'rida qayerdadir sergak, jonli jonzot borligidan darak berardi.

Biroq kekxa Nuartening o'siq qora qoshlari ostidagi qora ko'zlarida, aksincha elkalariga o'sib tushgan uzun

sochlari paxtadek oppoq edi, ha, qora ko'zlarida – bir vaqtlarda uning vujudi va ruhini junbushga keltirgan boshqa a'zolar hisobiga zo'raygan omon a'zoda bo'ladigandek, butun kuch-g'ayrat, barcha iroda, quvvat va aql mujassamlashgan edi. Albatta, bu tanda qo'llar harakati, tabiiy ovoz, vujud harakati etishmas, ammo bu hukmron nigoh barchasining o'rnini bosardi. Ko'zlar amr qilar, ko'zlar minnatdorchilik bildirardi; bu – ko'zlarigina tirik bo'lgan o'lik jasad edi; yuzining yuqori qismida qahr va shodlik charaqlab yotgan damlarda hech narsa bu marmar chehra qadar dahshatli bo'lmas edi. Baxtsiz cholning imo-ishoralarini faqat uch kishi – Vilfor, Valentina va boya tilga olganimiz kekxa qarol tushunardi, xolos. Biroq Vilfor otasini juda kamdan-kam, faqat biror zarurat tug'ilgan vaqtlardagina ko'rar va ko'rganda ham unchalik ro'yxush bermasdi, shuning uchun ham cholning butun baxti, quvonchi Valentina edi. Valentina esa fidoyilik, mehr-muhabbat va qunt bilan Nuartening nima demoqchi ekanligini ko'zlaridan bilib olishga o'rgangan edi. Uning hech kim tushunolmaydigan «so'zlariga» jarangdor ovozi-la ehtiros bilan jon-jon deb javob qilardi, shu zaylda yosh qiz bilan hamon aql-idrok, zakovat va kuchli irodaga to'la murda o'rtasida qizg'in suhbat boshlanib ketardi.

Shunday qilib, Valentina og'ir masalani – cholning fikrlarini bilish va o'z fikrlarini unga tushuntirish masalasini echishga muvaffaq bo'ldi. Shu bilarmonligi oqibatida bu tirik jon yoki yarim murda cholning iker-chikir istaklarini deyarli to'liq anglamagan vaqtlari bo'lmasdi.

Barruaga kelsak, hali aytib o'tganimizdek, yigirma besh yildan beri hojasining xizmatini qilib kelayotgani uchun uning odatlarini shu qadar yaxshi bilar ediki, Nuartening undan biron narsa iltimos qilishiga deyarli o'rin ham qolmasdi.

Vilfor otasi bilan g'alati suhbatni boshlash uchun hech kimning ko'magiga muhtoj emasdi. Yuqorida aytganimizdek, u otasi bilan gaplashish yo'lini yaxshi bilardi, chol bilan kamdan-kam suhbatlashishining sababi esa, ota

taqdiriga butunlay beparvolik bilan qaragani edi. U Valentinani boqqa jo'natib, Barruani chiqarib yubordi-da, otasining o'ng tomoniga o'tirdi, Vilfor xonim esa cholning chap tomoniga cho'kdi.

– Janoblari Valentinaning biz bilan birga kelmagani va Barruani chiqarib yuborganimdan taajjublanmasinlar, o'rtamizda bo'ladigan suhbatda qizim yoki qarolning qatnashishi mumkin emas. Biz Vilfor xonim bilan sizni muhim bir narsadan xabardor qilgani keldik.

Suhbatning bu muqaddimasi vaqtida Vilfor cholning yuziga tikilib, yuragiga qo'l solmoqchi bo'ldi, ammo Nuartening yuzida hech qanday o'zgarish sezilmadi.

– Biz, Vilfor xonim va men, – davom etdi qirollik prokurori odatdagidek e'tirozga o'rin qolmaydigan sovuq ohangda, – siz bu xabarni xayrixohlik bilan kutib olishingizga aminmiz.

Cholning ko'zlari hamon bir nuqtaga tikilib, qimir etmay turardi, u bu gapga shunchaki quloq solayotgandek ko'rinardi.

– Biz Valentinani turmushga chiqaryapmiz, – dedi so'zini davom ettirib Vilfor.

Bu so'zlar har qanday odamning qalbini tirnashi mumkin edi-yu, ammo cholning yuzi zarracha ham o'zgarmadi.

– Uch oydan so'ng to'y bo'ladi, – davom etdi Vilfor.

Cholning ko'zlari hamon bezrayib turardi.

Shu payt Vilfor xonim so'z qotdi:

– Biz, – dedi u shosha-pisha gap qotib, – bu xabar sizni qiziqtirar deb o'ylagan edik. Qolaversa, menimcha, siz Valentinaga juda bog'lanib qolgansiz. Biz endi sizga faqat bo'lajak qayliqning nomini aytib berishimiz kerak, xolos. Kuyov bo'lmish Valentina orzu qilgandek munosib yigit bo'lib, uning nomi sizga ham tanish, yaxshi va baddavlat oiladan, turmush tarzi va didi Valentina uchun baxtgarovi bo'la oladi. U Frans de Kenel, baron d' Epine.

Rafiqasi shu qisqa so'zlarni izhor etar ekan, Vilfor cholning yuziga yana ham qattiqroq tikilib qolgan edi.

Vilfor xonim Frans nomini tilga olgan hamono o'g'liga yaxshi tanish bo'lgan nimadir bir pирpiradi-da, xuddi bir narsa demoqchi bo'lib juftlangan lablardek qovoqlari orasi chaqmoqdek yalt etdi.

O'z otasi bilan Fransning otasi o'rtasida bir vaqtlar mavjud oshkora dushmanlikdan xabardor bo'lgan Vilfor Nuartening ko'zlaridagi hayajon alomatini fahmladi, biroq u o'zini hech narsa sezmaganga soldi-da, xotinining so'zini davom ettirib dedi:

– O'zingiz yaxshi bilasiz, janob, yaqinda Valentina o'n to'qqizga to'ladi, endi turmush qurishi kerak. Biz bu masalani o'ylaganda sizni ham unutmadi va Valentining erini, biz bilan birga turmagudek bo'lsa (bu yosh kelin-kuyovni bir oz siqib qo'yishi mumkin-da) sizni ular bilan birga yashashga ko'ndirishga ahd qildik. Axir Valentina sizni jonidan ham yaxshi ko'radi-ku, siz ham unga boshqacha mehr qo'ygansiz. Shunday qilib, sizning turmushingizda hech qanday o'zgarish bo'lmaydi. Hammasi ilgari gidek qolaveradi, bunda faqat birgina narsa o'zgaradi, u ham bo'lsa sizni bir emas, ikki farzand parvarish qiladi.

Nuartening chaqnab turgan ko'zlariga qon to'ldi.

Aftidan, cholning ko'nglida dahshatli bir hol yuz berdi, dil azobi va nafrat qalbida yondi-yu, sirtiga otilib chiqishga yo'l topolmay, bo'g'ziga tiqildi, yuzi qizarib, lablari ko'karib ketdi.

Vilfor ohistagina derazani ochib:

– Bu er juda dim, shuning uchun janob Nuarte nafas olishga qiynalyapti, – dedi.

So'ng u o'z joyiga qaytib, tik turib qoldi.

– Ikki yoshning bir yostiqqa bosh qo'yishi, – dedi qo'shimcha qilib Vilfor xonim, – janob d' Epinega va uning qavm-qarindoshlariga ma'qul tushibdi. Uning amakisi va ammasidan boshqa hech kimi yo'q. Onasi uni tug'ayotganda vafot etgan, otasi esa u endigina ikki yoshga kirganda, bir ming sakkiz yuz o'n beshinchi yili o'ldirilgan ekan. Shunday qilib, u o'ziga xon, o'ziga bek.

– Otasining o'ldirilishi maxfiy bo'lib, aybdorlar topilmadi, – dedi Vilfor, – ko'p kishilar shubha ostiga olindi-yu, ammo hech kim qamalmadi.

Nuarte ovoz chiqarishga urinib kuchandi, xuddi kulmoqchidek lablari qiyshayib ketdi.

– Shunday bo'lsa-da, jinoyatchi kim ekanligini bila turib indamay ketgan haqiqiy aybdorlar tirikligida insoniy odil sud, o'lgandan so'ng esa, ilohiy sud kursisida o'tirishga mahkum etilganlar sizning o'rningizda bo'lib, qizini Fransga erga berish imkoniyatidan foydalanib, hamma shubha, gumonlardan soqit bo'lsa, boshi osmonga etar edi.

Nuarte butun irodasini qo'lga olib o'zini bosdi, bunalik kuchli irodani bechora falajdan hech kim kutmangandi.

– Ha, menga nima demoqchi ekanligingizni tushunib turibman, – der edi cholning Vilfora tikilib turgan ko'zlarini, uning qarashlarida nafrat va g'azab aks etib turardi.

Bunga tushunib turgan Vilfor elkasini qisib qo'ydi. So'ng u rafiqasiga imo qilib, o'rnidan turishni buyurdi.

– Endi, – dedi Vilfor xonim, – bizga ruxsat bering. Eduar huzuringizga kirib, siz bilan salomlashsa maylimi?

Chol biror taklifga rozi bo'lsa ko'zini yumardi, rad etsa ko'zlarini pirpiratib qisardi, biror tilak izhor etmoqchi bo'lsa yuqoriga qarardi, bu haqda ilgaridan kelishib olingan edi.

Mabodo Valentinani ko'rmoqchi bo'lsa, u faqat o'ng ko'zini yumardi.

Agarda Barruani chaqirmoqchi bo'lsa, chap ko'zini yumardi.

Vilfor xonimning taklifini eshitib, chol hadeb ko'zlarini qisaverdi.

Vilfor xonim taklifi ochiqdan-ochiq rad etilayotganini ko'rib, lablarini tishladi.

– Unday bo'lsa, huzuringizga Valentinani yuboraman, – dedi xonim.

– Ha, – dedi unga javoban chol, ko‘zlarini yumib. Erxotin ta‘zim qilib chiqib ketishdi-da, Valentinani chaqirishni buyurishdi. Kunduzi buvasiga zarur bo‘lib qolishi ehtimolligi qizga ilgari aytib qo‘yilgan edi.

Hamon hayajondan qizarib-bo‘zarib yurgan Valentina chol huzuriga kirib keldi. U bir qarashdayoq bobosining dili ozor chekayotganini va u bilan so‘zlashish ishtiyoqida ekanini fahmladi.

– Buva, nima bo‘ldi? – dedi Valentina xitob qilib, – xafa qilishdimi? Jahlingizni chiqarishdimi?

– Ha, – javob qildi chol ko‘zlarini yumib.

– Kimdan xafa bo‘lyapsiz? Otamdanmi? Yo‘q. Vilfor xonimdanmi? Yo‘q. Mendanmi?

Chol imo bilan «ha», dedi.

– Mendan-a? – qayta so‘radi taajjublangan Valentina. Chol yana tasdiq ishorasini qildi.

– Men nima yomonlik qildim, a, buva? – dedi Valentina xitob qilib. Chol javob qilmadi. Qiz davom etdi:

– Men bugun sizning huzuringizga kirmadim, demak, sizga men haqimda biror narsa deyishibdi-da?

– Ha, – shoshib javob qildi cholning ko‘zlari.

– Nima deyishlari mumkin. Ha, bildim, bildim... Buva, xotirjam bo‘ling... Hali gap shunday deng! Janob Vilfor va Vilfor xonim hozirgina huzuringizda bo‘lishgan edi shekilli, to‘g‘rimi?

– Ha.

– Demak, ular biror noxush gap aytib, sizni xafa qilibdi-da? Qanaqa gap ekan u? Istasangiz borib ulardan so‘rayman, nima gapligini va sizdan nima uchun uzr so‘rashim kerakligini bilib olaman.

– Yo‘q, yo‘q, – javob qildi cholning ko‘zlari.

– Siz meni vahimaga solyapsiz! Xo‘sh, nima deyishlari mumkin, axir?

Valentina o‘ylanib qoldi.

– Ha, topdim, – dedi u ovozini pasaytirib va cholga yaqinlashdi, – ehtimol ular mening turmushga chiqishim haqida sizga gapirishgandir?



– Ha, – dedi g'azabli ko'zlar.

– Mening indamaganligimdan xafa bo'layotganligingizga tushundim. Shuni aytayki, ular sizga bu haqda biror so'z aytishimni qattiq taqiqlab qo'yishdi, menga ham hech narsa deganlari yo'q; men bu sirni to'satdan bilib qoldim. Sizga buni ochiq aytmaganimning boisi ham shunda. Kechiring meni, buva.

Yana jonsiz va loqayd holga tushib olgan ko'zlar: «Mening xafa qilayotgan narsa faqat sening indamayotganinggina emas», deganday bo'lardi.

– Bo'lmasam nima? – so'radi Valentina. – Yoki turmushga chiqib, meni tashlab ketadi, unutib yuboradi deb o'ylayapsizmi?

– Yo'q, – deb imo qildi chol.

– Yoki ular sizga janob d' Epine biz bilan birga turishga rozi deyishdimi?

–Ha.

– Nega siz bundan xafa bo'lasiz?

Birdan cholning ko'zlari mehr-shafqat-la yonib ketdi.

– Ha, bilaman, – dedi Valentina, – siz meni yaxshi ko'rasiz-da, shundaymi?

Chol imo bilan «ha», dedi.

– Meni baxtli bo'lmaydi, deb qo'rquyapsizmi?

– Ha.

– Fransni yoqtirmaysizmi?

Cholning ko'zlari bir necha bor: «Yo'q, yo'q, yo'q», deb javob qildi.

– Bu gaplar dilingizga ozor beryaptimi?

– Ha.

– Unday bo'lsa, shuni bilib qo'yingki, – dedi Valentina, Nuarte oldida tiz cho'kib va uni bo'ynidan quchoqlab, – mening ham bag'rim qonga to'ldi, men ham Frans d' Epineni sevmayman.

Boboning ko'zlarida quvonch uchqunlari chaq nab ketdi.

– Monastirga ketaman deganimda mendan xafa bo'lgandingiz, esingizdami?

Cholning qovjiroq qovoqlari ostidan yosh oqa boshladi.

– O’shanda men mana shu mash’um nikohdan qutulish uchun monastirga ketmoqchi bo’lgandim.

Chol og’ir-og’ir nafas ola boshladi.

– Demak, bu nikoh haqidagi gaplardan xafa bo’lyapsizmi? Qaniydi, endi siz menga yordam bersangizu birgalashib ularning bu rejalarini yo’qqa chiqarsak! Siz aqli raso va irodasi kuchli zotsiz, ammo ularga qarshi kurashda ojizlik qilasiz. Mana, hozir kurashadigan payt keldi, ammo siz ham men kabi ojizsiz. Sog’lom, baquvvat paytingizda meni himoya qila olgan edingiz, endilikda esa faqat hol-ahvolimni anglash-u, quvonch va qayg’umga sherik bo’lishgina qo’lingizdan keladi. Tangrim faqat mana shu baxtdan meni mahrum qilmagan, xolos.

Bu so’zlarni eshitgan Nuarterning ko’zlarida zo’r kinoya alomatlari paydo bo’ldi, qiz, bobo: «Sen yanglishayapsan, men hali senga juda ko’p yordam berishim mumkin, deyapti», deb o’yladi.

– Buva, siz menga qanday yordam berolasiz? – dedi Valentina cholning fikrini so’zda bayon qilib.

– Ha.

Nuarte ko’zlarini osmonga qaratdi. Bu Valentina bilan ikkalasi o’rtasida istakni izhor etadigan shartli imo edi.

– Nima demoqchisiz, buva? Ayting, men tushunishga harakat qilaman.

Valentina o’zi taxmin qilgan mulohazalarini ovoz chiqarib tasdiqlab olishga urinardi, ammo uning hamma so’zlariga chol nuqul «yo’q», deb javob beraverardi.

– Men shu qadar befahm ekanmanki, endi qat’iy chora ko’rishga o’tishdan boshqa ilojimiz qolmadi!

Valentina shunday dedi-da, falajning ko’zlariga tikilib, «A»dan «N» gacha alfavitning hamma harflarini birma-bir ayta boshladi. U «N» harfiga kelganda, Nuarte. «Ha, ana

---

<sup>1</sup> Pyupitr – Nota va shu kabi narsalarni qo’yish uchun yuzasi qiya qilib ishlangan maxsus moslama.

shu», deb imo qildi.

– A-ha! – dedi Valentina, – siz aytmoqchi boʻlgan soʻz «N» harfidan boshlanarkan-da, demak hamma gap «N» da ekan-da? Bu harfdan bizga nima kerak ekan? Na, ne, ni, no...

– Ha, ha, ha, – javob qildi chol.

– Demak, «no» soʻzi ekan-da, shundaymi?

– Ha.

Valentina lugʻat keltirib, Nuarte oldidagi pyupitrga<sup>1</sup> qoʻydi-da, ochdi, chol lugʻatning sahifalariga tikilib qolganini koʻrib, Valentina barmoqlarini yuqoridan pastga tez yurita boshladi.

Chol bundan olti yil ilgari ham xuddi hozirgidek ahvolga tushgan edi, shundan buyon Valentina u bilan suhbatlashish yoʻllarini oʻrganib oldi va uning nima demoqchi boʻlganini, cholning oʻzi axtarib topganday, tez fahmlab oladigan boʻlib qoldi.

«Notarius» soʻziga kelganda Nuarte: «Toʻxta!» deb imo qildi.

– «Notarius», – dedi Valentina, – siz notariusni koʻrmoqchi ekansiz-da, buva?

Nuarte chindan ham notariusni koʻrmoqchi ekanini bildirdi.

– Demak, notariusni chaqirtirib kelaylikmi? – soʻradi Valentina.

– Ha, – dedi imo bilan chol.

– Bundan otamni ham xabardor qilaylikmi?

– Ha.

– Notariusni tez koʻrmoqchimisiz?

– Hozir uni chaqirib kelishadi. Sizga faqat shugina kerakmi?

– Ha.

Valentina yugurib borib xizmatkorga qoʻngʻiroq qildi-da: «Janob Vilforni yoki Vilfor xonimni chaqiring», – dedi.

– Endi mamnundirsiz? – soʻradi Valentina, – albatta, mamnun boʻlasiz-da! Fikringizni bilib olish oson emas, axir!

Shunday dedi-da, xuddi yosh bolaga jilmayganday, bu-vasiga qarab kulib qo'ydi.

Xonaga Barrua Vilforni boshlab kirdi.

– Xo'sh, janoblari, ko'ngillari nimani istaydi? – so'radi u falajdan.

– Ota, – dedi Valentina, – buvam notariusni ko'rmoqchiman deyaptilar.

Mutlaqo kutilmagan bu talabni eshitgan Vilfor falaj bilan ko'z urishtirdi.

– Ha, – dedi chol qat'iyat bilan imo qilib; bu uning Valentina va hamma gapdan endilikda xabardor do'sti xizmatkor yordamida kurashga tayyor ekanini ko'rsatib turardi.

– Notariusni ko'rmoqchimisiz? – so'radi takroran Vilfor.

– Ha.

– Nima uchun?

Nuarte javob bermadi.

– Xo'sh, ayting-chi, notariusni nima uchun ko'rmoqchisiz? – so'radi Vilfor.

Nuarte bir nuqtaga tikilgancha turaverdi, bu: «Men notariusni chaqirishni qat'iy talab qilaman», degani edi.

– Biror narsa bilan ko'nglimizni ranjitish uchunmi? – dedi Vilfor. – Na hojat?

– Biroq, – dedi Barrua keksalarga xos qat'iyat bilan, – mening xo'jayinim notariusni ko'rmoqchi ekan, demak, uning keragi bor. Men notariusni chaqirib kelay bo'lmasa.

Barrua Nuartedan boshqa hech kimga bo'ysunmasdi va uning xohishlariga qarshilik ko'rsatishlarini istamasdi.

– Ha, men notariusni ko'rishni istayman, – dedi imo bilan ko'zlarini yumib chol, go'yo: «Mening talabimni bajarmay ko'rsinlar-chi», deganday.

– Agar siz qattiq turib talab qilarkansiz, unda notariusni chaqirtirib kelishadi, biroq men ikkimiz uchun ham undan uzr so'rashga majbur bo'lib qolaman, lekin bu kulgili bo'ladi.

– Mayli, nima bo’lsa bo’laversin, men uni chaqirib kelaman, – dedi Barrua.

Keksa qarol gerdayib chiqib ketdi.

## II. VASIYATNOMA

Barrua xonadan chiqib ketayotganida Nuarte nevarasiga mug’ambirona nazar bilan ma’nodor qarash qildi. Valentina cholning nega bunday qaraganini fahmladi. Vilfor ham buni fahmladi-da rangi oqarib, qoshlari chimirildi.

Vilfor kursini olib falaj qarshisiga o’tirdi-da, kuta boshladi.

Nuarte unga beparvo nazar tashlab, ko’z qiri bilan Valentinaga: «Xotirjam bo’lib o’tiraver», deb imo qildi. Oradan chorak kam bir soat o’tganda Barrua notariusni boshlab keldi.

– Janob, – dedi Vilfor u bilan salomlashib, – sizni mana bu Nuarte de Vilfor janoblari chaqirtirib keldi. Bu zotning butun tanasi falaj bo’lib, gapdan va harakatdan qolgan. Biz uning imo-ishoralaridan nima demoqchi ekanligini zo’r-bazo’r tushunib olamiz.

Nuarte nevarasi Valentinaga qattiq tikilib qaraganidan u darhol so’zga kirishdi:

– Janob, men buvam nima demoqchi bo’lsa, hammasini tushunaman.

– Bu to’g’ri, – dedi qo’shimcha qilib Barrua, – ipidan-ignasigacha, hammasini... Men ham buni yo’lda notarius janoblariga aytgan edim.

– Janoblar, ruxsat eting, – dedi notarius Vilfor va Valentinaga qarab, – bunday hollarda mansabdor shaxslar etti o’lchab, bir kesmoqlari darkor, yo’qsa xatoga yo’l qo’yishlari mumkin. Akt qonuniy bo’lmog’i uchun notarius dastavval unga farmon berayotgan kishining talabini, irodasini aniq bajarganligiga ishonch hosil qilmog’i lozim. Men tildan qolgan kishining roziligini yoki noroziligini qanday qilib aniqlay olaman. Uning nimani

istab, nimani istamayotganligini o'z og'zidan eshitmasdan, mening bu ishga aralashishimning foydasi yo'q, bu qonunga xilof.

Notarius chiqib ketmoqchi bo'ldi. Qirollik prokurori-ning lablarida sezilar-sezilmas g'olibona tabassum o'ynadi.

Nuarte Valentinaga teshib yuborgudek bo'lib tikilganidan, nevara yugurib borib notariusning yo'lini to'sdi.

– Janob, – dedi Valentina, – men buvam bilan juda oson gaplashaman, buning qiyinlik eri yo'q, bir necha daqiqada sizni uning imo-ishoralarini mendek yaxshi tushunib oladigan qilib o'rgatib qo'yaman. Ayting-chi, ko'nglingiz to'q bo'lishi uchun nima kerak sizga?

– Aktimizning qonuniy bo'lishi uchun rizolik yoki norizolik izhor etilganiga imonimiz komil bo'lmog'i lozim. Vasiyat qiladigan zotning tani jarohatda bo'lsa-da, aql-hushi raso bo'lmog'i shart.

– Unday bo'lsa, juda soz, ikki imo-ishorani ko'riboq buvamning aql-hushi shu onda har qachongidan sog' ekaniga ishonchingiz komil bo'ladi. Ovozdan va harakattan mahrum bo'lib qolgan janob Nuarte «ha» demoqchi bo'lsa, ko'zini yumadi, «yo'q» demoqchi bo'lsa, ko'zini bir necha marta piri-piratadi. Mana, endi siz u bilan suhbat qilish yo'llarini bilib oldingiz.

Cholning Valentinaga tikilgan ko'zlari mehrga to'lib turganini notarius ham angladi.

– Nevarangiz aytgan so'zlarni eshitdingizmi, tushundingizmi, janob? – so'radi notarius.

Nuarte asta ko'zlarini yumdi-da, bir soniya o'tar-o'tmas yana ochdi.

– Uning aytganlarini tasdiqlaysizmi? Ya'ni u aytgan imo-ishoralar bilan boshqalarga fikringizni bayon qilaysizmi?

– Ha, – dedi imo bilan chol.

– Meni siz chaqirdingizmi?

– Ha.

– Sizning vasiyatnomangizni yozish uchunmi?

– Ha.

– Shu vasiyatnomani yozmaguncha mening ketishimni istamaysizmi?

Falaj koʻzlarini tez-tez piriptirdi.

– Xoʻsh, janob notarius, endi siz uni anglagandirsiz? – soʻradi Valentina. – Koʻnglingiz tinchidimi endi?

Notarius bu savollarga javob berishga ulgurmasdan Vilfor uni bir chetga tortdi-da, dedi:

– Janob notarius, bu ogʻir jismoniy iztirob, nahotki Nuarte de Vilfor janoblarning aqliy qobiliyatiga qattiq taʼsir etmagan deb oʻylaysiz?

– Meni bu emas, bundan koʻproq uning fikrlarini qanday qilib oʻqib olish, savol-javobni qanday olib borish muammosi tashvishga solyapti, – dedi notarius.

– Buning iloji yoʻqligini oʻzingiz koʻrib turibsiz-ku, – dedi Vilfor.

Valentina va chol bu suhbatni eshitib turgan edi. Nuarte Valentinaga koʻzlarini oʻqday tikkan edi, shu paytda bu bilan u: «Qarshilik koʻrsat», demoqchi edi.

– Bu masalada janoblari tashvishlanmasa ham boʻladi, – dedi Valentina. – Buvamning fikrlarini tushunib olish qanchalik ogʻir boʻlmasin, toʻgʻrirogʻi, sizga qanchalik ogʻir tuyulmasin, men borman bu erda, sizga uning aytmoqchi boʻlgan fikrlarini aniq bayon qilib beraveraman. Xullas, sizda hech shubha qolmaydi. Olti yildirki, men Nuarte janoblari huzuridaman. Uning birorta talab-istagi bajo etilmay qolgani yoʻq. Ana, oʻzlari aytsin sizga.

– Toʻgʻri, – dedi imo qilib chol.

– Qani, bir sinab koʻraylik-chi, – dedi notarius, – made-muazel de Vilfor tarjimoningiz boʻlishiga rozimisiz?

Chol imo bilan «ha», dedi.

– Juda soz! Xoʻsh, janoblari mendan nima istaydilar va qanaqa akt tuzishni xohlaydilar?

Valentina alfavitdagi harflarni tartib bilan birin-ketin ayta boshladi. U «V» harfiga kelganda Nuarte imo bilan uni toʻxtatdi.

– Ayon boʻldiki, Nuarte janoblariga «V» harfi kerak ekan, – dedi notarius.

– Sabr qiling, – dedi Valentina, soʻng chol tomonga oʻgirdi, – va...

Chol darrov uni toʻxtatdi.

Shundan keyin Valentina lugʻatni oldi-da, notarius oldida varaqlay boshladi.

– Vasiyatnoma, – dedi u cholning imosi bilan barmogʻini lugʻatdagi ana shu soʻz ustida toʻxtatib.

– Vasiyatnoma! – xitob qildi notarius. – Maʼlum boʻldi-ki, janob Nuarte vasiyatnoma tuzishni istarkan.

– Ha, – dedi takror-takror imo bilan Nuarte.

– Rostdanam bu juda ajib hol, ha, janoblari ham buni eʼtirof etmoqqa majburlar, – dedi notarius hang-mang boʻlib qolgan Vilforga qarab.

– Haqiqatan ham ajib hol, – dedi Vilfor, – yana vasiyatnoma yozilishi bundan ham taajjubliroq boʻlishi mumkin, chunki qizim juda ustalik bilan aytib turmasa, bu vasiyatnomadagi gaplarni jumlama-jumla yozib chiqish amri mahol. Men bunga ishonmayman. Valentina esa Nuarte de Vilfor janoblarining boshqa hech kimga maʼlum boʻlmagan istaklarini bajaruvchi rolini oʻynab, bu vasiyatnomaning tuzilishidan, ehtimol, manfaatdordir.

– Yoʻq, yoʻq, yoʻq! – imo qildi chol.

– Nega? – soʻradi Vilfor. – Valentina vasiyatnomangizdan manfaatdor emasmi?

– Yoʻq, – dedi Nuarte.

– Janob, – dedi hozirgi sinovdan zavqlanib ketgan va jamoatchilikka bu ajoyib voqeani oqizmay-tomizmay aytib berishga tayyor notarius, – janob, shuni aytishim kerakki, chamamda, hozirgina mutlaqo boʻlmagʻur gap deb turgan narsa endilikda juda osonlik bilan bajariladi, shekilli? Bu vasiyatnoma shunchaki bir maxfiy vasiyatnoma, yaʼni qonunda koʻrsatilgan va qoʻl qoʻyilgan hujjat boʻladi, faqat bir shart bor, u ham boʻlsa vasiyatnoma etti guvoh oldida eʼlon qilinishi, shu guvohlar huzurida vasiyat qiluvchi tomonidan tasdiqlanishi va notarius tomonidan muhrlanishi kerak. Buning uchun oddiy vasiyatnomaga ketgandan ortiq vaqt ketmaydi, eng muhimi:



qonunlashtirib tuzilgan nusxa hech qachon o'zgartirilmaydi, ishning tafsilotlariga kelganda, u, asosan, vasiyatnoma qanday va qay holatda tuzilishiga va bu ishni bilib, olib boruvchi sizlarga bog'liq. Har holda bu akt ishonarli bo'lmog'i uchun biz uni juda ishonarli qilib tuzamiz. Hamkasblarimdan biri menga yordamchi bo'ladi, vasiyatnomani tuzishda u shu erda turadi. (Odatda bunday bo'lmasdi.) Shunday qilsak siz rozimisiz, janob? – deb so'radi notarius choldan.

– Ha, – dedi chol imo bilan uning fikrlariga tushunayotganligidan quvonib.

«Nega u o'ylanib qoldi?» – dedi hayron bo'lib turgan Vilfor ichida. Yuksak lavozim uni shunday paytda og'irvazmin bo'lishga majbur etardi. U hamon otasi nima qilmoqchi ekanini angalayolmasdi.

Ikkinchi notariusni chaqirtirishga u buyruq berish uchun orqasiga o'g'irilganda hamma gapni eshitib, xo'jayinning istagini anglab turgan Barrua yugurib chiqib ketgan edi.

So'ng qirollik prokurori o'z rafiqasini chaqirib chiqishni buyurdi.

Chorak soat o'tar-o'tmas hammalari falaj chol xonasiga to'planishdi, ikkinchi notarius ham etib keldi.

Ikkala notarius birpasda o'zaro gaplashib olishdi. Odatdagi vasiyatnomalardan birini janob Nuartega o'qib berishdi. So'ng cholning es-hushi joyidaligini sinab ko'rish uchun birinchi notarius unga murojaat qilib, dedi:

– Janoblariga ma'lumki, vasiyatnoma biror shaxsning manfaatini ko'zlab yoziladi.

– Ha, – dedi imo qilib Nuarte. – Mol-mulkingiz qanchaligi sizga ayonmi?

– Ha.

– Men raqamlarni oshirib sanab boraman, qaysinisi to'g'ri bo'lsa, siz o'sha joyda meni to'xtating.

Bu so'roqlarda qandaydir tantana mavjud edi: o'jiz tana bilan aql hech mahal bu kabi ochiq jang qilmagan bo'lsa kerak. Bu juda zavqli manzara edi.

Hamma Nuarte atrofiga to'plandi. Ikkinchi notarius stol yonidagi kursiga o'tirib yozishga hozirlandi. Birinchi notarius falaj chol qarshisida turib, savollar bera boshladi.

– Mol-mulkingizning umumiy qiymati uch yuz ming frankdan ko'proq ekan, to'g'rimi? – so'radi u.

Chol «ha», deb imo qildi.

– To'rt yuz ming frankmi? – so'radi notarius.

Chol qimir etmadi.

– Besh yuz ming frankmi?

Chol hamon jim.

– Olti yuz ming? Etti yuz ming? Sakkiz yuz ming? To'qqiz yuz ming?

Nuarte imo bilan «ha» dedi.

– To'qqiz yuz ming frank turadigan davlatingiz bormi?

– Ha.

– Hammasi buyumlardan iboratmi? – so'radi notarius.

Nuarte «yo'q», dedi imo bilan.

– Davlatning foizli qog'ozlaridan iboratmi?

Nuarte «ha», dedi imo bilan.

– Bu qog'ozlar o'z qo'lingizdami?

Chol Barruaga bir qaragan edi, qarol chiqib ketdi-da, bir daqiqada quticha ko'tarib keldi.

– Qutichani ochishga ruxsat etasizmi?

Nuarte «ha» degan imo qildi.

Qutichani ochishdi. Unda to'qqiz yuz ming frank davlat xazinasini biletleri bor edi.

Birinchi notarius biletleri olib hamkasbiga bittalab uzatdi. Ular chindan ham Nuarte aytgan summani tashkil etardi.

– To'ppa-to'g'ri, – dedi u, – to'qqiz yuz ming frank; ravshan bo'ldiki, cholning aql-hushi mutlaqo joyida.

So'ng u falaj cholga o'girilib so'radi:

– Demak, to'qqiz yuz ming frank mablag'ingiz bor ekan, bu prosentli davlat qog'ozlari sizga har yili qirq mingga yaqin foyda keltiradi, to'g'rimi?

– Ha, – dedi imo bilan Nuarte.

– Bu mablagʻni kimga qoldirmoqchisiz?

– Nuarte janoblari, – dedi Vilfor xonim, – faqat oʻz nevarasi mademuazel Valentinani yaxshi koʻradi, u olti yildan buyon unga gʻamxoʻrlik qilib, parvarish qilib keladi, buvasining unga bunchalik mehr-muhabbatining boisi ham shundan. Shu sababdan Valentina ana shu sodiqligi evaziga mukofotlansa odilona ish boʻladi.

Nuartening koʻzlari chaqnab ketdi, u Vilfor xonim rost gap aytayotganini tasdiqladi va koʻnglimdagini topdi, degandek boʻldi.

– Demak, siz shu toʻqqiz yuz ming frank mablagʻingizni mademuazel Valentina de Vilforga qoldirasizmi? – soʻradi notarius.

U endi shu punktini vasiyatnomaga yozib qoʻysam boʻldi, deb qaror qilgan, lekin Nuartening roziligiga oʻzini va boshqa guvohlarni yana bir karra ishontirmoqchi boʻlgandi.

Valentina oʻzini chetga oldi va boshini quyi solib yigʻlab yubordi: chol mehr toʻla nigohini unga tashladi, soʻng notariusga oʻgirilib, koʻzlarini toʻxtovsiz pирpirataverdi.

– Yoʻq? – dedi notarius. – Siz hali mademuazel Valentinani yagona merosxoʻringiz qilib tayinlamoqchi emasmissiz?

Nuarte «yoʻq», dedi imo qilib.

– Adashmayapsizmi? – dedi taajjublangan notarius, – chindan ham yoʻq deyapsizmi?

– Yoʻq! – takrorladi Nuarte. – Yoʻq!

Valentina boshini koʻtardi; shu payt Valentina uni merosdan mahrum etayotganlaridan ajablanmas, balki, odatdagidek, bu muomala uni qattiq ranjitgan edi.

Ammo Nuarte unga mehr toʻla koʻzlarini tikkan edi, Valentina qichqirib yubordi:

– Buvajon, bilaman, siz meni faqat davlatingizdan mahrum etyapsiz, mehr-muhabbatigizdan emas, toʻgʻrimi?

– Ha, albatta, – dedi cholning koʻzlari maʼnodor yumiilib. Endi Valentinaning koʻnglida hech qanday shubha

qolmadi.

– Rahmat, rahmat! – dedi u shivirlab.

Bu hol Vilfor xonimning ko'nglini yoritdi, xonim cholning yoniga keldi.

– Bundan chiqdiki, muhtaram Nuarte janoblari, siz o'z davlatingizni nevarangiz Eduar de Vilforqa qoldirar ekansiz-da? – so'radi xonim.

Cholning ko'zlari alam-nafrat bilan tez-tez pipiradi.

– Demak, yo'q, – dedi izoh berib notarius.

– Yo'qsa mana bu o'g'lingizga qoldirarkansiz-da?

– Yo'q, – dedi rad etib chol.

Taajjubda qolgan ikki notarius ko'z urishtirib olishdi. Vilfor bilan xotini – biri uyalganidan, ikkinchisi esa g'azabdan qizarib ketdi.

– Buva, nima gunoh qildik biz sizga? – dedi Valentina, – endi bizni yomon ko'rib qoldingizmi?

Chol avval Vilforqa, so'ng uning xotiniga bir-bir nazar tashladi-da, so'ng mehribonlik bilan Valentinaga tikildi.

– Buva, menga qarang, – dedi Valentina, – mabodo meni yaxshi ko'rar ekansiz, hozirgi qilig'ingiz nimasi? Siz meni yaxshi bilasiz, yana shuni ham bilasizki, men hech qachon sizning pulingizni o'ylagan emasman. Buning ustiga menga onamdan juda katta boylik qolgan deyishadi, nihoyatda katta boylik. Xo'sh, shunday ekan, nima gap o'zi?

Nuarte yonib turgan ko'zlarini Valentinaning qo'liga tikdi.

– Mening qo'lim? – so'radi Valentina.

– Ha, – dedi imo bilan Nuarte.

– Uning qo'li!.. – takrorlashdi hozir bo'lganlar.

– E-e... Janoblar, – dedi Vilfor, – ko'rib turibsizki, bu gaplardan hech qanday foyda yo'q, chunki bechora otam aqldan ozgan.

– Men uning nimaga ishora qilayotganini tushundim! – dedi Valentina. – Mening turmushga chiqishimni aytyapsiz-da, shundaymi, buva?

– Ha, ha, ha, – uch marta takrorladi chol, har gal kiprik

qoqqanda ko'zlaridan g'azab uchqunlari sochildi.

– Turmushga chiqayotganim uchun hammamizdan norozi bo'lyapsizmi? – so'radi Valentina.

– Ha.

– Axir bu bema'nilik-ku! – dedi Vilfor.

– Janob, kechiring, – dedi notarius, – aksincha, bu gaplar, menimcha, nihoyatda mantiqli, biri biriga bog'liq gaplar.

– Siz, mening Frans d' Epinega turmushga chiqishimni istamaysizmi?

– Yo'q, istamayman, – dedi cholning ko'zlari.

– Siz xohlamagan erga turmushga chiqayotgani uchun nevarangizni merosdan mahrum etyapsizmi? – so'radi notarius.

– Ha, – javob qildi Nuarte.

– Ya'ni, u o'sha erga tegmasa Valentina sizning merosxo'ringiz bo'larmidi?

– Ha.

Cholning tevaragidagilar jim bo'lib qolishdi.

Notariuslar maslahatga o'tishdi. Valentina buvasidan minnatdor bo'lib, unga tikilib qolgan edi. Vilfor yupqa lablarini tishlar, rafiqasi esa yuzida zohir bo'lgan quvonch alomatlarini bekitolmasdi.

– Menimcha, – dedi sukunatni buzib Vilfor, – bu nikohning biz uchun ma'qulligi yoki ma'qul emasligi haqida faqat men hukm chiqara olaman. Qizimning izmi menda, men qizimning janob Frans d' Epinega turmushga chiqishini istayman, Valentina uning rafiqasi bo'ladi.

Ko'zlari jiqqa yoshga to'lgan Valentina o'zini o'rindiqqqa tashladi.

Notarius cholga murojaat qilib dedi:

– Janob, mabodo mademuazel Valentina janob d' Epinega turmushga chiqsa, unda davlatingizni kimga qoldirasiz?

Chol churq etmadi.

– Axir biror kishiga qoldirmoqchimisiz?

– Ha, – javob qildi Nuarte.

– Oilangizdan biror kishigami?

– Yo‘q.

– Unday bo‘lsa kambag‘allar foydasigami?

– Ha.

– Biroq, – dedi notarius, – o‘g‘lingizni butunlay quruq goldirish qonunga xilof ekanligidan xabaringiz bormi?

– Ha.

– Demak, siz mablag‘ingizning faqat qonun yo‘l qo‘yadigan qismi haqidagina farmoyish berishga haqlisiz, shundaymi?

Nuarte indamadi.

– Hamma mablag‘ingiz haqida vasiyatnoma yozaman, deb qat‘iy qaror qilganmisiz?

– Ha.

– Biroq, vafotingizdan keyin vasiyatnomangizga e‘tiroz bildirishlari mumkin.

– Yo‘q.

– Otam meni yaxshi biladi, janob notarius, – dedi Vilfor, – uning irodasi men uchun muqaddas. Yana u, hozirgi mavqeimda men kambag‘allar bilan sudlasha olmasligimni ham yaxshi anglaydi.

Nuartening qarashlarida tantana barq urdi.

– Siz qanday qarorga keldingiz? – dedi notarius Vilfor-ga.

– Hech qanday. Otam shunday qarorga kelgandan keyin, men nima derdim, u o‘z qaroridan aslo qaytmaydi... Mening itoat qilishdan boshqa ilojim yo‘q. Bu to‘qqiz yuz ming frank qo‘ldan ketib, kambag‘allarni boyitadi. Ammo men ham cholning injiqligiga parvo qilmay, ko‘nglim nimani istasa, shuni qilaman.

Vilfor, otam nimani xohlasa shuni qilaversin, deb rafiqasi bilan chiqib ketdi.

Vasiyatnoma shu kuni yozildi, guvohlar chaqirilib, o‘qib berildi, cholga ham ma‘qul tushdi, hammaning oldida muhrlanib, Vilforlar xonadoni notariusi janob Deshanga topshirildi.

### III. TELEGRAF

Vilfor rafiqasi bilan o'z xonasiga qaytganda, graf Monte-Kristo kelib mehmonxonada kutib turganini xabar qilishdi. Nihoyatda hayajonga tushgan Vilfor xonim shu ahvolda mehmonga ko'rinishni ep ko'rmay, yotoqxonasiga qirib ketdi; o'ziga ortiqcha bino qo'ygan qirollik prokurori esa to'g'ri mehmonxonaga yo'l oldi. Ammo qanchalik o'zini qo'lga olishga, chehrasini ochishga urinmasin, ko'ngli g'ashligini yashirishga ojjiz edi. Jilmayib turgan graf prokurorning ko'rinishidan tashvishga tushganligini va ko'ngli g'ashligini fahmladi.

– Sizga nima bo'ldi, janob de Vilfor, tashvishli ko'rinasiz? – so'radi u dastlabki salom-alikdan so'ng, – birorta jiddiyroq aybnoma yozayotgan paytingizda kirib qoldim shekilli?

Vilfor iljayishga urindi.

– Unday emas, graf, – dedi u. – Ayni paytda o'zim jafokashman. Pand edim, yutqazdim. Favqulodda bir hol yuz berdi-yu, qaysarlik va befahmlik oyog'imdan chaldi.

– Bu bilan nima demoqchisiz? – dedi Monte-Kristo o'zini ustalik bilan hamdardlikka olib. – Xonadoningizda biron-ta jiddiy ko'ngilsizlik yuz berdimi?

– Arzimas narsa, – dedi Vilfor og'ir tin olib, – bir oz aqcha yutqazdim.

– Zotan, – javob qildi Monte-Kristo, – shunday davlat va falsafiy aql egasi bo'lmish sizdek zot uchun pul yutqizish hech gap emas, albatta.

– Shu sababdan, – dedi Vilfor, – to'qqiz yuz ming frank achinishga arziydigan pul bo'lsa-da, men bunga achinayotganim yo'q. Cholning injiqligi tufayli boylik orttirish yo'lidagi umidlarimni puchga chiqargan, ehtimol, qizimning kelajagini ham barbod etgan taqdir nayrang, qandaydir favqulodda bir kuch dilimni siyoh etdi.

– Hali shunaqa deng? Nahotki! – xitob qildi graf. – To'qqiz yuz ming frank dedingizmi? Haq gapni aytdingiz, faylasuf ham bunday katta pulga achinadi, albatta. Biroq

bunday og'ir qayg'uga sizni kim duchor etdi?

– O'sha sizga hikoya qilib bergan otam.

– Nuarte janoblarimi? Nahotki u kishi shunday qilgan bo'lsa? Axir menga, xotirimdan ko'tarilmagan bo'lsa, u butkul falaj bo'lib yotibdi, hamma qobiliyatlardan mahrum degan edingiz-ku?

– Ha, jismoniy qobiliyatlardan mahrum, u qimirlay olmaydi, tildan ham qolgan, ammo shunga qaramay, u fikr yuritadi, orzu qiladi. Men hozirgina uning huzuridan chiqdim, besh daqiqa ham bo'lgani yo'q. U hozir ikki notariusga o'z vasiyatnomasini aytib, yozdiryapti.

– Demak, u yana tilga kiribdi-da?

– Yo'q, biroq fikrlarini tushunishga majbur etdi.

– Qanday qilib?

– Ko'zlari bilan. Uning ko'zlari yumilgani yo'q, o'tday kuydiradi.

– Azizim, – dedi xonaga kirib kelgan Vilfor xonim. – Menimcha, siz gapni juda oshirib yubordingiz.

– Xonim... – dedi ta'zim bilan salom berib graf.

Vilfor xonim chehrasi ochilib, tabassumla javob qildi.

– Janob de Vilforning aytganlari to'g'rimi? – so'radi Monte-Kristo, – tushunib bo'lmaydigan iltifotsizlik bu?..

– To'g'ri aytdingiz, haqiqatan bu kishining aqli bovar qilmaydigan hol, – dedi qirollik prokurori elkasini qisib. – Qarilik injiqligi bu!

– Uni o'z qarorini o'zgartirishga majbur etadigan biror-ta vosita yo'qmikin?

– Bor, – dedi Vilfor xonim, – bu vasiyatnoma Valentinaning zarariga emas, foydasiga tuzilishi erimga bog'liq.

Graf er-xotin ilmoqli qilib gapirayotganini ko'rib, o'zini xayol surganga soldi-da, qushlarga don beriladigan idishga siyoh quyayotgan Eduarga diqqat bilan tikilib, unga dalda bera boshladi.

– Azizim, – dedi e'tiroz bildirib Vilfor xotiniga, – sizga ayonki, men o'z uyimda patriarx niqobiga o'ralishni istamayman va hamjihatlik taqdiri mening shu rolni ado etishimga bog'liq, degan fikrni xayolimga ham keltirma-



ganman. Biroq oilam mening amr-farmonlarimni nazar-e'tiborga olishi zarur va ko'pdan o'ylab yurgan rejamni tentak chol bilan injiq go'dak buzishga jur'at etmasligi shart. Sizga ma'lumki, baron d' Epine do'stim edi, qizimizga uning o'g'liidan yaxshiroq er topilmaydi.

– Demak, siz, – dedi Vilfor xonim, – Valentina chol bilan til biriktirgan deb faraz qilasizmi?.. Chindan ham qiz bu nikohga hamma vaqt qarshilik ko'rsatib keldi, biz hozir ko'rgan va eshitganlarimiz ularning ilgariidan tuzib qo'ygan rejalari bo'lib chiqsa, men mutlaqo taajjublanmasdim.

– Amin bo'lingki, – dedi Vilfor, – hech kim to'qqiz yuz ming frank mablag'dan behudaga voz kechmaydi.

– Qiz butun olamdan ham yuz o'girishi mumkin, axir o'tgan yili monastirga ketmoqchi bo'lgan edi-ku.

– Nima bo'lsa bo'lsin, – dedi e'tiroz bildirib Vilfor, – baribir men qizimni Fransga beraman.

– Otangizning noroziligiga qaramasdan-a? – dedi Vilfor xonim so'zni boshqa tomonga burib. – Bu hazil emas!

Monte-Kristo go'yo bu gaplarni eshitmayotgandek ko'rinsa-da, ammo birorta so'zni diqqatidan qochirmayotgan edi.

– Xonim, – dedi e'tiroz bildirib Vilfor, – men farzandlik tuyg'usi bilan uning xulq-atvoridagi, ma'naviy xislatlaridagi ustunlik tufayli unga hamisha sajda qilishga majburman. Buning ustiga otam biz uchun ikki karra muqaddas inson: birinchidan, u bizni dunyoga kelishimizga sababchi bo'lgan, ikkinchidan, u bizning kattamiz. Biroq endilikda o'z o'g'liga nafrat bilan qaraydigan cholni oqil deya olmayman! Axir, uning injiqligiga qarab ish ko'radigan bo'lsam, masxaram chiqadi-ku! Janob Nuarteni bundan buyon ham ilgariigidek juda hurmat qilaman, meni merosdan mahrum etish haqidagi amr-

---

<sup>2</sup> 1789 yilda fransuz burjua revolyusiyasi vaqtida Konventda so'l partiyaning nomi (*muharrir*).

farmonga so'zsiz bo'ysunaman, ammo fikrimdan qaytmayman, kim haqli ekanligi to'g'risida jamoatchilik hukm chiqarar. Qizimni baron Frans d' Epinega erga beraman, bu juda to'g'ri va oqilona ish bo'ladi, deb hisoblayman. Qizimni kimga berish mening ixtiyorimda, men uni o'zimga yoqqan odamga beraman.

– Hali shunday deng, – dedi graf, qirollik prokurori gap orasida unga «to'g'rimi?» degandek qarab qo'ygach. – Gap bu yoqda deng! Nuarte janoblari mademuazel Valentina-ni baron Frans d' Epinega turmushga chiqayotgani uchun merosdan mahrum etyaptimi?

– Xuddi shunday, hamma gap mana shunda, – dedi Vilfor elkasini qisib.

– Har qalay, bu bir bahona bo'ldi-da cholga, – dedi qo'shimcha qilib Vilfor xonim.

– Bahona emas, bir sabab bu, xonim, sabab. Men otam-ning fe'lini yaxshi bilaman.

– Bo'lmasa nega u shunday qilyapti? – so'radi yosh juvon. – Axir janob d' Epinening boshqalardan qayeri kam?

– Darhaqiqat, – dedi graf, – men janob Frans d' Epine bilan bir necha bor uchrashganman. U general de Kenel (so'ngroq baron d' Epine degan unvon olgan)ning o'g'lida?

– Ha, xuddi o'shaning o'zi, – javob qildi Vilfor.

– U menga ajoyib, xushro'y yigitga o'xshab ko'ringan edi.

– Mana shuning uchun ham cholga bahona bo'ldi bu nikoh, deyapman-da, – dedi Vilfor xonim. – Chollar pirovardida sevgan kishisi ustidan mustabid hokim bo'lib oladilar-da, istaganini qiladilar, janob Nuarte ham shunday: nevarasining turmushga chiqishini istamaydi.

– Ehtimol, cholning u yigitdan nafratlanishining biror sababi bordir? – so'radi Monte-Kristo.

– Buni Tangridan bo'lak hech kim bilmaydi.

– Ehtimol, biror siyosiy masalada ziddiyat bordir?

– Haqiqatan mening otam bilan janob d' Epinening otasi alg'ov-dalg'ov zamonda yashashgan. Men bu davr-

ning faqat so'nggi kunlarini ko'rganman, – dedi Vilfor.

– Otangiz bonapartchi edi, shekilli? – so'radi Monte-Kristo. – Yanglishmasam, shunga o'xshagan gap qiluvdingiz menga.

– Otam g'irt yakobinchi bo'lgan, – dedi e'tiroz bildirib Vilfor, hayajonda har qanday ehtiyotkorlikni unutib. – Napoleon tomonidan uning gardaniga yuklangan senatorlik lavozimi uning o'zini emas, faqat tashqi qiyofasini o'zgartirdi, xolos. Otam imperatorni yaxshi ko'rganidan emas, Burbonlardan nafratlangani tufayli fitnalarga qatnashardi. Eng dahshatlisi shundaki, u ro'yobga chiqmaydigan xom xayollar uchun emas, haqiqatan yuzaga chiqarish imkoniyati bo'lgan ish uchun kurashardi, shu bilan birga u montanyarlarning<sup>2</sup> dahshatli nazariyasiga amal qilib, maqsadga erishish uchun hech narsadan toymasdi.

– Ma'lum bo'ldiki, – dedi Monte-Kristo, – hamma gap ana shunda ekan. Nuarte bilan d' Epine o'rtasida siyosat borasida ziddiyat bor ekan. General d' Epine Napoleon armiyasida xizmat qilsa-da, dilida u royalist edi, to'g'rimi? Adashmasam, bir kuni kechasi uni bonapartchilar klubidan chiqib kelayotganda o'ldirishgan edi, a? Klubga uni tarafdor qilib olamiz, degan umidda chaqirib kelishgan edi.

Vilfor, kayfi uchib, grafga qaradi.

– Adashayotganim yo'qmi? – so'radi Monte-Kristo.

– Yo'q. Haq gapni aytdingiz, – dedi Vilfor xonim, – haqiqatan ham shunday bo'lgan edi. Shuning uchun ham erim o'tmishdagi dushmanlikni unutib yuborish uchun ota-bobolari bir-biriga dushman bo'lgan ikki yoshning boshini qovushtirmoqchi.

– Bu ajoyib fikr! – dedi Monte-Kristo. – Bu olihimmatlik, mehr-shafqat namunasi, hamma buni olqishlashi lozim. Mademuazel Nuarte de Vilfor Frans d' Epine xonim deb atalsa juda soz bo'lardi-da.

Vilfor bir seskanib tushdi-da, bu so'zlarni aytishdan maqsadi nima ekanini bilib olmoqchi bo'lgandek Monte-

Kristoga tikilib qoldi.

Ammo grafning lablarida odatdagi nozikkina jilmayishdan bo'lak hech narsa sezilmasdi. Xullas, ziyalikda ko'plarni bir cho'qishda qochiradigan qirollik prokurori bu gal ham grafning chehrasida odatdagi nazokatdan boshqa hech narsa ko'rolmadi.

– Shu sababdan, – dedi Vilfor, – Valentina uchun bu-vasining davlatidan mahrum bo'lish katta baxtsizlik bo'lsa-da, bu uning Fransga erga chiqishiga xalaqit bermaydi, deb o'ylayman. Menimcha, bu sarmoyadan ajralish d' Epine janoblarini ham gangitib qo'ymasa kerak. Mening bu sarmoyadan qimmatliroq ekanligimni, o'z so'zimning ustidan chiqish uchun bu katta puldan voz kechayotganimni axir janob d' Epine tushunar. Binobarin, u Valentinaga onasidan katta meros qolganini ham hisobga olar. U ona tomondan buvasi va buvisi bo'lmish markiz va markiza de Sen-Meranning izn-ixtiyorida; ularning ikkisi ham Valentinaga mehr qo'ygan.

– Ular mehr-shafqatga loyiq zotlar, Valentina janob Nuartega qanchalik shafqat qilayotgan bo'lsa, ularga ham shunchalik mehr-shafqat bilan qarashi kerak, – dedi Vilfor xonim, – aytgancha, ular shu bir oy ichida Parijga kelishadi, ana shunda Valentina bugungi kamsitilganidan so'ng, hadeb Nuarte yonida o'ralashavermasa yaxshi bo'ladi.

Graf ovozini o'zgartirib, o'zini xuddi izzat-nafsigaga tegib, dilsiyoh qilingan kishi holiga soldi-da, dedi:

– Hozir aytmoqchi bo'lgan so'zlarim uchun oldindan uzr so'rayman sizdan, – dedi Monte-Kristo bir oz sukunatdan so'ng, – men otasining dushmani bo'lgan yigitga turmushga chiqayotgani uchun mademuazel de Vilforni o'z merosidan mahrum etayotgan janob Nuarte kichkintoyimiz Eduardan o'pkalashga haqli emas, deb bilaman.

– Haq gapni aytyapsiz! – dedi xitob qilib Vilfor xonim g'alati ohangda. – Chindan ham bu adolatsizlik, o'ta adolatsizlik! Boyoqish Eduar ham Valentina kabi janob Nuar-

tening nevarasi-ku! Ammo shunisi ayonki, Valentina Frans d' Epinega turmushga chiqmaganida Nuarte butun davlatini baribir unga qoldirardi. Eduar aslzodalar naslidan, ammo shunga qaramay Valentina, buvasi merosidan mahrum etgan taqdirda ham, Eduarga qaraganda uch baravar boy bo'lib qoladi.

Monte-Kristo churq etmay diqqat bilan quloq solib turaverdi.

– Graf, keling, oilaviy mashmashalar to'g'risidagi gaplarni bas etaylik, – dedi Vilfor. – Demak, mening mablag'im kambag'allarning daromadini oshirishga sarflanarkan-da, aslini olganda, bizning zamonamizda haqiqiy boylar o'shalar-ku. Shunday qilib, otam meni, mutlaqo gunohim bo'lmasa-da, qonuniy umid-orzulardan mahrum etdi. Mayli, men oqilona ish tutib, olijanoblik qilaman. Shu mablag'dan janob d' Epinega daromad va'da qilgan edim, men bu katta mablag'dan mahrum bo'lsam-da, va'da qilingan daromadni kuyovim oladi.

– Yaxshisi, – dedi e'tiroz bildirib Vilfor xonim, o'z fikridan qaytmay, – bu xunuk voqeadan d' Epineni xabardor qilsak yaxshi bo'lardi, ehtimol o'zi berilgan va'dani undirib olar.

– Bu katta baxtsizlikka duchor etgan bo'lur edi bizni! – xitob qildi Vilfor.

– Katta baxtsizlikka? – so'radi Monte-Kristo.

– Xuddi shunday, – dedi o'zini bosishga urinib Vilfor, – nikoh buzilib, kelinning sha'niga dog' tushadi. Bundan tashqari ilgari mish-mish gaplar yana qo'zg'aydi. Men mana shu mish-mishlarni yo'qotmoqchi edim. Yo'q, yo'q, bunday bo'lmaydi. Janob d' Epine oriyatli odam bo'lsa, Valentinaning merosidan mahrum bo'lganini bilib, unga ko'proq mehr qo'yadi, aks holda, nafs balosi uchun uylanmoqchi ekanligi ayon bo'lib qoladi.

– Men ham xuddi shunday deb o'ylayman, – dedi Monte-Kristo ko'zlarini Vilfor xonimga o'qday tikib, – janob Vilforning maslahat berishga qodir do'sti bo'lsaydim, unga shunday maslahat bergan bo'lur edim: aftidan Frans d'

Epine yaqinda qaytib kelsa kerak, ishni juda puxta o'ylab qilish kerak. Ochig'ini aytganda, men kurash boshlagan bo'lar edim, albatta bu kurash janob de Vilfor foydasiga hal bo'lardi.

Vahti choq bo'lib ketgan Vilfor o'rnidai turdi, xotini-ning bir oz rangi o'chdi.

– Bu juda yaxshi gap bo'ldi, – dedi Vilfor, – men sizdan ana shu so'zlarni eshitmoqchi edim, bu maslahatingizni albatta bajo keltiraman, – qo'shimcha qildi qirollik prokurori Monte-Kristoga qo'lini uzatib. – Binobarin, shu xonadonda hozir bo'lganlarning hammasi bugun shu erda yuz bergan voqea hech qanday ahamiyatga ega emas, deb bilsin: rejalarimiz o'zgaray qolaveradi.

– Janob, – dedi graf, – sizni ishontirib aytamanki, bu dunyo qanchalik adolatsiz bo'lmasin, u sizning jasoringizga qoyil qolmasdan iloji yo'q. Do'stlaringiz sizdan faxrlanur, janob d' Epine esa mademuazel de Vilforni hech qanday qalinsiz olsa-da (aslida qalin bo'ladi, albatta), siz kabi zotning xonadoniga, o'z burchi va ahdini bajarish yo'lida fidokorlikning yuqori pog'onasiga ko'tarila oladiganlar oilasiga a'zo bo'lsa, o'zini baxtiyor bilmog'i lozim.

Graf shu so'zlarni aytdi-da, ketmoqchi bo'lib, o'rnidan turdi.

– Graf, bizni tashlab ketmoqchimisiz? – dedi de Vilfor xonim.

– Ketishim kerak, xonim, faqat shanba kuni biznikida mehmon bo'lish haqidagi va'dangizni eslatib qo'yish uchun bu erga birrov kirib chiqay degan edim.

– Nahotki, bizni o'z va'dasini unutib qo'yadiganlardan deb o'ylasangiz?

– Siz, xonim, olijanob zotsiz, de Vilfor janoblari esa ko'pgina muhim va kechiktirib bo'lmaydigan yumushlar bilan bandlar...

– Erim so'z berdimi, bas, u o'z so'zining ustidan chiqadigan kishi, – dedi de Vilfor xonim, – katta bir davlatdan ajralayotganiga qaramay, o'z so'zidan qaytmaydigan

odam ekanligini mana shu erdayoq ko'rdingiz.

– Tushlik Elisey Maydonidagi uyingizda bo'ladimi? – so'radi Vilfor.

– Yo'q, shahar tashqarisida bo'ladi, – javob qildi Monte-Kristo, – illo, bu qilgan muruvvatingiz biz uchun yanada qadrliroq bo'ladi.

– Shahardan tashqarida?

– Ha.

– Qaerda? Parij atrofidami?

– Shahar darvozasining shundoq yonginasida, atigi yarim soatlik yo'l: Oteylida.

– Oteylida! – xitob qildi Vilfor. – Ha, xotinim sizni Oteylida istiqomat qiladilar, degan edi. Unga sizning uyingizda yordam berishgan edi. Oteylning qayerida?

– Fonten ko'chasida.

– Fonten ko'chasida? – dedi Vilfor past ovozda. – Uying nomeri nechanchi?

– Yigirma sakkizinchi.

– Markiz de Sen-Meranning hovlisini hali sizga sotganmidilar? – xitob qildi Vilfor.

– Markiz de Sen-Meran? – so'radi Monte-Kristo. – Bu hovli Markiz de Sen-Merannikimidi?

– Ha, – javob qildi de Vilfor xonim, – bu juda ajab bir hol...

– Qanaqa hol ekan?

– U juda ajoyib koshona-a, to'g'rimi?

– Ha, nihoyatda soz koshona.

– Mening erim esa o'sha uyga ko'chib borishga hech ko'nmadi.

– Darhaqiqat, bu chakki bo'lgan ekan-da, – dedi Monte-Kristo, – ammo buning sababi nima ekanligiga aqlim bovar qilmayapti.

– Oteyl menga yoqmaydi, – zo'rg'a dedi qirollik prokurori.

– Aminmanki, bahona sizni mening mehmonim bo'lish sharafidan mahrum qilmaydi.

– Yo'q, graf... men... albatta borishga harakat qilaman...

amin bo'ling... Ha, xotirjam bo'ling, harakat qilaman... – dedi ping'illab Vilfor.

– Yo'q, menga hech qanday bahona ketmaydi, – javob qildi Monte-Kristo. – Shanba kuni, soat oltida kutaman sizni. Mabodo bormay qolsangiz, men, demak, yigirma yil inson qadami tegmagan o'sha Fonten ko'chasidagi uyda qandaydir dahshatli voqea, qonli fojia yuz bergan ekan-da, deb o'ylashimga to'g'ri keladi.

– Boraman, graf, boraman, – dedi shosha-pisha Vilfor.

– Rahmat, – dedi Monte-Kristo. – Endi menga ruxsat bering, ketsam.

– Rostdanam bizni tashlab ketishga majburmisiz, graf? – dedi de Vilfor xonim, – nimaga shoshilayotganingizni aytmoqchi edingiz, lekin gapni boshqa yoqqa aylantirib, aytmadingiz.

– To'g'risini aytsam, xonim, – dedi Monte-Kristo, – qayoqqa borayotganimni sizga aytishdan hayiqib turibman.

– Ayta qoling.

– Men o'taketgan merovman, ko'pdan buyon orzu qilib yurganim bir narsani ko'rmoqchiman.

– Nima ekan u?

– Telegraf.

– Telegraf? – takrorladi de Vilfor xonim.

– Ha, telegraf. Ba'zida havo ochiq kunlari yo'lning che-tidagi do'nglikda osmonga bo'y cho'zib turgan qop-qora simyog'ochlarni ko'rib, ularni ulkan qo'ng'izning qo'llari-ga o'xshatardim, bilsangiz men ularga har gal hayajonla-nib tikilib qolardim. Havoni ikkiga bo'lib tashlab, bir tomonda stolga o'tirgan kishining so'zlarini uch yuz le naridagi stolda o'tirgan boshqa bir kishiga etkazib beradigan bu g'aroyib alomatlar kul rang bulutlar ustida yoki moviy osmonda ana shu hamma narsaga qodir

---

<sup>3</sup> Prefekt – qadimgi Fransiyada hukumat amaldorlariga beriladi-gan unvon (*muharrir*).



hokimning istagi bilan harakatga keladi, deb faraz qilardim, ajinalar, devlar, pirlar to'g'risida, xullas, sirli kuchlar to'g'risida xayol surib ketardim-da, kulib qo'yardim. Biroq hech mahal menda bu oq qorin, oriqli, qora panjali bahaybat hasharotlarni yaqinroq borib ko'rish istagi paydo bo'lmagandi, chunki ularning tosh qanotlari ostida kallasi turli ilm-fan bilan, sehrgarlik, «ilmi asror» bilan to'la mitti odamlar yotgan bo'lsa kerak, deb qo'rqardim. Xayrli tonglardan birida bildimki, har qanday telegrafni yiliga bir ming ikki yuz frank maosh oladigan va kun bo'yi astronom kabi osmonga emas, baliqchi kabi suvga emas, o'yinqaroq odamga o'xshab tabiat manzarasiga emas, o'zidan to'rt yoki besh le narida o'tirgan muxbiri kuzatib turuvchi boyoqish bir xizmatchi ishga solarkan. Shundan so'ng menda o'sha jonli qo'g'irchoq bu sirli yumushni qanday qilib bajarayotganligini o'z ko'zim bilan ko'rish ishtiyoqi tug'ildi.

– Demak, siz o'sha yoqqa ketyapsizmi?

– O'sha erga.

– Qaysi telegrafga? Ichki ishlar ministrligi telegrafigami yoki Rasadxonanikigami?

– 3inhor u yoqqa emas, u erga borsam, men xohlama-gan narsalarni tushuntiruvchilarga, o'zlari anglab etolmagan sirlarni majburan tushuntirishga urinuvchi kishilarga duch kelaman. Qurib ketsin, men hasharotlar haqidagi fikrimda turmoqchiman, kishilar haqidagi mulohazalarimdan kechganim etar. Shu sababdan men ichki ishlar ministrligining telegrafiga ham, Rasadxonanikigiga ham bormayman. Menga ochiq havodagi telegraf kerak, shundagina minorasiga tosh bo'lib qotib qolgan sho'rlikni qanday ahvolda ekanligini ko'ra olaman.

– Siz taniqli to'ralardan bo'lsangiz-da, judayam g'alati odamsiz, – dedi Vilfor.

– Siz qaysi tarmoqni ko'rishni ma'qul ko'rasiz?

– Hozir juda ish qizigan tarmoqni.

– Soz. Demak, ispan tarmog'inimi?

– Albatta. Sizga yaxshilab tushuntirishlari uchun ministrdan xat yozdirib beraymi?

– Yo‘q, yo‘q, – dedi Monte-Kristo, – aksincha, aytdimku, hech narsani tushunishni istamayman, deb. Bu borada biror narsani bilib, biron narsani payqab qolgudek bo‘lsam, o‘sha ondan e‘tiboran telegraf men uchun yo‘qqa chiqadi-qo‘yadi, faqatgina janob Dyushatel yoxud janob de Montalive yuborgan hamda Boyonnu prefektiga<sup>3</sup> havola etilgan grekcha ikki so‘zdan iborat belgi qoladi, xolos. Men esa o‘sha birinchi tasavvurimda qolmoqchiman.

– Bo‘lmasa, tezroq yo‘lga chiqing, chunki ikki soatdan so‘ng qorong‘i tushadi, unda hech narsani ko‘rolmaysiz.

– Siz meni vahimaga solib qo‘ydingiz! Ulardan qaysinisi yaqinroq?

– Boyonnu yo‘lidagisimi?

– Ha, Boyonnu yo‘lidagisi.

– Shatilonский.

– Shatilonскийdan keyingisi-chi?

– Monleri minorasidagisi bo‘lsa kerak.

– Rahmat, xayr! Shanba kuni taassurotlarimni sizga aytib beraman.

Eshik oldida graf Valentinani hozirgina merosdan mahrum etib chiqib ketayotgan notariuslarga duch keldi, notariuslar o‘z shon-shuhratlarini oshiradigan aktni tuzishga muvaffaq bo‘lganliklaridan mamnun ko‘rinishardi.

#### **IV. BOG‘BONNING SHAFTOLILARGA QIRON KELTIRADIGAN QURTDAN XALOS QILISH USULI**

Graf Monte-Kristo o‘zi aytgan oqshomda emas, ertasi- ga ertalab Anfer darvozasidan o‘tib, Orlean yo‘liga chiqdida, xuddi shu paytda jadal ishlab turgan telegraf yonida to‘xtamay, Lina qishlog‘ini yonlab, hammaga ma‘lum Monleri vodiysining tepasiga o‘rnatilgan shu nomdagi minoraga keldi.

Graf tepa etagida izvoshdan tushdi-da, kengligi bir yarim fut keladigan aylanma so'qmoqdan cho'qqiga ko'tarildi, tepalikka etganda meva tuga boshlagan bog' oldidan chiqib qoldi.

Monte-Kristo darrov qo'ra eshigini topdi. Yog'ochdan yasalgan panjara eshikka ilmoq osilgan bo'lib, mix va arqon bilan bekitilgandi. Graf birpasda bu mexanizmning «sirini» bilib olib, eshikni ochdi-da, bo'yi yigirma qadam, eni o'n ikki qadam keladigan chog'roq boqchaga kirdi, bog'ning bir tomoni haligi ajoyib eshik o'rnatilgan devor bilan o'ralgan, ikkinchi tomoni esa rango-rang chinnigul va chirmovuq gullar o'rab olgan eski minoraga taqalgan edi.

Nevaralari tabriklagani kelgan kampirga o'xshab hamma yog'ini ajin va gullar tutib ketgan bu minoraning eski maqollarda aytilganidek, devorlardagi dahshatli qulog'iga qo'shimcha o'laroq tili ham bo'lsaydi, juda ko'p fojiali voqealarni birma-bir aytib bergan bo'lur edi, dsgan fikr hech kimning xayoliga kelmaydi. Bog'ning o'rtasida qizil qum sepilgan va ikki tomoni ko'm-ko'k shamshod yo'lka. Bu manzara Delakruani, zamondoshimiz Rubensni ham zavqlantirgan bo'lur edi. Yo'lka sakkiz raqamiga o'xshash nusxada bo'lib, buralib-buralib ketar, yigirma qadam keladigan sahnda oltmish qadam bosib sayr qilish mumkin edi. Muruvvatli lotin bog'bonlarining yosh, quvnoq ma'budasi Floraga hech erda va hech qachon bu kichkina bog'chadagidek chin yurakdan xizmat qilmagan bo'lsalar kerak.

Haqiqatan ham yigirma tup atirgul ekilgan gulzorda pashsha qo'ngan bironta yaproq, nam tuproqda o'simlikka qiron keltiradigan ko'k shira tushgan bitta ham tomir ko'rinmasdi. Bog' zax edi. Qop-qora tuproq va daraxtlarning qalin barglari shundan dalolat berardi. Bog'ning burchagiga ko'milgan bochkada turg'un, sun'iy suv tabiiy

---

<sup>4</sup> Olmaxonlar oilasiga mansub jonivor (*muharrir*).

namlikning o'rnini tezda bosgan bo'lardi, suv betidagi ko'm-ko'k yo'sin ustida ikkita baqa suvning ikki tomonida hamisha bir-birlariga teskari o'tirardi.

Yo'lakda bironta o't-o'lan, gulpushtada bitta ham giyoh yo'q. Guldonlardagi yorongullarni, kaktus, radodendrlarni bog'ning ko'ziga ko'rinmas tannoz egasi parvarish qilib, shoxlarini chilpimaydi.

Monte-Kristo panjara eshikni bekitib, arqonni mixga ildi-da, to'xtab atrofga nazar tashladi.

– Aftidan, telegrafchining bog'boni bor yoki bog'ni o'zi parvarish qiladi, – dedi u.

Monte-Kristo to'satdan yaproq to'la zambilg'altak orqasida yashirinib turgan bir narsaga urinib ketdi, sarosimaga tushib, qaddini rostladi: ro'baro'sida ellik yoshlar chamasidagi bir odamga duch keldi. U qulupnay uzib, tok barglari terayotgan ekan.

Cholning qo'lida o'n ikki dona tok bargi va shuncha qulupnay bor edi.

Chol o'rnidan turayotib qulupnayni, barg va likopchani qo'lidan tushirib yuborishiga oz qoldi.

– Hosilni yig'ayapsizmi? – so'radi Monte-Kristo iljayib.

– Meni kechiring, janob, – dedi chol qo'lini furajkasiga olib borib, – hozirgina yuqoridan tushdim.

– Mendan xavotirlanmang, azizim, – dedi graf, – agar hali terib bo'lmagan bo'lsangiz, teravering.

– Yana o'ntasi qoldi, – dedi chol, – mana qarang, qo'limda o'n bittasi, hammasi bo'lib yigirma bitta, o'tgan yilgidan beshta ortiq. Bunga taajjublanmasa ham bo'ladi, axir bu yil bahor issiq keldi, qulupnay uchun, janob, eng keragi quyosh. Shuning uchun o'tgan yilgi o'n oltita o'rniga, mana ko'rib turibsizki, o'n bittasini uzib oldim, qolgani... o'n ikki, o'n uch, o'n to'rt, o'n besh, o'n olti, o'n etti, o'n sakkiz... e, Tangrim, ikkitasi yo'q-ku! Kecha shu erda ediku, janob, ular shu erda edi, axir men sanab chiqqan edim. Simon xolaning o'g'li gumdon qipti-da, bachchag'ar. Bugun ertalab shu erda ivirsib yurganini ko'rgandim! Badbaxt jinqarcha, bog'dan o'g'irlaganini qarang-a! Hali

u chuchvarani xom sanab yuribdi, shekilli, hali boplab ta'zirini beraman!

– To'g'ri, bu hazilakam ish emas, – dedi Monte-Kristo.  
– Ammo jinoyatchining yoshligini, qolaversa, undan bahra olganligini e'tiborga olish kerak.

– Albatta, – dedi bog'bon, – bu bilan ortib ketmaydi. Aytganday, boshliqni kuttirib, beadablik qilganim uchun janoblaridan uzr so'rayman.

Bog'bon shunday dedi-da, grafga va uning egnidagi kamzuliga qaradi.

– Azizim, xotirjam bo'ling, – dedi graf jilmayib. U o'ziga xos jilmayar, bu jilmayishlarda qahr-g'azab yoki xayrixohlik zohir bo'lardi. – Men taftish qilgani kelgan boshliq emasman. O'zim shunchaki aylanib yuribman. Bu erga qiziqib kelib qolib, qimmatli vaqtingizni olganligimdan pushaymon bo'ldim.

– Men uchun vaqtning unchalik qadri yo'q, – chol noxush jilmayib e'tiroz bildiradi, – to'g'ri, shunday bo'lsa-da, uni behuda o'tkazmasligim zarur edi; biroq bir soat dam olishim mumkinligini menga shama qilishdi (gap orasida u quyosh soatga qarab qo'ydi; Monleriya minorasi yonidagi bog'da hamma narsa muhayyo bo'lib, quyosh soati ham bor edi). Ko'rib turibsiz, yana o'n daqiqa vaqtim bor. Qulupnayim esa, pishgan, u bir kun tursa, janob, ishonasizmi, sonyalar<sup>4</sup> eb ketishi turgan gap.

– Men bunaqaligini hech o'ylamagan ekanman, – dedi jiddiy ohangda Monte-Kristo, – bu jonivor juda yomon, uni qadimgi rimliklar singari asalga qorib eb quritmasak, ular bizni ko'p rizqi ro'zimizdan mahrum etadi.

– Hali shunday deng? Rimliklar bu jonivorni ermidi? – so'radi bog'bon.

– Buni Petroniy asarida o'qigandim, – javob qildi graf.

– Rostdan-a? Juda seryog' bo'ladi, deyishadi-yu, biroq mazali bo'lmasa kerak-a. Bundan taajjublanmasa ham bo'ladi, axir bu hayvon kun bo'yi uyquni uradi-da, qorong'i tushganda uyg'onib, tun bo'yi meva g'ajiydi. To'rt tup o'rigim bor edi, bilasizmi, o'tgan yili bittasini ana shu

badbaxt quritib qo'ydi. Kamdan-kam uchraydigan bir tup shaftolim ham bor edi, bu ifloslar uni ham kemirib, xarob qilishdi. Asaldek shirin shaftoli edi. Ilgari hecham bunaqasini emagan edim.

– Siz uni eb qo'ydingizmi? – so'radi Monte-Kristo.

– Ha, qolgan yarmini. Hali-hali shirasi og'zimdan ketmaydi. Bu janoblardan xuddi Simon xolaning og'liga o'xshab shirin narsaga juda o'ch bo'lishadi. Axir u bemazasini olarmidi, deysiz! Endi bu yil tuni bilan poylab chiqsam-da, bunga yo'l qo'ymayman.

Monte-Kristo cholning gapini obdan eshitdi. Har bir mevaning o'z qurti bo'lganidek, har bir insonning ham yuragini hamisha timdalab turadigan ehtirosi bo'ladi. Telegrafchi esa bog'dorchilikka ixlos qo'ygan edi.

Graf quyoshni to'sib turgan tok barglarini uza boshladi, buni ko'rib bog'bon xursand bo'ldi.

– Janoblari telegrafni ko'rishga kelganmidilar? – so'radi chol.

– Ha, agar sizga buni man etishmagan bo'lsa...

– Yo'q, man etishmagan, – javob qildi bog'bon. – Chunki buning hech qanday xavfli joyi yo'q, axir biz bu apparat orqali nimalarni berayotganimizni kim bilib o'tiribdi, deysiz.

– Menga ham aytishgan edi: siz berilgan signallarni takrorlar ekansizu, lekin uning ma'nosiga tushunmas ekansiz, – dedi graf.

– Xuddi shunday, janoblariga ochig'ini aytsam, men tushunmaganligimdan juda mamnunman, – dedi kulib telegrafchi.

– Nega endi?

– Chunki, shu tarzda men mas'uliyatdan xalos bo'lganman. Men mashinaman, faqat mashina, ishlab tursam bo'ldi, mendan shundan boshqa hech nima talab qilishmaydi.

«Obbo, – dedi Monte-Kristo, – nahotki biron narsani bilishga intilmaydigan odamga yo'liqqan bo'lsam?.. Unda ishim o'ngidan kelmabdi-da».

– Janob, – dedi bogʻbon quyosh soatiga qarab, – tanaffusim ham tugay deb qoldi, joyimga qaytishim zarur. Men bilan birga chiqadilarmi?

– Ortingizdan boraman.

Monte-Kristo uch qavatli minoraga chiqdi. Pastki qavatda baʼzi bir dehqonchilik asbob-uskunalari, belkurak, xaskash, chelak devor tagida yotardi.

Ikkinchi qavat xizmatchining yotogʻi edi: uning jihozlari oddiy roʻzgʻor buyumlari: karavot, stol, ikkita stul, toshdan yasalgan obdastadan iborat edi. Bir bogʻ quruq xaschoʻp shiftga osib qoʻyilgan. Bu xushboʻy noʻxat va ispan loviyasi edi. Chol bularning donini uzmay, olimlarga oʻxshab har biriga yorliqlar bogʻlab qoʻygan edi.

– Ayting-chi, janob, telegrafni oʻrganib olish uchun qancha vaqt kerak boʻladi? – soʻradi Monte-Kristo.

– Vaqtni ayamasangiz, tezda oʻrganib olish mumkin.

– Qancha maosh olasiz?

– Ming frank, janob.

– Oz ekan.

– Koʻrib turibsiz, mana uy ham berishdi.

Monte-Kristo bogʻbonning xonasiga nazar tashladi.

– Chol unga yaxshi qaramas ekan-da, – dedi graf pingʻillab.

Ular uchinchi qavatga chiqishdi – telegraf shu xonaga joylashtirilgan edi. Monte-Kristo ikkala temir dastani ushlab koʻrdi: xizmatchi mashinani ana shu dastaklar yordami bilan yurgizar edi.

– Juda ajoyib ekan-ku! – dedi Monte-Kristo. – Biroq oxiri borib bunaqa hayot joningizga tegsa kerak-a?

– Birinchi kunlari burilib-oʻgirilaverganingdan boʻyin qotadi, ammo oradan bir yil oʻtar-oʻtmas koʻnikib qolar-kan kishi; bundan tashqari, dam olish soatlari va boʻsh kunlaringiz boʻladi.

– Boʻsh kunlar?

– Ha.

– Qanaqa kunlar?

– Tuman tushgan vaqtlarda.

- Ha, to'g'ri.
- Shunaqa kunlar men uchun bayram. Shunda boqqa tushaman-da, ko'chat ekaman, daraxtlarni butab, silkitib qurtini to'kaman, xomtok qilaman. Shu ahvolda vaqning o'tganini bilmay qolaman.
- Bu erda ko'pdan beri ishlayapsizmi?
- O'n yildan buyon. Besh yillik shtatdan ortiq ishlaganimni ham qo'shsak, rosa o'n besh yil bo'ladi.
- Yoshingiz nechada?
- Ellik beshga kirdim.
- Pensiya olish uchun necha yil ishlash kerak?
- Eh, janob, yigirma besh yil.
- Pensiya qancha?
- Yuz ekyu.
- Sho'rlik inson, - dedi ming'irlab Monte-Kristo.
- Janob, nima dedingiz hozir? - so'radi xizmatchi.
- Bular juda g'alati narsa ekan, deyaрман.
- Nima g'alati?
- Menga ko'rsatgan narsalaringiz... Siz signallardan hech nima tushunmaysizmi?
- Hech nima.
- Tushunishga biror marta urinib ko'rmadingizmi?
- Yo'q, buning menga nima keragi bor?
- Axir, o'zingizga taalluqli signallar ham bo'lishi mumkin-ku?
- Shubhasiz.
- Bunisini tushunasizmi?
- Bunday signallar hamisha bir xil bo'ladi.
- Ularning mazmuni nima?..
- «Hech qanaqa yangilik yo'q...», «Hozir bo'shsiz»... yoki «Ertagacha xayr»...
- Ha, bu beozor signallar, - dedi graf. - Qarang, muxbiringiz harakatga kelib qoldi, shekilli?
- To'g'ri, rahmat sizga, janob.
- U sizga nima deyapti? Siz tushunadigan biror nima deyaptimi?
- Ha, u mendan tayyormisan, deb so'rayapti.



- Siz javob beryapsizmi?..
- O’ng tomondagi signal bilan ha, tayyorman, deyapman, shu bilan bir vaqtda chap tomondagi signal muxbirga ham tayyor bo’lishni taklif etyapti.
- Juda boplab yasalgan ekan-da, – dedi graf.
- Mana hozir ko’rasiz, – dedi chol iftixor bilan davom etib, – besh daqiqadan so’ng gapira boshlaydi.
- Demak, rosa besh daqiqa vaqtim bor ekan-da, – dedi Monte-Kristo, – bu menga keragidan ham oshiq. Azizim, – dedi graf, – bitta savol bersam maylimi?
- Marhamat.
- Siz bog’dorchilikni sevasizmi?
- Judayam...
- Bu yigirma fut maydoncha o’rniga bitta bog’ va ikki desyatina er egasi bo’lsangiz xursand bo’larmidingiz?
- Janob, qani endi shuncha erim bo’lsaydi, naq janat qilib yuborardim.
- Ming frankka yashash juda og’ir bo’lsa kerak sizga?
- Nimasini aytasiz, juda og’ir, lekin bir amallab yashayapman.
- Bog’ingiz ham juda tor ekan.
- Haq gap, bog’ juda kichkina.
- Buning ustiga bog’ingizda zararli qurt-qumursqa ko’payib, ekin-tikinni xarob qilyapti.
- Ha, bu bir baloi azim bo’ldi.
- Ayting-chi, agar muxbiringiz o’ng tomondan signal berayotganda biror daqiqa teskari qarab qolsangiz, nima bo’ladi?
- Men uning signallarini ko’rmay qolaman.
- Unda nima bo’ladi?
- Men ularni takrorlayolmay qolaman.
- Oqibati-chi?
- E’tiborsiz qarab, takrorlamaganim uchun menga jarima soladilar.
- Qancha?
- Yuz frank.
- Yillik maoshning o’ndan bir qismini-ya! Juda bopla-

sharkan-da!

– Ilojimiz qancha! – dedi chol.

– Shunday voqea boʻlganmidi?

– Ha, bir sariq atirgulni payvand qilayotganimda shunday boʻlgandi.

– Mabodo signallardan birortasini oʻzgartirsangiz yoki oʻrniga boshqa signallarni yuborsangiz-chi, unda nima boʻladi?

– Unda boshqacha boʻladi, u holda meni ishdan haydab, pensiyadan mahrum etadilar.

– Uch yuz frankdan-a?

– Ha, janob, bir yuz ekyu. Mana shu sababdan men bunday nojoʻya ishni aslo qilmayman.

– Oʻn besh yillik maoshingizga teng pul bersalar ham qilmaysizmi? Ha, bir oʻylab koʻring-chi, axir bu oz pul emas-ku, toʻgʻrimi?

– Oʻn besh ming frank-a?

– Ha.

– Janoblari, meni vahimaga solyapsiz-ku.

– E, vahimaga soladigan nima bor bunda.

– Janoblari, meni vasvasaga solmoqchisiz, shekilli?

– Ha, topdingiz. Axir oʻn besh ming frank ozmuncha pul emas.

– Janob, ruxsat eting, muxbirning oʻng tomoniga yaxshilab qarab olay.

– Aksincha, yaxshisi u yoqqa emas, mana bu yoqqa qarang.

– Nima u?

– Iya? Hali siz bunaqasini koʻrmaganmisiz?

– Qogʻoz pul-ku!

– Ha, haqiqiy qogʻoz pul, oʻn beshta.

– Kimniki bu?

– Istasangiz sizniki boʻladi.

– Meniki?! – dedi hansirab xizmatchi.

– Ha, butunlay sizning shaxsiy mulkingiz boʻladi.

– Janob, mening muxbirim oʻng tomondan signal beriyapti.

- E, qo'yaving, signal beraversin.
- Janob, siz meni ishdan chalg'itdingiz! Endi menga jarima solishadi.
- Jarima atigi yuz frank bo'ladi, sizga mana bu o'n besh ming frankni olish ma'qul emasmi?
- Janob, mening muxbirim o'ng tomondan signal beraverib, toqati toq bo'lib, hadeb signalini takrorlayapti.
- Uning signallariga quloq solmang, mana bularni oling.
- Graf bir dasta pulni cholning qo'liga tutqazdi.
- Shuni bilib qo'yingki, bu hali hammasi emas, – dedi Monte-Kristo. – Siz o'n besh ming frank bilan yashay olarmidingiz.
- Bu ishim ham o'zimda qoladi-da.
- Yo'q, siz bu ishdan mahrum bo'lasiz, chunki hozir siz muxbir bergan signalni emas, boshqa signal berasiz.
- Oh, janob, siz menga nimani taklif etmoqchisiz?
- Bolalarcha sho'xlik.
- Mabodo meni bunga majbur etmasalar-chi...
- Men xuddi shuning uchun sizni majbur etmoqchiman. Monte-Kristo shunday dedi-da, cho'ntagidan yana bir dasta pul oldi.
- Mana, yana o'n ming frank, – dedi u, – qo'lingizdagi bilan yigirma besh ming bo'ldi. Besh ming so'miga durustgina uy va ikki desyatina er sotib olasiz. Qolgan yigirma mingi har yili sizga ming frankdan daromad keltirib tura-di.
- Ikki desyatina bog'!
- Va ming so'm daromad!
- E, Xudoyim, e, Xudoyim!
- Oling buni!
- Monte-Kristo o'n ming frankni zo'rlab xizmatchining qo'liga tutqazdi.
- Men nima qilmog'im lozim?
- Bir arzimmas narsa.
- Ya'ni, masalan.
- Mana bu signallarni takrorlaysiz, bo'lgani shu. Mon-

te-Kristo cho'ntagidan qog'oz oldi, unda uchta signal va ularni qay tartibda berish to'g'risidagi raqamlar yozilgan edi.

– Mana ko'rib turibsizki, bu arzimagan vaqtni oladi, xolos.

– To'g'ri, biroq...

– Shundan keyin ajoyib shaftolingiz va umuman hamma istagan narsalaringiz muhayyo bo'ladi.

Chol tuzoqqa ilindi: hayajondan qizarib-bo'zarib ter bosib ketgan chol graf bergan uchala signalni birin-ketin telegrafga berib yubordi. Bog'bon muxbirning o'ng tomondan qayta-qayta chaqirig'iga quloq osmadi, muxbir esa nima bo'layotganiga tushunolmay shaftoli shaydosi bo'lib qolgan chol aqldan ozdi shekilli, deb o'ylay boshladi.

Chap tomondagi muxbir esa grafning signallarini bita qo'ymay takrorladi va bu signallarni ichki ishlar ministrligi qabul qilib oldi.

– Mana endi siz boysiz, – dedi Monte-Kristo.

– Ha, boy bo'lib qoldim, – dedi chol, – buning azobichi?

– Azizim, menga qarang, – dedi Monte-Kristo, – vijdon azobida qiynalishingizni istamayman: ont ichib aytaman-ki, siz hech kimsaga ziyon etkazganingiz yo'q, faqat Tangri haqiga savob ish qildingiz, xolos.

Xizmatchi qog'oz pullarni ushlab ko'rar, sanar, goh rangi o'char, goh qizarib-bo'zarardi. So'ng u suv ichmoqchi bo'lib yotoqxonasiga yugurdi, biroq suvga etolmay, hushidan ketib yiqildi.

Telegramma ichki ishlar ministrligiga etib borganidan besh daqiqa o'tar-o'tmas Debre izvoshni chaqirdi-da, Danglamikiga ot choptirdi.

– Eringizda ispan zayomining obligasiyalari bormi? – so'radi u baronessadan.

– Bo'lmasa-chi! Olti millionga yaqin.

– Ayting: qanchaga olsalar sotsin.

– Nega endi?

– Don Karlos Burjadan qochib, Ispaniyaga qaytibdi.

– Qaerdan eshitdingiz buni?  
– O’sha erdan, – dedi Debre, – hamma voqea menga ma’lum bo’lib turadigan joydan.

Baronessa takrorlamay, eri oldiga yugurdi, eri esa yugurib dallol oldiga bordi-da, qanchaga bo’lsa-da, darhol sotish to’g’risida farmon berdi.

Danglar zayomlarini sota boshlaganini ko’rganlaridan so’ng, o’sha zahoti ispan obligasiyalarining qiymati tushib ketdi.

Danglar besh yuz ming frank zarar ko’rdi, ammo hamma obligasiyalardan qutulib oldi.

Kechqurun «Axborot» da shunday xabar bosilib chiqdi:

*«Telegraf xabari.*

*Qirol Don Karlos, uning ketidan qattiq nazorat o’rnatilganiga qaramay, yashirin suratda Burjadan chiqib ketibdi va Kataloniya chegarasidan o’tib, Ispaniyaga qaytibdi. Barselona isyon ko’tarib uning tomoniga o’tibdi».*

Shu kecha hamma Danglarning shunday dahshatli paytda obligasiyalarini sotib yuborganligi, bundan bor-yo’g’i besh yuz ming frank zarar ko’rgan bo’lsa-da, ishni o’nglab olganligi haqida gapirar, unga qoyil qolardi.

O’z obligasiyalarini sotib yubormaganlar yoki Danglardan sotib olganlar esa xonavayron bo’ldik, deb tun bo’yi mijja qoqmay chiqdi.

Ertasiga «Rasmiy gazeta»da quyidagi ma’lumot bosilib chiqdi:

*«Kecha «Axborot»da Don Karlosning Burjadan qochganligi va Barselonada isyon ko’tarilganligi haqida bosilgan axborot asossizdir.*

*Qirol Don Karlos Burjadan qochib ketgani yo’q, yari-morolda tinchlik va osoyishtalik hukm surmoqda.*

*Tuman tushgani tufayli, telegrafning signalini noto’g’ri tushunish oqibatida shunday xatoga yo’l qo’yilgan».*

Obligasiyalarning qiymati boyagi tushgan raqamdan

ikki barobar ko'tarilib ketdi. Danglar hammasi bo'lib bir million frank zarar ko'rdi.

– Ammo, – dedi Monte-Kristo Morrelga, Danglarni og'ir musibatga solgan birjadagi voqea to'g'risida xabar etib kelgan paytda u grafning uyida o'tirgan edi, – men yigirma besh ming frank bilan shunday ajoyib narsa kashf etdimki, bunga jon deb yuz ming frank bersa yarziydi.

– Kashfiyotingiz nimadan iborat ekan? – so'radi Maksimilian.

– Men bir bog'bonga uning shaftolisiga qiron keltirayotgan qurtdan qutqarish yo'lini topib berdim.

## V. SHARPALAR

Oteyldagi graf Monte-Kristoga atalgan ajoyib koshonaning tashqi ko'rinishida hech qanaqa hasham, bezak yo'q edi, Sababi: xo'jayinning o'zi sirdan hech nima o'zgartirilmasin, deb farmon bergan edi. Ichkaridagi zeb-ziynatlarni ko'rgan kishi bunga ishonch hosil qilardi. Haqiqatan ham ostonadan ichkariga qadam tashlashing bilan manzara darhol boshqacha bo'ladi-qoladi.

Xonalarni bu qadar teozoblik bilan jihozlashda Bertuchcho nihoyatda zo'r hunar ko'rsatdi. Bir zamonlar gersog Atenskiy Lyudovik XIV ning ko'ziga xunuk ko'ringan butun boshli xiyobonni bir kechada tekislab tashlashga buyruq bergani kabi, Bertuchcho uch kun ichida yap-yalang hovlini to'ldirib daraxt o'tqazdi. Mana endi go'zal, baland shamshodlar, zarang daraxtlari qad ko'tarib, uyga soya tashlab turardi. Uyning old tomonida o't bosib yotgan poytosh o'rnida yumshoq gilamdek maysazor paydo bo'ldi. Suv sepilganiga ancha vaqt bo'lsa-da, maysalar ustida tomchilar yaltirardi.

Aslida bu ishlarning hammasi grafning ko'rsatmasi bilan bajo keltirildi. Bertuchchoga tarhni uning o'zi tuzib berdi, tarhda hatto qayerga qancha daraxt o'tqazish, maysazorlarning sathi va shaklini qanday qilib tuzish kerakli-

gi chizib berilgandi.

Shunday qilib, hovli tamom boshqacha tusga kirdi. Bertuchchoning o'zi ham ko'm-ko'k daraxtlar, maysazorlarga o'ralib qolgan koshonani tanimay qoldim, derdi hadeb.

Ish boshqaruvchi bog'da ham ba'zi narsalarni o'zgartirmoqchi bo'lgandi, ammo graf bog'da hech nimaga tegma, deb buyruq berdi. Bertuchcho buning o'rniga yo'lkanini, zinani gullarga to'ldirib yubordi.

Ish boshqaruvchi buyruqlarni boplab bajo keltirishda hayratomuz qobiliyatga ega edi, xo'jayin ham kishini jon-dil bilan xizmat qilishga majbur etishda undan qolishmasdi. Yigirma yil kimsasiz xarobaga aylanib yotgan, kechagina, zamon hidi deb atasa joiz bo'ladigan sassiqalaf isi anqib yotgan hovliga bir kun ichida fayz kirdi, xo'jayinning didiga mos muattar hid va nur bilan to'ldi. Graf uyga qadam qo'yishi bilan kitoblari va yarog'-aslahalariga ro'baro' kelar, ko'z oldida sevikli suratlar paydo bo'lar, yo'lkalarda esa sodiq kuchuklari va sayroqi qushlari peshvoz chiqib kutib olishardi; butun hovli, butun koshona go'yo uyqudagi go'zal malika kabi uzoq uyqudan uyg'onib, gul-gul yashnadi, ko'pdan beri biz uchun aziz bo'lib kelgan va tashlab chiqqanda ham yuragimizning bir parchasini qoldirib ketadigan ajoyib koshonalardan aslo qolishmaydigan bo'lib qoldi bu dargoh.

Hovlidagi xizmatkorlardan ayrimlari oshxonada va hozirgina tuzatilgan zinalarda bu uyda ko'pdan buyon istiqomat qilayotgan kishilardek chaqchaqlashib har tomonga yugurishar, boshqa birlari izvoshlar raqamlariga qarab qatorlatib joylashtirilgan saroylarda, kavshanib turgan otlar otboqarlarni kishnab kutib olayotgan otxonalarda shod-xurram; ular otlar bilan ayrim qarollar o'z xo'jayinlariga ham qilmaydigan takalluf bilan so'zlashardilar.

Kutubxona ikkala devorga taqab qo'yilgan juft katta-katta shkafga joylashgan bo'lib, unda ikki ming jildlik kitob terib qo'yilgandi, yangidan-yangi romanlar uchun butun bir bo'lim ajratilgan, kechagina keltirilgan asarning

zarrin muqovasi yaltirab, jilo berib turardi.

Uyning ro'baro'sida, kutubxona qarshisida ulkan-ulkan yapon guldonlari nodir o'simliklarga to'la oynaband gulxona, gulxona o'rtasida hashamatli bilyard. Go'yo raqiblar o'yinni yaqinda tugatib ketgandek, soqqalar ko'm-ko'k movut ustida mudrab yotishardi.

Sehrgar Bertuchcho faqat bir xonaga qo'l urmadi. Bu xona ikkinchi qavatning chap burchagiga joylashgan bo'lib, unga asosiy zinadan to'ppa-to'g'ri kirib, maxfiy zinadan chiqib ketish mumkin. Bu xona oldidan qarollar qiziqsinib o'tishar, Bertuchcho esa unga yaqinlashganda vahimaga tushardi.

Graf soat roppa-rosa beshda Ali bilan birga Oteyldagi hovlisiga keldi. Bertuchcho uni toqati toq bo'lib kutayotgandi. U grafning maqtovlariga sazovor bo'laman deb umid qilar, tag'in xo'jayin qovog'idan qor yog'ib kelsa, unda nima bo'ladi, deb ham qo'rqardi.

Monte-Kristo izvoshdan tushdi-da, butun hovlini, uyni ko'zdan kechirib, bog'ni aylanib chiqdi, biroq churq etmadi.

Faqat o'zining qulflog'liq yotoqxonasiga kirganda qizil taxtadan yasalgan kichgina javonchani ko'rsatib so'z qotdi:

– Bu faqat qo'lqoplar qo'yishga yaraydi-da.

Bertuchcho darhol javob qaytardi:

– Juda to'g'ri aytdingiz, janob oliylari, ochib qarang, unda chindan ham qo'lqoplardan bo'lak hech narsa yo'q.

Boshqa javonchalarda ham faqat graf o'ylagan narsalar, ya'ni limmo-lim to'la atir shishalar, sigaralar, qimmatbaho buyumlar bor edi.

– Juda soz! – dedi pirovardida graf. Atrofdagilarning hammasiga ta'siri nihoyatda ulug' va kuchli bu zotning maqtovidan boshi osmonga etgan Bertuchcho quvonib chiqib ketdi.

Roppa-rosa soat oltida darvoza oldida ot tuyog'ining tovushi eshitildi. O'z duldulida suvorilar kapitani kelgan edi.



Monte-Kristo uni ochiq ko'ngillik bilan eshik oldida jilmayib kutib oldi.

– Aminmanki, birinchi bo'lib men keldim, – dedi qich-qirib Morrel, – boshqalar to'planguncha siz bilan tanho o'tirib suhbatlashmoq uchun ataylab barvaqt keldim. Jyuli bilan Emmanyuel sizga ko'pdan-ko'p salom yo'llashdi. Koshonangiz juda hashamdor ekan-ku! Graf, bir narsani so'rab olayin sizdan: odamlaringiz otinga yaxshi qarab turisharmikin?

– Azizim Maksimilian, xotirjam bo'ling, ular o'z ishiga puxta.

– Bilasizmi, otni yaxshilab qashlab, u yoq-bu yog'ini tozalab qo'yish zarur. Uning elday uchib kelganini bir ko'rsaydingiz! Uchar duldulning xuddi o'zi!

– Bo'lmasam-chi! Axir bahosi besh ming frank turadigan ot shunday bo'lmasinmi! – dedi Monte-Kristo o'z o'g'li bilan gaplashayotgan otaning so'zi ohangida.

– Unga rahmingiz kelyaptimi? – so'radi iljayib Morrel.

– Menimi? Xudo saqlasin! – javob qildi graf. – Aslo! Aksincha, ot yomon chiqqanda achinardim.

– Bu shu qadar ajoyib otki, hatto bu sohada Fransiya-da nom chiqargan Shato-Reno va ministrlikdagi arab otlarini minib yurgan Debre ham hozir mening ketimdan yuguradigan bo'lib qolishdi, hamisha orqada qolib, otlari soatiga faqat olti ledan ortiq chopolmaydigan baronessa Danglar esa ulardan ham keyinda qoldi.

– Demak, ular hozir kelisharkan-da bu erga? – so'radi Monte-Kristo.

– Ha, ana kelishdi.

Darhaqiqat, darvoza lang ochildi-da, ostonada yag'ri-nini ko'pik bosib ketgan ikki ot qo'shiqlik izvosh va ikki suvori paydo bo'ldi. Izvosh haligi otiqlar kuzatuvida darvozadan o'tib, burildi-da, zina qarshisida to'xtadi.

Debre irg'ib otdan tushib, izvosh eshigini ochdi-da, baronessaga qo'l uzatdi, xonim esa izvoshdan tushayotib shunday bir harakat qildiki, buni Monte-Kristodan boshqa hech kim ko'rmadi, payqamadi. Grafning o'tkir, ziyrak na-

zaridan hech narsa chetda qolmasdi! Baronessa haligi «sirli» harakati orasida bir xatni astagina ministrlik sarkotibining qoʻliga uzatdi. Monte-Kristo buni ham koʻrib turgan edi.

Xotini ketidan bankir chiqdi. Uning rangidan qon qochgan, izvoshdan emas, goʻrdan chiqib kelayotgan murdaning xuddi oʻzi edi.

Danglar xonim tezda hovlini, ostonani, peshtoqni koʻzdan kechirib chiqdi, buning sirini faqat Monte-Kristo bilardi. Soʻngra baronessa yuragini siqib turgan hayajonni zoʻrgʻa bosdida (bu hayajon uning yuzida aks etishi kerak edi, biroq bu yuz bez boʻlib qotib qolgan), zinadan yuqoriga qadam qoʻyar ekan, Morrelga murojaat qildi:

– Janob, agar siz manim doʻstim boʻlganingizda, otinigizni sotmaysizmi, deb soʻrardim.

Morrelning yuzida yasama tabassum paydo boʻldi, u «iltimos, meni bu oʻngʻaysiz holatdan xalos eting», degandek Monte-Kristoga qaradi.

Graf uning maqsadini angladi.

– E-e, xonim, – dedi u, – nega bu savolni menga bermadingiz?

– Sizga ishi tushganda, – dedi unga javoban baronessa, – biror istak izhor qilishga huquqing yoʻq, deb his qiladi odam oʻzini, chunki unda istaging albatta bajo keltiriladi. Shu sababdan men janob Morrelga murojaat qildim.

– Afsus, – dedi graf, – menimcha, janob Morrel otini sotolmaydi, chunki bu ot uning or-nomusi.

– Nega endi?

– U medeani yarim yil minib oʻrgatish haqida garov bogʻlashgan. Bilasizmi, baronessa, agar u otni qoʻldan chiqarib yuborsa, yutqazadi va buning ustiga yana uni qoʻrqoq ekan, deb mazax qilishadi. Sipohiylar kapitani esa, menimcha, zamonamizning eng ulugʻ zodagonlaridan, shuning uchun ham oʻzi haqida bu kabi mish-mishlar tarqalishini aslo istamaydi.

– Mana, eshitdingizmi, baronessa, – dedi Morrel va

grafga qarab samimiy jilmayib qo'ydi.

– Buning ustiga, – dedi Danglar zo'rg'a iljayib, – otlaringiz ko'p-ku.

Danglar xonim o'zini erining bu so'zlarini eshitmagan-ga soldi va hech nima demadi. Xonim hech vaqt bunaqa pichinglarni ko'tarolmasdi, biroq bu gal uning indama-ganligiga yoshlar hayron qolishdi.

Monte-Kristo odatdan tashqari itoatkorlikdan darak beruvchi bu sukunatni ko'rib iljayib qo'ydi-da, barones-saga ikkita ulkan xitoy chinni guldonini ko'rsatdi, guldon-larda buralib-buralib o'sgan baland bo'yli ajoyib dengiz o'simligi bor edi. Bu giyohlarni faqat tabiatning o'zigina mana shunday qudratli, rangdor qilib yarata olsa kerak.

Baronessa juda qoyil qoldi.

– Bu guldonlarga Tyuilridan kashtan daraxtlarini kelti-rib o'tqazsa bo'larkan! – dedi u. – Bu ulkan guldonlarni qanday qilib quyishgan ekan?

– Xonim, – dedi Monte-Kristo, – axir kichkina haykal-chani yasashdan boshqani bilmaydigan bizlar bu savo-lingizga javob berishga ojizmiz. Bu bo'lak asrlar mahsuli, ba'zi jihatdan olganda er va dengiz daholarining ijodi.

– Hali shunday deng? Taxminan qaysi davrga to'g'ri keladi?

– Men buni bilmayman, qandaydir xitoy podshosi max-sus quyish, kuydirish pechi qurishga farmon bergan degan gapni eshitganim bor, ana o'sha pechda mana shunaqa guldonlardan o'n ikkitasini quyib, pishirgan ekanlar. Ik-kitasi olovda yorilib ketibdi, o'ntasini uch yuz sarjin kela-digan dengiz tagiga tushirishibdi. Dengiz esa undan nima talab qilayotganlarini bilib, guldonlarni o'z giyohlari bilan rosa o'rab, ziynat beribdi, o'ymakorlik qilibdi; nihoyatda chuqur dengiz tagida bularning hammasini ikki yuz yil rosa boplab bir-biriga ulashtiribdi, biroq bu tajribani o'tkazmoqchi bo'lgan podshoni inqilob to'ntarib tash-labdi, undan faqat guldonlar pishirilib, dengiz tagiga tushirilgan, degan bir parcha xat qolgan edi. Ikki yuz yil-dan so'ng shu xatni topib olishibdi-da, guldonlarni den-

gizdan olishga qaror qilishibdi. G'avvoslar maxsus kiyimlar kiyib, ko'rfaz tagidan guldonlarni axtara boshlashibdi. Ammo o'nta guldondan faqat uchtasini topishibdi, qolganlari esa sinib ketgan ekan. Men bu guldonlarni sevaman, ba'zan, faqat g'avvoslargina ko'ra oladigan bes-o'naqay, bahaybat maxluqlar bu guldonlar ichiga sovuq nazar tashlagan va behisob baliqlar kirib, dushmanlarning ta'qibidan yashiringan bo'lsa kerak, deb faraz qilaman.

Shu vaqt nodir narsalarni unchalik xush ko'rmaydigan Danglar ajoyib pomerans daraxtining barglarini beixtiyor yulaverdi, uni tamom qilib, kaktusga o'tdi, ammo kaktus bankirning qo'liga tikanini sanchib oldi.

U seskanib tushdi-da, xuddi uyqudan uyg'ongandek ko'zlarini ishqaladi.

– Baron, – dedi unga iljayib Monte-Kristo, – tasviriy san'at muxlisi va ajoyib san'at asarlari sohibi bo'lmish janoblariga o'z suratlarimni maqtab ko'rsatishga jur'at etolmayman. Biroq shunday bo'lsa-da, mana, marhamat qiling. Gobbemuning ikki adabiy asari, Paul Potterning, Mirisning asari, mana bu ikkisi Gerarda Douniki, mana Rafael, Van-Deyk, Surbaranniki, anavi ikkitasi esa Muriloning o'lmas asari.

– Kechirasiz! – dedi Debre. – Mana bu Gobbemuniki, men buni bilaman.

– Rostdan-a?

– Ha, buni muzeyga sotib olishga taklif qilishgan edi.

– Bilishimcha, muzeyda Gobbemuning bitta ham surati yo'q bo'lsa kerak, to'g'rimi? – dedi Monte-Kristo.

– To'g'ri, yo'q, biroq shunga qaramay, muzey buni sotib olmadi.

– Nega? – so'radi Shato-Reno.

– Juda soddasiz-da, nega bo'lardi, hukumatning buni sotib olishga puli yo'q-da!

– Uzi! – dedi Shato-Reno. – Men bu gapni sakkiz yildan buyon har kuni eshitamanu, lekin qulog'imga erish tuyuladi.

– Vaqt-soati kelib, ko'nikib qolarsiz, – dedi Debre.

– Yo‘q, aslo ko‘nikolmasam kerak, – javob qildi Shato-Reno.

– Mayor Bartolomeo Kavalkanti, vikont Andrea Kavalkanti tashrif buyurdilar! – dedi Batisten kirib.

Oq oralagan soqol-mo‘ylovi did bilan olingan, bo‘ynida hozirgina do‘kondan olgan uzun yiltiroq ipak galstuk, egnida uch yulduz va beshta xoch taqilgan kiyimda mayor Kavalkanti (bizga tanish mehribon ota!) gerdayib kirib keldi.

Uning yonida bashang kiyingan, lablarida kulgi Andrea Kavalkanti. Ya‘ni bizga tanish, hurmatli o‘g‘il.

Morrel, Debre va Shato-Reno o‘zaro gap boshlashdi: ular goh otaga, goh o‘g‘ilga qarashar, o‘z-o‘zidan esa ko‘proq o‘g‘liga ko‘z tikib, unga e‘tibor berishardi.

– Kavalkanti! – dedi xitob qilib Debre.

– Bu ohangdor nom ekan-da! – dedi Morrel.

– Haq gap, – dedi Shato-Reno. – Italianlar nom qo‘yishga juda usta bo‘lishadi, ammo ust-bosh tanlashda didlari unchalik emas.

– Aybsityapsiz, Shato-Reno, – dedi e‘tiroz bildirib Debre, – uning kostyumi qoyillatib tikilgan va yangi.

– Menga ana shunisi yoqmadi-da. Bu janob xuddi shu bugun umrida birinchi marta yangi kostyum kiyganga o‘xshaydi.

– Bu janoblar kim o‘zi? – so‘radi Danglar Monte-Kristodan.

– Eshitdingiz-ku hozir: Kavalkantilar.

– Bu faqat nom, menga bu biror narsa anglatmaydi.

– Ha, aytmoqchi, siz biz italyan aslzodalari unvonlari bilan tanish emassiz, «Kavalkanti» – italyancha to‘ra, mansabdor degani.

– Davlatmandmi? – so‘radi bank egasi.

– Hisobsiz mol-dunyo egasi.

---

<sup>5</sup> Shahzoda Kondening bosh ofisianti, qirol stoliga buyurilgan baliq kechikkanini ko‘rib ko‘ksiga shamshir urgan edi.

– Kasb-kori nima?

– Mol-dunyoni sovurib ado qilishmoqchi-yu, biroq tugamayapti. Aytmoqchi, ular sizning bankingizga akkreditiv olishgan. Bundan uch kun oldin menikiga kelishganda shunday deyishdi. Men sizni deb ularni taklif qildim. Ular bilan sizni tanishtirib qo‘yaman.

– Chamamda, ular fransuz tilida juda erkin gaplashyapti, – dedi Danglar.

– O‘g‘li Fransiyaning janubida, Marselda yoki uning atrofidagi qandaydir kollejda tarbiyalangan. Hozir uning kayfi chog‘.

– Nimadan zavqlanarkan? – so‘radi baronessa.

– Fransuz jononlardan, xonim. U albatta parijlik oyimchaga uylanmoqchi.

– Mana bu xom xayolni qarang? – dedi Danglar elkasini qisib.

Danglar xonim eriga shunaqangi o‘qrayib qaradiki, boshqa vaqtda bo‘lganda rosa to‘polon ko‘tarardi, lekin bu gal ham g‘ing demadi.

– Bugun baronning kayfi buzuq ko‘rinadimi, – dedi Monte-Kristo Danglar xonimga, – yoki uni ministr etib tayinlashni istamayptilarmi?

– Bilishimcha, uni amalga mindirmoqchi emaslar hozircha. Chamamda, u birjada yutqizib qo‘ydi, buning alamini kimdan olishni bilmay yuripti.

– Janob de Vilfor va Vilfor xonim tashrif buyurdilar! – e‘lon qildi Batisten.

Qirollik prokurori rafiqasi bilan kirib keldi.

Vilfor o‘zini bosishga har qancha urinmasin, hayajonga tushgani ko‘rinib turardi. Monte-Kristo uning qo‘lini siqayotganda Vilforni titroq bosayotganini sezdi.

Haqiqatan ham faqat ayollar ayyorlikning uddasidan chiqqa oladi, – degan fikrni xayolidan o‘tkazdi Monte-Kristo Danglar xonimga nazar tashlab. – Bu xonim esa hech nimani bilmagandek, qirollik prokurori bilan iljayib va uning rafiqasi bilan esa o‘pishib so‘rashishdi-ya.

Salom-alikdan so‘ng graf shu paytgacha bufetda band

bo'lgan Bertuchchoning qo'shni chog'roqqina mehmonxonaga o'tganini ko'rib qoldi-da, uning yoniga chiqdi.

– Nima kerak bo'lib qoldi sizga, Bertuchcho? – so'radi u.

– Janobi oliylari, mehmonlar nechtaligini aytmadilarku.

– Ha, to'g'ri.

– Necha kishiga mo'ljallab tuzaylik?

– O'zingiz hisoblab ko'ra qoling.

– Hamma kelib bo'ldimi, janobi oliylari?

– Ha.

Bertuchcho qiya ochiq eshikdan mehmonlar turgan xonaga qaradi.

Monte-Kristo unga ko'zlarini o'qdek tikib turardi.

– Yo, Parvardigor! – xitob qildi Bertuchcho.

– Nima gap o'zi? – so'radi graf.

– Anavi xotin!.. O'sha xotin!..

– Qaysinisi?

– Oq ko'ylakli va hamma yog'iga brilyantlar taqib olgan malla sochli!..

– Danglar xonimmi?

– Otini bilmayman, janob, o'sha xotin, xuddi o'shaning o'zi.

– Nima, kim u?

– Bog'da bo'lgan o'sha xotin! Ikkiqat xotin!.. O'shanda kutib turgan o'ynash ayol xuddi shuning o'zi!..

Bertuchchoning quti uchib, sochlari tikkayib, serrayib qoldi.

– Kimni kutib turgandi?

Bertuchcho, Makbet Bankoni ko'rsatganday, barmoqlari bilan Vilforni ko'rsatdi.

– E, Xudo! – dedi zo'rg'a ovoz chiqarib. – Ko'rdingizmi?

– Nimani? Kimni?

---

<sup>6</sup> Topib bo'lmaydigan narsalarni axtaruvchi (*lot.*).

– Anavini?

– Huv anavinimi? Qirollik prokurori janob Vilfornimi? Ha, ko'rib turibman.

– Demak, o'shanda men bu zotni o'ldirmagan ekanman-da!

– Menga qarang, azim Bertuchcho, nazarimda, esingizni eb qo'yganga o'xshaysiz? – dedi graf.

– Demak, u o'lmagan ekan-da!

– Yo'q! O'lgani yo'q! Ko'rib turibsizki, soppa-sog'. Siz xanjarni chap biqinidan oltinchi qovurg'asi bilan ettinchi qovurg'asi o'rtasiga (zamondoshlarimiz shunday qilishadi-ku) emas, undan sal pastga yoki sal yuqorirog'iga urgan ekansiz-da; bilasizki, sudyalarning joni qattiq bo'ladi. Haqiqatan ham menga o'shanda aytganlaringizning hammasi uydirma, vasvasa gaplar ekan-da. Keling, o'zingizni bosib oling-da, mehmonlarni bir sanab chiqing, janob de Vilfor va Vilfor xonim – ikki, janob Danglar va Danglar xonim bilan – to'rt, Shato-Reno, Debre, Morrel bu uchallasini qo'shsak ettita bo'ladi, mayor Bartolomeo Kavalkanti bilan sakkiz.

– Sakkiz, – dedi takrorlab Bertuchcho.

– E-e, to'xtang! To'xtang! Jin ursin, qayoqqa shoshi-lyapsiz, axir! Mehmonlardan bittasini sanamadingiz-ku! Bir oz chap tomonga qarang. Huv anavu tomonga... Madonna Muriloga qarab turgan qora kamzulli Andrea Kavalkanti degan yigitchani ko'rdingizmi. Ana, o'girildi. Bu gal Bertuchcho naq bo'lmasa qichqirib yuboray dedi, biroq Monte-Kristoning tikilib turganini ko'rib miq etmadi.

– Benedetto! – eshitar-eshitilmas pichirladi u, – Yo, qudratingdan!

– Soat etti yarimga zang uryapti, janob Bertuchcho, – dedi jiddiyat bilan graf, – shu vaqtda ovqat suzilishi kerak, degan edim. Bilasizki, men kutishni yomon ko'raman.

Shunday dedi-da, Monte-Kristo mehmonxonaga qaytdi, bu erda mezbenni kutib turishgan edi. Bertuchcho devorga tayanib oshxonaga chiqib ketdi. Besh daqiqadan so'ng mehmonxonaning ikkala eshigi lang ochildi.



Ostonada paydo bo'lgan Bertuchcho Shantilidagi Vate-lyya<sup>5</sup> singari o'zini kuch bilan bosib oldi-da, e'lon qildi:

– Janobi oliylari, ovqat suzildi! Monte-Kristo Vilfor xonimga qo'lini uzatdi.

– Janob de Vilfor, – dedi u, – iltimos, Danglar xonimning qo'ltig'idan olsangiz.

Vilfor itoat qildi, hamma oshxonaga o'tdi.

## VI. 3IYOFAT

Hamma mehmonlar bir xil his-tuyg'u bilan borayotganligi mutlaqo ayon. Ular bu koshonaga qanday kuch bizni to'planishga majbur qildi, deb hayron bo'lishar va ba'zilar bu chakki ish bo'ldi, deb bir oz tashvishlanardi.

Shu o'rtada graf bilan tanishish ko'pga cho'zilmagani, uning g'alati va so'qqabosh hayot kechirishi, hech kimga ma'lum bo'lmagan behisob boyligi erkaklarni ehtiyot bo'lishga, ayollarni esa kutib oladigan birorta beka bo'lmagan bu xonadonga qadam ranjida etishga to'siq bo'lishi kerak edi. Ammo erkaklar ehtiyotkorlik qonunini, ayollar esa odob saqlash qoidalarini bir chekkaga yig'ishtirib qo'yishdi, kuchli qiziqish hissi boshqa hamma hissiyotlardan ustun keldi.

Hatto ota-bola Kavalkantilar ham, birinchisi o'ta takaburligiga, ikkinchisi esa shilqimligiga qaramay, maslak-maqsadi noma'lum bu zotni uyida mutlaqo notanish odamlar bilan birga bo'lib qolishganidan xavotiranayotgani sezilib turardi.

Monte-Kristoning iltimosiga binoan Vilfor qo'l uzatayotganini ko'rtan Danglar xonim beixtiyor bir seskanib tushdi, baronessaning qo'li uning ustida turganida Vilforning oltin gardishli ko'zoynak taqqan ko'zlari xira tortgandek bo'ldi.

Bu erdagilar kechmish his-hayajon belgilaridan birortasi ham grafning nazar-e'tiboridan chetda qolmasdi, bu zotlarning bir-biri bilan munosabatda bo'lishining birgina o'zi ham kuzatuvchi uchun nihoyatda zo'r ahamiyatga

ega edi.

Vilforning o'ng tomoniga Danglar xonim, chap tomoniga Morrel o'tirdi. Graf esa Vilfor xonim bilan Danglar o'rtasiga o'tirdi. Qolgan joylarni ota-bola Kavalkantilar o'rtasida o'tirgan Debre Vilfor xonim bilan Morrel o'rtasida o'tirgan Shato-Reno egalladi!

Ziyofat juda quyuq bo'ldi. Monte-Kristoning niyati Parijdagi butun odatlarni bekor qilib, mehmonlarning ishtahasidan ko'ra ko'proq qiziqishlarini qondirish edi. Mehmonlarga sharqcha ziyofat, sharqcha bo'lganda ham faqat arab sehrgarlariga xos ziyofat berilayotgan edi.

Xitoy guldonlari va yapon chinni idishlari jahonning turli tomonidan Evropaga yangi uzilgandek etib kelishi mumkin bo'lgan barcha meva-chevalar bilan to'ldirib tashlangandi. Kamyob qush go'shtlari, kumush idishlarga terilgan katta-katta baliqlar, Arxipelak, Kichik Osiyo va Janubiy Afrikaning qimmatbaho idishlaridagi vinolar Parij taqvodorlarining ko'zlarini qamashtirib yubordi. Bu zotlar, o'n kishilik ziyofat faqat Kleopatra kabi marvarid yutilganda yoki Lorenzo Medichi kabi eritilgan oltin ichgan taqdiridagina ming luidorga tushishi mumkin, deb o'ylashardi.

Monte-Kristo hamma hayratda qolganini ko'rib kuldi va o'zicha hazil qilgan bo'ldi.

– Janoblar, – dedi u, – farovonlikning ma'lum pog'onasida faqat ma'murchilik, isrofgarchilik zaruratga aylanib qoladi. Bu fikrga yana qo'shimcha qilaylik. Mo'jiza degan narsa nima o'zi? Aqlimiz bovar etmagan narsani mo'jiza deymiz. Biz ko'proq nimani orzu qilamiz? Qurbimiz etmagan narsani. Men butun hayotimni ko'rinmaydigan narsani ko'rishga, kishi qurbi etmagai narsaga erishish yo'liga bag'ishlaganman. Bunga ikki yo'l bilan – pul va iroda bilan erishaman. Men o'z maqsadimga erishmoq uchun siz, janob Danglar, temir yo'l qurayotganda, siz, janob de Vilfor, kishiga o'lim jazosi talab qilayotganda, siz, janob Debre, birorta mamlakatning tanobini tortayotganda, siz, janob Shato-

Reno, jononga yaxshi ko'rinmoqchi bo'lib turganda, siz, Morrel, hech kimga bo'y bermaydigan otning jilovini tortib qo'yayotganda qanchalik qat'iyat, qanchalik sabotmatonat ko'rsatsangiz, men ham shunchalik qat'iyat bilan, sabot bilan harakat qilaman. Misol uchun mana bu ikki baliqni olaylik: bittasi Sankt-Peterburgdan ellik le narida tug'ilgan, ikkinchisi Neapoldan besh le berida tug'ilgan, axir bu ikki baliqni bitta likobchaga solib, bir-biriga qo'shib qo'yish zavqli emasmi?

– Bu qanaqa baliq ekan o'zi? – so'radi Danglar.

– Mana, Shato-Renoni olaylik, u Rossiyada yashagan, bu baliqlardan birining nomini u aytib beradi sizga, – javob qildi Monte-Kristo. – Mayor Kavalkanti esa italyan, u esa ikkinchi baliqning nomini aytib beradi.

– Mana bu, – dedi Shato-Reno, – menimcha sterlyad degan baliq.

– Xuddi o'zi.

– Bunisi, – dedi Kavalkanti, – adashmasam, ilonbaliq.

– To'g'ri ilonbaliq. Endi, baron, bu baliqlarni qayerda ovlashadi, deb so'rang, qani, qanday javob olarkansiz.

– Sterlyadlarni Volga daryosida ovlaydilar, – javob qildi Shato-Reno.

– Men, – dedi Kavalkanti, – ilonbaliqlarning bunday kattasi Fuzaro ko'lidan boshqa erda bo'ladi, deganlarini asti eshitmaganman.

– Chindan ham, bunisi Volgadan, mana bunisi Fuzaro ko'lidan kelgan.

– Bunday bo'lishi mumkin emas, – dedi mehmonlarning hammasi bir ovozdan.

– Mana, mana shunisi zavqlantiradi meni, – dedi Monte-Kristo, – Men cupltor impossidium<sup>6</sup> Neron singari, topib bo'lmaydigan narsalarni axtaraman, axir siz ham zavqlanyapsiz-ku bundan, bular aslida olabug'a yoki sulaymon baliqqa qaraganda yaxshi bo'lmasa-da, sizga juda

---

<sup>7</sup> Markiza de Gayaj 1667 yili erining inilari, jazmani va abbat de Gana tomonidan vahshiylarcha o'ldirilgan edi.

juda ajoyib ko'riyapti-ku! Bunga sabab shuki, siz bularni topish mumkin emas, deb o'ylaysiz, ammo topish mumkin ekan-ku.

– Xo'sh, bu baliqlarni Parijga qanday qilib olib kelishdi?

– Bu juda oson ish. Bularni katta bochkalarda keltirishdi. bochkalardan biri daryo giyohlaridan, ikkinchisi esa qamish va ko'l o'tlaridan yasalgan, ularni maxsus soyabon aravada olib kelishdi. Sterlyad o'n ikki kun, ilonbaliq esa sakkiz kun saqlandi. Oshpazimning qo'liga tushganda ikkalasi ham tirik edi. Oshpaz birini sutga solib, ikkinchisini vinoga solib saranjomlab qo'ya qoldi. Ishonaysizmi siz bunga, Danglar?

– Qaydam, rostini aytsam, ishongim kelmayapti, – dedi Danglar zo'rg'a iljayib.

– Batisten, – dedi Monte-Kristo, – ayting, bu baliqlardan yana bittasidan olib kelishsin, bilasizmi, ikkinchi bochkadagi tirigidan.

Danglar hayron bo'lib qoldi, boshqalar esa chapak chaplab yuborishdi.

To'rt xizmatkor suv betini o'tlar bosib ketgan bochkalarni ko'tarib kirishdi, ikkala bochkada ham stol ustidagiga o'xshagan baliqlar pitirlab yotardi.

– Baliqlarning har bir turidan nega ikkitadan keltirishdi? – so'radi Danglar.

– Shunday qilmasak ulardan bittasi uxlab qolishi mumkin edi, – dedi jo'ngina qilib Monte-Kristo.

– Darhaqiqat, siz juda ajoyib odam ekansiz-ku! – dedi Danglar, – faylasuflar nima desa deyaversin, ammo boy-badavlat bo'lish yaxshi-da.

– Kashfiyotchi bo'lish undan ham yaxshi, – qo'shimcha qildi Danglar xonim.

– Azizim baronessa, iqror bo'lishim kerakki, bu mening kashfiyotim emas. Bu rimliklarda rasm bo'lgan odat. Pliniyning ma'lumotiga qaraganda, mulus degan baliqlarni Ostiyadan Rimga qullar galma-gal boshlarida ko'tarib kelisharkan. Uning yozishiga qaraganda, bu dorada, ekan.

Bu baliqni tiriklayin olib kelishning o'zi martaba, o'limi esa bir tomoshadek gap ekan. Uxlaganda u xuddi so' nayotgan kamalak singari tusini bir necha bor o'zgartirarkan. Shundan so'ng uni oshxonaga jo'natisharkan. Shunday o'lim topish uning uchun buyuk fazilat edi.

– Ha, – dedi Debre, – ammo Ostiya bilan Rim o'rtasidagi masofa sakkiz ledan oshiq emas-da.

– Bu haq gap, – javob qildi Monte-Kristo, – Ammo Lu-kulladan bir ming sakkiz yuz yil keyin dunyoga kelsangu, undan o'tib ketolmasang, nima deb maqtanasan?

Ikkala Kavalkanti bir-biriga baqrayib qolishdi, odob saqlab churq etishmadi.

– Ajab savdolar, – dedi Shato-Reno, – biroq meni ham-madan ko'proq hayratda qoldirayotgan narsa farmonla-ringizning juda tezlik bilan bajarilishi. Graf, axir bu uyni sotib olganingizga besh-olti kundan oshiq vaqt o'tgani yo'q-ku, to'g'rimi?

– To'g'ri, – dedi Monte-Kristo.

– Aminmanki, shu bir hafta ichida bu koshona butkul o'zgarib ketdi. Adashmasam, uning eshigi ham boshqa tomonda edi, hovli esa shag'al yotqizilgan quruq sahndan iborat edi, hozir esa gul-daraxtlar barq urib o'sib yotgan oromgohga aylandi.

– Shunaqa, – dedi Monte-Kristo. – Men ko'm-ko'k may-sazorlar, soya-salqin joylarni sevaman.

– Rostdanam, – dedi Vilfor xonim, – ilgari hovliga ko'cha tomondagi darvozadan kirilardi, meni halokatdan saqlab qolingan kuni ham ko'chadan to'g'ri hovliga olib kirganligingiz esimda.

– To'g'ri, xonim, – dedi Monte-Kristo, – biroq devordan Bulon o'rmonini ko'rib turadigan eshik qurdiram, durust bo'lar deb shunday qildirdim.

– To'rt kun ichida-ya! – dedi Morrel. – Bu hech aql bovar qilmaydigan mo''jiza-ku!

– Haqiqatan, – dedi Shato-Reno, – to'rt kun ichida eski uy o'rniga batamom yangi uy qurish mo''jizaga o'xshay-

di. Bu juda ko'hna, shu bilan birga huvillagan koshona edi. Bundan ikki yoki uch yil muqaddam markiz de Sen-Meran bu uyni sotmoqchi bo'lganda onam meni ko'rib kel, deb yuborgani esimda.

– Markiz de Sen-Meran dedingizmi? – dedi de Vilfor xonim. – Hali bu uy avvallari markiz de-Sen-Meranga qarashlimidi?

– Shunday bo'lsa kerak, – javob qildi Monte-Kristo.

– Nega shunday bo'lsa kerak, deyapsiz? Bu uyni kimdan sotib olganingizni hali bilmaysizmi?

– To'g'risini aytсам, bilmayman, bu ishlarning hammasini ish boshqaruvchim bajargan.

– Haqiqatda bu uy o'n yildan beri huvillab yotardi, – dedi Shato-Reno. – Uning hamisha qulf eshiklarini, taqataq berk derazalarini, o't bosib ketgan hovlini ko'rganda kishining ta'bi xira bo'lib ketardi. Agarda bu uy qirol prokurorining qaynatasiga qarashli bo'lmaganda, bunga bir vaqtlar juda og'ir jinoyatlar sodir bo'lgan joy deb, la'natlar o'qish mumkin bo'lardi.

Ajib vino quyilgan qadahlardan birortasiga hanuz qo'l tekkizmay o'tirgan Vilfor to'g'ri kelganini dast ko'tardi-da, sipqordi.

Monte-Kristo bir daqiqa jim bo'ldi, so'ng u Shato-Reno so'zlaridan keyingi sukunatda dedi:

– Ajabo, baron, to'g'ri aytdingiz, bu uyga birinchi qadam qo'yganda, shunday fikr mening xayolimdan ham o'tgan edi. Bu uy menga xuddi mash'um dargohdek ko'rindi, agar ish boshqaruvchim ishni oldindan bitirib qo'ymaganida men buni aslo sotib olmagan bo'lardim. Aftidan, bu firibgar notariusdan bir oz pora olganga o'xshaydi.

– Ehtimol, – dedi jilmayishga urinib Vilfor, – biroq amin bo'lingki, bu sotish-olish ishiga men aslo aralashgan emasman. Markiz de Sen-Meran nevarasining qalinidan bir qismi hisoblangan bu hovlini sotib yuborish kerak, degan edi, yo'qsa bu uy shu ahvolda yotaversa, yana uch-to'rt yildan keyin xonavayron bo'lib ketardi.

Bu gal Morrelning rangi o'chdi.

– Menga ayniqsa, – so'zida davom etdi Monte-Kristo, – ko'rinishda shunchaki oddiy ko'ringan haligi qizil pardaga o'ralgan xona, nechundir, nazarimda, chidab bo'lmaydigan darajada vahimali ko'rindi.

– Nega endi? – so'radi Debre. – Nega vahimali?

– Kishi qalbida paydo bo'lgan g'ayri ixtiyoriy tuyg'ular sababini qanday qilib biladi? – dedi Monte-Kristo, – odamning ko'nglini birdan g'ash qiladigan joylar yo'q deysizmi? Nega shunday bo'lishini o'zing ham bilmaysan, balki xotiralarning chuvalashib ketishi, bizni hozirgi turgan joyimizga aslo daxli yo'q boshqa davrlar, boshqa joylarga olib ketadigan bema'ni o'y-xayollar bunga sababchidir... Bu markiza de Ganj<sup>7</sup> yoki Dezdemonaning xonasiga o'xshaganligi meni hayratda qoldirdi. Ovqatlanib bo'laylik, so'ng istasangiz, boqqa chiqib qahva ichish oldidan men sizga o'sha xonani ko'rsataman.

Monte-Kristo mehmonlariga savolomuz nazar tashladi. Vilfor xonim o'rnidan turdi, Monte-Kristo ham qo'zg'al-di, so'ng hamma ularga ergashdi.

Vilfor bilan Danglar xonim xuddi o'rindiqqa qoqib qo'yilgandek qimir etisholmadi. Ular churq etishmas, vahima bosib, a'zoyi badani muzlab qotib qolgan edi.

– Eshitdingizmi? – dedi Danglar xonim. – Borish kerak, – dedi Vilfor o'rnidan turib, xonimga qo'lini cho'zarkan.

Mehmonlar qiziqib, uyning har tomoniga tarqalib ketishdi, ular birgina xonani emas, Monte-Kristo vayronani saroyga aylantirgan bu koshonaning hamma xonalarini ko'rmoqchi bo'lib lang ochiq eshiklarga o'zlarini urishdi. Monte-Kristo keyinda qolgan ikki mehmonni kutib turdi, ular oshxonadan chiqqanda iljaydi-da, mehmonlar ketidan yo'l oldi. Agar mehmonlar uning jilmayishi ma'nosi-ni anglaganlarida, hozir borayotgan xonadagidan battarroq vahimaga tushgan bo'lardilar.

Mehmonlar binolarni tomosha qila boshlashdi. Ular sharqchasiga jihozlangan, karavot o'rnida divanlar, ular

ustida yostiqlar, mebel o'rnida trubka, yarog'-aslahalar qo'yilgan yotoqxonalarni, qadimgi mo'yqalam ustalarining eng nodir suratlari osig'liq, ajoyib xitoy matolari tutilgan maxsus mehmonxonalarni zavq bilan tomosha qilib, nihoyat boyagi xonaga kelishdi.

Qorong'i tushib qolganligiga qaramay, hali chiroq yoqilmaganligini, boshqa xonalar singari yangidan beza-tilmay, eskicha qoldirilganligini hisobga olmaganda, bu xonada g'ayri tabiiy hech narsa yo'q edi.

– Rostdanam bu xona juda vahimali ekan, – dedi xitob qilib Vilfor xonim.

Danglar xonim bir nima demoqchi bo'lib g'udrandi-yu, ammo uning so'zlarini hech kim eshitmadi.

Mehmonlar bu qizil xonada haqiqatan ham bironta mu-dhish narsa bo'lsa kerak, degan fikrni xayollaridan o'tka-zishdi.

– Aytganim to'g'ri chiqdimi? – dedi Monte-Kristo – Mana bu karavotning ajib turishini qarang! Devorga yopishtiril-gan gulqog'oz ham qayg'uli – xuddi qonga bo'yalganga o'xshaydi! Mana bu ikki suratga qarang, zaxda rangi o'chib ketibdi! Ularning qonsiz, ko'karib ketgan lablari va vahima bosgan ko'zlari «ha, biz ko'rdik!» deb turganga o'xsha-maydimi?

Vilforning rangi murdadek oqarib ketdi, Danglar xonimning esa tinka-madori qurib, pech oldidagi kursiga cho'kdi.

– Ermina, – dedi jilmayib de Vilfor xonim, – jinoyat sodir bo'lgan shu kursida o'tirishga qanday jur'at eta oldingiz? Danglar xonim shosha o'rnidan turdi.

– Sabr qiling, hali boshqalariyam bor, – dedi Monte-Kristo.

– Tag'in nima bor? – so'radi Debre; Danglar xonimning hayajonga tushganini u sezgan edi.

– Ha, tag'in nima? – so'radi Danglar. – Ochig'ini ayt-sam, hozircha men aytarli biror narsa ko'rganim yo'q. Sizchi, janob Kavalkanti?

– Ha, – dedi Kavalkanti, – bizdayam shunga o'xshash



Pizeda Ugolino minorasi, Ferrarada Tasso zindoni, Riminida Francheski va Paolo xonasi bor.

– To‘g‘ri, lekin sizda mana bunaqa zina yo‘q, – dedi Monte-Kristo devorga yopishtirilgan qog‘oz orqasidagi yashirin eshikni ochib, – mana bunisiga nima deysiz?

– Qanaqa qabih zina-ya, – dedi iljayib Shato-Reno.

– Haqiqatanam, – dedi Debre, – bilmadim, ehtimol haligi xioss vinosi ko‘ngilni g‘ash qilayotgandir, har qalay bu uy meni allaqanday mudhish o‘y-xayollarga soldi.

Morreлга kelganda, Valentining qalini haqida og‘iz ochilgan daqiqadan buyon uning qovog‘idak qor yog‘ar va churq etmasdi.

– Dahshatli zimiston tunda, – dedi Monte-Kristo, – Otelloga yoki abbat de Ganjga o‘xshab qo‘lida mudhish bir narsani begona ko‘zlardan yashirib, shu zinadan bitta-bitta qadam tashlab tushayotgan bir zotni ko‘z oldingizga keltiring!

Danglar xonim hushidan ketib, devorga suyanib qolgan Vilforning qo‘liga o‘zini tashlab yuboray dedi.

– Nima bo‘ldi sizga, baronessa, – dedi Debre. – Ranginiz oqarib ketdi?

– U kishining bu holga tushishining sababi aniq, – dedi de Vilfor xonim, – Graf Monte-Kristo hammamizning o‘takamizni yoradigan mudhish narsalarni hikoya qilyapti.

– Bu haq gap, – dedi Vilfor. – Graf, siz xonimlarning o‘takasini yorib yuboryapsiz.

– Axir, nima bo‘ldi sizga? – dedi shivirlab Danglar xonimga Debre.

– Hechqisi yo‘q, hechqisi yo‘q, – dedi baronessa, o‘zini bosib olishga urinib, – shunchaki nafasim qisilyapti.

– Ehtimol, boqqa tushishni istarsiz? – so‘radi Debre va Danglar xonimga qo‘lini uzatdi-da, yashirin zina tomonga boshladi.

– Yo‘q, yo‘q, – dedi baronessa, – yaxshisi men shu erda qolay.

– Iya, xonim, – dedi Monte-Kristo, – chindanam qo‘rqib ketdingizmi?

– Yo‘q, graf, qo‘rqqanim yo‘q, – dedi Danglar xonim, – boplab hikoya qilganingizdan afsona haqiqatga o‘xshab qoladi.

– Albatta, – dedi iljayib Monte-Kristo, – bularning hammasi shunchaki xayol nayrangi, axir bu xonani ornomsuzli onaning tinch-osoyishta yashaydigan yotoqxonasi deb faraz qilsak bo‘lmasmikan? Qirmizi parda to‘silgan mana shu karavot egasini ilohiy ma‘buda tashrif buyurib baxtiyor etgan ekan, desak ham bo‘ladi-ku! Mana bu yashirin zina doktor yo enaga yoki otaning o‘zi uyqudagi go‘dakni ko‘tarib, endigina bo‘shanib orom olayotgan onani bezovta qilmay, deb asta tushib boqqa chiqadigan yo‘ldir-da?

Bu gal Danglar xonim tasvir etilgan osoyishta manzarani ko‘z o‘ngiga keltirib xotirjam bo‘lish o‘rniga ingrab, batamom hushidan ketdi.

– Danglar xonimning mazasi qochdi, – dedi duduqlanib Vilfor, – uni izvosha olib chiqib qo‘ysak bo‘lmasmikan?

– Yo, Parvardigor? Nima bo‘ldi? – dedi Monte-Kristo. – Aksiga olib, dori shisham esimdan chiqibdi-ya!

– Menda bor, – dedi Vilfor xonim va qip-qizil dori quyilgan shishachani Monte-Kristoga uzatdi, bu graf Eduarga ichirib, sinab ko‘rgan doriga o‘xshardi.

– Eh-e, xuddi o‘zi-yu! – dedi Monte-Kristo Vilfor xonim qo‘lidan dorini olib.

–Ha, xuddi o‘zi, – dedi xonim shivirlab, – topshirig‘ingizga amal qildim.

– Yaxshi chiqdimi?

– Chamamda, yaxshi.

Shu orada Danglar xonimni yondosh xonaga ko‘tarib olib kirishdi.

Monte-Kristo dorini uning lablariga surtdi, xonim hushiga keldi.

---

<sup>8</sup> Hech narsadan taajjublanmaslik kerak (*lot.*).

– Dahshatli tush ko’rdim! – dedi ming’irlab Danglar xonim.

Vilfor, bu tush emasligini anglatish uchun uning qo’lini qattiq qisib qo’ydi.

Danglarni axtara boshlashdi, biroq nozik hissiyotlarga kam e’tibor beruvchi bank egasi allaqachon boqqa tushib, katta Kavalkanti bilan Livorno va Florensiya o’rtasidagi temir yo’lining loyihasi ustida suhbatlashayotgan edi.

Monte-Kristo go’yo ko’ngli buzilganga o’xshab ko’rindi. U Danglar xonimni qo’ltig’idan ushlab, boqqa olib chiqdi-da, ota-o’g’il Kavalkantilar bilan qahva ichib o’tirgan Danglarga ro’para qildi.

– Xonim, nahotki men sizni qo’rqitib yuborgan bo’lsam? – dedi Monte-Kristo.

– Yo’q, graf, unday emas. Biroq yaxshi bilasizki, biz kayfiyatga qarab taassurotlarga berilib ketamiz.

Vilfor kulmoqchi bo’ldi.

– Unday bo’lsa, – dedi Vilfor, – eng bo’lmag’ur taxminlarni ham tushunib etar ekansiz...

– Xoh ishonib, xoh ishonmang, – dedi e’tiroz bildirib Monte-Kristo, – bu uyda jinoyat yuz berganiga men aminman.

– Ehtiyot bo’ling, – dedi Vilfor xonim, – qirollik prokurori shu erdalar.

– Nima bo’pti, – javob qildi Monte-Kristo, – to’g’ri kelib qolgan ekan, men bundan foydalanib ma’lumot berib qo’yishim lozim.

– Ma’lumot? – so’radi Vilfor.

– Ha, guvohlar huzurida.

– Ajib voqea ekan-ku! – dedi Debre, – haqiqatan ham jinoyat bo’lsa, bu bizga hazmi taom bo’ladi.

– Jinoyat bor, – dedi Monte-Kristo – Qani, iltimos, bu yoqqa kelinglar, janoblar, janob de Vilfor, qani bu yoqqa, iltimos, ma’lumotimni davlat vakili huzurida aytqanim ma’qul.

Monte-Kristo bir qo’li bilan Vilforni qo’ltiqlab, ikkinchi qo’li bilan Danglar xonimning qo’lini mahkam ushlab oldi-

da, qirollik prokurorini quyuq soya solib turgan chinor tagiga olib bordi. ... Qolgan mehmonlar ularga ergashdi.

– Mana bu erga, – dedi Monte-Kristo oyog‘i bilan erni tepib ko‘rsatib, – xuddi shu erga, qari daraxtlarga go‘ng berish uchun erni kovlab, qora tuproq solishni buyurdim. Ishchilar qaziyotganda bir yashik, to‘g‘rirog‘i, yashikning temir qismlari chiqib qolgan, ichida yangi tug‘ilgan go‘dakning suyaklari bor ekan. Buni afsona deb bo‘lmasa kerak, to‘g‘rimi?

Monte-Kristo Danglar xonimning tirsagi tortishib ketganini va Vilforning qo‘li titrayotganini sezib turardi.

– Yangi tug‘ilgan go‘dakning? – takrorladi Debre. – Yo, tavba! Nazarimda, ish jiddiylashib borayotganga o‘xshaydi.

– Mana ko‘rdingizmi! – dedi Shato-Reno. – Demak, men uylarning ham odamlar singari joni va yuz-ko‘zi bor, bunda ularning ichki sirlari aks etib turadi, deb to‘g‘ri aytgan ekanman. Bu uy mudhish edi, chunki vijdon azobidan aziyat chekayotgandi, aziyat chekayotganining sababi jinoyatni yashirib yotgani ekan-da.

– Nega endi bu jinoyat bo‘larkan? – dedi e‘tiroz bildirib Vilfor, o‘zini bosib olish uchun oxirgi marta kuchanib.

– Iya! Go‘dakni tiriklayin boqqa ko‘mib qatl etish, sizningcha, jinoyatmasmi? – dedi ovozini baland ko‘tarib Monte-Kristo. – Yo‘qsa, janob qirollik prokurori, siz bu voqeaga qanday baho berasiz?

– Go‘dakni tiriklayin ko‘mganlarini qayerdan, qanday qilib bila qolishibdi?

– Bo‘lmasam, nega uni bu erga ko‘mishadi? Bu bog‘ hech vaqt qabrison bo‘lgan emas-ku!

– Sizning Fransiyangizda go‘dak bolalarni o‘ldirganlarni nima qilishadi? – so‘radi soddadillik bilan mayor Kavalkanti.

– Kallasini tanidan judo qilishadi, – javob qildi Danglar.

– Ha, kallasini uzib tashlaydi deng! – takrorladi Kavalkanti.

– Shunday bo'lsa kerak. To'g'rimi, janob de Vilfor? – so'radi Monte-Kristo.

– To'g'ri, graf, – javob qildi Vilfor beo'xshov ovozda.

Atayin uyushtirilgan bu manzarani ko'rishi kerak bo'lgan ikki zot endi ortiq o'zini tuta olmasligini Monte-Kristo fahmladi-da, gapni shu erda to'xtatdi.

– Janoblar, qani qahvaga marhamat! – dedi u, – biz uni tamom unutib qo'yibmiz-ku!

U mehmonlarni ergashtirib maysazor o'rtasidagi stolga olib bordi.

– Rostini aytsam, graf, – dedi Danglar xonim, – zaifligim qursin, uyatga qo'yadi-da meni, biroq bu dahshatli, mudhish voqealar meni dovdiratib qo'ydi. Ruxsat eting, men o'tiray.

Xonim shunday dedi-da, o'tirmadi, kursiga shilq etib tushdi.

Monte-Kristo ta'zim etdi-da, de Vilfor xonim oldiga bordi.

– Chamamda, Danglar xonim yana doringizga muhtoj bo'lib qoldi, – dedi u.

Vilfor xonim dugonasi oldiga etib borguncha qirollik prokurori Danglar xonimga shivirladi:

– Gaplashib olishimiz zarur.

– Qachon?

– Ertaga.

– Qaerda?

– Mening xonamda... qarshi bo'lmasangiz sudda... bu, menimcha, eng xavfsiz joy.

– Bo'пти, boraman.

Shu payt Vilfor xonim keldi.

– Rahmat, azizim, – dedi Danglar xonim jilmayishga urinib, – o'zinga keldim, endi yaxshiman.

## VII. TILANCHI

Vaqt o'tinqirab qolgan edi. Vilfor xonim Parijga qaytish to'g'risida so'z yurita boshladi. Danglar xonim esa, tobi

qochib qolganiga qaramay, bu haqda g'ing demasdi.

Vilfor, rafiqasining iltimosiga muvofiq, birinchi bo'lib o'rnidan qo'zg'aldi. U Danglar xonimga, bizning xonim bilan birga keting, deb o'z izvoshiga taklif etdi. Kavalkanti bilan juda qiziq foydali suhbat qilayotgan Danglar ketish to'g'risida bo'layotgan bu gaplarga aslo e'tibor bermadi.

Monte-Kristo Vilfor xonimdan dori shishachani so'rayotib Vilforning Danglar xonim oldiga borganini ko'rgan-di va u xonimga zo'rg'a eshitaladigan qilib shivirlagan bo'lsa-da, uning nima deganini anglab olgandi.

Graf hech narsaga aralashmay, Morrelni, Debre bilan Shato-Renoni otlarga o'tqazib jo'natdi, ikkala xonim ham Vilforning foytunida Parijga ravona bo'ldi, Danglar esa, ota Kavalkanti bilan suhbatdan nihoyatda zavqlanib ketib, uni o'z izvoshiga taklif etdi. O'g'il Andrea Kavalkantiga kelganda, u darvoza oldida katta saman ot qo'shilgan dabdabali foytunda g'udayib yo'lga chiqdi.

Ovqat vaqtida Andrea kam gapirdi. U mahmadona bola bo'lsa-da, bu badavlat va nufuzli zotlar oldida biror be-ma'ni gap aytib qo'ymay tag'in, deb indamay o'tirdi. Bu-ning ustiga u qirollik prokuroridan hayiqardi.

So'ngroq uni ham Danglar suhbatga tortdi. Danglar kek-sa, takabbur mayor va uning tortinchoq o'g'lini tezda na-zaridan o'tkazib va ulardagi tashqi belgilarni Monte-Kris-toning ularga nisbatan qilayotgan iltifotlari bilan solishtirib ko'rdi-da, «bu zot hokimlardan biri bo'lib, merosxo'ri-ga kiborlarcha tarbiya berish uchun Parijga tashrif buyurgan bo'lsa kerak», degan fikrga keldi.

Shuning uchun ham Danglar mayorning barmog'ida yonib turgan yirik billur donasiga suqi kelib tikilib-tikilib qo'yardi. Ehtiyotkorlar va tajribali mayor esa biror falokat ro'y berishidan qo'rqib, qog'oz pullarni qimmatbaho buyumlarga almashtirib olgandi. So'ngroq Danglar ovqatdan keyin sanoat va sayohatlar haqidagi suhbat ba-honasi bilan ota va o'g'ilning turish-turmushi to'g'risida ham savol-javob qilib, suhbatlashib oldi.

Xuddi ana shu Danglarning bankida sizga joriy hisob

ochiladi, deb ogohlantirib qo'yilgan ota va o'g'il Kavalkantilar (biriga yiliga qirq sakkiz ming frankka, ikkinchisiga ellik ming livrga) bankirga zo'r iltifot va izzat-hurmat izhor etishardi.

Danglarning ota Kavalkantiga ko'rsatgan izzat-hurmati yana bir narsa tufayli chuqurlashdi. Mayor Gorasiyaning: nil admirali<sup>B</sup> degan qoidasiga amal qilib, hali ilonbaliqlar qaysi ko'llardan tutib olinishini aytib berib bilag'on ekanligini namoyish qildi, so'ng shu baliqdan o'z hissasini paqqos tushirdi. Buni ko'rgan Danglar, bunaqangi ortiqcha dabdabalar Kavalkantilar avlodi uchun oddiy narsada, aftidan, u Lukkada yashab, Shveysariyadan xonbaliqlarni, Bretanidan katta-katta qisqichbaqalarni, graf Fuzaro oroli va Volgadan boyagi baliqlarni qanday usulda oldirgan bo'lsa, xuddi shunday usulda oldirib kelib esa kerak, degan xulosaga keldi.

Shuning uchun uni Kavalkantining quyidagi so'zlari juda quvontirib yubordi.

– Janob, ertaga bir ish bilan huzurlarida bo'laman.

– Marhamat, – javob berdi Danglar, – janoblarning tashrifidan boshim ko'kka etgusi.

Danglar, Kavalkantini o'z foytunida Shahzodalar mehmonxonasigacha kuzatib qo'yishga tayyor ekanini aytdi va «o'g'lingizning o'zi borar», dedi.

Kavalkanti o'g'li allaqachonq mustaqil yashashga odatlanib qolgan, o'zining shaxsiy otlari va izvoshi bor, bu erga men ham, u ham o'z izvoshimizda kelganmiz, shu boisdan qaytishda ham har kim o'z izvoshida ketishi turgan gap, dedi.

Shunday qilib, mayor Danglarning izvoshiga o'tirdi. Bank egasi uning yoniga chiqdi. U bu zotning tejamkorlik, ehtiyotkorlik va batartiblik to'g'risidagi oqilona mulohazalaridan zavqlanardi. «Ammo, – derdi u ichida, – shunga qaramay, u o'g'liga yiliga ellik ming dollar berib turar ekan-a, axir buning uchun yiliga besh yuz ming yoki olti yuz ming daromadga ega bo'lish mumkin-ku».

Shu orada Andrea oliftagarchilik qilib, xizmatchini,

nega izvoshni zina oldiga keltirmay, darvoza oldida qaqqayib turibsan, meni shu ergacha rosa o'ttiz qadam piyoda kelishga majbur etding, deb, rosa tanbeh berdi.

Xizmatkor miq etmay bo'yin egib turardi: u bir qo'li bilan gijinglab turgan otning jilovini tutib, ikkinchi qo'li bilan esa Andreaga tizginni uzatdi, Andrea tizginni ushladi-da, amirkon botinka yaltirab turgan oyog'ini zinaga qo'ydi.

Shu payt kimdir uning elkasiga qo'lini tashladi.

Danglar yoki Monte-Kristo menga bir narsa aytmoqchi bo'lgan ekanu unutilib qo'yib, hozir esiga tushibdi-da, deb orqasiga o'girildi Andrea. Biroq qarshisida ular emas, qandaydir beo'xshov, oftobda kuyib jizg'anagi chiqqan, paxmoq soqollari o'sib ketgan bir nusxa ko'zlarini cho'g'day yondirib, qashqirniki singari o'tkir tishlarining oqini ko'rsatib iljayib turardi.

U oq aralash sochi boshiga yo'l-yo'l qizil durra bog'lagan, uzun, oriqli egnida uvada, isqirt yaktak. Bu kimsa har gal qimirlaganda suyaklari bir-biriga tegib shaqillasa kerak, deb o'ylash mumkin. Uning Andreaning elkasiga tashlagan qo'li Kavalkantiga beso'naqay ko'rindi.

Andrea izvoshining fonusi yog'dusida bu badbasharani tanidimi yoki uning razil, mudhish aft-angorini ko'rib dovdirab qoldimi, bu yog'i bizga qorong'i, lekin u bir seskandi-da, o'zini orqaga tashladi.

– Nima kerak sizga? – dedi Andrea.

– Kechirasiz, ulug', – dedi haligi odam qizil durrasini ushlab. – Xalaqit berdim shekilli, biroq bir-ikki og'iz gapim bor sizga.

– Qorong'i kechada sadaqa so'ramaydilar odamdan, – dedi xizmatkor xo'jayinini kanaga o'xshab yopishayotgan gadoydan qutqarish niyatida.

– Hoy olifta, men sadaqa so'rayotganim yo'q, – dedi kinoyaomuz notanish kimsa. U shunday xunuk va yoqimsiz iljaydiki, xizmatchi qo'rqib orqaga tisarildi, – xo'jayiningiz ikki hafta burun menga bir topshiriq bergan edi, o'sha haqda ikki og'iz so'z aytmoqchiman, xolos.



Andrea ham vahimaga tushganimni xizmatchim sezmasin, deb qattiqroq tovush bilan:

– Hoy, menga qarang, – dedi, – nima kerak sizga? Tezroq ayting, og‘ayni.

– Menga faqat bir narsa kerak... – dedi qizil durrali odam asta. – Meni Parijga piyoda borishdan xalos qilsangiz bas. Juda charchab, holdan toydim, sen singari to‘yib ovqatlanganim ham yo‘q, oyoqlarim qaltirab, zo‘rg‘a turibman.

Bu g‘alati gapni eshitib Andrea seskanib ketdi.

– Axir nima demoqchisiz, ayting? – so‘radi u.

– Meni shinam izvoshingda Parijga olib borib qo‘y, demoqchiman.

Andreaning rangi o‘chdi, ammo hech nima demadi.

– Ha, bilib qo‘yingki, men shuni istayman, – dedi qizil durrali kishi qo‘llarini cho‘ntaklariga suqqan holda gerdayib. – Eshitingmi, mening kichkintoy Benedettom?

Andrea bu nomni eshitib, bir oz past tushdi-da, xizmatkorining oldiga borib:

– Rostdanam men bu odamga bir topshiriq bergan edim, – dedi, – u menga natijasini aytishi kerak. Zastavagacha piyoda borasiz-da, kechikmaslik uchun u erdan arava yollab, etib olarsiz.

Taajjubda qolgan xizmatkor yo‘lga chiqdi.

– To‘xtang, men qorong‘iroq joyga chiqib olay, – dedi Andrea.

– Xotirjam bo‘l, pastqam joyga men o‘zim olib boraman seni, – dedi haligi badbashara, – mana, ko‘rasan, o‘zim olib boraman.

U shunday dedi-da, tizginlarni ushlab, izvoshni qorong‘i burchakka olib bordi, bu erda Andrea bu odamga qanchalik izzat-hurmat ko‘rsatsayam hech kim ko‘rmasdi.

– Men izvoshingga havasga tushmoqchimasman, – dedi u. – Aslo, men juda charchab qoldim, buning ustiga

---

<sup>9</sup> XVII asrning mashhur nasihatgo‘yi.

sen bilan ishlarimiz to'g'risida gaplashib olmoqchiman.

– Qani, o'tiring bo'lmasam, – dedi Andrea. Afsuski, qorong'i tushib qoldi, yo'qsa bu juldurvoqi badbasharaning izvoshdagi shohi bolishlarda taltayib o'tirganini va uning yonida bashang yigitning otlar jilovini tutib turganini ko'rgan kishi hayratda qolgan bo'lardi.

Andrea qishloqdan chiqquncha churq etmadi, yo'ldoshi ham ajoyib izvoshta minib olishga muyassar bo'lganidan mamnunday iljayib jim o'tirardi.

Oteyldan chiqqach, Andrea atrofga bir alanglab hech kimsa yo'q ekanligiga imoni komil bo'lgach, otlarni to'xtatdi va qo'llarini qovushtirib ko'ksiga qo'ydi-da, qizil durrali kishi tomonga o'girildi.

– Hoy, menga qarang, – dedi u, – o'zi nima gap? Nima gapingiz bor menda? Meni tinch qo'yasizmi, yo'qmi?

– U gapingni qo'y, yigitcha, nega menga ishonmayapsan?

– Nega sizga ishonmas ekanman?

– Tag'in nega deydi-ya. Ikkimiz Varsk ko'prigida xayrlashdik, o'shanda sen menga Pemontga va Toskanaga boraman deding. Bir vaqt qaragam, Parijda paydo bo'lib qolipsan! Bu qanaqasi bo'ldi?

– Buning sizga nima daxli bor? Yo xalaqit beryapmanmi?

– Yo'q, aksincha, buning menga ham nafi tegsa kerak, degan umiddaman.

– Ie-e.. hali shundaymi! – dedi Andrea. – Demak, siz men tufayli biror foyda ko'rmoqchi ekansiz-da?

– E-e... qo'ysang-chi, bunaqa balandparvoz gaplarni!

– Shuni aytib qo'yayki, Kadruss tog'a, bundan hecham foyda chiqmaydi.

– Sen, yigitcha, ko'nglingga olma bu gaplarni, sen baxtsizlik nimaligini yaxshi bilasan, baxtsizlik esa kishini hasadchi qilib qo'yadi. Men seni Pemont va Toskanada xor-zor bo'lib hammolchilik qilib yuribdi, deb o'ylab, xuddi o'z o'g'limdek rahmim kelib yurgan edim. Axir esingda-ku, men seni hamma vaqt o'g'lim deb

chaqirardim.

– Xo’sh, yana nima demoqchisiz? Yana nima?

– E-e-e... sabr qil-da! Hadeb qizishib ketaverasanmi?

– Busiz ham sabr-toqatim joyida. Qani, gapni qisqa qiling.

– Hali aytganimdek, seni o’sha shaharlarda darbadar bo’lib yurgandir deb rahmim kelib yurardi, bir vaqt to’satdan seni zastavada ko’rib qoldim, qaragam tagingda ajoyib izvosh, yoningda kiyim-boshi bashang xizmatkor. Xo’sh, nima bo’ldi senga, xazina-pazina topdingmi yoki birja dallolining patentini sotib oldingmi?

– Demak, hasad qilayapsiz ekan-da?

– Yo’q, aksincha, men juda xursandman, xursandligimdan, hatto, yigitcha, seni tabriklamoqchi ham bo’ldim, biroq ust-boshimning nochorligidan tag’in obro’yingga putur etkazmay deb o’zimni chetga oldim.

– O’zimni chetga oldim emish! – dedi Andrea. – Xizmatkorim oldida men bilan dangal gaplashganingiz o’zingizni chetga olganingizmi?

– O’g’lim, ilojim qancha, diydor ko’rishish muyassar bo’lgach, gapiraverarkansan. Oting yo’rg’a, izvoshing engil, o’zing ham bamisoli ilonbaliqqa o’xshaysan, bugun qo’limdan chiqarib yuborgudek bo’lsam, tamomvassalom, so’ng seni tutib bo’larmidi.

– Axir, men yashirinayotganim yo’q-ku.

– Bu sening baxting, qani men ham o’zim haqimda shunday deyishga muyassar bo’lsam! Men esa odamlardan yashirinib yuribman. Buning ustiga, sen meni tani may qolarmikansan deb qo’rqqandim. Ammo sen meni taniding, – dedi Kadruss razilona iljayib, – bu sening menga katta muruvvating.

– Ha, bo’pti, – dedi Andrea, – maqsadingizni ayting.

– Sen meni «siz»lab gapirayapsan, bu yaxshi emas. Benedetto, men qarddon do’stingman-ku. Ehtiyot bo’l, men talabchan bo’lib olishim mumkin.

Bu po’pisa Andreaning popugini ancha pasaytirib qo’ydi, u yon berishga majbur ekanini sezdi. Andrea otini

yana yo'rttirdi.

– Kadruss, – dedi u, – men bilan bunaqa munosabatda bo'lishing insofdan emas. O'zing: qadrdon do'stlarmiz, deyapsan-ku, sen marsellik, men esa...

– Endi kim ekanligingni bilib olgandirsan?

– Yo'q, men Korsikada o'sib ulg'ayganman. Sen qari va qaysar cholsan, men esa yoshman va hadeb gapga unayvermayman. Agar bir-birimizga do'q-po'pisa qilaversak, bu yaxshilikka olib bormaydi. Yaxshisi, keling, hamma masalalarni yaxshilikcha hal etaylik. Agar taqdir menga kulib boqayotgan ekan, sening ishlaring hamon ilgariqidek chappasidan ketayotgan ekan, bunga men aybdormanmi?

– Chindan ham oshig'ing olchimi? Xizmatkor, mana bu izvosh, ust-bosh ijaraga olingan ekan-da? Agar shunday bo'lsa, juda soz-ku! – dedi Kadruss ochko'zlik bilan baqrayib.

– Men bilan gaplashmoqchi ekansan, demak o'zing yaxshi ko'rib, anglab turibsang ekan-da, – dedi Andrea tobora hayajonlanib. – Agar mening boshimda ham senikidaqa durracha, egnimda juldur kiyim, oyog'imda titig'i chiqib ketgan boshmoq bo'lganda sen meni so'rab-surishtirib ham o'tirmasding.

– Mana, yigitcha, ko'rinib turibdiki, sen o'lguncha yomon ko'rasan meni. Yaxshi emas! Mana, seni topdim, endilikda yaxshigina movutdan kiyim kiyib olsam bo'ladi. Men sening muruvvatli odam ekaningni yaxshi bilaman-ku, axir, kostyuming ikkita bo'lsa, bittasini menga berishing turgan gap. Axir ochlikdan sillang quriganda o'zimning qornim och bo'lsa-da, senga sho'rvam bilan no'xotimni bergan edim-ku!

– Bu haq gap, – dedi Andrea.

– Ishtahang o'shanda karnay edi! Hozir ham ishtahang yaxshimi?

– Albatta, – dedi kulib Andrea.

– Bu knyazning uyida ovqatni rosa tushirgan bo'lsang kerak-a?

- U knyaz emas, faqat graf.
- Graf? Boymi?
- Ha, biroq undan umidvor bo'lma, bu janobdan biror foydali ish chiqishi qiyin.
- Qo'rqma, grafiingga hech kim tegmaydi, o'zingga buyursin. Biroq, – dedi Kadruss qo'shimcha qilib, uning lablarida yana boyagi mudhish tabassum paydo bo'ldi, – biroq buning evaziga sen menga puldan cho'zib turishing kerak.
- Xo'sh, qancha kerak senga?
- Oyiga yuz frank bo'lsa etar deyman...
- Shundaymi?
- Har qalay kunim o'tib turar...
- Yuz frankka-a?
- Kam, albatta, o'zing bilasanku, biroq...
- Biroq?
- Yuz ellik frank bo'lsa ko'ngildagiday yashay olardim-da.
- Mana, ikki yuz, ol, – dedi Andrea va Kadrussning qo'lga o'n luidor tutqazdi.
- Yaxshi, – dedi Kadruss.
- Har oyning birinchi kuni shveysarga uchra, ikki yuzdan olaverasan.
- Mana, sen meni tag'in kamsityapsan.
- Nega endi?
- Malaylarga to'g'ri qilyapsan meni. Yo'q, men faqat seni bilaman.
- Mayli, menikiga kelaver, mening daromadlarimni to'lab turishsa, sen har oyning birinchi kuni o'z ulushingni olaverasan.
- Bundan chiqdi, seni deb adashmagan ekanman. Ofa-rin senga. Senga o'xshash kishilarning ishi doimo o'ngidan kelaversin. Ayt-chi, qanday qilib oshig'ing olchi bo'la qoldi?
- Buning senga nima qizig'i bor? – so'radi Kavalkanti.
- Hali ham ishonmaysanmi menga!
- Hecham. Men otamni izlab topdim.

– Haqiqiy otangnimi?  
– Ha... u menga pul berayotgan ekan, demak...  
– Unga qanchalik ishonsang va hurmat qilsang, shunchalik yaxshi ish qilgan bo'lasan. Otangning ismi sharifi nima?

- Mayor Kavalkanti.
- U sendan xursandmi?
- Hozircha xursandga o'xshaydi.
- Otangni kim topib berdi?
- Graf Monte-Kristo.
- Hozir sen kirib chiqqan uy egasimi?
- Ha.

– Menga qara, bu graf shunaqa savob ishlar bilan shug'ullanarkan, meni ham bobom deb, unikiga joylashtirib qo'y.

– To'g'ri aytasan, men bu bilan sening haqingda bir gaplashib ko'raman. Ungacha nima qilasan?

- Menmi?
- Ha, sen.

– Men uchun qayg'urishing olijanob ish, – dedi Kad-russ.

– Menimcha, – dedi Andrea, – sen meni qisti-bastiga olib so'roq qilganingdan keyin sendan ham ba'zi narsalarni so'rab, bilib olishimga haqim bo'lsa kerak.

– To'g'ri... Men durustroq joydan bir xonani ijaraga olaman, yaxshilab kiyinaman, har kun soqol-mo'ylovimni qirdirib, qahvaxonaga borib gazeta o'qiyman. Kechqurunlari esa klakerlarning biror to'dasiga qo'shilib, teatrlarga boraman. Xullasi kalom, ishni tashlab, rohat-farog'atda yashayotgan bulkachi bo'laman. Buni ko'pdan beri orzu qilib yurardim.

– Shunday qilsang juda yaxshi bo'ladi. Bu niyatingni amalga oshirsang va farosat bilan ish tutsang, hammasi joyida bo'laveradi.

– O'hu, mana bu Bossyueni qarang-a?<sup>99</sup>.. Sen-chi, o'zing kim bo'lmoqchisan? Fransiyaning ulkan zodagoni bo'lmoqchimisan?

– Ehtimoldan xoli emas shunday bo'lishim! – dedi Andrea.

– Mayor Kavalkantiyam, balki zodagonlardandir... biroq, bu borada merosxo'rlik bekor qilingan.

– Kadruss, iltimos qilaman, siyosatni qo'y!.. Istagingga etding, pulni olding, shaharga ham etib keldik, qani, izvoshdan tush-da, qorangni o'chir.

– Aslo, azizim, aslo!

– Iya... Tag'in nima kerak?

– Yigitcha, o'zing bir o'ylab ko'r, boshimda qizil durra, oyog'imda poshnasiz etik, qo'limda birorta hujjatim yo'q, cho'ntagimda o'n luidor, ya'ni, roppa-rosa ikki yuz frank pul bor. Bu ahvolda meni zastavada shartta qamoqqa olishadi! O'zimni oqlash uchun bu ikki yuz luidorni sen berganingni aytishim kerak; so'roq boshlanib ketadi, hech kimdan so'ramay, Tulondan chiqib ketganimni aniqlab olishadi-da, O'rta er dengizi tomonga qarab haydab ketishadi, ana shunda men yana «bir yuz oltinchi nomer» bo'lib qolaman-da, haligi orzu-umidlarim chippakka chiqadi! Aslo unday qilmayman, o'g'lim, aslo! Men poytaxtda dorilomon yashashni afzal deb bilaman.

Andrea qoshlarini chimirib qo'ydi, mayor Kavalkanti-ning soxta o'g'li, o'zi iqror bo'lganidek, juda o'jar edi. U otning jilovini tortdi, atrofiga bir nazar tashladi-da, cho'ntagiga qo'lini tiqib, to'pponchaning tepkisini topdi.

Ammo shu payt yo'ldoshidan bir daqiqa ko'zini uzmay turgan Kadruss sekin-asta ispancha uzun pichog'ini ochdi. (Bu pichog'ini u har ehtimolga qarshi yonida olib yurardi.)

Qorong'ida topishgan ikki og'ayni bir-biriga juda mos bo'lib tushgani ravshan bo'ldi, shu on Andrea qo'lini asta cho'ntagidan oldi-da, malla mo'ylovini silay boshladi.

– Mana, endilikda, do'stim Kadruss, farog'atda yashayverasan, – dedi u.

– Buning uchun nimaiki, kerak bo'lsa, hammasini bajo etishga tirishaman, – javob qildi Garsk ko'prigi yonidagi

qovoqxonaning sobiq xo'jayini, pichog'ini bekitib.

– Mayli, Parijga ketdik. Biroq sen zastavadan qanday o'tasan? Shubhalanib, tutishlari mumkin-ku? Menimcha piyoda yurganimiz ma'qul. Bunday ust-boshda izvoshda o'tirishing xavfli bo'lsa kerak.

– To'g'ri, hozir nima bo'lishini ko'rasan, – dedi-da, Kad-russ Andreaning shlyapasini kiydi, izvoshda xizmatkor tashlab ketgan keng yoqali yomg'irpo'shni elkasiga tashladi va g'o'dayib oldi, shu holatda otni boshqaradi-gan nufuzli xonadonning qaroliga o'xshardi Kad-russ.

– Men-chi, men qanday qilib boshyalang ketaman? – dedi Andrea.

– Buning nima ahamiyati bor! – dedi pishqirib Kad-russ.  
– Bugungi qattiq shamol shlyapangni uchirib ketdi, vas-salom.

– Ke, qo'y, – dedi Andrea, – bas qil bu mashmashani.

– Senga birov xalaqit beryaptimi? – dedi Kad-russ. – Men xalaqit bermayotgan bo'lsam kerak, shundaymi?

– Jim-m... – dedi shivirlab Kavalkanti. Zastavadan eson-omon o'tib olishdi.

Birinchi muylulishga kelganda Andrea otni to'xtatdi, Kad-russ irg'ib pastga tushdi.

– Hoy, menga qara, – dedi Andrea, – yomg'irpo'sh bilan shlyapamni bermaysanmi?

– Axir sen mening shamollab qolishimni istamasang kerak, to'g'rimi?

– Men-chi?

– Yosh-san, men esa qartayib boryapman. Xayr, Bene-detto! – dedi-da, muylulishdan o'tib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

– Ajabo, – dedi xo'rsinib Andrea, – nahotki bu dunyo-da to'la baxtga erishish mumkin bo'lmasa?

## VIII. OILAVIY MOJARO

Yoshlar Lyudovik XV maydoniga etib kelishdi-da, tarq-alishdi: Morrel xiyobonlar tomon, Shato-Reno Revolyusiya ko'prigi tomon yo'l oldi, Debre esa daryo qirg'og'i bo'ylab



ketdi.

Morrel va Shato-Reno, aftidan, Palata minbaridagi jozibador nutqlarda yoki Rishela ko'chasidagi teatr sahnasida ishlatiladigan ibora bilan aytsak, «o'z uyim – o'lan to'shaqim», deb uylariga ketishgan esa-da, Debre unday qilmadi. U Luvr darvozasi oldida chapga burildi-da, Karusel maydonidan ot choptirib o'tib, Sen-Rok ko'chasi bo'ylab borib, Mishoder ko'chasiga burildi va Danglar koshonasiga keldi. Xuddi shu daqiqa Vilforning izvoshi prokurorni xotini bilan shahar yaqinidagi Sent-Onorega tashlab, baronessani uyiga olib kelgan edi.

Bu xonadonni o'ziniki qilib olgan Debre to'g'ri hovliga ot bostirib kirdi-da, qarolga jilovni tutqazib, Danglar xonim izvoshi yoniga qaytib keldi, xonimni izvoshdan suyab tushirdi va qo'ltig'idan olib, uyi tomon yo'l oldi.

Darvoza bekilib, hovlida baronessa bilan Debre qoldi. Shu payt Debre:

– Ermina, – dedi xonimga, – sizga nima bo'ldi? Graf o'sha mojaroni, to'g'rirog'i, hikoyani aytganda, nega o'zingizni yo'qotib qo'ydingiz?

– Azim, bugun o'zimni boshqacharoq his qilgan edim, – deb javob qildi baronessa.

– Yo'q, Ermina, unday bo'lmasa kerak, – e'tiroz bildirdi Debre, – men bunga ishonmayman. Grafnikiga borganda kayfingiz chog' edi. To'g'ri, janob Danglarning ta'bi xira edi. Biroq siz uning ko'ngli g'ashmi yoki yo'qmi, uncha e'tibor bermaysiz, men buni bilaman. Kimdir dilingizni og'ritdi. Ayting, nima gap o'zi? Sizni xafa qilishsa, chidab turlmasligimni bilasiz.

– Lyusen, gapimga ishoning, siz yanglishyapsiz, – dedi Danglar xonim, – buning ustiga, siz aytgandek, uning kayfiyati yo'qroq edi, men buni sizga aytishni ep ko'rmagandim, o'zingiz fahmlabsiz.

Danglar xonimning qalbini hayajon yoki Debre aytganidek, qandaydir bir yashirin iztirob qamrab olgandi. Ayollar bunday narsalarni hech kimga ochiq aytishmaydi. Debre ayollarning besabab asabi buzilib turishiga ko'ni-

kib qolgan edi, shuning uchun ham so'rog'imga javob bering, deb qistamadi va biror qulay vaqt kelganda bu savolini yana bermoqchi bo'ldi.

Baronessa yotoqxonasi eshigi oldida o'zining ishonchli xizmatkori mademuazel Korneliga duch keldi.

– Qizim nima qilyapti? – so'radi Danglar xonim.

– Tuni bilan mashg'ulot qildi, so'ng uxladi, – dedi mademuazel Korneli.

– Nazarimda, birov royal chalyaptimi?

– Mademuazel d'Armili royal chalyapti. Mademuazel Ejeni esa yotibdi.

– Yaxshi, – dedi Danglar xonim, – meni echintirib qo'ying.

Ular yotoqxonaga kirishdi, Debre o'zini keng divanga chalqancha tashladi, Danglar xonim esa mademuazel Korneli bilan o'z kiyimxonasiga o'tdi.

– Lyusen, ayting-chi, – dedi eshik tirqishidan Danglar xonim, – siz, Ejeni men bilan gaplashishni istamaydi, deb hamon nolib yuribsizmi?

– Birgina men noliyotganim yo'q, – dedi Lyusen baronessaning kuchukchasini o'ynatib, bu kuchuk Debreni xonadonining qadrdoni, deb uni erkalardi. – Qaysi kuni Morser ham, qaylig'im menga sira gapirmaydi, deb sizga arz qilganini o'z qulog'im bilan eshitganim yodimda...

– Bu gapingiz to'g'ri, – dedi Danglar xonim, – biroq aminmanki, yaqin orada Ejenining o'zi sizning xonangizga kirib boradi.

– Mening kabinetimga?

– Ministrning kabinetiga, demoqchiman.

– Nega?

– Sizdan operaga vaqtinchaga kiritib qo'yishingizni iltimos qilish uchun. Ochig'ini aytganda, men musiqani bunchalik sevadigan odamni shu paytgacha sira ko'rmaganman. Oqsuyak qizning bu qiligi kulgili!

Debre kuldi.

– Bo'пти, – dedi u, – siz bilan baron shunga rozi ekan-sizlar, mayli, kelsin, Ejenini operaga kiritib qo'yamiz. Qizin-

gizning yuksak iste'dodiga munosib xizmat qilishga qurbimiz etmasa-da, unga munosib angajement uyushtirishga harakat qilamiz.

– Korneli, sizda mening boshqa ishim yo'q, ruxsat, – dedi Danglar xonim.

Korneli chiqib ketdi, bir daqiqa o'tar-o'tmay Danglar xonim bashang bo'lib kiyimxonadan chiqdi va Lyusenning yoniga o'tirdi-da, xayol surib kuchukchani silay boshladi.

Lyusen indamay unga tikilib turardi.

– Ermina, menga qarang, – dedi u, – ochig'ini ayting, nega endi xomush bo'lib qoldingiz? Biror gap o'tdimi?

– Hech gap o'tgani yo'q, – dedi baronessa e'tiroz bildirib.

Shu vaqt xonimning nafasi bo'g'ildi, u o'rnidan turdida, chuqur nafas olishga harakat qilib, oyna oldiga bordi.

– Men bugun xuddi alvastiga o'xshayman, – dedi u. Debre baronessaning ko'nglini ko'tarish uchun o'rnidan turgan edi, to'satdan eshik ochilib, Danglar kirib keldi, Debre yana divanga cho'kdi.

Eshik ochilganini bilib Danglar xonim ham orqasiga o'girildi va eriga taajjublanib tikildi.

– Salom, baronessa, – dedi bankir, – salom, janob Debre.

– «Baron bugun bir necha marta piching otib dilimni og'ritgan edi, aftidan, endi ko'nglimni ko'targani kelgan-ga o'xshaydi», – o'zicha o'yladi baronessa baronning bu bemavrid kirib kelishini ko'rib.

Xonim kibr-la gerdaydi-da, erining salomiga alik bermay, Lyusen tomonga o'girilib:

– Janob Debre, bironta kitobni olib o'qing, men eshitay, – dedi.

Danglarning bexosdan kirib kelishi Debreni dastlab ancha tashvishga solgandi, biroq baronessaning pinagi buzilmaganini ko'rib, xotirjam bo'ldi va orasiga zar naqshli sadaf pichoq qistirib qo'yilgan kitobni oldi.

– Kechiring meni, – dedi bankir, – siz charchab ancha toliqib qoldingiz, baronessa, soat o‘n bir, dam olish vaqti bo‘ldi, janob Debrening ham uyi juda uzoq.

Debrening quti o‘chib, dong qotib qoldi, Danglar dag‘al va asabiy ohangda gapirgani uchun emas, bu gal xotining xohishiga ters ish qilayotgani uchun g‘azablandi Debre.

Baronessa ham hayron bo‘lib, olayib ketgan ko‘zlarini eriga qadadi, agar bankir shu payt gazetadan birja byulletenini axtarish bilan band bo‘lmaganida, ehtimol buni ko‘rib o‘ylanib qolgan bo‘lardi, ammo baronessaning g‘azabli ko‘zlari kutilgan natijani bermadi.

– Janob Debre, – dedi xonim, – shuni hisobga olingki, men hecham uxlamoqchimasman, sizga ko‘p narsalarni hikoya qilib berishim kerak, shu sababdan sizning qanchalik uyqungiz kelsa-da, tun bo‘yi gapimni eshitishga majbursiz.

– Xizmingizga tayyorman, xonim, – dedi Debre pinagini buzmay.

– Azizim janob Debre, – so‘z qotdi bankir, – iltimos qilaman, buguncha Danglar xonimning bema‘ni gaplaridan o‘zingizni xalos eting, ertaga istagancha eshitishingiz mumkin. Bu oqshom mening ixtiyorimda, ruxsat qilsinlar, bu kechani xotinim bilan jiddiy suhbatga bag‘ishlamoqchiman.

Bu gal zarba mo‘ljalga shu qadar to‘g‘ri tekkan ediki, Lyusen ham, baronessa ham esankirab, bu zarbadan najot axtarib bir-biriga ko‘z tashlab qo‘yishdi, ammo uy xo‘jayinining shak keltirib bo‘lmaydigan hukmronligi tantana qildi, er g‘olib chiqdi.

– Azizim Debre, – dedi so‘zini davom ettirib bankir, – tag‘in uyidan meni quvyapti, deb o‘ylamang.

Kutilmagan bir vaziyat tufayli men shu bugunoq baronessa bilan gaplashib olishim zarur. Bunday hollar kamdan-kam yuz beradi, buning uchun mendan nolimasangiz ham bo‘ladi.

Debre g‘uldirab bir necha so‘z aytdi-da, xayrlashib, «Ata-

liya» pesasidagi Natan singari jihozlarga qoqilib-suqilib chiqib ketdi. Ketidan eshik yopilgach, «Biz masxara qilib yurgan bu erlar ustomonlik bilan bizdan ustun chiqib olishadiki, bunga hayron qolasan kishi», dedi o'z-o'ziga Debre.

Debre ketishi bilan Danglar uning o'rniga o'tirdi-da, hamon ochiq turgan kitobni bekitdi, o'zini boshqacha qiyofaga solib, kuchuk bilan o'ynasha boshladi. Ammo kuchuk uni yoqtirmasdi, tishlab olmoqchi bo'ldi, Danglar g'azablanib, kuchukning bo'ynidan mahkam ushlab uyning narigi tomonidagi yumshoq kursiga uloqtirib yubordi.

Kuchuk angilladi, kursiga tushgach, bolishga suqilib jimib qoldi.

– Janob, bugun juda haddingizdan oshib ketyapsiz-ku, – dedi baronessa pinagini buzmay. – Qo'polligingiz ayon edi-yu, ammo bugun xuddi hayvonga o'xshagan qiliq qilayapsiz.

– Buning boisi shuki, bugun ta'bim har kungidan ham tirriq, – javob qildi Danglar.

Ermina bankirga g'azab bilan nazar tashladi, bunday nafratli qarash ko'pincha dimog'dor Danglarning asabini o'ynatib yuborardi, biroq bugun u bunga unchalik e'tibor bermadi.

– Ta'bingiz tirriq bo'lsa menga nima, – dedi baronessa erining o'zini xotirjam tutishidan achchig'lanib. – Menga buning daxli yo'q. Kuchala egan joyingizga borib tirishing, idorangizda maosh olib ishlaydigan xizmatchilaringiz bor, alamingizni o'shaldan oling!..

– Yo'q, xonim, – javob qildi Danglar, – bu nasihatlarinigiz o'rinsiz, men ularni eshitishni istamayman. Mening idoram, janob Demutening iborasi bilan aytganda, oltin oqadigan daryom, shu sababdan uning oqib turishiga xalaqit bermoqchi emasman, loyqalatmoqchi ham emasman. Xizmatchilarim esa davlat orttirishda menga yordam berayotgan halol odamlar, men ularga juda kam xizmat haqi to'layapman. Shu sababdan ulardan

achchig'lanishimga hech vaj yo'q, g'azabimni keltirayotganlar ular emas, o'z uyimda ovqatimni eb, otlarimni choptirib, hamyonlarimni quritayotganlar!

– Kim ekan u hamyoningizni quritayotganlar? Iltimos, aniqroq qilib ayting.

– Xotirjam bo'lavering, men ilmoqli qilib gapirganim bilan, baribir, siz qiynalmay uni bilib olasiz, – dedi e'tiroz bildirib Danglar. – Mening hamyonimni bir soat ichida undan ellik ming frank olib ketadigan zotlar qurityapti.

– Tushunmadim, – dedi baronessa ovoqidagi titroqni va yuzidagi o'zgarishni yashirishga urinib.

– Aksincha, siz juda yaxshi tushunasiz, – dedi Danglar, – faqat o'jarlik qilyapsiz, unday bo'lsa men aytib bera qolay: men ispan zayomidan etti yuz ming frank zarar ko'rdim.

– Shunaqami hali! – dedi istehzo bilan baronessa... – bunda siz aybni mening bo'ynimga qo'yyapsizmi?

– Sizning bo'yningizga qo'ysam nima bo'пти?

– Etti yuz ming frankdan ajralib qolganiigizga men aybdormanmi?

– Har holda men emas.

– Janob, – dedi qat'iy norozilik bildirib baronessa, – men sizga aqchalarigiz haqida biror gap eshitishni istamayman degan edim, bunaqa gapga ota-onam uyida ham, birinchi erimning uyida ham odatlangan emasman.

– Ishonaman, ishonaman, – dedi Danglar, – ularning cho'ntagida hemiri ham yo'q edi.

– Siz bankirlar, ishlatadigan qo'lansa shevalarni u erlarda hech eshitmagandim, mana endi ular bu erda ertalabdan kechgacha miyamni qoqib qo'linga beradi. Hadeb sanab sanog'iga etolmayotgan tangalarigizning jarangi jonimdan bezor qilib yubordi. Sizning tovushingizdan ham yoqimsiz narsa bormikan bu dunyoda?!

– Ajabo! – dedi Danglar. – Siz mening sarmoya borasidagi ishlarim bilan qiziqasiz, deb o'ylardim.

– Menmi? Bo'lmag'ur gap. Kim aytdi sizga buni?

– O'zingiz.

- Qo'ying bu gapingizni!
- Chindan ham.
- Qiziq, qachon aytgan ekanman?
- Hozir aytaman. Fevral oyida gait zayomi haqida birinchi marta o'zingiz aytgan edingiz, o'shanda go'yo tushingizda Gavr portiga bir kema kelganini va u keyinga qoldirilgan qarzlarni to'lash haqida xabar olib kelganligini aytgan edingiz. Siz hamma narsani oldindan ko'rasiz, shuning uchun ham men qayerda bo'lmasin hamma gait zayomlari sotib olinsin, deb buyruq berdim, bunda to'rt yuz ming frank foyda qildim. Bundan yuz ming frankini sizga berdim. Siz bu aqchani istagancha sarf qildingiz. Men indamadim, mart oyida temir yo'l konsessiyasi haqida gap borgandi. Bir xilda kafillikni gardaniga olgan uch kompaniya raqobatda edi. Siz, chamamda, Janubiy kompaniya yutib chiqsa kerak, dedingiz. Siz bunaqa ishlarning menga daxli yo'q deysizu, ammo ba'zi masalalarga chuqur, juda chuqur nazar tashlaysiz. Shunday qilib, o'shanda men darhol Janubiy kompaniyaning uchdan ikki qism aksiyalarini o'zimga yozdirib oldim. Rostdanam bu kompaniyaning aksiyalari boshqalarnikidan afzal bo'lib qolgandi. Siz oldindan ko'rganingizdek, ularning aksiyalarining bahosi uch barobar oshib ketdi, bunda men bir million foyda qildim, shu summadan ikki yuz ellik ming frankni sizga berdim. Siz bu ikki yuz ellik ming frankni nimaga sarfladingiz?
- Gapning po'skallasini ayting, nima demoqchisiz o'zi?
- so'radi xonim g'azabdan a'zoyi badani titrab.
- Sabr qiling, xonim, men hozir gapimni tugataman.
- Xayriyat-e!
- Aprelda ministrnikida tushda ovqatlanadingiz, u erda Ispaniya haqida gap bordi, o'shanda siz maxfiy suhbatni eshitib qolgan ekansiz: suhbat Don Karlosning quvg'inga solinishi haqida ekan. Men ispan zayomini sotib oldim. Chindan u quvg'inga solindi. Karl Bidassoudan o'tgan kuniyoq men olti yuz ming frank foyda qildim. Bu olti yuz ming frankdan ellik ming ekyuni siz oldingiz, bu sizning

haqingiz edi, pulni g'arra-sharra sarfladingiz, men sizdan hisob so'raganim yo'q. Har qalay shu yil siz ellik ming livr oldingiz.

– Xo'sh, keyin nima bo'ldi?

– Keyinmi? Hamma balo keyin yuz berdi. Ishning pachavasi chiqdi.

– G'alati iboralarni tilga olyapsiz...

– Bu iboralar mening fikrimni, niyatimni ifoda etadi...

Bu uch kun muqaddam yuz berdi. Uch kun ilgari siz Debre bilan siyosatdan suhbatlashdingiz, uning so'zidan, Don Karlos Ispaniyaga qaytibdi, degan xulosaga keldingiz. Shundan so'ng men zayomimni sotishga qaror qildim. Bu yangilik hamma yoqqa tarqaldi-da, vahima bosdi hammani, men esa zayomni sotish u yoqda tursin, tekinga beraverdim, ertasiga ma'lum bo'ldiki, bu uydirma ekan, mana shu yolg'on xabar kasofatiga qolib, men etti yuz ming frankdan ajraldim.

– Ajralsangiz nima bo'пти?

– Shunday bo'ldiki, men har gal yutug'imning to'rtidan bir qismini sizga berib keldim. Endi siz yutqizgan summaning to'rtidan bir qismini qoplashingiz kerak, etti yuz ming frankning to'rtidan bir qismi bir yuz etmish besh ming bo'ladi.

– Bu gaplaringizning hammasi bema'ni gaplar, bu mojarolarga Debreni nega aralashtiryapsiz, mana shunisi meni hayratda qoldiryapti.

– Buning sababi: mabodo bir yuz etmish besh ming frank o'zingizda bo'lmasa, do'stlaringizdan qarz olasiz, Debre esa qadrdon do'stingiz.

– Qanday razillik! – dedi xitob qilib baronessa.

– Iltimos qilaman, dabdabali gaplarni yig'ishtiring, xonim. Yo'qsa, Debre, bu yil siz bergan besh yuz ming frankni hozir jaraqlatib sanab, hech narsa tikmagan va yutqiziqdan zarar ko'rmagan eng zo'r qimorbozga ham nasib qilmagan narsani topdim, deb masxara qilib o'tirganini shu erdan ko'rib turibman, deyishga majbur bo'laman.



Baronessa g'azablanib, a'zoyi badani qizib ketdi.

– Ablah, – dedi qichqirib baronessa, – o'zingiz bila turib, menga ta'na-dashnom berganingiz nimasi? Bu mutahamlik-ku!

– Men bilaman deyotganim ham, bilmayman deyotganim ham yo'q. Faqat, siz menga xotinlikdan, men esa sizga erlikdan mahrum bo'lgandan buyon o'tgan to'rt yil mobaynidagi xatti-harakatlarimni xayolingizdan bir zum o'tkazib ko'ring-a, ular naqadar mantiqiy ekaniga ishonchingiz komil bo'ladi. Ajralishimizdan bir oz muqaddam siz Italiya teatrida zo'r muvaffaqiyat bilan o'ynayotgan mashhur bariton ovozli ashulachi rahbarligida musiqa bilan shug'ullanishga istak bildirdingiz, men esa Londonda shuhrat qozongan raqqosaning rahbarligida raqsni o'rganishga ahd qildim. Ikkimizning bu mashg'ulotimiz taxminan yuz ming frankka tushdi menga. Men bunga zarracha e'tiroz bildirmadim, chunki oilaviy hayotda hamohanglik, uyg'unlik bo'lishi shart edi. Er va xotin musiqani va raqsni puxta o'rganib olish uchun yuz ming frank sarflagan ekan, buni juda qimmatga tushdi desak insofdan bo'lmas. Ko'p o'tmay musiqa me'dangizga tegdi-da, ministrning kotibi rahbarligida diplomatlik san'atini o'rganishga mayl bildirdingiz, men bu san'atni o'rganishga sizga imkon berdim. Bu darsning haqini o'zingiz to'layotgan ekansiz, mening bu bilan ishim yo'q, bunga aralashmayman. Biroq ko'rib turibmanki, endilikda mening hamyonimga ko'z tikyapsiz, sizning bu tahsilingiz oyiga mendan etti yuz ming frankni yulib ketadiganga o'xshaydi. Bas, xonim, bunga chek qo'yish kerak. Endilikda ikki shart qo'yishga majburman. Yo diplomat sizga tekinga dars beradi, men tishimni tishimga bosib chidab yuraveraman yoki u zot mening uyimdan qadamini uzadi. Tushunarlimi, xonim?

– Juda haddan oshib ketdingiz, janob, – dedi zo'rga nafas olib Ermina. – Bu uchiga chiqqan pastkashlik! Siz quyushqondan butunlay chiqib ketdingiz!

– Ammo men mamnun bo'lib ko'rib turibmanki, – dedi

Danglar, – bu borada siz mendan sira qolishayotganingiz yo‘q va «xotin o‘z eriga ergashmog‘i kerak», degan vasiyatni o‘z xohishingiz bilan bajo keltiryapsiz.

– Siz meni haqorat qilyapsiz!

– Haq gapni aytdingiz. Bas qildik bu mashmashalarni, keling, o‘zimizni bosib gaplashib olaylik. Men shaxsan sizning ishingizga hech aralashmaganman, faqat sizning foydangiz uchun ba‘zida oraga suqilib qolaman, bunda mendan o‘rnak oling. Sizning sarmoyalaringizga mening daxlim yo‘q, deyapsiz, shundaymi? Juda soz, o‘z sarmoyangizga xo‘jayinlik qilavering, menikini ko‘paytiranman va kamaytiranman deb tashvishlanmay qo‘ya qoling. Ehtimol bularning hammasi sotqinning nayrangidir? Mening oppozisiyada bo‘lishim ministrni g‘azablantiryapti va u mening dong chiqarib borayotganimga hasad qilyapti, shu sababdan ehtimol u Debre bilan til biriktirib, meni xonavayron qilmoqchidir?

– Haqiqatga o‘xshashligini qarang-a, bu gaplarning?

– Juda o‘xshaydi-da. Axir o‘zingiz o‘ylab ko‘ring, telegrafda yolg‘on xabar berildi... Telegrafda bunaqa bo‘lishi aslo mumkin emas. Telegrafning so‘nggi ikki signali bo‘shqalariga mutlaqo o‘xshamaydi. Xuddi menga qarshi jo‘rttaga qilingan deb o‘ylaydi kishi.

– Siz bilasizki, – dedi ancha hovuridan tushgan baronessa, – o‘sha xizmatchini ishdan haydab yuboribdilar, hatto sud qilmoqchi bo‘lib qamoqqa olish to‘g‘risida buyruq bergan ekanlar. Ammo u qochib ketibdi. Bu ahvol shundan dalolat beradiki, u yo aqldan ozgan, yoki jinoyatchi... Yo‘q, menimcha, u xato qilib qo‘ygan bo‘lsa kerak.

– Shunday bo‘lishi mumkin, biroq bu xatodan tentaklar kulishadi, bu xato ministrni uyqusizlik balosiga giriftor qildi, bu xato kasofatiga qolgan davlat kotiblari son-sanoqsiz qog‘ozlarni bo‘yab tashlashdi, menga esa bu xato etti yuz ming frankka tushdi.

– Hoy, menga qarang, – dedi to‘satdan Ermina, – sizningcha, bularning hammasini Debre qilayotgan ekan,

nega o'ziga aytmay, alamingizni mendan olayapsiz? Nega endi erkak kishi aybdor deysizu, xotin kishini so'roq qilasiz?

– Debreni men emas, siz bilasiz-ku! – dedi Danglar. – Uni bilish ishtiyoqiga tushgan ham men emasman-ku? Maslahat beruvchi u ekanini bilish mening vazifammi? Uning yo'lidan borayotgan ham men emas-ku, axir? Birjadagi nayranglarni men qilayotganim yo'q-ku? Yo'q, bularning hammasi menga emas, sizga daxldor.

– Mabodo, bu sizning manfaatingiz uchun ekan...

Danglar elkasini qisib qo'ydi.

– E, tavba, xotin zoti shu qadar befahm bo'ladimi-ya! Bir yoki o'n ishqi nayrangni butun bir Parij ahlidan yashirib bajarishga muassar bo'ldim, deb o'zlarini o'ta dono bilib, chuchvarani xom sanab yurishadi. Biroq shuni unutmangki, mabodo qilmishlaringizni eringizdan juda osonlik bilan yashirishga muvaffaq bo'lganingizda ham (buning sababi shuki, erlar ko'p hollarda bunaqa nayranglarni ko'rish-bilishni istashmaydi) baribir, oqsuyak dugonalarigizdan yarmining faqat ayanchli nusxasi bo'lib qolar edingiz, xolos. Lekin buni eplolmadingiz: men hamisha hammasini bilib kelganman, o'n olti yil mobaynida siz, ehtimol, mendan ba'zi bir fikr-xayollaringizni yashira olgandirsiz, biroq qilmishlaringizdan birortasini, gunohlaringizdan birortasini sir saqlashga muvaffaq bo'lolmadingiz. Siz juda epchillik, quvlik bilan erimni aldab yuribman, deb kerilib yurdingiz, ammo natijada nima bo'ldi?.. Do'stlaringiz orasida o'zimni jo'rttaga bilmaslikka solib yurganim tufayli o'sha Vilfordan tortib Debregacha mendan hayiqishadi, men bilan uy xo'jayini sifatida hisoblashmaydigani yo'q edi. Men haqimda siz bilan hozir o'zim aytayotgandek gaplashishga jur'at qiladigan zot yo'q edi. Siz hammaga meni xunuk, bedavo qilib ko'rsatishingiz mumkin, biroq masxara qilishga aslo yo'l qo'ymayman, eng muhimi, meni xonavayron qilishni qat'iy taqiqlayman sizga.

Vilforning ismi-sharifi tilga olingungacha baronessa

o'zini har qalay tutib tura olgandi, biroq bu nom tilga olinishi bilan uning quti o'chdi, xuddi chayon chaqqandek dik etib o'rnidan turdi, bironi qarg'ayotgandek havoda qo'lini o'ynatdi va erining o'zi bilmagan yoki bilsa-da, qandaydir qabih niyatda oshkora etmay kelgan sir haqidagi oxirgi so'zini og'zidan ilib olmoqchi bo'lgandek Danglar tomonga qadam tashladi.

– Vilfor, bu nimasi tag'in? Bu bilan nima demoqchisiz?

– Shuni bilib qo'yingki, birinchi eringiz janob de Nar-gon faylasuf ham, bankir ham emasdi (bilmadim, ehtimol bu ikkala hunarning ham egasi bo'lgandir), ana shu janob qirollik prokuroridan zarracha naf ko'rolmagach, to'qqiz oy ko'zdan g'oyib bo'lib, qaytgach, sizni olti oylik homi-lador holda ko'rib fig'oni falakka chiqdi-da, qayg'u-alam o'tida yonib dunyodan o'tdi. Ha, men dag'alman, buni bilaman, bilibgina qolmay, hatto bunga faxrlanaman ham, bu savdo ishlarida yutib chiqish yo'lida ishlatadigan usullarimdan biri. Nega endi u o'zi o'ldirmadi-yu, boshqalar uning o'zini go'rga tiqishlariga yo'l qo'yib berdi? Nega? Chunki uning himoya qilinishi zarur bo'lgan sarmoyasi yo'q edi. Men esa sarmoyador odamman. Sherigim Debreniig aybi bilan etti yuz ming frankdan ajraldim. Endi u zarardan o'z hissasini to'lab qo'ysin, so'ngra biz yana birga ish yuritaveramiz yoki ana shu bir yuz etmish besh ming frank qarzini to'lashga qodir emasligini aytsin-da, barcha xonavayron bo'lgan qarzdorlar singari gumdon bo'lsin. Albatta, u to'g'ri ma'lumotlar berganda juda dilbar yigit, biroq ma'lumotlari noto'g'ri bo'lsa-chi, unda uning bahridan o'tmoq kerak, jamiyatimizda uning o'rnini bosadigan ellikta navqiron yigit topilishi hech gap emas.

Danglar xonim er bilan yakson bo'ldi, shunga qaramay, bu zarbani daf etish uchun oxirgi marta tirishib ko'rdi.

Vilforni, bugungi ziyofat vaqtida yuz bergan voqealar-

---

<sup>10</sup> Garpagon – Molerning «Qurumsq» nomli komediyasidagi bosh qahramon. Uning nomi o'ta xasislik timsoli bo'lib qolgan.

ni, keyingi kunlarda oila boshiga tushayotgan baxtsizliklarni o'ylab, o'rindiqqa yiqilib tushdi.

Xotini o'zini behushlikka solish uchun qancha urinmasin, Danglar mutlaqo e'tibor bermay eshikni yopib o'z bo'lmasiga chiqib ketdi. Shundan so'ng yarim behush holidan o'ziga kelgan Danglar xonim, yomon tush ko'rdim shekilli, degan xayolga kelishi mumkin edi, xolos.

## **IX. NIKOH REJALARI**

Oilaviy mojarodan keyin ertasiga har safar ministrlikka borayotib Danglar xonim huzuriga kiradigan vaqtda Debrening izvoshi bankirning hovlisiga kirmay, o'tib ketdi.

Ana shu paytda, ya'ni soat bir yarimda, Danglar xonim izvoshini qo'shtirdi-da, hovlisidan chiqib ketdi.

Parada orqasida yashirinib olgan Danglar esa xonimning chiqib ketishini kuzatib turardi. Shunday bo'lishini u kutgan edi. Xonim qaytishi bilan uni xabardor qilishni buyurdi, ammo soat ikkida ham xonim qaytmadi.

Soat ikkida u izvosh chaqirdi-da, Palataga borib, byudjetga qarshi so'zlamochi bo'lganlar ro'yxatiga yozilib qo'ydi.

Soat o'n ikkidan ikkigacha Danglar kabinetidan siljmay, joni chiqib o'tirdi, shoshilinch xatlarni o'qidi, sonanoqsiz raqamlarni hisoblab chiqdi, kishilarni, shular qatorida mayor Kavalkantini qabul qildi. Qirmizi yuz, kekkaygan va har narsani aytilgan vaqtida bajo keltiradigan mayor bankir bilan bo'ladigan ishlarni nihoyasiga etkazish uchun kecha shartlashilgan vaqtning xuddi o'zida etib kelgan edi.

Danglar Palata majlisida juda qizishib ketdi va ministrlikni har qachongidan ham keskin, qattiq tanqid qildi, so'ng tashqariga chiqdi-da, izvoshiga o'tirib, Elisey Maydonidagi 30-uyga yo'l oldi.

Monte-Kristo uyida edi, biroq oldida birov borligi uchun graf bankirdan birpas kutishni iltimos qildi.

Shu orada tashqi eshik ochildi-da, abbat kiyimida bir

kishi kirib keldi, bu zot uy egasi bilan tanish bo'lsa kerak, Danglarga o'xshab kutib turmadi-da, salom berib, ichkari xonaga o'tib g'oyib bo'ldi.

Shu onda kohin kirib ketgan eshik yana ochildi-da, Monte-Kristo chiqdi.

– Azizim baron, kechiring meni, – dedi graf, – Parijga yaqindagina olijanob og'aynilarimdan biri abbat Buzoni kelgan edi. Hozirgina oldingizdan o'tib ketdi, ko'rgandirsiz. Ko'pdan buyon bir-birimizni ko'rmagan edik, shu sababdan u bilan darrov xayr-ma'zur qilishga ko'nglim bo'lmadi. Sizni ancha mahtal qilib qo'ydim, uzr.

– Hechqisi yo'q, – dedi Danglar, – shunaqa bo'lib turadi, men bevaqt kelib qopman, hozir ketaman.

– Yo'q, yo'q, aksincha, qani marhamat qilib o'tiring. Yo, tavba, nima bo'ldi sizga? Bugun juda boshqacha ko'rinasiz? Meni vahimaga solyapsiz-ku. Bilasizki, boshiga qayg'u tushgan kapitalist xuddi dumli yulduzga o'xshab, olam boshiga baxtsizlik tushajagidan darak berib turadi.

– Azizim graf, ochig'ini aytsam, bir necha kundan buyon ishim yurishmayapti, ketma-ket xunuk xabarlar olyapman.

– Dahshat! – dedi Monte-Kristo, – siz yana birjada yutqazdingizmi?

– Yo'q, men bu ishni ma'lum vaqtgacha yig'ishtirib qo'ydim. Bu gal Triestda bir hamkorim kasodga uchrab sindi.

– Shundaymi? Jakopo Manfredining singanini aytyapsizmi?

– Ha, o'shani. Bu zot ko'pdan buyon men bilan sakkiz yuz-to'qqiz yuz ming frank o'rtasida muomala qilib kelardi. Qarzini o'z vaqtida to'lab keldi, biror marta ham kamomat yuz bermadi, hamisha vaqtida to'lab kelardi. To'satdan ana shu Jakopo Manfredi qarzini to'lamay qo'ydi!

– Rostdan-a?

– Kutilmagan baxtsizlik keltirdi boshimga bu ham. Men unga olti yuz ming livrlik to'lov veksel yuborgandim, u to'lamay qaytarib yuboribdi. Menda yana uning shu oy

oxirida to'lashi kerak bo'lgan to'rt yuz ming frankli vekseli yotibdi, buni Parijdagi vakili to'lab qo'yishi kerak edi. Bugun o'ttizinchi, men pulni undirib kelish uchun xizmatchimni yuborsam, uning vakili qochib ketibdi. Buning ustiga Ispan voqeasidan xabaringiz bo'lsa kerak. Mana, bir oyda boshimga tushgan baloyi azimlar.

– Ispan voqeasidan uncha ko'p zarar ko'rmagan bo'lsangiz kerak?

– Roppa-rosa etti yuz ming frank sarmoyadan ajraldim.

– Obbo, qanday qilib qo'lga tushib qoldingiz? Axir siz bu ishlarda ustasi farangsiz-ku.

– Buning hammasiga xotanim sababchi. U tushida Don Karlosni ko'ribdi, go'yoki Don Karlos Ispaniyaga qaytib kelgan emish, xonim tushga o'lgudek ishonadiganlardan. Tush magnetizm, tushda nima ko'rsang, albatta o'ngingda yuz beradi, deydi. Men ham unga ishondim-da, xohlagan maqomingga o'ynayver, deb ruxsat berdim, uning bu ishda o'z yo'l-yo'sinlari va maxsus dalloli bor. Xonim o'ynab yutqazdi. To'g'ri, mening pulimga emas, o'z puliga o'ynagandi. Ammo siz bilasizki, xotin etti yuz ming frank yutqazganda, erning bir oz bo'lsa-da bunga yuragi achiydi. Iya, hali siz buni shu paytgacha bilmasmidingiz? O'sha kuniyoq hamma yoqda duv-duv gap tarqaldi-ku bu haqda.

– Men eshitgandim, ammo tafsilotini bilmasdim, buning ustiga birjada bo'ladigan ishlardan butkul bexabarman.

– Siz birja o'yinida mutlaqo qatnashmaysizmi?

– Menmi? Birjada o'ynashga vaqt kerak, menda bunga vaqt qayoqda deysiz. Daromadlarimni hisoblashga arang ulguraman. Mabodo o'yinga qatnashadigan bo'lsam, ish boshqaruvchidan tashqari yana bitta kontora xizmatchisi va xazinachi olishim kerak bo'ladi. Endi Ispaniya voqeasiga kelsak, menimcha, baronessa buni faqat tushidagina ko'rmay, gazetalarda ham o'qigan bo'lsa kerak?

– Siz gazetalarga ishonasizmi?

– Aslo! Biroq «Axborot» qoidalardan mustasno tariqasida, faqat ishonchli, to'g'ri ma'lumotlarni, telegraf orqali kelgan xabarlarini e'lon qilsa kerak.

– Meni mana shu xunob qilyapti-da, – dedi Danglar. – Rostdan, Don Karlos qaytibdi, degan xabar telegraf orqali olingan edi.

– Demak, shu bir oyda, – dedi Monte-Kristo, – siz taxminan bir million etti yuz ming frank zarar ko'ribsiz-da?

– Taxminan emas, naqd bir million etti yuz ming frank.

– Attang, uchinchi darajadagi boylik uchun bu juda qattiq zarba, albatta, – dedi Monte-Kristo achingansimon.

– Uchinchi darajadagi deganingiz nimasi? – dedi Danglar bir oz xafa bo'lib.

– Menimcha, – dedi Monte-Kristo, – uch xil boylik bor: birinchi darajadagi boylik, ikkinchi darajadagi boylik, uchinchi darajadagi boylik. Birinchi darajadagi boylik deb o'z ixtiyoringdagi erlardan, konlardan va Fransiya, Avstriya va Angliya kabi davlatlarning qiymatli davlat qog'ozlaridan iborat bo'lib, umumiy summasi yuz millionga etadigan boylikni aytaman. Yiliga bir yarim million daromad beradigan va umumiy mablag'i ellik milliondan oshiq sanoat korxonalarini, aksioner kompaniyalarni, viloyat hokimini, knyazlikni ikkinchi darajadagi boylik hisoblayman. Uchinchi darajadagi boylik – bu muomaladagi mablag'lari o'zganing irodasiga yoki kimningdir sinishi, yo bo'lmasa telegraf xabari tufayli favqulodda yuz beradigan voqealarga bog'liq bo'lgan boylikdir. Bu darajadagi davlatmand kishilar hamma vaqt xuddi qimorbozga o'xshab «gardkam» deydi-da, oshig'i olchi tushadimi, yo'qmi, toleidan ko'radi, bundaylarni yuqoridagi kuchlar bilan taqqoslab, tuban kuchlar desa bo'ladi. Bularning soxta yoki haqiqiy mablag'i umuman o'n besh millionga etar-etmasdir. Axir, siz mana shu darajadagi boylik egasiz-siz-da?

– To'g'ri, xuddi shu darajada, – dedi unga javoban Danglar.

– Bundan shunday xulosa chiqadiki, – dedi Monte-



Kristo vazmin ohangda soʻzini davom ettirib, – ishlarinigiz yana olti oy mana shu holda davom etaversa, uchinchi darajadagi firmangizning kuni bitarkan-da.

– Ogʻzingizga qarab gapiring-e! – dedi Danglar qoshlarini chimirib.

– Ha, xoʻp, olti oy emas, etti oy deydik, – soʻzida davom etdi graf haligi ohangda. – Menga qarang, etti karra bir million etti yuz ming – bu qariyb oʻn ikki million boʻlishini bundoq oʻylab koʻrganmidingiz?.. Hecham-a? Xoʻp durust qilgan ekansiz-da; mabodo shunday oʻy-xayolga gʻarq boʻlib qolganda oʻz sarmoyangizni zoʻr xavf-xatarga solib qoʻygan boʻlur edingiz, bu esa madaniyatli zotning terisi shilinib tanazzulga yuz tutishi demakdir. Biz hashamli, bashang kiyib yuramiz, bizni sirdan salobatli qilib koʻrsatib turadigan ham ana shu kiyim. Biroq dunyodan koʻz yumgach, odamning faqat terisi qoladi. Siz ham xuddi shu maqomdagi zotlardan boʻlib, ishni yigʻishtirasiz-da, oʻzingizning asosiy sarmoyangiz bilan, yaʼni juda koʻp deganda besh yoki olti million bilan qolasiz. Izdan ketayotgan lokomotivning oʻzidan koʻra tutuni vahimali koʻringandek, zero, uchinchi darajadagi mulk qanchalik ulkan boʻlib tuyulmasin, aslida uning qiymati chamadagidan ikki yoki uch baravar past turadi. Shunday qilib, siz besh milliondan iborat asosiy sarmoyangizdan hozirgina ikki milliondan mahrum boʻldingiz. Shunga qarab soxta sarmoyangiz ham, yaʼni kreditlar ham kamayibdi, boshqacha qilib aytganda, janob Danglar, sizning taningizdan shu qadar koʻp qon olganlarki, bordi-yu, buni yana toʻrt marta takrorlagudek boʻlsalar, yorugʻ dunyo bilan xayr-maʼzurni nasiya qilish hech gap emas. Ehtiyot boʻling, aziz doʻstim! Ehtimol, pulga muhtojlik sezayotgandirsiz? Istasangiz, qarz berib turishim mumkin?

– Hisob-kitobda yoʻq ekansiz! – dedi xitob qilib Danglar iloji boricha oʻzini bosishga harakat qilib. – Xuddi mana shu daqiqada hamyonim boshqa juda qulay yoʻllar bilan toʻldi. Yoʻqotilgan qon ovqat bilan tiklanadi. Men Ispaniya janggida yutqazdim. Triestda shatta edim, ammo hind

flotim bir necha kemalarni egallab olgandir. Meksikadagi odamlarim biror joyda kon topishgandir.

– Juda soz! Juda soz! Ammo yaraning o’rni hali bitganicha yo’q, birinchi talafotdayoq yana ochiladi-da, fasod bog’laydi.

– Yo’q, chunki men to’g’ri ish qilayotgan bo’lsam kerak, – dedi Danglar maqtanishga odatlanib qolgan qalloblar-cha maqtanib, – meni bukish baayni uch mamlakat hukumatini ag’darganga o’xshagan gap.

– Nima bo’pti! Shunday voqealar bo’lgan.

– Meni xonavayron qilish barcha hosilni barbod qilish degan gap.

– Ha, etti semiz va etti oriq sigirmi eslang.

– ...Yoki fir’avnlr zamonasidagidek dengiz suvlari qirg’oqdan toshmog’i shart, dengizning son-sanog’i yo’q, kemalar o’rmini karvonlar bosadi, xolos.

– Bunisi yana soz, azizim Danglar, – dedi Monte-Kristo, – mana endi yanglishganimni tushundim, siz aslida ikkinchi darajadagi kapitalistlar qatorida ekansiz.

– Ha, o’shalar qatoridan joy olishga haqliman, deb aytishga jur’at eta olaman, – dedi Danglar yasama tabassum bilan; uning bu tabassumi Monte-Kristoga no’noq rassomlar xarobalarni suratga olganda moy bo’yoqqa chaplab tashlaydigan oyni eslatdi. Amaliy ishlar to’g’risida gap ochgan ekanmiz, – qo’shimcha qildi u, gap boshqa yoqqa burilganidan suyunib, – sizga bir savolim bor! Sizningcha, janob Kavalkantiga nima qilmog’im kerak?

– Agar sizning bankingizga uning vakolati bo’lsa va siz unga ishonsangiz, pul bering.

– Ishonganda qandoq! U bugun qirq ming frankli chek keltirdi, chek sizning adresingizga yozilgan va Buzoni imzo chekkan, orqasida sizning blankangiz bor. Men darrov uning qo’liga qirqtani sanab tutqazdim.

Monte-Kristo ma’qullagan bo’lib, boshini qimirlatdi.

– Shoshmang, bu yog’iga quloq soling, – davom etdi Danglar, – u mening bankimda o’g’liga ham kredit ochdi.

– Noqulay savol bersam aybga buyurmaysiz: o’g’liga

qancha berarkan?

– Oyiga besh ming frank.

– Yiliga oltmish ming! Men ham xuddi shunday deb o‘ylagandim, – dedi Monte-Kristo elkasini qisib. – Kavalkantilar o‘taketgan xasis odamlar. Yosh yigit uchun oyiga besh ming frank nima degan gap?

– Mabodo yigitchaga yana bir necha ming zarur bo‘lib qolsa...

– Ortiqcha pul bermang unga, otasi buni hisobga olmaydi, italyan millionerlarini siz hali yaxshi bilmaysiz, ular o‘taketgan Garpagonlar.<sup>10</sup> Bu kreditni unga kim ochibdi?

– Florensiyaning eng yaxshi firmalaridan hisoblangan Fensi banki.

– Men, zarar ko‘rishingiz mumkin, demoqchimasman, mutlaqo, lekin kredit doirasidan tashqari chiqmang.

– Demak, siz Kavalkantiga unchalik ishonmas ekan-siz-da?

– Menmi? U imzo cheksa, men o‘n million ham berib yuboraveraman. Mening taqsimotim bo‘yicha, azizim baron, Kavalkantining sarmoyasi ikkinchi darajadagi boylikka teng keladi.

– U ko‘rinishda juda oddiy kishi. Men uni oddiy bir mayor deb o‘ylashim ham mumkin edi.

– Uning izzatini joyiga qo‘ygan bo‘lur edingiz; bu gapingiz to‘g‘ri, farishtasi yo‘qroq odam. Men ham uni dastlab ko‘rgan vaqtimda egnida harbiy mundir bor edi, shunda uni mog‘or bosgan bironta keksa poruchik bo‘lsa kerak, deb o‘ylagandim. Lekin italyanlarning hammasi ko‘rinishda shunaqa bo‘ladi, agar sharq afsungarlari singari o‘z zeboligi bilan kishini tang qoldirmaganlarida ularni qari yahudiylarga o‘xshatish mumkin edi.

– O‘g‘li ko‘rinishda ancha durust, – dedi Danglar.

– Menimcha, bir oz tortinchoq, ammo odobli yigit. Men undan bir oz xavfsiradim.

– Nega?

– O‘sha siz uni menikida ko‘rgan kuningiz uning birinchi marta oqsuyaklar davrasiga qo‘shilishi ekan. Menga

shunday deyishdi. U qattiq qo'l murabbiy bilan sayr-havo qilib yurgani bilan shu paytgacha Parijni ko'rmagan ekan.

– Aytishlariga qaraganda, italyanlar zodagoni odatda o'z doirasidagi ayolga uylanarmish, shu to'g'rimi? – beparvolik bilan so'radi Danglar. – Ular o'z boyliklarini birbirlarinikiga qo'shishni yaxshi ko'risharkan.

– To'g'ri gap. Lekin Kavalkanti boshqacha odam, hamma narsani o'z foydasini ko'zlab qiladi. U o'g'lini shubhasiz, Fransiyaga uylantirgani olib kelgan.

– Siz shunday deb o'ylaysizmi?

– Bunga imonim komil.

– Bu erdagilar uning badavlat ekanligini bilishadimi?

– Bu haqda ko'p gapirishyapti. Bir xil odamlar uning behisob mol-dunyosi bor desa, boshqalari hemirisi ham yo'q, deyishyapti.

– Sizing fikringiz qanday?

– Mening ham o'zimga yarasha fikrim bor, illo, bunga e'tibor bermasa ham bo'laveradi.

– Har qalay, qanday fikrdasiz?..

– Bilasizmi, Kavalkanti bir vaqtlar armiyaga boshchilik qilgan, viloyat so'ragan odam. Menimcha, bunaqa zotlarning er yuzining turli tomonlarida bekitgan behisob mol-dunyolari bo'ladi, buni faqat urug'ning keksalarigina bilib, avloddan avlodga o'tkazib kelishadi. Ularning yuzlari xuddi respublika davridagi oltin tanga singari sarg'ayib, bezbet bo'lib ketishining boisi ham ana shunda. Bunday zotlar, ana shu oltinning shu'lasini bizning yuzimizda o'z aksini topgan-da, deb ko'pdan buyon maqtanib yurishadi.

– Xuddi shunday, – dedi Danglar, – bu gapingizning to'g'riligi shundan ko'rinib turibdiki, ulardan birortasining ham bir parcha eri yo'q.

– Bo'lganda ham juda oz, men ham Kavalkantining Lukkadagi saroyidan boshqa hech narsasini ko'rganim yo'q.

– Uning saroyi bormi hali? – dedi kulib Danglar. – Chakki emas-ku!

– Birgina saroyini ham u moliya ministriga berib yuboribdi, o'zi esa kichkina bir hovlida istiqomat qilarkan. Men

sizga uni o'lgudek qurumsoq odam deb aytdim-ku.

– Siz uni unchalik xush ko'rmaysiz, shekilli.

– Axir men uning kimligini yaxshi bilmayman, u bilan faqat uch marta uchrashdim, xolos. Uning haqida bilganlarimni abbat Buzonidan va o'zidan eshitdim. Bugun u menga o'g'li to'g'risidagi rejalarini aytdi va jamg'armalarimni daromad keltirmaydigan Italiyada saqlash jonimga tegdi, bundan keyin ularni Fransiyaga yoki Angliyaga olib kelib, muomalaga qo'ymoqchiman, dedi. Biroq bilib qo'yingki, abbat Buzoniga ishonchim zo'r bo'lsa-da, men bu borada hech qanaqa javobgarlikni gardanimga olmayman.

– Menga buning ahamiyati yo'q, mizoj topib berganinigiz uchun sizdan minnatdorman, bunaqa nomlar mizojlar ro'yxatini gullatadi, men Kavalkantilarning kimligini xazinachimga gapirib berganimda, uning havasi keldi. Aytmoqchi, bu zotlar o'g'illarini uylantirganda qalin berisharmikan? Men buni shunchaki, qiziqqanimdan so'rayapman.

– Berishadi, lekin hammasi emas. Masalan, men toskan zodagonlari naslidan bir to'rani bilaman, uning behisob mol-dunyosi bor. Uning o'g'illari otasiga yoqqan qizga uylansa, ularga mol-dunyoni ayamay beradi, mabodo uning xohishiga yurmay, boshqaga uylanishsa, oyiga o'ttiz ekyu berib turadi, xolos. Andrea otasining xohishiga qarab uylansa, mayor unga ikki-uch million berishi turgan gap. Masalan, Andrea uylanadigan qiz bankirning qizi bo'lsa, u holda mayor qudasining ishlarida qatnashsa, ehtimol. Bordi-yu, kelin unga yoqmasa, unda ish chappasiga ketdi, deyavering: padari buzrukvori Kavalkanti xazinasining kalitini oladi-da, qulf soladi-qo'yadi. Unda bizning Andrea Parijning nomi ulug', supراسi quruq oliftasi singari yashashga, qarta suzib, oshiq otib yurishga majbur bo'ladi.

– Bu yigit bavar yoki peruan malikasiga uylanar, u knyazning taxtini egallab, uning rafiqasiga uylanib, Eldorado Potosi mulkini boshqarishni istar.

– Adashyapsiz, aksincha, bu dongdor italyanlar ko'pincha oddiy kishilarga uylanishadi. Ular xuddi Yupiterga o'xshab, nasllarning aralashib ketishini istaydilar. Biroq, o'zi nima gap, azizim baron? Nega menga hadeb bunaqa savollar beryapsiz? Andreaning boshini ikkita qilib qo'ymoqchisiz, shekilli?

– Nima qipti, – dedi Danglar, – bu oqilona ish bo'lardi, axir men ish ko'zini biladigan odamman-ku!

– Mademuazel Danglarga emasdir? Alber bechora Andreaning boshini tanidan judo qilishini istamassiz deyman?

– Alber! – dedi elkasini qisib Danglar. – Unga baribir.

– U qizingizga unashtirib qo'yilgan emasmi?

– Bu haqda Morser bilan ikkimiz gaplashgandik, biroq de Morser xonim va Alber...

– Nahotki siz uni munosib kuyov deb bilmasangiz?

– Menimcha, mademuazel Danglarning vikont de Morserdan kam joyi yo'q!

– Danglar xonimning sep-sarposi, telegraf tentakligi hisobga olinmasa, chindan ham ozmuncha bo'lmasa kerak.

– Gap faqat sep-sarpoda emas. Ha, aytmoqchi, siz nega...

– A?

– ... nega Morserni ota-onasi bilan mehmondorchilikka aytmadingiz?

– Aytgandim, biroq u Morser xonim bilan birga Deppga borishi zarur ekan, xonimga dengiz havosidan bahramand bo'lishni maslahat berishi.

– Shunday deng? – dedi kulib Danglar, – dengiz havosi unga foydali bo'lsa kerak.

– Nega endi?

– U yoshligidan dengiz havosiga o'rgangan ekan.

Monte-Kristo o'zini bu ilmoqli gapni eshitmaganga oldi.

– Har qalay, – dedi u, – Alber mademuazel Danglarchalik boyvachcha bo'lmasa-da, tanilgan yigitlardan.

– Nima bo'пти: bu sohada men ulardan qolishmasam

kerak.

– Shubhasiz, sizning nomingiz ham ulugʻ. Buning ustiga, unvon berib shuhratingizni oshirmoqchi boʻlishgan, lekin nomning oʻzi unvonsiz ham ulugʻligi koʻrinib turibdi-ku. Biroq, siz tushunadigan odamsiz, baʼzi bidʼatlar jamiyatda chuqur tomir otgan, ularni yoʻqotish amri mahol, shu sababdan besh yuz yildan beri yashab kelayotgan dvoryanlik endigina yigirma yoshga toʻlgan dvoryanlikka nisbatan hamon yuksak ekanligini bilasiz.

– Mana shuning uchun ham, – dedi Danglar kinoyaomuz jilmayishga urinib, – men Alber de Morserdan Andrea Kavalkantini afzal koʻraman.

– Menimcha, Morserlarning hech narsada Kavalkantilardan qolishadigan joyi yoʻq boʻlsa kerak? – dedi Monte-Kristo.

– Morserlar!.. Azizim graf, menga qarang. – dedi Danglar, – siz axir oliftnamosiz-ku! Shundaymi?

– Shunday.

– Gerblarning ham bilagʻoni, toʻgʻrimi?

– Qisman.

– Shunday boʻlsa, menikiga bir qarang, bu Morsernikiga qaraganda inobatliroq boʻlsa kerak?

– Nechun?

– Shuning uchunki, men tugʻma baron boʻlmasam-da, har holda Danglarman.

– Xoʻsh, nima boʻpti?

– U esa aslida Morser emas.

– Nega endi Morser emas ekan?

– Hecham.

– Nima deyapsiz oʻzi?

– Menga kimdir baron degan unvon bergan, demak, haqiqiy baronman; u esa graf nomini oʻziga oʻzi taqib olgan, shuning uchun u graf emas.

– Bunday boʻlishi mumkin emas!

– Menga qarang, – soʻzida davom etdi Danglar, – Morser mening oʻttiz yillik qadrdon ogʻaynim, ishni nimadan boshlaganimni eslab, men gerbim bilan ortiqcha magʻ-

rurlanmayman.

Bu yo ulug'vor mo'minlik, yoki o'ta takabburlik alo-mati, – dedi Monte-Kristo.

– Ochig'ini aytsam, men past darajadagi xizmatchili-gim vaqtida Morser oddiy bir baliqchi edi.

– O'shanda oti nima edi?

– Fernan.

– Faqat Fernanning o'zimi?

– Fernan Mondego.

– Bunga imoningiz komilmi?

– Komil bo'lganda qanday! Men undan juda ko'p baliq sotib olardim.

– Unday bo'lsa, nega qizingizni uning o'g'liga beryap-siz?

– Chunki, Fernan ham, Danglar ham soxta mansab-dor, turli hiyla-nayranglar bilan dvoryan unvoniga ega bo'lib olishgan, mol-dunyo to'plash, firibgarlikda biri biridan qolishmaydi. Ammo odamlar uning to'g'risida ba'zi narsalarni gapirishadi, mening haqimda esa indashmaydi.

– Nima ekan u?

– Ha, shunchaki gap-da.

– Anglab turibman, bu so'zlaringizni eshitib Fernan Mondego nomi bilan bog'liq bo'lgan ba'zi voqealar esimga keldi. Bu nomni men Gresiyada eshitgandim.

– Aliposho voqeasi munosabati bilan bo'lsa kerak-da?

– Xuddi shunday.

– Buni u sir saqlaydi, – dedi aytganda, bu sirni oshkora qiluvchiga istaganini berardim.

– Bu qiyin emas.

– Qanday qilib?

– Gresiyada biror vakilingiz bordir, albatta?

– Bo'lmasam-chi!

– Yaninada-chi!

– Istagan joyda topiladi.

– Yaninadagi muxbiringizga xat yozing-da, Ali-Tebelin-ning halokatga yo'liqishida Fernan nomli fransuz qanday



rol o'ynagan, deb so'rang.

– Bu gapingiz to'g'ri! – dedi Danglar shiddat bilan o'rni-dan turib. – Shu bugunoq yozib yuboraman.

– Yozib yuboring.

– Albatta yozaman.

– Mabodo biror janjalli voqeadan xabardor bo'lsangiz...

– Men sizga xabar qilaman.

– Sizdan juda minnatdor bo'lur edim. Danglar uydin yugurib chiqdi-da, tezda izvoshga o'tirdi.

## **X. QIROLLIK PROKURORINING KABINETI**

Bankir uyiga ot choptirib ketaversin, biz Danglar xonimning ertalabki sayrini kuzataylik.

Soat o'n ikki yarimda Danglar xonim izvosh qo'shtirib uyidan jo'nab ketganini biz boya aytgan edik.

U shahar yaqinidagi Sen-Jermen tomonga yo'l olib, Mazarini ko'chasiga burildi-da, Yangi ko'prik guzarida izvoshni to'xtatdi.

Xonim pastga tushib, guzardan narigi yoqqa o'tdi. U ertalab biron yumush bilan ko'chaga chiqadigan ayol singari oddiygina kiyingan edi.

U Genego ko'chasiga borib kirakash izvoshga o'tirdi-da, Arle ko'chasiga yurishni buyurdi.

Danglar izvoshga joylashib olib, cho'ntagidan chachvonga o'xshash to'r parda olib, somon shlyapasi ustiga yopdi, so'ng yana shlyapasini kiyib, to'rni yuziga tashladi-da, kichkina oynaga qaradi. «Mana endi faqat oppoq badanimni va chaq nab turgan ko'zlarimnigina ko'rishlari mumkin», deb o'zicha quvondi.

Izvosh Yangi ko'prikdan o'tib, Dofina maydonidan Arle xonadoni tomon burildi, haydovchi izvosh eshigini ochgan zahoti xonim kira haqini berdi-da, zinaga yugurdi.

U chopqillab yuqori chiqdi-da, Tovushsiz Qadamlar zaliga kirdi.

Sud binosida ertalab hamisha ish ko'p bo'ladi, yumush bilan band kishilarning xotin-qizlarga qarashga ham vaqti

bo'lmaydi. Danglar xonim Tovushsiz Qadamlar zalidan o'tdi; o'z advokatlarini kutib turgan besh-o'nta notanish ayollardan tashqari unga unchalik e'tibor beradigan odam bo'lmadi.

Vilforning qabulxonasi gavjum edi, shunday bo'lsa-da, Danglar xonim kotibasiga nomini aytmadi, u kirishi bilan chopar yugurib keldi-da, janob prokuror chaqirtirgan xonim o'zlarimi, deb so'radi va tasdiq javobi olgach, Danglar xonimni maxsus dahliz orqali Vilforning kabinetiga olib kirdi.

Qirollik prokurori kursida orqasini eshikka o'girib yozib o'tirardi. U eshik ochilganini, choparning «Marhamat, bekam» deganini va eshik yopilganini eshitdi, biroq qimir etmay o'tiraverdi, choparning oyoq tovushi tinishi bilan tez o'rnidan turib, eshikni qulfladi, pardalarni yopdi va xonaga ko'z yugurtirib chiqdi.

Hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilgach, ko'ngli joyiga tushdi va: «Xuddi aytilgan vaqtda keldingiz, buning uchun rahmat sizga, bekam», dedi.

Vilfor kursi surib qo'ydi, Danglar xonim o'tirdi, uning yuragi gupillab urar, nafasi siqilardi.

– Bekam, ko'pdan buyon siz bilan xilvatda tanho suhbatlashmagan edim, – dedi qirollik prokurori va kursiga cho'kdi-da, Danglar xonim ro'parasiga o'tirib oldi, – ming afsuski, bugun ikkimiz juda og'ir masala haqida gaplashib olish uchun uchrashdik.

– Men esa, bu suhbat sizga qaraganda men uchun ko'proq og'ir bo'lishiga qaramay, huzuringizga bir chaqirishdayoq etib keldim.

Vilfor qoshlarini chimirib, iljayib qo'ydi.

– Demak, – dedi u Danglar xonimning so'zlariga emas, o'z miyasida paydo bo'lgan fikrlariga sharh berib, – demak, barcha xatti-harakatimiz o'tmishimizda goh mudhish, goh yorqin iz qoldiradi deganlari haq ekan-da! Hayot yo'lida bosgan qadamlarimiz qumda yuradigan jonnivorlarning o'rmalashiga o'xshaydi, deganlari haq ekan-da! Hayot, ko'p odamlar ana shu izlarni ko'z yoshlari

bilan sug'oradilar!

– Janob, – dedi Danglar xonim, – ko'rib turibsizki, men nihoyatda qattiq tashvishga tushib keldim. Rahm qiling menga. Bu xonada, mana bu kursida hisobsiz sharmandayu sharmisor bo'lgan jinoyatchilar titroq bosib o'tirgandilar... Mana, endi bu kursida men ham xuddi o'shalar kabi sharmanda bo'lib, qaltirab o'tiribman! Bilasizmi, men hozir o'zimni jinoyatchi deb his etmaslik va dahshatli sudya oldida o'tiribman deb sezmaslik uchun butun aql-hushimni yig'ib olmog'im kerak.

Vilfor boshini chayqab og'ir nafas oldi.

– Men esa, – e'tiroz bildirdi u, – men esa o'zimga-o'zim: «Sen Vilfor, sudya kursisida emas, jinoyatchining kursisida o'tirishing kerak», deyapman.

– Siz-a? – dedi taajjublanib Danglar xonim.

– Ha, men.

– Nazarimda, siz gapni oshirib yuboryapsiz, bunga sabab, aftidan, puritancha qarashlaringizdir, – dedi Danglar xonim, shu on uning jozibador ko'zlari chaqnab ketdi. – Siz aytgandek, kimning jo'shqin yoshligi iz qoldirmapti? Barcha shavq-zavqlar zamirida tavba-tazarru, pushaymon yotganligini kim bilmaydi deysiz! Buning boisi: baxti qarolarning qadimiy boshpanohi bo'lmish Injil biz sho'rlik ayollarga gunohkor parizod va fohisha xotinni munosib homiy deb taqdim etdi. Ochig'ini aytsam, yoshlik davrimdagi hayu havasga mukkadan ketib, qilmish-qidir-mishlarimni eslaganda, ba'zan Tangrim bu guvohlarimni kechirar deb umid qilaman, chunki boshdan kechirganim azob-uqubatlar gunohlarimni oqlamasa-da, yuvib ketar. Ammo siz nimadan qo'rqasiz? Siz erkaklarni jamoat hamisha oqlaydi.

– Xonim, – e'tiroz bildirdi Vilfor, – siz meni yaxshi bilasiz. Men riyokor emasman, har holda hech mahal asossiz riyokorlik qilmaganman. Hamisha qovoq solib yurishim behisob baxtsizlikdan. Agar bag'rim tosh bo'lmaganda, boshimga tushgan kulfatlarga chidab bo'larmidi? Yoshligimda ham, nikoh kuni Marselda Gran-Kur

ko'chasida stol tevaragida o'tirganimizda ham hozirgidek qovog'imdan qor yog'ib turmasdi. Ammo o'shandan buyon qancha suvlar oqib o'tdi-yu, menda ham, atrofimda ham ko'p narsalar o'zgardi, umrimni yo'limdagi g'ovlarni uloqtirib tashlashga sarf etdim, yo'limga bilib yoki bilmay, jo'rttaga yoki beixtiyor g'ov solmoqchi bo'lganlarni qaqshatdim. Sen jon-diling bilan istagan narsani boshqalar ham istamasligi kamdan-kam uchraydi. Ana shu istaganingni ular qo'lidan tortib olish yo'lida o'lib-tirilib harakat qilasan. Aslida ko'p kishilar o'zi uchun zarur narsani egallab olish yo'lida hech narsadan qaytmay jinoyatga yo'l qo'yishadi, hayajon, vahima yoki tentaklik yuz bergan daqiqada jinoyat qilib qo'lasan-da, so'ng bu nojo'ya ishni qilmasligim ham mumkin edi-ku, deb afsuslanasan. O'sha es-hushingni yo'qotib, ko'zingga hech narsa ko'rinmay qolgan daqiqada qo'llanib ish ko'rish kerak bo'lgan yo'l-yo'sin juda jo'n va oson ekanligi ma'lum bo'lib qoladi, ana shunda o'z-o'zingga: «Men bunisini qo'yib, unisini qilsam bo'lardi-ku», deysan. Siz ayollar, aksincha, kamdan-kam afsuslanasizlar, chunki o'sha pushaymon bo'ladigan ishni ko'pincha o'z ixtiyoringiz bilan qilmaysiz, siz hech vaqt baxtsizlikka o'z ixtiyoringiz bilan duchor bo'lmaysiz, deyarli har gal boshqa jinoyatchining kasofatiga qolib yurasiz.

– Har holda, – dedi javoban Danglar xonim, – men bunda aybdormanmi, yo'qmi, bu ishlarning barchasida javobgarmanmi, yo'qmi, har qalay kecha qaqshatqich darajada qattiq jazolanib, baloga qoldim. Siz buni e'tirof etishingiz lozim.

– E, sho'rlik ayol! – deli xonimning qo'lini qisib Vilfor. – Haqiqatan ham nihoyatda og'ir aziyat chekdingiz, shu qadar og'irki, hatto ikki marta tinkangiz qurib, holdan toyib chalqancha tushishingizga sal qoldi, biroq shunga qaramay...

– Shunga qaramay?

– Ha, shunga qaramay, men sizga shuni aytib qo'yayki, hali bunisi holva, bu yog'i bundan battar bo'ladi.

– E, Parvardigor! – xitob qildi Danglar xonim, – yana qanday balo bor boshimizda?

– Siz faqat o'tmishni o'ylayapsiz, to'g'ri, o'tmish mudhish bir zimiston, ammo kelajakni bundan ham mudhish, qabih deb biling, xonim, ha, bundan ham mudhish, bundan ham dahshatli bo'lishi mumkin, bu shubhasiz!

Xonim Vilforning sovuqqon, vazmin odam ekanini bilardi, biroq shu onda uning bunchalik hayajonga, vahimaga tushganini ko'rib, qo'rqqanidan qichqirib yuborishiga sal qoldi.

– Bu mudhish, dahshatli o'tmish qanday qilib yuzaga chiqib qoldi? – xitob qildi Vilfor. – O'tmishning bu sharpsi go'r tagidan, yuragimiz tubidan qanday qilib yuzaga chiqdi-yu, oshkora bo'lib qoldi, qanday qilib bizni vahimaga solib, nomusga qo'ydi?

– Bu shunchaki bir tasodif.

– Tasodif? – dedi e'tiroz bildirib Vilfor. – Yo'q, yo'q, ming karra yo'q, xonim, tasodifan hech narsa yuz bermaydi!

– Unday emas, axir bularning hammasi tasodif bo'lmay nima bo'lardi? Graf Monte-Kristo bu hovlini tasodifan sotib olgan, erni ham tasodifan qazitgan. O'sha baxti qaro go'dakni daraxtlar ostini kovlab turganda topib olishlari tasodif emasmi, axir? Oh, mening sho'rpehona qo'zichog'im, biror marta o'polmagandim-a! Uni deb daryo-daryo ko'z yoshi to'kdim! Graf gullar tagidan topilgan o'sha aziz jasad to'g'risida so'z ochganda butun vujudim bilan graf ko'ksiga otilmoqchi bo'ldim!

– Yo'q, aslo unday emas, xonim, aslo, – dedi bo'g'iq tovushda Vilfor, – mana bu yog'ini eshiting, dahshatlisi bu yoqda: gullar tagidan hech qanaqa go'dak jasad topilgan emas. Bu erda ko'z yoshi to'kishga hojat yo'q, oh-voh urishning hech kimga keragi yo'q! Talvasaga tushmoq kerak, talvasaga!

– Bu bilan nima demoqchisiz? – dedi a'zoyi badanini titroq bosgan Danglar xonim.

– Demoqchimanki, graf Monte-Kristo o'sha daraxtlar

tagidan go'dak jasadini ham, yashikchanning temir qismlarini ham topishi mumkin emasdi, chunki u erda bola jasadi ham, yashikcha qismlari ham yo'q edi.

– Unisi ham, bunisi ham yo'qmidi? – takrorladi Danglar xonim qirolik prokuroriga ko'zlarining paxtasini chiqarib qarab. – Unisi ham, bunisi ham-a? – yana takrorladi xonim, to'zg'ib borayotgan fikrini so'zlar va o'z tovushi bilan to'xtatmoqchi bo'lgan odam qiyofasiga tushib.

– Ha, unisi ham, bunisi ham yo'q edi! – dedi Vilfor qo'llari bilan yuzini bekitib.

– Demak, siz sho'rlik go'dakni u erga ko'mmagan ekan-siz-da? Nechun meni aldadingiz? Nechun?

– U erga ko'mmagandim. Shoshmang, avval eshiting mening gaplarimni, eshitgach, g'azablanmaysiz, achinasiz menga. Oradan yigirma yil o'tdi, lekin men bu sirni vijdon azobida ichimda saqlab, sizga aytmay kelgan edim, endi hammasini ochib solaman.

– Oh, Tangrim, o'zing kechir bu gunohkoringni! Siz meni dahshatga solyapsiz! Ilojim qancha, gapiring, qulog'im sizda.

– O'sha devorlarida qip-qizil parda qoplangan xonada butun tunni nafas ololmay qiynalib o'tkazganingiz esingizda bo'lsa kerak, men ham, ming mashaqqat bilan oxirini kutib, Haq deb, o'tirdim. Bola olamga keldi, uni menga topshirdingiz, go'dak nafas olmas, qimir etmasdi, biz uni o'lganga chiqardik.

Danglar xonim irg'ib o'rnidan turayotgandek o'tirgan joyida besaranjom qo'zg'alib qo'ydi.

Vilfor uni to'xtatdi-da, bu yog'ini eshiting, degandek qo'llarini ko'tardi.

– Shu zaylda biz uni o'ldiga chiqardik, – dedi Vilfor, – men uni tobut o'rnini bosadigan yashikchaga soldim-da, boqqa olib tushib, shoshib-pishib ko'mdim, tuproq tortib bo'lgan ham edimki, menga korsikalik hujum qilib qoldi, ko'z oldimda lip etib allakimning soyasi ko'rindi. Og'riq sezdim, qichqirmoqchi ham bo'ldim, a'zoyi badanimni

qora ter bosdi, tomog'imga bir narsa tiqildi, erga ag'darilib tushdim, endi tamom bo'ldim, deb o'yladim, so'ng hushimga kelib arang zinagacha emaklab kelganimda, siz madorsiz holda oldimga tushib keldingiz, bu dahshatli voqeani nihoyatda sir saqlash zarur edi, mardlik qilib uy-ingizga enangangiz bilan qaytib bordingiz, men esa duelda yaralandim, deb bahona qildim. Bu sirni maxfiy saqlashga muvaffaq bo'ldik, dastlab bu sirni saqlash qiyin bo'lsa kerak, deb qo'rqqandim. Meni Versalga olib borishdi. Uch oy kasal bilan olishib nari borib-beri keldim; pirovardida, asta-sekin oyoqqa turdim, menga janubning quyoshi va havosida shifolanishni maslahat berishdi. To'rt kishi meni Parijdan har kuni ko'p deganda olti le yo'l bosib, Shalonga olib borishdi. Vilfor xonim izvoshda izma-iz bordi. Shalondan kemaga tushib Soneda, undan Roneda sayr qildim, so'ng oqim bo'ylab Arlonegacha bordim. Arloneda meni yana zambilga solib olib ketishdi, shu zaylda Marselga etib oldim. Sog'ligim yarim yil deganda tiklandi. Shu davr ichida sizdan hech darak olmadim; xonimning ahvoli qalay deb birovdan so'rashga jur'at etolmadim. Parijga qaytgach, beva qolganingizni va Danglarga tekkaningizni bildim. Aqli hushim joyiga tushgan kundan boshlab fikr-xayolim o'sha go'dakning jasadida bilan band edi. Har kun kechasi tushimda u go'ridan chiqib menga mushtini o'qtalardi. Parijga qaytib kelgach, bu uyda biz chiqib ketgandan buyon hech kim yashamaganini va yaqindagina to'qqiz yilga ijaraga berganlarini eshitdim. Uyni ijaraga olgan kishi oldiga borib marhuma rafiqamning ota-onasiga qarashli bu uyni begona kishining qo'lga o'tib ketishini aslo istamayman, deb bahona qildim-da, shartnomani buzishni taklif etdim va jarimasini to'lashga tayyorman, dedim. Mendan olti ming frank talab etishdi, o'n ming desayam, yigirma ming desayam to'lashga tayyor edim. Pulim cho'ntagimda edi. Darrov shartnoma bekor qilindi, bunga erishgach, shu zahotiyiq Oteylga ot choptirib ketdim. O'sha men chiqib ketgandan beri uyga odam zoti kirmagan.

Soat kunduz besh edi, qizil bo'lmaga chiqdim-da, qorong'i tushishini kutdim.

Shu paytda yil bo'yi menga tinchlik bermay kelgan va-hima yana kuchayib ketgan edi.

O'sha korsikalik maxluq menga xundor dushman edi, u Nimdan to Parijgacha ketimdan poylab kelgan, so'ng bog'da yashirinib payt poylab, menga xanjar urgan. U go'r kovlaganimni, go'dakni ko'mganimni ko'rgan albatta, u sizning kimligingizni bilib olishi mumkin, ehtimol, bilgandir ham... Bir kun emas-bir kun kelib sizdan sirni saqlash uchun haq to'lashni talab etsa nima bo'ladi?.. Meni xanjar bilan o'ldirmaganini bilsa, bu uning uchun eng lazzatli qasos bo'ladi. Shu sababdan o'tmishning izlarini mumkin qadar tezroq yo'qotish zarur edi.

Shartnomani bekor qilishimning, bu erga ot choptirib kelib kutib turishimning boisi ham shunda edi.

Qosh qoraydi, batamom qorong'i tushishini kutdim, chiroq ham yoqmagandim, shamol pardalarni hilpiratardi, nazarimda ana shu pardalar ortida ayg'oqchilar turgandek tuyulardi-da, o'qtin-o'qtin seskanib qo'yardim. Orqamdagi karavotda xuddi siz ingrayotgandek bo'lardingiz, orqaga o'girilishdan qo'rqardim, o'sha dahshatli sukunatda yuragim gupillab urayotganini barala eshitib turardim. U shunchalik qattiq urardiki, endi yaram yana ochilib ketsa kerak, deb o'ylardim. Qishloqdagi barcha tovushlar birin-ketin tindi. Endi hech narsadan xavotir olmasam bo'ladi, meni hech kim eshitmas va ko'rmas, dedim-da, boqqa tushishga qaror qildim.

Bilasizmi, Ermina, men boshqalarga nisbatan qo'rqoq emasman. Biroq zinaning ko'ksimda osig'liq kalitini olib (bu kalit ikkimiz uchun nihoyatda aziz edi va siz uni oltin halqaga solib yurardingiz), eshikni ochganimda oyning uzun shu'lasini derazadan o'tib, aylanma zinada ajina kabi cho'zilib yotganini ko'rdimu, o'takam yorilib, devorga suyanib qoldim, sal bo'lmasa aqlimdan ozib, chinqirib yuboray, dedim.

Nihoyat o'zimni tutib oldim. Asta-sekin zinadan tusha



boshladim, ammo tizzalarimdagi titroqni hech bosolmasdim, yiqilib ketishdan qoʻrqib zinaning panjarasini mahkam ushlab olgan edim. Shu tarzda pastki eshikkacha etib oldim. Eshik orqasidagi devorga belkurak suyab qoʻyilgan ekan. Maxfiy fonusim bor edi. Maysazorning oʻrtasiga borib toʻxtadim-da, fonusni yoqib olib nari yurdim. Noyabr oyining oxiri edi, xazonrezgilik boʻlib yapyalangʻoch daraxtlar uzun-uzun qoʻllarini uzatib turar, toʻkilgan yaproqlar va qum oyogʻim ostida shitirlardi.

Qoʻrquvdan yuragim qinidan chiqayozdi, daraxtzorga kelganda toʻpponchamni olib tepkisini koʻtarib qoʻydim. Shoxlar orqasidan oʻsha korsikalik maxluq poylab turgandek boʻlardi menga. Fonusimni oʻsha shoxlar tomonga tutdim, hech kim koʻrinmadi. Atrofga alangladim: oʻzimdan boʻlak hech kim yoʻq edi. Suku-natni buzuvchi biror tovush ham eshitilmasdi. Faqat boy-oʻgʻli ajinalarni, arvohlarni chaqirayotgandek, vahimali chinqirardi.

Fonusimni daraxt ayrisiga ildim, bu ayrini oʻtgan yili goʻr kovlaganda koʻzim ostiga olib qoʻygan edim.

Yoz boʻyi bu erni qalin oʻt bosibdi, kuzda buni hech kimsa oʻrib ham olmabdi. Biroq bir joyda oʻt uncha oʻsmagan edi, qazigan joy shu er ekanini koʻrib turardim. Men ishga tushdim.

Bir yildan ziyod kutib yurgan payt ham keldi!

3oʻr umid bilan tirishib kovladim, belkurak bir narsaga tekkanday boʻlardi-da, yana jon boricha harakat qildim, chimning har bir siqimini sinchiklab tekshirardim! Hech nima topmadim! Birinchisiga qaraganda ikki barobar katta chuqur qazigandim. Adashib, boshqa erni qazidim shekilli, deb oʻyladim-da, atrofga yana bir nazar tashlab chiqdim, daraxtlarni birma-bir koʻzdan kechirdim, oʻshanda koʻrganlarimning hammasini miridan-sirigacha bir karra koʻz oldimga keltirdim. Yap-yalangʻoch shoxlarda suyakni zirqiragadigan sovuq shamol uvillardi, aʼzoyi badanimdan shovillab ter oqardi. Oʻsha dahshatli tunda goʻr ustidagi tuproqni tepib tekislayotganimda xanjar

urganlari esimga tushdi, men o'shanda tol novdasiga suyanib turgandim. Orqamda sayr qilib, o'tirib, hordiq chiqaradigan sun'iy qoyacha bor edi, yiqilayotganda ana shu muzdek toshga qo'lim tegib ketgandi. Hozir esa tol o'ng yog'imda, qoyacha esa orqamda. Xuddi o'sha kechadagi singari o'zimni erga otdim, so'ng o'rnimdan turdim-da, yana kovlay boshladim. Yana hech nima topmadim! Yashikdan nishon ham yo'q.

– Yo'q ekanmi? – dedi shivirlab vahima bosgan Danglar xonim.

– Shu bilan kifoyalanib qo'ya qopti-da, deb o'ylamang, – davom etdi Vilfor, – yo'q. Daraxtzorning hamma tomonini titib-tintidim, korsikalik qotil yashik qimmatbaho narsalarga to'la bo'lsa kerak, deb qazib olib ketganu, so'ng unday emasligiga ishonchi komil bo'lgach, yana ko'mib qo'ygandir, deb xayol qildim. Ammo hech nima topolmadim. So'ng xayolimga ehtiyot choralar ko'rishga zarurat yo'q, deb yashikchani biror joyga uloqtirib tashlagan bo'lishi ham mumkin degan fikr keldi. Bu holda ishni davom ettirish uchun tong yorishishini kutishim kerak edi. Bo'lmaga qaytdim-da, yana kutdim.

– O, Tangrim!

– Tong yorishishi bilan boqqa tushdim. Dastlab yana daraxtzorni qarab chiqdim, qorong'ida ko'rinmagan birorta iz topilar deb umid qilgan edim. Yigirma futdan ziyodroq maydonni ikki fut chuqurlab qazidim. Yollagan ishchi men bir soatda qilgan ishni bir kunda ham bajara olmasdi. Shuncha urinib hech narsa topmadim, hech narsa!

Keyin, yashikni bir yoqqa uloqtirgandir, deb qidira boshladim.

Uni ko'cha eshikka boradigan yo'lkaga tashlashlari mumkin edi. Bu qidirish ham natija bermadi. Timirskilab yana daraxtzor tomonga o'tdim, lekin bu erdan ham umidimni uzib qo'yg'an edim.

– Bunday hollarda aqldan ozish hech gapmas, – dedi xitob qilib Danglar xonim.

– Bir dam shuni niyat qildim ham, – dedi Vilfor, – biroq bu baxt menga yor bo'lmadi. Pirovardida, butun es-hushimni yig'ib oldim-da, o'z-o'zimga savol berdim: bu odam murdani olib ketib nima qiladi?

– Qo'lida da'voyu isbot uchun biror hujjat bo'lishini ko'zda tutgan bo'lsa kerak, dedingiz-ku o'zingiz, – dedi Danglar xonim e'tiroz bildirib.

– Yo'q, xonim, bunday bo'lishi mumkin emas, murdani yil bo'yi yashirmaydilar, uni tegishli davlat organlariga topshiradilar-da, so'roq beradilar. Shu vaqtgacha bunday qilmagan ekanlar, gap boshqacha bo'lsa kerak.

– Nima bo'lishi mumkin boshqa? – so'radi titroq bosib iyagi takirloyotgan Ermina.

– Biz uchun bundan ham dahshatli, bundan ham mash'um, bundan ham qo'rqinchli hodisa yuz bergan bo'lishi mumkin. Chamamda, go'dak tirik bo'lgan va uni o'sha korsikalik qutqarib qolgan.

Danglar xonim g'alati bir ovozda qichqirib yubordi va Vilforning qo'lidan mahkam tutib oldi.

– Bolam tirik ekan-da! – dedi u. – Qo'zichog'imni tiriklayin go'rga tiqqan ekansiz-da! O'likligiga ishonmasangiz ham ko'mibsiz-da!

Danglar xonim qirollik prokurori oldida tikka turib oldida, g'azabdan yonib turgan ko'zlarini unga tikib, nozik qo'llari bilan uning qo'llarini ezdi.

– Men qayoqdan bilay. Faqat shunday bo'lsa kerak, deb taxmin qilyapman, – javob qildi Vilfor, u shu payt baqrayib qolgandi, bu hol kuchli iroda egasi bo'lmish bu zotning inqiroz jari yoqasiga borib qolganidan darak berib turardi.

– Mening bolam, mening sho'rlik qo'zichog'im! – xitob qildi baronessa o'pkasi to'lib va yana kursiga cho'kdi.

Vilfor es-hushini yig'ib oldi-da, onaning qahr-g'azabdan qutulish uchun Danglar xonimni ham o'zi kabi vahimaga solish zarurligini fahmladi.

– Bilasizmi, agarda taxminim to'g'ri chiqsa, ikkimiz halok bo'lamiz, – dedi u va ovozini pasaytirib gaplashish

uchun o'rnidan turib baronessa oldiga keldi. – Bola tirik, kimdir buni biladi, kimdir bizning sirimizdan xabardor. Monte-Kristo bizning ko'z oldimizda bola qazib olingani va go'rda bola yo'qligini aytdi-ku! Demak, bu simi uning o'zi biladi!

– E, Xudoyim! Qahringga duchor etding! – shivirladi Danglar xonim.

Bunga javoban Vilfor bo'kirib, allanima dedi.

– Xo'sh, bola qayerda, bola? – dedi ona.

– Jonimning boricha harakat qilib axtardim men uni! – dedi Vilfor qo'llarini qisirlatib. – Uzoq uyqusiz tunlarda chorladim men uni! Qirollik xazinasini egallab olib, millionlab kishilarning sir-asrorini sotib olish va ular orasidan o'zinnikini ham topib olish ishtiyoqi bilan yondim-kuydim! Axiri kunlardan bir kun belkurakni yuzinchi marta qo'lga olganda o'zimdanda yuzinchi marta so'radim: bu korsikalik odam go'dakni nima qilarkin? Axir bola qochoqqa ortiqcha yuk-ku! Yoki uning haliyam joni borligini ko'rib daryoga tashlab yubordimikin?

– Bunday qilishi mumkin emas! – dedi xitob qilib Danglar xonim. – Kishi qasos olish uchun odamni o'ldirishi mumkin, ammo chaqaloqni ayovsiz suvga cho'ktirib yuborishi mumkin emas!

– U bolani Tarbiyaxonaga olib borib topshirdimikan? – davom etdi Vilfor.

– To'g'ri aytasiz, – dedi baronessa, – bolam o'sha Tarbiyaxonada!

– Shunday fikr xayolimdan o'tishi bilanoq, Tarbiyaxonaga yugurib borib bildim: xuddi o'sha kechasi Tarbiyaxonaga ostonasiga bir go'dakni qo'yib ketishibdi, u beligacha doka yo'rgakka o'ralgan ekan. Yo'rgak, baron tojining yarmi va N. harfi ko'rinib tursin, deb, ataylab yirtib tashlangan ekan.

– Xuddi o'zi, – dedi Danglar xonim, – hamma kiyimlarimda xuddi shunaqa belgi bor, de Nargon baron edi, bu men va otam ismining bosh harfi. Xudoga shukr! Bolam o'lmagan ekan!

– Yo‘q, o‘lgan emas.

– Siz ham shunday deyapsizmi? Siz ham-a? Quvonchdan xonimning yuragi yorilib o‘ladi, deb o‘ylamadingizmi? Qaerda endi u? Qaerda mening qo‘zichog‘im? Qaerda?

Vilfor elkasini qisdi.

– Bilmadim, – dedi Vilfor. – Axir bilganimda sizni dramaturglar va roman yozuvchilarga o‘xshab shuncha tashvishlarga duchor qilib o‘tirarmidim? Butun balo shundaki, men hech narsa bilmayman, hech narsa. O‘shandan keyin bir ayol yo‘rgakning qolgan yarmini olib kelib bolani olib ketibdi. U qonun talab qiladigan hamma hujjatlarini keltirgan emish.

– Siz o‘sha xotin kimligini bilib olishingiz va axtarib topishingiz lozim edi.

– Men xuddi shunday qildim. Sud tergovni niqobi ostida eng mohir izquvarlarni, tajribali polisiya ayg‘oqchilarini ayolning izidan tushirdim. Shalongacha uning izidan kuzatib borishgan. U erda ayolning izi yo‘qolgan.

– Yo‘qolibdimi?

– Butunlay yo‘qolibdi.

Vilforning hikoyasini Danglar xonim tinglayotib goh oh urar, goh ko‘z yoshi to‘kar, goh xitob qilardi.

– Bo‘lgani shumi? – dedi xonim. – Shu bilan kifoyalaniq qo‘ya qoldingizmi?

– Yo‘q, – dedi Vilfor, – men tinmay axtardim, so‘rab surishtirdim, ma‘lumotlar to‘plashni davom ettirdim. To‘g‘ri, so‘nggi ikki-uch yil ichida bir oz dam berdim o‘zinga. Mana endi yana qattiq ishga kirishaman va albatta niyatimga etaman, eshitdingizmi, niyatimga etaman, chunki endi meni vijdon azobi emas, vahima qamchilaydi bu ishda, vahima!

– Fikrimcha, graf Monte-Kristo hech nima bilmasa kerak, – dedi Danglar xonim, – agar bundan xabardor bo‘lganda bizga yaqinlashishga bunchalik intilmasdi, uning odatini bilasiz-ku.

– Kishining qahr-g‘azabi chegarasiz bo‘ladi, – dedi Vil-

for – Tangrining mehr-shafqatidan ham cheksiz bo‘ladi. Biz bilan gaplashayotganda uning ko‘zlariga nazar tashladingizmi?

– Yo‘q.

– Biror marta unga diqqat bilan qaraganmisiz?

– Albatta. U juda g‘alati, tushunib bo‘lmaydigan odam, vassalom. Meni bir narsa hayratda qoldirdi, shunday to‘kin ziyofat vaqtida hech narsaga qo‘l urmadi, shuncha ovqatdan birontasini tatib ham ko‘rmadi.

– To‘g‘ri, to‘g‘ri, – dedi Vilfor, – men ham sezdim buni, men hozirgi gaplarni oldindan bilganimda biror taomga qo‘l urmasdim, u bizni zaharlamoqchi shekilli, deb o‘ylagan bo‘lur edim.

– Xato qilarkansiz-da.

– Ha, xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lardim, ammo amin bo‘ling, bu odamning rejalari bo‘lakcha. Sizni ko‘rmoqchi bo‘lganligimning, gaplashib olmoqchi bo‘lganligimning, hammadan va dastavval o‘sha Monte-Kristodan ehtiyot bo‘ling deb sizni ogohlantirib qo‘ymoqchi bo‘lganimga boisi ham shunda. Menga qarang, – dedi Vilfor xonimga ko‘zlarini tik qadab, – ikkimizning aloqamiz to‘g‘risida hech kimga hech narsa deganingiz yo‘qmidi?

– Mutlaqo.

– Kechiring meni, – dedi Vilfor ovozini yumshatib, – yana so‘rab olay: demak, hech kimga aytmagansiz-a? Eng yaqin sirdoshingizga ham aytganingiz yo‘qmi?

– Yo‘q, yo‘q, – dedi qizarib baronessa, – ont ichaman: hech kimga aytganim yo‘q!

– Kunduz kuni ko‘rgan-kechirganlaringizni kechqurun yozib qo‘yish odati yo‘qmi sizda? Kundalik xotira daftari yuritmaysizmi?

– Yo‘q. Butun hayotim kundalik tadbir-tashvishlar bilan o‘tib ketadi, ko‘p narsalarni o‘zim ham eslab qololmayman.

– Tushingizda alahsirash odatingiz yo‘qmi?

– Men go‘dak singari uxlayman. Esingizdan chiqarib qo‘ydingizmi?

Baronessaning yuzi qizarib ketdi, Vilfor esa bo'zarib, murdaga o'xshab qoldi.

– Haq gap, – dedi qirollik prokurori zo'rg'a.

– Xo'sh, so'ngra? – so'radi baronessa.

– So'ngra? Endi nima qilish kerakligini bilaman, – dedi javoban Vilfor. – Bir hafta o'tar-o'tmay bu Monte-Kristoning kimligini, qayoqdan paydo bo'lib qolganligini, qay tomonga yo'l olganligini va bog'ida qazib olingan go'dak haqidagi voqeani nima sababdan bizga hikoya qilib berganini bilib olaman.

Vilfor bu so'zlarni shunday ohangda izhor etdiki, agar bularni graf eshitganida seskanib ketardi.

Shundan so'ng u baronessaning xohishsiz uzatgan qo'lini qisib xayrlashdi-da, eshikkacha kuzatib qo'ydi.

Danglar xonim boshqa izvosh kira qildi-da, guzargacha borib, uning orqa tomonida turgan o'z izvoshiga o'tirdi va xonimni kutib mudrab o'tirgan izvoshchiga «Ketdik!» – deb farmon berdi.

## **XI. TAKLIF**

O'sha kuni, taxminan Danglar xonim qirollik prokurori kabinetida o'tirgan vaqtda, Elder ko'chasida bir izvosh paydo bo'ldi-da, 27-uy darvozasidan kirib, hovlida to'xtadi. Izvoshning eshigi ochilib, undan o'g'liga suyanib Morser xonim chiqdi.

Alber onasini bo'lmasigacha kuzatib qo'ydi va darhol vannani tayyor qilib qo'yishni va otlarni qo'shishni buyurdi. Hayal o'tmay izvoshga o'tirdi-da, Elisey Maydoniga, graf Monte-Kristonikiga jo'nadi.

Graf uni odatdagicha tabassum bilan qabul qildi. Juda ajib savdo: bu zotning yuragiga salgina bo'lsa qo'l solish yoki fikrini ozgina bo'lsa-da, bilib olish amri mahol edi, uning dilidagi niyatini bilishga uringan kishi oldida tog'day

---

<sup>11</sup> XVIII asrning mashhur sud arboblardan.

g'ov paydo bo'lar, butun harakatlari puchga chiqardi.

Quloqlarini yozib kelayotgan Morser grafni ko'rdi-yu, qo'llarini beixtiyor tushirdi va shunchaki qo'l berib so'ra-shib qo'ya qoldi.

Monte-Kristo ham, odatdagidek, qo'lini uzatib sovuq-qina salomlashdi.

– Mana, huzuringizga keldim, – dedi Alber.

– Qadamlariga hasanot!

– Kelganimga hali bir soat ham bo'lgani yo'q.

– Depdan keldingizmi?

– Trepordan.

– Ha, aytgancha, u erda edingiz-a!

– To'g'ri siznikiga keldim.

– Juda xursand qildingiz meni, – dedi Monte-Kristo beparvo ohangda.

– Qani, gapiring, qanday yangiliklar bor?

– Yangilikmi? Siz yangilikni mendan, kelgindidan so'ray-sizmi?

– Tushunmadingiz gapimga, mening uchun biror nar-sa qildingizmi, deb so'rayapman?

– Siz menga biror narsa topshirganmidingiz o'zi? – so'radi Monte-Kristo o'zini g'amgin qiyofaga solib.

– Qo'ysangiz-chi, o'zingizni bilmaganga solib nima qila-siz? – dedi Alber. – Aytishlariga qaraganda, masofadan ta'sir etadigan jozibali aloqa bo'larkan, ana shu ajoyib aloqa vositasida men Treporda elektr quvvati tekkanini his etdim. Ehtimol siz men uchun hech nima qilmagan-dirsiz, lekin har holda menim haqimda o'ylagan bo'lsangiz kerak.

– Ehtimol, – dedi Monte-Kristo. – Men rostdanam siz-ning haqingizda o'ylagandim, biroq magnit toki, iqroman-ki, mensiz urdi sizga yiroqdan.

– Hali shundaymi? Qanday yuz berdi bu, aytib berol-maysizmi?

– Marhamat. Juda oddiy: Danglar menikida mehmon bo'ldi.

– Bundan xabarim bor, onam bilan ikkimiz uning bilan



uchrashuvdan qochib jo'rttaga ketib qolgan edik.

– Biroq ziyofatda u o'zi emas, Andrea Kavalkanti guruhi bilan birga bo'ldi.

– Italiyalik knyazingiz bilanmi?

– Juda oshirib yubormang. Andrea o'zini faqat vikont deb tanishtiradi.

– Vikont deb tanishtiradi?

– Ha, xuddi shunday.

– Demak, vikont emas ekan-da?

– Men qayoqdan bilay? U o'zini shunday deb tanishtirgach, men ham uni vikont deb aytyapman-da. Boshqalar ham shunday deb chaqirishyapti. Baribir emasmi? Ehtimol u rostdanam vikontdir?

– Ajoyib gaplarni aytyapsiz! Demak?

– Nima, demak?

– Danglar siznikida mehmon bo'ldimi?

– Ha.

– Vikont Andrea Kavalkanti ham bo'ldimi?

– Vikont Andrea Kavalkanti, uning otasi, Danglar xonim, Vilfor rafiqasi bilan, yoqimtoy yoshlar Debre, Maksimilian Morrel, yana... kim edi? Shoshmang... Ha, Shato-Reno.

– Menim haqimda gaplashishdimi?

– Siz haqingizda og'iz ochishgani ham yo'q.

– Bunisi yana yomon bo'пти.

– Nega endi? Axir sizni unutishlarini o'zingiz istagandingiz-ku! Istagingiz bajo keltirildi.

– Meni og'ziga olmagan ekanlar, demak, menim haqimda ko'p o'ylamabdilar-da. Mana bunisi meni tashvishga soladi.

– Sizga baribir emasmi, axir sizning haqingizda o'ylaganlar orasida mademuazel Danglar ham bor edi. Rostdanam u sizning haqingizda uyda ham o'ylashi mumkin edi-ku.

– Bu borada men aslo tashvishlanmayman, men uning haqida qanday fikrda bo'lsam, u ham mening haqimda xuddi shunday fikrda.

– Bir-birovlaringga judayam «yoqib» qolgan ekansizlar-

da! – dedi graf. – Bundan chiqdi, ikkingiz bir-biringizni yomon ko'rarkansiz-da?

– Bilasizmi, – dedi Morser, – agar mademuazel Danglar, uning uchun aziyat chekmayotganimni inobatga olib, oilalarimiz o'rtasidagi nikoh shartlaridan qat'i nazar, meni xalos etsa, juda qoyil qolgan bo'lardim. Qisqasi, mademuazel Danglar juda ishratbop ma'shuqa, ammo xotin bo'la olarmikin, yo'qmi... buni bilmadim.

– Bo'lg'usi rafiqangiz to'g'risida fikringiz durust ekan-ku, – dedi kulib Monte-Kristo.

– Ha, men sal oshirib aytdimu, lekin bu haq gap. Biroq bu niyatni amalga oshirish mumkin emas-da, ma'lum maqsadga erishmoq uchun, mademuazel Danglar mening xotinim bo'lmog'i, ya'ni men bilan yashamog'i, yonimda o'ylashi, ashulasini biqinimda aytishi, musiqasini chalganda, she'rini yozganda ham mendan o'n qadam narida turishi lozim, umr bo'yi shunday bo'lmog'i zarur. Mana shularni xayolga keltirganda meni vahima bosadi. O'ynash bilan ajralib ketish oson, ammo xotin esa tamom boshqa gap, xotin bilan, yaqinda bo'lsangiz ham, olisda bo'lsangiz ham, bari bir butunlay bog'langan bo'lasiz. Mademuazel Danglar bilan hatto olisda turib abadiy bog'lanib qolishni xayolga keltirishning o'zi ham dahshat.

– Sizning ko'nglingizni topish juda qiyin ekan-da, vi-kont.

– Chunki, men ko'pincha imkoniyati yo'q narsa haqida xayol surib yuraman.

– Qanaqa narsa ekan u?

– Otamnikiga o'xshagan xotin topib olishni...

Monte-Kristoning rangi oqarib ketdi va qo'lidagi bir juft to'pponcha tepkilarini tez-tez ochib-yopib, Alberga qarab qo'ydi.

– Demak, otangiz juda baxtiyor bo'lgan ekan-da bu bo-rada? – so'radi u.

– Bilasizmi, graf, men onamni farishta deyman, farish-ta! Unga bir razm solib qarang; u hamon go'zallikda tenggi yo'q, oqila, hozir burungidan ham xushfe'l, olijanob,

rahmdil. Biz hozirgina Treporda bo'ldik, odatda o'g'il uchun onani kuzatib borish rioya, muruvvat va majburiyat yuzasidan qilinadigan ortiqcha yuk, men onam bilan to'rt kun birga bo'lib rohat-farog'atda orom oldim, hamisha quvonchlarga to'lib yurdim. Malika Mab yo Titaniyani Treporga olib borganimda ham bunchalik baxtiyor bo'lmagan bo'lur edim.

– Gaplaringizni eshitganda hamma narsalardan kechib yuborgisi keladi kishining, umrimni bo'ydoqlikda o'tkazib yuborganim yaxshi ekan, degan qarorga kelasan chindan.

– Hamma gap ana shunda, – davom etdi Alber. – Dunyoda benuqson ayol ham borligini ko'ra-bila turib mademuazel Danglarga uylanishga intilarmidim axir! Xudbinlikka g'arq bo'lib ketib, ixtiyorimizdagi hamma narsalarni bo'rttirib, bo'yab ko'rsatishga harakat qilamiz, bunday hollarni nazar-e'tiboringizdan o'tkazgan bo'lsangiz kerak ayrim paytlarda? Marle yoki Fossen magazini oynasi ichida yaltirab turgan billur qo'limizga tushgani hamon jozibador, yanada go'zal bo'lib ketadi. Ammo boshqa biror kishida bundan ham tozasi borligini eshitgundek bo'lsangiz va siz taqib yurganingiz undan past ekaniga imoningiz komil bo'lsa bormi, rosa aziyat chekasiz, bundan og'ir ruhiy azob bo'lmasa kerak kishi uchun!

– E-e, lof ham evi bilan-da!.. – dedi shivirlab graf.

– Shu sababdan, mademuazel Ejeni men bir ko'z ilg'amas zarra ekanimni, unikiga o'xshash million-million pulim yo'qligini, sarmoyam yuz ming frankdan oshmasligini bilib olgan kun men uchun eng baxtli kun deb hisoblayman.

Monte-Kristo iljayib qo'ydi.

– Ochig'ini aytsam, – dedi so'zini davom ettirib Alber, – miyamga bir fikr keldi, Frans tasodifiy, qiviq narsalarni yoqtiradi, men uni mademuazel Danglarga oshiq bo'lishga majbur etmoqchi bo'ldim. Unga mademuazelning husn-jamolini juda boplab tasvirlab, to'rt marta xat

yozdim, biroq Frans xatimga e'tibor bermay, «Men chindanam favqulodda narsalarni yaxshi ko'raman, biroq shunga qaramay, o'z so'zimdan qaytolmayman», deb javob qaytardi.

– Fidoyi do'st degani bunaqa bo'larkan-da, o'zi faqat o'ynash qilib olmoqchi bo'lgan jononni do'stiga xotinlikka taklif etarkan-a.

Alber kulib qo'ydi.

– Ha, aytmoqchi, – dedi u, – bizning yoqimtoyimiz Frans qaytyapti. Bilishimcha, siz uni yoqtirmasangiz kerak, to'g'rimi?

– Menmi? – dedi Monte-Kristo, – kechirasiz, azizim vikont, nega endi men uni yoqtirmas ekanman? Men hammani yoqtiraman, hammani yaxshi ko'raman.

– Shu qatorda meni ham... rahmat sizga.

– Bu gapimni noto'g'ri tushunmang tag'in, – dedi Monte-Kristo. – Tangri o'zimizga yaqin kishilarni qanchalik yaxshi ko'rishni buyurgan bo'lsa, men ham hammani shunchalik yaxshi ko'raman. Bu xristianlik muhabbati. Faqat ba'zi bir zotlarni o'lgunday yomon ko'raman. Ha, qo'ying bu gaplarni, Frans masalasiga o'taylik. Demak, sizningcha, u yaqinda kelarkan-da?

– Ha, uni Vilfor chaqirtirib olyapti. Aftidan, Danglar mademuazel Ejenini tezroq erga berib yuborishga intilayotganidek, Vilfor ham mademuazel Valentinani tezroq uzatib yuboray, deb shoshilyapti. Chamamda, bo'yi etgan qizning otasiga juda qiyin bo'lsa kerak, u hamisha tashvishda, to uzatib qutulmaguncha yuragi po'killagani po'killagan.

– Menimcha, janob d' Epine sizdaqa emas. U taqdiriga tan berib chidab yuraveradiganlardan.

– Frans esa haqiqatan ham shu oyimchaga uylanmoqchi, u oppoq galstuk taqib ham olgan, hatto bo'lajak oilasi haqida gap sotib yuribdi. Buning ustiga u Vilfornn juda hurmat qiladi.

– Nazarimda, Vilfor hurmat qilsa arziydigan zotlardan, to'g'rimi?

– Aftidan, Vilfor qattiqqo‘lligi va odilligi bilan nom chiqargan kishi.

– Xayriyatki, – dedi Monte-Kristo, – buni sho‘rlik Danglarga o‘xshatib bulg‘ab tashlamadingiz.

– Danglarga nisbatan bunday munosabatda bo‘lishimga sabab, ehtimol, qiziga uylanishni xohlamaganimdir, – javob qildi Alber kulib.

– Azizim, siz juda beor oliftalardan ekansiz, – dedi Monte-Kristo.

– Men-a?

– Ha, siz. Qo‘ying bu gaplarni, qani chekaylik, mana, oling papirosdan.

– Bajonu dil. Lekin siz meni olifta deyapsiz-a?

– Axir mademuazel Danglarga uylantirishlariga qarshi isyon ko‘taryapsiz-ku. Yaxshisi, indamay sabr qilib tura-ving, qani, ish qayerga borib taqalarkan. Ehtimol sizdan boshqa ham so‘zidan qaytadigan odam chiqib qolar.

– Shundaymi hali? – dedi Alber ko‘zini baqraytirib.

– Axir sizni zo‘rlab bo‘yningizga ola xurjun ilib qo‘ymaslar-ku? – dedi Monte-Kristo so‘zini davom ettirib: – Vikont, menga qarang, – dedi u ovozini o‘zgartirib, – rostdanam aloqani uzmoqchimisiz?

– Shunday qilgan kishiga jon deb yuz ming frank berardim.

– Unday bo‘lsa do‘ppingizni osmonga otavering. Danglarning niyati ham xuddi shu, u siznikidan ikki hissa oshiq in‘om berishga tayyor.

– Rostdan-a? Toilemdan o‘rgulay! – dedi Alber, ammo uning yuragi ozgina g‘ashligi chehrasidan sezilib turardi.

– Azizim graf, Danglarning bunday fikrga kelganiga biror sabab bordir-da?

– Mana kekkayishu, mana xudbinlik! Odam bolasi ham shunaqa bo‘larkan-da, o‘ziga yaqin kishi gerdaysa, bolta bilan chopib tashlashga tayyor, agar uning kibr-g‘ururiga salgina til tekkizsalar, olamni boshiga ko‘tarardi.

– Axir men unday deyayotganim yo‘q. Faqat Danglar, chamamda...

– Sizdan juda mamnun bo‘lishi, qoyil qolishi shartmi? Ammo Danglar did-farosatda orqada qolganlardan, shuning uchun ham u boshqa bir zotga mahliyo...

– Kimga?

– Bilmadim kim ekan u, ko‘z-quloq bo‘lib turing va bu-larning hammasidan foydalaning.

– Ha, tushundim. Menga qarang, onam... Yo‘q, to‘g‘risi otam ziyofat bermoqchi.

– Yilning shu faslida-ya?

– Hozirgi vaqtda yozgi ziyofat rasm bo‘lib qoldi.

– Rasm bo‘lsa-bo‘lmasa, grafinya istak bildirsa bas, yozda ham ziyofat bo‘laveradi!

– Dono gap! Bilasizmi, bu rasmana Parij ziyofati. Kimki iyulda hech qayoqqa ketmay Parijda qolsa o‘shani Parij-ning haqiqiy fuqarosi deyish kerak. Janob Kavalkantilar-ga bizning taklifimizni etkazishni zimmangizga olasizmi?

– Qachon bo‘ladi ziyofat?

– Shanba kuni.

– Ungacha ota Kavalkanti ketib qoladi.

– O‘g‘li qoladi. Ehtimol uni o‘zingiz bilan birga olib kelarsiz?

– Azizim vikont, men u bilan tanish emasman-ku.

– Tanimaysizmi?

– Yo‘q, tanimayman... Men uni birinchi marta bundan to‘rt kun ilgari ko‘rdim va uning uchun javobgarlikni hecham gardanimga olmayman.

– Biroq siz uni qabul qilyapsiz-ku?

– Bu boshqa gap. Uni menga bir hurmatli abbat tavsiya qilgandi, uni ham ehtimol aldagandirlar. Agar uni o‘zingiz taklif etsangiz juda soz bo‘ladi, men taklif qilsam noo‘rin bo‘lur, bordi-yu, u to‘satdan mademuazel Danglarga uylanib qolsa, siz meni nayrangbozlikda ayblab, yoqamdan tutasiz. O‘zim ham bora olamanmi-yo‘qmi, bilmadim.

---

<sup>12</sup> Protestan sektasi mazhabidagi odam.

- Qayoqqa?
- Sizning ziyofatingizga.
- Nega endi?
- Axir siz hali meni taklif qilganingiz yo‘q-ku.
- Men shuning uchun huzuringizga shaxsan taklif qilgani keldim.
- O‘-ho‘, bu men uchun zo‘r iltifot. Ammo men band bo‘lsam kerak.
- Men hozir sizga bir narsani aytaman, shundan so‘ng ishingizdan voz kecharsiz.
- Qani ayting-chi.
- Sizning kelishingizni onam iltimos qilyapti.
- De Morser xonimmi? – so‘radi Monte-Kristo rangi o‘zgarib.
- Ochig‘ini aytsam, graf, onam men bilan juda ochiq gaplashadi, hech narsani yashirmaydi. Men sizga ta‘riflaganim nozik tuyg‘ular qalbingizda jo‘sh urmagan ekan, demak, siz bunday tuyg‘ulardan mahrum ekansiz, chunki shu to‘rt kun mobaynida butun gapimiz faqat sizning ushingizda bo‘ldi.
- Mening haqimda? Qo‘ying, unaqa demang, meni xijolatga qo‘yyapsiz.
- Bu tabiiy, chunki siz bir jonli jumboqsiz.
- Nahotki onangiz ham meni jumboq deb bilsa? Men uni ancha mulohazali ayol, bunaqangi xayollarga bormas, deb bilgandim.
- Ha, azizim graf, hamma uchun va shu qatorda mening onam uchun ham jumboqsiz, hamma shunday deydi-yu, biror kishi bu jumboqni echishning uddasidan chiqolmaydi, xotirjam bo‘laving, siz hamon echilmagan jumboq bo‘lib qolyapsiz. Onam, nega bu odam hech qarimaydi, deb so‘ragani-so‘ragan mendan. Chamamda, sizni onam Kaliostroga yoki graf Sen-Jermenga, grafinya G. singari lord Rutvenga o‘xshatyapti, shekilli. De Morser xonim bilan birinchi uchrashuvdayoq siz uni bunga butkul inontirasiz. Buni bajo keltirish qiyin emas sizga, axir siz ulardan birining falsafiy idrokini va ikkinchisining

aql-zakovatini egallab olgansiz-ku.

– Ogohlantirib qo‘yganingiz uchun rahmat, – dedi iljayib graf, – manim haqimdagi barcha taxmin, gumonlarni oqlashga harakat qilaman.

– Xo‘sh, shanba kuni kelasizmi biznikiga?

– Ha, de Morser xonim iltimos qilgan ekanlar, boraman, albatta.

– Marhamat qilib borsangiz boshimiz osmonga etadi.

– Danglar-chi? U ham boradimi?

– Albatta! Unga qo‘sha-qo‘sha taklifnomalar yuborilgan, buni otam o‘z zimmasiga oldi. Biz ulug‘ d‘ Agesso-ni<sup>11</sup>, janob de Vilforni ham keltirishga harakat qilamiz, biroq uning kelishidan umid yo‘q.

– Orzu-umiddan aslo voz kechmaslik kerak, deyiladi bir maqolda.

– Raqs tushishni bilasizmi, graf?

– Menmi?

– Ha, siz. Agar raqs tushsangiz hamma hayratda qolar-di-da?

– Ha, rostdanam qirq yoshgacha... Yo‘q, raqsni bilmay-man; de Morser xonim raqs tushadilarmi?

– Uyam tushmaydi, sizlar gaplashib o‘tirasizlar, onam siz bilan bir miriqib suhbatlashmoqchi.

– Rostdan-a?

– Xudo haqqi! Shuni ham aytib qo‘yayki, onamga ham-suhbat bo‘lishga loyiq birinchi kishi siz bo‘lib chiqdingiz.

Alber shlyapasini oldi-da, o‘rnidan turdi, graf uni kuzatib bordi.

– Men afsuslanyapman, – dedi graf Albernini zinada to‘xtatib.

– Nimadan afsuslanasiz endi?

– Adabsizlik qildim-da, sizga Danglar to‘g‘risida hech nima demasligim lozim edi.

– Aksincha, uning haqida iloji boricha ko‘proq gapiring, hozir qanday gapirgan bo‘lsangiz, shunday gapiring.

– Unday bo‘lsa juda soz, mana endi meni tashvishdan



xalos etdingiz. Aytmoqchi, d' Epine qachon qaytadi?

– Uzog'i bilan besh-olti kun ichida.

– U to'yni qachon o'tkazar ekan?

– Janob de Sen-Meran va Sen-Meran xonim kelishi bilan.

– D' Epine qaytganda menikiga olib keling. Sizingcha, men uni yoqtirmas emishman, biroq u menikiga kelsa xursand bo'lur edim.

– Xo'p, bo'ladi, amirim, istaklari albatta bajo etiladi.

– Xayr!

– Shanba kuni albatta kutaman, xo'pmi?

– Albatta! So'z berdim-ku.

Graf Alberning orqasidan qarab turdi-da, qo'lini silkitib qo'ydi. Alber foytuniga tushgandan so'ng graf orqasiga o'girildi. Qarshisida Bertuchcho g'oz turardi.

– Xo'sh, nima bo'ldi?

– Xonim sudda bo'ldi, – dedi ish boshqaruvchi.

– Ko'p turdimi u erda?

– Bir yarim soat.

– Keyin uyiga qaytdimi?

– To'ppa-to'g'ri uyiga qaytdi.

– Shunday deng, azizim Bertuchcho, – dedi graf, – endi Normandiyaga borib, men aytgan kichkina joyni axtarib topasiz.

Bertuchcho ta'zim qildi. Grafning farmoni xuddi uning ko'nglidagidek edi, shu sababli u kechqurunoq yo'lga chiqdi.

## **XII. QIDIRUV**

Vilfor Danglar xonimga bergan va'dasining va o'z ahdining ustidan chiqdi-da, Oteyldagi hovlida yuz bergan voqealardan graf Monte-Kristo qanday qilib xabardor bo'lganini aniqlashga kirishdi.

U o'sha kuniyoq sobiq turma inspektori va so'ng izquvar polisiya lavozimiga ko'tarilgan de Bovil nomli kishiga xat yozdi. U zarur ma'lumotlarni bera oladigan kishini

topish uchun ikki kun muhlat berishni so'radi.

Ikki kun o'tgach, Vilfor xat oldi, unda quyidagilar yozilgan edi:

*«Graf Monte-Kristo nomli zotni lord Uilmor yaqindan taniydi, lord chet ellik boylardan bo'lib, ahyon-ahyonda Parijga kelib turadi, hozir ham shu erda, Monte-Kristoni abbat Buzoni ham biladi, bu abbat Sisiliyaning mashhur dindorlaridan bo'lib, xayrli ishlari bilan Sharqda nom chiqargan».*

Vilfor bunga javoban ana shu xorijiyalar haqida darhol aniq ma'lumotlar to'plashni buyurdi. Ertasi kechqurun uning buyrug'i bajarilib, quyidagi ma'lumotlar olindi.

Parijga bir oyga kelgan abbat Sen-Syulpis cherkovi orqasidagi ikki qavatli uyda turarkan, uy to'rt xonadan iborat bo'lib, ikkitasi pastda, ikkitasi tepada, uyda abbat yakka o'zi istiqomat qilarkan.

Pastki qavatda yong'oqdan yasalgan stol, stullar va javon qo'yilgan emakxona, devori taxtadan, oqqa bo'yalgan mehmonxona, bu xona bezaksiz, gilam ham, osma soat ham yo'q. Aftidan, abbat shaxsiy hayot uchun faqat eng zarur narsalarnigina olsa kerak.

To'g'ri, abbat ko'proq vaqtini ikkinchi qavatdagi mehmonxonada o'tkazadi. Bu mehmonxona kutubxona rolini o'ynab, diniy kitoblarga va qo'lyozmalarga to'la. Xizmatkorining aytishicha, abbat oylab shu kitoblar va qo'lyozmalarga ko'milib yotarkan.

Tashrif buyurgan kishilarni xizmatchi eshikdagi tirqishdan mo'ralab bilib oladi, mabodo kelgan zot tanish bo'lmasa yoki yoqmasa, u eshikni ochmay, abbat Parijda emas, deb qaytarib yuboradi. Ko'plar, abbat doim uzoq safarda yuradi-da, deb ishonib ketaveradi.

Biroq abbat uyida bo'lishi yoki bo'lmasligi, Parijdami yoki Qohiradami, bundan qat'i nazar, u hamisha kambag'allarga yordam beradi, eshikning tirqishidan xizmatchi sadaqa tarqatib turadi.

Kutubxonaga yondosh bo'lma – yotoqxon. Pardasiz karavot, to'rt yumshoq kursi, baxmal qoplangan divan, but qo'yiladigan baland stol – xonadagi jihozlar shulardan iborat.

Lord Uilmor esa Fonten Sen-Jorj ko'chasida turadi. Bu zot butun boyligini sayohatga sarflab yuradigan ingliz sayyohlaridan. U hamisha yaxshi jihozlangan kvartira oladi-da, unda kuniga ikki-uch soatdan ortiq turmaydi. Ba'ziba'zida tunab qoladi. U fransuzcha yozish-chizishga ustasi farang bo'lsa-da, bu tilda mutlaqo so'zlashmaydi.

Qirolik prokuroriga bu muhim axborotlar ma'lum etilgan kunning ertasiga notanish bir odam Feru ko'chasidagi muylulishda izvoshdan tushdi-da, ko'kish rangli eshikni taqillatib, abbat Buzonini so'radi.

– Janob abbat ertalab chiqib ketgan edilar, – dedi xizmatkor.

– Men bunday javobga ishonmayman, – dedi haligi odam, – chunki meni bu yoqqa yuborgan odam kimni so'ragan bo'lmasin, u hamisha uyida bo'lmog'i shart. Iltimos, abbat Buzoniga mening kelganimni xabar qiling...

– U zot uyda yo'q, dedim-ku sizga, – takrorladi xizmatkor.

– Unday bo'lsa, mana bu kartochkani va xatni olingda, kelgani hamon topshiring. Bugun kech soat sakkizda abbat uyida bo'ladimi?

– Albatta uyda bo'ladilar, janob, ammo u kishi ishga o'tirib qolsalar, yo'q deb hisoblayvering, hech kimni qabul qilmaydilar.

– Bo'пти, kechqurun barvaqt kelaman, – notanish odam shunday dedi-da, jo'nab ketdi.

Rostdanam haligi odam aytilgan soatda boyagi izvoshdan etib keldi, biroq bu gal izvoshdan Feru ko'chasidagi muylulishda emas, to'g'ri kelib ko'kish eshik oldida to'xtadi. Eshikni taqillatdi, eshik ochildi, u ichkari kirdi. Uni izzatikrom-la kutib olishdi, demak, boyagi xat ancha ta'sir qilibdi.

– Janob abbat uydamlar? – so'radi u.

– Ha, kutubxonada ishlab o‘tiribdilar, u kishi sizni kutyaptilar, – javob qildi xizmatkor.

Notanish zot tik zinadan yuqoriga ko‘tarildi. Abbat ustini katta fonus yoritib turgan stol yonida o‘tirardi. Fonusga qo‘ndirilgan qalpoqning kattaligidan xonaning qolgan qismiga yorug‘ tushmas, qop-qorong‘i edi. Abbatning egnida qalpoqli rido bo‘lib, shu o‘tirishida u o‘rta asr olimlariga o‘xshab ketardi.

– Janob Buzoni o‘zlari bo‘ladilarmi? – so‘radi mehmon.

– Xuddi o‘zi, – dedi abbat, – janoblari polisiya boshlig‘i yuborgan zot – sobiq turma inspektori janob de Bovil bo‘lsalar kerak?

– Topdingiz, janob.

– Parij qidiruv polisiyasining ayg‘oqchilaridanmisiz?

– Shunday, janob, – javob qildi mehmon bir oz sarosimaga tushib.

Abbat ko‘zinigina emas, chakkasini ham bekitib olgan katta ko‘zoynagini to‘g‘riladi-da, yana o‘tirib oldi, mehmonga ham joy ko‘rsatdi.

– Janob, qulog‘im sizda, – dedi abbat italyan lahjasida ovozi balandlatib.

– Janob, menga topshirilgan vazifa, – dedi notanish odam, xuddi qiynalib gapirayotgandek, dona-dona qilib, – ikkimiz uchun ham juda muhim va mas‘uliyatli.

Abbat indamay boshini egdi.

– Janob abbat, – davom etdi notanish odam, – janob polisiya boshlig‘i sizni vijdonli, andishali odam ekanligingizni yaxshi biladi va yuqori polisiya organiga nihoyatda zarur bir ma‘lumot berishni iltimos qiladi. Men ana shu ish bilan keldim. Biz aminmizki, oshna-og‘aynigarchilik va shaxsiy mulohazalarga bormay, odil suddan hech narsani sir saqlamagaysiz.

– Agar siz istagan narsani aytishni vijdonim buyursa, janoblari shuni bilib qo‘ysinlarki, men kashishman, taba qilgan gunohkorning siri minba‘d maxfiy qolishi, undan faqat Tangri va mengina voqif bo‘lishim kerak, vassalom.

– Xotirjam bo‘ling, janob abbat, – dedi mehmon, – sizni zinhor vijdon azobiga solmaymiz.

Shu payt abbat fonus qalpog‘ining bir chetini bosgan edi, ikkinchi tomoni ko‘tarilib, notanish kishining yuzini yoritdi, abbatning o‘zi esa qorong‘ida qoldi.

– UZR, janob, – dedi polisiya boshqarmasining vakili, – yorug‘dan ko‘zimni ocholmayapman.

Abbat fonus qalpog‘ining chetini qo‘yib yubordi.

– Xo‘sh, janob, qulog‘im sizda. Gapiring.

– Tashakkur. Siz graf Monte-Kristoni taniysizmi?

– Janob Dzakkoneni so‘rayapsizmi?

– Dzakkone!.. Hali uning familiyasi Monte-Kristo emasmi?

– Monte-Kristo bir joyning, to‘g‘rirog‘i, qoyaning nomi, aslo familiya emas.

– Mayli, siz aytganicha bo‘lsin, Monte-Kristo bilan Dzakkone bir odam ekan, behudaga safsatabozlik qilib o‘tiramaymiz.

– To‘g‘ri, ikkisi bir odamning nomi...

– Bo‘pti, janob Dzakkone haqida gaplashamiz.

– Marhamat.

– Demak, siz uni taniysiz-a?

– Juda yaxshi taniyman.

– Kim o‘zi?

– Maltalik badavlat kemasozning o‘g‘li.

– Men ham shunday deb eshitgan edim, shunday deyishyapti. Biroq polisiya mishmishlarga doimo ishonavermaydi.

– Mishmishlar haqiqat bo‘lsa, polisiya ham ko‘pchilik qatori ishonishga majbur, – dedi e‘tiroz bildirib abbat, u miyig‘ida kulib qo‘ydi.

– Bunga o‘zingiz ham ishonib gapiryapsizmi?

– Xo‘sh, nega bunday savol beryapsiz?

– Mening savolimii to‘g‘ri tushuning, janob, rostgo‘y ekaningizga shubham yo‘q, shunchaki, o‘zingiz ishonib gapiryapsizmi deb so‘rayapman-da.

– Menga qarang, Dzakkonening otasini taniyman.

- O'ho', shunaqami hali!
- Bolalik chog'larimda uning o'g'li bilan kemasozlik korxonasida birga o'ynab yurardik.
- Graf degan unvon-chi?
- E-e, bilmaysizmi, bunaqangi unvonni sotib olish mumkin-ku!
- Italiyadami?
- Hamma erda.
- Yana ba'zi mishmishlarga qaraganda, uning boyligi behisob emish.
- Mana bunisi haq gap, - javob qildi abbat, - boyligi chindanam behisob.
- Sizningcha, qancha?
- Ehtimol, yillik daromadi yuz ellik-ikki yuz ming livrga borib qolar.
- Unda buning vahima qiladigan joyi yo'q ekan, - dedi mehmon, - odamlar esa uch, hatto to'rt million deyishadi.
- Men aytgan ikki yuz ming livr uning yillik daromadi, demak uning mablag'i to'rt milliondan kam bo'lmasligi kerak.
- Biroq, yillik daromadi uch-to'rt millionga boradi deyishyapti-ku!
- Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas.
- Siz uning Monte-Kristo degan orolini bilasizmi?
- Ha, bilaman, Palermodan, Neapoldan yoki Rimdan dengiz orqali Fransiyaga kelganlarning hammasi biladi bu orolni, chunki kemalar shu orol yonidan o'tadi-da.
- Juda go'zal joy deyishadi, to'g'rimi?
- U qoya.
- Nega endi graf bu qoyani sotib olibdi?
- Graf bo'lib olish uchun. Italiyada hozirgacha graf degan unvon olish uchun graflikka ega bo'lmoq kerak.
- Janob Dzakkonening yosh choqlaridagi sarguzashtidan xabardordirsiz?
- Otasiningmi?
- Yo'q, o'g'lining.
- Bu borada aniq bir narsa deyish qiyin, chunki o'smir-

lik chog' imda men uni nazarimga ilmasdim.

– U urushda qatnashganmi?

– Menimcha, harbiy xizmatda bo'lgan.

– Qaysi qo'shinda?

– Flotda.

– Siz uning diniy ustози emasmisiz?

– Yo'q, janob, nazarimda u lyuteranga o'xshaydi.

– Lyuteran dedingizmi? Nahotki?

– Men, «nazarimda» deyapman, qat'iy tasdiqlayotganim yo'q. Aytmoqchi, men Fransiyada diniy e'tiqodlar erkinligi joriy etilgan deb o'ylab yurardim.

– Chindan shunday, hozir bizni qiziqtiradigan narsa uning qaysi dinga e'tiqod qo'ygani emas, xatti-harakatlari. U haqida bilganlaringizning hammasini aytib berishni janob polisiya boshlig'i nomidan sizga taklif qilaman.

– Uni juda zo'r xayrli-ehsonli odam hisoblashadi. Sharqiy xristianlarga ko'pdan-ko'p yordam qilgani uchun muqaddas otamiz papa uni Xrist ordeni bilan mukofotladi, odatda bu orden eng ulug' zotlarga beriladi. Ayrim xizmatlari uchun olgan yana besh yoki oltita ordeni ham bor. Bu ordenlarni turli podshohlar va hukumatlar tuhfa etgan unga.

– Shu ordenlarni u taqib yuradimi?

– Yo'q, biroq ular bilan faxrlanadi. «Men xayr-ehson ko'rsatish yo'lida munosib xizmat qilganlik uchun beriladigan ordenlarni odamlarga qirg'in keltirganlarga beriladigan ordenlardan afzal ko'raman», deydi.

– U janob kvarkermi?<sup>12</sup>

– Ha, u kvarkerlardan, ammo keng shlyapa va jiggar rang kamzul kiyib yurmaydi.

– Uning og'aynilari ham bormi?

– Ha, bor, uni taniydiganlarning hammasi uning og'aynisi.

– Uning biror dushmani ham bordir?

– Faqat bitta dushmani bor.

– Kim u?

– Lord Uilmor.

- U qayerda?
- Hozir Parijda.
- U menga bu haqda ma'lumotlar beroladimi?
- Eng zarur ma'lumotlarni o'sha bera oladi. Dzakkone Hindistonda bo'lganida, Lord Uilmor ham o'sha erda edi.
- U Parijning qayerida turadi, bilasizmi?
- Shosse d'Anten tomonda bo'lsa kerak, ammo ko'chasini ham, uy raqamini ham bilmayman.
- U inglizni siz uncha yoqtirmassiz?
- Men Dzakkoneni yaxshi ko'raman, u esa o'sha inglizni juda yomon ko'radi, oramizga sovuqlik tushib qolganining sababi ham shunda.
- Janob abbat, graf Monte-Kristo bundan ilgari ham Parijda bo'lganmi?
- Yo'q, janob, u ilgari Fransiyada hech qachon bo'lgan emas, men buni yaxshi bilaman. Bundan yarim yil muqaddam menga murojaat qilib, zarur ma'lumotlar so'radi. Parijga o'zim qachon borishim ma'lum emasdi, shuning uchun uning huzuriga janob Kavalkantini yubordim.
- Andreanimi?
- Yo'q, otasi Bartolomeoni.
- Juda soz, endi sizga faqat bitta savolim qoldi, vijdon haqqi, insonparvarlik va din haqqi, bu savolimga to'g'ri javob berishingizni talab qilaman.
- Qulog'im sizda.
- Graf Monte-Kristo Oteyldagi hovlini nima uchun sotib olganini bilasizmi?
- Albatta, buni o'zi aytib bergan edi.
- Xo'sh, nima uchun ekan?
- Palermoda baron Pizani tuzgan kasalxonaga o'xshatib, aqldan ozganlarga kasalxona tashkil qilish uchun. Siz o'sha kasalxonani ko'rganmisiz?
- Eshitganman.
- U juda ajoyib muassasa.
- So'ng abbat savol-javoblarni davom ettirishga tayyor ekanini bildirib, ta'zim etib qo'ydi.
- Abbatning istagini tushundimi yoki hamma savollari-



ni berib bo'ldimi, har holda mehmon o'rnidan turdi.

Abbat uni eshikkacha kuzatib qo'ydi.

– Siz g'oyat saxiy va muruvvatli ekansiz, – dedi mehmon, – juda badavlat zot degan nom chiqargan bo'lsangiz ham, g'ariblaringiz uchun ayrim narsalarni taklif qilmoqchiman. Taklifimni qabul qilasizmi?

– Rahmat, janob, men xayr-ehson yo'lida jonimni ham ayamayman, men uchun dunyoda eng qimmatlisi ham mana shu.

– Har holda...

– Bu mening qat'iy qarorim. Yordamga o'zingiz axtarib toping muhtojlarni... Har bir badavlat zotning yo'lida yuzlab g'ariblar uchraydi.

Abbat eshikni ochdi, yana ta'zim qildi, mehmon ham egilib, xayrlashdi-da, chiqib ketdi.

Izvosh to'g'ri Vilfornikiga qarab eldi.

Bir soat o'tar-o'tmas izvosh yana darvozadan chiqdida, Fonten-Sen-Jorj ko'chasi tomon yo'l oldi. U «5» raqamli uy oldida to'xtadi. Lord Uilmor xuddi ana shu erda istiqomat qilardi.

Notanish zot uchrashish uchun Uilmorga xat yozganda, lord kech soat o'nda keling, dedi. Janob polisiya boshlig'ining vakili o'n daqiqa kam o'nda etib keldi, lord Uilmor hamma ishni belgilangan vaqtning o'zida ado etishga odatlangan, shu sababdan u hali qaytib kelgani yo'q, biroq soat roppa-rosa o'nda albatta keladi, deyishdi.

Notanish zot mehmonxonada kutib o'tirdi.

Bu mehmonxona ham ortiqcha hashamlardan xoli, oddiy mehmonxonalardan farq qilmasdi. Tosh pech tokchasida ikkita yangi sevr guldoni, qo'lida kamon tutgan bolaning haykalchasi o'rnatilgan soat, ikki tavaqali toshoyna, uning ikki tomonida ikki gravyura... bittasida yo'l boshlovchisi bilan borayotgan Gomerning, ikkinchisida xayr so'rab turgan Velizariyning surati aks ettirilgan; devorlarga kul rang guldor qog'oz yopishtirilgan, naqshli qizil movut qoplangan mebel – Lord Uilmor mehmon-xonasidagi jihozlar ana shulardan iborat

edi.

Xonada jilosiz yumaloq shishali chiroq yoniqliq, go'yo ko'zlari toliqqan polisiya vakili uchun jo'rttaga qilinganday uy nim qorong'i edi.

O'n daqiqa o'tgach, soat o'nga bong ura boshladi, beshinchi urishda eshik ochilib, lord Uilmor kirib keldi.

Lord Uilmor baland bo'yli, siyrak malla gajagi va sochlariga oq oralagan, zahil yuzli oppoq odam edi. Egni-boshi inglizcha: ustida 1811 yillarning oltin tugmali va va tik yoqali fragi, oq nimcha va kalta sariq chit cholvor.

Uning aytgan birinchi gapi shu bo'ldi:

– Janob, men fransuzcha gapirmayman, siz bundan xabardormisiz?

– Ha, bilaman, siz bizning tilimizda gaplashishni yoqtirmaysiz, – dedi unga javoban polisiya boshlig'ining vakili.

– Biroq siz fransuzcha gapiraverishingiz mumkin, – dedi lord Uilmor, – men bu tilda gapirmasam-da, yaxshi tushunaman.

– Men, – dedi mehmon boshqa tilga o'tib, – ingliz tilida bemalol gaplashaveraman, tortinmasangiz ham bo'ladi.

– O! – dedi lord Uilmor haqiqiy britaniyalikka xos ohangda.

Polisiya boshlig'ining vakili lord Uilmorga tavsiya qog'ozini topshirdi. Lord Uilmor xatni nuqul inglizcha maqomda o'qib chiqdi-da:

– Tushundim, juda yaxshi tushundim, – dedi.

Vakil so'roq boshladi.

Bu savollar abbat Buzoniga berilgan savollar bilan deyarli bir xil edi. Biroq graf Monte-Kristoga dushman ko'zi bilan qaraydigan lord Uilmorning javoblari abbatniki singari qisqa-ko'toh emas, balki mufassal, uzundan-uzoq bo'ldi. U Monte-Kristoning yoshlik chog'larini, Angliya bilan raqobatda bo'lgan bir kichik hind hokimida xizmatda bo'lganini hikoya qildi. Uilmor o'sha erda u bilan uch-rashgan, bir-biriga qarshi jang qilgan. Shu urushda Dzak-kone asir olinib, Angliyaga jo'natilgan, qamoqqa olingan, biroq u erdan qochgan. Shundan so'ng o'zini sayyohlik-

ka urgan, duellarda bo'lgan, ishq-muhabbat sarguzashtlarini boshidan kechirgan. Gresiyada qo'zg'olon ko'tarilganda u greklar qo'shiniga kirib xizmat qilgan, shu paytlarda Fessaliya tog'larida kumush koni topib olgan, biroq buni hech kimga bildirmagan. Navarina voqeasidan so'ng Gresiya hukumati mustahkamlanib olgach, u qirol Ottondan kumush konni unga hadya qilishni iltimos qilgan, iltimosi qondirilib, konga xo'jayin bo'lib olgan. Behisob boylik orttirish ana shundan boshlangan. Lord Uilmorning gapiga qaraganda, bu unga har yili ikki milliongacha daromad keltirarkan, biroq kondagi kumush tugashi bilan uning boyligi ham to'satdan tugab qolishi hech gap emas ekan.

– Uning Fransiyaga nima uchun kelganini bilasizmi? – so'radi vakil.

– U temir yo'l qurilishida ishtirok qilib foyda olmoqchi, – dedi lord Uilmor, – bundan tashqari u boy tajribaga ega ximik va yaxshi fizik, yana telegrafning yangi xilini kashf etdi, buni amalda sinab ko'rmoqchi.

– Yiliga u taxminan qancha pul sarflaydi? – so'radi polisiya boshlig'ining vakili.

– Besh yoki olti yuz mingdan oshiq xarajat qilmaydi, – dedi lord Uilmor – juda xasis.

Ingliz, Monte-Kristo to'g'risida nafrat-g'azab bilan gapirayotgani uning so'zlari ohangidan va basharasidan ko'rinib turardi; grafni qanday yomonlashni bilmay, uni xasislikda ayblay boshladi.

– Monte-Kristoning Oteyldagi hovlisi to'g'risida biror narsa bilasizmi?

– Ha, bilaman.

– Xo'sh, nimani bilasiz?

– Siz uyni nima uchun sotib olganini so'ramoqchimisiz?

– Ha.

– Unday bo'lsa, quloq soling, graf – savdogar, u tajribalari va xom xayollari bilan sinib xonavayron bo'lishi turgan gap. U Oteylda sotib olgan hovlisi yonida Baner-

de-Lyushon va Kotredagi shifobaxsh buloqlardan ham boy mineral suv bulog'i bor, deb da'vo qilyapti. Bu uyda, nemischa ibora bilan aytganda, Badehaus tashkil etmoqchi. U buloqni topish uchun bog'ini uch marta kavlab chiqdi ham, ammo bu harakati behuda ketdi. Yaqinda uyi atrofidagi hamma joylarni ham sotib oladi. Ming la'nat unga, aminmanki, o'zining temir yo'li, elektr telegrafi yoki vannaxonasi bilan u bir kunmas-bir kun kunpayakun bo'ladi. Men u qayoqqa borsa, izidan boraman, uning xonavayron bo'lganini o'z ko'zim bilan ko'rib, bir huzur qilmoqchiman.

– Undan nega g'azablanasiz? – so'radi vakil.

– G'azablanishimning sababi shuki, u Angliyaga boranda do'stlarimdan birining xotinini yo'ldan urdi.

– Shunday ekan, nega endi undan qasos olishga harakat qilmaysiz?

– Men graf bilan uch marta yakkama-yakka olishdim, – dedi ingliz, – birinchi marta to'pponchada otishib, ikkinchi marta qilichbozlik qilishib, uchinchi marta nayzali qilich ko'tarishib.

– Bu duellar natijasi nima bilan tugadi?

– Birinchisida u qo'limni sindirib yubordi, ikkinchisida o'pkamga lat etkazdi, uchinchisida mana bu erimdan yarador qildi.

Ingliz qulog'igacha ko'tarilib turgan ko'ylagining yoqasini qayirdi-da, bo'ynidagi chandiqni ko'rsatdi. Chandiq yaqinda bitgan yara singari qizarib, shishib turardi,

– Mana, ko'rib turibsizki, unga g'azabim cheksiz, – dedi ingliz takroran, – uning boshiga albatta o'zim etaman, uni o'z qo'lim bilan jahannamga yo'llayman.

– Aftidan, bu hali juda uzoqdagi gap, – dedi polisiya boshqarmasining vakili.

– O-o! – dedi ingliz bo'kirib, – men har kun tirga borib mashq qilaman, kun ora menikiga Grize keladi.

Mehmon bilmoqchi bo'lgan, to'g'rirog'i, ingliz bilgan narsalar ana shulardan iborat edi. Shuning uchun ham

ayg'ochi o'rnidan turdi-da, lord Uilmorga ta'zim qilib xayrlashdi, u ham inglizcha sovuqqina javob qildi, vakil chiqib ketdi.

Lord Uilmor ayg'ochi ketidan eshik yopilganini eshishi bilan uchib yotoqxonasiga kirdi-da, malla sochlari-ni, yasama gajaklari va qalbaki yarani darhol olib tashladi, o'zining asl holiga keldi, ya'ni qop-qora sochli, bug'doy rang, sadaf tishli Graf Monte-Kristo bo'lib oldi.

To'g'ri, janob de Vilforning uyiga ham polisiya boshlig'ining vakili emas, de Vilfor janobning o'zi qaytib keldi.

Bu ikkala uchrashuvdan qirollik prokurori ancha tinchlandi, chunki u qanoat hosil qiladigan muhim ma'lumot ololmasa-da, tashvishga soladigan biror muhim narsa ham bilolmadi. Shu tufayli u bu kecha Oteyldagi ziyofatdan so'ng birinchi marta tinch orom oldi.

### **XIII. YOZGI ZIYOFAT**

Morserlarnikidagi ziyofat shanba kuniga belgilangan edi. Iyulning jazirama oftobi kun bo'yi hamma yoqni yondirib turdi.

Soat kechki o'nga bong urdi. Yaqindagina dunyoni larzaga solgan momaqaldiraqdan qolgan oxirgi bulutlar tarqalib, graf bog'idagi bahaybat daraxtlar yulduzlarga to'layotgan osmonga bo'y cho'zib turardi.

Pastki qavatdagi zaldan musiqa va gir aylanib juft-juft bo'lib raqs tushayotganlarning ovozi eshitilar, deraza panjaralaridan taram-taram nur yog'ilib turardi.

Havo tobora ochilib borayotganini ko'rib ko'ngli tinchigan uy bekasi hozirgina kechki ovqatga bog'da dasturxon tayyorlash haqida buyruq bergandi. O'nlab xizmatkorlar ana shu ish bilan band edi.

Ungacha kechki ovqat emakxonaga keltiriladimi yoki maysazordagi chodirda tortiladimi, ma'lum emasdi. Yulduzlar charaqlab turgan musaffo osmon bu masalani maysazor foydasiga hal etdi.

Italyancha rasm-rusumga muvofiq yo'lkalarga, xiyo-

bonlarga rango-rang fonuslar yoqilgan, dasturxon ustiga ham dasta-dasta gullar va shamchiroqlar qo'yilgan. Odatda o'zlarini did-farosatli deb bilgan ba'zi mamlakatlardagina mana shunday ortiqcha dabdabaga, hashamga zo'r berishadi.

Grafinya de Morser oxirgi farmoyishlarini berib, yana mehmonxonaga qaytgan paytda odamlar xonani to'ldira boshlagan edi. Mehmonlarni grafning ulkan mansabidan ko'ra grafinyaning ajoyib mehmondo'stligi jalb etgan edi. Mercedesning ajoyib did-farosati tufayli bu ziyofatda dostonlarga mavzu bo'ladigan va zarurat tug'ilganda taqlid qilsa arziydigan ko'p noz-ne'matlar bo'lishiga oldindan hammaning imoni komil edi.

Biz boya tasvir etgan voqealardan juda qattiq hayajonga tushgan Danglar xonim de Morser xonimnikiga borishini ham, bormasligini ham bilmasdi, ammo ertalab uning izvoshi Vilforning izvoshiga duch kelib qoldi. Vilfor imo qilishi bilan ikkala izvosh bir-biriga yaqin kelib to'xtadi. Qirollik prokurori izvosh darchasidan egilib so'radi:

– Siz de Morser xonimnikiga borarsiz?

– Yo'q, borolmayman, – javob qildi Danglar xonim, – tobim qochib turibdi.

– Chakki qilasiz, – e'tiroz bildirdi xonimga ma'nodor ko'zlarini tikib Vilfor, – u erda sizning bo'lishingiz zarur.

– Bo'lishim shartmi? – so'radi baronessa.

– Albatta.

– Unda borganim bo'lsin.

Shu gaplardan so'ng izvoshlar turli tomonga jo'nab ketdi. Danglar xonim esa o'zining go'zalliginingina emas, bashang liboslarini ko'z-ko'z qilib ziyofatga kirib keldi. U kirganda Mercedes ro'paradagi eshikka kirib ketayotgan edi.

Grafinya Danglar xonimni qarshi olishni Alberga topshirdi. Alber baronessa qoshiga keldi-da, uning liboslari ni bir oz maqtagan bo'ldi va xonimni istagan joyigacha kuzatib qo'yish uchun qo'ltig'idan oldi.

Shu orada Alber atrofga alanglab, kimnidir axtarardi.

– Qizimni axtarayotgandirsiz? – so‘radi tabassum-la baronessa.

– Ochig‘ini aytsam, mademuazelni axtaryapman, – dedi Alber, – nahotki uni olib kelmagan bo‘lsangiz? Bunchalik shafqatsiz bo‘lish yaramaydi-da.

– Xotirjam bo‘ling, u mademuazel de Vilforni kutib oldi, birga yurishibdi, hu ana, ko‘rdingizmi, izimizdan kelishyapti, ikkisi oppoq ko‘ylak kiyib olgan, birisining qo‘lida bir dasta choygul, ikkinchisining qo‘lida esa bir dasta bo‘tako‘z. Menga qarang...

– Siz ham kimnidir axtaryapsiz, shekilli? – so‘radi iljayib Alber.

– Graf Monte-Kristoni kutayotganingiz yo‘qmi, mabodo?

– O‘n etti! – javob qildi Alber.

– Buningiz nimasi?

– Bu shuki, – dedi kulib vikont, – siz bilan o‘n etti kishi shu savolni beryapti menga. Grafning rosa omadi kelibdi-da!.. Bu bilan uni tabriklash kerak...

– Siz hammaga ham shunday javob beryapsizmi?

– E-e, uzr, men savolingizga javob bermabman. Xonim, tashvishlanmang; olifta zot albatta keladi biznikiga, hammamizni xursand qiladi.

– Kecha Operada bo‘ldingizmi?

– Yo‘q.

– U bor edi.

– Shunaqami? Ajoyib zot yana biror hunar ko‘rsatgan-dir teatrdan?

– Busiz u yura olarmikan? Elsler «Oqsoq iblis»da raqs tushdi, alban beka o‘zida yo‘q shod edi. O‘yin oxirida graf guldastaga bebaho uzuk taqib nozanin raqqosaga uloqtirdi, raqqosa undan benihoya minnatdor bo‘lganini bildirish uchun uchinchi bo‘limda ham chiqdi. Uning alban bekasi ham kelarmikin?

– Yo‘q, uni ko‘rishga umid qilmang, grafning uyida alban bekaning mavqei hali aniq emas.

– Menga qarang, meni qoldirib, de Vilfor xonim qoshi-

ga boring, – dedi baronessa, – sizni kutib toqati toq bo‘lib turibdi.

Alber Danglar xonimga ta‘zim qildi-da, u bilan yiroqdanoq gaplashmoqchi bo‘lib og‘iz juftlab turgan de Vilfor xonim oldiga bordi.

– Menga nima demoqchi ekaningizni aytaymi? Aytaman, ishonmasangiz garov o‘ynaymiz.

– Rostdan-a?

– Nima demoqchi ekanligingizni aytsam, yutqizganingizni bo‘yningizga olasizmi?

– Ha, bo‘ynimga olaman.

– Qasam iching-chi.

– Xudo ursin.

– Siz mendan graf Monte-Kristo shu erdami, agar hali kelmagan bo‘lsa, keladimi, deb so‘ramoqchisiz.

– Hecham unday emas. Hozir meni qiziqtirayotgan narsa u emas. Men sizdan Fransdan xabar bormi, deb so‘ramoqchiman. Xabaringiz bormi?

– Ha, bor. Kecha undan xat oldim.

– Nima deb yozibdi sizga?

– Xat ketidan o‘zi ham yo‘lga tushibdi.

– Juda soz. Mana endi grafga o‘tamiz.

– Graf keladi, xotirjam bo‘ling.

– Uning nomi faqat Monte-Kristo emasligidan xabaringiz bormi?

– Yo‘q, bundan xabarim yo‘q.

– Monte-Kristo bir orolning nomi, grafning bundan tashqari familiyasi ham bor.

– Uning familiyasini men hech eshitmagandim-ku.

– Demak, men sizdan ko‘ra ko‘proq narsa bilar ekanman: uning familiyasi Dzakkone.

– Ehtimol.

– U maltalik.

– Ehtimol, shundaydir.

– Kemalar xo‘jayinining o‘g‘li.

– Bilasizmi, agar bu gaplarni ovozingizni chiqarib aytsangiz, juda zo‘r muvaffaqiyat qozongan bo‘lur edingiz-



da.

– U Hindistonda harbiy xizmatda boʻlgan, Fessaliyada kondan kumush qazib olarkan. Oteylda mineral suv shifoxonasi ochish uchun Parijga kelibdi.

– Oʻhoʻ, juda ajoyib yangilik-ku! – dedi Morser, – bu gaplarni odamlar oldida aytaversam maylimi?

– Hammasini birdan emas-da, bitta-bitta ayting, soʻng bu maʼlumotlarni men aytganim haqida ogʻiz ocha koʻrmang.

– Nechun?

– Chunki, bu zimdan eshitib olingan bir sir.

– Kimning siri?

– Polisiyaning.

– Demak, buni...

– Kecha kechqurun polisiya boshqarmasida gapirishdi. Uning dabdabalarini koʻrib butun Parij hayajonga keldi bilsangiz, shu sababdan polisiya graf haqida maʼlumotlar yigʻadi.

– Ha, bu maʼlum gap! Endi bu nega daydib yuradi, nega buncha boy, deb grafni qamoqqa olish qolibdi-da.

– Toʻgʻrisini aytsam, shunday boʻlishi mumkin edi, biroq maʼlumotlarga qaraganda, u durust odam ekan.

– Shoʻrlik graf! Uning oʻzi bu xavf-xatardan xabardor-mikin?

– Xabardor boʻlmasa kerak.

– Tunda uni ogohlantirib qoʻyish zarur. U kelishi bilan aytaman bu gaplarni.

Shu payt ular oldiga qorachadan kelgan, koʻzlari chaq-noq barno yigit keldi-da, Vilfor xonimga taʼzim qildi.

Alber unga qoʻl uzatdi.

– Xonim, – dedi Alber, – tanishing, suvoriylar kapitani, shonli dovyurak ofiserlarimizdan Maksimilian Morrel.

– Morrel janoblari bilan Oteylda graf Monte-Kristoniki-da tanishishga musharraf boʻlgan edim, – dedi javoban de Vilfor xonim beparvo orqaga oʻqirilib.

Bu javob, ayniqsa uning gap ohangi shoʻrlik Morrelga qattiq botdi; biroq uni quvonchli manzara kutardi: orqa-

ga o'girilgan edi, ostonada oppoq libosli qizga ko'zi tushdi. Qiz baqraygan ko'zlarini unga qadab, qo'lidagi guldestani lablariga beozor tekkizib turardi.

Morrel qiz unga salom berayotganini fahmladi-da, o'zi ham qiz bilan ko'z urishtirib, dastro'molini labiga tekki-zib, alik oldi. Oppoq yuzlaridan hech qanday ma'noni uqib bo'lmas, ammo qalblari muhabbat o'tida jizg'in bu ikki yosh zalning ikki tomonida bir necha daqiqa butun borliqni unutib, jonli haykal kabi dong qotib qoldi.

Ikkisi bir-biridan ko'z uzolmay, anchagacha shunday turib qolishi va buni hech kim sezmasligi mumkin edi, biroq zalga graf Monte-Kristo kirib keldi.

Graf qayerga bormasin, nechundir hammaning diqqatini darhol o'ziga jalb qilardi, uning oddiy va ordensiz bejirim kamzuli, kashtasiz nimchasi, xushbichim oyoqlariga yopishib turgan cholvari lol etmasdi kishini. Rangpar yuzi, jingalak sochlari, bosiq va yorqin chehrasi, chuqur va g'amgin qarashlari va nihoyat lablarida bilinar-bilinmas kibru g'urur o'ynab turuvchi bejirim og'zi – grafning qiyofasida hammani maftun etib oladigan nishonalar ana shular edi.

Undan xushro'y erkaklar ko'p edi bu guringda, ammo nufuzi bundan balandrog'i yo'q edi. Uning butun vujudi teran, aqlli va nihoyatda sezgir odam ekanidan darak berib turardi, hamisha fikrga botib yurganidan bo'lsa kerak, uning har bir harakati, har bir qarashi beqiyos ma'noli va ravshan edi.

Bundan tashqari bizning Parij jamoatchiligimizning shunday bir qiziq odati borki, bu erda behisob boylikning sirlari yashirinib yotmaganida, grafning tashqi qiyofasidagi bu fazilatlarini ehtimol, payqamasdi ham.

Bularning hammasidan qat'i nazar, graf o'tli nigohlar va gulduros tabriklar ostida Morser xonim tomonga yo'naldi. Xonim gullarga o'ralgan tosh pech oldida turib grafning kirib kelganini eshik qarshisidagi oynada ko'rgan va uni kutib olishga chog'lanib turgan edi.

Graf kelib ta'zim qildi, xonim o'girilib, shunchaki iljayib

qo'ya qoldi.

Morser xonim, birinchi bo'lib so'zni graf boshlar, deb o'ylagan edi, graf esa dastlab xonim biror narsa der, dagan fikrda qarab turdi. Ammo, aftidan, shu daqiqada ortiqcha mulozamat o'rinli emas deb, ikkisi ham churq etmadi. Monte-Kristo xonim bilan salom-alik qildi-da, qo'lini uzatib kelayotgan Alber tomonga yurdi.

– Morser xonimni ko'rdingizmi? – so'radi Alber.

– Hozirgina xonim bilan so'rashdim, – dedi graf, – biroq hali otangizni ko'rganimcha yo'q.

– U hu anavi erda turibdi, ko'rdingizmi? Mashhur aslzodalar davrasida siyosiy masalalarda muzokara qilyapti.

– Nahotki o'sha janoblarning hammasi mashhur aslzodalar bo'lsa? – dedi Monte-Kristo. – Men bilmas ekanman-da! Ular nima bilan shuhrat qozongan? Bilasizki, shuhrat qozonishning turli yo'llari bo'ladi.

– Ulardan biri, hu anavi uzun bo'yli, ozg'in kishi olimlardan, u Rim shahri chekkasida kaltakesaklarning boshqacha xilini topibdi, bu kaltakesaklarning umurtqasi boshqalarnikidan bitta oshiq ekan, shu kashfiyoti haqida fanlar akademiyasida doklad qilibdi. Bu haqda ko'p tortishuv bo'libdi, oxiri bu novcha olim g'olib chiqibdi. Ortiqcha umurtqa olimlar dunyosida ko'p shov-shuvga sabab bo'пти, novcha, ozg'in zot faqat faxriy legion kavaleri edi, endilikda ofiser xochini taqib olgan.

– Taqib olsa nima bo'пти? – dedi Monte-Kristo, – meningcha, u shunday unvonga loyiq odam, mabodo u yana bir umurtqa topsa, komandir qilib ko'tarishlari ehtimoldan xoli emas, to'g'rimi?

– To'g'ri.

– Anavi-chi, qo'pol ko'k kamzul kiyib olgan kim?

– Bu kostyumni o'zi kashf etgani yo'q, bunga respublika aybdor; respublika badiiy did borasida boshqalardan ajralib turardi, o'shanda akademiklar maxsus libosda bo'lsin, deb Davidga ular uchun alohida kostyum tikishni topshirgan edi.

– Shunday deng? – dedi Monte-Kristo, – bu janob hali

akademikmi?

– Bu zot ana shu olimlarning to‘dasiga kirib olganiga bir hafta bo‘ldi, xolos.

– U qanday ishlarni do‘ndirib qo‘ygan ekan? Kasb-kori nima?

– Kasb-korimi? Bilishimcha, u quyonlarning kallasiga to‘g‘nag‘ich sancharmish, tovuqlarni ro‘yan bilan boqarmish, nahangning mo‘ylovi bilan kuchuklarning orqa miyasi qatig‘ini chiqaramish.

– Shu ishi bilan u fanlar akademiyasi a‘zosi bo‘lib olganmi?

– Yo‘q, Fransiya akademiyasiga.

– Nega endi Fransiya akademiyasi?

– Hozir tushuntirib beraman sizga... aytishlariga qaraganda...

– Ya‘ni o‘tkazgan tajribalar fanni juda taraqqiy ettirib yuboribdi, demoqchimisiz?

– Unday emas, u nihoyatda yozishga usta ekan.

– Bu haq gap, aftidan, kallasiga to‘g‘nag‘ich sanchadigan quyonlarning, suyaklarini qizil rangga bo‘yaydigan tovuqlarning, miyasining qatig‘ini chiqaradigan kuchuklarning izzat-nafsiga judayam e‘tibor bersa kerak-da.

Alber qah-qah urib kulib yubordi.

– Anavi kim? – so‘radi graf.

– Qaysi?

– Bu yoqdan sanaganda uchinchi.

– Ha, to‘q zangori kamzul kiyganmi?

– Ha.

– U otamning sherigi. Yaqinda dvoryanlar Palatasi a‘zolariga maxsus forma kiyim berishga qarshi juda qizg‘in nutq so‘zladi. Bu boradagi nutqi katta muvaffaqiyat qozondi. U liberal matbuot bilan chiqishmasdi, ammo saroyning bu niyatiga qarshi chiqishi liberal matbuotga ham yoqib, inoqlashib ketishdi. Uni elchi qilib tayinlashadi, deyishyapti.

– U qanday qilib dvoryanlar Palatasiga a‘zo bo‘lib oldi?

– Ikki-uch kulgili opera yozdi, «Asr» gazetasining besh-

oltita aksiyasini sotib oldi, besh-olti yil ministrlikka ovoz berib keldi.

– Qoyil, qoyil, vikont! – dedi kulib Monte-Kristo, – juda mohir axborotchi ekansiz. Endi sizdan yana bir iltimosim bor.

– Qanaqa iltimos?

– Ana shu janoblarga meni tanishtirmaysiz, mabodo o‘zlari tanishmoqni istab qolishsa, menga xabar qilasiz.

Shu payt graf kimdir qo‘lini turtganini sezdi-da, orqasiga o‘g‘irilib, Danglarni ko‘rdi.

– Ha, baron, o‘zlarimi? – dedi u.

– Nega siz meni baron deysiz? – dedi Danglar. – O‘z unvonimga befarq qarashimni bilasiz-ku. Vikont esa buning aksi: siz o‘z unvoningizni hadeb taroziga solaversiz, to‘g‘rimi, vikont?

– Albatta, – dedi Alber, – men agar vikont degan unvondan ajrasam, odam qatoridan chiqaman-qolaman, siz esa baron unvonidan voz kechsangiz ham millioner bo‘lib qolaversiz.

– Iyul monarxiyasi davrida bu eng yaxshi unvon, menimcha, – e‘tiroz bildirdi Danglar.

– Baxtga qarshi, – dedi Monte-Kristo, – millionerlik, baron, Fransiya dvoryani yoki akademik kabi umrbod berib qo‘yiladigan unvon emas, bunga yaqinda xonavayron bo‘lgan Frankfurt millionerlari Frank va Pulmanning holi-ahvolini misol qilib ko‘rsatish mumkin.

– Rostdanmi? – dedi quti uchib Danglar.

– Bugun kechqurun chopar shunday xabar keltirdi, ularning bankasida bir millionga yaqin sarmoyam bor edi, meni oldindan ogohlantirib qo‘ygan edilar, darhol to‘lab qo‘yishni talab qildim.

– Obbo, badbaxt-e! – dedi Danglar. – Ular menga ikki yuz ming frankka veksel o‘tkazishgan edi.

---

<sup>13</sup> Kamerdiner – dvoryanlarning uy xizmatkori, mahrami, malayi.

<sup>14</sup> O‘z niyatlaridan qaytmaydigan zot (*lot.*). (Gorasiy Odalar, III.

– Demak, sizni ogohlantiribdilar-da, ularning imzosi besh foiz turadi.

– To‘g‘ri, biroq juda kechikib ogohlantirishdi meni, – dedi Danglar. – Ularning vekselini ilgariroq to‘lab qo‘ygan edim.

– Nima bo‘pti? – dedi Monte-Kristo, – mana, o‘shaning ketidan yana ikki yuz ming frank...

– Jim!.. – deb grafning so‘zini bo‘ldi Danglar, – bu haqda og‘iz ocha ko‘rmang... ayniqsa kichik Kavalkanti oldida, – qo‘shimcha qildi Danglar Monte-Kristoga yaqin kelib, so‘ng sal narida turgan yosh yigit tomonga o‘girilib iljaydi.

Alber onasi bilan gaplashib olish uchun graf oldidan jildi. Danglar ham grafning bir o‘zini qoldirib, so‘rashib olish uchun kichik Kavalkanti qoshiga bordi. Monte-Kristo bir daqiqa o‘zi yakka qoldi.

Shu payt havo chidab bo‘lmas darajada dim bo‘lib ketdi.

Qarollar mehmonxonaga meva va muzqaymoq to‘la la‘li, lagan-tovoqlar ko‘tarib kirishmoqda.

Monte-Kristo ter bosgan yuzini dastro‘moli bilan artdi, lekin oldidan qarollar ko‘tarib o‘tayotgan laganlardan hech narsa olmay, orqaga tisarildi.

De Morser xonim Monte-Kristoni bir daqiqa ham nazardan yiroqlashtirmadi. Oldidan o‘tayotgan laganlarga hecham qo‘l urmayotgan grafning orqaga tisarilgani ham xonimning nazaridan qochib qutulolmadi.

– Alber, – dedi Morser xonim, – bir narsaga e‘tibor qildingmi?

– Nimaga?

– Otang ziyofatga chaqirganda graf biror marta ham kelmadi-ya.

– To‘g‘ri, biroq u menikiga nonushtaga keldi, bu uning bizning jamiyatimizga kirishi bo‘ladi.

– Sen graf de Morser bo‘lolmaysan, – dedi shivirlab Mercedes, – graf bu erga kirib kelgan daqiqadan boshlab ikki ko‘zim unda.

– Xo‘sh, nima bo‘pti?

- Hozirgacha u biror narsaga qo'l urmadi.
- Graf nafsini juda tiyib yuradigan zot.
- Mercedes noxush jilmayib qo'ydi.
- Bor, yonidan lagan olib o'tayotganlarida biror taom tanovul qilishini undan iltimos qil.
- Buning nima keragi bor, oyi?
- Iltimosimni bajo keltir, Alber! – dedi Mercedes.
- Alber onasining qo'lini o'pdi-da, graf qoshiga bordi. Ular yonidan xizmatkorlar lagan ko'tarib o'tayotganda Alber muzqaymoqli likopchani qo'lga olib, tatib ko'rishga harchand taklif etsa-da, graf zinhor unamadi.
- Alber onasi qoshiga qaytib keldi, grafinyaning rangida qon qolmagan edi.
- Mana ko'rdingmi, – dedi xonim, – u rad etdi.
- Ha, rad qildi, lekin siz nega bunga qayg'urayotibsiz?
- Bilasanmi, Alber, ayol zoti juda g'alati bo'ladi. Graf menikida biror taomni, hech bo'lmaganda anorning biror donasini tatib ko'rganda boshim ko'klarga etardi. Ehtimol, fransuz taomlarini u yoqtirmas yoki o'zining maxsus taomlari bordir.
- Unday emas, Italiyada u har qanday taomni eyaverardi, menimcha, bugun grafning tobi yo'qroq bo'lsa kerak.
- Axir, – dedi grafinya, – umr bo'yi serquyosh mamlakatlarda yashab kelgan bu zot, issiqda biz kabi azob chekmasligi kerak edi-ku?
- Menimcha, unday emas, u havo juda dim bo'lib ketdi, deb nolidi va derazalarni ochishga ochibdilar-u, lekin bir yo'la deraza qopqoqlarini ochmabdilar-da, dedi.
- Darvoqe, – dedi Mercedes, – hamma narsani jo'rttaga rad etyaptimi yoki yo'qmi, buni aniqlash uchun men bir hiyla o'ylab topdim.
- Shunday deb u mehmonxonadan chiqib ketdi.
- Bir daqiqadan so'ng derazalar lang ochildi, deraza ostida qad ko'targan xushbo'y o'simliklarning shoxlari orasidan kichik-kichik fonuslar nur sochib turgan go'zal bog' ko'rindi. Soyabon ostidagi stolda noz-ne'matlar to'kin.

Raqqos va raqqosalar, cholg'uvchi va ulfatlar xursand bo'lganlaridan qichqirib yubordilar, xonaga gupillab kirgan toza va muattar havodan mehmonlar to'yib-to'yib nafas ola boshladilar.

Shu payt Mercedes rangi ilgarigidan ham bo'zarib kirib keldi, uning vajohatida o'qtin-o'qtin yuz beradigan qat'iyat hozir yana namoyon bo'lgan edi. Xonim to'g'ri erini qurshab olgan to'daga yaqinlashdi-da, dedi:

– Graf, mehmonlaringizni bu erda tutib turmay, boqqa olib chiqing. Uyda dimiqib o'tirmay, boqqa chiqib rohatlanishsin.

– Xonim, – dedi 1809 yilda «Partops pour la Syrie» qo'shig'ini aytib yurgan sipo keksa general, – boqqa yolg'iz o'zimiz chiqmaymiz.

– Juda soz, – dedi Mercedes, – unday bo'lsa, mana, men birinchi bo'lib boqqa chiqqanim bo'lsin.

So'ng u Monte-Kristoga o'girilib:

– Graf, marhamat qilib qo'ltig'imdan oling, – dedi.

Bu oddiy so'zlarni eshitgan graf seskanib tushdi va Mercedesga tikilib qoldi. Bu boqish chaqmoq kabi bir zunda o'tib ketgan bo'lsa-da, grafnyaga mangu davom etayotgandek tuyuldi, chunki grafning bu qarashida dunyo-dunyo ma'no bor edi.

U grafnyaga qo'lini tutdi, xonim uning qo'lga tayanib, to'g'rirog'i, grafning qo'lini bejirim qo'lchalari bilan ushladi-da, birgalashib dabdabali zinalardan pastga tusha boshlashdi.

Ular ketidan va boshqa zinadan ham rohatlanib sayr qilishga havasmand yigirmaga yaqin kishi shov-shuv ko'tarib boqqa yo'l oldi.

#### **XIV. NON VA TUZ**

Grafinya de Morser hamrohi bilan ikki tomonida ko'm-ko'k arg'uvonlar salom berib turgan xiyobon bo'ylab is-siqxona tomon yurdi.

– Mehmonxona juda dim bo'lib ketdimi, graf? – dedi



xonim.

– Xuddi shunday, xonim, hamma eshik va derazalarni ochdirib juda oqilona ish qildingiz.

Shu gaplarni aytayotganida graf Mercedesning qo'llari titrayotganini sezib qoldi.

– Bu engil ko'ylakda va birgina harir ro'molda sovqotib qolmang tag'in? – dedi graf.

– Bilasizmi, sizni qayoqqa olib boryapman? – so'radi grafinya savolga javob bermay.

– Qaydam, – dedi javoban Monte-Kristo, – ko'rib turib-sizki, itoatkorona sizga ergashib ketayotibman.

– Hu anavi xiyobon oxirida ko'rinib turgan issiqxonaga.

Graf «o'zi nima gap?» degandek Mercedesga qarab qo'ydi, ammo xonim bunga e'tibor bermagach, Monte-Kristo ham indamay qo'ya qoldi.

Hamrohlar issiqxonaga etib kelishdi. Issiqxona turli-tuman mevalarga boy edi. Bu mevalar bizdagi saratonning jazirama taftini beruvchi issiqxonada iyulning boshlaridayoq etilib pishgan edi.

Grafinya Monte-Kristoning qo'lini qo'yib yubordi-da, tok yoniga borib, muskatdan bir boshini uzib oldi.

– Marhamat, graf, – dedi Mercedes g'oyat dilxastalik bilan jilmayib, uning g'amgin ko'zlaridan yosh otilib chiqay deb turardi. – Bizning Fransiya uzumlari sizning Sisi-liya va Kiprdagi uzumlaringizga bas kelolmasligini bilaman, biroq ishonamanki, siz shimol quyoshimizning nurga xasisligini hisobga olarsiz.

Graf ta'zim qildi-da, bir odim ortga tisarildi.

– Mening qo'limgan xazar qilyapsizmi? – dedi Mercedes titroq ovoz bilan.

– Xonim, – javob qildi Monte-Kristo, – sizdan o'tinib uzr so'rayman, muskatni og'zimga olmayman.

Mercedes o'ksinib nafas oldi-da, uzumni qo'lidan tushirib yubordi.

Tokning shunday yonida ajoyib shaftoli shoxi larzon bo'lib turardi. Mercedes unga yaqin bordi-da, baxmal tus

mevani uzib oldi.

– Yo’qsa mana bu shaftolini oling, – dedi u. Graf buni ham boyaqidek rad etdi.

– I-e! Buniyam olmysizmi? – dedi grafinya yana dili siyoh bo’lib, – tavba, hech ishim o’ngidan kelmadi-kelmadi-da.

O’rtaga uzoq sukunat cho’kdi, uzum ketidan shaftoli ham qum ustiga tushdi.

– Bilasizmi, graf, – dedi Mercedes Monte-Kristoga iltijo bilan tikilib, – arablarda ajoyib odat bor: bir xonadonda birga non va tuz tatigan kishilar abadiy do’st bo’lib qolarkanlar.

– Men buni bilaman, xonim, – javob qildi graf, – biroq biz Arabistonda emas, Fransiyada turibmiz. Fransiyada esa abadiy do’stlik, non va tuzni baham ko’rish odati yo’q.

– Biroq, har holda... – dedi xonim vujudini titroq bosgan holda Monte-Kristoning ko’zlariga tikilib va titrab turgan qo’llari bilan uning qo’llarini mahkam tutib, – har holda, biz bir-birimiz bilan do’stmiz, to’g’rimi?

Rangi quv o’chib ketgan grafning yuragi orqasiga tortib ketdi, qizarib-bo’zardi, ko’zlari tindi.

– Albatta, albatta, – dedi u, – xonim, nechun biz do’st-inoq bo’lmas ekanmiz?

Monte-Kristo so’zlarining ohangi Mercedes zoriqib kutgan javobdan shu qadar yiroqda ediki, xonim o’pkasi to’lib xo’rsindi-da, grafdan yuzini o’girib oldi.

– Tashakkur sizga, – dedi Mercedes va oldinga yurdi.

Ular churq etmay bog’ni bir aylanib chiqishdi.

– Graf, – dedi Mercedes uzoq sukunatdan so’ng, – sizni juda ko’pni ko’rgan, ko’p erlarni sayohat qilgan, ko’p jabr-jafolar chekkan deyishadi, to’g’rimi?

– Ha, shunday xonim, men ko’p azob-uqubatlarga duchor bo’lganman, – javob qildi Monte-Kristo.

– Endi baxtiyormisiz?

– Albatta, – dedi graf, – mening biror narsadan noliganimni eshitgan kishi bo’lmasa kerak.

– Hozirgi baxtli hayotingizdan joningiz halovatda bo’lsa

kerak?

– Hozirgi baxtim o'tmishdagi baxtsizligim bilan barobardir.

– Uylanmaganmisiz?

– Uylanmaganmisiz deyapsizmi? – takrorladi Monte-Kristo, cho'chinqirab, – kim aytdi sizga buni?

– Hech kim aytgani yo'q, biroq sizni bir necha bor Ope-rada bir yosh nozanin ayol bilan birga ko'ribdilar.

– U cho'ri, Konstantinopolda sotib olganman, knyazning qizi edi, endi meni qizim bo'lib qoldi, dunyoda mening undan boshqa hech kimim yo'q.

– Demak, yakka-yolg'iz ekansiz-da?

– Yakka-yolg'izman.

– Singlingiz... o'g'lingiz... otangiz yo'qmi?

– Hech kimim yo'q,

– Dunyodan umidsiz, yolg'iz o'zingiz qanday hayot kechiryapsiz?

– Xonim, bunga men aybdor emasman. Maltadalik vaqtimda bir qizni sevardim, unga uylanishim kerak edi, biroq urush boshlanib qolib, meni oyog'imni erga tegizmay olib ketishdi. Qiz meni qattiq sevadi va kutadi, o'la-o'lguncha sodiq bo'lib qoladi, deb o'ylagandim. Qaytib kelsam, u allaqachon erga tegib ketibdi. Yoshi yigirmadan oshgan har bir erkakning qismati odatda shunday bo'larkan. Men boshqalarga nisbatan ko'proq o'rtandim-yondim. Grafning nafasi bo'g'ildi.

– Shunday deng, – dedi xonim, – o'sha muhabbat sizni dilpora etib ketibdi-da... Kishi umrida faqat bir marta oshiq bo'ladi... O'sha ayol bilan so'ng hech uchrashmadingizmi?

– Hech.

– Hecham-a?

– U yashagan joyga hech qaytib bormadim.

– Maltaga-ya?

– Ha, Maltaga.

– U hozir ham Maltadami?

– Ha, o'sha erda bo'lsa kerak.

– Siz uning gunohini kechirdingizmi?  
– Ha, faqat uning gunohini kechirdim.  
– Faqat uning gunohini deng, sizni ma’shuqangizdan judo etgan kishilarni-chi? Ularni hozir ham yomon ko’rasizmi?

– Hecham, nega endi men ularni yomon ko’rayin?

Grafinya Monte-Kristoga tikilib to’xtab qoldi, xushbo’y uzumning bir shingilini u hamon qo’lida tutib kelayotgan edi.

– Mang, – dedi u.

– Xonim, men muskatni hech emayman, – dedi Monte-Kristo, go’yo shu paytgacha bu haqda ikkisi o’rtasida hech gap o’tmaganday.

Grafinya uzum shingilini jahl bilan itqitib yubordi.

– Qaysar! – dedi xonim shivirlab.

Monte-Kristo bu ta’na go’yo unga aloqador emasdek, parvoyi falak turaverdi.

Shu on ular qoshiga yugurib Alber keldi.

– Oyi, – dedi u, – baxtsizlik yuz beribdi!

– Nima? Nima bo’pti? – so’radi grafinya xuddi uyqudan uyg’ongandek qaddini rostlab, – baxtsizlik dedingmi? Darhaqiqat, endi baxtsizlikka uchrashimiz turgan gap!

– Janob de Vilfor keldi.

– Kelsa nima bo’pti?

– U xotini va qizini olib ketgani kelibdi.

– Nechun?

– Parijga markiza de Sen-Meran xunuk xabar keltiribdi-lar: Marseldan kelayotganda birinchi bekatda markiz de Sen-Meran dunyodan o’tibdi. Vilfor xonim o’zida yo’q xursand, gulday ochilib yurgan edi, bu xabarga uzoq vaqtgacha inonmay hang-mang bo’lib turdi. Ammo mademuazel Valentina xunuk xabarni eshitiboq, otasining shunchalik ehtiyotkorligiga qaramay, hamma gapni fahmladi va hushidan ketib yiqildi.

– Markiz de Sen-Meran mademuazel de Vilforga kim bo’ladi? – so’radi graf.

– Ona tomondan buvasi. U tezroq nevarasi bilan Frans-

ning boshini qovushtirib qo'yish uchun kelayotgan edi.

– E-e, shunday deng hali!

– Endi Frans kutib turishga majbur. Afsuski, markiz de Sen-Meran mademuazel Danglarning ham buvasi emas-da!

– Alber, Alber! Nega unaqa deyapsan? – dedi Morser xonim gina aralash, – graf, Alber sizni juda hurmat qiladi, ayting unga axir, bunaqa behuda gaplarni og'ziga olmasin!

Xonim o'zini bir necha qadam nariga oldi.

Monte-Kristo unga o'ychan va mehr to'la nigoh bilan qaragan edi, xonim o'rniga qaytib kelishga majbur bo'ldi. U grafning qo'lidan tutdi, so'ng o'g'lining qo'lini siqib, ikkala qo'lini bir-birining ustiga qo'ydi-da:

– Axir biz oramizdan qil o'tmaydigan do'stlarmiz-ku, shundaymi? – dedi.

– Men sizdan do'stlik da'vo qilolmayman, xonim, – dedi graf. – Ammo men sizga zo'r hurmat bilan xizmat qilishga tayyorman.

Grafinya dilida ta'rifga sig'mas qayg'u bilan grafdan uzoqlashdi; o'n qadam ham yurmay ko'z yoshlarini artayotganini graf ko'rib turardi.

– Oyim bilan orangizda biron gap o'tdimi? – so'radi Alber.

– Aksincha, – dedi graf, – hozirgina oldingizda, biz do'stmiz, dedi-ku.

Shundan so'ng graf bilan Alber mehmonxonaga qaytib kelishdi, bu erdan hozirgina Valentina va er-xotin de Vilforlar chiqib ketishgan edi.

Shubhasizki, ular bilan izma-iz Morrel ham chiqib ketgan.

## **XV. MARKIZA DE SEN-MERAN**

Chindanam, bundan bir necha daqiqa ilgari Vilfor xonadonida ko'ngilsiz voqea yuz berdi.

Ikkala xonim ziyofatga jo'nab ketgach (Vilfor xonim

chunonam urinsa-da, erini ziyofatga borishga ko'ndirolmagan edi), qirollik prokurori kabinetini qulflab oldi-da, qog'ozlarga ko'milib ketdi. Boshqa kishi bu qog'ozlar g'aramini ko'rsa kapalagi uchardi, ammo oddiy kunlarda bular prokurorning ishga bo'lgan ishtiyoqini zo'rg'a qondira olardi.

Lekin bu gal ish unga bekinib olish uchun bahona edi, xolos. Vilfor ishlash uchun eshikni qulflab olmadi, balki xilvatda xayollarga cho'mish niyatida shunday qilgan edi. Juda zarur bo'lmasa oldiga hech kimni kiritmaslikni buyurdi-da, yumshoq kursiga cho'kib, so'nggi kunlarda bo'lib o'tgan behisob qayg'uli voqealarni birma-bir o'yladi.

Qirollik prokurori to'p-to'p bo'lib yotgan qog'ozlarga qo'l urish o'rniga, yozuv stoli tortmasini ochib, yashirin prujinani bosdi va shaxsiy qog'ozlari bog'lamini oldi, bu g'oyat muhim qog'ozlarda Vilfora siyosat borasida, pul borasida, sud ishlarida yoki yashirin oshiq-ma'shuqlik nayranglarida dushmani bo'lgan hamma shaxslarning nomlari faqat uning o'ziga ma'lum shifrlarda yozib qo'yilgan edi.

Hozirgi xavf-xatarli paytlarda bu dushmanlar son-sanoqsizdek tuyulardi unga. Ammo bu nomlarning hammasiga, hatto eng dahshatlisiga ham u dovonga chiqib olib, pastda uzoq vaqt qiynalib bosib o'tgan tip-tikka cho'qqilarni, tubsiz jarliklarni, o'tib bo'lmas yo'llarni pisand qilmagan yo'lovchi singari iljayib qarab qo'ya qolardi.

Vilfor bu nomlarni sinchkovlik bilan xotiriga keltirdi, diqqat bilan qayta-qayta o'qib, o'rganib chiqdi, yozuvlarga solishtirib ko'rdi, oxiri boshini chayqadi.

– Yo'q, – dedi pichirlab, – bulardan birortasi ham mening shu sirimni oshkora qilib er bilan yakson etish uchun bunchalik uzoq payt poylab yurmas. Hamlet iborasi bilan aytganda, ba'zan er tagiga rosa chuqur ko'mib qo'yilgan narsa gumburlab ovoz chiqaradi-da, chaqmoq kabi hamma yoqni yoritib yuboradi. Biroq bu chaqmoq bir zum yonib, darhol o'chadi, kishini yo'ldan adashtiradi. Aftidan,

o'sha korsikalik maxluq bu voqeani biror kashishga aytgandir, u esa o'z navbatida boshqalarga hikoya qilib bergandir. Janob Monte-Kristo buni eshitgan va qanoat hosil qilish uchun tekshirmoqchi...

«Biroq nima keragi bor ekan unga tekshirib o'tirishning, – dedi o'z-o'ziga Vilfor, bir oz o'ylanib, – janob Monte-Kristoga, Malta kemasozining o'g'li janob Dzakkonega, Fessaliyadagi kumush konining xo'jayiniga – Fransiyaga birinchi marta tashrif buyurgan zotga bu qorong'i, sirli va foydasiz voqeani tekshirishning nima keragi bor ekan? Biri grafning do'sti, biri dushmani bo'lgan abbat Buzoni va lord Uilmorning gapidan menga aniq va ravshan ma'lum bo'ldi: hech mahal, hech erda, hech qanday holatda va hech qanday muhitda mening ular bilan aloqam bo'lgan emas va bo'lishi ham mumkin emas».

Vilfor bu so'zlarni takror-takror tilga olardi-yu, lekin bunga o'zi ishonqiramasdi. Bunda u fosh etilishidan qo'rqmasdi, chunki inkor qilmog'i, rad etmog'i mumkin. Devorda to'satdan qonli harflarda paydo bo'lgan «Mene, Tekel, Fares»lar ham tashvishga solmasdi: u faqat mana shu so'zlar yozgan qo'llarning egasi kim ekanligini bilolmay xunob bo'lardi.

U o'ziga dalda berishga urinayotgan shu paytda, ya'ni uzoq vaqt indamay kelgan ana shu dushmanning jaza-vasini qo'zg'atib yubormaslik uchun shuhratparastlikka mukkasidan ketgan chog'larida ko'z o'ngida paydo bo'ladigan siyosat borasidagi istiqbolni xayolidan yulib tashlab, faqat oilasining baxt-saodati, kelajagi haqida o'yga cho'mib turgan shu paytda hovlida izvosh tovushi eshitildi. So'ng zinada kekxa kishining ohista qadamlari, keyin yig'i va qayg'uli fig'on ko'tarildi.

Vilfor shoshib kabinet eshigini ochdi, shu on shol ro'moli va shlyapasi qo'lida qari ayol so'ramay kirib keldi. Uning oppoq sochlari qotma peshanasiga osilib tushgan, atrofini ajin bosib ketgan ko'zlari, qovoqlari shishib ketgandi.

– Oh, Tangrim! Qanday baxtsizlikka uchradik! – dedi

u, – qanday og‘ir baxtsizlik! Men bunga chidolmayman!  
Aslo chidolmayman!

Shunday dedi-da, eshik yonidagi kursiga yiqildi va ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

Xo‘jayinning uyidagi bu shov-shuvni eshitib, yugurib kelgan qarol, xizmatkorlar ostonadan nari o‘tolmay, Nu-artening keksa kamerdineriga<sup>13</sup> hang-mang bo‘lib qarab turishardi. Kelgan qari ayol Vilforning qaynanasi edi: u yugurib kampir oldiga bordi.

– E, Parvardigor! Nima bo‘ldi, bekam? – so‘radi u, – nega munchalik alam chekyapsiz? Markiz de Sen-Meran siz bilan birgamasmidi?

– Markiz de Sen-Meran o‘ldi, – dedi keksa markiza gapni cho‘zib o‘tirmay.

Vilfor orqaga bir qadam tashlab, qo‘llarini bir-biriga urib qo‘ydi.

– O‘ldi!.. – dedi zo‘rg‘a ovoz chiqarib. – O‘ldimi... to‘satdan-a?

– Bundan bir hafta muqaddam, tushlikdan so‘ng yo‘lga chiqdik. Markiz bir necha kun betob yotgan edi, ammo azizamiz Valentinani ko‘rish ishtiyoqi unga dalda berdi, biz yo‘lga chiqdik. Marseldan olti le o‘tganda u odatdagicha dorisini ichdi-da, juda qattiq uyquga ketdi, menga bu tabiiy uyquga o‘xshamagandek ko‘rindi. Shunga qaramay men uni uyg‘otmadim. Bir vaqt qaragam, yuzlari qizarib, peshana tomirlari o‘qlog‘idek shishib ketibdi. Shunda ham men uni uyg‘otmadim, qosh qoraydi, hech narsani ko‘rib bo‘lmasdi. Saldan keyin u tushida azob chekayotgandek, bo‘g‘iq ovozda qichqirib yubordi-da, boshi orqasiga shilq etib tushdi. Men darhol kamerdinerni chaqirdim, izvoshni to‘xtatdim-da, markizni uyg‘ota boshladim, burniga tuz solingan shishani tutdim, foyda bermadi, g‘isht qolipdan ko‘chgan, markiz jon bergan edi. Yonida o‘tirib olib Eksga etib keldim.

Vilfor hangu mang bo‘lib gapni tinglardi.

– Siz darhol doktor chaqirtirgandirsiz, albatta?

– Bo‘lmasam-chi, biroq, u tamom bo‘lgan edi, dedim-



ku sizga.

– Ha, aytgandingiz, biroq doktor loaqal shoʻrlik markiz qanday kasal bilan oʻlganini aytib berardi.

– E-e, Xudoyim, u menga, miyasiga qon quyilibdi, deb aytdi.

– Soʻng nima qildingiz?

– Sen-Meran janoblari hamisha, agar men Parijdan boʻlak joyda oʻlib qolsam, jasadimni oʻz xilxonamga qoʻyasizlar, der edi. Men uni qoʻrgʻoshin tobutga soldirib qoʻydim va bir necha kun ichidayoq hammasiga ulgurdim.

– Shoʻrlik ona! – dedi Vilfor. – Qarigan chogʻingizda shuncha dardingiz ustiga bu chipqon boʻlibdi-da.

– Xudoning oʻzi madad beryapti menga, erim ham menga xuddi shunday qilgan boʻlur edi. Ammo uni oʻsha erda qoldirganimdan buyon hech oʻzimga kelolmayman. Koʻz yoshlarim toʻkilib-toʻkilib tamom boʻldi, toʻgʻri, mening yoshimdagi kishilarda yoshning oʻzi boʻlmaydi, deyishadi, menimcha, qaygʻu-alam bor ekan, koʻz yoshi ham boʻladi. Valentina qani? Axir biz uni deb bu yoqqa yoʻl olganimiz-ku. Valentinani koʻrmoqchiman, Valentinani!

Valentina ziyofatda desa, kampirga ogʻir botishini Vilfor fahmlardi. U shunchaki, mademuazel uyda yoʻq, oʻgay onasi bilan chiqib ketuvdi, unga hoziroq xabar qilishadi, deb qoʻya qoldi.

– Oʻtinaman sizdan, uni iloji boricha tezroq chaqirsinglar, – dedi qari markiza.

Vilfor uni qoʻltigʻidan olib, boʻlmasiga etaklab kirdi.

– Ona, keling, dam oling, – dedi u.

Ona degan soʻzni eshitib, markizaning esiga qizi tushib ketdi-da, oʻkrab yigʻlab yubordi va kursi oldida oppoq sochli boshini quyi solib, tiz choʻkkanicha qimir etmay qoldi.

Vilfor markizaga qarab turishni ayollarga topshirdi, chol Barrua esa gʻoyat hayajonga tushgan holda xoʻjayini oldiga chiqdi. Chollar, ajal boshqa bir cholning giribonidan olish uchun ulardan bir nafas yiroqlashganda juda qattiq vahimaga tushib qolishadi. De Sen-Meran xonim

o'sha tiz cho'kkan erida zo'r berib cho'qinayotganida Vilfor izvosh kira qilib, xotini va qizini olib kelish uchun Morser xonimlarnikiga o'zi ketdi.

Vilforning rang-ro'yi devordek oqarib, ostonada paydo bo'lganda, Valentina qichqirib, uning oldiga keldi-da:

– Otajon, nima bo'ldi? Biror baxtsizlik yuz berdimi? – deb so'radi.

– Buvingiz keldi, Valentina, – dedi Vilfor.

– Buvam-chi? – so'radi Valentina qaltirab. Vilfor javob qaytarmay, qizini qo'ltiqrab oldi. Bu juda vaqtida ko'rilgan chora edi. Valentina behuzur bo'lib, gandiraklab ketdi, de Vilfor xonim suyab oldi-da, eri bilan birgalashib uni izvoshga o'tqazdi.

– E-e, tavba! Qanday hol bu!.. Hech aql bovar qilmaydigan voqea! Aslo ishonging kelmaydi-ya!

Shundan so'ng oila boshiga tushgan kulfat butun kechani go'yo motam libosi chulg'ab, uni g'am-g'ussaga g'arq qilganicha, tezlik bilan chiqib ketdi.

3ina tagida Valentinani Barrua kutib turgan edi.

– Nuarte janoblari bugun sizni ko'rmoqchilar, – dedi unga.

– Xo'p bo'ladi, buvimni ko'rib, so'ng uning oldiga chiqaman, borib ayting, – dedi Valentina.

De Sen-Meran xonim shu damda hammadan ham uni ko'rishga mushtoq ekanligini Valentinaning yuragi sezib turardi.

Valentina kirganda buvisi to'shakda yotgan edi. Bu uchrashuv unsiz erkalash, yurakdan chiqqan g'am-alam, dam-badam xo'rsinish va ko'zdan oqqan qaynoq ko'z yoshlar guvohi bo'ldi. O'z erini qo'ltiqrab olgan de Vilfor xonim bechora bevaga yuzaki bo'lsa-da, hurmat-ehitrom-la ular yonida turardi.

Bir necha daqiqadan so'ng xonim erining qulog'iga:

– Ma'qul ko'rsalar men ketsam, qaynanangiz meni ko'rgan sari jini qo'zib ketyapti, – dedi.

Sen-Meran xonim bu so'zlarni eshitdi-da, Valentinaga:

– Ha-ha, to'g'ri, u ketsin, sen qol, albatta qolgin, – dedi

shivirlab.

Vilfor xonim chiqib ketdi, buvisi qoshida Valentining bir o'zi qoldi. Kutilmagan bu o'limdan boshi gangib qolgan qirollik prokurori ham rafiqasi bilan chiqib ketdi.

Barrua yuqoriga – xo'jayini Nuarte oldiga qaytdi, chol uydagi shov-shuvlarni eshitib, nima gapligini bilish uchun kekxa xizmatkorini pastga tushirgan edi.

Xizmatkor qaytib kirishi bilan Nuarte ma'noli va o'tli ko'zlarini unga o'qday qadadi.

– Janob, katta baxtsizlik yuz beribdi, – dedi Barrua, – de Sen-Meran xonim keldi, eri dunyodan o'tibdi.

Sen-Meran va Nuarte bir-biri bilan unchalik do'st emasdi, biroq, tengdoshining o'limi har qanday cholga ham yomon ta'sir etishi ma'lum. Nuarte, qayg'u gangitib qo'ygani yoki fikr-xayolga g'arq bo'lgan kishiga o'xshab birdan jimib qoldi. So'ng u bir ko'zini yumdi.

– Mademuazel Valentinani chaqiraymi? – so'radi Barrua.

Nuarte imo bilan «ha», dedi.

– U ziyofatda ekanini bilasiz, uzr so'rash uchun oldingizga ziyofatda kiyadigan ko'ylagida kirgandi.

Nuarte yana chap ko'zini yumdi.

– Siz uni ko'rmoqchimisiz?

Nuarte tasdiq ishorasini ko'rsatdi.

– Uni hozir de Morser xonimlarnikidan chaqirib kelishsa kerak, men uning kelishini kutib turaman va huzuringizga kirishini iltimos qilaman. Shundaymi?

– Ha, – javob qildi falaj imo bilan.

Barrua Valentina kelgan zahoti uni zinada uchratib, buvasining iltimosini aytgani hurmatli kitobxonga ma'lum.

Sen-Meran xonim qanchalik hayajonga tushmasin, axiri holdan toyib, uyquga ketgach, Valentina uning oldidan chiqib, Nuarte bo'lmasiga ko'tarildi. Sen-Meran xonimning bosh tomoniga kichkina stolni surib, ustiga uning ichimligini keltirib qo'yishdi.

Valentina, hali aytganimizdek, chiqdi-da, buvasini

o'pdi, chol mehr to'la ko'zlarini unga tikkan edi, qizning ko'zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi.

Chol undan ko'zini aslo uzmasdi.

– Ha, angladim, – dedi Valentina, – siz, sening mehribon buvang hali tirik, demoqchisiz-da, to'g'rimi?

Chol imo bilan xuddi shunday demoqchi ekanini anglatdi.

– Ha, bu men uchun katta baxt, – dedi Valentina. – Agar siz bo'lmaganingizda holim nima kechardi?

Soat tungi birga borib qolgandi. Uyqusi kelgan Barrua qayg'u-hasratga to'la bu oqshomdan so'ng, hamma orom olmog'i zarur, dedi. Chol, men faqat nevaramni ko'rsam bo'ldi, shundagina xotirjam bo'laman, deb aytishni istamadi. U, qayg'u-alam va tashvishlardan ezilib, zo'rg'a turgan Valentina bilan xayrlashdi.

Ertasiga Valentina kelganda, buvisi hamon to'shakda boqishlari g'amgin, iztirob chekib yotardi.

– Nima bo'ldi sizga, buvijon? Tobingiz qochdimi? – so'radi Valentina buvisini bu holatda ko'rib.

– Yo'q, oppog'im, yo'q, – dedi de Sen-Meran xonim, – men seni zoriqib kutayotgan edim. Otangni chaqirmoqchiman.

– Otamni? – so'radi tashvishlanib Valentina.

– Ha, otangni, u bilan gaplashib olishim kerak.

Valentina buvisining istagini rad etishga jur'at etolmadi, otasi nima uchun kerak bo'lib qolganligini ham bilmadi, bir daqiqa o'tar-o'tmas xonaga Vilfor kirib keldi.

– Janob, – dedi de Sen-Meran xonim, xuddi vaqt etmay qolishidan qo'rqayotganday, gapni qisqa qilib, – menga qizimizni erga berish niyatidamiz, deb xat yozgan edingiz, to'g'rimi?

– To'g'ri, xonim, – javob qildi Vilfor, – bu endi niyat emas, hal etilgan masala.

– Bo'lajak kuyovingizning ism-shariflari Frans d' Epinemi?

– Xuddi shunday, xonim.

– Yanglishmasam, uning otasi general d' Epine biz bilan

maslakdosh edi, shundaymi? Uni zo'rvon imperatorning Elbadan qaytishidan bir necha kun ilgari o'ldirgan edilar, shekilli?

– Xuddi shunday.

– U yakobinchining nevarasiga uylanishidan hayron bo'lmasmikin?

– Baxtimizga siyosat borasidagi kelishmovchiliklarimizga barham berilgan endi, – dedi Vilfor. – Otasi dunyodan o'tganda Frans d' Epine hali chaqaloq edi, u Nuarte janoblarini unchalik yaxshi bilmaydi. U bilan uchrashganda ham aytarli hech narsa yuz bermasa kerak.

– U kuyov bo'lishga munosibmi o'zi?

– Hamma tomondan munosib.

– U yigit jamoatchilik oldida...

– Katta hurmat qozongan.

– Tarbiyasi joyidami?

– Men bilgan yigitlar ichida Frans eng munosibi. Butun suhbat davomida Valentina jim turaverdi.

– Unday bo'lsa, – dedi bir oz xayol surib de Sen-Meran xonim, – janoblari ishni tezlashtirishlari kerak, chunki mening bir oyog'im to'rda bo'lsa, bir oyog'im go'rda.

– Qo'ying-e, unday yomon niyat qilmang, buvijon! – dedi Vilfor Valentina bilan baravar.

– Bilib gapiryapman-da, – davom etdi markiza, – Valentinaning onasi yo'q, fotiha beradigan faqat bitta buvisi qolgan, sho'rliqim Rene tomondan faqat men qoldim. Tiriklardan siz u sho'rlik onani juda tez unutib yubordingiz. Mana shularni hisobga olib nikohni tezlashtirishingiz lozim.

– Bechora qizga ona kerak bo'lib qolganini unutyapsiz, xonim, – dedi Vilfor.

– O'gay ona hech mahal haqiqiy ona bo'lolmaydi! Lekin buning hozirgi ishga daxli yo'q, biz tiriklar haqida gapiryapmiz, o'liklar go'rida tinch yotaverishsin.

Markiza alahsirayotgandek juda tez va g'alati ohangda gapirardi.

– Istagingiz bajo etiladi, xonim, – dedi Vilfor, – mening

istagim ham xuddi shu, janob d' Epine kelishi bilanoq...

– Ammo, buvijon, – dedi Valentina, – bunday qilish yaramaydi, axir biz azadormiz-ku... Nahotki motam kunlarida to'y qilib, turmushga chiqishimni xohlasangiz?

– Bolam, – dedi Valentinaning so'zini cho'rt kesib kampir, – qo'y bu gaplarni, bu daqqiyunusdan qolgan gaplar o'z taqdirini yaratolmagan oqizlarning gapi, meni ham onam o'lim to'shagida yotganda erga berib yuborgan edi, bundan men yomonlik ko'rganim yo'q-ku.

– Xonim, siz yana o'lim haqida gap ochyapsiz, – dedi Vilfor.

– Yana? Yo'q, yana emas, hamma vaqt!.. Yana qaytaraman sizga: men yaqinda dunyodan o'taman, eshityapsizmi, yaqin kunlarda! Lekin kuyovimni ko'zim tirikligida ko'rishni istayman, undan nevaramni baxtiyor qilishni so'rayman, talablarimni bajarishga tayyor ekanini uning ko'zlariga qarab bilib olishni istayman, xullas, men uni bilishni istayman, – davom etdi kampir, shu paytda uning yuzi qo'rqinchli tusga kirgan edi. – U, agar biz o'ylagan odam bo'lib chiqmasa, men go'rimda tinch yotmay, kelaman-da, dodingni beraman.

– Xonim, – dedi e'tiroz bildirib Vilfor, – bu xayollarni miyangizdan chiqarib tashlang, bu telbalarcha behuda vasvasa. O'liklar qabrlarida abadiy uyquda, ular aslo o'rinlaridan turmaydi.

– Shunday, buvijon, shunday, tinchlaning! – dedi Valentina.

– Janob, bilib qo'yingki, gap mutlaqo siz o'ylaganday emas; mana shu kechani men do'zax azobida o'tkazdim. O'zim uxlaganday bo'lib yotibmanu, go'yo jonim tanimdan chiqib ketgan emish, zo'r berib ko'zimni ochmoqchi bo'ldim, biroq ular o'z-o'zidan yumilib ketaverdi, shu payt (siz, albatta, bunga ishonmaysiz) yumuq ko'zlarim bilan ko'rdimki, shu xonaga Vilfor xonim hojatxonasiqga chiqadigan eshik yonidagi burchakdan oppoq gavda kirib keldi.

Valentina qichqirib yubordi.

– Issig'ingiz oshib ketgandir-da, xonim, – dedi Vilfor.  
– Ixtiyoringiz, xoh ishoning, xoh ishonmang, ammo men ko'rganimni gapiryapman: oppoq gavdani o'z ko'zim bilan ko'rdim, tag'in meni tushi deb o'ylamasin degandek, stakanimni urib qo'ydi, ha, mana shu stolcha ustida turgan stakanimni.

– Hoynahoy tush ko'rgansiz, buvijon, – dedi Valentina.

– Yo'q, tush emas, o'ngim, qo'ng'iroqqa qo'l uzatishim bilan haligi gavda darhol g'oyib bo'ldi. Shu payt chiroq ko'tarib oqsoch kirdi.

– U kirganda hech kimga ko'zi tushmabdimi?

– Arvoh hammaga ham ko'rinavermaydi. Bu erimning arvohi edi. Xo'sh, erimning arvohi mening huzurimga kelgan ekan, nega endi mening arvohim kelib qizalog'imni himoya qilmas ekan? Bizlarning aloqamiz undan kuchli nazarimda.

Juda qattiq hayajonga tushgan Vilfor:

– Bekam, iltimos qilaman, – dedi, – bunaqa vahimali gaplarni hadeb takrorlayvermang, siz biz bilan birga yashaysiz, hali uzoq yashaysiz, izzat-hurmatda, huzurhalovatda yashaysiz, biz sizni bu bo'lmag'ur xayollarni unutib yuborishga majbur etamiz. Ha, yomon xayollardan xalos etamiz.

– Yo'q, yo'q! Bu mumkin emas! – dedi markiza Vilforning so'zini bo'lib. – Janob d' Epine qachon qaytadi?

– Biz uni hozir kutib turibmiz.

– Juda soz. U kelishi hamon menga xabar qilasiz. Tez bo'ling, tez! Notariusni ko'rishim kerak. Ha, men merosning Valentinaga o'tishiga imonim komil bo'lmog'i kerak.

– Oh, buvijonim! – dedi ohista tovush-la Valentina kampirning yonib turgan peshanasiga lablarini tekkizib, – men bunga aslo chidolmayman! E, Parvardigor! Alangai otash bo'lib yonyapsiz, notariusni emas, doktorni chaqirish kerak, doktorni!

– Doktorni? – dedi elkasini qisib markiza, – men kasal emasman, yuragim kuyib ketyapti, ichgulik biron narsa

bering, boshqa hech narsaning keragi yo'q.

– Buvijon, nima ichasiz?

– Nima ichardim, bolam, o'sha o'zim ichib yurgan oranjad-da, bilasan-ku. Stolda turgan stakanda, bera qol.

Valentina grafindan stakanga oranjad quydi-da, qo'rqinqirab buvisiga uzatdi, chunki markizaning o'zi bu stakanga arvohnning qo'li tegdi, degan edi.

Markiza hammasini sipqordi va boshini yostiqqa tashladi-da:

– Notarius, notarius! – dedi takrorlab.

Vilfor xonadan chiqib ketdi, Valentina buvisi qoshiga o'tirib oldi. Markiza uchun chaqirish kerak bo'lgan doktorga Valentinaning o'zi ham muhtoj bo'lib qolgandi, uning yuzlari yonib, nafasi bo'g'ilar, yuragi gup-gup urardi.

Sho'rlik qizning xayoli Maksimilianda edi. Sen-Meran beka unga ko'makdosh bo'lish o'rniga, bilmay turib dushmanlik qilayotganini eshitsa, Maksimilian qayg'u-alam o'tida yonib qovriladi!

Valentina bir necha bor hamma gapni buvisiga aytib bermoqchi ham bo'ldi. Agar Maksimilian Morrelni Alber de Morser yoki Raul de Shato-Reno kabi aslzodalar qatoriga qo'shib chaqirsalar edi, Valentina ikkilanmay yuragidagi istaklarini buvisiga ochib solardi. Biroq Morrel aslzodalardan emas, plebeylar naslidan edi, Markiza de Sen-Meranning nasli past odamlarga nafrat bilan qarashini Valentina bilardi. Shu sababdan har gal bechora qizning sirli so'zlari tiliga kelardi-yu, lekin aytolmasdi. Bu sirlarimni ochishimdan foyda yo'q, bularni otam va o'gay onam bilib qolgudek bo'lsa, butun orzu-umidlarimni chip-pakka chiqaradilar, deb o'ylardi Valentina.

Oradan ikki soatcha vaqt o'tdi, de Sen-Meran xonim uyquasi kelmay, ilonday to'lg'anib yotardi. Notarius kelganini unga xabar qilishdi.

Bu xabarni astagina aytsalar-da, de Sen-Meran xonim darhol yostiqdan boshini ko'tardi.

– Notariusmi? – dedi u. – Ayting, kirsin, kirsin!

Ostonada turgan notarius ichkariga qadam qo'ydi.



– Valentina, sen chiqib tur, – dedi Sen-Meran xonim, – bu janob bilan ikkimiz qolaylik xonada.

– Biroq, buvijon...

– Bor, bor, bolam.

Valentina buvisining peshanasidan o'pdi-da, dastro'molini ko'zlariga bosib, chiqib ketdi.

Valentina eshik oldida kamerdinerni uchratdi, u doktor kelganini va mehmonxonada kutib turganini aytdi.

Valentina yugurib pastga tushdi. O'sha zamonning eng mashhur shifokorlaridan hisoblangan bu doktor Vilforlar onlasining mehribon do'sti edi. Valentinani yo'rgakdalik chog'idan bilar va juda yaxshi ko'rardi, uning mademua-zel de Vilforga tengdosh qizi ham bor, biroq u sil onadan tug'ilgan bo'lib, otani umr bo'yi tashvishga solib qo'ygan edi.

– Oh, aziz d'Avrini janoblari, – dedi Valentina, – yo'lingizga qarayverib ko'zlarimiz teshildi! Avvalo aytingchi, Madlen va Antuanet eson-omon yurishibdimi?

Madlen doktorning qizi, Antuanet esa jiyani edi. Janob d'Avrini loqayd iljayib qo'ydi.

– Antuanet soppa-sog', – dedi u, – Madlen ham ancha durust. Azizim, siz meni chaqirtirganmidingiz? Kimning tobi qochdi? Otangiz va de Vilfor xonimning salomatligi joyida bo'lsa kerak? O'zingizning sog'lig'ingiz? Hammamizning asablarimiz buzilgan. Menimcha, maslahat berishdan bo'lak qiladigan ishim bo'lmasa kerak bu xonadonda.

Valentina bo'zarib ketdi. D'Avrini bunday hollarda er tagida ilon qimirlasa biladigan, tan jarohatini ruhiy ta'sir yo'li bilan davolaydigan doktorlardan edi.

– Unday emas, – dedi Valentina, – sho'rlik buvim juda qattiq yotibdi. Boshimizga tushgan musibatdan xabaringiz bormi?

– Hech narsadan xabarim yo'q, – dedi d'Avrini.

– Og'ir musibatga duchor bo'ldik, – dedi Valentina o'zini yig'idan zo'rg'a to'xtatib. – Buvam vafot etdi.

– Markiz de Sen-Meran-a?

- Ha.
- To’satdan o’ldimi?
- Miyasiga qon quyilib.
- Miyasiga qon quyilib? – takrorladi doktor.
- Ha. Endi sho’rlik buvim, vafodor erim meni ham o’z yoniga chaqiryapti, borishim kerak, deb yotibdi. Janob, sizdan o’tinib so’rayman, ko’mak bering buvimga!
- Qaerda u?
- O’z bo’lmasida, u erda notarius o’tiribdi.
- Janob Nuartening ahvoli qalay?
- Hammasi boya-boyaqidek; aql-hushi joyida, ammo burungidek qimir etmay yotibdi.
- U sizga juda mehribon-a?
- Ha, – dedi xo’rsinib Valentina, – u meni juda yaxshi ko’radi.
- Sizni yaxshi ko’rmay bo’ladimi?
- Valentina g’amgin jilmayib qo’ydi.
- Buvingizga nima bo’ldi?
- Uning asablari juda bo’shashib ketgan, uyqusida orom yo’q, bugun kechasi arvojni ko’rdim, deb ko’p alah-siradi, arvoq go’yo xonasiga kirib, uning stakanini ushlaganmish.
- Qiziq, – dedi doktor, – de Sen-Meran xonimning bunday miyasi ayniydigan odati borligini hech eshitmagan-dim.
- Men ham uni bu holatda birinchi ko’rishim, – dedi Valentina. – Bugun ertalab ayniqsa juda qo’rqitib yubordi meni, aqldan ozibdi deb o’yladim. Otam g’oyat vazmin odamligini bilasiz, shunga qaramay, u ham chamamda, qattiq hayajonga tushdi.
- Hozir ko’ramiz, – dedi d’Avrini, – bularning hammasi kishini hayratda qoldiradi.
- Notarius allaqachon ishini tugatib, tushib ketayotgan edi. Valentina kelib, markizaning bir o’zi qolganini aytdi.
- Oldiga chiqing, – dedi u doktorga.
- Siz-chi?
- Men chiqmayman, qo’rqaman. Buvim doktorga odam

yuborma, degan edi menga. Buning ustiga siz meni, juda hayajonlanib ketibsiz, dedingiz, darhaqiqat, tobim yo'qroq. Bog'ni aylanib, bir oz nafasimni rostlab olay.

Doktor Valentinaning qo'lini qisib qo'ydi-da, markiza yotgan xonaga yo'l oldi, qiz boqqa chiqib ketdi.

Valentinaga bog'ning qayeri juda yoqib qolgani haqida gapirib o'tirmaymiz, bu o'quvchiga ayon. Valentina uy atrofini o'rab olgan gulxonalarni aylanib, bitta atirgulni uzib olardi-da, sochiga taqardi, so'ng soya-salqin xiyobon to'riga o'tib o'rindi q yoniga borib, undan darvoza tomonga yo'l olardi.

Bu safar ham Valentina, har galgidek, gullar o'rtasida bir necha bor aylandi-yu, lekin birortasini yulib olmadi, yuzaga chiqib ulgurmagan, ammo yuragini qamrab olgan aza bunga yo'l bermasdi. So'ng o'z xiyoboni tomonga yo'naldi. Gulxonalardan uzoqlashar ekan, birov uni chaqirayotgani eshitildi. Valentina hayron bo'lib to'xtadi.

Shunda u ovozni yanada yaqinroq eshitdi va bu Maksimilianning tovushi ekaniga qanoat hosil qildi.

## **XVI. VA'DA**

Darhaqiqat bu Morrel bo'lib, kechadan buyon u o'ziga kelolmay garang edi. Oshiqlarga xos his-tuyg'u bilan u de Sen-Meran xonimning kelishi va markizning dunyodan o'tishi natijasida Vilforlar xonadonida u bilan Valentina ishq-muhabbatiga oid muhim bir voqea yuz berishini fahmlab, yuragiga g'ulg'ula tushgan edi.

Uning yuragiga g'ulg'ula bekorga tushmaganini hozir ko'ramiz. Bu erga Maksimilianni har galgidan kuchliroq tashvish etaklab kelgandi. Ammo Valentina Morrelning bu erda ekanidan bexabar edi, chunki hozir uning keladigan payti emasdi, qiz boqqa tasodifan yoki shunchaki aylanib kirib qolgan edi.

Morrel uni yo'lkada ko'rib, chaqirdi, Valentina yugurib darvozaga bordi.

– Shu erdamsiz? Shunday bemahalda-ya!

– Ha, g'aribam, – dedi Morrel, – men qayg'uli xabardan voqif bo'lgani keldim va shunday bir voqeadan sizni ham xabardor qilmoqchiman.

– Hamma balo-qazolar oilamiz boshiga yog'ilayotgan-ga o'xshaydi! – dedi Valentina, – nima gap, Maksimilian, gapiring. O'lganning ustiga tepgan, deganlaridek, yana qanday musibat ro'y berdi?

– Azizam, gaplarimga diqqat bilan quloq soling, – dedi Morrel, bemalol gapirish uchun hayajonini bosib. – Mening sizga aytadigan hamma gaplarim g'oyat muhim gaplar. To'yingiz qachon bo'ladi?

– Menga qarang, Maksimilian, – dedi Valentina, – hech narsani sizdan sir saqlamoqchi emasman. Bugun ertalab turmushga chiqishim haqida gapirishdi. Mening yonimni olar deb umid qilib yurgan buvim bu nikohga rozi bo'libgina qolmay, u d' Epinening kelishini sabrsizlik bilan kutyapti. U kelgan kunining ertasiga nikoh ahdiga qo'l qo'yiladi.

Morrel og'ir uh tortdi-da, Valentinaga g'amgin ko'zlarini uzoq tikib qoldi.

– Dahshat! – dedi past, bo'g'iq ovozda, – sevgan qizing pinagini buzmay, senga: «Siz qatl etiladigan vaqt aniq; u bir necha soatdan keyin bo'ladi. Nachora, shunday bo'lishi kerak, mening bunga qarshiligim yo'q», deb tursaya! Nikoh ahdiga qo'l qo'yish d' Epinening kelishiga qarab qolgan ekan, kelgan kunning ertasiga siz uning rafiqasi bo'lishingiz kerak ekan, demak, ertaga nikoh bo'larkanda! U bugun ertalab keldi.

Valentina chinqirib yubordi.

– Men bundan bir soat muqaddam graf Monte-Kristo-ning huzurida bo'ldim, – dedi Morrel – suhbatlashdik: u menga oilangizning musibati haqida gapirdi, men esa sizning qayg'u-hasratingiz haqida gapirayotgan edim, to'satdan hovliga izvosh kirib keldi. Bu yog'iga quloq soling. Shu vaqtgacha kishi boshiga tushayotgan falokatni oldindan sezadi, deganlarida, aslo ishonmasdim, endilikda bunga ishonsa bo'lar ekan. O'sha

izvosh ovozini eshitdimu, boshimdan bir chelak sovuq suv quyib yuborgandek bo'ldi. Sal o'tmay zinada oyoq tovushlari eshitildi. Komandorning gurs-gurs bosgan qadamlari Don Juanni menchalik vahimaga solmagan-dir. Alhol eshik ochildi-da, oldin Alber de Morser kirib keldi. Uni ko'rib, bekorga vahima qilib o'tirgan ekanman, deb turuvdim, bir vaqt yana bir zot paydo bo'ldi, shunda graf: «Mana, baron Frans d' Epinening o'zlari!..» deb xitob qildi. Men zo'r-bazo'r o'zimni bosib oldim. Ehtimol shu payt rangi ro'yim bo'zarib, qaltirab ketgandirman, shunga qaramay, iljayib turaverdim. Besh daqiqacha turib, chiqib ketdim. Shu besh daqiqa mobaynida ularning gaplarini eshitmadim, chunki ham gung, ham kar edim o'sha paytda, to'g'rirog'i, adoyi tamom bo'lgan edim.

– Sho'rlik Maksimilian! – dedi pichirlab Valentina.

– So'ng to'g'ri shu erga keldim, Valentina. Endi savolimga javob bering, sizning javobingiz men uchun hayotmamot demakdir. Xo'sh, endi nima qilmoqchisiz?

Valentina boshini quyi soldi, u g'oyat ezilib, adoyi tamom bo'lgan edi.

– Valentina, – dedi Morrel, – menga qarang, mushkul ahvolga tushib qolganimiz haqida birinchi marta o'yga botayotganingiz yo'q-ku, axir, ahvolimiz juda jiddiy, og'ir. Menimcha, behuda oh-vohlarning vaqti o'tdi endi, taqdirga tan berib, musibatli turmushga ko'nib qo'ya qoladiganlar ko'z yoshi qilib yuraverishi mumkin. Shunday odamlar bor, ularning itoatkorligini Xudo u dunyoda hisobga olsa kerak. Biroq, kurashish irodasiga ega kishilar g'animat vaqtni behuda o'tkazmay, taqdir zarbasiga darhol zarba bilan javob beradilar. Siz-chi, Valentina, ayovsiz taqdir bilan kurashishni istaysizmi? Javob bering, men shuni so'ragani keldim.

Valentina seskanib tushdi va vahima to'la ko'zlarini Morrelga tikdi. Otasi va buvisigagina emas, balki butun oila yuziga oyoq tirashni u hech xayoliga keltirmagan edi.

– Ochig'ini aytavering, Maksimilian, nima demoqchisiz? – so'radi Valentina. – Qanday kurash haqida

gapiryapsiz? Kufrlilik qil demoqchimisiz?! Otamning amriga qarshi borishim, o'lim to'shagida yotgan buvimning xohish-irodasiga bo'ysunmasligim kerakmi? Yo'q, men bunday qilolmayman!

Morrel titrab ketdi.

– Maksimilian, siz olijanob odamsiz, hamma narsani bilib turib, nega o'zingizni bilmaganlikka olyapsiz? Men kurashishim kerakmi? Men-a? Xudo saqlasin! Yo'q, yuz bor, ming bor yo'q! Aksincha, bor kuchimni o'z-o'zim bilan kurashishga, siz aytgandek, qon yig'lab, taqdirga tan berib o'tirishga sarf etmog'im kerak endi. Otamni qayg'u-alamga duchor etish, buvim umrining so'nggi daqiqalarini zardobga aylantirishni istamayman. Yo'q, istamayman!

– Siz haqsiz, – dedi pinagini buzmay Maksimilian.

– Shunday deyishga qanday jur'at etdingiz-a! E, Parvardigor! – dedi xitob qilib Valentina.

– Bu gaplarni sizga qoyil qolgan kishi sifatida ayt-yapman, mademuazel, – dedi e'tiroz bildirib Maksimilian.

– Mademuazel?! – xitob qildi Valentina, – mademuazel! Xudbinlik ham evi bilan-da! Fig'onim chiqib turganligini ko'rib, o'zingizni bilmaslikka solyapsiz-a.

– Yo'q, yanglishyapsiz, men juda yaxshi tushunib turibman. Siz janob de Vilforning xohishini qaytarib, markizaning gapini ikkita qilmoqchimassiz, ya'ni ertaga nikoh ahdiga imzo chekasiz-da, eringiz bilan bir yostiqqa bosh qo'yasiz.

– Axir, o'zingiz o'ylab ko'ring, qo'limdan nima ham keldi?

– Buni mendan so'rab o'tirishning hech hojati yo'q, mademuazel, men bu ishda no'noq sudyaman, xudbinman, qosh qo'yaman deb ko'z chiqarib qo'yishim hech gapmas, – dedi javoban Morrel. Uning ovozi bo'g'ilib, mushtlari tugilib borayotganidan tobora g'azablanayotgani sezilib turardi.

– Agar xo'p desam, siz nimani taklif qilardingiz menga? Morrel, qani ayting-chi, nimani? «Chakki qilyapsiz»,

degan bilan ish bitadimi, nima qilish kerakligini ayting.

– Bu gapingiz jiddiymi, Valentina? Rostdan siz mendan maslahat so‘rayapsizmi?

– Bo‘lmasa-chi, Maksimilian, ma‘qul bo‘ladigan maslahat bersangiz qabul qilaman. Men uchun sizdan bo‘lak aziz odamim yo‘qligini bilasiz-ku.

– Valentina, – dedi Morrel qolgan taxtaniyam surib, – mendan jahlingiz chiqmayotgan bo‘lsa, qo‘lingizni bering. Bir soatdan beri miyamda noxush fikrlar o‘ynayapti. Bordi-yu, maslahatimni rad etsangiz, unda nima bo‘ladi!..

– Qanaqa maslahat u?

– Hozir aytaman, quloq soling, Valentina.

Valentina osmonga qarab, uh tortdi.

– Mening erkim o‘z qo‘limda, – dedi so‘zini davom ettirib Maksimilian, – ikkimizga etarli davlatim bor.

To qonuniy xotinim bo‘lmaguningizcha, sizga qo‘limning uchini ham tekkizmayman, deb qasamyod qilaman.

– Qo‘rqib ketyapman, – dedi Valentina.

– Qochamiz birga, – davom etdi Morrel, – sizni singlimnikiga olib borib qo‘yaman, u sizga juda munosib singil bo‘ladi. So‘ng Jazoirga, Angliyaga yoki Amerikaga ketamiz yoki istasangiz, viloyatlardan birida yashirinib olamiz-da, oilaviy mojarolar tinchib, janjallar bosilguncha o‘sha erda yashaymiz.

Valentina boshini chayqadi.

– O‘zim ham xuddi shunday dersiz, deb o‘ylagandim, Maksimilian, – dedi Valentina. – Bu bo‘lmag‘ur maslahat. Agar sizni bu yo‘ldan qaytarmasam, men ham ahmoqlik qilgan bo‘laman.

– Bundan chiqdi, indamay, taqdirga tan berib ketaverasizmi? – dedi Morrel yana qayg‘uga cho‘mib.

– Ha, bu boshimni kafanga chulg‘asa ham.

– Qo‘ysangiz-chi, Valentina, – dedi Maksimilian, – yana takror aytaman: siz haqsiz. Men esa chindan esimni eb qo‘yyapman. Ehtiros dahshatli narsa ekan, siz haq gapni aytdingiz, u har qanday oqil-vazmin odamni ham aqldan ozdirib qo‘yarkan. Ehtirossiz mulohaza yuritganingiz

uchun rahmat sizga. Bo'пти, masala hal, ertaga Frans d' Epining rafiqasi bo'lasiz, sahnalarda kulgili voqealar tugunini echish uchun o'ylab topilgan va nikohdagi rasmiyat uchun shunday qilmaysiz, albatta, u janobning quchog'iga o'z xohishingiz bilan quchoq yozib otilyapsiz.

– Siz meni battar vijdon azobida qiynayapsiz, Maksimilian, – dedi Valentina, – yaramga tuz sepyapsiz! Aytingchi, o'z singlingiz menga qilgan bunday maslahatingizga quloq solmasa, nima qilardingiz?

– Mademuazel, – dedi zaharxandalik bilan iljayib Maksimilian, – men xudbin odamman, o'zingiz shunday dedingiz. Shu sababdan, bir xudbin sifatida, boshqalar mening o'rnimda bo'lganda nima qilishi haqida emas, o'zim nima qilishim kerakligi haqida o'ylayapman. Siz bilan tanishganimga bir yil bo'ldi. Diydingizni ko'rishga muyassar bo'lgan kundan boshlab meni siz baxtiyor qilursiz, deb umid qilib keldim. Kunlarning birida «sizni sevaman» dedingiz, shu kundan boshlab, endi Valentina mening Valentinam bo'ladi deb, bir-biridan totli xayollarga berilib yurdim. Men faqat shuning uchun yashardim. Mana endi hech narsa haqida o'ylayotganim yo'q, baxt mendan yuz o'girdi, fikru xayolim faqat shu bilan band hozir. Rohat-farog'atda yashayman deb umid qilib yurgandim, bu umidim puchga chiqdi. Qimorboz qo'lida bor narsanigina emas, hali qo'lga kirmagan narsani ham yutqizib qo'yadi, axir bunaqa voqealar kun sayin bo'lib turadi-ku.

Morrel bu so'zlarni o'ta vazminlik bilan aytdi, Valentina esa sir boy bermaslik uchun Morrelga sinovchan nazar tashlab turardi.

– Biroq, nima qilmoqchisiz? – so'radi Valentina.

– Mademuazel, siz bilan vidolashmoqchiman. Xudo shohid, men chin ko'ngildan sizga meni eslaydigan vaqtingiz qolmaydigan tinch, farovon hayot tilayman.

– E, Xudoyim! – dedi pichirlab Valentina, – bu qanday ko'rgulik?

– Alvido, Valentina, alvido! – dedi Morrel ikki bukilib ta'zim qilib.



– Qayoqqa ketyapsiz? – qichqirib yubordi qiz va panjaradan qo'lini uzatib Maksimilianning engidan mahkam tutib oldi. U sevgilisidagi bu xotirjamlik, beparvolikniig yuzaki ekanini sezib turardi. – Qayoqqa ketyapsiz?

– Sof vijdonli kishilarga xos ish tutib, oilangizni qayg'u-alamlarga duchor etmaslik choralari ko'rmoqchiman.

– Axir, ayting menga, nima qilmoqchisiz?

Morrel ma'yus iljayib qo'ydi.

– Ayting axir, iltimos qilaman, ayting! – dedi qayta-qayta yolvorib qiz.

– Fikringizdan qaytasizmi, Valentina?

– Qaytolmayman, o'zingiz bilasiz, baxti qaro odamman!

– Unday bo'lsa, alvido!

Valentina jon-jahdi bilan panjarani silkitdi-da, uzoqlashib borayotgan Morrelga qo'lini uzatib, qichqirdi:

– Nima qilmoqchisiz? Men shuni bilay! Qayoqqa ketyapsiz!

Maksimilian to'xtab:

– O, xotirjam bo'ling, mademuazel, – dedi, – qismatimning achchigligini birovdan ko'rmoqchimasman. Mening o'rnimda boshqa odam bo'lganda sizga do'q urar, d' Epineni duelga chaqirardi... Bunday qilish tentaklik bo'lur edi, albatta, d' Epinening nima gunohi bor? U meni faqat shu bugun ertalab bir marta ko'rdi, esidan chiqib ketgan bo'lsam kerak, ikkingizning bir yostiqa bosh qo'yishingiz haqidagi masala echilayotganda bu dunyoda mendek bir zot borligini bilmasdi ham. Shu sababli u bilan mening hech ishim yo'q va sizga ont ichib aytamanki, men qasdimni undan olmoqchi emasman.

– Yo'qsa, kimdan olmoqchisiz? Mendanmi?

– Nega sizdan olarkanman, Valentina? Xudo saqlasin! Ayol – muqaddas zot, sevgan ayoling esa undan ikki bora muqaddasdir.

– Demak, qasdingizni o'zingizdan olarkansiz-da?

– Hamma ayb o'zimda, – dedi Morrel.

– Maksimilian! – chaqirdi Valentina, – iltimos, keling bu yoqqa!

Maksimilian miyig'ida kulib qo'ydi-da, qizga yaqin keldi, rangi oqarib ketganini hisoblamaganda, chehrasida hech qanday o'zgarish bo'lmaganday ko'rinardi shu payt.

– Quloq soling menga, azizim Valentina, – dedi u o'zining samimiy, ta'sirchan ovozi bilan, – biz kabi oq ko'ngil, qo'y og'zidan cho'p olmagan odamlar yuragimizda gap saqlayolmaymiz. Xuddi ochib qo'yilgan kitob singari bir-birimizni qalban tushunamiz. Men biror romandagi personaj emasman, savdoyi qahramon emasman, o'zimni na Manfred, na Antoni qilib ko'rsatmoqchi ham emasman. Biroq men churq etmay, ont ichib, va'da ham berib o'tirmay butun hayotimni sizga bag'ishladim. Siz meni tashlab ketyapsiz, yana qaytarib aytamanki, bunga haqlisiz. Endi bo'lar ish bo'ldi, sizsiz mening yashashimga ham hech hojat qolmadi, endi mening o'zimdanda bo'lak hech kimim qolmadi bu bevafo dunyoda. Singlim eri bilan rohat-farog'atda yashayapti, uning eri menga faqat kuyov, ya'ni jamoatchilik tartib-qoidalari tufayligina aloqador. Endilikda mening benaf hayotim bu dunyoda hech kimga kerak bo'lmay qoldi. Men shunday qilaman: nikoh daqiqalarini kutaman. Ba'zida tasodifan bir voqea yuz beradi-da, hamma ish chappasiga aylanib ketadi, men ana shunday imkoniyatdan foydalanmoqchiman. Darvoqe, nikoh vaqtigacha Frans d' Epine o'lib qolishi mumkin yoki sizlar mehrob yoniga borayotganingizda yashin tushib, mehrob barbod bo'lishi mumkin. O'limga hukm etilgan kishi o'zini himoya qilishni o'ylaganda hamma narsa mumkinga o'xshab ko'rinaveradi. Shunday qilib, men oxirgi daqiqagacha kutaman. Sho'rimga sho'rva to'kilib, baxtim qaro bo'lganda kuyovga bir maxfiy xat, polisiya boshqarmasiga bir maxfiy xat yozamanda, niyatimni ularga aytib, o'rmonda, jar yoqasida, biror daryo qirg'og'ida o'zimni o'zim otib tashlayman. Men Fransiyada birdan-bir vijdonli zotning farzandi ekanligim qanchalik haq bo'lsa, bu ham shunchalik haqiqat.

Valentinaning vujudi titrab, larzaga keldi, u panjarani qo'yib yubordi, qo'llari osilib qoldi, yuzidan ikkita tomchi

yosh dumalab ketdi.

Morrel uning qarshisida g'amgin tik turardi.

– Rahm-shafqat qiling! – dedi Valentina. – Yo'q, siz o'zingizni o'zingiz o'ldirmaysiz, aslo, o'ldirmaysiz-a?

– Ont ichib aytamanki, o'ldiraman, – dedi Maksimilian, – siz uchun buning nima ahamiyati qoldi endi? Siz burchingizni ado etib, vijdongingiz pokligicha qolaverasiz.

Valentinaning yuragi ezilib ketdi, u shilq etib tiz cho'kdi-da, qo'llarini ko'ksiga bosdi.

– Azim Maksimilian, – dedi Valentina, – do'stim, yakayu yagona dilbandim, arshi a'lodagi haqiqiy erim, o'tinib so'rayman sizdan, men kabi taqdirga tan bering-u, g'am-tashvishda yashang. Ehtimol, bir-birimizga etishadigan kunlar ham kelib qolar.

– Alvido, Valentina! – takrorladi Morrel.

– E, Parvardigori olam, – dedi Valentina qo'llarini osmonga ko'tarib, – o'zing shohidsan, itoatli, qobil qiz bo'lib qolish uchun qo'limdan kelgan hamma narsani qilib ko'rdim, iltimos qildim, yalinib-yolvordim, ammo u quloq solmadi, ko'z yoshlarimni inobatga olmadi. Ilojim qancha, – dedi u qat'iyat bilan, ko'z yoshlarini artib, – o'z-o'zimga achinib, afsuslanib o'lishdan ko'ra, or-nomus azobida jon berganim afzal. Siz, Maksimilian, o'lmaysiz, yashaysiz, men butunlay siznikiman, faqat sizniki. Qani ayting, qachon, qaysi vaqtda qochamiz? Hozirmi? Men tayyorman!

Yana bir necha odim nari ketgan Morrel orqasiga qaytdi. Quvonib keldi-da, panjaradan Valentinaga qo'l uzatib:

– Valentina, – dedi, – mening aziz do'stim, bunday gaplarni ayt mang menga. Bundan ko'ra o'lganim yaxshi mening. Modomiki siz ham meni yaxshi ko'rar ekansiz, nega endi men sizni zo'rlab olib ketishim kerak? Yoki siz menga rahmingiz kelganidan shunday deyapsizmi? Agar shunday bo'lsa mening yorug' dunyo bilan vidolashganim yaxshi.

– Darhaqiqat, – dedi pichirlab Valentina, – dunyoda

meni kim jonidan ortiq yaxshi ko'radi? Boshimga g'am-tashvish tushganda kim menga tasalli berdi. Shu. Men butun orzu-umidlarimni kimga bog'lagandim? Shunga. Boshimga g'am-alam tushib, gangib qolganimda, javdiragan, jiqqa yoshga to'lgan ko'zlarimni kimga tikaman? Shunga. Ishq o'tida kuygan jonim kimni ko'rganda orom oladi? Shuni ko'rganda, faqat shuni! Demak, siz ham haqlisiz, Maksimilian, men siz bilan ketaman, hamma narsadan, o'z tug'ilib-o'sgan uyimdan ham voz kechib, siz bilan ketaman. Vassalom! Yo tavba! Qanday berahmman-a! – xitob qildi Valentina qon yig'lab, – bu-vamni tamom unutib qo'yibman-a!

– Yo'q, Valentina, – dedi Maksimilian, – siz uni tashlab ketmaysiz. O'zingiz janob Nuarte meni yaxshi ko'radi, degan edingiz. Shunday ekan, qochishdan oldin unga hamma gapni ochiq ayting. U rozi bo'lsa, Tangrim ham rozi bo'ladi. Biz bir yostiqqa bosh qo'yganimizdan keyin, buvanziz biznikiga ko'chib keladi-da, ikki nevaralik bo'lib yashayveradi. U bilan qanday gaplashish va uning qanday qilib javob berishini menga tushuntirgan edingiz. Mana, ko'rasiz, bu imo-ishoralar ma'nosini men tezda o'rganib olaman. Ont ichib aytamanki, sizni bu qayg'u-alamlardan xalos etib, baxtiyor etaman, ha, baxtiyor!

– Mana, Maksimilian, ko'rib turibsizki, men batamom sizning izmingizdaman! Nima desangiz, men tayyorman, biroq bularning hammasi telbalik-ku. Men otamning qar-g'ishiga qolaman, u meni «oq» qiladi, uning odatlarini yaxshi bilaman, bir so'zli odam u, aslo gunohimdan o'tmaydi. Shuning uchun men bir yo'l topib, to'yni kechiktirsam, siz kutib tura olasizmi, Maksimilian?

– Ont ichib aytamanki, kutaman, ammo siz ham, shu qabih nikohga hecham yo'l qo'ymayman, kashish huzuriga bo'ynimga arqon solib sudrasalar-da, aslo bor-mayman, deb ont iching.

– Ont ichaman, Maksimilian, dunyoda men uchun eng muqaddas zot onajonim nomi balan ont ichaman.

– Unday bo'lsa, kutaman, – dedi Morrel.

– Ha, kutamiz, – dedi Valentina, bu soʻz uning xasta diliga bir oz orom berganday boʻldi, – kim biladi, ehtimol bizni bu musibatdan boshqa biror narsa qutqarib qolar?

– Mening butun umidim sizda, Valentina, – dedi Morrel. – Soʻzingizda tursangiz qaniydi, ammo yalinib-yolvo-rishingizni inobatga olmasalar-chi, otangiz bilan de Sen-Meran xonim sizni ertaga nikohdan oʻtasan deb, majbur etsalar-chi...

– Unda, Morrel... sizga bergan vaʼdamning ustidan chiqaman.

– Yaʼni, nikohdan oʻtish oʻrniga...

– Sizning oldingizga chiqaman va birga qochib ketamiz, ammo Xudoning gʻazabiga uchramaslik uchun nikohgacha diydor koʻrishmay turamiz. Hozirgacha qoʻlga tushib qolmaganimizga shukr qiling, yoʻqsa, hamma niyatimiz puchga chiqqan boʻlur edi.

– Gapingiz toʻgʻri, Valentina, ammo nima boʻlganini menga kim aytadi?

– Notarius Deshan.

– Men uni taniyman.

– Oʻzim ham xat yozib xabar qilaman, xavotir olmang, Maksimilian, shuni bilib qoʻyingki, Frans bilan boʻladigan nikohdan siz qanchalik nafratlansangiz, men ham shunchalar nafratlanaman!

– Rahmat, Valentina, minnatdorman sizdan, bebaho sevgilim! Demak, gap bitta: qochamiz! Soatini aniq aytsangiz bas, uchib kelaman, oʻzim ikki qoʻlim bilan panjaradan bu yoqqa koʻtarib oʻtqazib olaman, bogʻning tashqari eshigi oldida izvosh kutib turadi, sizni unga oʻtqazib toʻgʻri singlimnikiga olib boraman. Yot koʻzlar-dan ikkimiz u erda yashirinib olamiz, istasangiz yashirinmasak ham boʻlaveradi. Biz haqmiz, ana shuning oʻzi bizga dalda beradi, kuch bagʻishlaydi.

– Boʻpti, shunday qilganimiz boʻlsin! – dedi Valentina.

– Maksimilian, imonim komilki, niyatimizga etamiz.

– Jonim!

– Xoʻsh, rafiqangizdan endi mamnunmisiz? – dedi qay-

g'uli ohangda qiz.

– Azizim Valentina, bu savolga birgina «ha», degan javobning o'zi kifoya qilmaydi?

– Qanday bo'lsayam, ayting, mamnunmisiz? Valentina lablarini panjaraga tutdi, uning so'zlari iliq nafas epkini-da uchib keldi-da, Morrelning lablariga qo'ndi.

– Xayr, – dedi Valentina visol onlariga xotima bergisi kelmay, – xayr!

– Demak xatingizni kutaman?

– Kuting.

– Rahmat, jondan aziz rafiqam, hozircha xayr! – Maksimilian barmoqlarini lablariga bosib, uzoqdan bo'sa hadya qildi. Valentina quvonib arg'uvon xiyobondan chopqillab ketdi.

Qiz ko'ylagining butalarga tegib shitirlashi, oyoqlari ostidagi qumlarining g'ijirlashi tinguncha Morrel quloq solib turdi, so'ng uning yuzida ajib bir tabassum paydo bo'ldi, osmonga qarab unga ma'shuqa ato etgani uchun Xudoga ming qatla shukr qildi-da, yo'lga tushdi.

Uyiga qaytib kelib, kechgacha kutdi, ertasiga ham kun intizorlikda kechdi, biroq hech narsadan darak bo'lma-di, faqat uchinchi kuni ertalab soat o'nda, endi notarius Deshan oldiga jo'nay deb turganida, pochtdan xat oldi, garchi hech qachon yozuvini ko'rmagan bo'lsa-da, bu Valentinaning xati ekanini darhol angladi,

Xatda quyidagilar yozilgandi:

*«Ko'z yoshlarim, yalinib-yolvorishlar, dod-faryodlar sira foyda bermadi. Kecha muqaddas Filipp Rulskiy cherkovida ikki soat tiz cho'kib Xudoyimdan madad so'radim, ammo Xudo ham bandasi singari berahm ekan. Nikoh bugun kech soat to'qqizga tayin qilindi.*

*Men qalxim nidolariga qanchalik sodiq bo'lsam, va'damga ham shunchalik sodiqman, azizim Morrel. Men sizga va'da berganman, qalbimda ham faqat sizsiz.*

*Qisqasi, kechqurun meni kuting, panjara oldida, soat o'n besh daqiqai am to'qqizda.*

*Rafiqangiz*

*Valentina de Vilfor.*

*R. S. Sho'rlilik buvimning kasali tobora og'irlashib bor-yapti, kecha kun bo'yi alahladi, bugun esa aqldan tamom oza boshladi.*

*Men uni shunday ahvolda tashlab ketyapman, bu siz-ning menga bo'lgan muhabbatingizni yanada alangala-tib yuborsa kerak, deb o'ylayman, to'g'rimi?*

*Nikoh bitimiga shu kech imzo chekilajagi buvam Nuartedan sir saqlanayotganga o'xshaydi».*

Morrel Valentinadan olgan ma'lumotlarga qanoatlan-may, notariusga borgan edi, u ham nikoh kech soat to'qqizga tayinlanganini aytdi.

So'ngra Morrel Monte-Kristonikiga borib, u erda yana-da mufassalroq ma'lumot oldi. Frans kelib grafga bo'la-jak tantanani xabar qilibdi, de Vilfor xonim, tantanaga taklif qilmayotganligi uchun uzr so'rab xat yozibdi, Markiz de Sen-Meranning o'limi va beva markizaning og'ir kasali tantanani motamga aylantiryapti, shu sababdan, u hamisha kayfingiz chog' bo'lishini tilamoqdaman, bino-barin, sizni dilgir etishni istamayman, debdi.

Kecha Fransni de Sen-Meran xonimning huzuriga olib kirishibdi, bekam xursand bo'lib o'rnidan turibdi, biroq toliqib, yana o'zini to'shakka tashlabdi.

Morrelning qattiq hayajonlanayotganligini darhol pay-qagan graf uni har vaqtdagidan ko'ra xushfe'llik bilan kutib oldi. Taltayib ketgan Morrel og'zidan gullab qo'yi-shiga sal qoldi, biroq Valentinaga bergan va'dasi esiga tushib, mum tishlab qoldi, dardini ichiga yutdi.

Shu kuni Maksimilian Valentinaning xatini yigirma bor o'qib chiqdi. Axir bu oddiy xat emas, sevgilisining birinchi xati edi-da! Morrel xatni har gal o'qib chiqqanda, Valentinani baxtli qilaman deb ont ichardi. Uning uchun, faqat Maksimilian uchun hamma narsadan voz kechib, o'zini o'tga ham, suvga ham tashlashga tayyor bunday jasur qizga har narsa qilsa arziydi! Oshiq ma'shuqa oldida

etti bukilib ta'zim qilishi, poyiga yiqilishi lozim emasmi? Valentina Morrel uchun ham qirolicha, hamda rafiq! Bunday jononni sevish uchun Maksimilianga bitta qalb kamlik qilayotgandek tuyulardi.

Valentina kelib: «Maksimilian, keldim, endi men siznikiman», deyidigan daqiqalarni Morrel betoqat bo'lib kutardi.

U qochish uchun hamma narsani taxt qildi: tomorqadagi beda orasiga ikkita narvon yashirib qo'ydi, ikki g'ildirakli izvosh ham tayyor, uni Maksimilianning o'zi haydaydi, yordamchi olmaydi, izvoshning fonuslarini yoqmaydi, birinchi muyulishdan burilgandan keyingina yoqadi, shunday qilmasa polisiya shubhalanib, orqadan tushishi va qo'lga olishi mumkin.

Ba'zan Maksimilian Valentinaga sabzazordan o'tishiga yordam beradigan daqiqalarni, hali-hozirgacha faqat qo'lini qisib yoki barmoqchasining uchini o'pib yurgan parivashini quchog'iga olib, bag'riga bosadigan onlarni o'ylaganda vujudini titroq bosib ketardi.

Kun yarmidan og'ib, belgilangan vaqt yaqinlashaver-gach, Maksimilian tanho bo'lishni istab qoldi. Yuragi o'ynab turgan ushbu onda do'stining har qanday savoli uning g'ashiga tegishi mumkin edi. U bo'lmasini ichidan qulflab, qo'lga kitob oldi, nigohi satrlar bo'ylab yursada, hech narsani ko'rmasdi, oxiri kitobni uloqtirib yubordi-da, qochish yo'llarini yana bir bor xayolidan o'tkazdi.

Belgilangan vaqt tobora yaqinlashardi.

Oshiq-ma'shuqlar soat milini o'z holiga qo'yishmadi. Morrel bo'lsa soatini cherta-cherta ishdan chiqardi, natijada soat endi olti bo'lganda, uning soati sakkiz yarim edi. O'zicha: soat to'qqizga belgilangan bu bema'ni nikohni Valentina kutmas, dedi-da, yo'lga tushdi. U o'z soati bo'yicha, soat sakkiz yarimda Mele ko'chasidan o'tib, tomorqaga etganda Filipp Rulskiy cherkovi soatlari endigina sakkizga bong urgan edi.

Morrel ot bilan ikki g'ildirakli izvoshni har gal o'zi pusib yotadigan vayrona kulba orqasiga yashirib qo'ydi.



Asta-sekin qorong'i tusha boshladi, ko'kka bo'y cho'zgan daraxtlar qop-qora bulutga o'xshardi.

Shunda Morrel yashirinib turgan joydan chiqdi-da, yuragi duk-duk urib, panjaradan ichkariga mo'raladi. Bog'da hech zog' ko'rinmasdi. Soat sakkiz yarim bo'ldi.

Yana yarim soat intizorlikda o'tdi. Morrel devor tagida u yoqdan-bu yoqqa yurar va hadeb taxtalar orasidagi tir-qishdan boqqa mo'ralardi. Qorong'ilik tobora quyushib borardi. Afsuski, Morrel qorong'ilik qo'ynidan hozir oppoq ko'ylakda ma'shuqam chiqib keladi, deb behuda kutayotgan edi.

Daraxtlar orqasidagi uyda hamon chiroqlar yoqilgani yo'q. Shu koshonada hozir nikoh bo'layotganini bildiruvchi biror nishona sezilmasdi.

Morrel cho'ntagidan soatini oldi, o'n besh daqiqaga kam o'n bo'libdi, xuddi shu paytda cherkov soati to'qqiz yarimga bong urdi, shunda uning soati noto'g'riligi ma'lum bo'ldi.

Demak, Valentinaning o'zi belgilagan vaqtdan yarim soat o'tibdi, u soat to'qqizda, hatto undan ilgariroq, degan edi.

Intizor damlarning har daqiqasi Morrelga bir yilday tuyulmoqda edi. Uning yuragi qattiq siqila boshladi. Yaproqlarning jindak shitirlashidan u seskanib tushar va peshanasini qora ter, vujudini titroq bosardi. O'qtin-o'qtin narvonni devorga tiklab pastki pog'onasiga oyog'ini qo'yib tin olardi.

Goh uning yuragi orqasiga tortib ketar, goh taskin topib, umidvor bo'lar ekan, cherkov soati o'nga zang urdi.

– Yo'q, – dedi Maksimilian qo'rquv bosib shivirlab, – nikoh ahdigaga qo'l qo'yish bunchalik cho'zilishi mumkin emas, bunda tasodifiy biror hodisa yuz bergan. Men bu rasmoniyatga ketadigan vaqtni hisoblab chiqdim. Kelmaganligi bejiz emas.

Maksimilian goh hayajonga tushib panjara oldida u yoqdan-bu yoqqa borib kelar, goh yonib turgan manglayini muzdek temir panjaraga bosardi. Valentina nikohdan

o'tiboq hushidan ketdimikin? Yo qochmoqchi bo'lib turganida qo'lga tushib qoldimikin? Mana shu ikki taxmin Morrelga ortiq umid qilishga yo'l qo'ymas, battar iztirob olovida qiynardi.

U balki Valentina qochib kelayotib holdan toyib bog'ning bir burchagida hushidan ketib yotgan bo'lsa kerak, degan fikrga ham keldi.

«Agar shunday bo'lsa, – baqirib yubordi u zinadan yugurib tushayotib, – men undan ajraldim, bunga faqat men aybdorman».

Shunday o'yni ko'ngliga solgan shayton Maksimilian-ni hamon ta'qib etar va tinmay qulog'i ostida shivirlab, uni vasvasaga solardi. Morrel hamma qorong'i burchaklarni qarab chiqdi, shunda zimiston xiyobonda qum ustida birov yotganga o'xshab ko'rindi unga, hatto uning ingragan tovushi qulog'iga chalinib, chaqirmoqchi ham bo'ldi.

Nihoyat, soat o'n yarim ham bo'ldi. Endi kutishning foydasi yo'q, biror voqea yuz bergan. Maksimilianning ikki chakkasi lo'q-lo'q qilib, ko'zlari tinib ketdi.

U devor oshib Vilforning hovlisiga tushdi. U buning oqibati yaxshi bo'lmasligini bilsa-da, ammo shahdidan qaytmadi.

Devor tagidan uy tomonga bir oz yurdi-da, xiyobondan yugurib o'tib, o'zini qalin daraxtlar orasiga oldi. Undan uy yaqqol ko'rinib turadigan joyga o'tib oldi.

Ikki ko'zi uyda Morrel boyagi taxminlari to'g'ri chiqqaniga batamom inondi: tantanali kunlari yoqib qo'yiladigan chiroqlardan nishona ham yo'q, hamma yoqni qorong'ilik chulg'agan, derazalar ham qop-qorong'i. Faqat ikkinchi qavatning uch derazasi g'ira-shira yorishib turardi. Bu de Sen-Meran xonim bo'lmasining derazalari edi.

De Vilfor xonim yotoqxonasi derazasiga osilgan alvon parda orqasida ham chiroq yoniq.

Morrel bularning hammasini bilib oldi. U bu koshonaning bo'lmalarini Valentinadan bir necha marta so'rab-surishtirib olgandi, shu sababdan ichkariga biror marta

kirmagan bo'lsa-da, xonalar, bo'lmalarning tuzilishini yaxshi bilardi.

Morrelni Valentinaning kelmagani emas, uydagi zimiston va jimjitlik ko'proq vahimaga solardi.

G'am va tashvishdan butunlay gangib, o'zini yo'qotib qo'ygan Morrel nima bo'lsa ham Valentinani ko'rishim va undan qanday baxtsizlik ro'y berganini bilib olishim kerak, deb hech narsadan tap tortmay boraverdi. U daraxtzor yonidagi maydonga etgach, maydondan chopib o'tmoqchi bo'lib turgan edi, to'satdan qulog'iga uzoqdan kelayotgan ovozlar chalindi.

U yana butazorga qaytib, qorong'ida biqinib turaverdi.

U shunday qarorga keldi: agar bu Valentina bo'lsa-yu, shu erdan o'tib qolsa, uning yonida begona odam bo'lish-bo'lmasligidan qat'i nazar, chaqirib oladi, Morrel uning sog'-salomat yurganini bir ko'rsa kifoya, boshqa odam bo'lsa uning gap-so'zlaridan bu xonadonda yuz bergan sirni bilib oladi.

Shu payt oy bulutlarni yorib, jamolini ko'rsatdi-da, hamma yoqni sutdek yoritib yubordi. Morrel eshik oldidagi zinapoyaga Vilfor bilan qora libosli bir odam chiqqanini ko'rdi. Ular pastga tushib, xiyobonga yo'l olishdi. Bir necha qadam beri kelgach, Morrel haligi qora libosli odam doktor d'Avrini ekanligini bildi.

Ularning o'zi tomonga kelayotganini ko'rib, Morrel orqaga yurdi va butazor o'rtasidagi zarang daraxti oldida to'xtadi.

Qumlar g'ijirlashi tinganidan Morrel Vilfor bilan doktorning to'xtaganini payqadi.

– Shunday, qadrlil doktor, – dedi qirollik prokurori, – aftidan, Xudo bizni qahriga oldi. Berahm ajal! Bizning oilamizga bu juda og'ir, kutilmagan zarba bo'ldi! Iltimos, meni yupatib, dalda beraman, deb urinmang, bu chuqur jarohatdan ham qon tomib turibdi, ha, qon! Ajal sho'rlik-kinani olib ketdi!

Maksimilianni qora ter bosdi, tishlari takkilladi.

Vilforning o'zi la'nat o'qigan bu dargohda kim o'ldi ekan?

– Azim janob de Vilfor, – dedi doktor g'alati bir ohangda, bu Morrelning vahimasini yana oshirib yubordi. – Men sizni bu erga yupatish maqsadida olib kelganim yo'q.

– Bu bilan nima demoqchisiz? – uning ovozidan qo'rqa-yotgani bilinib turardi.

– Demoqchimanki, bunisi hali holva, bundan battarrog'i bo'lishi mumkin.

– E, Tangrim! – dedi Vilfor qo'llarini siqib. – Tag'in qanday balo bor boshimizda?

– Bu erda ikkimizdan boshqa hech kim yo'qmi?

– Hech kim yo'q. Bunchalik ehtiyotkorlikka na hojat?

– Chunki, men sizga dahshatli bir gap aytmoqchiman, – dedi doktor, – keling, o'tiraylik.

Vilfor o'rindiqla o'tirgani yo'q, o'zi shilq etib cho'kdi. Doktor tik turganicha Vilforning elkasiga qo'lini qo'ydi.

Vahimadan Morrelning butun vujudi muzlab ketdi, u bir qo'lini peshanasiga, ikkinchisini yuragim gupillayotganini eshitib qolmasinlar, deb chap ko'ksiga bosdi. «Sho'rlikkinani olib ketdi!» iborasi vujudini qaltirataardi. Ajal uning ham halqumidan siqayotgandek tuyulardi Morrelga.

– Doktor, gapiravering, qulog'im sizda, – dedi Vilfor, – bu zarbani ham ko'krak kerib qarshi olishga tayyorman.

– Sen-Meran xonim yoshini yashab, oshini oshaganlardan bo'lsa-da, tani-joni sog' odam edi.

O'n daqiqa mobaynida bag'ri qon bo'lib turgan Morrelning ko'ngli bir oz tinchidi.

– Uni g'am-g'ussa go'rga tiqdi, – dedi Vilfor, – ha, doktor, qayg'u-alam uni adoyi tamom qildi. U markiz bilan rosa qirq yil umr kechirdi.

– Gap qayg'u-alamda emas, aziz do'stim, – javob qildi doktor, – to'g'ri, ba'zida kishini g'am-g'ussa ham eb qo'yadi, biroq g'am odamni bir kunda, bir soatda, o'n daqiqada o'ldirmaydi-ku.

Vilfor javob qaytarmadi, faqat boshini ko'tarib,

vahimadan olayib ketgan ko'zlarini doktorga qadadi.

– Jon berayotganda bormidingiz? – so'radi doktor d'Avrini.

– Albatta, – javob qildi qirollik prokurori, – o'zingiz ketmang, dedingiz-ku menga.

– Sen-Meran xonimning qanaqa kasaldan o'lganini sezdingizmi?

– Albatta, markizani bir necha daqiqa ichida uch marta og'ir tutqanoq tutdi. Siz kelganingizda uning nafasi bo'g'ila boshlagan edi, so'ng tutqanoq tutdi, men buni shunchaki asabdan bo'lsa kerak, deb o'yladim. Biroq u butun gavdasi tirishib, to'shakdan ko'tarilib tushavergandan so'ng kayfim uchib ketdi. Shunda sizning yuzingizga qarab, ahvol g'oyat jiddiy ekanini angladim. Tutqanoq bosilgach, men sizning qiyofangizga nazar tashlamoqchi bo'ldim, ammo siz menga qaramadingiz, siz xonimning tomir urishini sanayotgan edingiz, ikkinchi marta tutdi, shunda ham men tomonga qiyo boqmadim. Bunisi yanada og'irroq bo'ldi, o'sha behush tipirchilash, lablarning ko'karishi, titrab-silkinish. Uchinchi marta tutganda xonim jon berdi. Birinchi tutgandayoq men «bu qoqshol», dedim, siz «ha», dedingiz.

– To'g'ri, ko'pchilik oldida «ha», dedim, – e'tirof etdi doktor, – mana endi ikkimiz tanhomiz.

– Nima demoqchisiz menga?

– Qoqshol bilan o'simlik zaharining ta'siri bir xil bo'ladi, demoqchiman, tushudingizmi?

Vilfor o'rnidan irg'ib turib ketdi, biroq bir daqiqa qimir etmay jim turdi-da, yana o'rindiqqa shilq etib tushdi.

– E, Tangrim, – dedi Vilfor, – og'zingizga qarab gapirsangizchi, doktor!

Morrel bu o'ngimmi, tushimmi, deb hang-mang bo'lib qoldi.

– Menga qarang, – dedi doktor, – aytayotgan gapim naqadar jiddiy gap ekanini va buni qanday odamga aytayotganimni men juda yaxshi bilib turibman.

– Siz hozir kim bilan gaplashyapsiz: amaldor bilanmi

yoki do'stingiz bilanmi? – so'radi Vilfor.

– Do'stim bilan, hozir faqat do'stim bilan. Qoqshol kasalining belgilari o'simlik zaharidan kasallanish belgilari bilan shu qadar o'xshashki, agar buni mendan so'rasalar, hech ikkilanmay tasdiqlab qo'l qo'yib berardim. Shunday, azizim, men hozir amaldorga emas, do'stinga aytyapman bu gaplarni; chorak kam bir soat de Sen-Meran xonimning o'lim talvasasini, tomirlari tortishib tirishganini, shu azobda jon berganini ko'rib turdim, endi men zaharlanib o'lganligini tasdiqlabgina qolmay, hatto qanaqa zahardan o'lganini ham aytib bera olaman.

– Doktor, nahotki?

– Hamma belgilar shundan guvohlik berib turibdi: goh uyquga ketib, goh tutqanoq tutishi, miyaning o'ta darajada faollashishi, tildan qolishi de Sen-Meran xonim brusin yoki strixninni ko'p miqdorda eb vafot etganidan dalolat berib turibdi, ehtimol, buni adashib berib yuborishgandir.

Vilfor doktorning qo'lidan mahkam tutib oldi.

– Oh, bu qanday hol! – dedi u. – E, Xudoyim, tush ko'rayotirman! Ha, tush bu! Sizdan bunday gaplarni hech kutmagandim! Doktor, o'tinib so'rayman, bu gaplarim xato, deng, o'z og'zingiz bilan ayting!

– Shunday bo'lishi ham mumkin, biroq...

– Biroq?

– Biroq men unday fikrda emasman.

– Doktor, rahm qiling menga, so'nggi kunlarda mening hayotimda shunday voqealar yuz beryaptiki, aqldan ozmasam deb qo'rqaman.

– De Sen-Meran xonimni mendan boshqa biror kishi ko'rganmidi?

– Hech kim ko'rgani yo'q.

– Menga reseptni ko'rsatmay, dorixonadan biror dori oldirib kelganmidigiz?

– Yo'q.

– De Sen-Meran xonimning dushmanlari bormidi?

– Dushmanlarini bilmayman.

- Uning o'lishidan manfaatdor biror kishi bormidi?
- Yo'g'-e, yo'q! Bundan kim manfaatdor bo'lishi mumkin? Uning yakkayu yagona merosxo'ri mening qizim Valentina... Men esam... bunday o'ylagan boshim yanchilgani, gapirgan tilim kesilgani ming marta a'lo!
- Yo'q, do'stim! – dedi xitob qilib d'Avrini. – Men hech kimni ayblayotganim yo'q, Xudo saqlasin. Men faqat falokatga sabab bo'lgan tasodif haqida, ro'y bergan xatolik haqida gapiryapman. Ammo tasodifdanmi yoki xatodanmi – qanday bo'lmasin, zaharlangani aniq, men buni, Xudo haqqi, to'g'risini aytyapman, sizga buni vijdonim amri bilan aytyapman. Bu yog'ini endi o'zingiz so'rab-surishtirib aniqlang.
- Kimdan so'rayman? Qay yo'sinda? Nimani so'rab-surishtiraman?
- Masalan, kekxa qarol Barruani olaylik, u markizaga o'z xo'jayini uchun tayyorlangan birorta dorini adashib berib qo'ymadimikin?
- Otamga tayyorlangan dorilardanmi?
- Ha...
- Janob Nuartening dorisi bilan de Sen-Meran xonim qanday qilib zaharlanishi mumkin?
- Zaharlanish hech gap emas: bilasizki, ba'zi kasallarga zahar malham bo'ladi. Falaj esa shunday kasallardan. Janob Nuartening yurish va gapirish qobiliyatini tiklash uchun hamma choralarni ko'rib bo'lgach, bundan uch oy burun oxirgi vositani sinab ko'rishga ahd qildim. Mana uch oydirki, men uni brusin bilan davolayapman. Shunday qilib, men yozib bergan so'nggi dorivorda olti sentigramm brusin bor. Bu miqdordagi dori falaj kasaliga muhtalo bo'lgan janob Nuarte uchun zararli emas, biroq boshqa har qanday odamni halok qilishi uchun kifoya.
- Ammo de Sen-Meran xonimning bo'lmasi janob Nuarte bo'lmasiga yondosh ham emas, o'rtada eshik ham yo'q, Barrua esa qaynanamning xonasiga biror marta qadam bosgani yo'q. Men sizni eng usta doktor, dunyoda eng halol inson deb bilaman, hamma masalalarda men

sizni mash'al deb hisoblayman. Biroq har nechuk, doktor, sizga ishonchim zo'r ekaniga qaramay, men, «Errarei humanum est», ya'ni «benuqson Allohdir», degan naqlga tayanaman.

– Vilfor, menga qarang, – dedi doktor, – mendan bo'lak hamkasblarimdan tag'in qaysilarining iqtidoriga ishonasiz?

– Nega buni so'rayapsiz? Nima demoqchisiz?

– Chaqiring o'sha odamni, ko'rgan-bilganlarimni oqizmay-tomizmay unga aytib beray, so'ng o'likni yorib ko'ramiz.

– Zahar ta'sirini aniqlay olasizmi?

– Yo'q, zahar ta'sirini emas, men unday deyotganim yo'q, biz faqat asab tomirlarining jarohatlanganini qayd qilamiz, bo'g'ilib o'lganini sinchiklab aniqlaymiz, ana shundan keyin sizga, janob de Vilfor, agar bu ehtiyotsizlikdan yuz bergan bo'lsa, xizmatkorlaringizni qattiqroq nazorat ostiga oling, agar qahr-g'azab oqibati bo'lsa, dushmanlaringizdan ko'z-quloq bo'lib turing, deymiz.

– Hoy, d'Avrini, bu gaplarni o'ylab gapiryapsizmi, – dedi ma'yus tortib Vilfor, – bu sir sizdan boshqa biror kimsaga ayon bo'lsa bormi, Xudo urdi deyavering, darhol tergov boshlanadi, mening xonadonimda tergov yurgizish hech aqlga to'g'ri kelmaydigan ish! Biroq, – dedi qirollik prokurori doktorga tashvishli ko'zlarini tikib, – modomiki, siz shuni istar va talab qilar ekansiz, shunday qilganim bo'lsin. Rostdanam men bu ishga yo'l ochib berishim kerakdir, lavozimim ham shuni talab qiladi-ku. Lekin, doktor, qanchalik do'zax azobini chekayotganimni ko'ra turib, oilam boshiga yana bunaqangi savdo solish insofdan emas-ku, axir! Xotinim va qizim bunday sharmandali musibatga chiday olmaydi. Mening o'zimga kelganda, ko'plab dushman orttirmay turib bunday lavozimga erishish, yigirma besh yil uzluksiz qirollik prokurori

---

3.)

<sup>15</sup> Igumen – monastir boshlig'i.



mansabini egallab o'tirish mumkin emasligini o'zingiz yaxshi bilasiz. Dushmanlarim oz emas mening. Bu sir oshkora bo'lsa, ular quvonib, tantana qilishadi, meni sharmandayu sharmisor etishadi. Ortiqcha safsatalar bilan miyangizni qotirayotganim uchun uzr so'rayman sizdan. Agar kashish bo'lganingizda bu gaplarni aytishga jur'at etolmagan bo'lur edim, biroq siz odamlarni biladigan zotsiz, doktor, siz menga hech nima deganingiz yo'q, men ham hech nima eshitganim yo'q, bo'ptimi?

– Janob de Vilfor, – javob qildi hayajonlanib doktor, – azizim, mening birinchi burchim – insonparvarlik. Fan ojizlik qilmaganda de Sen-Meran xonimni o'limdan qutqarib qolardim, biroq u dunyodan o'tdi, endi tiriklar g'amida bo'lishim lozim. Bu dahshatli sir ham, keling, oramizda qolsin. Biror yot odam sezib qolgudek bo'lsa, bu doktorning nodonligi deb, aybni menga to'nkasalar roziman. Ammo siz aybdorni axtarib toping, axir bunday falokatlar yana yuz berishi mumkin... Mabodo uni topsangiz, sudya – o'zingiz, bilganingizni qiling, deyman.

– Rahmat sizga, doktor, rahmat! – dedi Vilfor o'zida yo'q quvonib. – Mening sizdan yaqin do'stim yo'q va bo'lgan ham emas.

Shunday dedi-da, doktor tag'in o'z fikridan qaytib qolmasin, deb qo'rqayotgandek, o'rnidan turib, d'Avrinini uy tomonga etakladi.

Ular ketishdi.

Morrel nafas olishga havo etishmayotganday, qo'llari bilan shoxlarni ikki tomonga surdi, uning devorday oqarib ketgan yuzlarini oy yoritdi.

– Mana, Tangri o'zi iltifot ko'rsatmoqchi menga, biroq bu voqealar shu qadar dahshatliki, – dedi u, – sho'rlik Valentinam! Qanday qilib bardosh berarkan u bu og'ir musibatlariga?!

Morrel shu gaplarni ayta turib, goh qizil pardali derazaga, goh oq pardali uch derazaga ko'z tikardi.

Derazasiga qizil parda to'silgan xona ancha qorong'lashib qolgan edi, aftidan, de Vilfor xonim katta chiroqni

o'chirib, shamni yoqqan bo'lsa kerak.

Lekin uyning narigi burchagidagi xonalardan birining oq pardali derazasi ochildi-da, shamchiroqning xira yog'dusida bir kishi ayvonga chiqdi. Morrel seskanib ketdi: kimdir yig'layotgandek bo'ldi nazarida.

Shunday kuchli, jasoratli kishining insonga xos ikki qudratli ehtiros – ishq hamda qo'rquv oldida taslim bo'lib, xurofiy bid'atlarga berilishi ajablanadigan hol emasdi shu paytda.

Valentina uni yashirinib turgan joyida ko'rishi mumkin emasdi, albatta, shunga qaramay, haligi ayvonga chiqqan kishi go'yo uni chaqirayotganday tuyuldi. Morrelning g'ovlagan miyasidan kechgan bu fikr uning ko'ngliga mahkam o'rnashib, haqiqat bo'lib ko'rindi-yu, yigit yoshlarga xos jo'shqinlik bilan uy tomonga o'zini otdi. Uning ko'ziga hech narsa ko'rinmasdi. Ikki sakrab gulxonadan o'tdi-da, uy oldidagi qator-qator guldonlar yoniga etdi, zinadan yugurib chiqib, eshikni zarb bilan itarib yubordi.

Valentina uni ko'rmadi, qizning ko'zlari moviy osmonda suzib yurgan bir parcha kumush bulutda edi, u o'tib borayotgan ko'lankaga o'xshar, sho'rlik qiz esa «ana, buvimning arvohi kelyapti», deb o'ylardi o'zicha.

Bu orada Morrel dahlizdan o'tib, ichki zinadan ko'tari layotgan edi. Zinapoyalarga yozib tashlangan gilamda oyoq tovushi eshitilmasdi. Morrel uchun buning ahamiyati yo'q, shu payt Vilforning o'zi chiqib qolsa ham mayli, u tap tortmay boraveradi, agar u ro'baro' kelib qolgudek bo'lsa, to'g'ri oldiga borib, hamma gaplarni to'kib-soladi, hammasini gardaniga olib, «Valentina bilan ikkalamizning qalbimiz muhabbat rishtalari bilan chambarchas bog'langan, rozi bo'lib bizga fotiha bering, o'tinaman», deydi, xullas, Morrel chinakam telba bo'lib qolgan edi.

Xayriyatki, uni hech kim ko'rmadi.

Vilfor xonadonining ichki tuzilishi haqida Valentina bergan ma'lumotlar mana hozir Morrelga juda asqotdi, u hech erda adashmay zinaning ustiga etib to'xtaganda yig'i

tovushini eshitdi-da, orqasiga o'girildi. Qiya ochiq eshikdan chiroq ko'rindi va yig'i yanada qattiqroq eshildi. Morrel eshikni ochib, ichkari kirdi.

To'rd, choyshab yopib qo'yilgan baland karavotda marhuma yotardi; boya eshitgan maxfiy gaplardan so'ng bu murda Morrelning ko'ziga yana ham dahshatli ko'rib ketdi.

Valentina karavot oldida cho'kka tushib, keng kursidagi bolishga boshini suqib, uvvos solib yig'lar, najot tilab yolvorardi. U deraza oldiga keldi-da, shunday mungli ohangda faryod soldiki, buni ko'rgan har qanday bag'ritosh odam ham chidolmasdi. Oy nuri deraza eshigi panjarasi orasidan o'tib, miltillab turgan shamchiroqni xiralatdi-da, xonadagi shu ko'ngilsiz manzaraga ko'kimtir mudhish yog'du sochib yubordi.

Garchi o'ta dindor va irodasi zaif bo'lmasa-da, Morrel o'zini tutib turolmadi. Ma'shuqasining xuni biyron yig'layotganini ko'rib larzaga tushdi. U, chuqur uh tortdi-da, sevgilisining nomini tilga olib asta chaqirdi, yuziga ko'zyoshidan jiqqa ho'l o'rindi baxmalining rangi urib qolgan Valentina unga qaradi.

Valentina uni ko'rib taajjublanmadi, behisob musibatlar iskanjasida pora-pora bo'lgan yurakda hayajon nima qilsin?

Morrel sevgilisiga qo'lini uzatdi.

Valentina va'da qilingan joyga nega chiqolmaganligini tushuntirib o'tirmadi, choyshab yopib qo'yilgan murdani ko'rsatdi-da, ingrab yig'lab yubordi.

Ikkisi bu xonada ovoz chiqarishga jur'at etolmay sukunat saqlashga urinishardi, burchakda murdaning o'zi go'yo labiga barmog'ini qo'yib «jim!», deb buyruq berib turgandek tuyulardi.

Sukunatni buzishga birinchi bo'lib Valentina jur'at etdi:

– Azizim, bu erga qanday qilib kirdingiz? Hayhot! Bu xonadonning eshiklarini sizga o'lim ochmaganida, o'zim ochib «xush kelibsiz!» degan bo'lur edim.

– Valentina, – dedi Morrel titroq ovozda, – men sakkiz

yarimdan kutdim sizni, daragingiz bo'lmadi, vahimaga tushib devordak oshdim-da, boqqa tushdim, musibat haqidagi suhbatni eshitdimu...

– Qanaqa suhbatni?

Morrel birdan seskanib ketdi, doktor bilan Vilforning so'zlari esiga tushdi-da, o'sha changak bo'lib qolgan qo'llarni, yog'ochday qotgan bo'yinni, momataloq lablarni shu choyshab tagida ko'rib turganday bo'ldi.

– Xizmatkorlaringiz suhbatini, – dedi Morrel, – eshitib, hamma narsadan voqif bo'ldim.

– Ammo, azizim, bu erga kelishingiz ikkimizni halokatga giriftor etishi mumkin-ku, – dedi Valentina, uning gap ohangida hech qanday g'azab yo vahima sezilmasdi.

– Kechiring meni, Valentina, – dedi yigit, – hozir chiqib ketaman.

– Yo'q, – dedi Valentina, – ko'rib qolishlari mumkin, shu erda qolasiz endi.

– Bu erga kelib qolishsa nima bo'ladi?

Valentina boshini chayqadi.

– Hech kim kelmaydi, – dedi u va xotirjam bo'ling, himoyachimiz bor deganday choyshab tagidagi murdaga ishora qildi.

– Sizdan bir narsa so'rasam maylimi? D' Epinega nima bo'ldi? – dedi Morrel.

– U nikoh ahdiga qo'l qo'yaman, deb kirganida buvim jon berdi.

– Dahshat! – dedi xudbinlarcha ichidan quvonib Morrel; u, o'lim to'yni noma'lum muddatga kechiktiradi, deb o'ylagan edi. Biroq shu zahoti o'ylaganlari chippakka chiqdi.

– Buning ustiga buvim, – dedi so'zini davom ettirib Valentina, – jon berayotib, «to'yni tezroq o'tkazinglar» deb buyruq berib ketdi, meni himoya qilaman deb o'yladi-yu, ammo amalda masalani zararimga hal qilib ketdi.

– Eshityapsizmi? – dedi bexosdan Morrel.

Ikkalasi jim bo'lib qoldi.

Eshik ochilib, dahlizda va so'ng zinada oyoq tovushi

eshitildi.

– Otam kabinetidan chiqdi, – dedi Valentina.

– Doktorni kuzatib qo‘yyapti, – dedi qo‘shimcha qilib Morrel.

– Doktorligini qayerdan bilasiz? – so‘radi ajablanib Valentina.

– Taxmin qilyapman, – dedi Morrel. Valentina unga qarab qo‘ydi.

Shu orada ko‘cha eshik yopildi, so‘ngra Vilfor bog‘ eshigini qulfladi-da, yana zinadan yuqoriga chiqa boshladi.

Dahlizga kelib, aftidan, bo‘lmamga ketaversammikin yoki de Sen-Meran xonimning xonasiga birrov kirib chiqsammikin, deb bir zum ikkilanib turdi. Morrel shoshib parda orqasiga yashirindi. Valentina, og‘ir musibatdan har narsaga loqayd bo‘lib qolgandek, joyida qimir etmay turaverdi.

Vilfor o‘z xonasiga kirib ketdi.

– Endi, – dedi Valentina, – hech erdan chiqib ketolmaysiz, ko‘cha eshik ham, bog‘ eshigi ham qulflandi.

Morrel sarosimaga tushib qizga qarab qoldi.

– Endi faqat birgina iloji qoldi, – dedi Valentina, – buvamning bo‘lmasi.

U o‘rnidan turdi.

– Yuring, ketdik, – dedi Valentina.

– Qayoqqa?

– Buvamnikiga.

– Janob Nuarte huzuriga boramanmi?

– Ha.

– Uylab gapiryapsizmi, Valentina?

– Men buni ko‘pdan buyon o‘ylab yuribman. Endi bu dunyoda mening undan boshqa hech kimim qolmadi, ikkimiz ham uning yordamiga muhtojmiz. Qani, yuring.

– Ehtiyot bo‘ling, Valentina, – dedi Morrel yuragini hovuchlab, – ehtiyot bo‘ling, bu erga kelib tentaklik qilganimni endi tushundim. Uylab gapiryapsizmi, Valentina?

– Bu haqda allaqachon o‘ylab qo‘yganman, – dedi Va-

lentina, – faqat shoʻrlik buvimni tashlab ketishga aslo koʻnglim boʻlmayapti, men uni, qoʻriqlab oʻtiramani deb vaʼda bergandim.

– Oʻlim haq, Valentina, – dedi Morrel.

– Toʻgʻri, – javob berdi qiz, – aytganicha, darrov qaytamiz-ku. Yuring.

Valentina dahlizdan oʻtdi-da, Nuarte xonasiga boradigan kichik zinadan pastga yoʻl oldi. Morrel oyoq uchida yurib uning ortidan borardi. Boʻlma oldida keksa xizmatkor uchradi.

– Barrua, – dedi Valentina, – ketimizdan eshikni beki-  
tib qoʻying, hech kimni kiritmang.

Nuarte huzuriga avval Valentina kirdi.

Chol yumshoq kursida tashqaridagi tovushlarga quloq solib oʻtirardi, Barrua xonadonda yuz berayotgan voqealarning hammasidan uni xabardor etgan, bemor cholning ikki koʻzi eshikda edi, u Valentinani koʻrib, quvonib ketdi.

Qizning yurish-turishida allaqanday jiddiyat va tantana sezilib turardi. Buni koʻrgan chol hayratda qoldi, uning koʻzlarida savol nishonasi paydo boʻldi.

– Buvajon, – dedi qiz, – gaplarimga diqqat bilan quloq soling. Buvim Sen-Meran bundan bir soat muqaddam dunyodan oʻtdi, bundan xabaringiz bor. Endi bu yorugʻ dunyoda mening sizdan boʻlak suyanchim yoʻq.

Chol mehr toʻla koʻzlarini nevarasidan uzmasdi.

– Qaygʻu-alamlarimni va orzu-tilaklarimni men faqat sizga ishonib aytaman, toʻgʻrimi?

Falaj imo bilan «toʻgʻri», dedi.

Valentina Maksimilianni qoʻltigʻidan oldi.

– Unday boʻlsa, – dedi qiz, – mana bu kishiga razm soling.

Chol ajablanib, sinovchan koʻzlarini Morrelga tikdi.

– Bu yigit marsellik mashhur savdogarning oʻgʻli Maksimilian Morrel boʻladi, bu zotning nomini eshitgandirsiz.

– Ha, – dedi imo qilib chol.

– Bu barchaga taniqli nom, bu nomni Maksimilian yana

shon-sharaflarga burkaydi, u hozirdayoq suvoriylar kapitani, Faxrli legionning kavaleri.

Chol «ha, esimda», dedi.

So'ng Valentina buvasi oldiga tiz cho'kdi-da, Maksimilianni ko'rsatib:

– Men faqat shuni sevaman, – dedi, – mabodo meni boshqa birovga tegishga majbur etgundek bo'lsalar chidolmayman, o'zimni-o'zim o'ldiraman.

Falajning ko'zlarida tashvishli fikrlar g'ujg'on o'ynardi.

– Maksimilian Morrelni siz yoqtirasiz-a, buva? – so'radi Valentina.

Chol «ha», deya ishora qildi.

– Bizni – farzandlaringizni otamdan himoya qila olasizmi?

Nuarte o'ychan ko'zlari bilan Morrelga vaziyatga qarab, degandek nazar tashladi.

Maksimilian uning bu ishorasini tushundi.

– Mademuazel, – dedi u, – buvingiz bo'lmasida sizni muqaddas burchingiz kutyapti, ruxsat eting, Nuarte janoblari bilan bir oz gaplashib olay, xo'pmi?

– Ha, ha, men shuni istayman, – derdi cholning ko'zlari mamnun charaqlab, so'ng Valentinaga tashvishli nigoh tashlab qo'ydi.

– U mening imolarimga tushunmaydi, deyapsizmi, buva?

– Ha.

– Xavotir olmang, biz siz haqingizda juda ko'p suhbat qilgandik, shu sababdan siz bilan qanday gaplashishni u yaxshi biladi, men unga hammasini aytganman. – Valentina shunday dedi-da, o'rnidan turib, Morrelga kursini surib qo'ydi, Barruaga, bu xonaga hech kimni qo'ymang, deb farmon berdi, so'ng buvasini ohista o'pib, Morrel bilan xayrlashib chiqib ketdi.

Shundan so'ng Morrel Valentinaning ishonchini qozongani va ularning hamma sirlarini bilib olganini Nuarte oldida yana tasdiqlash uchun lug'at, qalam va qog'oz

olib, stoldagi lampa chiroq yoniga qo'ydi.

– Janob, ruxsat eting, – dedi, – dastavval o'zimni tanishtirayin, mademuazel Valentinaga cheksiz muhabbatim va orzularimni bayon qilay.

– Qulog'im sizda, – dedi imo qilib Nuarte. Atrofdagilarga ortiqcha yuk bo'lib qolgan bu chol endigina mustaqil turmushga qadam qo'yayotgan bir-biriga oshiq ikki yosh qalbnig yagona homiysi, tarafdori va hokimi bo'lib qoldi. Uning mehr-shafqat balqib turgan chehrasi jiddiy tus oldi. Morrelga bu kuchli ta'sir etdi, uning titroq ovozda gapirayotganining boisi ham shunda edi.

Morrel Valentina bilan qanday tanishganini, qanday qilib sevib qolganini, mazluma Valentina ham uni sevib qolganligini aytdi. U ota-onasi, mansabi, mulki haqida ham gapirdi. Gapira turib u savol nazari bilan cholga qarab-qarab qo'yar, chol «gapiravering» deganday imo qilib qo'yardi.

– Gapiravering.

– Mening ishq-muhabbatim va orzu-umidlarim ana shulardan iborat, – dedi Morrel gapining oldingi qismini tugatar ekan. Keyin qo'shimcha qildi: – Endi kelgusi rejalimizni ham aytib beraymi?

– Ha, – dedi chol.

– Biz shunday qarorga keldik, – dedi-da, tomorqada izvoshni taxt qilib qo'yganini, unda Valentinani olib qochib, singlisinikiga olib bormoqchi bo'lganini, so'ng Valentina bilan nikohdan o'tib, bir yostiqaqa bosh qo'yishga ahd qilishganini aytdi.

– Janob de Vilfor g'azabidan tushib, gunohimizdan o'tishini kutmoqchimiz, – dedi Morrel.

Nuarte «yo'q», dedi.

– Yo'q? Demak, bunday qilish yaramaydimi?

Chol ishorani takrorladi.

– Bu rejamiz noto'g'rimi?

– Noto'g'ri, – dedi cholning imosi.

– Unday bo'lsa, yana boshqa bir yo'l bor, – dedi Morrel.



Cholning ko'zlari savol nazari bilan boqdi.

– To'g'ri Frans d' Epine oldiga boraman, – dedi so'zini davom ettirib Maksimilian, – boraman-da, ochiqchasiga gaplashaman, vijdonli odam bo'lsa, mening taklifimni qabul etadi. (Xayriyatki bu gaplarimni mademuazel de Vilfor eshitmaydi.)

Chol yana «Xo'sh-xo'sh, nima qilmoqchisiz», degandek tikilib turardi.

– Nima qilmoqchi ekanimni bilmoqchimisiz?

– Ha.

– Hali aytganimdek, to'g'ri boraman-da, mademuazel Valentina bilan ikkimizning bir-birimizga oshiq ekanimizni aytaman. Agarda qalbida insoniy mehr-shafqatdan zaracha bo'lsa, qaylig'idan, ya'ni Valentinani xotinlikka olishdan voz kechadi, u holda umrimning so'nggi damlarigacha uning sodiq do'sti bo'lib qolaman. Agarda u Valentina mening unashib qo'yilgan xotanim ekaniga, Valentina mendan boshqa hech kimni sevmasligini isbotlashimga ham qaramay, faqat shaxsiy manfaati yoki g'ururi yo'l qo'ymay, oyog'ini tirab turib olsa, u holda jang maydoniga chiqaman-da, hamma imtiyozlarni uning ixtiyoriga topshirib, kurashaman, yo men qolaman, yo u. Mabodo u o'lsa, Valentina menga qoladi, men o'lsam, Valentina unga tegmaydi, men bunga aminman.

Nuarte zo'r mamnuniyat bilan Maksimilianning mardlik barq urib turgan chehrasiga tikilib turardi; o'rnida berilgan bo'yoq rasmning ta'sir kuchini yanada oshirgani kabi Morreldagi fazilatlar uning chehrasini juda ochib yuborgan edi.

Morrel gapini tugatgach, Nuarte bir necha marta ko'zlarini yumib-ochdi, bu uning, bunday qilish yaramaydi, degan edi.

– Yaramaydi? – takrorladi Morrel, – demak, siz bu reja ni ham, birinchisi kabi, ma'qullamas ekansiz-da?

– Ha, ma'qulmas menga, – ishora qildi chol.

– Xo'sh, unda nima qilay, janob? – so'radi Morrel. – De Sen-Meran xonim o'zining oxirgi so'zida, nevaramning

to'yini kechiktirmanglar, degan ekan, axir men bunga qanday yo'l qo'yay?

Nuarte hech qanday ishora qilmadi.

– Tushundim, – dedi Morrel, – kutishim kerak ekan-da.

– Ha.

– Bu ish cho'zilib ketsa, biz xarob bo'lamiz, janob! Valentinaning yolg'iz o'zi kurashishga kuchi etmaydi, uni yosh boladek majbur qilishadi. Men bu erga tasodifan kirib qolib, voqealardan xabardor bo'ldim, huzuringizga ham Xudoning karomati bilan kirib keldim. Endi yana biror baxtli tasodif yordam berar deb, kutib turmayman. Amin bo'ling, faqat hali men aytgan ikki yo'ldan biri amalga oshuvi mumkin, kechiring meni, bundan boshqa yo'l yo'q. Yaxshisi, ayting, ikkalasidan qaysinisi sizga ma'qul? Mademuazel Valentina menga ishonsa bo'ladimi?

– Yo'q.

– Janob d' Epine oldiga borganim yaxshimi?

– Yo'q.

– E, Tangrim, sendan boshqa kimdan najot kutamiz? Chol iljayib qo'ydi, Xudo tilga olinganda u hamisha iljayib qo'yardi. Yakobinchi chol hamon ateist edi.

– Tasodif yordam beradimi? – davom ettirdi so'zini Morrel.

– Yo'q.

– O'zingiz yordam berasizmi?

– Ha.

– Siz-a?

– Ha, – takrorladi chol.

– Men qanaqa yordam so'rayotganimni siz yaxshi tushudingizmi? Qaysarligim uchun kechiring meni, butun hayotim sizning javobingizga bog'liq: bizni o'zingiz qo'llab-quvvatlaysizmi?

– Ha.

– Bunga imoningiz komilmi?

– Ha.

– Bunga kafilmisiz?

– Ha.

Chol oxirgi «ha» ishorasini shu qadar qat'iyat bilan aytdiki, bunga ishonmaslikka hech asos qolmagandi.

– Rahmat sizga, ming-ming rahmat! Biroq Tangri sizga til va harakat ato qilmasa, bu ahvolda siz nikohga qanday qilib monelik ko'rsata olasiz? Qanday qilib?

Cholning ko'zlarida paydo bo'lgan ajib tabassum uning kesakdek qotib qolgan yuzini nurlantirib yubordi.

– Demak, sabr qilay, shundaymi? – so'radi Morrel.

– Ha.

– Nikoh-chi? U nima bo'ladi?

Cholning ko'zlarida yana tabassum paydo bo'ldi.

– Nikoh qog'oziga qo'l qo'yilmaydi demoqchimisiz? Nahotki?

– Shunday, – dedi imo bilan Nuarte.

– Hali aktga qo'l qo'yilmaydi deng! – dedi xitob qilib Morrel. – Oh, kechiring meni! Bir olam baxt va'da qilaman deganlarida kishi ishonmasligi mumkin-da, nikoh qog'oziga imzo chekilmaydi deng?

– Shunday! – javob qildi falaj.

Morrelning hamon ishongisi kelmasdi. Bemor cholning va'dasi unga juda g'alati tuyular, bu iroda kuchi emas, jismoniy o'zlik alomati bo'lsa kerak deb o'ylardi, chunki odatda es-hushi joyida bo'lmagan odam, kuchiga ortiqcha baho berib, «unday qilib yuboraman, bunday qilib yuboraman», deb vaysay beradi, bu tabiiy. Oyoqda zo'rg'a turgan ba'zi nimjonlar, devlarning oyog'ini osmondan keltiraman, deb lof uradi, kambag'al oltin xazinam bor, deb maqtanadi, yonida sariq chaqasi ham yo'q odam tuyaning tishini ko'radi.

Nuarte Morrelning ko'nglidagini payqaganday, unga sinovchan tikilib qoldi.

– Shunday qilib, men sabr qilishim kerakmi? – so'radi Morrel.

Nuarte qimir etmay o'qrayib qarab turaverdi, bu, va'da meni qanoatlantirmayapti degani edi, u Morrelning qo'liga ham qarab qo'ydi.

– Ont ichaymi? – so'radi Maksimilian.

Quvonchdan cholning ko'zlari porladi.

Morrel cholning qasamiga juda zo'r e'tibor berayotganini fahmladi. U qo'lini ko'tardi-da:

– Vijdon haqqi, ont ichaman, – dedi, – siz bir qarorga kelguncha janob d' Epinega qarshi hech qanday ish qilmay turaman.

– Mana bu yaxshi bo'ldi, – dedi imo bilan chol.

– Janob, endi ketsam maylimi? – so'radi Morrel.

– Mayli.

– Mademuazel Valentina bilan uchrashmasdan ketaveraymi?

– Ha.

Morrel itoatkorona ta'zim qildi.

– Endi, – dedi u, – ruxsat eting, qizingiz singari men – o'g'lingiz ham sizni bir o'pay.

Nuarte rozilik bildirdi.

Morrel, cholning hozirgina Valentinaning lablari tekkan peshanasidan o'pib qo'ydi.

So'ng u cholga yana ikki bukilib ta'zim qildi-da, chiqib ketdi.

Zina maydonchasida Valentina ogohlantirib qo'ygan keksa xizmatkorni uchratdi. U Morrelni kutib turgandi. Barrua Maksimilianni egri-bugri dahlizdan bog' eshigigacha kuzatib qo'ydi.

Morrel bog'ni kesib o'tib darvozagacha bordi, daraxt shoxlariga osilib, devordan lip etib oshib tushdi-da, izvosh yoniga etib oldi.

U izvoshga o'tirdi, hayajondan holdan toygan, biroq ko'ngli ancha tinch holda Mele ko'chasiga keldi. Tun yarmidan oqqan edi, Morrel to'shakka o'zini otdi-da, xuddi mast kishidek birpasda dong qotib uxlab qoldi.

## **XVII. VILFOR XONADONINING XILXONASI**

Shundan ikki kun o'tgach, ertalab soat o'nlarda janob de Vilfor eshigi oldida olomon to'plandi. Shahar tevara-

gidagi Sent-Onore qishlog'i va dela-Pepiner ko'chasida esa qator-qator motam izvoshlari va xususiy foytunlar tizilib turardi.

Ular orasida qora rangli izvosh ko'rinishda boshqalardan ajralib turardi. Chamasi u uzoq yo'l bosib kelganga o'xshardi. Mana shu izvosh eng oldin kelgan edi.

Ma'lum bo'lishicha, bu izvoshda markiz de Sen-Meranning jasadı keltirilgan ekan, demak, dafn marosimiga kelganlar birgina marhuma markizani emas, marhum markizni ham kuzatishadi.

Vidolashgani kelganlar ko'p edi. Markiz de Sen-Meran Lyudovik XVIII va Karl X ning eng ishchan va sodiq amaldorlaridan bo'lib, uning do'stlari ko'p edi. Jamiyat odob-axloq qoidasicha Vilforğa aloqador bo'lganlar ham motam marosimida hozir bo'lishdi. Darhol hukumat boshliqlariga xabar qilinib, ikki motam marosimini birga o'tkazish haqida ruxsat olindi, zo'r hasham bilan bezalgan ikkinchi katafalk qirollik prokurori uyi oldiga keltirildi, pochta foytunidagi tobutni motam katafalkiga olib o'tishdi.

Ikki jasad Per-Lashez qabristonida bir vaqtlar Vilfor ajratib qo'ygan xilxonaga qo'yilishi lozim edi. Sho'rlik Renening jasadı ham mana shu xilxonaga qo'yilgan. Mana endi o'n yil judolikdan so'ng ota-onasi er qarida qizi bilan yonma-yon yotadi.

Hamisha voqea-hodisalarga qiziqadigan, dabdabali motam marosimlarida doim hayajonga tushadigan Parij o'z an'analariğa, o'z gurungiga sodiq, o'z muhiti va qarashlaridan aslo voz kechmaydigan ko'hna aristokratiyaning ikki vakilini dafn etish marosimini loqaydlik bilan kuzatib turardi.

Motam izvoshida birga o'tirgan Boshan, Alber va va Shato-Reno markizaning to'satdan vafot etish sabablarini muhokama qilishardi.

– Men o'tgan yili Jazoir dan qaytib kelayotganimda de Sen-Meran xonimni Marselda ko'rgan edim, – dedi Shato-Reno. – Men bu ayol kamida yuz yil yashasa kerak, deb

o'ylagan edim. U hayratda qoladigan darajada g'ayratli, sog'lom va aqli raso ayol edi. Yoshi nechada edi?

– Oltmish oltida, – javob berdi Alber, – Frans menga shunday degan edi. Uni aslida qarilik emas, qayg'u-alam edi. Uni markizning o'limi ayniqsa juda cho'ktirib qo'ydi, aytishlariga qaraganda, erining vafotidan so'ng u aqldan ozgan emish.

– Anig'i, nimadan o'ldi ekan xonim? – so'radi Boshan.

– Miyasiga qon quyilishdan yoki apopleksiz zarbidan emish, bu ikkisi ham bir xil bo'lsa kerak-a?

– Ha, bir-biriga ancha o'xshash.

– Qon quyilishidan-a? – takrorladi Boshan, – hech ishonmaydigan gap bu. Men de Sen-Meran xonimni ikki marta ko'rgandim, u jikkak, qotma, serzarda ayol edi, semiz, yonoqlaridan qon tomib turadigan ayollardan emasdi. Jussasi kichkina kishilarda miyasiga qon quyilish hollari kamdan-kam uchraydi.

– Qanday kasaldan o'lgan bo'lmasin, har nechuk, janob de Vilfor yoki to'g'rirog'i, mademuazel Valentina, undan ham to'g'rirog'i, og'aynim Frans yiliga sakson ming livr daromad beradigan juda katta merosga ega bo'ldi.

– Keksa yakobinchi Nuarte vafot etsa bu meros naq ikki baravar oshib ketadi.

– O'taketgan qaysar chol ekan-da! – dedi Boshan. – Tenacen propositi virum<sup>14</sup>! Hamma merosxo'rlarimni go'rga tiqmagunimcha ketmayman, deb o'lim bilan garov o'ynaganga o'xshaydi. Mana ko'rasiz, u niyatiga etadi. Bir ming sakkiz yuz o'n to'rtinchi yili Napoleonga quyidagi so'zlarni aytgan to'qson uchinchi Konventning a'zosi shu odam bo'lsa ajab emas:

«Sizing imperiyangiz o'sish jarayonida toliqib qolgan yosh novda bo'lgani uchun tanazzulga yuz tutyapsiz. Respublikaga tayaning, yaxshi konstitusiya chiqaring-da, jang maydoniga qayting, men shunda sizga besh yuz ming soldat, ikkinchi Marengo va ikkinchi Austerlis va'da etaman. Hazrat oliylari, g'oya o'lmaydi, ba'zan uni mudroq bosadi, so'ng yana ilgariyasidek kuch to'plab uyg'onadi».

– Aftidan, – dedi Alber, – u odamlarni ham g’oya deb hisoblasa kerak. Bizning Frans bu chol bilan qanday chiqisha olarkan? Axir chol uning xotinisiz yashay olmaydi-ku! Frans ko’rinmaydimi?

– U birinchi izvoshda, Vilfor bilan birga, qirollik prokurori endilikda uni o’z oilasining a’zosi deb hisoblaydi.

Marosimdagi izvoshlarda gap faqat shu ikki o’lim haqida borardi: to’satdan ketma-ket yuz bergan bu ikkala o’limdan hamma taajjublanardi, ammo tungi sayr paytida Vilforiga doktor d’Avrini aytib bergan dahshatli sirni hech kim bilmasdi.

Bir soatda qabristonga etishdi, sokin bulutli kun qayg’uli motam marosimiga juda mos tushgandi. Vilforlar xonadoni xilxonasiga borayotganlar orasida Morrel ham bor edi, u o’zining ikki g’ildirakli izvoshida keldi. U tikanli butalar o’sib yotgan so’qmoqdan miq etmay borar, rangi oqarib ketgan edi.

– Siz bu erda nima qilib yuribsiz? – so’radi Shato-Reno yosh kapitanni qo’ltig’idan olib. – Siz hali Vilfor bilan tanishmisiz? Uning uyida sizni hech uchratmagandim-ku?

– Men janob de Vilfor bilan emas, de Sen-Meran xonim bilan tanish edim, – dedi Morrel.

Shu payt Alber bilan Frans etib keldi.

– Bu er tanishadigan joy emas, – dedi Alber, – biroq biz xurofotdan yiroq odamlarmiz, bizga baribir. Janob Morrel, ruxsat eting, sizga bularni tanishtirib qo’yay: bu kishi janob Frans d’ Epine, sayohatda mening olijanob hamrohim, bu kishi bilan Italiyaga bordim. Azizim Frans, tanish, bu kishi janob Maksimilian Morrel, sen yo’qligingda orttirgan ajoyib do’stim. Dilkash, oqil va muruvvatli zot.

Morrel bir oz sarosimaga tushib qoldi. Maxfiy kurash olib borayotgan kishi bilan do’stona salom-alik qilishi ikkiyuzlamachilik bo’lmasmikin, deb o’ziga-o’zi savol berdi. Ammo qasamini, o’sha tantanali daqiqani esga oldi-da, hech narsani sezdirmaslikka urinib, Fransga salom

berdi.

– Mademuazel de Vilfor juda qayg'urayotgan bo'lsa kerak? – so'radi Debre Fransdan.

– Tamoman, – dedi Frans, – bugun ertalab rangi ro'yi boshqacha edi, men arang tanidim.

Bu shunchaki aytilgan so'zlar bo'lsa-da, Morrelning qalbiga xanjarday botdi. Bu zot Valentinani ko'rib, u bilan gaplashibdi-da! Yosh ofiser bu gal ham zo'r kuch bilan o'zini bosib, qasamiga sodiq bo'lib qoldi. U Shato-Renoni qo'ltig'idan oldi-da, maqbara tomonga tez yurib ketdi. Dafn shirkatining ikki xodimi ikkala tobutni allaqachon maqbara yoniga olib qo'ygan edi.

– Ajjib manzara, – dedi Boshan maqbaraga nazar tashlab. – Bu ham yozgi, ham qishki saroy. Azizim Frans d'Epine, siz ham navbatingiz kelishi bilan shu erga ko'chib kelasiz, chunki yaqinda shu oilaning a'zosi bo'lasiz. Men esa faylasuf sifatida, sho'rlik jasadim ustiga bunchalik og'ir toshlarni qo'ydirmay, oddiy daraxtzor tagida yotishni afzal ko'rardim. Jon berayotganimda atrofimdagilarga Voltarning Pironga yozgan mana shu so'zlarini aytaman: Eo rus, ya'ni «qishloqqa ketyapman», deyman. Tamomvassalom... Hoy, Frans, bardam bo'ling, oshig'ingiz olchi, axir xotiningiz hamma mol-mulkning merosxo'ri-ku!

– Juda bema'nisiz-da, Boshan, – dedi Frans. – Siyosat arbobisiz-a, bu sizni hammani mazax qilishga va hech narsaga ishonmaslikka o'rgatib qo'ygan. Lekin harholda oddiy kishilar davrasida bo'lganingizda siyosatni yig'ishtirib qo'yib, deputatlar palatasini yoki perlar palatasini bir zum unuting-da, asl holatingizga qayting.

– E, Parvardigor, – dedi Boshan, – hayotning tub ma'nosi nima, bilasizmi? Ajal jari yoqasida navbat kutish.

– Boshan ko'zingga baloday ko'rinyapti shu paytda, – dedi Alber va «Debre bilan falsafiy mulohazalaringni davom ettiraver», deb Frans bilan birga bir necha qadam chetga oldi o'zini.

Vilforlar maqbarasi to'rt burchak, yigirma fut balandlikda oppoq toshdan yasalgan edi, o'rtadagi panjara Sen-



Meranlar xonadoni bilan Vilforlar xonadoni xilxonasini bir-biridan ajratib turar, eshiklari ham boshqa-boshqa edi.

Bu maqbarada, boshqalarnikiga o'xshab, joyni tejash maqsadida yashiklar ustma-ust qo'yilmagan edi. Bronza eshikdan kiraverishda qorong'i dahliz bo'lib, o'rtadagi devor uni qablardan ajratib turardi. Hozirgina biz aytgan ikki eshik ham mana shu devorga o'rnatilgan bo'lib, biringan Vilforlar maqbarasiga, ikkinchisidan esa Sen-Meranlar maqbarasiga kiriladi.

Bu erda motam tutib o'tirgan qavm-qarindoshlarga Per-Lashezdan kelib uchrashadigan suyuq xushtorlarning bema'ni qo'shiqlari, qiyqiriqlari, baqirib-chaqirishlari aslo xalaqit bermasdi.

Ikkala tobut Sen-Meranlar oilasi maqbarasiga olib kirilib, qayg'uli yukni qabul qilishga tayyorlab qo'yilgan taxta supaga qo'yildi. Maqbaraga faqat Vilfor Frans va yaqin qarindosh-urug'lar kirishdi. Hamma diniy rasm-rusumlar tashqarida bajo etilgan bo'lib, unda hech qanaqa va'zxonlik bo'lmadi, shu sababli odamlar tezda tarqalishdi. Shato-Reno, Alber va Morrel bir tomonga, Debre bilan Boshan esa ikkinchi tomonga yo'l oldi.

Frans Vilfor bilan qoldi. Morrel nimanidir bahona qilib qabriston darvozasi oldida to'xtadi-da, Frans bilan Vilfor motam izvoshida birga ketganini ko'rdi va «bu yaxshilikka olib bormaydi», deb ko'ngli g'ash bo'ldi. Morrel shaharga Shato-Reno va Alber bilan bir izvoshda kelsa-da, ularning birorta so'zini eshitmadi.

Morrelning hadixsirab aytgan so'zlari haq bo'lib chiqdi: Frans xayrlashayotganida Vilfor undan:

- Baron, endi qachon uchrashamiz? – deb so'radi.
- Janoblari istagan vaqtda, – javob qildi Frans.
- Qancha tez bo'lsa shuncha yaxshi.
- Men tayyorman, istasangiz birga boramiz?
- Agar sizga malol kelmasa.
- Hech-da.

Bo'lajak qaynata bilan bo'lajak kuyovning bir izvoshda kelayotganining boisi mana shu edi. Ular Morrelning

oldidan o'tishganda, yigitning ko'ngliga g'ulg'ula tushganicha bor edi.

Vilfor bilan Frans Sent-Onorega qaytib kelishdi.

Qirollik prokurori hech kimning oldiga kirmadi, xotini bilan ham, qizi bilan ham bir og'iz gaplashmasdan mehmonni to'g'ri o'zining kabinetiga olib kirdi.

– Janob d' Epine, – dedi u, – bunday qaraganda noo'rindek sezilsa-da, lekin aslida o'rinli bir gapni aytmoqchiman sizga. Marhumlar ruhini shod etib, fотиha o'qish savob bo'ladi. Bundan uch kun burun de Sen-Meran xonim o'lim to'shagida yotib, Valentinaning to'yini sira kechiktirmanglar, degan edi. Marhumaning hamma ishlari joyida ekanligi sizga ma'lum. Uning vasiyatiga binoan, Sen-Meranlarning barcha mol-mulki Valentina ixtiyoriga o'tadi, notarius kecha menga hujjatlarni ko'rsatdi, bu hujjatlar asosida nikoh shartnomasi tuzish mumkin. Notarius huzuriga borib mening nomimdan iltimos qilsangiz, o'sha hujjatlarni sizga ko'rsatadi. Notariusimizning ismi Deshan, u Sent-Onoredagi Bove yaqinida istiqomat qiladi.

– Janob de Vilfor, – dedi d' Epine. – Mademuazel Valentina og'ir judolikdan yuragi zardobga to'lib turgan bir vaqtda ko'ngliga nikoh sig'armikan. Ochig'ini aytsam, ko'nglim bunga chopmayapti.

– Buvisining so'nggi vasiyatini bajo keltirish Valentinaning muqaddas burchi, – dedi Fransning so'zini bo'lib Vilfor, – qiz tomonidan monelik bo'lmaydi, bunga amin bo'ling.

– Shunday ekan, – dedi Frans, – men ham qarshi emasman, u yog'i o'zlariga havola, men va'da berganman, bafonu dil va'damning ustidan chiqaman.

– Unday bo'lsa to'yni keyinga surib o'tirmaylik, shartnomaga uchinchi kuni qo'l qo'yilmog'i kerak edi. U yozib qo'yilgan, tayyor, shu bugunoq imzo chekib qo'ya qolsa bo'ladi.

– Azada-ya? – dedi sarosimaga tushib Frans.

– Xotirjam bo'ling, – dedi Vilfor, – xonadonimda odob saqlanadi. Mademuazel de Vilfor belgilangan uch oyga

o'zining Sen-Merandagi mulkiga ketadi, o'z mulki deytoganimning boisi shundaki, u endi Valentinaniki bo'lib qoldi. Agar siz rozi bo'lsangiz, bir haftadan so'ng imijimida nikoh o'qitiladi, Sen-Meran xonim nevaramning to'yi o'sha erda bo'lsin, degan edi. To'y o'tgach, siz Parijga qaytishingiz mumkin, xotiningiz esa motam kunlarini o'gay onasi bilan o'tkazaveradi.

– Ixtiyoringiz, janob, – dedi Frans.

– Bo'pti, – dedi Vilfor, – yarim soat kutib turishingizni iltimos qilaman, Valentina mehmonxonaga tushadi, Deshanni chaqirtiraman, shu zahotiyuq nikoh shartnomasini o'qib, imzo chekamiz, shu bugun oqshom de Vilfor xonim Valentinani o'sha qishlog'idagi saroyiga olib borib qo'yadi. Biz esa bir haftadan so'ng etib boramiz.

– Janoblaridan bitta iltimos bor, – dedi Frans.

– Qanaqa iltimos?

– Shartnomaga qo'l qo'yish paytida Alber de Morser, Raul de Shato-Reno hozir bo'lishlarini istardim, ular mening shohidlarim, buni siz bilasiz.

– Yarim soat ichida ularga xabar qilish mumkin. O'zingiz borasizmi yoki birovni yuboraylikmi?

– O'zim borganim durust.

– Bo'pti, yarim soatdan so'ng sizlarni kutib olaman, ungacha Valentina ham tayyor bo'lib turadi.

Frans Vilfor bilan xayrlashib chiqib ketdi.

Tashqari eshik ochilib-yopilishi hamono Vilfor xizmatkorni Valentina huzuriga yuborib, yarim soatdan so'ng mehmonxonada bo'larkansiz, u erga notarius bilan baron d' Epinening guvohlari kelarkan, deb ogohlantirib qo'yishni buyurdi.

Bu kutilmagan xabardan uydagilar tipirchilab qolishdi, de Vilfor xonim bunga ishongisi kelmasdi, Valentinani yashin urgandek bo'ldi. U homiy axtarayotgandek atrofga alangladi, buvasi oldiga borayotgan edi, zinada Vilfor oldidan chiqib, qo'ltig'idan tutdi-da, mehmonxonaga yo'l oldi. Dahlizda Valentina Barruani uchratib, o'tli nigohini unga qadab o'tdi.

Bir daqiqa o'tar-o'tmas mehmonxonaga kichkintoy Eduarni etaklab de Vilfor xonim kirdi. Oiladagi qayg'ualamlar yosh ayolga juda yomon ta'sir etgani ko'rinib turardi. Rangida qon qolmagan, lattadek bo'shashib, shalpayib qolgandi.

Xonim kursiga cho'kib Eduarni tizzasiga olib, bag'riga bosib-bosib qo'yardi.

Ko'p o'tmay tashqaridan ikki izvosh hovliga kirgani eshitildi, birida notarius, ikkinchisida esa Frans bilan o'rtoqlari kelgan edi.

Birpasda hamma to'plandi.

Valentinaning rangi bo'zday oqarib ketgan edi.

Frans zo'r hayajon-la to'lqinlanib turardi.

Shato-Reno va Alber «o'zi nima gap» degandek bir-birlariga qarab-qarab qo'yishardi. Hozirgi marosim yigitlarga yaqindagina tugagan marosimdan qayg'uliroq tuyulardi.

Vilfor xonim o'zini panaroqqa olib o'tirdi, hadeb o'g'liga egilaverganidan dilida nima kechayotganini yuzidan bilib bo'lmasdi.

Vilfor ilgarigidek beparvo, sovuqqon edi.

Notarius esa qonunga xizmat qiluvchilarga xos yo'sinda hujjatlarni stol ustiga terib qo'ydi-da, kursiga o'tirib, ko'zoynagini to'g'riladi va Fransga qarab:

– Janob Frans de Kenel baron d' Epine siz bo'lasizmi?  
– deb so'radi, garchi notarius baronni juda yaxshi tanisa ham.

– Ha, janob, men bo'laman, – javob qildi Frans.

Notarius ta'zim qildi.

– Janob de Vilfor nomidan ogohlantirib qo'yishim kerak, – dedi u, – sizning mademuazel de Vilforga uylanayotganingizni eshitib janob Nuarte nevarasiga nisbatan bo'lgan niyatlarini o'zgartirib, qizni barcha meroslardan mahrum etdi. Yana shuni ma'lum qilib qo'yay: vasiyatchi o'z boyligining faqat bir qismiga xo'jayinlik qilishga haqli edi, biroq hammasini meros sifatida qoldirib, vasiyatni shubhaga solib qo'ydi, endilikda vasiyatnoma bekor qili-

nadi.

– To‘g‘ri, – dedi de Vilfor, – ammo janob d‘Epeneni oldindan ogohlantirib qo‘yayki, men hayot ekanman, otamning vasiyatnomasi bekor qilinmaydi, chunki mening mansabim hech qanday g‘alvaga bosh qo‘shishimga yo‘l qo‘ymaydi.

– Janob, – dedi Frans, – bu masalaning mademuazel Valentina huzurida o‘rtaga tashlanishi meni juda ranjitdi. Men qaylig‘imning boyligi – mulki qanchaligi bilan hech qiziqqan emasman, uning boyligi qanchalik kamaymasin, baribir menikidan ko‘p. Menim xonadonim faqat izzat-hurmat yuzasidan janob de Vilfor bilan qarindoshchilik rishtalarini bog‘lashga ahd qilgan edi, men faqat baxtiyor bo‘lish uchun mademuazel bilan bir yostiqa bosh qo‘yyapman.

Valentina minnatdorchilik bildirib, boshini xiyol qimir-latib qo‘ydi, biroq yuzidan ikki tomchi yosh marvarid kabi dumalab ketdi.

– Janob, – dedi Vilfor bo‘lajak kuyoviga murojaat qilib, – umid qilgan mablag‘laringizning ozgina qismidan mahrum bo‘lganingizni hisobga olmaganda, kutilmagan bu yangi vasiyatnomada sizning sha‘ningizga dog‘ tushiradigan hech narsa yo‘q, bu janob Nuartening esi pastligining oqibati, xolos. Otam mademuazel de Vilforning sizga tegishidan norozi emas, umuman uning turmushga chiqib ketishidan norozi, Valentina boshqa birovga tegib ketsa ham chol xuddi shunaqa xafa bo‘lardi. Janob, o‘zingizga ma‘lumki, odam qariganda xudbin bo‘lib qoladi, mademuazel de Vilfor ko‘pincha janob Nuarte oldida bo‘lardi, u baronessa d‘Epine bo‘lgach, bunday qilolmaydi. Otamning achinarli bir holatda yotishi u bilan jiddiy masalalar haqida gaplashishga imkon bermaydi, uning es-hushi joyida emas, gapga tushunmaydi. Shu daqiqada u nevarasining erga tegayotgani, ehtimol, esidadir, biroq bo‘lajak nevarasining nomini allaqachon unutib yuborgan, bunga imonim komil.

Vilfor so‘zini tugatib, Frans unga ta‘zim bilan endigina

javob berib turgan edi, mehmonxona eshigi ochilib, ostonada Barrua paydo bo'ldi.

– Janoblar, – dedi u, xizmatkorlarning shunday tantanali onlarda o'z xo'jayinlariga murojaat qilgandagi favqulodda qat'iy ohangda, – janob Nuarte de Vilfor janob Frans Kenel baron d' Epine bilan hozirning o'zidayoq gaplashmoqchilar.

Notarius singari Barrua ham anglashilmovchilik yuz bermasin, deb kuyovni to'la unvoni bilan tilga oldi. Vilfor cho'chib tushdi, de Vilfor xonim o'g'lini tizzasidan tushirdi, Valentina haykalday qotib qoldi.

Alber bilan Shato-Reno hang-mang bo'lib qolishdi.

Notarius Vilforqa qaradi.

– Bo'lmagan gap, – dedi qirollik prokurori, – janob d' Epine hozir mehmonxonadan chiqib ketolmaydi.

– Xo'jayinim janob Nuarte hozirning o'zida janob Frans d' Epine bilan nihoyatda muhim bir masala ustida gaplashib olmoqchi, – dedi yana qat'iy e'tiroz bildirib Barrua.

– Demak, Nuarte buvam tilga kiribdi-da, – so'radi shaddodlik bilan Eduar.

Hammaning boshiga og'ir tashvish tushgan ushbu daqiqada bolaning bu kulguli qilig'ini ko'rib, hatto de Vilfor xonim ham kulmadi.

– Janob Nuartega, talabingizni bajarish mumkin emas, deb ayting, – dedi Vilfor.

– U holda, janob Nuarte o'zini mehmonxonaga olib borishlarini buyuradilar, – dedi e'tiroz bildirib Barrua.

Vilfor xonim iljaymoqchi bo'ldi.

Valentina, go'yo «Xudoyimga ming qatla shukr», deyotgandek, ko'zlarini shiftga qadadi.

– Valentina, borib biling-chi, buvangiz yana nima demoqchi ekan, – dedi Vilfor.

Valentina yugurib ketdi, biroq Vilforning xayoliga boshqa fikr keldi shekilli:

– To'xtang, – dedi, – men ham siz bilan birga boraman.

– UZR, janob, – dedi Frans, – Nuarte janoblari meni

chaqirtirayotgan ekanlar, albatta men borishim kerak, yaxshi bo'ldi: unga hurmatimni shaxsan izhor etish sharafiga muyassar bo'laman, hozirgacha bu sharafli burchimni bajo keltirolmay yurgandim.

– Be, qo'ysangiz-chi bu gapingizni, – dedi tashvishlanib Vilfor, – sizning borishingizning hojati yo'q.

– Yana bir karra uzr, janob, – dedi Frans, qarorim qat'iy, degandek, – janob Nuartening menga nisbatan boshqacha fikrda bo'lishiga hech qanday asos yo'qligini, u tamoman nohaq ekanligini isbotlab berishim uchun bu qulay imkoniyatdan foydalanib qolishim kerak, men umrimning oxirigacha unga sodiqligimni isbotlab, uni bu fikridan qaytarishim lozim.

Frans shunday dedi-da, Vilforning gapiga quloq solmay, yo'lakdan quvonib ketib borayotgan Valentinaga ergashdi.

Vilfor ham ular ketidan cholning bo'lmasiga yo'l oldi.

Shato-Reno va Morser bir-birlariga yana taajjub-la qarab olishdi.

## **XVIII. PROTOKOL**

Nuarte qop-qora libosga burkanib, kursida muntazir o'tirardi.

Chaqirilgan uch kishi kirganda chol eshikka qaradi, xizmatkor shu zahoti eshikni qulflab qo'ydi.

– Shuni unutmangki, – asta dedi Vilfor sevinchidan terisiga sig'mayotgan qizi Valentinaga, – mabodo buvangiz turmushga chiqishingizga xalaqit beradigan biror gap aytmoqchi bo'lsa, uning gapiga quloq solishingizni man qilaman.

Valentina qizarib ketdi, ammo hech nima demadi.

Vilfor Nuarte yoniga bordi.

– Mana, janob Frans d' Epine, – dedi Vilfor otasiga, – chaqirtirgan ekansiz, huzuringizga tashrif buyurdi. Biz bu uchrashuvni ko'pdan orziqib kutardik, agar bu uchrashuv Valentinaning erga tegishiga qarshilik ko'rsatishingiz

asossiz ekanligini sizga isbotlab bersa, men o'zimni juda baxtiyor hisoblar edim.

Nuarte bunga javoban o'g'liga g'azab to'la ko'zlarini o'qdek qadadi, Vilforning yuragi orqasiga tortib ketdi.

Chol imo bilan nevarasini oldiga chaqirib oldi. Valentina, buvasi gapirishganda hamisha qo'llanadigan usulni darhol ishga soldida, u «kalit» deyotganini angladi.

Valentina yana buvasining qarashlarini kuzatib turdi, cholning ko'zlari derazalar o'rtasida turgan javonning yashigiga tikilib qoldi, Valentina yashikni ochdi, kalit o'sha erda edi.

Valentina kalitni oldi, chol «topding, xuddi shu kalitni olgin deyotgan edim», dedi imo-ishora bilan. So'ng chol anchadan beri tashlandiq bo'lib qolgan va ko'pincha keraksiz qog'ozlar solib qo'yiladigan eski stolga qaradi.

– Yozuv stolini ochishim kerakmi? – so'radi Valentina.

– Ha, – dedi chol imo bilan.

– Yashiklarni-ya?

– Ha.

– Yonidagisinimi?

– Yo'q.

– O'rtadaginimi?

– Ha.

Valentina o'rtadagi yashikni ochdi-da, bir bog'lam qog'oz oldi.

– Shular kerakmi sizga? – dedi qiz.

– Yo'q.

Valentina birma-bir hamma qog'ozlarni oldi, yashikda hech nima qolmadi,

– Yashikda hech narsa qolmadi-ku, – dedi Valentina.

Nuarte lug'atga qaradi.

– Tushundim, buvajon, tushundim, – dedi Valentina va alfavitdagi harflarni boshidan aytib chiqdi. «S» harfida Nuarte uni to'xtatdi.

Valentina lug'atni varaqlay boshladi va «sir» so'zida to'xtadi.

– Bu sirli yashikmi? – so'radi u.



– Ha.

– Bu sirni kim biladi?

Nuarte xizmatkor chiqib ketgan eshikka qaradi.

– Barrua biladimi? – dedi Valentina.

– Ha, – dedi Nuarte.

– Uni chaqirish kerakmi?

– Ha.

Valentina eshik oldiga borib, Barruani chaqirdi. Vilforning toqati toq boʻlib, ter bosdi, Frans esa turgan joyida hang-mang boʻlib qotib qoldi.

Kexsa xizmatkor kirdi.

– Barrua, – dedi Valentina, – buvam menga mana bu javondan kalitni olib, stolning mana bu tortmasini ochishni buyurdi. Yashik sirli ekan, siz buni bilarsiz, yashikning oʻsha sirli joyini oching.

Barrua cholga qaradi.

– Ha, shunday qiling, – dedi chol koʻzlarini Barruaga maʼnodor tikib.

Barrua talabni itoatkorona bajo keltirdi, yashikning sirli qutisi ochildi, unda qora lenta bilan bogʻlab qoʻyilgan bir dasta qogʻoz bor edi.

– Janoblari mana shu qogʻozni soʻrayaptilarmi? – dedi Barrua.

– Ha, – dedi Nuarte imo bilan.

– Bu qogʻozlarni kimga berishim kerak? Janob Vilfor-gami!

– Yoʻq.

– Mademuazel Valentinagami?

– Yoʻq.

– Janob Frans dʻ Epinegami?

– Ha.

Taajjubda qolgan Frans yaqinroq kelib soʻradi:

– Mengami?

– Ha.

Frans qogʻozlarni Barruadan oldi-da, jildiga qarab quyidagi yozuvlarni oʻqidi:

«Men oʻlgach, ushbu qogʻoz dastasi doʻstim general

Dyuranga berilsin, u ham vaqti kelib dunyodan o'tayotib, o'z o'g'liga, bu qog'ozlarni juda muhim hujjatlar qatorida saqlab qo'y, deb topshirib ketmog'i lozim».

– Janob, men bu paketni nima qilay? – so'radi Frans.

– Aftidan, siz uni ochmay, shundayicha saqlab qo'yomg'ingiz kerak, – dedi qirollik prokurori.

– Yo'q, yo'q, – deb imo qildi shoshib Nuartening ko'zlari.

– Ehtimol, bu xatlarni janob d' Epinening o'qib berishini istarsiz? – so'radi Valentina.

– Ha, – dedi cholning ko'zlari.

– Ko'rdingizmi, baron, buvam sizdan bu xatlarni o'qishingizni iltimos qilyapti, – dedi Valentina.

– Unday bo'lsa, o'tiraylik, – dedi o'kinch bilan Vilfor, – bu ancha vaqtни oladi.

– O'tiringlar, – dedi ko'zi bilan imo qilib chol. Vilfor o'tirdi, Valentina buvasining kursisiga suyanib oldi, Frans ular qarshisida tik turaverdi. Sirli paket uning qo'lida edi.

– O'qing, – dedi cholning ko'zlari.

Frans bog'lamni echdi, xonaga chuqur sukunat cho'kdi, hammaning qulog'i Fransda.

*«Bonapartchilar klubining bir ming sakkiz yuz o'n beshinchi yilning beshinchi fevralida Sen-Jak ko'chasida bo'lib o'tgan majlisi protokolidan ko'chirma»,*

Frans to'xtab qoldi.

– Ming sakkiz yuz o'n beshinchi yilning beshinchi fevralida! Mening otam xuddi ana shu kuni o'ldirilgan edi!

Valentina bilan Vilfor churq etmay turishardi, cholning ko'zlari «davomini o'qing», derdi.

– Axir, mening otam o'sha klub majlisidan chiqiboq g'oyib bo'lgan edi-ku! – davom etdi Frans.

Cholning ko'zlari «o'qing», deb imo qildi yana.

Frans o'qishni davom ettirdi:

*«Biz, quyida imzo chekuvchilar – artilleriya polkovnigi Lui-Jak Boreper, brigada generali Eten Dyushampi, er-suv boshqarmasining direktori Klod Lesharpal shu narsani ma'lum qilamizki, bir ming sakkiz yuz o'n beshinchi yilning to'rtinchi fevralida Elba orolidan bir xat olinib,*

*unda bir ming sakkiz yuz to'rtinchi yildan bir ming sakkiz yuz o'n beshinchi yilgacha imperator xizmatida bo'lgan va Lyudovik o'n sakkiz tomonidan d' Epinega baron unvoni in'om qilinishiga qaramay, Napoleon sulolasiga sodiq general Flavien de Kenel bonapartchilar klubi a'zolarining e'tibori va ishonchiga loyiq deb topilgan edi.*

*Shu munosabat bilan general de Kenelga ertasi, ya'ni beshinchi fevralda bo'ladigan majlisga taklifnoma yuborildi. Xatda majlis bo'ladigan ko'cha, uy raqami ko'rsatilmagan edi, unga imzo ham qo'yilmagan edi, biroq mabodo general kelishga rozilik bersa, uning oldiga kechqurun soat to'qqizda maxsus kishilar yuboriladi, deyilgandi.*

*Odatda majlis kech soat to'qqizdan yarim kechagacha davom etardi.*

*Soat to'qqizda klub prezidenti general oldiga bordi. General yo'lga tayyor edi. Prezident, sizni faqat bir shart bilan klubga olib borish mumkin, dedi generalga, majlis qayerda o'tgani sizga umrbod noma'lum bo'lib qolishi kerak, shu sababdan ko'zingizni bog'lab qo'yishga ruxsat etsangiz va uni ochishga urinmayman, deb ont ichasiz, dedi.*

*General de Kenel bu shartni qabul qildi va olib bora-yotganlarida hech qayoqqa qaramayman, deb ont ichdi.*

*General o'z izvoshini chaqirtirib qo'ygan edi, biroq prezident unda borishi mumkin emasdi, chunki xo'jayinning ko'zi bog'langani bilan, izvoshchisining ko'zi ochiq, qaysi ko'chadan borayotganini u juda yaxshi bilib oladi.*

*«Bo'lmasa nima qilamiz?» – so'radi general.*

*«Men foytunda keldim», – dedi prezident.*

*«Menim izvoshchimga ishonmagan sirni o'z izvoshchingizga ishonasizmi?»*

*«Bizning izvoshchimiz – klub a'zosi, – dedi prezident, – bizni klubning sarkotibi olib boradi.»*

*«Unday bo'lsa, – dedi kulib general, – yana boshqa xavf tug'ildi, u bizni aravadan ag'darib ketishi mumkin.»*

*– Bu hazilingizni sizni majlisga zo'rlab olib kelganlari*

*yo'q, balki o'z ixtiyoringiz bilan kelib, ishtirok etyapsiz deb hisoblaymiz.*

*Ular foytunga o'tirishi bilan prezident ko'zlarini bog'lashga va'da berganini generalning esiga soldi, general rasmiyat yuzasidan qilinayotgan bu ishga aslo monelik ko'rsatmadi, buning uchun foytunda maxsus mato tayyorlab qo'yilgandi.*

*Yo'lda prezident general ko'ziga bog'langan latta tagidan qarashga urinayotganini sezdi-yu darhol uning ontini esiga solib qo'ydi.*

*«To'g'ri, aytyapsiz», – dedi general.*

*Foytun Sen-Jak ko'chasining xiyobonlaridan birida to'xtadi, general prezidentning qo'lga suyanib foytundan tushdi, uning unvonini general bilmas va klubning oddiy bir a'zosi bo'lsa kerak, deb o'ylardi. Ular xiyobondan o'tishdi-da, ikkinchi qavatga chiqib, majlis bo'layotgan xonaga kirishdi.*

*Majlis allaqachon boshlangan edi. Bu kecha yangi a'zo bilan tanishish marosimi bo'ladi, deb ogohlantirilgan edi. Generalni zalning o'rtasiga olib borgach, ko'zidagi lattani olib tashlashni taklif etishdi. General taklifni darrov bajo etdi va bu majlisga juda ko'p tanishlar to'planganini ko'rib hayron qoldi. Bunaqa tashkilot mavjudligidan u tamoman bexabar edi.*

*Undan dunyoqarashlari haqida so'rab-surishtirishdi, general esa, mening maslagim Elbadan kelgan xatdan ma'lum bo'lsa kerak, deb qo'ya qoldi...»*

*Frans o'qishni to'xtatdi.*

*– Otam royalist edi, – dedi u, – undan maslagini so'rab o'tirishning hojati yo'q edi, bu hammaga ayon.*

*– Otangiz bilan mening aloqam ham shundan boshlangan edi, azizim baron, – dedi Vilfor, – maslaging to'g'ri kelib qolgan kishi bilan inoqlashib ketish juda oson.*

*– Qani, davomini o'qing, – dedi cholning yonib turgan ko'zlari.*

*Frans o'qishni davom ettirdi:*

*«Shundan so'ng prezident so'z olib, generaldan fikrini*

*mufasssalroq bayon qilishni talab qildi, bunga javoban general mendan qanday talabingiz borligini bilmochiman, dedi.*

*Shunda generalga Elba orolidan kelgan xatni o'qib berishdi, xatda generalni klubga yordam beradigan zotlardan biri sifatida tavsiya etilgan edi. Xatning ko'pchilik qismida Elba orolidan marsellik kemachi Morrelga qarashli «Faraon» kemasida imperatorga sidqidildan sodiq kapitan orqali yanada mufasssalroq xat olib borilajagi aytilgan edi.*

*Shu xat o'qilayotganda maslakdosh deb hisoblangan general, aksincha, ochiqdan-ochiq nafratlanib o'tirdi.*

*Xatni o'qib bo'lganlaridan keyin ham u g'iq etmay qovog'idan qor yog'ilib turaverdi.*

*«Xo'sh, general, bu xatga nima deysiz?» – so'radi prezident.*

*«Yaqindagina, – deb javob qildi general, – qirol Lyudovik XVIII ga qasamyod qilgan edik, sobiq imperatorning yonini olib shunchalik tez uni buzsak odobdan bo'lmas».*

*Bu ro'yirost aytilgan javobdan generalning qanday maslakda ekanligi ravshan bo'lib qolgan edi.*

*«General, – dedi prezident, – biz uchun qirol Lyudovik XVIII ham, sobiq imperator ham yo'q odam. Biz faqat bir ulug' zotga – zo'rlik va sotqinlik tufayli bundan o'n oy ilgari o'z davlati Fransiyadan haydalgan imperator-qirolga sajda qilamiz, o'shani tan olamiz».*

*«Janoblar, – dedi general, – qirol Lyudovik XVIII ni siz ehtimol tan olmassiz, ammo kechiring, men uni tan olaman, unga bo'yin egaman, chunki menga baron unvonini bergan ham, feldmarshal etib tayinlagan ham Lyudovik XVIII bo'ladi, men buni aslo unutmayman, shu ikki unvon tufayli uning Fransiyaga baxtiyorlik bilan qaytib kelishiga tarafdorman».*

*«Janob, – dedi jiddiy ohangda prezident o'rnidan turib, – o'ylab gapiring, so'zingizdan ko'rinib turibdiki, Elba orolidagilar siz haqingizda xato qilishgan va bizni ham chalg'itishgan. Biz sizga ishonib bu gaplarni aytgandik,*

*afsus, xato qilibmiz, unvon va yuksak mansab sizni biz ag'darib tashlamoqchi bo'lgan hukumatning jonkuyar tarafdori qilib qo'yibdi. Biz sizni yordam berishga majbur etmaymiz, biz hech kimni safimizga o'z vijdoni va irodasiga qarshi zo'rlik bilan tortmaymiz, ammo bu sizning niyatlaringizga zid bo'lgan taqdirda ham, biz sizni olijanob inson o'tashi kerak bo'lgan ishni qilishga majbur qilamiz.*

*«Bu fitnangizni bila turib, uni fosh etmasligimni olijanoblik deb bilasizmi? Men buni til biriktirish deb hisoblayman. Mana, ko'rdingizmi, men ko'nglimdagi gapni sizga qaraganda ochiqroq aytyapman...»*

– Sho'rlik otam, – dedi Frans o'qishni to'xtatib, – seni nechun qatl etganlari mana endi ma'lum bo'ldi menga.

Valentina beixtiyor Fransga qaradi, yigitcha farzandlik mehri-la tovlanardi.

Vilfor xonaning u boshidan bu boshiga borib kelardi.

Nuarte hozir bo'lganlarning chehrasida yuz berayotgan o'zgarishlarni kuzatar, o'zi esa mag'rur qiyofada edi.

Frans o'qishni davom ettirdi:

*«Janob, – dedi prezident, – majlisga sizni zo'rlab emas, taklif qilib olib keldilar, ko'zingizni bog'lashni taklif etganlarida, siz xo'p deb, ko'zingizni bog'latdingiz, mana shu ikki taklifga rozilik berganingizda, biz Lyudovik XVIII ning taxtini mustahkamlamoqchi emasligimizni yaxshi bilardingiz. Polisiyadan yashirin ish tutayotqanimizning boisi ham mana shunda! O'zgalarning sirini bilib olishga imkon beradigan niqob kiyib, so'ngra bu niqobni olib tashlash, sizga ishongan kishilarni halok etish, bilsangiz, anoyilik-ku. Yo'q, yo'q, siz avvalo, bizga ochig'ini ayting, kimga tarafdorsiz: hozir hukmronlik qilayotgan tasodifiy qirolgami yoki oliy hazrat imperatorgami?»*

*«Men royalistman, – javob qildi general, – Lyudovik XVIII ga qasamyod qilganman, shu qasamimga oxirigacha sodiq qolaman».*

*Bu so'zlar hammadam norozilik tug'dirdi, ko'pchilik klub a'zolarining janob d' Epineni jahl ustida aytgan so'zlari-*

dan qaytishga majbur etish niyatida ekani sezilib turardi.

*Prezident yana o'rnidan turdi, hamma jim bo'ldi.*

*«Janob, – dedi u generalga, – siz bilan biz to'qnashib turgan hozirgi vaziyatning oqibati nimalarga olib borishini siz singari jiddiy va fahm-farosatli zotning anglamasligi mumkin emas. Ro'yirot aytgan gaplaringiz bizni oldingizga quyidagi shartlarni qo'yishga majbur etadi: bu erda eshitgan gaplarni hech kimga, hech qachon aytmayman, deb vijdoningiz haqqi, qasam ichasiz».*

*General qilichining dastasini mahkam tutib, xitob qildi:*

*«Vijdon haqida gap borar ekan, avvalo uni oyoq osti qilmang va gardanimga hech nimani zo'rma-zo'raki qo'yaman, deb o'ylamang!»*

*«E, janob, – dedi prezident bosiq, lekin generalnikidan ham g'azabli ohangda, – iltimos, qilichingizni qo'ysangiz».*

*General atrofda bezovga bo'lib qolganlarga nazar tashladi. Lekin u taslim bo'lishni istamas, aksincha, butun kuch-g'ayratini, irodasini to'plab qarshilik ko'rsatmoqchi bo'lardi.*

*«Men bunaqa qasam ichmayman», – dedi general.*

*«Unday bo'lsa, – dedi vazminlik bilan prezident, – o'lishingizga to'g'ri keladi».*

*Janob d' Epinening rangi o'chib ketdi, u atrofda gilar-ga yana bir nazar tashlab chiqdi, klub a'zolaridan ba'zilar shivirlashib, kiyimlari tagidagi qurollarini axtara boshlashdi.*

*«General, – dedi prezident, – xotirjam bo'ling, siz vijdonli kishilar orasidasiz, ular eng so'nggi chorani qo'llashdan oldin, sizni ishontirish va ko'ndirish uchun barcha vositalarni qo'llab ko'rishadi. Ikkinchi tomondan, o'zingiz aytganingizdek, siz ayni vaqtda fitnachilar orasidasiz, butun sir-asrorimiz sizning qo'lingizda, uni bizga qaytarib berishingiz shart».*

*Shu so'zlardan so'ng xonaga og'ir sukunat cho'kdi, general indamadi.*

*«Eshiklarni qulflang», – dedi prezident.*

*Shu soʻzlardan soʻng ham haligi sukunat davom etdi. Shunda general oldinga qadam tashladi-da, oʻziga zoʻr berib dedi:*

*«Oʻgʻlim bor mening, kallakesarlar orasida boʻlsam-da, uning taqdirini oʻylashga majburman».*

*«General, – dedi vazminlik bilan majlis raisi, – bir kishi huda-behudaga haqorat qilib, jazolanmasligi mumkin. Bu oʻsha odamning engiltakligi alomati. U bekorga shunday qiladi. General, bizni haqorat qilmang, maslahatimga quloq solib, qasam iching».*

*Majlis raisining salobati bosib, nafasi ichiga tushib ketgan general bir zum sarosimalanib turdi-da, soʻng prezident stoli yoniga borib soʻradi:*

*«Qasamning matni qanday boʻladi?»*

*«Mana bunday:*

*«Bir ming sakkiz yuz oʻn beshinchi yilning beshinchi fevralida oqshom soat toʻqqiz bilan oʻnlar oʻrtasida koʻrgan va eshitganlarimni hech qachon hech kimga aytmayman, deb qasam ichaman, mabodo shu qasamimni buzsam oʻlimga roziman».*

*Generalning butun vujudini titroq bosdi, bir necha soniya churq etolmay turib qoldi, nafratini zoʻrgʻa bosdida, talab etilgan qasamni zoʻrgʻa eshitaladigan qilib oʻqidi, klub aʼzolaridan baʼzilar qasamning soʻzlarini dona-dona qilib qattiqroq oʻqishni talab qilishdi, general talabni bajardi.*

*«Endi men boray, – dedi general, – menga javobmi?»*

*Prezident oʻrnidan turdi, majlis qatnashchilaridan uni kuzatib qoʻyish kerak boʻlgan uch kishini ajratdi, soʻng generalning koʻzini bogʻlatdi-da, u bilan birga izvoshga oʻtirdi. Kuzatuvchi uch kishidan biri boya izvoshni haydab kelgan kishi edi.*

*Klubning boshqa aʼzolari gap-soʻzsiz tarqalishdi.*

*«Sizni qayerga olib borib qoʻyishlarini istaysiz?» – soʻradi prezident.*

*«Xohlagan joyingizga, sizdan qutulsam boʻlgani menga», – dedi javoban janob dʼ Epine.*



*«Hoy, janob, – dedi prezident, – ehtiyot bo'ling! Majlis-dan tashqariga chiqdingiz, endilikda uch-to'rt kishi bilan birga boryapsiz, hamrohlaringizni haqorat qilmang, bularni haqoratga tegishli javob berishga majbur etmang».*

*D' Epine bu gapga ko'nish o'rniga, dag'allik bilan dedi:*

*«O'z klubingizda qanchalik botir bo'lsangiz, izvoshingizda ham shunchalik botirsiz-da, axir to'rt kishi bir kishini albatta engadi-da».*

*Prezident izvoshni to'xtating, deb buyurdi. Shu payt ular Orm daryosi qirg'og'iga olib tushadigan zina oldiga kelishgan edi.*

*«Nega bu erda to'xtadingiz?» – so'radi janob d' Epine.*

*«Chunki siz odamni haqorat qildingiz, bu odam endi sizdan o'chini olmaguncha bir qadam ham yurmaydi».*

*«Bu ham o'ldirishning bir usuli», – dedi general elkasini qisib.*

*«Og'zingizga qarab gapiring, janob, – dedi prezident, – yo'qsa o'taketgan qo'rqoq odam degan nomga qolasiz. Siz bir o'zingiz, bir kishi siz bilan olishadi, shamshiringiz yoningizda, mening shamshirim bor, sekundantingiz yo'q, mana bu janoblardan biri sizga sekundantlik qiladi. Istasangiz, endi ko'zingizdagi lattani echib tashlashingiz mumkin».*

*General ko'zidagi lattani darhol olib tashladi.*

*«Men bilan pachakilashib yurgan zot kim ekanligini mana endi bildim», – dedi u.*

*Izvoshning eshiklari ochildi, to'rtovlari pastga tushishdi...»*

Frans o'qishni to'xtatdi, peshanasidagi sovuq terni artdi, otasining o'limi to'g'risida shu paytgacha ma'lum bo'lmagan tafsilotlarni bo'zarib, titrab o'qiyotgan o'g'ilning ahvoli nihoyatda ayanchli edi.

Valentina xuddi Xudoga sig'inayotgandek qo'llarini ko'ksiga bosib turardi.

Nuarte g'urur va nafratga to'la ko'zlarini Vilfordan uzmas edi.

Frans o'qishni davom ettirdi:

*«Bu voqea, boya aytganimizdek, beshinchi fevralda yuz bergan edi, qishning so'nggi kunlari, besh-olti daraja sovuq, zina yaxlagan, general semiz va novcha edi, prezident zinadan daryo qirg'og'iga tushdi, general esa zinaning panjarali tomonidan yurdi.*

*Ikkala sekundant ular ketidan ergashdi.*

*3im-ziyo tun. 3ina bilan daryo orasi qor va shudringdan bilchillab ketgan. Suvi bo'tana daryoda muzlar oqib yotardi.*

*Sekundantlardan biri yuk kemasidan fonus olib keldida, yoqib, qurollarni tekshirdi.*

*Prezidentning quroli hassaga joylab yuriladigan oddiy shamshir bo'lib, raqibinikidan ancha kalta edi.*

*General d' Epine shamshirlarini chek tashlab taqsimlashni taklif etdi, shunda prezident, jangga men chaqirdim, har kim o'z quroli bilan jang qiladi, deb o'ylagan dim, dedi.*

*Sekundantlar bunga rozi bo'lmagandan keyin, prezident ko'nishga majbur bo'ldi.*

*Fonusni erga qo'yishdi, raqiblar chiroqning ikki tomoniga o'tib olishdi. Jang boshlandi.*

*Fonus yog'dusida shamshirlar chaqmoq singari yonardi, zim-ziyo tunda odamlar arang ko'rinardi.*

*Armiyada general eng mohir qilichbozlardan edi. Biroq u juda qattiq hujumga duch kelib, chekinishga majbur bo'ldi va yiqildi.*

*Sekundantlar uni o'ldiga chiqardilar, biroq raqibi qilichi tegmaganini sezib, o'rnidan turishga yordam berish uchun unga qo'lini uzatdi. Bu hol generalni dilxush qilish u yoqda tursin, aksincha, yana g'azablantirdi va u quturib hujumga o'tdi. Raqibi ham bo'sh kelmay bir qadam ham chekinmadi, hamma hujumlarni daf etdi. Generalning o'zi esa uch marta chekinib, uch marta hujum qilishga urinib ko'rdi. Uchinchisida u yana yiqildi.*

*Hamma, u yana toyib ketdi, deb o'ylagan edi, biroq hadeganda turavermagach, sekundantlar oldiga borib, o'rnidan turg'izib qo'ymoqchi bo'lishdi, ammo uni*

quchoqlab ko'tarib olmoqchi bo'lgan sekundantning qo'li iliq va ho'l narsaga tegdi.

*Bu – qon edi.*

*General hushiga keldi-da, ingrab dedi:*

*«Ha, bundan chiqdi, meni o'ldirgani birorta polk qilich-bozlar muallimini yollab yuborishgan ekan-da».*

*Prezident churq etmay, fonus tutib turgan sekundantning oldiga bordi-da, engini shimarib, ikki eridan teshib o'tgan yarani ko'rsatdi. So'ngra u kamzulini va nimchasi-ni echdi-da, biqinini ko'rsatdi, prezident shu eridan ham yarador bo'lgan edi. Biroq shunda ham prezident g'iq etmadi.*

*General d' Epine jon talvasasiga tushdi-da, besh daqiqadan so'ng dunyodan o'tdi».*

*So'nggi so'zlarni Frans tovushi bo'g'ilib zo'rg'a eshitiladigan qilib o'qidi, keyin u jimib qoldi va xuddi tutunni tarqatmoqchi bo'lganday, qo'li bilan ko'zlarini elpib qo'ydi.*

*Bir daqiqa jimlikdan so'ng o'qishni davom ettirdi:*

*«Prezident shamshirini hassasi ichiga soldi-da, zinadan yuqoriga ko'tarildi, yo'lida qon qor ustiga iz solib borardi. Zinaning oxirgi pog'onasiga etar-etmas pastdan suvning shalop etgani eshitildi; sekundantlar generalning murdasini daryoga uloqtirishgan edi.*

*Shunday qilib, general aldanib, tuzoqqa ilintirilib emas (shunday o'ylashlari ham mumkin), yakkama-yakka jangda halok bo'ldi.*

*Mana shu dahshatli voqeaga qatnashganlardan biror-tasi vaqti kelib odam o'ldirishda yoki yakkama-yakka olishuv shartlarini buzishda ayblanishi mumkinligidan qo'rqib, haqiqiy holni shu protokolga aniq qilib yozdik va imzo chekib tasdiqladik.*

*Imzo chekdi: **Boreper, Dyushampi, Lesharpal».***

Farzand uchun g'oyat og'ir bu xatni Frans o'qib tugatganda, hayajondan rangi o'chgan Valentina ko'z yoshlarini artayotgan, burchakka tiqilib titrab-qaqshab turgan

Vilfor esa bosib kelayotgan bo'ronni qaytarishga urinib, yalinib-yolvorayotgan ko'zlarini berahm cholga tikib turgandi.

– Janob, – dedi d' Epine Nuartega murojaat qilib, – bu dahshatli voqeaning barcha tafsilotlari sizga ayon ekan, buni hurmatli zotlarning imzosi bilan tasdiqlab ham qo'ygan ekansiz, endi mening sizdan bitta iltimosim bor: prezidentning nomini aytib bersangiz, axir otamni kim o'ldirganini men bilishim kerak.

O'zini tamom yo'qotib, dovdirab qolgan Vilfor timirskilanib eshik zulfini axtara boshladi. Cholning qanday javob berishini darhol fahmlagan Valentina (buvasining bilagidagi shamshir tekkan yaraning o'rnini u bir necha bor ko'rgandi) orqasiga bir qadam tashladi.

– Mademuazel, – dedi Frans qaylig'iga murojaat qilib, – Xudo haqqi, yordam bering, meni ikki yoshimda sag'ir qoldirgan odamning kimligini bilay!

Valentina sas-sado bermadi, qimir etmay turaverdi.

– Menga qarang, – dedi Vilfor, – menga ishonavering, keling, bu gaplarni bas qilaylik, nomlari ham jo'rttaga maxfiy tutilgan. Prezident kimligini otamning o'zi ham bilmaydi, bilsa-da, sizga aytib berolmaydi, chunki lug'at-da shaxslar nomi ko'rsatilmagan.

– Qanchalar badbaxt ekanman! – dedi xitob qilib Frans, – xatni o'qiyotganda menga dalda berib turgan va uni o'qib tugatguncha kuch bag'ishlagan birgina umidim – otamni o'ldirgan kishi kimligini bilib olish edi!.. Janob, janob! – dedi hayajon-la Frans yana Nuartega murojaat qilib, – Xudo haqqi, qo'lingizdan kelganicha yordam bering menga... iltimos qilaman, aytib bering...

– Bo'пти, – javob qildi Nuartening ko'zlari.

– Mademuazel! – dedi qichqirib Frans, – buvangiz o'sha odamning nomini aytib beraman deyapti... siz cholning imo-ishoralarini tushunasiz... yordam qiling menga...

Nuarte lug'atga qaradi.

Frans lug'atni titrab turgan qo'llariga oldi-da, alfavitning barcha harflarini birma-bir aytib «ya» («ya» – o'zbek-

cha «men», demoqchi) harfida to'xtadi. Bu harf o'qilganda chol «shu» deb imo qildi.

– Ya? – takrorladi Frans.

Valentina ko'zlarini bekitdi. Frans yana o'sha oxirgi harfni aytdi.

– Ha, o'sha, – deb ko'rsatdi chol.

– Siz? – dedi baland ovozla Frans, sochlari tikka bo'lib.

– Sizmi, janob Nuarte? Otamni siz o'ldirganmidingiz? Siz-a?

– Ha, men, – javob qildi Nuarte baronning ko'zlariga faxrla tikilib.

Frans holdan toyib kursiga shilq etib yiqildi.

Vilfor eshikni ochdi-da, cholning xonasidan yugurib chiqib ketdi, chunki u shu paytda falajning hayot shami lip-lip qilib turgan gavdasini ezib tashlashni juda-juda xohlar edi.

## **XIX. O'G'IL KAVALKANTINING OMADI**

Shu orada Kavalkanti ota o'z vazifasiga qaytish uchun Parijdan jo'nadi. U Avstriya imperatori oliy hazratlari qo'shiniga emas, balki, Lukka mineral suvlaridagi qimorbozlar kulbasiga qaytdi. U shu erning ashaddiy muxlislaridan edi.

O'z-o'zidan ravshanki, Kavalkanti ota sayyohlik va otalik rolini qotirib bajo keltirgani uchun hadya qilingan mukofotning bir chaqasini ham qoldirmay olib ketdi.

U jo'nab ketganidan so'ng Andrea chindan ham markiz Bartolomeo va markiza Oliva Korsinariyaning o'g'li ekanligini tasdiqlaydigan hujjatlarning hammasini cho'ntakka soldi.

Shunday qilib, u Parij jamoatchiligining nufuzli zotlari qatoriga mahkam joylashib oldi, bu jamoatchilik esa xorijdan kelganlarni hech so'rab-surishtirmay, quchoq ochib kutib olaverardi.

Parijda yosh yigitdan nimani ham talab qilishardi deysiz? U bir oz gapdon bo'lsa, durustroq kiyinsa, dadil-

lik bilan qimor o'ynasa, oltinni naqd to'lab qo'ysa, bas.

Buning ustiga xorijiy kishilarga parijliklarga qaraganda talabchanlik kamroq bo'ladi.

Ikki hafta o'tar-o'tmas Andrea durustgina mavqega ega bo'lib oldi. Uni endi graf deb atashadigan bo'ldi, yillik daromadi ellik ming livr deb hisoblashadigan, otasi Saravessa tosh konlarida behisob boylikka ega emish deydi-gan bo'lishdi.

Allaqanday bir olim oldida bu haqda gap ochishgan ekan, u «ha, o'sha tosh konini ko'rganman», debdi, bu hol hali to'la asoslanmagan boyagi fikrlarni yana mustahkamlayapti. Endilikda bunga ishonch ancha oshdi.

O'quvchilarimizni tanishtirgan Parij jamoatchiligi davrasida gap shunday edi, o'sha kuni kechqurun Monte-Kristo janob Danglar xonadoniga tashrif buyurdi. Danglarning o'zi uyida yo'q edi, mehmonlarni baronessaning o'zi qabul qilayotgandi. Grafdan, kelganingizni baronessaga xabar qilsak maylimi, deb so'rashdi, u mayli dedi.

Oteyldagi ziyofat va uning ketidan yuz bergan voqealardan so'ng Danglar xonim Monte-Kristoning nomini eshitganda cho'chib tushadigan bo'lib qolgan edi. Bu ohangdor nom eshutilishi bilanoq grafning o'zi paydo bo'lmasa, dilgirlik yana zo'rayardi. Graf kirib kelishi bilan aksincha, ahvol o'zgarar, uning ochiq chehrasi, chaqnoq ko'zlari, Danglar xonimga nisbatan ortiqcha xushmuomalada bo'lishi xonimdagi tashvishdan asar ham qoldirmasdi. Tashqi ko'rinishda shu qadar dilbar kishi menga yomon ko'z bilan qarashi aslo mumkin emas, deb faraz qilardi baronessa, har qanday buzuq fikrdagi kimsa ham biror sabab bo'lmasa, birovga yomonlik qilmaydi, albatta. Bemaqsad qilingan yomonlik kishida nafrat qo'zg'atadi, xolos.

Monte-Kristo kitobxon bir bor tanishgan ayollar bo'lmasiga kirdi, bu paytda baronessa bezovta bo'lib qizi bergan suratlarni ko'zdan kechirib o'tirgan edi, qizi esa bu suratlarni o'g'il Kavalkanti bilan bir sidra ko'rib chiqqan-

di, Monte-Kristoning paydo bo'lishi xonadagi muhitga odatdagicha ta'sir etdi. Grafning nomini eshitganda yuragi o'ynab ketadigan baronessa uni tabassum-la kutib oldi.

Graf xonani bir zumda ko'zdan kechirib chiqdi. Divanda yonboshlab o'tirgan baronessa yonida Ejeni, uning qarshisida Kavalkanti tik turardi.

Kavalkanti, Gyote qahramonlariga o'xshab, qora libosga o'ranib, oq ipak paypoq, amirkon botinka kiyib olgan, oq qotma qo'llari malla sochlarini silab turardi. U Monte-Kristoning gapiga kirmay, jimjilog'iga brilliant ko'zli uzuklar taqib olgan edi. Uning hirs-la yonib turgan ko'zlari mademuazel Danglarda bo'lib, ahyon-ahyonda uh tortib qo'yardi.

Mademuazel Danglar bosiq, kibr-havo paydo qilgan, barno jononlardan edi. U Andreaning qarashlari va uh urayotganligini sezib turardi, ammo yigitning bu nolayu fig'onlari qizning tosh bag'riga urilib, chil-chil bo'layotgandek tuyulardi.

Ejeni grafga sovuqqina salom berib qo'ya qoldi va qizib ketgan suhbatdan foydalanib, mashg'ulot o'tkazgani maxsus ajratilgan xonaga chiqib ketdi. Bir ozdan keyin o'sha xonadan yoqimli ovoz va royal tovushi eshitila boshladi, Monte-Kristo, mademuazel Danglar biz bilan valaqlashib o'tirishdan ko'ra, ashula o'qituvchisi mademuazel Luiza d' Armili bilan birga bo'lishni afzal ko'rib chiqib ketdi shekilli, deb o'yladi.

Ammo, Monte-Kristo Danglar xonim bilan qizg'in suhbatlashayotgan Andrea Kavalkantining bezovta bo'lib qolganligini darrov payqadi. Yigit tez-tez eshik oldiga borib, musiqaga quloq solar va ichkari kirishga botinolmay, o'z zavqini imo-ishoralar bilan izhor etardi.

Bir ozdan keyin bankir ham qaytib keldi, u dastavval Monte-Kristoga, so'ng Andreaga qaradi, xotini bilan esa odatdagicha sovuqqina salomlashib qo'ya qoldi.

Danglar Andreadan:

– Oyimqizlar hali sizni o'zlari bilan birga musiqa tinglab, hordiq chiqarishga taklif etishmadimi? – deb so'radi.

– Afsuski, yo‘q, janob, – dedi Andrea yanada og‘irroq uh tortib.

Danglar tezda eshik oldiga bordi-da, uni lang ochib qo‘ydi. Royal oldidagi taburetkada ikki qiz o‘tirardi, ikkalasi bir qo‘llab royal chalardi. Bu usulni o‘zlari o‘ylab topishgan bo‘lib, bir qo‘llab bo‘lsa-da, royalni qoyillatib chalishardi.

Eshikdan ko‘ringan ikki jonli suratning biri go‘zal, jozibador mademuazel d’ Armili edi. U nozik, bejirim, oltin sochlari bo‘yniga osilib tushgan, xumor ko‘z jonon edi. Tanishlari uning o‘pkasi zaif, bu qiz bir kunmas-bir kun «Kremon g‘ijjagi»dagi Antonia kabi ashula aytib turib, o‘lib qoladi, deyishardi.

Monte-Kristo oyimqizga sinovchan nazar tashladi. Graf bu xonadondan ta‘rifini ko‘p eshitgan mademuazel d’ Armilini birinchi marta ko‘rib turardi.

– I-ya, biz-chi? – so‘radi qizidan bankir, – biz ham kirsak bo‘lmas ekanmi?

Danglar shunday dedi-da, Andreani mehmonxonaga olib kirdi va ittifoqo u eshikni Monte-Kristo bilan baronessa o‘tirgan joydan ichkaridagilar ko‘rinmaydigan qilib bekitdi, baron Andrea ortidan kirib ketgani sababli Danglar xonim bunga unchalik e‘tibor bermadi.

Bir ozdan so‘ng graf ichkaridan Andreaning musiqa jo‘rligida korsikaliklarning allaqanday bir qo‘shig‘ini aytayotganligini eshitdi.

Graf qo‘shiq og‘ushida Andreani unutib, Benedettoni eslab turgan paytda Danglar xonim bugun ertalab bir Milan firmasining sinishi natijasida eri uch-to‘rt yuz ming frankdan ajralgan bo‘lsa-da, churq etmaganligini, uning yuragiga qoyil qolganligini hayajonlanib gapirib qoldi.

Bunda baronga qoyil qolsa arzirdi, agar graf baronning tag‘in zarar ko‘rganligini baronessadan eshitmaganda yoki ko‘p narsalarni bilib olishda ishlatiladigan usulini qo‘llab, bu voqeadan xabardor bo‘lmaganida, u baronning yuzidan hech narsani sezolmagan bo‘lardi.

«Ajabo, – o‘yladi graf, – bu odam bir oy muqaddam



rosa maqtanib yurardi. Endilikda ko'rgan zararini yashirishga majbur bo'lib qolibdi-da».

Graf ovozini chiqarib:

– Biroq, xonim, ma'lumki, janob Danglar birjada taniqli odam, u boshqa erlarda boy bergan pullari hissasini chiqarib oladi, – dedi.

– Siz ham boshqalar singari noto'g'ri fikrda ekansiz, – dedi Danglar xonim.

– Masalan, qanday fikrda? – so'radi Monte Kristo.

– Hamma, Danglar janoblari birja o'yinida qatnashadi, deb o'ylaydi, aslida, unday emas, u birjada qatnashmaydi.

– Ha, aytgancha, esimga tushdi, janob Debre menga aytgan ediki... Darvoqe, janob Debre ko'rinmay qoldilar? Men uni uch-to'rt kundan buyon ko'rganim yo'q.

– Men ham, – dedi Danglar xonim kibr bilan. – Illo, siz bir gapni boshladingizu, uni tugatmay, boshqa yoqqa burib yubordingiz.

– Nima to'g'rida gapirayotgandim ?

– Debre sizga aytgan ediki...

– Ha, Debre aytgan ediki, siz qimor deganda o'zingizni tomdan tashlar ekansiz.

– Ha, bir vaqtlar shunday edim, buni bo'ynimga olaman, – dedi Danglar xonim, – endi u odatim qolib ketdi.

– Bekor qilibsiz, xonim, bilasizmi, taqdir o'zgaruvchan va beqaror bo'ladi, olibsotarning ishi esa omadga bog'liq. Men agar ayol, uning ustiga, bankirning xotini bo'lganimda, erimning baxtu omadlariga qanchalik ishonishimga qaramay, o'zimga alohida boylik jamg'arardim, o'z mulkimni notanish kishiga topshirib qo'yishdan ham toymasdim.

Danglar xonimning a'zoyi badanidan issiq chiqib ketdi. Monte-Kristo buni sezmagani bo'ldi-da, so'zini davom ettirdi:

– Mana, kechagi bir voqeani olaylik. Kecha Neapol qog'oz pullari bilan qanday nayranglar ishlatganlarini eshitingizmi?

– Menda unaqa pul yo‘q va bo‘lgan ham emas. Graf, qo‘ying endi, qurib ketsin birjasi, xuddi dallollarga o‘xshab ko‘p vaysab yubordik. Keling, sho‘rlik Vilforlar haqida gaplashaylik, shu kunlarda bu bechoralarni taqdir qisti-bas-tiga olyapti.

– Ularga nima bo‘pti? – so‘radi Monte-Kristo o‘zini hech narsadan bexabardek ko‘rsatib.

– O‘zingiz bilasiz-ku, janob de Sen-Meran safarning uchinchi yoki to‘rtinchi kuni qazo qildi, kelganiga uchto‘rt kun bo‘lmay markiza ham olamdan o‘tdi.

– Ha, aytganicha, eshitgandim, – dedi Monte-Kristo. – Biroq Klavdiy Hamletga aytganidek, bu tabiat qonuni: otalari bulardan oldin o‘lgan edilar, bular otalari uchun aza tutishgandi, bular ham o‘g‘illaridan burun dunyodan o‘tadilar, bularning o‘g‘illari ham aza tutadi.

– Biroq hali bu holva-ku.

– Xo‘sh, tag‘in nimasi bor?

– Ular qizini erga bermoqchi bo‘lib turishgan edi, bundan xabaringiz bor.

– To‘g‘ri, janob Frans d’ Epinega... Nahotki to‘y buzilgan bo‘lsa?

– Aytishlariga qaraganda, kecha ertalab Frans so‘zidan qaytibdi.

– Shunday deng?.. Nima uchun?

– Bu ma‘lum emas.

– Yo, alhazar! Bu falokatlarga janob de Vilfor qanday bardosh berayotgan ekan-a!

– Safsata sotib yuribdi-ku.

Shu payt Danglar qaytib kirdi.

– Bu qanaqasi, – dedi baronessa, – qizingizni janob Kavalkanti bilan yakka qoldirib chiqdingizmi?

– Mademuazel d’Armili-chi, – dedi baron, – siz uni odam o‘rnida ko‘rmaysizmi?

Danglar Monte-Kristoga o‘girildi:

– Knyaz Kavalkanti juda xushfe‘l yigit ekanmi, graf?.. Biroq chindan ham knyazmikin?

– Bunga men kafil turolmayman, – dedi Monte-Kristo.

– Menga otasini markiz deb tanishtirgan edilar, demak, u graf bo'lsa kerak, chamamda, uning o'zi ham knyazlik unvonini da'vo qilmasa kerak.

– Nega endi? – dedi bankir, – mabodo u chindan ham knyaz bo'lsa, buni yashirib nima qiladi? Har kimning o'z huquqi o'zida. Ijtimoiy kelib chiqishini yashirgan kishini yoqtirmayman.

– Juda usta demokratsiz-da, – dedi iljayib Monte-Kristo.

– Hoy, menga qarang, – dedi baronessa, – shu payt to'satdan de Morser kelib qolsa-yu, uning o'zini, ya'ni Ejenining qaylig'ini shu mahalgacha qadam bostirmagan xonada janob Kavalkantini ko'rsa, juda noqulay ahvolga tushib qolgan bo'lardingiz-da.

– «To'satdan» deb juda to'g'ri aytdingiz, – dedi bankir. – Ochig'ini aytganda, u yigit bu erga juda kamdan-kam keladi, aytganingizdek, biznikida faqat to'satdan paydo bo'lib qoladi.

– Har holda u kelib, bu yigit qizingiz bilan o'tirganini ko'rsa xafa bo'lishi mumkin.

– Xafa bo'lishi mumkin? U-ya! Xato qilasiz! Janob vikont qallig'ini hecham rashk qilmaydi, u Ejeniga juda oshig'u shaydo ham emas. Xafa bo'lsa bo'laversin, menga nima?

– Ishqilib, oramizdagi munosabatga raxna solmasin, deyman-da.

– Ha, munosabatimizmi, xo'sh, xonim, munosabatimiz qanaqa ekanini bilmog'chilarmi? Onasi bergan ziyofatda u qizim bilan faqat bir marta raqs tushdi, janob Kavalkanti esa uch marta tushdi, de Morser esa bir marta bo'lsa-da, qiyo boqmadi.

– Janob vikont Alber de Morser tashrif buyurdilar, – deb kamerdiner xabar qildi.

Baronessa irg'ib o'rnidan turdi-da, kichik mehmonxo-

---

<sup>16</sup> Sekreter – javon.

naga o'tib, qizini xabardor qilib qo'ymoqchi bo'lgan edi, Danglar uni qo'lidan tutib, to'xtatdi.

– Qo'ying, – dedi bankir.

Xonim hayron bo'lib eriga qaradi.

Monte-Kristo bu holni sezmagan kishidek o'tiraverdi. Alber kirdi, uning nihoyatda chiroyi ochiq va xushvaqt edi. Baronessa bilan o'zini erkin tutib, Danglar bilan betakalluf, Monte-Kristo bilan do'stona salomlashdi-da, yana baronessaga o'girilib:

– Sizdan bir narsani so'rasam maylimi? – dedi, – mademuazel Danglarning salomatliklari qalay?

– Juda yaxshi, janob, – tez javob berdi Danglar, – hozir kichik mehmonxonasida janob Kavalkanti bilan musiqa chalyapti.

Alber pinagini buzmay, beparvo turaverdi, ehtimol u bir oz o'kingandir, shu paytda unga Monte-Kristo tikilib turganini sezib turardi.

– Janob Kavalkantining juda ajoyib tenor ovozi bor, mademuazel Ejenining ovozi esa juda yoqimli – soprano, buning ustiga u royal chalishda Talbergdan qolishmaydi. Ikkalasi birga aytgan qo'shiq yoqimli chiqadi-da.

– Har qalay, ikkalasining ovozi bir-biriga mos tushadi, – dedi Danglar.

Alber bu so'zlar tagida boshqacha ma'no borligini sezmadi, Danglar xonim qizarib ketdi.

– Men ham sozandaman, – dedi Alber, – o'qituvchilaring shunday deyishgan, ammo qizig'i shundaki, hech kim bilan jo'r bo'lolmayman, ayniqsa soprano bilan.

«Ha, alam qilyaptimi, ajab bo'пти!» – degandek noxush iljayib qo'ydi Danglar.

– Xuddi kechaning o'zida, – dedi Danglar niyatiga etish umidida, – knyaz bilan qizimga hammaning havasi keldi. Janoblari kecha biznikida bo'lmaganmidilar?

– Qaysi kiyaz? – so'radi Alber.

– Knyaz Kavalkanti, – javob qildi Danglar bu unvon bilan Andreani juda osmonga ko'tarib.

– E, uzr, – dedi Alber, – men uning knyaz ekanligini

bilmasdim. Kecha knyaz Kavalkanti mademuazel Ejeni bilan birga qo'shiq aytdimi? Bu juda maroqli bo'lgandir, attang, eshitmay qolibman-da, men kecha kelolmaganimning sababi bor edi: oyimlarni kekxa baronessa Shato-Renonikiga kuzatib borgandim, u erda nemislarning ashulasini tingladik.

So'ngra u bir oz jim turdi-da, hech gap bo'lmagandek, so'radi:

– Mademuazel Danglarga o'z hurmatimni izhor etsam maylimi?

– Yo'q, sabr qiling, o'tinib so'rayman sizdan, – dedi bankir Alberni to'xtatib, – kuyni eshityapsizmi, qanday yoqimli! Hozir tugaydi... Hozir... Qoyil! Qoyil! – dedi qar-sak chalib bankir.

– Rostdanam juda ajoyib, dilkusho kuy, – dedi Alber, – o'z jonajon yurti kuyini knyaz Kavalkantidan yaxshi biladigan odam bo'lmasa kerak. Yanglishmasam, siz uni «knyaz» dedingiz-a, to'g'rimi? Mabodo knyaz bo'lmasa uni albatta knyaz qilib qo'yishadi, bunaqa unvonni olish Italiyada juda oson. Ha, keling, xushovoz xonandalarni qadrlaylik. Bu erda yot kishi borligini bildirmay, ikkisiga yana bir qo'shiq aytirib, bizni xursand qilsangiz juda mamnun bo'lardik-da, janob Danglar. Umuman, musiqani uzoqda, sen birovni, seni esa birov ko'rmaydigan xilvatda turib tinglash maroqli bo'ladi, bunda sozanda ham, xonanda ham iymannay, erkin ijro etib, iste'dodini barala namoyish qilaveradi.

Bu gal Alberning sovuqqonlik bilan gapirayotganini ko'rib Danglar hayron bo'lib qoldi. U Monte-Kristoni chetga tortdi-da:

– Xo'sh, qalay, bizning oshig'u shaydo? – dedi.

– Menimcha, u juda beparvo. Biroq ilojingiz qancha? So'z berib qo'ygansiz-ku.

– To'g'ri, va'da berganman, biroq qizimni yaxshi ko'rmaydigan kishiga emas, jon-dili bilan sevadigan kishiga beraman, deb va'da berganman. Mana bu oshig'u beqarorga qarang, haykalday hissiz, sovuq, otasi kabi

takabbur, hech bo'lmasa Kavalkanti kabi mulkdor bo'lganda ham bu qiliqlariga mayli, deb qo'l berardik. Ochig'ini aytsam, qizimning fikrini so'raganim yo'q, qani unda durustroq did bo'lsa ekan...

– Bilmadim, – dedi Monte-Kristo, – ammo sizni ishontirib aytamanki, vikont de Morser juda dilbar yigit, qizingiz unga tegsa baxtiyor bo'ladi, kelajagi porloq, axir otasining mavqei juda baland.

– Hm! – deb qo'ydi Danglar.

– Shubhalanyapsizmi?

– O'tmishini o'ylayapman... O'tmishi qorong'i.

– Biroq otaning o'tmishi o'g'ilga daxli yo'q.

– Yo'q, aksincha!

– Menga qarang, bunaqa gaplarga ishonavermang. Morser juda ajoyib kuyov bo'ladi, qizimga juda mos qayliq, deganingizga bir oy bo'lgani yo'q... Siz meniyan noqulay ahvolga solyapsiz, axir bu yosh Kavalkanti bilan menikida tanishgan edingiz, yana takror aytamanki, men uni mutlaqo tanimayman.

– Ammo men taniyman, – dedi Danglar, – mana shuning o'zi kifoya.

– Siz taniysizmi? Tarjimai holini so'rab-surishtirib oldingizmi? – so'radi Monte-Kristo.

– So'rab-surishtirish zarur keptimi? Bir ko'rishdayoq bu kishining qanday zot ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi-ku. Avvalo u davlatmand odam.

– Men bunga ishonmayman.

– Biroq siz buning uchun javobgarsiz-ku?

– Uning arzimagan ellik ming frank puli bor.

– U juda bilimdon.

– Hm! – deb qo'ydi Monte-Kristo.

– U sozanda.

– Italyanlarning hammasi sozanda bo'ladi.

– Bilasizmi, graf, siz unga nisbatan adolatsizlik qilyapsiz.

– To'g'ri, iqroman, Morserga so'z berib qo'yganingizni bilib, uning o'rtada g'ov bo'lishi jig'imga tegyapti, u o'zi-

ning boyligini pesh qilyapti.

Danglar kulib yubordi.

– O‘zingizni juda sipolikka solasiz-da! – dedi Danglar.  
– Axir turmushda hamisha shunaqa bo‘ladi-ku.

– Biroq, qadrli janob Danglar, siz bunday ahvolga yo‘l qo‘yishingiz mumkin emas, Morserlarning butun umidi mana shu nikohda-ku.

– Shundaymi hali?

– Bo‘lmasa-chi.

– Unday bo‘lsa, qo‘ying, o‘zlari gaplashib olishsin, azizim graf, buni otasiga yotig‘i bilan siz aytasangiz yaxshi bo‘lardi, sizni ular quchoq ochib kutib olishadi.

– Meni? Qachon ko‘rdingiz?

– Ularnikida bo‘lgan ziyofatda. O‘sha kuni juda taltayib, gerdayib ketgan ispaniyalik grafinya Mercedes ko‘p yillik qardron tanishlari bilan arang salom-alik qildi-da, sizni qo‘ltiqlab bog‘ning eng xilvat joyiga olib ketdi, yarim soatdan so‘ng qaytdi.

– Eh, baron, baron! – dedi Alber, – kuyni, qo‘shiqni eshitishga xalaqit beryapsiz. Sizday kuy ishqibozidan bunday vahshiylikni kutmagan edik.

– Hechqisi yo‘q, janobi pichingchi, hechqisi yo‘q, – dedi Danglar, so‘ng yana Monte-Kristoga o‘girildi.

– Otasiga aytishni gardaningizga olasizmi?

– Modomiki, istagingiz shu ekan, bajo keltirishga tayyorman.

– Ammo bu gal hammasi aniq va ravshan bo‘lmog‘i lozim. Dastavval u qizimdan turmushga chiqishga rozilik olmog‘i, so‘ng muddatni belgilamog‘i, pul masalasida o‘z shartini aytmog‘i lozim, xullas, biz uzil-kesil kelishib olamiz yoki butunlay ajrashib ketamiz, buni zinhor paysalga solishga yo‘l qo‘ymayman.

– Buning hech qiyin joyi yo‘q. U darrov muzokara boshlaydi.

– Men buni juda zoriqib kutyapman deyotganim yo‘q, lekin har holda kutyapman, bilasizmi, bankir o‘z so‘zining ustidan chiqmog‘i lozim.

Yarim soat burun o'g'il Kavalkanti qanday uh tortgan bo'lsa, Danglar ham shu payt shunday og'ir uh tortib qo'ydi.

– Qoyil, qoyil! – dedi qichqirib Alber bankirga taqlidan ashula tugashi bilan qarsak chalib.

Danglarga biror narsani sekin xabar qilayotganlarida u Alberga ko'zini olaytirib qarab qo'ydi-da:

– Men hozir kelaman, – dedi Monte-Kristoga, – kutib turing meni, yana sizga aytadigan gaplarim bo'lar, – deb chiqib ketdi.

Baronessa erining yo'qligidan foydalanib, qizining mehmonxonasi eshigini ochib yubordi. Royal oldidagi kursida mademuazel Ejeni bilan yonma-yon o'tirgan Andrea o'rnidan irg'ib turdi.

Alber mademuazel Danglarga iljayib salom berdi, Ejeni esa, sira uyalmay-netmay odatdagicha sovuqqina qilib alik oldi.

Kavalkanti o'ng'aysiz holga tushib, Morserga salom bergan edi, u qo'pollik bilan alik oldi.

Alber mademuazel Danglarning ovozi ko'klarga ko'tarib maqtadi, hammani qoyil qoldirgan kechagi konsertda bo'lolmaganidan afsuslandi.

Bir o'zi yakkalanib qolgan Kavalkanti Monte-Kristoni bir chekkaga tortdi.

– Qani, bas qiling musiqangizni, – dedi Danglar xonim, – etar, maqtovingiz ham juda oshib ketdi, yuring, choy ichamiz.

– Luiza, yur, – dedi mademuazel Danglar dugonasiga.

Hamma choy tayyorlab qo'yilgan qo'shni xonaga o'tdi.

Mehmonlar, inglizlar odaticha, qoshiqlarni piyolalarda qoldirgan lahzada eshik yana ochildi-da, Danglar hayajonlanib kirdi. Bankirdagi bu hayajonni birinchi bo'lib Monte-Kristo sezdi va bankirga savolnamo nazar tashladi.

– Hozir Gresiyadan xat oldim, – dedi Danglar.

– Shuning uchun chaqirishgan ekanmi sizni? – so'radi graf.

– Ha.



– Qirol Otton sog‘-salomat ekanmi? – so‘radi sho‘x ohangda Alber.

Danglar indamay ko‘zlarini olaytirib qarab qo‘ydi, Monte-Kristo esa yuzida birdan paydo bo‘lib, shu zahoti yo‘qolgan achinish alomatini yashirish uchun orqasiga o‘girilib oldi.

– Birga ketamiz, xo‘pmi? – dedi Alber grafga.

– Ixtiyor sizda, – javob qildi Monte-Kristo.

Bankirning nega xo‘mrayib qaraganini Alber tushunolmay, Monte-Kristodan so‘radi:

– Uning menga qanday qaraganini sezdingizmi?

– Ha, – dedi graf, – uning qarashida biror favqulodda ma‘no bormidi?

– Bo‘lmasam-chi, Gresiyadan xat kelganini nega bizga aytdi?

– Men qayoqdan bilay?

– Sizning bu mamlakat bilan, qisman bo‘lsa-da, aloqangiz bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman.

Monte-Kristo javob berishni istamay, iljayib qo‘ya qoldi.

– Qarang, – dedi Alber, – to‘g‘ri siz tomonga kelyapti, men mademuazel Danglar oldiga borib, uni maqtayman, shu orada padari buzrukvorimiz siz bilan gaplashib oladi.

– Modomiki maqtamoqchi bo‘lsangiz, uning ovozini maqtang, – dedi Monte-Kristo.

– Yo‘q, ovozini istagan kishi maqtay oladi.

– Azizim vikont, – dedi Monte-Kristo, – siz beadablik qilyapsiz.

Alber iljaydi-da, Ejeni tomon yurdi. Danglar ham graf oldiga kelib, uning qulog‘iga shivirladi:

– Siz menga juda yaxshi maslahat bergan ekansiz, – dedi u, – «Ferman» va «Yanina» degan bu ikki so‘z zamirida dahshatli voqealar bor ekan.

– Shundaymi! – dedi Monte-Kristo.

– Ha, shunday, sizga hammasini o‘zim hikoya qilib beraman, biroq mana bu o‘spirinni bu erdan yo‘qoting, u rosa jig‘imga tegyapti.

– O‘zim ham xuddi shunday qilmoqchi bo‘lib turgan

edim, hozir birga chiqib ketamiz. Otasini huzuringizga yuboraymi?

– Albatta.

– Bo’pti.

Graf Alberga imo qildi.

Ikkalasi xonimlarga ta’zim qilishdi-da, chiqib ketishdi. Alber madmuzel Ejenining gerdayishini nazar-pisand qilmadi, Monte-Kristo esa, Danglar xonimga boyagi nasihatini yana qaytarib, bankirning xotini uzoqni ko’radi va o’z kelajagini ta’min etishi lozim, dedi.

Jang maydonida janob Kavalkantining o’zi qoldi.

## **XX. GAYDE**

Grafning izvoshi xiyobondagi muyulishdan burilishi bilan Alber chunon qah-qah urib kuldiki, buning sun’iy kulgi ekanligi shundoqqina bilinib turardi.

– Mana endi, – dedi u grafga, – qirol Karl to’qqizinchi Varfolomey kechasidan so’ng Ekaterina Medichidan: «Sizningcha, men o’zimning kichikkina rolimni durust bajar-dimmi?» deb so’raganidek, men sizdan bir narsani so’ra-moqchiman.

– Nimani? – so’radi Monte-Kristo.

– Raqibimni janob Danglar xonadoniga qanday joylash-tirishganini...

– Qaysi raqibingiz?

– Qaysi bo’lardi, siz homiylik qilayotgan Andrea Kaval-kantini-da!

– Vikont, qo’ying bu bema’ni hazilingizni, men Andre-aga hech homiylik qilayotganim yo’q, xususan janob Dan-glarnikida.

– Agar u yosh yigit homiyga muhtoj bo’lganda edi, men sizdan gina qilsam arzirdi, biroq xayriyatki, u bunga muh-toj emas ekan.

– Nahotki u qizning ko’nglini olishga urinyapti deb o’ylaysiz?

– Bunga shubham yo’q: u ko’zlarini baqraytirib olgan,

qo'shiqni chinakam kuyib-yonib aytyaptiki, asti qo'ya bering, balki u haqda juda oshirib gapirayotgandirman, biroq har nima bo'lmasin, u Ejenining vasliga etishaman, deb orzu qilyapti.

– Faqat sizning haqingizda o'ylasalar baribir emasmi?

– Azizim graf, unday emas, bo'lmasa nega ikkisi menga unchalik ro'yxush bermadi?

– Nega ikkisi deyapsiz?

– Shuning uchunki, mademuazel Ejeni men bilan arang so'rashdi, dugonasi mademuazel d' Armili esa salomimga alik ham olmadi.

– Illo, otasi sizni juda yaxshi ko'radi, – dedi Monte-Kristo.

– Otasi? Aksincha, u bag'rimga ming bor xanjar urdi, to'g'ri, uning xanjari sahnada ishlatiladigan xanjarlarga o'xshab tig'i dastasi ichiga kirib ketadigan xilidan, biroq o'zi uni chinakam xanjar deb o'ylaydi.

– Rashk – muhabbat belgisi.

– To'g'ri, biroq men rashk qilmayman.

– Siz rashk qilmasangiz, u rashk qiladi.

– Kimdan? Debredanmi?

– Yo'q, sizdan.

– Mendan? Mana qarab turing, erta-indin u meni ostonasiga qadam bostirmay qo'yadi.

– Xato qilasiz, azizim vikont.

– Xo'sh, xatomni nima bilan isbotlay olasiz?

– Sizga isbot kerakmi?

– Ha.

– Men graf de Morserning baron huzuriga uzil-kesil javob bilan kelishini so'rashga vakil qilganman.

– Kim tomonidan?

– Baronning o'zi tomonidan.

– Biroq, azizim graf, – dedi Alber grafga sekin, – siz buni bajarmaysiz-ku, to'g'rimi?

– Yanglishasiz, Alber, bajaraman, va'da berganman.

– Ana, xolos, – dedi o'ksinib Alber, – siz meni albatta uylantirmoqchi ekansiz-da.

– Men hamma bilan yaxshi munosabatda bo'lmoqchiman. Ha, aytganday, Debre baronessa huzurida ko'rinmay qoldi?

– Ular urishib qolishibdi.

– Baronessa bilan-a?

– Yo'q, baron bilan.

– Biror narsani sezibdimi u?

– Hali shunisi kam edi!

– U shubhalanyapti deb o'ylaysizmi? – so'radi Monte-Kristo o'zini go'llikka solib.

– Ana, xolos! Hoy, azizim graf, boshqa dunyodan kelganmisiz?

– Aytaylik, Kongodan.

– Bu uncha uzoq emas.

– Men Parij erkaklarining odatlarini qaydan bilay?

– E-e, azizim graf, erkaklar hamma erda bir xil bo'ladi, zotan, siz biron-bir mamlakat kishilarining xilma-xilligini o'rgangan bo'lsangiz, unda hamma erda ham ularning tabiatini bilmog'ingiz kerak.

– Xo'sh, Danglar bilan, Debre nega san-manga borib qolishibdi? Ular bir-biri bilan juda inoq edi-ku, – dedi Monte-Kristo o'zini yana go'llikka solib.

– Hamma gap shunda-da, Izidaning sirlari mana shu erdan boshlanadi-da, men esa bu sirlardan bexabarman. O'g'il Kavalkanti ular oilasiga a'zo bo'lib olgach, bu sirni undan so'rab bilib olasiz.

Izvosh to'xtadi.

– Mana etib ham keldik, – dedi Monte-Kristo, – soat endi o'n yarim bo'пти, yuring, biznikiga kiramiz.

– Jonim bilan.

– Izvoshim so'ng sizni olib borib qo'yadi.

– Rahmat, o'zinning izvoshim ham orqamizdan kelayotgandir.

– To'g'ri, ana keldi, – dedi Monte-Kristo izvoshdan tushayotib.

Ular uyga kirishdi, mehmonxonaning chiroqlari yoniq edi, ular o'sha xonaga o'tishdi.

– Batisten, bizga choy keltiring, – farmon berdi Monte-Kristo.

Batisten churq etmay chiqib ketdi-da, ikki daqiqalardan soʻng sehrlı ertaklardagidek noz-neʻmat toʻla patnisni koʻtarib kirdi.

– Bilasizmi, – dedi Alber, – meni qoyil qilayotgan narsa boyligingiz emas, ehtimol sizdan ham boy odamlar bordir, aql-zakovatingiz ham emas, Bomarshe oqillilikda sizdan ustun boʻlmasa-da, harholda tengdir. Men xizmatkorlarini ishlatishdagi mahoratingizga qoyil qolaman. Siz imo qilsangiz, ular oʻsha zahotiy oq xohishingizni bilishadi-da, dilingizdagini muhayyo qilishadi.

– Bu gapingizda jon bor. Mening odatlarimni ular yaxshi bilib olishgan. Mana, hozir koʻrasiz: choy vaqtida nima istaysiz?

– Ochigʻini aytсам, tamaki chekmoqchiman. Monte-Kristo qoʻngʻiroq oldiga borib, bir marta qoqib qoʻydi.

Bir daqiqa oʻtar-oʻtmas yon eshik ochilib, qoʻlida xushboʻy tamaki tiqilgan ikkita uzun trubka koʻtargan Ali kirib keldi.

– Mana bu zap ajoyib boʻldi-da.

– Aslo unday emas, bu juda oson, – dedi Monte-Kristo.  
– Choy yoki qahvadan keyin papiros chekadigan odatim borligini biladi, choy soʻraganimdan ham xabardor, siz bilan birga kelganimni bilgan, nega chaqirganimni fahmlagan, uning yurtida trubka mehmondoʻstlikning birinchi ishorasi, bitta emas, ikkita trubka keltirishining boisi ham mana shunda.

– Hammasiga izoh berish mumkin, faqat siz bir narsani... I-ya, bu qanaqa ovoz? – dedi Morser va eshikka ishora qildi, u erdan gitaranikiga oʻxshash mungli ovoz eshitilayotgan edi.

– Azirim vikont, bugun siz musiqa eshitadigan kun ekan: mademuazel Danglarning royalidan endigina qutuldim deb oʻtirgan edingiz, bu erga kelib Gaydening toriga tutildingiz.

– Gayde! Juda chiroyli ism! Nahotki lord Bayron dos-

tonlaridagi Gaydelardan bo'lak ham Gayde bo'lsa?

– Albatta bor, Fransiya bu nom juda kam uchraydi, ammo Albaniya va Epirada ko'p, bu nomning ma'nosi: iffatlilik, ibolilik, ma'sumlik. Sizlarda bolani cho'qintirganda shunga o'xshash ismlar berishadi.

– Juda ajoyib ism! – dedi Alber. – Qani endi, fransuz ayollariga ham mademuazel Bokira, mademuazel Osoyishtaxon, mademuazel Mehrioy kabi ma'nolardagi nomlar berilsa! O'zingiz bundog' o'ylab ko'ring: mabodo mademuazel Danglarning nomi Kler-Mari-Ejeni emas, mademuazel Iffatoy-Kamtarina-Ma'suma bo'lganda, odamlar bu nomni eshitib juda qoyil qolgan bo'lishardi-da!

– Tentak! – dedi graf. – Bunday narsalarni sekinroq gapiring. Gayde eshitib qoladi.

– Eshitsa xafa bo'ladimi?

– Yo'q, nega xafa bo'larkan, – dedi graf g'ururli ohangda.

– U xushfe'limi? – so'radi Alber.

– Buni xushfe'llik emas, burch deydilar, chunki asira cho'ringing xo'jayinidan xafa bo'lishiga haqqi yo'q.

– Mana endi o'zingiz hazil-mutoyibaga o'tdingiz! Axir asiralar haliyam bormi?

– Gayde shu topda mening asiram ekan, demak, asiralar bor.

– Ochig'ini aytganda, sizning qiliqlaringiz boshqalarnikiga aslo o'xshamaydi, sizdagi odat hech kimda yo'q! Graf Monte-Kristoning asirasi! Fransiya bu katta gap. Buning ustiga siz oltinni tuproq kabi sovuryapsiz: sizga bu narsa yiliga yuz ming ekyu foyda keltirmog'i kerak.

– Yuz ming ekyu! Sho'rlik qizning daromadi bundan ham ko'p edi. U shunday xazina ichida tug'ildi, «Ming bir kecha»dagi xazinalar uning oldida hech narsaga arzimaydi.

– U chindan ham knyaz qizimi?

– Ha, mamlakatidagi eng mashhur knyazlardan birining qizi.

– Men ham xuddi shunday deb o'ylagandim. Biroq

mashhur knyaz qizi nechuk asira bo'lib qoldi?..

– Solim Dionisiy qanday qilib maktab o'qituvchisi bo'lib qolgandi? Bu urush qur'asi, azizim vikont, ha, taqdir o'yini bu.

– Qizning o'tmishi sirimi?

– Hamma uchun sir bo'lsa-da, siz uchun sir emas, azizim vikont, chunki siz mening do'stimsiz. Bu sirni hech kimga aytmayman, deb va'da bersangiz bo'ldi, kelishdikmi?

– Sizga qat'iy va'da beraman!

– Yanina poshosi voqeasini eshitganmisiz?

– Ali-Tebelin voqeasinimi?

– Ha, eshitganman, axir otam unga xizmat qilgan vaqtlarda boyluk orttirgan-ku!

– E, to'g'ri, men unutibman buni.

– Gaydening Ali-Tebelinga nima daxli bor?

– Daxlli joyi shuki, bu o'sha poshoning qizi.

– Iya, Ali poshoning qizimi Gayde?

– Ali posho bilan nozanin Vasilikaning qizi.

– Endilikda sizning cho'ringiz!

– Ha.

– Qanday qilib cho'ri bo'lib qoldi?

– Tasodifan. Kunlardan bir kuni Konstantinopol bozoridan o'tib ketayotganimda sotib oldim.

– Mana bu chinakam mo'jiza bo'пти! Siz bilan birga bo'lgan kishining armoni yo'q. Beadablik bo'lsa-da, sizdan bir narsani so'ramoqchiman, maylimi?

– Marhamat.

– Hammaning ko'z oldida u bilan birgasiz, Operaga olib borasiz...

– Xo'sh, so'ngra?

– Bu yog'iniyam so'rasam maylimi?

– Mendan istagan narsangizni so'rayvering.

– Unday bo'lsa, azizim graf, knyaz qizini menga ko'rsating.

– Jonim bilan. Faqat ikki shart bilan.

– Shartlaringizni bajonidil qabul qilaman.

– Birinchidan: u bilan tanishganingizni hech kimga aytmaysiz.

– Juda soz. (Alber qo'lini baland ko'tardi.) Ont ichaman!

– Ikkinchidan: otangiz uning otasiga xizmat qilgani to'g'risida Gaydega og'iz ochmaysiz.

– Bunga ham ont ichaman.

– Juda soz. Ontingizni hamisha esda tutasiz, xo'pmi?

– Albatta, albatta, graf, shubhasiz! – dedi Alber xitob qilib.

– Juda soz. So'zingizda qattiq turadigan zotlardan ekaningizni bilaman.

Graf yana qo'ng'iroq chaldi, Ali kirdi.

– Gaydega, graf qahva ichgani huzuringga kirarkanlar, degin, yana do'stlarimdan birini tanishtirishga olib kirgani izn so'rayotganimni ayt.

Ali ta'zim qilib chiqib ketdi.

– Qani, kelishib olaylik: unga to'g'ridan-to'g'ri savol bermaysiz, azizim vikont. Biror narsani bilishga qiziqib qolsangiz, mendan so'raysiz, men esa undan so'rab olib, so'ng sizga aytaman.

– Kelishdik.

Ali kirib, pardani ko'tardi, bu uning, xo'jayin va Alber kiraversinlar, degani edi.

– Qani, marhamat, – dedi Monte-Kristo.

Alber sochlarini silab, mo'ylovini burab qo'ydi, graf esa shlyapasini qo'lga oldi, qo'lqopini kiydi, so'ng ikkovi Gayde oromgohi tomon yo'l oldi. Bu bo'lmalarning old tomondagisini Ali qo'riqlar, ichkaridagilarini Mirto boshchiligida uchta fransuz oqsochi muhofaza qilardi.

Gayde ularni birinchi xonada hayron bo'lib kutib o'tirardi: axir uning huzuriga shu topgacha Monte-Kristodan bo'lak erkak zoti kirmas edi, u burchakdagi divanda guldor sharq shoyi libosga o'ralib, ikki oyog'ini orqasiga qilib o'tirardi. Oldida baravj soz yotardi. U nihoyatda dilbar edi.

Gayde Monte-Kristoni ko'rish bilan go'zal ma'shuqa-



larga xos tabassum-la o'rnidan qo'zg'aldi, Monte-Kristo uning oldiga borib, qo'lini uzatdi. Gayde, har safargidek, grafning qo'liga lablarini asta tekkizdi.

Alber, bu go'zallikdan lol bo'lib, turgan joyida qotib qoldi. Bunday sohibjamolni u birinchi marta ko'rishi edi, Fransiyada bunday nafosatni tasavvur ham qilolmasdilar.

– Huzurimga kimni olib keldingiz, to'ram? – so'radi yunon tilida qiz Monte-Kristodan, – ukangiznimi, do'stnimi, anchayin tanishingiznimi, yoxud dushmaningiznimi?

– Do'stni, – javob qildi Monte-Kristo ham o'sha tilda.

– Uning ismi sharifi nima?

– Graf Alber. Men Rimda qaroqchilar changalidan qutqarib olgan janob shu kishi bo'ladilar.

– U kishi bilan men qaysi tilda gaplashishimni istaysiz?

Monte-Kristo o'girilib Alberga qaradi.

– Hozirgi zamon yunon tilini bilasizmi? – so'radi graf undan.

– Azim graf, hozirgisi u yoqda tursin, qadimgi yunon tilini ham bilmayman, – dedi Alber, – Gomer va Platonning men kabi no'noq, beparvo shogirdi aslo bo'lmagandir.

Gayde Monte-Kristoning savoli va Alberning javobini tushundi.

– Unday bo'lsa, – dedi qiz, – agar to'ram gapirishimni istasalar, fransuz yoki italyan tilida gapiraman.

Monte-Kristo bir zum o'ylanib qoldi.

– Italyan tilida gapirasan, – dedi u va Alberga murojaat qildi.

– Ming afsus, yunon tilining yangisini ham, eskisini ham bilmas ekansiz, Gayde bu tilni juda mukammal biladi. Bechora qiz siz bilan italyan tilida gaplashishga majbur, shu boisdan siz uning haqida noto'g'ri fikrlarga borishingiz mumkin.

U Gaydega ishora qildi.

– Xush kelibsiz to‘ram va hukmdorim bilan kelgan do‘st, – dedi nafis toskan shevasida, u bu so‘zlarni Dante tilini Gomerniki singari ohangdor etgan mayin Rim ta’laffuzida aytdi. – Ali, qahva va trubka keltir!

Sohibjamolning farmonini bajo keltirish uchun Ali chiqib ketgach, Gayde imo bilan Alberni yaqinroq kelishga taklif etdi. Monte-Kristo Alberga yig‘ma kursini ko‘rsatdi, o‘zi ikkinchisini oldi-da, xontaxta yoniga surib o‘tirdi. Xontaxta ustidagi trubka tevaragida gullar, suratlar va musiqa albomlari yotardi.

Ali qahva va trubka olib kirdi, Batistenga bu bo‘lmalarga kirish taqiqlangan edi. Ali tutgan chilimni Alber nari surdi.

– Oling, tortinmang, – dedi Monte-Kristo, – Gayde ham Parij ayollari kabi madaniyatga erishganlardan, sigaraning hidini yoqtirmaydi, sharq tamakisi xushbo‘y, buni o‘zingiz ham bilasiz.

Ali chiqib ketdi.

Qahva qadahlariga allaqachon quyilgan, qanddon esa faqat Alber uchun qo‘yilgan edi. Monte-Kristo bilan Gayde qahvani arabchasiga, ya‘ni qandsiz ichishdi. Gayde qo‘lini uzatdi-da, nozik barmoqlari bilan yapon chinnisidan yasalgan quloqli piyolani olib, faqat yaxshi ko‘radigan ovqatinigina eydigan go‘daklarga xos quvnoqlik bilan lablariga tutdi.

Shu on ikki oqsoch likopchada muzqaymoq va sharbat keltirib, maxsus stolchalarga qo‘ydi.

– Aziz mezbonim va siz, sinora, – dedi Alber italyan tilida, – hayratda qolganim uchun meni kechiring. Men tamoman dovdirab qoldim, buning sababi ma‘lum; qarshimda haqiqiy Sharq javlon urib turibdi, haqiqiy Sharq, o‘sha men hech vaqt ko‘rmagan va faqat orzu qilgan Sharq. Yana Parijning naq o‘zida-ya! Shu payt limonfuruslar kirakash izvoshlarida qo‘ng‘iroqlarini jaranglatib o‘tib borayotganini eshitayotgandek bo‘lyapman... Oh, sinora, yunon tilini bilmaganimdan afsuslanaman, ha, afsuslanaman! Agar bilganimda siz

bilan shu ajoyib koshonada shavq-zavqlarga to'lib suhbatlashardim va bu suhbat qalbidam umrbod esdan chiqmaydigan taassurot qoldirardi.

– Men italyan tilini yaxshi bilaman va siz bilan shu tilda bemalol gaplashaveraman, – dedi vazminlik bilan Gayde.  
– Sizga Sharq juda yoqib qolgan ekan, bo'пти, men o'zingizni xuddi Sharqda his etadigan tarzda suhbatlashaman.

Alber sekin grafdan so'radi:

– Men nima haqda gaplashishim mumkin?

Nima istasangiz o'sha haqda gaplashishingiz mumkin: uning vatani haqida, yoshlik xotiralari haqida, mabodo lozim ko'rsangiz, Rim haqida. Neapol yoki Florensiya haqida.

– Parijlik qizlar bilan ham suhbatlashsa bo'laveradigan narsalar to'g'risida gaplashish uchun yunon qizini axtarib yurishga hojat yo'q. Ruxsat etsangiz, u bilan Sharq to'g'risida gaplashsam.

– Marhamat qiling, azizim Alber, bu mavzuda gaplashish Gaydeni dilxush etadi.

Alber Gaydega murojaat qildi:

– Sinora, necha yoshingizda Gresiyani tashlab ketgansiz?

– Besh yoshda edim o'shanda, – javob qildi Gayde.

– Vatanningizni haliyam eslaysizmi?

– Ko'zimni yumsam, o'shanda ko'rgan narsalarim xayolimda gavdalanadi; kishining ikki xil ko'zi bo'ladi; tan ko'zi va dil ko'zi, tan ko'zi ba'zan ko'rganlarini unutib qo'yadi, dil ko'zi esa ko'rgan-kechirganlarini hamisha esda tutadi.

– Esingizni qay vaqtdan buyon taniysiz?

– Tetapoya qila boshlagan paytimdan, onam Vasiliki (Vasiliki – parivash degani) qo'limdan tutib etaklardi va ikkimiz choyshabga o'raldik-da, bisotimizda bor tilla tangalarni hamyonga solib, mahbuslar uchun xayr-sadaqa tilay boshladik. Biz: «G'ariblarga xayr-ehson qilish savobdir», derdik uchragan odamga. Hamyon qappaygach,

saroyga qaytib kelardik, otamga bildirmay, sadaqadan yig'ilgan pullarning barini monastir igumeniga<sup>15</sup> yuborar edik, u esa mahbuslarga taqsimlab berardi.

– O'sha vaqt necha yoshda edingiz?

– Uch yoshda, – dedi Gayde.

– O'sha uch yasharlik vaqtingizdan buyon atrofingizda qanday voqealar yuz berganini eslay olasizmi?

– Ha, hammasi esimda.

– Graf, – dedi shivirlab Alber, – ruxsat eting, sinora o'z hayotidan biror voqeani aytib bersin. Otam to'g'risida gap ochishni ta'qiqlagan edingiz, biroq ehtimol uning to'g'risida Gaydening o'zi biror narsa aytar, go'zal sinoraning og'zidan otamning nomini eshitish men uchun g'oyat zavqli bo'lardi-da.

Monte-Kristo Gaydega o'girildi, bu gapimga alohida e'tibor bering, degandek qoshlarini ko'tarib, yunon tilida: «Otangning taqdiri haqida gapirishing mumkin, ammo sotqinlikni va sotqinning nomini aslo tilga ola ko'rma!» dedi

Gayde og'ir xo'rsindi, uning yuziga hasrat cho'kdi.

– Nima dedingiz unga? – so'radi shivirlab Morser.

– Unga siz mening do'stim ekanligingizni yana uqtirdim va hech narsani yashirmay aytaver, dedim.

– Demak, – dedi Alber, – birinchi esdaligingiz mahbuslarga sadaqa to'lash ekan, keyingisi-chi?

– Keyingisi ko'l sohilidagi chinor soyasida o'tirganim va zilol suv jimirlab oqib turgani esimda. Otam kekxa va sershox daraxt tagiga bolish qo'yib yonboshlagan, onam esa uning oyoq tomonida yotardi, kichkina qizaloq men otamning ko'ksiga osilib tushgan oppoq soqollarini, kamariga siqilgan olmos dastali xanjarini o'ynab o'tiribman. Ahyon-ahyonda uning oldiga alban kelib, bir necha so'z aytib ketadi, bunga men hech e'tibor bermayman, otam esa: «Qatl etilsin» yoki «Gunohidan kechdim!» deb javob beradi...

– Bunaqa gaplarni yosh qizning og'zidan eshitish, buning ustiga miq etmay e'tirof etish g'alati tuyularkan,

kishiga, – dedi Alber. – Bu ajoyib o'tmish g'aroyibotlari mo'jizakor kunlardan so'ng Fransiya sizga yoqdimikin?

– Menimcha, Fransiya juda go'zal mamlakat, – dedi Gayde, – ammo Fransiyani asl holatida ko'rib turibman, chunki unga es-hushini tanigan bir ayol ko'zi bilan qarayman hozir, o'z vatanimni esa go'dak ko'zi bilan ko'rganman, shuning uchun u quvonchga to'lganda nurlarga cho'mgan jannatga o'xshar, qayg'uga botganda esa do'zaxga o'xshaydi, nazarimda.

– Sinora, – dedi Alber, – juda yoshsiz-u boshingizga shuncha qayg'u qayerdan tusha qoldi?

Gayde Monte-Kristoga qaradi, graf esa «aytaver», deb ishora qildi.

– Ilk xotiralar rostdanam kishi qalbida chuqur iz qoldirarkan, sizga aytib bergan ikki xotiramdan boshqasi yoshligimning nuqul qayg'uli damlari bo'lgan edi.

– Aytavering, sinora, aytavering! – dedi Alber. – Gapingizni eshitish men uchun katta baxt.

Gayde ma'yus kulib qo'ydi.

– Boshqalarini aytib berishimni istaysizmi? – so'radi qiz.

– O'tinib so'rayman sizdan.

– Ha, mayli, bo'lmasa aytib bera qolay. Kunlardan bir kuni, oqshom paytida onam meni uyg'otdi. Shunda endi to'rtga kirgandim. Yaninadagi saroyda istiqomat qilardik. Onam meni yostiqdand ko'tarib oldi, qarasam, uning ko'zlari jiqqa yosh, u hech nima demadi-da, meni ko'tarib yo'lga tushdi.

Uning yuzlaridan shashqator yosh oqayotganini ko'rib, mening ham o'pkam to'lib ketdi, ammo onam «ovozingni chiqarma, bolam», dedi.

Ko'pincha onam erkalasayam, davara qilsayam, injiq bolalar singari yig'layverardim. Ammo bu gal sho'rlik onamning ovozidan judayam vahimaga tushib qolganligi sezilib turardi, shu sababdan darrov jimib qoldim.

U meni ko'tarib chaqqon yurib ketdi.

O'sha paytda keng zinadan tushib borayotganimizni ko'rdim, oldimizda onamning oqsochlari yugurib borishar-

di, ularning qo'llarida sandiqlar, xaltalar, zeb-ziynat, qimmatbaho buyumlar, oltinga to'la hamyonlar bor edi.

Ular ketidan uzun-uzun miltiq va to'pponchalar taqib, maxsus kostyum kiyib olgan (bunday kostyumni Gresiya mustaqillikka erishgandan keyin kiya boshlagan edilar) yigirmata shaxsiy soqchi borardi.

Uyqusirab, gangib qolgan qullar va oqsochlarning qatorlashib chopishi bironta dahshatli voqea sodir bo'lganidan darak berib turardi, – davom ettirdi hikoyasini Gayde, bosh chayqab va xotiralaridan ranggi oqarib. – 3inada katta-katta ko'lankalar paydo bo'lardi-da, so'ng lovillab borayotgan mash'alalar orasida g'oyib bo'lardi.

«Tez bo'ling!» – dedi qandaydir ovoz. Buni eshitib hamma, xuddi shamol esganda egiladigan boshhoqlar singari ta'zim etdi. Bu tovushni eshitib seskanib ketdim.

Bu otamning tovushi edi.

Uning egnida shohona kiyimlar, sizning imperatoringiz tuhfa etgan kalta miltiq qo'lida, hammadan keyinda borardi. Otam suyuqli yigiti Salimga suyanib olgan, bo'rilar to'dasidan qo'rqib, o'takasi yorilgan qo'ylarini quvib borayotgan qo'ychivonga o'xshardi shu paytda.

– Mening padari buzrukvorim, – dedi Gayde boshini baland ko'tarib. – Yaninaning poshosi ulug' zot edi. Evropada uni Ali-Tebelin deb ulug'lashardi, uning oldida Turkiya ham titrardi.

Tasvir etib bo'lmaydigan mag'rurlik bilan aytilgan bu so'zlarni eshitib, Alberning yuragi orqasiga tortib ketdi.

Dahshatli o'lim o'sha zamonning Evropasi oldida ko'klarga ko'tarib yuborgan zotning qonli siymosini ko'z oldiga keltirganida qizning ko'zlarida chuqur g'am va qo'rquv aks etardi.

– Ko'p o'tmay, – dedi so'zini davom ettirib Gayde, – to'xtadik, bizlar zinaning pastida, ko'l sohilida turar edik. Onam og'ir-og'ir nafas olib, meni bag'riga bosardi, uning ketida turgan otam vahimaga to'la ko'zlari bilan atrofga alanglardi.

Oldinda to'rtta marmar zinapoya bo'lib, pastda qayiq

chayqalib turardi. Nariroqda qop-qora ulkan bir narsa ko'rinardi. Bu biz borayotgan qal'aning ko'lankasi edi. Menga u juda yiroqday tuyuldi, ehtimol, qorong'ida shunday ko'ringandir.

Biz qayiqqa tushdik. Eshkaklar asta suvga tushirilgani hamon yodimda, men ularni ko'rgani egilib qaradim, ular palikarlarimizning belbog'i bilan o'ralgandi. Qayiqda eshkakchilardan bo'lak faqat xotin-qizlar, otam, onam, Salim va men bor edik.

Palikarlar mabodo orqadan quvib kelib qolishsa, ko'rmay qolmaylik deb qirg'oqdagi pastki zinapoyaga borib cho'kka tushib olishdi.

Qayig'imiz o'qday uchib borardi. Men: «Qayig'imiz nega bunday tez suzyapti» deb so'radim onamdan. Onam: «Nafasingni chiqarma, qizim, biz qochib ketyapmiz», dedi.

Men hech nimaga tushunmay, shunday zo'r, hukmdor otam nega qochyapti, deb hayron bo'lardim o'sha topda, odatda hamma undan qochardi, uning: «Ular meni o'lgu-dek yomon ko'rishadi, demak, mendan qo'rqishadi», degan shiori bor edi.

Mana, endi otamning o'zi qo'rqib qochyapti. Keyinroq u menga Yanina qal'asi garnizoni uzoq xizmat qilib holdan toygan edi, dedi...

Shu erga kelganda Gayde Monte-Kristoga ma'noli nazar tashladi, graf undan aslo ko'zini uzmasdi. Gayde, xuddi gap to'qilayotgan yoki hikoyaning ba'zi muhim joylarini tashlab ketayotgan kishi singari, ohista gapirdi.

Sinora, – dedi shoyon diqqat bilan hikoyani tinglayotgan Alber, – siz Yanina garnizoni uzoq xizmat qilib holdan toygan edi, dedingiz...

– Ha, holdan toygan ekan, shunda sulton yuborgan saraskar Xurshid bilan til biriktirib, otamni tutmoqchi bo'lgan ekan. Shundan so'ng otam ishonchli fransuz ofiserini sulton huzuriga yuborib, o'zi «qochoqxona» deb ataladigan kichkina qo'rg'onga yashirinishga qaror qilgan ekan.

– O'sha ofiserning ismi esingizdami? – so'radi Alber.

Monte-Kristo Gayde bilan tezda ko'z urishtirib oldi, Alber buni sezmedi.

– Yo'q, – dedi qiz, – uning ismi yodimda yo'q, mabodo esimga tushsa, aytarman.

Alber otasining nomini endi aytmoqchi bo'lib turgan edi, Monte-Kristo barmog'ini ko'tarib, ogohlantirdi, Alber ontini esladi-da, jim qoldi.

– Biz o'sha «qochoqxona» tomonga suzib bordik... Qo'rg'onning pastki qavati jimjimador naqshlar bilan bezatilgan, suvning naq ustida ayvon, ikkinchi qavati derazalari ko'lga qaratib qurilgan – biz yaqinlashganda kichkina saroyning manzarasi shunday ekanligini ko'rdik. Biroq birinchi qavatning tagida orol tagiga cho'zilib ketgan ulkan g'or bor ekan. Onamni, meni va oqsochlarimizni o'sha erga olib kirib qo'yishdi, g'orda oltmish ming hamyon va ikki yuz bochka taxlab uyib qo'yilgan, hamyonlarda yigirma besh millionlik oltin tanga, bochkalarda esa o'ttiz ming funt o'q-dori bor edi.

Bochkalar oldiga dadamning arzandasi Salim turib oldi: u nayza uchidagi pilikni yondirib, kechayu kunduz soqchilik qilardi. Otam imo qilishi bilan bu erdagi narsalarning hammasini – «qochoqxona»ni, shaxsiy soqchilarni, podshoni, ayollarni, oltinni – hammasini portlatib yuborish to'g'risida u buyruq olgan edi.

Buni bilgan cho'rilarimiz kechayu kunduz Xudoga nola qilib, tinmay qon yig'laganlari hali-hali ko'z o'ngimdan ketgani yo'q. O'q-dorilar oldida g'oz turgan rangpar qora ko'z yigitning siymosi hamon esimda. Azroil kelib, giribonimdan olganda, bu o'sha Salim, deb o'ylasam kerak men.

Shu zaylda qancha vaqt o'tganini bilmayman, u choqda men vaqt nimaligini bilmasdim, ba'zida otam meni, onamni saroyning ayvoniga chaqirib olardi. Men uchun bu eng quvonchli payt hisoblanardi: g'orning ichida fig'on urayotgan ko'lankalar-u Salimning yarqirab turgan nayzasidan boshqa hech nima ko'rmasdim. Otam katta tirqish oldida o'tirib, qayg'uli ko'zlarini uzoq ufqqa tikib olib, ko'lda paydo bo'lgan har bir qora nuqtani



kuzatardi, onam uning elkasiga boshini qo'yib, yonboshlar, men oyog'i ostida o'ynab o'tirardim, atrofdagi hamma narsa – ufqda qad ko'tarib turgan Pind qoyalari, ko'm-ko'k ko'l tagidan ko'tarilib kelayotgan oppoq, devqomat Yanina qal'alari, uzoqdan yo'singa o'xshab ko'rinayotgan yassi ko'katlar, tog' cho'qqilaridagi yamyashil gilam kabi maysalar – bular hammasi qalbimni shavq-zavqlarga to'ldirardi.

Bir kun ertalab otam bizni chaqirib qoldi, u xotirjam, osoyishta ko'rinsa-da, rangi bo'zarib ketgan edi.

«Vasiliki, yana bir oz sabr qil, bugun hammasi xotima topadi, bugun hukmdorning farmoni keladi, unda mening taqdirim hal bo'ladi. Agar farmonda men butkul afv etilgan bo'lsam, tantana bilan Yaninaga qaytamiz, xunuk xabar kelsa, shu kechadayoq qochamiz».

«Ular qochishga yo'l qo'yishmasa-chi?» – dedi onam.

«Xotirjam bo'l, – dedi iljayib Ali. – Salim ular uchun menga yonib turgan nayzalari bilan javob beradi. Ular mening yolg'iz o'zimni go'rga tiqib, o'zlari omon qolmoqchi».

Onam otamning chin ko'ngildan aytmagan bu so'zlarini eshitib, og'ir xo'rsinib qo'ydi.

Qochib ketgan vaqtimizdan buyon otamning issig'i chiqib, alangayi otash bo'lib yonar, onam unga tinmay suvga muz solib ichirar, oppoq soqoliga atir separ, trubkasini yondirib berardi; ba'zan u trubka tutunini burqsitib, uzoq xayolga cho'mib o'tirardi.

U birdan tebranib ketdi, shunda men juda qo'rqib ketdim. Suv betidagi nuqtadan ko'zini uzmay, durbin keltirishni buyurdi. Onam durbin keltirdi. Onamning yuzi devor bo'lib qolgandi shu payt.

Otamning qo'li titrayotganini ko'rib turardim.

– «Qayiq!.. Ikki!.. Uch!.. – shivirladi u, – to'rt!..»

Esimda: u shu payt o'rnidan turdi-da, miltiqni oldi, to'pponchalarini o'qladi.

«Vasiliki, – dedi u onamga, endi uning titrayotgani aniq-tiniq ko'rinib turardi, – taqdirimiz hal bo'ladigan damlar

keldi, yarim soatdan so'ng ulug' hukmdorning javobini eshitamiz. Gaydeni olib g'orga tush».

Onam bunga javoban: «Yo'q, men sizni tashlab ketmayman, to'ram, mabodo ajalingiz etgan bo'lsa, men ham siz bilan birga o'laman», dedi.

«Salimning oldiga boringlar!» – dedi qichqirib otam.

«Alvido, hukmdorim, alvido!» – dedi onam o'limga mahkum etilgandek ta'zim etib.

«Vasilikini olib keting bu erdan», – dedi otam palikarlarga.

Shu daqiqada meni unutilib qo'yishgan edi, yugurib otam oldiga borib qo'limni uzatdim, u meni ko'rib egilganda, peshanamdan asta o'pdi.

Ana o'sha oxirgi bo'saning tafti hamon manglayimdan ketgani yo'q!

Biz pastga tushib borayotib ayvondagi tok shoxlari orasidan qayiq'larni ko'rdik: ular tobora yaqinlashib kelardi.

Panjara orqasiga yashirilib otam oldida turgan yigirma nafar palikar bosib kelayotgan qayiq'larga qonli ko'zlarini o'qday tikib turishardi. Qo'ndoqlari sadaf va kumush bilan naqshlangan uzun-uzun miltiqlari o'qlangan, erda sochilib yotgan o'qlarning son-sanog'i yo'q. Otam bir erda turolmay, ayvonning u boshidan bu boshiga yurib, tez-tez soatiga qarab qo'yardi.

Biz pastga tushib ketdik. Otam bilan oxirgi marta xayrlashib ketgandan so'ng, esimda qolganlari ana shulardan iborat.

Onam bilan g'orga tushganda Salim o'sha joyda tik turgan edi. U bizga qayg'uli nazar tashladi-da, iljayib qo'ydi. G'orning narigi burchagidan bolishlar olib kelib, Salimning yoniga o'tirib oldik; zo'r xavf-xatar tug'ilganda eng yaqin kishingning pinjiga kirib olishni istab qolarkan-san, men hali go'dak bo'lsam-da, boshimizga g'oyat og'ir kulfat tushayotganini fahmlab turardim...

Alber Yanina vazirining so'nggi damlari qanday kechganligini otasidan emas (u bu haqda hech og'iz ochmasdi), boshqalardan eshitgan, uning o'limi haqida ko'p

hikoyalar o'qigan edi. Ammo bu voqeaning tafsiloti haqida Gaydening hikoyasi uni larzaga soldi.

Gayde esa o'sha dahshatli manzaralar girdobiga g'arq bo'lib, bir zum jimib qolardi, shabada egib qo'ygan gul-g'unchaga o'xshab boshini quyi solib, o'yga cho'mar, ana shunda uning xira ko'zlari oldida ko'm-ko'k Pand, Yanina ko'lining zumrad suvi va hozir o'zi tasvirlab bergan mudhish voqealar jonlanardi.

Monte-Kristo unga cheksiz hamdardlik bilan ko'zlarini tikib turardi.

– Davom ettiring hikoyangizni, – dedi u grek tilida.

Gayde, Monte-Kristoning ovozi uni xuddi uyqudan uyg'otib yuborgandek, boshini ko'tardi-da, hikoyasini davom ettirdi:

– Soat to'rt edi, tashqarida kun charaqlab turar, ammo g'or zimiston edi, faqat bir kichkina yorug' nuqta qop-qorong'i osmon to'ridagi mitti yulduz kabi miltillardi: bu Salimning mash'alasi edi.

Onam cho'qinar (u xristian dinida edi), Salim esa «Allohu akbar!» derdi hadeb.

Onam hali batamom umidini uzmagani. Zinadan tushib kelayotganda qayiqdagilar orasida Konstantinopolga yuborilgan fransuzni ko'ribdi, otam unga juda ishonar ekan, chunki u, fransuz sultonining harbiylari odatda xushfe'l, olijanob kishilar, derdi. Onam zinapoyaga yaqinroq borib, quloq soldi. «Ular yaqinlashyapti, – dedi, – oh, qani endi ular tinch-osoyishta hayotdan darak olib kelishsa!»

«Vasiliki, nega vahimaga tushyapsan? – dedi navozish va g'ururlik bilan Salim. – Agar ular tinch-osoyishtalik haqida xabar olib kelishmasa, biz ularga ajal urug'ini tuhfa qilamiz».

U nayzasidagi pilikni chimdib, yaxshiroq yondirib oldi, uning bu harakati qadimgi Kritning Dionisiga o'xshab ketardi.

Ammo bu jasorat meni, kichkina nodon qiz bolani vahimaga solardi, nazarimda Salimning bu ishi shafqatsiz-

lik va tentaklikka o'xshardi, dorilar portlagach, olov ichida osmonga otilib, dahshatli o'limga mahkum bo'lishdan juda qo'rqardim.

Onamni ham xuddi shunday vahima bosib, dag'-dag' titrardi.

– E, Parvardigor! – dedim qichqirib men, – onajon, biz hozir o'lamizmi? Hozir-a?

Mening bu so'zlarimni eshitib, cho'rilar ovozlarning boricha dod-faryod urishdi va Xudodan yolvorib najot tilashdi.

«Qizalog'im, Xudo asrasin seni, – dedi menga onam. – Seni vahimaga solayotgan bu o'lim hammaning boshida bor, faqat juvonmarg bo'lma, yoshingni yasha».

So'ng onam tovushini zo'rg'a chiqarib, Salimdan so'radi:

«Janoblari senga qanday farmon bergan?»

«Sulton uni afv etmagan bo'lsa, u menga xanjarini yuboradi, unda men bu erdagilarning hammasini portlatib yuboraman, agar Sulton afv etgan bo'lsa, uzugini yuboradi, unda aslaha xonani topshirib chiqib ketaman».

– «Hoy, do'stim, – dedi onam, – agar janoblari xanjarini yuborsa, bizni bunday dahshatli o'limdan xalos etginu, o'sha xanjar bilan bo'g'izlab qo'ya qol».

«Bo'pti, Vasiliki», – dedi vazminlik bilan Salim.

Qo'qqisdan shovqin ko'tarildi, quloq soldik, odamlar quvonib qiyqirishayotgan ekan. Palikarlarimiz Konstantinopolga yuborilgan fransuzning nomini aytib qichqirishayotgan ekan, demak, u ulug' hukmdordan xushxabar keltiribdi-da, deb o'yladik biz.

– O'sha fransuzning nomini eslayolmaysizmi? – dedi Morser.

Monte-Kristo unga imo qilib qo'ydi.

– Yo'q, esimga tushmayapti, – javob qildi Gayde.

– Shovqin tobora kuchaya bordi, yaqinlashayotgan oyoq tovushlari eshitildi, kimdir g'orga tushib ketdi.

Salim mash'alani tayyor qilib, shaylanib turardi.

Ko'p o'tmay g'or yo'lagida allaqanday ko'lanka paydo

bo'ldi.

«Kim u? – qichqirdi Salim. – Kim bo'lsang ham to'xta! Joyingdan qimirlama!» – dedi.

«Sultonga shon-sharaflar bo'lsin! – dedi javoban ko'lan-ka. – Vazir Ali butunlay afv etildi: u o'lim jazosidan qutulibgina qolmay, butun xazinasini va moli mulkini qaytarib oladigan bo'ldi».

Onam quvonib qichqirib yubordi va meni bag'riga bosdi.

«To'xta! – dedi Salim g'or eshigi tomon yugurib ketayotgan onamga. – Uzuk olishim kerakligini bilasan-ku!»

«Ha, aytmoqchi, uzuk olishing kerak-a», – dedi onam va tiz cho'kdi-da, Xudodan menga najot tilab, qo'llarini ko'tardi.

Gayde yana jimib qoldi, u og'ir hayajonga tushib, tomog'i qaqrab, nafasi bo'g'ildi, oqarib ketgan peshanasidan ter quyila boshladi.

Monte-Kristo stakanga muzdek suv quyib, Gaydega uzatdi-da, muloyim, lekin buyruqnamo qilib:

– O'zingizni dadil tuting, qo'zichog'im! – dedi.

Gayde ko'zlari va peshanasini artdi-da, so'zida davom etdi:

– Ko'zimiz qorong'ilikka o'rganib qolgan ekan, ko'lan-ka shohning vakili, bizning do'stimiz ekanligini tanidik.

Salim ham uni tanidi, biroq jasur yigit buyruqqa bo'ysunib, postida g'oz turardi.

«Kim yubordi seni bu yoqqa?» – so'radi u.

«Meni janob Ali-Tebelin yubordilar».

«Seni Ali yuborgan bo'lsa, undan menga nima olib kelib berishni bilarsan?»

«Ha, bilaman, senga uning uzugini olib keldim», – dedi vakil va qo'lini boshi ustiga ko'tardi, u juda uzoqda turganidan, g'ira-shira yorug'likdan Salim vakilning qo'lidagi narsani ko'rolmadi.

«Qo'lingdagini ko'rmayapman?» – dedi Salim.

«Beri kela qol, – dedi vakil, – yoki o'zim boraymi?»

«Yo'q, bu gaping ketmaydi, – dedi yosh jangchi, – men-

ga ko'rsatayotgan narsani turgan eringda chiroq nuri tushadigan joyga qo'ygin-da, men uni ko'rib olguncha o'zing nari borib tur».

«Bo'пти», – dedi vakil va Salim aytgan joyga qo'lidagi narsani qo'yib, nari ketdi.

Yuraklarimiz qinidan chiqib ketay derdi. Biz u narsa chindan ham uzuk deb o'ylagan edik. Biroq bu uzuk otam-nikimikan? Salim yonib turgan mash'alani tashlamay, uning oldiga bordi-da, engashib yaltirab turgan uzukni qo'lga oldi.

«Janoblarining uzugi, – dedi u uzukni o'pib, – ish degan mana bundoq bo'пти!»

Salim shunday dedi-da, mash'alani erga egib, oyog'i bilan toptab o'chirdi.

Vakil quvonib qichqirdi va chapak chalib yubordi. Shu signal bilan Xurshidning to'rt jangchisi yugurib kirib keldi, ulardan biri Salimning ko'ksiga xanjar urdi, Salim yiqildi. So'ngra jinoyatga g'arq bo'lib hovliqib qolgan, biroq basharasidan hamon vahima izi ketmagan askarlar g'or tomonga o'zlarini urishdi, yana biror joyda o't yo'qmikin, deb tintishdi-da, oltin to'la hamyonlarga jon-jahdlari bilan yopishishdi.

Shu orada onam meni qo'limdan ushlab epchillik bilan o'zimizzagina ma'lum bo'lgan yashirin zinadan yuqoriga chopqillab ketdi. Tepada to's-to'polon avjida edi.

3allar Xurshidning askarlari bilan to'lgan edi.

Onam endi eshikni ochmoqchi bo'lgan edi, shohning g'azabnok ovozi jarangladi.

Onam taxtalar orasidagi tirqishga yuzini qo'yib, ichkariga qaradi, tasodifan teshikka to'g'ri kelib qolgan ekanman, men ham qaradim.

«Nima kerak sizga?» – dedi otam zarxat yozilgan qog'oz ushlab turgan odamlarga.

«Senga oliy hazratning hukmini bayon etmoqchimiz, – dedi ulardan biri. – Bu farmonni ko'rdingmi?»

«Ha, ko'rib turibman», – dedi otam.

«Unday bo'lsa, o'qi buni, hazratlari kallangni olib ke-

lishni buyurdi».

Otam bunga javoban har qanday do'q-po'pisadan dahshatliroq qilib, qah-qah urib yubordi. Ikkala to'pponchasining tepkisini bosayotganda ham u kulishini qo'ymadi. Ikki o'q uzildi va ikki odam yiqilib, til tortmay o'ldi.

Otam atrofida yotgan palikarlar irg'ib turishdi-da, o't ochishdi, uyni tars-turs ovozlar, o't-alanga va tutun bosib ketdi.

Narigi tomon ham miltiqlardan o't ochdi, bizning yonimizdagi taxtalarni ham o'q teshib o'ta boshladi.

Shu payt vazir Ali-Tebelinni, mening otamni ko'rgan kishi qoyil qolardi unga: uning naqadar jasur ekanligi namoyon bo'lgandi shu topda; u ajal urug'i yog'dirib turgan o'qlarni pisand qilmay, kamalak nusxa shamshirni ko'tarib, javlon urardi. Dushmanlar bardosh berolmay tum-taraqay bo'lib qochardi.

«Salim! Salim! – qichqirdi u. – O't soqchisi, qani, ado et burchingni!»

«Salim dunyodan o'tdi, – dedi kimdir, go'yo «qochoq-xona»ning tagidan ovoz chiqayotgandek, – sen esa, janob Ali, halok bo'lding!»

Shu payt bir necha o'q uzildi, otam oyog'i ostidagi pol chilparchin bo'lib ketdi. Xurshidning askarlari pol orasidan o'q otishayotgan edi. Uch-to'rt palikar pastdan o'q eb yiqildi.

Otam baqirib, o'q teshib o'tgan tirqishlarga barmoqlarini suqib, poldan bir taxtani sug'urib oldi. Ammo shu payt o'sha teshiklardan bir yo'la yigirma o'q uzildi-da, go'yo vulqon og'zidan lovillab alanga chiqdi-yu devorni yondirib kul qilib yubordi.

O'sha dahshatli shov-shuvlar, vahimali baqiriq-chaqiriqlar orasida juda qattiq qarsillagan ikki o'q ovozi, ikki dahshatli qichqiriq mening o'takamni yorib yuborgan edi. Otamning umrini xazon qilgan ana shu ikki o'q edi, ikki marta chinqirgan ham otam edi.

Lekin u hamon derazaga suyanib, tik turardi. Onam tez ichkariga kirib, otang bilan birga o'lay, deb rosa eshikni

tortdi, ammo eshik ichkaridan qulflab qo'yilgan ekan, ochilmadi.

Otamning atrofida bir necha palikarlar o'lim talvasasi-da tirishib yotardi, ulardan o'q emagan yoki engilgina yarador bo'lgan ikki-uchtasi derazadan sakrab chiqib ketishdi.

Polni tagidan zarb bilan urib teshishdi. Otam bir oyog'i bilan cho'kka tushib qoldi; zum o'tmay yigirma askar qilich, to'pponcha, xanjar o'qtalib otamga yopishdi, bir kishiga yigirma kishi o'q otdi, qilich sanchdi, xanjar urdi: otam yigirma iblis yondirgan o't-olov girdobiga g'arq bo'lib ketdi.

Mening oyoqlarim jonsiz, tik turishga madorim yo'q, meni er qa'riga tortardi, onam esa allaqachon hushidan ajralib yotardi.

Gayde qo'llarini tizzasiga qo'yib ingradi-da, mendan mamnunmisiz, deytoganday grafga qaradi.

Graf o'rnidan turib bordi-da, qizning qo'lini ushlab, yunon tilida:

– Azizim, to'xta, birpas dam ol, bardam bo'l. Unutmaginki, sotqinlarning jazosini beradigan Tangrim bor tepamizda, – dedi.

– Qanday mudhish kechmish ekan bu, graf, – dedi Alber Gaydening rangi pag'adek oqarib ketganidan kayfi uchib, – kechiring meni, sizni bunchalik ruhiy azobga solib, ming afsuski, beadablik qildim.

– Hechqisi yo'q, – dedi javoban Monte-Kristo va qizning egilib qolgan boshiga qo'lini qo'yib, – Gayde dov-yurak qiz, u boshidan kechirgan baxtsizliklarini, dard-alamlarini yorilib hikoya qilib beradi-da, shu yo'sin ko'nglini bo'shatib oladi, – dedi.

– Buning sababi shuki, men boshimdan o'tgan mudhish kulfatlarni gapirganimda siz qilgan behisob yaxshiliklar, xayr-ehsonlar esimga tushadi-da, qalbim taskin topadi, – dedi Gayde.

Alber unga qiziquvchan nazar tashladi. Gayde uni eng ko'p qiziqtirgan narsa haqida, ya'ni, qanday qilib graf-



ning asirasi bo'lib qolganligi haqida hali hech nima demagan edi.

Gayde grafning ham, Alberning ham ko'zidan ikkisi-ning istagi bor ekanligini fahmladi-da, hikoyasini davom ettirdi:

– Onam hushiga kelganda, biz saraskar oldida turgan edik.

«O'ldiring meni, – dedi onam. – Ali bevasining or-nomusiga shafqat qiling».

«Bu haqda menga gapirma», – dedi Xurshid.

«Kimga gapiray bo'lmasa?»

«Yangi xo'jayiningga».

«Kim u yangi xo'jayinim?»

«Ana u», – dedi Xurshid, otamni halok bo'lishida ham-madan ko'proq ish ko'rsatgan bir kishini ko'rsatib, – hiko-yasini davom ettirdi Gayde g'azabga to'lgan ko'zlarini chaqchaytirib.

– Shunday qilib, – dedi Alber, – siz o'sha kishining xususiy mulki bo'lib qoldingizmi?

– Yo'q, – dedi Gayde, – u bizni o'z qo'l ostida qoldirish-ga jur'at etolmay, Konstantinopolga borayotgan qulfu-rushlarga sotdi. Biz butun Gresiyani bosib o'tib, chala o'lik holda imperator saroyi darvozasiga etib keldik. Saroy ol-dida tomoshabinlar gavjum ekan, ular bizga yo'l berishdi. Onam hamma ko'z tikkan tomonga qaradi-da, birdan chi-nqirib yiqildi, u qo'li bilan darvoza tepasida nayzaning uchiga sanchib qo'yilgan kallani ko'rsatardi.

Ana shu kalla tagiga quyidagi so'zlar yozilgan edi: «Bu Yanina poshosi Ali-Tebelinning kallasi».

Men qon yig'lab onamni turg'izmoqchi bo'ldim, ammo onam dunyodan o'tgan ekan!

Meni bozorga olib borishdi: bir boy armani meni sotib oldi. U menga muallim yollab tarbiyaladi, yoshim o'n uchga kirganda u meni sulton Mahmudga sotib yubordi.

– Men esa, – dedi Monte-Kristo, – o'shandan sotib oldim Gaydeni, o'sha, sizga ko'rsatgan singari, zumradga.

– Oh, mening hukmdorim, dunyoda sizday mehribon,

sizdek ulug' zot yo'q men uchun, – dedi Gayde Monte-Kristoning qo'llarini o'pib, – sizga tobe bo'lganimdan baxtiyorman.

Bu gaplarni eshitib Alber hang-mang bo'lib qolgan edi.

– Qani, endi qahvani iching, – dedi unga graf, – hikoya tugadi.



*Бешинги*  
**Қисм**



## I. YANINADAN KELGAN MAKTUBLAR

Frans Nuarte bo'lmasidan og'ir iztirobda gangib chiqdi, hatto Valentinaning unga ichi achidi.

Mojaroning boshidan oxirigacha bir necha martagina ming'irlab qo'yg'an, so'ng shoshib kabinetiga chiqib ketgan Vilfor ikki soatdan so'ng quyidagi xatni oldi:

«Bugun ma'lum bo'lgan voqealardan so'ng janob Nuarte de Vilfor o'z oilasi bilan Frans d' Epine oilasi o'rtasida qardoshlik aloqalari bog'lashni xayoliga ham keltirmas endi. Janob de Vilfor bugun oshkor etilgan voqealardan burun xabardor bo'lsa-da, uni ogohlantirib qo'ymagani uchun Frans d' Epine juda g'azablendi».

Shu mahal og'ir zarba natijasida munkayib qolgan qirollik prokurorini ko'rgan kishi, u bu zarbani aslo kutmagan ekan, deb o'ylashi mumkin edi. Rostdan ham Vilfor, otam bu sirni bunchalik ochiq, to'g'rirog'i, bunchalik ayovsiz oshkor qilib tashlashi mumkin, deb hech o'ylamagan edi. To'g'ri, o'g'lining fikrlari bilan juda kamdan-kam hisoblashadigan Nuarte, bu voqeadan Vilforni xabardor qilib qo'yishni lozim topmagan ekan, Vilfor esa, general de Kenel, boshqacha aytganda, baron d' Epineni yakkama-yakka olishuvda emas, balki qotillar o'ldirgan deb yurgan edi.

Uni hamisha hurmat qilib yurgan yosh yigitning bu dar-g'azab xati dimog'dor Vilforning izzat-nafsiga qattiq tegdi.

U kabinetiga kirishi bilan orqada xotini paydo bo'ldi.

Janob Nuarte huzuriga chaqirtib olgan Fransning birdan chiqib ketishi hammani nihoyatda hayratga solgandi, notarius, guvohlar orasida o'tirgan Vilfor xonim o'ng'ay-siz holga tushib qoldi. Oxiri u o'rnidan shartta turdi-da: «Nima bo'ldi ekan, borib bilay», deb chiqib ketdi.

Vilfor xotinigiga, Nuarte bilan d' Epine o'rtasida bo'lgan hozirgi so'zlardan so'ng Valentina va Fransning nikohi bo'lishi mumkin emas, deb qo'ya qoldi...

Kutib o'tirganlarga bunday deb aytish mumkin emas, shu sababli Vilfor xonim mehmonxonaga qaytib keldi-da, Nuarte janoblarini tutqanoq tutib qolibdi, shartnomaga imzo chekishni keyinga qoldirish kerak, dedi.

Bu xabar, butunlay yolg'on bo'lsa-da, ammo shu xonadonda yuz bergan bir-biriga o'xshash ikki hodisaga g'alati bir qo'shimcha bo'lib tushgan ediki, hozir bo'lganlar bundan hayratda qolib, bir-birlari bilan ko'z urishtirib olishdi-da, churq etmay chiqib ketishdi.

Ham quvonch, ham vahima bosgan Valentina esa, endi qutulish mumkin emas deb hisoblagan zanjirni bir zarba bilan parchalab tashlagan ojiz cholni mehr bilan o'pdi-da, dam olishga ruxsat so'radi. Nuarte imo bilan javob berdi.

Biroq Valentina o'z xonasini qo'yib, bobosining bo'lmasidan yo'lakka yo'l oldi va eshikchadan boqqa chopib chiqdi. Shuncha voqealar paytida qizning qalbini pinhoni hayajon titratib turgan edi. U, hozir Morrel xuddi «Lammermur qaylig'i»dagi Revensvudga o'xshab, g'azabnok kirib keladi, deb har daqiqa kutardi.

Valentina panjara oldiga vaqtida etib keldi. Frans qabristondan Vilfor bilan birga ketganini ko'rgan Maksimilian qanday voqea yuz berishini payqab, ular ketidan yo'lga tushgan edi. U Fransning uyga kirganini, so'ng chiqqanini va yana Alber va Shato-Reno bilan qaytib kelganini ko'rib turgan edi. Xullas, unda hech qanday shubha qolmagandi. Ana shundan keyin u polizga yugurib borib, o'zini o'tga ham, suvga ham tashlashga tayyor bo'lib turdi, Valentina jindak imkon tug'ilishi bilan yugurib chiqib kelishiga u ishongan edi.

Nafsilamriga, u xato qilmagan ekan: tirqishdan Valentina ko'rindi, qiz odatdagi ehtiyotkorlikni unutilib qo'yib, to'g'ri darvozaga chopqillab kelayotgan edi; buni ko'rib Maksimilianning ko'ngli joyiga tushdi. Valentina so'z bosh-

lashi bilan u quvonib sakrardi.

– Qutuldik! – dedi xitob qilib Valentina.

– Qutuldik! – takrorladi Morrel boshiga baxt qushi qoʻnganiga hamon ishonmay. – Xaloskorimiz kim?

– Buvam. Undan umrbod minnatdor boʻling, Morrel, umrbod!

Morrel cholga chin yurakdan minnatdor boʻlishga soʻz berib, ont ichdi. Bunday ont ichish unga qiyin ham emas edi, chunki shu topda Nuarteni doʻst va ota sifatida se-vibgina qolmay, bir avliyo deb bilib, unga sajda qilishga tayyor edi.

– Xoʻsh, qanday sodir boʻldi bu hol? – soʻradi Morrel. – Nima qildi u?

Valentina hammasini oqizmay-tomizmay aytib bermoq-chi boʻldi-yu, biroq bu gaplarning tagida dahshatli bir sir borligi va bu faqat buvasigagina taalluqli emasligi esiga tushdi-da:

– Payti kelganda aytib beraman, – dedi.

– Qachon?

– Sizga turmushga chiqqach.

Bu soʻzlar uchun Morrel har qanday buyruqni «xoʻp» deb bajarishga tayyor edi, shuning uchun Valentinaning javobidan qanoat hosil qilib qoʻya qoldi va hatto darhol ketishga ham rozi boʻldi, faqat ertaga kechqurun diydor koʻrishish sharti bilan Valentina xoʻp deb vaʻda berdi.

Valentinaga daxldor hamma narsa oʻzgarib ketdi, en-dilikda, bundan bir soat muqaddam Fransga turmushga chiqmayman deyishidan koʻra, hozir Maksimilianga albatta erga chiqaman, deyish oson boʻlib qoldi qizga.

Shu choq Vilfor xonim Nuarte xonasiga chiqdi.

Nuarte uni har galgidek qovogʻidan qor yogʻib qabul qildi.

– Janob, – dedi xonim, – voqea huzuringizda yuz ber-gani vajidan Valentinaning nikohi bekor boʻlganini sizga aytib oʻtirishimning aslo hojati yoʻq.

Nuarte indamadi.

– Biroq siz, – davom etdi Vilfor xonim, – bu nikohga

men hamma vaqt qarshilik ko'rsatib kelayotganimni bilmaysiz, bu boradagi ishlarning hammasi mening xohishimsiz uyushtirildi.

Nuarte, nima deyapti bu, degandek, keliniga qarab qo'ydi.

– Endilikda siz istamagan bu nikoh bekor qilingan ekan, men huzuringizga bir iltimos bilan keldim. (Buni sizga erim ham, Valentina ham aytishga jur'at etolmaydi.)

Nuarte keliniga savolomuz qaradi.

– Men, – dedi Vilfor xonim, – nevarangizga mehringizni beribgina qolmay (aslida siz unga o'la-o'lguncha mehribon bo'lib qolgansiz), merosni bera qoling, deb iltimos qilgani keldim. Sizdan buni iltimos qilishga faqat men haqliman, chunki bundan menga zarracha naf yo'q.

Nuartening ko'zlarida sarosima alomatlari paydo bo'ldi, aftidan, u bu iltimosning sabablarini axtarar va topolmay qiynalardi.

– Janob, – dedi de Vilfor xonim, – mening bu istagim sizning istagingizga mos keladi, deb ishonsam bo'ladimi?

– Ha, – imo qildi Nuarte.

– Demak, janob ikkimizning fikrimiz bir joydan chiqdi, – dedi de Vilfor xonim, – men sizdan minnatdorman, niyatimga etdim, huzuringizdan xursand chiqib ketyaman.

Xonim shunday dedi-da, cholga ta'zim qilib, xonadan chiqib ketdi.

Ikkinchi kuni Nuarte notariusni chaqirtirdi. Birinchi vasiyatnoma bekor qilinib, yangisi yozildi, yangi vasiyatnomada chol bor dunyosini Valentinaga qoldirdi, faqat bir shart bilan: uni Valentinadan ajratib qo'ymasliklari kerak.

Markiz va markiza Sen-Meranning merosxo'ri mademuazel de Vilfor endilikda buvasining ham mehr-shafqatiga sazovor bo'lib, xayrli kunlarning birida uch yuz ming livr yillik daromad egasi bo'lib olajagini hisob-kitob qilib chiqqan zotlar ham darhol topila qoldi.

Shu orada graf Monte-Kristo graf de Morser huzurida



bo'lgan edi. Morser esa, Danglarga tayyor ekanini namoyish qilmoq uchun tantanalarda kiyadigan general-leytenant formasini kiydi-da, barcha ordenlarini taqdi, eng shinnam izvosini qo'shtirdi-da, Shosse d' Anten ko'chasi tomon yo'l oldi. Danglar darvozasi oldida to'xtab, baronga xabar berishini buyurdi. Bankir shu payt oylik balansini yakunlab o'tirgan edi.

So'nggi kunlarda Danglarning kayfi chog' vaqtini uchratish juda qiyin bo'lib qolgan edi. Hozir ham uning ko'ngli nihoyatda g'ash edi.

Keksa do'stini Danglar kibr-havo bilan kutib oldi.

Odatda dimog'dor Morser, aksincha, kayfini chog' qilib, ochiq ko'ngilli bo'lib ko'rinishga urinardi. U taklifim quvonch bilan qabul qilinishi shubhasiz, deb o'yladi-da, ustomonlikni yig'ishtirib, gapning po'skallasini aytib qo'ya qoldi:

– Baron, huzuringizga o'sha eski masalada keldim, – dedi u, – eski rejalarimiz haqida ko'pdan beri gapirishamizu, lekin nihoyasiga etkazmaymiz.

Morser bu so'zlarni eshitgach, baronning chehrasi ochilib ketar, deb o'ylagan edi, chunki uning bu xafaqonligini o'zining uzoq vaqt jim yurganiga yo'ygan edi; biroq aksincha, Danglarning yuzi ilgarigidan battarroq tund edi.

Morser so'zini tugatolmay qolishining boisi ham shunda edi.

– U qanaqa reja ekan, graf? – so'radi baron o'zini gap nima ustida borayotganini bilmaslikka olib.

– Siz, aziz baron, – dedi graf, – o'taketgan rasmiyatchisiz-da. Men bu marosimda hamma tartib-qoidalar qoyilmaqom qilib o'tkazilishini unutibman. Buning uchun uzr. Axir mening bittayu bitta o'g'lim bor, avvalo uni uylantirish niyatidaman, bu borada tajribam yo'q. Gunoh menda, kechiring, – dedi graf va soxta iljayib o'rmidan turdi-da, ikki bukilib ta'zim qilib dedi:

– Baron, qizingiz mademuazel Ejeni Danglarni o'g'lim vikont Alber de Morserga xotinlikka so'rab keldim.

Danglar, bu taklifni mamnuniyat bilan qabul qilish

o'rniga (Morser shunday bo'ladi deb o'ylagan edi-da!) qovog'ini solib, grafni o'tirishga taklif etdi-da:

– Bu gapingizga javob berishdan oldin, o'ylab ko'rishim kerak, – dedi.

– O'ylab ko'rishim kerak emish! – dedi taajjublanib Morser. – Shuncha vaqtdan buyon o'ylab ko'rmaganmidingiz? Bu nikoh haqida ikkimiz birinchi marta gaplashib olganimizdan buyon oradan sakkiz oy vaqt o'tdi-ku.

– Graf, shuni bilib qo'yingki, har kuni yangidan-yangi voqealar yuz beradi, sharoit o'zgaradi, natijada kishilar ilgari niyatlarini o'zgartirishga majbur bo'ladilar.

– Bu bilan nima demoqchisiz? – dedi Morser. – Baron, gapingizga tushunolmay qoldim!

– Ochig'ini aytsam, shu o'tgan ikki hafta ichida ahvol o'zgarib, tamoman yangi vaziyat paydo bo'ldi...

– Hoy, menga qarang, – dedi Morser, – nega endi maynabozchilik qilyapsiz?

– Qanaqa maynabozchilik?

– Keling, ochiqchasiga gaplashaylik.

– Marhamat.

– Graf Monte-Kristo bilan uchrashdingizmi?

– Men u bilan tez-tez uchrashib turaman, – dedi kibr bilan Danglar, – ikkimiz yaqin og'ayni bo'lib qoldik.

– So'nggi uchrashuvlaringizdan birida siz unga, Morser nikoh masalasida hardamxayollik, qat'iyatsizlik, mujmallik qilyapti, degan ekansizmi?

– Xuddi shunday deganman.

– Mana endi ko'rib turibsizki, men parishonlik ham, mujmallik ham qilayotganim yo'q, aksincha, va'daga vafo qilishingizni iltimos qilib, oldingizga o'zim keldim.

Danglar indamadi.

– Yoki fikringizdan qaytdingizmi? – dedi qo'shimcha qilib Morser, – yoki meni yalintirib, erga urmoqchi bo'ldingizmi?

Danglar gapni shu maromda davom ettirsa, o'ziga gap tegib qolishini fahmladi.

– Graf, – dedi u, – sipolik qilayotganimdan ajablanish-

ga haqlisiz: men buni tushunib turibman. Ishoning, juda xafaman, ammo jiddiy bir hol meni shunga majbur etyapti.

– Bular bahona, – dedi e'tiroz bildirib graf, – mening o'rnimda boshqa odam bo'lganda, ehtimol, shu gaplar bilan qanoatlanib qo'ya qolardi, ammo graf de Morser bexosdan to'qnashib qolgan zotlardan emas. U va'da bergan kishi huzuriga tashrif etib, va'dasini yodiga solganda, u kishi va'dasiga vafo qilishni istamas ekan, Morser loaqal buning sababini so'rashga haqli.

Danglar qo'rqqoq odam edi, ammo hozir qo'rqqoqligini sezdirishni istamasdi. Morser gapining ohangi uning jig'iga tegdi.

– Sababi bor, albatta, – dedi u.

– Bu bilan nima demoqchisiz?

– Sababi bor, deyaрман, ammo uni aytish mumkin emas.

– Axir men dumi yuluq gaplaringizga qanoatlanmayman, lekin biz bilan oilaviy munosabat bog'lashni istamayotganligingiz sezilib turibdi.

– Janob, unday emas, – javob qildi Danglar, – men nikoh to'g'risidagi masalani keyinga suryapman, xolos.

– Hoy, menga qarang, meni shu bema'ni gaplaringizga ko'nib, kutib o'tiradi deb o'ylayapsizmi?

– Demak, kutishni xohlamangiz, u holda rejalarimiz amalga oshmadi, deb qo'ya qolamiz.

Takabbur va jahli tez graf shaytonga hay berish uchun lablarini qattiq tishladi; hozir biror narsa desa o'zi kulgi bo'lib qolishini fahmlardi. U eshik tomon yurdi, biroq shashtidan qaytib, orqasiga qaytdi.

U hovuridan tushdi. Chehrasida g'azab o'rniga tashvish alomati paydo bo'ldi.

– Azim Danglar, menga qarang, – dedi u, – biz siz bilan tanishganimizga ko'p yil bo'ldi, axir bir-birimiz bilan bir oz bo'lsa-da kelishib ish tutishimiz lozim. Iltimos qilaman, ayting, nima gap o'tdi, axir men bilishim kerak, o'g'limga munosabatingiz o'zgarib qolganligiga nima sabab bo'ldi?

– Buning shaxsan vikontga aloqasi yo‘q, – dedi surbetlik bilan Danglar Morserning bir oz bo‘shashganini ko‘rib, – bundan boshqa gapim yo‘q sizga.

– Bo‘lmasa, kimga aloqasi bor? – so‘radi rangi o‘chib Morser.

Morserning yuragiga g‘ulg‘ula tushganini sezgan Danglar unga odatdagidan ko‘ra dadilroq tikildi.

– Yaxshisi, ochig‘ini aytmayotganimga shukr qilavering, – dedi.

G‘azabini zo‘rg‘a bosib turgan Morserning a‘zoyi badani titrab ketdi.

– Men, – dedi u entikib, – ochig‘ini aytishingizni talab qilaman, bunga haqqim bor. Siz, ehtimol, de Morser xonimdan biror narsada norozi bo‘lgandirsiz? Yoki meni uncha boy emas deb hisoblaysizmi? Yo bo‘lmasa qarashlarim siznikiga mos kelmay qolgandir?..

– U ham emas, bu ham emas, – dedi Danglar, – ochig‘ini aytsam, kechirib bo‘lmaydigan gunoh qilgan bo‘laman, chunki, o‘sha va‘da bergan paytda ham men shunday bo‘lishini bilardim. Hadeb so‘rayvermang, foydasi yo‘q. O‘zim ham yuragingizga g‘ulg‘ula solib qo‘yganimdan afsuslanayapman. Keling, bas qilaylik bu gaplarni. Masalani shundayligicha qoldiraylik, ya‘ni nikoh masalasi ham taxi buzilmay turaversin, six ham kuymasin, kabob ham. Darvoqe, shoshilishga na hojat? Qizim endigina o‘n etti bahorni ko‘rdi, o‘g‘lingiz yigirma bir yoshga to‘ldi. Sabr qilaylik. Bir oz vaqt o‘tsin, ehtimol bugun aniq bo‘lmay turgan narsa, vaqt-soati kelib o‘z-o‘zidan ravshan bo‘lib qolar, qing‘ir ishning qirq yildan keyin ham qiyig‘i chiqadi, bunday bo‘htonlar turmushda uchrab turadi.

– Bo‘hton? – xitob qildi Morser murdaday oqarib. – Hali ustimdan bo‘hton qilib yurishibdimi?

– Graf, yana qaytaraman, sabablarini so‘ramang.

– Taklifim rad bo‘ldi, deb ketaveraymi endi?

– Janob, bu menga ham juda og‘ir. Hatto sizga qaraganda menga og‘irroq, chunki, siz bilan qarindoshlik sharafiga muayassar bo‘laman deb umid qilgandim, mana

endi nikoh bo'lmashligi kuyovga qaraganda qizga ko'proq isnod keltiradi.

– Bo'пти, janob, bas qildik bu gapni, – dedi Morser va qo'lgopini asabiy g'ijimlab chiqib ketdi.

«Morser, va'dangizdan qaytishingizga men sababchi emasmanmi, deb graf biror marta so'rashga jur'at etolmadi-ya», – deb qo'ydi Danglar ichida.

Kechqurun Danglar bir necha do'stlari bilan uzoq maslahatlashdi. Butun vaqtini mehmonxonada ayollar davrasida o'tkazgan Kavalkanti Danglar uyidan hammadan so'ng chiqib ketdi.

Ertasiga ertalab Danglar o'rnidan turiboq gazetalarni so'radi, gazetalarni keltirganlarida ular orasidan «Xolis ovoz» gazetasini ajratib oldi.

Bu gazetaning muharriri Boshan edi.

Danglar shoshib banderolni yirtib, gazetani yozdi, bosh maqolaga e'tibor bermadi-da, xronikada to'xtadi va «Yanidan kelgan maktublar» deb boshlangan xabarni g'azabla tirjayib o'qidi-da, «Juda soz, polkovnik Fernan to'g'risidagi mana shu kichkina xabar endilikda graf de Morserga biror izoh berishdan meni xalos etsa kerak», – deb qo'ydi o'zicha.

Xuddi shu asnoda, ya'ni ertalab soat to'qqizda Alber de Morser hamma tugmalari solig'liq qora libosga o'ralib, hayajonda rangi bo'zarib Elisey Maydonidagi hovliga keldi.

– Grafning chiqib ketganiga yarim soat bo'ldi, – dedi darvozabon.

– Batistenni ham olib ketdimi? – so'radi Morser.

– Yo'q, janob vikont.

– Batistenni chaqiring, unda gapim bor. Darvozabon kirib, kamerdinerni chaqirib chiqdi.

– Azimim, – dedi Alber, – xiralik qilayotganim uchun kechiring meni, graf rostdanam uyda yo'qligini o'zingizdan so'rab bilmogchiman.

– To'g'ri, graf uyda yo'q, – javob qildi Batisten.

– Hatto men uchun ham yo'qmi?

– Graf sizni hamma vaqt quloch yozib kutib olishini bilaman, shunday ekan, men sizni boshqalar bilan tenglashtirarmidim.

– Gaping to‘g‘ri, men muhim masalada u bilan gaplashib olishim kerak. U tezda qaytadimi?

– Ha, tezda qaytsa kerak, soat o‘nga nonushtani tayyorlab qo‘yishni buyurgan edi.

– Juda soz, ungacha Elisey Maydonini aylanib turaman, rosa soat o‘nda kelaman, mabodo graf mendan oldinroq kelib qolgudek bo‘lsa, meni kutib turishini iltimos qilganimni ayt.

– Xo‘p bo‘ladi, janob.

Alber kira qilgan ikki g‘ildirakli izvoshni grafning darvozasi oldida qoldirdi-da, o‘zi yayov ketdi.

U Bevalar xiyoboni oldidan o‘tayotganda Gosse tiri oldida turgan izvosh grafnikiga o‘xshab ko‘rindi, yaqin borib, izvoshchini tanidi.

– Graf tirdami? – so‘radi Morser undan.

– Ha, tirda, janob, – javob berdi izvoshchi. Chindan ham tirga yaqinlashganda Alber o‘q ovozi eshitgandi.

U tirga kirdi. Yo‘lakdagi bog‘chada xizmatchini uchratdi.

– Kechirasiz, janob vikont, – dedi xizmatchi, – bir oz sabr qilib tursangiz durust bo‘larmikin?

– Nega endi, Filipp? – so‘radi Alber, u tirning doimiy muxlislaridan edi, shu vajdan bu taklif unga g‘alati tuyuldi.

– Sabr qiling deganimning boisi shuki, hozir mashq qilayotgan kimsa butun tirni bir o‘zi egallab olgan, boshqalar huzurida hech otmaydi.

– Filipp, siz bor vaqtda ham-a?

– Men tashqarida turibman-ku.

– To‘pponchalarni kim o‘qlayapti?

– O‘zining qaroli.

– Nubiyalikmi?

– Habash.

– Demak, o‘sha ekan-da.

– Bu janobni taniysizmi?  
– Men uni opketgani keldim, u mening og‘aynim bo‘ladi.

– Unday bo‘lsa boshqa gap. Men hozir xabar qilaman unga.

Filipp, qiziqayotgan odamdek tirga kirdi. Sum o‘tmay ostonada Monte-Kristo paydo bo‘ldi.

– UZR, azizim graf, xalaqit berdim, bunga xizmatkorlaringiz aybdor emas, o‘zim surbetlik qildim. Uyingizga bor-gandim, sayr qilib ketdilar, soat o‘nda nonushtaga qaytadilar, deyishdi. Men ham soat o‘ngacha aylanib turay deb, bu yoqqa chiqdim va tasodifan izvoshingizni ko‘rib qoldim.

– Demak, siz men bilan birga nonushta qilgani kelib-siz-da, ofarin! Bundan juda mamnunman.

– Rahmat, biroq hozir tomog‘imdan hech narsa o‘tmaydi, so‘ngroq nomatlubroq davrada ovqatlanarmiz.

– Bu gapingizga tushunmadim? Bu nima deganingiz?

– Azizim graf, bugun men duelga chiqaman.

– Siz-a? Nega?

– Jang qilmoqchiman.

– Tushundim, nima sababdan? Jang qilish uchun ko‘p bahona topish mumkin.

– Sha‘nimga tegishdi.

– Bu jiddiy gap.

– Nihoyatda jiddiy bo‘lganidan oldingizga bir iltimos bilan keldim.

– Qanaqa iltimos?

– Menga sekundant bo‘lishingizni iltimos qilaman.

– Bu hazilakam ish emas, xususan bu erda gapiradigan gap emas, yuring biznikiga. Ali, suv keltir.

Graf engini shimardi-da, tir merganlari qo‘lini yuvadigan kichikkina xonaga o‘tdi.

– Kiring siz ham, vikont, – dedi sekin shivirlab Filipp, – qiziq narsalarni ko‘rasiz.

Morser ichkari kirdi. Mo‘ljal taxtasida nishon o‘rniga o‘yin qartasi yopishtirilgan edi. Morser olisda dastadagi

suratlardan tashqari tuzdan to o'nlikkacha qartalar yopishtirib qo'yilganligini ko'rdi.

– Piket o'ynabsiz-da?

– Yo'q, – dedi graf, – qarta dastasi yasadim.

– Qarta dastasi?

– Ha. Mana qarang, anavilari tuz, narigilari ikkilik, biroq mening o'qlarim ularni uchlikka, beshlikka, ettilikka, sakkizlikka, to'qqizlikka va o'nlikka aylantirdi.

Alber yaqinroq bordi.

Haqiqatan ham to'g'ridan otilgan o'qlar tuz va ikkiliklarni boplab bosmaxonada bosiladigan xollarning o'rnidan teshib o'tgandi. Alber taxtaga yaqin borib, ehtiyotsizlik qilib graf nishonidan ajali etgan uchta o'lik qaldirg'ochni erdan oldi.

– Ana xolos! Buni qarang-a! – xitob qildi u.

– Azizim vikont, ajablanadigan hech narsa yo'q bu erda, – dedi Monte-Kristo, Ali uzatgan sochiqqa qo'lini artib, – bo'sh vaqtni bir amallab o'tkazish kerak-ku. Qani ketdik.

Ular Monte-Kristoning izvoshiga o'tirishdi, oradan bir oz o'tgach, 30-uy darvozasiga etib kelishdi.

Monte-Kristo Morserni kabinetiga olib kirib o'tqazdi. O'zi ham o'tirdi.

– Mana endi bamaylixotir gaplashamiz, – dedi graf. – Ko'rib turibsiz, men tamoman xotirjamman.

– Kim bilan olishmoqchisiz?

– Boshan bilan.

– O'z do'stingiz bilan-a?

– Hamisha do'stlar bir-biri bilan olishadi.

– Bunga biror sabab bo'lmog'i zarur.

– Sabab bor.

– U sizga nima qildi?

– Kecha kechqurun uning gazetasida... yaxshisi o'zingiz o'qib qo'ya qoling.

Alber gazetani Monte-Kristoga uzatdi, u olib o'qidi:

– «Yaninadan kelgan maktublar».

Hozirgacha hech kimga ma'lum bo'lmagan, hech kim tomonidan oshkor qilinmagan quyidagi voqea ma'lum



bo'ldi: shaharni muhofaza qilib turgan qal'ani turklarga vazir Ali-Tebelin juda ishonib yurgan Fernan degan bir fransuz ofiseri sotqinlik qilib ochib bergan ekan».

– Ha, nima bo'пти? – so'radi Monte-Kristo. – Bu xabarda sha'ningizga dog' tushiradigan hech narsa yo'q-ku?.

– Nega bo'lmas ekan?

– Yanina qal'asi Fernan nomli sotqin ofiser tomonidan ochib berilgan ekan, buning sizga nima daxli bor?

– Juda daxli borda, otamning, ya'ni graf de Morserning nomi Fernan.

– Otangiz Ali posho xizmatida bo'lganmidi?

– Ha, u Gresiyaning mustaqilligi uchun jang qilgan edi, mana, bo'htonning tagi qayerda.

– Azizim vikont, menga qarang, shoshmay, aqlni joyiga qo'yib gaplashaylik.

– Marhamat.

– Menga shuni aytib bering: ofiser Fernan va graf de Morser nomidagi shaxslar aslida bir odam ekanligi Fransiyada ma'lummi? Yana, adashmasam, bir ming sakkiz yuz yigirma ikkinchi yoki bir ming sakkiz yuz yigirma uchinchi yilda zabt etilgan Yanina kimga kerak bo'lib qolibdi hozir?

– Hamma razolat mana shunda-da, shuncha vaqt indamay kelib, mana endi janjal ko'tarish va yuqori lavozimda o'tirgan kishini badnom qilish uchun uzoq o'tmishdagi voqeani esga olib, dastak qilishyapti. Men otamning merosxo'riman, uning sha'niga jindak dog' tushirishlariga yo'l qo'ymayman. Gazetada shu xabarni bosib chiqargan Boshanga sekundantlarni yuboraman, shunda u xabarga raddiya beradi.

– Boshan hech narsaga raddiya bermaydi.

– U holda olishamiz.

– Yo'q, olishmaysiz, u, grek armiyasida Fernan nomli yuzlab ofiser bo'lishi mumkin, deb javob qilishi mumkin.

– Baribir olishamiz. Men bunga indamay ketolmayman... Otam jangovar soldat, dovrug' qozongan zot...

– Yo'qsa, u bunday deb yozadi: «Xabardagi Fernan nom-

lari Fernan deb atalmish graf de Morser bilan hech qanday aloqador emas, deb hisoblashga bizda dalillar bor».

– Men to‘la, haqiqiy raddiya berilishini talab qilaman, bunaqasi meni qanoatlantirmaydi.

– Shunday talab qo‘yib, sekundantlaringizni yuborasizmi unga?

– Albatta.

– Bekor qilasiz.

– Xullas, mening iltimosimni qondirmoqchi emassiz, shundaymi?

– Duelga qanday munosabatda ekanimni Rimda sizga aytgandim, esingizda bo‘lsa kerak?

– Biroq bugun tirda merganlikni mashq qilayotgan ekansiz, ustidan chiqib qoldim, bu duel to‘g‘risidagi fikringizga hech to‘g‘ri kelmaydi-ku.

– Aziz do‘stim, kishi o‘zini hech mahal mustasno tutmasligi kerak. Jinnilar orasida jinnidek yashashga o‘rganmoq lozim, men bilan janjal chiqarishga bironta sabab topadigan kallavaram har qadamda uchrashi mumkin. Xuddi siz bilan Boshan o‘rtasida bo‘lganidek, u ham bo‘lmag‘ur bir vaj topib, meni duelga chaqirishi va sekundantlarini yuborishi yoki olomon oldida sazoyi qilishi mumkin.

– Demak, o‘zingiz, men ham duelga chiqishim mumkin, demoqchimisiz?

– Bo‘lmasam-chi!

– Shunday ekan, nega mening duelga chiqishimni istamayapsiz?

– Men sizni olishmang deyotganim yo‘q, duel jiddiy masala, faqat o‘ylab ish tutish kerak, demoqchiman.

– Boshan otamni haqorat qilishdan oldin duelni o‘ylaganmikin?

– Mabodo shunday qilmagan bo‘lsa va bunga o‘zi iqror bo‘lsa-da, siz undan xafa bo‘lmasligingiz lozim.

– Azizim graf, siz o‘ta muruvvatlisiz-da!

– Siz esa o‘ta g‘azabkorsiz. Faraz qilaylik... eshityapsizmi, faraz qilaylik... mening gapimdan xafa bo‘lmang

tag'in.

- Qulog'im sizda.
- Faraz qilaylik, o'sha dalil to'g'ridir.
- Otasining or-nomusiga dog' tushiradigan «faraz»larga o'g'il yo'l qo'yolmaydi.
- Bizning zamonamizda bunaqa narsalarga yo'l qo'yi-shaveradi.
- Davrimizning illati bu.
- Siz bu illatga barham berish niyatidamisiz?
- Faqat o'zimga aloqador bo'lsa.
- Sizning bunchalik qaysar odam ekanligingizni bilmas ekanman!
- Shunday qilib yaratilganman.
- Yaxshi maslahatlarga hech quloq solmaysizmi?
- Quloq solaman, faqat do'stning maslahatiga.
- Siz meni do'stim deb bilasizmi?
- Ha.
- Shunday bo'lsa, Boshanga sekundantni yuborishdan oldin, aniqlab oling.
- Kimdan aniqlab olaman?
- Hech bo'lmasa Gaydedan.
- Bu voqeaga ayol kishini aralashtirishning nima kera-gi bor? U nima derdi menga?
- Otasining mag'lubiyatga uchrashi va o'ldirilishida otangiz aybdor emasligini aytishi yoki otangiz haqida boshqa ma'lumot berishi mumkin.
- Azizim graf, dargumon gaplarga meni ishotiraman deb ovora bo'lmang, dedim-ku sizga.
- Demak, siz bunday usulda masalani aniqlashni ista-maysizmi?
- Istamayman.
- Qat'iyani?
- Qat'iyani!
- Unday bo'lsa yana bir oxirgi maslahatim bor.
- Mayli, faqat oxirgisi bo'lsin.
- Yoki aytmay qo'ya qolaymi? Eshitishni istamayapsiz, shekilli?

- Aksincha, eshitmoqchiman, marhamat qiling.
- Boshanga sekundantingizni yubormang.
- Nega endi?
- O'zingiz boring.
- Bu tartib-qoidalarni buzish bo'ladi-ku.
- Sizing ishingiz boshqalarnikiga hech o'xshamaydigan ish.
- Nega endi shaxsan o'zim borishim kerak?
- Shunday qilsangiz, hamma gap ikkingizning o'rtangizda qoladi.
- Gapingizga tushunmayapman.
- Bu juda ravshan. Mabodo Boshan o'z so'zidan qaytishga rozi bo'lsa, siz unga o'z ixtiyori bilan shunday qilish imkonini berasiz, u raddiya beradi. Bordi-yu, u raddiya bermasa, bu sirni ikki yot kishiga oshkora qilish qochmaydi.
- Chet kishiga emas, do'stlarga.
- Bugungi do'st ertaga dushman bo'lib qolishi hech gap emas.
- Bo'lmag'ur gapni qo'ying!
- Boshan-chi?
- Demak...
- Demak, ehtiyot bo'ling.
- Sizingcha, Boshanning oldiga o'zim borishim kerakmi?
- Ha, o'zingiz boring.
- Bir o'zimmi?
- Ha, yakka o'zingiz. Kishining o'z izzat-nafsidan voz kechishini istar ekansiz, uni achchiq haqoratlardan muhofaza qilmog'i ham lozim.
- Balki, siz haqdirsiz.
- Mana, endi o'zingizga keldingiz.
- Bir o'zim boraman.
- Boring, lekin butunlay bormasangiz yana yaxshi.
- Iloji yo'q.
- Ixtiyor o'zingizda, har qalay, ilgari shashtingizdan qaytib, bunisiga o'tganingiz yaxshi bo'ldi.

– Biroq, ehtiyot choralari natija bermay, yakkama-yakka olishishga to'g'ri kelsa, siz menga sekundant bo'lasizmi?

– Azizim vikont, – dedi jiddiy ohangda Monte-Kristo, – yordam berishga hamisha tayyor ekanimga sizni bir gal ishontirgan edim, biroq hozir siz bajarib bo'lmaydigan narsani talab qilyapsiz mendan.

– Nega?

– Vaqti soati kelib, bilib olarsiz.

– Ungacha nima qilay?

– Buni sir saqlashingizni iltimos qilaman.

– Bo'пти. Sekundant bo'lishni Frans va Shato-Renodan so'rayman.

– Juda soz, ikkalasidan so'rang.

– Mabodo olishish muqarrar bo'lib qolsa, menga qilich-bozlikdan yoki merganlikdan saboq berasizmi?

– Yo'q, bunday qilolmayman.

– Juda g'alati odamsiz-da! Demak, hech narsaga aralashmoqchi emassiz?

– Hech narsaga.

– Unday bo'lsa, bu haqda gapni tamom qildik. Xayr, graf.

– Xayr, vikont.

Alber shlyapasini olib chiqib ketdi.

Uni darvoza oldida ikki g'ildirakli izvosh kutib turgandi, Alber g'azabini mumkin qadar sezdirmaslikka urinib, Boshan huzuriga yo'l oldi. Boshan tahririyatda edi.

Boshan qorong'i, chang-to'zonga to'la xonada o'tirardi, odatda tahririyat binosi hamisha shunaqa chang bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Alber de Morser kelganini unga xabar qilishdi. Boshan buni ikki karra qaytarishga majbur etdi va hamon ishonmay, qichqirdi:

– Kiring!

Alber kirdi.

Boshan do'stini ko'rdi-yu, hang-mang bo'lib, «O'-ho'» deb yubordi.

Alber kabinet polida yotgan uyum-uyum qog'ozlar, turli

hajmdagi gazetalarni bosib uning oldiga o'tib bordi.

– Bu yoqqa, azizim, bu yoqqa! – dedi Boshan qo'lini Alberga uzatib, – qaysi shamol uchirdi sizni? Adashib kirdingizmi yoki nonushtani men bilan baham ko'rishni istab qoldingizmi? Qani, stullardan birini olib o'tiring, hu anavi yorongul yonidagini ola qoling, bu gul menga gazetalardan bo'lak ham varaq bor ekanligini eslatadi.

– Men ham xuddi ana shu gazetangiz masalasida keldim, – dedi Alber.

– Siz-a! Biror gap bormi?

– Raddiya berilishini talab qilaman.

– Raddiya? Nimaga! E, o'tirsangiz-chi!

– Rahmat, – dedi ikkinchi marta irimiga ta'zim qilib Alber.

– Aniqroq gapiring?

– Gazetangizda bizning oilamizning or-nomusini poymol qiladigan bir xabar bosilib chiqdi, o'shani rad etishingizni talab qilaman.

– Yo'g'-e! – dedi Boshan taajjulanib. – Qanaqa xabar ekan u? Bunaqa bo'lishi mumkin emas.

– Yaninadan olgan xabar.

– Yaninadan?

– Ha

– Nima haqda gapirayotganimni nahotki tushunmayotgan bo'lsangiz?

– Xudo ursin... xabarim yo'q. Batist, kechagi gazetani bering, – dedi Boshan.

– Keragi yo'q, menda bor.

Boshan o'qidi:

– «Yaninadan kelgan maktublar» va hokazo...

Boshan xabarni o'qib bo'lishi bilan Morser:

– Ish jiddiy ekanini endi tushungandirsiz? – dedi.

– Bu ofiser sizning qarindoshingizmi? – so'radi jurnalist.

– Ha, – dedi Alber bo'zarib.

– Mendan qanaqa yordam kerak? – so'radi Boshan.

– Men, Boshan, sizdan gazetangizda raddiya berishin-

gizni istayman.

Boshan Alberga do'stona uzoq tikildi.

– Qani, o'tiring-chi, – dedi u, – raddiya juda jiddiy masala. Durustroq gaplashib olaylik. Men yana bir o'qib chiqay.

Alber o'tirdi. Boshan xabarni yana diqqat bilan o'qib chiqdi.

– Ko'rib turibsizki, – dedi Alber qat'iyon, hatto dag'allik bilan, – gazetangizda oilam a'zosini haqorat qilishgan, men raddiya berishni talab qilaman.

– Siz talab qilasizmi?

– Ha, talab qilaman.

– Azizim vikont, ochig'ini aytsam, siz no'noq diplomat ekansiz.

– Ha, to'g'ri, chunki diplomat bo'lishni istamayman, – dedi o'rnidan turayotib Alber. – Men bu xabarga raddiya berilishini talab qilaman va niyatimga albatta erishaman. Do'stim, siz, – dedi zarda bilan Alber Boshanning kekka-yib boshini ko'targanini ko'rib, – mening, o'z so'zidan qaytmaydiganlardan ekanligimni yaxshi bilasiz.

– Men, Alber, do'stingizman. Ammo siz yana shu tarzda po'pisa qilib, dag'allik bilan gapiraversangiz, bu do'stlikni yuzxotir qilmasligim mumkin... Biroq, keling, oraga nizo tushmasin... Juda g'azabingiz chiqib ketibdi, jahl chiqqanda aql ketadi, deganlar... Menga aytib beringchi, bu Fernan degan zot sizga kim bo'ladi?

– Mening otam, – dedi Alber, – Fernan, graf de Morser, keksa soldat, yigirma jangning qatnashchisi, shunday zotni badnom qilmoqchilar.

– Otangizmi? – dedi Boshan. – Unda boshqa gap. Bunchalik g'azabingiz chiqqanining sababini endi tushundim, azizim Alber... Yana bir o'qiylik...

Boshan xabarni dona-dona qilib yana bir bor o'qib chiqdi.

– Axir, Fernan sizning otangiz degan gap yo'q-ku bu erda:

To'g'ri, unday degan gap yo'q, biroq boshqalar shun-

day deb tushunishadi. Shu boisdan raddiya berilishini talab qilyapman.

«Talab qilyapman» soʻzi aytilayotgan paytda Boshan Alberga qarab oldi-da, bir oz oʻyga toldi.

– Raddiya berasizmi? – dedi gʻazab-la Alber, hamon oʻzini bosishga urinib.

– Ha, – dedi Boshan.

– Xayriyat-e, – dedi Alber.

– Biroq xabar notoʻgʻri ekanligini aniqlaganimdan keyin.

– Shunaqami?

– Ha, shunday, bu jiddiy ish, tekshirib, aniqlab olish kerak, aniqlab olaman, albatta.

– Axir, janob, bu erda tekshiradigan hech gap yoʻq-ku? – dedi Alber jazavasi qoʻzgʻab, – agar gap otam ustida borayotganiga ishonmayotgan boʻlsangiz, ochiq aytavering, agarda gap uning ustida deb oʻylyotgan boʻlsangiz, raddiya berishingizni talab qilaman.

Boshan hissiyotlarini aks ettiradigan oʻziga xos maromda Alberga iljayib qarab qoʻydi.

– Modomiki, janoblari raddiya berilishini talab qilgani kelgan ekanlar, bu borada har qanday rioya-andishani yigʻishtirib qoʻyishga ahd etgan ekanlar, men bilan doʻst-birodarlik va shunga oʻxshash boʻlmagʻur narsalar haqida yarim soatdan buyon boshimni qotirib oʻtirishning nima keragi bor edi, boshdanoq gapning poʻskallasini aytib qoʻya qolsangiz boʻlardi. Demak, ikkimizning duelga chiqishimizni istaysizmi?

– Ha, agar qabih boʻhtonni rad etmasangiz shunday boʻladi!

– Oʻpkangizni bosib oling, janob Fernan de Mondego vikont de Morser, qoʻying behuda poʻpisangizni, bunaqa doʻqlarni ogʻaynim u yoqda tursin, dushmanimdan ham eshitishga toqatim yoʻq. Xullasi kalom, siz polkovnik Fernan toʻgʻrisidagi xabarni, yaʼni menga hech daxli yoʻq xabarni rad etishimni talab qilasiz, shundaymi?

– Ha, talab qilaman! – dedi Alber oʻzini tutolmay da-



g'al ohangda.

– Yo'qsa duelga chaqirasiz, shundaymi? – davom etdi Boshan hamon o'zini vazmin tutib.

– Ha! – dedi Alber do'q urib.

– Unday bo'lsa, muhtaram janob, mening javobim shu, – dedi Boshan, – bu xabarni men bosib chiqarganim yo'q, u haqda hech nima bilmayman. Biroq siz meni qiziqtirib qo'ydingiz. Shu sababli xabar uni bergan kishi rad etmaguncha yoki tasdiqlab bermaguncha shundayligicha qolaveradi.

– Xullas, muhtaram janob, – dedi Alber o'rnidan qo'zg'alib, – sekundantlarimni yuboraman, ular bilan duelni qayerda o'tkazish va qurollar tanlash haqida shartlashib olasiz.

– Juda soz, muhtaram janob.

– Istasalar shu bugun kechqurun yoki juda kech deganda, ertaga uchrashamiz duelda.

– Yo'q, yo'q! Men duelga vaqti kelganda boraman (siz chaqiryapsiz meni, shu sababli o'z fikrimni izhor etishga haqliman), ammo hali duelling vaqti kelganicha yo'q. Siz mohir qilichbozsiz, men ham ancha mashqini olganman, siz olti o'qdan uchtasini albatta mo'ljalga tekkizasiz, men ham taxminan shunga yaqinman, ikkimizning duelimiz juda jiddiy duel, chunki siz jasoratli yigitsiz, men ham... sizdan qolishmayman. Shuning uchun biror asosli sabab bo'lmay turib sizni o'ldirishni yoki o'z jonimga jabr qilishni aslo istamayman. Endilikda men ham sizga dangal bir savol bermoqchiman. Agar talabingizni bajo keltirmay, raddiyani bosib chiqarmasam, unda meni o'ldirasizmi? Yana qaytarib aytaman sizga: Xudo haqqi, bu xabar to'g'risida men hech nima bilmayman va sizdan boshqa hech kim Fernanni graf de Morser deb gumon qilmaydi.

– Men so'zimdan qaytmayman.

– Ha, mayli, muhtaram janob, bir-birimizning qonimizni to'kish uchun jang qilishga men ham roziman, biroq uch hafta muddat talab qilaman. Uch haftadan so'ng men

sizga: «Bu yolgʻon xabar», deyman-da, raddiya beraman, yoki «Bu haqiqat», deyman, soʻng ikkimiz, sizning xohishingizga qarab yo qilichlarni qinidan chiqarib, yoki toʻpponchalarni oʻqlab maydonga chiqamiz.

– Uch hafta! – xitob qildi Alber. – Axir shuncha vaqt men sharmanda boʻlib yuraveramanmi!

– Agar ikkimiz doʻst boʻlib qolaverganimizda men sizga, sabr qiling, doʻstim, derdim, biroq siz mening dushmanim boʻlib qoldingiz, shu sababdan men sizga, muhtaram janob, bu bilan mening nima ishim bor, deb qoʻya qolaman.

– Boʻpti, boʻpti, uch haftadan soʻng, – dedi Alber. – Lekin shuni bilib qoʻyingki, uch haftadan hech orqaga surilmaydi, hech qanaqa vaj-bahonaga yoʻl qoʻyilmaydi, yaʼni qutulaman deb urinishning foydasi boʻlmaydi.

– Janob Alber de Morser, – dedi Boshan oʻrmidan tura-yotib, – uch hafta oʻtmaguncha men sizni derazadan ulotqirib tashlashga haqqim yoʻq, siz ham oʻsha vaqtgacha menga qilich sanchib, umrimni xazon qilishga haqqingiz yoʻq. Bugun yigirma toʻqqizinchi avgust, demak yigirma birinchi sentyabrgacha sabr qilamiz. Ungacha bir-birimiz bilan it-mushuk boʻlib yurishimiz yaxshi boʻlmas.

Boshan shunday dedi-da, Alberga zoʻr-bazoʻr taʼzim qilib, bosmaxonaga kirib ketdi.

Alber alamini gazetalardan oldi: hassasi bilan erda yotgan gazetalarni har tomonga sochib-sochib tashladi-da, soʻng bosmaxonaga tikilib chiqib ketdi.

Begunoh gazetalarni savalab chiqqan va endi izvoshning tirqishini taqillatib urib borayotgan Alber xiyobondan oʻtgan Morrelni koʻrib qoldi. Koʻzlari quvonchga toʻla Maksimilian gerdayib Xitoy hammomi yonidan oʻtib, Madlen cherkovi tomon ketayotgan edi.

– Mana bu odamning omadi keldi! – dedi Alber xoʻrsinib.

Bu gal u yanglishmagan edi.

## II. LIMONAD

Morrel haqiqatan ham baxtiyor edi.

Hozir uni chol Nuarte chaqirtiribdi. Nima der ekan chol, deb shoshib, izvosha ham o'tirmay yayov chopqillab bo'rayotganining boisi ham shunda edi.

Morrelning qadami juda ildam, sho'rlik Barrua unga etolmay harsillab boryapti. Buning sababi ayon: Morrel endigina o'ttiz bahorni ko'rgan qirchillama yigit, Barrua esa oltmishni urib qo'ygan chol edi. Buning ustiga Morrel oshiqi shaydo, qanot qoqib boryapti, Barrua esa issiqqa chidolmay nafasi bo'g'ilib, entikib qolyapti. Talab-eh-tiyohlari tamoman boshqacha bu ikki zot uch burchakning ikki tomoniga o'xshardi: pastda, asosda ajralib ketib, cho'qqida yana jipslashib olardi.

Cho'qqi – bu Morrelni tez chaqirib kelishni buyurgan Nuarte edi. Morrel esa cholning ana shu topshirig'ini bajaray deb, Barruani qiynoqqa solib chopardi.

Manzilga etganda ham Morrel aslo harsillamadi, muhabbat qanot bag'ishlaganda kishi charchash nimaligini bilmay qolarkan, ishq-muhabbat lazzatini allaqachon unutib yuborgan sho'rlik Barrua qora terga botgandi.

Keksa qarol Morrelni bizga ma'lum maxsus eshikdan olib kirib, kabinetni ichidan qulfladi, bir ozdan so'ng Valentinaning etaklari shitirlagani eshitildi.

Motam libosida Valentinaning chiroyi yanada ochilib ketgan edi. Morrel, bu tushim bo'lsa kerak deb, Nuarte bilan gaplashishdan voz kechmoqchi bo'lib turgan edi, shu payt parketda kursi g'ildirakchalarining tovushini eshitdi, xonada chol paydo bo'ldi.

Chol Morrelning Valentinani va uni dard-alamdan, nochorlikdan xalos etgani uchun minnatdorchilik bildirib aytgan so'zlarini Nuarte xushnudlik bilan tingladi. So'ng Morrel burchakda iymajib o'tirgan Valentinaga savol-muz ko'z tashladi.

Nuarte ham Valentinaga qaradi.

– Topshiriqlaringizni aytaveraymi? – so'radi Valentina.

– Ha, – dedi Nuarte ishora bilan.

– Janob Morrel, – dedi Valentina ko‘zlarini o‘qday tikib turgan Maksimilianga murojaat qilib, – o‘tgan uch kun mobaynida buvam sizga aytmoqchi bo‘lgan ko‘p gaplarini menga aytdi. Bugun ana shu gaplarni etkazishim uchun sizni chaqirtirib keldi, u meni o‘zining tarjimoni qilib belgiladi, men uning barcha gaplarini sizga oqizmay-tomizmay aytib beraman.

– Men ana shu gaplarni eshitishga intizorman, made-muazel, – dedi Morrel, – tezroq ayting, iltimos qilaman.

Valentina boshini quyi soldi, Morrelga bu yaxshilikdan darak berayotgandek tuyuldi. Valentina baxtli daqiqalarda shunday uyatchan bo‘lib qolardi.

– Buvam bu uydan chiqib ketmoqchi, – dedi Valentina. – Barrua unga joy axtaryapti.

– Siz-chi? – dedi Morrel, – janob Nuarte sizni jonidan ham aziz ko‘radi-ku, siz ham uning yonida bo‘lishingiz kerak-ku?

– Men ham u bilan birga bo‘laman, – dedi Valentina, – biz shunday qarorga keldik. Men uning yonida yashayman. Janob de Vilfor rozilik bersa darhol ketaman. Agar rozilik bermasa, voyaga etgunimcha kutish kerak, bunga atigi o‘n oy qoldi. O‘shandan keyin mustaqil bo‘laman, erkim o‘zimda bo‘ladi, so‘ng...

– So‘ng? – so‘radi Morrel.

– So‘ng, buvamning roziligi bilan sizga bergan va‘damga vafo qilaman.

Valentina so‘nggi so‘zlarini zo‘rg‘a eshitiladigan qilib aytdi, agar Morrel qulog‘ini ding qilib turmaganida, eshitolmasdi.

– Buva, fikringizni to‘g‘ri aytdimmi? – dedi Valentina, Nuartega murojaat qilib.

– Ha, – dedi imo bilan chol.

– Buvamnikida turganimda, – dedi qo‘shimcha qilib Valentina, – janob Morrel, aziz va mehribon xaloskorim huzurida men bilan diydor ko‘rishib turishingiz mumkin, bizning, ehtimol, hali g‘o‘r va beqaror qalbimizni bir-biriga

bog'lab turgan tugunlarni u qo'llab yuborsa va shu sinovdan so'ng baxtga to'la istiqbolimizga (hayhot, aytishlariga qaraganda, g'ovlar qarshisida alanga olib yonadigan qalblar rohat-farog'atda sovib qolarmish!) ham madadkor bo'lsa, u holda janob Morrel menga sovchi yuborishi mumkin bo'ladi, men kutaman.

– Oh, Tangrim! Qanday xayrli ishim uchun meni bunday baxtga yor etding? – dedi xitob qilib Morrel, shu paytda u cholni Xudo, Valentinani farishta, deb sig'inishga tayyor edi.

– O'sha baxtli kun kelguncha, – dedi vazmin va tiniq ovozda Valentina, – biz ota-onamning izmidan chiqmay turamiz, lekin ular ikkimizni hijron o'tida yondirish niyatida bo'lmasalar kerak. Yana qaytarib aytaman: biz kutamiz, hamma gap shunda, azizim, shunda.

Morrel cholga murojaat qilib:

– Men, – dedi, – bu so'zlarda gardanimga yuklanadigan hamma og'irliklarga bosh egibgina emas, quvonib bardosh berishga qasamyod qilaman.

– Azizim, – dedi Valentina Maksimilianga chuqur nazar tashlab, – endi beboshlikka, tentaklikka barham beraylik. Bugundan boshlab o'zini faqat sizniki deb qaror qilgan va kelajakda sizning familiyangizda yurishni o'ziga ep bilgan qizning or-nomusiga, sha'niga tariqcha dog' tushishiga aslo yo'l qo'ymang.

Morrel qo'l qovushtirib, ta'zim qildi.

Nuarte mehrga to'la ko'zlarini ikki yoshga tikib olgandi. Hamma sirlardan voqif Barrua yaltiroq peshanasidagi reza terni artib, iljayib turardi.

– Bechora Barrua juda qiynalib ketdi-da, – dedi Valentina.

– To'g'ri, – dedi Barrua, – axir men oyog'imni qo'limga olib yugurib keldim, mademuazel, ammo janob Morrelga qoyil qolish kerak: u mendan ham tez chopdi.

Nuarte ko'zi bilan patnisni ko'rsatdi, unda yarim grafin limonad va ikki stakan turardi. Yarim soat oldin shu limonaddan Nuarte ham ichib olgan edi.

Valentina Barruaga qarab:

– Limonad ichgingiz kelib turganini ko'zlaringiz aytib turibdi, oling, iching, – dedi.

– Ochig'ini aytsam, – dedi Barrua, – juda chanqab ketdim, bir stakanni sizning salomatligingiz uchun ichay.

– Mana, oling, – dedi Valentina stakanni uzatib, – tashqariga chiqib kela qoling.

Barrua patnisni olib, dahlizga chiqdi-da, Valentina quyib bergan bir stakan limonadni sipqordi. Buni hamma eshik tirqishidan ko'rib turgan edi.

Valentina bilan Morrel Nuarte huzurida xayrlashib turgan paytda Vilfor bo'lmasiga kiradigan zinada qo'ng'iroq tovushi eshitildi.

Valentina devordagi soatga qaradi.

– Qoq tush payti, – dedi u, – bugun shanba, buva, bu doktor bo'lsa kerak.

Nuarte imo bilan, «ha, doktor bo'lsa kerak», dedi.

– U hozir bu erga keladi, janob Morrelning bu erdan chiqib ketgani ma'qul, to'g'rimi, buva?

– To'g'ri, – dedi chol.

– Barrua! – chaqirdi Valentina, – Barrua, bu yoqqa keling!

– Hozir, mademuazel, – dedi keksa qarol.

Valentina Morrelga qarab:

– Barrua sizni eshik oldigacha kuzatib qo'yadi, – dedi, – janob ofiser, buvam sizga baxtimizga raxna soladigan biror harakat qilmaslikni maslahat beryaptilar.

– Kutaman, deb so'z berdimmi, bas, – dedi Morrel, – demak, kutaman.

Shu vaqtda Barrua kirdi.

– Qo'ng'iroq chalgan kim? – so'radi Valentina.

– Doktor d'Avrini, – dedi Barrua gandaraklab.

– Nima bo'ldi sizga, Barrua? – so'radi Valentina.

Keksa qarol javob bermadi. U vahima to'la ko'zlarini cholga tikib olgan va biror tayanch axtarib, qo'llarini har tomonga cho'zayotgan edi.

– U hozir yiqiladi! – xitob qildi Morrel.

Chindan Barruaning butun vujudini bosgan titroq to-bora kuchayib borar, rangi o'zgarib, asablari tarang bo'lib ketgan edi.

Barruaning azob chekayotganini ko'rgan Nuarte vahimaga tushib, atrofga alanglardi.

Barrua xo'jayini tomon bir qadam tashladi.

– Yo, alhazar, yo, alhazar! – dedi u, – nima balo bo'ldi menga?.. Hamma yog'im zirqirab og'riyapti, ko'zim tinib ketyapti... boshim yonyapti. Tegmang menga, tegmang!

Uning ko'zlari olayib, boshi orqaga og'di, tanasi toshday qotib borardi.

Valentina qo'rqib, qichqirib yubordi. Morrel uni falokatdan himoya qilayotgandek, quchog'iga oldi.

– Janob d'Avrini! Janob d'Avrini! – dedi qichqirib Valentina. – Bu yoqqa keling! Yordam bering!

Barrua turgan joyida burildi-da, bir qadam orqaga tisarilib, Nuarte oyog'i ostiga gursillab yiqildi.

– Mening mehribon hojam! Muruvvatli hojam! – qichqirdi u.

Shu payt qichqirgan ovozni eshitib Vilfor kirdi.

Morrel hushidan ketay deb turgan Valentinani darhol qo'yib yuborib, xonaning to'ridagi qalin parda orqasiga yashirinib oldi. Uning quti uchib, jon berayotgan Barrua-ga tikilib qolgandi.

Nuarte, qaroligina emas, do'sti, hamdardi bo'lgan sho'rlik cholga yordam berolmay, yuragi ezilardi. Hayot bilan o'lim o'rtasidagi bu jang bir oyog'i to'rda, bir oyog'i go'rda turgan cholga ta'sir etdi, uning peshanasidan tomirlari bo'rtib chiqdi, ko'zlari atrofidagi oxirgi tirik paylari taranglashdi.

Yuzi dirillab, ko'zlariga qon to'lgan Barrua chalqancha tushib, polni timdalardi, oyoqlari bamisoli yog'och singari qotib qoldi, nafasi bo'g'ilib, og'zi ko'pirardi.

Vilfor ostonadan o'tib, bu holni ko'rdi-yu, hang-mang bo'lib qoldi. Lekin Morrelni payqamadi.

U rangi o'chib, bir daqiqa jim turib qoldi. So'ng eshik tomonga otilib:

– Doktor! Doktor! – deb qichqirdi. – Bu yoqqa keling! Tez!

– Beka, – chaqirdi o'gay onasini zina panjarasiga suyanib turgan Valentina. – Bu yoqqa keling! Tez keling! Hidlaydigan doringizni ola keling!

– Nima gap o'zi? – so'radi bosiq ovozdagi Vilfor xonim.

– Kelsangiz-chi tezroq!

– Doktor qani! – yana qichqirdi Vilfor.

Vilfor xonim zinadan asta-sekin tushib keldi, yog'och zinapoyalarning g'irchillashi eshitilib turardi. Uning bir qo'lida ro'molcha, ikkinchi qo'lida hidlaydigan dori so'lingan shisha idish.

Vilfor eshik oldiga kelib, dastlab cholg'a qaradi-da, hayron bo'ldi, yuz bergan voqeadan hayajonlanib turganini hisobga olmaganida, chol soppa-sog' edi, so'ng xonim jon talvasasida yotgan qarolga ko'z tashladi-yu, quti uchdi, yana cholg'a qaradi.

– Xonim, doktor qani? Xudo haqqi, chaqiring uni, – dedi Vilfor. – U sizning bo'lmangizga o'tib ketgan edi-ku. Miyasiga qon quyiladigan kasali xuruj qilibdi, nahotki shuni payqamagan bo'lsangiz?

– Biror nima emadimikin? – so'radi Vilfor xonim, eriga javob berishdan qochib.

– Nonushta qilgani yo'q, – dedi Valentina, – buvam shoshilinch topshiriq bilan bir joyga yuborgan edi. U juda charchab, holdan toyib keldi-da, bir stakan limonad ichdi.

– Vino ichsa bo'lmasmidi? – dedi Vilfor xonim. – Limonad g'oyat zararli ichimlik-ku.

– Limonad shu erda, buvamning grafinida turgan edi. Sho'rlik juda chanqab qolgan ekan, limonad to'g'ri kelib qoldi-yu, shuni ichib qo'ya qoluvdi.

Vilfor xonim seskanib ketdi. Nuarte unga ma'noli nazar tashlab qo'ydi.

– Bo'yni ichiga kirib ketibdi! – dedi xonim.

– Bekam, – dedi Vilfor, – men sizdan doktorni so'rayapman! Qani d'Avrini? Xudo haqqi, ayting, qayerda u?

– Eduarning oldida, bola betob, – dedi Vilfor xonim



endi javob qaytarmaslikka iloj topolmay.

Vilfor doktorni chaqirib kelish uchun zinaga yugurdi.

– Mana buni oling, – dedi Vilfor xonim dori shishani Valentinaga uzatib, – Burruga qon quysalar kerak. Qonni ko‘rishga toqatim yo‘q, o‘z bo‘lmamga boraman.

Xonim shunday dedi-da, eri ketidan chiqib ketdi.

Morrel burchakdan chiqdi, to‘s-to‘polonda uni hech kim payqamadi.

– Maksimilian, keting ertaroq bu erdan, – dedi unga Valentina, – o‘zim chaqirmagunimcha kelmang. Boring.

Morrel «siz nima deysiz?» degandek Nuartega qaradi. Nuarte «mayli», dedi imo bilan. Maksimilian Valentinaning qo‘lini ko‘ksiga bir zum bosib turdi-da, yon dahlizdan chiqib ketdi.

Shu payt narigi eshikdan Vilfor bilan doktor kirib keldi.

Barrua sekin hushiga kela boshladi, xuruji bosildi, u inqillab bir tizzasi bilan cho‘kka tushib oldi.

D’Avrini bilan Vilfor Barruani ko‘tarib taxta karavotga yotqizishdi.

– Buning davosi nima, doktor? – so‘radi Vilfor.

– Suv bilan efir keltirishsin. Uyingizda efir bormi?

– Bor.

– Darrov yugurib borib skipidar moyi bilan qustiruvchi dori olib kelishsin.

– Yugur, tez! – buyurdi Vilfor.

– Qani, hamma chiqib ketsin bu erdan.

– Men hammi? – so‘radi qo‘rqib Valentina.

– Ha, mademuazel, birinchi galda siz chiqing bu erdan, – dedi dag‘allik bilan doktor.

Valentina hayron bo‘lib d’Avriniga qaradi-da, buvasining peshanasidan o‘pib chiqib ketdi.

Doktor qovog‘idan qor yog‘ib, Valentina ketidan eshikni bekitdi.

– Buni qarang, doktor, buni qarang, hushiga kelyapti, demak, shunchaki bir oddiy tutqanoq ekan-da.

D’Avrini g‘amgin iljayib qo‘ydi.

– Qalaysiz, Barrua? – so‘radi doktor.

- Bir oz durustman, janob.
- Bir stakan suvni efir bilan icha olasizmi?
- Harakat qilaman, faqat menga tegmang.
- Nega?
- Nazarimda, menga sal tegib ketsangiz, yana tutqanoq tutadigan.
- Mana buni iching.
- Barrua stakanni ko'karib ketgan lablariga olib bordida, yarmini ichdi.
- Qaeringiz og'riyapti? - so'radi doktor.
- Hamma erim, tomirlarim tortishib ketyapti.
- Boshingiz aylanyaptimi?
- Ha.
- Qulog'ingiz shang'illayaptimi?
- Judayam.
- Qachon boshlandi bu?
- Hozirgina.
- Birdan-a?
- Birdan.
- Kecha hech narsa sezmaganimidingiz? O'tgan kunichi?
- Hech narsa.
- Uyqu bosishi yoki badhazmlik sezilmaganmidi?
- Yo'q.
- Bugun nima egan edingiz?
- Hali hech nima eganim yo'q, faqat janob Nuarte grafinidan bir stakan limonad ichdim.
- Barrua shunday dedi-da, har qanday harakat va so'zni diqqat bilan kuzatib va eshitib o'tirgan chol tomonga boshini irg'ab qo'ydi.
- Qaerda o'sha limonad? - so'radi shoshib doktor.
- Pastda, grafinda.
- Pastning qayerida?
- Oshxonada.
- Olib kelaymi, doktor? - so'radi Vilfor.
- Yo'q, siz shu erda qolib, bemorga dorini oxirigacha ichirishga harakat qiling.

– Limonad-chi?..

– O‘zim olib kelaman.

D‘Avrini eshikdan chiqdi-da, qorong‘i zinadan oshxonaga yugurdi, shu payt Vilfor xonim ham oshxonaga borayotgan ekan, doktor uni naq bo‘lmasa turtib, yiqitib yuboray dedi. Xonim qichqirib yubordi.

Fikri-zikri bir narsada bo‘lgan d‘Avrini buni sezmedi, xonimni ko‘rmadi; u oxirgi zinapoyadan sakrab o‘tdi-da, oshxonaga kirdi; to‘rt dan uch qismi bo‘sh grafin patnisida turgandi. Doktor o‘lja ketidan o‘qday otilib kelgan burgut singari grafiga chang soldi.

U, entika-entika birinchi qavatga chiqib, Nuarte bo‘lmasiga kirdi.

De Vilfor xonim ham shu daqiqada ohista qadam tashlab, o‘z bo‘lmasiga borayotgan edi.

– O‘sha grafin shumi? – so‘radi d‘Avrini.

– Ha, janob doktor.

– Siz ichgan limonad ham shuning o‘zimi?

– O‘sha bo‘lsa kerak.

– Ta‘mi qanaqa edi siz ichgan limonadning?

– Achchiq edi.

Doktor kaftiga limonaddan uch-to‘rt tomchi tomizdi-da, og‘ziga oldi, so‘ng xuddi vinoni sinab ko‘rayotgandek, tamshanib turib, toshpechga tupurib tashladi.

– Xuddi o‘zi, – dedi u. – Janob Nuarte, siz ham ichganmidingiz bundan?

– Ha, – dedi imo bilan chol.

– Siz ichganda ham achchiqmidi?

– Ha.

– Janob doktor! – dedi qichqirib Barrua, – yana yomon bo‘lib ketyapman! Rahm qiling menga! Yordam bering! Doktor!

Doktor bemor oldiga yugurib bordi.

– Qustiradigan dori qani, Vilfor?

Vilfor bo‘lmadan yugurib chiqib qichqirdi:

– Qani qustiradigan dori? Keltirishdimi?

Hech kim javob bermadi. Shu payt bu xonadondagi-

larning hammasini vahima bosgan edi.

– Agar o'pkasiga havo kirita olsam, – dedi d'Avrini atrofga alanglab, – ehtimol kasal engil tortarmidi. Nahotki hech nima bo'lmasa bu xonadonda? Hech narsa-ya!

– Doktor! – qichqirardi hamon Barrua, – yordam bering, qutqaring meni ajaldan!

– Pero bormi, pero! – so'radi doktor va stol ustidagi peroga ko'zi tushib qoldi. Uni oldi-da, bemorning og'ziga tiqmoqchi bo'ldi, biroq Barruaning jag'i akashak bo'lib qolgan edi.

Barruani ilgarigisidan ham qattiq tutqanoq tutdi. U yog'och karavotdan surilib polga tushdi-da, qimir etmay qoldi.

Doktor unga hech qanday yordam berolmasdi. U Barruani shu holicha qoldirib, Nuarte oldiga bordi.

– Siz o'zingizni qanday sezyapsiz? – dedi shivirlab doktor.

– Yaxshi.

– Oshqozoningiz og'rimayaptimi?

– Yo'q.

– Men aytgan dorini har yakshanba kuni ichyapsizmi?

– Ha.

– Bu limonadni sizga kim tayyorlab bergan edi? Barruami?

– Ha.

– Limonadni ich degan ham o'zingizmi?

– Yo'q.

– De Vilfor janoblarimi?

– Yo'q.

– De Vilfor xonimmi?

– Yo'q.

– Unday bo'lsa, Valentina ekan-da?

– Ha.

Barrua og'ir uh tortdi, tishlari g'ijirlab ketdi, buni eshitib doktor bemor oldiga yugurdi.

– Barrua, – dedi doktor, – gapira olasizmi?

Barrua g'udurlab, allanima dedi.

- Azizim, bir zo‘r berib es-hushingizni yig‘ing.  
Barrua qon quyilgan ko‘zlarini ochdi.
- Bu limonadni kim tayyorlagandi?
- O‘zim.
- Tayyorlagan zahoti xo‘jayiningizga keltirib berdingizmi?
- Yo‘q.
- Qaerda qoldirgan edingiz?
- Bufetda, meni chaqirib qolishdi.
- Limonadni bu erga kim olib keldi?
- Mademuazel Valentina.
- D‘Avrini peshanasini ushladi-da:
- Yo, alhazar! – dedi shivirlab.
- Doktor, doktor! – qichqirdi Barrua yana tutqanoq tuta boshlaganini sezib.
- Nega qustiradigan dori keltirmayaptilar? – dedi zar-da bilan doktor.
- Mana, – dedi eshikdan kirib kelayotgan Vilfor.
- Buni kim tayyorladi?
- Dorixonachi, o‘ziyam men bilan birga keldi.
- Iching buni, – dedi doktor Barruaga.
- Icholmayman, doktor, vaqt o‘tdi! Tomog‘im qurib, og‘zim qaqrab boryapti. Nafasim bo‘g‘ilib ketyapti... voy yuragim... voy boshim... E, Tangrim, nega muncha azob beryapsan menga... Qachon qutulaman bu darddan?
- Azizim, – dedi doktor, – oz qoldi, hozir qutulasiz qiynoqdan.
- O‘zim ham bilib turibman, – dedi sho‘rlik Barrua, – e, Parvardigor, rahm qil gunohkor bandangga!
- Barrua bir oh tortdi-da, chaqmoq urgandek yuz tuban yiqildi.
- D‘Avrini cholning yuragiga qo‘lini bosib, og‘ziga oyna tutdi.
- Xo‘sh, ahvoli qalay? – so‘radi Vilfor.
- Menga bir oz gunafsha sharbati keltirishsin, tezroq. Vilfor oshxonaga yugurdi.
- Janob Nuarte, xotirjam bo‘ling, bemorni narigi xonaga

olib borib qon quyaman, bunaqa tutqanoqlar juda dahshatli bo'ladi, – dedi doktor va Barruani qo'ltiqlab olib chiqib ketdi, lekin u shu zahoti Nuarte xonasiga qaytib kirdi-da, limonadni oldi.

Nuartening chap ko'zi yumuq edi.

– Valentinani chaqirsinlarmi? Valentinani ko'rishni istaysizmi? Hozir aytaman, chaqirib yuborishadi.

Vilfor qaytib, zinadan chiqib kelayotgan edi, dahlizda d'Avriniga duch keldi.

– Xo'sh, qalay bemorning ahvoli? – so'radi Vilfor.

– Yuring bu yoqqa, – dedi d'Avrini.

Doktor Vilforni Barrua yotgan xonaga olib kirdi.

– U haliyam hushiga kelgani yo'qmi? – so'radi qirollik prokurori.

– O'ldi.

Vilfor seskanib orqasiga tisarildi-da, boshini ikki qo'li bilan mahkam siqib, achinib murdaga tikilib qoldi.

– To'satdan jon berdimi?

– Favqulodda o'lim bo'ldi bu, to'g'rimi? – dedi d'Avrini. – Biroq bundan siz ajablanmasangiz ham bo'ladi. Janob Sen-Meran va Sen-Meran xonim ham to'satdan o'lgan edi. Ha, janob de Vilfor, siznikida odamlar shunaqa to'satdan o'ladigan bo'lib qoldi.

– I-ya! – dedi qirollik prokurori o'takasi yorilib. – Siz yana o'sha eski dahshatli fikringizni takrorlayapsizmi?

– Ha, janob, – dedi tantanavor ohangda d'Avrini, – bu fikr hozirgacha xayolimdan chiqqani yo'q. Gaplarimning to'g'riligiga imoningiz komil bo'lmog'i uchun diqqat bilan quloq solishingizni iltimos qilaman, janob de Vilfor.

Vilforning butun vujudini titroq bosdi.

– Shunday bir zahar bor: u odamni til torttirmay o'ldi-radi-da, hech qanaqa belgi qoldirmaydi. Uni men yaxshi bilaman. Uning ta'sir etishini va oqibati nimalarga olib borishini har tomonlama tekshirib, o'rganib chiqdim. Sen Meran xonim vafoti vaqtidagidek, mana, hozir sho'rlik Barrua halokati paytida bu zaharning ta'sirini yana aniq bilib oldim. Bu zaharni bilishning bir yo'li bor. Biror kislota

bilan qizil rangga bo'yalgan lakmus qog'ozda ko'k rang paydo qiladi, yana gunafsha sharbatiga zangori tus beradi. Hozir bizda lakmus qog'ozi yo'q, ana, gunafsha sharbati keltiryaptilar, shekilli.

Dahlizda oyoq tovushi eshitildi, doktor eshikni qiya ochdi-da, xizmatkor ayolning qo'lidan tagida bir-ikki qoshiq sharbati bor idishni olib, eshikni yana bekitdi.

– Mana, bunga qarang, – dedi u yuragi gup-gup urayotgan qirollik prokuroriga, – mana bu idishda gunafsha sharbati, mana bunisida esa Nuarte va Barruadan qolgan limonad. Agar limonadga hech narsa qo'shilmagan va u zararsiz bo'lsa, sharbatning rangi o'zgarmaydi, agar limonadga zahar qo'shilgan bo'lsa, sharbat zangori tusga kiradi. Mana, qarab turing!

Doktor grafindagi limonaddan sharbat quyilgan idishga bir necha tomchi quydi, shu ondayoq sharbat tusini o'zgartirdi. Avval u tim ko'k, so'ng allaqanday rangga, undan keyin zangori tusga kirdi-da, shundayligicha qoldi.

Bu tajriba doktorning boyagi fikriga hech shubha qoldirmagandi.

– Baxtsiz Barrua soxta angostur yoki muqaddas Ignatiya yong'og'i bilan zaharlangan ekan, – dedi d'Avrini, – endi bu haqiqat ekanligiga hech shubham yo'q.

Vilfor miq etmadi. Vahimadan uning ko'zlari olayib ketdi, qo'llarini osmonga ko'tardi-da, o'zini o'rindiqqa tashladi.

### **III. AYBNOMA**

D'Avrini qirollik prokurorini darrov hushiga keltirdi. U bu mudhish xonada ikkinchi murdaga o'xshab qolgan edi.

– Mening uyim ajalxona bo'lib qoldi! – dedi faryod urib Vilfor.

– Qolaversa jinoyatlar makoni, – dedi doktor.

– Shu damda chekayotgan azoblarimni ne so'z bilan aytay, doktor, – dedi xitob qilib Vilfor. – Hamma balo bir-

dan yopishdi menga, xavf-xatar, dahshatlardan aqlim oza-yotir.

– Haqiqatan ham og‘ir sizga, Vilfor, og‘ir, – dedi d‘Avrini vazmin va salmoqdor ohangda, – biroq biz vaqtni o‘tkazib yubormay, harakat qilishimiz kerak. Menimcha, dastlab xonadoningizga yopirilib kelayotgan ajal sirtmog‘ini bo‘g‘ish kerak. Shaxsan men buni endi sir saqlashdan oqizman. Qonunlar oyoq osti qilinayotgani va begunoh bandalar qurbon bo‘layotgani uchun qasos olinmaydi, deb umid qilolmayman.

Vilfor xonaga qayg‘uli nazar tashladi.

– Mening uyimda-ya! – dedi shivirlab. – Meniig uyimda-ya!

– Menga qarang, Vilfor, – dedi d‘Avrini, – bardam bo‘ling. Siz qonunni ko‘krak kerib himoya qiluvchi mansabdor zotsiz, ana shu shuhratingiz shu topda sizdan qurbon berishni talab qiladi.

– O‘zini qurbon qilish bu g‘oyat dahshatli so‘z, doktor, g‘oyat dahshatli!

– Hamma gap shunda-da.

– Demak, siz kimdandir shubhalanayotgan ekansiz-da?

– Men hech kimdan shubhalanayotganim yo‘q. O‘lim eshigingizni qoqyapti, u ko‘r-ko‘rona emas, juda puxta o‘ylab xonadan xonaga o‘tyapti, men esa uning yo‘lini ko‘rib turibman, izidan boryapman, borganda ham shoxidamas, bargida boryapman. Axir, oilangiz bilan inoqligim, sizga hurmatim – bu ko‘zlarimni bekituvchi ikki bog‘lag‘ich, mana endilikda...

– Gapingiz, doktor, gapiraving, qulog‘im sizda.

– Uyingizda, ehtimol, oilangizda asrlar davomida faqat bir martagina uchraydigan bir razil maxluq bekinib olgan. Lokusta va Agrippina bir vaqtda yashashgan, biroq bu favqulodda bir hol, ammo bu hol son-sanoqsiz razilona jinoyatlar qilib badnom bo‘lgan Rim imperiyasiga qiron keltirish uchun Tangrining qahri qattiq kelganidan dalolat beradi. Brungilda bilan Fredgonda uqubatli xatti-harakatlar oqibatidir, endigina tug‘ilayotgan taraqqiyot



peshqadamlari, jaholat elchisini yordamga chaqirib borsa-da, ana shular orqali malikalar dunyosini bilib olishga uringan edilar. O'sha ayollarning barchasi yosh va go'zal edi. Bir zamonlar ularning manglayiga ham, xuddi uyin-gizdagi jinoyatchining manglayidagi kabi, begunohlik tamg'asi bosib qo'yilgan edi.

Vilfor qichqirib yubordi, so'ng barmoqlarini qattiq qisdi-da, shafqat tilab doktorga tikildi. Ammo d'Avrini parvo qilmay so'zini davom ettiraverdi:

– Jinoyatdan manfaatdorni axtar – huquq fanining aksiomalaridan birida shunday deyilgan.

– Doktor! – xitob qildi Vilfor. – Bu so'zlarga ishonib, insoniyat, odil sud juda ko'p xatolarga yo'l qo'yib keldi! Bilmadim, chamamda, bu jinoyat...

– Demak, siz buning jinoyat ekanligiga iqgormisiz?

– Ha, iqorman. Endi men nima qildim? Ruksat eting, gapimni tugatay, bu jinoyat uchun bosh javobgar o'zim, bu sehrlil o'limlar dastlab shaxsan meni halok etajagini sezib turibman.

– Barcha maxluqlar ichida eng xudbini, surbeti inson, – dedi d'Avrini, – eng maqtanchog'i, mag'ruri, o'ziga bino qo'ygani ham inson! U, quyosh faqat menga nur sochadi, er ham meni deb aylanadi, o'lim ham meni deb hammaga qiron keltiradi deya o'ylaydi; u – cho'p ustida turib, Xudoga do'q urayotgan chumoli! Marhumlar-chi? Markiz de Sen-Meran, markiza Sen-Meran xonim, janob Nuarte...

– I-ya? Janob Nuarte?

– Ha, u ham! Siz hali mana bu sho'rlik qarolga suiqasd qilganlar, deb o'ylayapsizmi? Aslo unday emas. Sheks-pirning Poloniysi singari Barrua ham boshqa birovga kelgan ajalga duchor bo'ldi. Aslida limonadni Nuartega ichirmoqchi edilar. Nuarte uni ichdi ham. Mana bu bechora bexosdan ichib qo'ydi-da, baloga yo'liqdi. Aslida ajal Nuartening halqumiga chang solishi kerak edi.

– Nega otam halok bo'lmadi?

– Buning sababini o'sha Sen-Meran xonim vafot etgan

oqshom bog'da tushuntirgan edim sizga. Uning tanasi bu zaharga ko'nikib qolgan, unga ta'sir qilmaydigan miqdordagisini boshqa istagan kishi ichsa, til tortmay o'ladi. Men bir yildan buyon janob Nuarteni bursin bilan davolab kelayotganimni dunyoda hech kim, hatto qotil ham bilmaydi, biroq bursin g'oyat kuchli zahar ekanligini ana shu qotil biladi.

– Yo, alhazar! – dedi shivirlab Vilfor, barmoqlarini qirsillatib.

– Jinoyatchining ishini boshdan-oyoq bir nazaringizdan o'tkazing: u dastlab markiz Sen-Meranni o'ldirdi...

– Doktor, nima deyapsiz o'zi?

– Bunga imonim komil. Uning o'limi haqida menga aytilgan gaplarni o'z ko'zim bilan ko'rganlarimga taqqoslab chiqdim: bu o'lim bir-biriga judayam o'xshab ketadi.

Vilfor endi e'tiroz bildirmay qo'ydi. U og'ir xo'rsindi.

– U dastlab markiz Sen-Meranni o'ldirdi, – takrorladi doktor, – so'ng Sen-Meran xonimni yorug' dunyodan badarg'a qildi. Shu bilan u ikkala merosga ega bo'ladi.

Vilfor peshanasidan shovillab oqayotgan terni artdi.

– Diqqat bilan quloq soling.

– Har bir so'zingizni diqqat bilan tinglayapman.

– Janob Nuarte, – davom etdi qahr-g'azab bilan d'Avrini, – o'z vasiyatnomasida butun mol-mulkini beva-bechoralarga berishga qaror qildi va shu bilan sizga va oilangizga juda boplab pand berdi. Janob Nuartening bu injiqligini kechirishdi, undan boshqa biror yaxshilik kutish befoyda edi. Biroq u birinchi vasiyatnomasini bekor qilib, ikkinchisini yozishi bilanoq jinoyatchi, «yana uchinchisini yozmasin», deb, unga zahar ichirdi. Ikkinchi vasiyatnoma, adashmasam, o'tgan kuni yozilgan edi. Ko'rib turibsizki, ular vaqtini behuda o'tkazmaslikka harakat qilishibdi.

– Shafqat qiling, d'Avrini!

– Rahm-shafqat haqida gap ham bo'lishi mumkin emas,

---

<sup>17</sup> Tavba qildim! (*lot.*)

janob. Doktorning muqaddas burchi hayot chashmasidan bahramand bo'lib, ajal sirlarini bilishdir. Jinoyat sodir bo'lib, Tangri jinoyatchidan yuz o'girganda, doktorning burchi: «Mana, jinoyatchi!» deb aytib berish.

– Rahm qiling qizimga! – dedi bo'g'iq ovozda Vilfor.

– Uning nomini o'zingiz tilga oldingiz – siz uning otasi-siz.

– Shafqat qiling Valentinaga! Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas. Uni badnom qilishga yo'l qo'ymayman, vijdoni pok, begunoh farishta u! Uni gunohkor qilishdan ko'ra, o'zim qora kursiga borib o'tirganim yaxshi.

– Janob qirollik prokurori, rahm-shafqat qilish mumkin emas. Dalillar yaqqol ko'rinib turibdi. Mademuazel de Vilfor markiz de Sen-Meranga dorini o'zi o'rab-tugib jo'natgan, dorini ichib markiz o'ldi. Mademuazel de Vilfor tayyorlab bergan ichimlikni ichib, de Sen-Meran beka ham vafot etdi. Barruaning qo'lidan limonad quyilgan grafinni olib, janob Nuarte stoliga qo'ygan ham shu mademuazel de Vilforning o'zi. Chol odatda hammasini ertalab ichardi. Bu falokatdan uni Xudo saqlabdi-da, bo'lmasa bu ham til tortmay o'lardi. Demak, jinoyatchi mademuazel de Vilfor – ana shu razil ayol. Janob qirollik prokurori, men mademuazel de Vilforni ayblayman, qani, endi o'z burchingizni ado eting!

– Doktor, men so'zingizni qaytarib, o'zimni himoya qilayotganim yo'q, sizga ishonaman, biroq, iltimos qilaman: meni halok qilmang, sharmandayu sharmisor etmang!

– Janob Vilfor, – davom ettirdi so'zini doktor yanada jiddiy ohangda, – qaltis vaziyat tug'ilgan paytda men bo'lmag'ur ahd-paymonlarni hecham inobatga olmayman. Qizingiz mabodo birgina jinoyat qilganida va men, u yana ikkinchisini mo'ljallayapti, deb o'ylaganimda edi, sizga «uni ogohlantirib, jazo bering-da, gunohini ko'zyoshlari bilan yuvish uchun biror monastirga umrbodga joylashtiring», deb qo'ya qolardim. Agar ikkinchi marta jinoyat qilganda shunday derdim: «Menga qarang, Vilfor, bir zumdayoq tirishtirib qo'yadigan mana bu

bedavo dorini olib qizingizga ichiring-da, gunohkorning jonini Xudoga topshirib qo'ya qoling, ana shunda ornomusingizni ham, hayotingizni ham muhofaza qilgan bo'lasiz, chunki u sizning joningizga ham qasd qilyapti. Makkorona tabassum, yoqimtoy so'zlar bilan tepangizga kelayotganini ko'rib turibman! Vaqtini o'tkazmay, zarbani birinchi bo'lib o'zingiz bering! Yo'qsa baloi azimga duchor bo'lasiz!» Mana, agar qizingiz faqat ikki kishini o'ldirganda edi, shu gaplarni aytib qo'ya qolardim. Biroq qizingiz uch kishini jon talvasasiga soldi, uch kishini o'limga mahkum etdi, yana makkorlik qilib uchalasining jasadi ustida tiz cho'kib o'tirdi ham. Bu razil qotilani darhol qamamoq kerak, darhol! Siz or-nomus haqida gapirdingiz, mening aytganimni bajo keltirsangiz, abadiy o'chmas shuhrat qozonasiz.

– Menda siznikidek kuchli iroda yo'q hozir, – dedi Vilfor, – lekin bilib qo'yingki, agar bunaqa gap sizning qizingiz ustida ketganda edi, bu iroda sizda hech bo'lmasdi, ha, bo'lmasdi.

D'Avrini bo'zarib ketdi.

– Doktor, bilib qo'yingki, xotin zotidan tug'ilgan har bir kimsa azob-uqubatga va o'limga mahkum, men azob chekishga va ajalim etadigan payt kelishini kutishga majburman.

– Ehtiyot bo'ling, – dedi d'Avrini, – u payt tezda kela qolmaydi. Ha, faqat otangiz, xotiningiz, ehtimol o'g'lingiz ham halok bo'lgach, navbat keyin sizga kelar.

Vilforning nafasi bo'g'ilib, doktorning qo'lidan tutdi.

– Rahm qiling, doktor, – dedi u. – Yordam bering... Yo'q, yo'q!.. Mening qizim aybdor emas... sudga bering bizni, o'shanda ham: «Yo'q, yo'q! Qizimda gunoh yo'q», deya veraman... Mening xonadonimda hech qanaqa jinoyat sodir bo'lgani yo'q... yo'q, uyimda jinoyat yuz berishini istamayman, eshitdingizmi, istamayman... Chunki, jinoyat, kimning uyiga kirmasin, o'lim singari yakka kirmaydi. Hoy, bu yoqqa qarang, agarda men qotillik qurboni bo'lib ketsam sizga nima?.. Yoki siz mening do'stimmisiz? Yoki

siz insoniy fazilatlarga molik kishimisiz? Sizda insoniy qalb bormi o'zi?.. Yo'q, aslo yo'q! Siz faqat doktorsiz, faqat doktor! Shu boisdan men sizga dangal aytaman: men qizimni jallod qo'lga topshirmayman! Bu fikr qalbmni o'rtayapti, hozirning o'zidayoq ko'ksimni pora-pora qilib tashlayman, ammo qizimni jallodga topshirmayman?.. Ehtimol, siz xato qilayotgandirsiz, doktor? Ehtimol, qotil qizim emas, boshqa birovdir? Unda nima bo'ladi?.. Bordiyu, kunlardan bir kun Azroil singari qarshingizda paydo bo'lsamu, basharangizga tik qarab: «Qotil! Qizimni sen o'ldirding! Sen...» desam, xo'sh, o'shanda nima deysiz menga? D'Avrini, shuni bilib qo'yingki, xristian dini mening mazhabim, mabodo shunday voqea yuz bergudek bo'lsa, o'zimni o'zim o'ldirib qo'ya qolaman.

– Bo'pti, – dedi doktor bir oz o'ylab, – men kutaman.

Vilfor unga ishonqiramay qarab qo'ydi.

– Lekin shuni aytib qo'yay, – dedi tantanavor ohangda d'Avrini, – endi xonadoningizda biror kishining tobi qochib qolsa, mabodo o'zingiz ham qotilning zarbasiga duchor bo'lganingizni sezib qolgudek bo'lsangiz, meni chaqirtirmang, baribir kelmayman. Bu dahshatli voqealarni siz bilan birga sir saqlashga roziman, biroq vijdon azobida uzluksiz aziyat chekishni, sharmisor bo'lishni istamayman.

– Doktor, siz mendan yuz o'girib ketyapsizmi?

– Ha, endi ikkimiz yo'ldosh bo'lolmaymiz, men siz bilan jallod dori tagigacha bordim, bas endi, shunisi ham etar. Yana bir jinoyat fosh etilsa, bo'ldi – bu dahshatli fojia tamomatiga etadi. Alvido.

– Doktor, iltimos qilaman! Doktor!

– Bu xonadonda nimani ko'rsam, hammasi aqlimni bulg'ayapti, uyingizdan jirkanaman, nafratlanaman. Alvido, janob Vilfor!

– Yana birgina so'z, doktor, bittagina so'zim bor! Siz

---

<sup>18</sup> Akr – 4047 m<sup>2</sup> yer o'lchovi.

meni g'oyat dahshatli paytda tashlab ketyapsiz. Keyingi so'zlaringiz dard ustiga chipqon bo'ldi. Biroq sho'rlik Barruaning to'satdan o'lib qolishining sababini so'rasalar, nima deyman?

– Bu gapingiz to'g'ri, – dedi d'Avrini, – qani yuring, meni kuzatib qo'ying.

Xonadan birinchi bo'lib doktor chiqdi, Vilfor uning ketidan bordi. Hayajonga tushib qolgan xizmatkorlar doktor o'tayotgan yo'lkada va zinada o'ralashib yurishgan edi.

– Janob, – dedi Vilforga d'Avrini, hamma eshitsin deb baland ovozda, – bechora Barrua so'nggi yillari juda kam harakat qilib, umrini nuqul bir joyda o'tirib o'tkazardi. Ilgarilari u xo'jayini bilan goh otda, goh izvoshda butun Evropani kezib yurishga o'rganib qolgan edi. Kursidan turl olmay qolgan bemor yonida hadeb o'tiraverib, halok bo'ldi-da. O'zi xo'ppa semiz, yapasqi odam edi, qoni yaxshi yurishmay qoldi. To'satdan miyasiga qon quyildi. Meni juda kechikib chaqirtirdilar. Aytmoqchi, – dedi doktor shivirlab, – gunafsha sharbatini pechkaga to'kib yuborishni esdan chiqarmang, tag'in.

Doktor shunday dedi-da, Vilforga qo'l berib, xayrlashmay chiqib ketdi. Ko'zlari yoshga to'la xizmatkorlar uni kuzatib qolishdi.

Shu oqshomning o'zidayoq Vilforning hamma xizmatkorlari oshxonaga to'planib, maslahatni bir joyga qo'yishdi-da, de Vilfor xonim huzuriga kirib, bizni bo'shating, deb iltimos qilishdi. Ularni bu shashtidan qaytarish uchun xonim ko'p urindi, oyliklarini oshirishni va'da qilib ko'rди, bo'lmadi. Ular oyoq tirab turib olishdi.

– Biz ketishga ahd qildik, chunki bu xonadondan o'lim arimay qoldi.

Shunday deyishdi-da, ming yalinib-yolvorishlarga qaramay, muruvvatli xo'jayinlaridan, ayniqsa, mehribon mademuazel Valentinadan judo bo'layotganlariga achinayotganlarini izhor etib, chiqib ketdilar.

Xizmatkorlar so'zlayotgan paytda Vilfor Valentinaga

qaradi. Qiz bechoraning ko'zlari jiqqa yosh edi.

Ajabo, qizini shu holda ko'rib hayajonga tushgan Vilfor de Vilfor xonimga ham ko'z qirini tashlab qo'ydi: xonimning yupqa lablarida achchiq kinoya alomati ko'rindi-yu, darhol yo'qoldi, bu xuddi dovul paytida bulutli osmon to'rida xiragina yaltiragan tovushsiz chaqmoqqa o'xshardi.

#### **IV. NOVVOY OROMGOHI**

Graf de Morser Danglarnikidan bizga ma'lum sabablarga ko'ra sharmanda bo'lib, ko'ziga hech narsa ko'rinmay darg'azab chiqib ketgan edi. O'sha kuni kechqurun sochlari boplab taralgan, mo'ylovlari buralgan, qo'llariga oppoq qo'lqop kiygan Andrea Kavalkanti o'z foytunida g'oz turib keldi-da, Shosse d' Antendaga bankir hovlisi oldi-da otlarini taqqa to'xtatdi.

Mehmonxonaga kirib bir zum o'ralashib yurdi-da, so'ng qulay payt topib Danglarni deraza oldiga tortdi, so'zamonlik bilan aytilgan muqaddimadan so'ng muruvvatli, olijanob otasi ketgandan keyin boshiga tushgan talay tashvishlardan gapirdi.

– Otam ketgandan buyon meni o'z farzandidek quchoq ochib qabul qilgan bankir oilasida baxtim ochilishiga amin bo'ldim, – dedi u. – Buni men oshiqqlarning behuda jununidan afzal ko'raman. Muhabbatimni esa mademuazel Danglarning shahlo ko'zlaridan topdim.

Danglar bu gaplarni zo'r diqqat bilan tingladi, bankir bir necha kundan buyon Adreaning ana shu so'zlarini eshitishga intizor edi, mana, endi eshitdi-yu, chehrasi guldek ochilib ketdi. (Morserning so'zlari Danglarning aftini burishtirib yuborgani esimizda.)

Shunday bo'lsa-da, u yigitning taklifini qabul qilishdan oldin, ba'zi narsalardan shubhalanayotganini aytishga qaror qildi.

– Vikont, – dedi bankir, – uylanishga hali yoshsiz-ku?

– Hecham, janob, – dedi e'tiroz bildirib Kavalkanti. –

Italiyadagi zodagonlar oilasida balogʻatga etmay uylanish rasm boʻlib qolgan, bu oqilona rasm. Zamonamizda taqdirga hech ishonch qolmadi. Baxt qushi boshingga qoʻndimi, uni mahkam ushla, yoʻqsa hammasini boy berasan.

– Xoʻp, – dedi Danglar, – taklifingizni xotinim va qizim qabul qildi, deb faraz qilaylik, u holda bu ahdning amaliy tomonini kim bilan muhokama qilamiz? Bu muhim masalani, menimcha, farzandlarning farogʻatda yashashlarini koʻzlab, otalar hal etishlari lozim.

– Otam – chuqur mulohazali, koʻpni koʻrgan, oqil odam. Fransiyada uylanib qolishim mumkinligini u oldindan bilgan va shu vajdan ketish oldida, shaxsiyatimni tasdiqlaydigan hujjatlar bilan birga bir xat ham qoldirgan edi. Bunda, agar qayliq unga maʼqul tushsa menga yiliga (toʻy kunidan boshlab) bir yuz ellik ming livr berib turishga vaʼda qilgan. Bu, chamamda, otam daromadining toʻrt dan bir qismini tashkil qiladi.

– Men esa, – dedi Danglar, – ilgari sanoq qizimning sep-saruposiga besh yuz ming frank berishni moʻljallab qoʻyganman. Buning ustiga qizim yakkayu yagona merosxoʻrim.

– Mana koʻrib turibsizki, – dedi Andrea, – baronessa Danglar va mademuazel Ejeni taklifimni rad etmasalar boʻlgani. Yiliga bir yuz etmish besh ming daromadimiz boʻladi. Bordi-yu, men markizni menga renta toʻlab yurmay, sarmoyaning oʻzini ixtiyoriga berishga koʻndirsam (bilaman, bu juda qiyin, biroq, ehtimol, oʻngarib ketar) olam guliston, unda siz bizning ikki-uch millionimizni muomalaga qoʻyasiz, bunaqa summa tajribali qoʻllarda hamisha oʻn foiz foyda keltirishi mumkin.

– Men hech vaqt toʻrt foizdan ortiq toʻlamayman, – dedi bankir, – toʻgʻrirogʻi, uch yarim foizdan ortiq. Ammo kuyovimga besh foizdan toʻlardim, shunda foydani teng boʻlib olardik.

– Juda bop boʻladi-da, otaxon, – dedi Kavalkanti cha-



panicha talaffuz bilan (u qanchalik o'zini kitoblardek sipo tutishga harakat qilmasin, goh-goh o'sha sipolikdan asar ham qolmasdi) va darhol o'zini qo'lga olib uzr so'radi: – Kechiring meni, baron, quvonganimdan o'zimni yo'qotib qo'yay dedim.

Danglar esa beg'arazlik bilan boshlangan suhbat bora-bora oldi-sotdiga aylanib ketganini fahmlab:

– Biroq otangiz rad qilolmaydigan mulkingiz ham bo'lsa kerak? – dedi.

– Qanaqa mulk ekan u? – so'radi Andrea.

– Onangiz ixtiyoridagi mulk.

– Ha, albatta, onam Olive Korsinarining mulki.

– Mulkingizning bu qismi taxminan qanchaga boradi?

– Ochig'ini aytsam, – dedi Andrea, – bu mening hech esimga kelmagan ekan. Chamamda, ikki millionga borib qolar.

Danglar o'zida yo'q quvonib ketdi. Shu payt u yo'qolgan xazinasini topib olgan xasis boyga yoki g'arq bo'layotib birdan oyog'i erga tegib qolgan kimsaga o'xshardi.

– Baron, – dedi Andrea, bankirga ehtirom bilan ta'zim qilib, – ishonsam bo'ladimi?..

– Bo'ladi, vikont, – dedi Danglar, – ishonavering, o'zingiz g'ov solmasangiz bo'ldi, masala hal.

– Oh, baron, men baxtiyorman, baxtiyor! – dedi Andrea.

– Biroq, – dedi Danglar o'ychan, – Parij zodagonlari orasida sizga vorislik qilib yurgan graf Monte-Kristo ko'maklashish uchun siz bilan birga kelmadi-ku.

Andrea xiyol qizardi.

– Men to'g'ri grafning oldidan keldim, – dedi u. – U, shubhasiz, yaxshi odam, biroq uning o'ziga xos xususiyatlari ko'p. U mening bu qarorimni juda ma'qulladi, hatto, otangiz foyda o'rniga sarmoyaning o'zini beradi, men bunga aminman, dedi, bu borada otamga o'z ta'sirini o'tkazishga va'da ham qildi. Biroq, shu vaqtgacha hech kimga vositachilik qilganim yo'q va bundan keyin ham qilmayman, bunaqa mas'uliyatli ishga aralashmayman,

dedi. Mana shu odatim bo'yicha sizga vositachilikni gardanimga ololmaganim uchun afsuslanaman, albatta, chunki sizning nikohingiz, shubhasiz, xayrli bo'ladi, deb qo'ydi. Har holda bizning bu ishimizga u rasmiy ravishda ishtirok etmasa-da, istasalar o'z fikrini sizga aytishga tayyor.

– Juda soz.

– Xullas, – dedi Andrea jilmayib, – qaynatam bilan gapimiz pishdi, endi bankirda ishim bor.

– Xo'sh, qanday ishingiz bor ekan unda sizning? – dedi kulib Danglar.

– Indinga sizdan to'rt ming frank chamasi pul olishim kerak, biroq bilasizmi graf, bu oyda mening sarf-xarajatingim ko'proq bo'ladiganga o'xshab turibdi, men sho'rlik bo'ydoqning daromadi etmay qolar, shu vajdan u menga yigirma ming frankka chek yozib berdi, mana. Bunga grafning o'zi qo'l qo'ygan. Bu etarli bo'lsa kerak-a?

– Bunday hujjatni million frankka olib kelsangiz ham qabul qilaveraman, – dedi Danglar chekni cho'ntagiga tiqib. – O'zingiz qulay bir vaqtni belgilang, kassirim huzuringizda hozir bo'ladi va yigirma to'rt ming frankni naqd olasiz.

– Agar qulay bo'lsa, ertalab soat o'nda, qancha erta bo'lsa shuncha yaxshi, ertaga shahar atrofiga sayrga chiqmoqchiman.

– Bo'пти, soat o'nda, har galgidek kassir Shahzodalar mehmonxonasiga borsinmi?

– Ha.

Ertasi soat naq o'nda bankirning kassiri keldi-da, Kavalkanti yigirma to'rt ming frankni jaraq-jaraq sanab oldi, Andrea esa KadruSSga ikki yuz frankni tashlab, chiqib ketdi.

Andrea shu payt asosan do'sti bilan uchrashuvdan qochish uchun chiqib ketgan, juda kech qaytib kelishining boisi ham shunda edi. Lekin u hovliga qadam qo'yishi bilan oldida mehmonxona qorovuli paydo bo'ldi.

– Janob, – dedi u, – anavi kishi kelgan edi.

– Qanaqa kishi? – dedi e’tibor bermay Andrea, u gap kimning ustida borayotganini tushunib turgan bo’lsa-da, o’zini bilmaslikka soldi.

– Siz janob oliylari oz-moz sadaqa berib turadigan odam.

– E-e, – dedi Andrea, – otamning eski qaroli. Men tashlab ketgan ikki yuz frankni berdingmi unga?

– Berdim, janobi oliylari.

Andreaning xohishiga muvofiq xizmatchilari uni «janob» deb atashardi.

– Lekin u bu pulni olmadi, – dedi qorovul. Andreaning rangi o’chdi, biroq qorong’ilikda buni hech kim sezmedi.

– Shunaqa de? Olmadimi? – dedi u titroq ovozda.

– Olmadi, sizga uchrashmoqchi bo’ldi. Men sizni uyda yo’qlar, dedim. U, topib ber, deb oyog’ini tirab turib oldi. Oxiri zo’rg’a ishondi-da, sizga konvertda bir xat qoldirib ketdi.

– Xatni ber, – dedi Andrea.

U xatni foytun lampasiga tutib, o’qidi: «*Mening turgan joyimni bilasan, ertaga ertalab soat to’qqizda seni o’sha erda kutaman*».

Andrea biron kishi ochib, o’qimadimikin, deb xatning muhrini sinchiklab tekshirdi: ammo xat juda ustalik bilan taxlangan bo’lib, uni o’qish uchun albatta muhrni uzib olish shart edi. Andrea muhrga qo’l tegizilmaganligini ko’rib, ko’ngli tinchidi.

– Bo’pti, – dedi u. – Sho’rlik bebaho odam-da! Mehmoxona qorovuli bu so’zlardan to’la qanoat hosil qildi, ko’proq kimga qoyil qolishni – yosh janob oliylarigami yoki keksa qarolgami – bilmay, hayron bo’lib qoldi.

– Tez ishingni bitirib, oldingga chiq, – dedi Andrea xizmatkoriga. So’ng ikki hatlab o’z bo’lmasiga kirdi-da, Kadrossning xatini kuydirib, kulini sochib yubordi.

Shu orada xizmatkor kirib keldi.

– Sening bo’ying mening bo’yim bilan teng, – dedi Andrea xizmatkoriga.

– Xuddi shunday, janob, – dedi xizmatkor.

– Kecha senga yangi libos keltirishlari kerak edi.

– Shunday, janob.

– Men bugun bir oyimcha bilan ishrat qilmoqchiman.

Unga unvonimni, mavqeimni bildirmoqchi emasman. Us-tingdagi kiyimingni menga berib tur, zarurat tugʻilib qolgudek boʻlsa, qovoqxonada yotib qolish uchun hujjatlaringni ham ber.

Per «xoʻp», deb taʼzim qildi.

Besh daqiqa oʻtar-oʻtmas Andrea hech tanib boʻlmaydigan darajada oʻzgarib, mehmonxonadan chiqdi-da, ikki gʻildirakli izvosh kira qilib, Pikpyusdagi «Jiyron» qovoqxonasi tomon yoʻl oldi.

U ertasiga Shahzodalar mehmonxonasidagi singari, hech kimga koʻrinmay qovoqxonadan chiqdi-da, Sent-Antuan qishlogʻidan oʻtib, xiyobon orqali Menilmontan koʻchasiga kirdi, chap tomondan uchinchi hovli oldida toʻxtadi. Qorovul yoʻq edi, kimdan soʻrasam boʻlarkin, deb anqayib turgan edi, doʻkon oldida turgan baqqol xotin:

– Hoy, barno yigit, kimni axtarib yuribsiz? – deb soʻrab qoldi.

– Xoʻppa semiz Payteni janoblarini, – javob qildi Andrea.

– Sobiq novvoynimi? – soʻradi baqqol xotin.

– Xuddi oʻshani.

– Hovlining toʻrida – chap tomondagi uyning toʻrtinchi qavatida.

Andrea hovliga kirib, oʻsha tomonga yoʻl oldi, toʻrtinchi qavatga chiqdi-da, eshikda osilib turgan quyon panjasini zarda bilan siltab-siltab tortdi. Qoʻngʻiroq qattiq jaranglab ketdi.

Sum oʻtmay eshikdagi kichkina panjaradan Kadrossning basharasi koʻrindi.

– Aytgan vaqtning xuddi oʻzida kelding-a? – dedi Kadross va eshikni ochdi.

– Boʻlmasam-chi? – deb Andrea ichkari kirdi-da, shapkasini uloqtirib yubordi.

– Hoy, hoy, yigitcha, zarda qilma! – dedi Kadross. –

Mana, qara, men qanchalik g'amxo'rlik qilib qo'ydim. Nonushtang uchun ko'nglingdagidek ajoyib taomlar tayyorlab qo'ydim, mana, ko'rdingmi.

Andrea chindan ham ishtahani qitiqlaydigan taomlar hidi anqiyotganini sezdi. Bu provansal taomlari ichida ajralib turadigan moy bilan sarimsoq piyozning qorishmasi, qovurilgan baliq, muskat yong'og'i hamda ziravorning hidi edi. Bu taomlarning barchasi ikkita chuqur idishga solib qo'yilgandi, cho'yan pechkadagi kostryulda nimadir biqirlab qaynab yotardi.

Bundan tashqari ikkinchi xonada ham stol bezatib qo'yilgan edi, stol ustida ikki kishilik qoshiq-kosa, ikki butilka vino (buning bittasi zangori surg'uch bilan, ikkinchisi sariq surg'uch bilan muhrlangan), bir grafin aroq, likobchalarda mevalar...

– Xo'sh, yigitcha, qalay? – dedi Kadruss. – Joyidami? Mening mohir oshpaz bo'lganligimni bilasan-ku. Esingdami, likobchalarni ham yutib yuboray derding? Hammadan ko'proq mening sarqitlarimni hech hazar qilmay paqqos tushiradigan o'zing eding-da.

Kadruss piyoz archishga tushdi.

– Bo'ldi, bo'ldi, ko'p vaysayverma, – dedi o'ksinib Andrea, – agar shu nonushtaga chaqirib meni bezovta qilgan bo'lsang, yo'qol, ko'rinma ko'zimga!

– O'g'lim, – dedi Kadruss nasihatomuz, – suhbat mana shunday ovqat ustida qiziydi-da, axir, sen betavfiq, eski qarddon do'stingni sog'inmaysanmi? Men seni rosa sog'indim, seni ko'rib ko'zlarimdan tirqirab yosh chiqib ketdi.

Kadruss rostdanam yig'layotgan edi shu paytda, biroq sobiq qovoqxonachi quvonganidanmi yoki piyozning achchig'idanmi – qaysinisidan ko'zyoshi to'kayotganligini bilish qiyin edi.

– O'chir ovozingni, badbaxt! – dedi Andrea. – Bu meni yaxshi ko'rarmish! Rostdan-a?

– Rostdan, rostdan yaxshi ko'raman, – dedi Kadruss, – bu mendagi bir illat, ilojim qancha?

– Biror ehtiyoj tugʻilib qolganda meni chaqirish uchun topgan vaj bu senga.

– Qoʻy boʻlmagʻur gaplarni, – dedi Kadruss katta oshpichogʻini etagiga artib. – Seni yaxshi koʻrmaganimda xohishingga qarab shunday baxtsiz turmush kechirishga rozi boʻlarmidim? Mana, oʻzingga bir qara: ustingda xizmatkoringning libosi – demak, sening xizmatkoring bor, mening esa xizmatkorim yoʻq. Sabzi-piyozni oʻzim artishga majburman: mening ovqatlarimga qoʻl tegizishga hazar qilasan, chunki Shahzodalar mehmonxonasida yoki Kafe-de-Paridagi taqvodorlar restoranida ovqatlanasan. Axir, men ham xizmatkor saqlashim, izvoshli boʻlishim va istagan joyda ovqatlanishim mumkin edi-ku, nega men mana shu lazzatlardan oʻzimni-oʻzim mahrum etib oʻtiribman? Bolakayim Benedettoning dilini siyoh qilmaslik uchun. Hech boʻlmasa «haq gapni aytyapsan» deb qoʻysang-chi.

Kadrussning maʼnodor tikilishi bu soʻzlarga qoʻshimcha boʻldi.

– Mayli, sening aytganing boʻlsin, – dedi Andrea, – sen meni yaxshi koʻrasan, deya qolaylik. Biroq, nega meni nonushtaga chaqirding?

– Diydoringni koʻrish uchun.

– Meni nechuk koʻrging kelib qoldi? Axir biz hamma masalalarda kelishib olgan edik-ku.

– E-e, joʻra, – dedi Kadruss, – izohsiz vasiyatnoma boʻladimi? Ke, avval bir nonushta qilib olaylik. Oʻtir, mana bu hasipdan va taʻbingga yoqsin, deb tok bargi ustiga qoʻygan sariyogʻdan boshlaylik. Ha, koʻrib turibman, kulbamni koʻzdan kechiryapsan, qamish stullar, devordagi arzon suratlarni koʻrib hayron boʻlyapsan. Baholi qudrat, axir bu Shahzodalar mehmonxonasi emas-da!

– Ana, koʻrdingmi, nolishga tushding endi, axir oʻzing osoyishta hayot kechirayotgan novvoy singari yashashni orzu qilaman, degan eding-ku.

Kadruss xoʻrsinib qoʻydi.

– Tagʻin nima? Orzung ushaldi-ku.

– Bu faqat orzu, osoyishta hayot kechirayotgan novvoy boy odam, daromadi bor.

– Daromad senda ham bor.

– Menda ham?

– Ha, senda ham. Mana, ikki yuz frank haqingni keltirdim.

Kadruss elkasini qisib qo'ydi.

– Rozi bo'lmay berilgan pulni olish pastkashlik-ku, – dedi u, – vaqti kelib bu puldan ajrab qolishim hech gapmas. Illo, uning bir qismini yomon kuningga yarar deb tishimning kovagida asrab yuribman. E-e, jo'ra! Baxt ko'r bo'lur, to'g'ri kelganga qo'naveradi, polkimizdagi kohin shunday degan edi. Sen juda katta baxtga ega bo'lyapsan, galvars. Danglarning qiziga uylanyapsan-a.

– Nima? Danglarning qiziga?

– Ha, Danglarning qiziga! Yoki baron Danglarning qiziga, deyish kerakmi? Bu graf Benedetto deganga o'xshash gap! Axir biz Danglar bilan og'aynimiz, esi past bo'lmasa, meni to'yingga chaqirishi lozim edi... Axir u mening to'yimda bo'lgan edi-ku... Ha, ha, mening to'yimda! U vaqtda bunaqa g'o'daygan emasdi, janob Morrelning kichkina xizmatchisi edi, xolos. Ko'p marta birga janob de Morsernikida ovqatlangan edik... Mana, ko'rdingmi, mening zodagonlar orasida tanish-bilishlarim yo'q emas, agarda aloqani uzmaganimda, o'sha mehmonxonalarda sen bilan birga bo'lardim.

– Bunchalik yolg'onni hasaddan to'qiyotgan bo'lsang kerak-a, Kadruss.

– Bo'pti, bo'pti, Benedetto. Men bilib gapiryapman. Ehtimol men ham vaqti kelib bayram liboslarini kiyib, yasanib, bironta boyvachchanning darvozasi oldiga borarman-da: «Qani, eshikni oching!» deb g'o'ddayarman. Ke, qo'y u gaplarni, nonushtaga o'tir.

Kadruss birinchi bo'lib ovqatning changini chiqara ketdi, u taomlarni maqtab-maqtab er edi. Andrea esa och qorinning buyrug'iga itoat qilib, butilkani shartta ochdi va stakanni to'ldirib vino ichdi-da, oldiga qo'yilgan ta-

omlardan eya boshladi.

– A-ha, og‘ayni, – dedi Kadruss, – eski oshpaz do‘sting bilan yarashib olding, shekilli?

– Yo‘q, aksincha, pushaymon qilyapman, – dedi so‘g‘lom, navqiron Andrea, ovqatdan boshini ko‘tarmay.

– Xo‘sh, lo‘ttiboz, qalay, taomlar mazali bo‘ptimi?

– Mazali bo‘lganda qanday! Shunday mazali taomlarni pishirib eydigan odam tag‘in nimadan nolirkan, hayronman.

– Baxtimni bir o‘y zaharlayapti, – dedi Kadruss.

– Qanaqa o‘y ekan u?

– Birovning hisobiga, birovga mute bo‘lib yashayapman-a, degan o‘y. Axir halol mehnat qilib kun ko‘rayotgan edim-ku.

– Topgan gapingni qara-ya, – dedi Andrea, – hali shunga tashvishlanib yuribsanmi. Meniki ikkimizga ham etib, ortadi, sira tortinma.

– Ishonasanmi, yo‘qmi, u sening ishing, biroq har oying oxirida vijdon azobida qiynalaman.

– Ke, Kadruss, bas qil bu gaplarni!

– Kecha ikki yuz frankni olmaganingning boisi shunda.

– Sen meni shuning uchun ko‘rmoqchimiding?

– Xuddi shuning uchun, bundan tashqari miyamga yana bir fikr keldi.

Andrea seskanib tushdi. Kadrussning fikrlari uni hamisha vahimaga solardi.

– Bilasanmi, – dedi Kadruss, – nuqul birinchi sanani kutish rosa jonga tegdi-da.

– E-e, – dedi suhbatdoshi gapni qayoqqa burayotgani ni bilgandek Andrea, – butun hayot kutishdan iborat emasmi axir? Men-chi? Mening turmushim-chi? Men ham sabr qilib kutyapman.

– To‘g‘ri, biroq sen arzimagan ikki yuz frankni emas, besh yoki olti ming frankni, ehtimol, o‘n ming yo yigirma ming frankni kutasan. Quvsan-da, shumsan. Hamisha bechora Kadrussdan yashirib qo‘yadigan hamyonlaring bo‘lardi. Xayriyatki, ana shu sho‘rlik Kadruss iskab topish



qobiliyatiga ega.

– Yana bo'lmag'ur gaplarga o'tding-da, – dedi Andrea, hadeb o'tmishdagi gaplarni esga olaverasanmi, nima keragi bor buning?

– Sen endigina yigirma bir bahorni ko'rding, o'tmishni unutish sen uchun oson, men esa ellikka kirdim, o'tmish ixtiyoran... beixtiyor yodimga tushadi. Ke, ishlarimiz haqida gaplashaylik.

– Endi o'zingga kelding.

– Men sening o'rningda bo'lsaydim...

– Xo'sh, nima qilarding?

– Sarmoyamni muomalaga qo'yardim.

– Muomalaga qo'yardim?

– Hovli-joy qilib, saylanish huquqiga ega bo'lmoqchi-man degan bahona bilan yarim yillik pulni oldindan olardim-da, juftakni rostlab qolardim.

– Qani, qani! – dedi Andrea, – bu fikr durustga o'xshaydi.

– Azizim, – dedi Kadruss, – men pishirgan ovqatning changini chiqar-u, maslahatimga quloq sol: sen bunda faqat yutasan, taning ham, joning ham rohatda bo'ladi.

– Menga bergan maslahatdan nega o'zing foydalanmaysan, xo'sh? – dedi Andrea. – Nega o'zing Bryusselga borib yarim yillik, bir yillik pulingni muomalaga qo'ymaysan? Shunday qilsang, sobiq novvoy niqobini yirtib tashlab, haqiqiy ishbilarmon bo'lib qolarding-ku. Hozir bu juda udum bo'lgan.

– Bir ming ikki yuz frank bilan nima qila olardim?

– Ishtahang karnay-ku, Kadruss! – dedi Andrea. – Bundan atigi ikki oy burun ochdan o'lay deb tishingning kirini so'rib yurarding-ku!

– Ishtaha ovqat mahalida ochiladi, deganlar, – dedi Kadruss kulayotgan maymun yoki bo'kirayotgan sher singari tishlarini g'ijirlatib. – Bu borada reja ham tuzib qo'ydim, – qo'shimcha qildi u katta burda nonni tishlab.

Kadrussning rejalari uning fikrlaridan ko'ra battarroq vahimaga solardi Andreani. – Fikr – endigina tug'ilgan o'y-xayol, reja esa amalga oshiriladigan narsa.

– Qanaqa reja ekan u? – dedi Andrea, – fahmlab turibman men ham!

– Ha, yomonmi? O’sha ma’lum joydan chiqib ketish rejasini kim tuzgan edi? Men bo’lsam kerak? To’g’rimi? Menimcha, bu yomon bo’lgani yo’q, yo’qsa, biz bu erda o’tirmagan bo’lardik!

–To’g’ri, men bunga e’tiroz bildirayotganim yo’q, – dedi Andrea, – ba’zida og’zingdan ma’nili gap ham chiqib qoladi. Xo’sh, rejani gapir, qanaqa reja u?

– Menga qara, – davom etdi Kadruss, – menga, o’z yoningdan bir tiyin qo’shmay, o’n besh ming frank topib bera olasanmi?.. Yo’q, o’n besh ming kamlik qiladi, o’ttiz ming franksiz tuzukroq odamlar qatoriga kirishim mumkin emas!

– Yo’q, – dedi Andrea, – bu mening qo’limdan kelmaydi.

– Sen gapimga tushunmading, shekilli, – dedi Kadruss sovuqqina, – yoningdan bir tiyin qo’shmay, deyapman.

– Nima demoqchisan o’zi! Men pul o’g’iray, ushlab olishsin-da, ishimizniig rasvosi chiqib, bizlarni qamoqxonaga olib ketishsin, demoqchimisan?

– Menga baribir, – dedi Kadruss, – olib ketishsa ketaverishsin. Bilasanmi, mening g’alati odatlarim bor: ba’zan jo’ralarimni qo’msab, sog’inib, ko’rgim kelib qoladi, senga o’xshab bemehr emasman, yuborsalar, jo’ralarim bilan diydor ko’rishaman. Sen bo’lsang ularni ko’rarga ko’zing, otarga o’qing yo’q, ha.

Andrea bu gal faqat seskanibgina qolmay, quti uchib ham ketdi.

– Qo’y ahmoqona gaplaringni, Kadruss, – dedi u.

– Qo’rqma, Benedetto, o’zing chetda turib, menga o’sha o’ttiz ming frankni qo’lga tushirish yo’lini ko’rsatib bersang bo’lgani, u yog’ini menga qo’yib beraver.

– Mayli, o’ylab ko’raman, – dedi Andrea.

– Ungacha mening pensiyamni besh yuz frankka oshirib qo’lasan, bo’ptimi? Oqsoch yollamoqchiman.

– Bo’pti, besh yuz frank olasan, – dedi Andrea, – biroq

bu men uchun og'ir, Kadruss, sen juda haddan oshib ketypsansan...

– Nimaga og'ir bo'larkan, – dedi Kadruss. – Axir sen tagi yo'q sandiqdan jaraqatib olib turibsan-ku hisobsiz franklarni!

Andrea aftidan, shu gapni kutib turgan ekan, shekilli, uning ko'zlari yalt etib yonib, shu zahoti so'ndi.

– Bu gaping to'g'ri, – dedi Andrea, – vorisim menga qolganda juda hotamtoy.

– Judayam olijanob voris ekan-da! – dedi Kadruss, – u senga har ovda qanchadan beryapti?

– Besh ming frankdan, – dedi Andrea.

– Sen menga besh yuz, u senga besh ming, – dedi Kadruss. – Haromilarning oshig'i hamisha olchi bo'ladi, deganlari to'g'ri ekan-da. Bir oyda besh ming frank!.. Shuncha pulni qayoqqa sig'dirib bo'larkan-a?

– Be! Bu pulni sovurish hech gap emas, biroq men ham sen kabi mablag' orttirmoqchiman.

– Mablag'... uqdingmi, hammaning ham mablag' orttirgisi keladi.

– Menim mablag'im bo'ladi, albatta.

– Kim beradi senga mablag'ni? Knyazingmi?

– Ha, mening knyazim. Afsuski, bir oz kutishga to'g'ri keladi.

– Nimani kutishing kerak? – so'radi Kadruss.

– Uning o'limini!

– Knyazning o'liminimi?

– Ha.

– Nega endi?

– O'z vasiyatnomasida u mening nomimni ham yozadi.

– Rostdan-a?

– Ha, rostdan.

– Senga qancha yozibdi?

– Besh yuz ming!

– U-ho', ja opqochding-ku.

– Bor gapni aytyapman senga.

– Bo'lmag'ur gap!

- Kadruss, sen do'stimmisan?
- U dunyoyu bu dunyo!
- Unda senga sirimni aytganim bo'lsin.
- Ayt.
- Biroq unutmaginki...
- Birovga churq etsam, tilim kesilsin.
- Xullas, nazarimda...
- Andrea jim bo'lib atrofga alangladi.
- Xo'sh, nazarimga... Qo'rqma! Ikkimizdan bo'lak jin ham yo'q bu erda.
- Nazarimda otamni topganga o'xshayman...
- Haqiqiy otangnimi?
- Ha.
- Kavalkanti otangnimi?
- Yo'q, u ketdi, sen aytganingdek, haqiqiy otamni.
- Demak, haqiqiy otang...
- Kadruss, haqiqiy otam graf Monte-Kristo.
- Bo'lmagan gapni qo'y!
- Bu haqiqat, mana ko'rasan, hamma narsa ma'lum bo'ladi. Graf, meni o'g'lim deb oshkora aytolmayotgan-ga o'xshaydi, chol Kavalkanti buni bo'yniga olib, ellik ming frankni hamyonga uryapti.
- Sening otang bo'laman deb ellik ming frank! Men buning yarmiga, ya'ni yigirma ming-yigirma besh mingga ham ko'nardim. Nega o'shanda men haqimda o'ylama-ding, noshud banda?
- Men qayoqdan bilay? Bu gaplarning hammasini biz ana u yoqdaligimizda hal etib qo'yishgan ekan.
- E, to'g'ri. Gapingga qaraganda, u vasiyatnomasida senga...
- Menga besh yuz ming frank yozib qoldiryapti...
- Bunga imoning komilmi?
- Menga o'zi ko'rsatdi, biroq bu hali hammasi emas.
- Hali men aytgandek, qo'shimchasi ham bormi?
- Shunday bo'lsa kerak.
- Qo'shimcha yozuvda nima debdi?
- U meni o'z o'g'lim debdi.

– Judayam olijanob ota ekan-da! Maqtab, ko'klarga ko'tarsa arziydigan ota ekan-da! Ofarin-e! – deya xitob qildi Kadruss va qo'lidagi likopchani yuqoriga irg'itdi-da, yana ikki qo'li bilan ilib oldi....

– Mana, ko'rdingmi, senga sirimni aytdim. Endi, mendan ko'p gapni yashirasana, deyishga, tiling bormasa kerak.

– Shunday deyishga haqlisan, menga ishonish sen uchun farz. Xo'sh, o'sha haqiqiy otang, knyaz, juda boy-mi?

– Judayam. Qancha puli borligini o'ziam bilmaydi.

– Yo'g'-e!

– Bilib gapiryapman: men unikiga xuddi o'z uyimday istagan vaqtimda bemalol kirib boraveraman. Yaqinda bank xodimi unga sening dasturxonidek xaltada ellik ming frank qog'oz pul olib kelib berdi, kuni kecha bankirning o'zi yuz ming oltin keltirdi.

Kadruss hang-mang bo'lib qoldi, Andreaning so'zlari ohangida oltin so'lkovoylar jaranglaganday, chervonlar sharaqlaganday tuyuldi.

– O'sha uyning eshigi senga hamisha lang ochiq, degin? – dedi u soddadillik bilan.

– Hamma vaqt.

Kadruss jim bo'lib qoldi, shu payt uning miyasi bir fikr bilan band ekanligi sezilib turardi. So'ng u tomdan tarasha tushganday qilib:

– Qani endi men ham shularni bir ko'rsaydim! – dedi. – Juda maza bo'lsa kerak-a.

– To'g'ri, – dedi Andrea, – u juda dorilamon hayot kechiradi.

– U, adashmasam, Elisey Maydonida tursa kerak?

– Ha, o'ttizinchi uyda.

– O'ttizinchimi? – takrorladi Kadruss...

– Ha. Ajoyib bog'-rog'lik hovli-joy, sen uni yaxshi bilishing kerak!

– Ehtimol, ehtimol, biroq meni u koshonaning tashqi ko'rinishi emas, ich tomoni qiziqtiradi, uy jihozlari ham ajoyib bo'lsa kerak.

- Sen Tyuilrida hech bo'lganmisan?
- Yo'q.
- Uniki Tyuilridan ham shinam, go'zal.
- Andrea, menga qara, ana o'sha zot tushirib qoldirgan hamyonni erdan egilib olgan kishi juda maza qilsa kerak-a?
- Hamyonini tushirishni kutishning hojati yo'q, - dedi Andrea, - uning pullari xuddi bog'da to'kilgan olma singari hamma yoqda sochilib-to'kilib yotadi.
- Biror marta unikiga meni ham olib borsang-chi.
- Qanday qilib? Seni kim deb olib boraman?
- Gaping to'g'ri, gaplaringni eshitib so'lagim oqib ket-di-da. Bularning hammasini o'z ko'zim bilan albatta ko'rishim kerak, hovliga kirish yo'lini o'zim topaman.
- Qo'y, jinni bo'lma, Kadruss!
- Pol artuvchiman deb kiraman.
- Hamma xonalarga gilam to'shalgan.
- Obbo, la'nati-e! Demak, bularning hammasini uzoqdan tasavvur qilib yuraverarkanman-da.
- Shunday qilganing ma'qul.
- Hech bo'lmasa, u erda nimalar borligini aytib bera qol.
- Qanaqasiga aytib beraman senga?
- Bu oson gap-ku? Uy kattami?
- O'rtamiyona.
- Xonalar qanday joylashgan?
- Agar senga uyning joylashishi kerak bo'lsa, qog'oz va siyoh olib kel.
- Hozir! - dedi shoshib Kadruss va eski yozuv stolidan qog'oz, siyoh va patqalam oldi. - Mana! - dedi Kadruss. - Qani, o'g'lim, qog'ozga chizib bera qol.
- Andrea miyig'ida iljayib qo'ydi-da, yoza boshladi.
- Uy oldida hovli va bog' bor, mana qara.
- Andrea bog', hovli va uyning shaklini tushirdi.
- Devori balandmi?
- Devori, sakkiz yoki o'n futdan oshiq emas.
- Bu o'ta ehtiyotsizlik oqibati, - dedi Kadruss.

- Hovlida gulxona, maysazorlar, chiroyli daraxtlar bor.
- Qopqon yo'qmi?
- Yo'q.
- Otxonasi qayerida?
- Darvozaning ikki tomonida, mana bu erda, bu erda,
- dedi Andrea chizib.
- Pastki qavatning suratini chizib ber menga, – dedi Kadruss.
- Pastki qavatda oshxona, ikkita mehmonxona, bilyardxona, dahliz, tashqi zina va ichki zina bor.
- Derazalar-chi?
- Derazalar ohangjamali qilib qurilgan, katta-katta, keng. Chamamda, derazalarning bir oynasiga sening bo'yingga teng kishi bemalol sig'adi.
- Uyda shunaqa derazalar turganda, tag'in zina yasashning nima keragi bor ekan-a!
- Nima ham derding? Hasham, bezak!
- Derazalarda qopqoq bormi?
- Bor, biroq ularni sira yopishmaydi. Bu qurmagur graf Monte-Kristo juda g'alati odam. Hatto tunlari ham osmonga tikilishni yaxshi ko'radi.
- Xizmatchilar qayerda uxlashadi?
- Ular uchun alohida xona ajratilgan, hovlining o'ng tomonida o't o'chirish shotilari saqlanadigan saroy ustida har bir xizmatchining alohida-alohida bo'lmasi bor: asosiy uydan u erga qo'ng'iroq o'rnatilgan.
- Obbo, qo'ng'iroq bor ekan-da!
- Nima qildi?
- Hech nima, qo'ng'iroq juda qimmat turadi deyapman, nima keragi bor ekan bu qo'ng'iroqlarning-a?
- Ilgari bir it bor edi, tuni bilan hovlida sang'ib yurardi, so'ng uni Oteylga, sen borib yurgan joyga eltib qo'yishdi.
- Ha, shunaqa degin?
- Men kecha unga shunday dedim: «Graf, siz juda ehti-yotsizlik qilyapsiz, Oteylga ketganda hamma xizmatchilarni olib ketasiz, uyda hech kim qolmaydi». «Xo'sh, nima bo'пти?» – dedi u. «Bir kunmas bir kun o'g'ri tushib,

shipshiydan qilib ketishi mumkin», – dedim.

– Shunda u nima dedi?

– Nima deb javob berdi deyapsanmi?

– Ha.

– U: «Ha, o'g'ri tushsa tushar», dedi.

– Andrea, ehtimol u erda o'g'rini tutib beradigan biror narsa yashirib qo'yilgandir, a?

– Qanaqa narsa?

– O'g'rini mahkam qo'lidan tutib oladi-yu, shu zahoti musiqa chalib yuboradigan bir sirli narsa. Shunaqasini ko'rgazmada namoyish qilishibdi, deyishyapti.

– Qizil daraxt taxtasidan yasalgan sekreter<sup>16</sup> bo'lib, unda hamisha kalit osilib turadi.

– Shunday holdayam, grafning hech kim hech narsasini o'g'irlamaydimi?

– Hech kim, barcha xizmatkorlari unga g'oyat sodiq odamlar.

– O'sha sekreter pulga liq to'ladir-a!

– Bo'lsa bordir... Kim bilsin!

– Qaerda u?

– Ikkinchi qavatda.

– Qani, bolakay, ikkinchi qavatning suratiniyam chizib bera qol.

– Marhamat, – dedi Andrea va yana qalamni qo'lga oldi. – Ikkinchi qavatda dahliz, mehmonxona bor, mehmonxonaning o'ng tomonida kutubxona va kabinet, chap tomonida yotoqxon va ayol bo'lmasi. Sekreter ana shu ayol bo'lmasida.

– Deraza bormi u erda?

– Ikkita deraza bor: mana bu erda, bu erda, – dedi Andrea va grafning keng yotoqxonasiga yondosh bo'lmaning ikki derzasini ham chizib berdi.

Kadruss o'ylanib qoldi.

– U Oteylga tez-tez borib turadimi? – so'radi u.

– Haftada ikki-uch marta, ertaga Oteylga ketib, kun bo'yi o'sha erda bo'ladi va goho tunab ham qoladi.

– Bunga ishonching komilmi?



- U meni o’sha yoqqa tushlikka taklif qildi.
- Yashash mana bunaqa bo’pti! – dedi Kadruss. – Shaharda ham hovli-joy, shahar tashqarisida ham hovli-joy!
- Boy-da.
- Sen tushda unikiga borasanmi?
- Boraman.
- Ehtimol yotib ham qolarsan?
- Xohlasam yotib ham qolaveraman. Grafning uyi o’z uyimday gap.

Kadruss yosh yigitga uning yuragidan haqiqatni shartta sug’urib olishga jazm etib turgan kishiday ko’z tikib qoldi. Biroq Andrea cho’ntagidan papiros qutichasini olib ochdida, bamaylixotir papiros chekib, halqa-halqa tutun chiqardi.

– Besh yuz frankingni qachon beray senga? – so’radi u Kadrussdan.

– Yoningda puling bo’lsa, hozir bersang ham mayli. Andrea cho’ntagidan yigirma besh luidor chiqardi.

– Kanareykalarmi, – dedi Kadruss, – yo’q, bunaqasi bo’lmaydi, uzr.

– Sen bulardan jirkanasanmi?

– Aksincha, men ularni hurmat qilaman, biroq olmayman.

– E-e, tentak, sen bularni maydalatib, katta foyda olasan-ku; axir oltinga bir so’m oshiq to’lashadi.

– Buni bilaman, so’ng o’sha maydalab bergan kimsa sho’rlik Kadrussning ketidan poyloqchi qo’yadi-da, biror joyda giribonimdan mahkam bo’g’ib: «Xo’sh, qani aytchi, qaysi ijarachi senga oltin bilan haq to’layapti?» deb so’rasa, nima deyman. Yaxshisi buningni qo’y, oddiy kumushini, biror monarx surati solinganini beraver. Besh frankli tanga hammada topiladi.

– Besh yuz frank kumushni yonimda olib yurolmayman-ku, buning uchun hammol yollash kerak.

– Mehmonxona qorovuliga berib qo’y, u juda halol odam. Undan o’zim olaman.

– Shu bugunmi?

- Yo‘q, ertaga, bugun bandman.
  - Bo‘pti, ertaga Oteylga keta turib, mehmonxona qorovuliga tashlab ketaman.
  - Ishonsam bo‘ladimi?
  - Mutlaqo.
  - Gap shundaki, men oqsoch bilan ilgariroq kelishib qo‘ymoqchiman.
  - Kelishib qo‘yaver. Shu bilan oramiz ochiq bo‘ldi-a? Yana menga elimday yopishavermaysanmi?
  - Mutlaqo.
- Shu topda Kadross qovog‘ini solib olgandi, Andrea, nega u bunaqa o‘zgarib qoldi, deb qo‘rqdi va bunga e‘tibor berish kerak degan fikrga keldi. Shu sababdan u o‘zini yanada xushchaqchaq ko‘rsatishga urindi.
- Nega juda tez chehrang ochilib ketdi, – dedi Kadross, – xuddi merosga ega bo‘lib qolganga o‘xshaysan-a?
  - Afsuski, hali ega bo‘lolganimcha yo‘q!.. Biroq uni olgan kunim...
  - Xo‘sh, nima qilasan?
  - Ochig‘ini aytсам, o‘shanda do‘stlarimni unutmaman.
  - Be, sen unutarmiding!
  - Sen hadeb mendan pul so‘rayverib tinkamni quritarсан, deb o‘ylagandim.
  - Menmi? Men-a? Bo‘lmag‘ur gap! Aksincha, men senga bir yaxshi maslahat bermoqchiman.
  - Qanaqa maslahat?
  - Mana bu brilliantli uzukni tashlab ket. Nima, bizni tutib olsinlar demoqchimisan? Ikkimizning ham xarob bo‘lishimizni istaysanmi?
  - Nima bo‘ldi o‘zi? – so‘radi Andrea.
  - Bo‘lmasam xizmatchi qiyofasiga kirib, besh ming frankli brilyant uzuk taqib yurarmiding?
  - Obbo, arvoh urgur-e! Shuniyam narxini bilib oldingmi? Baholovchi bo‘lib olsang bo‘lmaydimi?
  - Brilyantlarning qadr-qiyamatini bilaman, bir vaqtlar o‘zimda ham bo‘lgan edi.

– Ha, ana endi o‘zingga kelding, shuni hammaga aytib, maqtanib yuraver, – dedi Andrea va ochiq chehra bilan uzukni Kadrossga berdi.

Kadross esa, yana xiralik qilganim uchun yigitning achchig‘i chiqar, deb qo‘rqib turgandi.

Kadross uzukni ko‘ziga yaqin olib borib sinchiklab qaradi. Andrea uning niyatini fahmladi.

– Bu qalbaki brilliant-ku, – dedi Kadross.

– Qo‘y hazilingni! – dedi Andrea.

– Achchig‘ing chiqmasin, hozir tekshirib ko‘ramiz. Kadross deraza oldiga bordi-da, brilliantni oynaga surgan edi, g‘ijirlagan ovoz chiqdi.

– Confiteor!<sup>17</sup> – dedi Kadross uzukni jimjilog‘iga taqayotib. – Yanglishibman. Biroq muttaham zargarlar yasama brilliantni shunaqangi boplab ishlashadiki, hech ajratib bo‘lmaydi, zargarlik do‘koniga qadam qo‘yishdan qo‘rqasan kishi. Oxiri «voy» hunarlardan biri mana shu zargarlik.

– Xo‘sh, – dedi Andrea, – endi bo‘ldimi? Yana nima kerak? Kamzulimni yoki birato‘la furajkamni ham berib qo‘ya qolay? Aytaver tortinmay.

– Bo‘ldi, bo‘ldi, aslida ajoyib yigitsan-da. Endi boshqa talabim yo‘q. Ketaverishing mumkin, bundan keyin nafsinni tiyishga harakat qilaman.

– Ehtiyot bo‘l, brilliantni sotayotib qo‘lga tushib qolma.

– Qo‘rqma. Buni sotmayman.

«Indingacha sotmasa bo‘lgani», – dedi ichida Andrea.

– Baxti chopgan yigitsan-da, mug‘ambir, – dedi Kadross. – Yana qarollaring, ot-izvoshlaring va qaylig‘ing oldiga ketyapsan.

– Albatta! – dedi Andrea.

– Mening do‘stim Danglarning qiziga uylangan kuni meni durustgina tuhfaga musharraf etarsan, deb ishon-sam bo‘ladimi?..

– Bu sening kallangdan chiqqan xayol, dedim-ku hali!

– Qizga qancha qalin berisharkan?

– Aytdim-ku, xayol, deb...

– Millionmi?

Andrea elkasini qisib qo'ydi.

– Bir million deyaveraylik, – dedi Kadruss, – ammo qancha bo'lmasin, men senga ko'proqni tilayman.

– Rahmat, – dedi Andrea.

– Buni chin yurakdan tilayapman, – qo'shimcha qildi Kadruss xandon urib. – To'xta, kuzatib qo'yaman.

– Ovora bo'lmay qo'ya qol.

– Ovoragarchiligi yo'q.

– Nega?

– Chunki, qulfimning jindek siri bor. Men uni ehtiyot uchun oldim, bu Yure va Fishe sistemasidagi qulf bo'lib, uni Gaspar Kadruss qaytadan ishlagan. Kapitalist bo'lganingda senga ham yasab beraman.

– Minnatdorman, – dedi Andrea, – bir hafta oldin senga xabar beraman.

Ular xayrlashishdi. Andrea pastga tushib, hovlidan chiqib ketguncha Kadruss uni kuzatib zina maydonchasida turdi. So'ng u darrov uyiga qaytib kirdi-da, eshikni qulfladi va xuddi tajribakor me'mor singari Andrea chizib bergan rejani o'rgana boshladi.

– Chamamda, – dedi u, – bu bolakay Benedetto rost-danam meros olishga qattiq bel bog'laganga o'xshaydi, kimki uning qo'liga ana shu besh yuz ming frank tushadigan kunni yaqinlashtirsa, o'sha uning eng yaqin do'stlaridan biri bo'ladi.

## V. QULFBUZAR

Yuqorida bayon etilgan suhbatdan so'ng ertasiga graf Monte-Kristo Ali va bir necha xizmatkorlari bilan Oteylga jo'nadi. U sinovga tayyorlangan otlarni ham olib ketdi.

Andrea o'ylaganidek, graf bugun ketishni kecha xayoliga ham keltirmagandi. Bu safarga, asosan, Normandiya-dan Bertuchchoning qaytishi sabab bo'ldi, u yangi xabarlar keltirgan edi. Uy tayyor edi, kema bir haftadan buyon kichkina buhtada langar tashlab turardi. Uning olti kishilik

ekipaji hamma ishlarni taxt qilib, istagan vaqtda dengiz safariga chiqishga shaylanib turardi. Monte-Kristo epchillik qilgani uchun Bertuchchoni maqtab qo'ydi, Fransiyadan bir oydan kechikmay chiqib ketmoqchi ekanligini ma'lum qildi va hozirdan tayyorlik ko'raver, deb buyruq berdi.

– Hozircha, – dedi graf Bertuchchoga, – ehtimol men bir kecha Parijdan Treporga borib kelarman, yo'lda menga sakkiz bekatda ot tayyor qilinsin, shunday qilish kerakki, bu ellik le masofani men o'n soatda bosib o'tay.

– Janobi oliylari bu istaklarini allaqachon izhor etgan edilar, – javob berdi Bertuchcho, – otlar taxt qilib qo'yilgan. Otlarni o'zim sotib olib juda qulay bekatlarga joylashtirib qo'rganman, bu bekatlar boshqa hech kimsa to'xtamaydigan qishloqlarda.

– Juda soz, – dedi Monte-Kristo, – bu erda bir-ikki kun bo'laman, buni e'tiborga olib qo'ying.

Bertuchcho zarur farmoyishlar berish niyatida tashqari chiqishi bilan ostonada Batisten paydo bo'ldi. U qo'lida oltin suvi yugurtirilgan patnisda xat olib kelayotgandi.

– Siz nega keldingiz? – so'radi graf Batistenning hamma yog'i chang bo'lib ketganini ko'rib. – Men sizni chaqirganim yo'q edi, shekilli?

Batisten churq etmay, graf oldiga bordi-da, xatni unga uzatdi.

– Juda shoshilinch va muhim xat, – dedi u.

Graf xatni ochib o'qidi:

*«Graf Monte-Kristo ogoh bo'lsinki, bugun kechasi uning Elisey Maydonidagi uyiga ayol bo'lmasidagi kontorkada yashiringan hujjatlarni o'g'irlash uchun bir odam kiradi; graf Monte-Kristo g'oyat jasoratli zot, bu ishga u polisiyani aralashdirmay, o'zi bir yoqlik qiladi. Mabodo polisiya aralashgudek bo'lsa, bu ma'lumotni yuborgan kishiga qattiq shikast etadi. Graf yotoqxona bilan ayol bo'lmasi o'rtasidagi devor tirqishidan poylab tursa, yoki o'sha xonaning o'zida yashirinib olsa, o'g'rini o'zi tutib olishi mum-*

*kin. Xaloyiq to'plansa va hammaning ko'z oldida ehtiyot choralar ko'rilsa, o'g'ri sezib qoladi, u holda graf Monte-Kristo dushmani kimligini bilolmaydi. Xat yo'llagan odam ham uni tasodifan bilib qoldi, mabodo u battol bu gal ishi o'ngidan kelmay, ikkinchi bor uringudek bo'lsa, u vaqtda xat yo'llagan kishi bundan voqif bo'lishi dargumon».*

Graf dastlab ishonmadi, boshqa jiddiyroq xavf-xatardan meni chalg'itib, firib berish uchun qilinayotgan nayrangmikin, deb o'yladi. Ogohlantirilishiga qaramay, yoki ehtimol g'oyibona do'st kishining ana shu xabari tufayli xatni polisiya komissariga yubormoqchi ham bo'ldi, biroq shu payt xayoliga bir fikr keldi; chindanam u faqat o'zi taniydigan biror dushmani bilan uchrashib qolmasmikan, ehtimol o'sha kimsa uning o'ziga biror narsada kerak bo'lib qolmasmikan? Fiesko va uni o'ldirmoqchi bo'lgan mavr bilan xuddi shunday bo'lgan edi-ku.

Bizga graf otning qashqasiday tanish, shu sababdan uning jasurligi va ruhan kuchliligi, bo'lmaydigan narsani bo'ldirish uchun ulug'vor zotlarga xos o'sha jasorat bilan harakat qiladigan yovqurligi to'g'risida gapirib o'tirmaymiz. Umr bo'yi hech narsadan qaytmaslikka ahd qilib, ahdiga sodiq graf tabiatga – demakki, Xudoga qarshi, jamiyatga – demakki, ajdahoga qarshi janglarda mislsiz zavq olishni o'rgandi.

– Ular hujjatlarimni o'g'irlash emas, meni o'ldirish niyatida bo'lsalar kerak, – dedi Monte-Kristo, – ular oddiy o'g'ri emas, qotillar. Janob polisiya boshlig'ining shaxsiy ishimga aralashuvini hecham istamayman! Polisiyaning byudjetiga zararim tegmaydi mening, davlatim har qanday xarajatga etib ortadi.

Hozirgina xatni berib, chiqib ketgan Batistenni chaqirdi-da:

– Darhol Parijga qayting, – dedi graf, – u erda qolgan hamma xizmatkorlarni olib keling. Ularning hammasi bu erda kerak bo'ladi menga.

– Janob graf, uyda hech kim qolmaydimi? – so‘radi Batisten.

– Yo‘q, darvoza qorovuli qoladi.

– Janob graf, qorovulxona uydan ancha yiroqda ekanini, ehtimol, e‘tiborga olarlar?

– Yiroq bo‘lsa nima bo‘pti?

– Uyni shipshiydon qilib ketsalar, u eshitmasligi mumkin.

– Kim shipshiydon qilishi mumkin?

– O‘g‘rilar.

– Qip-qizil ahmoqsiz, janob Batisten, ha! Menga xizmatkor kerak, uyni ko‘tarib ketishsa ketishsin-u, ammo xizmatkorlar kamayib qolmasin.

Batisten ta‘zim qilib qo‘ya qoldi.

– Tushundingizmi, – dedi graf, – bittasiniyam qoldirmay olib keling, uydagi hamma narsa shundayligicha tursin, faqat pastki qavat derazalarining eshiklarini bekitib qo‘ying.

– Ikkinchi qavatdagisi-chi?

– Ikkinchi qavatdagilari hech qachon bekitilmaydi, o‘zingiz ham bilasiz-ku. Jo‘nang.

Graf: – Yakka o‘zim ovqatlanaman va Ali xizmat qiladi aytib qo‘ying, – dedi.

U, odati bo‘yicha, bir oz tamaddi qilib oldi, Aliga izmaiz borishni buyurib, bog‘ eshikdan chiqdi-da, sayr qilgan bo‘lib, Bulon o‘rmoniga bordi, so‘ng go‘yo beixtiyor Parij tomonga burildi, qorong‘i tushganda Elisey Maydonidagi uyi ro‘parasida to‘xtadi.

Uy qop-qorong‘i, zimiston, faqat, Batisten aytgandek, qirq qadam naridagi qorovulxonada jinchiroq miltillab turardi.

Monte-Kristo daraxtga suyandi-da, meni biron poylab turgan bo‘lmasin tag‘in, deb xiyobonni, yo‘lkalarni va qo‘shni ko‘chalarni sinchiklab ko‘zdan kechirib chiqdi. O‘n daqiqadan so‘ng hech kim uni ta‘qib etmayotganligiga imoni komil bo‘ldi.

Shundan keyin graf Ali bilan yugurib bog‘ eshikdan

o'tdi-da, ovoz chiqarmay maxfiy zinadan o'z yotoqxonasiga kirib oldi. Qorovul ham buni sezmedi.

Monte-Kristo yotoqxonaga kiriboq Alini imo bilan to'xtatdi, o'zi ayollar xonasiga o'tib, hamma yoqni ko'zdan kechirdi, buyumlar, jihozlar joy-joyida turgandi, sekreter joyida, kalit qulfga solingan. Graf kalitni ikki marta burab sug'urib, yotoqxonaga eshigi oldiga kelib, ilgakni tortib oldi va ayollar xonasidan chiqdi.

Shu orada Ali graf aytgan qurollarni: kalta miltiq, ikkita qo'shog'iz to'pponchani (bular tirda ishlatiladigan va mo'ljalga juda aniq tegadigan xilidan edi) stolda taxt qilib qo'ygan edi. Shu tariqa qurollanib olgan graf besh kishini er tishlatishi mumkin edi.

Soat to'qqiz yarim. Graf va Ali bir burdadan non eb va bir stakandan ispan vinosi ichib, ovqatlanib olishdi. So'ng graf ko'chma taxtalardan birining prujinasini bosdi, ana shunda u narigi xonada nima bo'layotganini bemalol ko'rib o'tiraverardi. To'pponchalari va karabini yonida yotibdi. Ali esa uning yonida salb yurishlaridan qolgan bolta ushlab g'oz turibdi.

Ayollar xonasining derazasi kabi Elisey Maydoniga qaratilgan derazadan graf ko'chani bemalol ko'rib turardi.

Oradan ikki soatcha o'tdi, hamma yoqni zim-ziyo qorong'ilik chulg'adi, biroq Ali vahshiylarga xos o'tkir ko'zlari bilan, graf esa qorong'ilikka o'rganib qolgan ko'zlari ila hovlidagi daraxt shoxlarining jinday qimirlashini ham diqqatdan qochirmay tikilib turishardi.

Qorovulxonadagi jinchiroy allaqachon o'chgan edi.

Mabodo o'g'ri bosishi aniq bo'lsa ham, uyga derazadan emas, pastki qavat zinasidan kiradi, deb o'ylash mumkin edi. Graf Monte-Kristo esa o'g'rilar uning mol-mulkini talash uchun emas, joniga qasd qilgani keladi, deb o'ylandi. Demak, ular to'g'ri yotoqxonasini bosishadi, u erga yo maxfiy zinadan kirib borishadi, yoki ayollar xonasining derazasidan oshib tushishadi.

Alini graf zina eshigi oldiga qo'ydi-da, o'zi ayollar



bo'lmasidan ko'z uzmay turaverdi. Majruhlar uyidagi so-atlar chorak kam o'n ikkiga zang urdi: g'arbning salqin shamoli zangning uchta dahshatli ovozi olib keldi. Oxirgi bong ovozi hali tinmagan ham ediki, graf ayollar bo'lmasi tomondan «g'iyq» etgan tovushni eshitdi, tovush yana ikki bor takrorlandi. To'rtinchi bor eshitilganda, grafda hech shubha qolmadi. Tajribali va baquvvat qo'l deraza oynasini olmos bilan kesayotgan edi.

Grafning yuragi gurs-gurs tepa boshladi. Kishi son-sanoqsiz mashaqqatlar girdobida qanchalik chiniqqan bo'lmasin, qop-qora bulut kabi bostirib kelayotgan dahshatli xavf-xatarlarni ko'krak kerib kutib olishga qanchalik shaylangan bo'lmasin, u fikr va amal, niyat va uning ro'yobga oshishi o'rtasida juda katta tafovut borligini hamisha yuragining gup-gup urishidan va vujudining larzaga kelishidan sezadi.

Monte-Kristo Aliga imo qildi, Ali xavf ayollar bo'lmasi tomondan kelayotganligini angladi-da, xo'jayiniga yaqinroq surildi.

Shu topda Monte-Kristo dushmani kimligini o'z ko'zi bilan ko'rishga oshiqardi.

Olmos bilan kesilgan deraza graf mo'ralab turgan te-shikning naq ro'parasida edi. U ana shu derazadan ko'z uzmay turaverdi. 3im-ziyo qorong'ilik ichida qop-qora bir ko'lanka paydo bo'ldi, so'ng deraza oynalaridan biri xuddi tashqaridan qog'oz yopishtirilgandek hech narsa ko'rinmaydigan bo'lib qoldi, bir daqiqadan keyin oynalardan biri «qirs» etdi-yu, lekin erga tushmadi. Oynasi olingan te-shikdan kimdir qo'lini suqib ilgakni axtardi, zum o'tmay deraza ochildi-da, bir odam ko'rindi. U yolg'iz edi.

– Obbo, muttaha-ey, yuragini qaranga-a! – shivirladi graf.

Shu on Ali uning elkasidan tortdi, graf o'girildi. Ali yotoqxonaning ko'chaga qaragan derazasini ko'rsatdi.

Monte-Kristo o'sha deraza tomonga uch qadam tash-ladi, u sodiq qarolining zehni beqiyos o'tkir ekanligini yaxshi bilardi. Chindan ham ro'paradagi darvozadan

kimdir chiqdi-da, uyda nima bo'layotganligini ko'rish uchun kursiga chiqib alangladi.

– Demak, – dedi graf, – ikki kishi ekan, biri ish bajaradi, ikkinchisi poyloqchilik qiladi.

Graf Aliga, ko'chadagi odamdan ko'zingni uzma, dedi-da, o'zi qaytib ayollar bo'lmasiga kirgan kishini kuzatdi.

Qulfbuzar xonaga kirib olgandi, u qo'lini oldinga uzatib bitta-bitta odimlab borardi.

So'ng vaziyatni aniqlab oldi, shekilli, bo'lmadagi ikki eshikning ilgaklarini ilib bekitdi. U yotoqxonaga kiradigan eshikka yaqinlashganda, graf, bu yoqqa kirsa kerak, deb to'pponchalaridan birini qo'lga olgan edi. Lekin mis halqaga solingan ilgak tovushi eshutilgach, xotirjam bo'ldi. Shu tarzda o'g'ri ehtiyot choralarini ko'rdi (ammo u graf ham halqani olib qo'yganidan bexabar edi) va o'zini xuddi uyidagidek his etib bemalol ishga tushaverdi.

Qulfbuzar cho'ntagidan asta bir narsa olib, stolga qo'ydi, keyin sekreter yoniga borib qulfini paypaslab ko'rdi, qulf og'zida u kutgan kalit yo'q edi.

Qulfbuzar ham tadbirkor bo'lib, hamma choralarni ilgaridan ko'rib qo'ygan edi. Graf shiqirlagan ovoz eshitdi: buzilgan qulfni ochish uchun kelgan chilangarlik asboblari bog'lami ana shunaqa ovoz chiqarardi. O'g'rilar buni «bulbuli go'yo» deyisharkan, tunda qulf ichida shaqirshuqur ovozni rohat qilib eshitishsa kerak-da bachchag'arlar.

– Iya, bu oddiy o'g'ri-ku! – dedi hafsalasi pir bo'lib Monte-Kristo.

O'g'ri esa qorong'ida zarur asbobni topolmadi, so'ng stolga qo'ygan asbobni olib, prujinasini bosgan edi, xira yog'du bir zum o'g'rining qo'li va yuzini yoritib yubordi.

– Ana xolos! – dedi ohista Monte-Kristo, taajjub-la orqaga bir qadam tashlab. – Bu anovi battol-ku...

Ali boltani ko'tardi.

– Joyingdan qimirlama, – dedi shivirlab unga Monte-Kristo, – boltani qo'y, endi bizga qurolning zarurati yo'q, – so'ngra u ovozini yanada pasaytirib, Aliga bir necha so'z

aytdi, chunki hayajonlanib aytgan ilgarigi so'zlaridan qulfbuzar seskanib ketib, turgan joyida qotib qolgan edi.

Ali grafning gaplariga diqqat bilan quloq soldi-da, oyoq uchida borib, devordagi qora adyolni va uch burchakli shlyapani qoziqdan oldi. Monte-Kristo ham bir zumda kamzulini, nimchasini, ko'ylagini echib tashladi. Tirqishdan tushib turgan g'ira-shira yog'duda grafning ko'kragidagi yupqa sovut ko'zga tashlanib turardi. Odamlar xanjardan hayiqmay qo'ygan Fransiyada Lyudovik XVI zamonidan buyon hech kim kiymaydi. Lyudovik XVI ning o'zi xanjar sanchishlaridan qo'rqib sovut kiyib yurardi; xanjar sanchishmasayam, kallasini oybolta bilan chopib qo'ya qolishdi boyaqishning.

Grafning ko'kragidagi sovut bir zumda yaktak tagida ko'rinmay ketdi, sochi yasama soch va haligi uch burchakli shlyapa ostida qoldi, ya'ni graf birpasda abbat bo'lib oldi.

Shu orada qulfbuzar boshqa hech qanday sharpa eshitmagach, ishini davom ettiraverdi, sekreterning qulfi uning «bulbuli go'yo»si zarbida qisirlab sina boshladi.

– Qani, qani, yana bir oz kuchanib ko'r-chi, qayergacha borarkansan, – dedi graf sekin; u, o'g'ri tajribali qulf buzarlardan bo'lsa-da, baribir bu qulfning sirini bilmaydi, deb xotirjam bo'ldi va deraza oldiga bordi.

Hali kursiga chiqib bo'ynini cho'zib turgan kimsa, endi pastga tushib, ko'chada u yoqdan-bu yoqqa qadam tashlab yurardi. Ammo bu odam Elisey Maydoni yoki Sent-Onore tomondan birov kelib qolishini kuzatish o'rniga, grafning uyidan ko'zini uzmas, ayniqsa ayollar bo'lmasida nima bo'layotganligini bilishga harakat qilardi.

Monte-Kristo peshanasiga bir shapati urdi-da, iljayib qo'ydi. So'ng Ali oldiga borib:

– Mana shu qorong'i joyda qimirlamay turaver, – dedi ohista, – biror tovush eshitsang ham, biror voqea yuz bersa ham o'rningdan qimirlama, to men chaqirmagunimcha chiqma, o'zingni ko'rsatma.

Ali boshini qimirlatib qo'ydi.

Monte-Kristo shkafdan yoniq shamni oldi-da, o'g'ri ish bilan juda band paytni poylab, eshikni ovoz chiqarmay ochdi va birdan uning yuziga chiroqni tutdi. Xona birdan yorishib ketganidan o'g'rining jon-poni chiqib, shartta orqasiga o'girildi.

– Salom alaykum, aziz janob Kadruss, – dedi Monte-Kristo. – Yarim kechada nima qilib yuribdilar bu erda?

– Abbat Buzoni! – qichqirib yubordi Kadruss. Ikki eshikni qulflaganiga qaramay, bu zotning qanday qilib kirib kelganidan hang-mang bo'lib qolgan qulfbuzarning qo'lidan «bulbuli go'yo»si tushib ketdi, o'zi turgan joyida taxtaday qotib qoldi.

Graf o'takasi yorilgan o'g'ri qochishi mumkin bo'lgan yagona yo'lni to'sib, deraza bilan Kadruss o'rtasida turib oldi.

– Abbat Buzoni! – takrorladi Kadruss anqayganicha grafga tikilib.

– Ha, abbat Buzonining xuddi o'zi! – dedi Monte-Kristo, – aziz janob Kadruss, meni tanib olganingizdan juda mamnunman. Ko'rishmaganimizga, yanglishmasam, o'n yilcha bo'ldi, shunga qaramay, darrov tanidingiz-a, xotirangiz judayam kuchli ekan-e.

Nihoyatda xotirjamlik va amirona kinoya ohangida aytilgan bu so'zlar Kadrussning yuragini yorib yubordi, uning boshi aylanib, ko'zlari tindi.

– Abbat! – dedi xirillab u qo'llarini bir-biriga ishqab va tishlari takirlab.

– Shunday qilib, graf Monte-Kristoning pulini o'g'irlashga ahd qilibsiz-da? – dedi «abbat».

– Janob abbat, – shivirladi Kadruss graf yonidan deraza tomonga o'tishga behuda urinib, – janob abbat, o'zim ham hayronman... ishoning... ont ichaman, sizga...

– Deraza oynasi kesilgani, – dedi graf, – yashirin fonuscha, bir boylam asboblar, sekretarning yarmi sindirilgani – mana shularning bari nimaga kirganingizni ko'rsatib turibdi-ku.

Kadruss qochishga yo'l topolmay, atrofga alanglardi,

bir amallab sitilib chiqishga tangaday teshik bo'lsayam jon derdi u shu paytda.

– Janob qotil, hech o'zgarmabsiz-a, o'sha-o'sha eski kallakesar Kadrussiz-a, – dedi graf.

– Janob abbat, modomiki siz hamma gapdan xabar-dor ekansiz, bu mening emas, Karkontaning ishi ekanli-gini bilsangiz kerak, sud ham shunday qarorga keldi, menga engil jazo berganlarining boisi shunda-da.

– Qamoq muddatingiz tugaganmidi, yana turmaga shoshilyapsiz?

– Yo'q, tugagani yo'q, janob abbat, meni bir kishi ozod etdi.

– U odam jamiyatga katta foyda keltiribdi-da.

– Ammo men va'da bergandim... – dedi Kadruss.

– Xullas, katorgadan qochibsiz-da, shundaymi?.. – dedi uning so'zini bo'lib Monte-Kristo.

– Shunday, – dedi Kadruss yuragi orqasiga tortib.

– Qochganda ham og'ir jinoyat qilib qochgandirsiz-da? Buning uchun agar, xato qilmasam, kallangizni jallokning kundasiga qo'yishlari mumkin. Mana bunisi yana yomon bo'пти.

– Janob abbat, men vasvasaga berilib ketibman.

– Odatda jinoyatchilarning hammasi qo'lga tushgan-da aytadigan gap bu.

– Ehtiyoj shunga olib keldi-da... ilojim qancha...

– Qo'ying bo'lmag'ur gaplarni, – dedi nafrat-la Buzoni, – ehtiyojda qiynalgan kishi tilanchilik qiladi, do'kondan bulka o'g'irlyadi, ammo kimsasiz uyga yashirinib kirib, sekreter sindirmaydi. Men bergan olmosga zargar Jaonnes qirq besh ming frankni sanab berganda, uni ham ehti-voj tufayli o'ldirganmidingiz?

– Kechiring meni, janob abbat, kechiring, – dedi Kad-russ, – bir gal meni siz qutqargan edingiz, o'tinib iltimos qilaman, bu safar ham o'zingiz qutqaring meni.

– O'sha tajribani takrorlashga unchalik istak yo'q men-da.

– Janob abbat, bu erga yakka o'zingiz keldingizmi? –

so'radi Kadruss qo'llarini itoatkorona qovushtirib. – Yoki meni tappa tutib oladigan jandarmlar pusib turishibdimi?

– Yakka o'zimman, – dedi abbat, – agar hammasiga iqror bo'lsangiz, hamma voqealarni oqizmay-tomizmay aytib bersangiz, rahm-shafqat qilaman, bu ko'ngilchanligim yana bir baloga duchor etishi mumkin bo'lsa-da, qo'yib yuboraman.

– Janob abbat, – dedi Kadruss Monte-Kristo tomonga bir odim tashlab, – siz chindan ham mening haqiqiy xaloskorimsiz.

– Qamoqdan qochishga birov yordam berdi, dedingizmi hali?

– To'g'ri, ishoning menga, birov yordam berdi.

– Kim?

– Bir ingliz.

– Oti nima edi?

– Lord Uilmor.

– Men uni taniyman. Gapingiz rostmi, yolg'onmi, tekshirib ko'raman.

– Janob abbat, rost gapni aytyapman sizga.

– Demak, o'sha ingliz sizga madadkor bo'lgan ekan-da?

– Menga emas, bir korsikalik yigitga, u bilan ikkimiz bir kishanda edik.

– Korsikalik yigitning ismi nima edi?

– Benedetto.

– Bu faqat ismi.

– Uning familiyasi yo'q. Ko'chadan topilgan bola ekan.

– O'sha yigit ham siz bilan birga qochdimi?

– Birga qochdik.

– Qanday qilib?

– Tulon yaqinidagi Sen-Mandrie degan joyda ishlayotgan edik. Sen-Mandrieni ko'rgandirsiz?

– Ko'rganman.

– Hamma tush payti uyquni urayotgan edi...

– Mahbuslarga kunduzi dam olishga ruxsat berishgan

ekan-da! Yana ularga achinib yuribmiz-a! – dedi abbat.

– Bo'lmasam-chi, – dedi Kadruss. – Kun bo'yi tinmay ishlab bo'ladimi? Axir biz it emasmiz-ku.

– Itvachchalarning omadi yurishgani bu, – dedi Monte-Kristo.

– Hamma uxlab yotganda bir chetga o'tib, oyoqlarimizdagi kishanlarni o'sha ingliz bergan asbob bilan kesdik-da, o'zimizni suvga tashlab qochdik.

– Benedettoning taqdiri nima bo'ldi?

– Bilmadim.

– Siz bilishingiz kerak, uning holi nima kechganini.

– Yo'q, bilmayman, Xudo haqqi, bexabarman. U bilan biz Giereda ajralishgan edik, – dedi Kadruss va gaplarim yanada ishonchli bo'lsin, deb abbat tomonga tag'in bir qadam tashladi, abbat esa boyagi joyida pinagini buzmay turardi.

– Bu gagingiz yolg'on, – dedi zarda bilan abbat Buzoni.

– Janob abbat!

– Yolg'onchi! U yigit hamon hamtovoq og'ayningiz, ehtimol, sherik hamdir.

– Janob abbat!

– Tulondan qochgandan buyon qanaqa sarmoya bilan kun kechiryapsiz? Qani, javob bering.

– Baholi qudrat.

– Yolg'on! – uchinchi marta rad etdi abbat g'azabi oshib.

Kadruss kayfi uchib, grafga tikilib qoldi.

– O'sha Benedetto berib turdi-ku sizga pulni – dedi graf.

– To'g'ri, – dedi Kadruss. – Benedetto mashhur bir badavlat aslzodaga o'g'il bo'lib oldi.

– Qanday qilib o'g'il bo'lishi mumkin u aslzodaga?

– O'ynashdan bo'lgan o'g'il.

– O'sha aslzodaning ismi kim?

– Mana shu uyning xo'jayini graf Monte-Kristo.

– Benedetto grafning o'g'li? – dedi Monte-Kristo ham taajjublanib.

– Ha, o‘g‘li, hamma dalillar tasdiqlaydi buni. Graf unga o‘gay ota topib berdi, tag‘in har oyda unga to‘rt ming frank berib turibdi, vasiyatnomada ellik ming frank yozib qo‘ygan ham ana shu graf Monte-Kristo bo‘ladi.

– Hali shunday deng, – dedi abbat gap nimaligini fahmlab. – Bu yosh yigit hozir qanday nom bilan yuribdi?

– Andrea Kavalkanti.

– E-e, bu haligi graf Monte-Kristoning uyiga tez-tez kelib turadigan va shu kunlarda mademuazel Danglarga uylanmoqchi bo‘lib yurgan yigitmi?

– Xuddi o‘shaning o‘zi.

– Siz, sho‘rlik bunga qanday chidab yuribsiz? Uning sarguzashtini va gardanidagi tavqi la‘natni bila turib-a?

– Nega endi men o‘rtog‘imga xalaqit berishim kerak ekan? – so‘radi Kadruss.

– To‘g‘ri, endi janob Danglarni xabardor qilib qo‘yish mening burchim.

– Qo‘ying, janob abbat, unday qilmang!

– Nega endi.

– Bunday qilsangiz, bizni bir burda nonga ham zor etgan bo‘lasiz.

– E-e-e, hali ikki ablah bir burda nonga zor bo‘lmasin, deb ularning qabih ishlariga sherik bo‘lib qolgin deb o‘ylayapsizmi meni?

– Janob abbat! – yalindi Kadruss yana unga yaqinroq borib.

– Hammasini aytib beraman.

– Kimga?

– Janob Danglarga.

– Aytib bo‘psan? – xitob qildi Kadruss pichog‘i bilan grafning ko‘kragiga urib. – Aytib bo‘psan, abbat!

Biroq pichoq ko‘krakka sanchilmay qayrilib ketdi, Kadruss hang-mang bo‘lib qoldi.

Shu zahoti graf chap qo‘li bilan Kadrussning bilagidan tutib qattiq qisgan edi, o‘g‘rining ko‘karib ketgan qo‘lidan pichoq tushib ketdi, u og‘riqdan chinqirib yubordi. Graf bunga e‘tibor qilmay, Kadrussning qo‘lini to u



cho'kka tushguncha, keyin yuz tuban yiqilmaguncha, qayiraverdi.

Graf oyog'i bilan uning boshini bosib olib:

– Aslini olganda, hoziroq kallangni majaqlab tashlash kerak ediku-ya, ablah, – dedi.

– Shafqat qiling, shafqat qiling! – deb qichqirdi Kad-russ.

Graf oyog'ini oldi.

– Tur! – dedi u.

Kadruss o'rnidan turdi.

– Janob abbat, Xudo behisob quvvatni berib qo'ygan ekan-da sizga! – dedi u jonsiz qo'lini ishqalab.

– O'chir tovushingni! Xudo bu kuchni sen kabi qonxo'r, yirtqich hayvonlarning kekirdagidan xippa bo'g'ish uchun berib qo'ygan menga. Ablah, shuni bilib qo'yginki, men hamisha uning amri bilan ish tutaman. Shu damda senga shafqat qilishimni ham Xudoning amri deb bil.

– Uh! – dedi Kadruss zo'rg'a o'ziga kelib.

– Mana senga qalam va qog'oz. Mening aytganlarimni yoz.

– Men yozishni bilmayman, janob abbat.

– Yolg'on gapirma, ol qalamni, yoz.

Kadruss itoat etib o'tirdi-da, yozdi:

*«Oliy hazrat, uyingizda qabul qilib yurgan va qizingizni bermoqchi bo'lgan kimsa turma qochog'i, u men bilan Tulon hibsxonasidan qochib keldi, turmada u 59-raqam bilan, men 58-raqam bilan ro'yxatda edik.*

*Uning nomi Benedetto edi, o'zining asl nomini bilmaydi, chunki ota-onasi yo'q, kimligini o'zi ham bilmaydi».*

– Imzo qo'y! – dedi graf.

– Siz meni xarob etmoqchimisiz?

– Agar xarob etish niyatida bo'lsaydim allaqachon polisiyaga jo'natardim sen ahmoqni. Buning ustiga, xat egasiga etib borguncha, sen xavf-xatardan xalos bo'lib qolasan. Qo'l qo'y.

Kadruss qo'l qo'ydi.

– Yoz, «Janob baron Danglarga, bankirga, Shosse-d' Anten ko'chasi».

Kadruss manzilni ham yozdi.

Abbat xatni qo'liga oldi.

– Endi ket, – dedi u.

– Qaerdan chiqib ketay?

– Kelgan joyingdan.

– Mana bu derazadan chiqib ketgin, demoqchimisiz?

– Axir shu erdan suqilib kirding-ku.

– Janob abbat, menga qarshi biror yomon niyatingiz bor, shekilli?

– Ahmoq, qanaqa niyatim bo'lishi mumkin?

– Nega meni darvozadan chiqarib yubora qolmaysiz?

– Qorovulni uyg'otishning nima hojati bor?

– Janob abbat, men sening o'lishingni istamayman, deb so'z bering menga.

– Parvardigor nima istasa, men ham shuni istayman.

– Meni, tushib olguncha, o'ldirmayman, deb va'da bering.

– Odam ham shunchalik qo'rqqoq bo'ladimi, ahmoq.

– Nima qilmoqchisiz meni?

– Bu savolni senga men berishim kerak aslida. Men seni baxtiyor etmoqchi edim, sen esa kallakesar bo'lib qolibsani!

– Janob abbat! – dedi Kadruss, – so'nggi marta iltimos qilaman, yana bir sinab ko'ring.

– Ha, mayli, – dedi graf. – Men so'zimdan qaytmaydigan odam ekanimni sen yaxshi bilasan-a?

– Yaxshi bilaman, – dedi Kadruss.

– Uyingga eson-omon qaytib borsang...

– Sizdan bo'lak, kimdan qo'rqardim?

– Agar uyingga eson-omon qaytib borsang, Parijdan, Fransiyadan chiqib ket, boshqa qayerda bo'lmagin, agar halollik bilan yashasang, mendan doim ko'p bo'lmasada, etarli miqdorda aqcha olib turasan, mabodo uyingga eson-omon qaytib borsang, demak...

– Demak? – so‘radi a‘zoyi badani titrab Kadruss.  
– Demak, Xudo gunohingni kechiribdi, deb hisoblayman, uyda men ham kechirgan bo‘laman gunohingni.  
– O‘takamni yorib yubordingiz-ku! – dedi orqaga tisariilib Kadruss.  
– Qani, endi jo‘na!– dedi graf Kadrussga derazani ko‘rsatib.

Hamon abbatning va‘dasiga ishonib-ishonmay Kadruss derazaga boshini suqdi, so‘ng tashqariga qo‘yilgan narvonga oyog‘ini qo‘ydi-da, dir-dir titrab o‘rnida qimir etmay turib qoldi.

– Endi tush pastga, – dedi abbat qo‘llarini qovushtirib.  
Kadruss axiri o‘ziga keldi-da, bu tomonda xavf yo‘q, deb bilib, narvondan tusha boshladi.

Graf deraza oldiga kelib, shamchiroqni tutdi: Kadrussning derazadan tushayotgani va ikkinchi kishi unga chiroq tutib turgani ko‘chadan aniq ko‘rinib turardi.

– Janob abbat, bu nima qilganingiz? – dedi Kadruss. – Patrul ko‘rib qolsa nima bo‘ladi, – dedi-da, chiroqni puf-ladi.

Kadruss narvondan bitta-bitta tusha boshladi, faqat oyog‘i erga tekkandagina ko‘ngli tinchidi.

Monte-Kristo yotoqxonasiga qaytib, bog‘ni va ko‘chani birrov ko‘zdan kechirib chiqdi: Kadruss boqqa tushib, boya kirgan joydan emas, boshqa tomondan chiqib ketish uchun ro‘baro‘dagi devorga narvon qo‘ydi. Graf yana ko‘chaga qaragan edi, kutib turgan boyagi odam yugurib kelib Kadruss tushmoqchi bo‘lgan joy orqasidagi muyulishda to‘xtadi.

Kadruss narvondan asta-sekin yuqori ko‘tarilib, oxirgi zinapoyaga chiqdi-da, ko‘chada hech kim yo‘qmikin, deb atrofga ko‘z yugurtirdi.

Ko‘chada zog‘ ko‘rinmas, tiq etgan tovush ham eshitilmasdi.

Majruhlar uyining soati tungi birga zang urdi.

Kadruss devorga minib, narvonni tortib oldi-da, ko‘cha tomonga qo‘ydi, so‘ng chaqqonlik bilan tusha boshladi.

Shu payt qorong'i muyulishdagi odam yugurib chiqqanini ko'rdi-yu, tezda oyog'ini erga qo'yib o'zini mudofaa qilmoqchi bo'ldi, ammo ulgurmay qoldi, haligi odam elkasiga qattiq zarb bilan urdi, Kadruss narvonni qo'yib yuborib:

– Yordam qiling!.. – deb qichqirdi.

U biqiniga urilgan pichoq zarbidan holdan toyib, yiqildi.

– O'ldirishyapti! – qichqirdi Kadruss, – yordam qiling!

Raqib uning sochlaridan tortib, uchinchi pichoqni ko'ksiga sanchdi.

Bu gal ham Kadruss qichqirmoqchi bo'ldi-yu, holi kelmay, ingradi. Uning uch eridan sharillab qon oqardi.

Qotil, Kadruss qichqirmay qo'rganini ko'rib, sochidan ushlab boshini ko'tardi: Kadrussning ko'zlari yumuq, og'zi qiyshayib ketgan edi. Qotil, o'g'ri dunyodan o'tibdi, deb hisoblab uning boshini qo'yib yubordi-da, bir zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Shundan so'ng Kadruss qotil ketganini anglab, tirsagiga tiralib boshini ko'tardi va kuchining boricha bo'g'iq tovush bilan qichqirdi:

– O'ldirishdi! O'lyapman! Yordam qiling, janob abbat, yordam qiling!

Dahshatli ovoz qorong'ilikda aks sado berdi. Maxfiy zina eshigi, uning ketidan bog' eshigi ochildi. Ali va xo'jayini, qo'lida fonus bilan yugurib kelishdi.

## **VI. XUDONING QAHRI**

Kadruss hamon dod-faryod urardi:

– Janob abbat, yordam qiling! Yordam qiling!

– Nima gap o'zi? – so'radi Monte-Kristo.

– Yordam qiling! – takrorladi Kadruss. – Meni chavaqlab tashladilar.

– Hozir, sabr qiling.

– Tamom! Tugadim! Kechikdingiz! Endi foydasi yo'q yordamning, mening o'limimni tomosha qilgani keldin-

giz-da, oh, juda boplab urdi pichoqni, la'nati! Qonni qarang, oqqan qonni!

Kadruss hushidan ketdi.

Ali va xo'jayini yaradorni ko'tarib, uyga olib kirishdi. Monte-Kristo Aliga o'g'rining kiyimlarini echtirdi. Kadruss uch eridan juda og'ir yaralangan edi.

– E, Parvardigor, – dedi graf, – ba'zida juda kechikib g'azabga olasanu, lekin qahring juda qattiq bo'ladi-da.

Ali, bu yog'i nima bo'ladi, degandek xo'jayiniga qaradi.

– Sent-Onorega qirollik prokurorinikiga borib, janob de Vilforni olib kel. Darvoza qorovulini uyg'otib, doktorga yubor.

Ali ta'zim qildi-da, «abbat»ni hushidan ketib yotgan Kadruss oldida qoldirib, jo'nadi.

Sho'rlik yarador yana ko'zini ochganda graf unga achi-nib, xuddi ichida Qur'on tilovat qilayotgandek tikilib o'tirardi.

– Doktorni chaqirtiring, doktorni, – dedi inqillab Kadruss.

– Chaqirgani ketdi, – javob qildi abbat.

– Bilib turibman, doktor meni endi o'limdan qutqara olmaydi. U bir oz kuchga kiritib, ba'zi ma'lumotlarni aytib berishimga ko'mak berarmikin, deyapman-da.

– Qanaqa ma'lumot?

– Meni o'ldirgan qotil to'g'risida.

– Hali uni taniyman deng?

– Juda yaxshi taniyman-da! U – Benedetto.

– Anavi korsikalik yigitmi?

– Xuddi o'zi.

– Sherigingiz-a?

– Ha, sherigim. Graf uyining rejasini o'sha tuzib bergan edi, u agar men grafni o'ldirsam, merosga ega bo'laman, graf meni o'ldirsa, bu «kana»dan qutulaman, degan niyatda edi-da. Mana, endi uning o'zi meni o'ldirdi.

– Men bir yo'la doktorni va qirollik prokurorini chaqir-

tirdim.

– U etib kelolmaydi-da, etib kelolmaydi! – dedi Kad-russ, – tanamdagi qonim oqib, tugayotgandek bo'lyapti.

– To'xtang, – dedi Monte-Kristo va bo'lmadan chiqib ketdi, sal o'tmay qo'lida dori shisha olib kirdi.

Joni chiqib borayotgan Kadruss madad kelarmikin, deb baqrayib qolgan nursiz ko'zlarini graf chiqqan eshikka tikkan edi.

– Tez bo'ling, janob abbat, tez! – dedi u, – yo'qsa, hushimdan ketib qolaman.

Monte-Kristo yaradorning qoshiga borib, shishadagi doridan labiga uch tomchi tomizdi. Kadruss og'ir nafas oldi-da:

– Yana... yana... tomizing, – dedi. – Siz meni tiriltiryap-siz, ha, tirilyapman.

– Yana ikki marta tomizsam, o'lasiz, – dedi abbat.

– Nima bo'ldi? Hech kim kelmayapti-ku? Axir, qotilning nomini aytib ketmoqchiman!

– Istasangiz, men nomingizdan xat yozsam qo'l qo'yish-ga rozimisiz?

– Mayli... roziman... – dedi Kadruss.

Monte-Kristo quyidagilarni yozdi:

*«Meni Tulan qamoqxonasida birga bo'lgan 59-raqamli maxbus korsikalik o'rtog'im Benedetto o'ldirdi».*

– Tez-tez bo'ling! – dedi Kadruss – Imzo chekishga ul-gurmay qolaman.

Monte-Kristo Kadrussga qalam tutqazdi, yarador bor kuchini yig'ib xatga imzo chekdi-da, shilq etib o'zini orq-aga tashladi.

– Qolgan gaplarni, janob abbat, o'zingiz aytasiz, shun-day deb ayting: u o'ziga Andrea Kavalkanti deb nom qo'yib olgan, Shahzodalar mehmonxonasida turadi... U... yo, Parvardigor, jonim chiqib ketyapti, o'lyapman! E, Xu-doyim!

Kadruss tag'in hushidan ketdi. Abbat dori shishani yuzi-ga tutgan edi, u yana ko'zini ochdi.

Qasos olish niyatidan u hamon qaytishni istamasdi.

– Janob abbat, hamma gapni aytib berasiz-da o'zingiz, xo'pmi?

– Ha, bu gaplarni ham, boshqalarini ham.

– Boshqa qanaqa gapni?

– U sizni, grafni albatta o'ldiradi, degan umid bilan bu uyning rejasini chizib bergan sizga, deb aytaman. Yana, u grafga xat yuborib xabardor qilib qo'ygan ekan, deyman, graf uyda yo'q ekan, xatni men olib kelib, sizni kutdim, deyman.

– Shu gaplardan keyin osib o'ldirishadi uni, shundaymi? – dedi Kadruss. – Uni albatta qatl etishadi, siz shunday bo'ladi, deb va'da berasiz-a, xo'pmi? Men, albatta ana shunday bo'ladi degan umid bilan o'lsam, bu dunyodan bearmon ketaman.

– U izingizdan kelib, – dedi so'zini davom ettirib graf, – boshdan-oxirigacha sizni poylab turdi, deyman, derazadan tushayotganingizni ko'rib, muyulishga o'tib yashirindi, deyman.

– Siz hammasini ko'rib turgan ekansiz-da?

– Mening boyagi so'zlarimni eslang; «Mabodo uyingga eson-omon qaytib borsang, demak Xudo gunohingni kechiribdi, deb hisoblayman va men ham seni kechiraman».

– Bilib meni ogohlantirmabsiz-da, hali?! – xitob qildi Kadruss tirsagiga suyanib va boshini ko'tarishga urinib. – Men bu erga chiqishim bilan u meni o'ldirishini bilarkan-siz-u, meni ogohlantirmabsiz-da?

– Ha, ogohlantirmadim, chunki odilona Tangri sudining amru farmonini ana shu Benedettoning qo'lida ko'rdim. Yaratganning irodasiga g'ov bo'lish – tentaklik deb bildim.

– Odilona Tangri sudining amru farmoni emish! Janob abbat, qo'ying, gapirmang menga buni. Agar bu odilona sud chindan ham mavjud bo'lganda edi, ba'zi kimsalar jazolanmog'i kerak edi.

– Sabr qiling, – dedi abbat zarda bilan, – sabr qiling.

Kadruss grafga tikilib qoldi.

– Yana shuni bilib qo‘yingki, – dedi abbat, – Xudo bandalariga hamisha mehr-shafqatli, sizga, hammamizga ham u avvalo ota, qolaversa, hakam.

– Bundan chiqdiki, siz Xudoga ishonarkansiz-da? – dedi Kadruss.

– Bordi-yu, shu paytgacha osiy banda singari ishonmay yurganimda ham, – dedi Monte-Kristo, – endi sizni bu holda ko‘rib Xudoga ishongan bo‘lur edim.

Kadruss mushtlarini qattiq qisib, baland ko‘tarib qo‘ydi.

– Menga qarang, – dedi abbat, ishon, deb amr qilayotgandek qo‘llarini cho‘zib, – hayotingizning so‘nggi daqiqalarida, siz yuz o‘girgan o‘sha Xudo sizga sog‘liq, kuch-qudrat, foydali mehnat, hatto do‘stlar ato etdi – xullas, shunday hayotni muhayyo etib berdiki, bundan vijdonli va niyati pok har bir kimsa qanoat qilib, tinchgina yashasa bo‘lardi. Tangrining hammaga ham ato etavermaydigan mana shu marhamatidan foydalanib, tinch-osoyishta yashash o‘rniga, siz nima qildingiz? Siz tanballikka botib, ichkilikka ruju qo‘ydingiz, bu sizni yaqin do‘stlaringizdan biriga xoinlik qilishga olib keldi.

– Yordam qiling! – qichqirdi Kadruss. – Menga kohin emas, doktor kerak, doktor! Ehtimol, yaram uncha og‘irmasdir, ehtimol, meni o‘limdan qutqarib bo‘lar, tirik qolarman!

– Yarangiz judayam og‘ir, mana bu dorini tomizmaganimda allaqachon asfalasofilinga ketgan bo‘lardingiz. Yaxshisi, gaplarimga quloq soling.

– Iya, siz juda g‘alati kohin ekansiz-ku! – shivirladi Kadruss. – O‘lim to‘shagida yotgan kishining ko‘nglini ko‘tarib, dalda berish o‘rniga, uni so‘nggi umididan ham mahrum qilyapsiz-a?

– Gapimga quloq soling, – davom etdi abbat, – do‘stingizga xoinlik qilganingizda, Xudo sizni qahr-g‘azabga duchor etmay, rahm-shafqat qildi, qashshoqlikda och-yalan-g‘och yashadingiz, azob-uqubatlarga giriftor bo‘ldingiz. Hayot lazzatlaridan bahramand bo‘lish o‘rniga, hasad



yo'liga, nokaslik yo'liga mukhangizdan ketdingiz. O'shandayoq muhtojlikni bahona qilib, jinoiy ishlar rejaları tuzib yuradingiz. Xudoning mehr-shafqati bilan mening qo'limdan boylik oldingiz, bu sizdaqa kambag'al uchun katta boylik edi. Ammo kutilmagan, o'ylab tushingizga ham kirmagan bu boylik siz ochko'zga kamdek ko'rindi-da, uni ikki barobar oshirish payiga tushdingiz. Qanday yo'l bilan deng tag'in? Qotillik bilan. Shu alfozda o'sha boylikni ikki barobar ko'paytirib oldingiz, biroq Parvardigori olam uni sizdan tortib oldida, o'zingizni bashar sudi kursisiga o'tqazdi.

– Men emas, – dedi Kadruss, – yahudiyni men emas, Karkonta o'ldirishga ahd etdi.

– To'g'ri, – dedi Monte-Kristo. – Shuning uchun ham Xudo sizga rahm-shafqat qilib, o'limga mahkum etmadi, uning amri vojib bo'ldi-yu, sudyalari so'zlaringizga uchib, sizni tirik qoldirishdi.

– Shu ham mehr-shafqat bo'ldi-yu! Bir umrga turmaga tiqib qo'yib, yana shafqat qildik, deyishadi-ya!

– Siz, la'nati bu mehr-shafqat ato etilgan o'sha paytda o'zingizda yo'q quvongan edingiz, chunki, siz ham, boshqa barcha mahbuslar singari: «Katorgadan chiqib ketish mumkin, ammo go'rdan chiqib bo'lmaydi», deb o'ylagandingiz. Siz haq bo'lib chiqdingiz: to'satdan turma eshigi siz uchun lang ochildi. Ikki baxtsizni sharmandayu sharmisor bo'lishdan xalos etishga ahd qilgan bir ingliz Tulonga borganda, cheki siz bilan o'rtog'ingizga tushadi. Shunday qilib, yana baxt qushi manglayingizga qo'ndi, turmada chirib ketishga mahkum etilgan siz badbaxtning odamlar qatori yashash uchun pulingiz ham va boshqa narsalaringiz ham muhayyo edi. Siz esa, Xudoga uchinchi marta shak keltirdingiz, mol-mulkingiz ilgariigidan ham ko'p bo'lishiga qaramay, «bu menga kamlik qiladi», dedingiz-da, uchinchi marta jinoyat qildingiz. Bunga hech ehtiyoj ham, sabab ham yo'q edi... Tangrining sabr kosasi to'lib-toshdi-da, qahri g'azabiga duchor etdi sizni.

Kadrussning ko'zlari xira tortdi.

– Suv, – dedi u, – suv bering... butun vujudim yonib ketyapti!

Monte-Kristo bir stakan suv berdi.

– Ablah Benedetto, – dedi Kadruss stakanni uzatib, – u suvdan quruq chiqqanday qutulib ketadi.

– Hech kim qutulmaydi, meni aytdi deyavering, hech kim... Benedetto ham jazosini tortadi.

– Unda siz ham jazoingizni tortasiz, – dedi Kadruss, – ha, siz ham... chunki kohin sifatida o‘z burchingizni ado etmadingiz... Siz Benedetto jonimga qasd qilmoqchi bo‘lganda oraga tushishingiz kerak edi.

– Men-a? – dedi graf zaharxanda qilib. Kadrussning yuragi shig‘ etib ketdi. – Ko‘kragimga hozirgina pichoq urgan siz ablahni o‘limdan qutqarib qolishim, ya‘ni Benedettoning yo‘lini to‘shim kerak ekan-da!.. Chuchvarani xom sanabsiz! Agar siz tavba qilib, bo‘yin egganingizda, ehtimol, oraga tushgan bo‘larmidim, biroq siz battollik, makkorlik qildingiz, shu sababdan men sizni Xudoga soldim.

– Men Xudoga ishonmayman! – qichqirdi Kadruss. – Siz ham ishonmaysiz... Gapingiz yolg‘on!.. G‘irt yolg‘on!..

– O‘chiring ovozingizni! – dedi abbat, – taningizdagi so‘nggi qatra qoningiz ham oqib tugayapti... Xudoga ishonmaysizu, ammo uning qahriga duchor bo‘lib o‘lib ketyapsiz! Siz e‘tiqod qilmaydigan Xudo gunohlaringizni afv etish uchun bir og‘iz so‘zingizga, bir tomchi ko‘z yoshingizga, birgina sajdangizga intizor bo‘lib turibdi... Xullas, har narsaga qodir Tangrim tavba qilishingiz uchun bir necha daqiqa muhlat ham berib qo‘ydi. Qani, tavba qiling! Xudodan shafqat tilang!

– Yo‘q, – dedi Kadruss, – tavba qilmayman. Xudo ham, arvohlar ham yo‘q, faqat tasodif degan narsa bor.

– Arvohlar ham bor, Xudo ham bor, – dedi Monte-Kristo. – Mana, siz alamingizga chidolmay, Xudoga shak keltirib o‘lyapsiz, men esa Xudoga ming qatla shukr qilib, boy-badavlat, shod-xurram yashab, navqiron bo‘lib turibman qarshingizda.

– Axir, o‘zingiz kimsiz? – dedi Kadruss nursiz ko‘zlarini grafga tikib.

– Mana, yaxshilab qarang, – dedi Monte-Kristo shamchiroqni o‘zining yuziga tutib.

– Siz abbat... abbat Buzoni...

Monte-Kristo yasama sochni olib tashladi-da, yuziga tushib turgan qop-qora o‘siq sochlarini silkidi.

– Yo, alhazar, – dedi cho‘chib Kadruss, – qora sochlar bo‘lmaganda, o‘sha ingliz lord Uilmorning xuddi o‘zisiza.

– Men abbat Buzoni ham, lord Uilmor ham emasman, – javob qildi Monte-Kristo, – yaxshilab qarang, o‘tmishni, eng uzoq o‘tmishingizni eslang.

Grafning bu so‘zlaridagi allaqanday g‘ayritabiiy shuur sho‘rlik Kadrussning o‘lib borayotgan hissiyotlarini so‘nggi marta jonlantirib yubordi.

– Darvoqe, – dedi u, – men sizni qayerdadir ko‘rganga o‘xshayman, bir vaqtlar tanirdim men sizni.

– Ha, Kadruss, siz meni ko‘rgansiz, taniysiz.

– Axir, ayting, kimsiz? Nega endi tanishim bo‘la turib meni ajal girdobiga uloqtiryapsiz?.

– Endi hech kim joningizga ora kirolmaydi, Kadruss, jarohatlaringiz juda og‘ir. Sizni qutqarish imkoni bo‘lsa edi, Xudoning sizga bu inoyatini hisobga olib, yordamimni ayamagan bo‘lardim. Otamning arvohi haqqi, qutqarib qolardim.

– Otamning arvohi haqqi! – dedi Kadruss yana jonlanib, boshini ko‘tardi-da, bu muqaddas qasamni tilga olgan kishiga yaqindan tikilib qaradi. – Kimsiz, axir?

Graf o‘lim talvasasida yotgan yaradordan ko‘zini bir daqiqa ham uzmasdi. Bu oxirgi talvasa ekanini graf ang-ladi-da, engashib:

– Men... – dedi qulog‘iga. – Men... – shu on uning bilin-bilinmas ochilib turgan lablaridan asl ismi zo‘rg‘a eshitildi.

Kadruss cho‘kka tushib qo‘llarini ko‘tardi, orqaga bir tisarildi-da, bor kuchini yig‘ib:

– E, Tangrim! – dedi, – kechir meni, gunohkor bandan-  
gni kechir, sen mavjudsan, chindan ham hukmdorimiz-  
san! Ko‘pdan buyon senga ishonmasdim! Endi ishondim!  
Ol meni! Ol meni o‘z bag‘ringga, ol!

Kadruss shu oxirgi so‘zlarini aytdi-da, bir uh tortib,  
yiqildi.

Yaralardan oqayotgan qon darhol to‘xtadi. U o‘lgan edi.

– Bir! – dedi sirli ohangda graf, dahshatli o‘lim oqibati-  
da badbashara bo‘lib ketgan murdaga tikilib.

O‘n daqiqa o‘tgach, doktor va qirolik prokurori keldi,  
birini darvoza qorovuli, ikkinchisini esa Ali chaqirib  
kelgan edi. Ularni murda tepasida duo o‘qib o‘tirgan abbat  
Buzoni kutib oldi.

## **VII. BOSHAN**

Grafnikiga o‘g‘ri tushgani haqidagi gap ikki haftadan  
beri parijliklarning og‘zidan tushmaydi. U, o‘layotib, qoti-  
li Benedetto degan kimsa ekanligini xatda yozib qoldirib-  
di. Polisiya hamma ayg‘oqchilarni ishga solibdi.

Kadrussning pichog‘i, maxfiy fonar, qulf buzadigan  
asboblarni bog‘lami, kamzulidan boshqa (kamzulini hech  
erdan topisholmabdi) kiyimlari jinoiy ish delosiga tirkab  
qo‘yildi, murda esa o‘likxonaga yuborildi.

Graf so‘raganlarga bu voqealar men Oteyldagi uydali-  
gimda yuz bergan, o‘zim ham faqat abbat Buzonidan  
eshitdim, abbat ham o‘sha kuni favqulodda uyimda bir  
kecha tunashga va qiroatxonamdagi ba‘zi nodir  
kitoblardan ko‘chirmalar olishga ruxsat so‘ragan edi, deb  
javob berardi.

Har gal Benedettoning nomi tilga olinganda, Bertuch-  
choning rangi o‘chib ketar, ammo hech kim bunga e‘ti-  
bor bermasdi.

Jinoyat tepasiga chiqarilgan Vilfor, tergovni o‘zim olib  
boraman, deb deloni o‘z qo‘liga oldi-da, jon-jahdi bilan  
ishga kirishdi.

O‘shandan buyon uch hafta o‘tdi, ammo qattiq qidi-

ruvlar natija bermadi. Jamoatchilik esa bu suiqasd haqidagi va o'g'ri o'z sherigi o'ldirgani haqidagi gaplarni unuta boshladi. Endi hamma gap mademuazel Danglar bilan graf Andrea Kavalkantining yaqinda bo'ladigan to'yi ustida borardi.

Ikki yoshning turmush qurishi allaqachon rasmiy ravishda e'lon qilingan edi, Andrea esa bankirning uyida kuyovto'ra bo'lib gerdayib yurardi.

Bu haqda Andreaning otasiga xat yozishibdi, u ikki yoshning bir yostiqqa bosh qo'yishini ma'qullab javob xati yuboribdi va Parmuda xizmat qilayotganini, borolmasligidan nihoyatda afsuslanganligini izhor etibdi. Yana qo'shimcha qilib, yiliga yuz ellik ming livr foyda beradigan mablag' ajratishga roziman, debdi.

Uch millionni Danglar bankiga qo'yishga qaror qilishibdi, bankir esa bu mablag'ni muomalaga qo'yadigan bo'libdi. To'g'ri, kuyovga, qaynatangizning bundan keyingi ahvoli shubhali, chunki so'nggi kunlarda birjada ishlari hadeb pachava bo'lyapti, deganlar ham bo'ldi. Biroq yuksak ishonchga to'la va har qanday g'arazgo'ylikdan xoli Andrea bu mish-mishlarning hammasini rad etdi, hamda bu gaplarni birovga aytishni o'ziga ep ko'rmadi.

Baron graf Andrea Kavalkantidan nihoyatda mamnun ekanligi bejiz emasdi-da.

Mademuazel Ejeni Danglarga kelganda, turmushga chiqishni xohlamaydigan bu erkatoq qiz Andrea paydo bo'lishi bilan, Morserdan qutuldim deb xursand bo'lgan edi: lekin Andrea juda shilqimlik qilavergach, undan ham jirkanadigan bo'lib qoldi.

Baron, ehtimol, buni ham sezib qolgandir, biroq bu qizning noz-karashmasi deb o'ylab o'zini bilmaganga solib yuraverdi.

Shu orada Boshan belgilagan muddat ham tugay deb qolgan edi. Morser esa Monte-Kristo yopig'liq qozon yopig'ligicha qolsin, deb to'g'ri aytganiga ishonishi ham mumkin edi. Gazetaning generalga daxldor joylariga hech kim e'tibor ham bermadi, Yanina qal'asini dushmanga

topshirgan ofiser perlar Palatasi majlisida gerdayib o'tirgan graf ekanligi hech kimning xayoliga ham kelmagan edi.

Shunga qaramay Alber o'zini haqoratlangan hisoblar, gazetadagi xabar jo'rttaga uning izzat-nafsiga tegish uchun bosilgan deb bilardi. Bundan tashqari, Boshanning suhbat oxirida aytgan so'zlari unga yomon ta'sir qilgan edi. Shu sababdan Alber duel haqidagi fikridan qaytmas, ammo buning asl sababini, Boshan rozi bo'lsa, hatto o'z sekundantlaridan ham yashirmoqchi edi.

Alber bilan uchrashgandan buyon Boshan hech qayerda ko'rinmay qoldi, so'raganlarga, u bir necha kunga qayoqqadir ketgan, deb javob berishardi.

Darhaqiqat, uning qayerdaligini hech kim bilmasdi.

Bir kuni ertalab kamerdiner Alberni uyg'otib, Boshan kelganligini xabar qildi, Alber ko'zlarini ishqaladi-da, Boshandan pastda bir oz kutib turishni iltimos qilib, tez kiyinib, pastga tushdi.

Boshan papiros chekadigan xonaning u boshidan-bu boshiga yurib turgandi, Alberni ko'rib to'xtadi.

– Meni kutmay o'zingiz kelganingizni yaxshilik nishonasi deb bilsam bo'ladimi? – so'radi Alber. – Tez gapiring, Boshan, xatoingizga iqror bo'lib, qadimgidek do'st bo'lib qolamizmi yoki bu masalani qurol bilan hal etamizmi, qaysinisini ma'qul ko'rasiz.

– Alber, – dedi Boshan, uning qayg'uli ovozi Morserni taajjubga soldi, – keling, avval o'tirib bafurja gaplashib olaylik.

– Janob, o'tirishdan oldin savolimga javob berasiz, deb umid qilaman.

– Alber, – dedi jurnalist, – shunday vaziyatlar tug'iladi-ki, savolga javob berish o'limdan qiyin bo'ladi.

– Unday bo'lsa, janob, mushkulingizni osonlashtirib, savolimni qaytarib qo'ya qolay: raddiya berasizmi yoki yo'qmi?

– Morser, bunaqa savolga oddiy tarzda: «ha» yoki «yo'q», deb javob bermaydilar, axir gap general-leytenant graf de

Morserning – Fransiya perining or-nomusi, jamiyatdagi nufuzi, hayot-mamoti ustida boryapti.

– Yo’qsa nima qilishlari kerak edi?

– Men nima qilgan bo’lsam, shuni qilishlari kerak edi, Alber. O’zlaricha: gap obro’ ustida, butun bir oilaning manfaati ustida borganda, pul, vaqt va zo’r berish rol o’ynamaydi, do’sting bilan hayot-mamot jangiga borayotganda birgina taxminli mulohaza kifoya qilmaydi, qiladigan ishing haq ish ekanligiga imoning komil bo’lmog’i kerak, deyishadi. Yana uch yillik qadrdon do’sting bilan yakkama-yakka jang qilish to’g’ri kelib qolsa, vijdon azobiga tushmaslik uchun, hech bo’lmaganda nima uchun shunday qilayotganingni bilmog’ing kerak, deb o’ylashadi.

– Bo’pti, bo’pti, – dedi Alber, sabr kosasi to’lib, – bu bilan nima demoqchisiz o’zi?

– Demoqchimanki, hozirgina Yaninadan keldim.

– Yaninadan? Siz-a.

– Ha, men.

– Bo’lmagan gap!

– Azizim Alber, mana, pasportimni ko’ring: Jeneva, Milan, Venesiya, Triest, Delvino, Yanina. Bir respublikaning, bir qirollikning va bir imperiyaning polisiyasiga ishonarsiz?

Alber pasportga ko’z tashladi va taajjub-la Boshanga tikilib qoldi.

– Yaninaga borib keldingizmi? – so’radi u takroran.

– Alber, agar siz menga yot, notanish yoki bundan bir oy burun mendan duelga chiqishni talab etib kelib, mening o’qim bilan halok bo’lgan ingliz lordga o’xshagan kimsa bo’lganingizda edi, men bunchalik uzoq joyga ovora bo’lib borib yurmasdim, buni o’zingiz yaxshi tushunasiz, ammo sizga kamoli hurmatim tufayli shunday qilishga majburman. Yaninaga borishga bir hafta, qaytishga bir hafta vaqtim ketdi, karantinda to’rt kun va ikki kun u erda bo’ldim, hammasi bo’lib uch hafta o’tdi. Bugun kechasi qaytib keldim, hozir esa mana, huzuringizdaman.

– E, Tangrim, buncha uzoq muqaddimaning nima keragi bor, Boshan? Gapni choʻzishga na hojat? Gapning poʻskallasini ayta qolsangiz-chi?

– Alber, ochigʻini aytsam...

– Aytishga yuragingiz dov bermayapti, shekilli...

– Toʻgʻri, qoʻrqyapman.

– Xabaringiz yolgʻon chiqib qoldi-yu, shunga iqror boʻlishdan qoʻrqyapsizmi? Manmanlikni yigʻishtirib qoʻyib, xatoingizga iqror boʻlaving, oʻshanda ham jasur yigit ekanligingizga hech kim shubhalanmaydi.

– Gap tamom boshqacha, Alber, – dedi shivirlab Boshan, – siz aytganning batamom aksi...

Alber murdaday oqarib ketdi, u bir narsa demoqchi boʻlib ogʻzini ochdi-yu, indamadi.

– Doʻstim, – dedi Boshan muloyimlik bilan, – basharti oʻsha xabar notoʻgʻri boʻlib chiqqanda, men aybimga iqror boʻlardim-da, jon deb sizdan uzr soʻrardim, ammo...

– Xoʻsh, nima boʻlmasam?

– Xabar toʻgʻri ekan, doʻstim.

– Rostdan-a? Oʻsha fransuz ofiser...

– Ha.

– Oʻsha Fernan-a?

– Oʻzi xizmatida boʻlgan hukmdorining qalʼasini dushmanga ochib bergan xoin...

– Meni kechiring, biroq ochigʻini aytsam, oʻsha xoin sizning otangiz ekan!

Alber Boshanning yoqasidan olmoqchi boʻlib intilgan edi, Boshan uning qoʻlidan tutdi.

– Doʻstim, mana, – dedi u choʻntagidan qogʻoz chiqarib, – mana dalil.

Alber qogʻozni ochdi, bu Yaninada turuvchi toʻrtta taniqli kishining xati edi. Unda, vazir Ali-Tebelinda instruktor boʻlib xizmat qilgan polkovnik Fernan Mondego ikki ming hamyon pulga sotilib, Yanina qalʼasini dushmanga ochib bergan, deb yozilgan edi.

Ularning imzolarini konsul tasdiqlab beribdi.

Alber behush boʻlib, oʻrindiqa yiqildi.



Ism va familiya to'liq yozilgan, endi shubhaga hech o'rin qolmagan edi.

U bir daqiqa g'azabdan to'lg'anib turdi, keyin ho'ng-ho'ng yig'lay boshladi.

Do'stining og'ir iztirobga tushganini ko'rib, dili ezilgan Boshan uning yoniga borib:

– Alber, – dedi, – endi mening gaplarimni tushungan-dirsiz? O'z ko'zim bilan ko'rib-bilib, otangiz va uning ta-barruk nomini o'zim himoya qilaman deb o'ylagandim. Biroq hammasi buning aksi bo'lib chiqdi. Men to'plagan dalillar Ali posho general-gubernator unvoniga muayassar etgan o'sha ofiser-instruktor Fernan Mondego graf Fernan de Morser ekanini tasdiqladi. So'ngra qaytdim-da, do'stligimiz hurmati, to'g'ri huzuringizga keldim.

Alber hamon o'rindiqda bukchayib o'tirib, go'yo kun yorug'idan yashirinayotgandek, qo'llari bilan yuzini beki-tib olgan edi.

– To'g'ri huzuringizga kelib, – dedi so'zini davom etti-rib Boshan, – shunday demoqchi edim: do'stim Alber, ser-tashvish bu zamonamizda otalar qilmishi bolalarning sha'niga dog' sololmaydi. Alber, biz tug'ilib o'sgan bu jamiyatda o'z harbiy libosini yoki sudya libosini bo'lib o'tgan inqiloblarda balchiqqa yoki qonga bo'yamagan odam kamdan-kam topiladi. Hamma dalillar, hujjatlar mening qo'limda ekan, endilikda hech kim meni chaqiriqni qabul etishga majbur etolmaydi, siz ham vijdonan buni jinoyat deb hisoblashingizga ishonaman. Endi mening bir taklifim bor. Agar istasangiz, faqat meninggina qo'limda bo'lgan mana shu dalillar, fosh etuvchi jami hujjatlarning tagiga suv quyib yuboriladi, xo'sh, nima deysiz? Bu mash'um sir faqat ikkimizning o'rtamizda qolishini istaysizmi? Chin vijdon haqqi, menga ishoning: hech qachon, hech qayerda bu sir oshkor etilmaydi. Javob bering, do'stim, siz shunga rozimisiz?

Alber o'rnidan turdi-da, Boshanni bo'ynidan quchoq-lab oldi.

– Mehribon do'stim! – xitob qildi u.

– Mana, oling, – dedi Boshan Alberga qog’ozlarni uzatib.

Alber qog’ozlarni shartta oldi-da, asabiy g’ijimladi, mayda-mayda qilib yirtib tashlamoqchi bo’ldi, biroq vaqti kelib ularni shamol uchirib, peshanamga shartillatib urishi mumkin-ku, deb o’ylab, shamchiroq oldiga olib bordi-da, oxirgi parchasigacha yondirib yubordi.

– Sadoqatda tengsiz do’stim! – dedi qog’ozlarni yondirayotib Alber hazin tovushda.

– Keling, shunday ahd qilaylikki, bu gaplarning hammasi betayin bir tush kabi yo’q bo’lib ketsin, kuyib qorayib borayotgan qog’oz ustidagi so’nggi uchqunlar kabi kulga aylansin, kul ustidagi oxirgi tutun kabi tarqalib g’oyib bo’lsin.

– Ha, yo’qolsin, gumdon bo’lsin, – dedi Alber, – faqat abadiy do’stlik qolsin, ha, ont ichaman sizga, mening xalloskorim, do’stligimiz – abadiy. Farzandlarimiz ham bu do’stlikni ardoqlashadi. Men sizning do’stona mehr-shafqatingizni umrbod unutmayman. Bu sirdan boshqa biror zot favqulodda xabardor bo’lib qolganda edi, o’zimni o’zim otib o’ldirardim. Ha, Boshan, o’z jonimga o’zim qasd qilishga majbur bo’lardim yoki mushtipar onamni deb tirik qolsam-da, Fransiyani tashlab chiqib ketardim.

– Qadrdonim Alber! – dedi ohista Boshan.

Biroq sun’iylik sezilib turgan bu quvonch Alberning chehrasida qanday tez paydo bo’lgan bo’lsa, shuncha tez g’oyib bo’ldi-da, uning o’rnini qayg’u-alam egalladi.

– Nima gap? – so’radi Boshan. – Nima bo’ldi sizga?

– Nechundir ko’nglim g’ash, – dedi Alber. – Bilasizmi, Boshan, shu kungacha aybsiz deb kelingan ota nomiga bo’lgan farzandlik hurmatidan, ishonchidan, iftixoridan birdan voz kechish oson emas. Oh, do’stim Boshan! Endi men qanday qilib otamning yuziga qarayman? Peshanamdan o’pmoqchi bo’lganda undan yuz o’giranmanmi? Qo’lini uzatsa, qo’limni tortib olamanmi?.. Boshan, odamlar ichida eng baxtsiz men ekanman. Sho’rlik onajonim! – davom etdi Alber jiqqa yosh ko’zlarini

grafinyaning suratiga tikib. – Agar u ahvolimni bilganda, ich-ichidan kuyib adoyi tamom bo'lardi! Mushtipar onaginam!

– Og'ir bo'ling, do'stim! – dedi Boshan, uning qo'lini ushlab.

– Aytgancha, xabar qanday qilib sizning gazetangizga tushib qoldi? – so'radi Alber. – Bu qasddan qilingan ish, pinhoniyl bir dushmanning qo'li bor bunda.

– Shuning uchun ham og'ir bo'ling deyaipman-da, o'zingizni bosing, dilingizdagi qayg'u-alamni hech kimga sezdirman, hammasini ichingizga yuting. Kuch-quvvatingizni dahshatli onlar uchun saqlang.

– Hali bu oxiri emas deb o'ylaysizmi? – so'radi kayfi uchib Alber.

– Men hech nima o'ylayotganim yo'q. Biroq hali nimalar bo'lishini kim biladi deysiz. Aytgancha...

– Nima? – so'radi Alber Boshanning ikkilanib turganini ko'rib.

– Siz hali ham mademuazel Danglarning kuyovi hisoblanasizmi?

– Nega hozir mendan buni so'rab qoldingiz?

– Chunki, sizning Ejeniga uylanish yoki uylanmasligingiz haqidagi masala ikkimizni hozir band qilib turgan masalaga aloqasi bor-da.

– Yo'q, uylanmaydigan bo'ldim, – dedi Alber.

– Yaxshi, – dedi Boshan va yosh yigitning yana ko'ngli o'ksib, xafa bo'lib qolganini sezib davom etdi:

– Menga qarang, Alber, – mayli desangiz izvoshdami, otdami bir toza havoga chiqib sayr qilsak, Bulon o'rmonini aylanamiz, bir oz ko'nglingiz yoziladi, keyin biror joyga kirib, nonushga qilamiz-da, so'ng uy-uyimizga ketamiz.

– Jonim bilan, – dedi Alber, – biroq yayov yuramiz, men bir oz charchasam ma'qul bo'lur edi.

– To'g'ri aytasiz, – dedi Boshan.

Do'stlar piyoda xiyobon bo'ylab yo'lga tushdilar. Madlen cherkoviga etganda Boshan gap qotdi:

– Menga qarang, shu erga kelib graf Monte-Kristoniki-ga kirmay ketsak odobdan boʻlmas, u gʻoyat dilkash odam, kishining dilidan gʻuborlarni tarqatib yuboradi, har narsani soʻrab-surishtiradigan odati yoʻq. Bunday odamlar, menimcha, kishiga taskin berishda, xushvaqt etishda bebaho zotlardir.

– Toʻgʻri aytasiz, – dedi Alber, – kiraylik, men uni yaxshi koʻraman.

## VIII. SAYOHAT

Ikkala yigit birga kelganini koʻrib, Monte-Kristo juda quvonib ketdi.

– Demak, ishlar «besh», deb ishonsam boʻladimi endi? – dedi graf.

– Ha, ishonsangiz boʻladi, – javob qildi Boshan, – anavi bemaʼni mish-mishlar oʻz-oʻzidan yoʻq boʻldi. Basharti ularni yana biror tili qichigan ogʻziga olgundek boʻlsa, birinchi boʻlib men oʻzim adabini berib qoʻyaman. Keling, endi bas qilaylik bu gaplarni.

– Men ham Alberga xuddi shunday maslahat bergandim, – dedi graf, – mana, oʻzidan soʻrang, eʼtirof etadi. Aytgancha, – dedi u qoʻshimcha qilib, – koʻngilsiz bir ish bilan shugʻullanib oʻtirganimda kelib qoldinglar.

– Qanday ish ekan u? – soʻradi Alber, – yozuv-chizuvlaringizni tartibga solayotganmidingiz?

– Xudoga ming qatla shukrki, oʻzimnikini emas! Menda tartibga soladigan yozuv-chizuvning oʻzi yoʻq. Janob Kavalkantining qogʻozlarini qarab oʻtirgandim.

– Kavalkantining qogʻozlarini? – soʻradi Boshan.

– Hali siz graf unga homiylik qilib yurganini bilmaysizmi? – dedi Alber.

– Yoʻq, siz aytganchalik emas, – dedi Monte-Kristo, – men hech kimga vorislik qilmayman, xususan Kavalkantiga.

– U mening oʻrnimga mademuazel Danglarga uylanyapti, – dedi soʻzini davom ettirib Alber, – bu, azizim Boshan,

menga juda alam qilyapti.

– Iya, hali shundaymi? Kavalkanti mademuazel Dang-larga uylanyaptimi? – so‘radi Boshan.

– Ie, osmondan tushdingizmi? – dedi Monte-Kristo. – Molvaning jazmani jurnalist bo‘la turib voqeadan bexabar qolibsiz-da! Hozir butun Parijda hammaning og‘zida shu gap-ku.

– Graf, bu nikohni siz tashkil etgan bo‘lsangiz kerak? – so‘radi Boshan.

– Men? Janob yangiliklar kashfiyotchisi, iltimos, tag‘in bunaqa mishmishlarni tarqatib yurmang! Tavba! Men biror kishining nikohiga bosh qo‘sharmishmanmi? Men-a? Yo‘q, siz meni bilmas ekansiz, aksincha, bu nikohga men jonim boricha qarshilik ko‘rsatdim, hatto biror taklif ham kiritganim yo‘q.

– Tushundim, – dedi Boshan, – do‘stimiz Alber uchun shunday qilgansiz-da?

– Men uchun emas, – dedi Alber. – Men, aksincha, graf-dan bu rejani buzishga ko‘maklashishni ko‘pdan buyon iltimos qilaman, buni grafning o‘zi ham tasdiqlashi mumkin. Mana endi nikoh bekor qilinganda, graf: bunda mening hech ishtirokim yo‘q, mendan minnatdor bo‘lmay qo‘ya qoling, deydi. Mayli, uniki to‘g‘ri deylik, u vaqtda men, xuddi eskilardek, Xudo mehribon, deb qo‘ya qola-man.

– Shuni bilib qo‘yingki, – dedi Monte-Kristo, – bo‘lg‘usi qaynata bilan ham, kuyov bilan ham aloqam yaxshi emas, shuning uchun men bu ishga zarracha bosh qo‘shganim yo‘q, qo‘shmayman ham. Birgina mademuazel Ejeni, unga erga chiqishga xohishi yo‘qligidan bo‘lsa kerak, o‘zi uchun eng qimmatli hisoblangan erkinlikdan voz kechishga majbur etmaganimdan meni hurmat qiladi.

– Ularning to‘yi yaqin kunlarda bo‘lsa kerak-da?

– Ha, mening bir necha bor ogohlantirishimga qaramay, yaqinda to‘y bo‘ladiganga o‘xshaydi. Men u yigit-ning qanaqa odam ekanligini bilmayman, u boy va aslzodalardan deyishadi, men bu «mish-mish»larga asti

ishonmayman. Shu fikrimni Danglarga qayta-qayta aytdim, biroq u italyan yigitni ko'klarga ko'targani-ko'targan. Hatto yana bir muhim voqeadan uni xabardor qilib qo'yishni lozim topdim: u yosh yigitni emizak go'dakligida almashtirib qo'yishganmi, yoki lo'lilar o'g'irlab ketganmi, yo bo'lmasa murabbiysi allaqaerda yo'qotib qo'yganmi, xabarim yo'q. Biroq shuni yaxshi bilamanki, otasi o'n yildan ko'proq vaqt mobaynida undan mutlaqo bexabar bo'lgan, qayerlarda daydib, nima bilan shug'ullanganligini bilmaydi. Bu haqda ham Danglarni ogohlantirdim, ammo nafi bo'lmadi. Mendan mayorga xat yozib, hujjatlarni so'rab olishini iltimos qilishdi. Mana, mayordan olingan hujjatlar, ularni Danglarga yuboryapman. Endi, men ham Pilat singari qo'limni yuvib, qo'ltig'imga urdim.

– Mademuazel d'Armili? – so'radi Boshan. – Uni shogirdidan judo etganingiz uchun sizdan xafa emasmi?

– Qaydam, xafa bo'ldimi, yo'qmi, aytolmayman, biroq, aftidan, u Italiyaga ketayotgan bo'lsa kerak. Danglar xonim uning haqida men bilan gaplashgan edi, Italiya teatrlaridan birining direktoriga tavsiyanoma yozib berishni iltimos qildi. Menga ishi tushgan Valle teatrining direktoriga xat yozib berdim. Darvoqe, nimaga siz buncha xomushsiz, Alber, tinchlikmi? Yoki rostdan ham mademuazel Danglarni beixtiyor sevib qolganmisiz?

– Sevib qolganim yo'q, chog'i, – dedi Alber noxush tabassum bilan.

Boshan suratlarni ko'zdan kechira boshladi.

– Har qalay, – davom etdi Monte-Kristo, – bu gal hech o'zingizga o'xshamaysiz. Ayting, nima bo'ldi sizga?

– Boshim og'riyapti, – dedi Alber.

– Unday bo'lsa, azizim vikont, – dedi Monte-Kristo, – menda juda ajoyib dori bor, berishim mumkin, bu dorini men doim tobim qochib qolganda ichaman.

– Qanaqa dori? – so'radi Alber.

– Havoni, muhitni o'zgartiradigan dori.

– Rostdanmi?

– Ha, rostdan. Mening ham mazam qochib turibdi. Shu kunlari boshimni olib ketmoqchiman. Istasangiz birga ketamiz, nima deysiz?

– Nega mazangiz qochib qoldi, graf? – dedi Boshan, – sababi bordir?

– Menga oson tutasiz-da; sizning xonadoningizdayam menikidagidek tergov olib borilsa, holingizga maymunlar yig'lamasmidi?

– Tergov? Qanaqa tergov?

– Janob de Vilforning o'zi hurmatli qotilimning ishi ustida tergov olib boryapti: bu hibsonadan qochgan qandaydir qaroqchi bo'lsa kerak.

– E-ha, – dedi Boshan, – men buni gazetada o'qigandim. Kadruss degan shaxs kim ekan o'zi?

– Qandaydir provansalchi. Nomini Vilfor Marselda ishlaganida eshitgan ekan, Danglar esa hatto ko'rganman deydi. Shu sababdan qirollik prokurori janoblari bu ishga juda berilib kirishgan, polisiya boshlig'i ham juda qiziqib qoldi, shekilli. Ular ikki haftadan buyon Kadrussning qotilini topish bahonasida Parijda va uning atrofida qo'lga tushgan hamma kallakesarlarni uyimga olib kelishyapti. Agar bu hol davom etaversa, uch oydan so'ng fransuz qirolligida uyimning rejasini bilmagan birorta muttaham, birorta kallakesar qolmasa kerak. Endi uyimni batamom ularning ixtiyoriga topshirib, boshim oqqan tomonga ketmoqchiman. Yuring, birga ketaylik, vikont!

– Bo'пти.

– Demak, gap bitta!

– Gap bitta, ammo qayoqqa?

– Aytdim-ku: bahavo, tinch, osoyishta joylarga, kishi qanchalik kekkaygan bo'lmasin, o'zini naqadar itoatkor bir maxluq ekanligini his etadigan o'lkalarga. Men, ha, men, ya'ni Avgustga o'xshab jahon hokimi deb nom olgan men, ana shunaqa erlarda yurishni yaxshi ko'raman.

– Xo'sh, qayerda ekan unaqa joylar?

– Dengizda, vikont. Meni o'zingiz bilasiz-ku, dengizchiman, bolalik chog'imdayoq keksa Okean ko'lida «alla» tin-

glab, go'zal Amfitritning ko'ksida uxlardim; ana shu dengizning ko'm-ko'k o'rtugi va Amfitritning zumrad libosini tortqilab o'ynar edi. Men dengizni ma'shuqam kabi sevaman, uzoq vaqt ko'rmasam sog'inib qolaman.

– Graf, jo'nadik!

– Dengizgami?

– Ha, dengizga.

– Ketdikmi?

– Ketdik.

– Unday bo'lsa, vikont, bugun mening ostonamda safar izvoshi taxt turadi, u juda qulay, xuddi karavotda yotgandek rohat qilib ketamiz. To'rt ot qo'shiladi. Boshan, menga qarang, izvoshimga bemalol to'rt kishi sig'adi. Siz ham yuring. Men sizni lutfan taklif qilaman.

– Rahmat, hozirgina dengizdan qaytdim.

– Iya, siz dengizda bo'ldingizmi?

– Ha. Barromey orollarida jindak sayohat qilib keldim.

– Baribir, boraveramiz! – dedi Alber.

– Yo'q, azizim Morser, agar ilojim bo'lganda bu taklifni rad etarmidim. Bundan tashqari, – qo'shimcha qildi Boshan ovozini pasaytirib, – hozir men albatta Parijda bo'lishim shart, gazetaga kelayotgan xabarlarini kuzatib turishim kerak.

– Mening sodiq do'stim, bu gapingiz juda ma'qul, – dedi Alber, – kuzatib turing, Boshan, o'sha xabarni e'lon etgan dushmani aniqlashga harakat qiling.

Alber bilan Boshan xayrlashishdi, so'nggi qo'l siqishlarda begona kishi oldida aytib bo'lmaydigan gaplarning mazmuni aks etgan edi.

– Boshan juda quling o'rgilsin yigit-da! – dedi Monte-Kristo jurnalist chiqib ketgach, – to'g'rimi, Alber?

– Xudo haqqi, graf, dilbar yigit! Men uni jonimdan ham yaxshi ko'raman. Endi safar masalasiga o'taylik: menga baribiru, harholda bilib qo'ygan yaxshi: qayoqqa boramiz?

– Agar siz yo'q demasangiz, Normandiyaga.

– Juda soz, u erda tanho o'zimiz rosa maza qilarkanmiz-da, a? O'zimizdan bo'lak hech kim bo'lmaydi – na



jamoat, na qo'shni, to'g'rimi?

– Bizga faqat otlarimiz, ovchi kuchuklarimiz hamroh bo'ladi, yana baliq ovlaydigan qayiq bo'ladi, vassalom.

– Menga keragi ham ana shular. Onamni xabardor qilib qo'ysam bas, so'ng ixtiyorim sizda.

– Ruxsat berisharmikin sizga? – so'radi Monte-Kristo.

– Nimaga?

– Normandiyaga borishga.

– Menga-ya? Ie, hali ixtiyorim o'zimda emas deb o'ylaysizmi?

– Bilaman, erkinsiz, yakka o'zingiz sayohat qilib yuraverasiz, Italiyada uchrashgandik-ku.

– Unday bo'lsa, nega endi ruxsat berisharmikin deyasiz?

– Graf Monte-Kristo degan odam bilan borishga ruxsat berisharmikin deyapman-da.

– Esingizdan chiqibdi-da, graf.

– Nima?

– Axir men sizga, onam sizni juda hurmat qiladi, demabmidim?

– Ayollar har maqomda o'zgarib turishadi, degan Fransisk Birinchi, ayol to'lqinga o'xshaydi degan Shekspir; birinchisi, ulug' shoh, ikkinchisi, buyuk shoir edi, aftidan ikkisi ham xotinlar xulqini yaxshi bilib olgan zotlardir.

– To'g'ri, biroq mening onam oddiy ayollardan emas, asl ayol!

– Uzr, men bu gapingizga uncha tushunmadim?

– Demoqchimanki, mening onam hissiyot masalasida juda xasis, ammo biror kishini sevib qolgundek bo'lsa, sevgini umr bo'yi qalbida saqlaydi.

– E, shundaymi hali, – dedi og'ir nafas olib Monte-Kristo, – onangiz meni hurmat qiladi deb o'ylaysizmi?

– Men sizga ilgari ham aytgandim, yana qaytarib aytamanki, – dedi Alber, – siz tengi yo'q, bebaho odamsiz.

– Qo'ying bunaqa gaplarni!

– Ha, kishini maftun qiladigan ajoyib odatlaringizga onam juda qiziqib qolgan. Onam bilan yakka qolganda

nuqul sizni gapiramiz.

– Onangiz o’sha Manfredga ishonmagin, deb uqtirsa kerak-da sizga, shundaymi?

– Aksincha, u menga: «Alber, aminmanki, graf vijdoni pok, muruvvati baland, xushfe’l odam, uning mehr-muhabbatiga sazovor bo’lishga harakat qil», deydi hamisha.

Monte-Kristo orqasiga o’girilib o’ksinib qo’ydi.

– Rostdanmi?

– Shundan ko’rinib turibdiki, – dedi Alber so’zini davom ettirib, – u mening borishimga qarshi bo’lishi aslo mumkin emas, aksincha, siz bilan birga sayohat qilishimni chin yurakdan ma’qullaydi, axir o’zi ham menga shunday nasihat qilardi.

– Bo’pti, kechgacha xayr, – dedi Monte-Kristo, – soat beshda etib keling. Manzilimizga yarim kechada yoki tungi soat birlarda etib boramiz.

– Treporga-ya? Qanday qilib?

– Ha, Treporga yoki uning yaqiniga.

– Sakkiz soatda qirq sakkiz le yo’lni bosib o’tamiz, deb o’ylayapsizmi?

– Ehtimol, bundan ham ertaroq borarmiz, – dedi Monte-Kristo.

– Siz mo’jizakorsiz! Yaqin orada temir yo’ldan o’zibgina qolmay (bu, ayniqsa Fransiyada unchalik qiyin emas), tezkorlikda telegrafni keyinda qoldirasiz.

– Har qalay, etib borish uchun sakkiz soat vaqt kerak bo’ladi, kechikmay keling.

– Xotirjam bo’ling, hech qanday ishim yo’q, bo’shman, safar buyumlarimni yig’sam bo’lgani.

– Kelishdik, soat beshda.

– Beshda.

Alber chiqib ketdi. Monte-Kristo uni iliq kuzatib qo’ydi-da, uzoq vaqt xayolga cho’mib, turib qoldi. So’ng bo’limg’ur xayollarni quvib yubormoqchidek, peshanasini qo’li bilan siladi-da, ikki marta qo’ng’iroq chaldi.

Bertuchcho kirdi.

– Bertuchcho, – dedi Monte-Kristo, – ertaga emas, in-

din ham emas, bugun soat beshda Normandiyaga jo'nayman, soat beshgacha hali erta; birinchi bekatdagi otboqarlarni ogohlantirib qo'yishsin, men bilan vikont de Morser ham boradi. Boring.

Bertuchcho chiqib ketdi, Pontuazga izvosh naq soat oltida boradi, deb ogohlantirish uchun chopar yuborildi. Pontuazdagi otboqar esa keyingi bekatga odam jo'natdi, unisi yana narigisiga ot choptirdi. Shu tarzda hamma bekatlar xabardor etildi.

Jo'nash oldida graf Gayde bo'lmasiga chiqdi-da, jo'natganini va butun uy uning ixtiyorida qolajagini aytdi.

Alber vaqtida etib keldi. U izvoshga tushganda xafa edi, biroq duldul kabi uchib borayotgan otlarga mahliyo bo'lib, ko'ngli bir oz yumshadi, Alber izvoshda bunchalik tez yurish mumkinligini hech o'ylamagan edi.

– Fransiya yo'llarida hech bemalol yurolmaysan, – dedi Monte-Kristo. – Pochta izvoshlarida soatiga faqat ikki le yurib, toqating toq bo'lib ketadi, oldingi yo'lovchidan ruxsatsiz quvib o'tib ketmaslik haqida bema'ni bir qonun chiqarib qo'yishgan, biror bekorchi yoki tentak hammaning yo'lini to'sib oladi-da, butun yo'l bo'yi ona sutingni og'zingga keltirib yuboradi. Men ana shu azobdan qochib o'z izvoshim, izvoshchim va o'z otlarim bilan safarga chiqaman. To'g'rimi, Ali?

Graf shunday dedi-da, darchadan boshini chiqarib otlarga bir-ikki qichqirib qo'ygan edi, jonivorlarning qanoti yana ham o'sib, izvosh hammani hayratga solib qirollik yo'li bo'ylab elday uchib ketdi. Ali xo'jayinining qiyqirig'ini eshitib, tishining oqini ko'rsatib qo'ydi-da, tizginlarni chayir qo'llarida mahkam siqib, otlarni battar tezlatdi. Sahro farzandi Ali qop-qora yuzi, yonib turgan ko'zlari, chang bosgan qosh-kipriklari bilan samum arvo'higa yoki bo'ron Xudosiga o'xshardi.

– Men hech qachon bunaqa tez yurib bunchalik maza qilmaganman, – dedi Alber. Uning chehrasidagi so'nggi qayg'u izlari, ro'baro'dan urib turgan shamol uchirib ketgandek, birpasda yo'q bo'ldi-ketdi.

– Bunday otlarni qayerdan olasiz? – so‘radi Alber. – Yoki maxsus buyurtma bilan berishadimi sizga?

– Xuddi shunday, buyurtma bilan. Bundan besh yil muqaddam Vengriyada ajoyib bir ayg‘ir topib oldim, u ucharligi bilan mashhur ekan. Men uni sotib oldim, qanchaga olganligim esimda yo‘q, pulni Bertuchcho to‘lagan edi. O‘sha yilning o‘zidayoq u o‘ttiz ikkita toychoq tug‘dirdi, ayg‘irning hamma urug‘-aymog‘ini ikkimiz hali ko‘ramiz, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Hammasi ham quling o‘rgilsin otlar, faqat peshanalarida yulduz tamg‘asi bor, xolos. Buni ham ot zavodidagilar, xuddi podshoh kanizaklar tanlagani singari, bu ayg‘irga biya tanlash uchun yulduz nusxa tamg‘a urib qo‘yisharkan.

– Qoyil! Qoyil!.. Biroq, sizga buncha otning nima kera-gi bor?

– O‘zingiz ko‘rib turibsiz-ku, ot-da safar qilyapman.

– Axir umringiz nuqul safarda o‘tmaydi-ku?

– Otlar zarur bo‘lmay qolgan taqdirda Bertuchcho ularni sotadi, aytishiga qaraganda, u bundan qirq mingga yaqin foyda qilarkan.

– Evropada bu otlarni bunaqa narxga sotib olishga qurbi etadigan badavlat qirol ham topilmaydi-ku.

– Unday bo‘lsa, Bertuchcho ularni sharq hukmdorlaridan biriga sotar, bu hukmdor esa bo‘shab qolgan xazinasini qamchi, darra bilan fuqarolaridan undirib olgan aqcha hisobiga to‘ldirib oladi.

– Bilasizmi graf, menda bir fikr paydo bo‘ldi hozir.

– Xo‘sh, qanaqa fikr ekan?

– Sizdan keyin Evropada Bertuchcho eng boy kishi bo‘lib qolsa kerak.

– Yanglishyapsiz, vikont. Aminmanki, Bertuchchoning cho‘ntagini ag‘darib siyqa chaqa ham topolmaysiz.

– Rostdan-a? – dedi Alber. – Demak, Bertuchchongiz ham g‘alati odam ekan-da? Aziz graf, siz meni mo‘jizalar girdobiga bunaqa g‘arq qilaversangiz, ogoh bo‘lingki, ishonmay qo‘yishim mumkin sizga.

– Alber, menda hech qanday mo‘jiza degan narsaning

o'zi yo'q. Raqamlar va aqlni joyiga qo'yib ish yuritish – mana shu mening mo'jizam. Misol uchun sizga bir jumboq: ish boshqaruvchining qo'li qing'ir, nega shunday?

– Menimcha, bu illat ularning qonida bor, – dedi Alber, – u o'g'irlik qilmasdan turolmaydi.

– Yanglishasiz, uning bola-chaqasi bor, o'zini va bola-chaqasini boqish uchun o'g'irlik qiladi, biroq asosiy sabab shundaki, bir kun kelib xo'jayinim dumimni tugishi mumkin degan xavf bilan kelajagiga zamin hozirlab qo'yish harakatiga tushadi. Bertuchcho esa so'qqabosh, u pullarimni g'arra-sharra sarflay beradi, men bilan umrbod birga bo'lishiga qattiq ishongan.

– Nima sababdan?

– Undan yaxshi ish boshqaruvchi topolmasligimni biladi.

– Siz boshi berk ko'chaga kirib qolgansiz. Ha, taxminlar olamiga.

– Aslo unday emas, bu ishonch olami. Hayot-mamoti mening qo'limda bo'lganlarga menga sodiq xizmatkor bo'la oladi.

– Bertuchchoning hayot-mamoti sizning qo'lingizdami? – so'radi Alber.

– Ha, – sovuqqina javob berdi Monte-Kristo.

Suhbat maromida biri-biridan sovuq bunday savol-javoblar bot-bot bo'lib turdi, hatto suhbatdoshlar endi yuz ko'rmas bo'lib ajralib ketishsa kerak, deb xayol qilish mumkin edi.

Safar mo'ljaldaqi tezlikda davom etdi, sakkiz bekatga taqsimlab qo'yilgan o'ttiz ikki ot qirq sakkiz le masofani sakkiz soatda bosib o'tdi.

Izvosh yarim kechada go'zal bir bog' darvozasi oldiga kelib to'xtadi. Lang ochiq darvoza yonida qorovul g'oz turardi. Uni so'nggi bekatning otboqari ogohlantirib qo'ygan edi.

Soat birdan o'tgandi. Albarni maxsus ajratib qo'yilgan xonaga olib kirishdi. Unda vanna va kechki ovqat taxt

qilib qo'yilgandi. Izvosh ketida kelgan qarol uning xizmatiga tayyor, izvoshchi yonida o'tirib kelgan Batisten graf amru farmoniga muntazir turibdi.

Alber vannada cho'mildi, ovqatlandi va o'zini to'shakka tashladi. Qirg'oqqa shovillab urib turgan to'lqinlar tuni bilan uni allalab chiqdi. Alber o'rnidan turib oynaband eshikni ochdi, qarshisida kichkina ayvon, undan narida poyonsiz dengiz ko'rindi, orqada so'lim bog', shovillagan o'rmon.

Tor buxtada bejirim bir kema qalqib turibdi, uning machtasida Monte-Kristoning gerbi tasviri tushirilgan bayroq hilpirardi; bu gerbda ko'm-ko'k dengiz uzra zarhaldan tog' va but surati solingan. Xaloskorning shijoatlari tufayli zardan ham qimmatbaho narsaga aylangan Golgof tog'i va uning tabarruk qoni bilan yuvilgan sharmandali xochni eslatib turuvchi bu tasvir Monte-Kristo ismining ramzi ham, yoxud bu sirli insonning bo'm-bo'sh o'tmishi qa'riga mahv bo'lgan notinch shaxsiy hayotining belgisi ham bo'lishi mumkin.

Kema atrofida qo'shni qishloqlar baliqchilarining bir nechta qayiqlari xuddi o'z qirolining amr-farmonini kutib turgan qobil-mo'min fuqarolarga o'xshab, bosh egib turishardi.

Graf bir-ikki kun to'xtagan joylaridagidek bu erda ham rohat-farog'atda yashash uchun hamma narsa muhayyo qilib qo'yilgandi. Shu vajdan turmush dastlabki ondanoq tinch, rohat-farog'atda kecha boshladi.

Alber dahlizdan ikkita ov miltig'i topdi. Ov qilish uchun hamma aslaha, o'q-dori taxt etib qo'yilgan ekan. Birinchi qavatdagi xonalardan biri ingliz baliqchilariga zarur asboblar bilan to'ldirib qo'yilgan. Qadimdan mashhur fransuz baliqchilaridan qolgan bu aslahalar dong'i ketgan ingliz baliqchilariga mushtoq bo'lib yotardi.

Butun kun turli xil ov bilan o'tdi, bunda Monte-Kristo o'zining tengi yo'q ovchi ekanligini namoyish qildi. Bog'dan o'nga yaqin qirg'ovul otib oldi, ariqdan undan ham ko'p baliq tutishdi. Tushlikni eshigi dengizga qaratib quril-

gan shiyponda qilishdi, kutubxonada choy ichishdi.

Uchinchi kun oqshomda Alber bu sayr-sayohatning xilma-xil o'yin-kulgilaridan tinkasi qurib, deraza oldidagi kursida uxlab qoldi. Monte-Kristo uchun bu «mashg'ulotlar» xuddi bolalar ermagidek tuyulardi, ayni vaqtda graf o'zining arxitektori bilan uyida tashkil etishni niyat qilgan gulxonaning rejasini tuzayotgan edi. Shu topda tosh yo'lda otlar tuyog'ining tovushi eshitildi, Alber boshini ko'tarib, derazadan ko'chaga qaradi-da, kamerdinerini ko'rib, yuragi orqasiga tortib ketdi. U bu xizmatkorini Monte-Kristoga ortiqcha yuk bo'lmasin deb birga olib kelmagan edi.

– Bu Floranten-ku, – xitob qildi u o'rnidan sapchib turib. – Onamning tobi qochib qoldimikan-a?

Alber yugurib hovliga chiqdi.

Monte-Kristoning ikki ko'zi unda edi, Alber yugurib borishi bilan kamerdiner, zo'rg'a nafas olib, cho'ntagidan muhrlangan bir paket olib, unga uzatdi. Paketda xat va gazeta bor edi.

– Bu xat kimdan? – shoshib so'radi Alber.

– Boshan janoblaridan... – dedi Floranten.

– Sizni Boshan yubordimi?

– Shunday, janob. U meni huzuriga chaqirib, kira puli berdi, pochta otlarini o'zi to'g'riladi. Paketni tez etkazib berasiz, deb ont ichirdi. Butun yo'lni o'n besh soatda bosib keldim.

Alber qo'llari qaltirab paketni ochdi. Xatning birinchi satrlarini o'qishi bilanoq qichqirib yubordi-da, gazetaga yopishdi... Birdan ko'zlari tinib qalqib ketdi, yiqilib tushishiga oz qoldi, Floranten uni suyab qoldi:

– Sho'rlik bola! – dedi eshitar-eshitilmas ovozda Monte-Kristo. – Bobolar gunohi uchinchi va to'rtinchi avlod bolalari gardaniga tushadi, deganlari haq ekan-da.

Shu orada Alber o'ziga kelib, esi hushini yig'di-da, gazetadagi xabarning davomini o'qiy boshladi, so'ng ter bosgan peshanasiga osilib tushgan sochlarini orqaga silkib, xat va gazetani baravar g'ijimladi-da;

– Floranten, otlaringiz Parijga qaytib keta oladimi hozir?  
– deb so‘radi.

– Pochta izvoshining shalag‘i chiqib yotibdi.

– E, Parvardigor! Siz bu yoqqa jo‘nayotganingizda uyda ahvol qanaqa edi?

– Hamma osoyishta edi, biroq men janob Boshannikidan qaytib kelganimda onangiz grafinya xunibiyron bo‘lib o‘tirgan ekan, u meni sizning qachon qaytishingizni bilish uchun chaqirtirgan ekan. Janob Boshanning topshirig‘i bilan sizni chaqirtirib kelgani ketayotganimni aytdim. Dastlab, grafinya, xuddi meni yo‘ldan qaytarmoqchi bo‘lgandek, qo‘lini uzatdi, keyin bir oz o‘ylab turib: «Boring, Floranten, ayting, qaytib kelsin», dedi.

– Xotirjam bo‘l, – dedi Alber, – qaytaman. Ana shunda ablahning holiga maymunlar yig‘laydi!.. Biroq ketishning yo‘lini qilish kerak, – dedi-da, uni kutib turgan Monte-Kristoning xonasiga kirdi.

Alber besh daqiqa ichida batamom o‘zgarib ketgan edi: ovozi xirillab, yuzi bo‘zarib, qovoqlari shishib ketgan, ko‘zlari qip-qizil, mastga o‘xshab oyoqlarini to‘g‘ri bosolmasdi.

– Graf, – dedi u, – mehmondo‘stlik uchun katta rahmat sizga, iloji bo‘lganda yana bir necha kun jon deb qoldim, biroq men Parijga hozirning o‘zidayoq jo‘nashim kerak.

– Biror voqea yuz beribdimi?

– Baxtsizlik yuz beribdi, ruxsat eting, ketay, men uchun juda zarur bir ish ustida boryapti gap. O‘tinaman sizdan, savol emas, menga ot bering!

– Otxonamdagi hamma otlar xizmatingizga tayyor, vikont, istaganingizni tanlab oling, – dedi Monte-Kristo, – biroq bir otda qiynalasiz, yaxshisi izvoshlarimdan birida bora qoling.

– Yo‘q, unda kechikaman, charchashdan qo‘rqmayman, aksincha, charchoq menga ko‘mak beradi.

Alber beixtiyor bir necha qadam tashladi-da, go‘yo o‘q



tekkandek, eshik yonidagi o'rindiqqa gursillab yiqildi.

Monte-Kristo do'stining yiqilganini ko'rmagan edi, u deraza oldida Alini chaqirib turardi:

– Ali, vikont uchun ot tayyorlang! Tez, u shoshilyapti.

Bu so'zlarni eshitib Alber o'ziga keldi-da, tashqariga otildi, graf uning ketidan chiqdi.

– Minnatdorman! – shivirladi Alber otga irg'ib minib. – Floranten, iloji boricha tezroq qayting. Bekatlarda ot olishim uchun biron parol kerakmi?

– Tagingizdagi otni topshirsangiz, darrov boshqasini berishadi.

Alber otga qamchi bosmoqchi bo'ldi-yu, biroq to'xtadi.

– Mening to'satdan jo'nashim sizga g'ayritabiiy tuyulayotgandir, graf? – dedi u. – Gazetaning bir necha satri odamni ne ko'ylarga solishi mumkinligini siz bilmaysiz. Mana, o'qing, – qo'shimcha qildi u gazetani grafga uzatib, – faqat men ketganimdan keyin o'qing, qizarishimni ko'rmay qo'ya qoling.

Shunday dedi-da, otga achchiq bir qamchi bosdi, tulpor o'qday uchib ketdi.

Graf otliq orqasidan achinib qarab qoldi, faqat ko'zdan g'oyib bo'lgandan keyingina gazetaga ko'z yugurtirib chiqdi. Unda quyidagilar yozilgan edi:

*«Bundan uch hafta burun «Haqiqat sadosi» gazetasida yozilgan Yanina vaziri Alining harbiy xizmatida bo'lgan, Yanina qal'asini dushmanga topshirish bilan kifoyalanmay, o'z hukmdorini turklarga sotgan fransuz ofiserining, o'sha vaqtda hurmatli hamkasblarimizning xabar qilishiga qaraganda, asl ismi Fernan edi, biroq o'shandan keyin u o'z nomiga dvoryan unvonini va er-mulki joylashgan qishloqning nomini qo'shib olibdi.*

*Hozir uning nomi graf de Morser bo'lib, perlar Palatasining a'zosidir».*

Shunday qilib, Boshan olijanoblik bilan maxfiy saqla-

moqchi bo'lgan bu sir yana oshkor bo'lib qoldi: Alber Normandiyaga jo'naganidan uch kun o'tgach, ikkinchi bir gazeta yigitchani larzaga soladigan bir necha satr xabarni bosib chiqardi.

## IX. SUD

Ertalab soat sakkizda Alber Boshanning huzuriga otilib kirdi. Uning kelishidan xabardor etib qo'yilgan kamerdiner Morserni xo'jayini xonasiga boshlab kirdi. Boshan hozirgina vannada cho'milib chiqqan edi.

– Xo'sh, nima gap? – so'radi Alber.

– Sho'rlik do'stim, men sizni kutib o'tiribman, – dedi Boshan.

– Mana, huzuringizdaman. Boshan, olijanob zot ekanligingiz to'g'risida gapirib o'tirishning hojati yo'q, shu sababli sirimizii biror kishiga aytgan bo'lishingiz mumkin, degan fikrni xayolimga ham keltirmayman. Meni bu yoqqa chaqirtirganligingizning o'zi do'stligingiz guvohidir. Keling, bo'lmag'ur gaplar bilan vaqtni o'tkazmaylik. Bu zarbani kim urayotganidan xabaringiz bormi?

– Men hozir sizga ba'zi gaplarni aytib beraman.

– Mayli, biroq dastlab siz bu erda qanday voqealar yuz berganini batafsil aytib berishingiz lozim.

Boshan qayg'u-alam va or-nomus ezib qo'ygan Alberga quyidagilarni aytib berdi.

Bu gal xabar bundan uch kun burungi «Haqiqat sado-si»da emas, boshqa bir gazetada, hukumat organida bosilib chiqqan. Boshan nonushta ustida gazeta o'qib o'tirib, xabarga ko'zi tushib qoldi. Darhol izvosh chaqirtirib, nonushtasini chala qoldirdi-da, o'sha gazeta tahririyatiga ot qo'ydi. Boshanning siyosiy maslagi o'sha gazeta muharririning siyosiy qarashlariga tamoman zid bo'lsa-da, ikkalasi qalin do'st edi.

Boshan kirganda muharrir o'z gazetasining bugungi sonidagi qand lavlagi haqida o'zi yozgan bosh maqolani maroq bilan o'qib o'tirgan edi.

– Azim, qo'lingizda o'z gazetangizni ko'rib turibman,  
– dedi Boshan, – demak, nima uchun kelganimni aytib  
o'tirishning hojati bo'lmasa kerak.

– Hali siz ham shakarqamish tarafdorimisiz? – so'radi  
hukumat gazetasining muharriri.

– Yo'q, – javob berdi Boshan, – bu masala bilan me-  
ning ishim yo'q, tamoman boshqa masalada keldim.

– Qanaqa masalada?

– Morser haqidagi xabar xususida.

– E-ha, shunday deng, rostdan ham bu juda qiziq  
voqea, to'g'rimi?

– Shu qadar qiziqki, undan yolg'onning hidi kelib tu-  
ribdi, hali sud nima bilan tugarkin, buni Xudo biladi.

– Aslo unday emas: biz xabar bilan birga uni to'la tas-  
diqlaydigan hamma hujjatlarni ham oldik va aminmizki,  
Morser dami ichiga tushib g'iq etolmay qoladi. Shuni ham  
aytish kerakki, ko'rsatilgan izzat-hurmatga noloyiq  
ablahlarni fosh etib, Vatanga katta xizmat ko'rsataymiz.

Boshan o'zini bir oz o'ng'aysiz sezdi.

– Biroq bu voqealardan sizni kim bu qadar mufassal  
xabardor etdi? – so'radi u. – Mening gazetam bu haqda  
birinchi marta xabar bergan edi, biroq dalillar bo'lmagach,  
jimib qolgandi. Yaxshi bilasizki, Morser Fransiyaning peri,  
biz esa oppozisiyani qo'llab-quvvatlaymiz, shu sababdan  
Morserning fosh etilishidan ko'proq biz manfaatdormiz.

– Biz dovrug' ketidan quvganimiz yo'q, o'zi to'satdan  
kelib qoldi. Kecha Yaninadan bir odam Morserning qil-  
mishlarini ochib tashlaydigan hujjatlar olib keldi. Avval  
ayblovchi materialni bosishga jur'at etmadik, biroq u  
maqolani biz gazetada bosib chiqarmagan taqdirda  
boshqa bir gazeta bosib chiqaradi, dedi. Boshan, tahririyat  
uchun qanaqa xabarlar ko'proq ahamiyatli ekanligini  
o'zingiz yaxshi bilasiz, biz, albatta, buni qo'ldan  
bermaslikni istardik. Mana, endilikda xabar bosilib chiqdi,  
zarba berildi, uning qaqshatqich zarbasidan butun Evropa  
larzaga tushadi, – dedi muharrir.

Boshan boshini egib jim bo'lishdan boshqa iloji qol-

maganini angladi-da, xafa bo'lib chiqdi va darhol Alberga chopar yuborishga qaror qildi.

Chopar ketgandan so'ng bo'lgan voqealarni u Alberga yozolmagan edi, albatta. O'sha kunning o'zidayoq perlar Palatasida zo'r g'ala-g'ovur boshlangan va bu barcha Palata a'zolarining fikru yodini band etgan edi. Majlisga a'zolarining hammasi belgilangan vaqtdan ertaroq kelib yuqori palataning ko'zga ko'ringan a'zolaridan biriga jamoatchilik fikrini tortishga sabab bo'lgan bu qabiz voqea to'g'risida o'zaro gap sotishardi.

Ba'zilar gazeta xabarini asta o'qib, mulohaza qilar, boshqalar esa xabardagi faktlarni tasdiqlaydigan ba'zi narsalarni esga olishardi. Graf de Morserni bu erdagi hamkasblari uncha yoqtirishmasdi. Hamma mansabparastlar singari, Morser ham o'z nufuzini kibr bilan quruq manmanlik bilan saqlashga urinardi. Haqiqiy zodagonlar uni mazax qilib kulishardi, chunki u o'zidan oqil, bilimdon zotlarni mensimasdi. Mashhur, vijdoni pok harbiylar zimdan undan nafratlanishardi. Graf ana shunday halokat jari yoqasiga kelib qolgandi, u Xudoning g'azabiga uchragandi. Hamma uni duoyibad qilishga shay edi.

Faqat graf de Morserning o'zi bu gaplardan bexabar edi. Uni sharmanda etgan xabar bosilib chiqqan gazetani u olmasdi, ertalab butun vaqtini xat yozish bilan o'tkazdi, so'ng yangi otini sovutib yurdi.

Ana shu holatda u odatdagidek gerdayib keldi-da, izvoshidan tushdi, qovog'idan qor yog'ib atrofga razm solib chiqdi, yo'lakdan kekkayib o'tib zalga kirdi. Hamkasblarining salom-aligidan sovuq lavozimatni sezmedi ham.

Morser kirganda majlis boshlangan edi.

Yuqorida aytganimizdek, hech gapdan bexabar graf har safargidek g'o'dayib kirib keldi, uning basharasi va yurishi o'z sha'ni-shuhratini o'lgudek muhofaza qiluvchi majlis ahliga ilgarigidan ham xunuk ko'rindi, hamma buni beadablikka, ba'zilar haqoratga, ayrimlari, mensimaslikka yo'ydi.

Butun Palata muzokara boshlashga mushtoq bo'lib tu-

rardi.

Hammaning qo'lida Morserni fosh etgan gazeta. Biroq bunday hollarda hech kim birinchi bo'lib so'zga chiqishga botina olmaydi, mana, hozir xam shunday bo'ldi. Oxiri eng hurmatli perlardan biri, graf de Morserning oshkor dushmani minbarga ko'tarildi.

3alga dahshatli sukunat cho'kdi. Odatda uning nutqiga uncha e'tibor berishmasdi, lekin hozir hammaning diqqat-e'tibori unda edi. Faqat Morser buning sababini payqamasdi.

Notiq o'z nutqi palata hayot-mamotiga daxldor muhim bir masala ustida ekanini aytib, Palata a'zolaridan iloji boricha diqqat bilan tinglashlarini iltimos qildi, graf bu gaplarni nazar-pisand qilmay o'tiraverdi. ... Ammo Yanina va polkovnik Fernan haqida gap ochilishi bilanoq graf de Morserning rangi dokadek oqarib, vujudi titrab ketdi, hammaning ko'zi unga qadalgandi.

Yurakdagi jarohat ko'zga ko'rinmaydi, lekin u tinimsiz azob beradi, hammasidan yomoni shundaki, uni hech qanday muolaja bilan davolab bo'lmaydi.

3alda hukm surayotgan dahshatli sukunat ostida notiq gazetadagi xabarni baland ovoz bilan o'qib berdi. 3alda bir zum g'ovur-g'uvur ko'tarildi-da, ayblovchi yana gap boshlashi bilan to'xtadi. Notiq so'zni gardaniga og'ir vazifa olganidan boshladi. «Bu erda gap, – dedi u, – graf de Morserning shon-shuhrati, butun Palataning shon-shuhrati ustida boryapti, ana shularni himoya qilish niyatida muzokarani boshladim, bu muzokaralarda shaxsiy masalalarga, demak, qaltis masalalarga to'xtab o'tish lozim bo'ldi». So'zining oxirida u maxsus tekshirish tashkil etishni va tuhmatni tomiri bilan qirqib tashlab, graf de Morserning olijanob nomini tez tiklash uchun bu ishni mumkin qadar tezroq o'tkazishni, haqorat qilganlardan qasos olishni talab etdi.

Chaqmoqday kelib boshiga tushgan bu falokat Morserni qattiq ezgandi, u tinib ketayotgan ko'zlarini zaldagilarga tikib, zo'rg'a uch-to'rt so'z ayta oldi. Graf-

ning bu holini ko'rib turganlardan ba'zilarning unga rahmi keldi, olijanob kishilar hatto og'ir baxtsizlikka uchragan o'z dushmaniga ham ichi achiydi.

Rais masalani ovozga qo'ydi, natijada taftish o'tkazishga qaror qilindi.

Grafdan, o'zini himoya qilishga tayyorlanish uchun qancha vaqt kerak, deb so'rashdi.

Morser birinchi zarbadan ancha o'zini tutib, es-hushini yig'ib olgandi.

– Janob perlar, – javob qildi u, – qabih niyatlarini niqoblagan dushmanlarning hammasini qaytarish zarur ekan, buni uzoqqa cho'zib o'tirishning nima hojati bor? Boshimga chaqmoqday kelib urilgan zarbaga men darhol javob bermog'im shart! Hamma safdoshlarim qatoridan o'rin olishga loyiq ekanligimni so'zda emas, amalda isbotlashga tayyorman.

Grafning bu so'zlari zaldagilarni jonlantirib yubordi.

– Shuning uchun ham, – davom ettirdi so'zini Morser, – taftish mumkin qadar tezroq o'tkazilishini iltimos qilaman. Palataga zarur hamma hujjatlarni keltirib ko'rsataman.

– Qaysi kun siz uchun qulay? – so'radi rais.

– Shu bugundan boshlab ixtiyorim palataning qo'lidada, – dedi graf.

Rais qo'ng'iroq chaldi.

– Taftishning shu bugunoq boshlanishiga Palata qarshi emasmi?

– Yo'q, – dedi butun majlis ahli...

Morser topshiradigan hujjatlarni tekshirish uchun o'n ikki kishidan iborat komissiya tuzildi. Komissiyaning birinchi majlisini kechqurun soat sakkizda Palata binosida o'tkazishga qaror qilindi. Bordi-yu, komissiya bir necha majlis qilishi kerak bo'lib qolsa, hammasi xuddi shu vaqtda, ana shu joyda o'tkaziladigan bo'ldi.

Qaror qabul qilinishi bilan Morser javob so'radi, o'ziga xos quvlik va makkorlik bilan allaqachonlar tayyorlab qo'ygan (chunki u bunday halokat yuz berishi mumkinli-

gini hech unutmagan edi) hujjatlarni yig'ishi kerak edi.

Boshan Alberga ana shularning hammasini aytib berdi.

Alber Boshanning gaplarini goh g'azab bilan, goh vijdon azobida titrab-qaqshab tingladi; u, bu ishning baxayr bo'lishidan umidini uzgan edi. Boshan Yaninaga borib kelgandan so'ng otasi aybdor ekanligini bilgan va u qanday qilib o'zini oqlab olarkan, deb hayron bo'lardi.

– Keyin nima bo'ldi? – so'radi u jimib qolgan Boshandan.

– Keyinmi? – takrorladi Boshan.

– Ha.

– Bu yog'ini aytish menga og'ir, do'stim, judayam og'ir. Keyin nima bo'lganini bilishingiz shartmi?

– Mutlaqo shart. Boshqa birovdan eshitgandan ko'ra, sizdan eshitganim yaxshi-da.

– Unday bo'lsa, Alber, – dedi Boshan, – sabr-toqat va bardosh bilan quloq soling, har vaqtdagidan ham bu sizga hozir kerak.

Alber, o'zini o'limdan himoya qilayotib, qalqonning mustahkamligini tekshirayotgan va shamshirini egib ko'rayotgan kishi singari, peshanasini qo'li bilan silab qo'ydi.

Alber qattiq hayajon-la yonib turgan edi; buni u g'ayratga yo'yib o'zini kuchli his etdi shu on.

– Gapiring, – dedi u.

– Kech kirdi, – davom etdi Boshan, – butun Palata ahli nafasini ichiga yutib, kutardi. Ko'plar, otangiz zalda paydo bo'lishi bilan uning bo'yniga ortilgan tavqi la'nat o'z-o'zidan chilparchin bo'lib ketadi, derdi, boshqa birovlar otangizni majlisga kelmaydi, deb boshqalarni ishontirishga urinardi. Hatto, Bryusselga jo'nab ketganini o'zim ko'rdim, deganlar ham bo'ldi; ba'zilar hatto, u pasportini to'g'rilatib qo'ygani rostmi, deb polisiyadan borib so'rabdi.

Sizga ochig'ini aytsam, komissiya a'zolaridan bir yosh perni zalga meni kiritib qo'yishga zo'rg'a ko'ndirdim. U soat ettida kelib meni olib ketdi-da, zalga hech kim

kelmasdan burun bir choparga topshirdi, u esa meni lojalardan biriga kiritib, ustimdan qulflab ko'ydi. Men ustun orqasidagi qop-qorong'i pana joyga biqinib oldim. 3imdan hamma gaplarni eshitaman, degan umid bilan qulog'imni ding qilib o'tiraverdim.

Soat sakkizda hamma yig'ildi.

Soat oxirgi zang urganda janob de Morser ham kirib keldi. Uning qo'lida allaqanday qog'ozlar bor edi, u juda xotirjam ko'rinardi. Odatdagidek bu gal u o'zini juda sipo tutar, usti boshi boshqacha, kekxa harbiylarga o'xshab kamzulining hamma tugmalari solig'liq edi.

Uning shu zaylda kirib kelishidan zaldagilar juda xursand bo'lishdi: komissiya a'zolari ham unga nisbatan yomon niyatda emasdi, ayrimlari graf oldiga borib, qo'l berib salom-alik qilishdi.

Bular hammasi Alberning diqqatini oshirib, yuragi yorilgudek bo'ldi, biroq shu bilan birga otasining boshiga og'ir kulfat tushgan paytda unga izzat-hurmat izhor etayotgan o'sha zotlarni bir-bir quchoqlab, qutlagisi ham keldi.

Shu payt chopar kirib, raisga bir xat uzatdi. Xatni ocha-yotib: «So'z sizga beriladi, janob de Morser», – dedi rais.

– Graf o'zini himoya qilish nutqini boshladi, – davom ettirdi hikoyasini Boshan. – Nutq juda ustalik va so'zamonlik bilan tuzilgan edi. Yanina vaziri oxirgi daqiqagacha unga hamma ishni ishonib topshirib qo'rganini va hatto hayot-mamotini hal etadigan muhim masalani sultonning o'zi bilan muzokara olib borishni ham unga topshirganini tasdiqlaydigan hujjat ko'rsatdi. Ali posho davlat belgisi sifatida muhr o'rniga bosadigan uzukni ham istagan vaqtda uning huzuriga, hatto haramda bo'lsa ham, kirib yurishi uchun grafga berib qo'rgan ekan. Morser komissiyaga uni ham ko'rsatdi. Baxtga qarshi, dedi u, otangiz, muzokaralar yaxshi natija bermadi, hukmdorimni himoya qilish uchun qaytib kelganimda uni qatl etgan ekanlar. O'limi oldida u sevimli rafiqasini va qizini menga topshirib ketibdi. Uning menga ishonchi naqadar zo'r



ekanligi shundanam ko'rinib turibdi.

Alber bu so'zlar aytilganda seskanib tushdi, chunki Boshan gapirayotganda Gaydening hikoyasi uning ko'z o'ngidan o'ta boshladi va u shu voqea haqida, ana shu uzuk haqida nozanin grek qizining hikoyasi va u qanday sotilgani, qullikka mahkum etilgani haqida aytganlarini birma-bir esga olayotgan edi.

– Grafning so'zi zaldagilarga qanday ta'sir etdi? – so'radi tashvishlanib Alber.

– Haqiqatan ham uning so'zlari mening ham, barcha komissiya a'zolarining ham ko'nglini eritdi, – dedi Boshan.

– Shu orada rais hozirgina keltirib berilgan xatni beparvolik bilan ko'zdan kechira boshlagan edi. Biroq xatning birinchi satriyoq raisning diqqatini tortdi, xatni u ikki qayta o'qib chiqdi-da, graf de Morserga tik qarab so'radi:

«Graf, siz hozirgina bizga Yanina vaziri o'z rafiqasini va qizini menga topshirib ketibdi, dedingizmi?»

«Ha, janob, – javob berdi Morser, – biroq o'shanda ham ishim har galgiday o'ngidan kelmadi. Qaytib kelganimda Vasiliki va uning qizi Gayde g'oyib bo'lgan edi.»

«Siz ularni tanirmidingiz?»

«Vazirga juda yaqinligim va uning cheksiz ishonchini qozonganligimdan ularni bir necha marta ko'rganman.»

«Ularning hol-ahvoli ne kechganidan xabardormisiz?»

«Ha, janob, xabardorman. Ular boshlariga tushgan musibatlarga va ehtimol, yo'qchilikka ham bardosh berolmabdilar, deb eshitdim. Ortiqcha davlatim yo'q edi, hayotim ham hamisha xavf ostida bo'ldi, shu vajdan, ming afsuski, ularni axtarib topishning ilojini qilolmadim.»

Rais xo'mrayib qo'ydi.

«Janoblar, – dedi u, – graf de Morserning javoblarini eshitgandirsiz? Graf, bu so'zlaringizni tasdiqlaydigan biror guvoh ko'rsata olasizmi?»

«Afsuski, ko'rsata olmayman, – dedi javoban graf, – vazir atrofida hozir bo'lganlarning hammasi, saroyda men bilan uchrashganlarning barchasi yo o'lgan, yoki har tomonga

badarg'a qilingan. Bilishimcha, bu urush dahshatlarini vatan-doshlarimdan faqat birgina men ko'rdim. Menda Ali-Tebelinning xati bor, sizga ko'rsataman uni, menda vazir irodasining ramzi – uzuk bor, mana, bulardan ishonchli-roq yana bir dalil shuki, noma'lum shaxsning hujumidan so'ng, mening haqqoniy so'zlarimni rad qila oladigan bi-rorta dalil keltirilgani yo'q, pirovardida, zarracha dog' teg-magan harbiy mansabimning o'ziyam haq ekanimning gu-vohidir».

Majlisdagilar shivirlashib grafning so'zlarini ma'qullash-di, Alber, agar biror voqea yuz bermaganida, otangizning shon-shuhratiga putur etmasdi.

Faqat ovozga qo'yish qolgan edi, biroq rais so'z oldi.

«Janoblar, – dedi u, – graf, siz ham, eng muhim guvoh-ning so'zini eshitishni juda istarsiz, deb o'ylayman. Graf-ning so'zlaridan so'ng aminmizki, guvoh hamkasbimiz-ning mutlaqo begunoh ekanligini tasdiqlab berar, mana, men hozir undan xat oldim, xohlasangiz o'qib beray, yoki vaqtni ketkazmay o'qimay qo'ya qolaylikmi?»

Graf de Morserning rangida qon qolmagan edi, u qo'li-dagi qog'ozlarni g'ijimladi.

Komissiya xatni eshitishga qaror qildi, graf og'ir o'yga cho'mdi, indamadi.

Shunda rais quyidagi xatni o'qib berdi:

*«Janob rais!*

*Men general-leytenant graf de Morserning Epir va Makedoniyadagi ishlarini taftish qilish komissiyasiga juda aniq ma'lumotlar berishim mumkin».*

Rais bir daqiqa jimib qoldi.

Graf de Morserning rangi bo'zarib ketdi, rais tinglov-chilarga savolomuz qaradi.

«Davomini o'qing!» dedi to'rt tomondan komissiya a'zo-lari.

Rais davom etdi:

*«Ali posho mening oldimda o'ldi, uning so'nggi onlari hali ham esimda, Vasiliki va Gaydening taqdiridan ham xabarim bor. Marhamat qilib tinglasalar, hammasini komissiyaga aytib beraman. Sizga bu xatni topshirganlarida men Palata dahlizida kutib turaman».*

«Guvoh yoki, to'g'rirog'i, dushman kim ekan?» – so'radi graf ovozi o'zgarib.

«Hozir bilamiz, – javob berdi rais. – Komissiya guvohning so'zini tinglashni istaydimi?»

«Ha, ha, eshitaylik», – dedi hamma bir ovozdan.

Choparni chaqirishdi.

«Dahlizda biror kishi kutib turibdimi?» – so'radi rais.

«Ha, janob rais, kutib turibdi».

«Kim?»

«Bir ayol kishi, yonida malayi ham bor».

Hamma bir-biriga qaradi.

«Chaqiring bu erga o'sha ayolni», – dedi rais.

Besh daqiqalardan so'ng chopar qaytib kirdi, hamma-ning ko'zi eshikda; men ham o'sha yoqqa qaradim, – dedi Boshan.

Chopar ketidan boshdan-oyoq chodraga o'ranib olgan ayol kirib keldi. Barkamol qaddi-basti va atir hididan chodra ichidagi ayol yosh va haddan tashqari nozanin ekanligi sezilib turardi.

Rais notanish ayoldan chodrasini bir oz ko'tarishni iltimos qildi, chodra tagidan grek libosidagi sohibjamol yosh qiz ko'rindi.

– Bu o'sha! – dedi Alber.

– Kim u?

– Gayde.

– Kim aytdi sizga?

– Payqab turibman, axir. Boshan, davom eting, iltimos qilaman. Mana ko'rib turibsiz: men g'ing demay, jon qulog'im bilan tinglayapman, drama tuguni echilay deb qolgan bo'lsa-da, o'zimni tutib turibman.

– Janob de Morser qizni ko'rib lol bo'lib qoldi, o'zini

yo'qotib qo'yayozdi, – davom etdi Boshan. – Bu nafis lablardan chiqqan har bir so'z graf uchun yo hayot, yo mamot edi. Boshqalar bu sohibjamolni ko'rib ag'rayib qolib, Morserning taqdirini tamoman unutishdi.

Rais qizni o'tirishga taklif qildi, biroq u yo'q degandek boshini chayqadi. Graf oyoqda turolmay, allaqachon kursiga cho'kkan edi.

«Beka, – dedi rais, – Yaninada yuz bergan voqea haqida ma'lumot beraman, o'sha voqealarning tirik guvohiman, deb xat yozganmidingiz?»

«Xuddi shunday», – dedi javoban sharqliklarga xos yoqimli ovoz bilan notanish ayol g'amzali qilib.

«Ammo, – dedi rais, – siz u vaqtda yosh edingiz-ku».

«To'rt yoshda edim, lekin bu voqea menga ahamiyati katta bo'lganligi uchun hech narsani unutganim yo'q, hamma ikir-chikirlarigacha ko'z oldimda turibdi».

«Siz uchun bu voqeaning nima ahamiyati bor? Nima uchun bu ko'ngilsiz hodisa sizga bunchalik qattiq ta'sir qilgan?»

«Hamma gap otamning hayot-mamoti ustida borardi, – javob qildi qiz. – Men Yanina podshohi Ali-Tebelin va uning sevimli rafiqasi Vasilikining qizi Gaydeman».

Qizning kamtarin va shu bilan birga mag'rur chehrasiga qon yugurdi, ko'zlari yondi, so'zlarni u chertib-chertib gapirdi, bu holat majlis ahlini mahliyo qilib qo'ygandi.

Graf de Morser xuddi ro'parasida Azroilni ko'rib qolgandek qizga baqrayib qarab qoldi.

«Xonim, – dedi rais ehtimol bilan qizga egilib, – sizga yana bir savol berishga ruxsat eting, tag'in mendan shu bhalanishyapti deb o'ylamang. Bergan ma'lumotlaringizni isbotlay olasizmi?»

«Ha, isbotlay olaman, – javob berdi Gayde, chodra ichidan xushbo'y xaltachani chiqarib ko'rsatarkan, – mana, otam yozgan va uning harbiy ishlar noziri qo'l qo'ygan tug'ilganlik to'g'risidagi shahodatnomam, mana bu cho'qintirilganim haqidagi guvohnoma (otam, mening onam dinida tarbiyalanishimga rozilik bergan ekan), bu

hujjatga Makedoniya va Epir shayxi-xalifasining muhri bosilgan. Pirovardida, mana tag'in bir hujjat: (aftidan, bunisi eng muhimi) bu meni va onamni arman savdogari Al-Kobbirga fransuz ofiseri tomonidan sotilganimiz to'g'risidagi ma'lumot; fransuz ofiseri Porta bilan til biriktirib, o'z hukmdorining xotini va qizini o'lja qilib olgan-da, to'rt yuz ming frankka sotgan ekan».

Bu dahshatli ayblarni eshitgan grafning rangi o'chib, yuzi ko'karib ketdi, ko'ziga qon to'ldi, majlis ahli esa og'ir sukut ostida Gaydening so'zlarini tinglardi.

Gayde o'ziga xos mo'mintoylik bilan, ammo hammani dahshatga solib o'rnidan qo'zg'aldi-da, ona bilan qizni sotish to'g'risida arab tilida yozilgan hujjatni raisga uzatdi.

Komissiyaga keltiriladigan ayrim hujjatlar arab, yangi lotin yoki turk tilida tuzilgan bo'lishi mumkin deb, Palataning tarjimonlaridan biri majlisga taklif etilgan edi. O'shani chaqirtirishdi.

Buyuk Misr yurishi vaqtida arab tilini bilib olgan nufuzli perlardan biri – tarjimon hujjatni baland ovoz bilan o'qiyotganida xatdan ko'zini uzmay turdi:

*«Men – qulfurush, ulug' sulton haramxonasining dal-loli Al-Kobbir, haqiqatan ham fransuz to'rasi graf Monte-Kristoga o'n bir yoshli xristian cho'ri qizni – Yanina shohi marhum Ali-Tebelin va uning sevimli rafiqasi Vasilikining Gayde nomli qizini ikki yuz ming hamyon zumradga sotdim. Bu qizni menga bundan etti yil muqaddam, onasini ham qo'shib (onasi Konstantipolga borganda vafot etdi) vazir Ali-Tebelinning harbiy xizmatchisi Fernan Mondego degan fransuz polkovnigi sotgan edi.*

*Men qizni va onasini oliy hazrat sultonning amr-far-moni bilan uning hisobiga bir ming hamyon pulga sotib olgandim.*

*Ushbu shahodatnoma ulug' sulton ruxsati bilan hijriy 1247 yili Konstantinopolda yozildi.*

*Imzo: Al-Kobbir.*

*Ushbu shahodatnoma haqiqiylikini, shubhasizligi va*

*asl nusxaligini oliy hazrat sultonning muhri bilan sotuvchi tasdiqlab beradi».*

Chindanam savdogarning imzosi yonida shohning muhri bosilgan edi.

Farmonnoma o'qilgandan keyin zalga qabriston sukunati cho'kdi, grafning vujudidagi jamiki narsa uning ko'zlariga to'plangan edi, bu qonga to'lgan ko'zlar uning ixtiyoridan tashqari Gaydega qadalib qolgan edi.

«Xonim, – dedi rais, – menga ma'lum bo'lsa-da, siz bilan Parijda istiqomat qilib turgan graf Monte-Kristodan ba'zi ma'lumotlar berishni so'rasak bo'ladimi?»

«Janob, graf Monte-Kristo mening ikkinchi otam, u bundan uch kun muqaddam Normandiyaga jo'nab ketdi».

«Unday bo'lsa, xonim, – dedi rais, – Palatani mamnun etgan bu ma'lumotni bizga aytish to'g'risida sizga kim maslahat berdi? Tug'ilishingizni va boshingizdan kechirgan baxtsizlikni hisobga olganda, bu xatti-harakatingiz tabiiy bir hol».

«Janob, – dedi Gayde, – o'lganlarga bo'lgan hurmatim va tortgan kulfatlarim meni shunday qilishga majbur etdi. Kristian mazhabida bo'lsam-da, bu gunohimni Xudoyim kechirar deb, hamisha shavkatli otam uchun qasos olishni orzu qildim. Fransuz tuprog'iga qadam qo'ygan kunimdan e'tiboran, sotqin Parijda yashayotganligini eshitganimdan boshlab yuragimga g'ulg'ula tushdi. Olijanob madadkorimning uyida o'z xayollarim bilan yolg'iz yashayman, soya-salqin, tinchlikni yoqtiraman. Graf Monte-Kristo menga otamday g'amxo'r odam, olamda nima gap bo'lsa hammasidan xabardorman, barcha gazetalarni o'qiyman. Barcha jurnallarni olaman, yangi musiqa yaratilganligini bilaman. Shu zaylda boshqalar hayotini kuzatib borib, bugun ertalab perlar Palatasida nima bo'lganligini va kechqurun nima bo'lajagini bilib oldim... Shundan keyin xat yozdim».

«Bundan chiqdi, graf Monte-Kristo sizning bu ishingizdan bexabar ekan-da?» – so'radi rais.

«Uning hech narsadan xabari yo'q, bilib qolsa, bu ishından xafa bo'lishi mumkin, degan xavotirdaman. Shunday bo'lsa-da, bugungi kunni hayotimning eng qutlug' oni deb hisoblayman, – dedi qiz charaqlab turgan ko'zlarini osmonga tikib, – bugun otam uchun o'ch oldim!»

Graf qiz hikoyasining boshidan oxirigacha churq etmadi; ayolning so'zlari hayotini barbod etib, qon-qaqshatayotgan hamkasbining holiga zaldagilar achinib o'tirishardi. Uning boshiga zo'r kulfat tushgan edi.

«Janob de Morser, – dedi rais, – bu ayolning haqiqatan ham Yanina shohi Ali-Tebelinning qizi ekanligini tan olasizmi?»

«Yo'q, – dedi graf arang o'rnidan turib, – bularning hammasi dushmanlarimning ig'vosi, xolos».

Kimnidir kutib turgandek eshikdan ko'z uzmay turgan Gayde birdan orqasiga o'girildi-da, grafni ko'rib dahshatdan qichqirib yubordi.

«Sen meni tanimayapsanmi-a? – dedi hayajonda Gayde, – ammo men seni taniyapman. Sen olijanob otamning qo'shinlariga mashq bergan o'sha fransuz ofiseri Fernan Mondegosan. Yanina qal'asini sotgan o'sha xoin sen bo'lasan! Valine'mat hukmdoringning hayot-mamoti haqida sulton bilan kelishib kelmoq uchun Konstantinopolga yuborishganda u erdan afv etildi, deb qalbaki farmon keltirgan muttaham ham sensan! Ana shu soxta farmon bilan poshoni aldab, uzugini olgan va o'tni qo'riqlab turgan Salimni o'zingga itoat etishga majbur etgan ham sensan! Salimni ham sen qatl qilding! Meni va onamni savdogar Al-Kobbirga sen sotding! Qotil! Qotil!! Qotil!!! Hammalaringiz uning manglayiga qaranglar! Uning manglayida hamon hukmdorning qoni turibdi».

Bu so'zlar hayajonda qattiq ishonch-la aytilganidan hammaning nazari grafning peshanasiga qadaldi; uning o'zi ham rostdan Alining qoni peshanasiga tekkandek, qo'li bilan uni siladi.

«Demak, siz graf de Morser o'sha ofiser Fernan Mande-

goning o'zi ekanligiga aminmisiz?»

«Nahotki, men buni tanimasam! – xitob qildi Gayde. – Onam menga shunday degan edi: «Sen erkin eding, sening mehribon otang bor edi, sen qirolicha bo'lishing mumkin edi; mana bu odamni yaxshi tanib ol, seni qullikka mahkum etgan shu odam bo'ladi, otangning boshini tanidan shu odam judo qildi, bizni sotgan ham mana shu odam, xoinlik qilgan ham mana shu maxluq! Uning o'ng qo'lga qara: shu qo'lida katta chandiq bor, vaqti kelib uning basharasini esingdan chiqarib qo'ygudek bo'lsang, mana shu qo'lidan tanib olasan, bu o'sha savdogar Al-Kobbirning pullarini jaraqatib sanab olgan qo'l bo'ladi!» Shundan keyin, nahotki men bu qotilni tanimasam! Endi so'rang-chi, u meni tanimayman deyishga jur'at qila olarmikin?»

Qizning har bir so'zi grafning ko'ksiga xanjardek sanchilib, uning sillasini quritdi. Gayde so'nggi so'zlarini aytganda u chindan ham jarohatlangan qo'lini ko'kragiga bosib, yashirib oldi-da, o'zini tutolmay kursiga yiqilib tushdi.

3alda hozir bo'lganlar bu gaplarni eshitib, dahshatli manzarani ko'rib, hang-mang bo'lib qoldi.

«Graf de Morser, – dedi rais, – o'zingizni bosing, savol-larga javob bering, Palata oliy sudi – Tangri sudi demakdir, bu odil sud sizga kurash yo'lini ochib bermay turib sizni dushmanlaringiz changaliga topshirib qo'ymaydi. Balki qayta tergov bo'lishini istarsiz? Ikki Palata a'zosini Yaninaga yuboraymi? Shunga nima deysiz?»

Graf hech narsa demadi.

Buni ko'rgan komissiya a'zolari shubha aralash bir-birlari bilan ko'z urishtirib qo'yishdi. Hamma shu topgacha generalni qattiqqo'l, cho'rtkesar, matonatli odam deb bilardi. Hozir esa u o'zini himoya qilishga ham majoli qolmagandi. Biroq o'tirganlar bu sukunat ketidan sal o'tmay momaqaldiroq gumburlashini kutishardi.

«Qani gapiring, – dedi rais, – nima deysiz?»

«Hech nima», – javob qildi bo'g'iq ovozda graf o'rni-



dan qo'zg'alarkan.

«Demak, Ali-Tebelinning qizi haq gapni aytibdi-da? – so'radi rais. – Aybdor rad etolmaydigan dahshatli guvoh shu qiz ekan-da? Gardaningizga qo'yilgan ayblarning hammasi to'g'ri ekan-da?»

Graf qayg'u to'la ko'zlari bilan atrofdagilarga shunday bir nazar tashladiki, bunga har qanday yirtqichning rahmi kelishi mumkin edi, biroq bu iltijoli ko'zlar sudyalarining ko'nglini yumshatolmadi. Graf boshini yuqori ko'tarib, shiftga tikildi, biroq, tag'in shift yorilib sharmandali aftimni bundan ham dahshatli sudga – Tangri sudiga ko'rsatib qo'ymasini, degan o'y bilan darhol ko'zlarini pastga oldi.

Keyin u bir silkindi-da, tomog'ini bo'g'ib turgan yoqasini ikki qo'li bilan shart-shurt yirtib, zaldan telbalarcha chiqib ketdi; odimlarning aks sadosi zalda vahimali jaranglardir. Birpasdan keyin o'qday uchib o'tgan izvoshning gumburlagan ovozi Florensiya koshonasi ustunlarini titratib yubordi.

«Janoblar, – dedi rais zalga jimlik cho'kkach, – graf de Morser vafosizlikda, xoinlikda, vijdotsizlikda ayblanadi. To'g'rimi?»

«To'g'ri!» – deyishdi bir ovozdan taftish komissiyasining a'zolari.

Gayde majlisning oxirigacha turdi, grafga chiqarilgan hukmni eshitdi, shu topda uning yuzida na quvonch, na achinish alomatidan asar ham yo'q edi.

So'ngra u chodrani yuziga tushirdi-da, komissiya a'zolariga ulug'vor ta'zim bajo keltirib, malikalarga xos xirom bilan chiqib ketdi.

## **X. DA'VAT**

– Men zaldagi qorong'ilik va sukunatdan foydalanib, bildirmay chiqdim, – dedi hikoyasini davom ettirib Boshan. – Lojani ochib bergan o'sha chopar eshik oldida kutib turgan ekan. U meni dahlizdan ergashtirib, Vojirar

ko'chasiga chiqadigan kichkina eshikka olib bordi. Zaldan jigaram xun bo'lib, shu bilan birga qoyil qolib chiqdim. Keyingisi uchun kechiring meni, Alber. Siz uchun ko'p qayg'urdim, ammo qizning otasi uchun bu qadar mardona qasos olganiga qoyil qoldim. Alber, ont ichib aytamanki, buni fosh etayotgan kim bo'lishidan qat'i nazar, (ehtimol, dushmanning ishidir) taqdiri ilohiyning qurolidan otilayotgan o'q bu.

Bu paytda Alber boshini changallab o'tirgan edi. U boshini arang ko'tardi: nomusdan yuzi qip-qizargan, ko'zlari jiqqa yosh edi. Boshanning qo'lidan mahkam tutib:

– Do'stim, – dedi u, – men adoyi tamom bo'ldim, endilikda mening qiladigan bittagina ishim qoldi: sizning kelingizdan taqdiri ilohiyning zarbasi deb o'tirmay, menga nafrat o'tini sochib, payimga tushgan odamni topmog'im kerak, topsam men uni o'ldiraman yoki u meni o'ldiradi. Boshan, mabodo qalbingizdagi do'stlik iplarini nafrat uzib tashlamagan bo'lsa, bu ishda yana sizning yordamingizga muhtojman.

– Do'stim, sizdan nega nafratlanaman? Otangizning bu qilmishlarida siz zarracha aybdor emassiz-ku? Xudoga shukrki, bema'ni an'analarga mukka tushib, otalar gunohiga o'g'illar javob berishga majbur bo'ladigan vaqtlar o'tib ketdi. Alber, o'tmish hayotingizni mundoq bir ko'z oldingizga keltiring, u qanday pokiza, ilk bahor tongi kabi yorqin, musaffo edi-ya! Alber, inoning, siz yoshsiz, boysiz, keting Fransiyadan! Hayot qaynab, didlar o'zgarib turadigan bu ulkan Vaviloniyada hamma narsalar hash-pash deguncha unutilib yuboriladi. Siz uch yildan so'ng biror rus jononiga uylanib qaytib kelasiz va o'shanda hech kim kechagi voqeani, ayniqsa bundan o'n yil muqaddam yuz bergan o'sha mudhish ishlarni xayoliga ham keltirmaydi.

– Rahmat, azizim Boshan, maslahatingiz uchun rahmat, biroq bunday qila olmayman. Men oxirgi istagim nima ekanligini sizga aytdim, zarur bo'lsa «istak» so'zini «iroda» so'zi bilan almashtirishim mumkin. Do'stim, axir

bu voqea menga nihoyatda daxldor, bunga sizday befarq qarolmayman. Siz, bu voqealar, bu falokatlar Xudoning irodasi, uning qahr-g'azabidan deb o'ylayapsiz, menimcha, unda bir makkorning, qabih insonning qo'li bor, taqdiri ilohiyning bunga aloqasi yo'q, hamma nayrangni ana shu nobakor qilyapti, men uni albatta topaman va mana shu bir oy mobaynida tortgan azob-uqubatlarim uchun qasdimni olaman u makkordan. Endi, yana takror aytaman sizga, Boshan: men havoyi gaplarni qo'yib, farishtalar olamidan voz kechib, yana odamlar olamiga, moddiy olamga qaytmoqchiman, siz hamon menga do'st bo'lib qolish niyatida bo'lsangiz, o'sha kim-sani topishda menga yordam bering.

– Bo'pti! – dedi Boshan, – basharti siz mening osmondan erga tushishimni, ya'ni ilohiy gaplarni qo'yib, amaliy ishga o'tishimni istarkansiz, shunday qilganim bo'lsin, dushmanni axtarib topmoqchi ekansiz, men ham siz bilan birga uni axtaraman va albatta topaman, bu mening vijdon amrim, biz uni topmog'imiz kerak.

– Shunday ekan, demak, biz, Boshan, qidiruvni hozirdanoq boshlashimiz kerak. Har bir daqiqa shu payt menga abadiyot bo'lib ko'rinyapti. Chaqimchi hozircha jazosini tortgani yo'q. Bundan u, endi men jazodan qutuldim deb umid qilib yurgandir. Vijdon haqqi, ont ichib aytamanki, u yanglishadi, u jazoga mustahiq!

– Morser, menga qarang...

– Boshan, aftidan, siz biror narsani bilsangiz kerak, menga qayta jon bag'ishlayapsiz, jon!..

– Men, Alber, aniq bir narsa bilmayman, biroq mening taxminim, gumonim zulmatdagi ziyo, boshqacha qilib aytganda, kalavanning uchi ana shu ziyo ketidan borsak, ehtimol niyatimizga etarmiz.

– Axir ayting, nima o'zi u? Toqatim toq bo'ldi-ku.

– Yaninadan qaytganda aytmagan bir narsani aytib beraman sizga.

– Qulog'im sizda.

– Alber, o'shanda shunday bir voqea yuz berdi: men

ma'lumotnomalar olish uchun shaharning birinchi bankiriga murojaat qildim, bu ish haqida og'iz ochib, otangiz nomini tilga olib ulgurmagan ham edim, u:

«Nima maqsadda kelganingizni bilib turibman», – dedi.

«Qaerdan bildingiz?..»

«Xuddi shu masalani mendan so'rab-surishtirib ketganlariga hali ikki haftayam bo'lgani yo'q».

«Kim u?»

«Bir Parij bankiri, mening muxbirim».

«Ismi?»

«Danglar».

– Danglar! – xitob qildi Alber. – To'g'ri, u ko'pdan buyon hasad balosiga giriftor bo'lib, otamning izidan tushib yuribdi, o'zini demokrat deb hisoblaydi, ammo graf de Morserning per bo'lib saylanganini ko'rolmaydi. Nikohimiz bo'lmay qolishining boisi ham... shunda ekan-da.

– Alber, buni sovuqqonlik bilan obdan tekshiring, agar haqiqatan ham shunday bo'lib chiqsa...

– Agar shunday bo'lib chiqsa, – xitob qildi Alber, – u ablahdan qasdinni olaman!

– Qiziqqonlik qilmang, axir u qarib qolgan odam, buni hisobga olishingiz lozim.

– Xonadonim shon-shuhratini u qanday hisobga olgan bo'lsa, men ham uning keksaligini ana shunday hisobga olaman! Otamning dushmani ekan, nega ochiq kurashmaydi u? Erkaklarcha, yuzma-yuz kelishga qo'rqadi, ha, qo'rqadi.

– Alber, men sizga ta'na qilayotganim yo'q, faqat ehtiyot bo'ling, deyapman.

– Siz xavotir olmang, Boshan, meni kuzatib borasiz, bunaqa narsalar haqida guvohlar huzurida gaplashmoq kerak. Chindan ham ayb Danglarda bo'lsa, shu bugunoq dunyoda yo u qoladi, yo men. Boshan, butun shon-shuhratinga tantanavor janoza o'qiymanmi-a?

– Bo'пти, Alber. Kishi shunday qarorga kelganda, darhol amalga oshirmog'i zarur. Danglarnikiga bormoqchimisiz? Ketdik...

Do'stlar izvosh kira qilib, jo'nab ketishdi. Izvosh bankir uyiga yaqinlashganda darvoza oldida Andrea Kavalkantining izvoshi va qaroli turgandi.

– Mana bunisi yana soz bo'ldi! – dedi ma'yus holda Alber. – Basharti Danglar duelga da'vatimni qabul qilmasa, kuyovini o'ldiraman. Axir, u janob knyaz Kavalkanti-ku – jangdan qanday qochishi mumkin?

Ularning kelganini bankirga xabar qilishdi, u kechagi voqealardan xabardor edi, shu sababdan Alberning nomini eshitib, qabul qilmayman, dedi. Biroq u kechikkan edi. Alber qarol ketidan kirib kelgan edi, u bankirning javobini eshitdi-da, eshikni lang ochib, Boshan bilan birga bankir xonasiga kirdi.

– Kechirasiz, janob! – xitob qildi bankir. – Men o'z uyimning xo'jayini emasmanmi? Kimni qabul qilish-qilmaslik ixtiyorimda emasmi? Menimcha, haddingizdan oshyapsiz!

– Yo'q, janob, – dedi Alber, – haddimdan oshayotganim yo'q, shunday vaziyatda qo'rqoq degan nom orttirishni istamasangiz, ba'zi kishilarni qabul qilishga majbursiz.

– Xo'sh, janoblarning qanday ishlari chiqib qoldi ekan menga?

– Siz bilan, – dedi Alber uning yoniga borib va o'zini pech oldida turgan Kavalkantini ko'rmaganga solib, – xilvatda uchrashmoqchiman, u erda o'n daqiqa mobaynida hech kim bizga xalaqit bermaydi, sizdan birdan-bir iltimosim shu, uchrashgan joydan ikkimizdan faqat bittamiz omon qaytamiz.

Danglarning yuzi oqarib ketdi. Kavalkanti o'rnidan qo'zg'algan edi, Alber unga burilib:

– Marhamat, graf, – dedi, – istasangiz siz ham boring, bunga to'la haqlisiz, axir bu oilaning deyarli a'zosi bo'lib qoldingiz, xohlagan kishi bilan bunday joylarda uchra-shuvni taklif qilishim mumkin.

Kavalkanti hayron bo'lib Danglarga qaradi, graf zo'rg'a o'zini bosib, o'rnidan turdi-da, kelib, ikkala yigitning

o'rtasida turib oldi. Alberning Andreaga qarshi tish qayrayotganini ko'rib, «xayriyat, buning kelishiga boya men o'ylagan voqea sabab emas ekan», degan o'y bilan grafning bir oz ko'ngli tinchidi.

– Menga qarang, janob, – dedi u Alberga, – sizni qo'yib, grafni kuyovlikka afzal ko'rganim uchun g'alva ko'tarib yurgan bo'lsangiz, ogoh bo'ling, men bu ishni qirollik prokuroriga o'tkazaman.

– Yanglishyapsiz, janob, – dedi Alber g'amgin iljayib, – to'y bilan hozir ish-pishim yo'q, menga janob Kavalkanti bizning gapimizga aralashmoqchi bo'lgandek tuyuldi. Shu vajdan men unga gap qotdim. Siz haq gapni aytdingiz; men bugun to'g'ri kelgan kimsa bilan janjal ko'tarishga tayyorman, biroq, xotirjam bo'ling, janob Danglar, avvalo o'zingiz bilan.

– Janob, – dedi g'azab va vahimadan quti o'chgan Danglar, – ogoh bo'ling, yo'limda quturgan itvachcha uchrab qolsa, darhol er tishlatib qo'ya qolaman, bu bilan o'zimni aybdor hisoblash u yoqda tursin, aksincha, jamiyatga foyda keltirdim deb faxrlanaman. Mabodo siz quturib meni qopish niyatida kelgan bo'lsangiz, o'ylab-netib o'tirmay otib tashlayman. Otangiz sharmandayu sharmisor bo'lgan ekan, menda nima gunoh?

– Ha, ablah! – xitob qildi Alber. – Hamma ayb senda! Danglar bir qadam orqaga tisarildi.

– Hamma ayb menda? Menda? – dedi u. – Esingizni eb qo'yibsiz! Gresiya voqearini qayoqdan bilay men? U mamlakatlarda men bo'libmanmi? Otangizga Yanina qal'asini sotgin deb men maslahat beribmanmi? Vazirni tutib ber, deb...

– Ovozingizni o'chiring! – dedi Alber g'ijinib. – Yo'q, bu janjalni shaxsan siz ko'targaningiz yo'q, faqat siz makkorlik bilan uyushtirdingiz bizga qarshi bu falokatni, ha, faqat siz!

– Men?

– Ha, siz! Bo'lmasam qayerdan chiqdi bu gap?

– Menimcha, gazetada: «Yaninadan» deb yozilgan edi,

yo'qsa qayerdan bo'lishi mumkin tag'in!

– Yaninaga xatni kim yubordi?

– Yaninaga?

– Ha, Yaninaga xat yozib, otam haqida ma'lumot so'ragan kim?

– Menimcha, Yaninaga xat yozish hech kimga taqiq qilingan emas.

– Lekin xatni faqat bir kishi yozgan.

– Faqat bir kishi?

– Ha, ya'ni siz.

– To'g'ri, men xat yozdim: axir qizingni yosh yigitga erga berayotganda, yigitning oilasi haqida ma'lumot yig'ish gunoh emas, hatto bu faqat huquq bo'libgina qolmay, burch, vazifa hamdir.

– Xat yozganda, janoblari qanaqa javob kelishini ham juda yaxshi bilib yozganlar, – dedi Alber.

– Sizga ont ichib aytamanki, – dedi Danglar nihoyatda ishonarli qilib, vujudini qamrab olgan vahimadangina emas, balki sho'rlik yigitning holiga chin yurakdan achinganidan, – bu haqda Yaninaga xat yozishni hech vaqq xayolimga ham keltirmagan edim. Ali poshoning boshiga tushgan kulfatlardan mutlaqo bexabarman.

– Demak, kimdir sizga maslahat beribdi-da, xat yozgin, deb?

– Albatta.

– Maslahat berishganmidi?

– Kim? Ayting... iqror bo'laving...

– Marhamat, men otangiz haqida gapirdim, u qanday qilib bunchalik boylik orttirganini hali-hali hech kim bilmaydi, dedim. Suhbatdoshim, otangiz boylikni qayerda orttirgan, dedi. Men Gresiyada, dedim. Shunda Yaninaga xat yozing, dedi.

– Kim o'zi sizga bu maslahatni bergan?

– Do'stingiz graf Monte-Kristo.

– Yaninaga xat yozish haqida graf Monte-Kristo maslahat berdimi sizga?

– Ha, o'sha maslahat berdi, so'ng men xat yozdim. Me-

ning o'sha xatlarimni ko'rasizmi? Xohlasangiz, ko'rsataman.

Alber bilan Boshan hayron bo'lib bir-biriga qarab olishdi.

Hozirgina miq etmay o'tirgan Boshan so'z qotdi:

– Janob, grafning Parijda yo'qligidan foydalanib, aybni unga to'nkayapsiz, o'zi yo'qning ko'zi yo'q-da.

– Men hech kimni ayblayotganim yo'q, janob, – dedi Danglar, – faqat bo'lgan voqeani hikoya qilyapman, sizga aytgan gaplarimni graf Monte-Kristo huzuridayam aytishim mumkin.

– Qanday javob olganingizni ham biladimi graf?

– Javob xatni unga ko'rsatdim.

– Otamning oti Fernan, familiyasi Mondego ekanligini ham biladimi u?

– Ha, men buni unga allaqachon aytgan edim. Mening o'rnimda kim bo'lmasin, xuddi shunday qilardi, haliyam men unchalikka borganim yo'q. Yaninadan javob xati olgan kunning ertasiga, otangiz graf Monte-Kristoning maslahati bilan, menikiga qizimni kelinlikka so'rab, masalani uzil-kesil hal etish uchun kelganda, men yo'q, bo'lmaydi, dedim, to'g'ri, sababini aytmadim, nima uchun shunday qilganimni tushuntirib o'tirishning menga nima keragi bor? Janob de Morserning or-nomusi bilan mening nima ishim bor? Pul qiymatining oshishi yoki pasayishiga buning hech ta'siri bo'lmaydi-ku?

Alber ikki yuzi qip-qizil bo'lib borayotganini sezib turardi. Shu payt Danglar, shubhasiz, pastkash, lekin takabbur kishi singari o'zini himoya qilish uchun vijdon amri bilan emas, qo'rqqanidan yolg'on-yashiqni qo'shib gap sotardi. Bu ishda Danglar qanchalik aybdor-u, graf Monte-Kristo qanchalik aybdor – Alberga buning ahamiyati yo'q edi; unga alamini oladigan odam kerak, duelga chaqirsa, ko'nadigan kimsa kerak. Danglar, ko'rinib turibdi-ki, bu taklifni qabul qilmaydi.

Shu topda ilgari unutib yuborgan yoki u quloqdan kirib, bu quloqdan chiqib ketgan ko'p voqealar Alberning ko'z



oldidan o'ta boshladi. Monte-Kristo Ali poshoning qizini sotib olibdimi, demak, u hamma voqealardan xabardor ekan-da, hamma gapdan voqif bo'lgani sababli Danglarga Yaninaga xat yozishni maslahat bergan. O'shanda graf u erdan kelgan javobni o'qib, Alberga Gayde bilan tanishishga ruxsat qilgan va Gayde huzuriga kirganda, gapni Ali poshoning o'ldirilishiga burib yuborib, qizning hiko-yasiga xalaqit bermay qo'ygan edi. (Biroq u qizga lotin tilida aytgan bir necha so'zida, Alberga gap uning otasi ustida borayotganini aytma degan bo'lsa kerak.) Bundan tashqari graf Alberdan, Gaydening oldida otangizning ismini tilga olmang, degan edi, bu ham bejiz emas ekan-da, pirovardida, graf ayni janjal qo'zg'aladigan paytda Alberni Normandiyaga olib ketdi. Bularning hammasini bila turib qilinganligiga shubha yo'q, demak, Monte-Kristo otasining dushmanlari bilan til birlashtirib olgan ekan.

Alber Boshanni bir chetga tortdi-da, o'zining yuqoridagi mulohazalarini aytdi.

– Gapingiz to'g'ri, – dedi Boshan. – Bu voqealarda Danglar ishning faqat moddiy tomonidan manfaatdor, siz izohni graf Monte-Kristodan talab qilishingiz lozim.

Alber yana Danglar tomonga o'girildi.

– Janob, – dedi u bankirga, – bilib qo'yingki, siz bilan hali oramiz ochiq bo'lgani yo'q, men da'voingiz qanchalik haq ekanligini bilmog'im kerak, shuning uchun hozirning o'zidayoq graf Monte-Kristo huzuriga boraman.

Alber bankirga ta'zim qildi-da, Kavalkantiga qiyo boqmay Boshan bilan chiqib ketdi.

Danglar ularni eshik oldigacha kuzatib qo'ydi va ostonada yana Alberga, otangizga hech qanaqa xusumatim yo'q, xotirjam bo'ling, dedi.

## **XI. HAQORAT**

Bankirnikidan chiqqach, Boshan to'xtadi.

– Men sizga, Alber, izohni graf Monte-Kristodan talab

qilishingiz kerak, dedim.

– Ha, mana, unikiga ketyapmiz.

– Birpas sabr qiling, grafnikiga borishdan oldin bir o‘ylab ko‘rish kerak.

– Nimani uylab ko‘rishim kerak?

– Bu juda jiddiy masala, rosa o‘ylab qilinadigan ish.

– Danglarnikiga qilgan tashrifimdan ham bu jiddiyimi?

– Ha, Danglar ishning foydali tomonini o‘ylaydigan zotlardan, bilasizki, bunday odamlar o‘z sarmoyasining qudratini biladi. Shuning uchun ham uning olishishga hafsalasi yo‘q. Graf Monte-Kristo esa buning tamoman aksi, u ko‘rinishi olifto odam bo‘lsa-da, sirtida qotillik niqobi yashiringan bo‘lmasin tag‘in? Bundan qo‘rqmayapsizmi?

– Men faqat bir narsadan, u ham bo‘lsa, Monte-Kristo duelni rad qilmasmikan, deb qo‘rqyapman.

– Bundan ko‘nglingiz to‘q bo‘laversin, – dedi Boshan, – graf Monte-Kristo jangdan qaytmaydiganlardan. Lekin ehtiyot bo‘ling, u juda mohir jangchi bo‘lsa kerak, deb qo‘rqyapman!

– Do‘stim, – dedi Alber kulib, – menga ana shunisi kerak, otamning or-nomusini himoya qilib o‘lish men uchun eng katta baxt. Bu hammamizni sharmandalikdan xalos etadi.

– Bu bilan onangizni tiriklayin go‘rga tiqasiz!

– Sho‘rlik onam, – dedi Alber qo‘li bilan ko‘zlarini ishqab, – to‘g‘ri, u kuyib adoyi tamom bo‘ladi, keling, sharmandayu sharmisor bo‘lib o‘lgandan ko‘ra, farzand dog‘ida kuyib o‘lgani ma‘qul.

– Demak, Alber, qaroringiz qat‘iymi?

– Ha, qat‘iy.

– Unday bo‘lsa, ketdik! Uning uydaligiga imoningiz komilmi?

– Mening ketimdan qaytishi kerak edi, ehtimol, u allaqachon Parijdadir.

Ikkala og‘ayni izvoshga o‘tirib, Elisey Maydoni tomon ketdi.

Alber yakka o'zi kirmoqchi bo'ldi, biroq, bu boshqacha duel, odob qoidalarini buzib qo'yishim mumkin, dedi Boshanga.

Alberga qanot bag'ishlab turgan bu tuyg'u nihoyatda muqaddas, olijanob tuyg'u edi, shu sababli Boshan uning xohishiga bo'ysunishga majbur bo'ldi-da, do'sti ketidan boraverdi.

Alber darvozadan zinapoyaga chopqillab bordi. Shu vaqt uni Batisten uchratdi.

Graf, darhaqiqat, Normandiyadan qaytgan edi, u Batistenga, meni so'raganlarga uyda yo'q, degin deb ogohlantirib qo'yg'an edi.

– Janobi oliylari vannada cho'milyaptilar, – dedi Batisten.

– Keyin nima qiladi?

– Ovqatlanadilar.

– Ovqatdan keyin-chi?

– Dam oladilar.

– Undan keyin-chi?

– Operaga boradilar.

– Rostdanmi? – so'radi Alber.

– Ha, graf roppa-rosa soat sakkizda izvoshni taxt qilib turishni buyurgan.

– Juda soz, menga faqat shu kerak edi, – dedi Alber va Boshanga o'girildi:

– Boradigan joyingiz bo'lsa, hozir borib keling, Boshan, – kechqurun biror kishi bilan uchrashuvga va'da bergan bo'lsangiz, ertaga qoldiring. Men siz bilan Operaga birga bormoqchiman, sababi o'zingizga ma'lum. Ilojini topsangiz, Shato-Renoni ham olib keling.

Boshan Alber bilan xayrlashdi-da, chorak kam sakkizda etib kelaman, deb chiqib ketdi.

Alber uyiga qaytib, Frans, Debre va Morrelga bugun kechqurun Operaga albatta kelishlarini iltimos qilib, odam yubordi.

So'ngra onasi huzuriga kirdi. Mercedes kechagi voqealardan so'ng, hech kimni qabul qilmayman, deb eshikni

ichidan qulflab olgan edi. Ona bechora bo'lgan mojaro-  
dan nihoyatda aziyat chekib, to'shakda yotgan edi.

Alber kirishi bilan Mercedesda kutilgan narsa yuz berdi:  
ona o'g'lining qo'lidan mahkam tutdi-da, ho'ngrab yig'-  
lab yubordi. Yig'idan keyin u o'zini ancha engil his qildi.

Alber esa onasi tepasida xomush bosh egib turaverdi.  
Bo'zargan yuzi va chimirilgan qoshlari yigitning qasos  
olishga qat'iy qaror qilganidan darak berib turardi.

– Oyijon, – dedi Alber, – janob de Morserning dush-  
manlari bor.

Mercedes o'g'li Alber «Otamning...» demaganidan bir  
seskanib tushdi.

– Azizim, – dedi ona, – graf kabi mansabdor kishilar-  
ning zimdan ish tutadigan dushmanlari ko'p bo'ladi.  
Biroq, oshkora dushmandan pinhoni dushman xavfli  
ekanligini yaxshi bilasan.

– To'g'ri, bilaman, shuning uchun ham sizning o'tkir  
zehningizga ishonib so'rayapman-da. Nazaringizdan hech  
narsa qochib qutulolmasligini yaxshi bilaman.

– Menga bu gaplarni nega aytyapsan?

– Axir siz graf Monte-Kristo biznikidagi ziyofatda hech  
narsa eyishni istamaganligini o'zingiz sezgan edingiz-ku.

Mercedes, butun vujudini titroq bosib, karavotdan  
boshini ko'tardi.

– Graf Monte-Kristo! – dedi hayajonlanib u. – Menga  
bergan savolingga uning nima aloqasi bor?

– Bilasizmi, oyi, graf Monte-Kristo ko'pgina sharq urf-  
odatlariga amal qiladigan zot, sharqda esa, qasos olish  
huquqini o'zida saqlamoqchi bo'lgan odam dushmani-  
ning uyida og'ziga hech narsa olmaydi.

– Graf Monte-Kristo bizga dushman deyapsanmi? – dedi  
murdadek oqarib ketgan Mercedes. – Kim aytdi senga  
buni? Nega u dushman bo'ladi bizga? Qo'y bema'ni  
gaplaringni, Alber. Graf Monte-Kristodan biz faqat  
yaxshilik ko'rdik. Graf Monte-Kristo seni o'limdan qutqardi;  
uni biz bilan o'zing tanishtirding. Alber, iltimos, bu  
fikringdan qayt. Senga maslahat va iltimosim shuki, u

bilan do'stlikni uzma.

– O'yijon, – e'tiroz bildirdi Alber onasiga g'amgin boqib.  
– U odamni siz himoya qilyapsiz, buni biror sababi bordir, axir.

– Sababi bordir?! – taajjub va hayajonda dedi Mercedes bir zum qizarib. Keyin, ilgariyidan battarroq bo'zarib ketdi.

– Ha, sababi, – dedi Alber, – biz undan faqat yomonlik kutayotibmiz, siz esa mendan unga shafqat qilishimni so'rayapsiz, to'g'rimi?

Mercedes titrab ketdi, o'g'liga sinovchan nazar tashladi.

– Gaplaring juda g'alati-ku, – dedi ona, – qayerdan topding bu ig'vo gaplarni! Nega grafga g'arazgo'ylik qilyapsan? U biror gunoh qilib qo'ydimi? Bundan uch kun muqaddam Normandiyada uning mehmoni bo'lding, uch kun muqaddam ikkimiz ham uni oradan qil o'tmaydigan do'st bilardik-ku. Endi nega teskari bo'lib qolding?

Alberning lablarida yilt etib ko'ringan kinoyali tabassum ziyrak onaning diqqatidan qochib qutulolmadi. Mercedes hamma gapni ayolga va onaga xos ziyraklik bilan payqab oldi. Ehtiyotkor va irodasi kuchli ona shu on xijolat tortib, tashvishga tushib qolganini sezdidirmadi.

Alber jim turib qoldi, bir ozdan so'ng yana grafinyaning o'zi gap qotdi:

– Sen mening hol-ahvolimni so'ragani kelding, chammamda, – dedi u, – sendan yashirmayman, azizim, sog'lig'im yaxshi emas. Yolg'izlik jonga tegdi, bugun yonimda qola qol.

– O'yijon, – dedi yigit, – zarur ishim bo'lmaganda, yoninigizda jon deb qolardim.

– Ilojim qancha, bolam! – javob qildi Mercedes. – Bor, Alber, farzandlik tuyg'ulariga qul bo'lishingni zinhor istamayman...

Alber o'zini onasining so'nggi so'zlarini eshitmaganga soldi-da, xayrlashib chiqib ketdi.

O'g'li eshikni yopib chiqib ketishi bilan Mercedes

ishonchli xizmatkorini chaqirib, uning izidan jo'natarkan, shu daqiqadan boshlab qayerda bo'lmasin, Alberning ketidan qolmaslikni va ko'rgan-bilganlarini darhol unga etkazib turishni buyurdi.

So'ng oqsochni chaqirib, nihoyatda toliqib qolganiga qaramay, har ehtimolga qarshi kiyinib oldi.

Xizmatkorga berilgan topshiriqni bajo keltirish oson edi. Alber o'z bo'lmasiga kirdi-da, bashang kiyinib oldi. O'n daqiqa kam sakkizda Boshan keldi, u Shato-Renoni ko'rib, Alberning iltimosini aytgan edi. Shato-Reno parda ochilguncha birinchi qatordagi o'z joyida hozir bo'lishga va'da beribdi.

Yigitlar Alberning izvoshiga o'tirishdi, u hech narsani yashirishning hojati yo'q deb, ovozing boricha qichqirdi:

– Operaga!

Toqati toq bo'lgan Alber spektakl boshlanmasdan oq teatrqa kirib bordi.

Shato-Reno allaqachon kelib o'z kursisida o'tirgan edi. Alber unga hech nima demadi, chunki Boshan hamma voqeani unga tushuntirgan edi. Otasi uchun o'ch olish niyatida yonib yurgan o'g'ilning xatti-harakati tabiiy bo'lib, Shato-Reno uni shashtidan qaytarishga urinmadi ham, faqat yordamga tayyorman, deb qo'ya qoldi.

Debre hali kelmagan edi, biroq u Operaning deyarli hamma spektakllarida bo'ladi, uning opera muxlisi ekanini Alber biladi. Parda ochilguncha Alber teatr zallarini kezib yurdi, u Monte-Kristoni yo'lakda yoki zinada uchra tarman, degan umidda edi, biroq qo'ng'iroq chalinib qoldi-yu, Shato-Reno bilan Boshan o'rtasidagi o'z joyiga borib o'tirdi. Uning ikki ko'zi ustunlar o'rtasidagi lojada edi, loja pardasi esa birinchi pardaning boshidan oxirigacha ochilmadi.

Faqat ikkinchi bo'lim boshlanganda, Alber soatga qarayverib toqati toq bo'lganda haligi lojaning eshigi ochilib, qop-qora libosda Monte-Kristo kirib keldi-da, to'siqqa suyanib zalni bir sidra ko'zdan kechirib chiqdi. Uning ketidan Morrel kirib, kuyovi va singlisini axtardi.

Ular beletaj lojasida o'tirishgan edi. Morrel imo qilib qo'ydi.

Graf zalni kuzatar ekan, birdan uning qarashini kutib, ko'zlaridan o't sochib bo'zarib o'tirgan Alberni ko'rib qoldi; uning avzoyi buzuqligini fahmladi-da, o'zini ko'rma-ganga va hech narsani sezmaganga solib, o'tirib oldi, durbinini g'ilofidan chiqarib, narigi tomonga qaradi. Biroq u Alberni nazaridan qochirmasdi. Ikkinchi parda tugagan-da, Alber ikki do'sti bilan parterdan chiqib ketdi.

Sal o'tmay qo'shni loja eshigida Alberning boshi ko'rindi. Graf dahshatli manzara yaqinlashayotganini, lojaning kaliti buralishi bilan qanday hol yuz berishini bilar va har qanday ofatni daf etishga shay bo'lib turardi.

Eshik ochildi.

Shundan keyingina graf orqasiga o'girildi, ostonada titrab-qaqshab Alber, uning ketida Boshan va Shato-Reno turardi.

– Ha-a! Mening chavandozim kelibdilar-da, – dedi graf uning salomini kiborlarga xos soxta iltifotdan hamisha ajratib turadigan yoqimli nazokat bilan.

– Salom, salom, janob de Morser.

O'zini juda ustalik bilan tuta olishga qodir bu zotning chehrasi hozir guldek ochilib turardi.

Morrel ham xuddi shu payt Alber unga Operaga kelishini so'rab xat yozganini esladi va endilikda qanday voqea yuz berishini angladi.

– Biz bu erga riyokorona nazokat yoki do'stlik haqidagi soxta gap sotish uchun kelganimiz yo'q, – dedi Alber, – biz, grafdan izoh berishni talab qilgani keldik.

Alber tishini tishiga bosib, hansirab gapirardi.

– Operada izoh berarkanlarmi? – dedi graf vazminlik bilan ko'zlarini Alberga tikib, bundan u o'ziga nihoyatda qattiq ishonganligi sezilib turardi, – Parij urf-odatlarini bilan hali kam tanish bo'lsam-da, menimcha, bu er izoh beradigan joy emas, janob.

– U kishi qochib yursa, vannada cho'milyapman, ovqatlanyapman yoki uxlayapman, deb uyiga kiritmasa, u bilan to'g'ri kelgan joyda gaplashib olishga majbur bo'la-

san-da, – dedi Alber.

– Meni uyimda topish unchalik qiyin emas, – dedi Monte-Kristo, – yanglishmasam, janoblari kecha mening mehmonim bo'lgan edilar.

– Janob, kecha, – dedi Alber o'zini tutolmay, – mehmon bo'lganda bunaqangi pastkash odam ekanligingizni bilmagan ekanman.

Bu gaplarni Alber qo'shni lojalardagi va yo'lkadagi odamlar eshitsin, deb ovozini barala chiqarib aytdi, darhaqiqat, lojadagilar mojaroni eshitib, graf lojasi tomon o'girilib qarashdi, yo'lkadagilar esa Boshan va Shato-Reno orqasida to'xtab quloq solishardi.

– Qaerdan keldingiz, janob? – dedi Monte-Kristo hamon xotirjam holatda. – Esingizni butunlay eb qo'yganga o'xshaysiz.

– Makkorligingizni fahmlab, maqsadim uning uchun qasos olish ekanligini sizga anglatib qo'yishga etgulik aql-hushim bor, – dedi g'azabdan titrab Alber.

– Muhtaram janob, tushunolmay qoldim sizga, – dedi e'tiroz bildirib Monte-Kristo, – juda baqiroqlik qilyapsiz. Men, muhtaram janob, o'z lojamda o'tiribman, bu erda faqat men baqirib gapirishga haqliman. Chiqing bu erdan!

Shunday deb graf amrona bir tusda Alberga eshikni ko'rsatdi.

– O'zingizni bu erdan chiqishga majbur etaman! – dedi Alber graf tikilib turgan qo'lqopini qo'lida g'ijimlab.

– Yaxshi, – dedi vazmin ohangda Monte-Kristo, – ko'rinib turibdiki, janjal qo'zg'amoqchisiz, janob, biroq sizga bir maslahatim bor, buni esingizda tuting: duelda baqirib-chaqirish odobdan emas. Janob de Morser, shov-shuv ko'tarish hammaga ham yoqaveradigan qiliq emas.

Bu nomni eshitganlar orasida g'ovur-g'uvur boshlandi. Kechadan buyon Morser haqida butun Parijda dud-dud gap yurardi.

Kimga ishora qilayotganlarini Alber hammadan oldin va yaxshi tushundi, grafning yuziga qo'lqopni itqitmoqchi bo'lib turgan edi, Morrel uning qo'lidan ushlab qoldi,



Boshan va Shato-Reno mojaroning zo'rayib ketishidan qo'rqib vikontning elkasidan tutishdi.

Biroq Monte-Kristo o'tirgan joyida qo'lini uzatib, Alberning qaltirab turgan qo'lidan ho'l va g'ijimlangan qo'lqopni tortib oldi-da, g'azab bilan dedi:

– Janob, qo'lqopni menga itqitib yubordingiz, deb hisoblayman va uni o'q bilan o'zingizga qaytaraman. Chiqib keting bu erdan, yo'qsa xizmatchilarimga buyuraman, haydab chiqarishadi.

Ko'zlari qonga to'lgan Alber mast kishi singari gandi-raklab, bir necha qadam orqaga tisarildi.

Morrel bundan foydalanib, eshikni bekitib oldi.

Monte-Kristo, go'yo hech narsa bo'lmagandek, yana durbinini olib, ko'ziga tutdi.

Bu odamning qalbi baayni bronzadan quyilgandek, yuzi esa marmardan o'yilgaydek edi.

– Nima qiluvdingiz unga? – dedi shivirlab.

– Menmi? Shaxsan o'zim unga hech nima qilmaganman, – dedi Monte-Kristo.

– Axir bu ajib voqeaning bironta sababi bo'lishi kerak-ku?

– Graf de Morser bilan bo'lib o'tgan mojarodan so'ng, bu bebaxt yigitcha dovdirab yuribdi.

– Sizga buning nima aloqasi bor?

– Otasining xoinlik qilganini Palataga Gayde aytib beribdi.

– Ha, eshitgandim, siz bilan mana shu lojada ko'rganim cho'ringiz Ali poshoning qizi ekan, – dedi Morrel. – Biroq men bunga ishonmagandim.

– Haqiqatan shunday.

– Endi menga hammasi ayon, – dedi Morrel, – bu narsa oldindan tayyorlanib qo'yilgan ekan-da.

– Nega endi bunday deb o'ylaysiz?

– Men Alberning bugun Operaqa kelishimni iltimos qilgan xatini oldim. Bundan chiqdi u sizni haqorat qilgan vaqtda guvoh bo'lishimni istagan bo'lsa kerak-da.

– Ehtimol, shundaydir, – dedi sovuqqonlik bilan Mon-

te-Kristo.

– Endi u bilan qanday munosabatda bo'lasiz?

– Kim bilan?

– Alber bilan.

– Nima qilardim men uni? – dedi xuddi haligi ohangda Monte-Kristo. – Men uni ertaga ertalab asfalasofilinga jo'nataman. Ana shunday qilaman uni, Maksimilian, hozir sizni ko'rib turganim va qo'lingizni qisib turganim qanchalik haqiqat bo'lsa, bu ham shunchalik haqiqat.

Maksimilian ham Monte-Kristoning qo'lini qisdi-da, seskanib ketdi: grafning qo'li sovuq edi.

– Graf, bilasizmi, uni otasi jonidan ham yaxshi ko'radi!

– Faqat mana shu gapni menga zinhor ayta ko'rmang! – xitob qildi Monte-Kristo g'azablanishi mumkinligini birinchi marta sezib. – U holda men uni birdan o'ldirmayman.

Morrel hang-mang bo'lib, Monte-Kristoning qo'lini qo'yib yubordi.

– Shaytonga hay bering, graf!

– Azizim Maksimilian, – dedi uning gapini bo'lib graf, – eshiting, quyidagi ariyani Dyupre qanday boplab ijro etyapti.

*Oh, Matilda, qalbim istagi...*

Azizim, Neapolda Dyupreni birinchi bo'lib tanitgan va ofarinlar aytib olqishlagan meni deb bilavering!

Morrel endi gapga o'rin qolmaganligini angladi-da, indamay qo'ya qoldi.

Bir necha daqiqadan keyin spektaklning navbatdagi bo'limi tugab, parda tushirilishi bilan loja eshigi taqilladi.

– Kiring, – dedi Monte-Kristo. Uning ovozida zarracha hayajon sezilmasdi.

Boshan kirdi.

– Tuningiz xayrli bo'lsin, janob Boshan, – dedi Monte-

Kristo go'yo shu kech jurnalistni birinchi marotaba ko'rganday, – marhamat, o'tiring.

Boshan ta'zim qildi-da, o'tirdi.

– Graf, – dedi u Monte-Kristoga, – hozirgina janob de Morser bilan birga kelganimni ko'rgan bo'lsangiz kerak?

– Bundan ko'rinib turibdiki, – dedi kulib Monte-Kristo, – tushda ikkingiz birga ovqatlanibsiz-da. Janob Boshan, siz unga nisbatan xiyla vazmin, bosiq ekansiz, xursandman sizdan.

– Graf, – dedi Boshan, – to'g'ri, Alber o'zini tutolmay adabsizlik qildi, men bunga iqorman va buning uchun shaxsan sizdan uzr so'rayman. Graf, siz olijanob bir zot sifatida menga Yanina fuqarolari bilan aloqalaringizga doir ba'zi narsalarni aytib berarsiz degan umiddaman. So'ngra yosh grek qizi haqida ikki og'iz gap so'ramoqchiman.

Monte-Kristo yalt etib qaragan edi, jurnalist jim bo'ldi.

– Mana, endi mening hamma orzu-niyatlarim barbod bo'ldi, – dedi u kulib.

– Nima uchun? – so'radi Boshan.

– Shuning uchunki, hammalaringiz elburtdan meni fazlu kamolotda yagona odamga chiqarib qo'ygan edinglar. Sizningcha, men yo Lara, yo Manfred, yoki lord Rutven edim. Keyingi paytlarda xulq-atvorim me'dangizga tekkach, o'zingiz yaratgan tipni buzib, meni juda siyqasi chiqqan kishiga aylantirib qo'yapsiz, siz mendan pastkash, odobsiz bo'lishni talab qilyapsiz. Xullasi kalom, siz mendan izoh berishni talab qilyapsiz, kechirasiz, Boshan, siz meni mazax qilyapsiz.

– Biroq, – dedi kibr-la e'tiroz bildirib Boshan, – shunday vaziyatlar tug'iladiki, unda kishining nomusi shuni talab qiladiki...

– Janob, – dedi g'alati suhbatdoshi Boshanning gapini bo'lib, – graf Monte-Kristodan biror narsani faqat graf Monte-Kristoning o'ziga talab qilishi mumkin. Iltimos, gapni bas qiling. Men o'z bilganimni qilaman, janob Boshan. Qilgan ishim hamma vaqt ko'ngildagidek bo'lgan, bunga imoningiz komil bo'lsin.

– Janob, – dedi Boshan, – vijdonli kishilardan bunday osonlik bilan qutulish mumkin emas, or-nomus degan narsa kafillik talab qiladi.

– Men bunga o‘zim kafilman, janob, – dedi vazminlik bilan e‘tiroz bildirib Monte-Kristo, uning ko‘zlari qahr-g‘azabdan yonib turardi. – Ikkimizning ham tomirlarimizda qon jo‘shib turibdi, ana shu qonni to‘kishga ikkimiz ham tayyormiz – mana shu ikkimizning kafilligimiz. Shu javobni vikontga etkazing va aytingki, ertaga ertalab soat o‘ngacha uning jonini tanidan judo qilaman.

– Demak, masala hal, – dedi Boshan, – endi duel shartlari haqida g‘aplashib olishim kerak.

– Men uchun shart-sharoitning aslo ahamiyati yo‘q, – dedi graf Monte-Kristo, – janob, bu arzimaydigan narsa uchun tomosha vaqtida boshimni qotirmang. Fransiya-da shamshir yoki to‘pponcha bilan jang qilishadi, koloniyalarda miltiqni afzal ko‘rishadi. Arabistonda xanjardan foydalanishadi. Men haqoratlanganimga qaramay, o‘sha ajib, g‘alati odamligimcha qolib, qurol tanlash huquqini vikontga beraman, borib ayting, istaganini tanlasin, men hammasiga roziman, eshitdingizmi, hammasiga! Hatto hamisha bema‘nilik deb kelingan qur‘a tashlansa ham roziman. Ammo bilib qo‘ysinki, men bilan bellashish oson emas, men albatta g‘olib chiqaman!

– Bunga aminmisiz? – takrorladi Boshan tashvish-la grafga tikilib.

– Ha, – dedi Monte-Kristo elkalarini qisib. – O‘zinga ishonmasam, janob de Morserning chaqirig‘ini qabul qilarmidim? Muqarrar, men uni o‘ldiraman. Sizdan bir iltimos: duel bo‘ladigan joyni va qurolning qanaqasi tanlanganini shu bugunoq menga xabar qiling. Kutishga toqatim yo‘q.

– To‘pponchalarda, ertalab soat sakkizda, Vensen o‘rmonida, – dedi Boshan.

U qarshisidagi zot beodob, kekkaygan bir odammi, yoki g‘ayri tabiiy kimsa ekanligini tushunolmay hayron edi.

– Juda soz, janob, – dedi Monte-Kristo. – Mana, hammasini kelishib oldik, endi qo‘ying, teatrni tinchgina tomosha qilay, og‘ayningiz Albarni bu yoqqa qo‘ymang, odobsizlik qilib o‘ziga zarar etkazib qo‘yadi. Yaxshisi uyiga borib uxlasin.

Boshan hayratlanib chiqib ketdi.

Monte-Kristo Morrel tomonga o‘girildi-da:

– Endi, – dedi, – siz mening sekundantim bo‘lasiz deb ishonsam bo‘ladimi?

– Albatta, – dedi Morrel, – xizmatigingizga tayyorman, graf, biroq har holda...

– Nima har holda?

– Haqiqiy sababini bilishim albatta zarur.

– Boshqacha qilib aytganda, sekundant bo‘lolmayman deng?

– Aslo undoq emas.

– Haqiqiy sababimi? – takrorladi graf. – Bu yigitcha nima qilayotganini o‘zi ham bilmaydi, haqiqiy sababi bir menu Xudoga ma‘lum. Biroq, sizga ont ichib aytamanki, ana shu sababdan xabardor Xudo bizni qo‘llaydi.

– Shunisi etarli, graf, – dedi Morrel. – Ikkinchi sekundantingiz kim bo‘ladi?

– Parijda bu muqaddas vazifani topshiradigan tanish odamim yo‘q mening, faqat siz va kuyovingiz Emmanyuel. Sizningcha Emmanyuel ikkinchi sekundant bo‘lishga rozi bo‘larmikin?

– Men nima desam, graf, u shunga rozi bo‘ladi, bunga ishonchim komil.

– Juda soz! Menga shundan boshqasi kerakmas. Demak, ertaga ertalab soat ettida menikida to‘planamiz? Shundaymi?

– Roppa-raso ettida huzuringizda bo‘lamiz.

Jim! Parda ochilyapti, keling, endi tomosha qilaylik. Doimo mana shu ko‘rinishdagi qo‘shiqlarni mazza qilib tinglayman. «Vilgelm Tel» juda ajoyib opera-da!

## XII. TUN

Graf Monte-Kristo, o'z odaticha, Dyupre mashhur «Mening ortimdan!» ariyasini aytib bo'lguncha o'tirdi, so'ng o'rnidan turib lojadan chiqdi.

Morrel ostonada, ertalab soat ettida Emmanyuel bilan albatta etib kelamiz, deb xayrlashdi.

Shundan keyin hamon vazmin va kayfi chog' graf izvoshga chiqib o'tirdi.

Besh daqiqa o'tar-o'tmas uyiga etib keldi-da, g'azabga minganini sezdirmay, o'zini sipo tutib bosiq ohangda:

– Ali, – dedi u, – sopi fil suyagidan yasalgan to'pponchalarimni keltir!

Ali yashik keltirdi, graf o'z hayotini bir parcha qo'rg'o-shinga ishonib topshirib qo'yan kishi singari, qurollarini mehr bilan ko'zdan kechirdi.

Bu qurollarni uyida merganlikni mashq qilish uchun o'zi maxsus yasattirgan edi. Otadigan pistonlari ham etarli. Qo'shni xonadagi kishi, hech qachon, merganlarning iborasi bilan aytganda, «graf otishning rosa mashqini olyapti-da», deya olmasdi.

U to'pponchani qo'lga olib, taxtaga chizilgan nuqtani endi mo'ljalga olgan edi, xona eshigi ochilib, Batisten kirib keldi.

Batisten gapirishga og'iz ochmasdanoq, graf ochiq eshik orqasida qorong'ida o'rtuk yopingan ayol turganini ko'rdi, u Batisten ketidan kirgan edi.

Ayol grafning qo'lida ikki to'pponcha, stolda ikki shamshir turganini ko'rdi-yu, o'zini ichkariga otdi.

Batisten hayron bo'lib xo'jayiniga qaradi. Graf uni chiqib turishga ishora qilib, eshikni bekitib oldi.

– Xonim, kim bo'lasiz? – dedi graf o'rtuk yopingan ayolga.

Notanish ayol, ikkimizdan boshqa hech kim yo'qmi, degandek xonaga ko'z yugurtirib chiqdi-da, peshanasi erga tekkudek ta'zim qilib, qo'l qovushtirib yolvorib dedi!

– Edmon, siz mening o'g'limni o'ldirmang!

Graf o'zini bir qadam orqaga tashladi-da, bo'g'iq qichqirib, to'pponchasini qo'ldan tushirib yubordi.

– De Morser xonim dedingizmi? – dedi u.

– Edmon deyaqman, – dedi ayol dadillik bilan o'rtugini olib tashlab, – sizning ismingizni aytyapman. Bu nomni faqat men unutganim yo'q, ha, faqat men! Edmon, daroghingizga najot tilab kelgan de Morser xonim emas, Mercedes bo'ladi.

– Xonim, Mercedes allaqachon dunyodan o'tgan, – dedi Monte-Kristo, – men uchun Mercedes ismli ayol bu dunyoda yo'q.

– Mercedes hayot, Mercedes hech narsani unutgani yo'q, faqat ana shu Mercedes sizni bir ko'rishdayoq tanidi, Edmon. Hatto tovushingizdan tanib oldi u sizni. O'shandan buyon Mercedes izingizdan qolmaydi, tinmay kuzatadi, sizdan qo'rqadi. Graf de Morserga kim qaqshatqich zarba urayotganini ham biladi.

– Xonim, Fernanga demoqchisiz-da, – dedi zaharxandalik bilan Monte-Kristo. – Modomiki, nomlarni eslay boshlagan ekansiz, keling, hammasini esga olaylik.

Monte-Kristo «Fernan» nomini shunaqangi g'azab bilan aytdiki, Mercedesning yuragi orqasiga tortib ketdi.

– Mana, Edmon, ko'rib turibsizki, men adashmabman, – dedi xitob qilib Mercedes, – o'g'linga shafqat qiling, deb bekorga aytmabman.

– Xonim, meni o'g'lingizning dushmani deb kim aytdi sizga?

– Hech kim! Hamma onalar juda ziyrak bo'ladi. Men uning ortidan Operaga bordim, lojaga bekinib olib, hamma gapni eshitdim.

– Demak, xonim, Fernanning o'g'li odamlar oldida meni haqorat qilganligini eshitibsiz-da? – dedi Monte-Kristo o'ta vazminlik bilan.

– Rahm qiliig!

– O'g'lingiz yuzimga, – dedi graf, – qo'lqopini itqitmoqchi bo'lganda, do'stlarimdan janob Morrel uning qo'lini ushlab qolganligini ko'rdingiz-ku.

– Ochig'ini aytaymi: o'g'lim sizni tanib qolibdi, otasi-ning boshiga tushgan musibatni sizdan ko'ryapti.

– Xonim, – dedi Monte-Kristo, – yanglishyapsiz, bu musibat emas, jazo! Janob de Morserni men emas, Xudo qahr-g'azabiga olyapti, uni balo-qazolarga muhtalo etyapti.

– Shunday ekan, siz nechun bu ishga bosh qo'shyapsiz? – dedi Mercedes, – yotgan ilonning boshini qo'zg'ayapsiz? Edmon, Yanina va uning vazirining sizga nima daxli bor? Fernan Mondego Ali-Tebelinga xoinlik qilgan ekan, u sizga nima yomonlik qildi?

– To'g'ri, xonim, – dedi Monte-Kristo, – bularning hammasi faqat fransuz ofiseri va Vasilikining qiziga taalluqli. To'g'ri, bularga mening hech daxlim yo'q; biroq men fransuz ofiseridan emas, graf de Morserdan emas, baliqchi Fernandan, katalanlik Mercedesning eridan qasos olayotibman.

– Taqdir meni qanday mash'um xatolikka giriftor qildi, – dedi hayajonda grafinya. – Hamma ayb menda-ku, Edmon, qasdingizni mendan oling – judolik va yolg'izlikka bardosh berolmagan mendan oling.

– Nechun judolik yuz berdi? – xitob qildi Monte-Kristo.  
– Nechun siz yolg'iz qoldingiz?

– Sizni qamoqqa olishdi, Edmon, siz turmada edingiz.

– Nechun meni qamoqqa olishdi? Nechun men turmaga tushib qoldim?

– Bunisini men bilmayman, – dedi Mercedes.

– Ha, xonim, buni siz bilmasligingiz ham mumkin. Men o'zim aytaman sizga. Qamoqqa olinib, turmaga tushishimga sabab shuki, sizga uylanmoqchi bo'lib turganimda Danglar ismli zot «Rezerv» ayvonchasida mana bu xatni yozgan, baliqchi Fernan esa buni shaxsan pochtaga olib borib berishni gardaniga olgan edi.

Monte-Kristo shunday dedi-da, stol yoniga borib, tortmani ochdi va sarg'ayib ketgan qog'ozga och siyoh bilan bitilgan bir maktubni Mercedes oldiga qo'ydi.

Bu Danglar tomonidan qirollik prokuroriga yozilgan



o'sha ma'lum xat edi. Graf Monte-Kristo bu xatni Tomson va French firmalarining josusiman deb, janob de Bovilning kabinetida Edmon Dantesning delosidan sug'urib olgan edi.

Mersedes dahshatga tushib xatni o'qidi:

*«Toj-taxtimiz va mazhabimiz muxlisi janob qirollik prokuroriga ma'lum qiladiki, shu bugun Neapol va Porto-Ferrayo orqali Smirnadani kelgan «Faraon» kemasi kapitanining yordamchisi Edmon Dantes Myuratdan uzurpatorga, uzurpatordan esa Parijdagi bonapartchilar komitetiga xat olib keldi.*

*Uni qamoqqa olinsa, jinoyatni bo'yniga qo'yadigan dillarni qo'lga tushirish mumkin, chunki xat uning o'zida yoki otasida, yo bo'lmasa «Faraon»dagi xonasida bo'ladi».*

– Yo, alhazar! – dedi Mercedes ter bosgan peshanasini artib, – demak, bu xat...

– Men buni ikki yuz ming frankka sotib oldim, – dedi Monte-Kristo, – unchalik qimmatga tushmadi bu, chunki bugun shu xat bilan sizning oldingizda o'zimni oqlab olishga muyassar bo'ldim.

– Shu xat vajidan?..

– Men qamaldim, bundan xabardorsiz, biroq, xonim, siz qamoqqa necha yillar aziyat chekkanimdan bexabarsiz, sizdan chorak le narida If zindonida rosa o'n to'rt yil azob chekkanimni bilmaysiz. Ana shu o'n to'rt yil mobaynida o'ch olish haqida har kuni tinmay ont ichganimdan bexabarsiz, buning ustiga chaqimchi Fernanga erga tekkaningizdan va otamning ochlikdan o'lganidan bexabar edim.

Mersedes gandarab ketdi:

– Yo, alhazar! – dedi Mercedes xitob qilib.

– Turmada o'n to'rt yil yotib chiqqach, bu gaplarning hammasini bilib oldim, shu sababdan Mercedesning hayoti va otamning o'limi uchun Fernandan o'ch olishga ont ichdim va mana endi o'ch olyapman.

– Sizning orqangizdan chaqimchilik qilgan shu badbaxt Fernan ekanligiga imoningiz komilmi?

– Vijdonim hurmati, xonim, shu ablahning ishi bu. Uning bu ishi fransuz fuqarosining xoinlik qilib inglizlarga sotilib ketishidan qabihroq, o‘zi ispan bo‘la turib, ispanlarga qarshi jang qilishdan ham battarroq, Ali xizmatidagi ofiserning shu Aliga sotqinlik qilib uni o‘ldirishdan ham battar razillikdir. Men sizga ko‘rsatgan bu xatdan ham qabihroq narsa bormi? Qani ayting-chi, bormi? Oshiqning bu hiyla-nayrangini, unga xotin bo‘lgan ayol kechirishga majbur, albatta. Ammo shu ayolni o‘shanda o‘zining qaylig‘i deb bilgan, o‘z baxti deb bilgan kishi uning bu nayrangini aslo kechira olmaydi! Fransuzlar xoindan o‘ch olmadilar, ispanlar sotqinni otib tashlamadilar, go‘rida yotgan Ali xoinning jazosini berolmadi, ammo ablahning xoinligi tufayli ming turli balolarga giriftor bo‘lib, tiriklayin go‘rga tiqilgan men, Xudoning qudrati bilan omon qoldim, ana shu Xudoning amri bilan qasos olishim kerak, bu erga ana shu burchni ado etmoq uchun yuborilgan edim, mana endi shu erdaman. Baxti qaro ayol qo‘llari bilan yuzini bekitdi-da, tiz cho‘kdi.

– Rahm qiling, Edmon, kechiring, – dedi u, – men uchun, sizga bo‘lgan qiyomatli muhabbatim haqqi, kechiring, rahm qiling!

Erlik xotinning fazilati tilka-pora bo‘lgan yurakdagi jo‘shqinlikni to‘xtatib qo‘ydi.

Mersedesning peshanasi erga tegay deb qoldi.

Graf yugurib borib, uni ko‘tarib qo‘ydi.

Mersedes kursiga cho‘kdi-da, jiqqa yosh ko‘zlarini Monte-Kristoning hamon azob-uqubatlar va nafratlar dahshati iz solib turgan mag‘rur yuziga tikdi.

– Bu la‘nati naslga qiron keltirmaymi? – dedi bo‘g‘iq ovozdagi graf. – Shunday qil deb farmon bergan Xudoning amriga shak keltirmaymi? Yo‘q, yo‘q! Aslo bunday qilolmayman!

– Edmon, – dedi baxti qaro ona qayg‘uga botib, – axir men sizni Edmon deyapman, siz esa nega meni Merse-

des demayapsiz? Nega?

– Mercedes! – takrorladi Monte-Kristo. – Ha, siz haq gapni aytyapsiz, bu ismni tilga olish menga huzur bag'ishlaydi. Bugun ham, necha zamonlar o'tib ketganiga qaramay, bu ism mening tilimda juda yoqimli jaranglayapti, Mercedes, men ismingizni bag'rim biryon bo'lib, qayta-qayta takrorladim, turma poxoli ustida sovqotib yotganlarimda ham tilga oldim, jazirama yoz kunlari zindonning tosh poliga oyoq bosolmay jizg'anak bo'lgan vaqtlarda ham bu muqaddas nom og'zimdan tushgani yo'q! Mercedes, men o'ch olishim kerak. Axir rosa o'n to'rt yil jaf o chekdim, bu naslga la'natlar o'qib, o'n to'rt yil qon yig'ladim. Mercedes, eshityapsizmi, men o'ch olishim kerak! O'ch!

Graf, bir vaqtlar butun ishq-i-muhabbatini bag'ishlagan bu ayolning yalinib-yolvorishlariga bardosh berolmay qolishdan qo'rqib o'tmishda qayg'u-alam, g'azab-nafratlarga to'la kunlarni eslab madad tilardi shu payt.

– Edmon, mayli, o'ch oling, – dedi noiloj sho'rlik ona, – biroq qasosni aybdorning o'zidan oling, o'g'limdan emas, mendan oling qasosingizni!..

– Muqaddas risolada shunday deyilgan: «Otalarning gunohi ularning uchinchi yo to'rtinchi avlod bolalari gardaniga tushadi». Xudo payg'ambarlariga shunday degan ekan, nega endi men Xudodan ham ko'proq mehr-shafqatli bo'lmog'im kerak?

– Chunki, zamonning zayli va abadiylik Xudoning izmida, inson esa bundan mustasnodir.

Shu payt Monte-Kristoning ko'ksidan allaqanday faryod otilib chiqdi, u kaftlarini chakkasiga mahkam bosdi.

– Edmon, – davom etdi so'zida Mercedes grafga qo'llarini cho'zib, – o'sha dastlabki kunlardan buyon sizga e'tiqodim kuchli, hamisha qalbimdasiz. Azizim Edmon, qalbimda abadiy jo bo'lib qolgan bu olijanob va musaffo siymoga dog' solmang! Edmon, sizni tirik deb umid qilib, kecha-kunduz qon yig'lab Xudoga nolayu afg'on urganimni bilsangiz edi! Sizni o'ldi, deganlariga

ishonganimdan so'ng tortgan qayg'u-alamlarim-chi? Ha, sizni o'lganga chiqargandim! Jasadingiz qandaydir bahaybaxt minora tagiga ko'milgan, deb yurardim, jasadingizni turma soqchilari biror jarga tashlab yuborgandir deb, daryo-daryo ko'z yoshi to'kdim. Mening qo'limdan yig'idan boshqa nima ham kelardi, Edmon! Shundan boshqa qanday yordam berishim mumkin sizga men sho'rlik. Quloq bering, menga, Edmon: o'n yil uzluksiz bir xil tush ko'rdim. Sizni qochmoqchi bo'libdi, degan mish-mish tarqalibdi, mahbuslardan birining joyiga yotib, kafanga o'ralib olibdi va o'sha tirik murdani, ya'ni sizni If qal'asining cho'qqisidan dengizga uloqtirishibdi, toshga tushib qichqirib yuborganingizni eshitgandan so'nggina go'rkovlaringiz – qotillaringiz boshqa mahbusga almashganingizni bilishibdi... Edmon, o'g'limning hayoti haqqi, qasamyod qilib aytamanki, o'n yil mobaynida tepalikdan noma'lum va dahshatli bir narsani uloqtirib tashlayotgan odamlar tunlari orom bermay bezovta qildi meni, o'n yil tunlari vahimali qichqiriq qulog'im tagida jaranglab, yuragimga dahshat solib keldi. Edmon, gunohim naqadar og'ir bo'lmasin, tortgan azob-uqubatlarim undan ham og'ir edi. Ha, og'ir edi!

– Biroq, siz men singari xunob bo'lib, judolik adoyi tamom qilgan otangizni eslamagandirsiz, – dedi xitob ila Monte-Kristo. – Qop-qorong'i zindonda bo'g'ilib yotganda – sevimli qiz raqibim qo'yniga kirgandir, degan o'ydanda rashk o'tida yonmagandirsiz?

– Yo'q, – dedi grafning so'zini bo'lib Mercedes, – biroq meni sevgan zot endilikda o'g'limni o'ldirishga qasd qilyapti.

Mercedes bu so'zlarni shu qadar mungli va qayg'uli ohangda gapirdiki, grafning bag'ri ezilib, ingrab yubordi.

Sher bo'yin egishga majbur bo'ldi, shafqatsiz qasoschi itoatkor bo'lib qoldi.

– Nima istaysiz? – so'radi u, – o'g'lingizga rahm-shafqat qilishimni, uni tirik qoldirishimni istaysizmi? Mayli, u

tirik qoladi.

Mersedes quvonganidan qichqirib yubordi. Bir zum Monte-Kristoning ko'zlarida ikki tomchi yosh yiltillab, darrov g'oyib bo'ldi.

– Rahmat, Edmon, rahmat! – dedi Mercedes Monte-Kristoning qo'lini lablariga yaqin keltirib. – Men sizni hamisha shunday deb tasavvur qilardim va sevardim. Endi ochiq aytishim mumkin buni!

– Ha, sho'rlik Edmon, sevish g'animat bo'lib qoldi. Murda o'z qabriga, arvoq fanoga yo'l oladi endi.

– Edmon, nimalar deyapsiz?

– Siz shuni istar ekansiz, demak, men o'lishim kerak, deyapman.

– O'lishim kerak? Kim shunday deyapti? O'limni kim tilga olyapti? Nega tag'in o'lim haqida gap ochyapsiz?

– Nahotki, butun bir zal to'la xaloyiq oldida, sizning va o'g'lingizning yor-do'stlari huzurida haqoratlanar ekanman, anchayin ona suti og'zidan ketmagan bola meni duelga chaqirib, uni afv etishimni o'zining g'alabasi deb jar solar ekan, bunday sharmandaliklardan keyin nahotki meni tirik qoladi deb o'ylasangiz? Nahotki? Sizdan keyin, Mercedes, dunyoda men faqat o'zimni, o'z qadriyatimni qadrlardim, meni kishilardan ustun qilib kelayotgan kuchni sevardim, ardoqlardim. Sizning birgina so'zingiz shu kuchni bukib tashladi. Endi men o'lmog'im kerak.

– Edmon, siz afv etgandan so'ng duel bo'lmasligi tabiiy-ku, axir.

– Duel bo'ladi, xonim, albatta bo'ladi, – dedi tantanavor ohangda Monte-Kristo, – biroq o'g'lingiz o'rniga mening qonim to'kiladi endi.

Mersedes qattiq qichqirib yubordi-da, Monte-Kristoga o'zini otdi, lekin shu vaqt o'zini o'ngladi-da:

– Edmon, – dedi, – Xudo – mehribon, siz tirik ekansiz, yana ko'z oldimda ekansiz, Xudodan sizga uzoq umr tilayman. Shu tufayli sizga ishonaman. Edmon, o'g'limni o'lmaydi dedingiz-a, shundaymi?

Ayol shunchalik zo'r olihimmatlilikka parvo qilmayotganini ko'rib Monte-Kristoning dili qattiq og'ridi.

– Ha, shunday, xonim! – dedi u alam bilan.

Mersedes grafga qo'lini cho'zdi.

– Edmon, – dedi jiqqa yosh ko'zlarini grafga tikib, – qanchalar olijanob zotsiz-a! Baxti qaro ayol bunchalik muruvvatni siz kabi olihimmat kishidangina kutishi mumkin, ha, faqat sizdan! Yillar emas, qayg'u-alam, g'am-g'ussa qaritdi meni, endi ming ochilib-sochilganim bilan Edmonim oldida o'sha yoshlikdagi Mercedes bo'lolmayman. Ishoning, Edmon, men ham ozmuncha kulfat chekmadim. Hayot xotirangda birorta quvonchli damni, qalbingda esa birorta orzu-armonni qoldirmay o'tib ketayotganini sezib turish g'oyat og'ir musibatdir, ammo o'ning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug'. Qalbimdagi orzu-umidlarim, istaklarim batamom tugagani yo'q hali. Takror aytaman sizga, Edmon, sizning bu og'ir gunohni kechirishingiz tengsiz go'zallik, beqiyos olijanoblik va behad muruvvatlilikning timsolidir.

– Mercedes, siz shunday deysizu, biroq behudaga o'lib ketish men uchun naqadar og'ir ekanini bilmaysiz. Bordi-yu, Xudo dunyoni yaratayotib, bir olam mojaro tug'dirib qo'ygan ekan, so'ngra insonlar razilligi tufayli parilar ko'z yoshlarining behuda to'kilmasligi bilan ovora bo'lib, o'z ishini takomiliga etkazmay qo'ysa nima bo'lardi? Bordi-yu, Xudo hammasini puxta o'ylab, barpo etib, yaratganlariga mahliyo bo'lsa-da, quyoshni o'chirib butun jahonni zimiston tunga aylantirib qo'ysa nima bo'lur edi? Mana shularni bir chuqur o'ylab ko'rsangiz, men o'zimni qurbon qilib nimalardan mahrum bo'lajagimni fahmlab olasiz, biroq afsuski, siz shunda ham anglay olmaysiz buni.

Mersedes grafga hayron bo'lib tikilib qoldi, ayolning ko'zlarida shavq-zavq va minnatdorchilik ifodasi aks etib turardi.

Monte-Kristo go'yo og'ir xayollarini ko'tarolmayotgandek boshini tirab turgan qo'llariga shilq etib tashladi.

– Edmon, – dedi Mercedes, – sizga aytmoqchi boʻlgan birgina soʻzim qoldi.

Graf zaharxanda iljayib qoʻydi.

– Edmon, – davom etdi Mercedes, – yana koʻrarsiz, chehram soʻlib, koʻzlarim nursizlanib, chiroyim yoʻqolib ketgan boʻlsa-da, hozirgi Mercedesda ilgari Mercedesdan zarracha nishon qolmagan boʻlsa-da, uning koʻksida hamon oʻsha qalb!.. Alvido, Edmon, alvido! Sizdan boshqa iltimosim yoʻq... Alvido, Edmon... Tangri yorlaqasin sizni!

Biroq graf hech nima demadi.

Mercedes xona eshigini ochdi-da, chuqur va qaygʻuli oʻy-xayollarga choʻmgan graf oʻziga kelguncha, gʻoyib boʻldi.

Graf Monte-Kristo de Morser xonimni Elisey Maydonidan olib ketayotgan izvosh ovozi eshitib, boshini koʻtarganda, Nogironlar uyining soati tungi birga bong urgan edi.

– Tentak, – dedi graf, – oʻch olishga qaror qilgan oʻsha kunning oʻzidayoq koʻksimdan yuragimni sugʻurib tashlasam boʻlmasmidi!

### **XIII. DUEL**

Mercedes ketishi bilan Monte-Kristoning uyi yana zimi-stonga aylandi, atrofni ham, ichkarini ham suv sepgandek jimjitlik bosdi. Obdan charchagan tanni qattiq uyqu bosgani singari, uning oʻtkir miyasi ham qotib qoldi.

– Nahotki! – dedi u oʻz-oʻziga, shu orada lampalar va shamlarning piligi yonib tugay deb qolgan va yoʻlakda holdan toygan qarollar sabrsizlik bilan kutayotgan edi. – Nahotki, uzoq yillar davomida gʻoyat zoʻr diqqat-eʻtibor, mashaqqat bilan tiklangan bu bino bir ogʻiz soʻzdan, shabadaning jindek epkinidan kunpayakun boʻlsa. Hammadan oʻzini ustun deb bilgan, oʻziga bino qoʻyib magʻrurlanib yurgan, bir vaqtlar If qalʼasi zindoning ojiz

mahbusi endilikda tengsiz kuch-qudratga ega bo'lib olgan men, nihotki, ertaga bir siqim tuproqqa aylanib qolsam? Nahotki? Men o'layotganimga achinmayman, axir o'lim hamma intiladigan, hamma orzu qiladigan mangu osoyishtalik emasmi? Ko'pdan buyon behisob musibatlar chekib men intilgan, sog'inchi yuragimni o'rtab kelgan onajonimning xilvatgohi emasmi! Men uchun o'lim nima o'zi? Anchayin cho'zilgan tinchlik, osoyishtalikdir. Yo'q, men o'layotganimga emas, nihoyatda ohista, puxtalik bilan tuzilgan rejalarim barbod bo'layotganiga achinaman. Orzularim Tangri xohishi deb, xomxayollar surib yurgan ekanman. Mana endi ularni Xudoning o'zi inkor qilyapti! Demak, Xudo rejalarimning ro'yobga chiqishini ravo ko'rmabdi!

Gardanimdagi bu yuk g'oyat og'ir yuk edi, shunga qaramay men uni oxirgi manzilgacha ko'tarib borishga qasd qilgan edim, chunki u menim istaklarimga mos edi, biroq kuchimga mos emas edi, irodamga, matonatimga mos edi, biroq menim izmimda, amrimda emas edi, endilikda men buni yarim yo'lda tashlab ketishga majburman. Shunday qilib, men yana taqdirga tan beruvchi, peshanamga yozilganga ishonuvchi odam bo'lishga majburman! Ha, o'n to'rt yil mobaynida tortgan azob-uqubatlardan, o'n yil ichidagi orzu-umidlar natijasida ilohi taqdir nimaligini bilib olgan men fatalist bo'lishga majburman endi. Bularning hammasiga sababchi – mening yuragim! Ha, o'lik deb bilgan, biroq aslida muzlab-yotgan yuragim! Chunki, endi bu yurak yana uyg'ondi, yana ura boshladi, chunki ayol ovozi eshitib tirilgan bu yurakning titrab urishiga bardosh berolmadim, chidolmadim!

«Nahotki, – davom etdi graf bo'lajak duelni o'ylab, – nahotki, shunday mehr-shafqatli ayol meni, o'n gulidan bir guli ochilmagan, kuch-g'ayratga to'la yigitni sovuqqonlik bilan o'limga mahkum etsa? Yo'q, unday bo'lishi mumkin emas! Yo'q, u onalik mehriga bunchalik berilib ketishi, yoki, to'g'rirog'i, shaydo bo'lib ketishi mumkin emas. Shunday olihimmat kishilar borki, ba'zida



quyushqondan chiqib, qusur bo'lib ketishadi. Yo'q, bu ayol ko'nglimni eritadigan birorta mojaro o'ylab topar, ehtimol o'rtamizga o'zini tashlab turib olar, ana shunda boyagi ulug'vorlik duel maydonida kulgiga aylanib, masxarasi chiqar».

Grafning yuzini tahqirlangan g'urur nishonalari qoplandi.

– Masxarasi chiqadi! – takrorladi u, – demak, mening masxaram chiqadi... Mening? Yo'q, yo'q, bundan ko'ra o'lganim yaxshi.

Graf shu mahalgacha o'zi qozongan hamma narsalarni mudhish iboralar bilan tasvirladi-da, Mercedesning o'g'lini o'limdan saqlab qolishga va'da bergani uchun o'zini koyib, dedi:

– Ahmoqlik bu, g'irt ahmoqlik! Ona suti og'zidan ketmagan bolaning o'qiga qimir etmay ko'krak tutib berish va bu bilan olijanobligingni namoyish qilish – ahmoqlik! U bolakay mening o'limim o'z-o'zini o'ldirish ekanligiga aslo ishonmas, ammo mening nomusim, shon-shavkatim (axir bu maqtanchoqlik emas, haqqoniy iftixor!..) bolaga ko'targan qo'limni o'zim to'xtatib qolganimni va barchaga dahshat solib kelgan ana shu qo'l bilan o'zimni halok etganimni odamlarga oshkora etilishini talab etadi, ha, talab etadi.

Graf darhol patqalamini tutib, maxfiy qutidan Parijga kelgach yozib qo'ygan vasiyatnomasini oldi-da, o'limining asl sababini qo'shimcha qilib yozib qo'ydi:

– Tangrim, – dedi u ko'zlarini samoga tikib, – o'zim uchungina emas, sen uchun ham shunday qilyapman. O'n yil men o'zimni sening qasos quroling, deb keldim. Biroq, ablalar, Morserdan boshqa Danglar, Vilfor kabi marazlar ham, Morserning o'zi ham eng dahshatli dushmani favqulodda o'lim dushmanimizdan bizni xalos etdi, deb shodlanib yurmasin. Ular shuni bilib qo'ysinlarki, Tangrim ularga qarshi qasos o'qini tayyorlab qo'ygan edi, faqat mening istagim, irodam bu o'qning tepkisini ushlab qoldi, ular bu dunyoda jazodan qutulib qolishsa-da, u

dunyoda qutulolmaydilar, ular endi abadiy jazoga mustahiqdirlar.

Monte-Kristo ana shu mudhish shak-shubhalar, qayg'ualamlar og'ushida azob chekayotganda, tong yog'dusi deraza oynasidan o'tib, hozirgina u o'lim oldi so'zlarini chizgan qog'ozga nur sochgan, ya'ni soat tonggi beshga bong urgan edi.

Birdan uning qulog'iga ohista ingragan tovush eshitedi. Monte-Kristoga kimdir og'ir nafas olgandek tuyuldi, u atrofni ko'zdan kechirdi, hech kim ko'rinmadi. Ammo ingrash, xo'rsinib nafas olish yana takrorlandi, uning shubhasi ishonchga aylandi.

Shundan keyin graf o'rnidan turdi-da, asta mehmonxona eshigini ochdi. Yumshoq kursida Gayde o'tirgan edi. Uning qo'llari majolsiz osilib qolgan, dokaday oqargan suluv yuzi orqaga tashlangan edi. Aftidan, u graf o'z xonasidan chiqqanda meni ko'rmasdan o'tmasin, deb, o'rindiqni eshikka surib taqab qo'ygan edi, ammo beorom tundan so'ng yoshlikning kuchli uyqusi qizni enggan edi.

Monte-Kristo eshikni ochganda ham Gayde uyg'onmadi. U mehr va o'kinch to'la ko'zlarini qizga tikdi.

– U o'g'lini unutmagan edi, – dedi graf, – men esa qizimni unutibman-a!

U g'amgin boshini chayqab qo'ydi.

– Sho'rlik Gayde, – dedi u, – meni ko'rmoqchi, gaplashmoqchi bo'lib kelibdi, bir narsani sezib, mendan xavotir olganga o'xshaydi... qizim bilan vidolashmay turib ketolmayman, uni birovga topshirmay turib o'lishim ham mumkin emas.

Graf asta joyiga qaytdi-da, haligi satrlar tagiga quyidagilarni yozdi:

*«Men marsellik kemachi sobiq xo'jayinim Per Morrelning o'g'li suvoriylar kapitani Maksimilian Morrelga yigirma million mablag'imni meros qilib qoldiraman, bu mablag'ning bir qismini u singlisi Joli va kuyovi Emma nyuelga berishi kerak (basharti, u bunday boylik ularning baxtli turmushiga xalaqit bermaydi desa). Bu yigirma mil-*

*lion Monte-Kristo orolidagi g'orimda yashirib qo'yilgan, unga kirish yo'li Bertuchchoga ayon.*

*Agar uning qalbi biror jononga band bo'lmay, Yanina shohining qizi Gaydega uylanishga istak bildirsa, – o'z qizimdek tarbiyalagan va meni ham o'z otasining erkatoq qizidek sevadigan Gaydega uylansa – vasiyatimni amalga oshirgan bo'ladi.*

*Shu vasiyatnomamga muvofiq, Gayde mening qolgan hamma mol-mulkingimning – er-suvim, Angliya, Avstriya va Gollandiya banklaridagi pullarimning, saroylarim va uylarimdagi jihozlarimning hammasiga merosxo'rdir, bular, haligi yigirma millionni va xizmatchilarimga vasiyat qilib qoldirgan summalarni chiqarib tashlaganda, taxminan oltmish millionga boradi».*

Graf so'nggi satrlarni yozib tugatayotganda orqasidan nozik ovoz eshitildi-yu, qo'lidan patqalami tushib ketdi.

– Ha, Gayde, – dedi u, – o'qidingmi?

Kiprigiga tushgan tong yog'dusidan uyg'ongan qiz yumshoq gilam ustida engil qadamlar tashlab graf qoshiga kelgan edi.

– Egam, – dedi u iltijo bilan qo'llarini qovushtirib, – nega buni shunday bemahalda yozyapsiz? Nega butun mol-mulkingizni menga vasiyat qilib qoldiryapsiz? Yoki meni tashlab ketishga qaror qildingizmi?

– Azizim, men uzoq safarga otlanyapman, – dedi Monte-Kristo g'amgin ohangda, – olis safarda biror hodisa yuz berib qolishi ehtimoldan xoli emas...

Graf jim bo'lib qoldi.

– Unda nima bo'ladi?.. – dedi qiz hech qachon o'z janobiga qilmagan amirona bir tusda.

– Nima bo'lishidan qat'i nazar, qizim baxtiyor bo'lishini istayman, – davom etdi Monte-Kristo.

Gayde ma'yus jilmaydi-da, asta boshini chayqadi.

– Siz o'limni o'ylayapsiz, shekilli, xojam? – dedi

– Donishmand, bu hayotbaxsh fikr, degan, oppog'im.

– Agar o'lsangiz, – dedi Gayde, – boyligingizni boshqa-

ga meros qilib qoldiring, siz bo'lmagach, menga boylilikning nima keragi bor? – dedi va vasiyatnomani yirtib tashladi. Cho'rilarga xos bo'lmagan bu qiziqqonlikdan so'ng Gayde hushidan ketib, gilamga yiqildi.

Monte-Kristo egilib qizni ko'tarib oldi-da, uning doka-day oppoq suluvi yuziga, bir-biriga yopishib turgan uzun-uzun kipriklariga, bejirim nozik badaniga tikilib qoldi; «ehtimol, buning menga muhabbati faqat qizning muhabbati emasdir», dedi ichida u.

– Ehtimol, – dedi alamli ohangda shivirlab, – shunda men baxt nimaligini bilgan bo'larmidim.

Graf behush Gaydeni o'z bo'lmasiga olib borib, oqsochlarga topshirib chiqdi. Xonasiga qaytib eshikni qulfladi-da, vasiyatnomani qaytadan yoza boshladi.

U yozib ulgurmagan ham ediki, hovliga bir izvosh taqalab kirib keldi. Monte-Kristo deraza oldiga kelib hovliga qaradi. Izvoshdan Maksimilian va Emmanyuel tushayotgan edilar.

– Juda yaxshi bo'ldi, – dedi u, – vaqtida yozib tugatdim.

Vasiyatnomaga uch marta muhr bosdi.

Besh daqiqadan keyin mehmonxonada oyoq tovushi eshitildi, graf eshikni ochdi.

Morrel kirdi. U belgilangan vaqtdan yigirma daqiqa oldin kelgandi.

– Juda erta kelib qoldimmi deyman, graf? – dedi u, – biroq ochig'ini aytsam, kechasi bilan hammamiz mijja qoqmay chiqdik. Men sizni tezroq ko'rishni, ko'rganda ham o'zingizga ishongan holda ko'rishni istadim, shundagina ko'nglim joyiga tushadi, deb o'yladim.

Uning mehrga to'la bu so'zlari Monte-Kristoning dilini shod etdi va u Maksimilian bilan qo'l berib emas, quchoqlashib ko'rishdi.

– Morrel, – dedi graf, – bugun men nihoyatda xursandman, chunki, siz kabi qadrdon do'stim yonimda. Salom, Emmanyuel! Siz men bilan borasizmi, Maksimilian?

– Albatta! Nahotki siz mendan shubhalansangiz?

- Agar nohaq bo’lsam...
- Men kechagi manzarani ko’rib turgan edim, tuni bilan siz qanday sabot-matonat bilan o’zingizni tutganligingizni o’yladim va haqiqat graf tomonda, dedim.
- Alber do’stingiz-ku?
- U shunchaki tanish.
- U bilan ham men bilan tanishgan kuningiz tanishgandirsiz-da?
- To’g’ri, ko’rib turibsizki, hozir siz aytmaganingizda, men buni xayolimga keltirmasdim.
- Rahmat, Morrel.
- Graf qo’ng’iroqni bir marta bosdi.
- Mana buni mening notariusimga olib borib berishsin, – dedi u shu zahotiyoc kirib kelgan Aliga. – Bu vasiyatnoma, Morrel. Bu hujjat bilan men dunyodan o’tgach tanishasiz.
- Siz dunyodan o’tgandan keyin? – dedi hayron bo’lib Morrel. – Bu nima deganingiz?
- Har ehtimolga qarshi, azizim. Aytgancha, kecha ajralib ketganimizdan keyin kechqurun nima qildingiz?
- Tortonikiga bordim, Boshan va Shato-Reno o’sha erdadir, deb o’ylagandim. Ochig’ini aytsam, men ularni axtarib yurgandim. Ikkisi ham o’sha erda ekan.
- Hamma narsa kelishib olingan edi-ku, tag’in qanaqa zarurat tug’ilib qoldi?
- Graf, menga qarang, duel jiddiy va albatta bo’ladigan ish.
- Bundan yana biror shubhangiz bormidi?
- Aslo. Xaloyiq oldida haqorat qilingach, qanaqa shubha bo’lishi mumkin? Bu gapdan allaqachon hamma xabardor.
- Xo’sh, bo’lmasa nima gap bor tag’in?
- Men ularni qurolni o’zgartishga ko’ndiraman deb umid qilgandim, to’pponchani shamshirga almashtiraylik, degandim. Axir o’q ko’zlamagan joyga ham tegishi mumkin-da.
- Xo’sh, ko’ndira oldingizmi? – so’radi shoshib Monte-

Kristo sezilar-sezilmas umidvorlik bilan.

– Yo‘q, chunki zo‘r qilichboz ekanligingizni hamma biladi-da.

– Iya, hali shunaqami! Kim tarqatibdi buni?

– Qilichbozlar muallimi, siz qilichbozlikda ulardan o‘tib ketgan emishsiz.

– Shunday qilib, ishingiz o‘ngidan kelmabdi-da?

– Ular qat‘iy rad etishdi.

– Morrel, – dedi graf, – mening to‘pponcha otganimni biror marta ko‘rganmisiz?

– Yo‘q.

– Hali ancha vaqtimiz bor, bo‘lmasa hozir ko‘rasiz.

Graf hali Mercedes kirgan vaqtda qo‘lidan tushib ketgan to‘pponchalarini oldi-da, chillik kartaning tuzini taxtaga yopishtirdi-da, uch marta otib, uchala o‘qni ham kartaning bir joyiga – o‘rtasiga tegizdi. Monte-Kristoning mahoratini ko‘rgan Morrelning rangida qon qolmadi.

– Dahshat-ku bu, dahshat! – dedi u, – qarang, Emma nyuel, buni qarang!

So‘ng u Monte-Kristoga o‘girildi:

– Graf, Xudo haqqi, Alberni o‘ldirmang! Sho‘rlik yigitchaning baxti qaro onasi bor!

– Bu gapingiz to‘g‘ri, – dedi Monte-Kristo, – lekin mening onam yo‘q.

U bu so‘zlarni alam bilan aytganidan Morrel seskanib ketdi.

– Axir haqoratlangansiz-ku.

– To‘g‘ri, ammo bu bilan nima demoqchisiz?

– Birinchi bo‘lib siz otasiz demoqchiman.

– Birinchi bo‘lib men otamanmi?

– Albatta, men shunday bo‘lishini talab qildim, biz ularga ko‘p imtiyozlar berdik, shuning uchun bunga ko‘nishga majbur bo‘lishdi.

– Masofa qancha bo‘ladi?

– Yigirma qadam.

Grafning lablarida «lip» etib achchiq tabassum ko‘rindi-yu, shu zahoti yo‘q bo‘ldi.

– Morrel, – dedi u, – hozir ko'rganlaringizni unutmang.  
– Shu sababdan ham, – dedi Morrel, – sizning hayajonlanib turishingiz Alberni falokatdan qutqarib qolur, degan umiddaman.

– Mening hayajonlanishim? – so'radi Monte-Kristo.

– Yoki sizning olihimmat zot ekanligingiz, azizim, mo'ljalga bexato tekkizadigan merganligingizni yaxshi bilaman, shuning uchun bir gapni sizga aytсам joiz bo'lur, boshqalar buni kulgiga olishi mumkin.

– Nimani?

– Siz uni o'lmaydigan qilib, qo'ligami yoki boshqa biror joyigami otasiz.

– Morrel, – dedi graf, – menga qarang, siz meni Morserga rahm-shafqat qilishimni so'ramay qo'ya qoling, Morserga shafqat qilaman va u hatto do'stlari bilan sog'salommat uyiga qaytadi, faqat men...

– Siz-chi?

– Bu boshqa gap, meni zambilga solib olib ketishadi.

– Nima deganingiz bu, graf? – dedi tashvishga tushib Maksimilian.

– Ha, xuddi shunday, azizim Morrel, meni Morser o'ldiradi.

Morrel hang-mang bo'lib grafga tikilib qoldi.

– Bu kechasi sizga biror gap bo'ldimi o'zi, graf?

– Filippdagi jangda Brut qanday holga duchor bo'lgan bo'lsa, bu kecha men ham xuddi shunday ahvolga duch keldim: arvohni ko'rdim.

– Xo'sh?..

– Arvoh menga bu dunyoda shuncha yashaganing etar, dedi.

Maksimilian va Emmanyuel hayron bo'lib, bir-biriga qarab olishdi. Monte-Kristo soatiga qarab:

– Ketdik, – dedi, – ettidan besh daqiqa o'tibdi, duel roppa-raso soat sakkizga tayinlangan.

Monte-Kristo dahlizdan o'tib borayotib, eshiklardan biri oldida to'xtadi, oldinroqqa o'tib olgan Maksimilian va Emmanyuelga yig'i va xo'rsingan tovush eshitildi.

Taxt bo'lib turgan izvoshga Monte-Kristo sekundantlari bilan birga o'tirdi.

Ular roppa-raso soat sakkizda belgilangan joyga etib kelishdi.

– Mana, biz keldik, – dedi Morrel izvosh darchasidan boshini chiqarib, – hammadan oldin keldik.

– Janob, kechiring meni, – dedi xo'jayinini kuzatib kelgan Batisten, – biroq, yanglishmasam, hu anavi daraxtlar tagida bir izvosh turibdi.

Monte-Kristo izvoshdan irg'ib tushdi-da, Emmanyuel bilan Maksimilianga qo'ltig'idan olib, tushishga yordam berdi.

Maksimilian grafning qo'lini bir oz tutib turib:

– Xudoga ming qatla shukr, – dedi, – haqiqat o'z tomonida ekanligini anglay turib ham, hayotini garovga qo'ygan insonning qo'li mana shunday bo'lishi kerak.

– Darhaqiqat, – dedi Emmanyuel, – huv anavi erda qandaydir yosh yigitlar sang'ib yurishibdi, ko'rinishiday bironta kishini kutayotganga o'xshashadi.

Monte-Kristo Morrelni chetga tortdi-da:

– Maksimilian, – dedi, – biror sevgan qizingiz bormi?

Morrel taajjublanib Monte-Kristoga qaradi.

– Men sizdan iqror bo'ling, deytoganim yo'q, azizim, shunchaki so'rayapman-da. Menga faqat bor, yo yo'q desangiz, shu kifoya.

– Bor, graf.

– Uni qattiq sevasizmi?

– Jonimdan ham.

– Yana bir umidim puchga chiqdi, – dedi Monte-Kristo o'ksinib. – Sho'rlik Gayde.

– Darhaqiqat, graf, – dedi Morrel, – men siz bilan yaxshi tanish bo'lmaganimda, hozir sizni qo'rqqoq odam ekan, derdim.

– Nega endi? Qarddon kishi bilan vidolashib, oh torta-yotganim uchunmi? Morrel, siz soldatsiz, jasorat nimaligini yaxshi bilishingiz kerak. Men jonimga achinyapmanmi? Umrning yigirma yilini hayot bilan o'lim o'rtasida



o'tkazgan men uchun yashash yoki o'lishning qanday farqi bo'lishi mumkin? Biroq, Morrel, xotirjam bo'ling, bu zaiflikni (agar bu chindan ham zaiflik bo'lsa) faqat birgina siz ko'rib turibsiz, bilamanki, dunyo bir mehmonxonayu, kishi undan o'z izzat-obro'yini qo'ldan bermay, odob saqlab, hammaga ta'zim berib, qarzlarini butunlay uzib chiqib keta bilmog'i kerak.

– Xudoga shukr, – dedi Morrel, – bu juda soz gap bo'ldi. Aytmoqchi, to'pponchalarni olib keldingizmi?

– Menmi? Nima uchun? Men anavi janoblarga ishonib keldim, ular to'pponchalarini olib kelishgandir.

– Qani, borib bilib kelay-chi, – dedi Morrel.

– Mayli, biroq hech qanday munozara bo'lmasin.

– Xotirjam bo'ling.

Morrel Boshan va Shato-Reno tomon jo'nadi. Ular Morrel kelayotganini ko'rib unga peshvoz chiqib, bir necha qadam oldinga yurishdi.

Yigitlar samimiy bo'lmasa-da, odob yuzasidan ta'zim qilib salomlashishdi.

– Kechiring meni, janoblar, – dedi Morrel, – janob de Morser ko'rinmaydilar?

– Bugun ertalab, – dedi Shato-Reno, – bizga, duel bo'ladigan joyda uchrashamiz, deb xabar qilgandi.

– Shunaqami hali, – dedi Morrel.

Boshan soatiga qaradi.

– Sakkizdan besh daqiqa o'tibdi, bu hech gap emas, janob Morrel.

– Men buni e'tiborga olayotganim yo'q, – e'tiroz bildirdi Maksimilian.

– Ana, izvosh ham keldi, – dedi suhbatni bo'lib Shato-Reno.

Ular turgan chorrahaga tutash yo'ldan bir izvosh uchib kelayotgan edi.

– Janoblar, – dedi Morrel, – to'pponchalarni olib keldirsiz deb ishonsam bo'ladimi? Graf Monte-Kristo o'z to'pponchalaridan foydalanishdan voz kechdi.

– Biz ham shunday bo'lishini oldindan bilgan edik, –

javob berdi Boshan, – kerak bo‘lib qolar deb, bundan bir hafta burun sotib olgan to‘pponchalarimni olib keldim, yap-yangi, hali biror marta ham ishlatilgani yo‘q. Istasangiz ko‘rsatishim mumkin?

– Bu to‘pponchani janob de Morser ko‘rmagan dedingiz, menga shuning o‘zi kifoya, – dedi Morrel.

– Janoblar, – dedi Shato-Reno, – qarang, kelgan Morser emas-ku.

Chindanam ular tomon Frans va Debre kelayotgandi.

– Sizlar bu erda nima qilib yuribsizlar, janoblar? – dedi Shato-Reno ikki qo‘llab so‘rashib.

– Bugun ertalab, – dedi Debre, – Alber duel bo‘ladigan joyga bizni kelishimizni iltimos qildi.

Hayron bo‘lib qolgan Boshan va Shato-Reno bir-birlariga qarab qo‘yishdi.

– Janoblar, – dedi Morrel, – nima gapligini anglab turibman.

– Xo‘sh, ayting-chi, nima gap ekan?

– Kecha janob de Morserdan xat oldim, xatda kechqurun Operada bo‘lishimni iltimos qilgandi.

– Men ham xuddi shunday xat oldim, – dedi Debre.

– Men ham, – dedi Frans.

– Biz ham, – deyishdi Shato-Reno va Boshan.

– U duelga chaqirgan paytda hozir bo‘lishingizni istagandir-da, – dedi Morrel. – Mana endi duel vaqtida ham shu erda bo‘lishingizni istabdi.

– Xuddi shunday, – deyishdi yigitlar, – siz buni to‘g‘ri payqabsiz.

– Biroq, Alberdan hamon darak yo‘q-ku, – dedi Shato-Reno, – vaqtidan o‘n daqiqa o‘tib ketdi.

– Ana keldi, – dedi Boshan, – otliq, uchib kelyapti, yonida qaroli ham bor.

– Odam ham shunaqa beparvo bo‘ladimi, tag‘in to‘pponcha bilan bo‘ladigan duel oldidan-a. O‘zingni ehtiyot qilmaysanmi. Hamma nasihatlarim bir pul bo‘ldi endi!

– Uning kiyimini qarang, – dedi Boshan, – galstuk taq-

qan, oldi ochiq kamzul, oppoq nimcha, nega endi bira to'la qorniga chambarak chizib qo'ya qolmabdi. Bunisi yana ham mos tushardi-da!

Alber o'n qadamcha yaqinlashgach, otini to'xtatib, irg'ib tushdi-da, jilovni qaroliga uloqtirdi.

Uning rangi dokadek oqargan, qovoqlari qizarib, shishib ketganidan tun bo'yi mijja qoqmay chiqqani sezilib turardi. Yuzida odatdan tashqari jiddiyat va g'am aks etib turardi...

– Rahmat sizlarga, janoblar, – dedi u. – So'zimni erda qoldirmay kelganlaringiz uchun katta rahmat, bu do'stona e'tiqodlaringiz uchun minnatdorman.

Morrel nariroqda turgandi. Morser paydo bo'lishi bilanoq u o'zini chetga oldi.

– Sizga ham rahmat, janob Morrel, – dedi Alber. – Yaqinroq kelavering, siz ham o'zimiznikisiz-ku.

– Janob, – dedi Maksimilian, – men graf Monte-Kristoning sekundanti ekanimdan bexabarsiz, shekilli?

– O'zim ham shunday deb taxmin qilgandim. Bunisi yana ham soz! Bu erda hurmatli kishilar qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi.

– Janob Morrel, – dedi Shato-Reno, – endi graf Monte-Kristoga borib janob Morser kelganini va biz tayyor ekanligimizni aytishingiz mumkin.

Bu topshiriqni bajarmoq uchun Morrel o'rnidan qo'zg'aldi.

Boshan izvoshdan to'pponchalar solingan yashikni oldi.

– Sabr qiling, janoblar, – dedi Alber, – graf Monte-Kristoga ikki og'iz so'zim bor.

– Shaxsan o'zigami?

– Yo'q, hammaning huzurida aytmoqchiman.

Alberning sekundantlari ajablanib bir-biriga qarab olishdi. Frans va Debre o'zaro shivirlashdi, bu kutilmagan holdan quvongan Morrel Emmanyuel bilan xiyobonda sayr qilib yurgan graf oldiga bordi.

– Uning menda nima gapi bor ekan? – so'radi Monte-

Kristo.

– Bilmadim, gapim bor, dedi, xolos.

– Yana bema’ni gaplar bilan Tangri g’azabini qo’zg’ab yurmasin, – dedi Monte-Kristo.

– Menimcha, unda bunday niyat bo’lmasa kerak, – dedi e’tiroz bildirib Morrel.

Graf sekundantlari Maksimilian va Emmanyuel bilan birga Alber tomonga yo’naldi, u g’oyat vazmin, chehrasi ochiq edi. Do’stlari kuzatuvida peshvoz chiqayotgan Alber esa uning tamoman aksi: hayajondan ikkala yuzi lovillab yonardi.

Alber bilan graf bir-birlaridan uch qadam narida to’xtashdi.

– Janoblar, – dedi Alber, – yaqinroq kelinglar, graf Monte-Kristoga aytmoqchi bo’lgan gaplarimni ikkala qulog’ingizga quyib oling, sizga qanchalik g’alati tuyulmasin, bu gaplarni siz xohlagan kishiga oqizmay-tomizmay etkazmog’ingiz shart.

– Qulog’im sizda, janob, – dedi Monte-Kristo.

– Graf, – dedi Alber, titroq ovozda, keyin asta-sekin ovozi dadillasha boshladi. – Men sizni janob de Morserning Epirda xatti-harakatlarini oshkora qilganlikda ayblagan edim; chunki men graf de Morser har qancha aybdor bo’lmasin, uni jazolashga haqingiz yo’q, deb bilgan edim. Keyin bilsam, siz haq ekansiz. Fernan Mondegoning Ali poshoga xoinligi emas, baliqchi Fernanning sotqinligi sizning mutlaqo begunoh ekanligingizni menga ayon etdi, siz ana shu sotqinlik, chaqimchilik oqibatida ko’z ko’rmagan, quloq eshitmagan jafolar tortdingiz. Shu vajdan men hamma oldida baland ovozda baralla sizga shunday deyman: janob, siz otamdan o’ch olishga mutlaqo haqlisiz, uning o’g’lini, ya’ni meni bundan ham battarroq baloga giriftor qilmaganingiz uchun sizdan minnatdorman!

Kutilmagan bu manzara guvohlarning boshiga chaqmoq kelib urilganda ham Alberning so’zlarichalik ta’sir qilmasdi.

Monte-Kristo boshini asta ko'tardi, uning ko'zlarida cheksiz minnatdorchilik uchqunlari barq urib turardi. Rim kallakesarlari orasida ortiq darajada jasorat ko'rsatgan va endilikda to'satdan o'zini bunchalik erga urayotgan Alberdan ko'zini uzolmasdi u. Shubhasiz bunda Merse-desning ta'siri borligini va nima uchun tunda xonim grafning qurbon bo'lishiga zarracha achinmaganligini endi fahmladi.

– Endi, janob, – dedi Alber, – hozirgi uzrlarim gunohlarimni yuvishga etarli deb hisoblagan bo'lsangiz, iltimos qilaman, keling, qo'lingizni bering, yarashaylik. Sizning ajoyib fazilatlarigizdan biri bequsurlik, benuqsonlikdir; bu ajoyib fazilat, men o'zining nohaq ekanligini bo'yniga ola bilishni ham ulug' fazilat deb hisoblayman. Ammo bu mening shaxsiy ishim. Insoniylik nuqtai nazaridan qaraganda, men to'g'ri qilyapman, siz esa Tangrining amri bilan ish tutdingiz, bu mojaroda ikkimizdan birimiz jondan judo bo'lmog'imiz turgan gap edi, bizni faqat farishta saqlab qoldi va ana shu farishta ikkimizning do'st-og'ayni bo'lib qolishimiz uchun emas (baxtga qarshi, do'st bo'lolmaymiz), bir-birimizni hurmat qiladigan odamlar bo'lib qolishimiz uchun osmondan erga tashrif buyurdi.

Monte-Kristo ko'zlari yoshga to'lib, og'ir nafas oldi-da, Alberga qo'lini uzatdi, Morser grafning qo'lini mahkam siqib:

– Janoblar, – dedi, – graf Monte-Kristo uzrimni qabul qildi. Men unga nisbatan engiltaklik qilgan edim. Engiltaklik yaxshilikka olib bormaydi, deganlari to'g'ri chiqdi. Men tentak bo'lmasam, shunday qilarmidim. Endi aybimni engillashtirdim. Vijdon amri bilan shunday qildim, o'ylaymanki, odamlar buni eshitib meni qo'rqoqqa, subutsizga chiqarmaslar. Bu qilmishimni teskari tushunadiganlar chiqib qolsa, – qo'shimcha qildi Alber do'stlariga va dushmanlariga da'vat qilayotgandek, g'urur ila boshini ko'tarib, – ularning o'zim haqidagi bu fikrlarini o'zgartirishga harakat qilaman.

– Bugun kechasi biror hodisa yuz bermadimi? – so'ra-

di Boshan Shato-Renodan. – Kelib-kelib biz yomon ahvolda tushib qoldik-ku.

– Darhaqiqat, Alberning bu qilmishi yo pastkashlik, yoki o'ta olijanoblik, – dedi javoban baron.

– Nima gap o'zi? – dedi Debre Fransga qarab. – Graf Monte-Kristo Morserning sharmandasini chiqardi, uning o'g'li esa graf haqli deyapti! Mening oilamda ana shu Yanina voqeasidan o'ntasi yuz berganda, men o'n bor duelga chiqardim.

Yigirma to'rt yilgi hayotini eslab og'ir iztirobga tushgan Monte-Kristo boshini quyi soldi-da, majolsiz qo'llarini ikki yoniga tashladi. Shu payt uning xayoli Alber bilan ham, Boshan va Shato-Reno bilan ham, shu erda turganlarning birortasi bilan ham band emasdi, o'g'lini o'limdan qutqarib qolishni yolvorib so'rab kelgan va oila sirini oshkora qilib bo'lsa-da, o'zini qurbon etmoqchi bo'lgan, grafning ham hayotini saqlab qolgan botir ayol haqida o'ylardi.

– Yana Xudo saqladi, – dedi Monte-Kristo shivirlab, – haqiqatan ham Xudoning o'zi qo'llagan ekan meni.

#### **XIV. ONA VA O'G'IL**

Graf Monte-Kristo ko'ngli g'ash bo'lsa-da, yigitlar bilan kulib xayrlashdi va Maksimilian, Emmanyuelni izvoshga solib jo'nadi.

Jang maydonida Alber, Boshan va Shato-Reno qoldi.

Alber o'z sekundantlariga sinovchan nazar tashladi, uning ko'zlarida qo'rquv emas, savol alomati sezilib turardi.

– Tabriklayman, aziz do'stim, – dedi Boshan do'stiga mehri zo'rligi yoki quvlik unga begona bo'lgani uchunmi, birinchi so'z boshlab, – ko'ngilsiz voqea kutilmagan yo'sinda hal bo'ldi-qo'ydi.

Alber churq etmadi.

Shato-Reno o'zining egiluvchan hassasi bilan etagini

qoqib turardi.

– Bo’ldi endi, yuringlar, ketaylik! – dedi oxiri u og’ir sukunatni buzib.

– Mayli, – dedi Boshan, – ammo Morserga qoyil qolganimni e’tirof etishga menga ijozat bergaysiz, u bugun chinakam mardlik qildi... Zamonamizda bunaqasi kamdan-kam uchraydi.

– To’g’ri, – dedi Shato-Reno.

– Uning o’zini tuta bilishiga qoyil qolish kerak, – dedi Boshan.

– Haq gap, ochig’ini aytsam, bu mening qo’limdan kelmasdi, – dedi Shato-Reno beparvo.

– Janoblar, – dedi suhbatni bo’lib Alber, – chamamda Monte-Kristo bilan ikkimizning o’rtamizda favqulodda hol yuz berganligini siz fahmlamadingiz, shekilli?

– Yo’q, yo’q, aksincha, – e’tiroz bildirdi Boshan, – biroq g’iybatchilarimiz sizning bu jasoringizga baho berolmasalar ajab emas; shu sababdan bir kun kelib bu xatti-harakatlaringizning sabablarini tushuntirib berishga majbur bo’lursiz, tushuntirganda ham asablaringizga zo’r berib tushuntirishga to’g’ri keladi, bu sog’lig’ingizga va umuman umringizga ancha ziyon etkazishi mumkin. Do’stona bir maslahatim bor, aytaymi? Neapolgami, Gaagaga yoki Sankt-Peterburggami keting, or-nomus masalasiga bizning telba Parijga nisbatan u erlarda oqilona yondashishadi. U yoqda to’pponcha otishni va qilichbozlikni yaxshilab o’rganib olasiz. Bir necha yil o’tgach, sizni butkul unutib yuborishadi yoki jangovarlik borasidagi san’atingiz shuhrati Parijga etib keladi, ana shundan so’ng Parijga xotirjam qaytib kelasiz. Shato-Reno, to’g’rimi gapim?

– Gapingizga yuz foiz qo’shilaman, – dedi baron, – amalga oshmay qolgan duel ketidan, odatda, duelling undan zo’rrog’i bo’ladi.

– Rahmat sizga, janoblar, – dedi sovuqqina takalluf bilan Alber, – taklifingizni qabul qilaman, chunki o’zim ham Fransiyadan chiqib ketishga qaror qilgan edim. Me-

nim sekundantim bo'lishga ko'nganligingiz uchun ham sizga tashakkur. Men sizning bu do'stona qilmishingizni aslo unutmayman. Buni o'zingiz ham sezib turibsiz.

Shato-Reno va Boshan bir-birlariga qarab oldi. Alberning so'zlari ikkisiga bir xilda ta'sir qilgan edi: tashakkur so'zlari shu qadar shiddatli ohangda aytildiki, agar suhbat davom etaverganda, uchalasiyam noqulay ahvolga tushib qolishi hech gap emasdi.

– Xayr, Alber! – dedi shoshilib Boshan va iltifotsizlik bilan unga qo'l uzatdi, biroq Alber chuqur xayolga cho'mganligi sababli uzatilgan qo'lni ko'rgan-ko'rmaganligini bilib bo'lmasdi.

– Xayr, – dedi Shato-Reno chap qo'lida tayog'ini tutgan holda o'ng qo'li bilan xayrlashib.

– Xayr, – dedi sovuqqina qilib Alber. Ammo yonib turgan ko'zlaridan g'oyat g'azablanganligi, nafratlanayotganligi ko'rinib turardi.

Ikkala sekundant izvoshga minib ketgandan keyin ham Alber ancha vaqt qimir etmay turdi. So'ng daraxtga bog'log'liq otini shiddat bilan echib mindi-da, Parij tomon ot qo'ydi, chorak soatda u Elder ko'chasidagi koshonaga etib keldi.

Alber otdan tushayotganda, deraza pardasi orqasidan graf de Morserning bo'zargan yuzi ko'ringanday tuyuldi unga, u xo'rsinib qo'ydi-da, orqaga burilib, o'z uyi tomon yo'l oldi.

Bolalik chog'idan buyon unga rohat-farog'at makoni bo'lib kelgan koshonaga Alber oxirgi marta nazar soldi, o'z suratlariga so'nggi marta ko'z tashladi. Nazarida polotnolardagi chehralar iljayganday tuyuldi, peyzajlar esa jonli bo'yoqlar kabi yaltirab ketdi.

So'ngra taxta romdan onasining suratini olib o'rab qo'ydi, zarhal rom bo'm-bo'sh qoldi.

Keyin ajoyib turk qilichini, nodir ingliz miltig'ini, yapon chinnisini, kumush bezakli qadahlarini, Eshter va Bari imzo chekkan nafis bezakli bronzasini erinmay tartibga soldi, shkaflarni ko'zdan kechirdi-da, qulfladi.



Cho'ntagidagi barcha pullarini, kosa, qutichalar, tokchalarda to'lib-toshib yotgan qimmatbaho zebi ziynatlarni stol tortmasiga tashladi-da, tortmani yopmadi; bor narsani yozdi. Stollardan birini kitob-daftarlardan bo'shatib, ro'yxatni ko'zga yaqqol ko'rinadigan joyga qo'ydi.

Shu ishlarni boshlashdan oldin, meni bezovta qilman-  
glar, deyishiga qaramay, xonaga Kamerdiner kirdi.

– Ha, nima gap? – so'radi Alber g'azabdan ko'ra ko'proq qayg'uga botib.

– Kechiring meni, janob, – dedi kamerdiner, – siz bezovta qilma degan edingiz, biroq majbur bo'ldim: meni graf de Morser chaqiryapti.

– Xo'sh, chaqirsa nima bo'пти? – dedi Alber.

– Sizdan beruxsat borishga jur'at etolmadim.

– Nega?

– Chunki, aftidan graf sizni duel maydoniga kuzatib borganimni biladi.

– Ehtimol, – dedi Alber.

– U erda nima bo'lganligini so'ramoqchidir-da. Nima deyay u kishiga?

– Bor gapni aytavering.

– Demak, duel bo'lmadi deyaveraymi?

– Men graf Monte-Kristodan kechirim so'raganimni aytin.

Kamerdiner ta'zim qilib chiqib ketdi.

Alber ishlarini tugatayotgan edi, hovlida ot tuyoqlari va izvosh g'ildiraklari tovushi eshitildi, deraza oynalari dirillab ketdi. Alber deraza oldiga borib qaradi, otasi izvoshga chiqib ketayotgan edi.

Graf ketidan darvoza bekilishi bilanoq Alber onasining bo'lmasiga yo'naldi. Kelganini bildirgani odam topolmagach, o'zi to'g'ri kirib bordi-da, onasi bo'lmasidagi hodisani ko'rib, ostonada to'xtab, hayron bo'lib qoldi.

Ona va bola go'yo oldindan kelishib qo'ygandek, Alber nima qilgan bo'lsa, Mercedes ham xuddi shuni qilayotgandi.

Hamma buyumlar saranjom-sarishta qilib qo'yilgan, krujevalar, qimmatbaho va oltindan yasalgan buyumlar, kiyim-kechak, pullar shkaflarga solingandi, Mercedes kahlitlarni bitta-bitta topib, qulflab yurgan edi.

Alber bu taraddud ma'nosini tushundi va «Oyijon!» deb qichqirib, o'zini Mercedesning quchog'iga otdi.

Qani endi shu payt bir rassom bo'lsa-yu, ona-bolaning mana shu holatini qog'ozga tushirsa, rassom shoh asar yaratgan bo'lur edi!

Alber mardona bir ishga otlandimi, qo'rqmay qadam tashlayveradi, biroq onasining bu taraddudi uni vahimaga soldi.

– Oyi, nima qilyapsiz? – so'radi u.

– Sen nima qilyapsan? – dedi javoban Mercedes.

– Mening yo'rig'im boshqa! – dedi hayajondan harsilab Alber, – men bu uydan butunlay ketishga qaror qildim, siz bilan xayrlashgani keldim. Sizning bunday qilishingiz mumkin emas-ku.

– Men ham xuddi shunday qilyapman, – dedi Mercedes, – men ketyapman. O'g'lim men bilan birga boradi, deb o'ylagandim, adashgan ekanman-da?

– Men kutayotgan azob-uqubatlarni sizning boshingizga tushishini istamayman, oyijon, – dedi qat'iyat bilan Alber, – shu bugundan e'tiboran menda na mulk, na mablag' qoladi, yap-yaydoq bo'lib chiqib ketyapman bu erdan. Menga yashash og'ir bo'ladi, rizqimni qidirib topguncha do'stlarimdan birining yordamiga muhtoj bo'laman. Shu vajdan hozir Fransning huzuriga borib, undan vaqtincha pul qarz berishini iltimos qilaman.

– Oh, sho'rlik bolam! – dedi xitob qilib Mercedes, – sen endi muhtojlik, ochlik, qashshoqlikka mahkum bo'lyapsanmi? Yo'q, yo'q! Unday deya ko'rma, bolam! Aks holda meni ahdimdan voz kechishga majbur etasan!

– Ammo men ahdimdan qaytmayman! – dedi Alber. – Yoshman, kuchim bor, jasoratda ham tengdoshlarimdan qolishmayman, kecha sabot-matonat, iroda nimalarga qodir ekanligini bilib oldim. Bu bevafo dunyoda behad

musibat chekkan odamlar oz emas, biroq qirq yil qirg'in bo'lsa ham, ajali etgan o'ladi, bu eski ravoqda orzusiga etgan baxtiyor odamlar yo'q, deysizmi? Men shunday odamlarni o'z ko'zim bilan ko'rdim, oyijon! Bunday odamlar raqiblari uloqtirib tashlagan er qa'ridan kuchga to'lib chiqib, beqiyos shuhrat qozondilar va tantana bilan raqiblarini jarga uloqtirdilar. Bas, bugundan boshlab o'tmishim bilan aloqani shartta uzaman, undan men hech narsa olmayman, hatto nomdan voz kechaman, chunki, oyijon, o'g'lingiz odamlar orasida sharmandai sharmisor bo'lgan nomni olib yurishga nomus qiladi.

– Alber, bolaginam, – dedi Mercedes, – men salgina bo'lsa-da, ruhan baquvvat bo'lsaydim, o'zim shunday qilgin, derdim senga, bolam, mening ovozim ojiz qoldi, biroq sening vijdonging farmon berdi. Ana shu vijdonging amrini vojib bil, unga amal qil, Alber. Do'stlaring bor edi, ular bilan ham hozircha aloqani uz, lekin onangni unutma, umidsizlikka yuz tutma! Sening yoshingda hayot nihoyatda go'zal, quvnoqdir, sen kabi qalbi pok zot uchun tariqcha dog' tushmagan nom kerak, mening otamning nomi bilan yur, uning nomi Errera edi. Alberginam, men yaxshi bilaman seni, aminmanki, hamma sohada bu nomni shon-shuhratlarga burkaysan. Shundan keyin Parijga qayt, boshingga tushgan musibatlar seni bundan ham yuksak pog'onalarga ko'taradi. Bordi-yu, umidlarim ro'yobga chiqmay, sen bunga erisholmasang, loaqal meni umidvor qilib ket, men faqat ana shu umid og'ushida yashayman, chunki taqdir menga ters, bu uy ostonasidan mening faqat o'ligim chiqadi.

– Istagingizni bajo keltiraman, oyijon, – dedi Alber, – umidlaringizga ham sherikman, Xudoyimning o'zi sizni ham, meni ham kechiradi, panohiga oladi, albatta... kelishdikmi, bas, endi ishga kirishmog'imiz kerak. Janob de Morser bundan yarim soat oldin uydan chiqib ketdi, shov-shuvsiz va savol-javobsiz chiqib ketish uchun juda qulay sharoit tug'ildi.

– Men kutaman seni, bolam, – dedi Mercedes.

Alber uydan chiqib ketdi, bir ozdan keyin izvosh yollab qaytdi. Muqaddas otalar ko'chasiidagi jo'n panseon esiga tushdi-da, o'sha erdan onasi uchun durustroq turar joy olishga qaror qildi.

Izvosh darvoza oldiga kelib to'xtab, Alber endi uydan chiqqan vaqtda bir odam kelib, unga xat berdi. Alber tani: bu Bertuchcho edi.

– Grafdan, – dedi ish boshqaruvchi.

Alber xatni olib, ochdi.

O'qib bo'lgach, atrofga alanglab Bertuchchoni axtardi, biroq u allaqachon gumdon bo'lgandi.

Ko'zlari jiqqa yosh Alber Mercedes yoniga qaytib kirdida, indamay xatni unga uzatdi. Mercedes xatni o'qidi:

*«Alber!..*

*Men niyatingizni bildim, siz buni hoziroq bajo keltirapsiz, ko'rib turibsizki, sezgirlik, mehr-shafqat menga yot emas. Siz endi erkin, hursiz, grafning uyini tashlab ketyapsiz, o'zingiz kabi erkin onangizni ham olib ketyapsiz. Ammo yaxshilab o'ylab ko'ring, Alber: ona oldida burchingiz shu qadar ulkanki, hozir uni ado etishga qurbingiz etmaydi, ha, sho'rlik yigitcha, qurbingiz etmaydi. Kurash va jafolarni o'z gardaningizga oling, dastlabki kunlari boshingizga tushadigan qashshoqlik, notavonlik musibatlaridan uni ozod eting, chunki u musaffo, olijanob qalb, bu ko'rgiliklarga mutlaqo loyiq emasdi, begunoh gunohkorning kasofatiga qolmasligi kerak, bunga Yaratganning o'zi yo'l qo'ymaydi.*

*Ikkingiz Elder ko'chasiidagi koshonadan hech narsa olmay, ikki qo'lingizni burningizga tiqib chiqib ketyapsiz. Buni qanday qilib bilib olganimni so'rab-surishtirmay qo'ya qoling, bilibmanmi, shuning o'zi etarli.*

*Quloq bering menga, Alber.*

*Bundan yigirma to'rt yil muqaddam men quvonchlariga to'lib g'urur bilan Vatanga qaytdim. Mening qaylig'im bor edi, Alber, farishtam deb ilohiy nom berganim – sevimli qizim bor edi. Uzoq safarda mashaqqatli mehnat*

*qilib to'plagan bir yuz ellik luidor aqcha olib kelgandim qaylig'imga. Bu aqchani unga atagan edim, demak, uniki edi, xuddi bir dengiz ekanligini, bexosdan hamma yoqni vayron qilib yuborishi mumkinligini bilib, otam yashaydigan Melyansk xiyobonidagi boqqa ko'mib qo'ygandim.*

*Alber, oyingiz o'sha ko'rimsiz, biroq aziz uyni yaxshi biladi.*

*Yaqinda Parijga kelayotib yo'l-yo'lakay Marselda bo'ldim. Qayg'uli xotirotlarga to'la o'sha uyni borib ko'rdim, kechqurun belkurak olib, boqchaga kirdim-da, tekshirib ko'rdim. Yashik burchakdagi ko'rkam anjir tagiga qanday ko'milgan bo'lsa, shundayicha joyida turibdi. Bu anjirni otam men tug'ilgan kunim o'tqazgan ekan.*

*Ana shu pul vaqti kelib mening farishtam kuniga yara-shi kerak edi, mana endi qayg'uli kunlarda taqdir taqozo-si bilan o'z egasini topdi. Mening gaplarimni to'g'ri tu-shuning, Alber: bu baxti qaro ayolning boshidan million-million oltin to'kishim mumkin edi, biroq sevgilimdan judo etgan kuni kulbam ostida unutib qoldirgan bir burda nonnigina qaytarib beryapman.*

*Alber, siz olijanob zotsiz, shunday bo'lsa-da, ehtimol, g'urur va alamzadalik hamon sizni dovdiratib yurgandir, bordi-yu, siz mening bu taklifimni rad etsangiz, mabodo haqli ravishda men taklif qilayotganni boshqa birovdan olgudek bo'lsangiz, u holda men, otangizning aybi bilan och-yalang'och va qayg'u-alamda o'lib ketgan kishi onangizga deb uzatgan bir burda nonni olmay battollik qildingiz, deyman».*

Alber murdaday oqarib, onasining qarorini kutardi.

Mersedes yurak-bag'ri tilka-pora bo'lib osmonga qara-di.

– Men uning hadyasini qabul qilaman, – dedi Merse-des, – mening mablag'imni monastirga topshirishga u haqli.

Shunday dedi-da, u xatni qo'yniga solib qo'ydi, so'ng

o'g'lini qo'ltiqrab shaxdam odimlar bilan zinaga chiqdi.

## **XV. JONDAN KECHISH**

Shu orada Monte-Kristo Emmanyuel va Maksimilian bilan birga shaharga qaytib keldi.

Ular xushvaqt qaytishgan, xursand edi. Barcha ishlar xamirdan qil sug'urgandek oson tugaganidan Emmanyuelning kayfi chog' edi, shu vajdan jonim tinch bo'lsa, shu menga bas, deb ochiq aytardi. Izvoshning burchagiga o'tirib olgan Morrel kuyovining quvonib vaysashiga xalaqit bermadi, o'zi ham ichida quvonib kelayotgan edi.

Tron zastavasida Bertuchchoga yo'liqishdi. U postda turgan soqchi kabi qimir etmay ularni kutib turardi.

Monte-Kristo izvoshdan boshini chiqarib Bertuchchoga asta-asta bir nima dedi, ish boshqaruvchi shu zahoti g'oyib bo'ldi.

– Graf, – dedi Emmanyuel izvosh Plyas-Royalga etganda, – iltimos qilaman, mening uyim yonida izvoshni to'xtating, xotinim siz va menga ilhaq bo'lib o'tirgandir, ko'nglini tinchitaylik.

– O'z g'alabangni o'zing chiranib maqtash kulgili bo'lmaganda, – dedi Morrel, – men grafni uyga taklif qildim, biroq grafning ham yuragi po'killab o'tirgan biror kimsasi bordir, borib tinchitsin, biz uyimizga keldik, Emmanyuel, do'stimiz bilan xayrlashaylik va unga oq yo'l tilaylik.

– Shoshmang, – dedi Monte-Kristo, – birdan ikkala yo'ldoshimdan ajralishni istamayman, siz Emmanyuel, go'zal rafiqangiz huzuriga kiring-da, unga mening samimiy salomimni etkazing, siz, Morrel, meni Elisey Maydonigacha kuzatib qo'ying.

– Juda soz, – dedi Maksimilian, – o'zim ham siz tomonga o'tmoqchi edim.

– Seni nonushtaga kutaylikmi? – so'radi Emmanyuel.

– Yo'q, – dedi Maksimilian.

Izvosh eshiklari yopildi, otlar yoʻrtib ketdi.

– Mana koʻrdingizmi, graf, – dedi Morrel, – sizga baxt keltirdim men. Buni siz xayolingizga ham keltirmagan boʻlsangiz kerak?

– Xayolingga keltirgandim, – dedi Monte-Kristo, – sizdan hech ajralgim kelmayotganiga sabab ham shu.

– Bu chinakam moʻjiza, – oʻziga-oʻzi dedi Morrel.

– Nima moʻjiza? – soʻradi Monte-Kristo.

– Yuz bergan voqea.

– Toʻgʻri aytasiz, Morrel, – dedi iljayib graf, – rostdanam bu moʻjiza.

– Alber, – davom etdi Morrel, – har holda jasoratli yigit.

– Juda jasoratli yigit, – dedi Monte-Kristo, – boshida qilich oʻynayotganda beparvo uxlab yotganini oʻz koʻzim bilan koʻrganman.

– Ikki marta duelda jasorat bilan olishganini koʻrdim, bugungi qiligi hech ilgarigi ishlariga munosib emas-da! Nega shunday qildi?

– Bunda sizning taʼsiringiz bor, – dedi jilmayib Monte-Kristo.

– Xayriyatki, Alber harbiy xizmatda emas! – dedi Morrel.

– Nega shunday deyapsiz?

– Jang maydoniga kelib uzr soʻrarmidi u vaqtda! – dedi yosh kapitan boshini chayqab.

– Menga qarang, Morrel! – dedi mayin ohangda graf. – Nahotki, siz ham sodda kishilarga oʻxshab xurofotga moyil boʻlsangiz? Alber botir ekan qoʻrqoqlikdan shunday qilmagandir? Bugungi xatti-harakatning bir sababi boʻlishi kerak, demak, uning bu ishini qahramonlik deb baholash kerak.

– Toʻgʻri, albatta, – javob qildi Morrel, – ammo, ispanlar aytganidek, bugun u kechagidan kamroq jasorat koʻrsatdi.

– Men bilan nonushta qila olasizmi, Morrel? – dedi graf gapni boshqa yoqqa burib.

– Yoʻq, men siz bilan soat oʻngacha birga boʻlolaman.

– Birov bilan nonushta qilishga va’ dalashgandirsiz-da? Morrel jilmayib boshini chayqadi.

– Biror erda nonushta qilishingiz kerak-ku.

– Qornim to’q, – dedi Maksimilian.

– Menga kishini ishtahadan qoldiradigan ikki his ayon, – dedi graf, – qayg’u-alam va ishq. Ko’rinib turibdiki, kayfingiz chog’, demak, ishtahangizning bo’g’ilishi qayg’udan emas... Xullas, bugun ertalabki gapingizdan oshig’u shaydo ekanligingizni bildim...

– Ha, to’g’ri, graf, – dedi quvnoq ohangda Morrel, – inkor etmayman.

– Maksimilian, bu haqda menga biror narsa aytib bermaysizmi? – so’radi graf Morrelning sirini bilishga qiziqib.

– Menda ham insoniy qalb borligiga bugun ertalab inongan bo’lsangiz kerak, to’g’rimi?

Monte-Kristo hech nima demay qo’lini uzatdi.

– Endi esa, – davom etdi Morrel, – qalbm Vensen o’rniga emas, boshqa yoqqa talpinyapti, meni boshqa yoqqa tortyapti.

– Boring, – dedi ohista graf, – boring, azizim, mabodo yo’lingizda biror g’ov duch kelgudek bo’lsa, dunyoda ko’p narsalarga qurbi etadigan men borman, sevimli do’stim Morrelni qo’llab-quvvatlashni o’zim uchun baxt deb bilaman, bu hamisha yodingizda bo’lsin.

– Xo’p bo’ladi, – dedi Maksimilian, – xuddi xudbin farzand yordamga muhtoj bo’lib qolgan paytda ota-onasini esga olgani kabi, men bu gapingizni esda tutaman, ehtiyoj tug’ilsa (bunaqa payt bo’lishi ehtimoldan xoli emas, albatta), sizdan yordam so’rab kelaman, graf.

– So’z berdingizmi, ustidan chiqing. Endi xayr.

– Xayr.

Elisey Maydoniga kelganda Monte-Kristo izvosh eshigini ochdi, Morrel irg’ib tosh ko’chaga tushdi.

Ostonada Bertuchcho kutib turardi.

Morrel Marini ko’chasiga kirib ketdi, Monte-Kristo tez-tez qadam tashlab, Bertuchcho oldiga bordi.

– Xo’sh? – so’radi u.



– Mercedes uyni tashlab chiqib ketmoqchi bo‘lib turibdi, – dedi ish boshqaruvchi.

– O‘g‘li-chi?

– Kamerdiner Florantenning gapiga qaraganda, u ham shunday qilmoqchi emish.

– Bu yoqqa keling.

Monte-Kristo Bertuchchoni ergashtirib xonasiga kirdida, bizga ma‘lum xatni yozib, ish boshqaruvchiga uzatdi.

– Buni tez olib boring, – dedi graf. – Ha, aytgancha, kelganimni Gaydega xabar qilishsin.

– Men shu erdaman, – javob berdi Gayde, u izvosh tovushini eshitiboq pastga tushgan va sihat-salamat qaytgan grafni ko‘rib quvonchga to‘lib turgandi.

Bertuchcho chiqib ketdi.

Gayde Monte-Kristoni sabrsizlik bilan kutib turgan edi, mana endi ko‘rdi-yu, uning go‘zal chehrasida otasini yana ko‘rishga muyassar bo‘lgan mehribon qizning quvonchi, sevgani bilan yana diydor ko‘rishgan ma‘shuqaning shavqi barq urib ketdi.

Monte-Kristoning ham kayfi chog‘ edi albatta, biroq u buni sezdirmaslikka urinardi. Iztirob chekkan qalb uchun quvonch jazirama oftobda qaqragan tuproqqa tushgan shabnamga o‘xshaydi, qalb ham, er ham hayotbaxsh namni shimib oladi, biroq yot ko‘z buni payqamaydi.

So‘nggi kunlarda Monte-Kristo ko‘pdan buyon ilojsiz deb yurgan bir narsa mavjud ekanligini, ya‘ni, dunyoda ikki Mercedes borligini va u yana baxtiga erishuvi mumkin ekanligini fahmladi. U yonib turgan ko‘zlarini Gaydening tuman bosgan ko‘zlariga tikib turganida birdan eshik ochildi.

Graf xo‘mrayib qaradi.

– Janob de Morser tashrif buyurdilar! – dedi Batisten, go‘yo so‘ramay kirganiga shu nom bahona bo‘lganday.

Grafning chehrasi ochildi.

– Qaysisi? – so‘radi u, – vikontmi yoki grafmi?

– Graf.

– Nahotki, bu mojaro hamon tugamagan bo‘lsa? – dedi

Gayde xitob qilib.

– Bilmadim, oppog'im, tugaganmi, yo'qmi, – dedi Monte-Kristo qizni qo'lidan tutib, – sen mutlaqo xavotirlanma.

– Axir bu yaramas...

– Bu kimsa mening qarshimda ojiz bir maxluq, Gayde, – dedi Monte-Kristo, – o'g'li bilan to'qnashganim-da, qo'rqsang arzirdi.

– Xojam, shu kunlari qanchalar mashaqqat chekkanimni bilsangiz edi, – dedi Gayde.

Monte-Kristo jilmayib qo'ydi.

– Otamning aziz xotirasi haqqi, ont ichib aytaman-ki, – dedi u, – men endi har qanday kulfatlardan xalosman.

– Men Tangrimga qanchalik ishonсам, sizga ham shunchalik ishonaman, xojam, – dedi yosh qiz peshanasini grafga tutib.

Monte-Kristo bu go'zal, pokiza peshanaga haroratli lablarini tekkizishi bilan ikkala yurak titrab ketdi – biri shiddat bilan, ikkinchisi ohista.

– Yo, Rabbii! – dedi shivirlab graf. – Nahotki, yana se-vishga da'vat etasan meni?.. Graf de Morserni mehmonxonaga taklif eting, – dedi u Batistenga, nozanin grek qizini maxfiy zinadan chiqarib yuborarkan.

Bu tashrifning sababini tushuntirib berishimiz kerak: Monte-Kristo balki buni kutgandir, biroq kitobxon buni kutmagan.

Mersedes, yuqorida aytganimizdek, Alber kabi, qimmatbaho buyumlarini yig'ishtirib shkaf-larni qulflab, kalitlarni bir joyga to'plab, hamma yoqni tartibga solayotganda va ro'yxat tuzayotganda oynaband eshik orqasida murda kabi bo'zargan vajohat paydo bo'lganini sez-magan edi. Panaga yashirinib olgan bu zot de Morser xonim xonasida bo'layotgan hamma narsalarni ochiq-oydin ko'rib turardi.

Keyin bo'zargan kimsa eshik orqasidan chiqdi-da, o'z xonasiga kirib, titroq bosgan qo'llari bilan deraza darpar-dasini ko'tardi.

Shu holda u qimir etmay, faqat o'z yuragi tepishiga quloq solib o'n daqiqacha jim turdi, unga bu o'n daqiqa o'n yildek tuyuldi.

Xuddi shu daqiqada dueldan qaytib kelayotgan Alber oyna orqasida poylab turgan otasini ko'rib, undan yuzini o'girgan edi.

Alber Monte-Kristoni juda yomon haqorat qilganini va dunyoda bunday haqorat albatta halokatli duelga olib borajagini graf bilardi, biroq Alberni soppa-sog' ko'rib, uning ko'zlari charaqlab ketdi, demak, ota uchun qasos olinibdi-da, dedi ichida u. Uning g'amgin yuzida ufqqa cho'kayotgan quyoshning so'nib borayotgan nurlari kabi quvonch nishonalari paydo bo'ldi.

Ammo u, yuqorida aytganimizdek, Alber kabinetimga kirib qanday g'olib chiqqanini hikoya qilib beradi, deb behuda o'ylagandi. Otasi uchun o'ch olishga bel bog'lagan o'g'ilning otaga uchrashmay ketgani tushunarli bir hol edi, biroq ota uchun qasos olib qaytgach, uning huzuriga kirmagani va quchog'iga otilmaganiga bois nima?

Graf Alberni ko'rmagach, uning kamerdinerini chaqirtirdi. Alber kamerdineriga, bo'lgan gaplarni grafga hech yashirmay aytib beraver, deganidan xabardormiz, chindan ham u hamma voqeani grafga batafsil hikoya qilib berdi.

Oradan o'n daqiqa o'tgach, eshik zinasida egnida yoqasi harbiycha qora kamzul, qora shim, qora qo'lqop kiygan graf de Morser paydo bo'ldi. Aftidan, oldindan farmon berib qo'ygan bo'lsa kerak, zinadan tushib ulgurmasdanoq izvosh tayyor turgan edi.

Kamerdiner ikki qilich o'ralgan plashni darhol izvoshga soldi-da, eshikni bekitdi va o'zi izvoshchi yoniga o'tirdi.

Izvoshchi buyruq kutib turardi.

– Elisey Maydoniga! – dedi general, – graf Monte-Kristonikiga! Hayda!

Otlar qarsillab tushayotgan qamchi zarbidan quyunday uchib ketdi, besh daqiqada graf uyi oldiga borib

to'xtadi.

Eshikni, Morserning o'zi ochdi, u izvosh to'xtab ulgurmasdanoq yosh yigitdek irg'ib tushdi, qo'ng'iroq chaldi va lang ochiq eshikdan kamerdineri bilan to'g'ri kirib bo'raverdi.

Bir daqiqa o'tar-o'tmas Batisten graf tashrif buyurganini Monte-Kristoga xabar qildi. Monte-Kristo Gaydeni bo'lmasiga kuzatib qo'ydi-da, Morserni mehmonxonaga taklif etishni buyurdi.

General uzun mehmonxonaning u boshidan-bu boshiga uch marta borib kelgandan so'nggina Monte-Kristo kirdi.

– E, janob de Morser, o'zlarimi! – dedi vazmin ohangda Monte-Kristo. – Men boshqamikin debman.

– Ha, kaminaning o'zi, – dedi graf, uning lablari titrab turardi, so'zlari ham bir-biriga zo'rg'a qovushardi.

– Buncha barvaqt graf de Morserni menikiga qanday shamol uchirib keldi ekan, – dedi Monte-Kristo. – Meni sizni ko'rish sharafiga muyassar bo'lishimning sababini bilsam bo'ladimi?

– Janob, bugun ertalab mening o'g'lim bilan duelga chiqdingizmi? – so'radi general.

– Siz bundan xabardormisiz? – dedi graf.

– Ha, xabarim bor, buning ustiga o'g'limning siz bilan jang qilishi va sizni er tishlatib qo'yishi uchun to'la asos borligidan ham xabardorman.

– Haq gapni aytdingiz, janob, unga buning uchun to'la asos bor edi. Shunga qaramay, u meni er tishlatgani yo'q, hatto jang qilmadi ham.

– Lekin siz otasining sharmandayu sharmisor bo'lishida, butun xonadonim boshiga tushgan baxtsizlikda aybdorsiz.

– Bu to'g'ri, janob, – dedi Monte-Kristo yana o'sha o'ta vazminlik bilan, – lekin birinchi darajadagi aybdor emas, ikkinchi darajadagi aybdor.

– Siz, aftidan, undan uzr so'raganga yoki biror izoh berganga o'xshaysiz?

– Men unga hech qanday izoh berganim yo‘q, uning o‘zi mendan uzr so‘radi.

– Xo‘sh, siz uning bu xatti-harakatiga qanday baho berasiz?

– Menimcha, u kimning aybi ko‘proq ekanligiga ishon-di.

– Kim aybdor ekan?

– Otasi.

– Ehtimol, shundaydir, – dedi Morser bo‘zarib, – biroq shuni bilib qo‘yingki, aybdor gunohini yuziga solganlarni yomon ko‘radi.

– Men buni yaxshi bilaman... Shu sababdan oqibat shunday bo‘lishini kutgan edim.

– O‘g‘limni qo‘rqoqlik qiladi deb kutganmidingiz?! – dedi xitob qilib graf.

– Alber de Morserni qo‘rqoq deb bo‘lmaydi, albatta, – dedi Monte-Kristo.

– Qo‘lida qilich tutgan kishi qarshisida turgan ashadiy dushmani bilan jang qilmasa, u qo‘rqoqlik qilgan bo‘ladi. U hozir shu erda bo‘lganda basharasiga tik qarab aytardim bu gapni.

– Janob, – dedi beparvolik bilan Monte-Kristo, – menikiga oilaviy mojarongizni muhokama qilish uchun kelmagandirsiz, bu gaplarni borib unga ayting, ehtimol, u javob topib berar sizga!

– Juda to‘g‘ri aytdingiz, – dedi general miyig‘ida kulib, – men oldingizga oilaviy mojarolarni muhokama qilgani kelganim yo‘q! Men bu erga «siz menim dushmanimsiz», deb aytgani keldim! Men sizdan nafratlanaman! Sizni hamisha tanigan va hamisha nafratlanib yurgandek sezyapman! Zamonamiz yoshlari dueldan voz kechgan ekan, endi ikkimiz olishamiz... Rozimisiz, janob?

– Rozi bo‘lganda qanday! Men boya shunday bo‘lishini kutgan edim, deganimda, sizning tashrifingizga ishora qilgandim.

– Bunisi yana soz... Demak, jangga tayyor ekansiz-da?

– Men hamisha tayyorman.

– Ikkimizdan birimiz o‘limguncha jangni davom ettiraveramiz, shundaymi? – dedi g‘azabla tishlarini g‘ijirlatib general.

– Ikkimizdan birimiz o‘limguncha, – takrorladi graf Monte-Kristo boshini xiyol silkib.

– Qani ketdik, sekundantlarning zarurati yo‘q bizga.

– Ha, zarurati yo‘q, – dedi Monte-Kristo, – biz bir-birimizni juda yaxshi bilamiz!

– Aksincha, – dedi graf, – bir-birimizni mutlaqo tanimaymiz.

– Hali shundaymi? – dedi Monte-Kristo yana o‘sha o‘ta beparvolik bilan. – Hali Vaterloo jangi arafasida juftakni urib qolgan Fernan siz emasmisiz? Ispaniyada fransuz armiyasining yo‘l ko‘rsatuvchisi va ayg‘oqchisi bo‘lib xizmat qilgan o‘sha Fernan siz emasmisiz? O‘z valine‘mati Aliga xoinlik qilgan, uni o‘ldirgan sotqin Fernan siz emasmisiz? Ana shu Fernanlar jamlanib, Fransiyaning peri, general-leytenant lavozimiga minib olgani yolg‘onmi?

– Ablah, – dedi general Monte-Kristoning so‘zlaridan jig‘ibiyroni chiqib, – meni o‘limga mahkum qilishdan oldin menga ta‘na qilyapsanmi, la‘nati! Yo‘q, sen meni tanimaysan demoqchi emasman. Sen iblis mening qora o‘tmishimni juda yaxshi bilasan va mash‘al yog‘dusida hayotim sahifalarini ham o‘qib chiqqaningni bilaman. Men sharmandayu sharmisor bo‘lganim bilan batamom nomussiz bo‘lib ketganim yuq, ammo sen yolg‘ondakam shuhrat qozonib, or-nomusingni sotib yuribsan! Sen meni yaxshi bilasan, bunga shubham yo‘q, biroq men seni – oltin va qimmatbaho toshlarga ko‘milib yurgan firibgarni bilolmay garangman! Parijda o‘zingni graf Monte-Kristo deb, Italiyada Sindbod-Dengiz sayohatchisi deb tanishtirasan, Maltada ham yana qandaydir nom bilan yurasan. Lekin men sening haqiqiy nomingni bilishim kerak, toki ko‘ksingga qilich urgan damda asli nomingni qichqirib aytishga muayassar bo‘lay.

Graf Monte-Kristo murdadek oqarib ketdi, ko‘zlari g‘azabla yondi, otilib ikkinchi xonaga kirdi-da, galstugi-

ni, kamzulini va nimchasini shartta echib tashladi, matroscha kalta kamzulini, matroscha shapkasini kiydi. Shapkasini tagidan uzun qora sochlari osilib turardi.

U mehmonxonaga qo'llarini asabiy qovushtirib kirdida, g'azabnok bo'lib general oldiga bordi. Morser esa uning to'satdan chiqib ketganidan ajablanib turgandi, tamoman boshqacha bo'lib kelgan Monte-Kristoni ko'rdiyu, tizzasini bukilib, tishlari takirlab ketdi. U asta orqaga chekina boshladi va stolga taqalib to'xtadi.

– Fernan, – dedi qichqirib unga Monte-Kristo, – yuzlab nomlarimdan faqat bittasini aytsam bas, sen tamom bo'lasan, o'zing ham payqagandirsan bu nomni, to'g'rimi? Es-ladingmi, a? Axir, ne-ne azob-uqubatlarni boshimdan ke-chirsam-da, o'ch olganimdan quvonib navqiron yigitdek qarshingda mag'rur turibman. Qaylig'im Mercedesga... uylangandan so'ng meni xuddi mana shu qiyofada bir emas, bir necha bor tushingda ko'rgan bo'lishing kerak, Fernan!

General boshini baland ko'tarib, qo'lini oldinga cho'zib, lol bo'lib dahshatli gavdaga tikilib qoldi. So'ng o'zini zo'r-bazo'r o'nglab, devorni ushlab eshikka etib oldi-da, yurakni larzaga soluvchi ovozda: «Edmon Dan-tes!» – deb qichqirib chiqib ketdi.

Keyin sudralib arang zinaga etdi, u erdan hovliga tushdi, mast kishidek gansiraklab-gansiraklab borib, kamer-dinerining qo'liga o'zini tashladi-da:

– Uyga! Uyga! – deb g'o'ldiradi.

Salqin havo va xizmatkorlar oldida sharmanda bo'lish xavfi uning es-hushini joyiga keltirdi, biroq bu uzoqqa bormadi, uyga yaqinlashgan sari dilxastalik, nochorlik yana uni chulg'ab, aql-hushini o'g'irladi.

Uyga bir necha qadam qolganda graf izvoshni to'xtatib, pastga tushdi.

Darvoza lang ochiq edi, kirakash izvoshchi, bunday

---

<sup>19</sup> Lokusta (lotincha: locusta) – chigirtka yoki quzg'un degani.

badavlat xonadonga nega chetdan izvosh chaqirishdi ekan, deb hayron bo'lib hovli o'rtasida kutib turardi. Graf uni ko'rib kayfi uchdi, biroq so'rab-surishtirishga jur'at qilolmay, shoshib o'z bo'lmasiga yo'l oldi.

3inadan ikki kishi tushib kelardi; ularga to'qnash kelmaslik uchun u zo'rg'a yondagi xonaga kirib bekindi. Bu, o'g'li qo'ltiqlab olgan Mercedes bo'lib, ikkalasi birgalikda uyni tashlab chiqib ketishmoqda edi.

Ular darparda orqasiga yashirinib turgan baxtsizning shundoq yonidan o'tib ketishdi, graf, Mercedesning shoyi ko'ylagi sal tegib ketganini va: «Oyijon, bardam bo'ling! Yuring, yuring tezroq, endi bu koshona bizga yot», – deb borayotgan o'g'lining iliq nafasi yuziga urganini sezib turardi.

So'zlar tugadi, qadamlar uzoqlashdi.

Graf darpardani mahkam tutib, qaddini rostladi, ham xotini, ham o'g'li tashlab ketayotgan ota dilidan otilib chiqayotgan achchiq faryodni bosishga harakat qildi.

Ko'p o'tmay u kirakash izvoshning eshigi taraqlab yopilganini, izvoshchi otlarga qamchi urganini eshitdi, og'ir izvosh g'ildiraklarning zarbi derazalarni dirillatib yubordi, graf yorug' olamda o'zi uchun aziz sanab yurganlarni yana bir bor ko'rib qolish uchun yotoqxonasiga kirdi-da, derazadan tashqariga qaradi, biroq izvosh jo'nagan edi. Na Mercedes, na Alber jillaqursa derazadan boshini chiqarib vidolashish uchun g'arib ota va erga, huvillab qolgan xonadonga bir qiyo boqmadi.

Nihoyat, izvosh yo'lga chiqib, g'ildiraklar ko'prik toshlariga taraqlab urilganda graf xonasida o'q ovozi eshildi, ovoz larzasidan bir deraza oynasi uchib tushib, ichkaridan tutun burqsidi.

## **XVI. VALENTINA**

Morrel shoshilib qayoqqa jo'naganligini va kim bilan va'dalashganligini kitobxon payqagan bo'lsa kerak.



U Monte-Kristo bilan xayrlashgandan so'ng ohista qadam tashlab Vilfor uyi tomon yo'l oldi.

Ohista dedik: chunki, Morrelning yana yarim soatdan ziyodroq vaqti bor edi, manzilga esa besh yuz qadam masofa qolgandi, shunga qaramay, u Monte-Kristo bilan shoshilib xayrlashdi, buning sababi: yakka qolib, ko'p narsalarni o'ylab-fikrlab olishi kerak edi.

Maksimilian belgilangan vaqtni juda yaxshi bilardi. U Valentina Nuarteni nonushta qildirayotganda kirib borishi kerak. Valentina o'zining bu muqaddas burchini bajo keltirayotganda hech kim kirib xalaqit bermasligiga qat'iy ishongan edi. Nuarte va Valentina unga haftada ikki marta kelib-ketishga ruxsat berishgandi, Maksimilian ana shu huquqidan foydalanmoqchi.

Morrel kirishi bilan uni kutib turgan Valentina qo'ldan tutib buvasi yaqiniga olib bordi. U rangi o'chgan va hayajonlangan edi. Valentina Operadagi voqeani eshitib, g'oyat tashvishga tushib qolgandi. Alber bilan Monte-Kristo o'rtasida yuz bergan janjal bir zumda hammaga ayon bo'ldi. (Bu olamda hech narsani sir tutib bo'lmaydi.) Vilfor xonadonidagilar bu mojaroning albatta duelga olib borishiga aslo shubha qilmagandilar: Monte-Kristoning sekundanti albatta Morrel bo'lajagiga Valentinaning aqli etgandi, Maksimilianning jasurligini, grafga yaqinligini bilar va u betaraf guvoh bo'libgina qolmay, jangga aralashishi mumkin, deb qo'rqardi.

Shu vajdan u toqatsizlanib savol berib, javob oldi: kutilmagan holda duelning oxiri baxayr bo'lganini eshitib, ma'shuqaning ko'zlari quvonchdan chaq nab ketdi.

– Mana endi, – dedi Valentina imo bilan Morrelni cholning yoniga o'tirishga taklif etib; o'zi ham cholning oyog'i uzatilgan o'rindiqqa o'tirdi, – siz buvamni janob de Vilforning uyidan chiqib ketib, boshqa joyda turmoqchi bo'lganidan xabardorsiz.

– Ha, xabardorman, – dedi Maksimilian, – bu fikr menga juda ma'qul tushdi...

– Yana siz uchun shunisi quvonchliki, Maksimilian, –

dedi Valentina, – buvam yana o’sha fikriga qaytdi.

– 3ap ish bo’pti-da! – dedi xitob qilib Maksimilian.

– Nima sababdan buvam bu xonadonni tashlab chiqib ketmoqchi ekanligini bilasizmi? – so’radi Valentina.

Nuarte nevarasiga ma’nodor qaradi-da, jim bo’l, deb bo’yruq berdi, biroq Valentina unga qaramas, ikki ko’zi Morrelda edi.

– Janob Nuarte nimani istagan bo’lsa, unga men qo’shilaman, – dedi Morrel.

– Men ham jon-dilim bilan qo’shilaman, – dedi Valentina, – u meni deb shunday qilyapti: Sent-Onorening havosi sog’lig’ingga to’g’ri kelmaydi, deyapti.

– Bilasizmi, Valentina, – dedi Morrel, – menimcha janob Nuarte juda haq gapni aytibdi, ikki haftadan buyon rang-ro’yingiz bir holatda, sog’lig’ingizning mazasi yo’qmi, deyman.

– To’g’ri, mazam yo’q, – dedi Valentina, – buvam, seni o’zim davolataman, deyapti, u hammasidan xabardor, buning uddasidan chiqishiga aminman.

– Demak, rostdan ham kasal ekansiz-da? – so’radi shoshib Morrel.

– Kasal emasman, ko’nglim g’ash, hech o’zinga kelolmay yuribman, ishtaham yo’q, butun vujudim xuddi biror narsa bilan kurashayotgandek.

Nuarte quloqlarini ding qilib Valentinaning hamma so’zlarini tinglab turardi.

– Bu bemorlikdan qanday davolanasiz?

– Har kuni ertalab buvam ichadigan doridan bir qoshiq ichaman, bir choy qoshiqdan boshlagan edim, endi to’rt qoshiqdan ichyapman. Buvam, bu hamma kasallarga davo, deydi.

Valentina jilmayib qo’ydi, ammo bu g’amgin tabassum edi.

Oshiqu shaydo Maksimilian esa ma’shuqasidan ko’z uzolmasdi. Qiz husnda beqiyos edi, biroq oppoq rangi nechundir yarqirab, ko’zlari har qachongidan ham kuchliroq chaqnardi. Momiqday oppoq qo’llari esa uzoq turib

och sariq tusga kirgan mumdan yasalganga o'xshardi.

Maksimilian Valentinadan ko'zini olib, Nuartega qaradi.

Falaj sirli va o'ychan ko'zlarini ishq o'tida mast bo'lib o'tirgan nevarasiga tikkandi; chol nevarasining go'zal chehrasida dard-alam nishonalari ham yashirinib yotganini sezdi.

– Biroq, bu dori janob Nuartega buyurilgan edi-ku, nega siz ichyapsiz? – so'radi Morrel.

– To'g'ri, u juda achchiq dori ekan, – dedi Valentina, – shu qadar achchiqki, ancha vaqtgacha og'zimdanda mazasi ketmaydi.

Nuarte nevarasiga savolomuz qarab qo'ydi.

– To'g'rimi, buva, – dedi Valentina, – hozirgina oldingizga kelayotib shirin suv ichuvdim, uning ham mazasini sezmadim.

Nuartening rangi o'chib ketdi, imo qilib, gapirmoqchiman, dedi.

Valentina lug'at keltirish niyatida o'rnidan turdi. Nuar-te tashvish to'la ko'zlarini unga tikkandi. Qizning yuzlari qizarib ketdi.

– Tavba, – dedi kulib qiz, – boshim aylanyapti! Oftob urdimikin? – dedi gandraklab va stolga suyanib qoldi.

– Axir, oftob nima qilsin shu topda? – dedi Morrel. Uni Valentinaning betobligi emas, Nuartening yuzidagi o'zgarish tashvishga solgan edi.

U yugurib qizning oldiga borgan edi, Valentina jilmaydi.

– Xotirjam bo'ling, buvajon, – dedi u, – xotirjam bo'ling, Maksimilian. Hechqisi yo'q, tuzalib qoldim. Eshityapsizmi, hovliga izvosh kirganday bo'ldi?

Valentina eshikni ochdi, dahlizdagi deraza oldiga borib tashqariga qaradi-da, darhol chol xonasiga qaytdi.

– Danglar xonim qizi bilan keldi. Xayr, boray, yo'qsa bu erga odam yuborib meni chaqirishadi. Maksimilian, buvam bilan o'tirib turing, men tez qaytaman.

Morrel ma'shuqasini kuzatib qoldi, uning chiqib, eshik-

ni yopganini, o'z bo'lmasi va Vilfor xonim bo'lmasiga chiqadigan zinadan borayotganini eshitib turardi.

Valentina ko'zdan g'oyib bo'lishi bilan Nuarte Morrelga, lug'atni oling, deb ishora qildi.

Morrel cholning istagini bajo keltirdi, Valentina yordamida u cholning imo-ishoralari juda yaxshi tushunadigan bo'lib olgandi.

Biroq, har bir so'zni lug'atdan topish uchun alfavitni boshidan sanab chiqish kerak edi, shu sababdan faqat o'n daqiqadan so'nggina cholning aytmoqchi bo'lgan so'zlari quyidagicha aniqlandi:

«Valentina bo'lmasidagi stakanni suvi bilan va grafinni olib keling».

Morrel darhol qo'ng'iroq chalib, Barruaning o'rnida ishlayotgan qarolni chaqirib, Nuartening buyrug'ini aytdi.

Bir daqiqa o'tgach, qarol qaytib kirdi.

Grafin va stakan bo'm-bo'sh edi.

Nuarte imo bilan:

– Nega grafin va stakan bo'sh? Valentina, stakandagi hammasini ichganim yo'q, degan edi-ku? – deb so'radi.

Bu so'zlarni ham lug'at orqali tushunib olish uchun yana besh daqiqa vaqt ketdi.

– Qaydam, – javob berdi qarol, – mademuazel Valentining xonasiga hali oqsoch kirgan edi, ehtimol o'sha to'kib tashlagandir.

– Borib so'rang-chi undan, – dedi Morrel Nuartening ko'zlaridan nima demoqchi ekanligini anglab.

Qarol chiqib ketdi va bir zumda qaytib kirdi.

– Hozir mademuazel Valentina kirib, stakanda qolgan suvni ichibdi, janob Eduar o'rdaklarimga suvdon qilaman deb grafindagi suvni to'kib tashlabdi.

Nuarte, bor dunyosini tikkan qimorbozga o'xshab ko'zlarini osmonga qadadi, so'ng eshikka tikilganча qimir etmay qoldi.

Valentinaning gapi to'g'ri chiqdi. Danglar xonim bilan

qizi kelgandi. Uni o'z bo'lmasida Vilfor xonim qabul qildi, Valentina shu vajdan o'z xonasidan o'tishga majbur bo'lgan edi, bu xona o'gay onasining bo'lmasi bilan bir qavatda bo'lib, o'rtada Eduarning xonasi joylashgandi.

Mehmonlar biror muhim yangilikdan xabar bermoqchidek, tantanavor qiyofada kirishdi.

Bir toifadagi kishilarning bir-birlarini tushunishlari oson bo'ladi. Ikki xonimning gerdayishini ko'rib, Vilfor xonim ham ularni viqor bilan qarshi oldi.

Shu payt Valentina kirib keldi-da, salom-aliklar yana davom etdi.

– Aziz dugonam, – dedi baronessa, qizlar bir-biri bilan qo'l berishgan paytda. – Men Ejeni bilan birga qizim va knyaz Kavalkantining yaqinda to'yi bo'lajagini sizga xabar qilgani keldim.

Danglar bo'lajak kuyovni knyaz deb atashni uqtirgandi. Demokrat-bankir grafdan ko'ra knyaz unvoni ancha ohangdor deb bilardi.

– Unday bo'lsa sizni chin yurakdan tabriklashga ruxsat eting, – dedi Vilfor xonim. – Men knyaz Kavalkantini noyob yigitlardan deb hisoblayman.

– Azizim, ochig'ini aytsam, – dedi iljayib baronessa, – knyaz kelajagi porloq kishilardan emas. Uning xatti-harakatlarida italyan yoki nemis zodagonlariga xos g'alati qiliqlar ko'p. Shunga qaramay, uning qalbi pok, aqli o'tkir; amalda esa janob Danglar ta'kidlashicha, u juda katta mol-mulkka ega emish.

– Buning ustiga, – dedi Ejeni Vilfor xonimning albomini varaqlar ekan, – unga nisbatan o'zingizning iltifotingiz boshqacha.

– Iltifotim sizga yoqadimi, yo'qmi, deb qarab o'tirishim o'rinlimasdir, – dedi Vilfor xonim.

– Aslo, aslo, xonim, – javob qildi Ejeni odatdagicha tamanno bilan. – Men xo'jalik tashvishlarini gardanimga olishni istamayman, erkak kishining kim bo'lishidan qat'i nazar, injiqliklarini ko'tarishga toqatim yo'q. Mening niyatim artist bo'lish, ya'ni o'z tuyg'ularim, orzu-umidla-

rim, o'y-fikrlaringa o'zim xo'jayin bo'lishdir.

Ejeni bu so'zlarni chertib-chertib, qat'iyat bilan aytganidan Valentina lol qoldi. Tortinchoq qiz ayollarga xos uyatchanlik va nafosatdan asar ham qolmagan dugonasining hayosizligini tushunolmay garang edi.

– Xullasi kalom, – dedi yana Ejeni, – taqdir taqozosi bilan erga tegishim muqarrar ekan, o'nda men janob de Morserning da'volaridan qutulaman, buning uchun Xudoga ming karra shukr qilaman, Tangri o'zi qo'llamaganida men hozir sharmanda bir kimsaning xotini bo'lib o'tirardim.

– To'g'ri, – dedi baronessa soddadillik bilan, – Morserlar ikkilanib ishni paysalga solmaganda, qizim allaqachon Alberga turmushga chiqib ketgan bo'lardi. General o'g'lining Ejeniga uylanishini ma'qullaganidan hatto Danglarning roziligini olish uchun o'zi kelgan edi. Xayriyatki, bir amallab undan qutulib oldik.

– Nahotki, otaning gunohi uchun o'g'il javobgar bo'lsa? – dedi iymanib Valentina. – Menimcha, generalning xoinligida vikont hecham aybdor emas.

– Azizim, kschiring meni, – dedi bo'sh kelmay Ejeni, – vikont bu borada otasidan qolishmaydi; aytishlariga qaraganda, kecha u Operada graf Monte-Kristoni duelga chaqirib, bugun ertalab jang maydonida undan uzr so'rabdi.

– Yo'g'-e! – dedi Vilfor xonim.

– Oh, azizim, – dedi Danglar xonim yana o'sha soddadillik bilan, – bularga tushunib bo'ladimi, ehtimol, shunday qilgandir. Buni janob Debredan bilaman, u ham o'sha erda bo'lgan edi.

Valentina hamma voqeadan xabardor edi, biroq indamadi. Uning xayoli shu payt Morrel kutib o'tirgan Nuarte xonasida edi.

Valentina o'z o'y-xayollariga g'arq bo'lib, anchagacha suhbatga aralashmadi, Danglar xonim uning qo'lini ushlaganda, Valentina gap nima haqda borayotganligini aytib berolmasdi.

– Biror gapingiz bormi menda, xonim, – dedi Valentina elektr toki urgandek choʻchib.

– Tobingiz yoʻqmi, azizim Valentina? – soʻradi barones-sa.

– Tobim yoʻq? – dedi ajablanib qiz va qizib turgan peshanasiga qoʻlini bosdi.

– Ha, oynaga bir qarang, bir daqiqa ichida rangingiz toʻrt marta oʻzgardi-ya.

– Darvoqe, – dedi xitob qilib Ejeni, – ranging juda oqarib ketdi!

– Tashvishlanmang, Ejeni, anchadan beri ahvolim shunaqa.

Soddaligiga qaramay, Valentina bu erdan chiqib ketgani bahona topilganligini fahmladi. Biroq Vilfor xonim unga yordam qildi.

– Valentina, boring, – dedi Vilfor xonim, – rostdan ham tobingiz yoʻqroq koʻrinadi, mehmonlarimiz sizni afv eturlar, bir stakan muzdek suv iching, engil tortasiz.

Valentina Ejenini oʻpti-da, oʻrnidan turib xayrlashayotgan Danglar xonimga taʼzim qilib chiqib ketdi.

– Shoʻrlik qiz, – dedi Vilfor xonim Valentina ketidan eshik yopilgach, – meni ancha tashvishga solib qoʻydi, kasali jiddiy boʻlmasin tagʻin, deb qoʻrqyapman.

Shu orada Valentina oʻziga nomaʼlum sabablar bilan hayajonlanib uni mazax qilib turgan Eduarning xonasidan indamay oʻtdi-da, oʻz xonasini chetlab, kichik zinaga chiqdi. Buvasi oldiga etib olish uchun yana uch zinapoya qolgandi. Morrelning tovushi eshilib turardi, qizning koʻzlari tindi-da, tizzalari majolsiz bukildi, qoʻllari panjarani tutolmay, zinadan yumalab ketdi.

Morrel eshikni zarb bilan ochib, maydonchada yotgan Valentinani koʻrdi. U yugurib borib qizni ikki qoʻli bilan dast koʻtarib oldi va oʻrindiqqa oʻtqazdi.

Valentina koʻzini ochdi.

– Qoʻpolligim qursin! – dedi shoshib Valentina, – tik turishni unutilib qoʻyganga oʻxshayman-a. Axir, yana uchta zinapoya bor edi-ku.

– Biror joyingiz lat emadimi, Valentina? – soʻradi Morrel hayajonlanib.

Valentina xonaga nazar tashlab chiqdi, Nuartening koʻzlaridan u juda qoʻrqib ketganligi sezilib turardi.

– Buvajon, xavotirlanmang, – dedi qiz jilmayishga urinib, – hech narsa boʻlgani yoʻq, sal boshim aylandi, xolos.

– Yana boshingiz aylandimi? – dedi Morrel tashvishga tushib, – iltimos, ehtiyot qiling oʻzingizni, Valentina!

– Boʻldi, hammasi oʻtib ketdi, hech gap boʻlgani yoʻq deyapman-ku, sizga. Keling, mana bu yangilikni eshiting: bir haftadan soʻng Ejeni turmushga chiqarkan, uch kundan soʻng tantanali nikoh marosimi boʻlarkan. Hammamizni, otamni, de Vilfor xonimni, meni ham toʻyga aytib ketishdi. Men ularning gapidan shularni angladim.

– Bizga ham navbat keladigan kun bormikin-a? Valentina, axir siz buvangiz bilan juda yaqinsiz, ayting unga, hech boʻlmasa toʻyni tezlatsin.

– Mendan buvamni shoshiltirish va hamisha esiga solib turishni umid qilyapsizmi? – soʻradi Valentina.

– Ha, – dedi Morrel, – Xudo haqqi, tezlating, iltimos qilaman. To siz meniki boʻlmaguningizcha koʻnglim tinchimaydi, Valentina, yoʻqsa qachongacha xuddi sizdan ajralib qolayotgandek, yuragimni hovuchlab yuraman?

– Maksimilian, – dedi titrab-qaqshab Valentina, – qoʻrqoq ekansiz. Ofisersiz-a, ofiserlar qoʻrqish nimaligini bilmaydi, deyishardi-ku. Xax-xax-xa!

Valentina xasta odamday qiqirlab kulib yubordi, qoʻllari tarang boʻlib, boshi orqasiga tortilganicha qimir etmay qoldi.

Nuarteni vahima bosdi, koʻzlari olayib ketdi.

Morrel darhol yordam chaqirish zarurligini angladi-da, zarb bilan qoʻngʻiroq chaldi, Valentina boʻlmasida oʻtirgan oqsoch, Barrua oʻrniga kelgan qarol yugurib kirishdi.

Valentinaning yuzi devor boʻlib qolganini koʻrib ikkisi-ning ham jon-poni chiqib ketdi va gaplarga ham quloq solmay, oh-vohlab dahlizga yugurishdi.



Xuddi shu daqiqada Danglar xonim va Ejeni qaytishayotgan edi. Ular allaqachon bu to's-to'polonning boisini bilib olishgandi.

– Aytmovdimmi sizga, buning holi og'ir deb! – dedi Vilfor xonim, – sho'rlik qiz!

## **XVII. IQROR**

Shu ondayoq Vilfor o'z kabinetidan turib: «Nima gap?» – deb qichqirdi.

Morrel Nuartega qaradi, ancha o'ziga kelgan chol tokchaga imo qildi, Morrel o'tgan safar o'sha erga yashiringan edi. U shoshib shlyapasini oldi-da, darparda orqasiga o'tdi. Dahlizda qirollik prokurorining qadami eshitildi.

Vilfor xonaga otilib kirdi-da, Valentinani bag'riga bosdi.

– Doktor! Doktorni chaqiring!.. D'Avrinini chaqiring! Tez! – qichqirdi Vilfor. – To'xtang, yaxshisi o'zim boraman, – dedi va xonadan o'qday otilib chiqib ketdi.

Boshqa eshikdan chopib Morrel chiqdi.

Sen-Meran xonim o'lgan kechasi Vilfor bilan doktor o'rtasida bo'lgan suhbat esiga tushib, uni vahima bosdi. O'shanda ularning so'zini Morrel tasodifan eshitib qolgandi. Kasalning tashqi alomatlari xuddi Barruaning o'limidan oldingi holatiga o'xshardi.

Shu on Monte-Kristoning bundan ikki soat ilgari: «Morrel, boshingizga qanday mushkul ish tushmasin, hech tortinmay oldimga keling, men ko'mak berishga qodirman», degan so'zlari Morrelning qulog'i ostida jaranglagandek tuyuldi.

U o'qday uchib Sent-Onoredan Matinon ko'chasiga, undan Elisey Maydoniga ravona bo'ldi.

Bu orada Vilfor kirakash izvoshga tushib, d'Avrini uyiga etib borgandi. U qo'ng'iroqni zarb bilan tortgan edi, xizmatchining kapalagi uchib eshikni ochdi. Vilfor tili kalimaga kelmay, zinaga yugurdi. Xizmatchi uni tanirdi, shuning uchun so'rab-surishtirib o'tirmay, ketidan:

– Doktor kabinetida, janob qirollik prokurori, – deb qo‘ya qoldi.

Vilfor kabinetga otilib kirdi.

– E-e, o‘zlarimi! – dedi d’Avrini.

– Ha, menman, doktor, – dedi Vilfor eshikni yopayotib, – mana bu gal savolni men sizga beraman: bu erda ikkimizdan boshqa hech kim yo‘qmi? Doktor, mening xonadonim Tangri g‘azabiga qoldi.

– Nima bo‘ldi? – so‘radi doktor sirtidan o‘zini beparvo qilib ko‘rsatsa-da, ichida juda qattiq tashvishga tushib. – Tag‘in biror kishining tobi qochib qoldimi?

– Ha, doktor, – dedi Vilfor, dahshatdan ikki qo‘li bilan boshini changallab, – ha!

Doktor d’Avrinining ko‘zlari «ha, men buni oldinroq aytgandim-ku», deb turardi. U ohista va chertib-chertib dedi!

– Bu gal kim olamdan ko‘z yumyapti? Bizni Parvardigor oldida loqaydlikda ayblab qurbon bo‘layotgan kim?

Vilforning o‘pkasi to‘lib yig‘lab yubordi, u doktorning qo‘lidan mahkam ushladi-da:

– Valentina! – dedi. – Navbat Valentinaga keldi. Valentinaga!

– Qizingizga?! – dedi d’Avrini kayfi uchib.

– Mana, ko‘rdingizmi, o‘shanda xato fikr aytgan ekan-siz, – dedi shivirlab Vilfor, – endi o‘zingiz shubhalangan ana shu sho‘rlikka yordam qilib, uzr so‘rang.

– Siz hamisha menga kechikib xabar qilasis, biroq shunday bo‘lsa-da, mayli, boraman, faqat tezroq borish kerak, sizning dushmaningizga qarshi kurashda kechikish yaramaydi.

– Bu gal, doktor, meni loqaydlikda ayblay olmassiz, degan umiddaman. Bu gal qotilning kimligini albatta bilib olaman va hech ayovsiz jazolayman.

– O‘ch olishni hozir bir chetga qo‘yib turing, avval bemorni halokatdan qutqarib qolaylik, – dedi d’Avrini. – Qani, ketdik.

Vilforni olib kelgan kirakash izvosh d’Avrinini ham olib,

orqaga yoʻrtib ketdi. Morrel esa shu paytda Monte-Kristoning eshigini qoqayotgandi.

Graf oʻz xonasida Bertuchchoning shoshilinch xatini oʻqib tashvishga tushib oʻtirgandi.

U bundan faqat ikki soat muqaddam xayrlashib ketgan Morrelning kelganini eshitib, hayron boʻlib boshini koʻtardi.

Graf uchun ham, Morrel uchun ham shu ikki soat ichida koʻp voqea yuz berdi. Morrel graf bilan jilmayib xayrlashgan edi, mana endi butunlay adoyi tamom boʻlgan kishidek uning oldida turardi.

Graf irgʻib turib uning oldiga bordi-da:

– Nima boʻldi, Maksimilian? – dedi. – Rangingizga qarab boʻlmaydi, nafasingiz qisilib qolibdi-ku?

Morrel asta oʻrindiqa choʻkdi.

– Ha, – dedi u, – chopib keldim, sizga gapim bor edi.

– Uyingizdagilar sogʻ-salomatmi? – soʻradi graf samimiyat bilan.

– Rahmat, graf, – dedi Morrel, soʻzni nimadan boshlashni bilmay, – ha, uyimdagilarning hammasi sogʻ.

– Xayriyat, koʻnglim joyiga tushdi-ya, menga bir narsa demoqchi edingizmi? – dedi graf xavotirlanib.

– Ha, gapim bor, – dedi Morrel, – huzuringizga ajal urugʻi sochilgan xonadondan yugurib keldim.

– E-e, Morserlarnikidanmi? – shoshib soʻradi Monte-Kristo.

– Yoʻq, – dedi Morrel, – Morserlarnikida biror kishi oʻlibdimi?

– General oʻzini oʻzi otib qoʻyibdi, – javob berdi Monte-Kristo.

– Shoʻri quribdi-da, bechoralarning! – dedi Maksimilian.

– Grafinyaning, Alberning ham shoʻri qurigani yoʻq, – dedi Monte-Kristo, – qabih, iflos otaning nomusiga qolguncha, undan abadiy qutulganlari yaxshi.

– Shoʻrlik grafinya! – dedi Maksimilian. – Men hammadan ham koʻproq ana shu olijanob ayolga achinaman!

– Alberga ham rahmingiz kelsin, Maksimilian, ishoning: u grafinyaning munosib o‘g‘li. Hozircha buni qo‘yib, o‘z ishimizga o‘taylik. Siz meni ko‘rmoqchi ekansiz, xursandman, agar biror foydam tegsa, boshim osmonga etardi.

– Huzuringizga men uchun g‘oyat muhim bir ishda yordam berarsiz, degan umidda keldim.

– Qani ayting, qanaqa ish ekan u?

– Bilmadim, bu sirni biror kishiga oshkor aytishga haqqim bormikin, biroq taqdir ekan, ilojim qancha.

U shunday dedi-da, taraddudlanib jimib qoldi.

– Men sizni jonimdan yaxshi ko‘rishimni bilasiz-ku, – dedi Monte-Kristo Morrelning qo‘lini siqib.

– Bu so‘zlaringiz menga dalda berdi va qalbim, bu odamdan hech sir saqlama, deb buyurdi.

– Ha, Morrel, Xudoning o‘zi amr etibdi sizga buni. Yuragingizdagi dard-alamni ayting menga.

– Graf, Batistenni bir ayolning sog‘lig‘idan xabar olib kelish uchun yuborishga ruxsat qiling, siz uni taniysiz.

– Qarollar u yoqda tursin, o‘zim ham xizmatigingizga tayyorman.

– Men uning ahvoli durust bo‘lib qolganligini bilishim kerak, yo‘qsa, jinni bo‘lib qolaman.

– Batistenni chaqiraymi?

– Yo‘q, o‘zim chiqib aytaman.

Morrel tashqariga chiqib, Batistenni chaqirdi-da, shivirlab bir necha so‘z aytdi. Kamerdiner shoshib chiqib ketdi.

– Jo‘natdingizmi? – so‘radi Monte-Kristo qaytib kelgan Morreldan.

– Endi ko‘nglim bir oz tinchidi.

– Men hikoyangizni kutyapman, – dedi jilmayib Monte-Kristo.

– Hammasini oqizmay-tomizmay aytib beraman sizga. Quloq soling. Bir kuni kechqurun bir boqqa kirib qolgan edim, butalar orasida meni hech kim ko‘rmasdi. Yonimdan ikki kishi o‘tib ketdi. Ruxsat eting, men hozir ularning nomini aytmay. Ular juda sekin gaplashishardi, biroq men

bular nima haqda gaplashyapti ekan, deb qiziqib, zindan quloq solib, hamma gapni eshitdim.

– Hikoyangizning muqaddimasi juda dahshatli, buni rangingiz aytib turibdi.

– Juda to‘g‘ri, azizim, haqiqatan juda dahshatli! O‘sha xonadonda shu payt kimdir o‘libdi, suhbatdoshlardan biri – uyning xo‘jayini, ikkinchisi – doktor edi. Birinchisi ikkkichisiga o‘zining xavotirga tushib qolganligini aytib qayg‘u-hasratlarini to‘kib-sochardi, uning uyida shu bir oy ichida ikkinchi kishi tez va to‘satdan o‘lgandi...

– O‘ho‘, shundaymi hali?! – dedi Monte-Kristo Morrelga sinovchan tikilib.

– Shunday, – davom etdi Maksimilian, – o‘sha uyga ajal bir oyda ikki marta kirib chiqdi.

– Doktor nima dedi bunga? – so‘radi Monte-Kristo.

– U... bu tabiiy o‘lim emas, buning sababi...

– Nima dedi?

– Zahar dedi!

– Rostdan-a? – dedi Monte-Kristo engil yo‘talib; u hayajonga tushganda yuzi qizarib yoki bo‘zarganini yo bo‘lmasa suhbatdoshining so‘zlariga qattiq e‘tibor berayotganligini sezdirmaslik uchun ohista yo‘talib qo‘yardi.

– Rostdanmi, Maksimilian? O‘z qulog‘ingiz bilan eshitdingizmi bu gaplarni?

– Ha, azizim graf, hammasini o‘z qulog‘im bilan eshitdim, so‘ngra doktor qo‘shimcha qilib, mabodo shunaqa hol yana yuz bergudek bo‘lsa, sudyaga murojaat qilishga majbur bo‘laman, dedi.

Monte-Kristo Morrelning hikoyasini yana o‘sha beparvolik bilan (ehtimol, yuzaki beparvolik bilandir) tinglardi.

– So‘ngra, – davom etdi Maksimilian, – bu xonadonga o‘lim uchinchi marta chovut soldi, biroq uy egasi va doktor hech kimga churq etmadi, mana endi ajal to‘rtinchi kishini qaqshatmoqda. Graf, ayting-chi, men bu sirni bilarkanman, nima qilmog‘im kerak?

– Azizim, – dedi Monte-Kristo, – siz hammaga ayon voqeani aytyapsiz menga. Siz bu gaplarni eshitgan uy

menga otning qashqasidek ma'lum, uning hamma eshik-teshiklarini besh barmog'imdek bilaman, u erda bog' ham bor, oilaning rahnamosi ota va doktor ham bor. U erda birin-ketin uch kishi sirli sabablar bilan to'satdan o'lib ketdi. Menga qarang: buni men hech kimdan eshitganim yo'q, biroq hammasi menga ma'lum. Lekin men vijdon azobiga tushyapmanmi? Aslo! Menga bularning hech daxli yo'q. Aytganingizdek, bu xonadonni Xudoning o'zi qahriga oldi! Bu jinoyatlardan ko'z yumib o'tavering, chunki qabih jinoyatni ko'rish shart bo'lgan kishilar buni ko'rishni istamayaptilar. Xudoning o'zi xonadondagilarni qahriga olgan ekan, o'zingizni ko'rmaganga soling-da, Tangri odil sudiga havola qiling.

Morrel seskanib ketdi. Grafning ovozi mudhish, dahshatli va tantanavor edi.

– Aytgancha, – dedi graf, go'yo mutlaqo boshqa odam gaplashayotgandek so'z ohangini birdan o'zgartirib, – o'lim yana qaytib kelishini qaydan bilasiz?

– Allaqachon qaytib keldi, graf! – dedi xitoban Morrel.  
– Men bu erga shu vajdan keldim-da.

– Men nima qilay, ayting, Morrel. Ehtimol, qirollik prokurorini ogohlantirib qo'yishimni istarsiz?

Monte-Kristo so'nggi so'zlarini juda ta'sirli qilib aytganidan, Morrel o'rnidan sapchib turdi.

– Graf! – qichqirdi u, – bilasizmi, kim haqida gapiryapman sizga?

– Ha, bilaman, azizim, bilaman, albatta, bu gapim rostligini tasdiqlab ham beraman, ya'ni bu voqea ishtirokchilarining hammasini nomma-nom sanab ham beraman. Siz Vilforning bog'ida sayr etib yurganingiz, so'zingizga qaraganda, bu o'sha markiz Sen-Meran o'lgan oqshom edi. Vilfor bilan d'Avrining markiz Sen-Meranning o'limi va ayniqsa markizaning taajjubli o'limi haqidagi suhbatini eshitgandirsiz. D'Avrini bu ikkalasini ham zaharlanib o'lgan deb gumon qilaman, dedi; ana o'shandan beri chin inson bo'lganligingiz uchun bu sirni oshkora qilsammikin yoki yo'qmikin, deb vijdon azobida qiynalyapsiz. Biz o'rta

asrda yashayotganimiz yo'q, azizim, endilikda muqaddas inkvizasiyadan ham, hur sudyalardan ham nom-nishon qolgani yo'q. Nima qilardingiz ularnn siz? «Hoy, vijdon, mendan senga nima kerak?» degan ekan Stern! Nima qilasiz o'zingizni qiynab? Juda uyqulari kelgan bo'lsa, qo'ying, uxlayverishsin, uyqusizlikka duchor bo'lishsa, bedorlik azobini tortishsin; sizning vijdongingiz pok, Xudoga shukr qilib miriqib uxlayvering.

Morrelning yuzini qayg'u-alam bosdi, u Monte-Kristo-ning qo'lidan mahkam ushlab oldi.

– O'lim yana keldi, deyaqman axir, tushundingizmi?

– Xo'sh, qaytib kelsa nima bo'пти! – dedi graf tobora xitligi oshib borayotgan Maksimilianga sinovchan tikilib. – U xonadon Atridlar oilasi; Xudoning o'zi g'azablandi ulardan, qo'ying, jazosini tortishaverishsin; u xonadon-dagilar bolalar qog'ozdan yasagan qo'g'irchoqlar kabi bir puf bilan chirpirak bo'ladi-da, so'ng chirib tuproqqa aylanadi-ketadi. Bundan uch oy muqaddam markiz de Sen-Meran o'ldi, oradan bir oy o'tgach, markiza vafot etdi, yaqinda Barrua til tortmay o'ldi, bugun chol Nuarte yoki qizaloq Valentinani ajal giribonidan bo'g'adi.

– Siz xabardormisiz bundan? – dahshat bilan xitob qildi Morrel, bundan hatto chaqmoq ursayam parvo qilmaydigan Monte-Kristo seskanib ketdi. – Xabaringiz bo'la turib, indamay yurgan ekansiz-da?

– Menga nima? – e'tiroz bildirdi Monte-Kristo kiftini uchirib. – U odamlarning menga nima daxli bor? Birini qo'riqlab, ikkinchisini o'ldirish menga na hojat? To'g'ri, men qurbon bo'lganlarning ham, qotillarning ham tarafdori emasman.

– Axir, men... men! – dedi g'azabdan qichqirib Morrel. – Axir men uni sevaman!

– Sevaman? Kimni? – dedi Monte-Kristo va o'rnidan irg'ib turdi-da, Morrelning qo'lidan tutdi.

– Men uni jonimdan ham yaxshi ko'raman? Kerak bo'lsa uning bir tomchi ko'z yoshi uchun o'zimni qurbon qilishga tayyorman, eshitdingizmi, tayyorman! Men Valentina de

Vilforni sevaman, uni esa o'ldirishyapti, ha, o'ldirishyapti!  
Men uni sevaman, Xudoga va sizga iltijo qilaman: madad  
bering! Uni ajal changalidan qutqaray!

Monte-Kristo xuddi yaralangan sher o'kirigiday na'ra  
tortib yubordi.

– Badbaxt! – dedi u qo'llarini qisirlatib, – sen Valenti-  
nani sevasanmi? O'sha la'nati ajdod qizini-ya?

Morrel umrida bunaqangi darg'azab basharani va dah-  
shatga to'la ko'zlarni ko'rmagan edi. Ajal urug'i yomg'ir-  
dek yog'ib turgan jang maydonlarida ham, Jazoirning  
o'lim ko'rpasi yopingan zim-ziyo tunlarida ham vahima  
uning giribonidan bunchalik qattiq bo'g'magan edi.

U dahshat ichida orqasiga tisarildi.

Qattiq g'azabga mingan Monte-Kristo xuddi vujudini  
o't olgandek, bir zum ko'zlarini yumdi, bor kuchini yig'ib  
o'zini bosishga urindi, so'ng quyosh nurlari o'ynab turgan  
dahshatli to'lqinlar singari asta-asta hovuridan tusha  
boshladi.

Bu og'ir sukunat, o'z-o'zi bilan kurash uzoqqa cho'zil-  
madi: yigirma soniya davom etdi, xolos.

Graf, rangi dokadek oqarib, boshini ko'tardi.

– Mana, ko'rdingizmi, azizim, – dedi u hamon boyagi-  
dek ohangda, – falokat yomg'irdek yog'ayotganda kibr-  
havo bilan befarq qarab turgan kishilarni ham Parvardi-  
gor jazosini berarkan. Ko'zim oldida yuz berayotgan bu  
mudhish fojiani men o'ta beparvolik bilan tomosha qilib  
turaverdim. Odamlar sirlarini niqoblab (boylar va zo'ra-  
vonlarga sir saqlash oson-da!) zimdan yovuzlik qilayot-  
ganlarida, bir bandai mo'min bo'lib olardim-da, ularning  
kirdikorlaridan kulib o'tirardim. Mana endi egri-bugri yo'lla-  
rini nazarimdan sira qochirmay kelgan ilon zahrini menga  
ham soldi, solganda ham naq yuragingga soldi!

Morrel bo'g'iq ingrab qo'ydi.

– Hasrat-nadomatni bas qiling, – dedi graf, – o'zingizni  
tuting, bor kuchingizni yig'ib, belingizni mahkam bog'-  
lang, yoningizda men borman, men himoya qilaman sizni.

Morrel g'amgin holda boshini chayqadi.



– Es-hushingizni yig'ing, deyapman sizga! – xitob qildi Monte-Kristo. – Shuni bilib qo'yingki, men hech qachon yolg'on gapirmayman, hech qachon yanglishmayman. Hozir choshgoh, Maksimilian, menikiga kechqurun emas yoki ertaga ertalab emas, shu bugun choshgohda kelganingiz uchun Xudoga shukr qiling. Menga qarang, Maksimilian, hali ham kech emas: Valentina tirik bo'lsa, endi o'lmaydi.

– E, Tangrim! – dedi Maksimilian. – Men chiqqanda u o'lim to'shagida yotardi!

Monte-Kristo ko'zlarini qo'li bilan bekitdi.

Dahshatli sir-asrorga to'la bu boshda shu topda qanday fikrlar tug'ilayotgan ekan? Qahri zo'r bu zakovatli inson qulog'iga yorug'lik yoki jaholat parisi nimalarni shipshitayotgan ekan?

Bu faqat Xudoning o'ziga ayon!

Monte-Kristo yana boshini ko'tardi, bu gal uning chehrasi endigina uyqudan ko'z ochgan go'dakniki kabi sokin, osoyishta ko'rindi.

– Maksimilian, – dedi Monte-Kristo, – xotirjam uyga qayting, biror tadbir topaman deb behuda urinmang, vahimaga tushganingizni hech kimga sezdirman. Sizga men o'zim xabar qilaman, kuting. Hozir uyingizga boring.

– Sizning beparvoligingiz meni vahimaga solyapti, graf, – dedi Morrel, – siz o'lim ustidan ham hukmingizni o'tkaza olasizmi? Siz oddiy odammisiz yoki avliyomi? Yo Xudomisiz?

Shunday dedi-da, har qanday xavf-xatar oldida chekinmay kelgan yosh ofiser yuragini dahshat qamrab, Monte-Kristodan o'zini chetga oldi.

Ammo g'amgin ko'zlarini tikib, mehr-la iljayib turgan Monte-Kristoni ko'rgan Maksimilianning ko'zlarida yosh qalqidi.

– Azizim, men o'z hukmimni juda ko'p narsalarga o'tkazishga qodirman, – dedi graf, – qani, boring endi, meni yolg'iz qoldiring.

Atrofdagilarni aqliga sig'maydigan darajada ta'sir kuchi

bilan o'ziga rom qilib oluvchi Monte-Kristoning amr-farmoyishiga bo'ysunishga majbur bo'lgan Maksimilian uning qo'lini qisdi va chiqib ketdi.

Darvozaga etganda Matinon ko'chasi muyulishida Bastistenni ko'rib, to'xtadi.

Shu orada Vilfor bilan d'Avrini qirollik prokurorining uyiga shosha-pisha etib kelishdi. Ular kirganda Valentina hamon behush yotardi: doktor bemorni nihoyatda diqqat-e'tibor bilan ko'rdi, vaziyat mudhish sirdan xabardor doktordan shuni talab qilardi.

Vilfor ko'zini d'Arvinidan bir zum uzmas, uning hukmini kutib turardi. Rangi Valentinanikidan o'n chandon oqarib ketgan Nuarte doktorning bu hukmini Vilfordan ham ko'proq toqatsizlik bilan kutardi, uning ham butun diqqat-e'tibori doktorning ko'zlarida edi.

Nihoyat doktor asta:

– Hozircha tirik, – dedi.

– Hozircha! – dedi xitob qilib Vilfor... – Qanday dahshatli so'z bu, doktor!

– Ha, yana qaytaraman: qiz hozircha tirik, bu hol meni juda hayratga solyapti.

– Demak, omon qolibdi-da? – so'radi ota.

– Tirik ekan, demak, omon qolibdi.

Shu payt d'Avrini bilan Nuartening ko'zlari to'qnash keldi, cholning ko'zlaridagi benihoya quvonch va chuqur ma'noni ko'rib doktor hayron bo'ldi.

U rangida qondan asar ham qolmagan bemorni yana kursiga o'tqazdi-da, undan ko'zini uzmay, har bir harakatini kuzatib yotgan Nuartega tikilgancha qimir etmay tik turib qoldi. Nihoyat doktor tilga kirib dedi:

– Janob de Vilfor, mademuazel Valentinaning oqsochini chaqiring.

Vilfor qo'lida tutib turgan qizining boshini sekin kursi suyanchig'iga qo'ydi-da, oqsochni chaqirgani ketdi.

Vilfor ketidan eshik yopilishi bilan d'Avrini Nuarte yoniga borib so'radi:

– Menga aytadigan biror gapingiz bor chog'i?

Chol ko'zlarini ma'nodor yumdi, bu uning «ha», degani bizga ma'lum.

– Faqat mening o'zimgami?

– Ha, – dedi imo bilan Nuarte.

– Bo'пти, siz bilan yakka qolishga harakat qilaman.

Shu payt oqsochni ergashtirib Vilfor kirdi, oqsoch ketidan Vilfor xonim paydo bo'ldi.

– Nima bo'ldi sho'rlik qizga? – dedi hayajonlanib xonim, – hozirgina mening oldimda bo'lgandi-ku, rostdan ham, bir oz tobim qochib turibdi, degandi, men kasali bunchalik jiddiy ekanligini bilmagandim...

Ko'zlari jiqqa yosh Vilfor xonim Valentinaning oldiga keldi-da, chinakam onalik mehri-la qizning qo'lini bag'riga bosdi.

D'Avrini Nuartedan ko'zini uzmasdi, chol ko'zlarini o'qraytirib qo'ydi, rangi bo'zardi, peshanasini qora ter bosdi.

D'Avrini Nuartening kimga ko'z tashlab turganligini ko'rib, «Mana, gap qayerda ekan!» – dedi ichida, so'ng gapni boshqa tomonga burib, Vilfor xonimga qaradi.

Xonim esa:

– Sho'rlik qizni to'shakka yotqizish kerak, keling, Fanni, uni ikkimiz olib borib yotqizaylik, – dedi.

Bu taklif d'Avriniga chol bilan yakka qolish imkoniyatini berardi, bu vajdan u xonim taklifini ma'qullab, boshini qimirlatdi, ammo bemorga undan beruxsat hech narsa bermanglar, deb ogohlantirib qo'ydi.

Valentinani olib ketishdi, u hushiga kelgandi, biroq qimirlayolmas, gapirishga ham madori yo'q edi, tutqanoq uni juda holdan toydirgandi. Shunga qaramay, u buvasi bilan ko'z urishtirib xayrlashdi, chol esa nevarasiga niho-yatda g'amgin boqardi.

– D'Avrini bemorni jo'natib, doriga qog'oz yozdi va dorixonaga borib kelishni Vilforning o'ziga topshirdi, dorini tayyorlayotganlarida shaxsan tepasida turishni va olib kelib qizning bo'lmasida uni kutib turishni buyurdi.

So'ngra Valentinaga hech narsa bermaslik haqidagi

buyrug'ini yana qaytardi-da, Nuarte xonasiga tushdi, eshikni mahkam bekitdi, atrofda hech kim yo'qligiga imoni komil bo'lgach, so'radi:

– Nevarangizning kasali haqida biron narsa bilasizmi?

– Ha, – dedi imo bilan chol.

– Vaqtini o'tkazmaylik, men sizga savollar beraman, siz javob bering.

Nuarte imo bilan, javob berishga tayyorman, dedi.

– Valentinaning shunday kasalga duchor bo'lishini oldindan bilganmidingiz?

– Ha.

D'Avrini bir lahza o'ylab qoldi, keyin Nuartega yaqin bordi.

– Meni kechiring, sizga bir narsa aytaman, ammo hozirgi qaltis vaziyatda biz hech narsani qo'ldan boy bermasligimiz zarur. Baxtsiz Barruaning qanday qiynalib o'lganini ko'rgan edingiz, shekilli?

Nuarte osmonga qaradi.

– Barrua nimadan o'lganini bilasizmi? – so'radi d'Avrini qo'lini Nuartening kiftiga qo'yib,

– Ha, – dedi chol.

– U o'z ajali bilan o'ldi, deb o'ylaysizmi?

Nuarte jonsiz lablari bilan beo'xshov jilmayib qo'ydi.

– Bundan chiqdi, siz Barrua zaharlangan, deb gumon qilasizmi?

– Ha.

– Barrua ichib o'lgan dorini unga maxsus tayyorlashgan, deb o'ylaysizmi?

– Yo'q.

– Sizningcha, o'sha Barruani halok etgan kimsa bugun Valentinani ham zaharladimikin?

– Ha.

– Demak, qiz ham o'ladimi? – so'radi d'Avrini choldan sinovchan ko'zini uzmay. Doktor bu so'zlar Nuartega qattiq ta'sir qilar deb o'ylagandi.

– Yo'q! – dedi chol tantanavor imo bilan.

– Hali u o'lmaydi degan umiddamisiz?

– Ha.  
– Nimaga asoslanib?  
Chol ko'zi bilan imo qilib, javob berolmasligini aytdi.  
– Ha, aytganicha, – dedi asta d'Avrini, so'ng yana Nuar-  
tega qarab dedi:  
– Qotil niyatidan qaytadi degan umiddamisiz?  
– Yo'q.  
– Unday bo'lsa, zahar Valentinaga ta'sir qilmaydi, deb  
o'ylaysizmi?  
– Ha.  
– Valentinani zaharlamochi bo'lganliklarini mendan  
ko'ra siz yaxshi bilsangiz kerak, albatta?  
Chol imo bilan: «Bunga imonim komil», deb qo'ydi.  
– Valentinaning hayoti nega xavf ostida emas deyap-  
siz? Bunga biror asos bormi?  
Nuarte ko'zlarini bir nuqtaga tikib qoldi, d'Avrini ham  
o'sha tomonga qaradi. Cholning ko'zi har kun unga kelti-  
riladigan dori shishaga tikilgandi.  
– E-e, shundaymi hali! – dedi d'Avrini to'satdan bir  
fikrga kelib. – Nahotki siz...  
Nuarte uning so'zini bo'lib:  
– Ha, – dedi.  
– Valentinani zahar ta'siridan qutqarib qolibsiz-da...  
– Ha.  
– Uni asta-asta bunga o'rgatib kelib-a...  
– Ha, ha, ha, – dedi imo bilan Nuarte uning imosiga  
doktor tushunganidan xursand bo'lib.  
– Sizga men berayotgan dorida brusin bor deganimni  
eshitgan bo'lsangiz kerak?  
– Ha.  
– Demak, Valentinaga bu doridan oz-oz ichirib o'rga-  
tib, unga zaharni ta'sir etmaydigan qilib qo'ygan ekansiz-  
da?  
Nuartening ko'zlari quvonchdan charaqlab ketdi.  
– Murodingizga etibsiz! – dedi xitob bilan d'Avrini. –  
Agarda ana shu ehtiyot chorasini ko'rib qo'ymaganingiz-  
da, zahar Valentinani ham til torttirmagan bo'lardi, biroq

ish engil ko'chdi, har holda bu gal Valentina o'lmaydi.

Cholning ko'zlarida yana quvonch va minnatdorchiilik uchqunlari chaqnadi.

Shu vaqt Vilfor kirdi.

– Mana, siz yozib bergan dori, doktor, – dedi u.

– Dorini tayyorlaganda o'zingiz qarab turdingizmi?

– Ha, – javob berdi qirollik prokurori.

– Bu erga kelguncha qo'lingizdan qo'yganingiz yo'qmi?

– Yo'q.

D'Avrini dori shishani olib, undagi suyuqlikdan kaftiga bir necha tomchi tomizdi-da, yutib yubordi.

– Durust, – dedi u, – Valentining oldiga boraylik, yuring, men bu dorini qanday qilib ichish kerakligini yozib beraman, aytganlarim buzilmasligi uchun o'zingiz ko'z-quloq bo'lib turasiz.

D'Avrini bilan Vilfor Valentining xonasiga kirib ketganda Vilfor koshonasiga tutash hovliga bir italyan kashish gerdayib, vazmin qadam tashlab kirdi-da, uyni ijaraga olish ustida so'z yurita boshladi.

Uy qanchaga ijaraga qo'yilganligini bilmadik, ammo ana shu ijara shartnomasiga binoan oradan ikki soat o'tgach, uyda shu kungacha istiqomat qilib kelganlar ashqol-dashqollarini ko'tarib ko'chib ketishdi. Uyning poydevori uncha mahkam emas ekan, uyning yiqilib tushish xavfi bor emish degan mish-mishlar ham tarqaldi, shunga qaramay, yangi xo'jayin shu kunning o'zidayoq naq soat beshda arziyas jihozlari bilan ko'chib kirdi.

Yangi xo'jayin uyni uch, olti yoki to'qqiz yilga ijaraga olgan va tartibga ko'ra oldindan yarim yilligini to'lagan, bu, yuqorida aytganimiz italyan bo'lib, ismi-sharifi sinor Jakomo Buzoni edi.

Darhol ishchilar chaqirildi, shu kechasiyoq duradgorlar, g'isht teruvchilar eski binoning tagiga yangi poydevor qo'yayotganini ko'rgan yo'lovchilar hayron bo'lishardi.

## XVIII. BANKIR VA UNING QIZI

Oldingi bobdan Danglar xonim yaqinda mademuazel Ejeni bilan Andrea Kavalkantining to'yi bo'lajagini rasmiy ravishda xabar qilish uchun Vilfor xonim oldiga kelib ketganligini bilamiz. Demak, ma'lum bo'ladiki, manfaatdor tomonlar kelishib olishgan ekan. Biroq, bundan oldin yuz bergan bir manzarani o'quvchimizga hikoya qilib berishimiz kerak.

Kitobxonamizdan, shu ajoyib ayyom tongida bir oz orqaga qaytib, xayolan o'sha ma'lum tong paytiga o'tib, baron Danglarning biz bir karra tasvirini bitib bergan zarrin mehmonxonasiqa kirishini iltimos qilamiz.

O'shanda, ertalab soat o'nda, nimadandir tashvishga tushgan, o'ychan baron mehmonxonaning u boshidan-bu boshiga og'ir-og'ir qadam tashlab yurardi. U tez-tez eshikka qarab qo'yar, tiq etgan tovush eshitilsa, to'xtab qulog'ini ding qilardi.

Pirovardida, uning toqati toq bo'ldi-da, kamerdinerni chaqirdi:

– Eten, borib mademuazel Ejeni meni nega mehmonxonada kutib tursin deganini bilib keling. Kutaverib sarg'ayib ketdim-ku!

Baron bu bilan bir oz jahlidan tushib, o'pkasini bosib olgandek bo'ldi.

Darhaqiqat, mademuazel Ejeni ertalab uyqudan ko'z ochishi bilan oqsochini baron huzuriga yuborib, uchrashmoqchi ekanligini va o'sha zarrin mehmonxonada kutib turishini iltimos qilgandi. Bu favqulodda iltimos va uning rasmiy tusda aytilganligi bankirni xiyla tashvishga solib qo'ydi, shuning uchun u qizining iltimosini darhol bajo keltirib, mehmonxonaga barvaqt kelib turgan edi.

Ko'p o'tmay Eten qaytib keldi.

– Mademuazel Ejeni xodimasining aytishicha, – dedi u, – mademuazel Ejeni kiyinib bo'libdi, hozir chiqarmish.

Danglar «ma'qul» degandek boshini qimirlatib qo'ydi. Jamoatchilik va xizmatkorlari Danglarni yuvosh odam va

muruvvatli ota, deb bilardi. Komediya baron o'ynaydigan demokrat arbob roli ana shunday bo'lib yurishini talab etardi, uning o'zi, bu menga juda mos rol, deb o'ylardi; antik teatrda ham shu kabi otalar niqobi og'zining o'ng burchagini balandroq ko'tarib, kulgili qilib, chap burchagini esa pastga tushirib, mungli qiyofaga kirilardi.

Hoziroq shuni aytib qo'yaylikki, yaqin sirdoshlar davrasiga tushganda baronning iljayib turadigan lablari burishib, cho'chchayib qolardi, shunda muloyim kishi o'rnida qo'pol er va johil ota paydo bo'lardi-qo'yardi.

– Bu tentak qizaloqning menga gapi bor ekan, nega endi to'g'ri kabinetimga boravermaydi? – dedi to'ng'illab Danglar. – Nima gapi bor ekan menda?

Tashvishga solib qo'ygan bu fikr uning xayolidan yigirmanchi marta o'tganda, birdan eshik ochildi-yu, Ejeni kirdi, u go'yo italyan operasida o'z joyini egallashga shoshilayotgandek qora kashtali qora shoyi ko'ylak, shlyapasiz, biroq qo'lqop kiyib olgan edi,

– Nima gap, Ejeni? – dedi ota, – shinam kabinetim turganda bu mehmonxonaga chaqirishning nima keragi bor edi?

– Haq gapni aytyapsiz, janob, – dedi Ejeni, imo bilan otasini o'tirishga taklif etib, – siz bergan ikki savol bo'lajak suhbatimizga xotima yasaydi. Shu sababli ikkisiga hoziroq javob berib qo'yay, odatda birinchisidan boshlanadi, ammo men ikkinchisidan boshlayman, chunki bu engilroq. Bankir kabinetining noxush ta'siridan qochib, mehmonxonada uchrashishni ma'qul topdim. Kassa daftari (ular qanchalik zarhallangan bo'lmasin), qal'a darvozalari kabi mahkam qulflangan yashiklar, allaqaerlardan olingan behisob qog'oz pullar, Angliya, Gollandiya, Ispaniya, Hindiston, Xitoy va Perudan kelgan uyum-uyum xatlar otamning fikriga hamisha g'alati ta'sir etar va dunyoda ijtimoiy mansablardan va ularni egallab olgan zotlarning fikr-xayollaridan muhimroq va muqaddasroq narsalar borligini unutib qo'yishga majbur qiladi. Mana, siz bilan gaplashish uchun mehmonxonani tanlaganim-



ning boisi shu. Ana, qarang, buning devorlarida bizning, ya'ni siz, men va onajonimning shod-xurram tushgan rasmlarimiz va tabiatning go'zal, moviy ko'rinishlarini, ajoyib cho'pon yaylovlarini tasvir etuvchi suratlar zarrin romlarda osilib turibdi. Men sirtqi muhitning kuchli ta'siriga qattiq ishonaman, ehtimol, men, ayniqsa sizga nisbatan, xatolikka yo'l qo'yayotgandirman, biroq ilojim qancha? Hali ham ba'zan xayolparastlikka berilib ketaman, chunki artisttabiatman-da.

– Juda soz, – dedi javoban Danglar qizining bu balan-dparvoz so'zlarini o'ta vazminlik, sovuqqonlik bilan tinglab. Uning xayoli tamom boshqa yoqda bo'lganligi uchun shuncha gapdan birontasiga tushunolmagandi.

– Shunday qilib, ikkinchi savolni to'la bo'lmasa-da, har holda, echdik, – dedi Ejeni zarracha xijolat tortmay, uning so'zi va harakatini boshqalardan ajratib turadigan erkaklarga xos kibr-havo bilan, – bundan siz qanoat hosil qilgan bo'lsangiz kerak. Endi birinchi savolga o'taylik. Siz mendan, nega men bilan uchrashmoqchi bo'lib qolding, deb so'radingiz. Bu savolingizga ikki og'iz so'z bilan javob beraman: men graf Andrea Kavalkantiga turmushga chiqishni istamayman.

Danglar o'rnidan sapchib turdi.

– Ha, janob, istamayman, – davom etdi boyagidek vazminlik bilan Ejeni. – Taajjublanib qoldingiz, shekilli? To'g'ri, bu nikoh haqida gap boshlangandan buyon indamay keldim, ammo mening roziligimni so'ramay ish bitirayotgan zotlarning shashtini vaqti kelib shartta qaytarib tashlashga qurbim etar, deb ishongandim. Bu gal shu mahalgacha o'zimni vazmin tutishim, faylasuflar iborasi bilan aytganda, boshqacha manbalardan kelib chiqqan edi; mehrigiyo, mo'min-qobil qizingiz bo'lganim vajidan sizning istagingizga bo'yin egishga harakat qildim (qizning qirmizi lablarida sezilar-sezilmas tabassum o'ynadi).

– Xo'sh, nima demoqchisan? – so'radi Danglar.

– Janob, – dedi javoban Ejeni, – bor kuchim bilan harakat qildim demoqchiman; biroq endilikda tiz cho'kib ito-

at qilish vaqti o'tdi, deb bilaman.

Ejenining irodasi kuchli, oqila qiz ekanligidan darak berib turgan bu bama'ni, mantiqli so'zlar kaltafahm Danglarni hang-mang qilib, dovdiratib qo'ygandi.

– Har holda, – dedi Danglar, – nikohni rad etishingning biror sababi bordir, Ejeni?

– Sababimi? – dedi Ejeni. – E, Xudoyim! Andrea Kaval-kantini xunuk, esi past va yoqimsiz, deb bo'lmaydi, albatta. Odamga aft-basharasi va qaddu qomatiga qarab baho beradigan zotlar ko'zi oldida u juda jozibador nusxa bo'lib ko'rinishi mumkin; men hatto u boshqalarga qaraganda ko'nglimga kamroq yoqyapti, demayman, faqat tannoz oyimcha shunday deyishi mumkin, men esa o'zimni undaylardan ancha yuqori hisoblayman. Bilasizmi, janob, men hech kimni sevmayman. Ortiq darajada zarurat bo'lmasa, turmushga chiqib butun umringni birovga tobe qilib qo'yishning nima hojati bor? Bir donishmand shunday degan ekan: «Ortiqcha hech narsaning keragi yo'q», boshqa biri esa: «Hamma narsam o'z gardanimda», debdi. Bu ikkala hikmatni menga ham lotincha, ham grekcha o'rgatishgandi, ulardan bittasini yanglishmasam, Fedro, ikkinchisini esa, Biant aytgan bo'lsa kerak. Shunday qilib, otajonim, hayot halokatlari-da (hayot orzu-umidlarimizning doimiy halokatidan iboratdir) men faqat ortiqcha yukni uloqtirib tashlayapman, xolos. Yolg'iz yashash huquqimnigina, demak, hurlik huquqimnigina saqlab qolyapman.

– Badbax! – to'ng'illadi Danglar rangi o'chib, chunki qizining qarshiligini engish amri mahol ekanligini u anglagandi.

– Men badbaxtmanmi? – dedi e'tiroz bildirib Ejeni. – Aslo! Sizning xitob qilib aytgan bu so'zingiz teatr sahna-sida aytiladigan tumtaroqli so'zning xuddi o'zi-ya! Aksincha, men baxtiyorman. Qani, ayting-chi, nima kamchiligim bor mening? Odamlar, Xudo undan husnni ayamagan, deyishadi, birgina shuning o'zi menga barcha eshiklarni ochib beradi, hamma meni quchoq ochib kutib oladi.

Men esam, xushnudlik bilan qabul qilsalar quvonaman, axir ochiq chehraning xunugi bo'lmaydi. Men tentak emasman, o'zimga yarasha qobiliyatim, aqlim bor, shu tufayli xuddi maymun yong'oqni chaqib, mag'zini olib egandek, hayotdan o'zimga yoqqan narsalarning hammasini olaman. Men boyman, chunki siz Fransiyada eng badavlat kishilardan birisiz, men esa sizning yakka-yu yagona qizingizman. Teatr sahnasidagi qaysar otalar nevara tuhfa qilmagani uchun qizlarini merosdan mahrum etishadi. Ammo siz unday otalardan emassiz. Buning ustiga, ehtiyotkor qonun sizdan, meni zo'rlab erga berish huquqini tortib olgani kabi merosdan butunlay mahrum etish huquqini tortib olib qo'ydi. Xullas, men ham go'zal, ham oqila, komediya operalarida aytilganidek, porloq iste'dodga ega badavlat qizman! Axir, janob, mana shularning o'zi baxt emasmi! Siz esa meni badbaxtga chiqarib qo'yyapsiz.

Qizining cho'rtkesarligi, gerdayib iljayishi Danglarning tepa sochini tikka qilib yubordi; u do'q ura boshladi. Ammo Ejenining nigohidagi savol alomati va qop-qora go'zal qoshlarining taajjub-la chimirilganini ko'rib, yuzini orqaga o'girdi-da, darhol hovuridan tushib, o'zini qo'lga oldi.

– Bu gaplaring to'g'ri, – dedi iljayib ota, – sen haqiqatan ham hozir o'zing aytgan fazilatlariga ega erka qizsan, faqat bundan bir narsa mustasnodirkim, men buni ochiq aytishni istamayman, shunda o'zing payqab olursan.

Ejeni ham Danglarga taajjublanib tikilib qoldi, axir u zo'r iftixor bilan boshiga qo'ndirib olgan tojdagi bir marvariddan qizini mahrum etmoqchi.

– Turmushga chiqishdan nima uchun voz kechayotganligingni juda yaxshilab tushuntirib berding menga, – davom etdi bankir. – Endi seni turmushga chiqishga meni nima majbur etayotganini aytib beray, quloq sol.

Ejeni otasiniig so'zlariga itoat qilayotgan qiz bo'lib emas, hujumni qaytarishga hozirlanayotgan raqib tusiga kirib ta'zim qilib qo'ydi.

– Qizini turmushga chiqishni taklif qilgan har bir otaning biror asosi bo'ladi, – dedi Danglar. – Ba'zi otalar o'z nasl-nasabini ko'paytirish, nevara-chevara orttirib, nasl qoldirish niyatida shunday qiladi. Ochig'ini aytib qo'ya qolay: men bu darddan xalosman, oilaviy shavq-zavqlar meni uncha qiziqitirmaydi, mening falsafachi qizim buni to'g'ri tushunadi, deb ochiq aytyapman.

– Juda soz, – dedi Ejeni, – ochiqchasiga gaplashganimiz yaxshi.

– Ko'rib turibsanki, – dedi Danglar, – ochiq gaplashishni orttirib yuborishga moyilligingni yoqtirmasam-da, har holda, muhit talab qilgach, o'zim ham ana shu usulda gaplashishga majbur bo'lyapman. Seni baxtli bo'lg'in, deb erga chiqishni taklif qilayotganim yo'q, sirasini aytsam, o'sha daqiqada buni deyarli xayolimga ham keltirmagan edim. Mana, men ham ochig'ini aytdim, axir sen ochiqchasiga gaplashishni yoqtirasam-ku. Men ba'zi moddiy manfaatlarni hisobga olib, seni o'sha kishiga mumkin qadar tezroq turmushga chiqishni taklif qilyapman.

Ejeni qoshlarini kerib qo'ydi.

– Ishlar mana shunaqa, bunga jahling chiqmasin, ayb o'zingda. Amin bo'lginki, noxush ta'sirlarga berilib ketmayin deb bankirning kabinetiga kirishdan qo'rqqan artisttabiat qiz bilan suhbatda moliyaviy tomonga o'z ixtiyorim bilan berilib ketayotganim yo'q.

– Ammo bankirning kabinetida, – davom etdi Danglar, – o'tgan kuni mendan ming frank olish uchun (bunaqa summani senga har oyda to'g'nag'ich sotib olishing uchun berib turaman) o'zing kirib chiqqan o'sha kabinetda, qizginam, bilib qo'yginki, juda ko'p narsani o'rganish mumkin; bu hatto turmushga chiqishni istamaydigan yosh oyimqizlar uchun ham foydali saboqlardir. Chunonchi, bankir uchun qarz tanga jon kiritish bilan barobar ekanligini o'sha kabinetda bilish mumkin. Qarz – bankirning joni demakdir. Graf Monte-Kristo kunlardan bir kuni menga shu haqda hech unutilmaydigan so'zlarni

aytgan edi. Qarz gumdon bo'la bergan sari bankir murdaga aylana borishini ham o'sha kabinetda bilib, ko'rib olish mumkin. Hozir juda mantiqli mulohaza yuritayotgan qizning bankir otasi ham yaqin kelajakda ana shunday holga tushib qolishi hech gap emas.

Ejeni otasining bu jon oluvchi gaplaridan ta'sirlanib itoat qilish o'rniga, qaddini g'oz tutib:

– Siz xonavayron bo'libsiz-da! – dedi.

– Sen juda to'g'ri aytding, qizim, – dedi Danglar mush-tini tugib; shunda ham bu bag'ritosh zot vazmin, oqil kishi bo'lib ko'rinish uchun jilmayib turardi. – To'g'ri aytding, men mol-mulkimdan ajrab, xonavayron bo'ldim.

– Hali shunday deng! – dedi Ejeni.

– Ha, shunday, xonavayron bo'ldim! «Shunday qilib, halokat siri ochildi», degan ekan shoir. Endi gapimga quloq sol, qizim, sen bu falokatdan xalos bo'lishda qanday yo'llar bilan yordam berishing mumkinligini aytay senga, men bu gapni o'zimning emas, sening manfaatningi ko'zlab aytyapman.

– Agar bu falokat qizimni qayg'uga solib qo'ydi, deb o'ylagan bo'lsangiz, unda o'taketgan no'noq psixolog ekansiz, janob, – dedi Ejeni. – Men xonavayron bo'lgan-mishman! Menga baribir emasmi? Iste'dodim o'zimda qoladi-ku! Shuncha boylik orttirib, siz berolmagan yiliga yuz-yuz ellik ming livr daromadni Paste, Malibran yoki Grizalar singari o'zim topolmaymanmi? Sizdan buning o'rniga arzimaydigan o'n ikki ming frankni olib, minnatingizga qolgandan ko'ra, olqish va guldastalar ostida topgan pullarimni olib, huzur qilib yashaganim yaxshi emasmi? Kinoyali tabassumingizdan mening iste'dodimga ishonmayotganligingiz sezilib turibdi. Boringki, iste'dodni yo'q ham deyaylik, axir hur, mustaqil yashashga ehtirosim, intilishim-chi? Bu menga dunyoning hamma boyliklaridan ham aziz, jonimdan ham aziz-ku!

Yo'q, men o'zimga aslo achinmayman, taqdirim o'z qo'limda, hamma vaqt o'z yo'limni topib keta olaman. Kitoblarim, qalam-daftarlarim, royalim hamisha mening

yo'ldoshim bo'ladi, men bu narsalarni istagan vaqtimda olishga qodirman, bular uncha qimmat ham emas. Ehtimol, siz meni Danglar xonim uchun qayg'urar deb o'ylarsiz, bu ham bo'lmag'ur gap, yanglishmasam, xonim hamma ehtiyot choralarini ko'rib qo'ygandir, demak, falokat xonimga zarracha ziyon keltirmaydi, uning butunlay xavfsizligiga imonim komil, har holda u men boramdagi g'am-tashvishlardan o'zini chetga tortdi-da, boylik orttirib oldi. Qizim hur, mustaqil yashashni yaxshi ko'radi, unga xalaqit bermaslik kerak, degan bahona bilan mening ishlarimga aralashmadi, shunisiga ham shukr.

Yo'q, janob, siz meni juda ovsar qizga chiqarib qo'ymang, bolalik chog'imdanoq tevarak-atrofdagi voqealarning hammasini ko'rib, juda yaxshi anglab kelyapman. Sizning xonavayron bo'lishingizning menga hech ahamiyati, yo'q. Aqlimni taniganimdan buyon meni biror kishi sevmagan. Tabiiyki, men ham hech kimni sevmayman. Mana, endi mening miyam qanday fikrlar bilan band ekanligini anglagandirsiz ?

– Bundan shunday xulosa chiqadiki, – dedi Danglar, u qizining gaplari izzat-nafsigaga tekkanidan g'azablanmagan edi, – sen meni batamom xonavayron bo'lishimni istar ekansan-da?

– Batamom xonavayron bo'lishingizni istarmishmanmi? Men-a? – dedi Ejeni, – gapingizga tushunmadim.

– Tushunmagan bo'lsang yana yaxshi, bu menga umid bag'ishlaydi. Bo'lmasa quloq sol.

– Qulog'im sizda, – dedi Ejeni otasiga eb qo'yguday tikilib; ota esa bu qarashga arang bardosh berdi.

– Knyaz Kavalkanti, – dedi so'zini davom ettirib Danglar, – senga uylanmoqchi va buning evaziga bankingga uch million qo'ymoqchi.

– Juda saxiy odam ekan-ku, – dedi zaharxanda qilib Ejeni qo'lqopini silab.

– Otam bu uch milliondan foydalanmoqchi, deb o'ylayapsan, shekilli? – dedi Danglar. – Aslo unday emas, bu uch million kam deganda o'n million foyda keltirishi

kerak. Men bir bankir bilan birga temir yo'lni konsessiyaga olyapman. Bu sanoatning hozirgi zamonda tez vaqt ichida katta foyda keltiradigan yagona sohasi. Bir vaqtlar Lou ham Parijning anqov chakana savdogarlariga firib berib shunday foyda olgandi. Menim mo'ljalimda, bir zamonlar Ogoyo sohillaridagi cho'ldan bir akr<sup>18</sup> erni egallab olganlari singari, ana shu temir yo'lning milliondan bir bo'lagiga ega bo'lib olinsa, kifoya. Bu garov puli bo'ladi, bu cho'qqi sari bir qadam qo'yildi degan gap, chunki garovga qo'ygan ana shu pulning evaziga o'n besh, yigirma, yuz funtlab temir olaverasan. Xullas, shu bugundan hisoblaganda men o'z ulushim hisobiga to'rt million to'lamog'im kerak! Bu to'rt million, hali aytganimdek, o'n yoki o'n ikki million foyda keltiradi.

– Biroq o'tgan kuni huzuringizda bo'lganimda, esingizda bo'lsa kerak, – dedi e'tiroz bildirib Ejeni, – besh yarim millionga veksel tayyorlaganingizni o'z ko'zim bilan ko'rgandim-ku, siz hatto o'sha g'aznaxonaning ikki obligasiyasini menga ko'rsatdingiz va shunday katta qiymatli qog'ozni ko'rib ham pinagimni buzmaganimdan hayratda qoldingiz.

– To'g'ri, ammo u besh yarim million meniki emas, faqat menga bo'lgan ishonchning dalili, deputat sifatida qozongan obro'yimni hisobga olib, menga etimxonalar Boshqarmasini topshirib qo'yishdi, o'sha besh yarim million ana shu Boshqarmaning puli. Boshqa vaqtda qo'limga tushganda men bu sarmoyadan boplab foydalanib qolardim, biroq shu kunlari katta-katta zarar ko'rganim hammaga ayon va boya aytganimdek, kreditdan ajralib qolyapman. Boshqarma istagan vaqtda bankimga qo'ygan pulini talab qilishi mumkin, bordi-yu, uning pulini muomalada ishlatib yuborsam, qaytarolmayman, unda meni singan sudxo'rga chiqarib qo'yishlari hech gapmas. Men sinishdan qo'rqmayman, biroq u xonavayronlikka emas, boyishga olib boradigan sinish bo'lishi kerak. Bordi-yu, sen Kavalkantiga turmushga chiqsang va men undan uch millionni olsam jillaqursa, odamlar shu pulni olibdi,

deb o'ylasa bas, mening kreditlarim darhol tiklanadi, ana shunda mening boyligim yana ham mustahkamlanadi, ko'nglim joyiga tushadi, yo'qsa bir oydan ko'proq ketimdan tushib yurgan falokat giribonimdan bo'g'adi. Tushundingmi gaplarimga?

– Tushundim. Meni uch millionga garovga qo'ymoqchimisiz?

– Bu summa qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi. Sening bahong ana shu summaning miqdori bilan belgilanadi.

– Rahmat sizga, janob. Yana bir gapim bor: mablag'ning o'ziga tegmay, faqat janob Kavalkantining jamg'arimasidan nomigagina foydalanishga va'da berasizmi menga? Men buni xudbinlik qilib emas, bu qaltis ish bo'lganidan shunday deyapman. Boyligingizni tiklashda sizga yordam berishga tayyorman, biroq boshqalarni xonavayron qilishda sizga sherik bo'lishni aslo istamayman.

– Axir haligi uch millionning yordami bilan deyapman-ku, senga... – dedi xitob qilib Danglar.

– O'sha uch millionga tegmay, ishimni to'g'rilab olaman, deb o'ylayapsizmi?

– Ha, bunga ishonchim komil, lekin albatta bo'lishi shart.

– Mening sepimga va'da etgan besh yuz ming frankni Kavalkantiga to'lay olasizmi?

– Ro'yxatdan o'tib kelishingiz bilan u besh yuz mingni oladi!

– Yaxshi!

– Yaxshi, deganing nimasi?

– Ya'ni, men imzo qo'yaman, biroq ixtiyorim o'zimda qoladi.

– Albatta.

– Unday bo'lsa, juda soz, men shu shart bilan janob Kavalkantiga turmushga chiqishga tayyorman.

– Nima qilmoqchisan o'zing?

– Bu mening sirim. Men sizning siringizni bilib olsamu,



so'ng o'zimnikini sizga aytib bersam – sizdan nima afzal-  
ligim qoladi mening?

Danglar labini tishladi.

– Xullas, – dedi Danglar, – hamma rasmiy marosimlar-  
ni bajo keltirishga rozimisan?

– Ha, – javob berdi Ejeni.

– Uch kundan so'ng shartnomaga ham qo'l  
qo'yasanmi?

– Ha.

– Unday bo'lsa men ham senga «yaxshi» deyman. Dan-  
glar qizining qo'lini tutib, siqib qo'ydi. Ammo shunisi ta-  
ajjublanarliki, ikkisi qo'l siqishib olishdi-yu, biroq ota  
«rahmat senga» deyishga jur'at etmadi, qizi esa loaqal  
iljayib ham qo'ymadi.

– Muzokaramiz tugadimi? – so'radi Ejeni o'rnidan tu-  
rib.

Danglar, hamma gap tamom bo'ldi, degandek boshini  
qimirlatib qo'ydi.

Besh daqiqa o'tar-o'tmas mademuazel d'Avrini royal-  
ni yangratib yubordi, mademuazel Danglar esa Brabansi-  
oning Dezdemonani la'natlagan qo'shig'ini kuylay  
boshladi.

Ariya tugashi bilan Eten kirdi-da, Ejeniga, otlar tayyor,  
baronessa kutib turibdi, deb xabar qildi.

Bu ikkala ayol Vilforlarnikida bo'lganidan va u erdan  
chiqib, boshqalarnikiga jo'nab ketganidan xabardormiz.

## **XIX. NIKOH SHARTNOMASI**

Ota bilan qizning biz bayon etgan suhbatidan so'ng,  
oradan uch kun o'tdi, ya'ni mademuazel Ejeni bilan bankir  
hamon knyaz deb ulug'lab kelayotgan Andrea Kavalkan-  
tining nikoh kuni etib keldi. Kech soat beshga yaqinlashib  
qolgan edi. Rohatbaxsh shabada Monte-Kristo uyi oldi-  
dagi mo''jazgina bog' daraxtlarining yaproqlarini silkitar-  
di. Graf yo'l taraddudida, izvoshchi chorak soatdan buyon  
izvoshdagi deysinib turgan otlarning jilovidan tutib

turibdi. Shu on bizga tanish hashamatli izvosh darvozadan kirib keldi. Undan og'zi qulog'ida Kavalkanti irg'ib tushdi. U knyaz xonadoni bilan allaqachon aymoqlashayotganday o'zida yo'q xursand edi.

Odatdagicha, rasmoniyat uchun grafning hol-ahvolini so'ragan bo'ldi-da, ikkinchi qavatning zinasidan yuqoriga yugurib borayotib, grafning o'ziga duch keldi.

Uni ko'rib graf to'xtadi. O'zida yo'q Andrea Kavalkanti chopqillab borib:

– Salom, azizim graf! – dedi.

– E, janob Andrea, sizmisiz? – dedi graf odatdagicha istehzoli ohangda. – Ahvollar qalay?

– Juda yaxshi! Sizga aytadigan qop-qop gap topib keldim. Lekin dastlab ayting-chi, yo'lga chiqyapsizmi yoki hozirgina qaytib keldingizmi?

– Yo'lga chiqyapman.

– Unday bo'lsa, sizni mahtal qilmay ruxsatingiz bilan yoningizga chiqib olib, yo'lda aytib bera qolay. Tom orqadan boraveradi.

Bu yigitchaning davrada bo'lishini istamagan graf nafat bilan sezilar-sezilmas iljayib:

– Yo'q, – dedi, – gaplaringizni shu erda eshitganim ma'qul, azizim janob Andrea: uyda gaplashish qulay, bu erda hatto gap o'g'iraydigan izvoshchi ham yo'q.

Shunday dedi-da, graf ikkinchi qavatdagi kichik mehmonxonaga kirib, oyoqlarini chalishtirib o'tirib oldi va mehmonni ham o'tirishga taklif etdi.

– Azizim graf, – dedi Andrea quvonchdan terisiga sig'may, – nikoh shu bugunga tayin etilgani sizga ma'lum bo'lsa kerak: soat kechqurun o'nda qaynotamnikida shartnomaga qo'l qo'yiladi.

– Ana xolos! Hali shunday deng! – dedi Monte-Kristo.

– Iya, hali siz bundan bexabarmidingiz? Danglar sizga aytmadimi?

– Xabarim bor, – dedi graf, – kecha xat olgandim, biroq xatda soati ko'rsatilmagandi-yu.

– Ehtimol, qaynotam, bu hammaga ma'lum, deb o'yla-

gandir-da.

– Juda soz. Tabriklayman sizni, janob Kavalkanti, – dedi Monte-Kristo, – uzukka ko‘z qo‘ygandek bir-biringizga juda mossiz, buning ustiga mademuazel Danglar nozanin qiz.

– Ha, juda go‘zal oyimcha, – dedi o‘zini kamtarlikka solib Kavalkanti.

– Eng muhimi – juda boy qiz, shunday deganlarini eshitdim, – dedi Monte-Kristo.

– Juda badavlat, deb o‘ylaysizmi uni?

– Shubhasiz. Aytishlari qaraganda, Danglar kam deganda dunyosining yarmini yashirib qo‘ygan emish.

Andreaning ko‘zlari quvonchdan porlab ketdi.

– Uning o‘zi, – dedi Andrea, – o‘n besh yoki yigirma million mablag‘i borligini ochiq aytyapti.

– Buning ustiga, – dedi Monte-Kristo, – u yana bir foydali ishni qo‘liga olmoqchi, bu narsa Qo‘shma Shtatlar-da va Angliyada oddiy gap bo‘lsa-da, Fransiyada mutlaqo yangilikdir.

– Ha, bilaman, u hozirgina olgan temir yo‘l konsessiyasini aytyapsiz-da, shundaymi?

– Xuddi shunday... Ko‘pchilikning fikricha, bu ishda u kam deganda o‘n million foyda qilsa kerak.

– O‘n million? Rostdan-a? Mana bunisi yana soz bo‘ladi? – dedi Kavalkanti bu dabdabali so‘zlardan mast bo‘lib.

– Bu boyliklarning hammasi, – dedi so‘zini davom ettirib Monte-Kristo, – shubhasiz, sizniki bo‘lib qoladi. Mademuazel Danglar yakkayu yagona farzand ekan, shunday qilishlari turgan gap. Aytganicha, o‘zingizning ham mablag‘ingiz otangizning gapiga qaraganda, qaylig‘ingizniki-dan ozgina kam bo‘lsa kerak. Bilasizmi, janob Andrea, chamamda siz bu ishni ustalik bilan juda tez amalga oshirdingiz.

– Ha, bopladim, – dedi Andrea, – axir onadan diplomat bo‘lib tug‘ilganman-da.

– Bo‘pti-da, mana endi diplomat ham bo‘lib olasiz, diplomat bo‘lish uchun o‘qishning zarurati yo‘q, faqat fahm-farosat bo‘lsa kifoya... Shunday qilib qalbingiz asirga tu-

shib, oshiqu shaydo bo'lib qopsiz-da?

– Ha, o'zim ham shunaqaroq bo'lib qoldimmi, deb qo'rqib turibman, – dedi Andrea fransuz teatri sahnasida Alsesta Dorant yoki Valer bergan javob ohangida.

– Jonon ham oshiqu beqarormikin sizga?

– Shundaydir-da, menga tegyapti, – dedi Andrea tantanavor iljayib. – Lekin bir muhim vaziyatni unutmaslik zarur.

– Qanaqa vaziyat ekan?

– Menga bu ishda behad yordam bergan vaziyatni.

– Shundaymi?

– Shubhasiz.

– Vaziyat yordam berdimi?

– Yo'q, siz yordam berdingiz.

– Men? Qo'ying, knyaz, bo'lmag'ur gapni, – dedi Monte-Kristo Andreaning unvoniga shama qilib. – Men qanaqa yordam berishim mumkin? Ismi sharifingiz, jamoatchilikdagi nufuzingiz va shaxsiy fazilatlaringiz etarli emasmi?

– Yo'q, – dedi Andrea, – nima desangiz deyavering, ammo men takror e'tirof qilaman: mening nomim, nufuzim va shaxsiy fazilatlarimga qaraganda sizning jamiyatda tutgan o'rningiz, salobatingiz ko'proq yordam berdi menga.

– Juda yanglishyapsiz, janob, – dedi Monte-Kristo Andreaning so'zlaridagi makkorona ishoratni fahmlab, – men muhtaram otangizning boyligini va nufuzini eshitgandan keyin sizga homiylik qildim. Kim tufayli tanishdim men siz bilan? Sizni va muhtaram otangizning ilgari hech qachon, hech qayerda ko'rmaganman, ikki do'stim lord Uilmor va abbat Buzoni tufayli siz bilan tanishdim. Sizni jamoatchilik orasiga olib kirishga (kafil bo'lishga emas!) meni nima majbur etdi, bilasizmi? Italiyada mashhur va hurmatga sazovor bo'lgan otangizning nomi sababchi bo'ldi. Shaxsan sizni esa yaxshi tanimayman.

Grafning o'zini nihoyatda bosiq tutishi va uning beta-kallulifligini ko'rib turgan Andrea shu daqiqada kuchli bir

zotning tuzog'iga ilinib qolganligini va undan qutulib chiqish oson emasligini fahmladi.

– Graf, ayting-chi, otam haqiqatan ham shunaqa baddavlat odammi? – so'radi Kavalkanti.

– Aftidan, shunaqaga o'xshaydi, – dedi Monte-Kristo.

– Danglarga men beradigan pul keldimikin, xabaringiz bormi?

– Bildirish xati oldim.

– Demak, uch million...

– Uch million, aftidan yo'lda...

– Men olamanmi uni?

– Shu paytgacha va'da qilingan summalarning hammasini olib keldingiz-ku.

Andrea hayron bo'lib, o'ylanib qoldi. So'ng dedi:

– Unday bo'lsa, janob, sizdan bir iltimosim bor, sizga yoqmasa-da, ahvolimni hisobga olursiz, deb ishonaman.

– Xo'sh, qanaqa iltimos ekan, qani ayting-chi, – dedi Monte-Kristo.

– Davlatmandligim tufayli ko'p odamlar bilan tanishdim, ancha do'st-og'ayni orttirdim. Ammo, ana shu mashhur oilaning qiziga uylanishim vaqtida butun Parij jamoatchiligi oldida shuhratli, dongdor bir kishiga tayanmog'im, uning panohida bo'lmog'im zarur. Meni mehrobga padari buzrukvorim etaklab bormas ekan, boshqa bir baquvvat, shoni shuhratli zot etaklab bormog'i shart. Otam to'yimizga kelmasa kerak, to'g'rimi?

– U juda munkillab qolgan, safarga chiqadigan bo'lsa eski yaralari qo'ziydi.

– Tushundim. Shuning uchun ham sizdan iltimos qilyapman.

– Mendan?

– Ha, sizdan.

– Tavba, nega endi mendan?

– Otam o'rnida ota bo'ling.

– Qanaqa qilib sizga ota bo'laman, azizim? Bu iltimosingizdan ma'lum bo'ldiki, shuncha birga suhbatda bo'lib, haliyam meni yaxshi bilmabsiz-da. Mendan yarim million

qarz so'rasangiz (bunaqa qarz berish g'ayri tabiiy bo'lsa-da) sirayam xijolat tortmagan bo'lur edim. Men sizga, graf Monte-Kristo bu erning jamoatchiligi hayotida qatnashganida ham sharqning axloq tartib-qoidalarini, hatto yanglish tushunchalarini hech unutmaydi, degan edim, shekilli, Qohirada haramxonam bor, Smirnada ham haramxonam bor, Konstantinopolda ham, shu holda men qanday qilib vakil bo'la olaman! Aslo!

– Demak, rozi emassiz, shundaymi?

– Mutlaqo rozimasman! O'z farzandim yo ukam bo'lga-ningizda ham rozi bo'lmasdim.

– Ishim hech yurishmadi-da! – dedi tarvuzi qo'ltig'idan tushib Andrea. – Endi nima qildim?

– Gapingizga qaraganda, yor-og'aynilaringiz ko'pga o'xshaydi.

– Lekin, Danglar xonadoni bilan meni tanishtirgan odam siz bo'lasiz-ku.

– Aslo unday emas! Keling, dalillarni eslaylik, siz u bilan Oteyldagi uyimda mehmon bo'ldingiz va o'shanda u bilan sizni men tanishtirganim yo'q, o'zingiz tanishib oldingiz.

– To'g'ri, ammo mening uylanishimga... siz yordam berdingiz...

– Men? Zaracha yordam berganim yo'q. Men sizning nomingizdan Danglarning qiziga sovchi bo'lishimni so'rab kelganingizda nima deganimni bir esga oling-a, muhtaram knyaz. Bilib qo'yingki, men hech vaqt, hech qanday nikohga bosh bo'lmaganman va bundan keyin ham bo'lmayman, mening tutgan yo'lim shunday.

Andrea labini tishladi.

– Shunday bo'lsa-da, u erga bugun borarsiz? – so'radi Andrea.

– Butun Parij odamlari boradimi u erga?

– Bo'lmasam-chi!

– Unda men ham boraman, – dedi graf.

– Nikoh shartnomasiga imzo chekasizmi?

– Bunga e'tirozim yo'q, unchalik qaysar emasman.

– Na chora! Shunisiga ham shukr. Yana bir so'zim bor,

graf.

– Marhamat.

– Menga maslahat bering.

– Bu oson ish emas! Maslahat berish yordam berishdan ko'ra og'irroq.

– Bunaqa maslahat berish sizga hech gapmas, buning sizga zarracha og'irligi yo'q.

– Qani ayting-chi.

– Xotininming qalini besh yuz ming livr bo'larmikin?

– Bu raqamni menga baron Danglarning xuddi o'zi aytgandi.

– Uni o'zim olaymi yoki notariusga qoldiraymi?

– Buning tartibi quyidagicha: shartnomaga qo'l qo'yilayotganda ikkala notarius ertaga yoki indinga uchrashi-shi haqida kelishib olishadi, ana shu uchrashuvda ular qalnlarni ayirboshlashadi va bu haqda bir-biriga tilxat berishadi, nikohdan keyin o'sha millionlarning hammasini, oilaning boshlig'i sifatida, sizga berishadi.

– Gap shundaki, – dedi Andrea, tashvishga tushib qolganini yashirolmay, – qaynotam bizning mablag'imizni hozir siz aytgan la'nati temir yo'l konsessiyasiga ishlatmoqchi.

– Ishlatsa, tag'in yaxshi! – dedi Monte-Kristo. – Shu yo'sinda sizning sarmoyangiz bir yilda uch baravar ko'payadi. Ko'p kishilar shunday deyishyapti. Baron Danglar yaxshi ota va hisob-kitobga ham juda usta.

– Unday bo'lsa, hammasi joyida ekan, – dedi Andrea, – faqat siz iltimosimni rad etib, o'ksitib qo'ydingiz meni.

– Bunday hollarda kishi, tabiiyki, injiq bo'ladi, sababini shunga yo'ya qolasiz-da.

– Nima ham derdim, – ping'illadi Andrea, – keling, sizningcha bo'la qolsin. Kechqurungacha xayr.

– Xayr!

Oqargan lablarida tabassum titrab turgan Monte-Kristoning sezilar-sezilmas qarshilik ko'rsatishiga qaramay, Andrea uning qo'lini tutib, qisib qo'ydi va irg'ib foytuniga minib, jo'nadi.

Andrea kechgacha vaqtini bekorga o'tkazmadi, yorog'aynilarinikiga, tanish-bilishlarinikiga yugurib-elib hammani kechki tantanaga taklif etdi. Shu kunlarda hammaning boshini qotirib yurgan Danglarning qo'lidagi sehrlı aksiyalarnı ko'rsataman, deb qizıqtırdı, shu munosabat bilan hamma kechqurun bankirnikida bo'lishga istak bildirdı.

Kechqurun soat sakkız yarımıda Danglarning katta mehmonxonasi, unga yondosh yo'lka va yana uch mehmonxona mehmonlar bilan to'ldı, xushvaqt mehmonlar bu xonadonni yoqtırgani uchun emas, biror yangı narsani ko'rgani kelıshgan edı.

Akademiya a'zosi maxsus taklifnomalar bilan o'tkazıladıgan kechki ziyofatni beqaror kapalaklar va och asalarılarnı o'zıga chorlovchi gulxona deb atagan bo'lardı.

Mehmonxonalarda son-sanoqsız chıroqlar ko'zlarnı qamashtırdı, zarrın, jimjimador naqshlar va devorlardagi rango-rang pardalar behısob nurlar yog'dusıda tovlanar, bu hashamlar did-farosatdan emas, faqat boy-badavlatlıkdan, puldorlıkdan darak berıb turardı.

Mademuazel Ejeni nihoyatda odmi kiyınıb olgan edı: egnıda kashtasi o'zıdan ko'ylak, qop-qora sochlarıga taqılğan oppoq atırgul unıng bor-yo'q bezagi edı. Birorta qımmatbaho zebi-ziynat taqmagan edı u. Liboslar unıng o'zıga g'alati ko'rınar va bu holni didsizlik alomati deb hisoblardı, shunga qaramay, ko'zlarıda dadıllık, o'zıga zo'r ishonch belgilari yonıb turardı.

Ejenıdan bir necha qadam narıda Danglar xonım Debre, Boshan va Shato-Reno bilan quyuq suhbatlashıb o'tırıshardı. Debre ham bu xonadonda tantana munosabati bilan yana paydo bo'ldı, bıroq bu gal u oddıy mehmon sıfatıda kelgandı, unga ortıqcha takalluf ko'rsatılmadı.

Deputatlar va moliya korchalonlari davrasıga tushıb olğan Danglar zo'r berıb solıqlarning yangı sistemasi haqıda va muhit o'zgarıb, hukumat unga ministrlık lavozımını taklif etsa, shu sistemani amalga oshırıjagi haqıda gap sotardı.



Andrea esa Operaning doimiy tomoshabinlaridan birining qo'ltig'idan tutib, hayosizlik va surbetlik bilan (xijil bo'lib qolmaslik uchun u shunga majbur edi) o'zining kelgusidagi rejalarini, bir yuz etmish besh ming frank yillik foydani egallab olib, Parijning oliy tabaqalari safida qanday joylashib olmoqchi ekanligini hikoya qilardi.

Boshqa mehmonlar qimmatbaho firuzalarni, yoqutlarni, zumradlarni, billurlarni yarqiratib, u xonadan bu xonaga o'tib yurishardi.

Har galgidek, yoshini yashab qo'ygan ayollar – zeb-ziyatga ko'milib ketgan hali yosh badburushlar esa ko'proq o'zlarini hammaga ko'z-ko'z qilib, gerdayishardi. Eng go'zal, nozanin, iffatli jononlar burchak-burchaklarda onasi yoki xolasi orqasiga bekinib o'tirishardi.

Qozondek qaynab turgan xaloyiq orasida xizmatkorlar to'yga mashhur moliya korchalonlari, harbiy sohada hurmat qozongan yoki adabiyotda dong'i chiqqan namoyandalar tashrif buyurganini bildirib, ularning ism-shariflarini baqirib-chaqirib e'lon qilishardi, o'tirganlar esa bir qalqib, yangi mehmonni hurmat bilan kutib olardi.

Bular orasida o'z nomi, nufuzi bilan ko'pchilikni hayajonga soladiganlar bor edi, albatta, biroq odamlar nazar-pisand qilmaydigan yoki nafrat bilan qaraydigan kimsalar ham oz emasdi.

Pinakka ketgan Edimion surati solingan ulkan soatning oltin siferblati ustidagi strelka to'qqizni ko'rsatib, mexanik fikrni ifodalovchi qo'ng'iroqcha to'qqiz bor bong urganda, graf Monte-Kristoning nomi eshitildi. Hamma, xuddi elektr toki urgandek bir seskanib, eshik tomon yuzlandi.

Graf, odatdagicha, oddiy qora frak kiygan, oq nimchasi keng ko'ragiga yopishib turar, dovyurakligi barq urib turgan oppoq yuzi va bo'ynidagi qora yoqasi yana ham yaqqolroq ko'zga tashlanardi.

Uning oppoq nimchasi ustiga osilib tushgan qimmatbaho ingichka soat zanjirini nimchani zar ipidan ajratish qiyin edi.

Shu zahoti ostonalarda to'p-to'p olomon paydo bo'ldi.

Graf kirishi bilan mehmonxonaning bir burchagida Danglar xonimni, ikkinchi burchagida esa Danglarni, eshik qarshisida mademuazel Ejenini ko'rdi. U dastlab de Vilfor xonim bilan gaplashib turgan baronessa oldiga bordi (Vilfor xonim yakka o'zi kelgandi, Valentina hali o'ziga kelmagani uchun Vilfor to'yga kelolmadi), so'ngra olomonni yorib o'tib, Ejeniga yaqinlashdi-da, sovuq ohangda uni tabrikladi; o'ziga bino qo'ygan artistka hang-mang bo'lib qoldi.

Ejeni yonida turgan Luiza d'Avrini Italiyaga tavsiyano-ma bergani uchun grafga minnatdorchilik bildirdi va undan tez vaqtda foydalanmoqchi ekanligini aytdi.

Graf qizlar bilan xayrlashib orqasiga o'g'irilgan edi, u bilan qo'l olib ko'rishgani kelayotgan Danglarni ko'rdi.

Monte-Kristo hamma rasm-rusmlarni bajo keltirib bo'ldi-da, tik turgancha atrofida qilargacha nomdor kishilarga xos g'ururla nazar tashlab chiqdi. Uning ko'zlari: «Men nimaiki zarur bo'lsa, hammasini qildim, endi boshqalar mening oldimdagi o'z burchlarini ado etsinlar», derdi.

Qo'shni mehmonxonadagi Andrea mehmonlarning harakatidan Monte-Kristo kelganligini sezib, uning istiqboliga yugurib chiqdi. Shu payt grafni mehmonlar o'rab olishgan edi. Hammaning qulog'i unda, odatda kamsuxan yoki behudaga gap sotavermaydigan kishilarning so'zlarini odamlar berilib tinglashadi.

Shu on notariuslar kirib kelishdi-da, ola-bula xatlar chizilgan qog'ozlarni baxmal dasturxon yopig'liq zarrin, naqshinkor stol ustiga qo'yishdi, bu stol shartnomaga qo'l qo'yish uchun maxsus tayyorlangan edi.

Notariuslardan biri o'tirdi, ikkinchisi esa tik turaverdi.

Tantanada hozir bo'lganlar, ya'ni Parij jamoatchiligi-ning yarmi qo'l qo'yadigan shartnoma o'qilishi kerak.

Hamma o'tirdi, to'g'rirog'i, ayollar davra qurib o'tirishdi-yu, biroq Bualoning ta'biri bilan aytganda, bu «serg'ayrat uslubga» uncha e'tibor bermaydigan erkaklar Andrea-ning o'ta hayajonga tushayotganligini, Danglarning ma-rosimga nihoyat zo'r e'tibor berib turganligini, Ejenining

esa parvoyi falakligi va baronessaning bu muhim ishga e'tibor bermay engiltaklik bilan qaqillayotgani haqida gap sotishardi.

Shartnomani hamma jim turib eshitdi. O'qib bo'lingach, mehmonxonada yanada kuchliroq g'ovur-g'uvur ko'tarildi. Kelin-kuyovning kelajagini porlatib turgan bu ulkan summalar, bu millionlar va buning ustiga maxsus xonalarga terib qo'yilgan behisob sep-sarpolar, billurlar hasadchi mehmonlarning esxonasini chiqarib yuborgan edi.

Yosh yigitlar ko'ziga mademuazel Danglar yanada go'zalroq – xuddi quyoshni xira qiladigandek ko'rinib ketdi.

Ayollarga kelganda, shuni aytish kerakki, ular ham mol-dunyoga havasi kelgan bo'lsa-da, ammo husn-jamolimiz oldida bularning qadri yo'q deb hisoblashardi.

Yor-og'aynilari qurshovida tabrik va olqishlarga ko'milib o'tirgan Andrea ham bular tushi emas, o'ngi ekanligiga ishonib, o'zida yo'q quvonib ketgan edi.

Notarius dabdaba bilan qo'lga patqalam olib, baland ko'tardi-da:

– Janoblar, – dedi, – shartnomaga imzo chekishni boshlaymiz!

Birinchi bo'lib baron, so'ng Kavalkanti otasining vakili, undan keyin baronessa, uning ketidan nikohlanuvchilar (gerbli qog'ozga odatda mana shunaqa jirkanchli so'zlar yoziladi-da!) imzo chekdi.

Baron patqalamni olib qo'l qo'ydi, ikkinchi bo'lib vakil ota qo'l qo'ydi.

Baronessa de Vilfor xonim bilan qo'ltiqlashib stol yoniga keldi va qo'lga patqalam oldi-da, eriga murojaat qilib:

– Azim, – dedi, – afsuski, favqulodda o'ldirish va o'g'irlik bilan bog'liq bir masalaga andarmon bo'lib, janob de Vilfor kelolmay qoldi, bu dahshatli voqeadan naq bo'lmasa graf Monte-Kristodan ajralib qolay dedik.

– E, tavba! – dedi Danglar beparvolik bilan «menga ba-

ribir emasmi» degandek g'alati ohangda.

– Janob de Vilforning kelolmay qolganligiga men sababchi bo'lmadimmikin? – dedi Monte-Kristo stol yoniga kelib.

– Siz? Nega endi? – dedi Danglar xonim shartnomaga qo'l qo'yayotib. – Mabodo shunday bo'lib chiqsa, bu gu-nohingizni aslo kechirmayman, graf, ehtiyot bo'ling.

Andrea quloqlarini ding qilib turardi.

– Aslini olganda, men bunda aybdor emasman, – dedi graf, – buni isbotlab bera olaman sizga.

Kamsuxan Monte-Kristo nima derkin, deb hammaning diqqati unda edi.

– Janoblar, esingizda bo'lsa kerak, – dedi graf jimlikni buzib, – o'sha menikiga tushmoqchi bo'lgan badbaxt o'g'ri hovlimda o'ldirilgan edi, qotil o'g'riining o'z sherigi degan taxminlar bor.

– Ha, to'g'ri, – dedi Danglar.

– Unga tez yordam berish uchun darhol echintirishgan va kiyimlarini burchakka tashlab ketishgan ekan, polisiya xodimlari kamzuli bilan shimini olganlaru, nimchasini ko'rmay qoldirib ketishgan ekan.

Andreaning rangi quv o'chdi, u tepasida qora bulut paydo bo'layotganini sezib, o'zini asta eshik yaqiniga oldi.

– Bugun o'sha qonga bo'yalgan mudhish nimcha topildi, chap ko'ragini pichoq teshib o'tgan ekan.

Ayollar qichqirib yuborishdi, ba'zilari hatto hushdan ketishiga oz qoldi.

– Uni menga olib kelib berishdi. Bu juldur nimcha qayoqdan paydo bo'lib qolganligini hech kim bilmaydi; men o'sha o'ldirilgan kimsaniki bo'lsa kerak, deb o'yladim. Kamerdinerim bu jirkanch matohni asta tekshira turib, to'satdan cho'ntagidan qog'oz topib oldi, bu xat ekan, tag'in kimga yozilgan deng – sizga, baron.

– Menga? – dedi taajjublanib Danglar.

– Ha, afsuski, sizga, xat qonga bo'yalib ketgan ekan, ismingizni arang o'qidim, – dedi Monte-Kristo.

Hamma lol bo'lib qoldi.

– Bu voqeaning janob de Vilforning bu erga kelmay qolishiga qanday daxli bor? – so‘radi eriga tashvish bilan tikilib qolgan Danglar xonim.

– Bunda hecham ajablanadigan narsa yo‘q, beka, – dedi Monte-Kristo, – nimcha va xat jinoyat belgisidir, men ikkovini ham janob qirollik prokuroriga yubordim. Bilasizmi, azizim baron, jinoyatga taalluqli masalalarda qonun-qoidaga muvofiq ish tutgan yaxshi, ehtimol, bunda sizga nisbatan biror yomon niyati bo‘lgan kimsaning qo‘li bordir.

Andrea Monte-Kristoga baqrayib qaradi-da, yondagi mehmonxonaga yashirindi.

– Ehtimol, ehtimol, – dedi Danglar, – o‘ldirilgan kimsa katorgada bo‘lganlardan shekilli, shundaymi?

– Ha, katorgada bo‘lgan mahbuslardan, nomi Kadross.

Danglarning rangi bo‘zara boshladi; Andrea esa ikkinchi mehmonxonadan ayvonga o‘tib oldi.

– Iya, nega imzo qo‘ymayapsizlar? – dedi Monte-Kristo.

– Bundan chiqdi, hikoyam hammani hayajonga solib qo‘ydi, shekilli, kechiring meni, baronessa, siz ham, mademuazel Danglar.

Hozirgina imzo chekkan baronessa patqalamni notariusga tutqizdi.

– Knyaz Kavalkanti, – dedi notarius, – knyaz Kavalkanti, qayoqdasiz?

– Andrea, Andrea! – qichqirdi dongdor italyan bilan juda inoqlashib qolgan bir necha yigitlar.

– Chaqiring knyazni, hamma imzo chekishingizga mah-tal deng! – dedi baqirib Danglar xizmatkorlaridan biriga.

Shu payt qaysi birini ikki yamlab bir yutsam ekan, deb paydo bo‘lgan devdan qo‘rqqandek hamma jon holatda o‘zini ko‘cha tomondagi mehmonxonaga urdi.

Bu dahshatli manzara har qanday odamning kayfini uchirib yuborar edi.

Jandarma ofiseri har bir mehmonxonaga eshigi oldiga ikkitadan soqchi qo‘ydi-da, o‘zi polisiya komissari bilan birga Danglar tomon yo‘l oldi.

Danglar xonim chinqirib yubordi va hushidan ketdi.

Qoʻrqqanidan rangi dokadek oqarib ketgan Danglar (baʼzilar doim vijdon azobida qiynalib yuradi!) taxta boʻlib qoldi.

– Xoʻsh janob, xizmat? – dedi Monte-Kristo komissar tomon bir qadam tashlab.

– Janoblar, – dedi polisiya komissari grafning savoliga eʼtibor qilmay, – orangizda Andrea Kavalkanti degan kishi bormi?

Hamma taajjublanib baravariga «voy», deb yubordi. Andreani axtara boshlashdi. Butunlay dovdirab qolgan Danglar boʻgʻiq ovozda:

– Axir, kim ekan u Andrea Kavalkanti? – dedi.

– Tulonda qamoqdan qochgan mahbus.

– Nima jinoyat qilgan ekan?

– U qamoqxonadagi sherigi Kadruss degan odamni graf Monte-Kristoning uyidan chiqayotganda oʻldirishda ayblanadi, – dedi komissar xotirjam ovozda.

Monte-Kristo atrofga tez nazar tashlab chiqdi. Andrea gʻoyib boʻlgan edi.

## **XX. BELGIYA YOʻLIDA**

Danglarning uyiga toʻsatdan jandarma ofiseri kirib kelishi va kuyovning sharmandayu sharmisor etilishidan sarosimaga tushgan mehmonlar xuddi vabo yoki oʻlatdan qochgandek, tumtaraqay boʻldi, bankirning koshonasi bir zumda huvillab qoldi. Bunday hollarda kishilar yupatish, tasalli berish uchun mis chiqqan iboralar izhor etishni istamaydilar.

Butun bir koshonada kabinetini ichidan qulflab olib, jandarma ofiseriga soʻroq bera boshlagan Danglar, yuragi qinidan chiqib ketayozgan va bizga maʼlum boʻlmasiga kirib olgan Danglar xonim, gʻurur-la ijirgʻanib, ayrilmas dugonasi Luiza Armilini ergashtirib oʻz xonasiga kirib ketgan Ejeni – uch kishi qoldi.

Xizmatkorlarga kelganda, ular bugun har qachongidan

ko'p edi: tantanaga muzqaymoq qiladiganlar, oshpazlar va Kafede-Paridan bosh ofisiant chaqirilgandi, bu bechoralar xo'jayin xafa qilgani uchun jahllari chiqib bufetda, oshxonada, xizmatkorlar xonalarida ishga qo'li bormay ivirsib yurishardi.

Turli tuyg'u-his bilan iztirobga tushgan bu odamlar ichida faqat ikkitasiga e'tibor qilsak bo'ladi: bular Ejeni Danglar bilan Luiza d' Armilidir. Kelin, hali aytganimizdek, haqoratlangan qirolichaga o'xshab, g'urur-la ijirg'anib dugonasi bilan chiqib ketdi-da, o'z xonasini ichidan qulflab oldi, Luiza o'zini yumshoq kursiga otdi.

– E, Xudoyim, qanday balolarga muhtalo etding bizni!  
– dedi u. – Andrea Kavalkanti aldoqchi... qotil,.. qochoq mahbus!.. Kim o'ylagandi shunday bo'ladi deb?

Ejeni lablarini burib:

– Hayhot, – dedi, – boshim falokatdan chiqmadi. Morserdan qutulib, Kavalkantiga tutilganimni qara-ya!

– Nega endi ikkisini tenglashtiryapsan, Ejeni?

– E, er yutsin bu erkaklarni! Erkak zotining hammasi bir go'r, ularni ko'rarga ko'zim, otarga o'qim yo'q.

– Ejeni, endi nima qilamiz? – so'radi Luiza.

– Nima qilamiz, deysanmi?

– Ha.

– Uch kundand keyingi qilmoqchi bo'lgan ishimizni qilamiz... Ketamiz.

– To'y bo'lmasa ham ketaverasanmi?

– Luiza, menga qara. Shuni bilib qo'yki, oqsuyaklarning bunday turmushidan nafratlanaman. Ularning hayoti xuddi bizning notalarimizdagi chiziqqlar singari bir maqomga solib, bir xilda o'tadigan, ensani qotiradigan zavqsiz hayotdir. Men umr bo'yi artistchasiga erkin yashashga, faqat o'zingga tayanib, izming o'zingda bo'lib mustaqil yashashga intilib keldim. Shunday ekan, nega endi bu erda qolishim kerak? Nima uchun? Yana bir oydan keyin erga berishlari uchunmi? Kimga? Ehtimol, Debrega berarlar? Bir vaqt bu haqda ham vaysashgan edi. Yo'q, Luizajon, yo'q, bugungi voqea menga katta bahona bo'ldi,

buni men axtarganim yo'q, so'rab olganim ham yo'q, Xudoyimning o'zi yubordi menga, men quchoq ochib kutib oldim, xolos.

– Bunchalik kuch va jasoratni kim ato etdi senga, Ejeni? – dedi nozik, malla rang qiz qora soch dugonasiga.

– Nahotki, shu vaqtgacha meni bilmagan bo'lsang? Ke, ishlarimizdan gaplashaylik, Luiza. Safarga izvosh kerak...

– Xudoga shukr, izvosh sotib olinganiga uch kun bo'ldi.

– Uni aytgan joyga olib borib qo'yg'in, deb buyurdingmi?

– Ha.

– Pasportlarimiz qani?

– Mana!

Ejeni odatdagi sovuqqonlik bilan hujjatni yozdi-da, o'qidi: «*Janob Leon d'Armili, yigirma yoshda, rassom, sochi qora, ko'zlari qora, singlisi bilan sayohat qilib yuribdi*».

– Juda soz! Qanday qilib olding bu pasportni?

– Graf Monte-Kristodan Rim teatrlarining direktorlariga tavsiyanoma yozib berishni so'rab borganimda, ayollar kiyimida yo'lga chiqishga qo'rqaman, degan edim, u mening fikrimga qo'shildi va erkak pasporti topib berishni gardaniga oldi, oradan ikki kun o'tgach, pasportni oldim va «singlisi bilan sayohat qilib yuribdi», degan jumla ni o'zim qo'shib qo'ydim.

– Xullas, – dedi Ejeni quvonib, – hamma ishlarimiz bitibdi, faqat buyumlarimizni yig'ib, jomadonlarga joylasak bo'lgani; endi to'y kuni emas, nikoh shartnomasiga qo'l qo'yiladigan kuni kechasi jo'naymiz.

– Ejeni, yana yaxshilab o'ylab ko'r.

– O'ylayverib kalam shishib ketdi, endi o'ylaydigan hech narsa qolgani yo'q. Oshirish, pasaytirish, ispan fondi, gaita zayomi haqidagi gaplar, suhbatlar juda jonimga tegdi. O'zing bir o'ylab ko'r, Luiza, bularning o'rniga sof havoda, qushlar qo'shig'i og'ushida Lombardiya sahrolarida, Venesiya kanallarida, Rim saroylarida, Neapol sohillarida erkin nafas olib yurganim yaxshi emasmi?



Hammasi bo'lib qancha pulimiz bor?

Luiza yozuv stoli tortmasidan qulflab qo'yilgan juzdonni oldi-da, uni ochdi: ichida yigirma uchta qimmatbaho qog'oz bor edi.

– Yigirma uch ming frank, – dedi u.

– Buning ustiga, yana kam deganda shu summaga teng marvarid, billurimiz va oltin taqinchoqlarimiz ham bor, – dedi Ejeni. – Ikkimiz juda boy ekanmiz-ku, Luiza. Bu qirq besh ming aqcha bilan ikki yil malikalardek yoki to'rt yil tuzukkina kun kechirishimiz mumkin. Yarim yil o'tar-o'tmas san'at bobidagi hunarimiz bilan mablag'imizni ikki hissa oshirib olamiz. Luiza, sen pullarni ol, men qutichani olaman, mabodo birimiz yo'qotsak, ikkinchimizdagisi qoladi. Endi, ke, ashqol-dashqolimizni yig'ishtiraylik.

– Sabr qil, – dedi Luiza va Danglar xonim bo'lmasiga chiqadigan eshik oldiga borib quloq soldi.

– Nimadan qo'rqyapsan?

– To'satdan kirib qolmasinlar tag'in.

– Eshik qulfloq.

– Och deb taqillatsalar-chi?

– Taqillataverishsin, ochmaymiz.

– Sen haqiqiy amazonka suvoriysining xuddi o'zisan, Ejeni.

Ikkala qiz barcha kerakli buyumlarini tez yig'ishtirib, jomadonlarga joylashdi.

– Mana, birpasda taxt bo'ldi-qo'ydi, – dedi Ejeni. – Men kiyinib olgunimcha, sen jomadonni yopib tur.

Luiza oppoq nozik qo'llari bilan rosa kuchanib jomadonning qopqog'ini bosdi.

– Kuchim etmayapti, – dedi, – o'zing bekit.

– Voy, esim qursin, axir men Gerkulesman-ku, sen esa rangpar Omfalasan, – dedi kulib Ejeni va tizzasini qo'ydi, jomadon qopqog'i yopilib, Luiza qulflaguncha zo'r berib bosib turdi. Bu ish tugagach, Ejeni komodni ochdi (kalitini hamisha o'zi olib yurardi) va yo'lga kiyadigan mursakni oldi.

– Mana, ko'rdingmi, – dedi u, – hammasini oldindan

o'ylab qo'yganman, yo'lda sovqotmaysan.

– O'zing nima kiyasan?

– Men sovqotish nimaligini bilmayman, buning ustiga, ustimda erkaklar kostyumi...

– Shu erning o'zida erkakcha kiyinib olasanmi?

– Bo'lmasam-chi.

– Ulgurasanmi?

– Qo'rqma, uydagilarning hammasi boyagi g'alvadan boshi garang. Bo'lmamni ichidan qulflab olganimdan hech kim ajablanmaydi ham. Bilasanku, «men og'ir qayg'uga botganman».

– Ha, to'g'ri aytasan, tashvishlanmasa ham bo'ladi.

– Ke, yordam qil menga.

Hali mursak olgan javondan erkaklarning bir sidra ust-boshini – boshmoqdan nimchagacha, ko'ylak-cholvorgacha – hamma zarur narsalarni oldi. So'ng epchillik bilan cholvorni kiydi, galstukni taqdi, qaddiqomatiga yopishib tushgan nimchaning tugmalarini soldi. Ejeni erkakcha birinchi marta kiyinmayotgandek ko'rinardi.

– Juda ham yarashdi-da, senga! – dedi Luiza dugonasiga zavq bilan tikilib. – Biroq hamma xotin-qizlar havas qiladigan go'zal kokillaringni erkaklar shlyapasi ostiga qanday qilib yashirasan?

– Mana qarab tur, – dedi Ejeni.

Ejeni chap qo'li bilan yo'g'on soch o'rimini tutamlab, o'ng qo'li bilan kattakon, og'ir qaychini tutdi-da, birin ketin qirqib oyog'i ostiga tashladi. Soch tolalari kamzulimga ilashib qolmasin, deb qaddini bir oz oldinga egib olgandi. So'ng chakkasidagi kokilini ham qirqib tashladi. Uning yuzida achinish alomati sezilmasdi, aksincha, qop-qora qoshlari ostidagi ko'zlari har qachongidan ham sho'xchan, kuchliroq porlardi.

– Oh, esiz sochlar, uvol bo'ldi-da! – dedi qayg'urib Luiza.

– Iya, axir shunisi yaxshimasmi? – dedi Ejeni kalta jingalak sochlarini tarab, – seningcha, shu ko'rinishda chi-

royli emasmanmi?

– Sen go‘zalsan, hamisha go‘zalsan! – dedi Luiza. – Xo‘sh, qayoqqa yo‘l olamiz?

– Agar yo‘q demasang, Bryusselga ketaveramiz, chegaralardan eng yaqini shu. Bryussel, Lej, Axendan o‘tib, Reyn bo‘ylab Strasburg tomonga ko‘tarilamiz, Shveysariyaga boramiz, undan Sen-Gotar orqali Italiyaga o‘tamiz. Nima deysan? Rozimisan?

– Albatta roziman.

– Nega menga tikilib qolding?

– Shu turishda suqsurday yigit bo‘lding-qo‘yding! Xuddi meni olib qochayotgan telba oshiqqa o‘xshaysan-a.

– Obbo, la‘nati-e! Rostdanam xuddi o‘zi bo‘ldimmi-a?

– So‘kishni odat qilibsanimi, Ejeni?

Umuman olganda, avvalo o‘zi uchun, qolaversa dugonasi uchun qon-qon yig‘lashi kerak bo‘lgan ikkala qiz shu topda qah-qah urib kulib yuborishdi va sezdirmaslik uchun bo‘lmadagi buyumlarni tartibga sola boshlashdi. So‘ng chiroqlarni o‘chirib, atrofni ko‘zdan kechirishdi, tashqariga diqqat bilan quloq solishdi, ayollar bo‘lmasining hovliga chiqadigan maxfiy zina tomondagi eshigini ochishdi. Ejeni bir qo‘li bilan jomadonning bir qulog‘ini ko‘tarib oldinda, Luiza esa ikkinchi qulog‘ini ikki qo‘li bilan zo‘rg‘a tutib keyinda borardi. Hovlida hech kim yo‘q edi. Yarim kecha. Darvozabon hamon yotmagan edi. Ejeni asta oldinroqqa bordi-da, qaradi: qorovul kursida shalpayib mudrab o‘tirardi. Qiz Luiza yoniga qaytib kelib, jomadonni yana ko‘tardi, ikkalasi darvoza tagiga kirishdi. Ejeni dugonasiga o‘zingni qorong‘i burchakka olib tur, qorovul ko‘zini ochgundek bo‘lsa, faqat bir kishini ko‘rsin, dedi, Ejeni esa o‘zini fonus yog‘dusiga tutib turib oldi.

– Oching! – dedi u erkakcha yo‘g‘on ovoz bilan oynaband eshikni qoqib.

Ejeni kutganidek, qorovul o‘rnidan turdi-da, kim chiqyapti, deb bir necha qadam tashlagan edi, hassasini oyog‘iga urib toqatsizlanib turgan yosh yigitni ko‘rib, darhol arqonchani tortdi. Darvoza ochilishi bilan Luiza

o'zini lip etib tashqariga oldi. Yuragi qafasdagi qushday tipirchilayotgan Ejeni ham o'zini xotirjam tutib ko'chaga chiqdi.

Jomadonni o'tib boryotgan xat tashuvchiga uzatib, unga Biktuar ko'chasi, 36-uy tomonga yurishni buyurishdi, o'zlari ham uning ketidan jo'nashdi, bu odamning uchrab qolganligi Luizani ancha xotirjam qildi, Ejeniga kelsak, u Yudif yoki Dalima kabi jasur qiz edi.

Ular belgilangan uyga kelganda Ejeni xat tashuvchiga jomadonni erga qo'ying, deb buyurdi-da, haqini to'lab, javob berdi. So'ng eshikni taqillatdi.

Qochoq qizlar kelgan uyda oddiygina bir mashinachi ayol istiqomat qilardi. Qizlar u bilan oldindan kelishib qo'yishgandi, mashinachi hali yotmagandi, darhol eshikni ochdi.

– Mademuazel, – dedi Ejeni, – qorovulga ayting, izvoshni tashqariga olib chiqsin, so'ng darrov pochta stansiya-sidan otlarni keltirsin. Mana, xizmati uchun besh frank, unga berib qo'ying, iltimos.

– Qoyil senga. Ejeni, qoyil! – dedi Luiza, – hurmatim ham oshib boryapti senga.

Mashinachi ayol ikkisini ko'rib hayron bo'lib qoldi, biroq yigirma luidor va'da qilgani esiga tushib, indamadi.

Chorak soatdan so'ng qorovul izvoshchi bilan otlarni etaklab keldi va darhol izvosh qo'shilib, jomadon orqaga mahkam qilib bog'landi.

– Mana yo'llanma, – dedi izvoshchi. – Qani, navqiron xo'jayin, ayting, qaysi yo'ldan ketamiz?

– Fonteneblo tomonidan, – dedi Ejeni erkakcha ovoz bilan.

– Nega? Nega bunday deyapsan? – so'radi Luiza.

– Iz qoldirmaylik deyapman-da, – dedi Ejeni, – biz hali yigirma luidor to'lagan xotin qayoqqa ketganimizni aytib qo'yishi mumkin. Xiyobonga chiqqanimizda yo'lni boshqa yoqqa buramiz.

Ejeni shunday dedi-da, zinaga irg'ib izvoshga chiqdi.

– Sening gaping hamisha haq bo‘lib chiqadi, Ejeni, – dedi Luiza dugonasi yoniga o‘tirib.

Izvoschi Ejenining buyrug‘i bilan yo‘lni o‘zgartirib, chorak soatdan so‘ng Sen-Marten zastavasidan o‘tib ketdi.

– Mana, Parijdan chiqdik! – dedi Luiza engil nafas olib.

– Haq gapni aytding, go‘zalim, seni eson-omon olib qochishga muvaffaq bo‘ldim, – dedi Ejeni.

– To‘g‘ri, yana o‘z xohishim bilan-a, – dedi Luiza.

– Bu hol gunohimni ancha engillashtiradi, albatta, – dedi Ejeni.

Bu so‘zlar La-Viyet tosh yo‘lida g‘ildiraklarning taqir-tuquri ostida yo‘q bo‘lib ketdi.

Danglar endi qizidan judo bo‘lgan edi.

*Олтинчи*  
**Қисм**



## I. «QO'NG'IROQ VA BUTILKA» MEHMONXONASI

Keling, mademuazel Danglar bilan dugonasini Bryussel yo'lida qoldiraylik-da, falokat yuz berib, baxt qushi qo'ldan uchib ketgan sho'rlik Andrea Kavalkantiga qaytaylik.

Bu Andrea Kavalkanti degan zot yosh bo'lsa-da, juda olg'ir, makkor, ustomon odam edi. Shuning uchun ham mehmonxonada andakkina g'ala-g'ovur ko'tarilishi bilan oq eshikka yaqinlashganini va ikki xonadan o'tib, g'oyib bo'lganini ko'rgan edik.

O'shanda biz jindak bir tafsilotni aytmay qoldirib ketgan edik. Kavalkanti o'tib ketgan xonalardan birida billur toshlar solingan qutichalar, shoyi ro'mollar, turli xil jun gazmollar tartib bilan terib qo'yilgandi; bular har kimning ham suqi kiradigan, faqat nomlarini eshitgandayam qizlarning yuragi o'ynab ketadigan sep-sarpo edi.

Andrea shu xonadan o'tayotib, faqat olg'ir, ustomonga emas, hatto tadbirkor ekanligini ko'rsatib, terib qo'yishgan qimmatbaho narsalardan yirik-yiriklarini oldi.

Andrea ana shularga tayanib, o'zini dadil tutdi va derazadan irg'ib tushdi-da, jandarmalarga chap berib, qochdi.

Devqomat, yovqur Andrea, ishqilib tutib olmasalar bo'lgani, deb jon-jahdi bilan boshi oqqan yoqqa chorak soat yugurdi. U yugura-yugura Mon-Blan ko'chasidan burilib, Lafayet ko'chasining oxiridan chiqib qoldi.

Badanidan shovillab ter oqib, halloslab to'xtadi.

Bu orada o'zidan boshqa hech kim yo'q edi; chap yog'ida keng va kimsasiz Sen-Lazar maydoni, o'ng yog'ida esa azim Parij shahri.

– Nahotki shu bilan adoyi tamom bo'lsam? – dedi Andrea o'ziga-o'zi savol berib. – Yo'q. Dushmanlarimdan ko'ra ko'proq g'ayrat qilsam, omon qolaman. Endi menga

---

<sup>20</sup> Penyuara – ayollarning ertalabki yengil kiyimi.

faqat pul madad bo'la oladi.

Shu payt Puassonerdan kelayotgan kirakash izvoshga ko'zi tushib qoldi. Trubka chekayotgan tund izvoshchi, aftidan, Sen-Deniga ketayotgan edi.

– Hoy, og'ayni! – dedi Benedetto.

– Xo'sh, xizmat? – dedi izvoshchi.

– Otingiz charchab qolmadimi?

– Charchashga balo bormi! Kun bo'yi joyidan qimirlamadi. Yigirma su choy chaqadan to'rt marta kira qildim, xolos. Topganimiz atigi etti frank bo'ldi, xo'jayinga esa yigirma sudan cho'zishim kerak.

– Etti frankka yana yigirma frank qo'shib olishni istamaysizmi?

– Qaniydi, yigirma frankdan qochadigan ahmoq yo'q. Buning uchun nima qilishim kerak?

– Otingiz charchamagan bo'lsa, arzimas xizmat bor.

– Shamoldek uchaman deb turibdi bu jonivor; yo'lni ko'rsatsangiz bo'ldi.

– Luvr tomonga.

– Ha, bilaman, ichimlik yasaydigan joy.

– Topdingiz, o'sha erga; bir og'aynimga etib olishim kerak, u bilan Shapelan-Servalda ov qilmoqchi bo'lgandik; mana shu erda meni izvoshida soat o'n bir yarimgacha kutib turishi kerak edi. Hozir yarim tun, u kuta-kuta toqati-toq bo'lib, bir o'zi jo'nab qolgan bo'lsa kerak.

– Ehtimol.

– Ana shu og'aynimni quvib etishga bir harakat qilib ko'rasizmi?

– Jonim bilan.

– Agarda uni Burjegacha quvib etolmasak, yigirma frank olasiz, Luvrgacha quvib etolmasak, o'ttiz frank olasiz.

– Quvib etsak-chi?

– Qirq frank, – dedi Andrea bir daqiqa ikkilanib, biroq va'da bersam nimam ketyapti, deb dadil aytaverdi.

– Qirq!

– Bo'пти! – dedi izvoshchi. – O'tiring!

Andrea izvoshga o'tirdi; ular hash-pash deguncha Sen-



Denini kesib, Sen-Martendan o'tishdi, zastava orqada qoldi va bepoyon La-Viyet boshlandi.

Afsonaviy oshnani quvib etish oson emasdi; Kavalkanti ahyon-ahyonda kech qolgan yo'lovchilar va hali yopil-magan qovoqxonalardan do'stining zangori foytuni va chavkar otini so'rab-surishtirib qo'yardi. Odatda Niderlandiya tomonga juda ko'p izvosh o'tar, ularning o'ndan to'qqizi zangori bo'lganidan Andreaning savoliga javob beruvchilar oz emasdi.

Hamma o'sha foytunni besh yuz, ikki yuz yoki yuz qadamda ko'rdik der, ammo etib borganda, butunlay boshqa izvosh bo'lib chiqardi.

Bir gal ularning o'zini quvib o'tib ketishdi; bu ikki ot qo'shilgan pochta izvoshi edi.

«Qani endi ana shu izvosh menda bo'lsa, – dedi ichida Kavalkanti, – qo'sh duldul-a?»

U og'ir xo'rsinib qo'ydi.

Aslida bu mademuazel Danglar bilan mademuazel d' Armilini olib ketayotgan izvosh edi.

– Tez-tez! – dedi Andrea, – quvib etishimizga oz qoldi.

Sho'rlik ot yana boyagidek pishqirib chopa ketdi va ko'p o'tmay ko'pirib Luvrga etib keldi.

– Aftidan, – dedi Andrea, – og'ayningga etolmayman, shekilli; otingiz ishdan chiqib qoladiganga o'xshaydi. Yaxshisi, men shu erda qola qolay. Mana o'ttiz frankingiz. «Saman ot»da tunab, ertagacha birinchi bo'sh pochta izvoshda jo'nayman. Xayr, do'stim.

Andrea izvoshchining qo'liga besh frankdan oltita tanga tutqazdi-da, izvoshdan irg'ib tosh yo'lga tushdi.

Izvoshchi xursand bo'lib pulni cho'ntagiga soldi-da, otlarini asta yurgizib Parijga yo'l oldi. Andrea go'yo «Saman ot» mehmonxonasiga kirmoqchi bo'lgandek, eshik oldiga bordi-da, izvosh ovozigga quloq solib turdi; so'ngra u ildam-ildam qadam tashlab ikki le yo'l bosib to'xtadi. Bir oz dam oldi. U taxminan Shapel-an-Servalga juda yaqinlashib qolgandi, o'zining so'ziga qaraganda, Andrea ana shu tomonga yo'l olgan edi.

Andrea Kavalkanti hordiq chiqarish uchun emas, biror qarorga kelish va ishni qanday olib borish rejasini tuzish uchun to'xtadi.

Dilijonga o'tirish mumkin emas, pochta izvoshini kiraga olib bo'lmaydi; ikkalasida ham sayohat qilish uchun pasport kerak.

Fransiyaning ko'zga ko'ringan va ko'proq muhofaza qilinadigan Uazi departamentida qolish, ayniqsa jinoiy ishlarda chiniqqan Andrea uchun yana mumkin emasdi.

Andrea ariq labiga o'tirdi-da, iyagiga tayanib o'ygga cho'mdi.

Oradan o'n daqiqa o'tgach, boshini ko'tardi; u bir qarorga kelgan edi.

Dahlizdagi qoziqdan olib, kamzuli ustidan kiyib olgan paltoni rosa chang bosib ketgan edi. U Shapel-an-Servalga etib yagona mahalliy mehmonxonaning eshigini dillik bilan taqillatdi.

Mehmonxona egasi eshikni ochdi.

– Azizim, – dedi Andrea, – men Morfontenadan otliq Sanlisga kelayotgandim; jangari o'tim meni yiqitib, tashlab qochdi. Shu bugun kechasi albatta Kompenda bo'lishim kerak, aks holda oilam juda xavotir oladi; sizda ot topiladimi?

Qovoqxonachilarning hammasida yaxshimi-yomonmi, ishqilib ot topiladi.

Qovoqxonachi otboqarni chaqirib, oq o'tni egarlashni buyurdi, etti yashar o'g'lini uyg'otdi; u mehmonni manziliga olib borib qo'yib, o'tni qaytarib olib kelishi kerak edi.

Andrea qovoqxonachiga yigirma frank berdi; Kavalkanti cho'ntagidan pul olayotganida bir tashrifnomani tushirib qo'ygandi; bu nomani uning Kafe-de-Paridagi og'aynilaridan biri bergan edi; xullas, qovoqxonachi, o'timni Sen-Dominik ko'chasida istiqomat qiluvchi graf de Moleonga beribman-da, degan xulosaga kelgan edi; kartochkada ana shu familiya va shu manzil yozilgandi.

Andrea oq yo'rg'ada Kompengacha bo'lgan to'qqiz le

masofani uch yarim soatda bosib o'tdi. U shaharning dilijonlar to'xtaydigan maydoniga kelganida soat to'rt bo'lgandi.

Kompenda shinam mehmonxona bor; bu mehmonxonada bir marta bo'lgan kishi uni hech qachon esidan chiqarmaydi. Andrea ham bir gal Parij atrofini sayr qilib yurganida shunda tunagan edi; «Qo'ng'iroq va butilka» mehmonxonasini esladi, maydonga razm soldi, chiroq yorug'ida yo'l ko'rsatuvchi lavhani ko'rdi-da, bolaga hamma mayda pullarini berib, qaytarib yubordi. Yana to'rt soat vaqtim bor, yaxshilab ovqatlanib, to'yib uxlab olishim mumkin, degan xulosaga kelib, eshikni qoqdi.

Xizmatchi eshikni ochdi.

– Sen-Jan-o-Buadan kelyapman, tushlikni o'sha erda qilgan edim, – dedi Andrea. – Tunda o'tadigan dilijonga chiqmoqchi bo'luvdim, biroq, yo'lda adashib, to'rt soat o'rmonda yurdim. Hovli tomondagi xonalaringizdan birini menga bering; yaxna tovuq go'shti va bir butilka vino berishsin.

Xizmatchi shubhalanmadi; Andrea, qo'llari paltosining cho'ntagida, og'zida sigareta tutatib, osoyishtalik bilan gapirdi; uning kiyimlari bashang, soqolini boplab oldirgan, botinkasi yaltiratib moylangandi. U, yo'lda kechikib qolgan shaharlikka o'xshab ketardi.

Xizmatchi xonani tayyorlab bo'lguncha mehmonxona bekasi ham kirib keldi. Andrea unga iliq tabassum bilan salom berdi va: Kompenaga so'nggi marta kelganimda turgan «3» raqamli xonani olishim mumkinmi? – deb so'radi. Afsuski «3» raqamli xonani singlisi bilan sayohat qilib yurgan yigit band qilgan ekan.

Andrea ancha og'rindi: faqat beka unga tayyorlanayotgan «7» raqamli xona ham xuddi «3» ning o'zginasi degandan so'nggina, ko'ngli joyiga tushdi; Andrea xona tayyor bo'lguncha pech oldida oyog'ini isitib, Shantilida bo'lib o'tgan poyga haqida gap sotib o'tirdi.

Andrea hovli tomonga qaragan xonalarni bejiz esga olmagan edi; «Qo'ng'iroq» mehmonxonasining uch qator

xiyobondan iborat hovlisi tomosha zaliga o'xshagan turli-tuman daraxtlar, o'tloqzorlar, gullarga boy ko'rkam bog' edi.

Xizmatchi olib kelgan yaxna jo'ja yangi, ammo vinosi eski ekan; pechda olov ham lovillab yonib turibdi. Go'yo hech gap bo'lmaganday ishtahasi juda ochilib ketganiga Andreaning o'zi ham hayron.

So'ngra u to'shakka uzala tushdi-da, birpasda dong qotib uxlab qoldi. Garchi vijdoni azobda bo'lsa-da, kishi yig'itlik chog'ida juda qattiq uxlaydi.

Darvoqe, biz Andrea vijdon azobiga tushishi mumkin edi, degan fikrda bo'lishimiz kerak edi, ammo unga bunday hissiyot yot.

U o'ziga dalda berib, quyidagicha reja tuzgan edi:

Andrea tong yorishishi bilan o'rnidan turadi, yotoq haqini to'lab, mehmonxonadan chiqadi, o'rmonga etib oladi-da, tasviriy san'at bilan shug'ullanuvchi odam niqobi ostida biror dehqonnikiga joylashib oladi, sarjinchining kiyimi va bolta topadi, oqsuyak sher qiyofasini ishchi qiyofasiga almashtiradi; so'ng qo'llarini qadoq bosib, sochlari qorayib, yuzi oftobda kuygach, bir vaqtlar Tulonda jo'ralari o'rgatgan usulni ishga solib, tunlari asta-sekin chegara tomon yo'l oladi; qishloq joylarga ham faqat non olish uchungina yaqinroq boradi.

U chegaradan o'tib olgach, brilliantlarni pulga chaqadi, bu pullarni cho'ntagiga ehtiyotdan olib yurgan pullarga qo'shganda, nari-berisi bilan ellik ming livr to'planadi: bu hech bo'lmasa qora kunlarda asqatib qolar.

Buning ustiga, Danglar xonadoni boshiga tushgan baxtsiz voqeani xaspo'shlashga harakat qilsa kerak, deb umid qilardi Andrea.

Tinka-madori quriganiga qaramay, Andreaning tez va qattiq uyquga ketganligiga sabab shular edi.

Andrea ertaroq uyg'onish niyatida derazani bekitma-

---

<sup>21</sup> Diqqat! (*ital.*)

di, faqat eshikning ilgagini solib qo'ya qoldi; lekin o'tkir pichog'ini qinidan sug'urib stolga qo'ydi. Bu pichog ko'p ish bergan edi; Andrea uni hamisha yonida olib yurardi.

Ertalab soat ettiga yaqin quyoshning iliq nuri Andrea-ning yuzini siypalab uyg'otib yubordi. Uxlashi oldidan qanday fikr miyaga o'rnashib qolgan bo'lsa, uyg'ongan chog'ida ham odamning xayoliga dastavval o'sha fikr keladi. Andrea ko'zlarini ochib ulgurmagan ham edi, miyasini chulg'ab turgan fikr uning ancha ortiqcha uxlab yuborganini bildirdi.

U o'rnidan sapchib turib deraza yoniga bordi.

Hovlida jandarma yurardi.

Jandarma dunyoda hatto eng begunoh odamlar uchun ham qo'rqinchlidir. Lekin qo'lga tushib yurak oldirib qo'ygan kishilar uchun ko'k, zangori va oq mundirdagi jandarma dunyodagi eng yovuz kimsa hisoblanadi.

– Jandarma nima qilib yuribdi? – dedi Andrea o'ziga o'zi savol berib va shu zahoti o'zi javob qildi:

– Mehmonxonaga jandarma kelgan bo'lsa, kepti-da, fursatni o'tkazmay kiyinish kerak.

U harbiy odati bo'yicha juda tez kiyinib oldi. (Parijda uni qarol bir necha oy mobaynida bu odatdan xalos etolmagan edi.)

– Mayli, – dedi Andrea kiyinayotib, – u ketguncha chiqmay turaman, ketgach, juftakni rostlab qolaman.

Shunday dedi-da, asta deraza yoniga borib, darpardani yana ko'tardi.

Jandarma ketish u yoqda tursin, uning yonida ikkinchisi ham paydo bo'lib, Andrea tushadigan yagona zina oldida turib olibdi, uchinchi bir otlig'i esa qo'lida miltiq Andrea qochib ketmasin, deb darvozani qo'riqlab turardi.

Uchinchi jandarmaning ko'rinishi juda ajoyib edi, shu sababdan uni odamlar o'rab olishgandi. «Meni axtarishyapti! – Andreaning xayoliga birdan shu fikr keldi, – obbo!..» Uning rangi oqarib ketdi. Sarosimaga tushib atrofga alangladi.

Shu qavatdagi barcha xonalar kabi uning xonasi

hamma yoqdan ko'rinib turadigan xiyobonga qaragan edi.

«Qo'lga tushdim!» – o'yladi u yana.

Darhaqiqat, Andreaning hozirgi holatida qo'lga tushgan har qanday aybdorni faqat birgina jazo – shafqatsiz va muqarrar o'lim jazosi kutardi.

U titrab boshini ikkala qo'li bilan mahkam siqdi, uning aqldan ozishiga sal qolgan edi.

Sal o'tmay miyasida g'ujg'on urayotgan fikrlar orasida umid uchquni yalt etdi, shunda u bir oz iljaydi.

U xonani ko'zdan kechirib chiqdi; hojatini chiqaradigan narsalarning barisi: patqalam, siyoh va qog'oz yozuv stolida muhayyo ekan. Darhol o'tirdi-da, quyidagilarni yozdi:

«Mening yotoq haqini to'lashga yonimda sariq chaqam ham yo'q, biroq halol odamman; shuning uchun qarzimdan o'n barobar ortiq to'g'nag'ichimni qoldirib ketyapman. Qochib ketganim uchun uzr so'rayman, yuzim chidamadi».

U galstugidan to'g'nag'ichini sug'urib olib, xat ustiga qo'ydi.

So'ng qulflash u yoqda tursin, zulfini ham sug'urib olib, yopish yodidan ko'tarilgan kishidek eshikni qiya ochiq qoldirdi. Shundan keyin Axillaning Deidamiya huzurida bo'lgan chog'i tasvirlangan pardaga o'ralib oldi-da, bunaqangi gimnastikada ustasi farang kishidek kul ustidagi izlarini tekislab tashlab, toshpech mo'risidan ko'tarila boshladi. Endi uning qochib qutuladigan yagona yo'li shu edi.

Shu orada hali Andrea ko'rgan birinchi jandarma polisiya komissari bilan birga zinadan yuqoriga ko'tarila boshladi; bularga zinani qo'riqlab turgan jandarma yordam berishi mumkin; so'nggisiga esa darvozada poylab turgani ko'maklashishga tayyor bo'lib turibdi.

Andreaning izidan polisiya quvib kelishiga quyidagi voqealar sabab bo'lgan edi.

Parij telegrafi erta tongdan boshlab hamma tomonlarga axborot e'lon qildi, shahar atrofi va qishloqlarda

barcha davlat organlari, qurolli kuchlar Kadrussning qotilini izlashga safarbar etilgandi.

Kompen – qirol rezidensiyasi, Kompen – ovchilarga juda yoqib qolgan joy, Kompen – harbiy qism joylashgan shahar; unda son-sanoqsiz to‘ralar, jandarmalar va polisiya komissarlari daydib yurishadi; telegraf orqali farmon olinishi bilan shahar o‘rab olinib, tintuv boshlangandi; «Qo‘ng‘iroq va butilka» mehmonxonasi shaharda birinchi musofirxona bo‘lgani vajidan qidiruv dastlab shu erdan boshlangan edi.

Buning ustiga, «Qo‘ng‘iroqcha»ga yondosh shahar idorasining qorovullari bergan ma‘lumotga qaraganda, tunda bu mehmonxonaga bir necha yo‘lovchilar tushgan edi.

Ertalab soat oltida almashgan soqchi postga turishi bilanoq, ya‘ni, soat beshga bong ura boshlaganda, oq otliq yosh yigitni ko‘rganini, yonida bir dehqon bola ham bo‘lganini, keyin yigit otdan tushib, bolani ot bilan jo‘natib yuborganini va o‘zi «Qo‘ng‘iroq»ning eshigini qoqqanini, uni mehmonxonaga kiritishganini oqizmaytomizmay gapirib berdi. Odamlarda shubha tug‘dirgan bu yo‘lovchi Andrea edi.

Shu ma‘lumotlarga muvofiq polisiya komissari va jandarma unter-ofiseri Andrea turgan xonaga yo‘l olishdi.

Eshik qiya ochiq edi.

– O‘ho‘, – dedi pixini yorgan jandarma, – eshik ochiq qolibdi, bu yaxshilik alomati emas! Men bu eshikka uch qulf solib qo‘yilgan holda ko‘rishni istardim.

Darhaqiqat, stol ustida Andrea qoldirgan xat va to‘g‘nag‘ich uning qochib ketganidan darak berib turardi. Chunki jandarma bir ko‘rgan narsasiga laqqa ishonib ketaveradiganlardan emasdi.

U atrofga nazar tashladi, karavotning tagiga qaradi, pardalarni yig‘ib qo‘ydi, shkaflarni ochdi, nihoyat toshpech oldiga keldi.

Tadbirkor Andrea kulda hech qanday iz qoldirmagandi.

Har holda bu erdan tashqariga chiqib ketish mumkin

edi, bunday hollarda har bir tuynuk sinchiklab tekshirilishi zarur. Shu sababli jandarma shox-shabba va poxol keltirib, xuddi zambarakni o'qalayotganday tuynukka tiqdi-da, gugurt chaqdi.

O't lovillab yondi, tuynukdan burqsib quyuq tutun osmonga ko'tarildi: biroq jandarma kutgandek biron-bir jinoyatchi tuynukdan yumalab tushmadi.

Andrea, yoshlik chog'idan jamiyat bilan kurashib pishib ketgan, quvlikda har qanday jandarmani, u hatto hurmatga sazovor unter-ofiser lavozimida bo'lsa-da, «bir cho'qishda qochiradigan»lardan edi. Albatta, o't yoqib sinashlari mumkinligini oldindan bilib, u tomga chiqib, mo'riga qapishib olgandi.

Unter-ofiserning ikkala jandarmaga: «U tuynukda yo'q!» deganini eshitib, «endi qutulib ketsam kerak», degan o'y kechdi Andreaning ko'nglidan. Bo'ynini asta cho'zib qaragan edi, ofiserlar ketmay, yanada diqqat bilan atrofni ko'zdan kechirayotganlarini ko'rdi.

Andrea ham atrofga nazar tashladi: O'ng tomonda XVI asrning dabdabali inshooti – shahar idorasi qad ko'targan; uning derazalaridan u bekingan tomning hamma burchaklari kaftdagidek ko'rinib turardi.

Mana shu derazalardan birida hademay jandarmalardan birontasi paydo bo'lajagini Andrea angladi. Mabodo uni ko'rib qolsa, ish tamom; tomma-tom qochishdan foyda yo'q.

U yana pastga tushishga, lekin hozir chiqqan mo'ridan emas, boshqasidan tushishga qaror qildi.

Andrea tutun chiqmayotgan mo'rilardan biriga asta emaklab bordi-da, sezdirmay tuynukdan kirib ketdi.

Shunda shahar idorasining derazasi ochilib, jandarning boshi ko'rindi. U bir daqiqa qimir etmay turdi-da, so'ng yana g'oyib bo'ldi.

Unter-ofiser salmoqdor va kibr-havo bilan qadam tashlab, yon-veriga ham qaramay, olomoni yorib o'tdi-da, mehmonxonaga qaytdi.

– Xo'sh, nima gap? – dedi ikkala jandarma.



– Xullasi kalom, yigitlar, – javob qildi unter-ofiser, – qaroqchi, aftidan, azondayoq qochib qolgan ekan; lekin baribir Viller-Kotre tomonga, Nuayonuga izidan odam qo‘yamiz, butun o‘rmonni titkilab bo‘lsa ham topmay qo‘ymaymiz u la‘natini.

Muhtaram qonun nazoratchisi unter-ofiserlarga xos ohangda bu jarangdor so‘zlarni aytib ulgurmagan ham ediki, birdan dod-faryod va qo‘ng‘iroqning ketma-ket jaranglagan ovozi quloqni qomatga keltirdi.

– O‘ho‘, bu qanaqasi bo‘ldi? – dedi jandarma hayron bo‘lib.

– Kim bo‘lsa ham juda shoshilyapti! – dedi mehmon-xona xo‘jayini. – Qaysi nomerdan qo‘ng‘iroq chalishyapti?

– Uchinchidan.

– Yugur, Jan.

Shu payt shovqin-suron yana kuchaydi. Xizmatchi zinaga qarab chopdi.

– To‘xta, to‘xta, – dedi jandarma unga, – yanglishmasam, qo‘ng‘iroq chalinayotganda sizning emas, bizning yordamimiz zarur. Uchinchi xonada kim turadi?

– Yosh yigit; shu kechasi pochta izvoshida singlisi bilan kelib, ikki karavotli xona so‘rab oldi.

Qo‘ng‘iroq yana chalindi. – Janob komissar, bu yoqqa! – qichqirdi unter-ofiser, – orqamdan kelavering!

– To‘xtang! – dedi xo‘jayin, – uchinchi nomerga ikki zinadan: tashqi va ichki zinadan boriladi.

– Yaxshi, – dedi unter-ofiser, – men ichkarisidan boraman, bunisi menga bop. Miltiqlar o‘qlanganmi?

– O‘qlangan.

– Siz tashqi zinaga qarab turing, qochmoqchi bo‘lsa, oting; telegrammaga qaraganda bu katta jinoyatchi.

Unter-ofiser komissar bilan birga darhol ichki zinaga kirib ketdi.

Haligi qichqiriqlarning sababi quyidagilar edi.

Andrea mo‘ridan tushayotib, birdan sirg‘anib ketdi va pastga «gurs» etib yiqilib tushdi. Xonada odam bo‘lma-

ganda-ku, hech gap bo'lmasdi; biroq baxtga qarshi unda odam bor edi.

Bir karavotda yotgan ikkala ayol taraq-turuqdan cho'chib uyg'onib ketdi va shovqin kelgan tomonga qaradi, toshpech tuynugidan yosh bir yigit ko'rindi.

Shunda oq sariq sochli birinchisi olamni boshiga ko'tarib dod sola boshladi, sochlari qop-qora ikkinchisi esa jon holatda qo'ng'iroqqa yopishdi.

Falokat Andreaning orqasidan soyaday ergashib yurardi.

– Xudo haqqi! – dedi devor bo'lib qolgan Andrea kimga murojaat qilayotganini ham bilmay. – Chaqirmang hech kimni, xarob etmang meni! Sizga zarracha ham yomonlik qilmayman, zarracha!

– Andrea! Qotil Andrea! – deb qichqirib yubordi yosh ayollardan biri.

– Ejeni! Mademuazel Danglar! – dedi shivirlab Andrea; uning chehrasida qo'rquv o'rniga taajjub alomati paydo bo'lgandi.

– Yordam bering! Yordam! – qichqirib yubordi mademuazel d' Armili va Ejenining majolsiz osilib tushgan qo'lidan tez qo'ng'iroqni oldi-da, yana ham qattiqroq chala boshladi.

– Ketimdan quvib yurishibdi, qutqaring meni, – yalindi Andrea. – Shafqat qiling, tutib bermang meni!

– Kechikdingiz, ular allaqachon zinada, – dedi Ejeni.

– Yashiring meni, shunchaki qo'rqib ketibmiz, deb qo'ya qoling. Shu bilan ularning gumoni puchga chiqadi-da, men o'limdan qutulaman.

Ikkala qiz bir-birining pinjiga kirib, ko'rpaga burkanib olgandi. Ular qo'rquv va nafrat to'la ko'zlarini yalinib-yolvorayotgan yigitdan uzmasdi.

– Mayli, – dedi Ejeni, – qayoqdan kelgan bo'lsangiz, o'sha tomondan chiqib keting; o'h, sho'rpeshana, boring, biz hech indamaymiz.

– Ana! Ho' ana! Shu erda turibdi! – qichqirdi tashqaridan bir ovoz.

Bu qulf teshigidan qarab turgan unter-ofiserning ovozi edi; u ikki bukilib yalinayotgan Andreani ko'rib qolgan edi.

Miltiq qo'ndog'ining qattiq zarbidan qulf majaqlanib ketdi, uchinchi zarbadal oshiq-moshiq cho'rt uzilib, abjag'i chiqqan eshik uy ichiga quladi.

Andrea yugurib borib ayvonga chiqadigan ikkinchi eshikni ochdi. U erda miltiqlarini o'qtalib jandarmalar turardi.

Andrea taxtaday qotib qoldi; ikki-uch qadam orqaga tisarildi-da, titroq qo'li bilan pichoq sopini mahkam qisdi, biroq bu foydasiz edi.

– Qoching! – dedi qichqirib mademuazel d' Armili; u o'zini ancha tutib olgan, dilida qo'rquv o'rniga rahm paydo bo'lgan edi. Engilgan harifini o'ldirishga chog'lanayotgan gladiatorga xitob qilgandek: – Bo'lmasa o'zingizni o'zingiz o'ldiring! – dedi qichqirib Ejeni.

Andrea titrab ketdi va qizga zaharxandalik bilan qarab qo'ydi; vijdon amriga itoat qilib, jonidan voz kechish uning iflos qalbiga mutlaqo yot narsa edi.

– O'zimni o'ldiray? – dedi u pichog'ini uloqtirib, – nega?

– Axir o'zingiz, – dedi Ejeni Danglar, – meni o'ldirishadi, ashaddiy jinoyatchi sifatida qatl etishadi, dedingiz-ku?

– Bo'lmagan gap, – dedi Kavalkanti, qo'llarini qovush-tirib, – do'stlarim bor, qo'rqmayman.

Unter-ofiser qilichini yalang'ochlab Andreaning yoniga keldi.

– E-e, og'ayni, – dedi Kavalkanti, – qilich o'qtalib nima qilasiz, taslim bo'lyapman-ku, shov-shuvning nima hojati bor?

Shunday deb u qo'llarini cho'zdi; uni darhol kishanladilar.

Andreaning qiyofasida shu payt yuz bergan razil o'zgarishni ko'rgan qizlarning kapalagi uchib ketdi: u ularning ko'z oldida zodagonlik niqobini uloqtirib tashladi-da, tag'in mahbus bo'lib oldi.

Andrea surbetlik bilan qizlarga iljayib:

– Mademuazel Ejeni, – dedi, – otangizga aytadigan gapingiz yo‘qmi? Aftidan, Parijga qaytib boradiganga o‘xshayman.

Ejeni qo‘llari bilan yuzini bekitdi.

– Xijolat tortmang, – dedi Andrea, – men, orqamdan quvib kelibsiz, deb sizdan noliyotganim yo‘q... Axir, sizga er bo‘lishimga sal qoldi-ku.

Shunday deya Andrea sho‘rlik qizlarni nomus va ma-lomatga qoldirib, u erdan chiqib ketdi.

Biror soatdan keyin ikkalasi o‘zlarining safar izvoshlari-ga chiqib o‘tirishdi. Hech kim ko‘rmasin deb mehmon-xonaning darvozasini qulflashdi; biroq darvoza ochilgan-da qizlar masxara va ta‘na qilib shovqin solayotgan odamlar orasidan o‘tishga majbur bo‘lishdi. Ejeni izvoshning pardasini tushirdi, ammo u hech kimni ko‘rmagani bilan ta‘nali so‘zlar qulog‘iga barala chalinib turardi.

– Qani endi shu topda dunyo cho‘l-biyobonga aylanib qolsa, – dedi u qichqirib va dugonasining quchog‘iga otildi. Uning ko‘zlari g‘azabdan yonardi.

Ertasiga ular Bryusselga etib kelishdi va Otel de Flandr mehmonxonasiga joylashishdi.

Andrea shundan bir kun ilgari Konserjeri turmasiga tashlangandi.

## II. QONUN

Mademuazel Danglar bilan mademuazel d’Armili juda osonlik bilan qochganini ko‘rgan edik; o‘shanda hamma o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lib, qizlarni unutib qo‘ygan edi.

Keling, xonavayron bo‘lishi yaqinlashib qolganini ko‘rib, qora ter bosgan bankir o‘z qarz-qavolarining uzundan-uzoq ro‘yxatini tuzaversin, biz baronessani ku-zataylik. U haligi zarbadan keyni zo‘rg‘a o‘ziga keldi-da, doimiy maslahatchisi Lyusen Debre huzuriga yugurdi.

Baronessa fe‘l-atvori, tabiati nihoyatda og‘ir qizining

tarbiya-tashvishidan tezroq qutulish uchun Ejeni nikohini juda sabrsizlik bilan kutardi. Har qanday masala unsiz kelishuv yo'li bilan hal etiladigan oqsuyaklar oilasida donolik va barkamollikda hamisha namuna ko'rsatib kelgan onagina o'z so'zlariga, nasihatlariga qizining quloq solishiga erishmog'i mumkin.

Biroq Danglar xonim Ejenining ziyrakligi va mademuazel d' Armilining nasihatgo'yligidan xavotirlanardi: qizi Debreni xush ko'rmasligini ona bilardi; Ejenining Lyusendan nafratlanib yurishidan, onasi: «Qizim ministrning shaxsiy sekretari bilan yashirin o'ynashib yurganimdan va moliyaviy aloqalarimdan xabardor bo'lsa kerak», deb shubhalanib yurardi. Ammo baronessaning zehni o'tkir bo'lganida Ejenining Debreni yomon ko'rishini uning otasi xonadonida turli g'iybatlar qilib yurganidan emas, shunchaki Diogen odam deb atashga hech tili bormagan, Platon esa, kesatib, ikki oyoqli hayvon, deb atagan maxluqqa o'xshatganidan deb bilgan bo'lardi.

Shunday qilib, Danglar xonimning nuqtai nazari bilan qaraganda (afsuski, bu foniy dunyoda har bir kimsaning boshqalar nuqtai nazarini ko'rishga xalaqit beradigan o'z nuqtai nazari bo'ladi), qizning to'yi barbod etilishi juda qayg'uli hol bo'ldi. Ona bunda qizining baxtiyor bo'lishini emas, balki, o'zining to'la erkin bo'lib olishini ko'zlardi.

Shu zaylda, hali aytganimizdek, baronessa Debre oldiga yugurdi; butun Parij jamoatchiligi qatorida Lyusen ham Danglarnikidagi tantanada qatnashgan va ko'ngilsiz voqeaning guvohi bo'lgan edi. U jahonning poytaxti deb atalmish, g'iybatga to'la shaharning to'rtidan uch qismi aholisining jag'ini ochib qo'ygan voqeani do'stlari muhokoma qilayotgan klubga chopdi.

Ustida qora ko'ylak, yuzida o'rtuk Danglar xonim, eshik qorovulining: «Janoblari uyda yo'qlar», deyishiga quloq solmay, zinadan Debrening xonadoniga ko'tarilgan paytda Lyusen og'aynilari bilan haligi klubda o'sha voqea ustida zo'r berib bahslashmoqda edi; og'aynilari esa, bu janjaldan so'ng, Danglar xonadonining do'sti sifatida sen

mademuazel Ejeni Danglarga albatta uylanishing va uning ikki millioniga ega bo'lib olishing shart, deb qayta-qayta uqtirishardi.

Debre ham shunday qilishim kerak, deb o'zini ishontirishga tayyor kishidek do'stlarining gapiga unchalik qarshilik ko'rsatmasdi; o'ziam bir necha bor shunday fikrga kelgandi; biroq Ejenining juda erka va takabburligini o'ylab, ba'zan fikridan qaytar, u bilan bir yostiqqa bosh qo'yish mumkin emas, derdi. Biroq shu bilan birga qizga suq bilan boqib, beixtiyor dilida bema'ni his-tuyg'ular paydo bo'lardi. Bunday bema'ni tuyg'ular, axloqshunoslarning ta'biricha, hatto har qanday sof vijdonli kishining dilida ham, xuddi but orqasiga bekinib olgan shayton kabi, biqinib yotarkan. Og'aynilar klubda turli-tuman o'yinkulgilar, hammani qiziqtiradigan haligi muhim voqea ustida shirin suhbatlar og'ushida yarim kechagacha o'tirib qolishdi.

Bu paytda Lyusenning qaroli mo'jzagina zangori mehmonxonaga kuzatib qo'ygan Danglar xonim gullar o'rtasida vujudini titroq bosib betoqat kutib o'tirardi; bu gullarni ertalab xonimning o'zi yuborgan edi, Debre esa ularni avaylab tartib bilan terib qo'ygandi; bundan mamnun bo'lgan xonim Debrening bunchalik kuttirib qo'yganidan achchiqlanmadi.

Yigirma daqiqa kam o'n ikkida kutaverib toqati toq bo'lgan xonim izvoshga tushib, uyiga qaytdi.

Odatda bu toifadagi ayollar qayerda bo'lishmasin yarim tunda uylariga qaytishmaydi.

Ejeni ota xonadonidan qanday ehtiyotkorlik bilan chiqib ketgan bo'lsa, baronessa ham xuddi shunday ehtiyotkorlik bilan uyiga qaytib kirdi-da, yuragi duk-duk urib zinadan o'z bo'lmasiga asta ko'tarila boshladi. Bu xona Ejeni bo'lmasiga yondosh ekanligi bizga ma'lum.

Danglar xonim g'iybatdan hazar qilardi. U qizining pokligi va ota-onaga sodiqligiga qattiq ishonardi! (Buning uchun unga tasanno o'qisa bo'ladi.)

Danglar xonim bo'lmasiga kirdi-da, Ejeni eshigiga

quloq soldi, xonadan hech qanday ovoz eshitilmagach kirmoqchi bo'lib eshikni tortdi; biroq eshik qulflog'liq edi. Sho'rlik qizim kechqurungi voqeadan qattiq hayajonga tushib, charchab uxlab qopti-da, deb o'yladi xonim.

Xizmatchi ayolni chaqirib qizini so'ragan edi, u:

– Mademuazel Ejeni o'z bo'lmasiga mademuazel d' Ar-mili bilan birga qaytib keldi; birga choy ichishdi, keyin menga, «senga ruxsat, bor!» deb chiqarib yuborishdi, – dedi.

Shundan keyin oqsoch ham, qizlar o'z xonasida, deb o'ylab, oshxonadan chiqmay qo'ya qolgan edi.

Xullas, Danglar xonim ham oqsochning javobidan ko'ngli xotirjam bo'lib joyiga borib yotdi.

Xonim o'ylarining tagiga hech etolmas, o'ylagan sayin halokat yaqinlashib kelayotgandek tuyulardi; endi xonimning nazarida bu janjal emas, barbod bo'lish, uyatga qolishgina emas, sharmandayu sharmisor bo'lish edi. Shu on beixtiyor eri va o'g'li tufayli xuddi shunday baxtsizlikka duchor bo'lgan Mercedesga qanchalik berahm bo'lgani yodiga tushdi.

«Ejeni ham, biz ham xarob bo'ldik, – dedi Danglar xonim o'zicha, – bu voqea hamma yoqqa tarqalib bizni halok etadi, chunki bizning jamiyatimizda mazax bo'lmoq kishini bedavo dardlarga giriftor etadi».

– Xudoyim Ejenini g'alati qilib yaratgan, – dedi pichirlab Danglar xonim, – men bundan qo'rqib yurardim! Endi shunisiga ham shukr deyman.

Xonim shunday dedi-da, hatto illatni ham kishining foydasiga xizmat qilishga majbur etgan Tangri haqiga duo o'qidi. So'ngra xayoli qush kabi qanot qoqib bo'shliqdan uchib o'tdi-da, Kavalkantiga kelib qo'ndi.

Andrea qip-qizil o'g'ri va kallakesar bo'lib chiqdi: shunga qaramay ancha durust tarbiya olgani sezilib turardi; axir u hurmatli zodagonlar homiyligida katta davlat egasi sifatida paydo bo'lib qoldi-ku!

Bu ishlar shu qadar chigallashib ketganidan tushunol-maysan kishi. Bu dahshatli ahvoldan eson-omon chiqib

olish yo'lini kim ko'rsatib berarkan endi? Kim?

Xonim eng avval xushtori Debrening oldiga uchib bordi, ammo u faqat maslahat berishi mumkin edi; aslida biror zo'rroq odamga murojaat qilmoq zarur edi.

Shunda xonim baronessa Vilforni esladi.

Kavalkantini qamoqqa olish haqida buyruqni Vilfor bergan edi; baronessaning xonadoniga yot kishilardek shafqatsizlik bilan g'ulg'ula solgan ana shu Vilfor edi.

– Yo'q, – dedi fikridan qaytib baronessa, – qirollik prokurori bag'ritosh zotlardan emas, u odil sud vakili, burchiga sodiq kishi; vijdonli va sadoqatli do'st; faqat shafqatsiz, biroq qo'li bilan gazakka dadil nashtar urdi, xolos, qotil emas, jarroh; bankirning o'zi bo'lajak kuyovim deb hammaga tanishtirgan o'sha badbaxt yigitning kasofatiga qolgan Danglar xonadonining or-nomusini saqlash uchun hamma choralarni ko'rdi.

Danglar oilasining do'sti bo'lmish Vilfor shunday qilgan ekan, demak, u Andreaning kimligini ilgari bilmagan va bekorga uning nayranglariga yo'l qo'yib bermagan ekan-da.

Shunday qilib, baronessaning tasavvurida Vilforning xatti-harakatlari baronessa ko'z oldida boshqacha tus oldi, ya'ni, ma'qul bo'lib ko'rina boshladi. Biroq, qirollik prokurori ishni hozirgi holatda to'xtatib qo'yishi kerak; ertaga xonim uning huzuriga boradi va xizmat burchini buzishga ko'nmasa-da, rahm-shafqat qilishga majbur etadi.

Baronessa o'tmishdagi aloqalarni ro'kach qiladi, prokurorning xotirasiga soladi; o'ta gunohga botib bo'lsa-da, ikkisi lazzatli o'tkazgan damlar haqqi, yalinib-yolvoradi; Vilfor ishni bosti-bosti qilib qo'yadi yoki Kavalkantining qochib ketishiga imkon beradi; buning uchun u diqqatini boshqa tomonga qaratib, sirdan hukm chiqarib jinoyatchining kirdikorlarini xaspo'shlaydi.

Shu xayollar og'ushida xonim uyquga ketdi.

Ertasi ertalab soat o'nda baronessa o'rnidan turdi, oqsochni chaqirmadi va hech kimga bildirmay kechagi-



dek oddiygina kiyinib uydan chiqdi, Provans ko'chasiga borib, izvosh kira qildi va Vilfor uyi tomon yo'l oldi.

Bu la'nati uy, bir oydirki vabo dorigan mudhish kulbaga o'xshardi; bir necha xona ham sirtidan, ham ichidan qulflab tashlangan, derazalar havoni yangilash uchun ahyon-ahyonda birpasga ochilar va vahimaga tushib qolgan xizmatkorlarning kallasi ko'rinardi-da, derazalarni shosha-pisha yana bekitib qo'yishardi. Qo'shnilar esa:

– Bu qirollik prokurorining uyidan tag'in o'lik chiqarimikin-a? – deb shivirlashardi.

Mudhish uy ro'parasiga kelganda Danglar xonimning badani titrab ketdi, izvoshdan tushib qulflog'liq darvozaning qo'ng'irog'ini bosgan vaqtda hatto tizzalari bukilib ketdi.

Uchinchi marta qo'ng'iroq bosgandan so'nggina darvoza qorovuli kelib, ko'cha eshikni qiya ochib qaradi va bashang kiyingan zodagon ayolni ko'rdi, lekin darvozani ochmay turaverdi.

– Nega qaqqayib turibsiz! Oching! – dedi baronessa.

– Bekam, avval ayting: kimsiz? – so'radi qorovul.

– Kimman? Kim bo'lardim; meni yaxshi taniysiz-ku.

– Bekam, endi biz hech kimni tanimaydigan bo'lib qolganmiz.

– Hoy azizim, jinni bo'ldingizmi? – dedi xitob qilib baronessa.

– Qaerdan bo'lasiz?

– Bo'ldi, hazilingizni qo'ying.

– Bekam, uzr, buyruq shunaqa, nomlari?

– Baronessa Danglar. Siz meni ming bor ko'rgansiz-ku, axir.

– Ehtimol, bekam, xo'sh, nima ishingiz bor?

– Bu qanaqa lo'ttibozlik?! Ustingizdan janob de Vilfor-ga shikoyat qilaman.

– Bekam, bu lo'ttibozlik emas, ehtiyotkorlik, bu xonadonga faqat janob d'Avrinining ruxsat qog'ozi yoki janob qirollik prokurorining ijozati bilan kiriladi.

– Ha, men ham qirollik prokurori oldiga ish bilan kel-

dim.

– Shoshilinch ishmi?

– Kelib turganimdan fahmlamayapsizmi? Bas, etar: mana, kartochkam, xo'jayiningizga olib borib bering.

– Men qaytguncha kutib turasizmi?

– Ha, kutib turaman, boring.

Qorovul Danglar xonimni ko'chada qoldirib, darvoza-ni bekitdi.

To'g'ri, baronessa ko'p kutmadi; bir ozdan so'ng darvoza xonim sig'adigan darajada ochildi-da, u ichkariga kirishi bilan yana mahkam yopildi.

Qorovul darvozadan ko'z uzmay hovliga kirdi-da, cho'ntagidan hushtak olib, churillatdi. Uy zinasida Vilforming qaroli paydo bo'ldi.

– Bekam, bu halol yigitni kechiring, – dedi u baronesaning istiqboliga chiqib, – unga shunday buyruq berilgan; janob dedi Vilfor, boshqa ilojim yo'q, bekamga tushuntir, deb topshirdi menga.

Hovlida xuddi ana shunday ehtiyotkorlik bilan qo'yilgan bir baqqol turardi; xizmatchilardan biri uning mollarini ko'zdan kechirardi.

Baronessa zinaga ko'tarildi. Xonimning bir qayg'usiga o'n qayg'u qo'shilib, alam va iztirob ichida qirollik prokurorining xonasiga kirdi; qarol esa undan bir zum ko'z uzmay kuzatib bordi.

Og'ir mushkulotiga najot topish g'amida kelganiga qaramay, Danglar xonim «tagi past»larning uni hurmat-sizlik bilan qabul qilganligidan qattiq ranjigan edi, shu vajdan so'zni arz-doddan boshladi.

Vilfor esa bunga unchalik e'tibor bermay, asta boshini ko'tardi-da, xonimga qarab g'amgin iljayib qo'ydi; buni ko'rgan Danglar xonimning so'zi og'zida qoldi.

– Xizmatchilarim uchun uzr so'rayman; ular vahimaga tushib qolgan, men buni ayb hisoblamayman; chunki shubha ostida o'zlari ham har narsadan hadiksiraydigan bo'lib qolishdi.

Danglar xonim Vilfor xonadonida hukm surayotgan

vahima to'g'risida jamoatchilik o'rtasida mish-mish gap-larni tez-tez eshitib turardi, biroq ahvol bunchalik deb o'ylamagandi.

– Demak, siz ham baxtsizlikka uchrabsiz-da, – dedi xonim.

– Ha, shunday, xonim, – dedi qirollik prokurori.

– Siz menga achinasizmi?

– Chin yurakdan achinaman, xonim.

– Nega kelganligimni anglagandirsiz?

– Uyingizda yuz bergan voqealar haqida men bilan gaplashmoq uchun kelgandirsiz-da?

– Janob, bu juda og'ir musibat.

– To'g'risi, ko'ngilsiz voqea.

– Ko'ngilsiz voqea emish! – xitob qildi baronessa.

– Xonim, – dedi qirollik prokurori o'ziga xos beparvo-lik bilan, – men endilikda faqat tuzatib bo'lmaydigan falokatnigina baxtsizlik deb hisoblayman.

– Siz, buni unutib yuboriladigan voqea, deb o'ylaysizmi?

– Xonim, unutilmaydigan narsa yo'q dunyoda, hammasi ham bir kun emas-bir kun yoddan ko'tariladi. Qizingiz bugun bo'lmasa ertaga, ertaga bo'lmasa bir haftadan so'ng erga tegib ketadi. Mademuazel Ejenining qallig'iga kelsak, siz unga zarracha achinmasangiz kerak.

Danglar xonim bu kinoyali so'zlardan g'oyat taajjublanib, Vilforgia tikilib qoldi.

– Men do'stimnikiga keldimmi o'zi? – so'radi qayg'uli ohangda xonim.

– Bilib turib so'rashingiz nimasi tag'in, – javob berdi Vilfor; uning yuziga qon yugurdi, chunki bu gaplar ularning har ikkisiga hozirgidan boshqa hodisalarni eslatdi.

– Unday bo'lsa, azizim Vilfor, rahm qiling bizga, rahm!

– dedi baronessa, – men bilan sudya sifatida emas, do'stlarcha gaplashing, boshimga shunday og'ir musibat tushganda, mendan xushchaqchaq bo'lishni talab etishingiz odobdan emas.

Vilfor itoatkorona ta'zim qildi.

– Xonim, so‘nggi uch oy mobaynida, – dedi qirollik prokurori, – menda xudbinlikka xos bir odat paydo bo‘lib qoldi. Birovning baxtsizlikka uchraganini eshitsam, o‘z baxtsizligimni ko‘zim oldiga keltiraman-da, beixtiyor taqqoslab ko‘raman; sizning boshingizga tushgan baxtsizlik mening boshimga tushgan baxtsizlikka qaraganda oddiy voqeaga o‘xshab qoldi. Mening fojiali ahvolim oldi-da sizniki holva. Bu gaplarim, aftidan, jahlingizni chiqarayotgandir? Keling, bas qilaylik. Xo‘sh, xonim, gapni nima dan boshlagan edingiz?

– Men, azizim, – dedi baronessa, – anavi muttahamaning ishi nima bo‘lishini bilmochi bo‘lib keldim.

– Muttaham, dedingizmi? – dedi Vilfor, – siz jo‘rttaga goh kamaytib, goh oshirib yuboryapsiz. Andrea Kavalkanti, to‘g‘rirog‘i, Benedettoni muttaham, deyapsizmi? Xato qilasiz, xonim. Benedetto uchchiga chiqqan qotil.

– Janob, men bu tuzatishingizga monelik qilayotganim yo‘q; ammo siz u baxtsizga qancha og‘ir jazo bersangiz, bu bizning oilamizga shunchalik og‘ir ta‘sir qiladi. Bir necha kun uni xotirangizdan chiqarib tashlang, ta‘qib qilmang, qochib ketsin.

– Kechikdingiz, xonim, kechikdingiz, allaqachon buyruq berib qo‘yganman.

– U holda uni qamoqqa olishsa... Sizningcha, uni qama-sharmikin?

– Qamoqqa olishadi deb umid qilib o‘tiribman.

– Agar uni qamoqqa olishsa (hamma: turmular to‘lib-toshgan, deyapti), turmada qoldira qoling.

Qirollik prokurori boshini chayqadi.

– Aqalli qizim turmushga chiqqunga qadar turmada olib turing! – dedi baronessa.

– Buning iloji yo‘q, xonim, odil sudning o‘z tartib-qoida-lari bor; ularni buzishga hech kimning haqi yo‘q.

– Men uchun ham-a? – dedi baronessa yarim hazil, yarim chinga olib.

– Hamma uchun, – javob berdi Vilfor, – men uchun ham, boshqalar uchun ham.

– Shunday deng... – dedi xonim, bu xitobning ma’nosini ochiq aytmay.

Vilfor unga sinovchan nazar tashladi.

– Aytmoqchi bo’lgan gapingizni tushunib turibman, – dedi prokuror, – uch oydan buyon mening xonadonimni motam chodiriga burkab turgan, Valentina Xudoning qudrati bilan qutulib qolgan o’lim shunchaki oddiy o’lim emasligi haqida dahshatli gaplar tarqalib yurganiga shama qilyapsiz.

– Men buni mutlaqo xayolimga ham keltirganim yo’q, – dedi shoshib Danglar xonim.

– Yo’q, yo’q, xonim, siz xuddi shunday xayolga bordingiz va shunday qilishga haqlisiz va hoy, jinoyatchilarni jazolovchi korchalon, nega o’z atrofigda yuz berayotgan jinoyatlarni jazosiz qoldiryapsan, deb o’ylamasligingiz mumkin emas, ha, shunday deb o’ylamasligingiz mumkin emas.

Baronessaning rangi dokaday oqarib ketdi.

– Ichingizda xuddi shunday dedingiz hozir, to’g’rimi, bekam?

– To’g’ri, shunday dedim ichimda.

– Men javob qaytaraman.

Vilfor yumshoq o’rindig’ini Danglar xonim stuliga yaqinroq surdi; so’ngra ikkala qo’lini stolga mahkam tirab oldi-da, odatdagidan bo’g’iqroq tovushda dedi:

– Jinoyatlar orasida javobsiz qoladigani ham bo’ladi; chunki jinoyatchilar noma’lum bo’ladi; bunday hollarda jinoyatni shundayicha qoldirmaslik kerak deb, begunoh kishiga nohaq azob berib qo’yish mumkin; ammo jinoyatchilar (Vilfor shunday dedi-da, stoli ro’parasida osilib turgan katta butga qo’lini cho’zdi) topilishi bilanoq, Xudo haqiga qasamyod qilib aytamanki, ular o’ldiriladi! Mana, qasam ichdim, uni albatta bajo keltiraman binobarin, o’sha ablahga rahm-shafqat qilishimni so’rashga qanday jur’at eta olasiz!

– Biroq, uning jinoyatchi ekanligiga aminmisiz? – dedi e’tiroz bildirib Danglar xonim.

– Mana, uning jinoyatlari haqidagi hujjatlar: Benedetto o‘n olti yoshida qalbaki hujjat bilan qo‘lga tushib, besh yil qamoqqa hukm qilingan; ko‘rdingizmi, yigitcha o‘sha vaqtdanoq yomon yo‘lga tushib olgan ekan; so‘ng qamoqdan qochgan, keyin kallakesarlik qilgan.

– Ie, kim o‘zi bu sho‘rlik banda?

– Kim biladi! Bir korsikalik daydi bo‘lsa kerak-da.

– Uni hech kim tanimasmikin?

– Hech kim; ota-onasining kimligi ham noma‘lum.

– Anavi Lukkadan kelgan kishi-chi?

– U ham Benedetto singari firibgar; ehtimol, uning sherigidir.

Baronessa yolvoruvchan qiyofada qo‘l qovushtirib:

– Vilfor! – dedi mayin va makrli ohangda.

– Bekam, Xudo haqqi, – dedi qirollik prokurori qat‘iyat bilan, – mendan hech rahm-shafqat umid qilmang! Men nima qilay? Hammasi qonunga bog‘liq. Qonunga bog‘liq. Qonunning ko‘zi bormidiki, sizning qayg‘ungizni ko‘rsa? Qulog‘i bormidiki, mungli ovozingizni eshitsa? Zehni bormidiki, fikringizga javob qaytarsa? Yo‘q, xonim, yo‘q, qonun faqat hukm qiladi. Qonun hukm qildimi, tamom!

Menga: siz kodeks emas, jonli xilqatsiz, kitob emas, odamsiz-ku, deyishingiz mumkin. Xonim, menga, mening atrofimga bir nazar soling; odamlar orasida meni o‘zining chinakam og‘aynisi deb hisoblagan birorta zot bormi? Meni yaxshi ko‘radigan biror kimsa topiladimi? Odamlar menga shafqat qilganmi? Vilforga shafqat tilagan odam bormi bu jamiyatda? Yo‘q, ming bor yo‘q! Vilfor hamisha ta‘qibda, faqat ta‘qibda!

Siz esa shunday bir ayolsiz, fatton ko‘zlaringizni tikib, sirli damlarni esga solasiz-da, odamni qizartirasiz. O‘sha o‘zingizga ayon damlarni va ehtimol undan bo‘lak narsalarni ham eslatib uyaltirishga qobil jononsiz.

Ammo o‘zim, ehtimol, boshqalardan pastroq tubanlikka yuz tutganimdan buyon fasod o‘zagini topish uchun kishilarning niqobini yirtib kelyapman va har gal fasodni ochib tashlayapman, ochib tashlaganda ham quvonib-

quvonib, zavq-shavq bilan ochib tashlayapman; chunki insondagi ojizlik bilan jaholat ana shulardir.

Hayhot, men jazolaydigan va menga jonli dalilday bo'lib ko'ringan har bir kimsaning, nazarimda, o'zimdanda ortiq yo kam joyi yo'qqa o'xshaydi! Hayhot! Hamma odamlar johil hokim; biz shuni tasdiqlaymiz va yovuzlarni qon qaqshatamiz!

Vilfor so'nggi so'zlarini g'azab va qahr bilan aytdi.

– Axir o'zingiz, – dedi Danglar xonim oxirgi marta urinib, – bu yosh yigitning hech kimi yo'q, boshpanasiz bir daydi dedingiz-ku!

– Bunisi yana yomon, to'g'risi, yana yaxshi. Tangrining o'zi uni hech kim yodga olmaydigan qilib yaratgan ekan.

– Janob, siz notavon bir bandaga tahdid qilyapsiz?

– Qotilni notavon deb bo'ladimi?

– U sharmanda-yu sharmisor etilsa, mening xonadonimga dog' tushadi.

– Mening xonadonim-chi? Bu sirli o'lishlar mening oilamga ham la'nat tamg'asini bosmadi, deysizmi?

– Siz faqat boshqalarga berahmsiz, – dedi xitob bilan baronessa. – Shuni unutmangki, sizga ham aslo rahm-shafqat qilishmaydi.

– Shafqat qilishmasa undan nariga! – dedi Vilfor g'azabla osmonga qarab.

– Hech bo'lmasa shu sho'rlikning ishini keyingi sessiyagacha kechiktiring: yarim yil o'tib ketadi va bu voqealar hammaning xayolidan ko'tariladi.

– Yo'q, – dedi Vilfor, – yana besh kun vaqtim bor; tergov allaqachon nihoyasiga etgan; besh kun etib ortadi menga; mening ham xayolimdan ko'p narsalar ko'tarilib ketishi mumkinligini nahotki tushunmasangiz, bekam? Men ishlayotganimda (men tun-kun demay ishlayman) hamma narsa yodimdan ko'tarilib ketadi, o'zimni ish paytida xuddi tinch yotgan o'liklar kabi baxtiyor sezaman, har xil dahshatli xayollar girdobida azob chekib yurishdan ko'ra shu yaxshi-da.

– Axir u bekinibdi-ku, qo'ying, qochib qutulsin, in-

may turish rahmdillikning eng engil usuli-ku.

– Axir men sizga kechikdingiz, dedim-ku, azonda telegraf orqali hamma yoqqa buyruq berildi, endi...

– Janob, – dedi eshikdan kirib kelgan kamerdiner, – ichki ishlar ministrigidan shoshilinch xat keldi.

Vilfor konvertni shartta oldi-da, shoshilib ochdi. Danglar xonim qoʻrqib ketdi, Vilfor esa quvonganidan qaltirardi.

– Qamoqqa olinibdi! – dedi xitob bilan Vilfor, – uni Kompenda qoʻlga tushirishibdi, hamma ish koʻngildagi-dek boʻlibdi.

Danglar xonim oʻrnidan turdi, u devor boʻlib qolgan edi.

– Yaxshi qoling, janob, – dedi xonim sovuq qilib.

– Xayr, xonim, xayr, – dedi qirollik prokurori sevinchini yashirolmay, xonimni eshikkacha kuzatib qoʻyarkan.

Soʻng u yozuv stoliga qaytib oʻtirdi.

– Shunday qilib, – dedi u haligi shoshilinch xatga qoʻli bilan urib. – Qoʻlimda bir qallob, uch oʻgʻri, ikki oʻt qoʻyuvchining ishi bor edi, faqat qotilning ishi kam edi, mana endi bu ham qoʻlimga tushdi, sessiya aʻlo darajada oʻtadi.

### **III. SHARPA**

Danglar xonimga qirollik prokurori aytganidek, Valentina hamon bemor edi.

U juda holdan toygan, oʻrnidan turolmasdi. Ejenining qochib ketganini, Andrea Kavalkantining, toʻgʻrirogʻi, Benedettoning qamoqqa olinganini va uni qotillikda ayblayotganlarini Valentina yotgan joyida Vilfor xonimdan eshitdi.

Biroq darmoni qurigan Valentinaga bu xabarlar uncha taʻsir etmadi, sogʻ boʻlganida, ehtimol hayajonga tushardi. Uning charchoq miyasida paydo boʻlayotgan yoki mungli koʻzlari oldida bir lahza koʻrinib, oʻtib ketayotgan gʻalati sharpalar jumlasiga yana bir necha mubham fikrlar,



noaniq obrazlar qo'shildi, xolos; bular ham o'zining ezgu tuyg'ulari orasida yo'q bo'lib ketdi.

Kunduzlari Valentina buvasi Nuarte orqali atrofda bo'layotgan voqealardan xabardor bo'lib turardi, chunki chol kunduzi o'rindig'ini nevarasining xonasiga kiritib, kun bo'yi bemordan ko'zini uzmay o'tirardi; Vilfor suddan qaytgach, bir-ikki soat vaqtini otasi va qizi bilan o'tkazardi.

U soat oltida kabinetiga kirib ketardi, soat sakkizda d'Avrini Valentinaga tunda ichish uchun tayyorlangan dorini keltirib berardi, shundan so'ng Nuarteni olib chiqishardi.

Doktorning taklifi bilan chaqirilgan hamshira hammanni chiqarib yuborib, o'tirib olar va faqat soat o'n yoki o'n birlarda, Valentina uyquga ko'z yumganda, ketardi. U ketayotib, Valentina bo'lmasining kalitini Vilforning o'ziga topshirardi, demak, bemor huzuriga faqat Vilfor xonim yotoqxonasidan, kichkintoy Eduar bo'lmasidan kirish mumkin edi.

Morrel har kuni ertalab Nuarte huzuriga kelib, Valentinaning sog'lig'ini so'rardi; qiziq: u borgan sari ko'ngli xotirjam bo'layotgandek ko'rinardi.

Buning sababi, birinchidan, garchi asabiy hayajondan hali qutulmagan bo'lsa-da, Valentina kundan-kunga o'zini yaxshi his qila boshladi, ikkinchidan, Morrel es-hushini yo'qotib, Monte-Kristonikiga borganda graf: «Valentina ikki soatgacha o'lmasa, tirik qoladi», degan emasmidi?

Mana, o'shandan buyon to'rt kun o'tdi, Valentina tirik.

Yuqorida biz aytgan asab buzilishi, asabiy hayajon Valentinani tushida ham tinch qo'ymadi; kechqurunlari mudrab yotgan vaqtlarida ham qiynoqqa oldi; ana shu paytlarda uning ko'z oldida xira chiroq yog'dusida allaqanday vahimali ko'lankalar paydo bo'lar, goh o'gay onasi qahr-g'azab-la baqrayib turganday, goh Morrel qo'lini cho'zayotganday, goh graf Monte-Kristo kabi yot kishilar tikilib turganday tuyulardi, hatto alahlaganida stol, stol, javonlarga jon kirib, uyda sakrab yurganday bo'lardi.

Bu hol kechasi soat uchgacha, qattiq uyquga ketguniga qadar davom etardi.

Valentina Ejenining qochib ketganini va Benedettoning qamoqqa olinganini eshitgan kecha, Vilfor, d'Avrini va Nuarte chiqib ketgandan so'ng, Muk Filipp Rulskiy cherkovining soati o'n birga bong urishi bilan hamshira bemor oldiga tayyor ichimlikni keltirib qo'yib, eshikni bekitdi-da, qirollik prokurori xonadonidagi xizmatkorlarini uch oydan buyon hayajonga solayotgan dahshatli voqealar haqidagi gaplarini tinglagani oshxonaga yo'l oldi. Xuddi shu paytda Valentinaning mahkam qulflab qo'yilgan xonasida kutilmagan manzara yuz berdi.

Haligi ayol ketgach, oradan o'n daqiqacha vaqt o'tdi.

Valentinani, odatdagidek, bir soatdan buyon bezgak tutib yotardi; miyasida turli fikrlar g'ujg'on urar va tinmay alahsirardi.

Shu on birdan Valentinaga tungi sham chiroqning xira yog'dusida pech oldidagi taxmonga o'rnatilgan kitob javoni ovozsiz sekin ochilganday ko'rindi.

Boshqa vaqtlarda Valentina darhol qo'ng'iroqqa yopishib, odamlarni yordamga chaqirgan bo'lur edi, biroq yarim hushsiz hozirgi holatida uni hech narsa ajablantirmasdi.

«Bular hammasi bosinqirayotganim boisidan, – deb o'yladi Valentina, – tong otib, quyosh dastlabki zarrin nurlarini sochishi bilan tungi bu arvohlar, sharpalardan asar ham qolmaydi-ku».

Javon ichidan bir odam chiqdi.

Bunaqa sharpalarni ko'raverib ko'nikib qolgan Valentina qo'rqmadi; u Morrelni ko'rish niyatida faqat ko'zlarini katta ochdi.

Odam karavot tomon yurib keldi-da, xuddi bir narsaga quloq solayotgandek, to'xtadi.

Shu topda bemahal paydo bo'lgan mehmonning yuziga chiroq nuri tushdi.

– Yo'q, Morrel emas, – dedi pichirlab Valentina va bu tushim bo'lsa kerak deb o'ylab, u gumdon bo'ladi yoki

boshqa qiyofaga kirar, deb kutib indamay yotaverdi.

So'ngra tomirini ushlab ko'rdi, tomiri tez-tez urayotgan edi; Valentina doridan ozgina ichsa bu sharpalar darhol ko'zdan g'oyib bo'lishini esladi; doktor tayyorlagan dori tetiklantirib, isitmani pasaytirar va hushni joyiga keltirardi, ichgach, ancha vaqtgacha engil tortardi.

Valentina billur idishdagi stakanni olish niyatida madorsiz qo'lini cho'zgan edi, haligi odam darhol karavot tomon sakrab, Valentinaga juda yaqin keldi, qiz uning nafas olayotganini bemalol eshitib turardi, hatto uning qo'li tekkanini ham sezdi.

Shu mahalgacha Valentinaga birorta sharpa haqiqiy odamga o'xshab ko'rinmagan edi. Bemor bu tush emas, o'ngi ekanligini, es-hushi joyidaligini fahmladi-da, seskanib ketdi.

Boyagi qo'l Valentinaning doriga uzatilgan qo'lini tutib to'xtatdi, Valentina qo'lini asta tortib oldi. Qiz undan ko'zini uzmay qarab turardi; u stakanni olib, sham chiroq oldiga bordi-da, go'yo tiniq va tozaligini tekshirayotgandek, dorini sinchiklab ko'zdan kechirdi.

Aftidan, bu shoshilinch tekshirish uni qanoatlantirmadi.

Bu odam, yoki to'g'rirog'i, sharpa (u uchib yurgandek juda ohista qadam tashlar, qadam tovushlari yumshoq gilamda aslo eshitilmasdi) qoshiq bilan doridan jindak oldi-da, ichdi.

Buni ko'rib Valentinaning og'zi ochilib qoldi.

U hamon sharpa gumdon bo'lar va o'rnida boshqasi paydo bo'lar, deb umid qilardi. Ammo sehrli mehmon gumdon bo'lish u yoqda tursin, Valentinaning yoniga kelib, stakanni uzatdi va hayajonli ovozda:

– Endi ichsangiz bo'ladi!.. – dedi.

Valentina cho'chib tushdi.

Bu sharpaning u bilan birinchi marta odamga o'xshab gaplashishi edi.

Bemor qichqirmoqchi bo'ldi.

Odam barmog'ini labiga qo'yib «jim!» dedi.

– Graf Monte-Kristo! – dedi pichirlab Valentina.

Qizning ko'zlarini vahima bosdi, u shosha-pisha titragancha qo'llari bilan ko'rpani ustiga tortdi; demak, endi sharpa haqiqiy odam ekanligiga uning hech qanday gumoni qolmagandi. Shu bilan birga Monte-Kristoning shunday bemahalda qanday qilib sirli, g'ayri tabiiy holda devordan o'tib, bu erda paydo bo'lganligiga qiz hech tu-shunolmasdi.

– Qo'rqmang, qichqirmang, – dedi graf, – xotirjam bo'ling, aslo cho'chimang; qarshingizda turgan odam, Valentina, bu gal sharpa emas, haqiqiy odam, eng mehribon do'st va havas qilsa arziydigan hurmatli ota.

Qarshisida sharpa emas, haqiqiy odam turganligini tasdiqlovchi bu ovoz unga shu qadar dahshatli eshitildi-ki, Valentina un chiqarishga ham qo'rqdi. Biroq uning qo'rquv to'la ko'zlari: «Niyatingiz pok ekan, bemahalda bu erda nima qilib yuribsiz?» – deb turardi.

Nihoyat, ziyrak Monte-Kristo qizning ko'nglidan nimalar kechganini darhol fahmladi.

– Gapimga quloq soling, – dedi graf, – to'g'rirog'i, mening rangi ro'yimga, qizargan ko'zlarimga, odatdagidan battar bo'zargan yuzlarimga bir nazar tashlang: to'rt kundan buyon kechalari mijja qoqmay sizni qo'riqlab chiqdim, sizni balo-qazolardan asradim, do'stimiz Maksimilian uchun sizni himoya qildim.

Quvonchdan qizning yuziga qon yugurdi; graf tilga olgan nomni eshitgach, unda shubha-gumondan asar ham qolmadi.

– Maksimilian!.. – takrorladi Valentina sevinib. – Maksimilian! Demak, u sizga hamma yurak sirlarini aytib beribdi-da?

– Hammasini. U menga, Valentina mening jonim, hayotim, dedi. Men unga, sizni o'lmaydi, yashaydi, deb va'da berdim.

– Siz unga, meni o'lmaydi, deb va'da berdingizmi?

– Ha, va'da berdim.

– Siz meni qo'riqlayapman, muhofaza qilyapman, de-

dingiz. Siz hali doktormisiz?

– Ha, Parvardigorning o‘zi yo‘lladi bu doktorni sizga.

– Tunlari mijja qoqmay chiqdim, dedingiz, – so‘radi Valentina yana. – O‘sha tun chog‘lari qayerda edingiz? Men sizni ko‘rmadim-ku.

Graf qo‘li bilan kitob javonini ko‘rsatdi.

– Ana shu eshik orqasida, – dedi u, – bu eshik men ijaraga olgan qo‘shni uyga olib chiqadi.

Valentina xijolat tortib qizardi-da, orqasiga o‘girilib oldi.

– Janob, – dedi u dahshatga tushib, – bu qilig‘ingiz o‘ta odobsizlik-ku, siz meni haqorat qilibsiz.

– Valentina, – dedi graf, – ana shu uyqusiz uzoq tunlari mening ko‘zlarim faqat sizning huzuringizga kimlar kirib chiqayotganida, sizga qanaqa ovqatlar tayyorlab keltirayotganlarida, qanaqa ichimliklar berayotganlarida bo‘ldi; ichimlik menga xavfli ko‘rinishi bilan, hozirgidek, sekin kirib stakandagi suyuqlikni to‘kib tashladim; zahar o‘rniga shirin ichimlik quyib qo‘yaverdim; bu ichimlik sizga ajal emas, hayot bag‘ishlardi.

– Zahar! Ajal! – qichqirib yubordi Valentina yana alah-sirayapman deb o‘ylab, – nima deyapsiz, janob?

– Jim, qizalog‘im, jim, – dedi Monte-Kristo yana bar-mog‘ini labiga qo‘yib, – ha, men zahar dedim; ajal dedim; yana qaytaraman: ajal, qo‘ying bu gaplarni, mana bu dorini iching (graf cho‘ntagidan qip-qizil suyuqlik solingan shisha olib stakanga uch-to‘rt tomchi tomizdi). Mana shuni iching-da, so‘ng tun bo‘yi og‘zingizga hech narsa olmang.

Valentina qo‘lini uzatdi, biroq stakanga tegishi hamon qo‘rqib ketdi-da, qo‘lini tortib oldi.

Monte-Kristo stakanni olib, suyuqlikning yarmini ichdi, so‘ng Valentinaga uzatdi; qiz jilmayib, qolganini ichib yubordi.

– Tunda ichayotgan dorilarimning ta‘mi ham xuddi shu-naqa edi, – dedi Valentina. – U hamisha meni dilxush etar va fikrimni ravshanlashtirardi. Rahmat sizga, janob.

– Siz, Valentina, mana shu dori bilan to‘rt kecha jon saqladingiz, – dedi graf. – Men-chi? Men bu tunlarni qanday o‘tkazganimni bilasizmi? Naqadar og‘ir, mushkul bo‘ldi bu damlar menga! Har gal stakaningizga o‘tkir zaharni quyayotganlarini ko‘rib, ishqilib, men borib to‘kib tashlamaguncha dorini ichib qo‘ymasin-da, deb ko‘p azoblar chekdim.

– Janob, – dedi Valentina o‘taketgan darajada vahimaga tushib, – stakanimga o‘tkir zahar quyayotganlarini ko‘rib ko‘p azob chekardim, dedingizmi? Demak, zaharni quygan kishini ko‘ribsiz-da, shundaymi?

– Ha, ko‘rdim.

Valentina to‘shakdan qaddini bir oz ko‘tardi; oppoq siynasini bezgak teri ho‘l qilib yuborgan guldor ko‘ylagi bilan bekitdi-da:

– Ko‘rdingizmi? – deb so‘radi takroran.

– Ha, ko‘rdim, – javob berdi graf.

– Qanday dahshat, janob, sizning shunday yovuz niyatli dushmaningiz bor deb ishontirmoqchimisiz meni? O‘z otamning uyida, o‘z xonamda meni hamon o‘ldirmoqchi bo‘lyaptilarmi-ya? Keting bu erdan, siz meni vijdon azobiga solyapsiz, siz Tangrimning marhamatiga bo‘hton qilyapsiz; men bunga ishonmayman, bunday bo‘lishi aslo mumkin emas!

– Axir, bu yovuz niyatli dushmaningizning qurboni bo‘lgan birgina siz emassiz-ku, Valentina?.. Markiz de Sen-Meran, uning ketidan markiza de Sen-Meran va Barruaning halok bo‘lganini o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rmaganmidingiz? Agar boshqa bir zahar bilan zararsizlantirib turilmaganida, janob Nuartega ham berilgan zahar uni allaqachon halok qilishi mumkin edi-ku!

– E, Parvardigor, – dedi Valentina, – buvam bechora shu vajdan men ichayotgan dorini ichgin, deb talab qilgan ekan-da.

– O‘sha ichimlikning ta‘mi quritilgan apelsin po‘chog‘ining ta‘miga o‘xshaydimi?

– Ha, xuddi o‘zi!

– Mana endi hammasi menga ravshan bo'ldi! – dedi Monte-Kristo. – Chol sizni zaharlaganlarini va hatto bu zaharni kim berayotganini bilarkan-da. U sizni ham, o'zining eng sevimli nabirasini ham o'sha o'tkir doriga o'rgatayotgan ekan-da; demak, o'tkir dorining, to'g'rirog'i, zaharning ta'siri kuchsizlantirilibdi-da. Tirik qolganingizning boisi, mana, nimada ekan; men esa, bundan to'rt kun muqaddam bedavo zaharni ichirganlaridan keyin qanday qilib tirik qolganligingizning sababini bilolmay garang edim.

– Zahar berayotgan qotil kim? Ayting axir.

– Endi savolni men sizga beraman: xonangizga kechasi biror kimsa kirganini ko'rdingizmi?

– Ko'rdim, ko'pincha allaqanday ko'lankalarni ko'rdim; ular menga yaqinlashar, so'ngra uzoqlashib, ko'zdan g'oyib bo'ladilar. Biroq men ularni arvohlar, sharpalar deb o'yoldim; bugun siz kirganingizda ham alahlayapman yoki tush ko'ryapman deb o'ylagandim.

– Bundan chiqdi, siz hali joningizga kim qasd qilayotganini bilmas ekansiz-da?

– Bilmayman, – dedi Valentina, – menga o'lim tilayotgan zot kim ekan?

– Hozir bilib olasiz, – dedi Monte-Kristo qulog'ini ding qilib.

– Qanday qilib? – so'radi Valentina qo'rqinch bilan atrofga alanglab.

– Sizni hozir bezgak tutayotgani yo'q, alahsirayotganingiz ham yo'q, es-hushingiz joyida; yarim kecha, qotil xuddi shu paytda keladi.

– E, Xudoyim, o'z panohingda asragin! – dedi Valentina peshanasini ushlab.

Soatning qoq yarim tunga urayotgan har bir bongi qizning yuragiga to'qmoq bo'lib tushardi.

– Valentina, – davom etdi graf, – bardam bo'ling, yuragingizni bosib, un chiqarmay, o'zingizni qattiq uyquga soling, ana shunda qotilni ko'rib olasiz.

Valentina grafning qo'lidan mahkam tutdi.

– Oyoq tovushi eshityapman, – dedi u, – keting tezroq!  
– Alvido, yoki to‘g‘risi, ko‘rishguncha xayr, – javob qildi graf.

Graf g‘amgin holda otalarcha jilmayib asta kitob javoni orqasiga o‘tdi, qalbi minnatdorlik tuyg‘usiga to‘la qiz uning orqasidan qarab qoldi.

Graf eshikni bekitish oldidan yana Valentinaga tomon o‘girildi-da:

– Qimir etmay, un chiqarmay yotavering, – dedi, – sizni qattiq uyquda deb bilsin u; aks holda men etib kelguncha sizni o‘ldirib qo‘yishi mumkin.

Graf shu dahshatli so‘zlarni aytdi-da, eshikni bekitib, g‘oyib bo‘ldi.

#### **IV. LOKUSTA<sup>19</sup>**

Valentina yakka o‘zi qoldi. Filipp Rulskiy soatidan keyinda qolgan ikkita boshqa soat ham yarim kechaga bong urdi. So‘ng hamma yoqni sukunat bosdi, faqat uzoq-uzoqdan g‘ildiraklarning tovushi eshitilardi.

Valentinaning butun diqqati mayatnigi soniyalarni urayotgan soatda edi. U soniyalarni sanar ekan, yuragi undan ikki baravar tez urayotganini sezdi.

Biroq Valentina hamon shubhada edi – nahotki, shunday bokira qizning joniga qasd qilsalar? Nima uchun? Qanday gunohi uchun unga o‘lim tilash mumkin? Dushman orttiradigan biror yomonlik qilgani yo‘q-ku?

Valentinaning uyqusi o‘chib ketdi.

Unga birgina narsa azob berardi: demak, bu dunyoda uni o‘ldirmoqchi bo‘lgan va yana o‘ldirishga harakat qilayotgan kimsa bor ekan-da.

Bordi-yu, qotil zahar ta‘sir qilmayotganini sezib, Monte-Kristo aytganidek, qurol ishlatsa, unda nima bo‘ladi? Graf qizga yordam berishga ulgurmasa-chi? Bordi-yu, bu hayotining so‘nggi daqiqalari bo‘lib, Morrelni ko‘rolmay qolsa-chi?



Shu kabi mudhish xayollar uni qattiq vahimaga soldi, vujudi muzlab, titroq bosdi; yordam so'rab qo'ng'iroq chalishiga oz qoldi. Biroq kitob javoni orqasidan Monte-Kristoning ko'zlari tikilib turgandek tuyuldi-yu, o'zini qo'lga oldi.

Shu tariqa yigirma daqiqa o'tdi, bu yigirma daqiqa yigirma yildek tuyuldi unga; so'ng yana o'n daqiqa o'tdi: oxiri soat qattiq bir bong urdi.

Shunda graf javonning eshigini tirnab, o'zining uyg'oq ekanligini bildirdi va Valentinaга tasalli bergandek bo'ldi.

Ayni vaqtda ro'baro'da, Eduar bo'lmasi tomondan parket pol g'ijirladi; Valentina qulog'ini ding qilib qimir etmay yotaverdi; tutqich shiqirlab eshik ochildi. Valentina o'zini yostiqa otib, tirsagi bilan yuzini bekitib olishga zo'rg'a ulgurdi.

U dag'-dag' titrardi, yuragi yorilgudek bo'lib, bu yog'i nima bo'lishini kutdi.

Kimdir kelib karavot pardasini ushladi.

Valentina bor irodasini to'plab, uyqudagi kishidek bir tekisda nafas olib yotaverdi.

– Valentina! – dedi sekin kimdir.

Qizning butun vujudi zirillab ketdi, ammo g'ing demadi.

– Valentina! – takrorlandi ovoz. Yana jimlik; Valentina grafga uyg'onmaslikka va'da bergan edi.

Shu payt hozirgina dori ichgan stakanga bir nima quyilayotganini qiz aniq eshitdi. Shunda u ko'zini xiyol ochib, qo'l ostidan qaradi. Yupqa oq ko'ylakli ayol uning stakaniga shishadan qandaydir suyuqlik quyayotgan edi.

Bir daqiqa Valentinaning yo nafasi to'xtadi, yoki qimirlab qo'ydi shekilli, ayol cho'chib tushdi va to'shakka engashib, qiz uyqudami-yo'qmi tekshirib oldi. Bu de Vilfor xonim edi.

Valentina o'gay onasini ko'rdi-da, a'zoyi badani shunaqangi qattiq titradiki, hatto karavot ham silkinib ketdi.

Vilfor xonim parda orqasiga o'tib, Valentinaга diqqat bilan tikilganicha devorga qapishib turaverdi.

Qiz Monte-Kristoning ogohlantirishlarini esga oldi; o'gay onaning qo'lida pichoq yaltiragandek tuyuldi unga. Shundan so'ng Valentina zo'r berib yana ko'zini yumishga urindi, biroq sho'rlik qizning kuchi etmadi, haqiqatni bilib olish istagi ko'zlarini yumdirmasdi.

Shu orada de Vilfor xonim jimjitlikda Valentina bir tekis nafas olayotganini eshitib, uxlayapti degan xayolga bordida, yana qo'lini cho'zib, Valentina stakaniga shishada qolgan suyuqlikni quydi. So'ng nihoyatda ohista qadam tashlab chiqib ketdi; hatto Valentina uning oyoq tovushini eshitmadi, faqat endigina yigirma besh bahorni ko'rgan nozanin juvonning stakanga ajal sharobi quyayotgan qo'li g'oyib bo'lganini ko'rdi, xolos.

Vilfor xonim hozir bo'lgan shu bir yarim daqiqalik vaqt Valentina uchun qanchalik og'ir kechganini tasavvur qilish qiyin. U zo'rg'a boshini ko'tardi; javon eshigi asta ochilib, yana graf Monte-Kristo paydo bo'ldi.

– Xo'sh, – dedi u, – haliyam ishonmaysizmi?

– Yo, alhazar! – dedi pichirlab Valentina.

– Ko'rdingizmi?

– Ko'rdim.

– Tanidingizmi?

Valentina yig'lab yubordi.

– Tanidim, – dedi qiz, – ammo hech ishongim kelmayapti.

– Demak, joningizga qasd etish va Maksimilianni ham tiriklayin go'rga tiqishni istar ekansiz-da!..

– E, Xudoyim, o'zing saqla bu balolardan! – dedi Valentina, u o'zini aqldan ozayotgandek sezdi. – Nahotki, uydan chiqib, qochib ketolmasam? Nahotki?

– Valentina, sizning joningizga qasd qilayotgan kimsa sizga hech erda tinchlik bermaydi, qayerga borsangiz orqangizdan etib boradi-da, joningizga chang soladi; dunyoda oltindan kuchli narsa yo'q, u bilan xizmatkorlarinigizni sotib oladi va hamma narsaga siz uchun ajal urug'i sepib qo'yiladi: har bir ho'plam buloq suviga ham, daraxtdan uzib olingan mevaga ham...

– Axir buvangiz sizni ham zaharga bardosh beradigan qilib oʻrgatib qoʻygan, dedingiz-ku oʻzingiz?

– Toʻgʻri, lekin faqat bir xil zaharga, oʻshandayam oz miqdordagisiga, biroq boshqa zahar berishlari yoki shuning oʻzini koʻproq quyishlari mumkin.

Graf stakanni oldi-da, suyuqlikni labiga tekkizib koʻrdi.

– Xuddi aytganimdek boʻlib chiqdi! – dedi u. – Sizni endi bursin bilan emas, oddiy narkotik bilan zaharlamoqchi boʻlishibdi. Bunda oʻsha zahar qoʻshilgan spirtning taʼmi bor, Valentina; mabodo siz hozir Vilfor xonim quygan zaharni ichganingizda, allaqachon dunyodan oʻtgan boʻlur edingiz!

– E, Xudoyim! – xitob qildi qiz. – Axir nega ular menga qasd qilishyapti?

– Tavba, odam ham shunchalik sodda boʻladimi-ya? Nahotki, siz johillik, gʻarazgoʻylik, yovuzlik bu dunyodagi odamlarning suyak-suyagiga singib ketganidan loaqal ozroq boʻlsa-da, xabardor boʻlmasangiz? Haliyam tushunmadingizmi?

– Yoʻq, hech aqlim etmayapti, – dedi Valentina, – axir men unga hech yomonlik qilganim yoʻq-ku.

– Siz, Valentina, boysiz, ikki yuz ming livr yillik daromadga egasiz; bu ikki yuz mingdan uning oʻgʻlini mahrum qilyapsiz.

– Nega endi? Axir bu pulga uning hech daxli yoʻq-ku? Bu menga buvalarimdan qolgan meros-ku?

– Toʻgʻri, markiz va markiza de Sen-Meranlar ham shu vajdan oʻlib ketishdi; yaʼni ulardan qolgan mol-mulk sizga, sizning qoʻlingizga oʻtishi kerak edi; Nuarte ham sizni oʻzining merosxoʻri qilib belgilagan kuni unga ham hukm chiqarib qoʻyishdi; sizni oʻldirmoqchi boʻlayotganlarining boisi ham mana shunda, Valentina, siz oʻlsangiz, butun meros otangizga qoladi; ukangiz esa otadan soʻng yagona farzand sifatida merosxoʻr boʻlib qoladi.

– Shoʻrlik Eduar! Bu jinoyatlarning hammasi uni deb qilinayotgan ekan-da!

– Mana endi tushunibsiz!

- E, Tangrim, bu balolardan saqla uni!
- Siz chinakam farishtasiz, Valentina!
- Buvamni-chi? Unga rahm qilishibdi-da!
- Unday emas, siz dunyodan o'tgach, buvangizning mol-mulki (agar u Eduarni o'zi bundan mahrum etmasa) baribir, ukangizniki bo'lib qoladi, degan fikrga kelib, janob Nuartega tegishmayaptimi; garchi bu jinoyatdan hech qanaqa naf bo'lmasa-da, lekin xavfi ko'p.
- Ayol kishi ham shuncha yovuzlikka borar ekan-da, a? Yo, alhazar!
- Perujani, pochta mehmonxonasidagi shiyponni va jigar rang yomg'irpo'sh kiygan odam bilan o'gay onangiz o'rtasidagi suhbatni eslang. Bu yovuz niyat uning dilida o'shanda tug'ildi.
- Oh, graf, – xitob qildi qiz ko'zlari jiqqa yoshga to'lib, – unday bo'lsa, men xarob bo'ldim!
- Yo'q, Valentina, yo'q. Men hammasini oldindan ko'rib qo'ydim; dushmaningizni bilib oldik, endi u halokatga yuz tutdi; siz esa, Valentina, yashaysiz, sevish va sevilish uchun yashaysiz; pok va olijanob qalbni baxtiyor etish uchun yashaysiz; faqat bir shart bor: siz butunlayin menga suyanishingiz kerak.
- Buyuring, graf, nima qilay?
- Men nima bersam, shuni ichasiz.
- Hammasi Yaratganning o'ziga ayon, – dedi Valentina, – yolg'iz bo'lsaydim, o'lganim yaxshi deb qo'ya qolar-dim.
- Hech kimga, hatto otangizga ham bu haqda hech nima demang.
- Lekin, otam bu yovuz ishga hecham aralashmagan bo'lsa kerak, shundaymi graf? – dedi Valentina.
- To'g'ri, aralashgani yo'q; ammo jinoyatchilarni fosh etishda qo'li qavargan otangiz xonadonida bu o'lishlar tabiiy emasligini anglashi, gumonga borishi kerak edi: sizni otangizning o'zi muhofaza qilmog'i, hozir mening o'rnimda bo'lmog'i lozim edi: bu suyuqlikni o'zi sinab

ko'rib, qotilga qarshi jang qilmog'i zarur edi. – Graf so'zining oxirida asta: – «Sharpa sharpaga qarshi», – deb qo'ydi.

– Men, graf, tirik qolish uchun qo'limdan kelgan hamma choralarni ko'raman, – dedi Valentina, – ikki kishi uchun – buvam va Maksimilian uchun yashashim kerak, chunki dunyoda shu ikkisi meni jonidan yaxshi ko'radi; men o'lsam, ular ham o'ladi.

– Men ularni ham siz kabi muhofaza qilaman.

– Qani ayting, men nima qilishim kerak? – so'radi Valentina, so'ng pichirlab: «Oh, Tangrim, bu sho'rlik boshimga tag'in ne savdolar tusharkin-a?» deb qo'ydi.

– Hech narsadan qo'rqmang, Valentina; har qanday azobga bardosh bering, ko'zdan, quloqdan, his etish qobiliyatidan judo bo'lsangiz ham vahimaga tushmang, hatto tobut ichida hushingizga kelsangiz ham parvo qilmang, hushingizni yig'ib oling-da, o'z-o'zingizga: «Shu daqiqada ham meni do'stim, otam, menga va Maksimilianga baxt in'om etishga jon kuydirib intilayotgan zot qo'riqlab turibdi», deb ishonavering.

– Yo, tavba, rostdanam shunday qilish kerakmi-ya?

– Yoki o'gay onangizni qo'lga tushirib bera qolasizmi?

– Yo'q, yo'q, bunday qilgandan ko'ra o'lganim yaxshi!

– Siz o'lmaysiz, Valentina. Boshimga har qanday falokat tushganda ham oh-voh qilmayman, deb va'da berasizmi menga?

– Fikru xayolim faqat Maksimilianda bo'ladi.

– Men, Valentina, sizni o'z qizimdek sevaman; faqat men sizni bu falokatdan qutqara olaman va albatta qutqaraman.

Valentina sig'inayotgandek qo'llarini qovushtirdi, hozirgi dahshatli onlarda faqat Yaratganning o'zi madad berishi mumkin, deb pichirlardi: elkasini uzun sochlari bekitib, penyuarasining<sup>20</sup> to'ri orasidan uning yuragi qanday urayotgani ko'rinib turardi.

Graf qizning qo'lini asta ushladi, baxmal ko'rpani elkasiga tortib qo'ydi va otalarcha tabassum-la:

– Oppog‘im, – dedi, – Tangrining mehri-shafqatiga va Maksimilianning muhabbatiga qanchalik ishonsangiz, menga ham shunchalik ishonavering.

Valentina xuddi yuvosh go‘dak singari grafga ko‘zlari ni mo‘ltillatib qarab qo‘ydi.

Shundan so‘ng graf kamzuli cho‘ntagidan zumrad idishni chiqarib, oltindan yasalgan qopqog‘ini ochdi-da, no‘xatdek dorini Valentinaning kaftiga qo‘ydi.

Valentina dorini olib diqqat bilan grafga tikildi; jasur xaloskorining chehrasida ilohiy qudrat va olijanoblik barq urib turardi. Valentina: «Yutib yuboraveraymi?» degandek qarardi.

– Ha, yutib yuboring, – dedi Monte-Kristo.

Valentina dorini tili ustiga qo‘yib yutib yubordi.

– Xayr endi, oppog‘im, – dedi graf. – Endi borib uxla-sam bo‘ladi, chunki siz falokatdan xalos bo‘ldingiz.

– Boring, uxlab orom oling, – dedi Valentina, – endi sira ham qo‘rqmayman, deb va‘da beraman sizga.

Monte-Kristo narkotikning ta‘siri bilan asta uyquga ketayotgan qizga uzoq tikilib turdi.

So‘ngra u stakanni olib, go‘yo Valentina ichibdi, deb o‘ylasin uchun undagi suyuqlikning to‘rtdan uch qismini toshpechga to‘kdi, stakanni yana stol ustiga qo‘ydi; so‘ng kitob javoni oldiga bordi-da, Valentinaga tag‘in bir ko‘z tashlab, g‘oyib bo‘ldi. Qiz esa Tangrining oyog‘i ostida orom olayotgan pari singari tinchgina uyquga ketgan edi.

## **V. VALENTINA**

Toshpech ustidagi shamchiroq piligi suv yuzida qalq-ib yurgan oxirgi moy tomchilarini shimib, hamon yonmoqda; mana, birpasda ganch qalpoqcha tevaragida qizg‘ish halqacha paydo bo‘ldi, chirsillab yonayotgan sham alangasi o‘zining so‘nggi nurlarini socha boshladi; zotan, xuddi odamlar singari jonsiz mavjudotlarda ham o‘lim oldi talvasasi yuz beradi. Xira, mudhish yog‘du

Valentina to'shagining oppoq pardasi ustiga sarg'ish shu'la tashlab turardi.

Ko'cha shovqini tugab, hamma yoqni vahimali sukunat bosdi.

Shu payt Eduar bo'lmasining eshigi ochildi-da, ro'padagi oynada boya biz ko'rgan bashara ko'rindi; Vilfor xonim haligi zaharning ta'sirini aniqlash uchun kelgan edi.

U ostonada to'xtab, shamchiroqning chirsillashiga bir zum quloq solib turdi-da, ohista qadam tashlab stol yoniga keldi va stakanni ko'zdan kechirdi. Chorak stakan suyuqlik qolgani bizga ma'lum.

Vilfor xonim stakandagi qoldiq suyuqlikni toshpechga to'kib, ustiga kul tashladi, so'ngra stakanni tozalab yuvib, ro'molchasi bilan artirdi va boyagi joyiga qo'ydi.

U ancha vaqtgacha karavot yoniga borishga va Valentinaga nazar tashlashga jur'at etolmay turdi.

Xira chiroqning vahimali shu'lasi, jimjitlik, qop-qorong'i sokin tun uning yuragini titratdi: manfur ayol o'zining mudhish ishidan qo'rqib ketdi.

Oxiri yuragini bosib, o'zini qo'lga oldi-da, qizning karavoti yoniga bordi, pardani ko'tardi va egilib Valentinaga razm soldi.

Qiz nafas olmay yotardi; uning lablari qimir etmasdi, qovoqlari bir oz ko'karib shishgan va qop-qora o'siq kipriklari za'faron yuziga soya solib turardi.

Vilfor xonim qonsiz chehraga uzoq tikilib turdi; so'ngra ko'rpani bir oz ko'tarib, qizning ko'ksiga qo'lini qo'ydi-da, yuragini tekshirdi. Valentinaning yuragi urmasdi.

Xonimning qo'li titrab ketdi, sezgan zaif zarbalar o'z tomirining urishi edi, u cho'chib, qo'lini tortib oldi.

Valentinaning karavotdan pastga osilib tushgan qo'li elkasidan to bo'g'inigacha, Jerman Pilan sayqal berganday silliq, biroq tomiri tortishganidan panjalari xiyla o'zgarib, bir-biriga yopishib qolgan nozik barmoqlari karavotning qizg'ish yon taxtasi ustida yotardi.

Tirnoqlarining zihi ko'karib ketgandi. Vilfor xonim,

hamma ish tamom bo'ldi, mudhish rejam oxirigacha bekamu ko'st ado etildi, deb juda qattiq ishongan edi. Endi bu xonada qiladigan ishim qolmadi, deb o'yladi-da, hatto o'z oyog'i tovushidan ham qo'rqib, asta orqaga tisarildi; o'limning o'zida engib bo'lmas jozibani yashirgan bu manzarasi uni aqldan ozdirgan edi, chunki u hozir o'limni judolik emas, shunchaki harakatdan qolgan bir paytda, chirib yo'q bo'lish emas, sirli bir holatda ko'rib turardi. U hamon karavot pardasini kafan kabi qizning boshida tutib, qimir etmay yotgan «murda»ga tikilganicha o'ylaganda, bu – jinoyatchining vijdon azobiga tushishi edi. Chiroq charsillab ketdi.

Vilfor xonim cho'chib, pardani qo'yib yubordi. Shu zahoti chiroq o'chib xonani qorong'ilik bosdi.

3imistonda soat tilga kirib, to'rt yarimga bong urdi.

Jinoyatchi dag'-dag' qaltiraganicha paypaslab eshikni topdi-da, o'z xonasiga qaytdi. U qora terga tushgan edi. 3im-ziyo xonadagi bu sukunat yana ikki soat davom etdi. Keyin asta-sekin deraza qopqoqlari orasidan tushayotgan nurdan xona ichi yorisha boshladi, bora-bora har bir buyum ko'zga aniqroq ko'rina boshladi.

Bir ozdan keyin zinada yo'tal tovushi eshitildi va Valentinaning xonasiga qo'lida piyola bilan hamshira kirdi.

Valentinaning shu holda yotganini otasi, sevgilisi ko'rganda uni o'lganga chiqarib qo'ya qolardi, ammo yollangan bu ayol qizni uyquda deb qo'ya qoldi.

– Ha, – dedi u tungi stolcha yoniga kelib, – demak, dorining bir qismini qiz ichibdi-da: stakanning uchdan ikki qismi bo'sh.

So'ng toshpech oldiga kelib o't yoqdi-da, o'rindiqqa cho'kdi; to'shakdan hozirgina turganligiga qaramay, Valentinaning uyqudaligidan foydalanib yana bir oz mizg'ib olmoqchi bo'ldi.

U soat sakkizda uyg'ondi-da, qizning hamon uyqudaligi, qo'li shu holicha osilib, qimir etmay yotganidan xavotirlanib, karavot yoniga bordi va bemorning ko'kargan jonsiz lablarini, ko'ksi muzlab yotganini ko'rib quti o'chib



ketdi.

U, qizning qo'lini ko'tarmoqchi bo'ldi, ammo qo'l qotib qolgan edi. Ayol yuz bergan voqeani fahmladi-da, qichqirib eshik tomonga yugurdi.

– Yordam bering! Yordam!

– Nima gap? – dedi pastdan d'Avrini. U har kuni shu vaqtda kelardi.

– Nima bo'ldi? – Vilforning ovozi eshitildi; u kabinetidan yugurib chiqqan edi. – Doktor, eshityapsizmi, yordamga chaqirishyapti?

– Eshitdim, eshitdim, – javob qildi doktor d'Avrini, – yuring tezroq, Valentinaning xonasiga boraylik.

Ota va doktor etib kelguncha boshqa xonalar va dahlizlarda yurgan xizmatchilar bemor huzuriga kirib kelgan va karavotda o'lib yotgan Valentinani ko'rib esxonalari chiqib ketgan edi.

– Vilfor xonimni chaqiring, uyg'oting, – qichqirdi o'zini yo'qotib ostonadan jilolmay qolgan qirolik prokurori.

Biroq xizmatchilar uning buyrug'ini eshitmay, yugurib borib Valentinaning boshini ko'tarib olgan d'Avriniga baqrayib qarab qolishgandi.

– Endi bu ham olamdan o'tdimi?.. – dedi doktor pichirlab, qizning boshini yostiqqa qo'yarkan. – E, Tangrim, bu balodan qachon qutulamiz?!

Xonaga Vilfor yugurib kirdi.

– Nima dedingiz, doktor?.. Nima?.. – dedi u qichqirib.

– Valentinadan judo bo'ldik deyapman, ha, judo bo'ldik, u dunyodan o'tdi, – dedi d'Avrini qat'iy.

Vilfor gurs etib o'zini tashladi-da, cho'kkalab qoldi, boshi shilq etib Valentina to'shagiga tushdi.

Doktorning bu dahshatli so'zlarini va otaning qichqirig'ini eshitgan xizmatchilar xonadonga la'natlar o'qib «guv» etib tashqariga qochishdi: zinalardan va dahlizlardan ularning yugurishgani va hovliga chiqib shovqin ko'tarishgani eshilib turardi. Birpasdan keyin hamma yoq jimjit bo'lib qoldi: xizmatchilarning hammasi Xudoning qahriga uchragan bu xonadondan vaqtda qochib

qolishgan edi.

Shu on ostonada de Vilfor xonim paydo bo'ldi-da, o'zini sarosimaga tushganga soldi, hatto ko'z yoshi to'kdi. Keyin birdan rangi bo'zarib, qo'lini oldinga cho'zgancha stol tomonga yugurdi. U kecha o'z qo'li bilan bo'shatib ketgan stakanni d'Avrini engashib, diqqat bilan ko'zdan kechi-rayotganini ko'rdi.

Stakanda kuni kecha toshpechga to'kib tashlagan yana o'shancha suyuqlik bor edi.

Shu payt Valentinaning arvohi ro'baro'sida paydo bo'lganida ham bu murtdad ayol bunchalik hayajonga tushmasdi.

Suyuqlikning rangi kechagining o'zginasi edi, ammo bu narsa d'Avrini chalg'ita olmadi; doktor stakanga hamon diqqat bilan tikilib turardi. Demak, qotil qanchalik hiylakor bo'lmasin, jinoyatning izi qolgan, bu – dalil tayyor, degani, demak, jinoyat fosh etiladi.

Vilfor xonim qo'rquv va dahshat ichida taxta bo'lib qoldi, Vilfor esa marhuma to'shagida yuz tuban yotganidan hech narsani ko'rmasdi. D'Avrini deraza oldiga kelib, stakandagi suyuqlikni yana diqqat bilan ko'zdan kechirdi, barmog'ining uchini tekkizib ko'rdi.

– Bu bursin emas butunlay boshqa-ku, – dedi pichir-lab, – qani, tekshirib ko'raylik-chi, bu qanaqasi ekan!

U dorixonaga aylantirilgan javon oldiga keldi-da, kumush idishdan azot kislotasi solingan shishachani olib, stakanga bir necha tomchi tomizdi; suyuqlik darhol qip-qizil qon tusiga kirdi.

– A-ha! – dedi d'Avrini, xuddi haqiqat ayon bo'layotganini ko'rib nafrati qo'ziyotgan sudyaga yoki murakkab masalani echib quvonayotgan olimga o'xshab.

Vilfor xonim atrofga alangladi, ko'zlari kosasidan chiqib ketdi, gandiraklab-gandiraklab zo'rg'a eshik tutqichini topdi-da, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Bir daqiqa o'tar-o'tmas «gup» etib yiqilgan gavdaning tovushi eshitildi. Biroq bunga hech kim e'tibor bermadi. Hamshira doktordan ko'zini uzmas, Vilfor boyagi ahvolda

edi.

Faqat d'Avrini de Vilfor xonim shoshib chiqib ketgani uning orqasidan ko'rgan edi. U pardani ko'tarib, Eduar xonasidan yotoqxonaga ko'z tashladi: de Vilfor xonim erda qimir etmay yotgan edi.

– Yotoqxonaga boring, – dedi doktor qorovul ayolga, – de Vilfor xonimning ahvoli chatoq.

– Mademuazel Valentina-chi? – dedi zo'rg'a ovoz chiqarib ayol.

– Mademuazel Valentinaga endi hech qanday yordamning hojati yo'q, – dedi d'Avrini, – qiz dunyodan o'tdi.

– O'ldi! O'ldi! – dedi faryod urib Vilfor, ammo faryod toshbag'ir bu zotga aslo yarashmayotgan edi.

– Nima deyapsiz! O'ldi? – qichqirdi uchinchi ovoz. – Kim o'ldi deyapti, Valentinami, kim?

Vilfor va doktor orqaga o'girildi; eshik oldida hayajondan titrab-qaqshab Morrel turardi.

Shu orada quyidagi voqea yuz bergan edi.

Har galgidek belgilangan vaqtda Nuarte xonasiga olib boradigan kichik eshikdan Morrel kirib keldi. Eshik qulflanmagan edi, u qo'ng'iroq urmasdan kirib kelaverdi.

Nuarte huzuriga boshlab kiradigan xizmatchini chaqirib, bir oz kutib turdi. Ammo hech kim chiqmadi; ma'lumki, barcha xizmatchilar bu xonadonni tashlab chiqib ketgan edi.

Monte-Kristo: Valentina o'lmaydi, hayot qoladi, deb va'da qilganidan Morrel uncha xavotirlanmasdi, graf ham va'dasiga vafo qilib har oqshom unga Valentinaning so'g'lig'i haqida xushxabar keltirar, ertasiga bu xushxabarni Nuarte tasdiqlardi.

Biroq bu gal uyda hech kimning yo'qligini ko'rib uning yuragi «shuv» etdi. Ketma-ket uch marta chaqirdi, biroq hech kim sas-sado bermadi.

Shundan keyingina u yuqoriga chiqishga qaror qildi.

Nuarte eshigi ham boshqa eshiklar kabi ochiq edi.

Morrel birinchi bo'lib cholga yuzlandi; chol o'z o'rindi-g'ida o'tirgan edi; u devordek qotib qolgan, ko'zlari vahi-

madan olayib ketgan edi.

– Qalaysiz, taqsir? – so‘radi Morrel yuragi bir narsani sezayotgandek, o‘ynab.

– Durustman, – imo qildi chol, – durust.

Cholning chehrasida betoqatlik tobora kuchayib bordi.

– Bir oz tashvishli ko‘rinasiz? – davom etdi Morrel, – xizmatchilardan birini chaqiraymi?

– Ha, – dedi Nuarte.

Morrel zo‘r berib qo‘ng‘iroq chaldi, biroq qancha urinmasin, hech kim kirmadi.

U Nuarte tomonga o‘girildi, cholning yuzida qon qolmagandi.

– Yo, alhazar! – dedi Morrel. – Nega hech kim kirmaypti? Yana biror kishining tobi qochib qoldimi?

Cholning ko‘zlari qinidan chiqib ketayotgandek edi.

– Sizga nima bo‘ldi o‘zi? – davom etdi Morrel, – qo‘rqib ketyapman! Yoki Valentinaga bir gap bo‘ldimi?

– Ha! Ha! – dedi imo bilan chol.

Maksimilian og‘zini ochdi-yu, ammo un chiqarolmay, gandaraklab, devorga suyanib qoldi. So‘ng qo‘li bilan eshikni ko‘rsatdi.

– Ha! Ha! Ha! – dedi imo qilib chol. Maksimilian xuddi Nuarte orqadan «tezroq, tezroq», deb qichqirayotganday kichik zina tomonga otilib bordi-da, ikki hatlab pastga tushdi; bir zumda bir necha xonadan o‘tib, Valentina xonasiga kirib bordi. Eshik lang ochiq edi.

Hammadan oldin uning qulog‘iga yig‘i ovozi eshitildi. Ko‘zi g‘ira-shira yorug‘likda cho‘kka tushib o‘tirgan qopqora gavdaga tushdi. Vujudini qamrab olgan kuchli dahshat uni bo‘sag‘aga mixlab qo‘ydi:

Shu payt: «Valentina o‘ldi!» – degan ovoz eshitildi; uning ketidan xuddi aks sadodek yana: «O‘ldi! O‘ldi!» – dedi kimdir.

## VI. MAKSIMILIAN

Vilfor uni shunday holda ko'rib qolganliklaridan xijolat tortib zo'rg'a boshini ko'tardi.

Yigirma besh yildan buyon dahshatli qoralovchi lavozimini egallab kelgan bu zot insoniylik xislatlarini xiyla yo'qotib qo'ygan edi.

Birinchi daqiqalarda sarosimaga tushib olayib ketgan ko'zlarini Maksimilianga tikib:

– Janob, kimsiz o'zingiz? – dedi, – qayerdan keldingiz? Ajal izg'ib yurgan xonadonga bunday qilib kelmaydilar. Keting!

Morrel qimir etmadi, u dahshatli manzaradan, betartib g'ijimlangan to'shakdan va bolishdagi za'faron chehradan ko'zini uzolmasdi.

– Keting deyapman! Eshityapsizmi, keting bu erdan! – qichqirdi Vilfor.

D'Avrini ham Maksimilianni ketishga majbur etish uchun oldiga keldi.

Morrel esa ko'zlarini olaytirib, bir Valentinaga, bir ikki erkakka, so'ng xonaga nazar tashlab chiqdi, aftidan bir narsa demoqchi bo'lib og'iz juftladi, biroq miyasida turli qayg'uli fikrlar jo'sh urayotganiga qaramay, buyruqlarga javoban so'z topolmadi shekilli, boshini changallab tashqariga otildi. Bir daqiqa sarosimaga tushgan Vilfor va d'Avrini uning ketidan qarab qoldilar, so'ng «bu jinni bo'lsa kerak», degandek bir-biriga qarab qo'yishdi.

Ammo, besh daqiqa o'tar-o'tmas zina zalvorli qadamlardan yana g'ijiray boshladi. Morrel ikkinchi qavatga Nuartening o'rindig'ini dast ko'tarib chiqdi-da, yo'lkaga qo'yib, Valentinaning xonasiga g'ildiratib kirdi.

Bu ishni u hayajon ichida jon-jahdi bilan bajo keltirgandi.

Morrel Nuarteni Valentina karavoti yoniga olib borgan-da cholning yuzi nihoyatda bo'zarib, butun kuchi, his-tuyg'ulari uning yonib turgan ko'zlariga jamlangandi.

Buni ko'rgan Vilforning esxonasi chiqib ketdi. Dunyoga kelibdiki har gal otasiga duch kelganda, albatta biror dahshatli voqea yuz beradi.

– Mana, qarang, nima qilib qo'yishdi bular! – qichqirdi Morrel hamon o'rindiq suyanchig'ini bir qo'li bilan tutib va ikkinchi qo'li bilan Valentinani ko'rsatib. – Ko'rdingizmi, ota, nima qilib qo'yishdi!

Vilfor o'zini bir qadam orqaga oldi-da, Nuarteni ota deb atagan notanish yigitga hayron bo'lib qarab qoldi.

Cholning vujudidagi hamma jon go'yo qonga to'la ko'zlariga to'plangandek, peshana tomirlari bo'rtib-bo'rtib chiqqan, bo'yin, yuz va chakkalari ko'karib ketgan edi; butun vujudini larzaga solayotgan bu ichki hayajonga dahshatli qichqiriqina kamlik qilib turardi. Bu tilsiz, unsiz dahshatli qichqiriq go'yo cholning terisidagi hamma teshiklaridan otilib chiqib, butun olamni larzaga solayotgandek bo'lib tuyuldi shu payt.

D'Avrini yugurib cholning oldiga bordi-da, spirt hidlatdi.

– Janob, – dedi shu on Morrel falajning jonsiz qo'lidan tutib, – bular mendan, kimsiz, bu erga kirishga nima haqqingiz bor, deb so'rashyapti. Siz meni bilasiz-ku, kimligimni ayting bularga!

Yigitning o'pkasi to'lib, tomog'iga bir narsa tiqildi-da, tovushi bo'g'ildi, yig'lab yubordi.

Chol to'xtab-to'xtab nafas ola boshladi; bu xuddi o'lim talvasasiga o'xshardi.

Pirovardida, Nuartening ko'zlaridan duv-duv yosh to'ki-la ketdi, chol boshini egolmasdi, faqat ko'zlarini yumardi, xolos.

– Ayting bularga, bu yigit Valentinaning qaylig'i edi, deb ayting! – davom etdi Morrel, – marhuma mening qadrdo-nim, yakkayu yagona sevgilim ekanini ayting! Uning jonsiz jasadi meniki ekanligini ham ayting!

Morrel shunday dedi-da, sevgilisi karavoti yoniga tiz cho'kib, titroq qo'llari bilan ko'rpaga yopishdi.

Shunday zabardast odamning qayg'u-alam o'tida jiz-g'anak bo'layotganini ko'rgan kishi chidab turolmasdi albatta, d'Avrini ko'ngli buzilib ketganini bildirmaslik uchun yuzini bekitib orqaga o'girilib oldi, Vilfor ham en-

dilikda so'roqlariga javob kutmasdi, bironing o'limidan ko'z yosh qilgan kishi odatda ko'pchilikning hurmatiga sazovor bo'ladi; Vilfor ham ana shu ta'sir kuchiga bo'yin egishga majbur bo'ldi-da, Morrelga qo'lini uzatdi.

Ammo, Maksimilianning ko'ziga hech narsa ko'rinmasdi; u Valentinaning muzdek qotib qolgan qo'lini mahkam ushladi-da, choyshab chetini tishlari bilan qisib, ko'z yoshisiz faqat ingrardi.

Bir necha daqiqa bu xonada faqat yig'i, la'nat va duo so'zlari eshitilib turdi. Lekin xonada hamon bir tovush hukmron edi, u ham bo'lsa Nuartening harsillashi. Har bir nafas olganda go'yo uning ko'ksidagi hayot zanjiri uzilib ketayotgandek tuyulardi.

Nihoyat, Vilfor tezda o'zini qo'lga olib, so'zlay boshladi:

– Janob, siz Valentinani sevardim, u mening qaylig'im edi, dedingiz. Men bundan, ya'ni ikkingiz til birliktirib qo'yganingizdan bexabar edim. Shunday bo'lsa-da, men qizning otasi sifatida bu gunohingizni kechiraman, chunki siz unga chinakam kuyinyapsiz. Qayg'u-alamdan kuyib kul bo'lgan bag'rimda g'azab nima qilsin!

Afsuski, sizga baxt va'da qilgan farishta dunyodan o'tdi; endi unga bu dunyoning izzat-hurmatlari bekor, marhuma u dunyoda Tangri odil hukmini kutib yotibdi. Endi qaylig'ingizning jasadi bilan vidolashing; qo'llaridan o'pib, abadiy vidolashing, Valentinaga hozir janoza o'qiydigan ruhoniyaning bo'lak hech kimning keragi yo'q.

– Yanglishyapsiz, janob, – dedi xitob-la bag'ri qon Morrel, bir tizzasida cho'kkalab, – yanglishyapsiz. Valentina olamdan o'tdi, biroq bunday ajal faqat ruhoniynigina emas, qasos oluvchini ham talab qiladi! Janob de Vilfor, qani, chaqiring ruhoniyni, qasosni esa o'zim olaman.

– Janob, bu bilan nima demoqchisiz? – dedi ming'ir-lab Vilfor; u Morrelning dahshatli so'zlaridan cho'chib ketdi.

– Demoqchimanki, siz ikki xil odamsiz: ota sifatida rosa ko'z yoshi to'kdingiz, endi qirollik prokurori sifatida

maydonga chiqing, jinoyatchini topib jazolang.

Nuartening ko'zlari charaqlab ketdi, d'Avrini unga yaqinroq keldi.

– Men bo'lgan gapni aytyapman, – davom etdi Morrel, hozir bo'lganlarning chehrasidan ularning fikrini o'qib, – buni o'zingiz ham yaxshi bilasiz: Valentina o'z ajali bilan o'lgani yo'q, uni o'ldirdilar!

Vilfor erga qarab qoldi, d'Avrini yana bir qadam olg'a siljidi; Nuarte, to'g'ri, deb imo qildi.

– Bizning zamonamizda, – dedi so'zini davom ettirib Morrel, – tirik jon, hatto Valentina kabi yosh va go'zal bo'lmasa-da, zo'ravonlik bilan o'ldirilar ekan, qotilni jazolamaslik mumkin emas. Janob qirolik prokurori, – dedi butun vujudini o't olib borayotgan Maksimilian, – bunda zinhor rahm-shafqatga o'rin bo'lishi mumkin emas! Men jinoyat yuz berdi deyapman, qotilni axtaring, janob prokuror!

Maksimilian Vilforiga eb qo'yguday tikildi; Vilfor esa goh Nuartega, goh doktor d'Avriniga boqib, madad tilardi. Ammo ota bilan doktor Vilforni qo'llash o'rniga, Maksimilianning fikriga qo'shilishdi.

– To'g'ri, – dedi imo bilan chol.

– Ha, yigit haq gapni aytyapti! – dedi d'Avrini.

– Janob, yanglishyapsiz! – dedi Vilfor uchalasining hamlasini va o'z hayajonini engishga urinib, – mening xonadonimda jinoyat bo'lishi mumkin emas! Faqat Xudo qahriga olyapti meni, lekin menikida qotillik bo'lishi mumkin emas.

Nuartening ko'zlari g'azabdan yondi; d'Avrini e'tiroz bildirish uchun og'zini ochdi.

Morrel: «Jim bo'linglar», degandek, qo'llarini ko'tardi va:

– Men yana takror aytamanki, bu xonadonda odam o'ldiryaptilar! – dedi bosiq, ammo dahshatli ohangda. – To'rt oy mobaynida mana bu to'rtinchi qurbon, tushundingizmi, to'rtinchi!

Bundan to'rt kun ilgari Valentinaning joniga qasd qil-



moqchi bo'ldilar, lekin janob Nuartening hushyorligi tufayli ularning niyati puchga chiqdi. Eshityapsizmi?

Pirovardida, ular zahardan ko'proq berib yoki boshqa kuchlirog'ini topib o'z qabih niyatlariga etishdi, tushundingizmi?

Siz buni mendan yaxshiroq bilasiz, janob d'Avrini doktor va do'st sifatida sizni ogohlantirib qo'ygan edi.

– Janob, alahsirayapsiz, – dedi Vilfor tuzoqdan qutulishga urinib.

– Men alahsirayapmanmi? – dedi Morrel ajablanib. – Unday bo'lsa, d'Avrini janoblarining o'ziga murojaat qilishga majburman. Janob, u kishidan so'rang-chi, Sen-Meran xonim vafot etgan kunning oqshomida mana shu uy ro'parasidagi bog'da aytgan so'zlari esidamikin? Ana shunda ikkingiz tevarak-atrofdan hech kim yo'q, deb o'ylab fojiali o'lim haqida gap yuritgan edingiz, siz taqdiri azal deb, aybni Xudoga to'nkayapsiz, ammo taqdir va Xudoning bunda ishtiroki faqat shundan iboratki, ular Valentinaning qotilini yaratdilar!

Vilfor va d'Avrini bir-biriga qaradi.

– Xo'sh, qani, o'sha oqshomdagi gaplaringizni bir eslang, – dedi Morrel. – Siz xilvatda suhbatlashganmiz, deb yanglishgan edingiz; ammo u dahshatli so'zlar mening qulog'imga etib kelgan edi. Aslida, men, janob de Vilforning o'ziga yaqin kimsalarning aybini jinoyatkorona xaspo'shlab kelayotganini hukumatga xabar qilmog'im darkor edi. Shundagina seni o'ldirgan qotillar safida bo'lmas edim, sevgilim Valentina! Lekin bu gunohkoring endilikda qasos olishga shaylandi, mana shu to'rtinchi hodisadan keyin bu xonadonda kimdir ajal urug'i sepib yurgani hammaga ayon bo'ldi, shunda ham otang og'ziga talqon solib yuraverar ekan, senga qasamyod qilib aytamanki, qotilni o'zim topaman!

O'z kuchi bilan o'zini mayib qilishdan ham toymaydigan bu zabardast yigitga go'yo tabiat rahm qildi-yu, so'nggi so'zlari halqumida tiqilib qoldi, ko'ksidan faryod otilib chiqdi, ko'zlaridan duvillab yosh to'kildi va

gandiraklab, yana Valentina karavoti ustiga yiqildi.

Endi soʻz navbati dʼAvriniga keldi.

– Men janob Morrelning fikriga qoʻshilaman va aybdorni topib, odil sudning qora kursisiga oʻtqazilishini talab qilaman, – dedi u baland ovoz bilan. – Shu damgacha qotilni ayab chakki qilgan ekanman, mana endi vijdon azobiga qoldim!

– Yo, alhazar! – dedi Vilfor zoʻrgʻa tovush chiqarib.

Morrel boshini koʻtardi va cholning koʻzlari oʻtdek chaqnaq turganini koʻrib:

– Bu yoqqa qarang, janob Nuarte bir narsa demoqchi, aftidan, – dedi.

– Ha, – dedi imo bilan Nuarte. Uning qarashlari nihoyatda dahshatli edi, chunki baxtsiz bechora cholning butun kuchi-qobiliyati uning koʻzida toʻplangan edi.

– Siz qotil kimligini bilasizmi? – soʻradi Morrel.

– Ha, – javob qildi Nuarte.

– Uni bizga aytib bera olasizmi? – dedi Maksimilian. – Qulogʻimiz sizda! DʼAvrini, eshiting!

Nuarte bechora Morrelga qaygʻu va mehr-la jilmayib qoʻydi; bunday tabassum koʻpincha Valentinani quvontirardi.

Soʻng hamsuhbatiga qaradi-da, koʻzi bilan eshikni koʻrsatdi.

– Men chiqib turaymi? – dedi koʻngli sinib Morrel.

– Ha, – dedi Nuarte.

– Rahm qiling menga!

Chol koʻzini eshikka tikkancha turaverdi.

– Soʻng qaytib kirsam boʻladimi? – soʻradi Maksimilian.

– Ha.

– Bir oʻzim chiqib ketaymi?

– Yoʻq.

– Kim bilan chiqay? Janob de Vilfor bilanmi?

– Yoʻq.

– Doktor bilanmi?

– Ha.

– Janob de Vilfor bilan yakka qolmoqchimisiz?

– Ha.

– U sizning soʻzlaringizga tushunadimi?

– Ha.

– Xotirjam boʻling, – dedi Vilfor tergov yuzma-yuz oʻtkazilajagidan quvonib, – men otamning imo-ishoralariga juda yaxshi tushunaman.

U bu soʻzlarni quvonib aytgan boʻlsa-da, hayajondan lablari titrardi.

DʻAvrini Maksimilianni qoʻltigʻidan tutib, qoʻshni xonaga olib chiqdi.

Shundan keyin butun xonadonda dahshatli sukunat choʻkdi.

Chorak soat oʻtgach, ohista qadam tovushi eshitildi: mehmonxona ostonasida Vilfor paydo boʻldi, mehmonxonada xayolga choʻmib dʻAvrini va qaygʻu-alamdan yonib Morrel turardi.

– Yuringlar, – dedi Vilfor va ikkisini Nuarte xonasiga olib kirdi.

Morrel sinovchan koʻzlarini Vilforga tikdi. Qirollik prokurori murdaday oqarib, peshanasi tirishib ketgan edi; barmoqlari bilan patqalamni buklab-buklab maydalab tashladi.

– Janoblar, – dedi u boʻgʻiq tovush bilan dʻAvrini bilan Morrelga qarab, – bu dahshatli voqeani qattiq sir saqlaymiz, deb vaʼda berasiz menga.

Doktor va Maksimilian hayron boʻlib qoldi.

– Sizdan qattiq iltimos qilaman... – dedi Vilfor soʻzida davom etib.

– Qotil-chi? U nima boʻladi?.. – dedi Morrel.

– Janob, xotirjam boʻling, odil sud uni koʻrib chiqadi, – dedi Vilfor. – Otam qotil kimligini aytib berdi, otam ham siz kabi qasd olish niyatida; biroq u ham sizdan bu voqeani sir tutishni talab qilyapti. Toʻgʻrimi, ota?

– Toʻgʻri, – dedi qatʻiy imo qilib Nuarte.

Morrel ishonmadi va hayajonda oʻzini orqaga tashladi.

– Janob, – dedi Vilfor Morrelning qo‘lidan tutib, – otam bir so‘zli odam; bu holni sir saqlashni so‘rab sizga murojaat qilgan ekan, demak, qotildan qattiq qasos olinadi. Shundaymi, ota?

Chol «to‘g‘ri», deb imo qildi. Vilfor so‘zini davom ettirdi:

– U meni yaxshi biladi, men va‘da berdim, xotirjam bo‘ling; yana uch kun sabr qiling, bu sud muddati juda qisqa, uch kundan so‘ng qizimning qotili shunaqangi jazolanadiki, har qanday bag‘ri tosh ham balli deydi. Shundaymi, ota?

Shu so‘zlarni izhor etganda Vilfor tishlarini g‘ijirlatdi va cholning jonsiz qo‘llarini siltadi.

– Va‘da bajariladimi, janob Nuarte? – so‘radi Morrel; d‘Avrining ko‘zlari ham xuddi shunday deb turardi.

– Ha! – dedi imo bilan Nuarte.

– Qani, ont ichinglar, janoblar, – dedi Vilfor d‘Avrini bilan Morrelning qo‘llaridan tutib, – xonadonimning sha‘niga dog‘ tushirmaymiz va qasd olishni sizga havola qilamiz, deb ont ichinglar.

D‘Avrini orqasini o‘girdi-da, istar-istamas «ha», deb qo‘ydi, Morrel qo‘lini shartta tortib oldi, o‘zini sevgilisi-ning karavotiga otdi va Valentinaning muzdek lablaridan qattiq o‘pib, oh-voh qilgancha yugurib chiqib ketdi.

Xizmatkorlarning hammasi ketib qolganidan muhtaram kitobxon xabardor.

Shu sababdan Vilfor doktor d‘Avrinidan katta shaharlarimizda, ayniqsa sirli o‘lim yuz berganda bajo etilishi zarur hamma murakkab va ko‘pdan-ko‘p tadbir-tadoriklarni o‘z gardaniga olishni iltimos qildi.

Nuarteni g‘am-alam eb qo‘ygandi.

Vilfor kabinetiga kirib, eshikni ichidan qulflab oldi, d‘Avrini shahar doktorini chaqirgani ketdi; bu doktor o‘limga shohid bo‘lishi kerak; shu vajdan uni «o‘liklar doktori» deb atashardi.

Nuarte nevarasi oldidan jilishni istamadi.

Yarim soat o‘tar-o‘tmas d‘Avrini hamkasbini ergashti-

rib keldi, ko'cha eshik qulfloq edi, darvoza qorovuli ham boshqa xizmatkorlar bilan juftakni urib qolgandi, shuning uchun eshikni Vilfor o'zi borib ochdi. Ammo Valentina bo'lmasi oldiga kelganda birdan to'xtab qoldi, bu xonaga kirishga uning yuragi dov bermadi.

Ikkala doktor kirib ketdi.

Nuarte o'z o'rindig'ida – nevarasining karavoti oldida o'tirardi. Uning murdadan aslo farqi qolmagandi.

O'liklar doktori pinagini buzmay (bu zot yarim asr umrini o'liklar orasida o'tkazgan) karavot oldiga bordi-da, qizning yuzini ochib va lablarini yirib og'ziga qaradi.

– Attang! – dedi d'Avrini afsuslanib, – sho'rlik qiz dunyodan o'tibdi.

– O'tibdi, – dedi gapni qisqa qilib o'liklar doktori va Valentinaning yuzini yana choyshab bilan bekitib qo'ydi.

Nuarte xirillab qo'ydi.

D'Avrini o'girilib cholga qaradi; cholning ko'zlari chaqnardi: demak, u nevarasining yuzini ko'rmoqchi. D'Avrini karavot oldiga borib qizning yuzini ochdi. Nuartening ko'zlariga yosh qalqdi.

Shu orada murdaning labiga tekkan barmoqlarini xlorli suvda yuvib olgan murdalar doktori darhol rasmiy guvohlik hujjatlarini yozdi-da, d'Avrini kuzatuvida chiqib ketdi.

Vilfor ular zinadan tushib borayotganini eshitib turgandi; u kabinetidan chiqib doktorga minnatdorchiilik yuzasidan bir necha so'z aytdi-da, d'Avriniga murojaat qildi:

– Endi kohinni chaqirish kerak.

– O'zingizga tanish biror kohin bormi? – so'radi d'Avrini.

– Yo'q, – javob qildi Vilfor, – yaqinroqdagi birortasini chaqira qoling.

– Yaqinroqda, – dedi shahar doktori, – yoningizdagi hovliga ko'chib kelgan italyan abbat-da. Istasangiz, yo'l-yo'lakay men uni chaqirib yuboraman.

– D'Avrini, janob doktor bilan birga borsangiz. Mana kalit, istagan vaqtda kirib-chiqib yuraverasiz. Kohinni olib

kelib sho'rlik qizimning xonasiga kiritib qo'ying.

– Siz u bilan gaplashasizmi?

– Yo'q. Kechirasiz, yakka o'zim qolmoqchiman. Kohin bunday hollarda kishining, xususan, otaning qayg'u-alamini anglashi lozim-ku axir.

Vilfor d'Avriniga kalitni topshirdi-da, shahar doktoriga yana bir bor ta'zim qilib, kabinetiga qaytdi va ishini davom ettirdi.

Shunday kishilar borki, o'zlarini ish bilan ovutib, dar-dlarini unutadilar.

Doktorlar ko'chaga chiqqanda qo'shni hovli ostona-sida egniga qora libos tashlagan odam duch keldi.

– Men aytgan kishi ana shu, – dedi o'liklar doktori.

D'Avrini kohin oldiga borib:

– Janob, – dedi, – hozirgina o'z qizidan judo bo'lgan otaga – qirollik prokurori de Vilforga ko'mak bera olasiz-mi?

– Bajonu dil, – dedi javoban kohin g'irt italyan talaffu-zida, – bilaman, bu xonadonga ajal oralagan.

– Unday bo'lsa, u sizdan qanday yordam kutayotganini aytib o'tirishimning hojati yo'q.

– Men o'zim yordamga shoshilayotgan edim, janob, – dedi kohin, – biz o'z burchimizni ado etish uchun chaqi-rishlarini kutib o'tirmay, o'zimiz bormog'imiz zarur.

– Marhuma yosh qiz.

– Bilaman, xizmatkorlaridan eshitdim, ular tum-tara-qay qochib ketishayotganini ko'rgan edim. Qizning ismi Valentina ekanini bildim, uning haqiga duo ham o'qib qo'ydim.

– Rahmat sizga, – dedi d'Avrini, – xayrli ishni boshla-gan ekanlar, nihoyasiga etkazsinlar endi. Marhumaning qoshida bo'lsangiz, bag'ri qonga to'la oila sizdan min-natdor bo'lur.

– Unday bo'lsa, men ketdim, janoblari xotirjam bo'lsin-lar, – dedi abbat, – duoni mendan yaxshi o'qiydigan yo'qdir bu atrofda.

D'Avrini abbatning qo'lidan tutib, Vilforni axtarib u yoq-

bu yoqqa qaradi, Vilfor ko'rinmagach, kohinni marhumaning xonasiga kuzatib qo'ydi. O'likni faqat tunda kafanga o'rashardi.

Ular xonaga kirganda Nuarte bilan abbat bir-biriga qarab olishdi; chol abbatning qarashlaridan g'alati bir narsa sezgandek, unga uzoq tikilib qoldi.

D'Avrini marhumanigina emas, cholni ham abbatga, abbatni Xudoga topshirib chiqib ketdi; abbat Valentina-ga duo o'qishga va Nuartega g'amxo'rlik qilishga va'da berdi.

Abbatning va'dasi tantanavor edi; duo o'qishga va Nuartening ko'z yoshi to'kishiga xalaqit bermasinlar, deb bo'lsa kerak, abbat d'Avrini ketishi bilan doktor chiqqan eshiknigina emas, de Vilfor xonimnikiga kiradigan eshikni ham qulflab oldi.

## **VII. DANGLARNING IMZOSI**

Tong. Havo bulutli va dim edi.

Tobutchilar tunda o'z ishlarini tugatib, karavotda yotgan jasadni kafanga o'radilar. Kafan marhumaning tiriklik chog'idagi oliftaligidan eng so'nggi nishona bo'lib, o'lim oldidan u har bir odam uchun farzdir.

Kafan bundan ikki hafta muqaddam Valentina sotib olgan yupqa batisdan tikilgan edi.

Nuarteni kechqurunoq o'z xonasiga kiritib qo'ygan edilar. Kutilmagan holda chol bunga sirayam qarshilik ko'rsatmadi.

Abbat Buzoni ertalabgacha marhuma qoshida bo'ldida, tong yorishi bilan hech kimga indamay chiqib ketdi.

Soat sakkizda d'Avrini keldi; u Nuartening huzuriga borayotgan Vilforgia duch keldi; birgalashib cholning holahvolini, tunni qanday o'tkazganini bilish uchun uning xonasiga yo'l olishdi.

Chol karavot o'rnida ishlatiladigan katta o'rindiqlikda maza qilib uyquni urardi.

Buni ko'rib Vilfor va doktor hayron bo'lib ostonada to'xtab qolishdi.

– Uni qarang, – dedi d'Avrini Vilfor, – tabiatning o'zi har qanday qayg'u-alamni engishga qodir-da: hech kim, janob Nuarte nevarasini yoqtirmasdi, deymasdi, biroq chol bemalol uxlab yotibdi.

– Haq gapni aytdingiz, – dedi Vilfor hayratda qolib, – uxlab yotibdi, kelib-kelib shu tunda-ya! Axir chol ozgina tashvishdan ham tun bo'yi uxlamay chiqardi-ku!

– G'am-g'ussa cholning qaddini bukib qo'ydi-da, – dedi d'Avrini.

So'ng ikkisi o'yga botib qirollik prokurorining kabinetiga qaytib kirishdi.

– Men esa mijja qoqqanim yo'q, – dedi Vilfor d'Avrini-ga taxi buzilmagan to'shakni ko'rsatib, – g'am meni bukolmaydi. Ikki kechadan buyon yonboshim erga tekkani yo'q, ammo stol ustiga bir nazar tashlang: shu ikki kecha-yu ikki kunduzda qancha narsalarni yozib tashladim!.. Bu ishni ikir-chikirigacha tekshirdim, qotil Benedettoning aybnomasiga behisob izohlar yozdim!.. O, menga ish bo'lsa bas, boshqa hamma narsani unutib yuboraman, mening baxtim ham ana shunda-da. Hamma dard-alamimni ish bilan engaman!

Vilfor oxirgi so'zlarini titrab izhor etdi-da, d'Avrining qo'lini mahkam qisdi.

– Men hozir kerakmanmi? – so'radi doktor.

– Yo'q, – dedi Vilfor, – faqat soat o'n birda qaytib kelsangiz bas, soat o'n ikkida o'lik chiqariladi... oh, Tangrim! Qanday og'ir judolikka duchor etding? Qizginam, sho'rlik qizginam! Endi seni tuproqqa topshiramizmi, a?

Qirollik prokurori yana odam tusiga kirdi-da, osmon-ga qarab uh tortib qo'ydi.

– Ta'ziyachilarni o'zingiz qabul qilasizmi?

– Yo'q. Bu og'ir vazifani qarindoshlarimdan biri bajaradigan bo'ldi. Men, doktor, ish bilan band bo'laman, ish-lasam hammasini unutaman.

Doktor eshikka etmasdanoq qirollik prokurori ishga



tushib ketdi.

D'Avrini chiqib ketayotib Vilforning hali aytgan qarindoshiga duch keldi. Shu qissada ham, oilada ham nazar-e'tibordan ancha uzoq bu shaxs hayotda faqat o'zgalarning amri farmoniga «Labbay!» deyishdan boshqa narsaga yaramaydigan maxluqlardan biri edi. U Vilforning uyiga qora libosda qosh-qovog'ini sharoitga moslab kirib kelgandi, biroq marosim tugashi bilan yuzidagi bu niqobni uloqtirib tashlash niyatida edi.

Soat o'n birda motam foytunlari taraq-turuq qilib tosh hovlidan yurib keldi; Sent-Onore boyvachchalarning quvonchiga ham, qayg'usiga ham loqaydlik bilan qaraydigan va gersoginaning to'yiga qanchalik chopqil-lab kelishsa, dabdabali dafn marosimiga ham shunchalik uchib keladigan olomonga to'ldi.

Tobut qo'yilgan mehmonxonaga ham asta-sekin odamlar kira boshladi; dastlab bizga ko'pdan beri tanish Debre, Shato-Rano, Boshan kirdi; so'ngra mashhur sudya xodimlari, adabiyot va harbiy soha korchalonlari kirishdi, chunki janob de Vilfor jamiyatdagi nufuzi, lavozimi bilangina emas, shaxsiy fazilatlar bilan ham Parij zodagonlari o'rtasida yuqori turardi.

Qavmu qarindoshlar kelganlarni kutib olish uchun eshiklar oldida tizilib turishardi.

Tanish-bilishlar bir-birlarini chaqirib to'p-to'p bo'lib olishdi. Debre, Shato-Reno va Boshan guruhi ham shundaylardan biri edi.

– Sho'rlik qiz, – dedi Debre hamma singari qayg'uli voqeadan ko'ngli buzilib, – shunday boy, go'zal qiz dunyodan o'tibdi-ya! Yaqindagina kelib ketgan edik, shundaymi, Shato-Reno?.. Soppa-sog' edi. O'shanda bunday bo'ladi, deb kimning xayoliga kelgan edi... Nikoh shartnomasiga qo'l qo'yamiz deb kelganimizga ko'pi bilan bir oy o'tdi-da, lekin shartnoma imzolanmay qolgandi. Shundaymi, Shato-Reno?

– To'g'ri, – dedi Shato-Reno.

– Siz uni tanirmidingiz?

– De Morser xonimnikida boʻlgan ziyofatda ikki bor gaplashgan edim; istarasi issiq, jozibali qiz ekan, ammo negadir parishon edi. Oʻgay onasini taniysizmi? U qayerda ekan?

– Xonim kun boʻyi hali bizni kutib olgan hurmatli janobning xotini huzurida boʻladi.

– Kim oʻzi u?

– Kimni soʻrayapsiz?

– Bizni kutib olgan janobni. U deputatmi?

– Yoʻq, – dedi Boshan, – men qonunshunoslarni har kuni koʻraman, ammo bu zotni biror marta uchratganim yoʻq.

– Gazetangizda bu oʻlim haqida biror xabar bosdingizmi?

– Ha, biroq, xabar meniki emas, u katta shov-shuvga sabab boʻldi; Vilfor bundan xursand boʻlmasa kerak, albatta. Bilishimcha, xabarda: oʻz xonadonida emas, boshqa biror kishining xonadonida ketma-ket toʻrt kishi oʻlganida qirolik prokurori koʻproq hayajonlangan boʻlur edi, deyilgan.

– Ammo, onamni ham davolayotgan doktor dʻAvrini Vilfor juda qaygʻuryapti, deydi-ku, – soʻz qotdi Shato-Reno.

– Kimni axtaryapsiz, Debre?

– Graf Monte-Kristoni.

– Kelayotib men uni Bulvarda koʻrdim, aftidan u qayoqqadir joʻnamoqchi, oʻz bankiri huzuriga ketayotgan ekan, – dedi Boshan.

– Uning bankiri Danglarmidi? – soʻradi Shato-Reno Debre dan.

– Danglar boʻlsa kerak, – dedi javoban ministrning shaxsiy kotibi bir oz oʻngʻaysizlanib, – biroq bu erda Monte-Kristogina emas, Morrel ham koʻrinmaydi-ku.

– Morrel? U bu oila bilan tanishmi? – soʻradi Shato-Reno.

– Menimcha, u de Vilfor xonimning bir oʻzi bilan tanish edi.

– Baribir u kelishi kerak edi, – dedi Debre, – kechqurun

shu haqda gap sotmasa, boshqa nimani gapiradi? Dafn marosimlari g'iybatning uyasi-ku! Hoy, jim, birpas nafasimizni ichimizga yutib turaylik, adliya ministri keldi, u qizning qayg'u-alamga botgan qarindoshlariga kichkina ta'ziya nutqi aytishni lozim deb biladi.

So'ngra yosh yigitlar adliya ministrining ta'ziya nutqini eshitmoq uchun eshik oldiga yaqin borishdi.

Boshan to'g'ri aytgandi; chindan ham Shosse-d'Anten ko'chasida Monte-Kristoni uchratgan edi. U Danglar oldiga borayotgan ekan.

Bankir grafning izvosida hovliga kirib kelayotganini ko'rib, peshvoz chiqdi. Danglarning chehrasi g'amgin edi, shunday bo'lsa-da, u grafni jilmayib kutib oldi.

– Graf, – dedi u Monte-Kristoga qo'lini uzatib, – hamdardlik izhor etgani kelganingizni ko'rib turibman, ha, azizim, xonadonimiz og'ir musibatga duchor bo'ldi, og'ir musibatga! Sizni ko'rib, hatto o'z-o'zinga, «sho'rlik Morserlarga qachon baxtsizlik tilagan ekanman, mabodo shunday bo'lsa, birovga choh qazisang unga o'zing yiqilasan», degan maqol haq gap bo'lib chiqardi degan o'y miyamga keldi. Biroq, Xudo haqqi, men Morserlarga yomonlikni ravo ko'rganim yo'q, ehtimol, men singari, quruqdan-quruq ish boshlab, hamma narsaga ega bo'lib olgan zotga u qiziqqonlik qilgandir; ammo har kimning o'ziga yarasha kamchiligi bor. Ehtiyot bo'ling, graf: bizning avlodimizga mansub... kechirasiz, siz bu avlod sirasiga kirmaysiz, hali yoshsiz... Mening avlodimga mansub kishilarning bu yil omadi kelmayapti; misol uchun, tengqurim qirollik prokurorini olaylik. Hozirgina u qizidan ajraldi. Uni qarang, Vilfor xonadonida oilaning hamma a'zolari aql bovar qilmaydigan g'alati bir holatda halok bo'lyapti; Morser sharmandalarcha o'zini o'zi o'ldirdi, mening esa ablah Benedetto deb masxaram chiqdi, buning ustiga...

– «Buning ustiga...» tag'in nima bo'ldi? – so'radi graf.

– I-ya, hali xabaringiz yo'qmi?

– Tag'in biror falokat ro'y berdimi?

– Qizim...  
– Mademuazel Danglar?  
– Ejeni bizni tashlab ketyapti.  
– Yo‘g‘-e!  
– Shunday, azizim graf. Siz baxtli ekansiz: xotiningiz ham, farzandlaringiz ham yo‘q.  
– Siz shunday deb o‘ylaysizmi?  
– O‘ylaganda qandoq!  
– Shunday qilib mademuazel Ejeni...  
– O‘sha ablahning kasofati bilan boshimizga tushgan sharmandalikka qizim sho‘rlik chidolmadi, shekilli, sayohatga mendan ruxsat so‘radi.  
– Demak, qizingiz ketvoribdi-da?  
– O‘tgan kuni kechasi.  
– Danglar xonim bilanmi?  
– Yo‘q, bir qarindoshimizning qizi bilan... har qalay qizdan ajraldik: bu fe‘li bilan endi u Fransiyaga sira qaytib kelmas!

– Ilojigingiz qancha, azizim baron, – dedi Monte-Kristo. – Oiladagi bunday ayriliq balosi biror kambag‘alni halokatga duchor etishi mumkin, chunki kambag‘alning butun boyligi uning farzandi; ammo bu ayriliq millioner uchun hech gap emas; faylasuflar nima desa deyaversin, lekin ishbilarmon odamlar ularni hamisha mot qilib kelyapti. Pul har qanday qayg‘udan ustun keladi; siz bu shifobaxsh dorining kuchiga boshqalardan ko‘ra ko‘proq ishonsangiz kerak, shu vajdan bu g‘am-g‘ussalar hademay yodingizdan ko‘tariladi-ketadi. Siz bankirlar qirolisiz, barcha qudratli kuchlarning negizisiz.

Danglar, graf mazax qilyaptimi yo jiddiy gapiryaptimi, deb unga ko‘z qirini tashlab qo‘ydi.

– To‘g‘ri, – dedi u, – modomiki, boylik shunday kuchga ega ekan, ovunganim bo‘lsin, chunki men boyman.

– Azizim baron, siz shunday boylikka egasizki, bu boylik xuddi ehromlarga o‘xshaydi: uni yiqitishga jur‘at etolmaysiz, jur‘at etsangiz-da, yiqita olmaysiz.

Danglar, graf har narsaga ishonaveradigan sodda odam

ekan, deb iljayib qo'ydi.

– Aytgancha, siz kirayotganda beshta chek yozayotgandim, ikkitasiga imzo ham chekdim, ruxsat eting, qolgan uchtasiga ham imzo chekib qo'yay?

– Marhamat, azizim baron, marhamat.

Oraga jimlik cho'kdi: bankir patqalamining g'ijirlagan ovozi eshilib turardi. Monte Kristo shiftning jimjimador zarrin naqshlarini tomosha qila boshladi.

– Ispanchami? – dedi Monte-Kristo. – Yo gaitcha, yo bo'lmasa neopolitanchami?..

– Yo'q, – javob qildi Danglar viqor bilan iljayib, – cheklar fransuz bankiga topshiruvchi nomiga yozilgan. Mana, graf, – dedi qo'shimcha qilib, – men bankirlar qiroli bo'lsam, siz ularning imperatorisiz. Har qaysisi bir million turadigan mana shunaqa qog'ozlarni tez-tez uchratib turarmidingiz?

Monte-Kristo, Danglar gerdayib uzatgan besh parcha qog'ozni oldi-da, og'irligini o'lchab ko'rayotgandek qo'lida salmoqlab qo'ydi. Cheklarda shunday deb yozilgan edi:

*«Janob bank direktori, shu chekni beruvchiga mening hisobimdan bir million frank berishingizni so'rayman. Baron Danglar».*

– Bir, ikki, uch, to'rt, besh, – dedi Monte-Kristo, – besh million! Buni qarang, janob Krez!! Besh million-a!

– Mana ko'rdingizmi men nimalarga qodirman! – dedi Danglar.

– Bu har qanday kishini ham hayratda qoldiradi, ayniqsa naqd to'lansa; men bunga shubha qilmayman.

– Naqd to'lanadi, – dedi Danglar.

– Kiroyi qarz bo'lsang mana shunaqasiga bo'lgin; chindan ham bunaqasini faqat Fransiyada ko'rish mumkin, besh parcha qog'ozning bahosi besh million; bunga komil ishonch hosil qilmoq uchun shu millionlarni o'z ko'zim bilan ko'rishni istardim.

– Ishonmayapsizmi?

– Ishonaman.

– Gapingizning ohangidan shubhalanayotganga o‘xshayapsiz... Yaxshisi, istasangiz, mening ishonchli kishim bilan bankgacha boring, ana shunda ko‘rasiz, qo‘lingizga xuddi shu summaga g‘aznaning obligasiyasini tutqazadilar.

– Har holda, bu kishini hayratga soladigan hol, – dedi Monte-Kristo cheklarni buklab, – o‘zim sinab ko‘raman. Menga sizning bankingizda olti millionga kredit ochilgan edi; to‘qqiz yuz ming frankni olgandim; sizda yana besh million yuz mingi qoldi. Hozir siz imzo chekkan besh parcha qog‘ozni zo‘r ishonch bilan olyapman; olti million olganimga mana bu tilxatni beraman; shu bilan ikkimizning oramiz ochiq bo‘ladi. Tilxatni oldindan tayyorlab qo‘ygandim, chunki menga bugun bu pul juda ham zarur.

Graf shunday dedi-da, cheklarni cho‘ntagiga solib, ikkinchi qo‘li bilan tilxatni bankirga uzatdi.

Agar shu topda chaqmoq kelib urganda ham Danglar bunchalik vahimaga tushmasdi.

– Iya? – dedi ping‘illab. – Bu pulni olmoqchimisiz hali, graf? Biroq kechirasiz, bu pul boshpanasizlar jamg‘arماسi, men ularga bugun to‘lashni va‘da qilgan edim.

– Ha, unday bo‘lsa mayli, – dedi Monte-Kristo. – Men albatta shu cheklarni olaman deyayotganim yo‘q, boshqa qimmatbaho narsalar bilan to‘lasangiz ham mayli, bu cheklarni faqat ko‘z-ko‘z qilmoqchi bo‘lib olgandim. Bu juda qoyilmaqom ish bo‘lur edi-da! Ha, mayli, oling cheklaringizni, bo‘lmasa menga boshqachasini to‘lab qo‘ya qoling.

Graf cheklarni Danglarga uzatdi; devor bo‘lib qolgan bankir xuddi qafas ichidan go‘sh-tga changal solgan quz-g‘unday cheklarga yopishdi, so‘ng birdan hushiga kelib, qo‘lini tortib oldi-da, iljaydi, burishib-tirishib ketgan yuzi o‘z holiga keldi.

– Darvoqe, – dedi bankir, – sizning tilxatingiz ham pulku.

– Albatta! Siz Rimda bo‘lganingizda Tomson va French

meni mana shu tilxatimni ko'riboq xuddi siz singari besh millionni naqd to'lagan bo'lur edi.

– Kechiring meni, graf, kechiring.

– Demak bu pullarni men olaveraymi?

– Ha, ha, olavering, – dedi Danglar terga botgan peshanasini artib.

Monte-Kristo cheklarni yana qaytarib cho'ntagiga soldi, ammo: «Yaxshilab o'ylab ko'ring, so'ng pushaymon qilib yurmang», degandek unga qarab qo'ydi.

– Yo'q, yo'q, bemalol, – dedi Danglar, – olavering bu cheklarni. Biroq, bilib qo'yingki, biz bankirlar juda terisi yupqa odamlarmiz. Men bu pullarni etimxonalarga bermoqchi edim; shu cheklar bilan hozir to'lab qo'ymasam ularni aldagan bo'lasmikinman degan xayolga bordim. Kechiring meni! – dedi-da, zaharxandalik bilan kulib qo'ydi.

– Ha, mayli, kechirdim, – dedi muloyimlik bilan Monte-Kristo, – pulni cho'ntakka solib qo'ya qolay bo'lmasa.

Graf cheklarni katmoniga solib qo'ydi.

– Yana yuz ming frank pulingiz qolyapti-ku? – dedi Danglar.

– Be, arzimagan gap! – dedi Monte-Kristo, – shirinkomasi taxminan shunchaga borib qolar; yaxshisi o'sha yuz mingni o'zingiz ola qoling, oramiz ochiq bo'ladi-qo'yadi.

– Jiddiy gapiryapsizmi, graf?

– Men bankirlar bilan hech qachon hazillashmayman, – dedi Monte-Kristo keskin, so'ng o'rnidan turdi-da, eshik tomonga yo'l oldi, biroq shu payt xizmatkor kirib:

– Etimxonalar Boshqarmasining bosh g'aznachisi janob de Bovil tashrif buyurdilar, – dedi.

– Mana ko'rdingizmi, – dedi Monte-Kristo, – men vaqtda kelib cheklaringizdan foydalanishga muassar bo'ldim, yo'qsa ololmay qolishim mumkin edi, axir bu qog'ozlaringizning bozori juda chaqqon ekan-ku.

Danglarning yana quti o'chdi, graf bilan shoshib xayrlashdi.

Monte-Kristo rasmiyat yuzasidan janob de Bovil bilan

salom-alik qildi. De Bovil dahlizda kutib turgan edi. Uning qo'lida katmonni ko'rib, graf iljayib qo'ydi. G'aznachini Danglarning kabinetiga olib kirishdi.

Eshik oldida kutib turgan izvoshga graf irg'ib mindida, «Bankka hayda!» deb buyruq berdi.

Danglar o'zini bosishga urinib, mehmon istiqboliga chiqdi. U zo'rma-zo'raki iljaydi.

– Salom, azizim kreditor, – dedi Danglar, – sizni bunday deb atashimning boisi shundaki, menikiga tashrif buyurganlar albatta kreditor sifatida keladi.

– Topdingiz, baron, topdingiz, – dedi Bovil, – men etimxonalar vakili sifatida huzuringizga keldim; men orqali beva-bechoralar va etim-esirlar sizdan besh million pul so'rab ko'z tikib o'tirishibdi.

– Etim-esirlarga rahm-shafqat qilish kerak emish-a! – dedi Danglar hazilni davom ettirib. – Sho'rlik bolalar.

– Mana, men o'sha sho'rliklar nomidan huzuringizga keldim, – dedi de Bovil, – kecha xatimni olgandirsiz...

– Ha, oldim.

– Mana, o'sha pulni olganligim to'g'risida tilxatni ham yozib keltirdim.

– Azizim de Bovil, – dedi Danglar, – agar sizga og'ir bo'lmasa bevalaringiz va etim-esirlaringiz yigirma to'rt soat sabr qila turishsin, chunki hozirgina bu erdan chiqib ketgan graf Monte-Kristo... siz uni kiraverishda uchratgan bo'lsangiz kerak, shundaymi?

– Ha, uchratdim, xo'sh, nima bo'пти?

– Ana shu Monte-Kristo, sho'rliklarning besh millionini olib ketdi!

– Nega endi?

– Graf mendan istagancha kredit olish huquqiga ega, unga bu kreditni mening bankimda Tomson va French xonadoni ochib qo'ydi. U, bir yo'la besh million so'radi, men bankka chek yozib berdim; o'z pullarimni o'sha erda saqlayman; bank boshlig'idan bir kunda o'n million talab qilsam unga juda g'alati tuyulishi mumkin deb hayiqib turibman. Ikki kunda shunday qilsam – bu bo'lak gap, –



dedi Danglar iljayib.

– Rostdan-a! – dedi ishongisi kelmay de Bovil. – Hozirgina bu erdan chiqib ketgan va menga, xuddi qarddonlardek, ikki bukilib salom bergan janobga besh million berib yuboringizmi?

– Siz uni tanimasangiz-da, ehtimol, u sizni tanir. Graf Monte-Kristo hammani taniydi.

– Besh millionni-ya!

– Mana uning tilxati. Komil ishonch hosil qilish uchun olib ushlab ko'ring.

Bovil Danglar uzatgan qog'ozni olib, o'qidi.

*«Baron Danglardan besh million yuz ming frank oldim, bu aqchani istagan vaqtda unga Rimdagi Tomson va French bankir xonadoni to'laydi».*

– To'ppa-to'g'ri! – dedi u.

– Tomson va French xonadonini bilasizmi?

– Ha, bilaman, – dedi Bovil, – bir gal ular bilan ikki yuz ming frank miqdorda muomalada bo'lgandim; o'shandan buyon ular haqida hech gap eshitmadim.

– Bu Evropadagi eng yaxshi bankirlar xonadonlaridan biri, – dedi Danglar Bovil qo'lidan qaytarib olgan tilxatni e'tiborsizlik bilan stol ustiga irg'itib.

– Faqat sizning bir o'zingizda besh millionli schyoti bormidi uning. Bundan chiqdi, graf Monte-Kristo navob odam bo'lsa kerak!

– Ochig'ini aytsam, uning kimligini bilmayman, ammo menga shunisi ma'lumki, uning uchta krediti bor edi: biri menda, ikkinchisi Rotshildda, uchinchisi Laffit bankida; mana ko'rib turibsizki, u meni boshqalardan afzal ko'rib besh millionni oldi va shirinkomasiga yuz ming frank tashlab ketdi.

Bovil Monte-Kristoga qoyil qolib tahsin o'qidi.

– Unikiga bir borishim zarur ekan-da, – dedi u. – Undan etim-esirlar uchun biror boshpana ochdirib olishga harakat qilaman.

– Bu boʻladigan ish, u oyiga yigirma ming frankdan ziyod sadaqa beradi.

– Bunisi yana soz! Men unga de Morser xonimni va oʻgʻlini ibrat qilib koʻrsataman.

– Qaysi masalada?

– Ular butun bor sarmoyasini etimxonalarga sadaqa qilishdi.

– Qanaqa sarmoya?

– Xususiy sarmoyasini, marhum general de Morserdan qolgan sarmoyani.

– Nega endi?

– Ular pastkashlik bilan orttirilgan bu sarmoyadan foydalanishni istamadilar.

– Endi oʻzlari nima bilan tirikchilik qilishadi?

– Onasi shahardan uzoq rayonga koʻchib ketyapti, oʻgʻli esa harbiy xizmatga kiriyapti.

– Ularning marhamatini qarang-a! – dedi Danglar xitob-la.

– Men shu kechaning oʻzida sadaqa aktini roʻyxatdan oʻtkazib qoʻydim.

– Qancha ekan sarmoyasi?

– Uncha koʻp emas, bir million ikki yuz ming chamasi. Keling, oʻzimizning millionlar haqida gaplashaylik.

– Marhamat, – dedi gʻoyat tabiiy ohangda Danglar. – Bu pul sizga hozir juda zarurmi?

– Juda zarur: ertaga kassamizni taftish qiladilar.

– Ertaga? Nega buni darrov ayta qolmadingiz?.. Ertagacha, eh-he, qancha bor hali!.. Taftish soat nechada boʻladi?

– Soat ikkida.

– Tush paytida odam yuboring, – dedi Danglar iljayib.

Bovil javoban katmonini silkitdi-da, boshini qimirlatib qoʻya qoldi.

– Yoki boshqacha bir iloj qila qolaylik, – dedi Danglar.

– Xoʻsh, qanaqa iloj ekan u?

– Graf Monte-Kristoning tilxati ham pul-ku; bu tilxatni Rotshild yoki Laffit bankiga olib borsangiz, ular darhol

qabul qilib oladi.

– Ular Rim bilan hisob-kitob qilishi kerak-ku?

– To‘g‘ri, siz faqat hisob-kitob uchun besh-olti ming frank yutqizasiz, xolos.

G‘aznachi irg‘ib o‘rmidan turdi.

– Yo‘q, bo‘lmaydi; undan ko‘ra ertagacha kutganim ma‘qul. Besh-olti ming hazilakam pulmi? Aytishga oson!

– Kechiring, – dedi Danglar bezbetlik bilan, – men uncha-muncha etishmovchilik bo‘lsa o‘rniga qo‘yarsiz deb o‘ylagandim.

– Nima deyapsiz o‘zi! – dedi xitob qilib g‘aznachi.

– Bizda bunday hollar bo‘lib turadi; o‘shanda zarar ko‘rsang ham xo‘p deyishga majbur bo‘lasan kishi.

– Xudoga ming qatla shukrki, menda bunday hol yuz bergani yo‘q, – dedi Bovil.

– Unday bo‘lsa, ertagacha sabr qilasiz, bo‘ptimi, azizim?

– Bo‘pti, ertaga albatta bo‘ladimi?

– Hazil emas! Tushda odamingizni yuboravering, men bankni ogohlantirib qo‘yaman.

– Men o‘zim kelaman.

– Yana yaxshi, tag‘in siz bilan diydor ko‘rishishga mu-yassar bo‘laman.

Ular qo‘l siqishib xayrlashdilar.

– Aytmoqchi, – dedi Bovil, – siz sho‘rlik mademuazel de Vilforni ko‘mish marosimida qatnashmaysizmi? Men Bulvarda marosimni ko‘rdim.

– Yo‘q, – dedi bankir, – Benedetto bilan bo‘lgan voqeadan keyin yuzim shuvut bo‘lib, hamon jamoatdan yashirinib yuribman.

– Bekor qilasiz, sizda nima gunoh?

– Bilasizmi azizim, nomiga hech dog‘ tushmagan odamga og‘ir bo‘larkan.

– Hamma sizga achinyapti, ayniqsa, qizingizga.

– Sho‘rlik Ejeni! – dedi Danglar xo‘rsinib, – qiz bechoraning monastirga ketganidan xabaringiz bo‘lgandir?

– Yo‘q, eshitmadim.

– Baxtsizlikka qarshi qizimiz shunday qildi; o’sha janjalning ertasiga bir monax dugonasi bilan ketib qoldi. Italiya yoki Ispaniyada birorta tartib-qoidasi mahkamroq monastir topib kirmoqchi.

– Bu juda xunuk bo’pti-da! – dedi de Bovil va qizning otasiga juda achinib chiqib ketdi.

U ketishi bilan Danglar uning orqasidan mazax qilib:

– Xumkalla!!! – dedi..

So’ng Monte-Kristoning tilxatini kichkina katmonchaga solib yashirdi-da, qo’shib qo’ydi:

– Tushda kel! Tushda mening bu erda izimni ham topolmaysan!

Shunday dedi-da, eshikni qulfladi, kassasining hamma yashiklaridagi ellik ming frankka yaqin chek qog’ozlarni bitta qo’ymay yig’ishtirib oldi, allaqanday qog’ozlarni kuydirib tashladi, ayrimlarini ko’rinadigan joyga taxlab qo’ydi, so’ng o’tirib xat yozdi; xatni yozib bo’lib konvertga soldi va ustiga «Danglar xonimga», deb yozib qo’ydi.

– Bu xatni kechqurun o’zim xonimning pardozi stolchasiga tashlab qo’yaman, – dedi ming’irlab u.

So’ngra stol tortmasidan pasportini olib:

– Juda soz! Yana ikki oylik muddati bor ekan, – dedi.

## VIII. PER-LASHEZ QABRISTONI

Darhaqiqat, Bovil Valentinani dafn etish marosimi ustidan chiqdi.

Osmonning qovog’i soliq edi. Iliq shamol yarim yalang’och shoxlardagi za’faron yaproqlarni uzib, Bulvarni to’ldirgan olomon ustida horg’in esardi.

Parijning asl fuqarosi Vilfor parijlik oila a’zolaridan birining jasadini mamnunlik bilan qabul qilayotgan Per-Lashez qabristoniga qarab turardi. Boshqa qabristonlarning hammasi uning nazarida yog’och jihozlar bilan yasatib qo’yilgan allaqanday murdaxonaga o’xshardi. Nufuzli tabaqa marhumlari o’zlarini faqat Per-Lashez qab-

ristonidagina o'z uyida yotgandek bilishardi.

Vilfor shu qabristondan xonadoni uchun joy sotib olib, maqbara qurdirdi va unga tez orada ilk oila a'zolari ko'mildi.

Maqbara tepasiga Valentinaning onasi marhuma Rene: «Sen-Meran va Vilforlar oilasi», deb yozdirib qo'ygan edi.

Behisob izvoshlar birin-ketin Sen-Onoredan Per-Lashezga yo'l oldi, butun Parijni kesib, Tampldan o'tib chetdagi Bulvardan qabriston tomonga yurishdi. Yigirmata motam foytuni ketidan ellikta xususiy izvosh, ular ketidan besh yuz nafardan ortiq piyodalar borardi.

Bular yoshlar edi; Valentinaning vafoti yoshlarni larzaga solgan edi; zamonada qoloq fikrlar hukmronligiga, davrning ko'ngilsizligiga qaramay, bu yoshlar gul-gul ochilgan paytida juvonmarg bo'lgan go'zal, pokiza, jozibador qizga maftun edilar.

Motam namoyishi zastavaga yaqinlashganda to'rt duldul ot qo'shig'liq bir izvosh paydo bo'ldi-da, taqqa to'xtadi; otlarning oldingi oyoqlari nayzadek erga qadalib qoldi, izvoshda kelgan graf Monte-Kristo edi.

Graf izvoshdan tushib marhumani so'nggi yo'lga kuzatib qo'yishga borayotgan piyodalar safiga qo'shildi.

Shato-Reno grafni ko'rishi bilan izvoshini qo'yib, uning yoniga bordi. Boshan ham unga ergashdi.

Graf olomoni diqqat bilan ko'zdan kechirardi; u, aftidan, kimnidir axtarardi. Oxiri:

– Morrel qani? Janoblar, birortangiz Morrelni ko'rmandingizmi? – dedi.

– Biz marhumaning uyida uni qidirib topolmadik, – dedi Shato-Reno.

Graf indamay, yana atrofga alanglab boraverdi.

Axiyri qabristonga etib kelishdi.

Monte-Kristo daraxtzorlarni sinchiklab kuzatdi; so'ng bir ko'lankaga ko'zi tushdi-yu, axtargan kishisini topdi shekilli, tinchlandi.

Bu hashamatli qabristonda dafn etish marosimlari qanaqangi dabdaba bilan o'tishini hamma biladi: oppoq

xiyobonda qop-qora odamlar to‘da-to‘da bo‘lib olishgan, borliq mudhish sukutda; ahyon-ahyonda qabrlar ustidagi daraxtlardan uzilib tushayotgan yaproqlarning shitir-shitiri eshitiladi, xolos; kohinlarning mungli tovushlariga gulzor orqasida qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib turgan ayollarning yig‘isi jo‘r bo‘lardi.

Monte-Kristo ko‘rgan ko‘lanka Eloiza va Abelyar qabri orasidagi daraxtzorlardan yugurib o‘tdi-da, namoyishning oldida borayotgan mash‘alchilar safiga qo‘shildi va ular bilan birga qabr yoniga bordi.

Qabristondagi hamma narsalarni birma-bir ko‘zdan kechirgan Monte-Kristo esa haligi ko‘lankadan ko‘zini uzmasdi; undan boshqa deyarli hech kim ko‘lankani payqamadi.

Graf ikki marta qatordan chiqib, haligi odam kiyimi orasiga yashirib olgan quroliga qo‘l yugurtirmayaptimikan, deb qarab ham qo‘ydi.

Izvoshlar to‘xtagach, bu ko‘lanka Morrel ekanligi hamмага ayon bo‘ldi. Uning rangi o‘chgan, yuzlari so‘lg‘in, kamzulining hamma tugmalari solig‘liq edi, maqbara ustidagi do‘nglikda titroq qo‘llari bilan shlyapasini hadeb g‘ijimlardi, shu zaylda u qayg‘uli marosimni aniq ko‘rib turardi.

Hamma narsa har vaqtdagi tartib-qoidalarga muvofiq bajo keltirildi; odatdagidek, hammadan kam qayg‘uradigan bir necha kishi nutq so‘zladi; ba‘zilar bu bevaqt judolikka chidolmay qon yig‘lar, ba‘zilari esa otasini farzand dog‘i ezayotgani haqida gap sotardi: hatto, Valenti-na otasi janob deb Vilfordan bir necha bor u o‘limga mahkum etgan gunohkorga rahm-shafqat qilishini iltimos qilgan ekan, deganlar ham bo‘ldi, xullas, har kim og‘ziga kelganini gapirar, biri olib, biri qo‘yardi.

Monte-Kristoning quloqlari bu gaplarni eshitmas, u ko‘zlarini bir joyda toshday qotib qolgan Morreldan uzmasdi.

– Qarang! – dedi Boshan Debrega, – ana, Morrel! Uning topgan joyini qarang-a!

Ular Morrelni Shato-Renoga ko'rsatishdi.

– Rangini qarang, devor-a! – dedi Shato-Reno.

– Sovqotgandir-da, – dedi e'tiroz bildirib Debre.

– Unday emas, – dedi ohista Shato-Reno, – menimcha, u qattiq hayajonda. Maksimilian nihoyatda ko'ngli bo'sh odam.

– Unday bo'lishi mumkin emas! – dedi Debre. – O'zingiz aytmovdingizmi, mademuazel de Vilfor bilan u uncha tanish ham emas, deb.

– To'g'ri. Har qalay, de Morser xonimning ziyofatida u Valentina bilan uch marta raqs tushdi; bilasizmi, graf, hu o'sha siz hammani hayratda qoldirgan ziyofatda.

– Yo'q, bilmayman, – dedi Monte-Kristo hatto kimga va nima uchun javob berayotganini sezmay: uning fikru zikri nafas olishdan ham qo'rqayotgan kishi singari betlari qizarib ketgan Morrelda edi.

– Ma'ruza tugadi, xayr endi, janoblar, – dedi qo'qqisdan Monte-Kristo va birpasda g'oyib bo'ldi; uning qayoqqa g'oyib bo'lganini hech kim bilmay qoldi.

Motam marosimi tugab, odamlar qaytishdi.

Faqat Shato-Reno Morrelni istab qolgan edi; biroq u ketib borayotgan graf orqasidan qarab turganda Morrel ko'zdan g'oyib bo'lgandi; Shato-Reno uni topolmay, Debre bilan Boshan ketidan yo'l oldi.

Monte-Kristo katta bir qabr orqasidagi changalzorga yashirinib olib, tomoshabinlar va ulardan keyin go'rkovlar tashlab ketgan maqbara tomonga yaqinlashib kelayotgan Morreldan ko'z uzmay, uning har bir harakatini diqqat bilan kuzatib turardi.

Morrel sekin yon-veriga qarab oldi, u orqasini o'girganida Monte-Kristo yana o'n qadam yaqinroqqa keldi.

Maksimilian tiz cho'kdi.

Graf xiyol engashdi-da, ozgina qo'pol harakatni sezishi bilan o'zini tashlashga tayyor kishidek, ko'zlarini o'qday tikib Morrelga yaqinlashaverdi.

Morrel maqbaraning tosh devoriga peshanasini qo'yganicha, ikki qo'li bilan panjarani tutib:

– Valentina! – dedi ingrab.

Maksimilianning ovozidagi mung va qaygʻudan grafning yuragi ezildi; u olgʻa yana bir qadam tashladi-da, Morrelning elkasidan turtib:

– Azizim, bu erda ekansiz-ku, men sizni qidirib yuribman, – dedi.

Monte-Kristo, bechora endi rosa arz-dod qilsa kerak, deb oʻylagan edi, ammo unday boʻlmadi.

Morrel grafga oʻgirilib qaradi-da, osoyishtalik bilan:

– Mana, koʻrdingizmi, ibodat qilyapman, ibodat! – dedi.

Monte-Kristo sinovchan koʻzlari bilan Maksimilianga boshdan-oyoq bir qarab oldi va shu bilan bir oz koʻngli joyiga tushgandek boʻldi.

– Istasangiz, shahargacha olib borib qoʻyay? – dedi u Morrelga.

– Rahmat, keragi yoʻq.

– Biror narsaga ehtiyoj yoʻqmi sizda?

– Toat-ibodat qilib olsam bas, shu etarli.

Graf indamay bu erdan uzoqlashdi va yana boyagi erga oʻtib yashirindi-da, Morrelni kuzatib turdi. Maksimilian ibodatni tugatib, oʻrnidan turdi, tizzasidan changni qoqib tashladi, soʻng orqasiga qaramay Parijga yoʻl oldi.

U La-Roket koʻchasidan asta yurib oʻtdi.

Graf qabriston darvozasi oldida kutib turgan izvoshni joʻnatib yuborib, Maksimilian ketidan yuz qadam orqada boraverdi.

Maksimilian kanaldan oʻtib, Bulvar orqali Mele koʻchasiga chiqdi.

Morrel ketidan yopilgan eshik besh daqiqa oʻtar-oʻtmas Monte-Kristoga ochildi.

Jyuli bogʻda, oʻz hunariga mehr qoʻygan usta bogʻbon Pekelonning bengaliya atirgullarini chilpishini kuzatib turardi.

– Graf Monte-Kristo! – qichqirdi u quvonch bilan. Bu oilaning hamma aʼzolari grafni hamisha ana shunday quvonch bilan kutib olardi.

– Chamamda, Maksimilian hozirgina qaytib keldi, shun-



daymi? – so‘radi graf.

–Ha, keldi, – dedi Jyuli, – marhamat, ichkariga kiring, hoy, Emmanyuelni chaqirsanglar-chi.

– Kechirasiz, xonim, – dedi e‘tiroz bildirib Monte-Kristo, – men darhol Maksimilianning oldiga kirishim kerak, unda juda zarur ishim bor.

– Unday bo‘lsa, kiravering uning oldiga, – dedi Jyuli grafni zinadan g‘oyib bo‘lguncha iliq tabassum bilan ku-zatib.

Monte-Kristo Maksimilian istiqomat qiladigan uchinchi qavatga yugurib chiqdi-da, ayvonchada to‘xtab quloq soldi: hamma yoq suv quygandek jimjit edi.

Xo‘jayinlarning o‘zlari yashaydigan qadimiy uylarda ayvonga qaragan bitta oynaband eshigi bo‘lardi, biroq bu eshikning sirtida kaliti yo‘q edi.

Maksimilian eshikni ichidan qulflab olgandi, oynaga ichkaridan qizil shoyi parda tutilgan, tashqaridan hech narsa ko‘rib bo‘lmasdi.

Grafning betiga qon yugurdi: bu uning nihoyatda hayajonga tushganining alomati edi. U bir daqiqa o‘ylanib qoldi.

– Endi nima qilmoq kerak? – dedi u pichirlab. – Qo‘ng‘i-roq ursammikin? Yo‘q, bunday qilish yaramaydi! Maksimilianning hozirgi ahvoliga tushgan odam qo‘ng‘iroqni eshitiboq bir yoqlik bo‘ladi-qo‘yadi, javob o‘rniga boshqacha ovoz berishi mumkin.

Monte-Kristoning a‘zoyi badani titrab ketdi, u odatdagidek darhol bir qarorga keldi-da, tirsagi bilan eshik oynasini qarsillatib urdi, oyna chilparchin bo‘ldi, pardani ko‘tarib qaradi – yozuv stoli oldida qo‘lida patqalam tutib o‘tirgan Morrel cho‘chib orqasiga qaradi.

– Hechqisi yo‘q, – dedi graf, – Xudo haqqi, meni kechiring, azizim, qoqilib, tirsagim oynangizga tegib ketdi; singan oynadan o‘zim ochib kira qolay, siz aslo bezovta bo‘lmang!

Graf oyna sinig‘idan qo‘lini suqib, eshikni ochdi.

Morrel ensasi qotib o‘rnidan turdi-da, kutib olishdan

ko'ra ko'proq yo'lini to'sish uchun Monte-Kristoga peshvoz chiqdi.

– Ochig'ini aytganda, xizmatchilaringiz aybdor, – dedi Monte-Kristo tirsagini artib, – parketni oynaday yarqiratib artishadi-da.

– Biror eringiz lat emadimi? – dedi sovuqqina ohangda Morrel.

– Qaydam. Uni qo'ying-buni qo'ying, o'zingiz nima qilib o'tiribsiz? Yozayotganmidingiz?

– Menmi?

– Barmoqlaringiz siyohga bo'yalib ketibdi-ku.

– Ha, yozib o'tirgandim, – javob qildi Morrel, – harbiy bo'lsam-da, ba'zan yozuv-chizuv ishlari bilan ham shug'ullanib turaman.

Monte-Kristo bir necha qadam tashladi, Maksimilian uning yo'lini to'solmay, orqasidan borishga majbur bo'ldi.

– Yozib o'tirganmidingiz? – dedi so'zini davom ettirib; uning ko'zlari Morrelga o'qday tikilgandi.

– Ha, shunday, – dedi Morrel. Graf atrofga bir razm solib chiqdi.

– Siyohdon yoniga to'pponchani qo'yib-a? – dedi graf Morrelga stol ustidagi to'pponchani ko'rsatib.

– Sayohatga ketyapman, – dedi Maksimilian.

– Azizim! – dedi Monte-Kristo cheksiz mehribonlik bilan.

– Janob!

– Azizim Maksimilian, bunchalik umidsizlikka tushmang, iltimos qilaman sizdan!

– Qanaqa umidsizlik bo'lishi mumkin menda? – dedi Morrel elkasini qisib. – Qachondan beri sayohat qilish umidsizlik bo'lib qolgan ekan?

– Keling, niqobni olib tashlaylik, Maksimilian, – dedi Monte-Kristo. – Yuzaki osoyishtalik bilan meni alday olmaysiz. Bilib turibsizki, oynani behudaga sindirib, do'stimning oldiga kirganim yo'q; chinakam xavotir olib shunday qilyapman. Morrel, siz o'z joningizga o'zingiz qasd qilyapsiz.

– Bo‘lmagan gap! – dedi Morrel seskanib. – Bu gapni qayoqdan topdingiz, graf?!

– Yana qaytarib aytamanki, siz joningizga qasd qilmoqchisiz, – davom etdi graf haligi ohangda, – mana dalil.

Graf stol yoniga borib, xatni oldi.

Morrel xatni uning qo‘lidan tortib olmoqchi bo‘ldi. Biroq, Monte-Kristo buni oldindan payqagandi, Maksimilianni qo‘lidan mahkam tutib, to‘xtatdi.

– O‘zingizni o‘ldirmoqchi edingiz, Morrel, – dedi u. – Mana, oq qog‘ozga shunday deb yozib qo‘yilibdi!

– Xo‘sh, nima bo‘pti! – dedi Morrel o‘zining asl qiyofasiga kirib. – Xo‘sh, basharti men mana shu to‘pponcha bilan chakkadan otsam, kim menga xalaqit bera oladi? Kim?

Agar men: butun orzu-umidlarim puchga chiqdi, abgor bo‘ldim, atrofimni zimiston va qabohat qoplab oldi, oyog‘im ostidagi er toptaldi, odam ovozi eshitsam bag‘rim qonga to‘ladi, desam kim bir nima deya oladi?

Agar men: meni o‘ldirgan kimsa rahm-shafqat qilgan bo‘ladi, aks holda aqldan ozaman, jinni bo‘laman, desam birov bir narsa deydimi?

Agar men bu gaplarni qayg‘u-alam bilan qon yig‘lab aytсам, kim menga «siz nohaqsiz!» – deya oladi, kim? Baxtsizlarning eng baxtsiz bo‘lishimga kim xalaqit bera oladi? Kim?

Sizmi, graf, siz shunday deyishga jur‘at eta olasizmi?

– Ha, Morrel, – dedi qat‘iy qilib Monte-Kristo Maksimilianning o‘ta hayajonlanib gapirishiga qarshi o‘laroq, xotirjamlik bilan, – men ayta olaman!

– Siz-a?! – dedi Morrel kinoya va g‘azab bilan xitob qilib. – Qo‘ynimni puch yong‘oqqa to‘ldirgan odam siz-ku. Sevgilimni o‘limdan qutqarib qolish uchun yoki hech bo‘lmasa jon berayotganda bag‘rimga bosib vidolashish uchun so‘nggi choralarni ko‘rayotganimda shashtimdan qaytargan siz emasmisiz? Yolg‘on va‘dalar berib aldagan o‘zingiz emasmidingiz? Men hamma narsaga qodirman, deb maqtangan edingiz-ku! Xo‘sh, nima bo‘ldi? Qani

o'sha qudratingiz, mo'jizakor kuchingiz? Qani? Jillaqurmasa qizga berilgan zaharni qaytarishga ham qurbingiz etmadi-ku! Axir bu noinsoflik, qabihlik emasmi, janob? Men hazar qilaman!

– Morrel!

– Shunday, siz menga niqobni tashla, dedingiz, mana, niqobni ham tashladim, ko'rdingizmi? Ketimdan qabris-tonga kelayotganingizda hamma savollaringizga ko'ngil-chanlik bilan javob berdim, bu yoqqa ham kirishingizga xalaqit bermadim... Ammo, pichoq borib suyakka qadaldi, hatto uyimda ham meni tinch qo'ymadingiz: doim orqamdan ta'qib qilib, meni ming xil azobga soldingiz... Menim qalbaki valine'matim, panohkorim, endi har qancha quvonsangiz arziydi: bugun do'stingiz ko'z oldingizda jon beradi.

Morrel shunday dedi-da, beo'xshov qah-qah urib, yana to'pponchasiga yopishdi.

Rangi murdaday oqarib ketgan Monte-Kristo ko'zlarini olaytirib, to'pponchani shippa bosdi va aqldan ozayotgan Morrelga qarab:

– Yana takror aytaman: siz o'lmaysiz! – dedi.

– O'lgani ham qo'ymaysizmi? – dedi Morrel yana to'pponchaga yopishib, biroq bu gal ham grafning me-tiniday qo'llariga uning kuchi etmadi.

– Yo'q, qo'ymayman!

– Hoy, menga qarang, siz o'zi kimsiz? Erkin va esli ki-shilar ustidan hukmronlik qilishga kim huquq berib qo'ydi sizga?! – dedi xitob qilib Maksimilian.

– Kimman? – dedi takrorlab Monte-Kristo. – Men: «Mor-rel, otangning o'g'li shu bugun o'lishini istamayman!» dey-ishga haqi bor dunyodagi birdan-bir odamman.

Shunday dedi-da, graf birdan o'zgardi, salobat va g'urur bilan qo'llarini qovushtirib, Maksimilianga yaqin keldi, deyarli ilohiy kuchga ega bu zot oldida ojiz qolgan Morrel dag'-dag' titrab, bir qadam orqaga tisarildi-da:

– Nima uchun otamga til tekkizyapsiz? – dedi zo'rg'a tovush chiqarib. – Bugun yuz bergan voqealarning otam-

ga nima aloqasi bor?

– Shuning uchunki, otangiz ham xuddi sizga oʻxshab oʻzini oʻldirmoqchi boʻlganida men qutqarib qolganman, singlingizga hamyon, keksa Morrelga yangi «Faraon» yuborgan ham men boʻlaman, men oʻsha vaqtlarda sizni tizzasiga olib erkalagan Edmon Dantesman.

Morrel angrayib qoldi, soʻng gandarab yana bir qadam orqaga tisarildi-da, holdan toyib, «O-oh!» degan-cha oʻzini Monte-Kristo oyogʻiga tashladi.

Sum oʻtmay jonon yigit birdan oʻzgardi: oʻrnidan sapchib turdi-da, ovozining boricha: – Jyuli! Emmanyuel! – deb qichqirib, tashqariga otili.

Monte-Kristo uni toʻxtatmoqchi boʻlib orqasidan yugurdi, ammo Maksimilian eshikni mahkam bekitib, grafni chiqarmadi.

Maksimilianning qichqirigʻini eshitib kapalagi uchib ketgan Jyuli va Emmanyuel xizmatchilari bilan chopqilab kirishdi.

Morrel ularning qoʻlidan tutib, eshikni ochdi.

– Tiz choʻkib taʼzim qilinglar! Taʼzim! – dedi xitob qilib: yigʻi uning ovozini boʻgʻib qoʻygan edi. – Mana, bizning xaloskorimiz! Otamizni halokatdan qutqarib qolgan ulugʻ zot – mana!..

U «Mana, Edmon Dantes!» demoqchi boʻlgan edi, graf uni qoʻlidan ushlab toʻxtatdi.

Jyuli va Emmanyuel qarshisida xuddi najotkor Tangri paydo boʻlgandek, grafni quchoqlab olishdi, Morrel yana etti bukilib taʼzim qildi.

Temir irodali grafning yuragi pora-pora boʻldi, bagʻridan otilib chiqqan qon koʻzlariga urdi; u boshini quyi soldida, yigʻlab yubordi. Xonada anchagacha yigʻi-sigʻi tinmadi. Bu quvonch, shodlik yigʻisi edi.

Jyuli hayajondan zoʻrgʻa oʻziga kelib tashqari yugurdi, bir qavat pastga, mehmonxonaga tushib, oynak qopqoqni koʻtardi va Melyan xiyobonidan bir notanish kishi sovgʻa qilgan hamyonni oldi.

Bu orada Emmanyuel titroq ovoz bilan Monte-Kristo-

ga xitob qilardi:

– Oh, graf, qani endi siz u notanish xaloskorimizni kechayu kunduz zo‘r hurmat va minnatdorchilik bilan esga olib, haqiga duo o‘qiyotganimizni bilsangiz edi! Buncha uzoq niqoblanib yurishga qanday sabringiz chidadi, a? Axir bu bizga nisbatan, hatto o‘zingizga nisbatan ham berahmlik, shafqatsizlik-ku!

– Aziz do‘stim, dedi graf, – oldindan aytib qo‘yay: sizni aziz do‘stim deyishga haqliman, chunki siz o‘n bir yildan buyon mening do‘stimsiz; muhim bir voqea meni bu sirni oshkor qilishga majbur etdi, bu qanaqa sirligini sizga aytolmayman. Xudo haqqi, bu sirni umr bo‘yi qalbimning to‘rida saqlamoqchi edim. Biroq Maksimilian do‘q-po‘pisa bilan uni yuragimdan sug‘urib oldi. Lekin keyinchalik o‘zi pushaymon eydi.

Maksimilian hamon tiz cho‘kkancha nariroqdagi o‘rin-diqqa iyagini tirab o‘tirardi.

– Siz uni ko‘zdan qochirmang, – qo‘shimcha qildi Monte-Kristo va Emmanyuelning qo‘lini ma‘nodor qisib qo‘ydi.

– Nega endi? – so‘radi ajablanib Emmanyuel.

– Sababini aytolmayman, ammo albatta ko‘z-quloq bo‘lib turing.

Emmanyuel xonani bir boshdan qarab chiqdi va Morrelning to‘pponchalariga ko‘zi tushdi-da, kayfi uchinqirab, Monte-Kristoga ko‘rsatdi.

Monte-Kristo bosh qimirlatib qo‘ydi.

Emmanyuel to‘pponchaga qo‘l uzatgan edi, graf to‘xtatdi, so‘ng borib Morrelning qo‘lidan tutdi: hozirgina asablari jo‘shib turgan Maksimilian taxtaday qotib qolgandi.

Qo‘lida mashhur shohi hamyonni ko‘tarib Jyuli kirdi; uning yonoqlaridan ikki dona marvarid dumalab tushdi.

– Mana o‘sha aziz yodgorlik, – dedi u, – xaloskorimiz kim ekanligini bilgandan so‘ng bu bilan necha pullik ishimiz bo‘lardi, deb o‘ylamang tag‘in.

– Qizim, – dedi qizarib Monte-Kristo, – ruxsat eting, hamyonni qaytarib olay: mana endi siz meni yaxshilab

tanib oldingiz; bundan buyon faqat o'zingiz in'om etgan do'stlik mendan sizga yodgorlik bo'lib qolsin.

– Yo'q, yo'q, o'tinaman, buni olib ketmang, – dedi xitob qilib Jyuli hamyonni ko'ksiga bosib, – axir siz ketib qolib, bizni judolik o'tiga tashlashingiz mumkin-ku, shundaymi?

– To'g'ri aytdingiz, – dedi Monte-Kristo jilmayib, – bir haftadan so'ng men bu mamlakat bilan vidolashaman. Sonsiz gunohkori azimlar baxtiyor yashagan bu yurtida mening bechora otam ochlik va qayg'u-alamdan o'lib ketdi.

Monte-Kristo ketayotganiga ishora qilib Morrelga qaradi. «Bu mamlakat bilan vidolashaman» degan so'zlar Morrelni hushiga keltirmagandi; demak, g'am-alamga qarshi yana bir jangga bardosh bermog'i lozim; u Jyuli bilan Emmanyuelning qo'lidan tutdi-da, otalarcha mehribonlik bilan:

– Aziz do'stlarim, – dedi, – Maksimilian bilan ikkimizni tanho qoldirishingizni iltimos qilaman.

Jyuli Monte-Kristoning yodidan ko'tarilgan qimmatbaho yodgorlikni olib ketish imkoniyati tug'ilganini sezdi-da: – Qani, yur, – dedi erini shoshiltirib.

Graf turgan joyidan qimirlamay:

– Menga qarang, Maksimilian, – dedi amirona, yigitning elkasiga qo'lini tashlab, – odam bo'lasizmi yoki yo'qmi?

– Ha, tag'in g'amga botyapman.

Graf peshanasini tirishtirdi, dilini qandaydir og'ir shubha chulg'agandek edi.

– Maksimilian! – dedi u, – bu xristian yigitga munosib fikrlar emas.

– Xotirjam bo'ling, aziz do'stim, – dedi Maksimilian va boshini ko'tarib g'amgin iljayib qo'ydi, – men o'lim ketidan quvmayman.

– Demak, – dedi Monte-Kristo, – to'pponcha bilan orani uzasiz, shundaymi? O'z joningizga qasd qilish fikridan batamom voz kechasiz, shundaymi?

– Yo'q, to'pponcha va xanjardan bo'lak dardimga davo

bo'ladigan o'tkirroq narsa bor-ku axir menda!

– E, bechora tentak!.. Xo'sh, nima ekan u?

– Dardu alamim; shuning o'zi meni adoyi tamom qiladi.

– Do'stim, quloq soling, – dedi Monte-Kristo qayg'uli ohangda, – bir gal men ham sizga o'xshab umidsizlikka tushgan paytimda o'zimni o'zim o'ldirmoqchi bo'lgandim; otangiz ham shunday qilmoqchi bo'lgandi. Bordi-yu, chakkasiga to'pponchanning og'zini taqab turganda otangizga yoki turmada ochlikdan chala o'lik bo'lib yotganda menga kimdir: «Yelkangizga baxt qushi qo'nadigan kun albatta keladi! Kelajagingiz porloq!» desa, biz bunga kinoyali kulib qo'ya qolgan, aslo ishonmagan bo'lur edik. Buni qarangki, otangiz sizni bag'riga bosib, Xudoga shukrlar qildi, men ham shunday qildim!..

– Ammo siz faqat ozodlikdan, otam esa faqat boylikdan mahrum bo'lganlar. Men-chi? Men Valentinadan judo bo'ldim!

– Menga qarang, Maksimilian, – dedi Monte-Kristo o'zini yana ham salobatliroq ko'rsatib. – Ko'zlarimda yoshdan asar yo'q, asabim hali joyida, dilim majruh ham emas, biroq siz ayriliq o'tida yonayotganingizni ko'rib turibman. Axir, mana shuning o'zi ham hayot-ku! Ana shu dard-alam ham tagi yo'q kelajakka ishora-ku! Sizdan ham iltimos qilaman, ham buyuraman: o'lmang, yashang! Baxtiyor kunlarga erishasiz, o'shanda hayotingizni saqlab qolganligim uchun mendan minnatdor bo'lasiz.

– Yo, alhazar! – dedi ajablanib yigit, – nega bunday de-yapsiz, graf? Nega? O'ylab gapiring! Ehtimol, siz hech vaqt hech kimni sevmagandirsiz?

– Go'daksiz-da, go'dak! – dedi graf.

– Chin dildan sevmagansiz, demoqchiman, – dedi so'zini davom ettirib Morrel. – Bilasizmi, men bolagimdan buyon soldatman: yigirma to'qqiz yoshimgacha sevgi nimaligini bilmadim, chunki ilgari tuyg'ularimni chin muhabbat deb bo'lmasdi, yigirma to'qqiz yoshimda



Valentinani uchratdimu, unga oshiqu beqaror bo'ldim. Ikki yildirki, Tangrim o'zi bitgan bu muhabbat dostonidan ko'zimni ololmayman. Azizim graf, Valentina mening bir umrlik baxtim edi. Buyuk va ilohiy baxtim edi. Men uchun jahonda undan ham ulug', undan ham muqarrarroq baxt yo'q edi. Taqdir menga uni ravo ko'rmagan ekan, demak, bu jahonda mening nasibam nuqul dard-alam, g'am-g'ussa bo'lib qoldi.

– Men sizga: umidingizni uzmay dedim, – takrorladi graf.

– O'ylab gapiring, graf, yana qaytarib aytaman, o'ylab gapiring! – dedi Morrel, – siz meni inontirishga, umidvor qilishga urinyapsiz, xo'p, meni ishontirishingiz ham deylik, u holda yana Valentina bilan diydor ko'risharkanman, deb aqldan ozishim mumkin.

Graf jilmayib qo'ydi.

– Do'stim, padari buzrukvorim! – dedi xitob qilib Morrel. – Uchinchi bor aytaman: o'ylab gapiring, meni salobatingiz bosmoqda, nahotki, bu so'zlarni o'ylab gapirayotgan bo'lsangiz? So'zlaringiz ko'zimga nur, qalbimga surur baxsh etyapti. Men g'ayri tabiiy hol yuz berishi mumkin, deb ishonishga ham tayyorman!

Mabodo Iaira qizi qabridan tosh olib kel desangiz, amringizni bajo keltirishga tayyorman; birgina imoingiz bilan, Apolstol kabi to'lqinlar ustida qadam tashlab borishga tayyorman!

– Umidsizlanmang, do'stim, – takrorladi graf.

– Yo'q, – dedi Morrel yana ruhi tushib, – siz meni mazax qilyapsiz, xuddi shirin-shirin so'zlar bilan bemor go'dagini yupatayotgan mehribon, to'g'rirog'i, xudbin onaga o'xshaysiz; axir dardman bola xarxasha qilavergach, onaning ensasi qotadi-da! Siz mendan xotirjam bo'ling, dardu alamimni yuragimda shu qadar mahkam sir tutamanki, sizga hatto ta'ziya bildirish uchun hech qanday zarurat qolmaydi. Alvido, aziz do'stim, alvido.

– Aksincha, Maksimilian, – dedi graf, – bugundan bosh-

lab mening yonimda yashaysiz, biz endi bir-birimizdan ajralmaymiz, bir haftadan so'ng biz Fransiya bilan vidolashamiz.

– Yana umidvor bo'lgin demoqchimisiz?

– Ha, umidvor bo'ling, deyman, chunki men sizning dardingizga davo topish yo'lini bilaman.

– Graf, siz mening yaramga tuz sepyapsiz! Boshimga tushgan bu kulfatni arzimagan sayohatda unutib yuboradi, deb o'ylayapsiz.

Morrel ijirg'anib va gumonsirab boshini chayqab qo'ydi.

– Xo'sh, unday bo'lsa, nima dey sizga? – dedi Monte-Kristo. – Men o'z va'damga hamisha sodiqman, bir urinib ko'raychi, axir.

– Faqat mening ajal soatimni bir oz uzoqqa cho'zasizda.

– Bas qiling, bunchalik irodasizligingizni bilmagan ekanman, – dedi graf. – O'z do'stingizga urinib ko'rishi uchun bir necha kun muhlat berishgayam qurbingiz etmay qoptiya! Axir graf Monte-Kristoning nimalarga qodir ekanligini bilsangiz edi! Bu dunyodagi ne-ne kuch-qudratlarning tizgini mening qo'limda ekanligini bilmaysizmi? Imon – har narsaga qodir deganlar, men Tangriga qattiq ishonaman! Yaqinda mo'jiza yuz beradi, kuting, bunga mening imonim komil... Yo'qsa...

– Yo'qsa... – takrorladi Morrel.

– Yo'qsa... Ehtiyot bo'ling, Morrel, men sizni noshukr banda deb atashim mumkii.

– Shafqat qiling menga!

– Menga qarang, Maksimilian: men sizga juda achinaman; shuning uchun dardingizga davo topaman deyapman; mabodo bir oydan keyin (vaqt-soatini ham esingizda tuting) davo topolmasam, o'zim sizni mana shu o'qlog'liq to'pponcha yoki Italiyaning eng kuchli zahari, Valentinani o'ldirgandan ham kuchliroq zahar bilan o'ldiraman.

– Va'dangiz qat'iymi?

– Ha, qat’iy, chunki men odamman, men dunyodan ko’z yummoqchi edim, hatto kulfat mendan yiroqlashganda ham ko’pincha Tangridan mangulik orom tilardim.

– Demak, va’dangiz qat’iy, shundaymi, graf? – dedi xitob qilib Maksimilian.

– Va’dagina emas, ont ham ichib aytaman, – dedi Monte-Kristo qo’lini osmonga ko’tarib.

– Bir oydan so’ng men oromimni topmasam, ixtiyorim o’zimda bo’ladi, nimani istasam shuni qilaman, shundaymi? O’shanda meni noshukr banda deb atamay-siz, to’g’rimi?

– Roppa-rosa bir oydan so’ng, xuddi mana shu kunning, mana shu soatning o’zida; bu kun muqaddas kun axir, bu sizning xayolingizga ham kelmagan bo’lsa kerak, Morrel! Bugun beshinchi sentyabr! Bundan roppa-rosa o’n yil muqaddam xuddi mana shu kuni otangiz o’zini o’zi o’ldirmoqchi bo’lganda, men uni qutqarib qolgan edim.

Morrel grafning qo’lidan mahkam tutdi-da, qattiq-qattiq o’pdi; graf, shunday sajda qilishlariga munosib odamman, degandek, monelik qilmay gerdayib turaverdi.

– Bir oydan so’ng, – davom ettirdi so’zini Monte-Kristo, – ikkimiz o’tirgan stolda binoyidek qurol va ajalga ega bo’lasiz, lekin o’sha kungacha yashayman deb va’da bering?

– Men ham va’da emas, qasamyod qilaman! – dedi xitob-la Morrel.

Monte-Kristo yigitni o’ziga tortdi-da, mahkam quchoqladi.

– Bugundan boshlab siz menikida turasiz, – dedi u, – Gaydening xonasida turaverasiz, qizim o’rniga yonimda o’g’lim bo’ladi.

– Gayde qayoqda? – so’radi Morrel.

– Shu kecha jo’nab ketdi.

– Sizni tashlab ketdimi?

– Yo’q, u meni kutyapti... Elisey Maydonidagi uyimga

ko'chishga hozirligingizni ko'ravering; hozir esa meni u erdan hech kimga ko'rsatmay chiqarib yuboring.

Maksimilian itoatkorona bosh egib, ta'zim qildi.

## IX. TAQSIMOT

Alber de Morser onasi va o'zi uchun Sen-Jermen-de-Pre ko'chasidan uy topdi. Bu boloxonador uyning butun ikkinchi qavati qandaydir bir sirli shaxsga ijaraga qo'yilgan edi.

Bu odam kirib-chiqib yurganida, hatto eshik oldidagi qorovul ham biror marta uning yuzini ko'rolmagandi; qishda u yuzini xo'jayinini teatr eshigi oldida kutib o'tiruvchi izvoshchilar burkanib yuradigan qizil ro'mol bilan o'rab olardi, yozda esa qorovul yoniga kelishi bilan yuziga ro'molcha tutib, burnini qoqib o'tib ketardi. Qiziq'i shundaki, mahallada bir-birini tinmay ta'qib qiladigan kishilar, bu odamga ko'z qirini ham tashlamas edilar: bu sirli kimsa katta mansabdorlardan, degan mish-mish gaplardan qo'rqib shunday qilishardi.

Uyiga u hamisha bir vaqtda, ba'zan sal erta, yoki sal kechikib kelardi; ammo qishda ham yozda ham uyiga soat to'rtga yaqin kelar, boshqa joyda hech yotib qolmasdi.

Qishda kamsuxan xizmatchi ayol soat uchdan o'ttiz daqiqa o'tganda pechga o't yoqardi; yozda esa ana shu ayol yana xuddi soat uch yarim deganda muzqaymoq keltirib qo'yardi.

Yuqorida aytganimizdek, soat roppa-rosa to'rtta nomal'um zot paydo bo'lardi.

Oradan yigirma daqiqa o'tgach, eshik oldiga bir izvosh kelib to'xtab, izvoshdan qora yoki to'q havo rang kiyimda, yuziga chodir tortgan ayol tushar va qorovul oldidan ko'lanka singari lip etib o'tib, zinadan ohista qadam bosib yuqori ko'tarilardi.

Hech kim biror marta bu ayoldan, kimsiz, deb so'ragan emasdi.

Shunday qilib, bu ayolning yuzini ham xuddi haligi sirli erkakniki kabi ikkala qorovuldan bittasi ham ko'rmagan edi. (Bunaqa odamshavanda, kamtarin qorovullar shaharda juda kamdan-kam topiladi.)

Ayol ikkinchi qavatga ko'tarilib, shartli ravishda eshikni asta qoqar, so'ng eshik ochilib, ayol kirib ketgach, eshik yana mahkam bekilardi.

Uydan chiqqanida ham ahvol shu. Notanish ayol oldin chiqib, o'sha chodirga o'ralgan holda izvoshga o'tirardi; izvosh ba'zan u tomonga, ba'zan esa bu tomonga jo'nab, ko'zdan g'oyib bo'lardi; yigirma daqiqadan so'ng yuzini sharf bilan o'rab yoki ro'molcha bilan bekitib notanish kishi chiqardi-da, u ham allaqayoqqa g'oyib bo'lardi.

Monte-Kristo Danglarnikiga tashrif buyurgan va Valentina dafn etilgan kuni bu sirli zot odatdagicha soat to'rtida emas, ertalab soat o'nga yaqin keldi.

Har galgidek uning ketidan darhol boyagi izvosh keldi va chodirga o'ralgan ayol chopqillab ikkinchi qavatga chiqib ketdi.

Bizga ma'lum eshik ochilib, yopildi. Biroq eshik yopilmay turib ayol ovozi eshitildi:

– Lyusen, azizim!

Mana endi qorovul bu ovozni eshitib, uyda istiqomat qiluvchining nomi Lyusen ekanligini bildi, lekin u odobli qorovul bo'lganligi uchun hatto xotiniga ham bu haqda og'iz ochmaslikka ahd qildi.

– Nima bo'ldi, jonim? – so'radi sirli zot, – gapiring tezroq.

– Sizga ishonsam bo'ladimi?

– Albatta, meni bilasiz-ku. Xo'sh, nima bo'ldi? Xatingizni olib lol bo'lib qoldim; xat deganni shunaqayam shoshmashosharlik bilan yozadimi, hech o'qib bo'lmaydi-ya...Gapiring tezroq, ko'nglim tinchisin: yuragim yorilay deyapti-ku!

– Kutilmagan voqea yuz berdi! – dedi ayol Lyusenga sinovchan tikilib. – Bugun kechasi Danglar juftakni rost-

labdi.

– Ketibdi? Danglar ketibdi? Qayoqqa?

– Bilmadim.

– Iya! Nega bilmaysiz endi? Bundan chiqdi, u butunlay ketibdi-da?

– Shunday bo'lsa kerak. U o'z izvoshida kechqurun soat o'nda Sharanton zastavasiga jo'nabdi; uni u erda pochta izvoshi kutib turgan ekan; qaroli bilan o'sha izvoshga tushib, bizning izvoshimizga, «men Fontenebloga ketdim», deb yo'lga chiqibdi.

– Xo'sh, Fontenebloga ketgan bo'lsa nima bo'пти? Siz tag'in...

– Shoshmang, azizim, avval bu yog'ini eshiting. U menga xat tashlab ketibdi.

– Xat?

– Ha, xat. Mana, o'qing.

Baronessa xatni Debrega uzatdi. Debre o'qishdan oldin go'yo xatning mazmunini bilishga yoki unda nima yozilgan bo'lmasin, oldindan bir fikrga kelib olishga urinayotganga o'xshab bir oz o'ylanib qoldi. Keyin bir fikrga keldi, shekilli, xatni o'qiy boshladi.

Danglar xonimni gangitib qo'ygan bu xatda quyidagilar yozilgan edi:

*«Bekam va bizning vafodor rafiqamiz».*

Debre beixtiyor to'xtadi va qizarib-bo'zarib ketgan baronessaga qaradi.

– O'qing! – dedi Danglar xonim.

Debre o'qishni davom ettirdi:

*«Mazkur xat qo'lingizga tekkanda eringizdan ajralgan bo'lasiz! Ortiqcha qayg'urmay qo'ya qoling, qizidan judo bo'lgan ayolga eridan ajralish hech gap emas, boshqacha qilib aytganda, men Fransiya bilan vidolashganlar jo'naydigan o'ttiz yoki qirq yo'ldan birida bo'laman.*

*Siz mendan buning sababini aytishni kutyapsiz, albat, zotan siz tushunadigan ayollardan bo'lganingiz uchun sababini ham aytib beraman.*

*Quloq bering.*

*Bugun mendan besh million to'lab qo'yishni talab qildilar, men bu talabni bajo keltirdim; uning ketidan ko'p o'tmay yana shuncha to'lov talab etishdi; men buni ertaga qoldirdim; bugun esa o'zim uchun g'oyat ko'ngilsiz ana shu ertangi kundan qochib ketyapman.*

*Siz gap nimadaligini tushunayotgandirsiz, bekam va bebaho rafiqam?*

*«Tushunayotgandirsiz» deyishimning boisi shuki, mening ishlarimni siz mendan ham kam bilmaysiz, hatto mendan ham yaxshiroq bilasiz, chunki yaqindagina ancha salmoqli bo'lgan boyligimning yarmi qayoqqa ketdi, deb savol berganlarida, men javob berolmasdim, siz esa bu vazifani juda qoyilmaqom qilib bajargan bo'lur edingiz.*

*Ayollarning zehni o'tkir bo'ladi, ularning o'zlari kashf etgan shaxsiy aljabri borki, ana shu aljabrga suyanib sizga har qanday mo'jizaning sirini ochib berishadi. Men kaltafahm faqat o'z raqamlarimga mahliyo bo'lib, ular meni chalg'itib qo'yganini bilmay qolibman.*

*Mening yashin tezligida tanazzulga yuz tutganimni ko'rib zavqlangandirsiz, bekam?*

*Yombilarim erib ketayotganini ko'rib, hayratda qolgandirsiz?*

*Iqror bo'lishim kerakki, chaqmoqlar zarbasida ko'zlarim qamashib, shapko'r bo'lib qoldim, lekin sizga kul tagidan bir oz oltin topgandirsiz degan umiddaman. Mana shu shirin umid bilan jo'nayapman, bekam va oqila rafiqam, shuni deb sizni tashlab ketganim uchun vijdon azobiga tushayotganim ham yo'q; do'st-yoronlaringiz hamon huzuringizda hozir, hali aytgan kul va erkinlik yor bo'lsin sizga, bekam.*

*Biroq bu erda ba'zi gaplarni ochiq aytishim kerak.*

*Men dastlab xonadonimiz manfaati uchun qizalog'imiz uchun jon kuydiryapti, intilyapti, deb ishonib, xatti-harakatlaringizdan faylasuflarcha ko'z yumib kelgandim; lekin xonadonni vayronaga aylantirishga harakat etayotganingizni ko'rib, begonaning huzur-halovati uchun*

*poydevor bo'lishni istamayman, deb ahd qildim.*

*Uylanganimda badavlat edingiz, ammo hurmatga unchalik sazovor emasdingiz.*

*Ochig'ini aytganim uchun uzr, men yolg'on-yashiqni qo'shib gapirayotganim yo'q, faqat ikkimizga taalluqli bo'lgan gaplarni aytyapman.*

*Men o'n besh yil mobaynida boyligimizga boylik qo'shib keldim; bu boylik oshib-toshib ketayotgan edi, birdan o'zimga ham noma'lum sirli bir ofat giribonimdan mahkam tutdi-da, hamma boyliklarimni birvarakay sovurdi-qo'ydi. Dadil ayta olamanki, bunda mutlaqo aybim yo'q.*

*Siz, bekam, faqat shaxsiy boyligingizni ko'paytirishga urindingiz va aminmanki, bu borada keragidan ortiq muvaffaqiyat qozondingiz.*

*Xullas, men sizni qanday olgan bo'lsam, shunday holda, ya'ni boylikka ko'mib, biroq uncha hurmatga sazovor bo'lmagan holda tashlab ketyapman.*

*Alvido.*

*Men ham endi bugundan boshlab faqat «o'zing uchun o'l etim» qabilida hayot kechirmoqchiman.*

*Amin bo'ling: bu borada ibrat ko'rsatganingiz uchun minnatdorman va buni o'z hayotimda albatta bajo keltiraman.*

*Sodiq eringiz baron Danglar».*

Xat o'qilib bo'lguncha baronessa Debredan ko'zini bir zum uzmadi, Debre, o'zini tuta biladigan sabotli yigitlardan bo'lishiga qaramay, ikki marta rangi o'zgardi.

U xatni o'qib bo'lib, shoshilmay bukladi-da, yana xaxolga toldi.

– Xo'sh, nima deysiz endi? – so'radi Danglar xonim.

– Nima dedingiz, bekam? – dedi Debre.

– Bu haqda nima deysiz deyapman.

– Menimcha, Danglar shubhalanib yurgan bo'lsa kerak, bekam.

– Shunday, albatta. Lekin, nahotki, menga bundan bo-



shqa aytadigan gapingiz bo'lmasa?

– Gapingizga tushunmayapman, – dedi Debre sovuq ohangda.

– U ketdi! Butunlay ketdi! Hech qaytib kelmaydigan bo'lib ketdi.

– Siz bunga ishonmang, baronessa, – dedi Debre.

– Yo'q, yo'q, endi u qaytib kelmaydi, men uning fe'lini bilaman; o'z manfaati uchun jonini ham ayamaydi. Mabodo u meni o'ziga naf keltiradigan xotin deb hisoblaganda, albatta, birga olib ketardi; aksincha, meni Parijda qoldirib ketyapti, demak, ajralish uning ko'nglida azaldan bor ekan, xullas, men ozod qushman, – dedi qo'shimcha qilib Danglar xonim qayg'uli ohangda.

Debre indamadi va xonimga tasalli beradigan biror so'z ham aytmadi, oraga jimlik cho'kdi. So'ng xonim:

– Iya, nega jim bo'lib qoldingiz? – dedi.

– Men sizga faqat bitta savol berishim mumkin: endi nima qilmoqchisiz?

– Men sizga shunday savol bermoqchi bo'lib turgandim, – dedi yuragi duk-duk urib Danglar xonim.

– Mendan maslahat so'ramoqchimingiz?

– Ha, maslahat so'ray deb turgandim, – dedi mungli ohangda.

– Unday bo'lsa, – dedi sovuq ohangda Debre, – men sayohatga chiqishni maslahat beraman.

– Sayohatga! – dedi zo'rg'a ovoz chiqarib Danglar xonim.

– Ha, sayohatga. Danglar aytgandek, boyvuchchasiz va o'z erkingiz o'zingizda. Ikkala mojarodan so'ng (Ejening to'yi buzilgani va Danglarning g'oyib bo'lgani), menimcha, Parijdan chiqib ketganingiz ma'qul. Ammo eringiz tashlab ketganini hamma bilmog'i lozim: shuningdek, hamma sizni kambag'al deb bilsin; xonavayron bo'lgan kishining xotini boy bo'lib chiqsa va ortiq darajada aysh-ishratda yashasa jamoatning nafratiga duchor bo'lasiz; birinchi maqsadga erishmoq uchun Parijda yana ikki hafta qolib, ko'ringan kimsaga Danglar

meni tashlab ketdi deb aytishingiz va yaqin dugonalaringizga bu hol qanday yuz berganini hikoya qilishingiz shart; ular bu gapni darhol hamma yoqqa tarqatib yuborishadi.

So'ngra uyingizdagi brilliantlaringizni qoldirib, mulkdan tegadigan ulushingizdan voz kechib jo'naysiz; ana shunda hamma sizni: bechora beg'araz ayol ekan, deb ko'klarga ko'tarib maqtaydi; eringiz tashlab ketganini hamma biladi va sho'rlik bir chaqasiz yakka o'zi qolibdi, deb o'ylaydi, moliyaviy ahvolingiz esa faqat menga ayon, sherik sifatida hisob-kitobni taxt qilib berishim mumkin.

Baronessa bu so'zlarni rang-quti o'chib, vahm va iztirob ichida tinglardi, Debre esa mutlaqo osoyishta va beparvo edi.

– Tashlandiq! Eri tashlab ketgan xotin! – takrorladi Danglar xonim. – Haq gapni aytdingiz, erim tashlab ketdi! Endi mening bevaligimga hech kim shubha qilmaydi, hech kim!

O'ziga nihoyatda bino qo'ygan va ishqiy hirs baland ma'shuqa ayol shu topda Debrening yuqoridagi so'zlari-ga javoban faqat ana shu so'zlarni ayta oldi, xolos.

– Biroq, shunday bo'lsa-da, siz boyvuchchasiz, cheksiz davlatga egasiz, – dedi Debre so'zini davom ettirib; so'ng papkasidan qandaydir qog'ozlarni olib stol ustiga yoyib tashladi.

Danglar xonim yuragini bosishga urinib, miq etmay turaverdi. Oxiri g'urur ustunlik qilib, o'zini mahkam tutdi, bir tomchi ham yosh to'kmadi.

– Bekam, – dedi Debre, – biz siz bilan bundan taxminan yarim yil muqaddam sheriklik qila boshlagan edik. Siz yuz ming frank qo'shdingiz. Bu shu yil aprel oyida bo'lgan edi.

Operasiamiz may oyida boshlandi. Ana shu may oyidayoq to'rt yuz ellik ming frankni ishga soldik. Iyunda foydamiz to'qqiz yuz mingga chiqdi. Iyulda bunga yana bir million etti yuz ming frank qo'shdik; yodingizda bo'lsa kerak, bu ispan pullari oyligi edi.

Avgust oyining boshlarida biz uch yuz ming frank zarar ko'rdik; biroq o'n beshinchi avgustda yutib chiqdik, o'yning oxiriga borib, ishimiz o'ngidan keldi; may oyidan kechagi kungacha bo'lgan operasialarimizga yakun yasadim. Biz ikki million to'rt yuz ming frank boylikka egamiz. Bu har birimizga bir million ikki yuzdan tegadi.

– So'ngra, – davom etdi Debre bamisoli birja qimorbozi singari yon daftarini bir-bir varaqlab, – qo'limdagi bu summaga sakson ming frank murakkab foizimiz bor.

– Bu foizlar qayoqdan kelib qoldi? – dedi xonim Debrening so'zini bo'lib. – Axir siz bu pullarni hech muomalaga qo'ymagan edingiz-ku.

– Kechirasiz, xonim, – dedi sovuq ohangda Debre, bularni muomalaga qo'yish haqida sizdan vakolat olgach, darhol ishga solgandim.

Xullas, sizga bu foizda qirq ming frank tegadi, buning ustiga dastlab qo'shgan yuz ming frankni qo'shamiz, hammasini jamlaganda haqingiz bir million uch yuz qirq ming frank bo'ladi. Hammasiga qo'shimcha o'laroq bundan uch kun burun sizga tegishli bu boylikni pulga aylantirib qo'ygandim. Mana, qarang, xuddi to'satdan sizga hisob berishimni ilgaridan his etgan ekanman, desam xato qilmayman.

Pullaringiz mana shu erda: yarmi kredit biletlari, yarmi cheklar bilan. Yana qaytaraman: pullaringiz shu erda: uyimga qo'yishga ko'nglim chopmadi; notariuslar og'zi bo'sh bo'ladi, ko'chmas mulk yot ko'zlarga yana ham yaqqolroq tashlanib turadi; buning ustiga siz eringiz bilan ikkingizga tegishli mulkdan boshqa hech narsaga haqingiz yo'q; shu vajdan men endilikda sizning birdan-bir boyligingiz bo'lgan bu summani mana shu javondagi yashirin tortmada saqladim, ishonchli bo'lsin deb buni o'z qo'lim bilan ishlaganman.

– Xonim, shunday qilib, – dedi Debre avval javonni, so'ngra yashirin tortmani ochib, – mana, sakkiz yuz ming franklik bilet, ko'rdingizmi, ular qalin albomga o'xshab muqovalab qo'yilgan; bunga yigirma besh ming frank

renta kuponi qo'shaman; yana bir yuz o'n ming frank qoladi – mana mening bankiringga chek; mening bankirim Danglar emas, xotirjam bo'ling, chekni olib borib tutqazishingiz bilan darhol naqd to'lab qo'yishadi.

Danglar xonim behush holda chekni, renta kuponini va bir tutam kredit biletlarini oldi.

Stol ustiga terib qo'yilgan bu katta boylik bir uyum bekorchi qog'ozga o'xshardi. Xonim o'zini qo'lga oldida, albomni kichkina sumkasiga, renta kuponni va chekni ham yoniga soldi, un chiqarishga ham holi yo'q xonim shu qadar boyvuchchaligini maqtaydigan bir og'iz shirin so'zga intizor bo'lib turardi.

Biroq bu intizorlik behuda ketdi.

– Xonim, – dedi Debre, – mana endi keragidan ortiqcha boylikka egasiz, yillik daromadingiz qariyb oltmish ming livrga boradi; bu yana kamida bir yil ochiq yashashi mumkin bo'lmagan ayol uchun juda katta pul.

Siz istagan narsani qilishingiz mumkin; ya'ni, o'zingizga tekkan ulushning hajmi mahrum bo'lgan boylikka qaraganda kamdek ko'rinsa, menga tekkan ulushdan qarz berib turishim mumkin, hamma ulushimni, ya'ni bir million olti yuz ming frankning barini qarz berib turishim mumkin.

– Himmatingiz uchun rahmat, janob, – dedi baronesa, – o'zingizga ma'lumki, uzoq vaqt jamoatchilik nazariidan yiroqda yurishga majbur baxti qaro ayol uchun taqsimotdan tekkan bu pul keragidan ham ortiqdir.

Debre hang-mang bo'lib qoldi, lekin zo'r berib o'zini bosdi-da, «ixtiyor o'zlarida» degandek elkasini qisib qo'ya qoldi.

Hamon biror narsadan umidvor bo'lib turgan Danglar xonim yigitning beparvolik bilan o'zini olib qochayotganini va so'ngra miq etmay bukilib ta'zim etishini ko'rib, boshini mag'rur ko'tardi. Shartta eshikni ochib, o'zini yo'qotish u yoqda tursin, orqasiga bir qiyo boqmay, yugurib zinadan tushib ketaverdi.

– Bo'lmag'ur gap! – dedi Debre xonim u erdan chiqib

ketgach. – Bularning hammasi behuda gap; xonim o‘z uyida qoladi, romanlar o‘qib, landsknext o‘ynab yashayveradi birja o‘yinida qatnasha olmagach, iloji qancha.

Debre yon daftarini yana oldi-da, to‘lagan summaning raqamlarini yaxshilab o‘chirib tashladi.

– O‘zimga bir million oltmish ming frank qoladi, – dedi u.

– Attang, mademuazel de Vilfor o‘lib ketdi-ya! Bu har tomonlama menbop xotin edi.

So‘ng Debre, odatdagicha, Danglar xonim ketganidan keyin yigirma daqiqa pinagini buzmay o‘tirdi; shu muddat o‘tgach, o‘zi ham chiqib ketishi zarur edi. Ana shu yigirma daqiqa mobaynida Debre soatni ro‘parasiga qo‘yib olib, hisob-kitob qildi.

Agar Lesaj o‘zi yaratgan durdonasi – ichkariga ko‘z tashlash uchun uylarning tomini ko‘tarishda nom chiqargan Asmodey xuddi Debre hisob-kitob qilib turgan paytda Sen-Jermen-de-Pre ko‘chasida oddiygina uyning tomini ko‘tarib, ichkariga nazar tashlaganda, jozibador manzarani ko‘rgan bo‘lur edi.

Debre bilan Danglar xonim ikki yarim millionni taqsim qilayotgan xonaning ustida yana bir xona bo‘lib, unda istiqomat qiluvchilar ham biz uchun tanish va e‘tiborga sazovor kishilar edi.

Bu xonada Mercedes bilan Alber yashardi.

Mercedes keyingi kunlarda juda o‘zgarib ketgandi; bu ilgari dabdabali hayot kechirib, zeb-ziynatga o‘ralganu, endilikda oddiy bir qiyofaga kirib olganidan yoki juda kambag‘allashib, qashshoqcha kiyinib olishga majbur bo‘lganidan emas; yo‘q, aslo unday emas. Mercedesning bu kabi o‘zgarib ketishi ko‘zlaridagi alanganing harorati pasayib ketgani va lablari tabassumga yaramay qolganidandir; g‘amgin o‘y-xayollar uning bir vaqtlar to‘lqinlanib turadigan es-hushini butunlay qamrab olib, so‘zlaridagi yoqimli ohangdan mahrum etganidandir.

Mercedesning aqlini o‘tmaslashtirib qo‘ygan narsa kambag‘allik emas yoki shu yo‘qchilikdan ko‘ngli yarimta

bo'lib qolganidan emas. Mercedes o'rganib qolgan davrani tashlab chiqdi-da, yot muhitga sho'ng'ib ketdi; bu muhitga u, xuddi charog'on zaldan chiqib qo'qqisdan zimistonga kirib qolgan kishi singari, o'zi tanlab kirdi. U dabdabali saroydan nochor bir kulbaga ko'chib o'tgan va ilgari bashang liboslar o'rnidagi oddiy kiyimlariga qarab o'zini taniyolmay qolgan qirolichaga o'xshardi.

Nozanin katalanka yoki muruvvatli grafinya burungi kibr-havoli qarashlari va jozibali tabassumlaridan endilikda mahrum bo'lgan edi; endi u atrofida noxush narsalarni ko'rardi, xolos: kul rang qog'oz (ehtiyotkor kishilar bu rangni kirchil deb tanlashardi) yopishtirilgan devorlar, yap-yalangoch g'ishtin pol, qo'pol bezakli mebel-jihozlar... xullas, bu uydagi hamma buyumlar go'zallikka o'rganib qolgan kishini go'yo masxara qilayotganday tuyulardi.

De Morser xonim uyini tashlab chiqib ketgan kundan buyon mana shu joyda istiqomat qiladi. Bu erdagi sokinlik-sukunatdan xonimning, xuddi vahimali jar yoqasida taqa-taq to'xtab qolgan yo'lovchidek, boshi aylanib, gangib qolgandi; Alber esa onasining fikr-xayollarini bilib olish uchun uni zimdan kuzatib yurardi; buni sezgan Mercedes miyig'ida jilmayib qo'yishni odat qilib oldi. Ammo bu soxta tabassumda iliqlik, yurak harorati yo'q edi.

Alber ham ko'ngli yarimta, xomush bo'lib qolgan edi; ilgari hasham, savlat belgilari endi uni xiyla tashvishga solardi, u endilikda ko'chaga qo'lqopsiz chiqishni istardi, ammo qo'llari haddan tashqari oppoq; u yayov yurishni orzu qilardi, biroq kavushi juda yaltiroq edi.

Shunga qaramay, ona bilan farzandning mehr-muhabbat rishtalari bilan abadiy chambarchas bog'langan bu ikki olijanob va oqil zot bir-birini so'zsiz tushunar, hayotimizning moddiy negizi haqida gap ketganda, hatto juda inoq do'stlar orasida ham bo'ladigan shama, qochiriqlarga aslo muhtoj emasdilar.

Xullas, Alber onasiga dangal: «Oyijon, pulimiz tamom bo'ldi», dey olar, Mercedes esa bundan zarracha ranjimas-

di.

Mersedes haqiqiy qashshoqlikni boshidan kechirmagandi, yoshligida o'zini ko'pincha kambag'al deb atagan edi, ammo kambag'allik bilan qashshoqlik o'rtasida osmon bilan ercha farq bor.

Katalanida Mercedes juda ko'p narsaga muhtoj edi, ammo shu bilan birga u ko'p narsaga ega ham edi. To'rlar butunligida baliq ovlanardi, baliq tutilgach, yamash uchun kanop ip tayyor edi.

Yaqinlarning qoshingda bo'lmay, turmush ikir-chikirlariga daxlsiz muhabbatning senga hamroh bo'lgan chog'larda faqat o'zingni o'ylaysan, o'z qilmishlaringga o'zing javob berasan kishi.

U vaqtda bag'ri keng Mercedes bor narsalarini ko'pchilik bilan birga baham ko'rardi, mana endi sho'rlik bor budshudidan mahrum bo'lib o'tiribdi; endi faqat ikki kishi haqida o'ylashga to'g'ri keladi.

Qish yaqinlashyapti; grafinya de Morserning dahlizdan tortib yotoqxonasi-gacha – hammasini yuzlab trubalar isitib turardi; endi noqulay va sovuq xonaning pechini yoqish uchun bir dona tarasha ham yo'q; u yoqda grafinyaning uyi noyob gullarga ko'mib tashlanardi; endi esa oddiy pechakgul ham anqoga shafe.

Biroq qoshida sevimli farzandi – o'g'li bor.

Ortiq darajadagi zohidona tafakkur ularning har ikkalasini turmush ikir-chikirlaridan hamon balandroq ko'tarib turardi.

Ruhiy zavq deyarli kuchli hayajonning o'zi; kuchli hayajon esa kishini hayot so'qmoqlaridan balandroq pog'onaga ko'tarib qo'yadi.

Ammo, dastlabki hayajon alangasi so'ngandi. Endi, shirin xayollar dunyosidan asta-sekin haqiqiy hayot dunyosiga tushishga majbur bo'lishdi, endi o'tgan antiqa turmushlari haqidagi suhbatlardan so'ng kundalik turmush ikir-chikirlari haqida gap yurita boshladilar.

– Oyijon, – dedi Alber Danglar xonim zinadan tushib ketayotganda, – sarmoyamizni hisoblab chiqaylik, shunga

qarab men qiladigan ishlarimizning rejasini tuzib chiqaman.

– Yakunmi? Yakun: nul, – dedi Mercedes g‘amgin iljayib.

– Qo‘ying-e, oyijon, – dedi Alber, – men pulingizning anchasini sarflab qo‘yib, afsuslanyapman. Ammo endilikda bu uch ming frank juda katta pul, bu aqcha bilan farog‘atda yashash rejasini tuzib qo‘ydim.

– Hazilingni qo‘y, bolam, axir biz uch ming frank olishga rozi bo‘lib qo‘ya qolamizmi? – dedi qizarib Mercedes.

– Menimcha, bu masala allaqachon hal bo‘lgan; biz u pulni olishga qaror qilganmiz; pulimiz bo‘lmagach, ilojimiz qancha? Axir bu uch ming frank Marseldagi Melyan xiyo-bonidagi kichkina hovlining bog‘iga ko‘mib qo‘yilgan; bundan o‘zingiz ham xabardorsiz. Ikki yuz frank bilan Marselga etib olamiz.

– Ikki yuz frank bilan! – dedi Mercedes. – Nima deysan o‘zing, Alber!

– Bu bor gap, oyijon; pochta stansiyasida va kemalar boshqarmasidan so‘rab, hisoblab chiqdim. Siz o‘zingizga Shalonagacha pochta izvoshi buyurasiz: ya‘ni, qirolchalardek sayohatga chiqasiz.

Alber qalam olib yozdi:

*Izvoshga – 35 fr.*

*Shalonadan Liongacha paroxodga – 6 fr.*

*Liondan Avinongacha paroxodga – 16 fr.*

*Avinondan Marselgacha paroxodga – 7 fr.*

*Yo‘l xarajatlariga – 50 fr.*

*Jami – 114 fr.*

Keling, bir yuz yigirma frank ajrataylik, – dedi Alber jilmayib. – Juda saxiyman-da, to‘g‘rimi, oyi?

– O‘zing nima qilasan, bolam?

– Menmi? O‘zimga sakson frank olib qolaman: yosh yigitga ortiqcha dabdabaning keragi yo‘q; axir men sayohat borasida pixini yorganlardanman-ku!



– O‘z izvoshingda qarol bilan-da.  
– Qo‘limdan kelgan barcha yo‘l-yo‘sinlarni ishga solaman, oyijon.

– Mayli, – dedi Mercedes, – biroq ikki yuz frankni qayoqdan olamiz?

– Mana, ikki yuz frank, mana, yana ikki yuz. Men so-atimni yuz frankka, soat zanjirini uch yuz frankka sotdim. Buni qarang-a, zanjir soatdan uch baravar qimmatga ketdi. Ortiqcha bezaklar hamisha qimmat turadi! Bu eskidan qolgan odat. Mana, ko‘rdingizmi, endi biz boymiz: yo‘lga ketadigan bir yuz yigirma frank o‘rniga ikki yuz ellik frank bo‘ladi sizda.

– Axir bu uyga ham haq to‘lash kerak-ku?

– Ijara haqiga o‘ttiz frank to‘lashimiz kerak; buni o‘zimga tegishli yuz yigirma hisobidan to‘layman. Qarorimiz shu. Mening yo‘l xarajatinga sakson frank etadi, qolgani ortiqcha. Xo‘sh, oyijon, bunga siz nima deysiz? Endi bu yog‘ini eshitsak.

Alber oltin tugmali yon daftaridan (bu daftar bir zamonlarda kichik eshik oldida uchrashgan notanish chodrali ayoldan qolgan noyob yodgorlik bo‘lsa kerak) ming frankli bir g‘azna biletini oldi.

– U nima? – so‘radi Mercedes.

– Bir ming frank, oyijon, haqiqiy frank.

– Qayoqdan olding sen buni?

– Quloq soling, hozir aytib beraman, faqat jim quloq soling.

Alber onasi yoniga keldi-da, ikkala yuzidan o‘pdi; so‘ng o‘zini orqaga olib, onasiga tikilib qaradi.

– Naqadar go‘zalligingizni o‘zingiz bilmaysiz-da, oyijon, bilmaysiz! – dedi u qalbida onasiga nisbatan chuqur farzandlik mehri tovlanib. – Siz dunyoda eng go‘zal, eng olijanob zotsiz! Ha, eng olijanob zot!

– Jon bolam! – dedi Mercedes kipriklaridan shoda-shoda bo‘lib yumalayotgan yoshlarini to‘xtata olmay.

– Hayronman: baxtsizlikka uchrashingiz hamono sizga bo‘lgan mehrim yana ming karra oshib ketdi-ya!

– Sendek o‘g‘lim bo‘la turib, nega men baxtsiz bo‘lar-kanman! – dedi Mercedes. – O‘g‘lim yonimda ekan, baxtliman! Ha, baxtiyorman, bolam!

– Bu gapingiz to‘g‘ri, – dedi Alber. – Biroq ahdimiz yodingizdami?

– Qanaqa ahdni gapiryapsan? – so‘radi Mercedes.

– Siz Marselda yashaysiz, men esa Afrikaga ketaman; u erda voz kechganim mol-mulk o‘rniga nom chiqarib dovrug‘ tarataman.

Mersedes xo‘rsinib qo‘ydi.

– Kechadan boshlab sipohiylikka yozildim, – dedi Alber va xijolat tortib boshini quyi soldi, chunki bu xo‘rlanish unga shuhrat bag‘ishlayotganini o‘zi ham sezmasdi, – men o‘z tanimga o‘zim xo‘jayinman, uni sotishga haqqim bor, degan qarorga keldim; kechagi kundan e‘tiboran boshqa bir kishining o‘rniga yozildim; ya‘ni, sotildim, sotilgan-da ham juda qimmatga – ikki ming frankka sotildim.

– Demak, mana bu bir ming?.. – dedi seskanib Mercedes.

– O‘sha pulning yarmi; qolganini bir yildan keyin olaman.

Mersedes osmonga tikildi, uning ko‘zlaridagi ma‘noni hech qanday so‘z bilan ifoda etib bo‘lmasdi, yonog‘idan ikki dona marvarid dumalab tushdi.

– Jonining bahosi! – dedi pichirlab ona.

– To‘g‘ri, mabodo meni o‘ldirsalar shunday bo‘lib chiqadi, – dedi Alber kulib. – Ammo, oyijon, amin bo‘lingki, men bor kuchim bilan o‘zimni muhofaza qilaman; yashash istagi har vaqtdagidan ham hozir kuchli menda.

– E, Tangrim! – dedi xo‘rsinib Mercedes.

– Aytgancha, siz nega endi seni o‘ldiradilar, deyapsiz? Axir janublik Neki Lomorserni o‘ldirganlari yo‘q-ku? Shangarne o‘ldirilgani yo‘q-ku? O‘zingiz bir o‘ylab ko‘ring, oyijon: guldor harbiy kiyimda qarshingizda paydo bo‘lgan- nimda boshingiz osmonga etmaydimi, axir! Bilib qo‘yingki, bu kiyimda meni hech kim, hech narsa mag‘lub

etolmas degan umid bilan sipohiyalar polkini tanlab yozildim.

Mersedes o'zini bosib, iljaymoqchi bo'ldi, ammo yana ko'ksidan fig'on ko'tarilib, uh tortdi; bu parivash ayol o'g'li musibatning hamma og'irligini o'z gardaniga olayotganidan o'rtanardi.

– Mana, oyijon, ko'rdingizmi, – dedi Alber, – naqd to'rt ming frank bilan rosa ikki yil muhtojlikni sezmay umr kechiramiz.

– Rostdanmi? – dedi Mercedes. Bu so'zni sho'rlik ona shunday mungli ohangda aytdiki, uning asl ma'nosini Alber darhol anglab yuraqi ezildi; u asta onasining qo'lidan ushlab:

– Ha, albatta yashaysiz! – dedi.

– Men yashayman, – dedi xitob qilib Mercedes, – biroq sen ketmaysan, shundaymi, Alber?

– Yo'q, unday emas, oyijon, men ketaman, – dedi vazmin va qat'iy ohangda. – Siz menga shu qadar mehribonsizki, qoshingizda bo'lsam vaqtim o'yin-kulgi bilan behuda o'tib ketadi. Buning ustiga men ahdga imzo chekib qo'rganman.

– Sen o'z xohishing bilan ish tutmoqchisan, men esa Xudoning xohishiga qarab ish qilaman.

– Onajon, aslo unday emas; o'z xohishim bilan emas, aql va sharoit taqozosi bilan shunday qilyapman. Ikkimiz ham qayg'u-alam, hasrat-nadomat iskanjasida dunyodan noumid bo'lib qo'l qovushtirib turibmiz. Endilikda sizga hayotning qanchalik ahamiyati qoldi? Hech qanday! Men uchun hayotning o'zi nima? Siz bo'lmasangiz men uchun hayotning keragi yo'q. Sizga qasamyod qilib aytamanki, siz bo'lmaganingizda o'sha otamdan yuz o'g'irgan kunimoq hayotdan, yashashdan voz kechgan bo'lur edim! Shunga qaramay, agar siz umidvor bo'lishga va'da bersangiz, yashayman; siz o'z kelajagingiz haqida qayg'urishni menga topshirib qo'ygudek bo'lsangiz, u vaqtda kuchimga kuch qo'shiladi. U holda men Jazoir gubernatori huzuriga borib (u vijdoni pok odam, haqiqiy soldat),

boshimizga tushgan hamma musibatlarni unga aytib beraman va menga hamisha ko'z-quloq bo'lib turishini iltimos qilaman; agar u va'dasiga vafo qilib, so'zining ustidan chiqsa va mening nimalarga qodir ekanligimni o'z ko'zi bilan ko'rsa, unda men yarim yil o'tgach, yo ofiser bo'lib qaytaman, yoki butunlay qaytmayman. Ofiser bo'lib qaytsam, oyijon, kelajagingiz porloq bo'ladi, chunki, ikkimizga ham etadigan pulga ega bo'laman buning ustiga yangi nomim, unvonim bilan ikkimiz ham faxrlanib, ko'ksimizni baland ko'tarib yuramiz o'shanda. Bordi-yu, qaytmasam... unda, oyijon, yashashni istamasangiz, hayot bilan vidolashasiz, ana o'shanda boshimizga tushgan baxtsizlik barham topib, abadiy osoyishtalikka ega bo'lamiz.

– Yaxshi, – dedi Mercedes, – haq gapni aytding, qo'zi-chog'im, haq gapni! Bizni kalaka qilib yurgan zotlarga o'zimizning kim va nimalarga qodir kishilar ekanligimizni ko'rsatib qo'yamiz.

– Har qanday qayg'uli fikrlarni xayolingizdan chiqarib tashlang, oyijon, – dedi xitob bilan Alber. – Amin bo'lingki, biz baxtiyormiz yoki baxtiyor bo'lishga qodirmiz. Siz oqila, vijdoni pok malaksiz; men ham es-hushimni yig'ib oldim endi. Xizmatda bo'larkanman, demak, boyman; siz janob Dantesning uyida istiqomat qilarkansiz, demak, tinch, osoyishta hayot kechirasiz. Oyijon, iltimos sizdan, keling, bir harakat qilib ko'raylik!

– Mayli, bolam, tole yo'lida harakat qilamiz, axir sen yashamog'ing, baxtiyor bo'lmog'ing kerak, – dedi javoban Mercedes.

– Demak, oyijon, taqsimotimiz ham nihoyasiga etdi, – dedi Alber, – shu bugunoq yo'lga chiqishimiz mumkin. Men sizga izvosh buyurtiraman.

– O'zingga-chi?

– Men bu erda yana ikki-uch kun qolishim kerak; bu – judolikning boshlanishi, bunga ko'nikib olishimiz zarur; men tavsianoma olishim, Jazoir haqida ba'zi ma'lumotlarni aniqlashim kerak, Marselda sizga etib olaman.

– Xo'p, bolam, ketdik! – dedi Mercedes uydan olib chiq-

qan bitta-yu bitta ro'molini elkasiga solib; bu kutilmagan qimmatbaho qora kashmir ro'mol edi. – Qani, Alber, jo'naylik!

Alber hash-pash deguncha qog'ozlarni yig'ishtirdi-da, xo'jayinni chaqirib, o'ttiz frank to'ladi va onasining qo'limdan tutib zinaga chiqdi.

Ulardan oldinda zinadan kimdir tushib borardi; u shohi ko'ylakning zina panjarasiga tegib shitirlaganini eshitib, orqasiga qaradi.

– Debre! – dedi asta ovoz bilan Alber.

– Morsermisiz? – dedi turgan joyida to'xtab qolgan ministr kotibi.

Debre, qiziqib ketib, sir saqlashni unutib qo'ygandi; buning ustiga uni darrov tanib olishgandi. Holiga maymunlar yig'lab, butun Parijda shov-shuvga sabab bo'lgan bu zotning bu pastqam kulbada uchrashi ajablanarli hol edi, albatta.

– Morser! – dedi yana takrorlab Debre.

Biroq nimqorong'i zinada Morser xonimning shol ro'molga o'ralgan sarv qomatiga ko'zi tushib, qo'shimcha qildi:

– E, uzr, Alber, uzr! Xalaqit bermay qo'ya qolay! Alber Debrening bu so'zlaridagi ma'noni darhol fahmladi.

– Oyijon, – dedi u Mercedesga qarab, – bu janob ichki ishlar ministrining kotibi Debre, mening sobiq do'stim bo'ladi.

– Nega sobiq bo'larkan! – dedi ming'irlab Debre. – Bu bilan nima demoqchisiz o'zi?

– Janob Debre, bilib qo'yingki, – so'zida davom etdi Alber, – endilikda mening hech qanday do'stim yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Muruvvat qilganligingiz va tanib, nomimni tilga olganligingiz uchun sizga rahmat!

Debre zinadan bir-ikki pog'ona ko'tarildi-da, Alberning qo'lini mahkam siqdi.

– Azimim, amin bo'ling, – dedi u xursand ko'rinishga urinib, – boshingizga tushgan qayg'u-alamga chin yurakdan hamdardman, istagan vaqtda yordam berishga tay-

yorman.

– Rahmat, janob, – dedi jilmayib Alber, – biroq, baxtsizlikka uchragan bo'lsak ham, etarli darajada boymiz, birovning yordamiga muhtoj emasmiz, biz Parijdan chiqib ketyapmiz, yo'l xarajatlaridan tashqari yana besh ming frank pulimiz bor.

Debre qizarib ketdi; axir uning hamyonida bir million frank taxlanib yotibdi-ku. U sal ilgari mana shu uyda ikki ayol hozir bo'lganini, ulardan biri qilmishiga yarasha sharmandayu sharmisor bo'lib, qo'ltig'idagi sumkada bir yarim millionni olib ketayotgan bo'lsa-da, qashshoqlikka mahkum ekanini, ikkinchisi esa nohaq kamsitilgan, biroq baxtsizlikda ham o'zini mardona tutishini, ozgina aqcha bilan ham o'zini boy deb his etayotganini beixtiyor ko'ngli-dan o'tkazdi.

Ana shu qiyoslash o'ziga bino qo'ygan bu janobni kibrhavodan voz kechishga majbur etdi – bu ikki ayoldagi ikki xil xislat uni lol etgan edi; u ming'irlab yana bir nimalar dedi-da, zinadan chopqillab tushib ketdi.

Shu kuni ministrlkda Debrening qovog'i ochilmadi, kun bo'yi jahldan tushmay, qo'l ostidagi xodimlarning jonini oldi.

Ammo kechqurun uning og'zi qulog'ida edi: Debre Madlen xiyobonidagi ajoyib koshonaning xo'jayini bo'lib oldi; bu koshona yiliga ellik ming livr foyda keltirardi.

Ertasi kuni kech soat beshda, Debre oldi-sotdi aktiga qo'l qo'ygan paytda, de Morser xonim o'g'li bilan quyuq xayrlashib, pochta izvoshiga o'tirgan edi.

Laffit pochatasi hovlisidagi boloxonalardan birining derazasi ortida paydo bo'lgan bir kishi Mercedesning izvoshga tushganini, izvosh jilganini va Alberning yo'lga chiqqanini – hammasini o'tkir ko'zlari bilan kuzatib turgan edi.

Ular ko'zdan g'oyib bo'lgach, u shubhalar girdobida tars yorilayozgan peshanasini bir siladi-da:

– Bu ikki begunoh sho'rlikka tortib olingan baxtini qanday qilib qaytarib bersam ekan? Bunda menga Par-

vardigorning o'zi yordam qiladi, – dedi.

## **X. ARSLON G'ORI**

La-Fors hibsonasida eng og'ir va xavfli jinoyatchilar qamaladigan bo'lmalardan birini avliyo Bernara bo'lmasi deb atashardi. Bunga qamalganlar bo'lмага o'zlarining obrazli qilib Arslon g'ori deb nom berishgan; chunki, bu bo'lmada bo'lganlarning xuddi arslonniki singari tishlari bo'larkan, ular ko'pincha temir panjarani, ba'zan qorovullarni ana shu tishlari bilan g'ajib tashlasharkan.

Bu – turma ichidagi turma. Devorlari ikki qavatdan, turmachi har kuni, yo'g'on-yo'g'on panjaralarni sinchiklab tekshirib chiqadi; qorovullarning devday-devday gavdasini, qovog'idan qor yog'ib yurishlarini ko'rgan kishi ana shu bo'lmada qamalganlarga kuchi etadigan polvonlarni qorovullikka qo'yilarkan-da, deb o'ylardi.

Bo'lmaning hovlisi baland devorlar bilan o'rab olingan, quyosh tikkaga kelganda ham bu ma'naviy va jismoniy razolat maskaniga devor osha arang qiyo boqib o'tadi. Hovlida odil sud shamshiriga duchor bo'lgan g'amgin kimsalar taqdirlari hal bo'lishini kutib, horg'in sudralib yurishar, devorning kungay tomonida juft-juft, to'da-to'da bo'lib suyanishib xayolga cho'mib o'tirishardi, ular oralaridan birortasini chaqirib qolishganda yoki jamiyatdan quvg'in qilingan biror yangi jondor bu g'orga keltirib uloqtirilgandagina ochiladigan darvozaga qiya qarab qo'yishadi.

Avliyo Bernara bo'lmasining o'rtasidan qo'sh panjara bilan ikkiga bo'lingan uzun qabulxonasi bor, panjaralarning orasi uch fut bo'lib, kelgan qavm-qarindosh, yorbirodarlar mahbus bilan qo'l berishib ko'risholmaydi va biror narsa berolmaydi. Qabulxona qop-qorong'i, zax va jirkanchli binodir.

Shunga qaramay, bu erdagi mahbuslar uchun qabulxona bamisoli jannatga o'xshardi, ular bu erda istagan

yor-do'stlari bilan bahuzur gaplasha oladilar; chunki, Arslon g'oridan keyin mahbus faqat Sen-Jak zastavasiga, yoki katorgaga, yo bo'lmasa yakka zindonga tushishi mumkin.

Biz tasvirlagan zax hovlida bir yosh yigit qo'llarini cho'ntaklariga suqib daydib yuribdi, g'ordagilar unga juda qiziqib tikilishardi.

Agar kiyimlari juldur bo'lmaganda uni juda olifta yigit desa arziydigan kimsa, ko'ylagini qo'llari bilan silab-silab qo'yar, amirkon botinkasini dastro'molining uchi bilan artar, kamzulining tugmalarini nazokat bilan solardi, shunda tikilib turgan mahbuslardan biri:

– Qara, knyaz o'zini bozorga solib, zeb beryapti, – deb yubordi.

– 3eb bersa ham, bermasa ham, baribir, o'zi suxsurday yigit, – dedi ikkinchisi, – hozir qo'lida taroq va bo'yog'i bo'lsaydi, oq qo'lqopli janoblarning hammasidan o'tib ketardi.

– Kamzuli yangi ekan, botinkasi yaltirab turibdi. Bunaqa zotlar oramizga tushib qolganidan faxrlansak bo'ladi. Bizning jandarmalarimiz uchiga chiqqan qaroqchi-da! Shunday ajoyib kiyimni ham dabdala qilib tashlashibdi-ya!

– Aytishlariga qaraganda, u juda pixini yorganlardan emish, – dedi uchinchisi. – Uncha-buncha narsani nazari ilmasmish. Hali ona suti og'zidan ketmay, Tulonda bo'lganini qarang-a! Hazil emas bu!

«Olifta» esa bu mudhish maqtovlarning aks sadosini eshitib, so'zlarning ma'nosini tushunmayotgan bo'lsa-da, tobora taltayib ketayotganday ko'rinardi. U o'ziga oro berishni tugatdi-da, turma do'konchasi oldiga bordi va devorga suyanib turgan qorovulga gap sota ketdi:

– Menga qarang, janob, – dedi, – yigirma frank qarz berib turing, tezda beraman, ota-onam katta boylardan, million-million aqchasi bor... Iltimos sizdan. Bu yigirma frank bilan pullik tomonga o'tib, xalat sotib olaman. Kamzulda juda siqilib ketdim. Bu kamzul knyaz Kaval-



kanti kiyadigan kamzulmas-da, axir!

Qorovul elkasini qisdi-da, teskari qarab oldi. Bu gaplarni eshitgan kishi rosa qotib kulardi, ammo qorovul tishining oqini ham ko'rsatmadi, chunki bu odam bunaqa gaplarni eshitaverib, me'dasiga tekkan-da.

– Juda bag'ritosh odam ekansiz-ku, – dedi Andrea, – qarab turing hali, bu erdan dumingizni tugdirmasam...

Qorovul Andrea tomonga o'girildi-da, qah-qah urib kulib yubordi.

Mahbuslar kelib, ikkisini o'rab olishdi.

– Atyapman-ku sizga, – davom ettirdi so'zini Andrea, – ana shu pulga bashang kiyinib olib, alohida xonaga o'tib olaman. Yaqinda sersavlat bir odam keladi, uni izzat-hurmat bilan kutib olishim lozim.

– To'g'ri! To'g'ri! – deyishdi bir og'izdan mahbuslar. – Bu odamning taqvodorlardan ekanligi ko'rinib turbdi-ku.

– Unday bo'lsa, yaxshi, siz bera qoling unga yigirma frank qarz, – dedi qorovul devorga suyanib. – O'rtog'ingizga qarz berish burchingiz emasmi axir?

– Bu odamlar bilan oftobda qatiq ichgan emasman, – dedi gerdayib Andrea, – meni kalaka qilishga haqqingiz yo'q.

Mahbuslar bir-biriga qarab to'ng'illab qo'yishdi; Andreaning so'zidan ko'ra qorovulning e'tirozi kishilarning g'ashiga tegdi, ular oqsuyak olifta yigitning ta'zirini berib qo'yish uchun bostirib kelaverishdi.

Qorovul esa, so'ng tinchitib olaman, hozircha surbet qarz so'rovchining boplab ta'zirini berib qo'yishsin, deb indamay turaverdi.

Mahbuslar Andreani o'rab olishdi.

Kimdir, «botinkani ishga solib, popugini pasaytirib qo'y bu oliftaning», dedi.

«Botinkani ishga sol» – bu nag'al qoqilgan etik bilan rosa tepkila, degani edi, ba'zilar yana vyun degan qiziq usulni taklif etdi. Bunda ro'molchaga qum, shag'al, tosh, tanga-chaqa solib tugiladi-da, aybdorning elkasi va kalasiga qarsillatib tushirilaveradi.

– Bir do‘pposlab qo‘yaylik bu oliftani! – degan ovozlari eshitildi atrofda.

Andrea esa mahbuslar tomonga o‘girildi-da, lunjini shishirib, ko‘zini qisdi, so‘ng tanglayini takillatib qo‘ydi. Bu – kallakesarlar bir-birlarini darrov tanib oladigan shartli ishora edi. Bu masoncha ishora deb atalib, Andrea Kadrusdan o‘rgangan edi.

Mahbuslar Andrea o‘zlarining jo‘rasi, hamtovog‘i ekanligini bilib qolishdi.

Shu zahoti ro‘molchalar qaytib olindi; nag‘alli etikni bosh kallakesar qaroqchi oyog‘iga kiydi. Har tomondan bu janob haq gapni aytyapti, ko‘ngli nimani istasa, qilaversin, bu uning ishi; mahbuslar vijdon erkinligi qanaqa bo‘lishini namoyish qilmoqchilar, degan ovozlari yangradi.

G‘ulg‘ula bosildi. Qorovul bundan nihoyatda taajjublanib, Arslon g‘ori fuqarolarining avzoyi birdan o‘zgarib qolishiga biror jiddiy sabab bo‘lsa kerak, deb o‘ylab, darhol Andreaning qo‘lidan tutdi-da, cho‘ntaklarini titkila boshladi.

Andrea to‘ng‘illab norozilik bildirgan bo‘ldi-yu, ammo qarshilik ko‘rsatmadi.

Shu payt panjara orqasidan nazoratchining tovushi eshitildi:

– Benedetto!

Qorovul uni qo‘yib yubordi.

– Meni chaqirishyapti! – dedi Andrea.

– Qabulxonaga bor! – qichqirdi nazoratchi.

– Mana, qarang, meni ko‘rgani kelishibdi aziz og‘aynilarim. Kavalkanti bilan qanday muomala qilish kerakligini ko‘rsatib qo‘yaman hali sizlarga! Ha, ko‘rsatib qo‘yaman!

Andrea hovlidan qop-qora ko‘lanka singari lip etib o‘tdi-da, qiya ochiq eshikka otildi, jo‘ralari va qorovul ham unga qoyil qoldi.

Darhaqiqat, uni qabulxonaga chaqirishgan edi; bunga hatto Andreaning o‘ziyam hayron, chunki u ehtiyot-

korlik yuzasidan, boshqalar singari hech kimdan yordam so'rab xat yozgan emasdi, La-Fors turmasiga tushgan kundan buyon miq etmay yotardi.

«Mening, shubhasiz, zo'r himoyachim bor, – deb o'ylardi u. – Boshimdan o'tgan hamma voqealar – kutilmagan holda elkamga baxt qushi qo'nib qolgani, hamma g'ovlarni osonlik bilan ag'darib tashlashim, to'satdan ota ham topilib qolishi, dongdor nom, yomg'irday yoqqan oltinlar, ajoyib jononga duch kelganim – shularning hammasi ana shu zabardast homiyim borligidan darak berib turibdi. Favqulodda kasodga uchrashim va o'sha himoyachimning vaqtincha bo'lmay qolishi meni halok etadi, biroq butunlay emas, albatta. U muruvvatli qo'lini bir zum tortib oldi; u qo'l yana uzatiladi-da, meni halokat jari yoqasida mahkam tutib oladi. Shunday ekan, nega endi men xavf-xatarli ish qilishim kerak? Bu holda himoyachim mendan yuz o'girishi mumkin-ku! U menga ikki yo'l bilan yordam qo'lini cho'zishi mumkin: qorovullarni oltinga sotib olib, yashirin ravishda qochirib yuborishi, yoki sudga ta'sirini o'tkazib, meni oqlab yuborishlariga erishishi mumkin. Hozircha indamay turaveray-chi, hamma mendan yuz o'girgani ma'lum bo'lgach, unda...»

Andrea buning uchun makkorona reja tuzib qo'ygandi, bu ablah, hecham qo'rqmay hujum qilishga va qattiq turib o'zini muhofaza etishga usta edi.

Turma azob-uqubatlarini, turli xil muhtojliklarni u ko'p ko'rgan; biroq shunday bo'lsa-da, tabiati, to'g'rirog'i, odati asta-sekin ustun kela boshladi; ust-boshi juldur, iflos, ochyalang'ochlikdan g'oyat siqilib, toqati-toq bo'lgandi Andreaning.

Nazoratchi qabulxonaga chaqirganida, Andrea ana shunday kayfiyatda edi.

Andreaning yuragi quvonchdan duk-duk ura boshladi, tergovchi oldiga borishga hali barvaqt edi, turma boshlig'i yoki doktor hech bunday bemahal chaqirmasdi. Demak, ko'pdan buyon intizor kishi kelibdi-da.

Andrea kirgan qabulxona panjarasining orqasida Ber-

tuchcho panjaraga, eshik qulfiga va naryoqda sudralib kelayotgan ko'lankaga qarab qovog'ini solib turardi.

– Kim u? – dedi hadiksirab Akdrea.

– Salom Benedetto, – dedi Bertuchcho chinqiroq ovoz bilan.

– Siz... Sizmi? – dedi yigit, ko'zlari olayib.

– Iya, badbaxt, meni tanimayapsanmi hali? – so'radi Bertuchcho.

– Jim! Ovozingizni o'chiring! – dedi Andrea; bu devorlarning qulog'i borligini u yaxshi bilardi, – iltimos, sekinroq gapiring!

– Men bilan yuzma-yuz turib gaplashishni istaysanmi? – so'radi Bertuchcho.

– Bo'lmasam-chi, – dedi Andrea.

– Yaxshi, – dedi Bertuchcho va cho'ntagini kovlab, oynaband eshik orqasida turgan qorovulga im qoqib qo'ydi.

– Mana buni o'qing, – dedi u.

– Nima bu? – so'radi Andrea.

– Senga alohida xona ajratib berish va sen bilan mening uchrashib turishimga ijozat etish to'g'risida buyruq.

Andrea quvonganidan qichqirib yubordi, lekin darrov o'zini bosdi-da, ichida dedi:

«Yana sehrli homiy qo'lini uzatdi-ya! Xayriyat, meni esdan chiqarmabdi! Men bilan alohida gaplashmoqchi bo'lishyapti, demak, bu erda bir sir bor. Mana, endi qo'limga tushdi bu janoblar! Ularning tizgini mening qo'limda! Ha, mening qo'limda. Bertuchchoni o'sha homiy yuborgan!»

Qorovul, boshlig'i bilan gaplashib olib, panjara eshigini ochdi va shodlikdan o'zida yo'q Andreani ikkinchi qavatdagi bir xonaga olib kirdi. Bu xonaning derazalari hovliga qaragan edi.

Turmalaridagi tartibga ko'ra xona oppoq bo'yalgan, supurib-sidirilgan edi: buni ko'rib mahbusning og'zi qulog'iga etdi; karavot, pechka, stol, kursi – hamma narsa muhayyo.

Bertuchcho kursiga cho'kdi, Andrea o'zini karavotga tashladi.

Qorovul chiqib ketdi.

– Xo’sh, menga nima gaping bor edi? – so’radi graf Monte-Kristoning ish boshqaruvchisi.

– Sizning-chi? – so’radi Andrea ham.

– Avval sen ayt.

– Siz oldimga keldingiz, demak, gapni siz boshlashingiz kerak.

– Mayli, men boshlay qolay. Sen jinoyat ustiga jinoyat qilaverding: o’g’irlik qilding, odam o’ldirding.

– Meni faqat shu qilmishlarimni aytish uchun alohida xonaga ko’chirgan bo’lsangiz, chakki qilibsiz, bular allaqachon ma’lum menga. Lekin menga noma’lum ba’zi narsalar bor; agar ijozat etsalar, ana shular haqida gaplashib olsak. Birinchidan: sizni kim bu yoqqa yubordi?

– Shoshmang, janob Benedetto, shoshmang!

– Men bir yo’la maqsadga o’ta qolaylik, deyapman-da. Ortiqcha so’zlarga sira hojat yo’q, kim yubordi?

– Hech kim yuborgani yo’q.

– Turmadaligimni qayoqdan bildingiz?

– Elisey Maydonida ko’p nayranglar ishlatib yurgan ablah ekanligingni ko’pdan buyon bilaman.

– Elisey Maydonida!.. Qani, bir g’ijillashib olaylik-chi... Elisey Maydonida! Xo’sh, xo’sh, qani, agar istasangiz, otam to’g’risidayam gaplashib olamiz, xo’pmi?

– Iya, men-chi? Men kimman?

– Siz, muhtaram zot, mening tutingan otamsiz... Biroq, besh oydayoq sovurib tamom etganim yuz ming frankni menga siz berganingiz yo’q; menga dongdor italyanni ota qilib bergan ham siz emassiz; oqsuyaklar davrasiga meni olib kirgan va hozir ham esimga tushsa so’lagim oqadigan ziyofatlarga taklif etgan siz emassiz. Parijning eng mashhur jamoatchiligi to’plangan Oteyldagi ziyofat esingizdami? O’sha mehmondorchilikda qirollik prokurori ham bor edi, men badbaxt u bilan inoqlashib olmagan edim; mana, hozir u menga juda asqatardi; kirdikorlarim fosh bo’lishi oldidan menga ikki million va’da etgan ham siz emassiz! Xo’sh, qani, gapiring, korsikalik muhtaram afandim,

gapiring...

– Nima deyishimni istaysan, xo'sh?

– O'zim kalavanning uchini tutib bera qolay. Hozir o'zingiz Elisey Maydoni haqida so'z ochdingiz, mening hurmatli otam.

– Xo'sh, nima bo'пти undan gap ochsam?

– Chunki, o'sha Elisey Maydonida juda badavlat zot istiqomat qiladi.

– Sen o'shaning uyiga o'g'rilikka kirib odam o'ldirganmiding?

– Shunday bo'lsa kerak.

– Graf Monte-Kristomi?

– Rasinning so'zi bilan aytganda, sen o'zing uni tilga olding... Xo'sh, nima qilay? Uning quchog'iga otilib, bag'rimga bosay-da, Pikserekur kabi «Ota! Otajonim!» deb qichqiraymi?

– Bas qil masxarabozlikni! – dedi do'q urib Bertuchcho, – uning nomini bu erda tilga olma.

– O'ho', hali shunaqami? – dedi Andrea Bertuchchoning gapidagi tantanavor ohangdan ajablanib. – Nega endi tilga olmaslik kerak ekan?

– Shuning uchunki, u kishi Xudo yorlaqagan eng aziz bandalardan, uning senga o'xshagan betavfiqlarga ota bo'lishi aslo mumkin emas.

– Bu tumtaroq gaplarni qarang-a...

– Agar ehtiyot bo'lmasang mudhish ish yuz berishi mumkin.

– Meni qo'rqitmoqchisiz, shekilli? Sirayam qo'rqmayman... Aytamanki...

– U odamni ham o'zingga o'xshagan hayvon deb o'ylayapsanmi? – dedi Bertuchcho g'oyat osoyishta va dadil turib. Andrea ichidan zil ketdi. – Uni ham mana shu jazo hibsonasidagi pastkashlarga o'xshagan odamlardan, deb o'ylayapsanmi?.. Benedetto, shuni bilib qo'yginki, sen tengi yo'q qudratli kishining qo'lga tushgansan, ana shu kishining temir qo'li seni xalos etmoqchi, bundan foydalanib qol. Bir zum jimib qolgan chaqmoq bilan

o'ynashma, uning rejasiga xalaqit bersang, yana hamma yoqni larzaga keltirib, giriboningdan xippa bo'g'ib olishi mumkin, u vaqtda dodingni Xudoga aytasang ham, qutula olmaysan.

– Mening otam kim o'zi? Men bilishni istayman, kim o'zi?.. – dedi qaysarlik bilan Andrea. – Nima bo'lsa bo'lsin, lekin bilib olmaganimcha qo'ymayman. Behuda g'alvaning men uchun nima ahamiyati bor? Qaytanga hamma yoqqa dong'im ketadi, hamma otning qashqasidek tanib oladi meni. Janjal, jurnalist Boshanning so'zi bilan aytganda, reklama; demak, bu g'alva foydali mojaro. Siz kabi oliy tabaqa zotlariga esa g'alva xavf, tashvish tug'diradi, millionlaringiz ham, gerblaringiz ham yordam berolmaydi... Xo'sh, qani ayting, mening otam kim?

– O'zim ham senga shuni aytgani kelgandim.

– Xayriyat-e, axiri uning nomini eshitarkanman-a? – xitob qildi Benedetto, quvonchdan uning ko'zlari chaqqlab ketdi.

Biroq shu payt eshik ochildi-da, turma qorovuli paydo bo'ldi.

–Uzr, janob, uzr, – dedi u Bertuchchoga qarab. – Mahbusni tergovchi kutib o'tiribdi.

– Bugun oxirgi so'roq, – dedi Andrea ish boshqaruvchiga. – Attang!

– Ertaga kelaman, – dedi Bertuchcho.

– Bo'пти, – dedi Andrea. – Janob jandarma, men sizning izmingizdaman. Janob, marhamat qilib kontoriga o'n ekyu tashlab keting, so'ragan narsamni muhayyo qilishsin.

– Iltimosingiz bajo keltiriladi, – javob berdi Bertuchcho.

Andrea qo'lini uzatdi, ammo Bertuchcho qo'lini cho'ntagidan chiqarmay tangalarni sharaqlatib qo'ya qoldi.

– Men ham xuddi shunday qilarsiz, degan niyatda edim, – dedi Andrea iljayib; Bertuchchoning o'taketgan xotir-

jamligini ko'rib ruhi tushib ketdi. «Nahotki, xato qilib qo'ygan bo'lsam? – dedi ichida u panjarali katta aravaga o'tirayotib, – boshga tushganni ko'z ko'radi!»

– Xayr, janob! – dedi u Bertuchchoga qarab.

– Ertagacha xayr! – javob berdi ish boshqaruvchi.

## XI. SUDYA

Abbat Buzoni Nuarte bilan Valentinaning xonasida qolganini va marhuma jasadi oldida ikkisi o'zini hushyor tutib, mijja qoqmay chiqqani hurmatli kitobxonning esida bo'lsa kerak.

Ehtimol, abbatning duolari, mehribonligi, ishonarli so'zlari cholning ruhini ko'targandir. Kohin bilan suhbatdan so'ng, Nuartedagi ilgari qayg'u-alam, umidsizlik g'oyib bo'ldi-da, uning ruhida allaqanday o'zgarish yuz berdi, ko'ngli taskin topib, tinchlandi; Nuartening Valentinaga mehri balandligini bilgan kishilar bundan ajablandilar.

Vilfor qizi vafot etgandan buyon otasini ko'rgani yo'q. Butun xonadon yangilandi: qirollik prokuroriga boshqa qarol yollandi, Nuartega ham boshqa xizmatchi olindi, Vilfor xonim uchun maxsus ikkita enaga tayinlandi, xizmatkorlarning hammasi – eshik qorovulidan tortib izvoshchigacha o'zgartirilib, yangi kishilar olindi. Bu xizmatchilar xuddi o'rtadagi g'ov singari, uy xo'jayinlari orasidagi sovuq, ko'ngilsiz munosabatlarni yana chuqurlashtirib, aloqani batamom uzib qo'yishdi. Buning ustiga sud sessiyasi uch kundan keyin ochilishi kerak edi, shu vajdan Vilfor kabinetini ichidan qulflab olib, Kadrossning qotiliga qarshi zo'r berib aybnoma tayyorlardi. Graf Monte-Kristoga daxldor boshqa ishlar kabi bu ish ham Parijda juda katta shov-shuvga sabab bo'lgan edi. Jinoyatning izi topilgandi: bu – aybdorning sobiq og'aynisi mahbusning o'limi oldida yozib qoldirgan bir necha so'zidan ayon edi; qirollik prokurori Benedettoning aybdor



ekanligiga to'la ishonch hosil qilgan va bu murakkab ishni g'urur bilan tugatib, ko'ksimni ancha ko'tarib olaman, deb umid qilardi.

Vilfor ishni juda zo'r berib olib borayotganligi tufayli tergov nihoyasiga etib qolgandi. Sessiyani ana shu ish bilan boshlash Vilforning niyati edi. Prokuror sud kengashiga bilet so'rovchilardan qutulish uchun odatdagidan ko'proq bekinib olishga majbur edi.

Bundan tashqari, Valentinaning vafotidan buyon hali hech qancha vaqt o'tgani yo'q, oilada hamon aza, ota butun alamini ishdan olayotganligi hech kimni taajjubga solmasdi, albatta...

Faqat bir marta, Bertuchcho otasining kimligini aytib berish uchun Benedetto huzuriga ikkinchi bor kelib ketgan kunning ertasiga – yakshanba kuni chol Nuartega Vilforning ko'zi tushdi; ishlayverib toliqqan prokuror boqqa chiqdi va chuqur o'y-xayollar og'ushida qaddi bukilgan, g'amgin holda, xuddi oyoq bilan baland ko'knori boshlarini qoqayotgan Tarkviniyaga o'xshab, hassasi bilan xiyobonning ikki yog'ida bo'ydor xushbo'y atirgullarning so'liq shoxlarini urib sindirib yurgandi.

U bir necha bor bog'ning to'riga, o'quvchilarga ayon darvoza oldiga, ochiq poliz maydoniga borib keldi; mana bu gal ham o'sha erdan ilgarigidek kelayotganda u beixtiyor uy tomonga ko'z tashlagandi; uyda o'g'li hamma yoqni boshiga ko'tarib sho'xlik qilayotgan edi. Shu topda Vilfor ochiq derazalardan birida Nuarteni ko'rib qoldi. Chol oftobning kechki so'lim taftidan bahra olish uchun o'rindig'ini deraza oldiga keltirib qo'yishni buyurgan edi; botayotgan quyoshning mayin nuri so'liq karnaygullarga, ayvonni o'rab olgan tokning qizg'ish yaproqlariga hamon jon kiritib turardi.

Chol nimagadir juda qattiq tikilib turardi, dastlab Vilfor u nimaga bunchalik ko'z tikkanini bilolmadi; cholning ko'zlari dahshatdan yongandi. Nuartening yuzida paydo bo'ladigan har qanday o'zgarishning ma'nosini darhol payqab oladigan qirollik prokurori o'zini chetga oldi-da,

yurakka bamisoli xanjar kabi sanchilib turgan bu ko'zlar kimga qaratilganligini bilmocchi bo'lib, Nuarte qaragan tomonga nazar tashladi. Shoxlari deyarli yalang'och arg'uvon ostida qo'lida kitob de Vilfor xonim o'tirardi. Xonim ahyon-ahyonda o'qishni to'xtatib, o'g'liga iljayib qo'yar yoki u mehmonxonadan boqqa hadeb uloqtirayotgan koptokni qaytarib, mehmonxonaga otardi.

Vilforning rangi o'chib ketdi: chol nima democchi ekanligini angladi u.

Nuarte kutilmagan holda ko'zlarini kelinidan oldi-da, o'g'liga tikdi, endilikda o'qday otilib turgan bu ko'zlarining g'azab tig'iga Vilfor bardosh berishga majbur bo'lgan edi. Bu qarash bu gal yana ham dahshatliroq narsadan darak berib turardi.

Ikki tomonga otilib turgan bu o'tli nazardan bexabar Vilfor xonim esa yana koptokni tutib oldi va o'g'ilchasi-ni, endi buni o'zing kelib olib ket, seni bir achomlab betlaringdan o'pay, deb erkalatib oldiga chaqira boshladi, biroq Eduar onasini ancha vaqt yalinib-yolvorishiga majbur etib turdi, bolasi tushmagurga onaning erkalashi kamlik qilayotgandek tuyulgandi, oxiri bola bo'yni dov berdi-da, derazadan to'g'ri gulzor ichiga irg'ib tushib, gullarni payhon qilib, chopqillab de Vilfor xonim qoshiga bordi. Xonim esa uning yuzidan cho'lpillatib o'pdi. So'ng erkatoy, bir qo'lida koptok, ikkinchi qo'lida konfet tutib, qaytib ketdi.

Vilfor hiylakor ilonning joduli ko'zlariga rom bo'lib, o'zini yo'qotib qo'ygan sho'rlik qushchaga o'xshab junjikdi-da, uy tomon yo'l oldi. Prokuror yaqinlashgan sari chol unga qattiqroq tikilar, qorachig'laridagi o'tli nayza Vilforning bag'rini teshib yuborayotgandek bo'lardi. Qirollik prokurori Nuartening ko'zlarida qahr-g'azab uchqunlab turganini ko'rib turardi. Nuarte o'g'liga: «O'z ontिंगni unutyapsan, Xudoga nola qilaman», degandek, ko'zlarini asta osmonga ko'tardi.

– Angladim, janob, angladim, – dedi bunga javoban Vilfor. – Sabr qiling. Yana bir kun sabr qiling, va'dam

esimda.

Nuarte qanoat hosil qildi shekilli, ko'zlarini o'g'li dan chetga oldi.

Vilfor nafasini bo'g'ayotgan yoqasini shartta echib tashladi, titroq qo'llari bilan peshanasini siladi-da, kabinetiga kirdi.

Tun, odatdagidek, tinch o'tdi, faqat Vilfor har galgidek ertalab soat beshgacha ishladi, bir kun muqaddam tergovchi o'tkazgan so'roq-javoblarni ko'zdan kechirdi, unga guvohlarning aytganlarini taqqoslab ko'rdi va o'z aybnomasiga tuzatishlar kiritdi. Bu aybnoma Vilfor shu vaqtgacha tuzgan aybnomalar ichida eng puxtalaridan biri edi.

Dushanba kuni ertalab sessiyaning birinchi majlisi bo'lishi kerak edi.

Erta tongning xira yog'dusi derazadan mo'raladi-da, qog'ozga qizil siyoh bilan yozilgan o'sha muddatni Vilfora yaqqol ko'rsatib qo'ydi. Qirollik prokurori birpas hordiq chiqarish uchun yonboshladi, chiroq yoniq turaverdi, so'ng ana shu chiroqning chirsillashidan uyg'onib ketdi va terlagan panjalari xuddi qonga bo'yalgandek qizarib ketganini ko'rdi.

Derazani ochdi, osmonga bo'y cho'zgan qator shamshodlar hali ufqdan bosh ko'tarmagan quyoshning sarg'ish nuriga taroq solgandi. Darvozaning narigi tomonida, qarovsiz qolgan poliz ustida to'rg'ay ovozining boricha chinqirib, sayrab o'tib ketdi.

Tongning salqin havosi dimog'iga «gup» etib urib, Vilforning fikri ravshanlashib ketdi.

– Mana, sud kuni ham etib keldi, – dedi u zo'rg'a nafas chiqarib, – bugun odil sud hamma aybdorlarning jazosini beradi.

U beixtiyor Nuartening derazasiga nazar tashladi.

Darpardalar tashlog'liq edi. Shunday bo'lsa-da, uning ko'z oldida otaning siymosi gavdalandi-da, xuddi choling g'azabli ko'zlari unga tikilib turgandek:

– Ha, xotirjam bo'laver! – dedi.

U boshini quyi solib kabinetining u yog'idan-bu yog'iga bir necha bor borib keldi, so'ng uxlash uchun emas, taniga orom berish uchun o'zini divanga tashladi.

Uydagilar ham birin-ketin uyg'ona boshladi; Vilfor kabinetida o'tirib, har kun bo'ladigan ertalabki g'ovurg'uvurlarni barala eshitib turardi: eshiklar sharaqladi, enagani chaqirayotgan de Vilfor xonimning qo'ng'irog'i jarangladi, Eduarning qiyqirig'i eshitildi.

Vilfor ham qo'ng'iroq chaldi, yangi kemerdiner kirib, gazeta uzatdi:

Gazetalar bilan birga bir idishda shokolad ham keltirdi.

– Bu nima? – so'radi Vilfor.

– Shokolad.

– Men shokolad so'ramagandim-ku. Kim menga buncha mehribonlik qildi?

– De Vilfor beka. Bugun qotil Benedettoning ishi ko'riladi, unda janob Vilfor juda ko'p gapiradilar, kuch to'plab olsin, deyaptilar.

Kamerdiner shunday dedi-da, boshqa stollar kabi divan yonida qog'ozlarga to'lib yotgan stol ustiga oltin suvi yuritilgan idishni qo'yib, chiqib ketdi.

Vilfor g'amgin holda qadahga tikilib qoldi-da, so'ng birdan dast ko'tarib, ichib yubordi. U, go'yo bu zaharni ichib, ajalimdan besh kun burun o'layinu, o'limdan ham og'ir va'dani ado etishdan qutulib qo'ya qolay, deya yotgandek edi. So'ngra u o'rnidan turib, kabinetda iljayib yura boshladi. Uning bu xunuk iljayishini ko'rgan kishi qo'rqib ketardi.

Shokolad zararsiz bo'lib chiqdi.

Nonushta paytida Vilfor ovqatga chiqmadi.

Kamerdiner yana kabinetga kirdi.

– De Vilfor beka: borib ayt, soat o'n bir bo'ldi, majlis o'n ikkiga tayinlangan, deb buyurdilar....

– Xo'sh, nima bo'пти endi? – dedi Vilfor.

– ...Men ham birga boramanmikin, deb so'rayaptilar.

– Qayoqqqa?

– Sudga.  
– Nega endi u kishi borishi kerak ekan?  
– Rafiqangiz, sudning shu majlisida qatnashishni istayman, deyaptilar.

Vilfor g'azabga minib:

– Ho, qatnashishni istab qoptilar-da! – dedi.  
Kamerdiner orqaga bir qadam tashladi-da:  
– Bir o'zingiz bormoqchi bo'lsangiz, bekaga borib ayta qolay, – dedi.

Vilfor indamadi, qonsiz betini tirnoqlari bilan asabiy qashlab:

– De Vilfor xonimga borib ayting, – dedi, – men u kishi bilan gaplashmoqchiman, xonasida kutib tursin.

– Xo'p, janob.

– So'ngra kelib, soqolimni olib qo'yasiz.

– Hozir kiramani.

Kamerdiner chiqib ketdi, so'ngra kirib Vilforning soqolini olib, boshdan-oyoq qora libosini kiyintirdi.

– De Vilfor beka sizni kutib turibdilar, – dedi u.

– Hozir boraman.

Vilfor papkalarini qo'ltiqlab, shlyapasini qo'lga oldida, xotining xonasiga yo'l oldi.

U eshik oldida to'xtab, peshana terini artidi, so'ng eshikni ochdi.

De Vilfor xonim pastak stolcha yonida toqatsizlanib jurnal va risolalarni varaqlar, o'g'li Eduar esa jurnallarni shar-shar yirtib, xalaqit berardi.

Xonim yo'lga chiqishga tayyor edi, qo'llarida qo'lqop, shlyapasi kursi ustida.

– Mana, o'zingiz ham kelib qoldingiz, – dedi tabiiy va osoyishta ohangda u. – Hoy, dadasi, namuncha rangingiz oppoq? Tavba! Yana tun bo'yi mijja qoqmay ishlab chiqibsiz-da! Nega biz bilan nonushta qilgani chiqmadingiz? Xo'sh, meni o'zingiz bilan birga olib ketasizmi yo Eduar bilan ikkalamiz alohida boramizmi?

Shunday qilib, de Vilfor xonim savollarni qalashtirib tashladi, Vilfor esa pinagini buzmay, bir joyda tik

turaverdi.

– Eduar, – dedi u oxiri bolaga, amirona ohangda, – bor, mehmonxonada birpas o‘ynab tur, men onang bilan gaplashib olay.

De Vilfor xonim seskanib ketdi, erining o‘zini sovuqonlik bilan tutishi, keskinlik bilan gapirishi uning hushini uchirdi.

Eduar boshini ko‘tarib onasiga qaradi, onasi Vilforning amrini quvvatlamayotganini ko‘rib, suratdagi soldatlarining boshlarini kesishda davom etdi.

Vilfor:

– Eduar! – deb chunon qichqirgan ediki, bola cho‘chib o‘rnidan turdi, – eshitdingmi? Chiq!

Bunaqa muomalaga o‘rganmagan bola, g‘azabdanmi yoki qo‘rqqanidanmi, bunisini aniqlash qiyin, oqarib-bo‘zarib ketdi.

Otasi uning yoniga borib, peshanasidan o‘pdi.

– Bor, o‘g‘lim, bor! – dedi Vilfor.

Eduar chiqib ketdi.

Vilfor borib eshikni bekitib, ilgagini solib qo‘ydi.

– E, Tangrim, – dedi de Vilfor xonim erining fikrini bilib olishga urinib; lablarida tabassumga o‘xshash bir narsa ko‘rindi-yu, Vilforning ma‘nosiz tikilib turgan ko‘zlarini ko‘rib, darhol gumdon bo‘ldi, – e, Tangrim, bir gap bo‘ldimi o‘zi?

– Bekam, o‘sha ishlatib yurgan zaharni qayerda saqlaysiz? – dedi qirollik prokurori dabdurustdan.

De Vilfor xonimning butun vujudi titrab ketdi; u shu payt tepasida quzg‘un gir aylanayotgan to‘rg‘ayga o‘xshardi. Ko‘karib murda bo‘lib qolgan de Vilfor xonim og‘zidan allaqanday bo‘g‘iq tovush chiqdi:

– Men... men tushunmadim, nima deyapsiz? – dedi xonim va o‘rnidan turmoqchi bo‘ldi, biroq holdan toyib, yana divanga cho‘kdi.

– Qaynotam markiz de Sen-Meranni, qaynonamni, Barruani va qizim Valentinani o‘ldirgan zaharni qayerga yashirib qo‘ygansiz, deyapman, – takrorladi Vilfor vazmin

ohangda.

– Nima deyapsiz o'zingiz? – qichqirdi de Vilfor xonim titrab-qaqshab.

– Savolga javob bering.

– Erimmisiz yoki sudyami?

– Sudya, xonim, sudya!

Xonim taxta bo'lib qoldi.

– Oh, janob!.. – dedi zo'rg'a ovoz chiqarib u. Shundan bo'lak so'z aytmadi.

– Savolimga javob bermayapsiz-ku! – dedi xitob qilib sudya. So'ngra u zaharhanda bilan jilmayib, qo'shib qo'ydi:

– Rostdanam, aybingizni yashirmaysiz-da!

Xonim joyida bir qimirlab qo'ydi.

– Darvoqe, qilmishlaringizni yashirolmaysiz ham, ha, yashirishingiz mumkin ham emas, – dedi Vilfor, – siz bu jinoyatlarni o'ta makkorlik bilan amalga oshirib keldingiz, biroq bunda noz-karashmalingizga uchgan laqmalargina aldandi; men esa markiza de Sen-Meran o'limidanoq uyimda zaharlovchi qotil borligini bilgan edim; bundan meni d'Avrini ogohlantirib qo'ygan edi; Barrua vafotidan so'ng farishtaday pok qizimdan xavfsiray boshladim; jinoyat aniq ma'lum bo'lmagach, qalbidagi shubha tobora kuchaya berdi. Valentina o'lgandan so'ng, bekam, mendagina emas, boshqalarda ham hech qanday shubha qolmadi, shu tariqa jinoyatingiz ikki kishiga ayon bo'lsa-da, ko'plar sizdan gumonsirab kelgandi, endilikda bu jinoyat fosh etiladi. Men ham siz bilan bundan buyon eringiz sifatida emas, sudya sifatida gaplashaman!

De Vilfor xonim qo'llari bilan yuzini berkitib oldi.

– O'tinaman sizdan, har xil mishmishlarga ishonavermang, – dedi pichirlab xonim.

– Men sizni bunchalik irodasiz, qo'rqqoq deb o'ylamagandim, bekam, – dedi nafrat bilan xitob qilib Vilfor. – Darvoqe, odamlarni zaharlovchi kishilar irodasiz, qo'rqqoq bo'ladi; buni ko'p ko'rganman. Axir ikki kekxa va bir be-gunoh qiz ko'z oldingizda jon berayotganda o'zingizni

juda dadil tutgan edingiz-ku?

– Janob!

– Nahotki, siz shunchalik irodasiz bo'lsangiz? – davom etdi Vilfor tobora qizishib. – Axir Xudoning to'rt bandasi o'lim talvasasida yotganda, «tezroq jon bera qolsa bo'lmasmikin bu qurib ketgur», deb, pinagingizni buzmay, daqiqalarni sanab turgan siz emasmidingiz? Yovuz niyatingizni hech ikkilanmay amalga oshirgan siz emasmidingiz? O'sha ajal dorisini g'oyat ustalik va ishonch bilan tayyorlagan siz emasmidingiz!.. Bu razil ishlarni juda qoyilmaqom qilib bajargan bekam qilmishlari fosh etilganda qanday jazoga muhtalo bo'lishini o'sha paytlarda, nahotki, unutib qo'ygan bo'lsa? Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas; menimcha, eng mazali, juda tez, bexato ta'sir etadigan zaharni mahkam yashirib, saqlab qo'ygan bo'lishingiz kerak. Shunday qilgansiz, deb ishonsam bo'ladimi?

De Vilfor bekaning qaddi bukildi-yu, o'zini tashlab, cho'kkalab qoldi.

– Ko'rib turibman, aybingizga iqror bo'lyapsiz, – dedi Vilfor, – ammo, bilib qo'yingki, inkor etishga iloj topilmagach, so'nggi daqiqada sudya oldida iqror bo'lish bilan jazoni engillashtirib bo'lmaydi.

– Jazo?! – dedi qichqirib de Vilfor xonim. – Bu so'zni yana aytyapsiz-a!

– Ha, jazo! Yoki to'rt marta gunoh qilib, hech jazoga yo'liqmagan edim, bu gal ham suvdan quruq chiqaman, deb o'ylayapsizmi? Jazo berilishini talab qilayotgan zotning rafiqasiman-ku, nahotki u qo'llamasa, degan xomxayolga boryapsizmi? Yo'q, xonim! Qotil kim bo'lmasin, qaysi ulug', oliy tabaqaga mansub bo'lmasin, baribir, u jallod kundasiga iflos boshini qo'yishga majbur; agar qotil eng kuchli zahardan bir necha tomchisini o'zi uchun saqlab qo'ygan bo'lsa, unda boshqa gap.

De Vilfor xonim ovozi boricha qichqirib yubordi; basharasi tamom qo'rqinchli tusga kirdi.

– Qo'rqmang, bekam, qo'rqmang, men jallod kundasi-



ga bosh qo'yishni sizdan talab qilayotganim yo'q, – dedi qirolik prokurori, – sharmandayu sharmisor bo'lishingizni istamayman, chunki unda men ham sharmanda bo'lasan; aksincha, mening so'zlarimdan jallod kunda-sida o'lmasligingiz lozimligini anglab olishingiz kerak edi.

– Yo'q, anglaganim yo'q, nima demoqchi edingiz? – dedi zo'rg'a ovoz chiqarib sho'rlik xonim.

– Men, qirolik prokurorining rafiqasi muborak nomi-mizni isnodga qo'yishini va eri bilan o'g'lining oru nomu-sini barbod etishini istamaydi, demoqchiman.

– Yo'q, unday qilmayman, aslo!

– Bekam, bu bilan siz olijanob ish qilgan bo'lsangiz, men sizdan minnatdorman.

– Minnatdorman? Nima uchun?

– Hozirgi so'zingiz uchun.

– Nima dedim men? Nima deganimni bilmayman, esimda yo'q.

Shunday dedi-da, xonim sapchib o'rnidan turdi, uning sochlari to'zg'igan, aft-basharasi burishib-tirishib ketgan edi.

– Men kira solib bergan savolimga, ya'ni ishlatib kela-yotgan zahar qayerda, degan savolimga javob berdingiz.

De Vilfor beka bezgak tutganday qaltirab, qo'llarini bir-biriga ishqaladi.

– Yo'q, yo'q! Siz buni istamaysiz! – dedi ingrab xonim.

– Men faqat bir narsani, – dedi Vilfor, – ya'ni sizning jallod kundasida halok bo'lishingizni istamayman.

– Rahm qiling!

– Men odil sud o'z burchimni ado etishini istayman. Jazolash – mening vazifam, – qo'shimcha qildi ko'zlari yonib Vilfor. – Boshqa har qanday ayolni, hatto u qirolicha bo'lganida ham, bunday jinoyat uchun to'g'ri jallod qo'liga topshirardim; sizga esa shafqat qilib shunday maslahat beryapman. Men, xonim, axir o'sha te-zob va beomon zaharingizdan bir necha tomchisini ehtiyotdan o'zingiz uchun saqlab, yashirib qo'ygandirsiz, deyapman.

– Rahmingiz kelsin menga! O'limga mahkum etmang

meni!

– Ha, bo’ldi, irodasiz ekansiz, vassalom! – dedi Vilfor.

– Rafiqangiz ekanimni unutmang!

– Siz jirkanch maxluqsiz!

– Xudo haqqi, rahm qiling!

– Bu mumkin emas.

– Ilk muhabbatingiz haqqi!

– Yo’q, yo’q!

– Farzandimiz haqqi! Farzandimiz haqqi, o’ldirmang meni! Yolvoraman!

– Yo’q! Yo’q! Yo’q! Agar men sizni tirik qoldirsam, ehtimol, siz bir kun borib shu farzandning joniga ham qasd qilishdan toymaysiz.

– Men-a? Men o’z o’g’limning joniga qasd qilamanmi?

– dedi telbalaracha qichqirib ona va o’zini Vilforga tashladi. – O’z Eduarimni-ya! Xa, xa, xa!

Telbaning iblisona qahqahasi xonani larzaga soldi, keyin bo’g’iq, xirildoq tovush chiqarib, jim bo’ldi.

De Vilfor xonimning oyoqlari bukilib, cho’kkalab qoldi.

Vilfor uning oldiga bordi.

– Xonim, bilib qo’yingki, – dedi u, – men qaytib kelguningcha odil sud bajo etilmasa, sharmandalaracha qamoqqa olaman.

Xonim bu gaplarni eshitib butunlay tamom bo’ldi.

– Tushudingizmi? – dedi Vilfor. – Qamoqqa olamanda, sud zaliga borib, qotilga o’lim jazosi berishni o’zim talab etaman, o’zim... qaytib, sizni tirik holda ko’rsam, bu tunni Konserjerida o’tkazasiz.

De Vilfor xonim bir oh tortib, gilamga yiqildi. Qirollik prokurorining ko’zlarida shafqat alomati ko’ringandek bo’ldi, u boshini sal egib:

– Alvido, xonim, – deb qo’ydi.

Bu so’z jallod pichog’i kabi de Vilfor bekaning bag’riga botdi. Xonim hushidan ketdi.

Qirollik prokurori xonadan chiqdi-da, kalitni ikki burab, eshikni qulflab qo’ydi.

## XII. SESSIYA

Benedettoning ishi (sud olamida va oqsuyaklar jamoatchiligida bu ishga shunday deb nom berishgandi) juda katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Soxta Kavalkanti Kafede-Pariga, Gent bulvariga va Bulon o'rmoniga hadeb qatnayverib, hammaga otning qashqasidek tanish bo'lib qolgan va taqvodorlar orasida obro' qozonib, anchamuncha oshna-og'ayni ham orttirib olgandi.

Uning Parijdagi qilmishlari haqida, og'ir jazo qamoqxonasida qanday yashagani haqida gazetalar ko'pdan-ko'p tafsilotlar e'lon qilishdi. Bularning hammasi odamlarni, ayniqsa knyaz Andrea Kavalkantini yaqindan taniganlarni juda qiziqtirgan edi, qamoqxonada birga bo'lgan jo'rasini o'ldirgan janob Benedettoni sudda qora kursida o'tirgan holda ko'rishni istaganlar hisobsiz edi.

Ko'plar, Benedetto odil sudning qurboni bo'lmasada, harholda sud xatosining qurboni bo'ldi, deb hisoblardi. Uning otasi janob Kavalkanti parijliklarga taniqli odam edi, shu vajdan hamma, otasi kelib arzandasini qutqarib oladi, deb o'ylardi. U mashhur vengercha kiyimida graf Monte-Kristoning uyida paydo bo'lganida odamlarda juda katta taassurot qoldirgandi, tashqi ko'rinishi, bahodirona qiyofasi, latif munosabati bilan hammani qoyil qilgan edi.

Aybdorga kelganda, uni hamma xushmuomala, mardonavor, hotamtoy yigit deb faraz qilardi, shu sababdan bu voqea biror dushmanning fitnasidan boshqa narsa emas, boylik odamga har qanday yaxshilik va yovuzlik qilish huquqini beradigan, uni tengsiz qudratga ega qilib qo'yadigan bu dunyoda bunday hodisalar tez-tez bo'lib turadi, deb hisoblashardi.

Xullas, hamma sud zaliga kirishga oshiqardi: ba'zilar huzur bilan tomosha qilish uchun, boshqalar esa shu haqda safsata sotish uchun. Soat ertalab ettidanoq zal eshiklari oldida tumonat odam to'plandi; majlis boshlanishiga bir soat qolganda sudning majlis zali yuqori

tabaqa kishilari bilan liq to'lgandi.

Katta ishlar ko'riladigan kunlari, sud hay'ati zalga chiqqanga qadar, hatto undan keyin ham sud zali tanish-bilishlar uchrashib qolgan mehmonxonaga o'xshab ketardi; joyini boshqalar band etib qo'yishidan qo'rqmaydiganlar to'p-to'p bo'lib suhbatlashar, uzoqroqqa o'tirib qolgan sonsiz tomoshabinlar advokatlar va jandarmalar ajratib qo'ygan vaqtda imo-ishora bilan salomlashib qo'ya qolishardi.

So'lim kuz payti, tong chog'ida quyoshni to'sib qo'ygan bulutlar allaqachon tumtaraqay bo'lib ketgan, oftobning zarrin nurlari sentyabr oyining oxirgi yorqin kunlariga iliqlik bag'ishlab turibdi.

Hamma erda joyning eng sozini egallab oladigan matbaachilar shohi Boshan zaldagilarni birma-bir ko'zdan kechirayotib, Shato-Reno va Debreni ko'rib qoldi. Bu ikki og'ayni to'sib qolishi mumkin bo'lgan va bunday qilishga katta haqqi bor polisiya xodimini endigina orqaga o'tirishga ko'ndirgan edilar. Polisiya xodimi ministr kotibini va millionerni tanib qolgandi; u hatto nomdor qo'shnilarini hurmat qilib, Boshanning oldiga borib gaplashib kelishga ruxsat etdi va joylarini band qilib turishga va'da berdi.

– Do'stimiz bilan diydor ko'rishmoqchi bo'lib kelibsiz-da siz ham, – dedi Boshan.

– Bo'lmasam-chi! – dedi Debre. – U bizning hotamtoy knyazimiz-ku! Buni qarang-a, italyan knyazlari shunaqa bo'larkan-da!..

– Bu zotlarning nasl-nasabi ustida Dantening o'zi bosh qotirgan, ularning xesh-aqrabolari «Ilohiy komediya»da ardoqlangan!

– Bebosh aristokratiya, – dedi sovuqqonlik bilan Shato-Reno.

– U jazoga tortiladi, deb o'ylayapsizmi? – so'radi Debre Boshandan.

– Chamamda, buni sizdan so'rash kerak, – dedi jurnalist, – sudning kayfiyati ko'proq sizga ma'lum, sud raisi

so'nggi gal ministr qabulida bo'lganida ko'rganmidingiz?

– Ko'rgandim.

– O'shanda nima dedi u sizga?

– Aytsam, ishonmaysiz.

– Aytavering, men, umuman, anchadan beri hech narsadan taajjublanmay qo'ydim.

– Hamma juda uddaburon, ilonning yog'ini yalagan, makkor, deb yurgan Benedetto oddiy bir firibgar, o'limidan keyin jindak tadqiqotga ham arzimaydigan bir maxluq, dedi u.

– Knyazlik rolini juda boplab o'ynadi-da, la'nati, – dedi Boshan.

– Bu sizning shaxsiy fikringiz, Boshan, bunday deyi-shingizning boisi shundaki, siz, umuman, kambag'al knyazlarni ko'rolmaysiz, ular bema'ni ish qilsa, shodlanasiz; ammo meni aldash qiyin, men, makkor ayg'oqchi singari haqiqiy aristokratni yiroqdan tanib olaman.

– Demak, siz uning knyazlik unvoniga ishonmaganmi-dingiz?

– Knyazlik unvonigami? Ishongandim... Biroq, haqiqiy knyazligiga hech ishonmagandim.

– Oqilona gap bu, – dedi Debre, – ammo amin bo'ling-ki, boshqa har qanday odam uni, shubhasiz, knyaz deyishi mumkin... Men uni ministrarning mehmonxonalari-da ham uchratgandim.

– Ministrlaringizning ko'pi knyaz qanaqa bo'lishini bilarmidi! – dedi Shato-Reno.

– Juda mo'ljalga urdingiz-da! – dedi Boshan. – Sud haqidagi axborotimga buni qo'shib yuborsam maylimi?

– Marhamat, azizim Boshan, – dedi Shato-Reno, – so'zimni o'z narxida hadya qildim sizga.

– Ammo men sud raisi bilan gaplashganimni aytdim, – dedi Debre Boshanga, – siz qirollik prokurori bilan gap-lashgandirsiz?

– Gaplashishning ilojini topolmadim; bir haftadan buyon Vilfor bekinib olgan. Bunda ajablanadigan hech

narsa yo'q: oilasida ketma-ket baxtsizlik yuz berdi; pirovardida qizidan ajraldi; qizining o'limi ham allaqanday sirli, g'alati holatda yuz bergan...

– Sirli holatda? Nima demoqchisiz bu bilan, Boshan?

– Bu gaplarning hammasi sud aristokratiyasiga taalluqli-da, shuning uchun o'zingizni nuqul bilmaslikka solyapsiz, – dedi Boshan ko'ziga monoklini taqib va uni tutib turishga urinib.

– Azizim, – dedi Shato-Reno, – monokl taqish borasida Debrening oldida ip esholmaysiz. Debre, ko'rsatib qo'y, Boshanga qanaqa qilib taqishni.

– Ha, yanglishmabman, xuddi o'zi, – dedi Boshan.

– Nima?

– O'shaning o'zi.

– Kim u?

– Uni ketdi deyishgan edi-ku.

– Mademuazel Ejenimi? – so'radi Shato-Reno. – Qaytib kelibdimi yana?

– U emas, onasi.

– Danglar xonimmi?

– Bo'lmagan gap, – dedi Shato-Reno, – qizining qochib ketganiga hali endigina o'n kun, erining xonavayron bo'lganiga uch kun bo'ldi-ku! Qaysi yuz bilan u odamlar ko'ziga ko'rina oladi?

Debre xiyol qizarib ketdi va Boshan qarab turgan tomonga ko'z tashladi.

– Yo'g'e, qalin o'rtuk o'rab olgan ayol chet ellik xonimlardan bo'lsa kerak, ehtimol, knyaz Kavalkantining onasidir. Siz bir qiziq voqeani hikoya qilib bermoqchidingiz, shekilli, Boshan?

– Menmi?

– Ha, siz, Valentining sirli bir holatda o'lganini aytdingiz.

– Ha, to'g'ri, aytganday, de Vilfor xonim ko'rinmaydirlarmi?

– Sho'rlik! – dedi Debre. – Ehtimol, kasalxonalar uchun yalpizdan dori yoki o'ziga va dugonalariga upa-eliklar tay-

yorlayotgandir. Aytishlariga qaraganda, mana shu narsalar uchun u yiliga uch ming ekyu sarflar ekan. Darvoqe, nega u ko'rinmaydi? Men uni jon-jon deb ko'rgan bo'lardim, menga yoqqan xonimlardan biri de Vilfor xonim-da.

– Men uni ko'rgani ko'zim yo'q, – dedi Shato-Reno.

– Nega endi?

– O'zim ham bilmayman. Nechun sevamiz, nechun nafratlanamiz – bilmayman. Uni jinim yoqtirmaydi, yomon ko'raman.

– Ehtimol, bu tabiiy tuyg'udir sizda.

– Ehtimol... Keling, hikoyangizga o'taylik, Boshan.

– Janoblar, – dedi so'zini davom ettirib Boshan, – na-hotki, bu Vilfor xonadonidan nega qatorlashib o'lik chiqyapti, degan savol tug'ilmagan bo'lsa boshingizda?

– Qatorlashib? Bu oqilona ibora, – dedi Shato-Reno.

– Bu ibora Sen-Simonda ko'p uchraydi.

– Vilfornikida safsatabozlik emas, amaliy ish qilinyapti, shunday ekan, keling, Vilfor to'g'risida gaplashaylik.

– Ochig'ini aytsam, bu xonadonga juda qiziqib qoldim, mana uch oy bo'ptiki, boshlari azadan chiqmay qoldi. O'tgan kuni Valentina vafoti munosabati bilan xonimning «o'zi» menga gapirdi.

– «O'zi» deganingiz kim? – so'radi Shato-Reno.

– Ministrning rafiqasi.

– UZR, – dedi Shato-Reno, – men ministr huzurida bo'lmayman, bu vazifani knyazlarga topshirdim.

– Ilgari siz, baron, uchqun otardingiz, endi chaqmoq otyapsiz; rahm qiling bizga, yo'qsa yangi paydo bo'lgan Yupiter singari bizni jizg'anak qilib tashlashingiz hech gap emas.

– Xo'p, bas qildim, – dedi Shato-Reno, – ammo siz menga rahm qiling, jig'imga tegavermang.

– Menga qarang, Boshan, gapni boshqa yoqqa burmang. O'tgan kuni uning «o'zi» mendan tushuntirib berishni so'radi; siz bilganlaringizni menga aytib bering, men unga etkazaman.

– Xullas, janoblar, – dedi Boshan, – xonadondan qator-

lashib o'lik chiqayotgan ekan, bu uyda qotil bor.

Do'stlari bu gapdan cho'chib ketishdi, ular ham bir necha bor shu fikrni xayoldan o'tkazishgan edi.

– Xo'sh, qotil kim ekan? – so'rashdi jo'ralar.

– Jinqarcha Eduar.

Shato-Reno bilan Debre kulib yuborishdi. Boshan esa pinagini buzmay so'zini davom ettirdi:

– Shunday, janoblar, shunday, jinqarcha Eduar odam o'ldirishda kattalardan qolishmaydigan battol.

– Bu hazilmi?

– Hecham hazil emas, Vilfornikidan qochib ketgan qarolni kecha o'zimga oldim. Endi bu yog'iga quloq so'ling.

– Xo'sh, xo'sh, qulog'imiz sizda.

– Ertaga uni bo'shatib yuboraman; u juda ochofat ekan, ovqat egani egan; aftidan, Vilfornikida bir necha kun tomog'idan ovqat o'tmay, «ro'za» tutgan bo'lsa kerak, o'shaning hissasini endi kelib menikida chiqaryapti, bachchag'ar. Xullas, bolakay Eduar qayerdandir bir shishada o'tkir dori topibdi-da, kim uning jig'iga tegsa, shu dori bilan uning adabini berayotgan emish. Dastlab Sen-Meran buva bilan Sen-Meran buvi uning g'ashiga tegibdi, bolakay ularning stakaniga haligi doridan uch tomchidan tomizibdi; uch tomchisi har qanday odamni o'ldirarkan; so'ng Nuarte buvaning keksa xizmatchisi Barrua ham bolakayni tez-tez koyib turarkan. Bola unga ham haligidan uch tomchi beribdi. So'ngra navbat sho'rlik Valentinaga kelibdi, bolani u xafa qilmas ekanu, biroq bolakay unga hasad qilarkan, shu vajdan Valentinaning stakaniga ham o'sha sehrlı ichimlikdan uch tomchi quyibdi; bechora qiz ham shu bilan jon berib qo'ya qolibdi.

– Cho'pchakni qo'ying, – dedi Shato-Reno.

– Juda vahimali cho'pchak-a, to'g'rimi? – dedi Boshan.

– Bo'lmagan gap, – dedi Debre.

– Siz haqiqatning ko'ziga tik qarashdan qo'rqypsiz, – dedi e'tiroz bildirib Boshan. – Ishonmasangiz, mening xizmatkorimdan, to'g'rirog'i, men ertaga bo'shatib yubor-



moqchi bo'lgan xizmatkordan so'rang: uydagilarning hammasining og'zida hozir faqat shu gap.

– Qanaqa sehrli ichimlik ekan u? Hozir qayerda ekan?

– Bolakay tushmagur uni yashirib qo'ygan emish.

– Qaerdan olgan ekan?

– Oyisining laboratoriyasidan.

– Hali uning onasi laboratoriyada zahar saqlar ekanmi?

– Qaydam. Siz xuddi qirollik prokurori singari so'roq qilyapsiz-ku meni. Yana qaytarib aytaman: men bu gaplarni birovdan eshitdim. Bu gaplarning hammasini haligi yangi qabul qilgan va bo'shatib yubormoqchi bo'lgan xizmatkordan eshitdim; u sho'rlik qo'rqib hech narsa emay yurgan ekan.

– Tavba! Hech aqlga sig'maydigan gap-ku!

– Unday emas, azizim, unday emas, bunda ajablanadigan hech nima yo'q; o'tgan yili Rischele ko'chasida turadigan bir bola uxlab yotgan uka-singillarining quloqlariga igna tiqib, sho'xlik qilgani esingizdami? Yosh avlodning aqli juda oshib ketyapti-da.

– Shu gaplaringizning rostligiga o'zingiz ham shubhalanib turibsiz, – dedi Shato-Reno. – Negadir graf Monte-Kristo ko'rinmaydi bu erda? Nahotki u kelmagan bo'lsa?

– U bunaqa voqealarni ko'raverib zada bo'lib ketgan, – dedi Debre, – yana bu erga kelsa ta'bi tirriq bo'ladi. Axir bu la'nati Kavalkantilar uni aldab qo'lga tushirishdi; aytishlariga qaraganda, ular grafga soxta akkreditivlar berishgan ekan, knyazligiga ishonib graf yuz ming frank chamasi qarz bergan ekan, mana endi o'tday kuyib o'tiribdi, bechora.

– Shato-Reno, – dedi Boshan, – mavridi kelganda so'rab qolay: Morrelning ahvoli nechuk?

– Uch marta borib uyidan topolmadim, – dedi Shato-Reno. – Ko'rinishdan singlisining ko'ngli tinch; uch kundan buyon qorasini ko'rsatmaydi, lekin undan ko'nglim to'q, dedi.

– Aytganicha, graf Monte-Kristo bu erda bo'lishi mum-

kin emas, – dedi Boshan.

– Nega endi?

– Bu dramada uning o‘zi ham ma‘lum rol o‘ynagan.

– Hali u ham biror kishini o‘ldirib qo‘yganmi? – so‘radi Debre.

– Yo‘q, aksincha, uni o‘ldirmoqchi bo‘lishgan edi. Ma‘lumki, o‘sha Kadross degan zot graf Monte-Kristoning uyidan chiqib ketayotganda sherigi Benedetto tomonidan o‘ldirilgan edi. Nikohning buzilishiga sabab bo‘lgan xat grafning uyidan topilgan kamzulidan chiqqan edi. Siz o‘sha kamzulni ko‘rganmidigiz? Hu ana, stol ustida, qip-qizil qonga bo‘yalib yotibdi, jinoyatni tasdiqlaydigan hujjat ana shu.

– Ko‘rdim, ko‘rdim! Hu ana!

– Jim, janoblar, jim, sud boshlanyapti, qani, joy-joyimizga o‘tiraylik.

3aldagilar g‘ivirlashib qoldi; polisiya xodimi xaloyiqqa qarab «tinchlaning» degandek imo qildi, eshikda paydo bo‘lgan sud pristavi Bomarshe zamonidagi pristavlarga o‘xshab g‘ingshigan ovozda e‘lon qildi:

– Sud kelyapti!

### **XIII. AYBNOMA**

Sud hay‘ati joyiga o‘tirdi, zalga og‘ir sukunat cho‘kkan edi; sud maslahatchilari ham o‘rinlarini egallashdi; hammaning diqqat-e‘tiboriga, hatto zavqiga ham sazovor Vilfor prokuror kursisiga cho‘kdi-da, zalga vazmin nazar tashlab chiqdi.

Uning jiddiy va beparvo chehrasida boshiga og‘ir kulfat tushgan otaning qayg‘u-alamidan asar ham yo‘q edi; bunga hamma hayron bo‘ldi. Insoniy his-tuyg‘ular bu zotga butunlay yot edi, bu hol kishilarni vahimaga solardi.

– Aybdorni olib kiring, – dedi rais.

Bu so‘zlarni eshitib hamma baravar Benedetto kiradigan eshikka qaradi.

Ko'p o'tmay o'sha eshik ochilib, aybdor paydo bo'ldi.

Uning tashqi ko'rinishi hammada bir xil taassurot qoldirdi: yuzida hayajon sezilmas, hech o'zgartirgan edi; biri bilan shlyapasini, ikkinchisi bilan nimchasining tugmalarini ushlagan qo'llari qaltiramasdi; osoyishta ko'zlari hatto charaqlab turardi. Benedetto zalga kira solib, sud hay'atini va xaloyiqni nazaridan o'tkaza boshladi, sud raisiga va ayniqsa qirollik prokuroriga uzoq tikilib qoldi.

Andrea yoniga sud tomonidan tayinlangan oqlovchi o'tirdi. (Andrea bunaqa mayda-chuyda narsalar bilan shug'ullanishni o'ziga ep ko'rmadi.) Yuzi qizargan malla rang yosh yigit aybdorga qaraganda ko'proq hayajonga tushgandi.

Rais aybnomani o'qib eshittirishni iltimos qildi. Bu hujjat, ma'lumki, Vilforning mohir va shavqatsiz qalami bilan yozilgan edi.

Boshqa har qanday kishini xunob qilib yuboradigan bu aybnomani o'qish uzoq davom etdi, hammaning ko'zi Andreada edi, u esa pinagini buzmay, gerdayib o'tiraverdi.

Vilfor, ehtimol, shu paytgacha hecham bu kabi uddaburonlik va mohirlik ko'rsatmagan bo'lsa kerak, jinoyat g'oyat mufassal tasvirlab berilgandi; aybdorning o'tmishdagi hamma qilmishlarini, ma'naviy qiyofasi sekin-asta o'zgarib borganini, juda yosh chog'idan buyon qilgan xatti-harakatlarini – hammasini qirollik prokurori juda ustalik bilan o'ta ta'sirli qilib chizib berdi.

Mana shu kirish nutqi bilanoq aybdor jamoatchilik nazarida tiriklayin go'rga tiqilgan edi.

Andrea esa bu dahshatli aybnomani nazar-pisand qilmay, ko'zlarini lo'q qilib o'tirardi, Vilfor so'z orasida unga tez-tez ko'z tashlab qo'yar, aftidan, aybdorning ahvol-ruhiyatini kuzatib borardi; biroq Andrea prokurorning o'qday tikilishlaridan zarracha seskanmadi, hatto biror marta ham erga qaramadi.

Prokuror aybnomani o'qib tugatdi.

– Aybdor, – dedi rais, – ism, familiyangiz?

Andrea o'rnidan turdi.

– Rais janoblari, kechirsinlar, – dedi u aniq, jaranglangan ovozda, – chamamda, siz javob berishda meni qiyaydigan tartibda savollar bermoqchisiz. Men oddiy aybdorlardan farq qilsam kerak, deb o'ylayman va buni keyinroq isbotlab ham beraman. Menga boshqacha tartibda javob berishga ruxsat eting, shundagina hamma savollarigizga javob berishga tayyorman.

Rais taajjub-la sud maslahatchilariga, ular esa qirollik prokuroriga qarashdi.

Xaloyiq hayratda qolgan edi.

Andrea bundan zarracha xijolat tortmadi.

– Yoshingiz nechada? – so'radi rais, – bu savolga javob berarsiz?

– Albatta, janob rais, navbati bilan bundan keyingilargaga ham javob beraman.

– Yoshingiz nechada? – takrorladi savolini rais.

– Yigirma birda yoki to'g'rirog'i, bir necha kundan so'ng yigirma birga kiraman, chunki, bir ming sakkiz yuz o'n ettinchi yil sentyabr oyining yigirma ettinchisidan yigirma sakkizinchisiga o'tar kechasi tug'ilganman.

Nimalarnidir yozib o'tirgan Vilfor bu so'zlarni eshitib, boshini ko'tardi.

– Tug'ilgan joyingiz? – davom ettirdi savolini rais.

– Parij yaqinidagi Oteylda, – dedi Benedetto.

Vilfor yana Benedettoga qaradi, u xuddi Meduzaning kallasini ko'rib, qo'rqib ketgan kishidek rangi oqardi.

Benedetto esa qaddini rostladi-da, guldor ro'molchasining uchi bilan lablarini arttdi.

– Kasb-koringiz? – so'radi rais.

– Dastlab qalbakichilik bilan shug'ullandim, – dedi pinagini buzmay Andrea, – so'ng o'g'irlik qildim, keyingi kunlarda kallakesarlik hunari bilan ham mashg'ul bo'la boshladim.

Zaldagilar g'azab va taajjubda shov-shuv ko'tarishdi; sud hay'atidagilar ham aybdorning bu surbetligi, hayosizligidan darg'azab bo'lib hayratda bir-birlariga qarab

qo'yishdi.

Vilfor qizarib-bo'zarib kafti bilan peshanasini artidi, nafasi bo'g'ilib, o'rnidan irg'ib turdi-da, atrofga alanglandi.

– Janob qirollik prokurori, biror narsa axtaryaptilarmi o'zlari? – so'radi Benedetto nazokat bilan iljayib.

Vilfor hech nima demay yana o'tirdi, to'g'risi, o'ringa yiqilib tushdi.

– Aybdor, endi ism-familiyangizni aytarsiz? – so'radi rais.  
– Jinoyatlaringizni behayolarcha sanab chiqishingiz, hatto bu jinoyatlarni faxr bilan kasb-korim deb e'lon etishingizning o'zi sudning og'ir jazo berishi uchun etarlidir. Biroq siz familiyangizni jo'rttaga darhol aytmadingiz: ism-familiyangizni barcha unvonlaringiz bilan bo'yab, rangdor qilib ko'rsatmoqchisiz, shekilli?

– Rais janoblari, kalamdagi fikrni juda aniq bilib olib, meni hayratga solib qo'ydingiz, – dedi chertib-chertib Benedetto, – haq gapni aytdingiz, xuddi ana shu maqsadda savollar tartibini o'zgartishni iltimos qilgan edim.

Bu gap hammani yana benihoya taajjubga soldi, aybdorning so'zlarida endi manmanlikdan, hayosizlikdan asar ham qolmagan edi. Hayajonga tushgan olomon bu mavhum iboralar ketidan hammani larzaga keltiradigan o'tli iboralar kelib chiqishini sezib turgan edi.

– Xo'sh, – dedi rais, – ismingiz?

– Ismimni aytolmayman sizga, chunki uni o'zim ham bilmayman, ammo otamning ismini bilaman, uni aytib berishim mumkin.

Vilforning boshi aylanib, ko'zi tindi, ter bosdi, titragan qo'llari qog'ozlarni paypaslay boshladi.

– Unday bo'lsa, mayli, otangizning ismini ayting, – dedi rais.

Ulkan zalga og'ir sukunat cho'kdi, hamma nafasini ichiga yutib kutardi.

– Mening otam qirollik prokurori, – dedi osoyishta ohangda Andrea.

– Qirollik prokurori! – dedi hang-mang bo‘lib rais, u Vilforning rangi o‘zgarib ketganini ko‘rmagan edi.

– Ha, siz uning ismini bilmoqchisiz, ismini ham aytib beraman: uning ismi de Vilfor!

Sud hay‘atiga hurmat yuzasidan hamma o‘zini bosib o‘tirgan edi, biroq bu so‘zlarni eshitgach, olomon g‘azabdan qichqirib yubordi. Hatto sudya ham g‘azabga minib, shovqin solgan xaloyiqni tartibga chaqirishni unutdi. Hamon pinagini buzmay turgan Benedettoga qarata yog‘ilayotgan haqoratlar, do‘laytirilgan mushtlar, jandarmalarning hayqiriqlari, janjalga o‘ch pastkash kishilarning g‘ovur-g‘uvuri uzoq davom etdi, sudya va polisiya odamlarni zo‘rg‘a tinchitdi.

Haligi shovqin-suron ichida sud raisining quyidagi so‘zlari eshitildi:

– Aybdor, siz sudni masxaralayapsizmi? Hamshaharlarimiz oldida siz hatto parokandalikka yuz tutgan asrimizda ham tengi topilmaydigan hayosizlik, beadablik ko‘rsatyapsiz!

Unga yaqin odam o‘rindi qda qaddi bukilib, cho‘kib qolgan qirollik prokurorini qurshab, ko‘nglini ko‘tarar, hamdardlik izhor etardi.

3alga yana sukunat cho‘kdi, faqat bir burchakda hamon shovqin bosilmasdi: qandaydir ayol hushidan ketib yiqilgan edi, dori hidlatib hushiga keltirib qo‘yishdi.

Ola-g‘ovur paytida Andrea olomonga qarab iljayib qo‘ydi, so‘ng olifalalik bilan o‘rindi qqa suyandi-da, so‘zga tushib ketdi:

– Janoblar, tepamda Xudo turibdi, men sudni mazax qilishni va bu erga to‘plangan hurmatli zotlar ko‘ngliga g‘ulg‘ula solishni xayolimga ham keltirganim yo‘q. Mendan qachon tug‘ilganimni so‘radilar – aytib berdim; ismimni so‘rashdi, men bu savolga javob berolmadim, ismim yo‘q; chunki ota-onam meni tashlab ketishgan ekan. Biroq otamning ismini aytib berishim mumkin edi, aytib berdim; yana qaytaraman: otamning ismi de Vilfor,

buni isbotlab berishim mumkin.

Aybdor bu gaplarni zo'r ishonch va e'tiqod bilan aytdi, buni eshitgan zal suv quygandek jimjit bo'lib qoldi. Hammaning ko'zi qirollik prokurorida edi. Vilfor un chiqar-mas, murda kabi qotib qolgan edi.

– Janoblar, – davom etdi Andrea, – so'zlarimni sharh-lab, dalillar bilan isbotlab berishim kerak.

– Tergov vaqtida, otam Benedetto, degan edingiz-ku, – xitob qildi rais g'azab-la, – etimman, tug'ilgan erim Kor-sika degan edingiz-ku!

– Tergovda nimani aytish zarur deb hisoblagan bo'lsam, o'shani aytdim; sarguzashtimdagi sir-asrorimni vaqti kelganda, hamma eshitadigan qilib namoyishkoro-na oshkora qilishga xalaqit bermasinlar, deb o'ylab shunday qilgandim.

Shunday qilib, men bir ming sakkiz yuz o'n ettinchi yilning yigirma ettinchi sentyabridan yigirma sakkizinchi sentyabriga o'tar kechasi Oteylda tug'ildim; men qirollik prokurori janob de Vilforning o'g'liman. Tafsilotini eshitishni istaysizmi? Quloq soling.

Men Fonten ko'chasidagi yigirma sakkizinchi uyning ikkinchi qavatida, devorlariga qizil parda tortilgan xonada dunyoga keldim. Otam meni ko'tarib olib, onamga bola o'ldi, deb E va N harflari tikilgan sochiqqa o'radi-da, yashikka solib, boqqa chiqarib tiriklayin ko'mdi.

Vilfor dovdirab, o'zini tamoman yo'qota boshladi, aybdor esa o'zini nihoyatda dadil tutib so'zlardi. Buni ko'rib zaldagilar larzaga kela boshladi.

– Axir bu tafsilotlarni qanday qilib bilib oldingiz? – so'radi rais.

– Hozir aytaman, rais janoblari, hozir. Otam meni ko'mgan boqqa o'sha kechasi bir korsikalik kirib kelgan ekan, u odam otamga zimdan tish qayrab, qasos olish payida yurgan ekan. U chakalakzorga yashirinib olib, otam meni erga ko'mayotganda pusib kelib, pichoq uribdi. So'ngra yashikda qimmatbaho narsa bo'lsa kerak, deb o'ylab, yashikni qazib olibdi va meni tirik topib

etimxonaga olib borib beribdi, u erda menga ellik etti raqamini qo'yib, qabul qilishibdi. Oradan uch oy o'tgach, haligi korsikalikning singlisi Rolyanodan Parijga, etimxonaga kelibdi-da, bu mening o'g'lim deb, meni olib ketibdi. O'zim Oteylda tug'ilgan bo'lsam-da, Korsikada unib-o'sganimning boisi mana shunda.

3alda og'ir jimlik hukm surardi, minglab odamlarning harsillab nafas olishi eshitilmaganda, zal bo'm-bo'sh deb o'ylash mumkin edi.

– So'ngra? – dedi rais.

– Men bu mehribon oilada o'z farzandlaridek baxtiyor yashayversam bo'lardi, biroq nojo'ya qiliqlarga berilib ketdim, meni o'g'il qilib olgan onam bechora meni to'g'ri yo'lga solib, tarbiyalashga rosa urindi, ammo natija chiqmadi; men yomon yo'lga kirib ketib, pirovardida jinoyatchi bo'lib chiqdim. Kunlardan bir kuni meni shunday yomon yo'lga solib yuborgani uchun Xudodan nolib, unga la'nat o'qib turganimda boqib olgan otam menga shunday dedi:

«Xudoga shak keltirma, badbaxt! Yaratganning o'zi qar-g'ab yaratmagan seni! Sening jinoyatchi bo'lib ketishingga o'zing emas, otang sababchi, hamma ayb unda, seni u dunyoyu bu dunyo musibatga, qashshoqlikka mahkum etgan ham otang».

O'shandan beri Xudoga emas, otamga la'nat o'qib keldim. Rais janoblari, shuning uchun ham sizni chandon g'azabga keltirgan va zalda o'tirganlarni g'ulg'ulaga solgan so'zlarni bugun shu erda aytishga jur'at etdim; agar buni ham yangi jinoyat deb hisoblasangiz, jazo beravering menga, bordi-yu, mening so'zlarimga, ya'ni dunyoga kelib, ko'z ochgan kunimdan boshlab hayotim og'ir musibatlar bilan o'tgani haqidagi gaplarimga inongan bo'lsangiz, shafqat qiling menga!

– Onangiz kim? – so'radi rais.

– Onam meni o'lgan hisoblab, farzandining bahridan o'tib qo'ya qolgan. Uni men hozirgi ahvolimda hecham ayblay olmayman. Onamning ismini bilishni istamadim,



men uni tanimayman.

Shu payt, hozirgina hushiga kelgan notanish ayol o'tirgan burchakdan qattiq chinqiriq ovozi keldi, kuchli tutqanoq tutib qoldi, uni sud zalidan olib chiqib ketishdi. Ayolni ko'targanlarida yuzini bekitib turgan qalin chodراسi ochilib ketib, atrofdagilar uning baronessa Danglar ekanligini tanishdi.

Madori qurib, quloqlari shang'illab, fikr-xayollari chuvalashib, boshi garang bo'lib qolgan Vilfor ham o'rni-dan turib uni ko'rgan edi.

– Dalil keltiring, dalil! – dedi rais. – Aybdor, unutmangki, aytayotgan mudhish so'zlar sira inkor qilib bo'lmaydigan dalillar bilan isbotlanmog'i kerak.

– Isbotlaymi? – dedi kulib Benedetto.

– Albatta.

– De Vilfor janoblariga bir nazar tashlab qo'ying: shuning o'zi dalil emasmi? Bundan bo'lak yana qanaqa dalil kerak?

Butun zal qirollik prokurori tomon o'girildi: Vilfor o'qday qadalgan minglab ko'zlar zarbasidan oyoqlari bukilib, gandiraklab ketdi, uning sochlari to'zgan, betlari timdalangan edi.

Olomon o'rtasida shov-shuv ko'tarildi.

– Ota, mendan dalil talab qilishyapti, – dedi Benedetto, – isbotlasam maylimi?

– Yo'q, – dedi bo'g'iq ovozda Vilfor, – ortiqcha dalil-isbotga hojat qolgani yo'q.

– Nega hojat qolgani yo'q, deyapsiz? – dedi xitob qilib rais. – Bu bilan nima demoqchisiz?

– Demoqchimanki, – dedi qirollik prokurori, – giribonimdan olgan ajal changalidan qutulishga behuda urinib nima qilaman; ha, men Tangri qahriga duchor bo'ldim! Isbotlab o'tirishning hech hojati yo'q! Mana shu yigit aytgan gaplarning hammasi to'g'ri.

3alga tabiiy ofatdan oldin yuz beradigan va kishining ruhini ezib, qalbini tilka-tilka qilib yuboradigan mudhish sukunat cho'kdi.

– Janob de Vilfor, sizga nima bo'ldi, – dedi xitob qilib rais, – gallyusinasiya girdobiga tushib qoldingiz-ku! O'zingizni yo'qotib qo'ydingiz-ku! To'g'ri, to'satdan ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan dahshatli ayblarning sizga to'nkalishidan lol bo'lib qolgandirsiz, ammo... es-hushingizni yig'ib oling!

Qirollik prokurori boshini chayqadi, u dag'-dag' qaltirar, tillari takillardi, yuzi bo'zday oqarib ketgandi.

– Rais janoblari, mening aql-hushim joyida, – dedi u, – faqat vujudim aziyat chekyapti, bu zot menga to'nkagan hamma ayblarni gardanimga olaman; men uyga qaytib, o'rnimga tayinlanadigan qirollik prokurori janoblarining farmoyishini kutaman.

Vilfor bu so'zlarni zo'rg'a ovoz chiqarib izhor etdi-da, gandraklab eshik tomon yo'naldi, navbatchi polisiya boshlig'i uning istiqboliga chiqib, beixtiyor eshikni ochib qo'ydi.

Bu dahshatli, mudhish voqeadan hayajonga tushgan butun zaldagilar nafasini ichiga yutdi; Parijning yuqori tabaqa jamoatchiligi ikki haftadan buyon kutib turgan sehrli, voqealarning bu kabi fojia bilan tugashi hammani dahshatga solgan edi.

– Hayotda dramalar bo'lmaydi, deyishadi-ya, tag'in, – dedi Boshan.

– Ochig'ini aytsam, – dedi Shato-Reno, – men uning o'mida bo'lganimda, general Morserga o'xshab jonimdan voz kechib qo'ya qolardim. Bunday sharmandali falokatga duchor bo'lgandan keyin yashashning qanday qizig'i qoldi: manglayingdan qarsillatib otda, osonlik bilan qutul-qo'y.

– Ya'ni, jahannamga yo'l tutgan yaxshiroq, degin, – dedi Boshan.

– Men esa, uning qiziga uylanmoqchi bo'lib yuruvdim-a! – dedi Debre. – Sho'rlik qiz o'lib qutulib, yaxshi qilgan ekan.

– Sud majlisi yopiq, deb e'lon qilinadi, – dedi rais – ish keyingi sessiyaga qoldiriladi, tergov yangidan o'tkazila-

di, bu tergov boshqa kishiga topshiriladi.

Hamon ko'ngli xotirjam Andrea xaloyiqning ko'z oldida baland pog'onaga ko'tarildi-da, uni beixtiyor hurmatlab o'rab olgan jandarmalar kuzatuvida zaldan chiqib ketdi.

– Xo'sh, azizim, o'zlari nima deydilar bu hangomalariga? – dedi Debre polisiya xodimining qo'liga oltin so'lkavoy qistirib.

– Engil tomonini ko'zlab ish tutishadi-da, – dedi polisiya xodimi.

#### **XIV. GUNOHNI YUVISH**

Vilfor boshini quyi solib tashqariga chiqyapti, hamma chetga chiqib, unga yo'l beryapti. Shunday og'ir musibatga, baxtsizlikka giriftor bo'lgan kishiga dastlab hamma achinadi, hamdard bo'ladi, eng dahshatli damlarda ham shunday bo'lgan. G'azabga mingan olomon ko'ziga yomon ko'ringanni toshbo'ron qilib o'ldirish mumkin, biroq o'lim hukmi e'lon qilinganda, u har qanday zo'r jinoyatchi bo'lmasin, unga haqorat toshi otganlar kamdan-kam bo'ladi.

Vilfor o'ziga o'zi hukm chiqarib, saf tortib turgan tomoshabinlar, qorovullar, sud korchalonlari o'rtasidan o'tib ketdi.

Dunyoda shunday fojialar yuz beradiki, ularni odamlar faqat his etadilar, ammo aqlga sig'ira olmaydilar, ana shunda og'zidan eng samimiy, eng ehtirosli hayqiriq otilib chiqqan zotni ulug' shoir, desa bo'ladi. Bu hayqiriqni olomon butun bir qissa o'rnida qabul qiladi, bunga u haqli; bu hayqiriqda haqiqat jaranglab tursa, olomon uni juda mukammal, deb hisoblashga ham haqli.

Ammo shu topda sud zalidan titrab-qaqshab, jigar-bag'ri ezilib chiqib ketayotgan Vilforning ahvoli ruhiyatini tasvirlashga har qanday o'tkir qalam o'jizlik qilsa kerak.

Vilfor arang eshikkacha etib oldi, sudya libosini elkasidan uloqtirdi; odat yuzasidan emas, bu libos xuddi

Nessaning uqubatli kiyimi kabi, elkasidan ezib, azob berayotgani vajidan echib tashladi.

U gandiraklab-gandiraklab, Dofin hovlisigacha etib bordi, axtarib izvoshini topdi, dong qotib uxlab yotgan izvoshchini uyg'otdi, eshikni o'zi ochib, qo'li bilan Sent-Onore tomonga ishora qildi. O'zini o'rindiqqa otdi.

Otlar yo'rtib ketdi.

Umr bo'yi tiklagan hayot koshonasi og'ir dahshat solib uning o'z ustiga ag'darildi, u hali buning oqibati nima bilan tugashini, qanchalik raxna solishini bilmasdi, faqat his qilardi. O'ziga juda yaxshi tanish moddasini turli maqomga solib ko'radigan oddiy kallakesarlar singari qonunning loaqal biror harfini xayoliga ham keltirmasdi u.

Uning qalbiga Parvardigorning o'zi qo'l soldi.

– E, Parvardigor! – derdi uning lablari beixtiyor. – E, Parvardigor!

U bu falokatni Xudoning o'zidan, deb bilardi.

Izvosh uchib borardi. O'rindiqda chalqancha tushib yotgan Vilforga nimadir xalaqit berardi, qo'lini uzatib paypasladi, de Vilfor xonim elpig'ichini unutib qoldirgan ekan; o'rindiq orqasi bilan yostiq orasida yotgan elpig'ich uning xotiralarini jonlantirdi va xotiralar tungi chaqmoq singari bir zum aqlini ravshanlashtirdi.

Vilforning ko'z oldida rafiqasi gavdalandi...

Ko'ksiga cho'g'dek nayza sanchilgandek ingrab yubordi. Hozirgacha u faqat o'zi chekkan kulfatlar haqida o'ylab kelgan edi, mana yana bir baxti qaro odam ko'z o'ngida paydo bo'ldi.

Bu baxti qaro uning rafiqasi edi! Yaqindagina Vilfor uning boshi ustida adolat shamshirini o'ynatib turgan edi, o'limga hukm etgandi; sho'rlik ayol esa sharmandayu sharmisor bo'lib dahshat ichida halokatga yuz tutgan, jonidan voz kechishga hozirlanayotgan edi.

Vilfor hukm chiqarib ketganidan buyon oradan bir soat o'tdi; xonim shu og'ir daqiqalarda, ehtimol, barcha jinoyatlarini xayolidan birma-bir o'tkazgandir, Xudodan

madad tilagandir, xat yozib, berahm sudyasidan rahm-shafqat qilishni so'rab, dunyodan ko'z yumayotgandir.

Bag'ri qonga to'lib-toshgan Vilfor faryod urib borardi.

– Bu sho'rlik ayol jinoyatchilikni o'ziga mendan yuqtirdi! – dedi xitob qilib Vilfor. – Men esa jinoyatning o'ziman, butun vujudim bilan jinoyatman! Odamlarga terlama, vabo, o'lat qanday yuqsa, jinoyatim rafiqaqamga xuddi shunday yuqdi!.. Uni yana o'zim jazoga mahkum etibman-a?.. Tavba qil, o'zingni-o'zing o'ldir, deyishga jur'at etibman-a?.. Yo'q! Yo'q! U yashamog'i kerak, yashaydi!.. Men bilan birga boradi, birga!.. Ikkimiz Fransiyadan qochamiz, o'la-o'lguncha bizni ko'tarib turgan erda sayr etib yura-veramiz... Men unga jallod kundasini ham ro'baro' qilgandim-a!.. Xudo haqqi! Bunday so'zlarni aytishga qanday jur'at qildim-a? Qanday? O'sha jallod kundasi meni ham kutib turibdi-ku!.. Qochamiz!.. Ha, men xotinimdan hammasi uchun etti bukilib uzr so'rayman; men ham jinoyatchiman deyman, har kuni aytaman buni, har kuni!.. Yo'lbars bilan ilon ittifoq bo'lib oladi-qo'yadi! Eriga munosib rafiqaqam!.. U yashamog'i kerak, uning ayblari mening yovuz qilmishlarim oldida yupqa, siyrak tuman, xolos, ozgina shabada bilan tarqaydi, ketadi!

Vilfor izvoshning oldindagi darchasini shartta ochib;

– Hayda! Tezroq hayda! – deb chunon qichqirdiki, izvoshchi cho'chib tushdi.

Otlar ham shamolday ela ketdi.

– Ha, ha, – ta'kidladi yana Vilfor, – bu ayol yashamog'i kerak, u tavba-tazarru qiladi-da, qutuladi, o'g'limni, baxtsiz qo'zichog'imni tarbiyalaydi: ana shu bolakayim anavi boshi po'latdan, joni savil chol bilan birga oila halokatini boshidan kechirdi. Xonim o'g'lini o'lgudek sevadi, uni deb jinoyat yo'lga kirdi; o'z farzandini sevadigan xotindan hech vaqt yuz o'g'irmaslik kerak; u tavba qilib, to'g'ri yo'lga tushib oladi; uning jinoyati esa «yopiqlik qozon –

---

<sup>22</sup> Chicherone – kuzatuvchi.

yopiqlik» qabilida sir bo'lib qolaveradi. Xonadonimda yuz bergan va og'izdan og'izga o'tib yurgan barcha yovuzliklar – jinoyatlar bora-bora hammaning esidan chiqib ketadi; ularni esga soladigan bitta-yarimta kimsa paydo bo'lib qolsa, hamma aybni o'z gardanimga olib turaveraman. Nima bo'lsa bo'lar – endi baribir! Xotinim hamma oltinlarimizni va eng muhimi – o'g'limni bag'riga oladi-da, juftakni uradi; u yashaydi, baxtiyor yashaydi, muhabbatini butunlay bag'ishlagan o'g'li bilan yashaydi! Men esa savob ish qilgan bo'laman, bundan jonim ham orom oladi.

Qirolik prokurori mushohadalarini nihoyasiga etkazdi-da, engil nafas oldi.

Izvosh Vilforning hovlisiga kirib, to'xtadi. U irg'ib zinaga tushdi; xizmatchilar xo'jayin nega tez qaytdi, deb hayron bo'lib qolganini ko'rdi; ularning basharasida shundan boshqa hech qanday o'zgarish sezmedi, xizmatchilar bir og'iz ham gap qotmay, odatdagidek, yo'l berib turaverishdi.

Vilfor Nuarte bo'lmasi yonidan o'tayotib, qiya ochiq eshikdan ichkariga ko'z tashladi, ikki kishining ko'lankasi ko'rindi; ammo u kim ekan deb o'ylab o'tirmadi, uni vahima quvib borardi.

«Hamma narsa joy-joyida», – dedi u xotini va bo'm-bo'sh qolgan Valentina xonasiga chiqadigan zinadan borib.

U ayvondagi eshikni qulflab qo'ydi.

«Bu yoqqa hech kim kirmagani ma'qul, men xonim bilan yolg'iz gaplashmog'im, aybimga iqror bo'lmog'im lozim, unga hamma voqeani aytib bermog'im lozim...»

U xonim bo'lmasi eshigi oldiga keldi-da, billur tutqichni tortdi, eshik ochila boshladi.

– Qulflamabdi! – dedi u pichirlab, – bu yaxshilik belgisi!

U mo'jaz mehmonxonaga kirdi, kechqurunlari Eduar-

---

<sup>23</sup> Tushunmadim! (*ital.*)

ga to'shakni shu erga solib berishardi. Bola pansionda o'qirdi, ammo har kuni kechqurun uyga qaytardi; onasi bir daqiqa ham undan ajralishni istamasdi.

Vilfor mehmonxonani bir qur ko'zdan kechirib chiqdi.

– Hech kim yo'q, – dedi u, – u yotog'ida ekan-da. Xotini-ning yotoqxonasi eshigiga yugurdi. Biroq eshik qulf edi. U dag'-dag' titrab, turgan joyida qimirlamay qoldi.

– Eloiza! – qichqirdi u.

Ichkarida kimdir stolni qimirlatganday bo'ldi.

– Eloiza! – yana qichqirdi.

– Kim? – dedi ovoz chiqarib xotini.

Bu ovoz odatdagidan pastroq tuyuldi unga.

– Oching! Oching! – qichqirdi Vilfor, – menman!

Bu so'zlar buyruq va tashvishli ohangda aytilgan bo'lishiga qaramay, eshikni hech kim ochmadi.

Vilfor eshikni zarb bilan tepib ochib yubordi.

Ostona oldida rangi dokaday oqarib ketgan de Vilfor xonim haykalga o'xshab turardi.

– Eloiza! – dedi yana qichqirib Vilfor. – Nima bo'ldi sizga? Gapiring! Nima bo'ldi?

De Vilfor xonim oppoq majolsiz qo'llarini uzatdi.

– Janob, hammasi bajo keltirildi, – dedi xirildoq ovoz bilan. – Yana nima istaysiz?

Shunday dedi-da, Eloiza gilam ustiga «gup» etib yiqildi.

Vilfor yugurib borib xotini-ning qo'lidan mahkam tutdi. Xonim oltin billur shishani kaftida siqib olgan edi.

De Vilfor xonim dunyodan o'tgan edi.

Qo'rqqanidan joni halqumiga kelgan Vilfor ko'zini murdadan uzmay, orqasi bilan eshik tomonga tisarildi va:

– Eduar! Qani mening o'g'lim? Eduar! Eduar! – deganicha tashqariga yugurdi.

Bu dahshatli qichqiriqni eshitgan xizmatkorlar atrof- dan yugurib kelishdi.

---

<sup>24</sup> Azizim. (*ital.*)

– O‘g‘lim! O‘g‘lim! Qani mening qo‘zichog‘im! – so‘radi Vilfor. – U ko‘rmasin buni, olib keting uni bu erdan...

– Janob, Eduar pastda yo‘q, – dedi kamerdiner.

– Bog‘dadir, yuguring!

– Bog‘da ham yo‘q; bundan yarim soat muqaddam de Vilfor xonim uni chaqirib olgandi; janob, o‘sha yoqqa kirib ketganidan beri qaytib chiqqani yo‘q.

Vilforni qora ter bosdi, oyoqlari titrab chalishib ketdi, boshi aylanib, ko‘zlari tindi, hushidan keta boshladi.

– Chaqirib olgandi! – dedi zo‘rg‘a tovush chiqarib Vilfor, – huzuriga chaqirib olgandi...

U bir qo‘li bilan peshana terini artib, bir qo‘li bilan devorni ushlab orqasiga qaytdi, arang qimirlab, behol qadam tashlardi.

Vilfor yana o‘sha xonaga kirishi, yana murdani ko‘rmog‘i kerak; qabrga aylanib qolgan ana shu xonaning aks sadosi bilan Eduarni chaqirib uyg‘otmog‘i kerak; bu erda un chiqarish og‘ir sukunatdagi qabrlarni haqorat qilish demakdir.

Vilfor o‘zini tildan qolayotgandek sezdi.

– Eduar! Eduar! – dedi zo‘rg‘a g‘o‘ldirab.

Hech kim javob bermadi; ona huzuriga kirib, qaytib chiqmagan bola qani?

Vilfor oldinga yana bir qadam tashladi.

O‘g‘li mana shu xonada bo‘lishi kerak; de Vilfor xonimning jasadida esa yotoqxonada ostonasining qorovulidek, shunday eshik oldida yotibdi. Xonimning qimir etmay baqrayib turgan ko‘zlarida allaqanday sirli tabassum qotib qolgandi.

Sal ko‘tarilib turgan parda orqasida royalning oyoqlari va ko‘k atlas qoplangan divanning burchagi ko‘rinib turibdi.

Vilfor yana bir necha qadam tashlab borib divanda yotgan o‘g‘liga ko‘zi tushdi.

Bola uxlab qolgan shekilli, deb o‘yladi sho‘rlik ota va o‘zida yo‘q quvonib ketdi. U bemisl azoblar tortayotgan zim-ziyo jahannam ichra tangaday nur jilvalangandek



bo'ldi.

U hozir murda ustidan irg'ib o'tib xonaga kiradi, bolani dast ko'tarib olib, olis-olis manzillarga qochib ketadi; ha, u o'g'li bilan olis el-yurtlarga qochib ketadi.

Hozirgi Vilfor ilgari Vilfora, ya'ni riyokorlikni, o'ta munofiqlikni juda ustalik bilan, taqvodor zotga xos nazokat bilan bajo keltirib yurgan Vilfora aslo o'xshamasdi; hozirgi Vilfor dahshatli jag'larini oxirgi marta yumib, tishlarini g'ijirlatayotgan yarador yo'lbarsning xuddi o'zi. Endilikda u bid'at-taassuflardan qo'rqmaydigan bo'lib qolgan, endi u faqat arvohlardan qo'rqadi. Mana, qarang, u taassuflarni shartta yig'ishtirib qo'yib, orqasiga bir qadam tisarildi-da, murda ustidan hatlab o'tib ketdi.

O'g'lini dast ko'tarib bag'riga bosdi, rosa silkitdi, ismini aytib qichqirdi; boladan sas-sado chiqmadi. Vilfor o'g'lining yuziga lablarini tekkizdi; bolaning oppoq yuzi muzday edi; qotib qolgan badanini ushlab ko'rdi. Ko'ksiga qo'lini bosdi, yurak urishdan to'xtagan edi.

Bola o'lgandi.

To'rt buklangan qog'oz gilam ustiga tushdi.

Vilfor, bamisoli chaqmoq urgan daraxtday erga gurs etib o'zini tashladi va cho'kkalab qoldi, bola uning majolsiz qo'lidan tushib, onasi tomon yumalab ketdi.

Vilfor qog'ozni oldi-da, xotining xatini tanidi va tez-tez o'qiy boshladi:

*«Mening mushtipar ona ekanligim sizga ayon edi: jinoyatni ham ana shu sevimli bolam uchun qildim.*

*Mehribon ona o'g'lidan hech qachon ayrilmaydi!»*

Vilfor o'z ko'zlariga ishonmas, aqli bovar qilmasdi. U Eduar jasaki oldiga emaklab bordi-da, xuddi o'lik bolasi-ga tikilib qarayotgan arslon kabi, o'g'lini yana zo'r diqqat bilan ko'zdan kechirdi. Bola dunyodan o'tgandi.

---

<sup>25</sup> Chiqing! (*ital.*)

Vilforning ko'ksidan yurakni larzaga soluvchi fig'on otilib chiqdi:

– O, Parvardigor! – dedi nola qilib. – Bu ham Parvardigorning ishi! Uning qahri bu!

Ikkala murda uni qattiq dahshatga soldi, nafasi bo'g'ildi, kechagi jasoratdan, botirlikdan endi nom-nishon qolmagandi.

Vilforning qaddi og'ir azob-uqubatlarni ko'tarolmay bukilib qoldi; u o'rnidan turib, ter bosib bir-biriga yopishib ketgan sochlarini qaltiroq qo'li bilan siladi, umr bo'yi rahm-shafqat nimaligini bilmagan bu zot qarilik engib, cho'kib qolgan otasi yoniga yo'l oldi. Axir kimgadir dardlarini aytib yorilishi kerak-ku!

U bizga tanish zinadan tushib, Nuarte xonasiga kirdi.

Vilfor kirganda, Nuarte zo'r diqqat va mamnuniyat bilan Buzonining hikoyasini tinglab o'tirardi.

Vilfor abbatni ko'rib, qo'llarini osmonga ko'tardi, shu payt o'tmish dahshatli to'lqin kabi ko'z oldida gavdalandi, Oteyldagi mehmondorchilikdan ikki kun o'tgach abbat bilan uchrashganligini, o'sha abbat Valentina vafot etgan kuni unikida paydo bo'lganligini esladi.

– Janoblari shu erda ekanlar-da! – dedi Vilfor. – Siz hamisha ajal bilan birga kelasizmi?

Buzoni qaddini rostladi; Vilforning darg'azab chehrasidan sudda mojaro yuz berganini fahmladi, undan so'nggi voqealardan u bexabar edi.

– Men qizingizga janoza o'qigani kelgan edim, – dedi Buzoni.

– Bugun nega keldingiz?

– Bugun esa, qarzingizni to'la uzganingizni aytgani keldim. Xudodan men kabi shu bilan kifoyalanishni so'rab duo qilaman sizning haqingizga.

– Yo, alhazar! – xitob qildi Vilfor orqaga bir qadam tashlab, – bu tovush... Siz abbat Buzoni emassiz-ku!

---

<sup>26</sup> Bu yoqqa (*ital.*)

– Yo‘q, Buzoni emasman.

Abbat tepasi yaltiroq parikni shartta echdi-da, boshini sarak-sarak qildi: uzun-uzun qora sochlar elkasiga yoyilib, uning jasoratli yuzini qoplab oldi.

– Graf Monte-Kristo! – qichqirib yubordi hang-mang bo‘lib qolgan Vilfor.

– U ham emas, janob qirollik prokurori, hushingizni yig‘ib, yana bir o‘ylang.

– Bu tanish ovoz-ku! Qaerda eshitganman men bu ovozni?

– Bu ovozni siz bundan yigirma uch yil muqaddam Rene de Sen-Meran bilan nikoh to‘yingiz kuni Marselda eshitgan edingiz. Ishlarga limmo-lim papkalaringsizni bir titib ko‘ring.

– Siz hali Buzoni emasmissiz? Monte-Kristo ham emasmissiz? Yo, alhazar, mening yashirin ayovsiz dushmanim siz ekansiz-da? Marselda sizga biror yomonlik qilib, boshimga balo orttirgan ekanman-da!

– Ha, topdingiz, xuddi shunday, – dedi graf qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib. – Eslang, eslang!

– Nima yomonlik qilgandim sizga? – dedi Vilfor xayoli chuvalashib. – Nima qilgandim? Ayting!

– Siz meni uzoq vaqtlar azob-uqubatlar girdobida qiy-nalib o‘lishga mahkum etdingiz, otamni o‘ldirdingiz, siz mening erkim bilan muhabbatimni va baxtimni ham tortib oldingiz!

– Kimsiz axir? Aytsangiz-chi!

– Siz If qal‘asining zindoniga ko‘mib tashlagan baxtsiz odam arvohtim. Ana shu arvohtim qabrdan chiqqanda Tangrim uni graf Monte-Kristo niqobi ostiga yashirdi-da, tag‘in siz tanib qolmang, deb olmos va oltinlar bilan ko‘mib tashladi.

– Tanidim, tanidim! – dedi qirollik prokurori.

– Siz...

---

<sup>27</sup> Olg‘a (*ital.*)

<sup>28</sup> Mana shu (*ital.*)

– Men Edmon Dantesman!

– Ha, siz Edmon Dantessiz! – qichqirib yubordi qirollik prokurori grafning qo‘lidan tutib, – ha-ha, qani yuring bu yoqqa, yuring!

U grafni zinaga tortdi, Monte-Kriso hayron bo‘lib, qirollik prokurori qayoqqa etaklayotganini bilolmay, ketidan boraverdi; u yana qandaydir baxtsizlik yuz bergan, shekilli, deb o‘yladi.

– Mana ko‘rdingizmi buni, Edmon Dantes, ko‘rdingizmi? – dedi Vilfor grafga xotini va o‘g‘lining murdalarini ko‘rsatib. – Ko‘rdingizmi! Endi xursanddirez.

Monte-Kristoning rangi o‘chib ketdi, u qasos olishda haddan oshib ketganini angladi: endi, «Tangrim men tomonda va u men bilan» deyishga jur‘at etolmasligini fahmladi.

Grafning yuragi orqasiga tortib ketdi, u yugurib bola qoshiga bordi-da, uning qosh-qovoqlarini ko‘tardi, tomlarini ushlab ko‘rdi, so‘ng uni dast ko‘tarib Valentina xonasiga olib kirib, eshikni ichidan qulflab oldi.

– O‘g‘lim! – qichqirdi Vilfor. – O‘g‘limni olib qochdi u! La‘nat senga! Balolar urgur!!

U Monte-Kristo ketidan yugurmoqchi bo‘lib olg‘a intildi, biroq Vilforning oyoqlari xuddi erga qoqib qo‘yilgandek, o‘rnidan jilmadi; ko‘zlari olayib, barmoqlarini ko‘kragiga qattiq bosdi, tirnoqlari ostidan tirqirab qon oqdi, tomirlari bo‘rtib, peshanasi tars yorilayozdi.

Vilfor bir necha daqiqa dong qotib qoldi; so‘ng birdan tovushi boricha qichqirib yubordi, dag‘al ovozdah qah-qah urib kuldi-da, zinadan chopib pastga tushib ketdi.

Oradan bir soat o‘tgach, Valentina xonasining eshigi ochilib, ostonada graf Monte-Kristo paydo bo‘ldi. Uning rangi bamisoli devor bo‘lib ketgan, ko‘zlari xira tortib, bo‘g‘ilib-bo‘g‘ilib arang nafas olardi; hamisha xotirjam yuzi qayg‘u-alamdan burishib ketgandi.

Graf qo‘lida bolani ko‘targancha bir joyda qimirlamay turardi; bu bolani endi hech qanday kuch tiriltirolmaydi.

Monte-Kristo bir oyog‘i bilan cho‘kkalab, bolani onasi

yoniga avaylab yotqizdi-da, boshini onaning ko'ksiga qo'ydi.

So'ng o'rnidan turib tashqariga yo'naldi, zinada xizmatchilardan biriga ro'baro' kelib, so'radi:

– Janob Vilfor qayerda?

Xizmatchi indamay qo'li bilan bog'ni ko'rsatdi.

Monte-Kristo zinadan tushib, xizmatchi ko'rsatgan to-monga yurdi. Vilfor xizmatchilar davrasi o'rtasida zo'r berib er qaziyotgandi.

– Yo'q, bu erda emas, – derdi u, – yo'q, bu erda emas. So'ng yana qazishni davom ettiraverdi.

Monte-Kristo uning qoshiga bordi-da, ohista ovoz chiqarib dedi:

– Janob, o'g'ildan ajralgan bo'lsangiz ham sizning...

Vilfor uning gapiga e'tibor bermay:

– Men uni topaman, – derdi, – bu erda yo'q demang, men uni topaman, topmay qo'ymayman, ha.

Monte-Kristo seskanib, orqaga tisarildi.

– Yo, alhazar! Aqldan ozibdi! – dedi graf.

Xudoning g'azabiga uchragan la'nati uyning devorlari xuddi uni bosib qolayotganday, graf qochib ko'chaga chiqdi. «Shunday qilishga haqqim bormidi mening?» – dedi u birinchi marta o'ziga.

– Etar! Etar, bas! – dedi u. – Bu yog'ini Xudoga soldim!..

Monte-Kristo uyiga qaytib borganda mehmonxonada Morrel bor edi. U qabriga qaytish uchun Tangri belgilab qo'ygan onni kutayotgan arvoqga o'xshab, xonama-xona kezib yurardi...

– Maksimilian, tayyorlanavering, – dedi iljayib Monte-Kristo, – ertaga Parij bilan xayrlashamiz.

– Bu erda qiladigan ishingiz qolmadimi? – so'radi Morrel.

– Qolmadi, – dedi Monte-Kristo, – keragidan ortiq ish

---

<sup>29</sup> Nima gap? (*ital.*)

qilib yubordim, shekilli.

## XV. QAYTISH

So'nggi kunlarda yuz bergan voqealar butun Parijni larzaga soldi. Emmanyuel bilan xotini Mele ko'chasidagi uyning mo'jaz mehmonxonasida bu hodisalardan o'ta taajjublanib, suhbatlashib o'tirishardi. Birin-ketin Morserni, Danglarni va Vilforni xonavayron etgan bu uchala tasodifiy falokat o'rtasida qandaydir bog'lanish borligini his etishardi yoshlar.

Jigarbandlarini ko'rgani kelgan Maksimilian o'z dardalami bilan bo'lib, atrofdagi voqealarga e'tibor bermay qo'ygandi; shuning uchun ham ularning suhbatlariga qiziqib quloq solmasdi.

– Rostdanam, – dedi Jyuli, – Emmanyuel, kechagina behisob davlat va benihoya baxt egasi bo'lgan bu zotlar badavlat va baxtli turmush qurayotganda falakning charxi teskari aylanib qolishi mumkinligini unutishgan bo'lsa kerak. Mana endi, xuddi Perroning ertaklaridagi singari, to'yga yoki cho'qintirishga taklif qilinmagan darg'azab farishta to'satdan paydo bo'ldi-da, ana shu faromushlik uchun qasdini oldi.

– Chinakam qabohat! – dedi Emmanyuel, Morser va Danglarni ko'z oldiga keltirib.

– Qanday baxtsizlik bu! – dedi Jyuli Valentinani o'ylab, u ayollarga xos sezgirlik bilan akasi huzurida qizning nomini tilga olmadi.

– Agar bularni Tangrining o'zi qahriga olgan bo'lsa, – dedi Emmanyuel, – demak, u sho'rliklarning o'tmishida gunohni engillashtiradigan hech narsa topolmabdi-da: demak, ular qarg'ish tekkan zotlar ekan-da.

– Sen hech o'ylamasdan gapirasana-da, Emmanyuel, – dedi Jyuli, – otam to'pponchani chakkasiga to'g'rilab turganida, kimdir, senga o'xshab: «Bu kishi o'z qilmishi bilan mana shunga loyiq edi», deganida, yaxshi qilgan

bo'larmidi?

– Ammo Parvardigori olam Avraamning o'g'lini qurbon qilishiga yo'l qo'ymaganidek, otamizning ham halok bo'lishiga yo'l qo'ymadi; bizga xaloskor farishtasini yo'lladida, otamni ajal changalidan qutqarib qoldi.

Emmanyuel so'zini tugatishi bilan tashqaridan qo'ng'iroq chalindi. Qorovul kimningdir tashrif buyurganini xabar qilardi.

Shu zahoti eshik ochilib, ostonada graf Monte-Kristo paydo bo'ldi.

Jyuli bilan Emmanyuel uni quvonib qarshi olishdi.

Maksimilian boshini ko'tarib qaradi-da, so'ng yana quyi soldi.

– Maksimilian, – dedi graf o'zini uning beparvoligini sezmaganday, – men sizga keldim.

– Menga? – dedi xuddi uyqudan uyg'ongan kishiday Morrel.

– Ha, sizga, – dedi Monte-Kristo, – birga ketamiz, deb qaror qilgan edik-ku, yanglishmasam? Men kecha sizni safarga tayyorlaning, deb ogohlantirgan edim.

– Tayyorman, – dedi Maksimilian, – bular bilan xayrlashgani kelgandim.

– Yo'l bo'lsin, graf? – so'radi Jyuli.

– Hozircha Marselga, xonim.

– Marselga? – takrorladi Jyuli.

– Ha, Marselga, akangizni ham olib ketaman.

– Jigarbandimiz oy borib, omon qaytsin, – dedi Jyuli.

Morrel rangi o'zgarganini yashirish uchun orqasiga o'girilib oldi.

– Uning tobi qochib qolganligini sezdingmi? – so'radi graf.

– Ha, biz uni juda zeriktirib qo'ydik, shekilli.

– Men ko'nglini chog' etishga harakat qilaman, – dedi graf.

– Ixtiyorim sizda, janob, – dedi Maksimilian. – Alvido, aziz jigarbandlarim, alvido, Emmanyuel, alvido, Jyuli!

– Iya, xayrlashyapsizmi? Bu qanaqasi bo'ldi? – dedi

ajablanib Jyuli. – Hozir jo'naysizlarmi? Buyumlaringni olmasdan-a? Pasporting-chi?

– Bir yo'la jo'nab qo'ya qolgan yaxshi, – dedi Monte-Kristo, – aminman, Maksimilian hamma narsasini taxt qilib qo'ygandir.

– Pasportim yonimda, buyumlarimni taxt etib qo'yganman, – dedi Morrel vazmin ohangda.

– Juda soz, – dedi iljayib Monte-Kristo, – ish harbiychasiga bo'pti-da, qoyil.

– Shunday qilib, bizni tashlab ketaverasizmi? – dedi Jyuli.

– Shu zahoti-ya? Biror kun, hech bo'lmaganda biror soat vaqtingizni berolmaysizmi bizga?

– Izvoshim darvoza ostonasida kutib turibdi: besh kunda Rimda bo'lishimiz kerak.

– Maksimilian ham Rimga boradimi? – so'radi Emmanyuel.

– Men graf qayerga desa, o'sha yoqqa boraveraman, – dedi g'amgin ohangda Maksimilian. – Yana bir oy uning izmidaman.

– Graf, nega bu gaplarni u qayg'urib aytyapti?

– Akangiz men bilan birga boryapti, – dedi muloyim ohangda graf. – Shuning uchun tashvishlanmasangiz ham bo'ladi.

– Alvido, singlim! – takrorladi Maksimilian, – alvido, Emmanyuel!

– Akam juda sovuqqon bo'lib qoldi, hayronman, nega shunday bo'ldi ekan. O'ylayverib yuragim qon bo'lib ketdi! – dedi Jyuli, biror gap o'tgan bo'lsa kerak-da, sen bizdan yashiryapsan, Maksimilian!

– Qarab turing, – dedi Monte-Kristo, – u huzuringizga xushchaqchaq bo'lib, g'oyat xursand bo'lib qaytadi.

Maksimilian Monte-Kristoga g'azabnok bo'lib xo'mrayib qarab qo'ydi.



– Ketdik! – dedi graf.

– Graf, jo'nashingizdan oldin men o'tgan safargi gaplarni aytishim kerak...

– Xonim, – dedi graf Jyulining qo'lidan tutib, – nima demoqchi ekanligingizni charaqlab turgan ko'z'laringizdan, talpinib turgan pokiza qalbingizdan, o'z yuragimning dupillab urishidan sezib turibman. Bundan ortiq nima ham derdingiz? Sirasini aytganda, men romanlardagi muruvvatli shaxslar singari sizga uchrashmay jo'nayversam durust bo'lardi. Ammo bunaqangi shaxslar darajasiga ko'tarilishga qurbim etmaydi mening, chunki men bo'shang, olifta odamlar toifasidanman. Men o'z do'stlarimni xursand ko'rsam boshim osmonga etadi, o'zimni juda engil his qilaman. Mana, endi ketyapman; xudbinlik bo'lsa-da, aytaman: do'stlarim, bizga bundan keyin diydor ko'rishish nasib etmas, meni aslo unutmangiz.

– Endi hech qachon ko'rishmaymiz! Qismatimiz abadiy hijron qa'riga mahv bo'ldi! – dedi hayajon bilan Emmanyuel, Jyulining ko'zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi, – endi abadiy siz bilan diydor ko'rishmaymiz! Demak, siz bashar emas, ezgulik baxsh etmoq uchun osmonu falakdan erga tushgan, endilikda yana o'sha falakka qaytib ketayotgan farishta ekansiz-da?

– Unday demang, – e'tiroz bildirdi Monte-Kristo, – minba'd bu gaplarni og'zingizga olmang, do'stim; Xudo bandalariga yomonlik qilmaydi, U to'xtashni istagan joyida to'xtaydi, favqulodda hodisa Unga hokimlik qilolmaydi, aksincha, U favqulodda hodisaga hokimlik qiladi. Emmanyuel, men odamman, siz meni ko'klarga ko'tarib haqorat qilyapsiz.

Osoyishta, baxtiyor xonadonni nadomat ila tashlab chiqib ketayotgan graf, otilib pinjiga kirgan Jyulini bag'riga bosdi, qo'lidan o'pdi, boshqa qo'lini Emmanyuelga uzatdi, so'ng boshini irg'ab, hamon lol qarab turgan Maksimilianga imo qildi.

– Akamni yolg'iz qo'ymang! Ilgarigi xushchaqchaqligi-

ga qaytsin yana! – dedi grafning qulogʻiga asta shivirlab Jyuli.

Monte-Kristo, Jyulining qoʻlini bundan oʻn bir yil muqaddam armatur Morrelning kabinetiga chiqadigan zinada qanday siqib qoʻygan boʻlsa, hozir ham xuddi shunday siqib qoʻydi.

– Siz Sindbod-Dengiz sayyohiga ilgarigidek ishonasizmi? – soʻradi u jilmayib.

– Ha, albatta.

– Unday boʻlsa, aslo tashvish qilmang, Xudo mehribon.

Hali aytganimizdek, darvoza oldida pochta izvoshi bularga mahtal edi, izvoshga qoʻshigʻliq toʻrt chopqir ot yollarini silkitib, er deysinib turardi. Izvosh qoshida, goʻyo uzoq manzildan toʻxtamay chopib kelgan kishidek, qora terga tushgan Ali harsillab turardi.

– Xoʻsh, nima boʻldi? – soʻradi undan graf arabchalab, – cholning oldiga kirdingmi?

Ali boshini silkitdi.

– Men aytgandek, xatni unga yozib koʻrsatdingmi?

Qul yana boshini silkitdi.

– U nima dedi, ha, toʻgʻrisi, qanday imo-ishora qildi?

Ali, xoʻjayinim yaxshiroq koʻrsin, deb yoruqqa oʻgirildi-da, chol qilgan yuz ifodalarini takrorladi. Nuartega oʻxshab koʻzlarini yumdi, yaʼni, «ha», dedi.

– Juda soz, demak, chol rozi boʻlibdi, – dedi Monte-Kristo. – Qani, hayda, ketdik.

Shu soʻz eshivilishi bilan otlar baravar sakrab, tuyoqlari tagidan oʻt chiqarib, uchib ketishdi.

Maksimilian burchakka suqilib, jim boʻlib qoldi.

Shu zaylda yarim soat vaqt oʻtdi, birdan izvosh toʻxtadi, graf Alining barmogʻiga bogʻlab qoʻyilgan ipni tortdi.

Nubalik irgʻib pastga tushdi-da, eshikni ochdi, graf izvoshdan tushdi.

Osmon toʻla yulduz. Monte-Kristo Viljyuif qiriga chiqdi. Pastda Parij millionlab chiroqlari bilan toʻlqinlari mavj urib turgan qop-qora dengizga oʻxshab yotardi. Bu

jo'shqin urib turgan shiddatli, darg'azab, sermavj to'lqinlar bir dam tinchimas, bular to'xtovsiz ajal urug'i sochib turadigan to'lqinlar edi!

Grafning ishorasi bilan izvosh sal nari borib to'xtadi, Monte-Kristo yakka o'zi qoldi.

U qo'llarini qovushtirib ko'ksiga qo'ydi-da, zamirida hamma o'y-xayollar, orzu-umidlar obdan pishib etiladigan va so'ng tarqalib butun jahonni g'ulg'ulaga soladigan ichi laqqa cho'g' ulkan qo'raga uzoq tikilib qoldi. Taqvodor xayolparastlarni ham, kulgili materialistlarni ham maftun etuvchi bu ko'rkam shaharga suqlanib, to'yib qarab oldi-da, boshini quyi solib ta'zim qildi.

– Azim shahar, – dedi u pichirlab, – tuprog'ingga qadam bosganimga hali yarim yil ham bo'lgani yo'q. Xudoning amri bilan men bu erga kelgandim: mana endi tantana bilan tashlab ketyapman seni. Butun sir-asrorimni senda Tangrimning o'ziga ishonib qoldirib ketyapman: bu muqaddas sirlarim faqat uning o'ziga ayon, ko'nglimda zarracha kek, zarracha kibr saqlamay chiqib ketayotganimni, biroq afsuslanmay ilojim yo'qligini ham Tangrimning o'zi biladi, xolos: menga in'om etilgan davlat, kuch-qudratdan o'zim uchun yoki bema'ni hoyu havas, ermak uchun foydalanmaganim ham faqat uning o'ziga ayon. Azim shahar, tashvishlarga to'la bag'ringda istagan hamma narsamni topdim. Sabr-toqatli kon qazuvchi singari, razillikni topib uloqtirish uchun bag'ringni ag'dar-to'ntar qilib tashladim; ishim bitdi, murod-maqsadimga etdim. Endilikda sen menga na quvonch, na qayg'u hadya eta olasan. Alvido, Parij, alvido!

U qorong'ilik dahosi kabi yastanib yotgan shaharga yana bir mag'rurona nazar tashladi-da, keyin qo'li bilan peshanasini silab, izvoshga o'tirdi; uning ketidan eshik yopildi, izvosh tepa orqasiga o'tib, tun qo'ynida g'oyib bo'ldi.

Rosa ikki legacha hech kim churq etmadi. Morrel xayollar girdobiga g'arq bo'lgandi, Monte-Kristo unga uzoq tikilib turdi.

– Morrel, – dedi u oxiri, – men bilan ketayotganingiz uchun pushaymon qilmayapsizmi?

– Yo‘q, graf, mutlaqo, biroq, Parijni tashlab ketish og‘irda...

– Agar, baxtingizni Parijdan topishingizga ko‘zim etganda, sizni olib ketmasdim.

– Valentinaning abadiy oromgohi Parij-ku, Parijni tashlab ketish men uchun Valentinadan ikkinchi bor judo bo‘lish demakdir.

– Maksimilian, – dedi graf, – siz bilan bizni hijron o‘tida yondirib o‘lib ketgan do‘stlar oromgohi er bag‘rida emas, bizning dilimizda, ular hamisha biz bilan birga, bu Tangri irodasi. Mening ikki aziz do‘stim bor, biri menga jon, ikkinchisi aql ato etgan. Ularning ruhi qalbimda umrbod yashaydi; shak-shubhalar og‘ushida qiynalgan chog‘larimda ham, boshimga og‘ir musibatlar tushganda ham men najot yo‘llarini ana shu ikkisidan so‘rab olaman. Mabodo men biror xayrli ish qilgan bo‘lsam, aminmanki, bu ana shu ikkala do‘stimning pand-nasihatlari tufayli. Qani, Morrel, siz ham qalbingizga bundoq quloq solib ko‘ring-chi, nahotki u menga bu kabi noxush, betakalluf qarayotganingizni ma‘qullasa?

– Azizim, – dedi Maksimilian, – qalbim dard-alamga to‘la. U menga faqat azob-uqubatdan bo‘lak hech narsa ato etolmaydi.

– Ruhan zaif kimsalar hamma narsani motam pardasi orqali ko‘radi, qalb o‘ziga o‘zi ufq yaratadi; sizning qalbingizni qop-qora qurum bosgan, butun dunyoni ko‘zingizga qop-qorong‘i qilib ko‘rsatadi.

– Balki, siz haqdirsiz, – dedi Maksimilian va yana o‘yga cho‘mdi.

Grafning nazarida sayohat shitob bilan o‘tayotgandi, yo‘ldagi shaharlar ko‘lanka kabi bir bora ko‘rinib, darhol ko‘zdan g‘oyib bo‘lardi; erta kuz shabadasi allalayotgan daraxtlar ular istiqboliga uchib chiqayotgandek tuyulardi. Ular ertasiga tong paytida Shalonga etib kelishdi, sayyohlarimizni grafning kemasi kutib turardi, izvoshni tezda

kemaga yuklashdi, sayohatchilar ham kemaga chiqishdi.

Kema o'ta tez yurar qilib yasalgan edi; u hindlarning ingichka uzun qayig'iga o'xshardi. Ikki g'ildiragi bamisoli qanot, suzganda xuddi uchib ketayotgan qushga o'xshab ketardi; kemaning bu jadal harakati hatto Morrelni ham hayratda qoldirdi.

Parijdan yiroqlashgan sari grafning chehrasi yorisha bordi; shu topda u Vataniga qaytayotgan quvg'inga o'xshardi.

Ko'p o'tmay ular qarshisida Tira va Karfagenning inisi, ularning O'rta dengizdagi vorisi, oppoq, iliq Marsel namoyon bo'ldi. Yoshi ulg'ayib borayotgan bo'lsa-da, navqiron Marsel! Yumaloq minorasi ham, avliyo Nikolay qal'asi ham, ikkalasi bolalik chog'larida yugurib-elib o'ynagan ratusha va tosh qirg'oqli bandargohi ham sayyohlarimiz uchun xotiralarga to'la joylardir.

Ikkisining xohishiga muvofiq Kanneber ko'chasiga chiqishdi.

Allaqanday kema Jazoirga yo'l oldi, kemani to'ldirib yuborgan yuklar, yo'lovchilar, qavm-qarindosh va og'aynilarning qiy-chuv ko'tarib xayrlashuvi, yig'i-sig'ilari Maksimilianning o'y-xayolini darhol qamrab olgandi.

– Qarang, – dedi u Monte-Kristoga uning qo'ltig'idan olib, – «Faraon» portga kirganida otam mana shu erda turgan edi, siz ham o'limdan, ham sharmandalikdan qutqarib qolgan o'sha zot mening quchog'imga otildi; uning yuzlarini yuvgan ko'z yoshlar hamon ko'z oldimdan ketmaydi. O'shanda bizga qarab hamma yig'lab yuborgan edi.

Monte-Kristo jilmaydi.

– Men hu anavi joyda turgandim, – dedi graf ko'chalaridan birining muyulishini ko'rsatib.

U gapini tamom qilishi bilan qo'lini uzatgan tomondan xotin kishining dod-faryodi eshitildi; ayol safarga chiqayotgan kemadagi yo'lovchilardan biriga qo'lini siltab, xayrlashayotgan edi; u yuzini chodra bilan bekitib olgan, Monte-Kristo ayolni hayajon ichida kuzatib turdi; Morrel

kema ustiga juda qattiq tikilib qolmaganida buni sezgan bo'lar edi.

– Uni qarang! – dedi xitob bilan Morrel, – harbiy kiyimdagi yigit Alber de Morser-ku!

– To'g'ri, – dedi Monte-Kristo, – men ham tanidim uni.

– Iya? Sizning ko'zingiz boshqa yoqda edi-ku, qanday ko'rdingiz?

Graf iljayib qo'ya qoldi, u odatda javob berishni istamasa shunday qilardi.

U yana haligi ayol turgan tomonga qaradi, ayol muyulishga burilib, ko'zdan g'oyib bo'lgandi.

Graf birdan orqasiga o'girildi-da:

– Aziz do'stim, – dedi Maksimilianga, – bu erda biror ishingiz yo'qmi?

– Otamning qabrini bir ziyorat qilib kelmoqchiman, – dedi mungli ovozda Morrel.

– Bo'пти, meni o'sha erda kutib turing, orqangizdan etib boraman.

– Yo'l bo'lsin?

– Bir muqaddas qadamjoda bo'lishim zarur. Morrel grafning qo'lini asta siqdi-da, xomush holda boshini siltadi, so'ng shaharning sharq tomoniga qarab yo'l oldi.

Monte-Kristo uning ko'zdan uzoqlashuvini kutib turdi-da, keyin Melyan xiyobonidagi oddiygina bir uyga qarab yurdi. Bu uy bilan o'quvchimizni kitobning boshida ta-nishtirgan edik.

Marselliklarning sayilgohi bo'lgan mashhur xiyobon daraxtlari bu uyga hamon soya tashlab turardi. Yovvoyi tok uni batamom o'rab olgan, hatto janub oftobida sarg'ayib ketgan devorlari ham ko'rinmay qolgandi. Uyga kiraverishdagi ikki pochali tosh zina eyilib, siyqalashib ketibdi; uchta taxtadan yasalgan va sira bo'yoq ko'rmagan eshik jazirama oftobdan qaqrab, oralari ochilib ketibdi. Eskirib qolganiga qaramay, hamon serfayz bu uyda bir vaqtlar keksa Dantes istiqomat qilgandi. Chol boloxonada turardi, graf ana shu uyni butunlayin Mercedesning ixtiyoriga topshirdi.

Boya Monte-Kristo bandargohda ko'rgan uzun chodrali ayol mana shu uyga kirib ketgan edi. Muyulishda grafning qorasi ko'rinishi bilan ayol o'zini ichkariga urib, eshikni berkitib, ko'zdan g'oyib bo'lgandi.

Siyqasi chiqqan bu zina grafga juda yaxshi tanish, eski eshikni qanday qilib ochishni va lo'kidonni mix bilan qanaqa qilib ko'tarishni Monte-Kristo hammadan yaxshi bilardi.

U kelganini hech kimga bildirmay, eshikni taqillatmasdan xo'jayin singari uyga kirib boraverdi.

Uyning orqasidagi bog'chaga quyosh nurini ayamay to'kib turardi. Mercedes go'yo graf bundan yigirma to'rt yil muqaddam yashirib ketgan pulni aytilgan joyning naq o'zidan topib olgandi. Eshik ostonasidan bog'chani old tomonidagi daraxtlar ko'rinib turardi.

Monte-Kristo ichkariga qadam qo'yishi bilan ichkari-dan yig'i singari ovoz eshitildi. Graf ovoz chiqqan tomonga qaradi, serbarg, uzun-uzun qirmizi gullari qiyg'os ochilib yotgan yosuman ostida Mercedes ho'ng-ho'ng yig'lab o'tirardi.

Monte-Kristo olg'a bir necha qadam tashladi, oyog'i ostidagi qum g'ijirladi.

Mercedes boshini ko'tardi-da, qichqirib yubordi.

– Xonim, – dedi graf, – men sizni baxtiyor qilishga qodir emasman, ammo sizni yupatish, dardingizga hamdard bo'lishni istardim, bir do'st sifatida mening bu iltimosimni inobatga olurmikinsiz?

– To'g'ri, men baxtsizman, – dedi Mercedes, – mana, endi yolg'izman... Birgina o'g'lim qolgan edi, u ham meni tashlab ketdi.

– U xayrli ish qildi, – dedi graf, – u vijdoni pok yigit. Har bir kishi o'z Vatanga xizmat qilmog'i shart ekanligini angladi. Birov Vatanga iste'dodini hadya atadi, birov mehnatini, boshqa birov esa tinimsiz tunlarini bag'ishlaydi, yana birov tan-jonini hadya qiladi; o'g'lingiz sizning yoningizda qolib ketsa, umrini behuda o'tkazgan, sizning dard-alamingizga chidolmay asab kasaliga mub-

talo bo'lgan bo'lur edi; sizdan yiroqda tursa, hayotning pastu balandini ko'rib, toblanadi. Xonim, qo'ying uni o'z holiga, o'zining va sizning kelajagingizga zamin hozirlasin, amin bo'lingki, ikkingizning istiqbolingiz ishonchli qo'llarda.

– O'g'limga siz karomat qilayotgan va men ham butun joni dilim bilan unga Xudodan tilayotgan baxt endi menga nasib bo'lmaydi, – dedi sho'rlik ayol g'amgin boshini chayqab. – Hayotim barbod bo'ldi, endi menga bu dunyo qop-qorong'i zindon, men ajal yoqasida turibman. Meni bir vaqtlar baxtiyor yashagan joyimga qaytarib, siz cheksiz yaxshilik qildingiz, baxtingni topgan joyingda o'lganing ma'qul.

– Xonim, sizning bu qayg'u-alamga to'la so'zlaringiz, – dedi Monte-Kristo, – yuragimni o'rtab yuboryapti, mendan siz haqqoniy ravishda jirkanasiz, nafratlanasiz, bunisi o'lganning ustiga tepgan qilib, jigar-bag'rimni qon qilyapti. Boshingizga tushgan barcha kulfatlarning aybdori menman, nega siz ayblash o'rniga menga achinmayapsiz? Ana unda dilimga yana ko'proq, yanada og'irroq azob bergan bo'lur edingiz...

– Nechun endi men sizdan nafratlanarkanman? Nechun sizni ayblar ekanman, Edmon? Nechun? O'g'limni o'limdan qutqarib qolgan kishidan nafratlanib bo'ladimi, axir? Rostini aytganda, siz janob de Morserni faxri iftixori bo'lgan o'g'lidan judo qilishga qat'iy ahd qilgan edingiz, to'g'rimi? Shunga qaramay, mening ko'zlarimda sizga ta'na-malomatdan zarracha asar yo'q!

Graf boshini ko'tarib, ko'zlarini ikkala qo'lini cho'zib turgan Mercedesga tikdi.

– Mana, qarang menga, – davom etdi so'zida Mercedes, – kuyinib, husnimdan asar ham qolmagan, ko'zimdada zarracha nur yo'q, deraza oldida intizor turgan Edmon Dantes oldiga jilmayib, jilva qilib keladigan vaqtlarim o'tib ketdi... O'shandan buyon juda og'ir kunlar o'tdi, endilikda o'tmish faqat shirin xayol bo'lib qoldi. Sizni, Edmon, ayblashga, sizdan nafratlanishga qanday jur'at qila



olaman men, azizim? Qanday? Yo'q! Men o'zimdanda nafatlanaman! O'zimdanda! Hamma ayb o'zimdanda, – dedi xitob qilib Mercedes. – Oh, mening boshimga qanday og'ir kulfatlar tushmadi!.. Tangrim farishtalarga in'om etgan e'tiqod, iffat, muhabbat menda ham bor edi, men baxtiqaro esa hammasini Parvardigordanda ko'ribman-a! Monte-Kristo indamay qo'lini cho'zdi.

– Qo'ying, azizim, qo'ying, – dedi Mercedes asta qo'lini tortib olib, – menga tega ko'rmang. Siz rahm-shafqat qildingiz menga, biroq, sirasini aytganda, siz g'azabga olganlar ichida birgina men shafqatga loyiq emasdim, birgina men; boshqalarning xatti-harakati g'azabdan, tamagirlikdan, xudbinlik, hasaddanda edi. Men-chi? Men qo'rqqoqlik, subutsizlik, irodasizlikdan shu ahvolga tushib o'tiribman. Ular biror niyat-maqсад yo'lida shunday qilishdi, men esa... men qo'rqdim, hayiqdim. Edmon, qo'ying, siqmay qo'ya qoling endi mening qo'limni; sezib turibman, yaxshi, yoqimli so'zlar aytmoqchisiz menga – chakki qilasiz; qo'ying, aytmang, yaxshisi boshqa bir jonon uchun saqlab qo'ying u so'zlaringizni; men endi unaqa so'zlarga munosib emasman. Qarang, yaxshilab qarang... (U chodrani tamom olib tashladi) g'am-g'ussa meni adoyi tamom qildi, sochlarimda bitta ham qora qolmadi; yosh to'ka-to'ka qovoqlarim qavarib ketdi; peshanamni ajin bosdi. Siz esa, Edmon, hamon navqiron, kelishgan, mag'rursiz; buning boisi shundaki, sizning imoningiz salomat, jasursiz, irodalisiz, Tangrining mo'min bandasisiz, shu vajdanam Tangrim sizga madad berdi; men subutsiz bo'lib chiqdim, uni inkor etdim, Tangrim mendan yuz o'girdi, oqibatda mana shunday ahvolga tushib qoldim.

Mercedes uvvos tortib yig'lab yubordi, bag'ri tilka-pora bo'ldi.

Monte-Kristo uni qo'ldan ushlab, kamoli ehtiros bilan o'pdi; biroq bu bo'sada zarracha iliqlik yo'qligini Mercedes ham sezdi.

– Halokatga mahkum etilganlar orasida shundaylari

ham bo'ladiki, – davom etdi Mercedes, – birinchi xatoning o'ziyoq ularning kelajagini yo'q qilib tashlaydi, men sizni dunyodan o'tgan, deb hisoblagandim, o'zim ham jonimdan kechmog'im lozim edi; qon-qon yig'lab sizga aza tutib yurishimdan nima foyda ko'rdim? O'ttiz to'qqiz yoshimda munkillagan kampir bo'lib qoldim, xolos. Men hammadan avval sizni tanib, o'g'limni o'limdan saqlab qolgan ekanman, bundan na foyda? Umrim yo'ldoshi qilib olgan odamni ham, uning gunohi qanchalik og'ir bo'lmasin, o'limdan saqlab qolishim kerak emasmidi, axir? Men esa bunday qilmadim; o'z joniga o'zi qasd qilishiga yo'l qo'yib berdim. Bu ham kamlik qilganday, bag'ritoshlik qilib, jirkanib, nafratlanib uning o'limini tezlashtirdim; axir hech bo'lmasa, uning meni deb ontidan qaytganini, meni deb sotqinlik qilganini o'ylamadim, o'ylashni istamadim! Endi-chi? O'g'limni ajal o'chog'i – Afrikaga jo'natgan ekanman, bu erga kelib yashashimdan ne foyda? Ha, men qo'rqqoqlik qilib, muhabbatimdan yuz o'girdim va endilikda o'z maslagidan qaytgan murtad kimsaga o'xshab, atrofimdagilarni baxtsizlikka duchor etmoqdaman.

– Yo'q, Mercedes, unday emas, – dedi Monte-Kristo, – o'zingizni o'zingiz bunchalik erga urib, koyib, chakki qilyapsiz. Siz olijanob ayolsiz, boshingizga tushgan musibatlar shu qadar og'irki, u meni ham nochor qilib qo'ydi; biroq tepamda Tangrim turibdi, u men otgan chaqmoqni, o'q-yoyni to'xtatib qo'yishni istamadi. O'n yildan buyon Xudoyimga har kuni sajda qilib, shohid bo'lishga undab keldim; yana shu Xudo oldida ont ichib aytamanki, men sizni, deb hayotimni va shu bilan birga butun orzu-niyatlarimni qurbon etdim. Ammo, Mercedes, men buni afsuslanib gapirayotganim yo'q, aksincha, faxrlanib gapiryapman, men Tangrimga kerak ekanmanki, u menga yana hayot hadya etdi. Mercedes, o'tmishni bir zum yodingizga keltiring, hozirgi vaqtda atrofingizda yuz berib turgan voqealarni mushohada qilib ko'ring, kelajakni ko'z oldingizga keltiring-da, shu savolga javob

bering; axir men Xudoning o'z qo'lidagi quoli emasmanmi? Umrinning teng yarimini eng dahshatli musibatlar iskanjasida, eng og'ir azob-uqubatlar girdobida o'tkazdim, meni hamma yor-birodarlarim, hatto sevib-sevdrganlarim ham unutib yuborishgan edi; yotlar quvg'inga solgan edi; qamoq, yolg'izlik, ayriliq, judolikdan so'ng to'satdan bunday ozodlik, buncha boylik! Bu boylik har qanday kishini ham hayratda qoldiradigan, behisob boylik ediki, men, chor-nochor, buni Xudoyimning o'zi ulug' ishlarni bajo keltirish uchun menga yubordi, deb o'ylashga majbur bo'ldim. O'shandan buyon shu boylikii Xudo yo'lida xizmat qilishga sarflab keldim. Mercedes, ba'zan siz lazzat topgan bu hayotda meni o'shandan beri hech narsa maftun etmadi, hech narsa qiziqtirolmadi, tinimsiz harakat qildim, allaqanday kuch meni hadeb olg'a tortaverdi, Xudoning qarq'ishi tekkan shaharni kuydirib, kulini ko'kka sovurishga ahd qilib osmonda uchib yurgan olov bulutga o'xshardim men: og'ir, xavf-xatarli safarga chiqish oldidan o'z kemasini tayyorlayotgan kapitanga o'xshab o'q-dori yig'dim, qurollarimni tayyorladim, tanimni og'ir sinovlarda, yuragimni kuchli hayajonlarda tobladim, toki qo'llarim o'ldirishga qobil bo'lsin, ko'zlarim ziyraklashsin, lablarim har qanday dahshatli manzarlarda ham jilmayib tursin, dedim. Pashshaga ham ozor bermagan ko'ngilchan, soddadil bir kimsadan yashirin, darg'azab qasoschiga aylanib ketdim: ana shundan so'ng taxt qilib qo'yilgan yo'lga kirdim-da, bo'shliqni shartta kesib-o'tib, niyatimga etdim, yo'limda ro'baro' kelgan hech kim, hech narsa omon qolmadi.

– Bas, – dedi Mercedes, – Edmon, bas! Amin bo'ling, shuncha odamlar ichida birgina men sizni tanib olgan ekanman, demak, faqat birgina men sizni anglashim mumkin. Mabodo meni ham bir shisha idish kabi chilparchin qilib tashlaganingizda ham men sizga qoyil qolmay ilojim yo'q edi, Edmon! Ha, zavqlanardim! Men bilan o'tmish o'rtasida paydo bo'lgan ayriliq, nifoqlik jari – ana shu tubsiz jar siz bilan o'zgalar o'rtasida ham paydo bo'ldi.

Sizni boshqalar bilan taqqoslash esa men uchun eng og'ir azobdir, chunki sizga teng keladigan, sizga o'xshaydigan zot yo'q. Keling, bas qilaylik, vidolashing men bilan, Edmon, vidolashing.

– Vidolashishdan oldin shuni ayting menga, Mercedes, men qanday yordam berishim mumkin sizga? – so'radi Monte-Kristo.

– Mening faqat bitta tilagim bor, Edmon: o'g'lim baxtini topsin.

– O'g'lingizni o'limdan saqlashni Xudodan tilang, boshqasini men ta'minlayman.

– Rahmat, Edmon.

– Siz-chi, Mercedes? Sizga qanday yordam kerak?

– Menga hech narsaning keragi yo'q, men ikki qabr o'rtasida yashayapman: biri allaqachon dunyodan o'tgan Edmon Dantesning qabri, men uni sevardim! Endilikda bu so'zlarni aytish mening so'lg'in lablarimga aslo yarashmaydi, ammo qalbim hech narsani unutmagan yo'q! Men uchun bu dunyoda yuragimdagi ana shu muqaddas xotiradan ham aziz narsa yo'q! Ikkinchi qabrda ana shu Edmon Dantes o'ldirgan zot yotibdi, men bu o'ldirishni Haq ishi deyman, ammo qatl etilgan kishi haqiga ibodat qilish mening burchim.

– O'g'lingiz baxtli bo'ladi, – dedi takrorlab graf.

– Unda, shubhasiz, men ham baxtiyor bo'laman.

– Harholda... qanday qilib yashamoqchisiz?

Mercedes g'amgin holda jilmayib qo'ydi.

– Ilgarigi Mercedes kabi mehnat qilib yashayman, desam ishonmaysiz albatta; endilikda men faqat toat-ibodat qilishga yarayman, xolos; biror ish qilishga menda ehtiyoj ham yo'q. Siz bekitib, ko'mib qo'ygan xazina o'sha siz aytgan joydan topildi. Odamlar mening kim ekanligimni, qanday sarmoya bilan yashayotganimni qiziqib surishtiradilar, albatta, biroq menga baribir emasmi! Buning faqat Xudoga, sizga va menga daxli bor.

– Mercedes, – dedi graf, – men buni sizdan ta'na qilib so'rayotganim yo'q, siz graf de Morser jamg'argan va yarmi

sizniki hisoblangan boylikdan voz kechib chakki qilyapsiz.

– Nima qil demoqchi bo'layotganingizni sezib turibman, ammo, Edmon, men buni qilolmayman, o'g'lim bunga yo'l qo'ymadi.

– Men ham o'g'lingizdan rozilik olmay turib, sizga yordam bera olmayman. U nimani istasa, o'shani bajo keltiraman. Bordi-yu, rozilik bildirsa-chi? U vaqtda siz qarshilik ko'rsatmaysizmi?

– Edmon, yaxshi bilasizki, hozir mening mulohazaga ham holi-madorim yo'q, biror narsa haqida biror fikrga kelishga qurbim etmaydi. Xudoning o'zi erk-irodadan meni mahrum etib qo'ydi. Men uning qo'lida burgut changaliga tushib qolgan musicha kabi, ojiz, sho'rlik bandaman. Shunga qaramay hamon tirik ekanman, bu ham Xudoning irodasi.

– Ehtiyot bo'ling, bekam, – dedi Monte-Kristo, – Xudoga bunday sig'inmaydilar. Tangri o'z bandasidan amru farmonlarini anglab, tushunib ish tutishni, uning qudratini ongli ravishda qabul qilishni talab etadi. Bizga erk-iroda ato etib qo'yganining boisi ham ana shunda.

– Yo'q! – dedi xitob qilib Mercedes. – Aslo unday deya ko'rmang. Tangrim menga erk-iroda berib qo'ygan deb o'ylaganimda, og'ir daqiqalarda o'z jonimga o'zim qasd qilardim-qo'yardim, bundan meni nima to'xtata olardi?

Monte-Kristo bo'zarib ketdi-da, bu dard-alamlarga to'la fig'onli so'zlarga bardosh berolmay, boshini quyi soldi.

– Siz menga loaqal «xayr» ham demaysizmi? – dedi u Mercedesga qo'lini uzatib.

– Aksincha, xayr, oq yo'l deyman sizga, – dedi e'tiroz-la Mercedes va osmonga ishora qilib qo'shib qo'ydi, – ko'rib turibsizki, mening ham hali Xudodan umidim bor.

So'ng titrab turgan qo'li bilan grafning qo'lini siqib qo'ydi-da, zinadan yugurib ichkariga kirib ketdi.

Shundan keyin Monte-Kristo asta qadam tashlab uydan chiqdi-da, bandargoh tomon yo'l oldi.

Biroq keksa Dantes yashagan ayvondan qarab turgan

Mersedes uzoqlashib ketayotgan Monte-Kristoni ko'rmadi. Onaning ikki ko'zi oynaday yaltirab turgan dengizda – o'g'lini uzoqlarga olib ketayotgan kemada edi. Uning lablari beixiyor: – Edmon! Edmon! – deb shivirladi.

## XVI. O'TMISH

Graf Mercedes qoshidan yuragi ezilib chiqdi. Balki bundan keyin uning diydorini ko'rish nasib bo'lmas unga.

Kichkintoy Eduarning o'limidan keyin Monte-Kristoning ahvoli ruhiyatida chuqur o'zgarish yuz berdi. U qasos olish niyatida juda ko'p egri-bugri yo'llarni bosib o'tdi-yu, pirovardida to'satdan shak-shubhalar girdobiga tushib qoldi.

Buning ustiga Mercedes bilan bo'lgan suhbat graf unutilib yubormoqchi bo'lgan xotiralarni yana jonlantirib yubordi.

Monte-Kristo osonlikcha ruhan tushkunlikka tushadiganlardan emasdi, o'z soyasidan qo'rqadigan oliftalargina shunday bo'ladi. Botir odamning ruhan tushkunlikka tushgani, o'lgani hisoblanadi. Qilmishlarimdan shubhaga tushib, pushaymon qilayotgan ekanman, demak, mo'ljallarimda birorta xatoga ketgan ekanman-da, deb o'yladi graf.

«O'tmish haqida xato o'ylayapman, – dedi u o'ziga, – qo'pol xato qilgan bo'lishim mumkin emas. Yoki men o'z oldimga bema'ni maqsad qo'yganmidim? Nahotki, o'n yil noto'g'ri yo'lda yurgan bo'lsam? Me'mor butun orzu-umidlarini sarflab o'z qo'li bilan yaratishi mumkin bo'lmagan yoki arziyas narsaligiga ishonishi uchun nahot bir soat kifoya qilgan bo'lsa?»

Yo'q, yo'q! Bunday fikrlarni kallamdan chiqarib tashlashim kerak, yo'qsa ular aqldan ozdiradi meni. Men o'tmishga juda uzoqdan nazar tashlayapman, shu vajdan u menga noto'g'ri ko'rinyapti. Aslida olg'a borayotganingda o'tmish bamisoli tabiat manzarasi kabi yoning-

dan o'tib, ko'zdan g'oyib bo'laveradi. Men uyquda go'yo ko'ksimga xanjar sanchdim-u, qonga bulandim, og'riq sezyapman, ammo qanday yarador bo'lganimni anglay olmayman.

Ey, go'rida tik turgan zot, behisob davlat hovliqtirib qo'ygan zo'ravon, qo'lidan har balo keladigan avliyo, millioner, qani, bir zum o'sha och-yalang'och, nochor kechgan hayotning mudhish manzaralarini ko'z oldingga keltir-chi, taqdir mahkum etib yovuzlik sudrab kirgan o'sha yo'ldan yana qadam tashlab ko'r-chi! Mana, Monte-Kristo Dantesga qarab turgan oyna yuzida behisob olmosu oltinlar yaraqlab, aysh-ishratlar aks etib, kuzni qamashtirib yuboryapti! Qani, oyna yuzidagi olmoslarni bekit, oltinni ko'chirib, yaltiroq shu'lani sidirib tashla, uni yaxshilab artgin-da, boy-badavlatning ko'zi bilan kambag'alga, erkinlikda yurganning ko'zi bilan mahbusga, qabrdan tirilib chiqqanning ko'zi bilan murdaga bir nazar tashlab, o'tmishni xotiringga keltir!»

Ana shu dilgir o'y-xayollar og'ushida Monte-Kristo Kesri ko'chasidan vazmin qadam tashlab borardi. Bundan yigirma to'rt yil muqaddam uni xuddi shu ko'chadan unsiz-zabonsiz soqchilar olib ketishgan edi. Hozir gavjum va xushchaqchaq bu uylar o'sha tunda unsiz, zimiston edi.

– Bu uylar o'sha vaqtdagidek turibdi, – dedi pichirlab Monte-Kristo, – faqat u vaqt tun edi, hozir yorug' kun, quyosh hamma yoqqa zarrin nurlarini sochib, dillarga quvonch bag'ishlayapti.

U Sen-Loren ko'chasi bo'ylab sohilga tushdi-da, port boshqarmasi oldiga bordi. O'sha kuni mana shu erda uni qayiqqa tushirgan edilar.

Yonboshdan chipta soyabonli qayiq o'tib qoldi; Monte-Kristo qayiqchini chaqirdi, qayiqchi katta pul ishlab olaman, degan maqsadda graf oldiga yugurib keldi.

Rohat qilib, sayr etsa bo'ladigan payt edi. Yonib-qizib turgan ulkan tandir singari quyosh to'lqinlarga alanga sochib ufqqa cho'kyapti. Tep-tekis dengiz yuzi jimirlab

qo'yardi, bu dushman ta'qibidan qochib yurgan baliqlarning suv yuziga otilib chiqishi edi. Uzoq-uzoqlarda Martiga borayotgan baliqchilarning oppoq qayiqdari suvga qo'ngan oq qushlarga o'xshardi. Bu qayiqdarning ba'zilari Korsika yoki Ispaniyaga yuk olib borayotgan kemalar tomon yo'l olgandi.

Grafning ko'ziga bularning hech qaysisi ko'rinmas, u yomg'irpo'shiga burkanib olib, bosib o'tgan dahshatli hayot yo'lining barcha manzillarinn birma-bir xotirasidan o'tkazardi, Katalaneda yonib turgan o'sha yolg'iz chiroq, uni olib borayotganlarida qarshisida paydo bo'lgan If qal'asining mudhish ko'lankasi, dengizga o'zini otmoqchi bo'lib jandarmalar bilan jiqqamusht bo'lgani, engilganini sezgach, o'z joniga o'zi qasd qilgani va chakkasiga taqalgan to'pponchanning muzdek uchini – hamma-hammasini xotiridan o'tkazardi.

Yozning jazirama oftobidan qaqragan, kuz bulutlari tepaga kelgan kunlari yana oz-ozdan nam tortayotgan archalar singari ko'ksida tomchi-tomchi zardoblardan qo'lansa ko'lmak paydo bo'layotganini sezib turardi graf Monte-Kristo. Bir vaqtlar bu zardob Edmon Dantesning yuragini to'ldirgan edi.

Shu daqiqadan boshlab Monte-Kristo uchun ochiq-oydin fazo ham, oppoq-oppoq qayiqchalar ham, qirmizi ufq ham yo'q bo'ldi. Osmonni qop-qora bulutlar qoplab oldi, qarshisida If qal'asi deb atalmish qora gigant paydo bo'lganida, xuddi ashaddiy dushmanning arvohi duch kelgandek seskanib ketdi.

Ular manzilga etib kelishgan edi.

Qayiqchi hurmat bilan «keldik, janob», degan bo'lsa-da, graf o'zini beixtiyor qayiqning eng ketiga oldi.

Monte-Kristo o'sha dahshatli kuni soqchilar uni xuddi mana shu o'nqir-cho'nqir so'qmoq yo'ldan nayza bilan turtib-surtib olib ketganlarini esladi.

O'sha vaqtda Dantesga bu yo'l juda olis ko'ringan edi, Monte-Kristoga esa yaqin tuyuldi, eshkak har gal suv sach-ratganda behisob fikrlar va xotiralar tug'ilardi grafning



miyasida.

Iyul revolyusiyasidan soʻng hibsxona If qalʼasidan koʻchirib yuborilgan va kontrabanda yoʻli bilan mol olib oʻtuvchilarning yoʻlini toʻsadigan soqchilar postiga aylantirilgan edi. Darvoza oldida oʻtmishning bu dahshatli yodgorligini koʻrgani kelgan sayyohlarni kutib oluvchi qorovul turardi. (Endi bu qalʼa oddiy sayilgohga aylanib qolgan edi.)

Bundan Monte-Kristo xabardor edi, shunga qaramay, qalʼaning gumbazlari ostida qadam tashlaganida, qop-qorongʻi zinadan tushayotganida, koʻrishni istagan zindonga boshlab tushganlarida, uning yuzi murdaday oqarib, yuragi orqasiga tortib ketaverdi.

Graf tiklanish zamonidagi hibsxona xodimlaridan birorta qari-qurisi qolmaganmi, deb soʻragan edi, ularning hammasi pensiyaga chiqib ketgan yoki boshqa ishlarda ishlashadi, deb javob berishdi. Grafni sayr qildirib yurgan qorovul, men bu erda 1830 yildan buyon ishlayman, dedi.

Monte-Kristoni oʻzi yotgan zindonga olib kirishdi.

U yana tepadan tushib turgan oʻsha gʻira-shira yorugʻlikni, karavoti turgan joyni (karavotni olib ketishgandi) koʻrdi; karavot orqasida abbat Faria yorib kirgan teshikning oʻrni hamon koʻzga yaqqol tashlanib turardi.

Monte-Kristoning oyoqlarini titroq bosib, bukilib ketdi, u yogʻoch oʻtirgʻichni oldiga zoʻrgʻa tortib oldi-da, oʻtirdi.

– Miraboni istisno qilganda, bu qalʼaning mahbuslari haqida nimalarni hikoya qilishadi? – soʻradi graf. – Bu mudhish zindonlar toʻgʻrisida yodnomalar bormi? Bu erda tirik odamlarni qamashlari mumkinligiga hech ishinging kelmaydi.

– Janob, mana shu xona haqida menga turma xodimi Antuan gapirib bergandi.

Monte-Kristo choʻchib tushdi. Hibsdaligi vaqtida uning qorovuli ana shu Antuan edi. Graf uning ismini va aft-basharasini deyarli unutib yuborgan edi, biroq ismi eshittilishi bilan Antuan paxmoq soqolli yuzi, qora nimchasi, kamariga osib olgan kalitlari bilan grafning koʻz oldida

darhol gavdalandi; hatto o'sha kalitlar xuddi hozir ham shaqillayotganday tuyuldi unga.

Graf orqasiga qaradi, Antuan dahlizning to'rida turganday tuyuldi; u darvozabon tutib turgan jinchiroy yog'du-sida burungidan ham mudhish ko'rindi.

– Istasalar, aytib berishim mumkin, – dedi darvoza qorovuli.

– Ha, istayman, aytib bering, – dedi Monte-Kristo.

Graf o'zi haqidagi hikoyani eshitishga hozirlanib, go'yo yuragim qinidan chiqib ketmasin, degandek, ko'ksiga qo'lini bosdi.

– Aytib bering, – takrorladi graf.

– Bir zamonlar mana shu xonada, – dedi hikoyasini boshlarkan qorovul, – nihoyatda xavfli bir mahbus yotgan ekan. U o'ta jasoratli, badjahl yigit bo'lgan ekan, o'sha yillari bu erda yana bir mahbus bo'lgan ekan, aytishlariga qaraganda, u kohinlardan ekan, biroq u mo'min-qobil ekan; sho'rlik mana shu xonada aqldan ozib qolgan ekan.

– Aqldan ozgan ekan, dedingizmi? – so'radi Monte-Kristo. – Nega?

– Hammaga, meni chiqarib yuborsalar, million-million aqcha beraman, der ekan.

Monte-Kristo balandga qaradi, biroq hech kim ko'rinmadi: faqat tosh shiftlargina osmonni to'sib turardi. «Abbat Faria xazina taklif qilgan kimsalar bilan o'sha xazina o'rtasidagi g'ovlar ham bulardan kam bo'lmagandir», ko'nglida kechirdi graf.

– Mahbuslar bir-biri bilan uchrasha olishganmikin? – so'radi Monte-Kristo.

– Yo'q, uchrashish qat'iy man qilingan ekan, biroq bu ikkala mahbus bu tartib-qoidaga rioya qilmay, lahm qazib olishgan ekan.

– Ulardan qaysi birisi lahm kovlagan ekan?

– Yoshida, albatta, – dedi qorovul, – u juda epchil, zardast yigit bo'lgan, sho'rlik abbat esa qarilik engib, mun-killab qolgan chol edi, deyishadi.

– Obbo, shapko'rlar-e!.. – deb pichirlab qo'ydi Monte-

Kristo.

– Xullas, – dedi soʻzini davom ettirib qorovul, – teshikni yosh mahbus kovlabdi, ammo nima bilan kovlaganini Xudo biladi. Mana, qarang, teshikning izi haliyam koʻrinib turibdi.

Qorovul jinchirogʻini devorga tutdi.

– Toʻgʻri, koʻrdim, – dedi graf, hayajondan ovozi boʻgʻiq chiqdi.

– Soʻngra bir-birinikiga bordi-keldi qilishibdi. Bu qancha vaqt davom etganini hech kim aytib berolmaydi. Soʻngra chol kasal boʻlib oʻlibdi, yoshi nima qilibdi deng?

– Xoʻsh, nima qilibdi, aytinch-i?

– Oʻlikni oʻz xonasiga olib boribdi-da, yuzini devor tomonga qilib karavotiga yotqizibdi, keyin cholning xonasiga qaytib kelibdi, murdani qopiga oʻzi kirib yotib olibdi. Mana bunisiga nima deysiz?

Monte-Kristo koʻzlarini yumdi, muzdek murdani hidi kelib turgan chipta yuziga tegayotgandek tuyuldi shu on.

– Aftidan, – davom ettirdi hikoyasini qorovul, – u, If qalʼasida oʻliklarni chiqimidan qochib, tobutsiz shundayicha koʻmadilar, goʻrdan chiqib juftakni uraman, deb oʻylagan boʻlsa kerak; baxtga qarshi, qalʼada tartib boshqacha ekan, oʻliklarni erga koʻmishmay, oyogʻiga tosh bogʻlab, dengizga uloqtirib tashlar ekanlar. Uni ham xuddi shu zaylda dengizga tashlab yuboribdilar; ertasiga haqiqiy murdani yigitning karavotidan topishibdi; voqea ayon boʻlibdi, yigitni dengizga uloqtirgan soqchilarning aytishicha, «murda» solingan qop pastga uchib tushayotganida qattiq dodlagan ovoz eshitilgan ekan.

Grafning yuragi siqilib, nafasi boʻgʻildi.

– Yoʻq! – dedi pichirlab u, – yoʻq! Unutib qoʻyganimdan dilimda shubha tugʻilgandi, mana bu erda qalbimning yarasi yana ochildi, men yana qasos olish ishtiyoqida yona boshladim, qasos!

– Oʻsha mahbus haqida boshqa gap eshitganingiz yoʻqmi? – soʻradi u.

– Boshqa hech narsa eshitganim yoʻq, bilasizmi, u yo

ellik fut balandlikdan charxpalak bo'lib tushib o'lgan yoki...

– Axir siz, oyog'iga tosh bog'lab uloqtirishbdi, tikka tushgan bo'lsa kerak, dedingiz-ku.

– Yoki, – davom etdi qorovul, – tosh oyog'idan tortib suvga tikka tushganda, cho'kib ketgan, bechora!

– Siz achinasizmi unga?

– Ochig'ini aytсам, tirikligida u dengizni o'z uyiday bilgan bo'lsa-da, achinaman sho'rlikka.

– Nega endi?

– Aytishlariga qaraganda, baxtsiz yigit dengizchi bo'lib bonapartchi bo'lgani uchun uni qamashgan ekan.

– Haqiqatan ham, – yana pichirladi graf, – Xudoning amri bilan suvdan ham, o'tdan ham sog' chiqasan! Sho'rlik dengizchini hamon esda tutisharkan, hamon gulxan oldida uning achchiq qismati haqida gapirishar ekan, u havoni yorib, dengiz girdobiga otilganini eshitganlar hozir ham titrab ketarkan.

– Uning ismini bilasizmi? – dedi ovozini chiqarib graf.

– Qaydan bilay? – dedi qorovul. – U o'ttiz to'rt raqam bilan ro'yxatga yozib qo'yilgan ekan.

– Vilfor, Vilfor! – shivirladi Monte-Kristo, – mening arvohim seni tunlari bezovta qilganida shu raqamni tinmay takrorlagandirsan-da.

– Sayohatni davom ettiradilarmi, janob? – so'radi qorovul.

– Ha, o'sha jinni abbat turgan xonani ko'rsating.

– Yigirma ettinchi xonanimi?

– Ha, yigirma ettinchini, – dedi takrorlab Monte-Kristo.

Graf yana ismini aytishning o'rniga devor orqasidan mana shu nomerni qichqirib aytgan abbat Farianing ovozini eshitganday bo'ldi.

– Yuring.

– Bir oz sabr qiling, – dedi Monte-Kristo. – Bu zindonni yaxshilab ko'rmoqchiman.

– Ma'qul, – dedi qorovul, – yigirma ettinchisining kalitini unutilib qoldirgan ekanman, siz ko'rib bo'lguningiz-

cha olib kelaman.

– Ha, bo’pti, siz kalitni olib keling.

– Chiroq ham sizda qolsin.

– Yo’q, o’zingiz olib ketavering.

– Qorong’ida qolasiz-ku.

– Qorong’ida ham juda yaxshi ko’raman.

– Buni qarang-a! Xuddi o’shaning o’zi.

– O’shaningiz kim?

– O’ttiz to’rtinchi nomer, aytishlariga qaraganda, u qorong’ida ko’rishni juda mashq qilgan ekan, zimiston xonasining narigi burchagida yotgan ignani ham bemalol ko’rib turarkan.

– Bunga erishmoq uchun u ana shu qop-qorong’i zindonda rosa o’n yil azob chekkan edi sho’rlik, – dedi past ovozda graf.

Qorovul chirog’ini ko’tarib chiqib ketdi.

Graf haq so’zni aytgan edi: bir necha daqiqa o’tar o’tmas u qorong’ida hamma narsani xuddi kunduzgidek ko’ra boshladi.

– To’g’ri, o’sha zindon, – dedi u, – mana, men o’tirgan tosh. Mana, devorda elkamning izi! Mana, qonimning izi, bu o’sha kalamni devorga urib majaqlamoqchi bo’lgan kundan qolgan esdalik!.. Mana, raqamlar... Bular yodimda... otamni tirik ko’ra olarmikinman, deb, uning yoshini sanab borganda yozib qo’ygandim bularni... Mana bu Mercedesning yoshi sanog’i... U men borguncha kutib turarmikin, deb yozgandim... Hisoblab chiqqanda, dilimda umid uchqunlari paydo bo’lgandi... Ochlik va sotqinlik yuz beradi deb o’ylamagandim, o’shanda.

Shu payt uning ko’ksidan zaharxanda kulgi otilib chiqdi. Xuddi tushidagi kabi ko’ziga otasini ko’mish marosimi ko’rindi... Ana, Mercedes mehrobgga boryapti!

Yana bir devorda yozuvlar ko’rindi. U zangori devorda hamon aniq ko’rinib turardi:

«E, Tangrim, – o’qidi Monte-Kristo, – es-hushimni saqla mening».

– To’g’ri, – dedi xitob qilib u, – bu zindonda so’nggi

yillarda yolg'iz mana shu kalimani keltirardim, Xudodan ozodlik tilamay qo'ygandim, jinni bo'lishdan qo'rqib es-hushimni saqlashni tilardim, Tangrim tilagimni inobatga oldi, aql-hushimni saqladi, shu tufayli men hech narsani unutmadim, Xudoga ming qatla shukrki, unutmadim.

Shu top devorda chiroq nuri o'ynadi, zindonga qorovul tushayotgan edi.

Monte-Kristo unga peshvoz chiqdi.

– Ketimdan yuravering, – dedi qorovul.

Ular er osti yo'lkasidan yigirma ettinchi xonaga borishdi.

Abbat yotgan zindon yana ko'p narsalarni Monte-Kristoning esiga soldi.

Dastavval uning devorga chizib qo'yilgan meridianga ko'zi tushdi, abbat Faria bu meridian vositasida vaqtni hisoblab borardi, so'ng sho'rlik mahbus dunyodan o'tgan karavotga qaradi, o'zi yotgan xonani ko'rganda grafni vahima bosgan bo'lsa, bu xonada uning qalbi marhum abbatga mehr-muhabbat va minnatdorchilik hissi, tashakkur bilan to'la edi; uning ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi.

– Jinni abbat mana shu xonada yotgan ekan, – dedi qorovul, – ana u erdan qo'shnisi kelib turarkan. (U teshikni ko'rsatdi, teshikning bu tomoni bekitilmay qolgan ekan.) Olimlardan kimdir toshlarning rangiga qarab, ular bir-birinikiga o'n yil qatnagan bo'lsa kerak, degan xulosaga kelibdi. Sho'rlikning bu o'n yillik umri ne-ne azob-uqubatlarda o'tgandir.

Dantes cho'ntaqidan bir necha oltin tanga chiqarib, uni tanimasa-da, ikki marta qo'lini siqib so'rashgan qorovulga uzatdi.

Qorovul pulni oldi, biroq sayyoh bir necha mayda chaqa o'rniga kutilmagan holda juda ko'p aqcha berib yuborganini chiroq yog'dusida ko'rib hang-mang bo'lib qoldi.

– Janoblari adashdilar, shekilli, – dedi u.

– Nimada adashibman?

- Menga oltin beribsiz.
- Ko‘rib turibman.
- Bila turib beryapsizmi?
- Ha.
- Bu oltinlarni menga hadya qilyapsizmi?
- Ha
- Bularni rostdan cho‘ntagimga solib qo‘yaveraymi?
- Rostdan, – dedi graf.
- Qorovul grafga baqrayib qarab turardi.
- Janob, – dedi o‘z baxtiga o‘zi ishonmay qorovul, – tushunmay qoldim, men bunday hadyaga loyiq nima ish qildim sizga?
- Azizim, bunda hayratga soladigan hech narsa yo‘q, – dedi graf, – men ham dengizchi edim, shu vajdan hiko- yangiz meni juda hayajonga soldi.
- Siz juda olihimmat zot ekansiz, janob, – dedi qoro- vul, – men ham sizga bir narsa hadya qilay.
- Nima hadya qilmoqchi bo‘lyapsiz menga? Birorta chi- g‘anoqmi, savatmi? Qo‘ying, hojati yo‘q buning, tashak- kur...
- Yo‘q, janob, unaqa emas, bu hikoyaga aloqador bir narsa.
- Rostdan-a? – dedi qiziqsinib graf, – nima ekan u?
- Voqea bunday, – dedi qorovul, – men bir kuni o‘ylab- o‘ylab, bir kishi umrining o‘n besh yilini o‘tkazgan zin- donda, albatta, biror narsa topish mumkin, degan xulosaga keldim-da, devorlarni taqillata boshladim.
- To‘g‘ri, – dedi xitob qilib graf, u abbatning buyumla- rini yashiradigan joyni esladi.
- Devorlarni bir chekkadan urib borib karavotning boshiga etdim, ana shu erda tosh devor «gum-gum» etib ovoz berdi: «Ha, bu erda bir narsa bor», dedim ichimda.
- Xo‘sh? – dedi Monte-Kristo.
- Toshni ko‘chirib oldim, u erda...
- Arqondan yasalgan shoti, asbob-uskunalar topdin- gizmi? – xitob qildi graf.
- Siz qayoqdan bilasiz buni? – so‘radi ajablanib qoro-

vul.

– Bilmayman, shunchaki chamalab aytdim-da, – dedi graf, – hibsonalarning devorlaridan ko‘pincha shunaqa narsalar topishadi.

– To‘g‘ri aytdilar janoblari, – dedi qorovul, – toshning tagiga arqondan yasalgan shoti va turli asboblari yashirib qo‘yilgan ekan.

– O‘sha buyumlar o‘zingizdami? – so‘radi hovliqib ketib Monte-Kristo.

– Yo‘q, janob, men ularni sayohatchilarga sotib yuborganman, ammo ba‘zi narsalarni olib qolganman.

– Nima ekan u? – so‘radi toqatsizlanib graf.

– Chipta ustiga yozilgan allaqanday kitob.

– Iya! – dedi xitob-la Monte-Kristo. – U kitob o‘zingizdami?

– Balki, bu kitob ham emasdir, – dedi qorovul, – biroq nima bo‘lsa-da, o‘zi menda turibdi.

– Azizim, olib keling darrov uni, – dedi graf, – u men o‘ylab yurgan kitob bo‘lsa, sizga juda ajoyib mukofot beraman.

– Xo‘p, men ketdim.

Qorovul chiqib ketdi.

Monte-Kristo, abbatning o‘limidan so‘ng uning uchun mehrobga aylanib qolgan o‘sha karavotning qoldiqlari oldida cho‘kka tushdi-da:

– O, mening ikkinchi otam! – dedi, – menga ozodlikni, boylukni sen ato etgan eding! Ezgulik va yovuzlik sirlarining sultoni, sen ato etgan eding bularni menga, endilikda sendan yana bir tilagim bor. Mabodo qabrimiz tagida er yuzasidagi tiriklar ovozigaga aks sado chiqaradigan biror jonivorning qolishi haq gap bo‘lsa, mabodo tanimiz boshqa shakl kasb etgandan keyin ham undan jonli narsaga o‘xshash biror nimaning qolishi muqarrar bo‘lsa, e, muruvvatli qalb, vijdoni pok, oqil zot, sendan o‘tinib so‘rayman: menga o‘zing hadya etgan otalik mehri haqqi, mening senga farzandlik sadoqatim haqqi, bir og‘iz so‘z bilan, birgina ishora bilan bo‘lsa-da, meni shak-shubha-



lardan xalos et, agarda shunday qilmasang, agar ular o'rnini ishonch egallamasa, bu shubhalar pushaymonga, tavba-tazarruga aylanib ketishi mumkin.

Graf qo'llarini qovushtirib, boshini egdi.

– Marhamat, janob, – degan ovoz eshitildi orqadan.

Monte-Kristo cho'chib orqasiga qaradi.

Qorovul unga tekis bo'z taxlamini uzatdi.

Abbat Faria o'z aql-idroki xazinasini ana shu bo'zga yozib qoldirgan edi. Bu uning Italiyadagi davlat hokimiyati haqida yozgan katta asari edi.

Graf uni qorovulning qo'lidan yulqib oldi, ko'zi avval epigrafga tushdi, unda quyidagi so'zlar yozilgan edi:

*«Sen ajdarhoning tishlarini sug'urib olasan, arslonni yanchib tashlaysan, – dedi Tangrim».*

– Mana, javob! – dedi xitob qilib Monte-Kristo. – Rahmat sizga, ota, rahmat.

Cho'ntagidan bir hamyon chiqarib qorovulga uzatdi:

– Mang, – dedi, – hamyonda ming frankli o'nta bank chiptasi bor edi.

– Menga beryapsizmi buni?

– Ha, sizga, faqat shu shart bilan: men ketgunimcha uni ochmaysiz.

Graf o'zi uchun eng qimmatli, tabarruk yodgorlikni qo'ltig'iga qistirdi-da, zindondan yugurib chiqib, qayiqqa o'tirdi.

– Marselga! – dedi.

Qayiq o'rnidan jildi. Monte-Kristo ko'zlarini mudhish qal'adan uzmasdi.

– Bu mudhish zindonga meni qamaganlarning ham, bu erda qamalغانimni unutib qo'yganlarning ham sho'riga sho'rva to'kiladi!

Katalan yonidan qayiq o'tayotganda graf orqaga o'girilib, yuzini yomg'irpo'shi bilan bekitdi va pichirlab, ayolning nomini tilga oldi.

Graf to'la g'alabaga erishdi, u ikkinchi shubhani ham

engib chiqdi. Nazokat va hatto muhabbat bilan tilga olgan nom Gayde edi.

Monte-Kristo qayiqdan tushib, qabristonga yo'l oldi. U erda Morrel kutib turardi.

Graf ham bundan o'n yil muqaddam mana shu go'ris-tonda bo'lgan edi, o'shanda, Fransiyaga millioner bo'lib qaytayotib, ochlikdan o'lgan otasining qabrini axtarib to-polmagan edi.

To'g'ri, chol Morrel keksa Dantes qabri ustiga xoch qo'yinglar, degan edi, uning bu iltimosi qondirilgan bo'lsa-da, xoch yiqilib tushgan, go'rkov uni o'tin qilib yoqib yuborgan edi; bu go'rkovlar qabristonlarda nimaiki erga tushib yotgan bo'lsa, hammasini yoqib yuborishadi.

Hurmatli armaturning esa baxti chopgan edi, u o'z far-zandlarining qo'lida jon berib, ikki yil burun dunyodan o'tgan rafiqasining qabri yoniga ko'milgan edi. Er-xotin to'rt sarv daraxti o'rtasida abadiy orom olib yotardi. Yondosh ikki qabrning atrofi temir panjara bilan o'ralgan, ikkita marmar taxtaga ismlari o'yilib yozilgandi.

Maksimilian daraxtga suyangancha qabrga tikilib tu-rardi, ammo ko'zlari hech narsani ko'rmasdi. G'am-g'ussa uni aqldan ozdirgandek ko'rinardi.

Maksimilian, bu yoqqa emas, anavi yoqqa qarash ke-rak! – dedi graf, osmonni ko'rsatib.

– O'lganlar hamisha biz bilan birga, – dedi Morrel, – meni Parijdan olib chiqayotganda o'zingiz shunday degan edingiz.

– Maksimilian, – dedi graf, – Marselda bir necha kun bo'lish istagim bor, degan edingiz yo'lda. Bu fikrdan qay-tganingiz yo'qmi?

– Menda hech qanday istak, xohish yo'q, graf, shu erda kutsam yaxshi bo'lur edi.

– Bunisi yana yaxshi, Maksimilian, chunki o'sha so'zin-gizga ishonib sizni bu erga tashlab ketyapman, esingiz-dami?

– Esimdan chiqarib qo'yishim mumkin, graf, – dedi Mor-rel.

– Yo‘q, siz uni unutmaysiz, chunki vijdonli, or-nomusli kishisiz, chunki, ikki karra ont ichgansiz, Morrel.

– Graf, shafqat qiling menga! Men baxtsizga!

– Men sizdan ham battarroq baxtsizlikka duchor bo‘lgan kishini ko‘rganman.

– Gapingizga ishonmayman.

– Odamzoddagi eng achinarli odat bu – mag‘rurlanish, – dedi Monte-Kristo. – Har kim yonginasida qon yig‘layotgan baxtsizlardan o‘zini ko‘proq baxtsizman, deb hisoblaydi.

– Dunyoda muhabbat va orzudan judo bo‘lishdek og‘ir baxtsizlik bormikin?

– Menga qarang, Morrel, – dedi Monte-Kristo, – mening gaplarimga diqqat bilan quloq soling. Menga tanish bir kishi sizga o‘xshab hayot kechirib kelardi, butun fikri yodi yolg‘izgina sevgilisida edi, butun hayotini o‘sha sevgilisiga tikkan edi. Yigit yosh bo‘lib, munkillab qolgan bir kek-sa otasi ham bor edi. U otasi bilan bo‘lajak qaylig‘ini bir-biridan kam sevmasdi, chunonchi, yaqinda to‘y bo‘lishi kerak edi. Agar Xudo dunyodagi hamma narsa o‘zining yagona irodasiga xizmat qilajagini oxir-oqibatda bizga ayon etmasa, dilimizda uning marhamatlariga nisbatan shubha o‘z-o‘zidan paydo bo‘la boshlaydi-da, to‘satdan falokat yuz beradi. Ana shunday falokatlardan biri ro‘y berdi-yu, yigit baxtsizlikka uchradi, taqdir uni erkidan, sevgilisidan, porloq bo‘lishiga qattiq inongan kelajagidan (sho‘rlik, dunyoga qarashda burnining tagidan narini ko‘rmasdi) judo bo‘ldi-yu, zindonga tushdi.

– 3indondan uzog‘i bilan bir haftada, bir oyda, bir yilda chiqib kelishadi, – dedi Morrel.

– U zindonda o‘n to‘rt yil yotdi, Morrel, o‘n to‘rt yil-a, – dedi graf Maksimilianning elkasiga qo‘lini qo‘yib.

Maksimilian seskanib ketdi.

– O‘n to‘rt yil! – pichirladi u.

– O‘n to‘rt yil, – takrorladi graf. – Ana shu uzoq yillar mobaynida uning ham sizga o‘xshab bir necha bor jonidan to‘ygan vaqtlari bo‘lgandi, u ham, Maksimilian,

siz singari, o'zini dunyoda eng baxtsiz odam, deb hisoblab, o'z joniga o'zi qasd qilmoqchi bo'ldi.

– Xo'sh, so'ng nima bo'ldi? – so'radi Morrel.

– Oxirgi daqiqada Parvardigorning o'zi unga madad berib, oldiga xaloskor bir avliyo yubordi, dastlabki vaqtlarda u Xudoning bu muruvvatini anglamadi shekilli (behisob yosh to'kib, tuman bosgan ko'zlar yana charog'on bo'lishi uchun vaqt kerak-da), shunga qaramay, u sabrtoqat bilan kutishga qaror qildi. Kunlardan bir kuni mo'jiza ro'y berdi-yu, u o'lim girdobidan butunlay o'zgacha qiyofada, badavlat, baquvvat, yarim inson, yarim Xudo shaklida chiqdi, u shu zahoti otasi huzuriga chopdi, otasi esa dunyodan o'tgan edi.

– Mening otam ham dunyodan o'tdi, – dedi Morrel.

– To'g'ri, ammo sizning otangiz o'z qo'lingizda jon berdi; buning ustiga u dunyodan oshini oshab, yoshini yashab o'tdi, uning otasi esa ochlik, qashshoqlik azobini torta-torta dunyodan o'tdi. O'n yil o'tgach, o'g'li uning qabrini ham topolmadi, qabri ham yo'qolib, tekislanib ketibdi, endi hech zot unga: mana, seni cheksiz sevgan qalb mana shu erda abadiy orom olib yotibdi, deya olmaydi.

– Yo, alhazar! – dedi Morrel.

– Hatto otasining qabrini ham topolmagan ekan, demak, u sizdan ko'ra ko'proq baxtsiz ekan-da.

– Biroq u sevgan ayolidan ajralmabdi-ku harholda, – dedi Morrel.

– Aslo unday emas, Morrel, u ayol...

– O'libdimi? – xitob qildi Maksimilian.

– Undan ham yomon, bevafoqlik qilib, uning dushmanlaridan biriga erga tegib oldi. Mana, ko'rib turibsizki, u odam ishq-muhabbat borasida ham sizdan ko'proq muhsibatlariga giriftor bo'lgan ekan!

– Tangrim so'ng uni qo'llab yubordimi? – so'radi Morrel.

– U yigitga orom bag'ishladi.

– Demak, u odam yana baxtiyor bo'lishi mumkin ekan-

da?

– Ha, u shuni umid qiladi, Maksimilian.

Morrel indamay boshini quyi soldi.

– Men soʻzimda turaman, – dedi u Monte-Kristoga qoʻlini uzatib, – ammo unutmang.

– Beshinchi oktyabrda men sizni Monte-Kristo orolida kutaman. Toʻrtinchida sizni Bastida «Evro» kemasi kutib turadi, kapitanga ismingizni aytasiz, u sizni mening huzurimga olib borib qoʻyadi. Kelishdikmi, Maksimilian?

– Kelishdik, graf, gap bitta, soʻzimda turaman, ammo beshinchi oktyabrni unutmang...

– Juda gʻoʻrsiz-da, Morrel, kattalarning vaʼdasi jiddiy ekanligini hamon tushunmabsiz... Men sizga yigirma marta takrorladimki, hamon oʻlimni qoʻmsab yurgan boʻlsangiz, men oʻshanda sizga yordam beraman deb. Xayr.

– Meni tashlab ketyapsizmi?

– Ha, Italiyada bir qancha ishlarim bor, sizni oʻz qaygʻu-alamlaringiz bilan yolgʻiz qoldirib ketaman. Qanotlari ulkan burgut bilan tanho qoldirib ketaman, bu burgutni Xudo huzuriga olib keltirish uchun oʻz muhiblarini yuboradi. Ha, Ganimet afsonasining oʻzginasi bu, Maksimilian, afsona emas-u, shunchaki tashbeh.

– Qachon joʻnaysiz?

– Hozir meni kema kutib turibdi, bir soatdan soʻng juda uzoqda boʻlaman, meni bandargohgacha kuzatib qoʻyasizmi?

– Men butunlay sizning ixtiyoringizdaman, graf.

– Bir quchoqlab oling meni.

Morrel grafni bandargohgacha kuzatib qoʻydi. Qop-qora trubadan osmonga burqirab tutun koʻtarilayotgan edi. Koʻp oʻtmay kema joʻnadi; Monte-Kristo aytganidek, bir soat oʻtgach, kema ufqda faqat oppoq tutun qoldirib, koʻzdan gʻoyib boʻldi.

## XVII. PEPPINO

Grafning kemasi Morjion burunidan o'tib, ko'zdan uzoqlashganda pochta izvoshida Florensiyadan Rimga ketayotgan sayohatchi endigina kichkina Akvapendente shahridan o'tgandi. U hech shubhaga yo'l qo'ymay, uchib borardi.

Sayohatchi kamzul, to'g'rirog'i, palto kiyib olgan, palto ancha eskirib qolgan bo'lsa-da, yangi Faxriy legion tasmasi yaltirab turardi. Bu tasma kostyumiga taqilgan edi. Shu libosi va izvoshchiga qarata aytayotgan so'zlari bu zotning fransuz ekanidan darak berib turardi. Italyanchadan faqat musiqada ishlatiladigan so'zlarnigina bildi, xolos. Bu ham uning hammabop til mamlakatida tug'ilganini ko'rsatib turardi.

– Allegro! – derdi u izvoshchiga har gal tepalikka chiqishda.

– Moderato – derdi u har gal pastlikka tushishda.

Akvapendededan borilganda Florensiya bilan Rim o'rtasidagi tepa va jarlarning son-sanog'i yo'q edi.

Kezi kelganda shuni ham aytish kerakki, haligi ikkala so'zni eshitib kishilar kulib qo'yishardi.

Mangu shahar bo'sag'asi, ya'ni Rim yaqqol ko'rinib turadigan Startoga etganda sayyoh avliyo Pyotr gumbazini ko'rishga oshiqib izvoshda tik turib oladigan xorijiyilarga o'xshab, hayajonga tushmadi. Bu gumbaz Rimga yaqinlashganda aniq ko'rinib turadi.

U cho'ntagidan hamyonini oldi-da, undan to'rt buklangan qog'ozni chiqarib, asta ochib qaradi, so'ng yana boyagidek buklab:

– Bu erda ekan, juda soz, – deb qo'ya qoldi.

Izvosh del Popola darvozasidan o'tib, chapga burildi va «London» mehmonxonasi oldida to'xtadi.

Eskidan bizga tanish maestro Pastrini shlyapasini qo'lga olib sayohatchini eshik oldida kutib oldi.

Sayohatchi izvoshdan tushib, mazali ovqat buyurdi, so'ngra Tomson va French bankirlar xonadonining manzilini so'radi. Manzilni darhol aytib berdilar, chunki bu Rimdagi mashhur bankirlar edi.

Bu xonadan avliyo Pyotr ibodatxonasi yaqinidagi Bank ko'chasiga joylashgan edi.

Hamma yozda bo'lganidek, Rimda ham chetdan kelgan pochta izvoshi hammaning diqqatini o'ziga tortadi. Mariya va Grakxovning bir necha yosh tirsagi yirtiq merosxo'rlari g'urur-la bir qo'lini beliga, ikkinchi qo'lini boshiga tirab sayohatchini, izvoshni va otlarni sinchiklab ko'zdan kechirishardi, Mangu shaharning ko'cha daydilari bu yosh fuqarolarga avliyo Angel ko'prigidan Tibr daryosiga tuf deganda suv betida hosil bo'ladigan doirani tomosha qiladigan elliktacha bekorchi anqovlar ham qo'shildi.

Rim ko'cha bolalari va anqovlari Parijdagilarga nisbatan tolei balandroq bo'lib, hamma tillarni, ayniqsa fransuz tilini yaxshi tushunishadi, shuning uchun sayyoh mehmonxonadan joy so'raganini, ovqat buyurganini va pirovardida, bankir Tomson va French xonadonining manzili so'rab olganini eshitishdi.

So'ngra sayohatchi yo'l ko'rsatuvchi bilan mehmonxonadan chiqqanida, haligi tomoshabinlar orasidan bir kishi ajralib chiqdi-da, sayohatchiga va uning yo'ldoshiga bildirmay, ular ketidan bir necha qadam orqada mo'hir Parij ayg'oqchisiga monand ustalik bilan kuzatib boraverdi.

Fransuz bankir Tomson va French xonadoniga juda shoshilib borayotganidan izvoshga otlarni qo'shib bo'lishlarini kutib o'tirmay, orqadan etib borishni buyurib, yayov ketaverdi.

Izvosh unga yo'lda etib bormadi.

Fransuz bankka kirib ketdi, yo'ldoshi esa yo'lkada qolib, kasb-kori noma'lum bir necha kishi bilan darhol gap sota ketdi, bu odamlar to'g'ri kelgan ish bilan shug'ullanib, Rimda esa hamma vaqt banklar, cherkovlar, chaldivorlar, muzeylar va teatrlar oldida daydib yurishardi.

Bankka fransuz bilan bir vaqtda boya tomoshabinlar orasidan ajralib chiqqan kishi ham kirdi, fransuz idora eshigidan qo'ng'iroq urdi-da, birinchi xonaga o'tdi, unga

boyagi kishi ham ergashdi.

– Tomson va French janoblari huzuriga kelgandim, u kishi o'zlaridami? – so'radi sayyoh.

Kerilib o'tirgan xodimning imosi bilan bir xizmatchi kelib so'radi:

– Xo'jayinga kim keldi, deb aytayin?

– Baron Danglar, – dedi sayyoh.

– Xo'p bo'ladi.

Eshik ochildi, xizmatchi bilan baron kirib ketishdi.

Danglarning ketidan kirgan odam kutuvchilar o'rindig'iga o'tirdi.

Xodim besh daqiqacha yozuv-chizuvini davom ettirdi. Shu besh daqiga ichida o'rindiqda o'tirgan kishi qimir etmay jim o'tirdi.

Oxiri xodim yozuvini to'xtatdi, boshini ko'tarib, tevarakni diqqat bilan ko'zdan kechirdi, o'zlaridan bo'lak hech kim yo'qligiga ishonchi komil bo'lgach:

– Ie-ie, Peppino, senmisan? – dedi.

– Ha, – dedi lo'nda qilib Peppino.

– Bu xo'ppasemizdan biror naf chiqadi, deb o'ylaysanmi?

– Bu gal bizning xizmatimiz yo'q bunda, bizni boshqalar ogohlantirdi.

– U bu erga nimaga kelganini bilarkansan-da, shundaymi?

– Bo'lmasam-chi! U pulga keldi, faqat qancha olishini bilsak, bas.

– Hozir bilasan, og'ayni, hozir.

– Juda soz, faqat, iltimos, o'tgan galgidek, yolg'on gapirma!

– Qaysisini aytyapsan? Uch ming skudo olgan inglizni mi?

– Yo'q, inglizning yonida rostdanam uch ming skudo bor ekan, topib oldik. Men anavi rus knyazini aytyapman.

– Xo'sh, nima bo'пти?

– Nima bo'пти emish! Sen o'ttiz ming livr oldi degan eding, biz tintiganda atigi yigirma ikki ming chiqdi-yu.



– Yaxshi tintimabsizlar-da.  
– Luidji Vampaning o‘zi tintidi uni.  
– Demak, qolganini yo qarziga to‘lagan, yo...  
– Rus knyazi-ya?  
– ...yoki sarflab yuborgan bo‘lishi mumkin.  
– Ehtimol.  
– Hoynahoy shunday qilgan, qani, men kuzatuv punk-tiga chiqay-chi, fransuz ishini bitirib qo‘ysa, summani aniq bilolmay qolaman.

Peppino boshini qimirlatdi; so‘ng cho‘ntagidan tasbe-hini oldi-da, allaqanday duolarni o‘qiy boshladi, xodim boya xizmatchi bilan baron kirib ketgan eshikdan o‘tib, g‘oyib bo‘ldi.

O‘n daqiqa o‘tar-o‘tmas xodim o‘zida yo‘q quvonib chiqdi.

– Xo‘sh? – so‘radi Peppino.  
– Alerte! Alerte!<sup>21</sup> – dedi xodim, – summa juda ulgurji!  
– Besh-olti millionga boradimi?  
– Ha, borib qoladi, sen bilarmiding?  
– Janobi oliy graf Monte-Kristoning tilxati bilandir-da?  
– Sen hali grafni taniysanmi?  
– Rimga, Venesiyaga va Venaga kredit berganmi?  
– Xuddi shunday! – dedi xitob qilib xodim. – Sen bu-larni qayoqdan bilib olding!  
– Hali senga, bizni burunroq ogohlantirib qo‘yishgan edi, dedim-ku.  
– Unday bo‘lsa, nega mendan so‘rab yuribsan?  
– Bu xuddi o‘sha odam ekanligini aniqlab olish uchun so‘radim.  
– O‘shaning o‘zi... Besh million... Hazilakam pul emas-a, to‘g‘rimi, Peppino?  
– Ha, hazilakam pul emas.  
– O‘la-o‘lgunimizcha sen bilan menda bunaqa pul bo‘lmas!  
– Har qalay, – dedi faylasuflarcha ohangda Peppino, – bizga ham uncha-muncha tegib qolar.  
– Jim! U kelyapti.

Xodim ruchkasini, Peppino esa tasbehini qo'liga oldi, eshik ochilishi bilan biri yozishga, ikkinchisi duo o'qishga tushdi.

Ichkaridan og'zi qulog'ida Danglar va uni kuzatib qo'yayotgan bankir chiqdi.

Danglar ketidan Peppino ham zinadan pastga yo'l oldi.

Maslahatga muvofiq bankir Tomson va French uyining eshigi oldida izvosh kutib turardi. Xizmatni juda joyiga qo'yadigan chicherone<sup>22</sup> izvosh eshigini lang ochdi.

Danglar yosh yigitdek irg'ib izvoshga chiqdi. Chicherone eshikni bekitdi-da, izvoshchining yoniga o'tirdi.

Peppino orqaga joylashib oldi.

– Janoblari avliyo Pyotr ibodatxonasini ziyorat qilishni istarlar? – so'radi yo'ldosh.

– Nima uchun? – so'radi baron.

– Shunchaki ko'rib chiqardilar-da.

– Men Rimga ko'rmoq uchun emas, olmoq uchun keldim, – dedi javoban Danglar ochko'zlarcha jilmayib, so'ng hozirgina akkreditivlarni solib qo'ygan hamyonini ushlab qo'ydi.

– U holda janob oliylari qayoqqa yo'l oladilar?

– Mehmonxonaga.

– Pastrini mehmonxonasiga, – dedi yo'ldosh izvoshchiga.

Izvosh uchib ketdi.

O'n daqiqa ichida baron mehmonxonaga etib, nome-riga kirdi, Peppino esa, mehmonxonaga kiraverishdagi o'rindiqqa o'tirdi-da, hali biz tilga olgan Mariya va Graxov avlodlaridan biriga nimalarnidir shivirladi. Ulardan biri Kapitoliy yo'lidan g'izillab ketdi.

Danglar juda horigan, mamnun edi, uni uyqu bosdi, hamyonini yostiq tagiga tiqdi-da, to'shakka yotib, uyquga ketdi.

Peppinning shoshilishiga hech hojat yo'q edi, u hammol bilan «morra» o'ynardi; u uch skudo yutqizdi va o'zini yupatish uchun bir shisha vino ichib yubordi.

Danglar erta yotgan bo'lsa-da, uyqudan juda kech tur-

di, olti kundan buyon u miriqib uxlamagan edi.

Danglar to'yib nonushta qildi-da, Mangu shaharning husnu jamolini tomosha qilishga unchalik hushi yo'qligini yana bir karra izhor etib, tushda pochta izvoshi taxt etilsin, deb buyurdi.

Biroq Danglar polisiya xodimlarining injiqligini va stansiya nazoratchisining erinchoqligini hisobga olmagani edi; shu vajdan izvoshni faqat kunduz soat ikkida yuborishdi, chicherone esa ruxsat etilgan yozuvli pasportni soat uchda keltirdi.

Cho'zilib ketgan tayyorgarlik ishlari vaqtida maestro Pastrini eshigi oldiga bir necha bekorchilar to'planib qoldi. Mariya va Grakxov avlodlari ham bu erda anchagina edi.

Choychaqa olish niyatida «janob oliylari» deb qo'l qovushtirib turgan olomon orasidan Danglar gerdayib o'tdi.

Ma'lumki, Danglar o'ta demokratchi bo'lib, shu vaqtgacha baron unvoni bilan qanoatlanib, hech mahal hech kimdan «janob oliylari» degan nomni eshitmagan edi, mana hozir uni shunday nom bilan ulug'lashyapti, u juda erib ketib, yalangoyoqlarning hammasiga o'n tangadan «sadaqa» berdi.

– Qaysi yo'ldan ketamiz? – so'radi izvoshchi italyanchalab.

– Ankonu tomondan, – dedi baron.

Pastrini savolni ham, javobni ham tarjima qilib berdi, otlar yo'rtib ketdi.

Danglar Venesiyaga borib, pulining bir qismini, so'ngra Venaga o'tib, u erda qolganini olmoqchi bo'lgan edi. U shu shaharda yaxshigina o'rnashib olib, aysh-ishrat surish niyatida edi.

U Rim sahrosidan uch le o'tar-o'tmas qorong'i tusha boshladi, Danglar bunchalik kech yo'lga chiqaman, deb sira o'ylamagandi, bunday bo'lishini bilganda u mehmonxonada bugun ham yotib qolgan bo'lardi. Izvoshchidan shaharga hali uzoqmi, deb so'radi.

– Non capisco!<sup>23</sup> – dedi izvoshchi.

Danglar «juda soz» degandek boshini silkitib qo'ydi. Izvosh yo'lida davom etdi.

«Birinchi stansiyadayoq yotib qolaman», – dedi ichida Danglar.

Danglar hamon kechagidek vaqti chog', buning ustita u juda miriqib uxlab olgandi. U qo'sh prujinali ingliz izvoshining yumshoq parqulariga yalpayib o'tirib oldi; ikki gijing ot qo'shilgan izvoshda ketyapti, yaqindagi stansiyaga atigi etti le qolganligini u yaxshi bilardi. Kechagina sinib sharmanda bo'lgan, ammo «suvdan quruq» chiqib kelayotgan bankirning o'y-xayolini nima band qilgan bo'lishi mumkin?

Danglar o'n daqiqacha Parijda qolgan xotini haqida o'yladi, yana o'n daqiqa mademuazel d'Armili bilan jahongashta bo'lib yurgan qizini xayolidan o'tkazdi, so'ng yana o'n daqiqani qarzdorlariga va ularning pullaridan qanday qilib yaxshigina foydalanib qolish rejalariga bag'ishladi, oxiri, boshqa o'ylaydigan narsasi qolmagach, ko'zlarini yumib, uyquga ketdi.

To'g'ri, ba'zida, xususan izvosh qattiqroq silkitib yuborganida Danglar bir zum ko'zini ochib qo'yardi, har gal u izvosh Rim sahrosidan uchib borayotganini ko'rib, mamnun bo'lar, ko'ngli tinchirdi. Atrofdan chopib borayotgan toshga aylanib qolgan ulkan odamlarni eslatuvchi osmono'par quvurlarning xarobalari sochilib yotardi. Tun esa nihoyatda sovuq, qorong'i, rutubatli edi. Bunday paytlarda «Non capisco!» degan so'zdan boshqa hech nima deya olmaydigan izvoshchidan, stansiyaga qachon kelamiz, deb so'rab o'tirishdan ko'ra, burchakda huzur qilib mizg'igan yaxshi.

Danglar shu o'ylar og'ushida pochta stansiyasiga etguncha orom olganim durust, uyg'onish qochmas, deb yana ko'zini yumardi.

Izvosh to'xtadi, Danglar ko'zlagan manzilmga esonomon etib oldim, deb o'yladi-da, ko'zini ochib, biror shaharga yoki qishloqqa keldik, shekilli, degan xayolda

darcha oynasidan tashqariga qaradi. Biroq yakkayu yagona kulba, uning atrofida uch-to'rt kishining ko'lan-kasi ko'rindi.

Endi izvoshchi kelib haq so'rar, deb kutdi Danglar, izvoshchi almashganda yangisidan so'rab olarman deb indamay turaverdi; biroq otlarni almashtirdilar-u, hech kim kira haqini so'ragani kelmadi. Taajjublanib qolgan Danglar eshikni ochdi, ammo allakimning kuchli qo'li eshikni taraqlatib bekitib qo'ydi. Izvosh olg'a ketdi.

Hang-mang bo'lib qolgan bankirning uyqusi batamom o'chdi.

– Hoy! – dedi qichqirib u izvoshchiga. – Hoy! Mio caro!<sup>24</sup>

Bu italyancha so'zlarni Danglar qizi knyaz Kavalkanti bilan qo'shiq aytganda eslab qolgan edi.

Biroq mio caro g'iq etmadi.

Danglar darchani ochdi.

– Hoy, og'ayni! Qayoqqa boryapmiz o'zi? – dedi u boshini chiqarib.

– Dentro la testa! – dedi qichqirib amirona ohangda kimdir.

Dentro la testa – kallangni tort, degani ekanini Danglar tushundi. Ana, ko'rdingizmi, u italyan tilini yaxshigina o'rganibdi.

U bir oz tashvishlanib bo'lsa-da, itoat etishga majbur bo'ldi, ammo tashvishi tobora kuchayib borardi, ko'p o'tmay uning safar boshidayoq qovoq bo'lib qolgan va endilikda mudroq bosa boshlagan bo'm-bo'sh miyasida allaqanday fikrlar paydo bo'ldi. Atrofda yuz berayotgan hodisalar diqqatini tortib, ko'zini moshday ochdi, so'ngra vahima bosib, hamma narsa unga baloga o'xshab ko'rina boshladi. 3im-ziyo qorong'ilik qo'ynida uning ko'zlari dastlabki kuchli ruhiy hayajondan chaq nab ketdi, keyin bu og'ir tazyiqqa bardosh berolmay xiralasha boshladi. Qo'rqqanga qo'sha ko'rinar, deganlaridek, qo'rquv oldidan juda yaqqol ko'ringan narsa qo'rquvdan keyin xiralashib, ko'rinmay qoladi.

O'ng tomonda yomg'irpo'shga burkanib olgan bir kim-

sa ot yo'rttirib boryapti: «Bu jandarma bo'lsa kerak, – dedi ichida Danglar. – Fransuz polisiyasi men haqimda Italiya hukumatiga xabar qildimikin, a?»

U bu noaniqlikka barham berishga ahd qildi.

– Qayoqqa olib boryapsiz meni? – so'radi u.

– Dentro la testa – dedi yana do'q urib boyagi ovoz.

Danglar chap tomondagi darchaga qaradi. Chap tomonda ham otlq yo'rtib borayotgandi.

– Qo'lga tushibman-da, – dedi seskanib Danglar.

Danglar endi mizg'ish uchun emas, o'ylab, o'yining tagiga etish uchun izvosh to'riga chalqancha tushib oldi.

Bir oz o'tgach, oy ko'rindi.

Danglar izvosh to'ridan sahroga ko'z tashladi, yana o'sha osmono'par quvurlar, tosh arvohtar... biroq endi ular o'ng tomonda emas, chap tomonda edi.

Izvosh orqaga qaytib, yana Rimga yo'l olgandi. Buni bankir fahmladi.

– Halok bo'ldim! – dedi pichirlab Danglar. – Ular meni tutib berishyapti.

Izvosh jadallik bilan borardi. Dilgirlikda bir soat o'tdi; qochoqning ko'ziga ko'ringan har bir narsa uni orqaga qaytib olib ketishayotganini tasdiqlardi. Oldinda allaqanday baland qora narsa ko'rindi, Danglar izvosh unga borib uriladi, deb qo'rqib ketdi. Biroq otlar burilib, haligi qoraning yonidan o'tib ketdi; bu Rimni o'rab olgan qo'rg'on devori edi.

– Nima gap o'zi? – dedi g'o'ldirab Danglar, – nega shaharga kirmayapmiz, demak, meni hibsga olgan polisiya emas ekan-da. Yo, alhazar! Nahotki...

Uning sochlari tikka bo'lib ketdi. Shu payt u parijliklar ishonmagan Rim qaroqchilari haqidagi hikoyalarni esladi, Alber de Morser bu hikoyalar bilan Danglar xonimni va Ejenini hayratda qoldirganini xotirladi, o'sha vaqtda Alber kuyov bo'lishi kerak edi.

«Rostdanam qaroqchilarning qo'lga tushdimmi-a!» – dedi ichida u.

Birdan izvosh qattiq narsaga urildi. Danglar o'zini qo'lga

oldi-da, kallasini chiqarib qaradi. U Alber tasvirlab bergan Appievo yo'lida ekanligini fahmladi.

Chapda, pastlikda, aylana chuqurlik ko'rindi.

Bu Karakalla sirki edi.

O'ng tomonda kelayotgan kishining buyrug'i bilan izvosh to'xtadi, chap tomondagi eshik ochildi.

– Scendi!<sup>25</sup> – buyruq qildi qandaydir ovoz.

Danglar darhol izvoshdan tushdi, u hali italyancha gapira olmasa-da, hamma so'zlarga tushunib qolgan edi.

O'takasi yorilgan baron atrofga olazarak nazar tashladi.

Izvoshchidan bo'lak yana to'rt kishi uni qurshab olgan edi.

– Die qia<sup>26</sup> – dedi Appieva yo'lga o'tadigan so'qmoq yo'ldan tushayotgan to'rt kishidan biri.

Danglar oldinda borayotgan kishiga itoatkorona ergashdi, qolgan uchtasi izma-iz orqada kelayotganini sezib, orqasiga qaramadi.

Shu zaylda o'n daqiqacha yurib (shu vaqt ichida Danglar churq etmadi) kichik tepalik bilan o'siq changalzor o'rtasida to'xtashdi. Indamay kelayotgan uch kishi uch burchak bo'lib Danglarni o'rtaga oldi.

Danglar gapirmoqchi bo'lsa-da, tili kalimaga kelmasdi.

– Avanti!<sup>27</sup> – dedi boyagi dahshatli ovoz.

Bu gal Danglar buyruq berayotgan zotning o'zidan ustunligiga to'la ishonch hosil qildi, chunki so'z amaliy ish bilan tasdiqlandi, orqasidan kelayotgan kishi uni qattiq itarib yubordi, Danglar yo'l boshlovchining ustiga yiqilib tushishiga oz qoldi.

Oldinda borayotgan bizning og'aynimiz Peppino edi, u o'ydin-chuqur so'qmoqdan bo'ydor butalarni yurib, dadil qadam tashlardi; u qalin butalar o'rab yotgan tepalik oldida to'xtadi-da, tepani yurib turgan chuqurlikka sirg'alib tushib ketdi.

Orqasidan kelayotgan kishining amri bilan Danglar ham Peppino ketidan chuqurga tushishga majbur edi. Hech

shubha qolgani yo'q; Parij bankiri Rim qaroqchilarining qo'liga tushgan edi.

Kayfi uchib ketgan Danglar noiloj ko'zini yumib, yum-yumaloq qornini zo'rg'a teshikka tiqdi-da, g'orga tushdi, keyin o'rnidan turib, ko'zini ochdi.

Yo'lka keng, ammo qop-qorong'i edi, o'z kulbasida bekinmay qo'ygan Peppino jinchiroqni yoqdi.

Danglarning ketidan yana ikki kishi tushdi va uni to'xtatmay, orqasidan turtib-surtib, qo'rqinchli muyulishga olib borishdi. Ustma-ust qabrlar uyib tashlangan oppoq devorlar xuddi kalla chanog'iga o'xshab, qo'rqinchli tikilib turardi.

G'oz turgan soqchi miltig'ini o'qtalib:

– Kim u kelayotgan? – dedi.

– O'zimiznikilar! – dedi Peppino. – Ataman qayoqda?

– Huv anavi yoqda, – dedi soqchi g'orning to'ridagi zalni ko'rsatib, undagi chiroqning shu'lasini teshikdan o'tib dahlizni yoritib turardi.

– Ajoyib o'lja keltirdik, ataman, – dedi italyan tilida Peppino, so'ng Danglarni yoqasidan tutib, zalga kiradigan eshik oldiga olib bordi. Zal atamanning yotoqxonasi-ga o'xshardi.

– Bu o'sha odamning o'zimi? – so'radi ataman Aleksandrning Plutarx tomonidan tuzilgan sarguzashtnomasidan ko'zini uzmay.

– Xuddi o'zi, ataman.

– Juda soz, qani ko'rsat-chi uni menga.

Peppino dag'allik bilan aytilgan buyruqni bajo keltirib, Danglarning yuziga yaqinlatib chiroq tutdi, bankir qoshlari kuyishidan qo'rqib o'zini orqaga tortdi.

Dokaday oppoq yuzi qo'rquvdan jirkanchli tusga kirgan edi.

– Bu charchabdi, – dedi ataman, – to'shakka olib boring buni.

– Bu to'shak g'orda o'yib qo'yilgan go'rnig o'zidir-da, – dedi pichirlab Danglar, – demak, anavilarning bir xanjari bilan abadiy ko'z yumarkanman-da.



Haqiqatan ham Alber de Morser kelganda «Uezarning xotiralari»ni, Danglar kelganda Aleksandrning sarguzash-tnomasini o'qib o'tirgan zotning zal to'rida quruq xashak va bo'ri terisida o'tirgan jo'ralari boshlarini ko'tarib qo'yishgan edi.

Bankir yig'lab yo'l boshlovchi ketidan bordi, u qichqirmadi, rahm-shafqat ham tilamadi, butunlay holdan toygan, irodasidan mahrum bo'lgandi; hech nimani istamas, hech nimani his etmasdi, majburan qadam tashlardi.

U qoqilib ketdi, oldinda zina borligini fahmlab, beixtiyor bo'ynini egdi, oyoq ostida oddiy o'ra paydo bo'ldi.

O'ra pokiza va ancha chuqur bo'lishiga qaramay, quruq edi. Bir burchakda quruq poxol ustiga po'stak solib qo'yilgandi. Danglar bu to'shakni qutulish, ozodlik timsoli deb o'yladi.

– Xudoga shukr! – dedi u pichirlab. – Bu rosmana to'shak-ku!

O'n yil mobaynida bir marta ham Xudoni tilga olmagani bankir mana endi bir soat ichida ikki marta Xudodan madad tiladi.

– Ezzo!<sup>28</sup> – dedi kuzatuvchi va Danglarni o'rtaga itarib yubordi-da, eshikni bekitdi.

3ulfin shaqilladi; Danglar asir tushgan edi.

3ulfin bo'lmay eshik lang ochiq turgandayam San-Sebastian katakombasini egallab olgan va o'z sarkardasi (kitobxon bu mashhur Luidji Vampa ekanligini darrov fahmlagan bo'lsa kerak) atrofida davra qurib o'tirgan garnizonga chap berib, g'ordan qochib chiqish uchun muqaddas Pyotrning o'zi bo'lmoq va Xudoning farishtasini hamroh qilib olmoq kerak, busiz qochib chiqishni xayolga keltirishning o'ziyam tentaklik bo'lur edi.

Danglar ham bu qaroqchi Luidji ekanligini bildi, holbuki, Parijda Alber hammaga uning vajohatini, xatti-harakatlarini tanishtirmoqchi bo'lganida bankir ishonmagandi. Danglar endi Vampanigina emas, Morser qamalgan va aftidan, faqat xorijiy mehmonlarga atalgan kulba-

ni ham ko'rdi.

Shu xayollar, xotiralar og'ushida Danglarning ko'ngli bir oz tinchidi. Qaroqchilar darrov o'ldirmagan ekan, demak, umuman o'ldirish niyatida bo'lmasalar kerak. Uni faqat pulini tortib olish uchun tutib olganlar; ammo cho'ntagida bir necha oltin so'lkavoydan boshqa hech vaqosi yo'q, shu vajdan ular bankir uchun katta pul talab qiladilar.

Morserga to'rt ming ekyu talab qilganlarini esladi bankir; «Men Morserga qaraganda ancha salobatli ko'ringanim vajidan, qaroqchilar men uchun sakkiz ming ekyu so'rashsa kerak», – deb o'yladi u.

Sakkiz ming ekyu qirq sakkiz ming livr demakdir. Bankirning esa besh million ellik ming frank aqchasi bor. Bunaqa pul bilan har qanday og'ir ahvoldan qutulib ketishi mumkin.

Xullas, Danglar hech shubhasiz qutulib chiqishiga ishongan holda («Bir odam uchun besh million ellik ming frank talab qilish tarixda bo'lmagan-ku!») to'shagiga yaxshilab yotib oldi-da, hali Vampa sarguzashtini o'rganayotgan qahramon Aleksandr kabi xotirjam uyquga ketdi.

## **XVIII. LUIDJI VAMPANING PREYSKURANTI**

Ma'lumki, har qanday uyquning ketidan uyg'onish bor (Danglar qo'rqqan abadiy ko'z yumish bundan mustasno, albatta).

Danglar uyg'ondi.

Shoyi pardalarga, yumshoq mato yopishtirilgan devorlarga, pechlarda chars-chars etib turgan archa o'tinlarning xushbo'y hidiga odatlangan Parij oqsuyagi uyg'onib, o'zini g'orda ekanligini ko'rish nihoyatda ko'ngilsiz bo'lgandir, albatta.

Danglar po'stakni ushlab ko'rib, tushimda odamxo'rlar yoki laplandslar qo'liga tushgan ekanman-da, deb

o'yladi. Biroq bunday holatlarda shubhalar bir daqiqa-dayoq qat'iy ishonchga aylanib ketadi.

– «Ha, aytgancha, – dedi u esini yig'ib, – men o'sha Alber de Morser aytgan qaroqchilar asiriman».

Dashtlab u, biror erim jarohatlanmaganmikin, deb chiqur nafas oldi. Bu usulni u «Don-Kixot» da o'qigan edi. Uning umr bo'yi bittayu bitta o'qigan, o'qiganda ham chala-chulpa o'qigan va undan uch-to'rt joyini esida qoldirgan kitobi shu edi.

«Yo'q, – dedi o'ziga-o'zi, – ular meni o'ldirish u yoqda tursin, hatto yarador ham qilishmabdi. Balki ular mening aqchalarimni qoqishtirib olishgandir?»

U shoshilib cho'ntagini titkiladi. Pullari taxi buzilmay shundayligicha turgan edi. Rimdan Venesiyagacha yo'l xarajati uchun ajratib qo'ygan yuz luidor cholvorining cho'ntagida, besh million ellik ming frankli akkreditivlar solingan hamyoni esa kamzulining cho'ntagida turibdi.

«Bular juda g'alati qaroqchilar ekan-ku! – dedi u o'z-o'ziga. – Pullarimga qo'l tekkizishmabdi-ya! Ular men uchun katta aqcha talab qilishadi, deb kecha yotayotib to'g'ri o'ylagan ekanman. Iya, buni qarang-a, soatim ham joyida turibdi, qaray-chi, soat necha bo'ldi ekan».

Danglarning soati Bregetning nodir nusxalaridan edi, yo'lga chiqish arafasida juda maromiga etkazib burab qo'ygan edi. Soat besh yarmiga bong urdi. Boshqa yo'l bilan Danglar vaqtning qanchaligini bilolmasdi, chunki uning kulbasiga kunduzi yorug' tushmasdi. Shuncha vaqt o'tib biror kimsa biror so'z aytmadi unga.

Qaroqchilardan, nega bunday qilishayotganining sababini aytib berishni talab qilsammikin? Yoki o'zlari so'z boshlaguncha sabr qilsammikin? So'nggisi ma'qul tushdi unga, Danglar kutishga qaror qildi.

Chiroqning shu'lasini eshik taxtalari orasidagi yoriqdan ko'rinib turardi: u ana shu teshiklardan biriga borib qaradi, soqchi burdyukdan yasalgan aroq ichib o'tirgan edi, Danglar uni hididan bildi.

– Tuf! – dedi u kulbasining orqasiga tisarilib.

Tushda aroqxo'r o'rniga boshqa qaroqchi keldi. Danglar yana yangi soqchini ko'rishni xohlab qoldi, yana teshikdan qaradi.

Bu galgi soqchi devqomat, boyo'g'li ko'z, lablari qalin, kartoshka burun, beso'naqay kimsa edi, qalin malla sochlari ilon singari buralib elkasida osilib turardi. Xullas, u haqiqiy Goliaf edi.

«Bunisi odam emas, odamxo'r vahshiyning xuddi o'zi, – o'yladi Danglar, – xayriyatki, men juda qartayib, chandir bo'lib qolganman, go'shtimda maza-matra qolmagan bo'lsa kerak».

Mana, qarang, bu bankir hamon hazil-mutoyibaga qobil.

Shu payt soqchi, go'yo odamxo'r emasligini tasdiqlashga ahd qilgandek, sumkasidan bir burda qora non, bir nechta piyoz va picha pishloq olib, zo'r ishtaha bilan tanovul qila boshladi.

– Bu qanaqasi bo'ldi, – dedi Danglar teshikdan qaroqchining ovqatlanishini ko'rib. – Yo, Rabbim, shunaqa iflos narsalarni ham eyishadimi?

So'ng u po'stakka cho'kdi. Po'stakning hidi ilgarigi soqchi ichib ketgan aroqning hidiga o'xshab ketardi.

Ammo Danglar o'zini qanchalik tiymasini, tabiiy ehtiyoj o'z bilganini qiladi: ba'zan och qoringa eng bemaza narsa ham juda mazali bo'lib tuyuladi.

Danglar qorni ochqaganini birdan sezib qoldi, soqchi uning ko'ziga endi uncha badburush bo'lib ko'rinmas, non uncha qora, pishloq esa unchalik qotgan bo'lib tuyulmasdi; vahshiyilar eydigan hidlangan piyoz Danglarining esiga Roborning sharbatini va o'z uyidagi oshpazi Denizo tayyorlaydigan qaylasini eslatdi.

Bankir o'rnidan turib, eshikni qoqdi.

Soqchi boshini ko'tardi.

Danglar yana eshikni qoqdi.

– Che cosa?<sup>29</sup> – so'radi qaroqchi.

– Hoy og'ayni, menga qara, – dedi Danglar barmoqlari bilan eshikni taqqillatib, – menga ham g'amxo'rlik qiladi-

gan vaqt kelgan bo'lsa kerak!

Barzangi tushunmadi yoki bu haqda zarur topshiriq olmadi, shekilli, u Danglarning gaplariga e'tibor bermay, ovqatini eyaverdi.

Danglar o'zini haqoratlangan hisobladi-da, bu befarosat maxluqqa gap sotishni istamay, po'stakka cho'zildi.

Oradan yana to'rt soat o'tdi; barzangi qaroqchi o'rni-ga boshqasi keldi. O'lgudek och Danglar asta o'rnidan turib, yana eshik tirqishidan mo'raladi, bu galgi soqchi uni kuzatib olib kelgan Peppino edi.

Peppino navbatchilikni zerikmay o'tkazish niyatida bo'lsa kerak, eshik ro'parasida o'tirib oldi-da, yog'da bop-lab qovurilgan xushbo'y turk no'xati to'la ko'zachani oyoqlari orasiga qo'ydi, ko'za yonida uzum to'la savatcha va bir shisha vino bor edi: Peppinning ovqatga ishtahasi zo'rliigi ko'rinib turardi.

Ishtahani karnay qilib yuboradigan bu taomlarni ko'rib Danglarning so'lagi oqib ketdi.

«Qani, ko'raylik-chi, balki bunisi gapga ko'nar», – dedi o'ziga o'zi asir va eshikni asta taqqillatdi.

– Hozir, hozir, – dedi soqchi fransuz tilida.

U Pastrini mehmonxonasida fransuzcha so'zlashni o'rganib olgan edi.

Peppino kelib eshikni ochdi.

Danglar uni tanidi: izvoshdaligida «Kallangni tort!» deb baqirgan kishi shu edi. Biroq, hozir gina-kuduratning vaqti emas, aksincha, Danglar iljayib, muloyim ohangda:

– Uzr, janob, – dedi, – menga ham ovqat beradilarmi?

– Bo'lmasam-chi! – dedi Peppino. – Janob oliylari, nahotki och o'tirgan bo'lsalar?

– Tag'in «nahotki» deydi-ya! – dedi o'zicha Danglar. – Kechadan beri tuz totganim yo'g'u.

– Janobi oliylari ovqatlanmoqchimilar?

– Mumkin qadar tezroq.

– Bu iltimosingiz darhol bajo keltiriladi, – dedi Peppino.

– Bu erda istagan ovqat topiladi, pulga, albatta. Bu hamma muruvvatli xristianlar odati.

– Tekinga emasligi ma'lum, albatta, – dedi Danglar. – Aslini olganda, mahbusni qamoqqa olganlar boqadi, siz meni hibsga olgan ekansiz, boqishniyam gardaningizga olmog'ingiz lozim.

– Unday emas, janobi oliylari, unday emas, – dedi e'tiroz bildirib Peppino, – bizda bunday qoida yo'q.

– Bu asossiz bahona, qo'ying, tortishib o'tirmaylik, – dedi Danglar yumshoq so'z bilan soqchining ko'nglini olishga urinib, – keling, ayting, menga ovqat keltirishsin.

– Hozir, janobi oliylari, hozir, xo'sh, qanaqa ovqat keltirishsin?

Peppino shunday dedi-da, xumchasini shundoq Danglarning oyog'i ostiga qo'ydi, undan ko'tarilayotgan bug' «gup» etib bankirning dimog'iga urdi.

– Buyursinlar, – dedi Peppino.

– Hali bu erda oshxonalarining ham bormi? – so'radi bankir.

– Bo'lmasa-chi! Bor. Bo'lganda ham juda shohonasi bor!

– Oshpazlar ham bormi?

– Pazandalarning eng zo'rlari.

– Unday bo'lsa, qovurilgan jo'ja yoki qovurilgan baliq keltirishsin, bular bo'lmasa biror parranda go'shti, nima bo'lsa ham mayli.

– Nimani buyursalar, muhayyo etiladi, janobi oliylari, demak, qovurilgan jo'ja deng.

– Ha, jo'ja.

Peppino g'oz turdi-da, tovushining boricha qichqirdi:

– Janobi oliylariga darrov qovurilgan jo'ja keltirilsin.

Shu zahoti sarvqomad, chiroyli, beligacha yalang'och bola qovurilgan jo'ja solingan kumush likopchani boshiga qo'yib kirib keldi.

– Kafe-de-Paridagidan hech farqi yo'g'a, – dedi g'o'ng'il-lab Danglar.

– Marhamat, janobi oliylari, marhamat, – dedi Peppino va likopchani bolaning qo'lidan oldi-da, qurt-qumursqalar ilma-teshik qilib yuborgan stol ustiga qo'ydi. Bu kul-

baning jihozi ana shu stol, bitta taburetka va echki terisidan qilingan po'stakdan iborat edi.

– Marhamat, janobi oliylari, marhamat, – dedi Peppino kichik pichoq va yog'och sanchqi uzatib.

Danglar bir qo'liga pichoqni, ikkinchi qo'liga esa sanchqini olib jo'jani burdalamoqchi bo'ldi.

– UZR, uzr, janobi oliylari, – dedi Peppino bankirning elkasiga qo'lini qo'yib, – bu erda pulni oldin to'lanadi, balki, mehmonga ovqat yoqmay qolar.

«Mana bunisi Kafe-de-Paridagiga aslo o'xshamaydi, – o'yladi Danglar. – Meni hech so'zsiz boplab shilib olishadi. Mayli, xasislikni yig'ishtirib qo'yishga to'g'ri keladi. Men hamma vaqt Italiyada arzonchilik deb eshitib yurardim, jo'ja Rimda juda borsa o'n ikki su turar-da».

– Mana, oling, – dedi u Peppino tomonga oltin so'lkaovoyni irg'itib.

Peppino so'lkaovoyni erdan oldi. Danglar pichoqni jo'ja ustiga olib borgan edi, Peppino qaddini rostlab:

– Bir daqiqa sabr qilsinlar, janobi oliylari, – dedi, – hali hammasini to'laganlari yo'q menga.

– Ha, o'ylaganim to'g'ri chiqdi: meni boplab shilib olishadi bular, – dedi Danglar. Biroq u qarshilik qilmaslikka ahd qildi.

– Bu qoqsuyak jo'ja uchun yana qancha berishim kerak sizga? – so'radi u.

– Ovqat haqi hisobidan faqat bir luidor to'ladingiz, xolos.

– Bitta jo'ja hisobidan bir luidor?

– Xuddi shunday.

– Yaxshi... Xo'sh, qolgani qancha bo'ladi?

– Janobi oliylari menga yana to'rt ming to'qqiz yuz to'qson to'qqiz luidor to'lasalar bo'lgani.

Bu qo'pol hazilni eshitib Danglarning ko'zlari kosasidan chiqayozdi.

– Ana xolos, – dedi u, – ana xolos!

U yana jo'jaga qo'l uzatayotgan edi, Peppino uni chap qo'li bilan to'xtatdi-da, o'ng qo'lini baland ko'tarib kaftini

tutdi.

– Avval pulni to‘lasinlar, – dedi u.

– Bu nimasi? Hazillashyapsizmi? – dedi Danglar.

– Janobi oliylariga ma‘lum bo‘lsinki, bizning hazil-mutoyiba qiladigan odatimiz yo‘q, – dedi jiddiy ravishda e‘tiroz bildirib.

– Astag‘firullo, mana shu jo‘jaga yuz ming frank to‘lash kerakmi?

– Bu la‘nati g‘orlarda jo‘ja ochtirish naqadar qiyin, desam janobi oliylari ishonmaydilar-da.

– Bu gaplar juda kulgili, – dedi Danglar, – shubhasiz, juda qiziq. Biroq qornimni it timdalayapti, xalaqit bermang, ovqatimni eb olay, mana yana bir luidor sizga, do‘stim.

– Demak, sizda yana to‘rt ming to‘qqiz yuz to‘qson sak-kiz luidor qoldi, – dedi Peppino boyagidek sovuqqonlik bilan, – bir oz sabr qilsangiz orani ochiq qilib olamiz.

– Bo‘lmagan gap, – dedi Danglar qaroqchining surbetlik bilan masxara qilayotganidan g‘azablanib. – Bor, toshingni ter, kim bilan gaplashayotganingni bilasanmi o‘zi?

Peppino bir imo qilib edi, yigitcha jo‘jani chaqqonlik bilan stoldan olib, chiqib ketdi. Danglar po‘stakka o‘zini tashladi. Peppino eshikni qulfladi-da, yana moyli no‘xatini ura boshladi.

Danglar Peppinoning nima qilayotganinn ko‘rolmasdi, albatta, biroq, qaroqchi ovqatini chunon chaloplatib chaynardiki, sho‘rlik asir soqchi nima qilayotganini juda aniq bilib turardi, ya‘ni u ovqat eyapti, eganda ham juda ochko‘zlik bilan shovqin solib eyapti.

– Ahmoq! – so‘kindi Danglar.

Peppino eshitsu ham o‘zini eshitmaslikka solib, no‘xatini paqqos tushiraverdi.

Danglarga oshqozon Danaid bochkasi kabi bo‘sh, tag-siz tuyuldi, uni qachondir to‘ldirish mumkinligiga u sira ishonmasdi.

Shu zaylda u yana yarim soat toqat qildi; ammo iqror



bo'lish kerakki, bu yarim soat mangulikday ko'rindi unga.

Axiyri u o'rnidan turib, yana eshik oldiga bordi.

– Hoy janob, bu yoqqa qarang, – dedi u, – meni hadeb yog'iravermang axir, mendan nimani istaydilar, aytib qo'ya qolmaysizlarmi?

– Janobi oliylarining o'zlari marhamat qilib aytsinlar, bizdan nima istaydilar?.. Buyursinlar, biz bajo keltiraylik.

– Unday bo'lsa, qani avval eshikni oching.

Peppino eshikni ochdi.

– Hoy, betavfiqlar, men ovqat emoqchiman, ovqat! – dedi Danglar.

– Ochmisiz?

– Axir bila turib, nega so'rayapsiz!

– Ovqatdan qanaqasini olib kelishsin, janobi oliylari?

– Bu la'nati erto'lada jo'ja juda qimmat ekan, yaxshisi menga bir bo'lak qotgan non bera qolishsin.

– Nonmi? Marhamat! – dedi Peppino. – Hoy bolakay, non olib kel! – baqirdi u.

Yigitcha bir bo'lak non keltirdi.

– Mana, marhamat qiliq! – dedi Peppino.

– Bu non necha pul turadi? – so'radi Danglar.

– To'rt ming to'qqiz yuz to'qson sakkiz luidor. Janoblari ikki luidorini oldindan to'lab qo'ygan edilar.

– Nima, nima? Shu bir bo'lak non yuz ming frank tura-dimi?

– Ha, yuz ming frank, – dedi javob berib Peppino.

– Jo'janing bahosi yuz ming frank edi-ku!

– Bizda ovqatlarning ma'lum bahosi yo'q, hammasi-ning narxi bitta, ozmi, ko'pmi – ko'nglingiz tortganча eyaverasiz, bitta ovqat chaqirasizmi, o'nta chaqirasizmi, baribir, narxi o'zgarmaydi.

– Tag'in maynabozchilik qilyapsizmi? Bu bema'nilik, tentaklik-ku! Yaxshisi, ochig'ini aytib qo'ya qoling, siz meni ochimdan o'ldirmoqchimisiz?

– Yo'q, janobi oliylari, unday emas, aksincha, o'zingiz o'zingizni ochlikdan o'ldirmoqchisiz. Pulini naqd to'lang-da, istaganча eyavering, osh bo'lsin.

– Hoy, hayvon, qanday qilib to‘layman? Sen mundoq tanangga o‘ylab ko‘rgin: yuz ming frankni cho‘ntaginga solib yurarmidim.

– Janobi oliylari, cho‘ntagingizda besh million ellik ming frank aqcha bor, – dedi Peppino, – yuz ming frankdan hisoblaganda, bu ellik jo‘ja bo‘ladi, ellik ming frankka yana yarimta jo‘ja olasiz.

Danglar titrab ketdi, ko‘ziga bog‘lagan latta tushdi: bu, shubhasiz, hazil edi, endi angladi, shuni aytish kerakki, bu ilgorigidek qo‘pol hazil emasdi.

– Menga qarang, – dedi u, – shu yuz ming frankni bersam sizdan qutulamanmi? Bamaylixotir ovqatimni eya olamanmi?

– Albatta, – dedi Peppino.

– Men sizga qanday qilib beraman bu summani, – so‘radi Danglar engil nafas olib.

– Bu juda oson, Rimda, Banklar ko‘chasida bankir Tomson va French xonadonida joriy hisobingiz bor, ana shu bankka to‘rt ming to‘qqiz yuz to‘qson sakkiz luidorga chek yozib bersangiz bas, bizning bankimiz uni qabul qiladi.

Danglar o‘zini mard qilib ko‘rsatishga urinib, Peppino uzatgan pero va qog‘ozni oldi-da, xat yozib, qo‘l qo‘yib berdi.

– Mana sizga chek, – dedi u.

– Mana sizga jo‘ja.

Danglar bir xo‘rsindi-da, jo‘jani to‘g‘rab tashladi. To‘langan juda «semiz» summaga nisbatan jo‘ja juda oriq tuyuldi Danglarga.

Peppinoga kelsak, chekni diqqat bilan o‘qib chiqib cho‘ntagiga solib qo‘ydi-da, yana turk no‘xatiga yopishdi.

## **XIX. AFV**

Ertasiga Danglarning qorni yana ochdi. Bu g‘orning havosi ishtahani karnay qilib yuborarkan. Asir bugun ortiqcha xarajatdan qutuldim, deb o‘ylagandi, chunki u

juda tejamkorlik qilib, kechagi jo'janing yarmini bir burda non bilan kulbaning burchagiga bekitib qo'ygan edi.

U ovqatni eb bo'lishi bilan tashnalik sezdi, biroq u buni e'tiborga olmaslikka urindi-da, sabr qildi, bu uzoqqa bormadi, tomog'i qaqrab, tili tanglayiga yopisha boshladi, sabri tugab, soqchini chaqirishga majbur bo'ldi.

Soqchi eshikni ochdi, mahbusga notanish odam edi bu.

Danglar, eski tanish bilan gaplashganim ma'qul, deb Peppinoni chaqirdi.

– Hozir, janobi oliylari, hozir, – dedi zum o'tmay kirib kelgan qaroqchi, Danglarga umid bag'ishlaydigan hozir-javoblik bilan. – Buyursinlar!

– Ichimlik keltirishsin, – dedi asir.

– Janobi oliylariga ma'lum bo'lsinki, – dedi Peppino. – Rim shahrining atrof-tevaragida vino nihoyatda qimmat.

– Unda suv bera qoling, – dedi Danglar zarbani qaytarishga urinib.

– E-e, janob oliylari, suv ichmoqchilarmi, ammo bu vinodan ham tanqis narsa, hozir hamma erda qattiq qurg'oqchilik.

– Yana eski maynabozchilikka o'tdingiz, shekilli? – dedi Danglar. Chakkalaridan shovillab ter oqayotgan bo'lsa-da, o'zini hazillashayotganga solib, iljayib qo'ydi.

– Hoy og'ayni, menga qarang, – dedi u Peppinoning pinagini buzmay turganini ko'rib, sizdan atigi bir stakan vino so'rayapman, nahotki shuni ham bermasangiz?

– Men sizga aytdim-ku, janobi oliylari, axir, biz chakana savdo bilan shug'ullanmaymiz.

– Bo'lmasa bir butilka bering.

– Qanaqasidan?

– Arzonrog'idan.

Hamma vinolarning narxi bir xil.

– Qancha?

– Butilkasi yigirma besh ming frank.

– Yaxshisi, sizni talab teringizni shilib olmoqchimiz, deb qo'ya qoling-da! – dedi xitob qilib g'amgin ohangda.

– Ehtimol, boshlig‘imiz shunaqa niyatdadir, – dedi Pepino.

– Boshliq? Kim u?

– O‘tgan kuni sizni uning huzuriga olib borishgan edi.

– Qaerda u?

– Shu erda.

– U bilan ko‘rishsam bo‘ladimi?

– Nega bo‘lmas ekan.

Hash-pash deguncha Luidji Vampa Danglar qarshisida paydo bo‘ldi.

– Siz meni chaqirdingizmi? – so‘radi u asirdan.

– Janob, siz meni bu erga olib kelganlarning boshlig‘imisiz?

– Shunday, muhtaram janob. Xo‘sh, nima gap?

– Men uchun qancha haq talab qilasiz?

– Yoningizdan besh millionni bersangiz, etadi. Danglarning kapalagi uchib ketdi.

– Janob, mening bor pulim shu, katta bir davlatdan qolgani, agar siz uni tortib olsangiz, jonimni ham sug‘urib olgan bo‘lasiz.

– Sizning qoningizni to‘kish taqiqlangan.

– Kim taqiqlagan?

– Biz kimga itoat qilsak, o‘sha kishi.

– Demak, siz ham kimgadir itoat qilarkansiz-da? Kimga?

– Boshlig‘imizga.

– Men sizning o‘zingizni boshliq deb o‘ylagandim.

– Men mana bularning boshlig‘iman, ammo mening ustimdami yana boshliq bor.

– O‘sha boshlig‘ingiz ham kimgadir itoat qilsa kerak-da?

– Albatta.

– Kimga?

– Xudoga.

Danglar o‘ylanib qoldi.

– Tushunmadim, – dedi u.

– Balkim.

– Men bilan bunaqa muomala qilishni ham o‘sha boshlig‘ingiz buyurganmidi?

– Ha.

– Qanday niyatda?

– Bilmadim.

– Bora-bora hamyonimda hemiri ham qolmaydi-ku?

– Ehtimol.

– Menga qarang, – dedi Danglar, – bir million bersam etadimi sizga?

– Yo‘q.

– Ikki million-chi?

– Yo‘q.

– Uch million... To‘rt million?.. To‘rtni bersam-chi? Meni bo‘shatib yuborish sharti bilan to‘rt million beraman? Bo‘ptimi?

– Nega endi to‘rt million beraman deyapsiz? O‘zi besh million turadi-ku, axir? – dedi Vampa. – Sudxo‘rlik, janob, bankir, ha, menimcha o‘taketgan sudxo‘rlikning o‘zginasi.

– Oling hammasini! Eshitdingizmi, hammasini olingda, meni go‘rga tiqib qo‘ya qoling!

– Tinchlaning, janob, tinchlaning, tajanglik qilmang, asablaringiz bo‘shashib, ishtahangiz karnay bo‘lib ketadida, har kuni bir million-bir millionlik ovqat eydigan bo‘lib qolasiz. Tejamkorlik yaxshi narsa!

– Pulim tamom bo‘lib qolsa, sizga bitimni beramanmi, axir? – dedi jahli chiqib Danglar.

– Unda och yotaverasiz.

– Och yotaveramanmi? – dedi rangi o‘chib Danglar.

– Shunday bo‘lsa kerak, – dedi pinagini buzmay Vampa.

– Axir siz meni o‘ldirmaymiz, dedingiz-ku!

– To‘g‘ri, o‘ldirmaymiz.

– Ochimdan o‘lib ketsam-chi? Unda nima bo‘ladi?

– Bu boshqa gap.

– Yo‘q, yo‘q, ablahlar, – dedi xitob qilib Danglar, – yovuz niyatlaringizga etolmaysiz! Shu erda o‘lish peshanamga

yozilgan ekan, ertaroq o'lganim yaxshi, ming xil qiynoqqa soling meni, azoblang, o'ldiring, ammo bir chaqa pulga ham imzo qo'yib bermayman!

– Ixtiyor o'zlarida, – dedi Vampa va kulbadan chiqib ketdi.

Danglar g'azabdan bo'kirib, o'zini po'stakka otdi.

Bu odamlar kim ekan o'zi? Bu erdagi boshliq kim, g'oyibona boshlig'i kim bu bodbaxtlarning? Ular nima maqsadda shunday qilishyapti? Nega hamma jarima to'lab qutulib ketadi-yu, u qutulolmaydi?

Qandaydir noma'lum qasos yo'lida uni qurbon qilishga urinayotgan bu ablahlarning niyatini barbod etishning eng yaxshi yo'li tez, o'zini-o'zi qiynab o'ldirish.

Biroq o'lmoq, jondan kechmoq osonmi?

Danglar umrida birinchi marta o'lim to'g'risida o'ylayotgandir, birinchi marta Azroilni chaqirarkan, kayfi uchib vahimaga tushayotgandir, ha, shunday, mana, «ajaling etdi sening!» deb keladigan ana shu Azroilning basharasiga bir daqiqa ko'z tikish vaqti keldi endi.

Danglar shu topda quturgan, so'ngra jazavasi qo'zg'ab jon-jahdi bilan o'zini har tomonga otib, xatardan qutulishga urinayotgan yirtqichga o'xshardi.

U qochishni o'ylab ko'rdi. Biroq atrofdagi devorlar qoyalardan qalin, kulbadan chiqadigan yagona yo'lkada haligi maxluq kitob o'qib o'tiribdi, uning orqasida yarog'-aslahali bir necha odam savlat to'kib yuribdi.

Uning sabr-toqati ikki kunga arang etdi, shundan keyin bir million to'lashga rozi bo'lib, ovqat talab qildi. Juda mazali ovqat keltirib berdilar-da, va'da qilingan millionni olib chiqib ketdilar.

Shu damdan boshlab baxtsiz asirning hayoti faqat chekinish, itoat qilishdan iborat bo'lib qoldi. Sho'rlik azob cheka-cheka butunlay holdan toydi, endilikda undan nima talab qilsalar bajo keltiraverdi, shu zaylda o'n ikki kun o'tdi, davr surgan vaqtlaridagidek shohona tushlikni boplab tushirdi-da, qancha summaga chek yozib berganini hisoblab chiqdi. Hisob-kitobdan ravshan

bo'ldiki, atigi ellik ming frank puli qolibdi.

Shu on uning ahvoli ruhiyatida g'alati o'zgarish yuz berdi, besh millionni berib yuborgan bankir oxirgi ellik ming frankini saqlab qolishga qaror qildi, butunlay och qolsam-da, ellik ming frankni bermasligim kerak, deb ahd qildi. Miyasida umid uchqunlari paydo bo'lganday tuyuldi. Allaqachonlar Xudodan yuz o'girgan betavfiq hozir uni esga oldi, ha, Xudo ba'zan mo'jizalar yaratadi: uning amri bidan balki g'or yorilib ketar, balki Papa o'qchilari bu la'nati g'orni ochib kirib, uni qutqarib olishar, u vaqtda ellik ming frank cho'ntagiga qoladi, bu pul bilan ochlikdan o'lmay baholi qudrat tirikchilik qilish mumkin, bankir Xudodan ana shu ellik ming frankni o'zida qoldirishni tilab yig'ladi, yalinib-yolvordi.

Shu alfozda Danglar Xudoni dilida bo'lmasa-da, tilida takrorlab uch kechayu uch kunduzni o'tkazdi; ba'zida u alahsiraganday bo'lar va ko'ziga bir nochor kulbada, uvada to'shakda jon berayotgan chol ko'rinardi. O'sha chol ham ochlikdan o'layotgandek bo'lardi.

To'rtinchi kunga o'tganda Danglar odam emas, tirik murda bo'lib qolgandi. U ilgari ovqatlaridan qolgan-qutganlarini qo'ymay yig'ishtirib edi va tosh polga yoyib qo'yilgan bo'yрани kemira boshladi.

Bu ham bo'lmadi, shekilli, bankir ovqat so'rab Peppinoga yalinib-yolvora boshladi. Bir burda nonga ming frank to'layman, dedi.

Peppino esa miq etmadi.

Beshinchi kuni Danglar emaklab zo'rg'a eshik oldiga bordi-da, tizza cho'kib nola qildi:

– Siz xristian emassiz! Siz Xudoning mo'min bandasi-ni qasddan och qoldirib o'ldirmoqchisiz! Qani mening yor-birodarlarim! Qani endi ular! – deb yuz tuban erga yiqilib tushdi.

Bir ozdan so'ng boshini ko'tarib qichqirdi:

– Boshliqni chaqiring menga! Boshliqni!

– Shu erdaman! – dedi Vampa xuddi er tagidan chiqqanday, – nimani istaydilar janobi oliylari?

– Mana, so‘nggi oltinlarimni ham oling, – dedi Danglar hamyonini uzatib, – meni shu erda qoldiring, umrim mana shu g‘orda o‘tsin, meni ozod qilib yuborishingizni so‘ramayman, tirik qo‘ysangiz bas. Menga boshqa hech narsaning keragi yo‘q.

– Juda qattiq azob chekyapsizmi? – so‘radi Vampa.

– Ha, asti so‘ramang.

– Lekin sizdan battarroq azob chekkan kishilar bo‘lgan.

– Bo‘lmagan gap!

– Bo‘lgan! Ular ham ochlikdan o‘lgan!

Danglar haligina alahsirab, nochor kulbada ko‘ziga ko‘ringan cholni esladi.

U oh-voh tortib tosh polga peshanasini qo‘ydi.

– Ha, ha, shundaylar bo‘lgan edi, ha, mendan battarroq azob chekkanlar ham bo‘lgan edi, biroq ular jafokashlar edi.

– Siz tavba qilyapsizmi? – so‘radi qandaydir g‘oyibona ovoz vahimali ohangda. Danglarning sochlari tikka bo‘lib ketdi. U xira ko‘zlari bilan alanglab atrofqa qaradi va Luidji orqasida yomg‘irpo‘shga o‘ralgan odamga ko‘zi tushdi.

– Nima uchun tavba qilishim kerak? – dedi arang ovoz chiqarib Danglar.

– Yovuzliklaringiz uchun, – dedi yana o‘sha ovoz.

– Ha, ha, tavba qildim! Yuz karra tavba qildim! – dedi xitob-la Danglar qoq suyak qo‘llarini ko‘kragiga urib.

– Unday bo‘lsa, gunohingizdan o‘tdim, – dedi noma‘lum zot elkasidan yomg‘irpo‘shini irg‘itib, so‘ng bir qadam oldinga yurdi-da, chiroq yog‘dusiga turib oldi.

– Graf Monte-Kristo! – dedi qichqirib ko‘zlarining paxtasi chiqib ketgan Danglar, u toshday qotib qoldi.

– Yanglishdingiz, men graf Monte-Kristo emasman.

– Bo‘lmasa kimsiz?

– Men, siz sotib yuborgan, tutqinlikka mahkum qilgan, badnom etgan zotman, men, siz qaylig‘ini yo‘ldan ozdirgan zotman; men, siz oyog‘ingiz ostida toptagan, lekin oqibatda behad boylik egasi bo‘lib, bosh ko‘targan odamman; men, otasini siz ochdan o‘ldirgan insonman.



Men sizni ham ochdan o'lishga mahkum qilgandim, ammo gunohingizni kechdim, chunki o'zim ham gunohimni kechishlariga muhtojman. Men Edmon Dantes bo'laman!

Danglar qichqirib yubordi-da, Edmonning oyog'iga yiqildi.

– Turing, – dedi graf, – men sizga o'limnimas, hayotni hadya etaman, sheriklaringiz sizdek baxtga ega bo'lolmadilar, biri aqldan ozib, ikkinchisi go'rga tiqildi! Ellik ming frank aqchangiz ham o'zingizga qolsin, buni ham hadya qildim sizga, siz etim-esirlar haqidan o'g'irlab olgan besh million frank egalariga qaytarilib berildi. Endi istagancha eb-iching, bugun mening mehmonimsiz, Vampa, buning qornini yaxshilab to'yg'izing-da, qo'yib yuboring.

Graf chiqib ketguncha Danglar qimir etmay yuz tuban yotaverdi, boshini ko'targanida yo'lakda ko'lanka ko'rindi, hamma qaroqchilar unga ta'zim qilib egilib turishardi.

Vampa grafning amr-farmonini juda boplab bajardi, Danglarni Italiyaning eng shirin-shakar mevalari va eng zo'r vinosi bilan mehmon qildilar. So'ngra uni o'zining pochta izvoshiga o'tqazdilar-da, katta yo'ldan olib borib, allaqanday daraxt tagiga tushirib ketdilar.

Danglar ertalabgacha shu daraxt tagida o'tirib chiqdi, bu qayer ekanligini mutlaqo bilmasdi u.

Tong yorishganda nariroqda ariq ko'rindi, bankir chanqaganini sezib, suv tomonga emaklab bordi.

U ichmoqchi bo'lib engashgan edi, suvdagi aksidan sochlari oppoq oqarib ketganligini ko'rdi.

## **XX. BESHINCHI OKTYABR**

Kech soat oltilar edi, kuz quyoshi dengiz to'lqinlari ustiga zarrin kokillarini yoyib tashlagan.

Kunduzgi jazirama asta pasayib, borliq engil nafas ola boshladi. O'rta er dengizi qirg'oqlarini suv va daraxtlardan ko'tarilgan yoqimli hovur tutib ketdi. Dengizdan mayin shabada esyapti.

Gibraltardan Dardanellgacha, Tunisdan Venesiyagacha cho'zilib yotgan mana shu ulkan ko'l bo'ylab shinam kema qanotlarini yozib, oq qush singari nazokat bilan jadal suzib boryapti.

Ufqda quyoshning so'nggi nurlari ham o'chdi, ammo uning behayo shu'lalari, go'yo afsonaviy Amfitritning sir-larini oshkora etishga qasd qilgandek, dengiz to'lqinlari qirralarini hamon yoritib turibdi.

Kichkina kema shamol qizning kokilini silkitishga ham qurbi etmaydigan darajada kuchsiz esayotganiga qaramay, olg'a uchib boryapti.

Kemaning tumshug'ida turgan yuzlari jiddiy, novcha kishi yaqinlashib kelayotgan ulkan qoyaga tikilib turardi. Sapchib o'ynayotgan to'lqinlar ichidan turtib chiqib turgan bu qoya xuddi katalaniyalik bahodirlarning cho'qqili shlyapasiga o'xshardi.

– Monte-Kristo degani ana shumi? – so'radi o'ychan sayohatchi g'amgin ohangda, aftidan, u kemacha darg'asi bo'lsa kerak.

– Ha, janob, – javob berdi kapitan, – manzilga etdik.

– Manzilga etdikmi?! – dedi pichirlab sayohatchi qan-daydir ichki dard bilan. So'ngra qo'shimcha qildi:

– Ha, mening manzilim shu, – dedi-da, yana o'yga cho'mdi, uning lablarida qayg'uli tabassum paydo bo'ldi.

Bir necha daqiqa o'tgach, qirg'oqda xira chiroq yondi-da, shu zahoti o'chdi, keyin o'q ovozi eshitildi.

– Janob, – dedi kapitan, – bizga qirg'oqdan signal beri-shyapti, unga o'zingiz javob qilasizmi?

– Qanaqa signal? – so'radi u.

Kapitan qo'li bilan orolni ko'rsatdi: qoyaning tepasida oppoq tutun ko'tarilib, osmonga tarqalayotgan edi.

– Ha, ha, – dedi sayohatchi uyqudan endigina ko'z och-ganga o'xshab, – yaxshi, o'zim signal beraman!

Kapitan uning qo'lga miltiq uzatdi, sayohatchi qurol-ni olib asta ko'tardi-da, o'q uzdi.

O'n daqiqa o'tar-o'tmas elkanlarni tushirib, kichik yax-tadan ellik qadamcha nariga langar tashladilar. Shu zahoti

to'rt eshkakchi mingan qayiq to'lqinlar ustida qalqib-qalqib kema oldiga etib keldi; sayohatchi qayiqqa tushdida, ko'm-ko'k gilam to'shalgan maxsus joyga o'tirmay, qo'llarini qovushtirganicha tik turib oldi.

Eshkakchilar, qanotlarini quritayotgan qushlar singari, eshkaklarni sal ko'tarib, farmon kutib turishardi.

– Olg'a! – dedi sayohatchi.

To'rtta eshkak birdan suvga tushdi, qayiq o'qday uchib ketdi. Bir daqiqada u kichkina buxtaga borib to'xtadi, bu buxta qoyalar orasiga joylashgan edi.

– Janob, – dedi darg'a, – hozir ikki eshkakchi sizni ko'tarib qirg'oqqa o'tkazib qo'yadi.

Sayohatchi bu taklifga zarracha e'tibor bermay, irg'ib suvga tushdi-da, beligacha suvga botib, qirg'oq tomonga yurib ketaverdi.

– Chakki qildingiz-da, janob, – to'ng'illadi darg'a, – xo'jayinimizdan baloga qolamiz.

Sayohatchi bunga quloq solmay, oson yo'l tanlab bo'rayotgan ikki matros ketidan ketaverdi.

Ular o'ttiz qadam yurgach, qirg'oqqa chiqishdi, sayohatchi bir qoqinib oldi-da, qay tomonga olib borisharkin meni, deb atrofqa qaradi. U boshini burishi bilan kimdir elkasiga qo'lini qo'yib:

– Xush kelibsiz, Maksimilian, – dedi, – aytgan vaqtning xuddi o'zida etib keldingiz, qoyil sizga. – Maksimilian cho'chib tushdi.

– Iya, graf, o'zingiz-ku! – dedi Morrel va quvonib ikki qo'li bilan Monte-Kristoning qo'lini qattiq siqdi.

– Mana ko'rdingizmi, men ham siz bilan baravar keldim. Juda ivib ketibsiz, Kalipso Temaxga uqtirganidek, darhol kiyimni almashtirish zarur. Qani, yuring, sizga maxsus joy hozirlangan, ham isinib, ham hordiq chiqarasiz u erda.

Morrel orqasiga qayrildi, Monte-Kristo buni ko'rib, bir zum to'xtab turdi.

Morrel uni olib kelganlarga kira haqi to'lamoqchi bo'lgandi, biroq dengizchilar allaqachon ko'zdan g'oyib

bo'lgan edilar. Maksimilian hayron bo'lib atrofga alanglab qoldi. Eshkaklarning suvga urilib shaloplagan ovozlari qulog'iga chalindi – kemacha yaxtaga qaytib ketayotgandi.

– Matroslaringizni izlayapsizmi? – so'radi graf.

– Ha, ular ketib qolibdi-yu, men kira haqini to'lamagan edim.

– Tashvishlanmang, Maksimilian, – dedi kulib Monte-Kristo. – Mening orolimga yuk va sayohatchilarni tekinga olib kelish haqida dengizchilar bilan shartnoma tuzib qo'yganman. Madaniylashgan mamlakatda yashovchilarning ta'biri bilan aytganda, mushtariy bo'lib qo'yganman, ya'ni haqini oldindan to'lab qo'yganman.

Morrel ajablanib grafga qaradi.

– Siz bu erda hech Parijdagi grafga o'xshamaysiz, – dedi u.

– Nega endi?

– Bu erda chehrangiz ochiq, kulib turibsiz.

Monte-Kristoning darhol qovog'i osildi.

– Haq gapni aytdingiz, Maksimilian, meni xayol olib ketibdi, – dedi u, – siz bilan har gal uchrashganda o'zimda yo'q quvonib ketaman; mana, hozir ham quvonib ketib, har qanday baxt o'tkinchi ekanligini unutib qo'ydim.

– Yo'q! Yo'q, graf! – dedi xitob-la Morrel, yana do'stining qo'lini mahkam siqib. – Aksincha, kuling, dilingiz shod bo'laversin, baxtingiz yor bo'laversin, siz shu bilan hayot faqat jafokashlar uchungina uqubatli ekanligini isbotlab bering. Siz mehr-shafqatli, bag'ri keng, muruvvatli zotsiz, menga dalda berish, ko'nglimni ko'tarish uchun baxtiyor bo'lib, shod-xursand bo'lib ko'rinishga urinyapsiz.

– Unday emas, Morrel, – dedi Monte-Kristo, – men haqiqatan ham o'zimni baxtiyor his etyapman.

– Demak, meni unutib qo'yibsiz-da, shunisiga ham shukr.

– Nega bunday deyapsiz?

– Azizim, siz bilib turibsizki, sirkda ulug' imperatorga

ta'zim qilib salom beradigan gladiatorga o'xshab, men ham sizga: «Ajal jariga o'zini tashlashga borayotgan quling seni tabriklaydi», deb kelyapman-ku.

– Nahotki, hali ham ko'nglingiz taskin topmagan bo'lsa? – so'radi Monte-Kristo yigitga sirli nazar tashlab.

– Nahotki, siz shunday bo'lishi mumkin deb o'ylagan bo'lsangiz? – dedi g'amgin ohangda Morrel.

– Maksimilian, – dedi graf, – siz meni so'zida turmaydigan beburd vaysaqiga chiqarib qo'yyapsizmi hali? Axir men, sizdan ko'ngil so'rashga haqliman, chunki, men uchun kishi yuragida hech qanday sir bo'lishi mumkin emas. Keling, yuragingizning eng teran joyida nima yashirib yotganligini birgalashib ko'raylik. U hamon chidab bo'lmaydigan darajada ezilib qonga to'lyaptimikin? Faqat qabr o'chira oladigan zoriqish, tashnalik o'tlari uni hamon yondirib, qiynoqqa solyaptimikin? Kishini hayot gulshanidan o'lim girdobiga uloqtirib tashlaydigan qayg'u-hasratlar hamon azobga solyaptimikin? Balki, yuragingizdagi jasorat, sabot-matonat tugab bitgandir? Balki, undagi orzu-umidlarning so'nggi uchqunlarini umidsizlik dovullari o'chirgandir? Endi u hamma narsani unutib, ko'z yoshi to'kishga ham qurbi etmay qolgandir? Mabodo ahvol shunga borib taqalgan bo'lsa, mabodo ko'z yoshingiz qurib bitgan bo'lsa, mabodo, siz endi mening qalbim o'ldi, deb o'ylayotgan bo'lsangiz, endilikda sizga Xudodan bo'lak madadkor qolmagan bo'lsa, siz faqat undan madad tilayotgan bo'lsangiz, demak, siz tasalli topibsiz, do'stim, tasalli topibsiz, endi sizga zorlanishga hech asos qolmabdi.

– Graf, – dedi Morrel qisqa va qat'iy javob berib, – meni kunim bitib, Azroilni kutib turgan bir kishi, deb bilib quloq soling gaplarimga. Men do'stim ko'ksida jon berish uchun huzuringizga keldim. Shubhasiz, mening sevgan kishilarim bor, singlimni, uning erini jonimdan aziz ko'raman, biroq so'nggi daqiqalarda kimdir meni ko'ksiga mahkam bosib, jilmayib tikilib turishini istardim. Jyuli esa uvvos tortib yig'lashdan, hushidan ketib yiqilishdan

boshqaga yaramaydi, uning aziyat chekkanini ko'rib men yana azoblangan bo'lardim, Emmanyuelga kelganda, u qo'limdan to'pponchani tortib olib, butun uyni boshiga ko'tarardi. Siz esa, menga so'z berdingiz, sizni insondan ustun ilohiy bir zot deb bilaman va aminmanki, siz meni boshimni silab, sekin-asta olib borib jahannam darvozasidan kiritib yuborasiz.

– Azizim, – dedi graf, – mening yana bir shubham bor, balki sizni vahima bosganu, o'zingizdan-o'zingiz g'am-g'ussaga botib qoldim, shekilli, deb xayol qilib yurgandirsiz?

– Yo'q, graf, aslo unday emas, mana menga qarang: hammasi ravshan ko'rinib turibdi, meni vahima bosgani yo'q, – dedi Morrel grafga qo'lini uzatib, – tomirim odatdagidan tez yoki sekin urayotgani yo'q. Men oxirgi manzilimga etib keldim, nari bormayman. Siz o'zingizni donishmand atab, kutmoq va umid qilmoq kerak, deb nasihat qildingiz. Bilasizmi, bu nimaga olib keldi? Men rosa bir oy kutdim – ya'ni, butun bir oy aziyat chekdim! Inson tuban, badbaxt bir maxluq-da, men umid qildim, ammo nimadan umidvor bo'lganligimni o'zim ham bilmayman, allaqanday noma'qul bir narsadan umidvor bo'ldim, ammo uning nima ekanligini bilmayman, qandaydir mo'jizadan. Lekin qanaqa mo'jizadan?.. Bu faqat bizning aqlimizni ana shu bema'ni orzu-umidlar bilan o'tmaslashtirib qo'yayotgan Tangrimning o'ziga ayon. Ha, men kutdim, umid qildim, hozir esa, chorak soatlik suhbatdagi har bir so'zingiz bilan mening oxirgi umidim ham puchga chiqqanligini bayon etib, jigarbag'rimni qon qilib tashladingiz. Qarang-a, ajal menga navozish, mehrga to'la shirin so'zlar bilan tasalli berib, changaliga olmoqda!

Maksimilian so'nggi so'zlarini chunon dahshatli qilib aytdiki, graf seskanib ketdi.

– Graf, – dedi so'zini davom ettirib Morrel, – beshinchi sentyabrda mendan bir oy muddat talab qilgan edingiz. Men rozi bo'lgandim... Azizim, mana, bugun beshinchi

oktyabr, – Morrel soatiga qarab oldi. – Hozir soat to‘qqiz, atigi uch soatlik umrim qoldi.

– Bo‘pti, – dedi Monte-Kristo, – ketdik.

Morrel graf ketidan beixtiyor boraverdi, hatto g‘orga kirganini ham sezmedi, faqat gilamga qadam qo‘yayotganini, eshik ochilganini, xona xushbo‘y hidga to‘lganini his etdi, yorqin chiroq nuri ko‘zini qamashtirdi. Morrel ikkilannb to‘xtab qoldi, u dabdabali hashamlarni ko‘rib, qo‘rqib ketdi.

Monte-Kristo uni qo‘ltig‘idan tutib, stol yoniga olib bordi.

– Qolgan uch soatini qadimiy rimliklar udumicha qilib o‘tkazganimiz yaxshi, menimcha, – dedi u. – O‘z hukmdori va merosxo‘ri Neron tomonidan o‘limga mahkum etilganlar ham gullarga to‘la stol qoshida o‘tirib olib, jon berganlar.

Morrel iljayib qo‘ydi.

– Ixtiyor sizda, – dedi u. – Qanday bo‘lmasin, ajal – ajalligini qiladi, ajal – unutilish, orom, jonsizlik, demakdir, binobarin, azob chekish ham bo‘lmaydi unda.

Morrel stol yoniga cho‘kdi, Monte-Kristo uning ro‘bar-o‘sigga o‘tirdi.

Bu ilgari biz bir karra tasvirlab bergan o‘sha afsonaviy ovqatxona edi, marmardan yasalgan haykallar hamon boshida gulga to‘la savat tutgancha tik turibdi.

Morrel xonaga kirib parishon holda atrofga alangladiyu, aftidan, hech narsa ko‘rmadi, ko‘zlarini grafga o‘qday tikib:

– Sizga bir savol berishga jur‘at qilaman, – dedi.

– Marhamat.

– Graf, – davom etdi Morrel, – siz insonga ayon bilimlarning hammasidan xabardorsiz, chamamda, siz bu dunyoda emas, boshqa bir dunyoda – biznikidan yuksakroq va oqilroq dunyoda tug‘ilgan bo‘lsangiz kerak.

– Bu so‘zlaringiz, Morrel, haqiqatdan uzoq emas, – dedi graf o‘ziga yarashib tushadigan ma‘yus jilmayish bilan, – men aziyat deb ataladigan sayyoradan tushganman.

– Men, graf, sizning hamma soʻzlaringizga ishonaman, hatto ulardagi sirli maʼnolarni bilib olishga urinmayman: siz menga, yasha, dedingiz, yashayapman, siz menga, umidvor boʻl, dedingiz, umidvor boʻlib yurdim. Mana, endilikda oʻlim payti keldi, siz oʻlimni boshingizdan kechirgan odamsiz, ayting-chi, oʻlish juda azob-uqubatlimi?

Monte-Kristo Morrelga otalarcha mehr bilan tikilib:

– Ha, – dedi, – oʻlish uqubatli, albatta, agar siz oʻlishning pardasini qoʻpollik bilan buzsangiz. Agar siz aʼzoyi badaningizni xanjarning koʻzga koʻrinmaydigan tigʻi bilan qiymalab tashlasangiz, agar siz hamisha yoʻldan adashadigan ahmoqona oʻq bilan nihoyatda sezgir miyangizni ilma-teshik qilib tashlasangiz, albatta, juda ogʻir qiynoqqa tushasiz va hayot bilan juda jirkanch usulda vidolashasiz, oʻlish talvasasi daqiqalarida hayot sizga oʻlimdan shirin koʻrinib qoladi.

– Bilaman, – dedi Morrel, – hayotda boʻlganidek, oʻlimning ham azobi va rohati boʻladi, faqat uning sirlarini bilib olmoq kerak.

– Juda haq gapni aytdingiz, Maksimilian, oʻlim ham uni biz qanday kutib olishimizga qaraydi: agar biz uni ochiq koʻngillik bilan kutib olsak, u bizni doʻstona olqishlab qarshi oladi, bordi-yu, gʻarazgoʻylik bilan kutib olsak, u ham toʻnini teskari kiyib, dagʻallik bilan tanimizdan jonni shartta sugʻurib oladi-ketadi. Ming-ming yillar oʻtib, inson tabiatning hamma falokatli kuchlarini bilib, egallab oladi va ularni inson manfaatiga xizmat qilishga majbur etadi, oʻshanda oʻlimning hali siz aytgan sirlari ham odamlarga ayon boʻlib qoladi, oʻshanda oʻlim ham, sevimli yoring quchogʻidagi uyqu singari, shirin va zavqli boʻlib qoladi.

– Graf, agar siz istasangiz, xuddi shunday qilib oʻla olarmidingiz?

– Ha.

Morrel unga qoʻlini uzatdi.

– Meni dengiz oʻrtasidagi orolga, firʼavnlr havasini keltiradigan mana bu gʻor ichidagi saroyga nega chaqirib



kelganligingizni endi tushundim, meni yaxshi ko'rganingiz vajidan shunday qildingiz, to'g'rimi, graf? Yaxshi ko'rganingizdan hozir o'zingiz aytgan tarzda o'lishimni istaysiz, ya'ni, azob tortmay, Valentinani tilga jo etib, sizning qo'lingizni siqib o'lishimni istaysiz.

– Topdingiz, xuddi shunday, Morrel, – dedi jo'ngina qilib graf, – men xuddi shuni istayman.

– Rahmat sizga, ertaga men g'am-g'ussadan batamom xalos bo'laman, degan fikrning o'zi mening ezilgan yuragimga lazzat baxsh etadi.

– Siz hech narsaga achinmaysizmi? – so'radi Monte-Kristo.

– Yo'q! – javob berdi Morrel.

– Menga ham-a? – so'radi graf kuchli hayajonga tushib.

Morrel jim bo'lib qoldi, uning chaqnoq ko'zlari birdan xira tortdi, so'ngra g'alati bo'lib, olayib ketdi. Ko'zidan yirik-yirik yosh tomchilari yumalay boshladi.

– Bu qanaqasi?! – dedi graf. – Bu dunyoda hali achinadigan narsangiz ham bor ekan-u, yana o'limni istayman deb yuribsiz-a?

– O'tinaman, graf, bu haqda aslo og'iz ochmang, aslo! – dedi Morrel ma'yus ovozda. – Etar meni shuncha azoblaganingiz!

Graf, Morrel holdan toyib boryapti, shekilli, deb o'yladi. Uning qalbida bu gal If qal'asida uloqtirib tashlagan dahshatli shubha paydo bo'ldi.

«Men bu odamga baxt qushini yana qaytarib berishni istayman, – dedi ichida u, – men bu baxt hamma yovuzliklarni bosib ketishini istayman, ammo adashmadimmi-kin? Bu odam baxtli bo'lishga munosib darajada baxtsiz bo'lib chiqmasa-chi? Unda mening ahvolim nima kechadi? Axir men faqat yaxshiliklarni xotiramga keltirgandagina yovuzliklarni unutishim mumkin-ku».

– Menga qarang, Morrel, – dedi u, – bilaman, siz cheksiz qayg'u-hasratga botgansiz. Biroq, siz Xudoga sajda qilasiz va juvonmarg bo'lishni istamaysiz.

Morrel g'amgin holda iljayib qo'ydi.

– Graf, – dedi e'tiroz bildirib Morrel, – men chiroyli so'zlar muxlisi emasman, biroq shunday bo'lsa-da, ont ichib aytayinki, endi men o'z jonimga o'zim ega emasman.

– Morrel, men yolg'iz bir odamman, bu dunyoda hech kimim yo'q mening, – dedi Monte-Kristo. – Sizni o'g'lim deb bilaman, shunga o'rganib qoldim, binobarin, o'z o'g'limni himoya qilish yo'lida jonimdan, mol-mulkimdan ham voz kechishga tayyorman.

– Bu bilan nima demoqchisiz?

– Demoqchimanki, siz hayotdan voz kechmoqchisiz, shuning uchunki, bu hayot boy-badavlat kishilarga qanday huzur-halovatlar bag'ishlayotganini bilmaysiz. Mening yuz millionga yaqin pulim bor; buni sizga hadya qilaman. Bu boyluk bilan istagan narsangizga erisha olasiz. Agar shuhratparast bo'lsangiz, siz uchun hamma yo'llar ochiq. Dunyoni ag'dar-to'ntar qilib tashlang, uning qiyofasini o'zgartib yuboring, istagan beboshlikni qilavering, ammo hayot bo'ling, yashang!

– Siz menga so'z bergan edingiz, graf, – dedi sovuq-qonlik bilan Morrel va soatiga qaradi, – soat ham o'n bir yarim bo'пти.

– Morrel! Bundoq o'ylasangiz-chi axir? Mening uyimda-ya, mening ko'z oldimda-ya!

– Unday bo'lsa, javob bering menga, – dedi qayg'uli ohangda, – yo'qsa siz meni men uchun emas, o'zingiz uchun, o'z manfaatingizni ko'zlab yaxshi ko'rar ekansiz, deb o'ylashim mumkin.

Shunday dedi-da, Morrel o'rnidan turdi.

– Bo'пти, – dedi Monte-Kristo. Uning chehrasi birdan yorishib ketdi. – Ahdingiz qat'iy ekan, to'g'ri, siz nihoyatda baxtsiz ekansiz, sizni, o'z so'zingiz bilan aytganda, faqat mo'jiza qutqara olarkan. O'tiring, Morrel, yana bir oz sabr qiling.

Morrel rozi bo'ldi, Monte-Kristo o'rnidan turib qulfloq javon oldiga bordi, cho'ntagidan oltin zanjirga osig'liq kalitni oldi. So'ng javonni ochib, kumush qutichani olib, stolga qo'ydi. Quticha mohir o'ymakorning qo'li bilan

naqshlangan, to'rt burchagida to'rt ayolning qaddi bukilgan haykalchasi o'rnatilgan edi.

Graf qutichani ochdi-da, ichidan oltin quticha oldi, uning qopqog'i ko'zga ko'rinmaydigan tugmachani bossa, ochilib ketadi.

Quticha moyli xamirsimon narsaga to'la edi, uni bezab turgan oltin va qimmatbaho toshlar jilvalanib, ichidagi narsaning tusini aniq ko'rishga imkon bermasdi.

Graf qutidagi narsadan oltin qoshiqda ozgina oldi-da, Morrelga uzatdi; uning sinovchan ko'zlari yigitga o'qday tikilgan edi. Qutidagi narsaning rangi zangori ekanligini endi aniq ko'rdi Maksimilian.

– Mana, mendan so'ragan narsangiz, – dedi graf. – Men sizga va'da qilganim ham mana shu.

– O'lish oldida, – dedi Maksimilian Monte-Kristoning qo'lidan qoshiqni olayotib, – sizga chin qalbmndan minnatdorchilik bildirishim kerak.

Graf boshqa qoshiq bilan qutichadagi doridan yana oldi.

– Nima qilyapsiz, azizim? – so'radi Morrel grafning qo'lini mahkam tutib.

– Xudoning o'zi kechirsin meni, – dedi jilmayib graf, – Morrel, ochig'ini aytsam, men ham jonimdan to'ydim... Men, yaxshisi, paytdan foydalanay-da...

– To'xtang! To'xtang! – dedi hovliqib Maksimilian. – Axir sizning sevgilingiz bor, sizni sevadigan malikangiz ham bor, siz hali noumid bo'lganingizcha yo'q, shunday ekan, qayting bu yo'ldan, qayting! Axir siz jinoyat qilgan bo'lasiz-ku? Alvido, mening mehr-muruvvatli do'stim, alvido! Bu hamma yaxshiliklaringizni u dunyoda Valentinaga aytaman.

Shunday dedi-da, Morrel, hech ikkilanmay, chap qo'li bilan grafning qo'lini siqib, sehrli narsani zavq bilan asta-sekin yutib yubordi.

Ikkisi jim bo'lib qoldi. Unsiz va ziyrak Ali tamaki, chilim, qahva keltirib qo'ydi-da, darhol chiqib ketdi.

Haykallar qo'lidagi chiroqlar asta-sekin xira torta

boshladi, chilimning hidi pasayib borayotgandek tuyulardi Morrelga; ro'parada graf Monte-Kristo xira yog'du orqasidan unga tikilib o'tirardi. Morrel esa, faqat uning chaqna b turgan ko'zlarini ko'rardi.

– Do'stim, – dedi u, – jon beryapman, shekilli, minnat-dorman.

Grafga oxirgi marta qo'l uzatmoqchi bo'ldi-yu, ammo qurbi etmadi, qo'llari osilib tushdi. Shu payt Monte-Kristo jilmaygandek bo'lib ko'rindi Morrelga, ammo bu ba'zan grafning sirli niqobini jilla ko'tarib qo'yuvchi kishini qo'rqitib yuboradigan ilgarigi g'alati jilmayishlarga aslo o'xshamasdi, balki bu tentaklik qilayotgan farzandiga mehr bilan achinib qarab turgan otaning jilmayishi edi.

Shu vaqtda Maksimilianning ko'ziga graf bir zumda shiddat bilan o'sdi-da, devorning qip-qizil jildi fonida sochlarini orqasiga tashlab, ro'zi mahsharda Xudoning gunohkor bandalarini kutib olgani kelgan bahaybat mun-karnakirga o'xshab ketdi.

Morrel butkul holsizlanib hushidan ketdi-da, o'rindiqqa cho'kdi, tomirlariga muzdek orombaxsh suyuqlik quyul-ganday tuyuldi. Uning xayolida hamma narsa kaleydos-kopda almashib turadigan rango-rang naqsh bezaklarga o'xshab o'zgarib ketdi.

Madorsiz Morrelning nafasi bo'g'ildi, u hech narsani sezmasdi, faqat dunyodan o'tib borayotibman, degan bir-gina xayol uning miyasidan joy olgandi.

U yana qo'lini grafga cho'zmoqchi bo'ldi, ammo bu gal qo'llarini qimirlata olmadi, u oxirgi uzrini aytmoqchi bo'lib og'zini ochmoqchi bo'ldi, ammo tili qabrdagi tosh kabi qotib qolgan edi.

Maksimilianning horg'in ko'zlari beixtiyor yumildi, ammo yopiq qovoqlari orqasidan bir gavda ko'rinib tu-rardi, zimistonda Morrel uni tanidi: u grafning o'zi edi, Monte-Kristo eshiklardan birining oldiga bordi-da, ochdi.

Shu zahoti qo'shni xonaning, to'g'rirog'i, afsonaviy qal'aning yarqirab turgan chirog'i Morrel jon talvasasida yotgan zalni yoritib yubordi. Ikkala zal ostonasida pari-

vash ayol paydo bo'ldi. Rangpar malika nozik lablari bilan jilmayib, xuddi intiqom farishtasiga la'natlar o'qiyotgan rahmdil farishta o'xshardi.

«Arshi a'loga chiqyapmanmi? – o'yladi qovoqlarini ko'tarib Maksimilian. – Bu farishta men judo bo'lgan malikaga o'xshaydi».

Monte-Kristo qizga o'rindiqda o'zini chalqancha tashlab yotgan Morrelni ko'rsatdi.

Qiz qo'llarini ko'ksiga qo'ygan holda jilmayib unga yaqinlashdi.

– Valentina? – qichqirib yubordi ichida Morrel. Biroq tovushi chiqmadi, u, bu unsiz hayqiriqqa bor kuchini sarflab bo'lgandek, chuqur nafas oldi-da, ko'zlarini yumdi.

Valentina uning ko'ksiga otildi.

Morrelning lablari yana bir marta qimirlab qo'ydi.

– U sizni chaqiryapti, – dedi graf. – Qattiq uyqusida chaqiryapti, qo'lga o'z taqdiringizni topshirib qo'ygan yigit chaqiryapti sizni; naq bo'lmasa o'lim sizni undan judo etgan edi, xayriyatki, o'zim ko'z-quloq bo'lib turgandim, o'limni engdim. Valentina, bundan keyin ikkingizni bu dunyoda hech kim, hech narsa judolik dardiga duchor etmasin, shuni unutmangki, siz bilan birga bo'lish uchun u o'zini go'rga tashladi. Men bo'lmasam, ikkalangiz ham juvonmarq bo'lur edingiz. Mana, ikkingizning boshingizni qo'shib qo'ydim. Ikki yosh jonni o'limdan qutqarib qolganim uchun Tangrim mening gunohlarimni, ozgina bo'lsa-da, kechirar, deb umid qilaman?

Valentina o'zida yo'q quvonib, Monte-Kristoning qo'lini o'pdi.

– Ha, mendan minnatdor bo'lingiz! – dedi graf. – Hech tinmay: «Siz bizga baxt ato etdingiz!» deb qaytaravering! Men bunga ishonch hosil qilmog'im kerak, ishonch!

– Men sizdan chin yurakdan minnatdorman, – dedi Valentina, – agar mening bu so'zlarimning samimiyligiga ishonmayotgan bo'lsangiz, Gaydedan so'rang. Hozirgi baxtli damlarni siz Fransiyadan jo'nab ketgandan beri sabr qilib kutishda mening jondan aziz singlim Gaydening

sizning haqingizdagi hikoyalari dalda berib keldi menga.

– Siz Gaydeni yaxshi ko’rasizmi? – so’radi Monte-Kristo hayajonlanib ketganini bildirmaslikka urinib.

– Jon-dilim bilan!

– Mening sizdan, Valentina, – dedi graf, – bir iltimosim bor.

– Mendan-a?! Nihotki men shunday baxtga muyassar bo’lsam?

– Ha, sizdan. Siz Gaydeni singlim deb atadingiz; mayli, Valentina, u sizga haqiqiy singil bo’lib qolsin. Meni qanchalik taqdirlamoqchi, izzat-hurmat qilmoqchi bo’lsangiz, uni ham shunchalik taqdirlang, izzat qiling. Uni ikkingiz o’z himoyangizga oling, chunki uning (graf zo’rg’a tovush chiqardi) endi dunyoda hech kimi qolmadi...

– Yolg’iz qoldi? – takrorladi grafning orqasidan ovoz. – Nega?

Graf orqasiga qaradi, qarshisida qo’rqqanidan rangi dokaday oqarib ketgan Gayde turardi.

– Ertadan boshlab sen ozodsan, qizim, – dedi graf, – ixtiyoring butunlay o’zingda bo’ladi, mening taqdirim sening istiqbolingga raxna solishini istamaydi. Buyuk poshoning qizi, men senga boylikni va otangning ulug’ nomini qaytarib beraman.

Gayde, battar oqarib ketdi, o’zini ikki qo’llab Xudoga topshirayotgan qizga o’xshab nafis qo’llarini baland ko’tardi-da, o’pkasi to’lib so’radi:

– Hukmdorim, siz meni tashlab ketyapsizmi hali?

– Gayde, sen yoshsan, go’zalsan, kel mening o’zimni ham, ismimni ham yodingdan tamom chiqarib yubor-da, baxtingni top.

– Xo’p bo’ladi, – dedi Gayde, – sizning buyrug’ingizni bajo keltiraman, hukmdorim: o’zingizni ham, ismingizni ham yodimdan chiqaraman.

Shunday dedi-da, Gayde eshik tomonga qarab yurdi.

– Oh, Tangrim, – qichqirdi Valentina Morrelning osilib tushgan boshini tutib, – axir ko’rmayapsizmi, sho’rlik qiz

murda bo'lib qoldi-ku, nahotki yuragi qonga to'layotganini anglamasangiz?

– U nega meni anglasin? Koshki bunga arziydigan odam bo'lsam men, – dedi yuragi tilka-pora bo'lib Gayde. – U hukmdor, men bo'lsam, bir sho'rlik asiraman, ko'rib turib o'zlarini ko'rmaslikka olishga ham u kishi haqli.

Bu so'zlar grafning yuragini teshib o'tib ketdi, graf Gaydening yonib turgan ko'zlariga uzoq qarab turolmadi.

– Yo, alhazar! – dedi Monte-Kristo. – O'zing meni shubhaga solib yurgan eding, demak, bu haqiqat ekan-da? Demak, Gayde, sen mendan ajralishni istamas ekansanda?

– Yoshman, – dedi ma'yus Gayde, – menga o'zingiz ato etgan hozirgi shirin hayotimni sevaman, juvonmarg bo'lishni istamayman.

– Gayde, bordi-yu, men seni tashlab ketsam...

– U holda men hayot bilan vidolashaman, hukmdorim!..

– Sen meni sevasanmi?

– Ularni qarang-a! Meni sevasanmi, deb savol beryaptilar menga! Valentina, siz Maksimilianni sevasizmi, aytin, bu janobga!

Grafning yuragi siqildi: u qizga qo'lini uzatdi, Gayde qichqirib uning quchog'iga otildi.

– Ha, men sevaman sizni, sevaman! Ham otam, ham akam, ham erim, deb sevaman! Yashashni qanchalik sevaman, sizni ham shunchalik sevaman. Men uchun siz dunyoda eng go'zal, eng a'lo, eng ulug' insonsiz! Men sizni ilohiy muhabbat bilan sevaman!

– Xo'p, niyatingga et, farishtam, niyatingga et! – dedi graf. – Meni o'limdan xalos etib, dushmanlarim ustidan g'alaba qilishimga yo'l ochib bergan Tangrim oxiri bexayr bo'lishni istamas; men o'zimni jazoga mahkum etmoqchi edim, Tangrim esa gunohimdan o'tmoqchi bo'lyapti. Shunday ekan, sev meni, Gayde! Muhabbat hadya et menga, farishtam! Kim bilsin, ehtimol, sening

muhabbating unutib yuborishim kerak bo'lgan narsalar-ni unutishga ko'mak berar.

– Nima deyapsiz o'zingiz, hukmdorim? – so'radi qiz.

– Gayde, demoqchimanki, sening bitta so'zing yigirma yildan buyon orttirgan aql-idrokimdan ko'proq saboq bo'ldi menga. Dunyoda mening sendan boshqa hech kimim qolmadi. Sen, faqat sen, menga yashash istagini baxsh etyapsan, baxtim ham, quvonchim ham, dard-alamim ham sensan mening, ha, faqat o'zingsan!

– Eshitdingizmi, Valentina, bularning gapini, – dedi xitob-la Gayde, – men bularni go'yo dard-alamga duchor etarmishman; axir men bu odamga jonimni berishga ham tayyormanu!

Graf chuqur o'yga cho'mdi.

– Nahotki, taqdir deganlari shu bo'lsa? – dedi u oxiri. – Tangrim, o'zing shohidsan: nima bo'lsa bo'lsin, men bu taqdirni qabul etdim. Ketdik, Gayde, ketdik...

Graf shunday dedi-da, Valentina bilan qo'l berib xayrlashdi va Gaydening xipcha belidan quchoqlab chiqib ketdi.

Shundan keyin bir soat vaqt o'tdi, Valentina nafasini chiqarmay Morrelga tikilib o'tirardi. Shu payt qiz Maksimilianning yuragi urganini sezdi, og'zini zo'rg'a ochib yotgan yigit bilinar-bilinmas nafas oldi, uning vujudi asta titradi, bu tiriklik nishonasi edi.

Nihoyat, u ko'zini ochdi, ammo ko'zlari qimirlamas, hech narsani ko'rmas edi, saldan keyin ko'zlari aniq ko'ra boshladi, hushiga keldi-yu, yana qayg'uga cho'mdi.

– Hamon tirikmanmi? – dedi u fig'on urib. – Graf meni aldabdi-da!

U shiddat bilan stol ustidagi pichoqqa yopishdi.

– Azim, – dedi Valentina maftunkor tabassum-la, – ko'zingizni kattaroq ochib, menga qarang.

Morrel qattiq qichqirib yubordi va ko'zlariga ishonmay, allanima dedi-da, quyosh nuri ko'zini qamashtirib yubor-gandek, boshini quyi solib cho'kkalab qoldi...



Ertasiga tong yorishganda Morrel bilan Valentina g'orning ochiq qolgan eshigidan tashqariga chiqdi, qo'ltiqlashib dengiz sohilida sayr etishdi. Valentina shu orada Morrelga barcha voqealarni – Monte-Kristo uning xonasiga qanday kirib kelganini, hamma sirlarni ochib tashlaganini, jinoyat yuz berganiga inontirganini, nihoyat, hamma uni o'ldiga chiqarganda, ajal sirtmog'idan qutqarib olinganini hikoya qilib berdi.

Lojuvard osmonda hamon so'nggi yulduzlar miltillab turardi.

Shu payt Morrel qoyalar ko'lankasida yaqin kelishga ruxsat so'rayotganday bo'lib turgan kishini ko'rib qoldi, u Valentinaga imo qildi.

– Bu Jakopo-ku, – dedi qiz, – kema kapitani. Valentina Jakoponi chaqirdi.

– Bizga biror gapingiz bormidi? – so'radi Morrel.

– Grafdan xat keltirgan edim sizga.

– Grafdan? – so'radi ikkisi baravariga.

– Ha, grafdan, mana o'qing.

Morrel xatni ochib o'qidi:

*«Azizim Maksimilian!*

*Sohilda sizni bir elkan kutadi. Shu kemada Jakopo sizni Livornoga olib boradi. U erda o'z sevimli nevarasiga fotiha berish uchun janob Nuarte sizga intizor bo'lib o'tiribdi. Siz Valentina bilan o'sha erda mehrobga borib nikohdan o'tasiz. Mana shu g'ordagi butun boylik, Elisey Maydonidagi hovlim va shahar cheti Trepordagi koshonam – shularning barisi Edmon Dantesdan xo'jayinining o'g'li Morrelga to'yona. Ishonamanki, mademuazel de Vilfor ana shu sovg'aning yarmini qabul qilar; Valentinadan otasi aqldan ozgandan so'ng va o'gay onasi bilan ukasi shu yil sentyabr oyida dunyodan o'tgandan so'ng meros bo'lib qolgan butun mol-mulkini Parij kambag'allariga hadya qilishini o'tinib so'rayman.*

*Bundan keyin sizni har qanday falokatlardan qo'riq-*

*lab boruvchi farishtadan o'z ibodatlarida bir kishini, ya'ni iblisga o'xshab, o'zini Xudo deb gerdayib yurgan, biroq pirovardida butun kuch-qudrat va yuksak donolik yagona Tangrining o'z qo'lida ekanini anglagan zotni ham unutmaslikni iltimos qiling, Morrel. Uning ibodatlari, ehtimol, gunohlarimni engillashtirar.*

*Morrel, sizni bunchalik azobga solib, sinovdan o'tkazganimning sababini endi ochiq aytay: bu foniy dunyoda baxt ham, baxtsizlik ham yo'q, unisiga ham, bunisiga ham nisbiy erishiladi. Haddan tashqari baxtsizlikni boshidan kechirgan kishigina oxiri benihoya baxtga, cheksiz huzurhalovatga musharraf bo'ladi. Shu vajdan, Maksimilian, hayot naqadar lazzatli ekanini anglash uchun ajal girdobiga o'zingni bir tashlab olmog'ing kerak.*

*Yashang, baxtingiz hamisha yor bo'lsin sizga, mening mehrigiyo farzandlarim! Unutmangki, Tangrim inson oldida kelajakning pardasini tortib qo'yadigan kungacha butun insoniyatning aql-idroki quyidagi ikki og'iz so'zda mujassamlashgan:*

*Kutmoq va umid qilmoq kerak.*

*Do'stingiz Edmon Dantes – Graf Monte-Kristo».*

Otasi aqldan ozganligini va ukasi vafot etganligini birinchi marta eshitib turgan Valentinaning rangi o'chdi, og'ir uh tortdi-da, yig'lab yubordi. Baxt unga juda qimmatga tushdi.

Morrel tashvishlanib atrofga alangladi.

– Ochig'ini aytsam, graf o'ta saxiylik qilibdi-da, – dedi u. – Mening mol-mulkim bizga etadi. Qani graf? Do'stim, iltimos qilaman sizdan, meni uning huzuriga olib boring. Jakopo qo'li bilan ufqni ko'rsatdi.

– Bu bilan nima demoqchisiz? – so'radi Valentina. – Qani graf? Gayde qayerda?

– Huv anavi yoqqa qarang, – dedi Jakopo.

Ular dengizchi qo'lini uzatgan tomonga qarashdi. Uzoq ufqda osmonni dengizdan ayirib turgan to'q ko'k chiziq ustida baliqchi qush qanotiday oq elkan ko'rindi.

– Ketibdi, – dedi Morrel. – Alvigo, do’stim! Alvigo, otam!  
– Ketibdi-da! – dedi shivirlab Valentina. – Alvigo, Gayde!  
Alvigo, singlim!

– Kim bilsin, bundan keyin diydor ko’rishamizmi, yo’qmi? – dedi Morrel ko’z yoshini artib.

– Azizim, – dedi Valentina, – grafning bizga aytgan so’zlari yodingizdami: inson aql-idroki quyidagi ikki og’iz so’zda mujassamlashgan:

Kutmoq va umid qilmoq kerak.

## MUNDARIJA

### TO'RTINCHI QISM

I. Janob Nuarte de Vilfor .....	4
II. Vasiyatnoma .....	13
III. Telegraf .....	22
IV. Bog'bonning shaftolilarga qiron keltiradigan qurtdan xalos qilish usuli .....	33
V. Sharpalar .....	44
VI. Ziyofat .....	54
VII. Tilanchi .....	66
VIII. Oilaviy mojaro .....	76
IX. Nikoh rejalari .....	87
X. Qirollik prokurorining kabineti .....	99
XI. Taklif .....	112
XII. Qidiruv .....	122
XIII. Yozgi ziyofat .....	133
XIV. Non va tuz .....	143
XV. Markiza de Sen-Meran .....	148
XVI. Va'da .....	161
XVII. Vilfor xonadonining xilxonasi .....	192
XVIII. Protokol.....	202
XIX. O'g'il Kavalkantining omadi .....	215
XX. Gayde .....	227

### BESHINCHI QISM

I. Yaninadan kelgan maktublar .....	252
II. Limonad .....	272
III. Aybnoma .....	284
IV. Novvoy oromgohi .....	291
V. Qulfbuzar .....	311
VI. Xudoning qahri .....	326
VII. Boshan .....	333
VIII. Sayohat .....	341
IX. Sud .....	354
X. Da'vat .....	369
XI. Haqorat .....	376
XII. Tun .....	388
XIII. Duel .....	397

XIV. Ona va o'g'il .....	411
XV. Jondan kechish .....	418
XVI. Valentina .....	428
XVII. Iqror .....	436
XVIII. Bankir va uning qizi .....	449
XIX. Nikoh shartnomasi .....	459
XX. Belgiya yo'lida .....	471

#### OLTINCHI QISM

I. «Qo'ng'iroq va butilka» mehmonxonasi .....	480
II. Qonun .....	492
III. Sharpa .....	504
IV. Lokusta .....	511
V. Valentina .....	517
VI. Maksimilian .....	523
VII. Danglarning imzosi .....	533
VIII. Per-Lashez qabristoni .....	545
IX. Taqsimot .....	559
X. Arslon g'ori .....	577
XI. Sudya .....	585
XII. Sessiya .....	596
XIII. Aybnoma .....	603
XIV. Gunohni yuvish .....	611
XV. Qaytish .....	620
XVI. O'tmish .....	635
XVII. Peppino .....	650
XVIII. Luidji Vampaning preyskuranti .....	662
XIX. Afv .....	670
XX. Beshinchi oktyabr .....	676

*Adabiy-badiiy nashr*

ALEKSANDR DYUMA

**GRAF MONTE-KRISTO**

Ikkinchi nashr

Muharrir

Feruza QUVONOVA

Texnik muharrir

Vera DEMChENKO

Musahhih

Navro'z BEKMURODOV

Badiiy muharrir

Uyg'un SOLIHOV

Sahifalovchi

Feruza BOTIROVA

Bosishga 12.02.2013y.da ruxsat etildi.  
Bichimi 84x108 1\32.  
Bosma tobog'i 21,75. Shartli bosma tobog'i 36,54.  
Garnitura «Benguiat Cyr+Uzb». Gazeta qog'ozi.  
Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 43.  
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» nashriyotida tayyorlandi.  
Lisenzia raqami: AI №198, 2011 yil 28.08 da berilgan.  
«SHAMS-ASA» bosmaxonasida bosildi.  
Toshkent, Bunyodkor shoh ko'chasi, 28-uy.  
«Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida muqovalandi.  
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

***Murojaat uchun telefonlar:***

Nashr bo'limi – 278-36-89; Marketing bo'limi – 128-78-43  
faks — 273-00-14; ye-mail: yangiasravlodi@mail.ru